O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

“FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”

respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

2022-yil 30-noyabr

Toshkent – 2022

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
YOSH FILOLOG OLIMLAR JAMIYATI

“FILOLOGIYA MASALALARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA”

respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari
2022-yil 30-noyabr

TOSHKENT
“Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi
2022

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2022.

Mas’ul muharrirlar:

Sh.Sirojiddinov, f.f.d., professor, ToshDO‘TAU rektori;
N.Jo‘raqo‘ziyev, f.f.n. dotsent, ToshDO‘TAU prorektori v.v.b.
D.Najimova, Yosh filolog olimlar jamiyati raisi

To‘plab nashrga tayyorlovchi:

Abdullajonova Madina, Bozorqulova O‘g‘iloy, Xudoynazarova Nodira, Suyunova Malika, Qayumberdiyeva Nurjahon, Saydullayeva Aziza, Ruzmetov Shahzod, Shokir Tursunov, Mohiyaxon Uzoqova

Tahrir hay’ati:

f.f.d. D. Xoldorov, p.f.d. U. Rasulova, dots.T. Matyoqubova, f.f.n I.Ismoilov f.f.d. S.Umarova, dots.D.Jumashev, prof, M.Hakimova, f.f.n. A. Turdialiyev, f.f.n. U. Qodirov, f.f.n I. Islomov, dots. K.Hamroyev, f.f.n. M. Asadov, M. Norqulova

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Yosh filolog olimlar jamiyati tomonidan tashkil etilgan “Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” nomli an’anaviy respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.Anjuman materiallari 8 ta sho‘baga bo‘lingan bo‘lib, ular quyidagilardir:

-Tilshunoslik va tarjimashunoslik masalalari;
- O‘zbek tili tarixi va dialektologiya muammolari;
- Qiyosiy adabiyotshunoslik va jahon adabiyoti muammolari;
- Zamonaviy adabiy jarayon (nasr)
- Zamonaviy o‘zbek she’riyati masalalari
- Folklorshunoslik
-O‘zbek mumtoz adabiyoti muammolari, matnshunoslik, manbashunoslik
-O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi

To‘plam materiallaridan filologiya ilmiga qiziquvchi barcha foydalanishi mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldir)

©Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU, 2022
©Yosh filolog olimlar jamiyati, 2022
© “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2022

I BOB

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI

QO‘RQUVNING NOMINATSIYAGA TA’SIRI

Aliyeva Mahinabonu Amirqul qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs
baliyeva383@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ibtidoiy davrdan boshlab bugungi kunga qadar insonlarda qo‘rquv uyg‘otadigan turli xil zararli kuchlar, ofatli kasalliklar, yirtqich hayvonlarning, shuningdek, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlarning nominatsiyaga ta'siri va ushbu ta'sir natijasida qo‘llash taqiqlangan, man etilgan so‘zlar – tabular, hamda evfemizlar haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar*: qo‘rquv, tabu, Polineziya, J. Kuk, ta’qiqlash tizimi, kasalliklar, ofatlar, yirtqich hayvonlar, ijtimoiy-siyosiy vaziyatlar, siyosiy tushunchalar evfemikasi, ismlarga nisbatan tabulashtirish, evfemizmlar.*

Abstract: *In this article, from primitive times to the present day, various harmful forces, catastrophic diseases, monsters, as well as socio-political situations, which cause fear in people, and the influence of this influence on the nomination, and as a result of this influence, it is prohibited to use, ban it is about taboo words and euphemisms.*

Keywords: *fear, taboo, Polynesia, J. Cook, prohibition system, diseases, disasters, monsters, socio-political situations, euphemism of political concepts, taboo against names, euphemisms.*

Inson zoti boshqa mavjudotlardan tilining, ongining, his-tuyg‘ularining mavjudligi bilan farq qiladi. Hali endi inson yaratilganda, ibtidoiy davrda, inson tili, ongi shakllanmasdan turib, turli xil tabiatning ofatli hodisalariga, xavf-xatarlariga uchraydi. Va albatta, ushbu hodisalar, xavf-xatarlarga nisbatan ularda qo‘quv hissi uyg‘onadi. Qo‘rquv hissi odam o‘zining xotirjamligi va biologik yoki ijtimoiy mavjudligi uchun xavfli deb hisoblangan vaziyatda bo‘lganda paydo bo‘ladi va u o‘zini o‘zi himoya qilish uchun signaldir. Shu bilan birga barcha inson zotiga xos va tabiiy bo‘lgan tuyg‘u. Tabiiyki, inson qo‘rqqan narsa-havodislardan uzoqroq turish, ularni tilga olmaslikka harakat qiladi. Ushbu xavf-xatarlardan saqlanishning yagona chorasi ularning nomini aytishni man etish, atamaslik deb tushunishgan. Ana shu jarayonda tabular yuzaga keladi. Tabular va evfemik so‘zlar

haqida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar, maqola va monografiyalar yozganlar. A. Omon- turdiyevning "Professional nutq evfemikasi" monografiyasida, asosan, Surxondaryo va Qashqadaryo vohalari chorvador tog‘ qishloqlari aholisi nutqi evfemikasi asos qilib olingan bo‘lib, tabu va evfemizm hodisalarining nazariy asoslari yoritib berilgan. N. Jo‘rayeva "Zamonaviy fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu hodisalari haqidagi nazariy qarashlar" nomli maqolasida fransuz tilshunosligida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi so‘zlar – tabu va evfemizmlarning shakllanish tarixi, ularning turli ijtimoiy muhitlarda o‘ziga xos uslubda qo‘llanganligi, turlarga ajratilganligi to‘g‘risida fikr yuritadi. S. Jo‘raxonova urf-odat ifodalovchi so‘zlarning ifoda xususiyatlari, urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlarning ifodalanishi haqida fikr bildirgan. N. Jo‘rayeva "Evfemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari" nomli boshqa bir maqolasida esa tilshunoslikda tabu va evfemizmning ahamiyati, xalqning ijtimoiy hayoti, milliy urf-odatlari bilan bog‘liq holda mavjud bo‘lishi, bu ikki tushuncha madaniy va til manbalaridan tarkib topgan etnolingvistik atamalar ekanligi haqida aytib o‘tgan. Ushbu maqolada esa qo‘rquv natijasida, qo‘rquvning nominatsigaya ta'siri natijasida tabular yuzaga kelishini misollar orqali ko‘rib chiqamiz. Tabu polinezcha “taqiqlash” deganidir. Ijtimoiy jamiyat bosqichidagi xalqlarda taqiqlash tizimi. Tabuning eng mukammal ko‘rinishi Polineziyada saqlangan. Bu so‘z aslida Polineziyada paydo bo‘lib, dastlab mashhur ingliz dengiz sayyohi J. Kuk tomonidan Yevropada ma’lum qilingan va bayon etib berilgan. Tilshunoslikda, jamiyatda tabu so‘zlar turli sabablarga ko‘ra nutqda ishlatishga tavsiya etilmaydigan so‘z va iboralardir. Tabu so‘z o‘rniga boshqa so‘zlar – evfemizmlar ishlatiladi. Evfemizmlar haqida J. Vandries shunday fikr bildiradi: “Evfemizm – bu man etilgan lug‘atning muloyimroq va madaniyroq formasi”.

Boshqa tillar singari, o‘zbek tilida ham bunday so‘zlar ko‘pchilikni tashkil etadi. Masalan, o‘zbek tilida “o‘ldi”, “o‘lgan” so‘zlari tabu bo‘lib, ularning o‘rnida ”olamdan o‘tdi”, “rahmatli”, “marhum”, “vafot etdi”, “tuproqqa topshirdi”, ingliz tilida shu ma’noda “the late”, “the departed”, rus tilida esa, “покойный”, “усопший” kabi evfemizmlar qo‘llaniladi. Maxtumquli esa qabr tushunchasiga

nisbatan “U nimadir? Darvozasiz binodir” birikmasini qo‘llaydi. Bugungi nutqimizda ham, xususan, O‘zbekiston Respublikasining Mustaqilligi munosabati bilan bog‘liq siyosiy tushunchalar bilan bog‘liq siyosiy tushunchalar evfemikasi shakklandi. Lavozimlarda o‘rnashib olgan bir necha shaxslar mamlakat bo‘ylab esgan shabadani…mavsumiy bir gap deb bildilar (S. Ahmad “Jimjitlik” 7-b). Bu gapda *toza shabada* mustaqillik va g‘alaba tushunchalaridir. Bundan tashqari, o‘zbek tilida juda faol qo‘llanilgan ko‘pgina siyosiy voqelik va tushunchalar siyosiy mafkuraviy ehtiyoj talabiga ko‘ra, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmaydigan bo‘ldi – tabulashtirildi. Shu bilan bog‘liq Sovet Ittifoqi, SSSR o‘rnida Sobiq Bepoyon mamalakat, qizil imperiya, “Sovuq o‘lka”, qo‘rquv saltanati kabi vositalar qo‘llana boshlandi: Sovuq mamlakatdan kelganlar madaniy merosimizni olib ketdilar (S. Ahmad “Jimjitlik” 105-b). Bu holda butun boshli “sovuq o‘lka”larni ayblash insofdanmi? (O‘.Hoshimov “Notanish orol” 80-b). Moskva tushunchasi esa markaz, yuqori, tepa evfemalari bilan ifodalana boshlangan: Taqdir taqozosi bilan kitoblarimiz tepaga tashib ketilgan (Cho‘lpon “ Kecha va kunduz” 209-b). Tepadan buyruq bor (S. Ahmad “Jimjitlik”89-b). Shokir ota qizning yukli ekanligini eshitib, Xudo oq yo‘l bersin,–dedi (G‘. G‘. 5-t 86-b). Yuzingda dog‘ ko‘rdim muborak bo‘lsin (A. Q. 3-t 326-b). Bu gaplarda *yukli, yuzidagi dog‘* homilador so‘ziga nisbatan aytilgan. Bizning o‘zbek mentalitetimizda o‘lim, tug‘ilish bilan bog‘liq bunday so‘zlar etika-estetika tufayli, bizga to‘g‘ri kelmasligi tufayli yumshoqroq muqobil varianti – evfemik vositasiga almashtiriladi. Shevalarda, xususan, Surxondaryo viloyati Boysun tumanida og‘ir, o‘limgacha olib boruvchi kasalliklarga nisbatan – qora, ganda; gepatit kasaliga nisbatan – zafaron, sariq kasal kabilar qo‘llanadi. Ilonga nisbatan – dumdaroz, tugma; chayonga nisbatan – gajak, eshak, benom, gazanda va boshqa nomlar ishlatilgan.

Bizning tilimizda ismlarga nisbatan tabular teng tarqalgan, ismlarga nisbatan tabulashtirishni ko‘rib chiqsak:

1. Ko‘p farzandini yo‘qotib keyingilarni himoya qilish, ularni asrab, yashatish maqsadida: O‘lmas, Istoda, Xudoyor, Toshtemir, Tursun, To‘xtasin kabi ismlar qo‘yiladi.

2. Tug‘ilgan chaqaloqda tug‘ma xol, norlar ko‘payib ketmasligi uchun: Anora, Norxol, Xolida, Xolniso, Donaxol ismlari qo‘yiladi.

3. Ketma-ket qiz farzand ko‘rib, o‘g‘il kutayotgan ota-onalar kenja qiziga O‘g‘iloy, Uldonoy, Qizlarbas ismlari qo‘yiladi.

Tabular ishlatilishiga turkiy bo‘lmagan, asosan, G‘arb aholisi nisbatan salbiy qarashadi. Ularning fikricha, tabular – inson o‘ziga o‘zi yolg‘on gapirishi, yolg‘on ortiga berkinishi. Ular hayotga real qarashni, haqiqatlar bilan yuzlashishni to‘g‘ri deb biladilar va bir-birlari bilan ochiq muloqot qilishni afzal ko‘radilar. Bizning mentalitetimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz, muloqot madaniyatimiz esa so‘zlarni tabulashtirishni rad etmaydi. Bir inson shifoxonaga betob yaqinini ko‘rgani borganda uning ahvoli qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, – ahvolingiz yaxshi, ancha yaxshi ko‘rinyapsiz, tuzalib ketasiz, – deb uning ko‘nglini ko‘taradi. Bunday vaziyatga real qarab, erta o‘lasiz, ahvolingiz og‘ir deb aytish nafaqat, mentalitet yoki dinga, balki, insoniylikka ham, etika-estetikaga ham to‘g'ri kelmaydi. Albatta, bu kabi qog‘ozga o‘ralgan, emotsional-expressiv so‘zlarga har doim ehtiyoj sezamiz. Faqat insoniylik, din talabi uchun emas, balki tilshunoslik uchun ham evfemik so‘zlar, so‘zlarni tabulashtirish ahamiyatli. Chunki, ular o‘z tilimiz rivoji, boyligi va imkoniyatlaridan darak beradi.

Xulosa qilib aytganimizda, qo‘rquv xoh tabiat hodisalari tufayli, xoh kasalliklar sababli, xoh iftimoiy-siyosiy vaziyatlar tufayli bo‘lsin, albatta, uning nominatsiyaga ta'siri bo‘ladi va ular turlicha ifodalanadi. Bu esa tilshunoslarning yelkasiga yana bir mas’uliyatli vazifa yuklaydi. Ularni tadqiq qilish, ma’no nozikliklarini kashf etish va ommaga bu topilmalarni taqdim qilish tilshunosligimiz rivoji uchun ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.J. Omonturdiyev (2006) Professional nutq evfemikasi Toshkent: Fan
2. M.T. Irisqulov (2009) Tilshunoslikka kirish Toshkent: Yangi asr avlodi
3. N.Sh. Jo‘rayeva (2021) Efemizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari
4. N.Sh. Jo‘rayeva (2020) Zamonaviy fransuz tilshunosligida evfemizm va tabu hodisalari to‘g‘risidagi nazariy qarashlar

ABDULLA QODIRIYNING TARJIMONLIK MAHORATI (N.V.GOGOLNING "UYLANISH" KOMEDIYASI TARJIMASI MISOLIDA)

Axmadov Dostonbek Xasanboy o'g'li,
ToshDO'TAU Tarjima nazariyasi va amaliyoti 1-kurs
axmadovdostonbek01@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rus yozuvchisi Nikolay Gogolning "Uylanish" pyesasi XX asr 30-yillarida Abdulla Qodiriy tomonidan amalga oshirilgan tarjimasi tahlilga tortilgan. Qodiriyning so'z tanlash mahorati hamda Gogolning badiiy niyatini qay darajada anglagani taqqoslar asosida o'rganilgan. Mazkur komediyaning Abdulla Qahhor tomonidan qilingan tarjimasi Qodiriy tarjimasi bilan qiyosiy jihatdan solishtirilgan.*

Kalit so'zlar: *komediya, "individual til", qiyosiy obyekt, so'z o'yinlari, personaj.*

Abstract. *This article analyzes the translation of the Russian writer Nikolai Gogol's play "Marriage" by Abdulla Kadiri in the 30s of the 20th century. Kadiri's ability to choose words and the degree to which he understood Gogol's artistic intention were studied on the basis of comparisons. The translation of this comedy by Abdulla Kahhor is compared with Kadiri's translation.*

Keywords: *comedy, "individual language", comparative object, word games, character.*

1921-yilda mashhur kulgi ustasi Mirshohid Miroqilov tomonidan rus yozuvchisi va dramaturgi Nikolay Vasilyevich Gogolning "Uylanish" komediyasi sahnalashtiriladi. Lekin tadqiqotchilar fikricha, "Uylanish"ning bu varianti asliyatning faqat mazmuninigina aks ettirgandi xolos. Ushbu tarjimaning qoniqarsizligi tufayli teatr jamoasi tomonidan komediyani qayta tarjima qilish vazifasi yozuvchi Abdulla Qodiriyga topshiriladi. Qodiriy o'ziga yuklangan topshiriqni qoyilmaqom qilib bajaradi, pyesa ham iste'dodli aktyorlar tomonidan sahnalashtiriladi va anchagina muvaffaqiyatlar qozonadi. Asar tarjimasi va uning sahnalashtirilishi haqida o'z davrining matbuotida anchagina maqolalar paydo bo'ladi. (Husayn, 1935, 11-12-bet) Ushbu maqolalar orasida tarjimashunoslik fani uchun eng foydalisi munaqqid Sotti Husayn tomonidan yozilgan "Gogolning

“Uylanish” asari o‘zbek sahnasida” maqolasi bo‘lib, tarjimashunos olim, professor G‘aybulla Salomov Qodiriy tarjimasi haqida fikr bildirganda asarning bu tarjima varianti haqida biz faqat S.Husaynning ushbu maqolasidan xabardor bo‘lishimiz, tarjimaning nusxasi hozir yo‘qolib ketganini ta’kidlaydi.(Salomov, 1966, 66-68-bet) Lekin boshqa bir tarjimashunos olim Jumaniyoz Sharipov tomonidan Qodiriyning ushbu tarjima varianti topilib, 1972-yili chop etilgan “Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar” nomli monografiyasida “ilova” sifatida kiritiladi. (Sharipov, 1972, 225-bet)

Qodiriy tomonidan qilingan tarjimani asliyat bilan qiyoslab chiqilsa, mutarjimning “Uylanish” komediyasi tarjimasiga kirishishdan avval asardagi har bir jumla, obrazni sinchiklab o‘rganib chiqqani seziladi. Gogol yaratgan qahramonlar kulgili vaziyatga tushganlarida ham, o‘zgalar bilan suhbatlashish jarayonida bema’ni so‘zlarni aytayotganlarida ham o‘zlariga madaniyatli va aqlli odamlar sifatida qarashadi. Bevosita muallif uslubi bilan bog‘liq bo‘lgan asardagi bu kabi murakkab xususiyatlarni tarjimada – boshqa tilda bera olish nihoyatda murakkab jarayondir. Bunday vaziyatda tarjimonga o‘zbek xalq og‘zaki ijodini, maqol-matallarini, qochirim gaplarini yaxshi bilishi qo‘l kelgan. Abdulla Qodiriy N.V.Gogolning “Uylanish” komediyasi qahramonlari o‘zbek tilida qanday gaplashishlari lozim bo‘lsa, ana shunday holda tarjima qildi, deya bemalol ayta olamiz. Mutarjim tarjima davomida asar qahramonlari tiliga ham alohida ahamiyat berib, ularni o‘zlarining “tili”da (Qodiriy tilida emas!) so‘zlatadi. Komediyaning asl nusxasida qahramonlar qay yo‘sinda so‘zlasalar, o‘zbekcha variantida ham shunday uslubda gapiradilarki, shubhasiz, bu tarjimaning muvaffaqiyatidan darak beradi. Masalan, sovchi kampir Fekla Ivanovnaning saroy mushaveri Podkolesinga savdogar qizi Agafya Tixonovnani ta’rif qilayotgan epizodni olib ko‘raylik:

Фекла: “**Купца** третьей гильдии дочь. Да уж такая, что и генералу обиды не нанесет. О купце и слышать не хочет. “Мне, говорит,	Fekla: “Uchinchi gildi **ko‘pas**ning qizi. Biroq o‘zi generalga ham ozor bermaydi. Boylar to‘g‘risida gapirsang, eshitgisi ham kelmaydi.

какой бы ни был муж, хоть и собой-то невзрачен, да был бы **дворянин**”. Да, такой великатес!.. **Княгиня просто**!” (Гоголь, 1952, 220-стр.)	“Menga deydi”, afti qancha xunuk bo‘lsa ham o‘zi **bekbachcha** bo‘lsin», deydi. O‘zi juda ulug‘vor... Qisqasi **xon qizining xuddi o‘zi**!” (Gogol, 1940, 229-bet)

Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, tarjima asl nusxani aynan aks ettirishidan tashqari Fekla Ivanovnaning gapirish yo‘sini ham, tili ham o‘zbekcha variantiga aynan ko‘chgan, ya’ni pyesa qahramonining “individual tili” tarjimada qaytadan to‘la tiklangan. Tarjimon asl nusxaning har bir so‘ziga, jumlasiga, vergul, so‘roq, undov belgilariga, hatto intonatsiyasigacha ahamiyat berib o‘zbekchalashtiradi. Masalan, Podkolesinning xarakterini ochib beradigan epizodlar tarjimasiga alohida diqqat qilaylik. Gogol Podkolesinning xatti-harakatlari, yurish-turishi, fe’l-atvori, safsatabozligini uning o‘z tilidan yanada aniqroq ochib beradi:

“А ведь хлопотливая, **черт возьми**, вещь женитьба! То, да сё, да это. Чтобы то да это было исправно — нет, **чорт побери, это не так легко, как говорят.** Эй, Степан! (Степан входит.) Я хотел тебе еще сказать...” (Гоголь, 1952, 218-стр)	“Hoy shu uylanishning **dahmazasi qursin-da**. Hali unisi, hali bunisi degandek. Unisini tuzatsang, bunisi qolib boradi, bunisini bitirsang, yana boshqasi chiqib qoladi. Darvoqe, aytganlaricha, **sabil bu uylanish hazil gap emas.** Ey, Stepan (Stepan kiradi.) Senga aytadigan yana bir so‘zim bor.” (Gogol, 1940, 228-bet)

Darhaqiqat, Podkolesinning salbiy tomonlari (subutsizligi, mijg‘ovligi, dangasaligi), ichki tuyg‘ulari va ruhiyati uning Stepan, Kochkarev, Fekla Ivanovnalar bilan bo‘lgan suhbatlarida, Agafya Tixonovna bilan bo‘lgan uchrashuvda aniq namoyon bo‘ladi. Shu tariqa Gogol asar davomida Podkolesin xarakterining o‘ta murakkab jihatlarini mohirona ochib beradi. A.Qodiriyning tarjimonlik mahorati ham xuddi shu o‘rinda N.V.Gogolning uslubini, asar obraz personajlari xarakterini, ularning “o‘ziga xos tili”ni o‘zbek tilida qayta yarata

olganligida ko‘rinadi. Tarjimon “Uylanish” komediyasini so‘zma-so‘z tarjima qilmaydi. U tarjimaga ijodiy yondashib uning mazmuni va ruhini, asarning o‘ziga xos uslubini o‘zbek tilida to‘la berishga intiladi. Masalan, sovchi kampir Fekla Ivanovna o‘zi topgan “kuyov”larni “kelin”ga maqtab ta’riflayotgan epizodga ahamiyat beraylik:

Фекла: - “А славные все такие **хорошие, аккуратные**. Первый Балтазар Балтазарович Жевакин, такой славный, во флоте служил — как раз по тебе придется. Говорят, что ему нужно чтобы невеста была в теле, а поджаристых совсем не любить. А Иван-то Павлович, что служит езекухтаром, такой важный, **что и приступу нет**. Такой видный из себя, толстый, как закричит на меня: “Ты мне **не толкуй пустяков**, что невеста такая и эдакая, ты скажи напрямик, сколько за ней движимого и недвижимого?” — “Столько-то и сколько-то, отец, мой!”— “Ты врешь, **собачья дочь**." Да еще, мать моя, вклеил такое **словцо**, что и **неприлично тебе сказать**. Я так вмиг и спознала; э да это должен быть **важный господин**.” (Гоголь, 1952, 232-стр)	Fekla : - “Hammalari ham yaxshi, **so‘zga yetuk, va’daga vafolik, aqlga to‘la.** Birinchisi Baltazar Baltazarovich Jevakin. Shunday odamki, o‘zi flotda xizmat qilgan. Xuddi senga buyurtirilgandek, menga qavjiragan go‘shtdek xotin kerak emas, menim uchun badani to‘la xotin zarur deydi. Ivan Pavlovich bo‘lsa yezekuxtor bo‘lib ishlaydi. O‘zi shunday jiddiy odamki, **hech narigi yog‘i yo‘q**. O‘zi shunday to‘ladan kelganki, menga baqiradi: “Sen menga **mayda gaplarni so‘zlab bidirlama**, menga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, jonli moli qancha, jonsizi qancha, ana shundan gapir!” deydi: “ana undan muncha, mana mundan shuncha” deyman, “yolg‘on gapirma, **itdan tuqqan**” deydi. Ha, aytgancha yana shunday **so‘z**ni aytib yubordiki, u so‘zni senga **aytishdan ma’zurman**, ona qizim. Men bir ondayoq payqab oldimki, bu o‘zi juda ham **katta mansabli to‘ralardan** bo‘lsa kerak, deb” (Gogol, 1940, 235-bet)

Keltirilgan ayni misoldan bemalol sezish mumkinki, tarjimon so‘zlardan juda o‘rinli, asliyatga monand qilib foydalanadi, Qodiriy komediyaning so‘zma-so‘z tarjimasinigina emas, balki uning ruhini, maqsadini o‘zbek tilida qayta yarata olgan. Asl nusxa bilan tarjimada keltirilgan quyidagi jumlalarga diqqat qilaylik:

	“...что ему нужно, чтобы невеста была в теле, а поджаристых совсем не любит”	**“Menga qovjiragan go‘shtdek xotin kerak emas, menim uchun badani to‘la xotin zarur”**

	“Как раз по тебе придётся”	**“Xuddi senga buyurtirilgandek”**
	“Ты врешь, собачья дочь!”	**“Yolg‘on gapirma, itdan tuqqan”**
	“Ты мне не толкуй пустяков”	**“Sen menga mayda gaplarni so‘zlab bidirlama”**
.	**“Ты скажи напрямик, сколько за ней движимого и недвижимого?”**	**“Menga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, jonli moli qancha, jonsizi qancha, ana shundan gapir”**

Yozuvchi “Uylanish” tarjimasiga qo‘l urar ekan, asarning tilini, personajlarning o‘ziga xos so‘zlashuv usullarini ham asosiy diqqat markazida tutadi. Shuning uchun ham personajlar tili bir-biridan tubdan farq qiladi, ularning har biri “o‘z tillar”ida so‘zlaydilar. Asarning har bir obraz va personaji o‘z xarakteri, madaniyati darajasi, ayni vaqtda suhbat kim bilan va nima xususida ketayotganligiga qarab o‘ziga xos yo‘sinda so‘zlashishadi. Masalan, sovchi kampir Fekla Ivanovna og‘zaki nutqqa xos so‘zlardan, maqollardan faol foydalansa, saroy mushaveri Podkolosin - kamgap inson, gaplari ham biroz tushunarsiz. Jevakin va Anuchkin esa kibor toifaga xos gapiradilar, Arina Panteleymonovnaning nutqini esa asosan balandparvoz gaplar tashkil etadi.

A.Qodiriy Gogol qahramonlarining nutqiy o‘ziga xosligi pyesaning umumiy mazmuni va g‘oyasidan kelib chiqib yaratilganligini to‘g‘ri anglagan holda komediyani o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida undagi har bir so‘z va jumlani asarning umumiy g‘oyasidan, mazmunidan uzib olmasdan, asliyat matndagi o‘ziga xoslik va muallifning individual uslubini ham mukammal saqlab qola olgan. Qodiriy tarjimasidagi “Uylanish”ni asliyat bilan qiyoslab, sinchiklab tekshirsak, mutarjim komediyani XX asr 20-30-yillar adabiy tilida, o‘sha davr o‘sha davr o‘zbek kitobxoni va tomoshabini uchun tushunarli tilda tarjima qilganini sezamiz. Tarjimon arxaik so‘zlardan foydalangan holda Gogol davrini, ya’ni komediyada qalam olingan voqealarni, asar personajlari tilini aniq va yorqin aks ettira olgan. Masalan:

“А и сына, — говорит, — не отдам на **службу**. Что, — говорит, разве купец не служит государю так	“O‘g‘limni bo‘lsa **poshsholik xizmati**ga bermayman, ha, savdogar o‘zgalardek poshsholikka xizmat

же, как и всякий другой?” (Гоголь, 1952, 240-стр)	qilmaydimi, savdogarlikning o‘zi poshsholikka xizmat qilmaydimi, savdogarlikning o‘zi poshsholikka bir xizmat emasmi” der edi” (Gogol, 1940, 234-bet)

Tarjimon “poshsholik xizmati” jumlasi orqali voqealar sodir bo‘layotgan makon - chor Rusiyasi koloritini tarjimada aks ettira olgan. Qodiriy “Uylanish” komediyasini o‘zbek tiliga o‘girishda uning muallifi yashagan davrini, asardagi obraz va personajlarning xususiyatlarini, so‘zlash yo‘sinlarini hisobga olib va asar xususiyatlaridan kelib chiqib eskirgan va azaldan tilimizda ishlatilib kelinayotgan forsiy va arabiy o‘zlashma so‘zlardan juda mohirlik bilan foydalanib, komediya voqealari chor Rusiyasi davrida bo‘lib o‘tayotganligini yanada aniq va yorqin aks ettira olgan. Mutarjim “Uylanish” tarjimasida **“chirog‘im” (“мой свет”), “bu umr savdosi” (“дело житейское“), “mashavaxo‘r cho‘lchut” (“деревянный чурбан”), “dev chalsin seni” (“вон черт побери”)** kabi obrazli jumlalar yordamida asliyatda muallif ko‘rsatmoqchi bo‘lgan mazmunni aniq ifodalashga erishgan.

Yozuvchi Gogolning “Uylanish”ida so‘z o‘yinining birikmalar tarkibidagi obyektlarini ham aynan saqlagan holda o‘zbekcha variantida ham mahorat bilan qayta tiklay olgan. Gogol komediya personaji Ivan Pavlovichni o‘z tilidan gapirtirib, uning Яичница familiyasi asosida shunday so‘z o‘yini qiladi:

“Иван Павлович: Нет, кажется, вы не так поняли: это **фамилия моя: Яичница.** Жевакин (кланяясь): Ах, извините, я немножко туговат на ухо, в право, думаль что вы изволили сказать что покупали яичницу. Иван Павлович: Да что делать, я	“Ivan Pavlovich: Yo‘q, chamasi siz boshqacha tushundingiz. Mening laqabim **Quymoq** demoqchiman. Jevakin (bosh egib): Ey, kechiringiz, qulog‘im biroz og‘irroq. Men o‘ylabmanki, quymoq yedingizmi, deb so‘radingiz. Ivan Pavlovich: Bunga qolganda

хотел было уж просить генерала, чтобы позволил называться мне **Яичницын,** но свои отговорили: говорят, будет похоже не **собачий сын**” (Гоголь, 1952, 242-стр)	chorasizman, men generaldan **Quymoqi** deb oʻzgartirishga ruxsat soʻramoqchi boʻlgan edim, biroq oʻrtoqlarimga bu maslahat yoqmadi, yangi laqabing **boʻynoqi** deganga oʻxshab qoladi, dedilar” (Gogol, 1940, 240-bet)

Ushbu dialogdan koʻrinib turibdiki, Nikolay Gogol oʻz asari qahramonining familiyasi orqali ham kulguli bir vaziyatni keltirib chiqarmoqchi: **“Яичница - Яичницын – собачий сын”**. Abdulla Qodiriy tarjimon sifatida asliyatda qoʻllangan Gogolcha soʻz oʻyinini toʻgʻri anglab, ona tilimizning imkoniyatlaridan foydalanib, oʻzbekcha muqobil jumlalaryordamida juda aniq va chiroyli ifodalab bera olgan: **“Quymoq – Quymoqi – boʻynoqi”.**

1940-yili mazkur komediya taniqli yozuvchi Abdulla Qahhor tomonidan ham oʻzbekchalashtirilgan edi. A.Qahhor asarning yuqoridagi epizodini mana bunday tarjima qilgandi (Gogol, 1940, 26-bet):

Asliyatda:	**A.Qodiriy tarjimasida:**	**A.Qahhor tarjimasida:**
“Иван Павлович: Нет, кажется, вы не так поняли: это фамилия моя: **Яичница.** Жевакин (кланяясь): Ах, извините, я не-множко туговат на ухо, в право, думаль что вы изволили сказать что покупали яичницу. Иван Павлович: Да что	**tarjimasida:** “Ivan Pavlovich: Yoʻq, chamasi siz boshqacha tushundingiz. Mening laqabim **Quymoq** demoqchiman. Jevakin (bosh egib): Ey, kechiringiz, qulogʻim biroz ogʻirroq. Men oʻylabmanki, quymoq yedingizmi, deb	**tarjimasida:** “Ivan Pavlovich: Yoʻq, anglamadingiz shekilli. **Quymoqov** mening familiyam. Jevakin (ta’zim qilib): E, kechiringiz! Qulogʻim jindek ogʻirroq. Men “quymoq yedim dedilar” debman. Ivan Pavlovich: Qanday

делат, я хотел было уж просить генерала, чтобы позволил называться мне **Яичницын**, но свои отговорили: говорят, будет похоже не **собачий сын**" (Гоголь, 1952, 242-стр)	so‘radingiz. Ivan Pavlovich: Bunga qolganda chorasizman, men generaldan **Quymoqi** deb o‘zgartirishga ruxsat so‘ramoqchi bo‘lgan edim, biroq o‘rtoqlarimga bu maslahat yoqmadi, yangi laqabing **bo‘ynoqi** deganga o‘xshab qoladi, dedilar" (Gogol, 1940, 240-bet)	qilay! Generaldan familiyamni jinday o‘zgartirishga, **Quymoqchi** qilishga ruxsat so‘ragan edim, ko‘nmadilar: "**Itvachcha"**ga o‘xshab qoladi dedilar" (Gogol, 1940, 26-bet)

Asliyatda Ivan Pavlovich o‘z familiyasini o‘zgartirish uchun generaldan ruxsat so‘ramoqchi bo‘ladi. Abdulla Qahhor tarjimasida esa qahramon o‘z familiyasini o‘zgartirishni shaxsan generaldan so‘rab qo‘ya qoladi. Lekin Qodiriy ushbu vaziyatda asliyatni to‘g‘ri tushunib, to‘g‘ri tarjima qila olgan. A.Qahhordan farqli o‘laroq A.Qodiriy tarjimasida Gogolcha so‘z o‘yinining jozibasi saqlanib qolganki, bu, shubhasiz, tarjimon mahoratidan darak beradi **("Quymoq – Quymoqi – bo‘ynoqi").**

Gogol ulkan satirik yozuvchilik qobiliyati sohibi bo‘lganligidan o‘z asarlarida rus xalqining maqol-matal va iboralaridan unumli foydalanadi. Adib komediya obraz va personajlari nutqining jozibasini oshirish, shaxs xarakterining eng muhim va mayda xususiyatlarini yanada yorqinroq aks ettirish ham maqol-u matal va obrazli birikma-yu iboralardan keng foydalanadi. Mutarjim tarjima jarayonida asliyatdagi mavjud kesatiq, qochirim, ibora, maqol-matallarni o‘zbekcha muqobil variantlarini ustalik bilan topgan holda almashtiradi. Misol tariqasida, Fekla Ivanovna va Kochkarev janjallashayotgan epizodning tarjimasini olib ko‘raylik:

“Фекла: Ах, **бесстыдник какой**! Да ведь это не мужское дело. **Отпуститесь, батюшка, право**!” (Гоголь, 1952, 224-стр)	“Fekla: Ey **benomus, noinsof**! Axir, bu erkak kishining ishi emas-ku, **xudodan qo‘rqib, bandadan uyalmaysanmi**?” (Gogol, 1940, 241-bet)

Agar tarjimon Feklaning gaplarini so‘zma-so‘z, sodda usulda tarjima qilganida sovchi kampirning o‘ziga xos tili, gapirish usuli aniq aks etmagan bo‘lardi. A.Qodiriy Gogolning “Uylanish” komediyasining personajlari bo‘lmish Fekla Ivanovna, Anuchkin, Aripa Panteleymonovna, Jevakinlar tilidan aytilgan, bevosita rus hayoti va rus urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan maqol, matallarni, iboralarni aynan so‘zma-so‘z tarjima qilib berganda, o‘zbek kitobxoni uchun tushunarsiz va g‘aliz jumlalar paydo bo‘lardi, asarning umumiy g‘oya va mazmuniga ham putur yetgan bo‘lardi. Har ikki (o‘zbek va rus) xalq hayotini, urf-odatlarini yaxshi bilgan Qodiriy-tarjimon ruscha maqol-matal, kesatiq-qochiriq, iboralarning aynan Gogol nazarda tutmoqchi bo‘lgan ma’nosini aks ettiradigan o‘zbek tilidagi muqobil variantlarini topib ishlatadi. Mutarjim “Uylanish”da ishlatilgan maqol-matallarni o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida ularning obrazliligini, asl nusxaga xos ixchamligini to‘liq saqlab qolishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan: Kochkarev dallol kampir Fekla Ivanovnaga Agafya Tixonovna uyiga yig‘ilgan “kuyov”larni ko‘rsatib, ushbu maqoldan foydalanadi:

“Кочкарев (ей): **Гости-то несчитанные, кафтаны общипанные**.” (Гоголь, 1952, 225-стр)	“Kochkarev (Feklaga): **Bemaza qovunning urug‘i ko‘p, quv kampirning tovug‘i ko‘p**.” (Gogol, 1940, 240-bet)

Ko‘rinib turibdiki, tarjimon ushbu vaziyatda Gogol qahramoni tilidan ishlatayotgan maqolning asliyatda bajarayotgan vazifasini to‘g‘ri anglagan holda uning eng mukammal ekvivalentini yarata olgan. Qodiriy ushbu vaziyatda ishlatgan bu maqol Gogol uslubi va komediyaning umumiy mazmunini aniq aks ettira oladi.

“Uylanish” komediyasining ushbu tarjimasida ishlatilgan **“qirchiningdan qiyilgur”, “xudo ko‘tarsin”, “labingga uchuq chiqqan edi”, “to‘ng‘iz qo‘pgur”, “itdan tuqqan”, “yer yutgur”, “tuyog‘ingni shiqillat”, “og‘zidagi oshini tortib olmoqchi”, “og‘zingdagi oshni ham icholmaysan”** kabi faqat o‘zbekka xos bo‘lgan ibora va obrazli birikmalarni Qodiriy topib ishlatadi. Shuning uchun ham tarjima nihoyatda sifatli chiqqan. “Uylanish” komediyasi tarjimasi xuddi o‘zbek tilida yozilgan original asardek o‘qiladi, uning tarjima ekanligi mutlaqo sezilmay-di. ”Uylanish”ning ushbu tarjimasida aytarli katta kamchiliklar yo‘q. To‘g‘ri, Qodiriy **“халат”**ni – **“to‘n”**, **“черт бери”**ni – **“dev olsin”**, **“переулок”**ni – **“mahalla”**, **“Песках”**ni – **“Qumloq”**, **“Шестилавочный”**ni – **“Olti do‘kon”** ko‘rinishida o‘zbek tiliga o‘giradi.(Sultanova, 2022, 46-48-bet) Bizning nazarimizda, tarjimon 30-yillar tomoshabin va kitobxonlarini hisobga olib, ular tushunishi oson bo‘lishi uchun shu shaklda tarjima qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Gogol “Uylanish” komediyasining XX asr 30-yillari yozuvchi Abdulla Qodiriy tomonidan o‘zbekchalashtirilgan nusxasi o‘zining asliyatga har jihatdan mos kelishi, so‘zlarning qisqa, o‘z o‘rnida ishlatilishi, uslubi jihatidan o‘z davri tarjimalaridan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Husayn, S. (1935) *Gogolning “Uylanish” asari o‘zbek sahnasida*. – Toshkent: Sovet adabiyoti va san’ati jurnali – 11-12-b.

2. Salomov, G‘. (1966) *Til va tarjima (badiiy tarjimaning umumfilologik va ba’zi lingvistik masalalari)*. – Toshkent: Fan. – 66-68-b.

3. Sharipov, J. (1972) *Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar*. – Toshkent: Fan. – 225-b.

4. Гоголь, Н.В. (1952) *Драматические произведения*. – Москва: Художественная литература. – с. 220. (keyingi misollar shu nashrdan olingan)

5. Gogol, N.V. (1940) *Uylanish*. 3 parda 7 ko‘rinishli komediya. Abdulla Qodiriy (Julqunboy) tarjimasi. – Toshkent: O‘zdavnashr. (keyingi misollar shu nashrdan olingan)

6. Gogol, N.V. (1940) *Uylanish*. 5 pardali komediya. Kibriyo va A.Qahhor tarjimasi. – Toshkent: O‘zdavnashr. – 26-b.

7. Sultanova, M. (2022) *Mahoratli tarjimon*. – Toshkent: Yoshlik jurnali. – 46-48-b.

O‘ZBEK TILIDA BIR VA KO‘P MA’NOLI IBORALAR TAVSIFI

Bo‘riyev Islom Eshmirzayevich,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
islomboriyev122@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola o‘zbek tilida bir va ko‘p ma’noli iboralarning tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda bir va ko‘p ma’noli iboralarning ma’no taraqqiyoti, ular tarkibidagi so‘zlarning semik tahlili, polisemantik iboralarning, omonim iboralardan farqi berib o‘tilgan. Shuningdek, ayrim bir va ko‘p ma’noli iboralar misol tariqasida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Monosemik iboralar, polisemik iboralar, iboralarning semik tahlili, sema.*

Abstract. *This article is devoted to the description of single- and multiple-meaning expressions in the Uzbek language. The difference between the expressions is given. Also, some simple and multi-meaning phrases are analyzed as examples.*

Keywords: *Monosemic phrases, polysemic phrases, semitic analysis of phrases, sema.*

Kirish

O‘zbek tilida iboralar emotsional-ekspressivlikni ta’minlovchi lisoniy birliklardan biri hisoblanadi. Iboralar lisoniy jihatdan tadqiq etilganda boshqa til birliklaridan grammatik, semantik jihatdan farqlash kerak bo‘ladi. Ayniqsa, o‘zbek tilidagi iboralarning semantikasi juda murakkab hisoblanadi, chunki ibora tarkibidagi har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosi hamda uning taraqqiyotini semik tahlil qilish orqali bu hodisalarni aniqroq tasavvur qilish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Frazeologiya dastlab tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida XX asrning birinchi yarmida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Frazeologiyaning shakllanishida A.A.Potebnya, A.A.Shaxmatov, I.I.Sreznevskiylarning asarlari muhim manbaa hisoblanadi. Amerika va G‘arbiy Yevropa tilshunosligida frazeologiya sohasi tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlanib, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlar hozir ham davom etmoqda. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya turli aspektlarda o‘rganilmoqda. Jumladan, frazeologik birliklarning etimologiyasi, shakllanishi, taraqqiyoti, o‘ziga xos belgilari, strukturasi, grammatik hamda semantik xususiyatlari, ayrim tildagi iboralar bilan qiyoslanishi kabi masalalar tadqiq qilingan. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasining shakllanishida Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, Y.Pinxasovlarning asarlari muhim o‘rin tutadi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki o‘zbek tilshunosligida iboralarning monosemantik (bir ma’noli) va polisemantik (ko‘p ma’noli) jihatlari boshqa xususiyatlarga qaraganda yetrlicha o‘rganilmagan. Sh.Rahmatullayev iboralarning polisemiyasi haqida “Nutqimiz ko‘rki asarida” shunday fikr bildirgan “frazeologik polisemiya deyilganda iboraning bittadan ortiq lug‘aviy ma’no anglatishi” (Sh.Rahmatullayev, 1970; 48) tushuniladi. B.Yo‘ldoshev esa “iboralarning ko‘p ma’noliligini faqat lug‘atlar asosida belgilash to‘g‘ri bo‘lmaydi” (B.Yo‘ldoshev, 62) kabi asosli fikrlarni bildirib o‘tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola o‘zbek tilida bir va ko‘p ma’noli iboralarning tavsifida tarkibidagi so‘zlarning muhim omil ekanligi hamda shu masalaga doir ayrim iboralarning semik tahlili haqida so‘z yuritiladi.

Tahlillar va natijalar

Tilshunoslikda monosemiya deyilganda leksemaning faqat bir ma’noda qo‘llanilishi tushuniladi. Masalan, abadiy leksemasi “mangu, doimiy” ma’nosini, guruch “sholidan oqlab olinadigan oshlik don” ma’nosini ifodalaydi (Jamolxonov H., 2013; 264). Mazkur leksemalarning boshqa ma’nolari yo‘q. Monosemiya hodisasi ko‘proq terminlar (atamalar), neologizmlar (yangi paydo bo‘lgan so‘zlar) yoki boshqa tildan o‘zlashtirilgan leksemalarning dastlabki ishlatilish davriga xosdir. Shuningdek atoqli otlar ham shartli ravishda bir ma’noli leksemlar qatoriga kiradi (Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh., 1992; 80). Polisemiya esa bir leksemaning bir necha ma’no ifodalashidir. Masalan, yig‘lamoq 1) “ko‘z yoshi

to‘kmoq (g‘am, alam, og‘riq va shu kabilar sababli)” Bola hanuz chirqirab yig‘lar edi. (A.Qahhor “Qo‘shchinor chiroqlari”); 2) ko‘chma: “nolimoq, nolish qilmoq” Uzoq-uzoqlarda muzika yig‘lardi (Sh.Rashidov “Bo‘rondan kuchli”). Leksemalarda ko‘p ma’nolilik (polisemiya) bir leksemaning semantik tarkibidagi leksik ma’nolar orasida mazmuniy bog‘lanish borligiga tayanadi, ayni shu xususiyati bilan omonimiyadan farqlanadi (Jamolxonov H., 2013; 265).

Lisoniy birlik sifatida iboralarda ham leksemalar kabi monosemiya hamda polisemiya hodisasi uchraydi. Iboralarda monosemiya (bir ma’nolilik) leksemalar kabi faqat bitta lug‘aviy ma’no bildirishi tushuniladi. Masalan, *jonini fido* qilmoq iborasi “o‘zini qurbon qilishga ham tayyor bo‘lmoq” ma’nosini, *ko‘ngli o‘ksidi* iborasi “ma’yuslanmoq, o‘ksinmoq” ma’nosini ifodalab faqat bir ma’noda ishlatiladi. Polisemantik (ko‘p ma’noli) iboralar bir necha ma’no ifodalash xususiyatiga ega. Buni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (1-jadval):

1-jadval

.	**Ko‘ngli aynidi**	1) “organizimi qabul qilmagani tufayli behuzur bo‘lmoq”	Bektemir “kabob”ni ko‘p pishirdi, ko‘ngli aynigunchа yedi. (Oybek, “Quyosh qoraymas”)
		2) “ovqat” dan boshqa narsadan) “tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg‘anmoq”	Karim bilan Oybek shuncha maqtadiki, eshitsangiz, ko‘nglingiz aynib ketadi. (Sh.Rashidov “Bo‘rondan kuchli”)
.	**Barmog‘ini tishlamoq**	1) “hech narsa qilolmay, natijaga erisholmay qoldi”	Dushmanlar, raqiblar barmoqlarini tishlab qolsalar, maqsadga yetishgan bo‘lardim. (Oybek “Nur qidirib”)
		2) “afsuslanmoq”	Zaynabga salom aytib, yigit velosipedga mindi. Komila allanechuk o‘ksib barmog‘ini tishlab qoldi. (Oybek “Oltin vodiydan shabadalar”)
.	**Boshi aylandi**	1) “behud bo‘lmoq, muvozanatni yo‘qotmoq” (organizmning kasallangan holati, bunda	Uchinchi ryumkani bo‘shatgandan keyin, Saodatning boshi aylanib, ko‘zi tinayotgandek bo‘ldi.

		go‘yo atrofdagi hamma narsa aylanib ketayotgandek tuyiladi)	(I.Rahim “Ixlos”)
		2) “esankiramoq”	…muloyim qarab qo‘yishlarini, …jilmayib gapirishlarini sezardim, buning hammasidan boshim aylanardi. (O.Yoqubov “Muqaddas”)
.	**Ko‘z tikmoq**	1) “tikilib qaramoq”	Gavhar bu odamlarga ko‘z tikib borardi. Ana u kassaning oldida turgan kim? (P.Qodirov “Uch ildiz”)
		2) “umidvor bo‘lib qaramoq”	Ha, ona o‘shanda ham ovqati qozonda qolib, mijja qoqmay, qizining kelishiga ko‘z tikib o‘tirardi. (R.Fayziy “Cho‘lga bahor keldi”)
.	**Oyoq osti bo‘lmoq**	1) “poymol bo‘ldi, tahqirlandi”	Bilaman. Tajriba uchun ashqol-dashqolini ko‘tarib kelishadi, g‘o‘zani oyoq osti qilishlari mumkin. (Oybek “Oltin vodiydan shabadalar”)
		2) “xor bo‘lmoq, xo‘rlanmoq”	Ammo odamni muncha oyoq osti qilmasa! (H.Nazir “Odamning qadri”)

O‘zbek tilida qo‘llaniluvchi iboralarining ko‘p qismini bir ma’noli iboralar tashkil etadi. Ko‘p ma’nolilik esa iboralarning taxminan 15 foiziga xos [Sh.Rahmatullayev, 1970; 48]. Darslik va qo‘llanmalarda ham polisemantik iboralarga nisbatan kam namunlar keltiriladi.

Iboralarda leksik polisemiyada bo‘lganidek bosh ma’no va hosila ma’no farq qilinadi. Leksik polisemiyada bosh ma’no to‘g‘ri ma’noga, hosila ma’no esa ko‘chma ma’noga teng, lekin iboralarda bosh ma’no ham, hosila ma’no ham ko‘chma ma’noda bo‘ladi, chunki iboralar tarkibidagi so‘zlar har doim ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Bu esa iboralarning murakkab semik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Iboralarda lug‘aviy ma’noni va uning taraqqiyotini yuqorida ta’kidlangandek, semik tahlil usuli bilan o‘rganish bu jarayonni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi. Masalan, ko‘ngli aynidi iborasi ikki ma’noli iboradir. Bu iboraning birinchi ma’nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: mazkur ibora fe’l ibora bo‘lganligi sababli, avvalo, “ta’sir ko‘rsat” semasi belgilanadi. Ta’sir ko‘rsatish ijobiy yoki salbiy bo‘ladi, ta’sir etuvchi jism, aniqrog‘i, ovqat; ta’sir kishi organizimida, aniqrog‘i ovqatlanish a’zolarida namoyon bo‘ladi. Ovqatlanish a’zolariga ovqatning ta’siri jismoniy bo‘ladi. Demak, ajratilgan semalar yig‘imi quyidagicha tartiblanadi: ovqatlanish a’zolari+jismoniy+salbiy+ta’sir ko‘rsat. Ana shu ma’nolar asosida bu iboraning bosh ma’nosi “ovqatlanish a’zolari qabul qilmagani tufayli behuzur bo‘l” ta’riflanadi.

Ko‘ngli aynidi iborasining ikkinchi ma’nosi birinchi ma’nosidan o‘sib chiqqan. Yangi ma’no bu iborani ovqatdan boshqa narsaga ko‘chirib ishlatish natijasida yuzaga kelgan. Mazkur ko‘chirishda dastlabki ma’no tarkibidagi “salbiy”, “ta’sir ko‘rsat” semalari saqlanadi; “ovqatlanish a’zolari (organizm)” semasi “hissiyot” semasiga, shuningdek, “jismoniy” semasi “ruhiy” semasiga almashadi. Natijada semalar yig‘imi quyidagicha voqelanadi: hissiyot+ruhiy+salbiy+ta’sir ko‘rsat. Ana shu semalar yig‘imi asosida bu lug‘aviy ma’no “tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg‘an” deb ta’riflanadi (Rahmatullayev Sh, 2006. B-437).

Iboraning ma’nolari xuddi leksemalarda bo‘lganidek uning qo‘shimcha hosila ma’nosi nutqda namoyon bo‘ladi. Ko‘p ma’noli iboraning ma’nolari nutqda o‘zaro lug‘aviy ma’nolaridan tashqari grammatik tabiati ham bir-biridan farq qilishi mumkin (Rahmatullayev Sh, 2006. B-437). Masalan, bosh suq iborasi uch xil ma’noni bildiradi:

1) gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaramoq;

Qodirov chaylaga bosh suqib, noz-ne’matlar to‘la dasturxonga ko‘z yugurtirdi. (Sh.Rashidov “Bo‘rondan kuchli”)

2) kirmoq;

…trestga, albatta, kiring, plan bo‘limiga bir bosh suqib, o‘rtoq Xolmat Yunusovichga … salom deyishni unutmang. (A.Muxtor “Tug‘ilish”)

3) aralashmoq;

Bu ishga bosh suqib, nimaga erishmoqchisan, o‘g‘lim.

Ko‘rinadiki, bu iboraning ma’nolari nutqda bir-biridan farqli, lekin grammatik tabiati bir xil. Keyingi misolga e’tibor qilaylik: payiga tush iborasining nutqda ma’nolari ham, grammatik tabiati ham farqli: ushbu ibora “zimdan yurib butun xatti-harakatini ta’qib qilmoq” va “manfaatdor bo‘lgan holda berilib harakat qilmoq” ma’nolarini anglatadi. Har ikkala ma’noda ham harakatni kishi bajaradi, lekin harakat qaratilgan predmet boshqa-boshqa bo‘ladi: dastlabki ma’nosida kishiga, ikkinchi ma’nosida esa narsaga qaratilgan. Agar qaratqich kelishigida kishini bildiradigan so‘z kelsa, dastlabki ma’noda har uch shaxs-son nisbatlovchisini ishlatish mumkin; qaratqich kelishigida narsani anglatadigan so‘z kelganda esa faqat III shaxs nisbatlovchisi qatnashadi. Natijada bu ikkala ma’noning grammatik tabiati farqlanib qolgan. Dastlabki ma’nosida payidan tushdim, payidan tushding, payidan tushdi, payingdan tushdim, payingdan tushdi, payimdan tushding, payimdan tushdi kabi shakllarda ishlatilsa, ikkinchi ma’nosida shu shakllarning uchtasidagina keladi: payidan tushdim, payidan tushding, payidan tushdi. Leksemalarning nutqda semantik bog‘lanishidagi shart-sharoitlar ya’ni leksemalar nutqda bir-biriga bog‘lanib birikma hosil qilayotganda semantik jihatdan mos bo‘lishi kerak. Masalan, oyna so‘zining ma’nosi sinmoq so‘zining ma’nosiga mos. Ammo randalamoq, uzilmoq so‘zlariga mos emas. Shuning uchun nutqda ma’nosi mos bo‘lmagan leksemalarni bog‘lash xato bo‘ladi. Xuddi shunday iboralar ham nutqda semantik bog‘lanishda bir-biriga ma’noviy jihatidan mos bo‘lishi kerak. Masalan, ko‘ngli bor iborasi ijobiy yoki betaraf ish yoki narsani anglatadigan leksemalar bilan ishlatiladi: Universitetga o‘qishga kirishga ko‘ngli bor kabi. Lekin Uning janjallashishga ko‘ngli bor kabi bog‘lab ishlatilmaydi: chunki janjal leksemasi anglatadigan voqelik salbiy hodisa hisoblanadi.

Ko‘p ma’noli iboralar tahlil qilinganda ularning hosil bo‘lishi, ko‘pincha o‘xshashlikka asoslanishi kuzatiladi. Ayniqsa, biz ko‘rib o‘tayotgan ko‘p ma’noli

iboralarda: *boshlarini bir joyga qovushtirdi* – 1) hamjihat bo‘lib birlashtirdi 2) oila qurdirdi. *boshi aylandi* – 1) behud bo‘ldi, muvozanatini yo‘qotdi 2) esankiradi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, omonim iboralar bilan ko‘p ma’noli iborlar shaklan bir-biriga o‘xshash bo‘lganligi sababli ularni farqlash qiyinchilik tug‘diradi. Ammo nutqda ularning ma’noviy tafovutlari sezilib turadi. Qolaversa, polisemantik iboralarning ma’no nozikliklari ko‘pincha qo‘llovchilar tomonidan maqsadli ishlatilsa-da tinglovchi yoki o‘quvchilar tomonidan bir xil ma’noda tushunilaveradi.

Ta’kidalb o‘tilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilida iboralarni alohida o‘rganib chiqish kerakligi sezilib turibdi. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, shuningdek, iboralarning izohli lug‘atlarida keltirilgan ko‘p ma’noli iboralarning imkoniyatlari to‘la ochib berilmagan.

Xulosalar

Iboralarning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanligini aniqlashda birinchi navbatda iboraning tarkibida qatnashayotgan so‘zlarning (leksema emas) ma’nosini semik jihatdan tahlil qilinishi, ko‘p ma’noli iboralar tahlil qilinayotganda aynan nima asosda (o‘xshashlik, metonimiya … kabi) hosil bo‘layotganligi aniqlanishi kerak.

Ko‘p ma’noli iboralar o‘zbek tilining izohli lug‘ati, shuningdek, iboralar uchun yaratilayotgan maxsus lug‘atlarga kiritilayotganda illyustrativ misollarni aynan yaratilgan yoki yaratilayotgan asarlardan emas nutqda qo‘llanilishini ham e’tiborga olib misollar kiritilsa, bu iboralarning imkoniyati to‘liqroq ochilishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh. (1970). Nutqimiz ko‘rki. -Toshkent: Fan, B-48
2. Yo‘ldoshev B. (1998). Frazeologik uslubiyat asoslari. -Samarqand: B-62
3. Jamolxonov H. (2013). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: B-264-265
4. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. (1992).Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: O‘zbekiston, B-80
5. Rahmatullayev Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. -Toshkent: Universitet, B-437

MOTIVATSION NUTQNING AYRIM LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Boymirzayeva Mumtozabegim Oyatillo qizi,
ToshDO'TAU O'FF 4-kurs
mumtozabegimboymirzayeva@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada nutqning lingvistik hamda psixologik tomonlari ko'rib chiqilgan va tahlil qilingan. So'zlovchining ommani ruhlantiradigan usullari, emotsional-bo'yoqdor leksika va uning tinglovchiga ta'siri kabi masalalar Stiv Jobsning 2007-yilda Stenford talabalariga so'zlagan motivatsion nutqi tahlili orqali bayon qilingan. Amalga oshirilgan tahlil yoshidan, jinsidan, millatidan va tilidan qat'i nazar motivatsion nutq(matn)ning omma orasida keng imkoniyat va muvaffaqiyatni yuzaga keltiruvchi yetakchi komponentlarini aniqlashga imkon beradi*

Kalit so'zlar: *Motivatsiya, motivatsion nutq, lingvistik aspekt, psixologik aspekt, "Uchlik qoidasi", psixolingvistika.*

Bugun dunyo ijtimoiy hayotida o'zini spiker, notiq, motivator deb atovchi insonlar ko'paymoqda. Ular nutqiy-motivatsion ma'lumotlarni katta miqdordagi pulga sotishmoqda. Bunday nutqqa ehtiyoj ko'pligi motivatsion nutqning hayotimizda naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. Ammo har doim ham ma'lumotlarning narxi sifatiga to'g'ri kelmaydi. Ko'plab xorijiy universitetlarda diplom topshirish marosimiga tabrik so'zi aytish va talabalarni ruhlantirish uchun mashxur shaxslarni taklif qilish urfga aylangan. Bunday tadbirlarda mashxur insonlar o'z hayot yo'llari haqida so'zlab berishadi va nima uchun xato qilishdan qo'rqmaslik kerakligini tushuntirishadi.

Yuqoridagi holatga misol tariqasida Stiv Jobsning Stenford universitetidagi diplom topshirish marosimida so'zlagan YouTubeda 40 million ko'rishlar soniga ega motivatsion nutqini tahlilga tortamiz. Tadqiqot doirasida motivatsiya tushunchasi 2 ga bo'linadi: lingvistik va psixologik. Psixologiya nuqta'i nazaridan motivatsiya harakatga keltiruvchi kuch deb tushuniladi. U inson xulqini boshqarish va uni yo'naltirish , tashkillashtirish, faollik va ruhan mustahkamlilik beruvchi psixofiziologik jarayon hisoblanadi. Motivatsiya insonning o'ziga qo'ygan talablarini qondirishiga yordam beradi. Bu holatda motivatsiya talab, motiv va

maqsadlar yig‘indisidan iborat. Motivatsiyani lingvistik nuqtai nazardan psixologik qurilma ifodasi uchun harakatlarning lingvistik xoslanishi sifatida baholash mumkin.

Stiv Jobsning Stenford universitetidagi diplom topshirish marosimidagi nutqini an’anaviy 3 qismdan tarkib toptiradi: kirish, asosiy qism va xulosa. Muallif asosiy qismni ham chegaralari bir-biriga tutashgan 3 ta hikoyaga ajratadi. Ulardan har birining o‘z nomi bo‘lib: birinchi hikoya ,,nuqtalarning birlashuvi’’ haqida, ikkinchi hikoya ,,sevgi va yo‘qotish’’ haqida va uchinchi hikoya ,,o‘lim’’ haqidadir. Asosiy qismdagi hamma hikoyalarni muallif (motivatsion nutq egasi) minibiografiyani eslatuvchi xronologik tartibda joylashtirgan.

Stiv Jobs o‘zining nutqi uchun shunday so‘zlashuv uslubini tanlaganki, u bir vaqtning o‘zida ham do‘stona ochiq muloqotga kirishgan, ham o‘zining statusi va natijalariga mos ravishda hazillar qilgan. Hech qanday ilmiy faktlar va terminlarni ishlatmasdan hayotiy hikoyalardan foydalangan. Bunga misol tariqasida ,,Woz and I started the Apple in my parent’s garage…’’(Voz va men Appleni ota-onamning garajida boshlaganmiz) frazasini olishimiz mumkin. Avtor Voznyak familiyasini qisqartirib qo‘llagan. Aynan shu narsa Stiv Jobs va Stiv Voznyakning do‘st bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning nutqi chuqur ma’noli va ayni paytda emotsional, oddiy va tinglovchi uchun tushunarlidir. Muhim ma’lumotlar gapirilgandan keyingi pauzalar tinglovchiga gapni tahlil qilib olish uchun imkon beradi. Nutq mundarijasi uch mavzu: tug‘ilish, o‘lish va qayta tug‘ilishdan iborat. Matn strukturasi tahlilidan shuni ko‘rishimiz mumkinki u orator sifatida “uchlik qoidasi”dan mohirona foydalangan. Jobs o‘zining nutqini auditoriyani maqtash bilan boshlaydi: ,, I’m honored to be with you today for your commencement from one of the finest universities in the world’’ (Bugun men dunyoning eng zo‘r universitetlaridan birida diplom topshirish marosimida ishtirok etayotganimdan faxrlanaman). Va mana shunday minnatdorchilik ohangida u auditoriya bilan xayrlashadi: ,,Thank you all very much’’ (Hammasi uchun katta rahmat). Bu minnatdorchilik bildirishning standart shakli, ammo u tinglovchilarga marosimdagi ularning ishtiroki muhim ekanligini his qilishga yordam beradi.

Jobs nutqining boshida auditoriyaga savol beradi: ,, So why did I drop out?'' (Shunday qilib nega men o‘qishni tashladim?) va bu yerda savol bitiruvchilarda dialog illuziyasini hosil qiladi. Bu gapda parallelizmdan foydalanish e’tiborni tortadi “ My biological mother found out later that my mother had never graduated from college, and that my father had never graduated from high school''(Mening biologik onam keyinchalik shuni bildiki, mening onam hech qachon kollejni bitirmagan va otam ham hech qachon yuqori maktabni tamomlamagan).

Motivatsion nutqda qat’iy buyruqning qo‘llanilishi kishini harakatga keltiradi. Ushbu usul me’yorida ishlatilsa bu samarali natija beradi. Agar bu me’yoridan orttirilsa tinglovchi o‘ziga va erkinligiga nisbatan bosimni his qiladi. ,,to be sure''(ishonchi komil bo‘lmoq) va ,,I’m pretty sure”(Mening ishonchim komil) konstruksiyalari uning nutqida shuni ko‘rsatadiki, u o‘ziga ishongan inson. Mana shu nutq elementlari tinglovchiga notiqning ko‘zidagi ishonchni ko‘rishga imkon beradi. Ushbu nutq elementlari yetakchilik qilgan holatda ,, pretty''(to‘la , to‘liq) ravishi psixologik ta’sirni kuchaytirib beradi.

,, If I had never dropped out, I would have never dropped in on that calligraphy class”(Agar men o‘qishni tashlamaganimda, hech qachon kolligrafiya darslariga kirmagan bo‘lardim) , ,, Death is very likely the single best invention of Life''(O‘lim bu hayotning yagona va beqiyos yaratig‘idir).Ushbu gapda antiteza hodisasi uchraydi. U abstrakt tushunchalardagi qarama-qarshilikni taqqoslash usuli orqali ifodalashga xizmat qiladi. Bu yerda anadiplosis hodisasini ham kuzatish mumkin. Bunda bir so‘z ma’lum gapning oxirida va keyingi gapning boshida keladi. ,,Your **work** is going to fill a large part of your life, and the only way to be truly satisfied is to do what you believe is great work. And the only way to do great **work** is to love what you do” (Hayotingni katta qismini egallaydigan narsa bu sening **ishing** va o‘z ishingdan haqiqatan ham mamnun bo‘lishning yo‘li **ishing** buyukligiga ishonish. Va **ishing**ni buyuk qilishning yagona yo‘li – qilayotgan **ishing**ni sevish).

Matnda fikrni ifodalashning keng tarqalgan usullari metafora va epitetdir: ,, I’ve dropped the baton as it was being passed to me” (Tayoqcha menga

uzatilayotganda men shunchaki uni tashlab yubordim.) , ,,To do what you believe is great work” (Buyukligiga ishongan ishingni qil). Metafora timsoliylikni ifodalaydi, epitet esa nutqni tinglovchi uchun yanada jozibali qilib beradi.

Mazkur nutqning video formati nutqning texnik jihatlari haqida ma’lumot olish va motivatsion nutqning ayrim xususiyatlari bo‘yicha xulosa chiqarishga imkon beradi. Video chiqishdagi bo‘laklardan olingan holda nutq tempining miqdoriy tahlillari hisoblandi. Nutq shartli 4 qismga bo‘lib chiqildi: kirish (0:05-0:40), nuqtalarning birlashuvi hikoyasi (0:40-5:23), sevgi va yo‘qotishlar haqida (5:23-8:38), o‘lim hikoyasi va xulosa (8:47-14:16).Qismlarning qayeridadir nutq tempi boshqalardan ko‘ra sekinroq bo‘lsa ,bu yerdagi pauza ayrim muhim momentlarni tahlil qilib olishga xizmat qiladi.

Materialda Stiv Jobs ushbu sitatani ishlatadi: ,, If you live each day as if it was your last, some day you’ll most certainly be right’’- ,,Agar sen har bir kuningni xuddi oxirgi kuningdek yashab o‘tkazsang, bir kuni sen haq bo‘lasan”. Bu sitata amerikalik Stand-Up komik Jorj Karlingga tegishli. Ushbu sitata Jobs so‘zlariga obro‘ berib, hayot qadri haqidagi chiroyli va lo‘nda g‘oyalar nutqning haqqoniyligi va oddiyligini ta’minlaydi.

Yuqoridagi kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, nutqda qo‘llanilgan har bir element timsol va murojaatni paydo qilishda katta rol o‘ynaydi, so‘zlovchiga auditoriyada mo‘ljal olish uchun aniq yo‘nalish beradi. Motivatsion nutq tahlili muvaffaqiyatli motivatsiyaning barcha kerakli komponentlarini ko‘rsatib berishi natijasida har qanday yo‘nalishdagi motivatsion matnda ishlatsa bo‘ladigan shablon hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Мотивация (Электронный ресурс). Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/?oldid=89664209 (дата обращения: 15.12.2017).
2.Речь Стива Джобса перед выпускниками Стенфордского университета – легендарные 3 истории (Электронный ресурс). Режим доступа: http://steven-jobs.ru/rech-stiva-dzhobsa-pered-vypusnikami-stenfordskogo-universiteta-legendarnye-3-istorii (дата обращения: 25.10.2019).
3.Психолингвистика (Электронный ресурс). Режим доступа: https://ru.wikipedia.org/?oldid=102936600 (дата обращения: 25.10.2019).

TILNING AXLOQIY-MADANIY OMILLARINI TADQIQ ETISHDA QO‘LLANILISH DOIRASI CHEGARALANGAN SO‘ZLAR

Erkinova Ro‘za,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs erkinovaroza7@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq sofligiga putur yetkazuvchi so‘zlar haqida ma’lumotlar berilgan , ularning so‘zlashuvda qo‘llanilishi va badiiy adabiyotdagi o‘rni bir nechta o‘zbek adabiyoti durdonalaridan misollar asosida ko‘rsatilgan. Badiiy nutq va adabiy nutq farqlariga to‘xtab o‘tilgan. Nutq sofligini saqlash lozimligi, tildan to‘g‘ri foydalanish, so‘zlashuvda o‘zimizga yot bo‘lgan va til axloqiga zid tushunchalarni qo‘llashdan qochish haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *vulgarizmlar, varvarizmlar, lingvokulturologiya, badiiy asarlarda vulgarizm, badiiy asarlarda varvarizm, adabiy nutq, badiiy nutq.*

Abstract: *In this article, general information about words that harm the purity of speech, their use in speech and their place in fiction is shown based on examples from several masterpieces of Uzbek literature. The differences between artistic speech and literary speech are discussed. The need to maintain the purity of speech, the correct use of language, and avoiding the use of concepts that are alien to us and contrary to language ethics are discussed.*

Keywords: *vulgarisms, lingua culturology, barbarisms, vulgarism in work of art, barbarism in works of art, literary speech, artistic speech.*

Hozirgi kun zamonaviy yoshlarining nutqida o‘zbek tiliga yot bo‘lgan so‘zlar va dag‘al so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlashuvga aralashtirib qo‘llanilish holatlari kuzatilmoqda va bu kundan kunga ortmoqda. Har bir shaxs o‘z ona tilisida so‘zlayotganida uning so‘z boyligidan, imkoniyatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalana olishi lozim. Tildan to‘g‘ri foydalanish uchun nutqning sofligiga putur yetkazadigan vulgarizmlar, varvarizmlar, sheva so‘zlari, ko‘cha so‘zlari(jargon)ni ishlatishdan iloji boricha qochish kerak.

Vulgarizmlar - haqorat ma’nosida qo‘llaniladigan so‘zlar hisoblanib, bu leksemalar adabiy til birligi emas va ulardan foydalanish nutq ma’daniyatiga xilof

deb qaraladi(Jamolxonov H, 2005, 203-bet.). Lekin badiiy uslubda ulardan uslubiy vosita sifatida foydalangan holda ekspressivlikni ifodash uchun ishlatiladi va bu bizga badiiy asarlarda qahramonlarni individuallashtirishga yordam beradi. Shu orqali nutqning ta'sirchanligi oshirishga erishiladi. Masalan, – ***Padaringga ming la'nat*** *sendaqa pakanani! Nima qilasan bolani qiynab!* (Hoshimov O', 2012, 138-bet). Vulgarizmlarda yomon munosabat, yerga urish, tahqirlash, mensimaslik, haqorat kabi bir qancha salbiy ifoda semalari ochiq ko`rinib turadi. Bunday so`zlar ko`proq nominativ ma'nolariga ko`ra emas, ayni shu konnotativ ma'nolariga ko`ra nutqda yashaydi (Yo'ldoshev M, 2007, 60-bet).

So'zlashuvda vulgarizmlardan foydalanish tilda inson madaniyatining aks etish hodisasidir. Tilshunoslik va madaniyatshunoslik orasida shakllangan – Lingvokulturologiya ya'ni lingvomadaniyatshunoslik sohasi til madaniyatini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Bu sohani kop'roq tatbiq va targ'ib etish, xalq ongiga ham yetkazish, umumiy tilshunoslikning muhim omiliga aylantirish lozim. Nutqda qo'pol va dag'al so'zlardan foydalanmaslik, til madaniyatni aks ettiruvchi eng muhim bo'lak va qurol ekanligini unutmaslik kerak.

So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash bilan ham vulgar ma'no emotsional – hosil qilsa bo'ladi: — ***Ilonning*** *bolasi ham*— ***ilon****! Anavi* ***to'nkani*** *nima qilamiz? – dedi Asadbek.*

Vavarizmlar – yunoncha "*barbarismos*" so'zidan olingan bo'lib, " *kelgindi* " degan ma'noni anglatadi. Ona tiliga o'zlashmagan, adabiy til me'yorlariga zid va uning adabit til lug'atiga kirmaydigan, asosan so'lashuv uslubiga xos, ba'zan badiiy adabiyotda mahalliy muhitni ko'rsatish va obrazlarni xoslashtirishda foydalaniladi. Masalan, "*Suvchilik qilmasang* ***pajalista!***" debdi Oqsoqol o'dag'aylab (Hoshimov O',2012, 96-bet).

Varvarizmlarni badiiy uslubda qo'llashda atayin tilni buzib, asar qahramonlari salbiy xususiyatini ko'rsatish maqsadida qo'llash yoki boshqa o'zga til so'zlarini aynan qo'llash bilan muallif boshqa til egasini o'z tilida "gapirtiradi". Bunday so'zlar kam qo'llanadi va bu holatga ijobiy qaraladi.

Varvarizmlarni og‘zaki nutqda qo‘llash ongli va ongsiz shaklda ro‘y beradi. Ongli tarzda varvarizmlardan foydalanuvchilar o‘zlarini ko‘p tillarni biladigandek, o‘ta ma’daniyatli va aqlli , so‘z boyligi ko‘pdek ko‘rsatish uchun ishlatishadi. Aslida buning aksi, chunki so‘z boyligi ko‘p inson “ ***karochchiy*** “ning o‘rniga “ ***xullas*** ”, “ ***OK*** ” ning o‘rniga “ ***xo‘p*** ”, “ ***gun aydin*** “ning o‘rniga “ ***hayrli kun*** ” ishlatish kerakligini biladi. Ongsiz tarzda qo‘llovchilarda esa bu holat atrofdagilar ta’siri ostida bo‘lishi mumkin. Bu holatga yon atrofimizdagi insonlar ta’siri, ular nutqidagi ba’zi so‘zlarning bizning ham nutqimizda faollashishi sabab bo‘ladi.

Varvarizmlarni tahlil qilish orqali undan foydalanayotgan shaxsning ba’zi ma’lumotlarini bilib olish mumkin. Izoh sifatida aytishimiz mumkinki, ruscha varvarizmlardan asosan katta yosh vakillari, o‘rta yoshlilar(sobiq ittifoq davrida tug‘ilgan va yashagan insonlar) va shaharda yashovchi qatlam(qishloqlarga nisbatan shaharda yashovchilarda rus tili ko‘p qo‘llanadi) ko‘proq foydalanadi. Inglizcha varvarizmlarni ishlatuvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil etadi. Qaysi tilda ekanligiga qaramay varvarizmlarni ham “o‘zlashtirish” ya’ni buzish hollari, to‘g‘ri talaffuz etmaslik, qisqartirish, boshqa ma’nolarda qo‘llab o‘z jargoniga aylantirib olish holatlari ham kuzatiladi.

Bu o‘rinda yoshlar nutqida uchraydigan ba’zi varvarlar va ularning o‘zbek tilidagi variantlariga to‘xtalsak:

так что – shuning uchun, xullas kabi ma’nolarda

удар – daxshat

между прочим – e’tiboringiz uchun

давай – bo‘l, tezlash kabi ma‘nolarda

слишком – juda

как раз – aynan

свежий – yangi

сочный – suvli

остановка – bekat

аптека – dorixona

больница – kasalxona

расписание – dars jadvali

мост – ko‘prik

вечный – har doim

OK – xo‘p

Copy – nusxa

Ooo my god – ey xudoyim

Sorry – kechiring

Xulosa qilib aytganda, nutq sofligini buzuvchi vositalar haqida gap ketsa, aholi orasida lingvokulturologiyani kengroq yoyish, nutqiy madaniyatni to‘g‘irlash, qo‘llanilish doirasi chegaralangan so‘zlarning badiiy asarlar tilida qo‘llanilishini alohida baholash kerak, chunki badiiy nutq bilan badiiy asar tili aynan bir hodisa emas. Badiiy nutq ham adabiy nutqning bir ko‘rinishi va adabiy til me’yorlariga bo‘ysundiriladi, ammo badiiy asar tilida adabiy til me’yorlaridan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi. So‘zlashuvda ona tilimizni buzmasdan ishlatish, vulgar va varvarlardan foydalanmaslik – tilda axloqning madaniy jihatdan to‘g‘ri va ravon bo‘lishiga, nutqning jozibadorligiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurayimova D.S. Lingvistik ekspertizada shaxsiy yozishmalarning o‘rganilishi va uning ahamiyati // O‘zbek milliy va ta’limiy korpuslarini yaratishning nazariy hamda amaliy masalalari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya . Vol. 1 №. 01. 2021. _B.339.
2. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. _Toshkent, 2012.
3. Jamolxonov H . Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin, 2005. _271 b.
4. Lapasov J.Badiiy matn va lisoniy tahlil. Toshkent, 1995. _B.35.
5. Mengliyev B. Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi//Ma’rifat gazetasi. Toshkent, 2013. _B.10.
6. Mengliyev B, Abdurahim Sh, Mavlonova K, Siddiqov M, Atoyeva S. Ona tili 10-sinf darsligi. Toshkent, 2022. _B.8.
7. Safarov SH, Toirova G. Nutqning etnosotsiopragmatik tahlil asoslari. Samarqand.,2007.
8. Qurbonov D. Vulgarizmlar uslubiy vosita sifatida.
9. Qo‘ldoshev N. Nutqiy mukammallik va nutqiy jinoyat.

CHET TILINI O‘QITISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR

Hakimova Nasiba Alisher qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs
hakimovbobmurod06@gmail.com

Annotatsiya. *Fan, texnika, san’at, sayyohlik, xalqaro aloqa va xalqaro ishlarda keng qo‘llanilayotgan tillar ilg‘or tillar bo‘lib, bugungi kunda dunyoning aksar davlatlarida chet tili sifatida o‘qitilishi tilning faqat o‘z davlati chegaralaridagina emas, balki boshqa millatlar va madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini, uni samarali tarzda tan olinishi va o‘rgatilishi uchun ko‘proq o‘rganilishini anglatadi. Xorijiy tillardan xususan, ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishning zamonaviy ta’lim metodlari ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan, o‘zlashtirishning o‘ziga xos muammolari mavjud. Maqolada shu muammolar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jadidlar harakati,maktablar, ,, kaskad ‘’ tamoyili, chet tili, magistratura, maktab,rus tili,ingliz tili, ta’lim.*

Abstract.*Languages that are widely used in science, technology, art, tourism, international communication and international affairs are advanced languages, and today in most countries of the world, the language is taught as a foreign language not only within the borders of their own country, but also in other countries. Means that it interacts with nations and cultures, is studied more so that it can be effectively recognized and taught. Despite the fact that modern educational methods of teaching foreign languages, especially English as a foreign language, have been developed, there are specific problems of mastering them. The article discusses these problems.*

Keywords. *language movement, schools, “cascade” principle, foreign language, master’s degree, school, Russian language, English language, education.*

Turkistonda jadidlar harakatining asosiy maqsadlaridan biri xalqni savodli qilishdan iborat edi. Ular maktablar ochib, unda diniy bilimlar bilan dunyoviy fanlarni o‘qitishga e’tibor berdilar. Shuningdek,til o‘rganish borasidagi fikrlari

hanuz dolzarbligicha qolmoqda.Oradan qariyb bir asr o‘tgan bo‘lsa-da,til o‘rganish—jahonga chiqishning yagona yo‘li ekanligini tushunib turibmiz. Aslida, til o‘rganish orqali o‘zbek tilini,madaniyatini,san’atini,tarixini jahonga yoyishning yagona yo‘li ekanligini jadid bobolarimiz yaxshi tushunishgan.

Bugungi kunda ulug’ ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning tabarruk nomi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning hamsha diqqat-e’tiborida bo‘lib kelayotgani g‘oyatda quvonarlidir. Buhbudiy nomi mamlakatimiz rahbari tomonidan ilk bor 2016-yilning 8-noyabrida Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqida Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan o‘nlab ma’rifat fidoyilarining biri sifatida tilga olindi. Ular qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilayotgani aytib o‘tildi.

2019-yilning 28-avgustida O‘zbekiston o‘qituvchilari va murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigida o‘zining ko‘z nuri, qalb qo‘ri, butun borlig‘ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnati,jasorati har qanday yuksak baholarga munosib ekanligini ta’kidlagan holda Mahmudxo‘ja Behbudiyning : ,, Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o‘rgating’’, -- degan o‘gitlarini yodga oldi.

Tarixchi olima Dilorom Alimovaning ta’kidlashicha , til konsepsiyasi Behbudiyning ,, Bir til emas, to‘rt til kerak’’—deb nomlangan maqolasida ochib berilgan. Ya’ni unga ko‘ra, Chor Rossiyasi imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishi zarur. Biz harakatimiz taktikasini ishlab chiqish uchun qanday boshqarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. O‘z davrida sodir bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlarni chuqur anglagan va tahlil qilgan Behbudiy rus tilini o‘rganish orqali mahalliy xalq o‘z haq-huquqlarini to‘g‘ri tushunib olishlari mumkinligini ta’kidlaydi.(https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/)

,,Behbudiy—o‘zbek tilining jarchisi’’ maqolasining muallifi, tilshunos olim Suyun Karimov quyidagilarni yozgan edi: ,,O‘tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste’molda bo‘lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste’mol uchun

muhimlik darajasi ma’lum ma’noda o‘zgargan bo‘lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantiqini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan olim muhim bir g‘oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha ko‘p til o‘rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi’’(2. Karimov S. Behbudiy—o‘zbek tilinig jarchisi//o‘zbek tilshunosligi masalalari.—Samarqand,2002.-37b.).

Bu fikrning nechog‘lik bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz.

Til ta’limi – barcha zamonaviy (ona tili bo‘lgan va bo‘lmagan) tillar va madaniyatlar sohasiga oid ta’limdir. Xususan, chet tili ta’limi o‘zaro hamkorlikda olib boriluvchi,uzviylikva uzluksiz omillari asnosida tashkil etiluvchi murakkab jarayondir.

Bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash zarurati, dunyo hamjamiyatiga integratsiya jarayoni ta’lim tizimiga innovatsiyalarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Axborotlashgan jamiyat davrida bilim va malakaning inson hayotidagi ahamiyati birinchi o‘ringa chiqadi. Bugungi kun—globallashuv davridir. Bu davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o‘z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish va chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy faoliyatning ilk debochasi bo‘lgan magistratura yo‘nalishiga kirish imtihon shartlarini ishlab chiqish jiddiy ilmiy va amaliy yondashuvni talab etadi. Maktab ta’limini oladigan bo‘lsak,ingliz hamda rus tili darslari haftada uch marta o‘tiladi. Dars davomiyligi esa 40-45 minutni tashkil etadi. Vaholangki, chet tilini o‘rganish uchun , albatta, bu vaqt kamlik qiladi. To‘g‘ri , darslar sinf ikkiga bo‘lingan holatda o‘tadi. Lekin ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi. O‘quvchilarning til bilish savodxonligi susayib bormoqda.

Haftasiga to‘rt marotabadan darslar o‘tilsa, ko‘proq o‘quvchining nutqiga e’tibor berilsa maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ko‘plab ota -onalar

farzandlarining chet tilini o‘rganishlari uchun qo‘shimcha kurslarga qo‘yishmoqda. Bu,albatta, maktab ta’limida yetarli darajada til o‘rganolmayotganidandir. Bolalarni o‘qishga qiziqtirish uchun maktabda chet tilini a’lo baholar va sertifikat bilan bitirgan o‘quvchilarga imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilinishlari uchun imkoniyat yaratib berilsa maqsadga muvofiq. Har bir o‘quvchi maktabni bitirib , oliygohlarga qadam qo‘yadi. Barcha oliygohlarda ham chet tili o‘tilmaydi. Vaholangki, o‘quvchining o‘zlashtirgan chet tili bilimi sustlashadi va yana qo‘shimcha kurslarga qatnashiga majbur bo‘ladi. Shuning uchun til o‘rganish jarayonini uzluksiz olib borish maqsadga muvofiq. Har bir inson chet davlatlarda bo‘lishni orzu qiladi va aksariyat kishi muammoga duch keladi ya’ni til bilmagani uchun qiynaladi. O‘zi orzu qilgandek sayohat qila olmaydi. Barchamizga ayonki, soqov,gung kishilar --gapirish qobiliyatidan mahrum etilgan shaxslardir. Agar chet davlatda bo‘lgan kishi til bilmasa (mahalliy xalq tili) sovoq,gung insonlarga o‘xshab qolishadi. Shunday ekan , ushbu ,,kasallikdan’’ xalos bo‘lish har bir inson qo‘lida.

,,Internet saytlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlangan ,, Inglizcha’’ dunyoning sevimli tili’’ bo‘lib qola oladimi?’’ , ,, Chet tili faqat ingliz tili’’mi?’’sarlavhalari ostida yozilgan bir necha ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarda mualliflar xorijiy tillarni o‘qitish faqatgina ingliz tili bilan cheklanib qolishi kerak emasligiga urg‘u beradilar. Darhaqiqat, xorijiy tillar deyilganda ko‘z o‘ngimizdsa barcha chet mamlakat tillari namoyon bo‘lsa-da,afsuski, mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rta maktablarda shu kunga qadar asosan ingliz tili chet tili sifatida o‘rgatib kelinmoqda edi. Biroq Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta’lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini – ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon,turk,arab,fors tillarini o‘rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo‘yilgan. Agentlik qisqa muddat ichida uzluksiz ta’lim tizimining bosh bo‘g‘inlari sanalgan vazirliklar, chet tili o‘qitishning turli sohalarida faoliyat yuritib kelayotgan ko‘plab xorijiy va mahalliy tashkilotlar hamda davlat va nodavlat ta’lim muassalaribilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, katta-

katta loyihalar ustida ishlashga muvaffaq bo‘lmoqda. Jumladan, Britaniya Kengashi, AQSHning O‘zbekistondagi Gyote Instituti,Yaponiya va Koreya xalqaro hamkorlik agentligi, At Tanal Al Arabi arab tilini o‘qitish va test tizimini o‘z ichiga olgan tashkilot,Istanbul Aydin Universiteti, shuningdek, Makmillan, Oksford, Pirson, MM, Klett singari xorijiy nashriyotlar bilan aloqa o‘rnatilib,hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda. Shuningdek,olis hududlarda joylashgan yoki xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatkichi past bo‘lgan ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha Agentlik tomonidan respublikada faoliyat yuritilayotgan nodavlat ta’lim tashkilotlari va xorijiy hamkorlar vakillaridan iborat mobil guruhlar shakllantirildi.Mazkur mobil guruhlar tomonidan ,, kaskad’’ tamoyili asosida hududlarda xorijiy tillarni o‘qitish va ommalashtirish bo‘yicha treninglar tayyorlanmoqda hamda ularning hududdagi chet tillari o‘qituvchilarining malakasini oshirish bo‘yicha faoliyat tashkil etildi. Respublikamizdagi 207 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktablarining xorijiy tillarga ixtisoslashtirilishi munosabati bilan ayni maktablarda xorijiy tillarni o‘qitishni tubdan isloh etish va takomillashtirish, shu bilan birga respublikamiz oliy ta’lim muassasalari qoshida xorijiy tillarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun o‘quv markazlari tashkil etildi. Hozirgi kunda OTMlar huzurida o‘zaro kelishuv asosida tashkil etilgan mazkur o‘quv markazlar professor-o‘qituvchilar va talabalarni chet tili darajasini aniqlash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tastlarga tayyorlash bilan birga, chet tili mutaxassisligi bo‘lmagan OTM o‘qituvchilari va talabalari, rahbar kadrlarining xorijiy tillar bo‘yicha savodxonligini oshirish sohasida intensiv kurslarni olib bormoqda. Bu esa ta’lim muassasadagi barcha uchun xorijiy tillarni bilish savodxonligini rivojlantirishda katta imkoniyat va qulay shart-sharoit demakdir. Agentlik tomonidan poliglot (ko‘p tilni biladigan) talabalar bilan ishlash, poliglot yoshlar o‘rtasida musobaqa va tadbirlar uyushtirish, ularni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat tomonidan til ta’limiga ko‘rsatilayotgan e’tibor hamda g‘amxo‘rlik, bu borada amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan sa’y-harakatlar mazkur soha mutaxassislari, kasb egalari qalbida minnatdorchilik tuyg‘usi uyg‘otishi bilan birga, ular zimmasiga jiddiy mas’uliyat

va javobgarlik hissi ham yuklaydi. Til o‘qitishning amaldagi holati va ta’lim beruvchilar bilim darajasining yetarli darajada emasligi, ,, bugungi kunda oliygohlardagi 78% professor-o‘qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani jiddiy tashvish uyg‘otadi’’ (Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019). Bugungi kunda ilmiy izlanish olib borish uchun xorijiy jurnallarda maqol chop etish talabi mavjud. Chet tilini mukammal bilish ilmda yuqori natijalarga erishishga poydevor bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz. Bu tilimizga bo‘lgan hurmatsizlik sifatida emas, zamon ,,davr talabi sifatida baholanishi kerak. Qolaversa, magistraturaga kirish imtihonlari yilda ikki marotaba bo‘lib o‘tishi talabalar uchun qo‘shimcha sharoit yaratadi. Chet davlatlarda bo‘lishni, chet el fuqarolari bilan muloqot qilishni xohlagan har bir shaxsning til o‘rganishi kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda. Xulosa qilib quyidagilarni keltirishimiz maqsadga muvofiq. Vazifaga asoslangan til o‘qitishda o‘qitishning asosiy yo‘nalishi o‘quvchilar haqiqiy hayotida bajarishi kerak bo‘lgan faoliyat turiga o‘xshash mazmunli vazifalarni bajarish uchun tildan foydalanadi. Bu yondashuvda tildan to‘g‘ri foydalanish muhim va bu asta-sekin rivojlanishi kutilsada, o‘quvchilarning tilni cheklangan bilimlariga qaramay,maqsadga muvofiq xabarni tushunadigan tarzda ma’no yetkazishi ustuvor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/

2.Karimov.S.(2002)Behbudiy—o‘zbek tilinig jarchisi//o‘zbek tilshunosligi masalalari.—Samarqand.

3. Shoira Normatova, Mehribon Abdurahmonova. (19.05.2021) Til bilgan -el biladi .

4.Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti,(2019)

FRAME ANALYSIS OF THE CONCEPT "FAMILY" IN ENGLISH AND UZBEK LINGUOCULTURE

Kurbonova Guzal Khujamurodovna,
TSUULL Comparative linguistics, linguistic translation
guzal.qurbonova95985@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning asosiy maqsadi freym semantikasi, freymlarning turlari hamda "Oila" konseptini freym tahliliga asoslangan holda linguokulturologik jihatdan ingliz va o'zbek tillarida taqqoslashdan iborat. Freym semantikasi bu kognitiv lingvistikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u so'z ma'nolarini kognitiv jihatdan tahlil etadi. Freymlar esa ma'lum tushunchalarni va ular bilan bog'liq guruhlarni onggimizda gavdalantiradi ya'ni, masalan, wedding, car, family kabi. Maqolada, shuningdek, "oila" konsepti freym strukturasida tahlil etiladi va bir guruh qo'shimcha ma'nolari izohlanadi. Ilmiy maqola qiyoslash metodologiyasiga asoslanib yozildi.*

Kalit so'zlar*: freym semantikasi, freym, freym strukturasi, til birliklari, bilim strukturasi.*

Abstract: *This article aims to figure out the term of frame semantics, types of frames and frame analysis of the concept "Family" in English and Uzbek linguoculture. It is emphasized that frame semantics is one of the important trends of Cognitive linguistics and it analyzes word meanings from cognitive point of view. Frames represent concepts and their associative links in our mind, such as wedding, car, family. This article considers the concept "Family" in the frame structure in English and Uzbek languages and finds out several new meanings. The method that was used in the research work is comparative analysis.*

Keywords: *frame semantics, frame, frame structure, linguistic unit, knowledge structure.*

The Frame Semantics is one of the important theories that is developing within the discipline of Cognitive Linguistics. It was firstly elaborated by Charles Fillmore in 1982. According to the scholar "Frame semantics deals with looking at word meanings in a particular way, it also depicts fundamentals for making new words and phrases and these fundamentals add new meanings to words". Ch.

Fillmore defines frames as a system of structured categories in accordance with some motivating context and they play an important role for describing linguistic meanings" (Fillmore, 1982, p. 111-112).

V. Evans and M. Green proposes frame semantics as a comprehensive explanation on how meanings are organized and connected to words in a semantic structure and how these connections provide us access to our conceptual system, the inventory of structured knowledge that we use to navigate the world. (Evans and Green, 2006, p.222-223).

According to Diego Gavagna, frames are prior assumptions and knowledge about the world that are continuously strengthened, weakened, and modified based on the data our brain gets from the sensitive senses. We put the frames we have in stock to the test, which helps us make better predictions and build a mental

To put it another way, frames reflect a complicated knowledge structure that consists of a group of associated words and concepts. For example, the word "SCHOOL" refers to more than just an educational institution; it also encompasses a number of concepts such as: *students, teachers, school rules, school life, exams, success, failure and holidays.* There are four types of frames that represent different knowledge structures about the world:

- frame-structures for denoting notions and objects (*debt, book, promise*);
- frame-roles (*doctor, designer, dentist, teacher, professor, driver*);
- frame-scenario (*birthday, conference, meeting, bankruptcy*);
- frame-situations (*accident, wedding, travelling)*

Frames include two levels: the upper and the lower level. The upper level is the name of the frame; the lower level consists of slots and subslots which give concrete information about the situation in the context. (Ashurova D.U and Galiyeva M.R, 2018, p.32-33). All slots and subslots in the frame are closely interconnected to each other. Each of them has their own meaning and role. This meaning can be implicit or explicit.

This study focuses on the frame analysis of the concept “Family” in English and Uzbek linguoculture. Firstly, we explain the dictionary definition of the concept “Family”. Secondly, we divide frame “Family” into slots and subslots in both languages and then compare them according to differences and similarities. It is important to emphasize that frame structural analysis of the frame “Family” was based on the book “Cognitive Linguistics” by Ashurova D.U and Galieva M. R.

Merriam-Webster dictionary gives such definition, “*family is a basic unit in society traditionally consisting of two parents rearing their children”.* In Uzbek explanatory dictionary, “family” is defined that “*oila – er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug’ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui”*. It can be clearly seen that dictionary definition of the concept “Family” in both languages is almost the same. By analyzing verbal signals (lexical units representing it) and associative links of the word “family”, it is possible to show that “family” is represented by the following linguistic units:

- **Linguistic units, verbalizing frame “family”**

Family gathering, family resemblance, family rules, family members, family types, family celebrations, family traditions, family feelings, to start a family, to run in the family, to bring up a family, a family car, family-friendly, a family man, family values, family name, family tree, nuclear family, blended family, matriarchal family, patriarchal family, single-parent family, a broken home, clan, dynasty, tribe, stepfamily, grandfather, grandmother, family heritage, family wealth, family life, family talk.

- **Associative links of the lexeme “family”**

Ancestry, parentage, birth, pedigree, genealogy, background, family tree, descent, lineage, line, line of descent, bloodline, blood, extraction, derivation, race, strain, stock, breed, dynasty, house, forebears, forefathers, antecedents, progenitors, roots, origins, filiation, stirps.

The analysis of the linguistic units and their associative links verbalizing the notion “family”, allows us to reveal the following slots of the frame “Family”:

1. Slot. **Background** (*rich family, middle class, poor family*);

2. Slot. **Members** (*grandfather, grandmother, father, mother, children, grandchildren*);

3. Slot. **Types** (*nuclear family, extended family, reconstituted family, single parent family, same-sex family*);

4. Slot. **Feelings** (*positive: love, care, support, trust, satisfaction, happiness, laugh; negative: envy, calumny, unhappiness, distrust*);

5. Slot. **Traditions** (*decorating Christmas tree, having a movie night, visiting the same restaurant, going camping, cooking family recipes*);

6. Slot. **Ceremonies** (*wedding: traditional or classic wedding, destination wedding, DIY wedding, vintage style wedding; funeral: burial services, woodland burials, direct cremation*);

7. Slot. **Rules** (*physical behavior: be gentle with each other, no hurting, no running indoors; manners: always telling the truth, stealing is wrong, showing kindness; daily routines: brushing teeth every morning, cleaning up own mess; respect: no feelings are bad, asking permission to use*).

Frame "Family" in English linguoculture





The main slots and subslots of the frame "Family" in Uzbek linguoculture:

1. Slot. **Background** (*boy oila, o'rtahol oila, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilal*);
2. Slot. **Members** (bobo, buvi, ota-ona, farzand, nevara);
3. Slot. **Types** (katta, kichik, ko'p farzandli);
4. Slot. **Feelings** (ijobiy: sevgi, muhabbat, mehr, ishonch, qo'llab-quvvatlash, baxt,e'tibor; salbiy: nafrat, hasad, bemehrlik, ishonchsizlik, kamsitish, e'tiborsizlik);
5. Slot. **Traditions** (bir dasturxon atrofida ovqatlanish, bayramlarni oila davrasida nishonlash, sevimli taomni birga tayyorlash);
6. Slot. **Ceremonies** (to'y: fotixa to'yi, beshik to'y, sunnat to'y, hosil to'yi, hovli to'y; janoza: shomoshi, yettisi, qirqi, yili);
7. Slot. **Rules** (odob-axloq qoidalari: kattalarni hurmat qilish, oila sirini saqlash, ota-ona maslahati bilan qaror qabul qilish, doimo salom berish; kunlik tartib-intizom: tozalikka rioya qilish, vaqtida uxlash, uy ishlariga yordamlashish);

Frame "Oila" in Uzbek linguoculture





The analysis of the frame "Family" in the Uzbek language shows that the basic slots correspond to English. The main differences are shown at the level of subslots. This is because subslots represent the national world picture of each culture. So, we discuss different points of the frame "Family" in both cultures.

Ceremonies*:*

- Types of wedding in English culture:

1) traditional or classic wedding - *getting married in the church or any other religious location, and a reception that includes a three courses buffet or sitting down meal*,

2) destination wedding - *some couples choose to have their wedding at a completely different location from their hometown. It could be a different city or*

different country, but couples choose the destination wedding for lots of different reasons,

3) DIY wedding - *A DIY wedding is usually a simple "Do It Yourself" wedding where the couple has decided to make virtually everything needed for the wedding themselves,*

4) vintage style wedding - *for something more fun and interesting, some couples choose to draw some inspiration from the style and candor of decades past,*

5) beach wedding - *beach weddings usually entail the couple and guests wear beach appropriate clothing, so it isn't normally a formal event.*

- **Types of wedding in Uzbek culture:**

1) fotixa to'yi – a ceremony which is held before wedding to make everyone aware of engagement;

2) nikoh to'yi – wedding;

3) beshik to'yi – a ceremony which is held to celebrate having a baby, especially a cradle is given as a gift to baby and parents;

4) sunnat to'yi – a religious tradition, it is also known as circumcision, which is held in families that have a boy;

5) hosil to'yi – a ceremony that is held when people get a great deal of harvest or they make good profit from crops;

6) hovli to'yi – a ceremony which is held when people buy a new house.

Funeral:

1) burial services – a short ceremony held after the main funeral services as the coffin is lowered into the ground;

2) woodland burials – involves a body, or cremated ashes, being laid into the ground using biodegradable coffins or caskets.

3) direct cremation – a low-cost cremation with no service, mourners or ceremony and no visitors to the funeral home.

Janoza or a'za:

1) dafn marosimi – a religious ceremony which is held on the day a person died: the dead is buried into the ground, "Janaza namaz is prayed" and all the people

who know the dead are invited; *Janaza namaz* is a type of namaz which is prayed when a person died;

2) yettisi – a religious ceremony which is held after seven days when a person died;

3) qirqi – a religious ceremony which is held after forty days when a person died;

4) yili – a religious ceremony which is held after a year when a person died.

Traditions:

Family traditions in English culture: *decorating Christmas tree, having a movie night, visiting the same restaurant, going camping, cooking family recipes.*

Family traditions in Uzbek culture: *bir dasturxon atrofida ovqatlanish, bayramlarni oila davrasida nishonlash, sevimli taomni birga tayyorlash.*

In traditions, it can be observed that English people prefer celebrating important events outside, while Uzbek people love gathering together on holidays or celebrations.

Types:

- **Types of family in English culture:**

1) nuclear family – *a couple and their dependent children;*

2) extended family – *a family which extends beyond the nuclear family to include grandparents and other relatives;*

3) reconstituted family – *two families join together after one or both partners have divorced their previous partners.*

4) single parent family – *comprised of a parent and one or more dependent children without the support of a spouse partner who is sharing the responsibility of parenting;*

- **Types of family in Uzbek culture:**

1) katta oila - *a family which consists of a number of members including also grandparents;*

2) kichik oila – *a family including only parents and their children;*

3) ko‘p farzandli – *a family which has no more than four children.*

In English culture, every type of family is called a separate name. However, Uzbek people name family just according to its size: big or small. In summing sump, the following conclusions can be made:

- frames represent a structured cognitive knowledge about the concept;
- concept "Family" has the same dictionary definition and understanding in English and Uzbek languages;
- frame structures make easier to understand the meanings of the concept and uncover new conceptual senses;
- the main slots of the frame "family" are the same in English and Uzbek cultures;
- the differences can be observed in subslots, because they reflect nationality.

References:

1. Ashurova D. and Galiyeva M. (2018) Cognitive linguistics. Toshkent: "VneshInvestProm".
2. Ashurova D. (2020) Frame analysis in fictional text. https://www.bulletennauki.com
3. Fillmore CH. J. (1982) Linguistics in the morning society. Seul, Korea: Hanshin Publishing Company.
4. Evans V. and Green. M. (2006) Cognitive linguistics: an introduction. Edinburgh university press.
5. Gavagna D. (2013) Frame semantics: a brief introduction. Aarhus University. https://www.academia.edu
6. Kambaro K. (2020) A Frames Approach to the Semantics of Nouns. Kyoto university. https://www.researchgate.net/publication
7. https://www.merriam-webster.com
8. Madaliyev. A - editor "O'zbek tilining izohli lug'ati", (1981) Toshkent, "O'zbekiston milly ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti.

"BOLALAR ASSOTSIATIV LUG'ATI" NING STRUKTURAVIY TUZILISHI

Mirnosirova Dilbar Nodirbek qizi
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti
4-kurs talabasi Dnodirbekovna@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada "Bolalar assotsiativ lug'ati"ning tuzilishi, stimul so'zlarning berilishi va javob reaksiyalarining joylashish tartibi haqida fikr*

yuritilgan. Lingvistik tadqiqot metodlarining tavsiflash, statistik va komponent tahlil kabi turlaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *Assotsiativ lug‘at, stimul, reaksiya, assotsiativ tajriba.*

Abstract*. The article discusses the structure of the "Children's Associative Vocabulary", the presentation of stimulus words and the arrangement of response reactions. Such types of linguistic research methods as descriptive, statistical and component analysis were used.*

Keywords: *Associative vocabulary, stimulus, reaction, associative experience.*

“Bolalar assotsiativ lug‘ati” o‘zbek tilshunosligidagi bolalar nutqi tadqiqiga assotsiativ yondashuv asosida yaratilgan ilk lug‘at hisoblanadi. Ushbu lug‘at o‘zbek bolalari nutqida yuzaga keluvchi assotsiativ birliklar, ularning o‘ziga xos jihatlari haqida ma’lumot beruvchi lug‘at tipidir (Mirnosirova, 2022, 15-bet). Bu davrga qadar rus tilshunosligida Sokolova T. N.ning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning javob reaksiyalari jamlangan “Ассоциативный словарь ребенка:Вербальные реакции детей 3-7 лет.” lug‘ati (Соколова, 1999) va Beresnova N.I.boshchiligidagi mualliflar jamoasi tomonidan yaratilgan “Ассоциации детей от шести до десяти лет” kabi maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajribalar negizida tuzilgan lug‘atlar mavjud edi (Береснева, Дубровская, Овчинникова, 1995). “Bolalar assotsiativ lug‘ati” o‘zbek tilshunosligida mazkur sohadagi dastlabki tadqiqot sanaladi.

Lug‘at jahon tilshunosligidagi an’anaviy tajriba turi sanaluvchi erkin assotsiativ tajriba metodi asosida tuzilgan. Erkin assotsiativ tajriba maktabgacha yoshdagi bolalar nutqi ustida og‘zaki tarzda olib borilgan. Tajriba uchun, asosan, Toshkent shahar shevasi hamda ikki shevalilik muhitiga mansub (Qashqadaryo viloyati va Toshkent shahar shevasi, Andijon viloyati va Toshkent shahar shevasi) maktabgacha yoshdagi (3 yoshdan 7 yoshgacha) 200 nafar sinaluvchi jalb etilgan.

Stimul so‘z sifatida o‘zbek tilida faol qo‘llaniluvchi 100 ta so‘z tanlab olingan. Stimul so‘zlarni saralashda ularning bola tomonidan idrok etilishi darajasiga mosligi, semantik xususiyatlari, mavzu jihatdan xilma-xil bo‘lishi inobatga olingan. Lug‘at orqali nafaqat bolalar nutqiga xos verbal

assotsiatsiyalarning o‘ziga xos jihatlari, balki ular nutqining turli qirralarini o‘rganish maqsadi ham ko‘zda tutilgani bois, stimul so‘z sifatida semantik jihatdan zamonaviy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar *(internet, telefon, kompyuter, pitsa)*, tur-jins *(gul, daraxt, qush)*, qism-bo‘lak *(odam, bozor)* munosabatidagi so‘zlar, diniy mavzudagi leksik birliklar *(duo, jannat, gunoh, hayit)* hamda milliy-madaniy tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar *(alla, beshik, sumalak, navro‘z, do‘ppi)* tanlangan.

Sinonimik munosabatdagi so‘zlar orasidan bolalar nutqida nisbatan faol qo‘llaniladigan birliklar tanlab olingan. Masalan, *dangasa, yalqov, ishyoqmas* sinonimik qatoridan bolalar nutqida faol qo‘llaniluvchi *dangasa* so‘zi tanlab olingan; *semiz, baqaloq* sinonimik qatoridan *semiz* so‘zi tanlab olingan.

Omonimik munosabatdagi so‘zlarning ma’nosi ajratilmay, o‘z holicha stimul so‘z sifatida qoldirilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad ushbu so‘z yodga olinganda bola lisoniy xotirasida dastlab uning qaysi ma’nosi tiklanishi, omonim so‘zlarning bolalar nutqida qo‘llanilish darajasi, omonimik munosabatdagi so‘zlarning verbal assotsiatsiyalar hosil qilishdagi o‘rni va miqdorini aniqlashdan iboratdir. Omonim so‘zlar sifatida stimul so‘zlar qatoriga *olma, qor, qo‘y, tosh, tush* kabi so‘zlar kiritilgan.

Shevaga oid birliklar adabiy tildan tashqarida bo‘lganligi bois stimul so‘z sifatida olinmagan. Lug‘atning kirish qismida stimul so‘zlarning alifbo tartibidagi ro‘yxati berilgan.

Sinaluvchilar nutqi ustida o‘tkazilgan assotsiativ tajriba natijalariga asosan, stimul so‘zlarning mazmuni, ularning bolalar nutqida keng qo‘llanilishiga ko‘ra javob reaksiyalari miqdori bir-biridan farqli holatda bo‘ldi. Masalan, bolalar nutqida keng iste’molda bo‘lgan *banan, kompyuter, bog‘cha, alla, aqlli* kabi so‘zlarga berilgan javob reaksiyalari ular nutqida kam uchrovchi *jannat, qozoq, ayyor* kabi so‘zlarga berilgan reaksiyalardan miqdor jihatdan ko‘p hamda xilma-xil, ya’ni takrorlanmas holatda uchradi.

Shuningdek, tajriba davomida bolalar nutqida individual xarakterga ega bo‘lgan, so‘z birikmasi va gap shaklidagi javob reaksiyalari ham kuzatildi. Hatto

ayrim sinaluvchilar stimul so‘zga javob reaksiyasi sifatida o‘zi ko‘rgan, guvohi bo‘lgan holat bayonini ham taqdim etdi. Bu sinaluvchining stimul so‘zni qanday idrok etishi, dunyoqarashi, tasavvurini ko‘rsatuvchi manba vazifasini o‘tadi. Yuqorida ta’kidlangan tipdagi javob reaksiyalari ko‘proq *maqtanchoq, qizg‘anchiq, ro‘za, qimmat, mehmon* kabi stimul so‘zlarga berilgan javoblarda kuzatildi.

Stimul so‘zlarning assotsiativ maydonini aks ettirishda an’anaviy tartibga rioya etilgan. Avval stimul so‘z yozilib, stimul so‘zning qarama-qarshisiga berilgan javob reaksiyalari takrorlanish chastotasiga ko‘ra kamayib borish tartibida ketma-ket joylashtirilgan. Reaksiyalarning takrorlanish miqdori arab raqamlarida har birining to‘g‘risiga qayd etilgan. Yakka javob reaksiyalari uchun umumiy tarzda eng oxirgi assotsiativ birlikdan so‘ng 1 raqami qo‘yilgan. Gap shaklidagi javob reaksiyalari qo‘shtirnoq ichida berilgan. Barcha javob reaksiyalaridan so‘ng qavs ichida ularning statistik tahlili berilgan. Misol sifatida alla stimul so‘ziga berilgan javob reaksiyalarining assotsiativ maydoni asosidagi statistik ma’lumotlarni keltiramiz:

ALLA – (202+97+26+71+12). Bunda **202** – alla stimul so‘ziga berilgan jami javob reaksiyalari soni; **97** – turli javob reaksiyalari adadi; **26 –** takror javob reaksiyalari soni; **71 –** yakka javob reaksiyalari miqdori; **12 –** javob berilmagan holatlar miqdorini bildiradi. Ta’kidlash joizki, tajriba davomida ayrim sinaluvchilar tomonidan stimul so‘zga nisbatan javob reaksiyasini berishda sheva elementlaridan foydalanish holatlari ko‘p uchradi. Buni fe’llarning zamon, shaxs-son shakllari qo‘llanilishida; qaratqich kelishigi -ning shaklida emas, balki -ni va mi (***moshinani ruli, adammi oyilari, o‘zimmi ashulam)*** shaklida ifodalanishida; ayrim yuklamalardan foydalanishda (masalan, -da yuklamasi Toshkent shahar shevasiga xos -de shaklida foydalanilishi); kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining ishlatilishida (masalan, biz, men, sen olmoshi Toshkent shahar shevasiga xos ***biza, san, man*** shaklida ishlatilishi; ko‘rsatish olmoshining mana bunaqa, mana bu, ana u, shakli toshkent shahar shevasiga xos ***mamnaqa, mambi, anu*** shaklida ishlatilishi) hamda *maqtanchoq, qish, mashina, kichkina, tipratikan, ninachi* kabi

so‘zlarga nisbatan maqtiydi, biza, ko‘rvotti, kevotgan, moshina, tiqvoladi, so‘yiydi, kotta singari Toshkent shevasiga mansub so‘zlarni javob reaksiyasi sifatida berish holatlarida ko‘proq kuzatish mumkin. Bunday holatlarda bolalar nutqining sofligini saqlash, berilgan javob reaksiyasining tabiiyligi, ortiqcha tuzatish va tahrirlardan holiligini ko‘rsatish maqsadida sheva elementlari o‘z holicha qayd etilgan.

Xuddi shu maqsadni ko‘zda tutgan holda bolalarning lisoniy ongida mavjud qolip asosida ifoda etilgan ***o‘qadi*** (o‘qiydi), ***mutlifm*** (mutfilm), ***yeyadi*** (yeydi), ***qizg‘anchu*** yoki ***qizg‘ancho*** (qizg‘anchiq), ***yemash*** (yemaslik), ***qimash*** (qilmaslik), ***omash*** (olmaslik), ***bosvormash*** (bosib yubormaslik), ***bo‘mash*** (bo‘lmaslik), ***oradi*** (og‘riydi), ***aynala*** (aylana), ***sayro*** (sariyog‘), ***teshkiradi*** (tekshiradi), ***qo‘rqimchili*** (qo‘rqinchli) kabi so‘zlar qanday talaffuz qilingan bo‘lsa, shunday holatda javob reaksiyasi sifatida kiritilgan. Ayrim stimul so‘zlarga javob sifatida taqdim etilgan gaplardagi so‘z tartibi bola nutqida qay tartibda ifodalangan bo‘lsa, o‘zgartirishsiz, nutqda voqealangani kabi kiritilgan. Bunga misol sifatida *ashula* stimul so‘ziga nisbatan aytilgan “***hamma etadi mikrofonda”;*** *bog‘cha* stimul so‘ziga nisbatan berilgan ***“bog‘chada o‘ynashadi bolalar”*** kabi inversiyaga uchragan gaplarni keltirish mumkin.

Tajriba davomida sinaluvchilar tomonidan stimul so‘zga nisbatan rus tiliga mansub so‘zlarni reaksiya sifatida berish holatlarining ham guvohi bo‘lindi. Bola nutqida boshqa til unsurlarining qay tarzda ifodalanganligini yaqqol ko‘rsatib berish nazarda tutilgan holatda ushbu so‘zlar lug‘atga, dastavval, lotin grafikasiga asoslangan o‘zbek alifbosida, so‘ng qavs ichida kirill alifbosidagi shaklida kiritildi. Masalan, ***mama (мама), babushka (бабушка)*** va h.k.

Bolalarning lisoniy ongida hosil bo‘luvchi assotsiativ birliklarning xarakterli jihati shundaki, ular nutqida kattalardan farqli tarzda assotsiativ tajriba davomida ko‘ruv xotira tasavvuri orqali stimul so‘zga mazmunan va shaklan bog‘liq bo‘lmasa-da, xayoliga kelgan ilk tushunchani bayon etish holatlari kuzatiladi. Lug‘atga shu tipdagi javob reaksiyalari ham kiritildi. Boisi, bu bolalardagi verbal assotsiatsiyaning o‘ziga xos jihati sanaladi. Kattalar nutqi ustida o‘tkazilgan tajribalarda bu holat kuzatilmaydi. Bolalar nutqidagi assotsiativ birliklarning hosil

bo‘lish jarayonida ko‘ruv xotira tasavvuri faol ishtirok etadi. Bola stimul so‘zni tinglashi bilan uning xayoliga, avvalo, ko‘ruv xotira tasavvuri orqali tiklangan javob reaksiyasi keladi. Shuni inobatga olgan holda lug‘atdan stimul so‘z bilan mazmunan bog‘liq bo‘lmagan reaksiyalar ham o‘rin olgan.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, ayrim respondentlar bilan o‘tkazilgan og‘zaki assotsiativ tajriba davomida sinaluvchi tomonidan berilgan javob reaksiyasini izohlash, to‘ldirish, yanada aniqlashtirish maqsadida qo‘shimcha izohlar berildi. Masalan, Muxtorjonova Shahina (6 yosh) bilan o‘tkazilgan tajriba davomida u *banan* stimul so‘ziga nisbatan ***kachelya*** javobini taqdim etdi va o‘zi bildirgan reaksiyani izohlab: ***chunki banan ham, kachelya ham qayrilgan bo‘ladi,*** deya fikr bildirdi. Hayitova Solihabonu (6 yosh) nutqi ustida o‘tkazilgan tajriba davomida ham xuddi shu holat kuzatildi. Sinaluvchi *avtobus* stimul so‘ziga: ***oyim, chunki oyim bizni avtobusda ko‘p olib yuradi,*** deya javob berdi. Lug‘at foydalanuvchisi tomonidan nega aynan shu reaksiya taqdim etilganligi mavhum bo‘lib qolmasligi yoki yanglish tushunilmasligining oldini olish maqsadida shu va shunga o‘xshash sinaluvchilar tomonidan javob reaksiyasiga qo‘shimcha izoh sifatida berilgan fikrlar lug‘atga kiritilgan hamda izohlangan javob reaksiyasidan so‘ng qavs ichida to‘lqinli chiziq bilan berilgan. Masalan, ***AVTOBUS – oyim (chunki oyim bizni avtobusda ko‘p olib yuradi)***

Bolalar nutqining o‘ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, ular tushunchani obrazli tarzda ifodalashga, tinglovchiga o‘z fikrini turli xatti-harakatlar, imo-ishoralar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Assotsiativ tajriba jarayonida ham bolalar hayvon nomlari bilan bog‘liq stimul so‘zlarga javob berishda hayvonlarga xos bo‘lgan harakatlarni ko‘rsatish yoki ularning tovushiga taqlid qilish orqali javob reaksiyasini bildirdilar. Masalan, sinaluvchi Karimova Zamira (6 yosh)ga *maymun* stimul so‘zi aytilganda u maymunga xos bo‘lgan sakrash harakatini ko‘rsatib berdi va maymunning tovushiga taqlid orqali reaksiya bildirdi. Ushbu jihat bolalar nutqining o‘ziga xos ajralmas xususiyati ekanligini inobatga olgan holatda bunday xatti-harakat va ishoralar muallif tomonidan qavs ichida to‘g‘ri

chiziq tagiga chizilgan gap holatida berilgan. Bu orqali bolalar nutqining tabiiyligini saqlab qolishga erishilgan.

Ayrim o‘rinlarda muallif tomonidan so‘z ma’nosining yanglish tushunilishining oldini olish maqsadida bildirilgan javob reaksiyalariga qavs ichida izohlar berib o‘tilgan. Bu holat lug‘atdan foydalanish jarayonida bola ifodalamoqchi bo‘lgan fikrning to‘g‘ri anglanishiga ko‘mak beradi.

Lug‘atga stimul so‘zlarning javob reaksiyasi miqdoriga ko‘ra tartibi, assotsiativ tajribada qatnashgan sinaluvchilar ro‘yxati ilova qilingan. Shuningdek, D.Lutfullayeva, R.Davlatova, B.Tojiboyev hammuallifligida yaratilgan o‘zbek tilshunosligidagi ilk tajriba sanaluvchi “O‘zbek tilining assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar)”da stimul so‘zning sinonimik, antonimik qatorlari, uyadoshlari ajratib ko‘rsatilishi mumkinligi haqidagi tavsiyani inobatga olgan holda biz stimul so‘z bilan o‘zaro sinonimik, antonimik, uyadoshlik munosabatidagi javob reaksiyalarini jadval asosida lug‘atga ilova qilishni lozim topilgan (Lutfullayeva, Davlatova, Tojiboyev, 2019, 15-bet)

Shu bilan birga lug‘atda bolalar nutqi ustida o‘tkazilgan og‘zaki assotsiativ tajriba jarayonidan namunalarni tinglash imkonini beruvchi QR-kodlar qayd etilgan. Ushbu kodni skanerlash orqali assotsiativ tajriba jarayonini jonli tinglash imkoniyatiga ega bo‘linadi. Bu esa lug‘atning sofligi hamda keltirilgan natijalarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Береснева, Н.И., Дубровская, Л.А., Овчинникова, И.Г. (1995) *Ассоциации детей от шести до десяти лет*. Пермь.
2. Соколова, Т.В. (1999) *Ассоциативный словарь ребенка: Вербальные реакции детей 3—7 лет. Ч. 1: От стимула к реакции*. Архангельск: Изд-во ПМПУ.
3. Lutfullayeva D., Davlatova R., Tojiboyev B. (2019) *O‘zbek tili assotsiativ lug‘ati (milliy-madaniy birliklar).* Toshkent: Navoiy universiteti.
4. Mirnosirova, D.N. (2022) *Bolalar assotsiativ lug‘ati.* Toshkent: Bookmany print.

ISH YURITISH HUJJATLARIDA YO‘L QO‘YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR

Mullayeva Farangiz Soib qizi
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakultetining
2-kurs talabalasi Mullayevafarangiz@gmail.com

Annotatsiya. *Rasmiy va publisistik hujjatlarda hamda nutq jarayonida juda ko‘plab xatoliklarga, kamchiliklarga duch kelamiz. Shu kamchililarni bartaraf qilish uchun, savodsizlikni oldini olish va ularni takrorlamaslik uchun imloviy hamda yozma nutqni shakllantirishimiz kerak. Qaysi o‘rinda qaysi so‘zni ishlatish kerak, ishlatilayotgan qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘llay olish judda katta ahamiyatga ega. Bu butun jamiyat doirasidagi global muammodir.*

Kalit so‘zlar: *Nutq, rasmiy uslub, imlo, hujjat, hujjatchilik, sheva.*

Abstract. *We encounter a lot of mistakes and shortcomings in official and journalist documents, as well as in the speech process. To eliminate these shortcomings, we need to form spelling and written speech to prevent illiteracy and not to repeat them. It is very important to know which word should be used in which place, and to use the adverbs used correctly. This is a global problem within the whole society.*

Keywords: *Speech, formal style, spelling, document, documentation, dialect.*

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ‘‘Hujjat’’ so‘ziga quyidagicha izoh beriladi: ‘‘Hujjat’’ arabcha so‘z bo‘lib, qayd qilish, tasdiqlash ma’nosini bildiradi. Shuningdek, u ijtimoiy tarixiy ahamiyatga ega bo‘gan yozuv va suratlar, asar yoki adabiyot ma’nosini ham ifodalaydi. (‘‘O‘zbek tilining izohli lug‘ati’’ 2008, 145-bet)

Boshqaruv jarayonining murakkabligi va serqirraligiga muvofiq , ravishda idoraviy ish yuritish qog‘ozlari, hujjatlari ham xilma-xil va miqdori juda ko‘p. Hujjatlarning maqsadi, yo‘nalishi, hajmi, shakli va boshqa bir qator sifatlari ham turlichadir. Shunday ekan, hujjatlar tiliga bo‘lgan umumiy talablar bilan bir qatorda har bir turkum hujjatlar tuzish ishiga qo‘yiladigan ko‘pgina lisoniy talablar ham mavjud. Muayyan turdagi hujjat, albatta, o‘ziga xos lisoniy xususiyat va

sifatlar bilan belgilanadi. Bu xususiyat va sifatlarni har taraflama chuqur tasavvur qilmasdan turib, mukammal hujjatchilikni yaratish haqida gap ham bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun hujjatlar tasnifi masalasi alohida ahamiyat kasb etadi

Hujjatlar matniga qo‘yiladigan talablardan biri xolislikdir. hujjatlar rasmiy munosabatlarni ifodalovchi va qayd qiluvchi rasmiy yozma vositalar sifatida axborotni xolis aks ettirmog‘i lozim. Shuning uchun hujjatlar tilida so‘z va so‘z shakillarini qo‘llash muayyan chegaralanishlar mavjud. Xususan, rasmiy ish uslubida kichraytirish va erkalash qo‘shimchalarini olgan so‘zlar, bachkana, dag‘al so‘zlar, tor doiradagi kishilargina tushunadigan so‘zlar, o‘xshatish, jonlantirish, mubolag‘a, istislo, tashxis kabi obrazli taffakkur ifodasi uchun hizmat qiluvchi usullar ishlatilmaydi.

Har bir hujjat alohida unsurlardan iborat bo‘lib ular rekvizit deb yuritiladi. Masalan, hujjat avtori, manzili, imzo, sana va boshqalar. Hujjatlarda joylashgan rekvizitlar yig‘indisi uning formulyarini tashkil etadi. Har qanday hujjatlar turli raekvizitlardan iborat bo‘lib, uning qanday hujjat ekanligini aniqlab beradi. [M. Aminov, A.Madvaliyev, N. Mahkamov, N.Mahmudov, 2007, 46-48-bet]

Shu bilan bir qatorda hozirgi kunda juda katta dolzarb muammolarni keltirib chiqarayotgan hujjatlardagi imloviy xatolar ham mavjud. Bu xatolar texnik, imloviy, mazmuniy hamda tinish belgilari bilan bog‘liq xatolar. Agar e’tiborsizlik qilsa hujjat mazmuniga ta’sir qilishi turgan gap. Bundan ko‘rinib turibdiki, muammolar, chigalliklar, tushunmovchiliklar kelib chiqadi. Bosh harflar imlosi, qo‘shib yozish, ajratib yozish, ismlarni hamda joy nomlarini, tashkilot, korxona nomlarini kichik harflarda yozib qo‘yish, bir so‘zni takrorlanib kelishi , mazmundagi asosiy gaplarni takrorlanib kelishi kabi qo‘pol xatolar va mazmunning bir-biriga mos kelmasligi kuzatiladi.

Imlo me’yorlari ya’ni to‘g‘ri yozish me’yorlari nutqiy savodxonlikni belgilovchi asosiy me’zon sanaladi. Imlo me’yorlari til vakillari tomonidan ongli ravishda kelishilgan holda yaratiladi

Adabiy tilda mavjud bo‘lib, shu tilda gaplashuvchilarga tushunarli bo‘lgan so‘zni qo‘llash nutqning muhim me’yorlaridan sanaladi. Hujjatlarda so‘zni to‘g‘ri qo‘llashda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

-so‘zning nutqda ortiqcha takrorlanmasligiga yo‘l qo‘ymaslik uchun uning ma’nodoshlardan o‘rinli foydalanish:

-shakldosh va paronim so‘zlarni ma’nolarini farqlagan holda qo‘llash:

-so‘zlashuvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan sheva so‘zlarini yoki ijtimoiy guruhlarga oid argolarni qo‘llamaslik:

-o‘zlashma so‘zlarni noo‘rin qo‘llashdan cheklanish, ularni adabiy tildagi muqobilidan foydalanish:

-so‘z qo‘llashda ixchamlik , tejamkorlikka erishish

Bular nafaqat rasmiy uslubda balki so‘zlashuv uslubida ham so‘zlarni noo‘rin qo‘llash qo‘pol xato hisoblanadi. Bu xatolarning kelib chiqishi sheva va lahjalarda so‘zlashish oqibatida yuzaga keladi. Agar insonlar o‘zining sheva nutqida so‘zlasa, tabiiy holki, yozma nutqda ham bu so‘zlardan foydalanadi va yuqorida aytib o‘tilgan kamchiliklar kuzatiladi. Rasmiy-idoraviy nutq uslubi jamiyatdagi ijtimoiy-huquqiy munosabatlar, davlat va davlatlararo rasmiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar uchun hizmat qiluvchi uslubdir. Bu uslub hujjatchilik harakteri bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, yozma nutqning xizmatga doir bu turi davlat qonunlari, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, e’lonlar va boshqa rasmiy yozishmalar uslubi hisoblanadi. Rasmiy uslub tiling asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlilik, unda muayyan nutq qoliplar kasb-hunar so‘zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo‘llanadi, nutqning anniq va ravon ifodalanishi ta’minlanadi. Tayyor nutq qurilmalari (shu asosda; shunga ko‘ra; ma’lum qilamizki; …biz; quyda imzo chekuvchilar, …ga asosan (muvofiq); … uchun, …dan kelib chiqib; … sharti bilan; … berilsin; … tasdiqlansin kabi

Hujjat matnining darak hikoya xarakterida bo‘lishini so‘zlarning bir ma’noda ishlatilishini badiiy-tasviriy vositalarning bo‘lmasligini, fe’lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo‘shma gap turlarining keng qo‘llanilishini talab qiladi. Til materiali hujjatning turi va xarakteriga qarab tanlanadi. Hujjatlar turiga

qarab o‘zining yozish shakli va mazmuni bo‘ladi. Masalan, ariza yozishda qo‘llangan shakl, tub g‘oya, yozish usuli, qo‘llanadigan so‘zlar hamda mazmun shartnomada qo‘llanilmaydi. Shunday bo‘lsa, bu qimmatli qog‘ozning asosiy mazmuni o‘zgaradi. Nutqda ham bundan mustasno emas.

Hujjat tayyor va ish yuritishda imlo me’yorlariga va tinish belgilarning to‘g‘ri qo‘yilishiga qatiy amal qilish lozim. Hujjat matnida vergul, nuqtali vergul, ikki nuqta, qavs vergul, tire nisbatan faol. Unutmangki, hujjat nomi va ,matn sarlavhasidan keyin nuqtda qo‘yilmaydi. Vergul hujjat matnida qoliplangan kirish birikmalaridan so‘ng uyushiq va ajratilgan bo‘laklar orasida, izohlovchi va izohlanmish o‘rtasida qo‘llaniladi. Masalan: “*shuni hisobga olib”, “men 1-bosqich talabasi Gulbahor Samandar qizi*” kabi.

Nuqtali vergul izohlanayotgan voqea, narsalaning tartib raqami , qavs bilan ajrtilgan so‘zlar, birikma va gaplardan so‘ng qismlari mazmunan farqlanuvchi qo‘shma gaplar tarkibida ishlatiladi. Masalan:

-Talabaning majburiyatlari:

1. o‘quv yurti nizomiga amal qilish ;

2. dars va o‘quv mashg‘ulotlarida faol qatnashish;

Ikki nuqta hujjatlar matnida quydagi hollarda qo‘yiladi.

-matn tarkibida izohlanayotgan, sanalayotgan bo‘laklardan oldingi umumlashtiruvchi ‘’Quyidagilar’’, “Shu haqida” kabi so‘zdan oldin;

-farmoyish hujjatlarida “BUYURAMAN” so‘zidan, bayonnomaning “Kun tartibi”, “Eshitildi”, “So‘zga chiqdilar”, “Qaror qilindi” kabi zaruriy qismlardan so‘ng;

-matnning “Asos”, “Ilova” kabi qismlardan keyin.(N.Mahmudov , A. Rafiqov, I. Yo‘ldoshov, 2008, 120- 140-bet)

Hujjat va imloning mos tushmasligi hamda shu bilan bog‘liq muammolarga nafaqat tahririyat ishida, balki kundalik hayotda ham tez-tez sodir bo‘ladi. Bu muammo jamiyatda qachon paydo bo‘ldi? Taassufki, kecha emas. Qarangki, ushbu masalaning ilk marta milliy matbuotimizda yoritilganiga 100 yil bo‘libdi!

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Oyna” jurnali 1914-yil 18-sonida chop etilgan “Jaholat dardlaridan” sarlavhali maqolasi aynan shu mavzuga bag‘ishlangan edi. Muallif “Absamat”, “Obduraxmon”, “Nutfullo” (Lutfullo), “Jodugor” (Yodgor), “Patxulla”larning ismlari “hujjatlar va hukumat mahkamalarida ham shul g‘alat va masharalik holatda” yozilishi haqida achinish bilan hikoya qilib, o‘sha davrdayoq bu muammoni hal etishga chaqirgan edi. Avvallari xatolar davlat mahkamalarida asosan rus millatiga mansub kishilarning ishlashi bilan izohlanar edi. Bu muammo ma'lum ma’noda bartaraf etildi ham, biroq xatolardan hanuz qutilmadik. Ayniqsa, “h” va “x” xarflari qatnashgan ism-familiyalarning to‘g‘ri yozilganidan noto‘g‘risi ko‘p. Qolaversa, shunday ismlar ham borki, ularning asl imlosi allaqachon unutilib ketganday: “Bobir”, “Mashkura”, “Begzod”, “Timur”, “Nemat”. Ism noto‘g‘ri yozildimi, demak qachondir undan hosil bo‘ladigan familiya ham xato bilan yoziladi. “Radjabov”, “Saparov”, “Kasimov”, “Yuldashev”, “Alimov”, “Sadikov” kabi familiyalarning kelib chiqish tarixi xam shu bilan bog‘liq. Afsus, ular avloddan avlodga o‘tib kelmoqda va ularning yangi egalari ham bu familiyalarni xatosi bilan birga qabul qilishmoqda. Hech kim bu xatolarga qarshi bosh ko‘tarishga jur’at qilolmayotganday! Mana, masalan, ko‘p uchraydigan familiyalardan biri – “Artikov”. Nahot hech kimda savol tug‘ilmasa: “Artik degan ism bormi?”.Yoki ko‘p tarqalgan familiyalardan yana biri: “Babadjanov”. Nahot familiya egalari bir so‘zdagi naq to‘rtta xatoga ko‘z yumsa! Xatolar shunchaki imlo bilan bog‘liq bo‘lsa mayli, biroq ba’zida ular lug‘aviy ma’noga ham ta’sir qilishi mumkin. (N.Mahmudov , A. Rafiqov, I. Yo‘ldoshov, 2008, 110-115-bet)

Xatoni hujjat bilan bog‘ladik, hatto ko‘pchilikning ortiqcha qog‘ozbozlikni xushlamagani uchun uni tuzatmasligini bildik. Hujjatlardan tashqarida o‘z ismimizni to‘g‘ri yozamizmi? “Facebook” ijtimoiy tarmog‘ida o‘zbekistonlik foydalanuvchilar soni 100 mingga yaqindir. E’tiborga molik jihati, ularning aksariyati ism-sharifini profiliga xato(lar) bilan yozgan. Hatto katta yoshli,

ayrim hollarda oliy ma’lumotli kishilar ham ismlarini xato bilan yozishganini ko‘rish mumkin.

Maqolaning muqaddimasidagi mavzuga qaytmay iloj yo‘q. Zero, gazetalarimizda ham ism-shariflarning xatolar bilan yozilishiga tez-tez ko‘zimiz tushadi. Tahririyatlar buni hujjat bilan aynanlikni ta'minlashga intilgani bilan izohlashadi. Ayniqsa, chet mualliflar yoki intervyu bergan respondentlar ism-familiyalari o‘zgartirib yozilganda, norozilik bildirish mumkin. Xo‘sh, aslida bu kabi holatlarda tahririyat qanday yo‘l tutishi kerak? Xatoni tuzatish kerakmi yoki gazeta orqali qonuniylashtirishmi?

Xulosa qilib aytganda, har qanday noo‘rin so‘z yoki gap hamma narsani o‘zgartiradi. Shuning uchun og‘zaki va yozma nutdagi yozuv kamchiliklarini o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish lozim. Hozirgi kunda deyarli rasmiy umuman olib qaragada barcha hujjatlarda ham shu xatoliklar kuzatiladi ya’ni disgrafiya jarayoni ayniqsa imloviy xatoliklar. Bu oddiy xato yoki kamchilik emas, bunga shunchaki yuzaki qarab bo‘lmaydi. Bu savodsizlik. Savodsizlik esa jamiyatni yemiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mahmudov N. Rafiqov A. Yo‘ldoshev I. “Davlat tilida ish yuritish” 2008-yil. Toshkent. Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.

2.Aminov M. Madvaliyev A. Mahkamov N. Mahmudov N. “Davlat tilida ish yuritish” amaliy qo‘llanma 2007-yil. Toshkent. Donishmand ziyosi nashriyoti.

3.Aminov.M ‘‘Davlat tilidan ish yuritish ‘’ 2020-yil. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti.

4. ‘‘O‘zbek tilining izohli lug’ati’’ 2008-yil. Toshkent. ‘‘O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ Davlat milliy nashriyoti.

HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA USLUBSHUNOSLIKNING JAMIYAT BILAN BOG‘LIQ HOLDA O‘RGANILISHI

Ne’matova Nilufar Sherzod qizi
ToshDO‘TAU o‘zbek tili
va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs talabasi
nilufarnematova47@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada nutq uslublari hamda ularning adabiy me'yor qoidalariga muvofiq tarzda qo'llash doiralari, xususan, uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf, bundan tashqari uslubiy bo'yoqdorlik munosabatlari va nutq stilistikasidagi ba'zi muammoviy vaziyatlar xususida so'z boradi. Maqolada stilistikaning hozirgi vaqtdagi qo'llanilish doirasi haqida fikr yuritib qolmasdan, uning o'tmishdagi holatlariga ham alohida urg'u berilgan.*

Kalit so'zlar:*stilistika, uslubiyat, uslubiy bo'yoq, adabiy me'yor.*

Abstract. *this article talks about speech styles and the scope of their application in accordance with the rules of literatury norms, in particular, stylistically specific and stylistically neutral, as well as stylistic coloring relationships and some problematic situations in speech stylistics. It is worth noting that the article dos not well on the current scope of stylistics, but also places special emphasis on its past situations.*

Keywords*: stylistics, methodology, stylistic color, literary standart.*

Jamiyatda turli nutqiy vaziyatlarda turlicha munosabat bildirib, turlicha muloqot qiladigan shaxslar mavjud.Ushbu insonlar o'z doiralarida muayyan nutqiy vaziyatlarda ma'lum bir shaklda gaplashishadi. Bu holat nutq shakli deb ataladi.Tilshunoslikda nutq shakllari nutq uslublarini hosil qiladi. Ushbu uslublarni o'rganuvchi soha uslubiyat yoki stilistika deb ataladi.

Bugungi kunda uslubiyatni o'rganish maktab davridan boshlanadi. Bundan maqsad, bola ongida maktab davridanoq stilistikani singdirish, shu sababli faqatgina bir sinfda emas, balki bir necha yoshdagi sinflarda o'tilayotgani hech kimga sir emas. Bu yaxshi, albatta. Ammo tanganing boshqa tarafi bor, ya'ni maktab yoshidan stilistika o'rganilib kelinsada, ba'zan jamiyatda uslublarning buzilganini guvohi bo'lamiz. Masalan, rasmiy davlat lavozimidagi shaxslar nutqida varvarizmlar, so'zlashuv uslubiga xos so'zlar ishlatilayotgani kishini taajjubga soladi. Bu holat hattoki, xalqaro konferensiyalarda, siyosiy anjumanlarda ham o'z aksini topmoqda. Faqatgina rasmiy uslubda emas, balki publisistik uslub ham bu kamchiliklardan holi emas. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalaridagi jurnalistlar nutqida bu jihat yaqqol ko'rinadi. Turli hududlardagi dialektlar, ko'cha so'zlari,

varvarizmlar, teleekranlarda shunchalik ko‘p beriladiki, ko‘rib beixtiyor o‘yga tolasan kishi. Bunday vaziyatlar, asosan, xususiy telekanallarda ko‘p kuzatiladi.Demakki, bu holat ba’zan nisbatan mustaqil deb hisoblangan publisistik uslubning ustidan ham birmuncha nazorat o‘rnatish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Aslida bunaqa muammoli vaziyatlar nutqiy uslubga xos bo‘lgan uslubiy bo‘yoqning bor yoki yo‘qligi bilan ham xarakterlanadi.

Uslubiy bo‘yoq nutqni to‘g‘ri va ta’sirli tuzishda, nutqiy uslublarni maqsadga muvofiq shakllantirishda alohida o‘rin tutadi. Uslubiy bo‘yog’i bor bo‘lgan so‘zlardannutqda his-tuyg’ularni, so‘zlovchining voqelikka nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatini ifodalash maqsadida foydalaniladi (Jamolxonov.H, 2005-211). Tilshunoslikda so‘zning muayyan uslubga mansubligi va unda so‘zlovchi subyektiv munosabatining ifodalanganligi uslubiy bo‘yoq deyiladi. Ular ikki turli bo‘lib, “funksional bo‘yoq”da ma’lum uslubga xoslik yetakchilik qiladi, ikkinchi turdagi uslubiy bo‘yoq hisoblanmish “ematsional-ekspressiv bo‘yoq”da so‘zlarning salbiy yoki ijobiy tomoni, ya’ni ma’noviy munosabati muhim hisoblanadi.

Stilistika tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, stilistika- grekcha “stylos” so‘zidan lingan bo‘lib, “suyakdan qilingan uchli tayoqcha” degan ma’noni anglatadi (A.J.Omonturdiev, 2019:34). Bu so‘z o‘zagidagi “stil” so‘zi o‘tmishdayoq “bo‘g‘in, nutq stili” ya’ni uslub ma’nosida qo‘llanilgan. Davrlar o‘tishi bilan turli sohadagi stillar shakllandi. Bularning orasidan uslubiyat, aniqroq aytganda nutq stilistikasi alohida soha sifatida ajralib chiqdi. O‘zbek tilshunosligida qaysidir jihatdan yangi soha deb qaraluvchi hamda nutq uslublarini o‘rganuvchi sohasi uslubiyat yoki uslubshunoslik deb ataladi. S.Sultonsaidova va O‘.Sharipovaning “O‘zbek stilistikasi” kitobida aytilishicha, nutq uslublari ba’zi adabiyotlarda “funksional stilistika” yoki “funksional stil turlari’ deb ham yuritiladi. Nutq stillari o‘ziga xos belgilari va farqlaridan qat’iy nazar, adabiy til me’yorlari asosida umumiylikka ega (S.Sultonsaidova va O‘. Sharipova, 2009:9). Adabiy me’yor atamasiga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da shunday sharh beriladi.

“Adabiy me’yor til tovush tizimini grammatik ko‘rinishi va lug‘at tarkibidagi eng hayotiy va zaruriy vositalarni tanlab olish demakdir. Adabiy me’yor tilning eng yuksak ishlangan , silliqlangan shaklidir. Adabiy me’yor nuqtayi nazaridan umumiylikka ega bo‘lgan har bir uslub til xususiyati jihatidan farqlanadi.

Uslublarning farqli jihatlari ,avvalo, qo‘llanilishida ko‘rinadi , ya’ni so‘zlashuv og‘zaki nutqda , badiiy , publisistik , ilmiy va rasmiy uslublar esa og‘zaki va yozma shakllarda qo‘llaniladi. Masalan, ilmiy uslubda ilmiy ma’ruza matni yozma , ma’ruzaning o‘zi esa og‘zakida, badiiy uslubda badiiy adabiyotlar yozma, xalq og‘zaki ijodi esa og‘zaki shaklga xos. Yana bir qatlam mavjudki, ular ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, demakki nutq uslublarining ham barchasida birdek qo‘llana oluvchi til birliklari hisoblanadi. Ushbu birliklar uslub nuqtayi nazaridan betaraf, ya’ni ma’lum bir uslubga xoslanmagan va ular tilimizda juda katta qismni tashkil etadi. Masalan, havo, suv, darxt, bir, ikki, hamma, biz, siz, turmoq, yugurmoq, kitob, uy va hokazo.

Ayni paytda, tilimizda bir qancha vositaviy shakllar borki, ular ma’lum bir uslubga xoslangan bo‘ladi va faqat shu uslubda qo‘llanila oladi. Bu tushunchalar uslubiy xoslangan so‘zlar hisoblanadi. Masalan, tovush, urgu, bo‘g’in, undalma, morfema , leksema kabi so‘zlar uslubiy xoslangan so‘zlar hisoblanadi. Chunki bu so‘zlar faqatgina tilshunoslikda qo‘llaniladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, uslubshunoslik masalalari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. jamiyatning bir bo‘lagi sifatida yashayotgan har bir inson stilistik madaniyatga ega bo‘lishi lozim. Sababi, aslida uslub so‘zlovchi va yozuvchining ifodalanayotgan fikrga, voqea, hodisaga shaxsiy munosabatidir (Z.Xolmonova, 2007-106). Xoh xalqaro anjumanda bo‘lsin, xoh badiiy asar yozsin, jurnalistlik bilan shug‘ullanib, xalq hayotini yoritsin, yoinki uyda bo‘lsada, nutqiy muloqotga e’tibor berish madaniyatning oliy ko‘rinishidir. Nutqiy uslublar, umuman stilistikani o‘rganish faqatgina rasmiy shaxslar uchun emas, balki butun bir jamiyat uchun, xalq uchun shart va zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.J.Omonturdiev va Sh.I.Abduraimova (2019) “O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati” Toshkent-96 b
2. H.Jamolxonov (2005) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent- 271 b
3. https://zenodo.org
4. S.Sultonsaidova va O‘.Sharipova (2009) “O‘zbek tili stilistikasi” Toshkent- 111 b
5. Z.Xolmonova (2007) “Tilshunoslikka kirish” Toshkent-176 b

TAQLID SO‘ZLARNI TASNIFGA KIRITISH MASALASI

Norboyeva Robiya,
Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
2-kurs talabas robiyanorboyeva1204@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada taqlid so‘zlar, ularning tilshunoslikdagi ahamiyati, tilshunoslik fanida alohida so‘z turkumi sifatida tutgan o‘rni, taqlid so‘zlar haqida o‘rtaga tashlangan fikrlar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Taqlid so‘zlar, onomatopeya, tovushga taqlid so‘zlar, holatga taqlid so‘zlar, undov so‘zlar.*

O‘zbek tilshunosligida turlicha muammolar mavjud. Bu muammolarga olimlarning fikrlari, qarashlari ham turlichadir. Bunday muammolardan biri taqlid so‘z mustaqil so‘z turkumimi yoki yo‘q? Bu muammoga o‘zbek tilshunos olim va olimalari turlicha fikr bildirgan. Taqlid so‘z o‘zi nima? Taqlid so‘z - ma’no va shakliy xususiyatiga ko‘ra alohida guruhni tashkil qiluvchi kishilar, hayvonlar va boshqa jonli-jonsiz narsalarning tovushini, harakat-holatini taqlidan ifodalovchi so‘zdir. R.Sayfullayeva hamda B.Mengliyevlarning fikrlariga ko‘ra taqlid so‘zlar o‘zbek tilida bir guruhni tashkil etadi va ular mustaqil so‘zlar hisoblanadi. Ular bu fikrlarini bir nechta ilmiy asoslar yordamida asoslab berishgan.

Birinchidan, turkiy tillarda taqlid so‘zlar miqdoran ko‘p va ular ma’no jihatidan rang-barangdir.

Ikkinchidan, ularning tovushlar tizmasi ma’lum bir obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, taqlid so‘zlar gap tarkibida ma’lum bir sintaktik vazifani egallaydi.

Ushbu olim va olimalarimizning fikrlariga nomutanosib holda yana bir mashhur tilshunos olim Sh.Rahmatullayev ham taqlid so‘zlar haqida o‘z fikrlarini bayon etgan. Ular turkumlarni tasniflaganda taqlid so‘zni modal, undov so‘zlar bilan birgalikda alohida olingan so‘zlar deb nomlaydi. Olim o‘z tasnifida leksemalarning sintaktik vazifa bajara olish qobiliyatiga ko‘proq e’tibor beradi. Taqlid so‘zlar 60-yillarda alohida so‘z turkumi sifatida qo‘llanmagan. O‘sha vaqtlargacha yozilgan qo‘llanmalarda taqlid so‘zlar undov so‘zlarning ajralmas qismi sifatida ko‘rsatilgan. Olimlarimizdan yana biri R.Qo‘ng‘irov ham o‘zining kuzatishlari davomida taqlid so‘zlarga undovlardan boshqa so‘z turkumi sifatida qaraydi. Yuqorida olimlarimiz taqlid so‘zlar haqida turlicha fikr bildirdilar. Shunga ko‘ra, bugungi kunda taqlid so‘zlar mustaqil so‘z turkumlari sifatida mavjud. Taqlid so‘zlar o‘zbek tilining muhim ifoda vositasi sanaladi. Ularning ifoda tomoni mazmum tomoni bilan tabiiy bog‘lanishga egadir. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rishimiz mumkin:

Tiq-tiq/tuq-tuq/taq/taq

Ushbu misolda fonetik qiyofasi tor unli va qattiq undoshdan iborat bo‘lgan taqliddagi belgi darajasi keng unli va qattiq undoshdan iborat bo‘lgan taqlid ifodalagan belgidan pastdir. Bu taqliddagi shakl va mazmunning tabiiy bog‘lanishini ko‘rsatgan.

Taqlid so‘zlar nimani ifodalab kelishiga ko‘ra ikki turga ajraladi:

1.Tovushga taqlid;

2.Ko‘rinish-holatga taqlid.

Tovushga taqlid so‘zlar eshitish bilan, holatga taqlid so‘zlar esa ko‘rish bilan aloqadordir. Ya’ni tovushga taqlid so‘zlar ifodalagan tovushini faqat eshitishimiz mumkin, holatga taqlid so‘zlarni esa harakat va holatda ko‘rishimiz mumkin.

Tovushga taqlid so‘zlar: g‘a-g‘a (o‘rdak ovoziga taqlid), di-dit (mashina signaliga taqlid), tars-turs (biror narsaning singan tovushiga taqlid), g‘iyq-g‘iyq (eshik ochilishiga taqlid), vov-vov (kuchuk ovoziga taqlid), miyov-miyov (mushuk ovoziga taqlid), ship-ship (qadam tovushlariga taqlid) va boshqalar....

Holatga taqlid so‘zlar: lip-lip (chiroq o‘chib-yonishiga taqlid), jimir-jimir (suv harakatlariga taqlid), yalt-yult (ko‘rinishga taqlid) va boshqalar....

Taqlid so‘zlarning tilshunoslikdagi ahamiyati shundan iboratki, tovush va harakat obrazini ifodalaydi. Taqlid so‘zlarning takroriy formasi tovush va harakatni kuchaytirishdan tashqari, harakatning birdan ortiq bo‘lganligini, davomliligini ham bildiradi. Undov so‘zlarda esa takror emotsionallikni oshiradi. Bundan tashqari taqlid so‘zlar yangi so‘zlar yasashda juda ham aktiv so‘zlar hisoblanadi. Bunday so‘zlarga –illa fe’l yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali bir qancha yangi so‘zlar yasash mumkin. Undov so‘zlarda bunday xususiyat kuchli emas. **Masalan,** vov-vov taqlid so‘ziga –illa fe’l yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish orqali vovullamoq fe’li yasaldi.

Taqlid so‘zlarning tilshunosligimizda tutgan o‘rni hamda ahamiyati ham sezilarli darajada. Ular so‘z boyligimiz oshishiga ham katta ta’sir o‘tkazuvchi so‘zlardir. Chunkli ularga so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali bir qancha yangi so‘zlar yasaladi. Taqlid so‘zlarni tasnif qilish orqali, olimlarimizning fikrlariga asoslanib taqlid so‘zlar undov so‘zlardan alohida mustaqil so‘z turkumi degan xulosaga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. SH.Rahmatullayev. (2006) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.:-Universitet nashriyoti.

2. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Boqiyeva G.H, Qurbonova M.M, Yunusova Z.Q, Abuzalova M.Q. (2010) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.

3. R.Qo‘ng‘irov. (1996) O‘zbek tilida tasviriy so‘zlar. Toshkent

RAVISH YASALISHIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR

Nurmatova Sabrina Jahongir qizi
O‘zMU Jurnalistika fakulteti 2-kurs talabasi
sabrinamustofoyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Tilshunoslikning tarkibiy qism sifatida rivojlanib borayotgan so‘z yasalishi bo‘limi haqida ko‘plab ilmiy ishlar va darsliklar nashr qilingan. Maqolada ravish so‘z turkumida derivatsiya, ya’ni yasalish hodisasi haqida fikr*

yuritilgan. Ba'zi manbalarda darsliklarda ravish yasalmaydigan so'z turkumi sifatida qaralgan, ammo boshqa mutaxassislarning fikricha, ravish yasalish xususiyatiga ega. Ushbu maqolada esa, ravishning yasalish xususiyatiga ega ekanligi sodda va yasama so'zlar hamda bir tarkibli va bir necha tarkibli qo'shimchalarni qiyoslash orqali izohlashga isbotlashga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *Derivatsiya, yaxlitlanish, omonimlik hodisasi, affiks, sinonimlik, tur, turkum.*

Abstract: *Many academic works and textbooks have been published on the developing branch of word formation as a component of linguistics. The article discusses the phenomenon of derivation, namely formation, in the phraseology. In some books adverb is the considered as a word group that cannot be formed, but according to other experts, adverb has the property of being formed. Is the article, an attempt was made to prove that adverb has a compositional feature by comparing simple and artificial words and single-content and multi-content adverbs.*

Key words: *Derivation, rounding off, the phenomenon of anonymity, affix, synonymy, different, category.*

So'z yasash yangi ma'no hosil qilish demakdir. So'z yasalishi lug'aviy (atash) ma'noning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, *jannat* joy otini nomlab kelsa, *jannati* shu joyga xos inson belgilarini atashga xizmat qiladi. So'z yasalganda ko'pincha boshqa turkumga ko'chadi. Shuning uchun yasalma ham o'z grammatik shakllarini o'zgartiradi. Misol uchun, *ish* leksemasi ot turkumiga xos bo'lib, shu turkumga mansub kelishik, ko'plik, egalik shakllarini qabul qila oladi. *Ishla* leksemasi esa, fe'l bo'lganligi sababli zamon, shaxs-son, mayl formalarida tuslanish xarakteriga ega.

Ravish harakat va holatning belgisini bildiruvchi so'z turkumi bo'lib, gapda asosan hol vazifasini bajaradi. Ravish yasalishi haqida o'zbek tilshunos olimlari bir to'xtamga kelmagan. Ba'zi tilshunoslar ravishning yasalishini inkor etadi, ba'zilari esa ravish affiksatsiya va kompozitsiya usullari orqali yasaladi degan qarashni yoqlaydi.

Ravishlarning asosiy qismi asli boshqa turkumlarga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksemalardir. Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini, -ona, -an qo‘shimchalari arab va tojikcha so‘zlar tarkibida uchrashini, -larcha, -chasiga, -lab kabilarning grammatik ma’no ifodalashi bilan va -iga, -siga, -chasiga kabi qo‘shimchalarning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydilar.

O‘zbek tilida ravish yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda *do‘stlarcha, qahramonlarcha* kabi so‘zlar tarkibidagi -larcha, -gancha kabi qo‘shimchalar -cha affiksiga -lar va -gan affiksining birikuvidan hosil bo‘lgan qo‘shma affikslar deb ta’riflanadi. Vaholanki, bunday so‘zlar tarkibidagi -lar va -cha, -gan va -cha affikslarining birikuvidan hosil bo‘lgan emas, aksincha, -lar, -gan, -cha alohida-alohida mustaqil morfemalar hisoblanadi. Ravish yasovchi deb qaralayotgan boshqa affikslarning ba’zilari umuman so‘z yasovchi emas yoki sanoqli so‘z tarkibida uchraydi. O‘zbek tilida ravish yasalishi haqida fikr yuritilgan ishlarda yasama ravish deb keltirilgan fakt, misollarning barchasi o‘zbek tilida ravish yasalish hodisasi, ravish yasalish sistemasi borligini emas, aksincha yo‘qligini isbotlashga xizmat qiladi (A. Hojiyev, 2010, 176-bet). Bu bilan olim ravish yasalish hodisasini mutlaqo inkor etadi. Bizningcha, ravish affiksatsiya (asosga qo‘shimcha qo‘shish) hamda kompozitsiya (so‘zga so‘zni qo‘shish) usullarining har ikkisida ham faol yasaladi. Buni *mardona, erkakcha, haftalab* kabi so‘zlar ham isbotlaydi. Boisi, mard va mardona, erkak va erkakcha, hafta va haftalab leksemalarining ma’nolari o‘rtasidagi farqdir.

-cha affiksi haqida turli adabiyotlarda turlicha fikr yuritilgan. Jumladan, Sh.Rahmatullayev -cha affiksini istalgan millat, xalq nomiga qo‘shib ishlatilaveriladigan qo‘shimcha sifatida baholaydi hamda shu millat, xalqqa mansub ma’nosini ifodalagani sababli shakl yasovchi deb baholanishi lozimligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari -cha affiksi *ko‘pincha, o‘g‘rincha* kabi leksemalarning doimiy tarkibiy qismiga aylangan, hozirgi kunda ko‘pin, o‘g‘rin shakllari mustaqil ishlatilmaydi, degan qarashlarni ilgari suradi hamda -cha affiksini so‘z yasovchi emas, balki shakl yasovchi affiks sifatida talqin etadi.

Shunga o‘xshash fikrlar A.Hojiyev asarlarida ham ta’kidlanadi. Ammo yaxshilab e’tibor berilsa, -cha affiksi butunlay yangi ma’no hosil qilishda qo‘llanilishi ayon bo‘ladi. Ona tili darsliklari va ba’zi qo‘llanmalarda ham -cha affiksining yangi ma’no yasashi haqida aytib o‘tilgan va misol tariqasida *qisqacha, boshqacha, buguncha, yangicha* kabi so‘zlar keltirilgan. Aslida ham, -cha affiksini lug‘aviy shakl yasovchi deyishga hech qanday asos yo‘q, chunki ushbu affiksni shakl yasovchilarning hech bir turiga kiritib bo‘lmaydi, hech bir turkumga mansub bo‘lolmaydi. Ot so‘z turkumiga mansub kichraytirish-erkalash shakllari tarkibidagi -cha (uycha, kitobcha) butunlay boshqa hodisa bo‘lib, yuqorida fikr yuritilgan -cha shaklidan katta farq qiladi. *Shoshilgancha, istagancha, yugurgancha* kabi so‘zlarning asos va qo‘shimchalarga to‘g‘ri ajratilmaganligi hamda ikki affiks birikuvidan yasalgan hosila va tarkibiy qismga ajratilmaydigan affikslarning omonimlik hodisasini payqamaslik natijasida ravish va ravishdosh o‘rtasidagi farq yo‘qolgan. Shoshil, ista, yugur so‘zlari fe’l turkumiga tegishli bo‘lib, -gancha, -guncha, -gach kabi ravishdosh hosil qiluvchi affikslarni qabul qiladi. -gach, -guncha, -gancha shakllari o‘zaro harakatning chegarasini ifodalash belgisi bilan farqlanishi R.Sayfullayeva va boshqa mutaxassislar asarlarida ham ta’kidlangan. Bundan ayon bo‘ladiki, -gancha, -guncha affikslari qismlarga ajratilmaydigan ravishdosh shakllari bo‘lib, shoshilgancha kabi so‘zlar tarkibidagi affiksni -gan+cha kabi qismlarga ajratish xatodir.

Ravish yasovchi -larcha ko‘rsatkichi ham keltiriladi, qahramonlarcha, aybdorlarcha, mardlarcha kabi. Bu yerda o‘xshash ma’nosini ifodalaydigan -cha affiksi -lar ko‘plik yasovchidan keyin qo‘shiladi va -dek shakl yasovchiga sinonim bo‘ladi: qahramonlarcha-qahramonlardek. (Sh.Rahmatullayev, 2006, 229-bet) Ushbu fikrlari ham, bizningcha, to‘g‘ri emas, sababi -larcha affiksi ham xuddi -guncha kabi ajralmas qo‘shimcha bo‘lib, yangi atash ma’no hosil qilish xususiyatiga ega. Ushbu affiksni -lar+cha deb ajratilishi hamda -cha qo‘shimchasini -dek affiksiga sinonim bo‘lganligi sababli lug‘aviy shakl yasovchilar sirasiga kiritish xatodir. Tilimizda sinonimlik bir turkumda va bir necha turkum doirasida kuzatilishi barchaga ma’lum. Ammo *onamga oldim* –

onam uchun oldim yoki *telefonda gaplashmoq – telefon orqali gaplashmoq* singari ma’nodoshlik hodisalarini ham rad eta olmaymiz. Kelishiklar va ko‘makchilar o‘rtasida kuzatilgan sinonimlik singari so‘z yasovchi va lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar o‘rtasida ham sinonimlik kuzatilishi tabiiy.

Bundan tashqari -chasiga affiksini ham uch qism (-cha+si+ga) ga bo‘lib talqin etish hollari uchraydi. Misol qilib yigitchasiga so‘zini olsak, yuqoridagi bo‘linishga ko‘ra yigit+cha+si+ga kabi morfemalarga ajratish mumkin. Ajralgan har qism alohida olib qaralganda mustaqil ma’no ifodalashi kerak. Ammo yigitcha yoki yigitchasi singari qismlar kutilgan natijani bermaydi hamda -chasiga affiksini qismlarga ajratish xato ekanligi ayon bo‘ladi. Bundan tashqari ravishlarda egalik hamda kelishik qo‘shimchalari yaxlitlanadi, degan qoidani esga olsak, nafaqat -chasiga, balki -lari affikslarini ham tarkibiy qismlarga ajratish mumkin emasligi yana bir karra isbotlanadi.

Ravish yasovchi -an affiksini ham ravishlarda yaxlitlangan, deyish noto‘g‘ridir. Chunki -an affiksi hozirgi kunda serunum ravish yasovchi hisoblanadi. Tasodif, ruh, taxmin, qism, vijdon singari otlar hamda qat’iy, majbur singari sifatlarga qo‘shilib asos ma’nosidan uzilmagan ravishda yangi ma’no hosil qilish vazifasini bajaradi. Masalan, uning taxminlari to‘g‘ri chiqdi; u taxminan gapirdi.

Ravish yasalishi kompozitsiya usulida ham ko‘plab kuzatiladi va bu usul orqali qo‘shma ravishlar hosil bo‘ladi. Ularning tarkibi olmosh+ot (har gal, har zamon, har kun), ravish+ot (hali zamon, hali beri), son+ot (bir safar, bir dam) ko‘rinishlarida bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilida har ikki usul – affiksatsiyada ham, kompozitsiyada ham ravish yasalishi mumkin va ravish yasala olish xususiyatiga ega bo‘lgan mustaqil so‘z turkumidir. Biror so‘zning yasama yoki tub ravish ekanligini farqlash, umuman olganda, ravishlarning derivatsiyasini aniqlash uchun:

so‘zlarni to‘g‘ri morfemik tahlil qila olish (harbiy+chasiga);

omonim affikslarni ajrata olish (erkakcha – kitobcha);

ravish va ravishdoshni farqlay olish (qahramonlarcha – yugurgancha);

yasashga asos qism hamda yasalma aloqasini aniqlay olish (qalban, majburan);

singari masalalarni bilish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Hamroyev.M.A. (2005).O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. Toshkent. 97-bet.
2. Hojiyev. A. (2010). O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. Fan. Toshkent. 176-bet
3. Rahmatullayev. Sh. (2006). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Universitet. Toshkent. 229-bet
4. Sayfullayeva.R. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 261-bet.
5. Tojiyev. Y. (1992).O‘zbek tili morfemikasi. Toshkent.

METAFORA, UNING O‘ZIGA XOS TABIATI VA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI

Ochilova Zilola Xabibjon qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili ta’limi fakulteti
2-kurs talabasi. chilovazilola02@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada metaforaning kelib chiqishi, hozirgi kundagi ahamiyati, boshqa sohalar bilan aloqadorligi, tilshunoslikdagi o‘rni qay darajada ekanligi metaforik nominatsiyaning xususiyatlari leksik jihatdan talqini, leksemaning yondosh semalarda ifodalanishi, kognitiv tilshunoshlikdagi o‘rni o‘zbek tili misolida yoritildi.*

Kalit so‘zlar: *Metafora, ko‘chish, termin, nominatsiya, lisoniy metafora, kognitiv metafora.*

Abstract: *In the article, the origin of metaphor, its significance today, its relation with other fields, its role in linguistics, the characteristics of metaphorical nomination, the lexical interpretation of metaphor and the expression of lexemes in related terms, its role in cognitive linguistics were covered using the example of the Uzbek language.*

Keywords: *Metaphor, shift, term, nomination, linguistic metaphor, cognitive metaphor.*

Metafora badiiy vosita sifatida adabiyotshunoslar diqqatini jalb etib kelgan. Ammo har qanday badiiy vositalar muayyan lisoniy qonuniyatlar natijasida yuzaga keladi. Shu sababli metaforani tilshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganish maqsadga muvofiq. Ushbu hodisa juda uzoq vaqtlardan buyon o‘rganib kelinmoqda. Aristotel davridan beri u falsafa, psixologiya, uslubiyat, ritorika, adabiyotshunoslik kabi bir nechta fanlar doirasida tahlil qilib kelindi. “Poetika” asarida metafora “epifora” so‘zi yordamida anglashilgan va unga ta’rif berilgandan buyon bu hodisaga qiziqish kuchayib borgan. Hozirgi kunda ham bu hodisaga qiziqish also susaygani yo‘q. Metaforaga ko‘plab ta’rif berilgan bo‘lsa-da, shu soha bilan shug‘ullanuvchilar, albatta, Aristotelning ta’rifini eslab o‘tishadi.(Aristotel. Poetika.1980. 284-285-betlar.)

Mazmunan olib qaraganda, metafora ko‘chim asosida hosil bo‘lgan g‘alati nom hisoblanadi. Metafora va shu soha bilan shug‘ullanuvchilar uning asosida o‘xshashlik yotishi masalasida bir xil fikrda, ammo metaforaning mustaqil ko‘ rinishi va uning o‘rni borasida turlicha yondashuvlar mavjud. “Metafora qisqargan o‘xshatishdir.” (A.Potebnya). Ya’ni o‘xshatishga xos bo‘lgan so‘z va qo‘shimchalar tushirib qoldirilsa, metafora yuzaga keladi: Uning hayoti shamol kabi tez va qishdek sovuq o‘tib bormoqda// Uning tez va sovuq hayoti o‘tib bormoqda.

Ko‘rinadiki, metafora o‘xshatish asosida rivojlanadi. O‘zbek tilshunosligida 70-yillardan boshlab, so‘zlarning ko‘chma ma’nolarini isloh etishga doir bir qancha ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ayniqsa, bu sohada M.Mirtojiyev, SH.Rahmatullayev va uning shogirdlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar diqqatga sazavordir. Metafora asosida nom ko‘chishi predmet, belgi, harakat, holatlarning keng ma’nodagi o‘xshashligiga asoslanadi. Asos konkret va abstrakt bo‘lishi mumkin. Metafora tuzilishiga ko‘ra sodda va kengaygan, badiiy va lingvistik metaforalarga ajratiladi. Lingvistik metafora ekspressiv bo‘lmagan atama, badiiy metafora esa ekspressiv hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda metaforani

til va nutq hodisalari sifatida ikki turga bo‘lishadi. M.Mirtojiyev metaforalarning denotat o‘xshashlik belgisiga ko‘ra uch guruhga bo‘ladi:

1) oddiy metafora; 2) personifikatsiya(jonli obyekt jonsiz obyektni o‘ziga nomdosh qilib olishi); 3)sinesteziya (sezgi orqali his etiladigan ikkinchi obyektni nomdosh qilib olishi). Bunda oddiy metafora belgilarga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiya-jonlantirish orqali qiyoslash, sinesteziyada esa subyektiv holatda qiyoslash o‘xshatish uchun asos bo‘ladi. Har qanday lingvistik hodisa kabi metafora ham lisoniy asosga ega. Shunday ekan, leksema o‘z sememasiga, u esa o‘z navbatida mazmunan turlicha semalarga ajratiladi. Ana shu semalarning o‘xshashlik va aloqadorlik asosida yuzaga kelishi metaforaga misol bo‘la oladi. Shuning uchun metaforani adabiyotning emas, ko‘proq tilshunoslikning o‘rganish obyekti desak xato bo‘lmaydi. Chunki istalgan terminni asoslashda, uning semalarini ifodalashda metaforadan foydalaniladi. Ayniqsa, metafora asosida hosil bo‘lgan terminlar lingvopoetikasi o‘ziga xos. Chunki birlamchi ya’ni asosiy nominatsiya metafora orqali anglashiladi. Demak, fikr metaforik tabiatlidir. Metafora nominatsiyada bevosita ko‘ringan xususiyatlar bilan birga ichki sifatiy belgilarni anglash imkonini ham beradi. Metafora o‘zidagi nominativ funksiya orqali tilda omonimlarni hosil qiladi.

Brendes metaforani sifatiy figuralarga taalluqli deb biladi va uni asl nusxa va nomlanayotgan obyektlar o‘rtasidagi tashqi o‘xshashlik asosida yuzaga chiqadigan ikkilamchi nominatsiya vositasi sifatida ko‘rsatadi. Predmetni bilish jarayoni uning nominatsiyasi bilan aloqador bo‘lib belgining paydo bo‘lishi bilan anglashiladi. Belgi mazmunni shakllantiradi. Bolalar nutqida bu hodisaga duch kelishimiz mumkin. Masalan, toshbaqa leksemasini bola birinchi bor ko‘rganda o‘z lisoniy boyligidan kelib chiqib unga nom beradi. Bu nomni metafora yordamida, unga ma’lum belgilarga tayanib “yuradigan tosh ” deb ataydi. Bolaning nutqi uchun ushbu tushuncha asosiy metaforik nominatsiya hisoblanadi. Asliyatda esa bu xosilaviy metaforik nominatsiya sanaladi. Demak, nutqiy va lisoniy metaforik nominatsiya o‘rtasida farq mavjud. Shunga asosan, metaforik nominatsiya muallif tomonidan shunchaki qo‘llanilgan so‘z bo‘lmasdan, o‘zi yaratgan yangi nom –

yangi so‘zning kelajakdagi interpretatsiyasini chuqur tahmin qilganda yuzaga kelgan kashfiyotidir. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, metafora bilish quroli sifatida mavhum tushunchalarning mohiyatini aniqroq tushunishga yordam beradi, ya’ni biz metafora orqali borliqdagi narsa-hodisalarni qayta nomlash va shu nom ostida uni baholash imkoniyatiga ham ega bo‘lamiz.

Metafora shunday lisoniy hodisaki, uning moddiylashuvi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida hech qanday ziddiyatni yuzaga keltirmaydi. Har qanday holatda ham vaziyat nuqtayi nazaridan reallashadi. O‘xshashlik asosida yuzaga kelgan birlik so‘zning asosiy semasiga daxl qilmay, yondosh semalar asosida tushuncha anglashiladi. Bu vaziyatda so‘zlovchi ham tinglovchi ham aynan yondosh semani nutq vaziyatiga olib kiradi. Chunki nutqda, asosan, metafora leksemaning muayyan semalarini yuzaga chiqarishda qo‘llaniladi. Masalan, insonga nisbatan “ayiq” leksemasini qo‘llash, uning muayyan bir semasi ya’ni “ko‘p uxlashi” nazarda tutib qo‘llaniladi. Qizig‘i shundaki, buni so‘zlovchi ham, tinglovchi ham anglaydi va e’tirozga o‘rin qoldirmaydi.

Metaforaning olamni bilish vositasi sifatidagi xususiyatlarini tadqiq etgan J.Lakoff va M.Jonsonlar metafora odatda tafakkur va faoliyat bilan emas, balki so‘zlar bilan bog‘liq lisoniy xususiyat sifatida talqin etilishi, shu sabab aksariyat odamlar metaforasiz ham “yaxshigina yashayapman” deb hisoblashlarini yozib, ularning fikri xato ekanligini, metafora nafaqat kundalik hayotimizni, balki fikr-u xayolimiz va xatti-harakatlarimizni ham qamrab olishini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, biz o‘ylaydigan va harakatlanadigan kundalik tushunchaviy tizimimiz mohiyatan metaforik hisoblanadi.

Metafora dunyoni bilish vositasi sifatida talqin etiladigan kognitiv tilshunoslikda lisoniy va kognitiv metaforalar farqlanadi. Kognitiv metafora lisoniy metafora yuzaga kelishining asosini tashkil etadi, ya’ni muayyan mazmun sohasi haqida shaxsga avvaldan ma’lum bo‘lgan boshqa soha tushunchalari vositasida o‘ylash mexanizmi – kognitiv metaforadir. Boshqacha qilib aytganda, noma’lum bir tushunchaning mohiyatini shu tushuncha bilan biron-bir jihatdan o‘xshash va

tajribada mavjud bo‘lgan boshqa tushunchaga qiyosan idrok qilish usuli kognitiv metafora hisoblanadi.

Bugungi kunda tilshunoslikda yaratilgan ilmiy ishlarda metofora va uning ahamiyatini aniqlash dolzarblik kasb etmoqda. Shu boisdan metaforani tilshunoslik obyekti sifatida o‘rganish muhimdir. Metafora inson lisoniy boyligining oynasi sanaladi. Aynan metafora fikrni aniq, obrazli va hissiy ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aristotel. (1980) Poetika. Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’ at nashriyoti 284-285- betlar.
2. O‘zbek tili leksikolagiyasi. (1981) Toshkent: Fan nashriyoti, 236-237- betlar.
3. Mirtojiyev M. (1999) Lingvistik metaforalar tasnifi. Toshkent: Fan nashriyoti, 34- bet.
4. Брандес М.П. (1977) Стилистика текста. М., С.129.
5. Mahmaraimova Sh. (2019) O‘zbek tilida metaforaning nometativ funksiyasi// O‘zbek tili va adabiyoti, 3-son 109- bet.
6. Qabuljonova G. (2020) Metafora va unga yondosh hodisalar: O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 2- son, 100- bet.
7. Лакофф Дж.,Джонсон М. (2004) Метафоры,которыми мы живем. М.:Едиториал УРСС, С.25.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI TILIDAGI UNDALMALARNING LEKSIKSEMANTIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI.

Otaboyeva Madinaxon,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyotni
O‘qitish fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Oripov she’riyati tilidagi undalmalarning leksik,semantik hamda struktur xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.Abdulla Oripov ijodining aktuallashuvida undalmalarning o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlari tegishli misollar orqali tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Undalma, yoyiq undalma, yig’iq undalma, murakkab undalma, intonatsiya, pauza.*

Abstract. *The article talks about the lexico-semantic and structural features of impulses inthelanguage of Abdulla Oripov's poetry, using relevant examples, the role and characteristics of impulses in the actualization of Abdulla Oripov's work are analyzed.*

Keywords*: Inflection, open inflection, complex inflection, intonation, pause.*

Temur kabi soxibi zamonlar qilichi yetmagan yerlarni qalam bilan olishga Alisherni qodir qilgan qudrat she’riyatdir . She’riyatni “Onajonim” deb ulug’lagan va chindan ham she’riyatga fidoyi farzand bo‘lgan Abdulla Oripovning she’ri kirib kelmagan bironta xonadon O‘zbekistonda topilmasa kerak . Biz uning mo‘tabar nomi, ijodiy merosining boqiyligi, badiiy dahosi zamon va makon chegaralarini bilmasligi haqida doimo faxrlanib gapiramiz. Abdulla Oripov xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyot va tilimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g’ururi, shonu-sharafini dunyoga tarannum qilgan betakror so‘z san’atkori. Abdulla Oripov she’riyatining o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritilar ekan, uning she’rlarini xalqqa manzur qilgan xususiyatlaridan biri uning xalqchilligida, xalq tilida yozilganligidadir.

Quyida biz Abdulla Oripov she’rlariga o‘ziga xos jozibadorlik baxsh etuvchi – undalmalar haqida so‘z yuritamiz.Undalma- so‘zlovchining nutqi qaratilgan, boshqa bir shaxs yoki predmetni ifodalagan so‘z yoki so‘z birikmasidir. Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot ma’nosidagi so‘zlar orqali ifodalanib, gapning umumiy mazmununi to‘ldiradi, gapning kimga qarashli ekanini bildiradi. Undalma nutqning turli ko‘rinishlari, murojaat, shior, buyruqchaqiriq, e’lonlarda ishlatiladi: M: Bu fikrni, o‘g’lim, senga aytayapman.Undalma gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo‘laklar bilan moslashuv, boshqaruv yoki bitishuv aloqasiga kirisha olmaydi. Ammo u gapning ayrim bo‘laklari yoki butun gap mazmuniga aloqador bo‘lib, gapning zarur qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham u ayrim gap bo‘laklari va gapning umumiy mazmuni bilan o‘ziga xos grammatik aloqaga kirishadi. Ma’lum bir gapdan undalmaning chiqarilishi yoki hatto o‘rnining o‘zgartirilishi gapning umumiy mazmuniga ta‘‘sir etadi, muallif aytmoqchi bo‘lgan

fikr anglashilmay qoladi.Undalmaning ajratilgan aniqlovchiga yaqin bo‘lgan turida grammatik aloqaga kirishish xususiyati aniq ko‘rinadi, chunki undalma ma’lum bir bo‘lakning ma’nosini izohlaydi.M: Bularning hammasi sen, Vatanimonam. Misoldagi vatanim-onam undalmasi sen olmoshining ma’nosini izohlaydi, aniqlashtiradi. Shu bilan birga butun gap mazmuni bilan ham aloqadordir. Undalmalar semantik va stilistik vazifasiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: 1.Nutq qaratilgan ob’ektni ifodalaydi. Nutq qaratilgan obyekt uch xil bo‘lishi mumkin: a) shaxs; b) shaxs bo‘lmagan jonli predmet; v) jonsiz predmet

Kechir she’rim, kechirgin meni,

Yilar o‘tib, charchadim, toldim.

Shunday paytlar bo‘ldiki, seni

Muhofaza qilolmay qoldim.

2. Undalma orqali ma’lum shaxs, predmetga xarakteristka beriladi, ta’riflanadi. Bu xarakteristika shaxs, predmetning tashqi yoki ichki belgisiga ko‘ra bo‘ladi. Ha, birodar,o‘z-o‘zingni Maqtashdan avval, Hisobga ol saviyangni, Ongingni tugal.

3. Undalma so‘zlovchining holatini ifodalaydi. Bu holat orqali g’azab, nafrat, mazax, kesatish, iltimos, achinish, erkalash, hurmat, shodlik, tabrik, chaqirish, mamnunlik kabi hislar anglashiladi.

Nochorning ustidan kulma hech qachon,

Bilmasdan kamsitma, boyvachcha o‘g‘lon

Topgan aqchasiga non olgaydir u,

Keksa onasiga yo dori-darmon.

Undalmalar tuzilishiga ko‘ra uch xil bo‘ladi

1. Yig‘iq undalmalar. Yig‘iq undalmalar yolg‘iz bir so‘zdangina tarkib topadi. *Meni ko‘rgani kelding, Bibisora, jon singlim.*

2. Yoyiq undalmalar. Yoyiq undalma o‘ziga oid so‘zlar bilan kengayib keladi. Undalmaga oid so‘zlar aniqlovchilar yoki izohlovchilar sifat, sifatdosh, ot, olmosh so‘z turkumlari orqali ifodalanadi. Nido bergil, qaydasan, sharpangga quloq tutdim, Sirli tushlar ko‘rib men bor dunyoni unutdim, Tongda turib

nomingga ushbu sheCrimni bitdim, Dildagi oxim mening, birinchi muhabbatim, Yolg'iz ollohim mening, birinchi muhabbatim.

3. Murakkab undalmalar quyidagicha shaklda bo‘ladi:

a) yolg'iz undov so‘z bilan yoki undov so‘z bilan barobar aniqlovchilar, izohlovchilar bilan birga kelishi mumkin. Bu holda kuchli hayajon ma'nosi ifodalanadi. Menga tashvishlardan yiroq yur, deysan, Charchagansan, deysan, shundaylikcha ham. Faqat sen muttasil g'amimni yeysan, Lekin hayot boshqa, azizam, bekam.

b) undalmaning tarkibida aniqlovchi ergash gap bo‘lishi yoki ergash gap shaklida bo‘lishi mumkin. Onajonim, balki men ham Bir kun shavqqa to‘larman. Balki men ham aytganingday Bir kun shoir bo`larman.

v) undalma takrorlanib kelishi mumkin. Bu hol kuchli his-hayajon ifodalanganda, undalmaga alohida ahamiyat berilganda roy beradi:

Ojiz banda, gaplarimni ko‘nglingga olma,
Zamin Alloh mulki erur, sen changal solma.
Musofirsan, muhojirsan yerning ustida,
Muddatingni yashadingmi – yo‘lingdan qolma!

Undalma takrorlanganda aynan qaytarilishi, aniqlovchi bilan birikib kelishi yoki undalmaning o‘rnini mazminan bosuvchi boshqa so‘z bilan almashib, qaytarilishi mumkin. Undalmalarning o‘rni. Undalma gapnng boshida ham, o‘rtasida ham, oxirida ham kela oladi. Undalmaning o‘rni uning ma'naviy vazifasiga, stilistik xususiyatiga, tarkibiga, asosiy gapning strukturasiga va mazmuniga ham bog‘liq bo‘ladi. Undalmalar hozirgi o‘zbek tilida ham, eski o‘zbek tilida ham faol qo‘llanilgan til hodisasi hisoblanadi.Mazkur ishda undalma haqida eski o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan ma'lumot berish bilan birga ushbu til hodisasining hozirgi o‘zbek tilidagi jilosiga ham e'tiborni qaratdik. Undalma eski o‘zbek tilida ham juda faol til hodisasidir. Undalma tinglovchi va o‘quvchilarning diqqatini asosiy fikrga jalb qilish hamda nutq qaratilgan shaxs yoki predmetni xarakterlash uchun yozma nutqda ancha keng qo‘llangan.

Eski o‘zbek tilida ham undalmalar xuddi hozirgi o‘zbek adabiy tilidagidek so‘z o‘rtasida, so‘z boshida va so‘z oxirida qo‘llangan. Bundan tashqari undalmalarning yig’iq, yoyiq va murakkabligi ham eski o‘zbek tili va hozirgi o‘zbek tiliga o‘xshash hodisadir.Undalamaning intonatsiyasiga, albatta, uning o`rinlashishi ta`sir etadi. Gap orasida yoki oxirida kelgan undalma gap bo`laklari intonatsiyasidan kam farqlanuvchi intonatsiya bilan aytiladi. Gap boshida kelgan undalmalar bilan alohida ton bilan, cho`zibroq talaffuz etiladi. Ayrim holarda undalma kuchli his - hayajonni ifodalab, ko`tarilgan intonatsiya bilan aytiladi va Shunga ko`ra, undalmalardan so`ng undov belgisi qo`yiladi: Asosiy gap mazmuni va intonatsiyasining undalma intonatsiyasiga ta`siridan tashqari semantik funktsiyasiga ko`ra ham o`ziga xos turli intonatsiya bilan talaffuz etiladi. Undalmaga qancha ahamiyat berilsa yoki undalma orqali qancha chuqur emotsional mazmun ifodalansa, uning intonatsiyasi shuncha kuchli bo`ladi. Undalmaning xarakterlovchi intonatsiya belgilaridan biri pauzadir. Kuchli yoki normal chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etilgan undalma boshqa gap bo`laklaridan pauza bilan ajratiladi. Yaxshi qol, ey, dilbarim, dilda kadar, ketmoqdaman, Ishq aro endi holim zeru zabar ketmoqdaman. Birinchi misoldagi undalma kuchli intonatsiya bilan aytilib, kesimdan pauza bilan ajralgan va bu yozuvda undov belgisi qo`yish bilan ifodalanganedi. Ikkinchi misolda undalama har ikki tomonidagi kesimdan ham pauza bilan ajratilgan, birinchi kesimdan vergul bilan, ikkinchi kesimdan undov belgisi bilan ajratilgan. An`anaviy tilshunoslikda gap bo`laklari orqali atributiv, ob`ektiv, relyativ, predikativ kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanishi ta`kidlanadi. Shu bilan birga undalma va kirishlar ham ma`lum munosabatlarni ifodalaydi. Lekin undalma va kirishlar orqali ifodalangan mazmuniy munosabat boshqa mazmuniy munosabatlardan tubdan farq qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, biz buyuk insonlarni tiriklik chog’ida negadir buyuk ekanini aytishga o‘rganmaganmiz .Ular hayotdan ketgach ularning naqadar buyukligini , o‘rni borligini anglaymiz . Abdulla Oripovsiz o‘zbek she’riyati ham kemtikday go‘yo .Shoirning jismi mavjud bo‘lmasa ham , she’rlari ,umrboqiy satrlari hali uzoq yashaydi . Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov o‘zining she‟rlarida

undalmalarning go‘zal namunalaridan foydalanib,o‘zining badiiy mahoratini namoyish qila olgan.Shuning uchun ham shoirning she’rlari biz kitobxonlar tomonidan tez eslab qolinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Karimov I. (2008) Yuksak ma‟naviyat-yengilmas kuch. T.

2. Abdullaev A. (1983). O‘zbek tilida ekspressivlikni ifodalash. Toshkent

3. Abdurahmanov G‘, SHoabdurahmonov SH, Xojiev A. (1996). O‘zbek tili grammatikasi, “Fan”, nashriyoti , Toshkent.

4. Саидов А., Джураев Р. (2021). Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. — Т. 2. – №. 2. – С. 203-208.

5. Саидов А. pedagogik mahorat: ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш устувор вазифа сифатида //центр научных публикаций (buxdu. uz). (2020). – Т. 2. – №. 2.

6. Sharifjon To‘lqin A. Et al. Ta’lim-tarbiya tizimi va o‘qituvchilar faoliyatida psixologik xizmatning ahamiyati.

AFG‘ONISTON ISLOM RESPULIKASIDA TILLAR MAQOMINING HUDUDIY ASOSLARI

Quvonch Ehsonullo,
ToshDO‘TAU 2- kurs tayanch doktoranti
ehsanullah.quwanch1@gmail.com

Annotatsiya. *Ko‘pchilik yozuvchilar Afg‘onistondagi tillarning maqomiy hududiy va mamlakatdagi o‘rni haqida ko‘p maqolalar va kitoblar yozganlar. Ammo Afg‘onistonda O‘zbek tili haqida maqolar yozilmagan, yozilgan maqolar ham yetarli va to‘liq emas. Ushbu maqola esa zamon talabiga mos tadqiqot usullarini ko‘zga tutilishi bilan Pashtu va Dari tillarning orasidagi tortishuvlarni ochiqlab, O‘zbek tilining mamlakat hududida bo‘lgan o‘rnini va muammolarini ko‘rsatib, yuz yil orasida O‘zbek tili haqidagi bo‘lgan kamchliklar va yaxshliklar batafsil bayon etilgan. Bu maqola esa Afg‘oniston jamoasidagi tillar vaziyatini to‘la-to‘kis tushuntirib beradi.*

Kalit so‘zlar. *Afg‘oniston, Huhukumatlar davralari, tillar maqomi, O‘zbek tili, Pashtu tili, Fors tili*.

Abstract. *Many writers have written many articles and books about the status, territorial and country status of languages in Afghanistan. However, no articles have been written about the Uzbek language in Afghanistan, and the articles that have been written are insufficient and incomplete. This article, with the consideration of modern research methods, reveals the controversy between the Pashto and Dari languages, and the Uzbek language in the territory of the country. Showing its location and problems, the shortcomings and advantages of the Uzbek language in the past hundred years are described in detail. This article fully explains the situation of languages in the Afghan community.*

Keywords. *Afghanistan, Government circles, the status of languages, Uzbek language, Pashtu language, Persian language.*

Ushbu maqolada esa, Afg‘oniston hududidagi tillar maqomi haqida yozilgan, mamlakatdagi tillar maqomining tarixiy, siyosiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan tekshirilib tayyorlanilgan. Hamda O‘zbek tilining Afg‘oniston hududida bo‘lgan maqomi, hamda, tarix bo‘yicha bo‘lgan vaziyati qisqacha izohlangan. Asosan ushbu maqolani yozishdan maqsad Afg‘onistondagi tillarning hukumat tashkilotlarida bo‘lgan o‘rni va maqomi ayniqsa O‘zbek tilining mamlakda bo‘lgan o‘rni ushbu kichik asarda qisqartirib kiritilgan. Chunki tarix oqimida qancha maqolalar va biografiyalar Afg‘oniston tillari haqida yozilib tarqatilgan. Lekin, O‘zbek tili haqida yetarli ma’lumot berilmagan. Asosan bu maqola arzirli maqolalar va biografiyalardan foydalanib, faqatgina Afg‘oniston islom respublikasidagi tillar maqomining hududiy asoslari haqida yozilgan. O‘quvchilar ushbu maqolani o‘qish bilan Afg‘oniston hududida bo‘lgan barcha tillar ayniqsa, O‘zbek tilining Afg‘oniston tashkilotlarida bo‘lgan o‘rni va maqomini o‘rganib chiqishlari aniqdir. Bundan 50 yil oldin, 1972-yilda g‘arblik olim “Jorge Markinsteran” tadqiq qilishicha, Afg‘onistonda 32 ta til bo‘lgan va boshqa tadqiqchilar tadqiqotiga asosan “Afg‘onistonda 48 ta tanilgan til mavjud va ushbu tillarning so‘zlashuvchilari o‘lkaning turli geografik mintaqalarida yashab kelmoqda” (https:shafaqna.com). Son jihatdan bu tillarning uchtasi katta jamiyat so‘zlovchisiga egadir. Ular Pashtu, Fors-Dari va O‘zbek tili, hamda Turkman va

Baluch tillarida ham ko‘zga ko‘rinarli so‘zlovchilari bor va boshqa tillar esa o‘ziga yarasha jamiyatga egadir. Endi Afg‘oniston Islomiy Respublikasida tillar maqomi hududiy asosiy deyilganda, o‘lkadagi milliy va mahalliy tillar haqida gap ketadi. Birinchidan, Pashtu va Dari tillari orasidagi tortishuvlarni o‘rganib chiqib, davlat tili va milliy tillar deb tanilganlari haqida bahs qilamiz. Ikkinchidan, O‘zbek tili qaysi paytlari Afg‘oniston asosiy qonunida kiritilib, mamlakatning uchinchi rasmiy tili deb tanilgani borasida to‘liq to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Shu mavzuyimizga asos “Muhammad Nodirshoh va uning sulolasi davrida, 1929-yildan 1978-yillargacha, Afg‘oniston hukumatining ichkari va tashqarisidagi Pashtunlar, Fors-Dari tilini ham davlat idoralari, ham ta’lim va madaniyat tizimidan uzoqlashtirib, Pashtu tilini davlat tashkilot tizimiga kirdirish uchun jiddiy urinib kelganlar. Shu holda ham Fors tili Pashtu tili bilan yonma-yon yashab kelmoqdadir. Hamda mamlakat shu munosabat bilan Muhammad Zohirshoh hukumati (1933-1973) yillari, asosan 1961-yilning dastlabki yillarida, til nomini Fors tilidan Dari tiliga o‘zgartirdilar.1964-yildagi asosiy qonunda, u xuddi shu nomga o‘zgartirildi. Bu nom o‘zgarishdan keyin ayrim guruhlar Dari tilining Fors tilidan ajralib turishi va farqlanishini da’vo qilgan bo‘lsa, Fors va Dari tillari, Fors tilining qadimgi matnlari va tilshunoslarning nazariyalariga ko‘ra ikkalasi ham bir til bo‘lib, siyosiy lihozdan ikki nom qo‘yilgandir” (Habibi, 1790, 132-bet). Shunday qilib Fors-Dari tillarini parchalash, cheklash va qisishga ishlayotgan guruhlar, Fors va Tojik tillarini alohida-alohida tillar deb da’vo qiladilar. Bu guruhlar Fors tilini Eron, Dari tilini Afg‘oniston va Tojik tilini Tojikiston tili deb hisoblaganlar. Ushbu siyosiy tafakkur bilan bu nazariyani fikrlarga o‘rnashtirish uchun harakat qilib kelmoqdalar. Demak, aholi soni bo‘yicha Pashtunlar Afg‘onistondagi ba’zi boshqa etnik guruhlardan ko‘p, lekin, til jihatdan ular mutlaq ozchilikni tashkil etadi. Bu mamlakatdagi asosiy etnik “hazoralar”, “tojiklar”, “aymoqlar” guruhlari fors tilida so‘zlashadilar. Afg‘onistondagi O‘zbeklarning ko‘pchiligi esa o‘z tillaridan tashqari, Fors-Dari tillarida gaplashishga qodirlar. Lekin davlatning “Davlat madhiyasi” Pashtu tilidadir.

“Mamlakatning birinchi marta Afg‘oniston nomlanishi, 1747-yilli Ahmadshoh Durroniy hukumati davridan boshlanadi. Asosan Afg‘oniston o‘sha payt tashkil topish uchun birinchi odimlar qo‘yadi. Ammo Pashtu tili 1936-yilda davlat rasmiy tili maqomiga ega bo‘lgan. Pashtu tilining yozma va adabiy qoidalari XVI asr o‘rtalarida o‘rnatilgan deyiladi. Lekin turli sabablarga ko‘ra Pashtu tilidagi adabiy qonun-qoidalarni yaratish jarayoni hozirgacha tugalanmagan” (Sotsiyev, 1393). Biroq, “Pashtu tilining qoida-qonunlari” 1747-yildan keyin asos qo‘yilishiga boshlanadi. Undan oldin so‘zlashuv tili bo‘lgan. 1964-yil Fors tilining nomi Dari tiliga o‘zgartirilib va Fors tili bilan Pashtu tiliga yana rasmiy til maqomi beriladi. Afg‘onistonlik olimlar ham Fors, ham Pashtu tillaridan foydalanadilar va Fors tilini madaniy ta’lim va taraqiyotga qulay deb bilganlar. Zohirshoh, 1933-1973-yillardagi qirollik davri, otasi Muhammad Nodirshohdan keyin va unga o‘xshab, amaldorlar Fors va Pashtu tillarini o‘rganishi va ulardan foydalanishi kerak degan qarorga kelgan edi. Hukumdorligi boshlanganligidan uch yil o‘tib 1936- yilda qirol oilasi va amaldorlarning ko‘pchiligi, asosan Pashtu tilida gaplashishlariga qaramay, qirol buyrug‘i bilan Pashtu tilini Afg‘onistonning rasmiy tili deb e’lon qildilar. Bu qarorga inglizlar tomonidan o‘sha paytdagi Afg‘oniston hukumdorlariga singdirilgan Eron va Shialarga qarshi muhit sabab bo‘lgan deb aytilgan (Husain, 2005).

Afg‘oniston asosiy qonuni birinchi marta, e’tiborli qonun sifatida, bir asr oldin Amonullohxon hukumati davrida asos qo‘yiladi. Mamlakatga siyosiy o‘zgarishlar kelishi bilan ushbu asosiy qonun hukumatlar tomonidan sakkiz marta o‘zgartiriladi. Afg‘oniston 1919-yili mustaqillikka erishish bilan shu asosiy qonun ham yuzaga keladi. Har yangi kelgan hukumatlar o‘z mayl va istaklariga binoan asosiy qonunni o‘zgartiradilar. Xonandalar yaxshi tushunishligi uchun ulardan qisqa eslashimiz lozim. Amonullohxon payti (19-aprel 1923-yil) Nodirxon payti (sentabr oyi 1931-yil), Zohirshoh payti (1-oktabr 1964-yil), Dovudxon payti (26-yanvar 1977-yili), Babrak kormal payti (14-may 1978-yili), D.Najib payti (15-iyun 1988-yil), Burhoniddin Rabboniy payti (sentabr oyi 1993-yil) va Homid Karzay payti (sentabr oyi 2002-yil). (meshran, website, http://www.meshran.website)

Mana shu yuqoridagi asosiy qonunning sakkiz davrasida ham Pashtu va Fors tillari qonunga kiritilib, mamlakatning rasmiy tili sifatida ishlatilib kelgan. Biroq boshqa tillar ayniqsa O‘zbek tili mana shuncha ko‘p jamiyati borligi bilan ham ayrimchilik va ta’assublar bois chetda qoldirilgan. Lekin 55 yildan keyin 1978-yili, savr inqilobi bo‘ldi. Bu qo‘zg‘alon tufayli, Afg‘oniston demokratik xalq hukumati yuzaga kelib, Muhammad Dovudxon hukumati ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Mana shundan keyin mamlakatda yaxshi ma’naviy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar vujudga keldi. Shu davrda Afg‘onistonlik O‘zbek ziyolilarining kurashishi va tashabbusi bilan O‘zbek tili ham ro‘yobga chiqib qoldi. Shu payt esa O‘zbek va Turkman tili uchun yangi davr sanaladi. Ayni shu davrda “Afg‘onistondagi qardosh millatlar, jumladan O‘zbek-Turkman tili hukumatning rasmiy buyrug‘i asosida 28-may 1978-yili Afg‘oniston demokratik respublikasining to‘rtinchi sonli buyrug‘i” nomi ostida hukumatning rasmiy jurnalida bosmadan chiqib tatbiq etildi” (Shara’iy Juvzjoni, 2021, https://www.uzlig.com).

Undan so‘ng O‘zbek tilida yozish, o‘qish va faoliyat qilish ruxsati davlat tomonidan rasmiy shaklda berildi. Biroq bu tillar, shu paytda ham mamlakat asosiy qonunining hech bir moddasida rasmiy til deb kiritilmagan. Faqatgina, prezident buyrug‘i bilan O‘zbek va Turkman tillari faoliyat qila boshlagan. Qancha yillik siyosiy to‘polon va qo‘zg‘alonlar bo‘lishi bilan 10 yildan so‘ng 2001-yilda, yangi respublika hukumdorligi hokimiyatga kelishi bilan Afg‘oniston asosiy qonuni yangi reform bilan o‘zgartirildi. 2003-yilda aynan poytaxtda 503 kishi qatnashishi bilan Afg‘oniston asosiy qonuni quriltoyi bo‘lib o‘tdi. Tashkil etilgan kommisiyalarda mamlakatning yangi asosiy qonuni bo‘yicha juda ko‘p munozaralar qilindi. Muhim munozarali mavzulardan biri asosiy qonunda, turkiy (O‘zbek va Turkman) tillarining mamlakatda rasmiy til sifatida qabul qilinishi bo‘lgan edi. To‘g‘risi, ushbu tillarning mana shunday maqomga ega bo‘lishida 2003-yili yo‘lga qo‘yilgan asosiy qonun komissiyalarida qatnashgan shimol va shimolsharq viloyatlari vakillari, ayniqsa Marshal Abdul Rashid Do‘stumning rahbarligi va qahramonona kurashishi bilan O‘zbek va Turkman vakillari botirlik bilan kurashgani juda ahmiyatlidir” (Aral, 2020, 10-bet).

Mana shu Afg‘oniston asosiy qonunida quydagicha matn qabul qilingan: “Aholining ko‘p qismi O‘zbek, Turkman, Nuristoni, Baluchi yoki Pomir tillardan birini biladigan hududlarda bu til Pashtu va Dari tillaridan tashqari rasmiy uchinchi til bo‘lib, bu tillarning kuchlantirish va quvvatlantirish davlat zimmasidadir. Ayni holda ushbu tillarni qo‘llash tartibi qonun bilan tartibga solinadi” (daqiq qonunmal, 2013, 89-bet).

Shuningdek bir qator Afg‘onistonlik ziyolilarning tashabbusi bilan Afg‘oniston islom respublikasi 2020-yili oktabr oyining 21-kuni Afg‘oniston-O‘zbek tili milliy kuni tasdiqladi. Ushbu kun mamlakatda O‘zbek tili milliy kuni sifatida tanilib, Afg‘oniston taqvimiga kirtildi (Zahir, 2020, 14-bet). Ushbu O‘zbek tili bayrami milliy kun sifatida nishonlanib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyatlar:

1. Aral, Azizullah. (2020). *Unutilmas maqolar va she’rlar to‘plami.* Labib M.Olim va boshqalar. Kobul. Afg‘oniston, Voja.
2. Daqiq Qonunmal, Muhammad Rahim. (2013). *Qonun asosiy Afg‘oniston*. Afg‘oniston, nashr vazorati adliyai Afg‘oniston. Kobul. Afg‘oniston. 89-bet.
3. Husain, Rizwan. (2005, November 15). *Pakistan and the Emergence of Islamic Militancy in Afganistan*. books.google.co.uz
4. Habibi, Abduhlay. (1970). *Torixi muxtasari Afg‘oniston.* Kobul: anjumani torixu adabi Afg‘oniston. Kobul. Afg‘oniston.132-bet.
5. *Meshran* (2021, November 17). http://www.meshran.
6. Shara’iy Juvzijoni, Sayid Adulhakin. (2021). *“Avomili uruj va nuzuli zaboni o‘zbeki dar mahdudai Afg‘oniston*. https://www.uzlig.com
7. Sotsiyev, Alburzbotirvich. (2015, yanvar 1). *Torixi ijod zaboni Afg‘oniy(Pashto) va qavoyid on.* https://www.khorasanzamin.net
8. Zahir, Muhammad Zohir. (2020). *“Zaboni O‘zbeki dar Afg‘oniston az zabonhoi bumiy , doroyi qadomati tarixiy ast”*. O‘zbek Tili Milliy Kuni va Maqolar va She‘rlar To‘plami. Labib M.Olim va boshqalar. Kobul:Afg‘oniston, Voja. 14-bet.
9. *Xabarguzoriy jamhuriy islomiy* (2022, may 3). Zabon dar sarzamin aqvom va cholishhoiy zaboni Forsi dar Afgo‘niston. https://www.irna.ir/news
10. *Zabonhoiy royij dar Afg‘oniston* (2022, fevral 22). https:shafaqna.com

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QISQARTMA SO‘ZLARNING IFODALANISHI

Quziyeva Taxmina Faxriddinovna
Buxoro *davlat universiteti 2-bosqich talabasi*
takhmina.student@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda keng qo‘llanib kelinayotgan qisqartma so‘zlar hamda ularning o‘zbek, ingliz tillarida qanday ifodalanishi tahlil qilingan. Vaqtni tejash maqsadida qo‘llaniladigan abbreviaturalarning bugungi kunda odat tusiga kirib qolgan namunalari, ularning qanday ma’no ifodalashi misollar orqali keng yoritilib berilgan. Qisqartma so‘zlarning to‘g‘ri tarjima qilinishi va ishlatilishiga e’tiborli bo‘lish g‘oyasi ilgari surilgan. O‘zbek tilshunosligida ham qisqartma so‘zlarga oid maxsus lug‘atlar tuzish taklifi bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot, til, komponent, abbreviatura, lingvistik sabab, ekstra-lingvistik sabab, grafik tur, leksik tur, apakop, lug‘at.*

Abstract. *This article analyzes abbreviations that are widely used today and how they are expressed in Uzbek and English languages. Examples of abbreviations used to save time, which have become a disaster today, and what they mean are explained in detail though examples.The idea of paying attention to correct translation and use of abbreviations is suggested. The importance of creating a special dictionary of abbreviations is highlighted.*

Keywords: *information, language, component, abbreviation,linguistic reason, extra-linguistic reason, graphic type, lexical type, apacop, dictionary.*

Axborot bilan to‘yingan zamonaviy davrda muloqot va yozishmalar hayotimizning ajralmas qismini tashkil etadi. Odamlar qanchalik ko‘p ma’lumotga ega bo‘lsa, uni shunchalik qisqartirish va yanada ixchamroq shaklda yetkazish usullarini qidirishadi. So‘z va so‘z birikmalarini qisqartirishning eng yaxshi usullaridan biri esa qisqartmalardan foydalanishdir. Qisqartma (lotincha “brevis”, italyancha “abbreviatura” – qisqa) – so‘z yoki so‘z birikma qisqartirishi orqali hosil bo‘lgan va bosh harflarning alifbo nomi yoki unga kiritilgan so‘zlarning

boshlang‘ich tovushlari bilan o‘qiladigan so‘z (Abduazizov A.A, 2010, 176-bet). Bugungi kunda ular sms xabarlarda, biznes yozishmalarda, xalqaro atamalarda keng tarqalgan. Ularning ko‘pchiligi juda tez-tez ishlatiladi, shuning uchun zamon bilan hamnafas yashashni istaydigan odamlar qisqartma so‘zlarni o‘zlashtirishlari lozim. Chunki qisqartmalarni bilmaslik yoki noto‘g‘ri ishlatish juda noqulay vaziyatga yoki suhbatdoshning nimani ifodalamoqchi ekanligini noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi mumkin. Qisqartmalar dunyoning istalgan tilida uchraydi . Shu jumladan, o‘zbek va ingliz tilida ham ularning salmog‘i anchagina katta.

Qisqartma so‘zlar – barqaror so‘z birikmalari komponetlarining bosh harflarini yoki ma’lum qismlarini olib qo‘shish bilan hosil qilingan so‘zlar. Qisqartma so‘zlar nutqda ixchamlikka erishish zarurati bilan dastlab yozma nutqda paydo bo‘ladi va faol qo‘llanishi natijasida keyinchalik og‘zaki nutqqa ham o‘tadi . Masalan, o‘zbek tilidagi quyidagi qisqartma so‘zlar ko‘pchilikka tanish. IIV– Ichki ishlar vazirligi, XTB – Xalq ta’limi bo‘limi, fil-fak –filologiya fakulteti. Qisqartma so‘zlar, asosan, ot so‘z turkumiga mansub bo‘lib, o‘zbek tilida quyidagi yo‘llar bilan hosil qilinadi:

1) so‘z birikmasi komponentlarining birinchi harflarini olib qo‘shish bilan (XDP – Xalq demokratik partiyasi, OAK – Oliy attestatsiya komissiyasi).

2) so‘z birikmasi tarkibidagi birinchi so‘zning birinchi bo‘g‘inini , qolgan so‘zlarning birinchi harflarini olib qo‘shish bilan (O‘zAS – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati);

3) so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zlarning bosh qismlarini olib qo‘shish bilan (bio-fak – biologiya fakulteti);

4) so‘z birikmasi tarkibidagi so‘zning birinchi bo‘g‘inini, qolgan so‘zlarni qisqartmay qo‘shish (O‘zdonmahsulot);

5) aralash yo‘l bilan (O‘zavtoyo‘l)

Qisqartma so‘zlar, asosan, xalqaro tashkilotlar (BMT,YUNESKO), mamlakat va davlatlar (AQSH), vazirlik (XTV), siyosiy partiyalar (MTDP), harbiy uyushmalar (NATO), ilmiy-o‘quv muassasalari (BuxDU), tashkilotlar (YIA), korxonalar (O‘zmashxolding), asbob-uskuna va inshootlar (GES), muassasalar (DTM) va hokazolar o‘rnida qo‘llanadi. Qisqartma so‘zlar tayyor holda boshqa

tillardan o‘zlashtirilishi (FIFA, NATO) yoki muayyan til, masalan, o‘zbek tili materiallari asosida hosil qilinishi mumkin (Husanov N. 2020, 35-bet)

Tilshunoslikning bir qismi hisoblanmish qisqartma so‘zlar, abbreviatura yillar davomida qator olimlar tomonidan o‘rganilib, ko’plab ilmiy manbaalarda yoritilgan. Ushbu tushunchalarni o‘rganishda O.Esperson, G.Kannon, L.Blumfild, N.N.Alekseeva, V.P.Korovushkin, L.B.Tkacheva V.V.Borisov, I.V.Arnold, M.T.Irisqulov, A.Hojiev kabi olimlar o‘z hissalarini qo‘shganlar. Tilshunoslikda qisqartma so‘zlar hamda abbreviatura tushunchalari keng qo‘llanib kelinmoqda. Bu atamalar o‘rtasida deyarli katta farq bo‘lmasa-da, ularning har ikkalasi alohida atama sifatida o‘rganilgan. Qisqartma so‘zlardan farqli ravishda, abbreviatura – italyancha “abbreviature”, lotincha “abbrevio” degan so‘zlardan olingan bo‘lib, “qisqartma”, “qisqartiraman” degan ma’nolarni ifodalaydi. Tilshunoslikda abbreviatura so‘z birikmalarini qisqartirish orqali hosil qilingan so‘zlar hisoblanadi. Abbreviatura quyidagi turlarga ajratiladi: a) birikma tarkibidagi so‘zlar birinchi harflari alifbo tartibida o‘qiladi yoki oddiy so‘z – harflar anglatgan tovushlar kabi talaffuz etiladi. Rus va yevropa tillari ta’sirida tilimizda qisqartma so‘zlar soni anchaga ortgan. Ba’zi manbalarda so‘z va so‘z guruhlarining qisqarishi “abbriviatura” deb yuritiladi. Bu qisqarishning sababi lingvistik va ekstra-lingvistik tusga egadir. Eksta-lingvistik sababda odamlar hayotining o‘zgarishi tufayli ko‘pgina qisqarishlarga duch kelishini ko‘rishimiz mumkin. To‘g‘ri ma’noli turg‘un so‘z birikmalarining qisqartma so‘zlarga aylanishiga abbreviatsiya usulida so‘z yasalishi deyiladi. Bu usulda qisqartma otlar yasaladi. Hozirgi o‘zbek tiliga abbreviatsiya usulida so‘z yasalishi rus tilidan kirgan (Yo‘ldoshev M , 2018, 45-bet)

Shuni ta’kidlash joizki, qisqartma so‘zlar tarixdan to hozirgacha eng mahsuldor va qiziqarli so‘z yasalish usuli hisoblanadi. Shu sababga ko‘ra, zamonaviy ingliz tilida keng tarqalgan. Qisqartmalarning eng katta ta’siri bilan ajralib turadigan ilg‘or ingliz tilining rivojlanishi haqida gapirish va batafsil tahlil qilish samaralidir. Endi esa ingliz tilidagi abbreviaturalarning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishsak:

1. Qisqartmalar ingliz tilining eng jadal rivojlanayotgan birliklari hisoblanadi.

2. Zamonaviy ingliz tilshunosligida qisqartmalarga qiziqish katta.

3. Ish yoki ilmiy unvonlarni qisqartirish Buyuk Britaniyada keng tarqalgan amaliyotdir.

4. Ingliz tilidagi eng qadimgi grafik qisqartmalar guruhi lotin tilidan kelib chiqqan.

5. Biznes bilan shug‘ullanuvchi inglizlar qisqartmalardan ancha keng foydalanishadi, chunki iqtisodiy atamalar juda uzun bo‘ladi.

6. Xalqaro til sifatida tan olingan ingliz tilidagi ko‘plab abbreviaturalarni boshqa til vakillari ham qabul qilib, ularni o‘z nutqlarida faol qo‘llashmoqda. Misol uchun, Wi-Fi , IQ, e-mail, sms kabi qisqartma so‘zlar istalgan davlat vakillari uchun tushunarli.

7. Zamonaviy ingliz tilidagi qisqartmalarni faollashtirish va rivojlantirishda global integratsiya jarayoni yetakchi rol o‘ynashi aniqlangan.

8. Ingliz tilida qisqartma so‘zlarga oid maxsus lug‘atlar yaratilgan.

Ingliz tilida qisqartma so‘zlarning asosiy 2 ta turi bo‘lib, ular grafik va leksik jihatdan farqlanadi (Cannon G, 1989, p 100-150). Grafik jihatdan ular yozma matnda kamroq joy egallashi uchun ishlatiladi. Ular ham o‘z o‘rnida bir nechta semantik guruhlarga bo‘linib ketadi. Biz bu yerda misollar berish bilan kifoyalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan: days of weeks –Mon. , names of month – Apr. , names of countries – UK.

Leksik tomondan so‘zlarning bir qismini qisqartirish orqali yasaladi va leksik nuqtai-nazardan apakoplar deyiladi (G‘apporov M, 2010, p 7-50). Masalan: disco (dicotheque), expo(exposition), intro (introduction).

Qisqartma so‘zlar bosh harflarni qisqartirish yo‘li bilan odatda leksik turda ham, grafik turda ham bo‘lishi mumkin. Masalan: J.V – joint venture –grafik, BBC – leksik turga misol bo‘la oladi.

Zamonaviy ingliz tilida bir qancha yangi abbriviatura formalari mavjud bo‘lib, bu hayot tarzi jadallik bilan o‘sib kelmoqda va imkon darajasida ko‘p ma’lumotga ega bo‘lishimiz kerak degani. Quyida eng mashhur va keng tarqalgan qisqartma so‘zlar ro‘yxatidan namunalar keltirilgan:

1. Qisqartma – **net**, to‘liq aytilishi – internet
2. Qisqartma – **DTM,** to‘liq aytilishi – Davlat test markazi
3. Qisqartma – **virus**, to‘liq aytilishi – vital information recource under seized
4. Qisqartma – **IQ** , to‘liq aytilishi – intelligence quotient (intellekt koeffisenti)
5. Qisqartma – **ID**, to‘liq aytilishi – Identification (identifikatsiya)
6. Qisqartma – **PhD**, to‘liq aytilishi – Doctor of philosophy (falsafa doktori)
7. Qisqartma – **PIN**, to‘liq aytilishi – personal identification number (shaxsiy identifikatsiya raqami)
8. Qisqartma – **IELTS**, to‘liq aytilishi – international english language testing system (xalqaro ingliz tili test tizimi)
9. Qisqartma –**SMS**, to‘liq aytilishi – short message servise (qisqa xabar xizmati)
10. Qisqartma – **MMS**, to‘liq aytilishi – multimedia messaging service (multimedia xabarlar xizmati)
11. Qisqartma – **pdf**, to‘liq aytilishi – portable document format (portative hujjat formati)
12. Qisqartma – **IT**, to‘liq aytilishi – information technologies (axborot texnologiyalari)
13. Qisqartma – **Wi-Fi**, to‘liq aytilishi – wireless fidelity (simsiz aniqlik)
14. Qisqartma –**e-mail,** to‘liq aytilishi – electronic mail (elektron pochta)
15. Qisqartma – **P/s,** to‘liq aytilishi – post scriptum (Macmillan,2002, p 1792) , tarjimasi postskriptum ya’ni qisqartma yozilgan matnga biror narsani qo‘shish uchun ishlatiladi
16. Qisqartma – **GPA**, to‘liq aytilishi – grade point average (o‘rtacha ball)
17. Qisqartma – **FB**. to‘liq aytilishi – facebook
18. Qisqartma – **pls**, to‘liq aytilishi – please (iltimos)
19. Qisqartma – **BBC**, to‘liq aytilishi – British broadcasting corporation (Britaniya radioeshittirish korporatsiyasi)
20. Qisqartma – **DTM,** to‘liq aytilishi – davlat test markazi

Ahamiyat bergan bo‘lsangiz, yuqorida keltirib o‘tilgan qisqartmalarning aksariyati ingliz tilida va ular bugungi kunda ancha faol. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchi hamyurtlarimiz ham o‘zbek tilidagi qisqartmalarga qaraganda ingliz tilidagi abbreviaturalarni keng qo‘llashmoqda.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, internet texnologiyalarining rivojlanishi tufayli onlayn suhbat, mobil matnli xabarlashuv, elektron pochta orqali xabar almashish aloqalari shakllandi. Qisqa shakldagi so‘zlar, qisqartmalar, jumlalar va memlar internet madaniyatini belgilovchi yangi tilni rivojlantirishga yordam berdi. Eng mashhur qisqartmalarning asosiy qismini ingliz tilidagi qisqartmalar tashkil etmoqda. Negaki, ingliz tilshunosligida abbreviaturalar o‘zbek tiliga nisbatan ancha keng tarqalgan va o‘rganilgan. O‘zbek tilidagi qisqartma so‘zlar esa hali boshqa tillarga o‘zlashtirilmagan. Qisqartma so‘zlarning ma’nosini tushunmaydiganlar, ularni noto‘g‘ri qo‘llaydiganlar ham anchagina. Ingliz tilida 1960-yilda Geyl qisqartmalar lug‘atini tuzishni boshlangan bo‘lsa-da , o‘zbek tilida qisqartma so‘zlarga oid lug‘atlar hali ham yo‘q. O‘zbek tilshunosligida ham qisqartma so‘zlarga oid lug‘atlar tuzib, ularni yanada ko‘paytirishimiz lozim. Chunki ushbu yo‘nalishning ochilmagan qirralarini kashf etish orqali tilshunoslikka oz bo‘lsa-da hissa qo‘shish bizdek yosh izlanuvchilarning burchidir. Shu jumladan, qisqartma so‘zlarning to‘g‘ri tarjima qilinishi va ishlatilishiga e’tiborli bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. (2010) Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Toshkent: Sharq
2. Cannon G. (1989) Abbreviations and acronymsin English word-formation American Speech.
3. Husanov N. (2020) O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi Toshkent: Toshkent.
4. Macmillan (2002) English Dictionary for advanced learners. UK: Macmillan Publishers Limited.
5. Yo‘ldoshev M. (2018). O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi. Toshkent : Toshkent.
6. G‘apporov M. (2010) Ingliz tili grammatikasi. Toshkent: Turon iqbol

O‘ZBEK FRAZEOLOGIZIMIDAGI MUAMMOLAR

Rahimjonova Munavvar,
ToshDO‘TAU ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti
2-kurs talabasi rahimjonovamunavvar@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada frazeologizmlar, ularning tilshunoslikda va nutq jarayonidagi o‘rni, frazeologizmlarning o‘rganilishi, shuningdek dialektal lugat, tuzish ahamiyati yoritilgan bo‘lib, dialektal frazeologizmlarga misollar keltirilgan. Frazeologizmlarning o‘rganilish kerak bo‘lgan jihatlari, to‘liq tadqiq qilinmagan tomonlari haqida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: *Fraza, frazeologizm, turg‘un birikma, leksik birlik, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik.*

Abstract. *In this article, phraseologisms, their role in linguistics and the speech process, the study of phraseologisms, as well as the importance of creating a dialectal dictionary are highlighted, and examples of dialectal phraseologies are given. Aspects of phraseologisms that need to be studied and aspects that are not fully researched are written. The article describes the methodes of creating a dialectal dictionary and the importance of a dialectal dictionary.*

Keywords: *Phrasa, pharaseologism, lexical unit, phraseological units, emotional-expressive.*

Insonlar uchun muhim aloqa vositasi hisoblangan til jamiyatdagi shaxslarning izlanishlari, harakat va mehnatlari evaziga o‘zgarib, rivojlanib boradi. Tilshunoslikda lug‘at zahirasining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. “Tilning lug‘at boyligi asosan so‘zlardan iborat bo‘lsada, leksik birliklar deganda, nafaqat alohida so‘zlarni tushunamiz, balki turg‘un so‘z birikmalarini (fraza, turg‘un ibora, frazeologizmlar) ham tushuniladi”. (Yo‘ldoshev B. “Frazeologizmilarning adabiy til normasiga munosabati”. O‘zbek tili va adabiyoti. 1992.)

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. “Frazeologizmlar birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birlashuvidan tashkil topib, obrazli ma’noviy tabiatga egadir”. (Rahmatullayev Sh.” O‘zbek

frazeologiyasing ayrim masalalari”1990) Frazeologizmlar nutqni sodda, ravon, ixcham, aniq tushunarli bo‘lishiga va uni bo‘yoqdorligi oshirishga xizmat qiladi. “Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri shundan iboratki, ular zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, harakat yoki predmet tasavvuri yotadi. Masalan, “quvonmoq” ma’nosini ifodalaydigan “og‘zi qulog‘iga yetdi” iborasida kulish, mamnun bo‘lish orqasida og‘izning quloqqacha yetishi tasavvuri, obrazi bor. Ibora zamiridagi mana shu obraz “quvonmoq” ma’nosini bildirish uchun xizmat qiladi”. (Yo‘ldoshev B. “Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabati”. O‘zbek tili va adabiyoti. 1992) Shuningdek frazemalarni qo‘llash nutqni ixcham va ta’sirli bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, “Ammo Egamberdi mashinaning quli. Tez orada uncha-muncha mexanikka ham so‘z bermay qo‘ydi u "(Oybek). Ushbu gapda so‘z bermay qo‘ydi frazemasi Egamberdining barcha mexaniklardan o‘tib, mohir ustaga aylanganini ta’sirchan va ixcham tarzda ifodalayabdi. Bu kabi misollar juda ko‘pdir. Masalan: “kechagi to‘polonda uning abjag‘i chiqdi”-qattiq jarohatlandi, “Ahmad ukasing qilgan ishi uchun adabini berdi”-jazoladi, “Nigora dadasini ko‘ndirish amri mahol ekanligini bilsada to‘yga borish uchun ruxsat so‘radi”-qiyin, “bolakay jimgina musiqaga quloq berdi”- tingladi, “Ravshanning musobaqada g‘olib olib bo‘lganidan beri burni ko‘tarilib qolgan”-manman bo‘lib ketgan.

Yuqorida keltirilgan misollar fraeologizmlarining tilimizda qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatadi. “XX asr o‘zbek yozuvchilari, shoirlari asarlarining tili va uslubiga oid ko‘pgina ishlarda, nomzodlik dissertatsiyalarda, ilmiy maqolalarda frazemaning uslubiy vazifalarini o‘rganishga alohida ahamiyat berildi. Bu jihatdan Hamza (B.Turdialiyev, Sh.Qozoqov), A.Qodiriy (H.Qahhorova, F.Nasriddinov), A.Qahhor (I.Qo‘chqortoyev, O.Abdullayeva) H.Olimjon (S.Boboyeva), Zulfiya (S.Karimov) S.Ahmad (B.Yo‘ldoshev) kabi so‘z san’atkorlarining asarlarida qo‘llanilgan frazemalar tahliliga oid ishlar diqqatga sazovordir”.(Umarxo`jayev M. “Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi”. Andijon, 2010. 68-b.)

Shunday bo‘lishiga qaramay, ular bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar yetarli emasdir. O‘zbek tilshunosligida frazeologizmlarni sistemali ravishda o‘rganish

Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, A.Shomaqsudov, M.Xusainov ishlarida boshlangan. O‘zbek tili frazeologizmlarining besh jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (2006-2008) va bir jildlik “O‘zbekcha—ruscha lug‘at”da(1988) birmuncha to‘laroq aks etgan bo‘lsada, bu lug‘atlarda ham o‘zbek tilidagi barcha iboralar qamrab olingan deb bo‘lmaydi.

Frazeologizmilarni o‘rganish o‘zbek adabiy taraqqiyoti, rivojlanishi va boyishi uchun muhim omillardan hisoblanadi. Adabiy til lug‘at tarkibining boyishi xalq shevalari bilan bog‘liq bo‘lgani kabi, o‘zbek tilining frazeologik boyligi milliy tilning xalq shevalaridagi ko‘chma ma’noli iboralarni o‘rganish bilan bog‘liqdir. Dialektik frazemalar o‘zida xalqning ijtimoiy holatini ham ko‘rsatadi. Dialektning har bir shevasida o‘z turmush sharoiti, xo‘jaligi va urf-odatidan kelib chiqqan o‘ziga xos frazeologik iboralar borki, ular o‘sha sheva yoki bir necha shevalarda uchrasa, boshqasida uchramasligi mumkin. Bulardan ba’zilari adabiy tilda o‘z ma’no xususiyatini saqlagan holda uchrasa, boshqalari adabiy tilga o‘zlashmaganligini ko‘ramiz. Masalan, “loy o‘ynamoq” iborasi adabiy tilda uchramaydi. Shevada esa “bekor yurmoq”, “ishlamasdan yurmoq”, “anqayib turmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Yoki “tuyadan tushib qolgandek” Qoraqalpog‘iston hududida anqov insonga, “mushukka ko‘rpa yopgandek” iborasi esa o‘ziga katta kiyim kiygan insonga, “kemasi qirda ham yuradi” frazemasi boy barcha ishlarga qodir insonlarga nisbatan qo‘llaniladi. “Kalla qo‘ydi”—xato qildi, “alakaning itidek uyoqdan bu yoqqa yugurmoq”—tinmasdan harakat qilmoq, “bosh desa quloq deydi”—gapni tushunmaydi ma'nosida keladi. Ushbu iboralar ham dialektal frazemalar bo‘lib, adabiy tilga o‘zlashmagan. Va bu kabi frazemalar hech qayerda qayd etilmay qolib ketgan. O‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha shu kungacha o‘ndan ortiq doktorli, oltmishga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan, ko‘plab monografik tadqiqotlar yuzaga kelgan bo‘lsada o‘zbek dialektal frazeologiyasi bo‘yicha bajarilgan ishlar hozircha bir necha ilmiy maqolalardan iborat xolos. To‘g‘ri o‘zbek tilshunosligida frazemalarni struktural-grammatik, semantik-uslubiy, funksional jihatlardan o‘rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishildi, monografiyalar, ilmiy maqolalar, frazeologik lug‘atlar

yaratildi, bir necha nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbek frazeologiyasida hali chuqur ilmiy o‘rganishni taqozo etuvchi muammolar ham anchagina bor.

O‘rganilgan nazariyalar shuni ko‘rsatyabdiki, frazemalar adabiy tilning boyitishda va nutq jarayonida katta ahamiyat kasb etadi. Mana shu kabi sabablar o‘zbek tilining dialektik lug‘atini shakllantirish kerakligini ko‘rsatmoqda. Har qanday lug‘at ma’lum bir maqsad va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda tuzuladi. Shunday ekan dialektal frazemalarning qo‘llanish va ishlatilish imkoniyati, talqini, tavsifi, izohi va etimologiyasi, boshqa frazemalar ichidagi, adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan dialektal ma’nolari bilan ma’no munosabatlari strategiyasidagi betakroriy mavqei va shu mavqeini asoslaydigan amaliy, shuningdek, nazariy jihatlar nuqtai nazardan dialektal frazemalar lug‘atini shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Umuman olganda, o‘zbek frezeologizimi oldida turgan muhim muammolar juda ko‘p. Shulardan “O‘zbek tili frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining frazeologik uslubiyati”, “O‘zbek tilining tarixiy frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining dialektal frazeologiyasi”, “O‘zbek tilining frazeologik semantikasi” kabi muommolar o‘z yechimini kutmoqda.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. S.Abdurahmonov. (2015). “Nemis tilida frazeologizmlarning ifoda jihati xususida ba`zi mulohazalar”. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarqand, 227-b.3

2. M.Bekiyeva. (2020) “Inglizva o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning dunyoning kognitiv tasviridagi o‘rni”.

3. Sh.Rahmatullayev. (1990) “O‘zbek frazeologiyasing ayrim masalalari”.

4. Sh.Rahmatullayev (2006)“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (darslik). Toshkent "Universitet”.

5. M.Umarxo`jayev. “Olmon tili leksikologiyasi va frazeologiyasi”. Andijon. 2010. 68-b.

6. Yo‘ldoshev B. (1992). “Frazeologizmlarning adabiy til normasiga munosabati”. O‘zbek tili va adabiyoti.

ETNOLINGVISTIKA VA UNING O‘RGANILISHI

Ravshanova Feruza Murodullayevna,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada etnolingvistikani yuzaga kelish tarixi, olimlarning etnolingvistikaga oid qarashlari kabi masalalar ko‘rilgan. Fanga birinchi bo‘lib V.fon .Gumboldt tilni etnosiga ahamiyat qaratish kerakligini va har bir tilni o‘rganishda xalqning kelib chiqishi va an’analariga bog‘lagan holda o‘rganish maqsad muvofiq bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi va shu tariqa bu termin tilshunoslik sohasiga kirib kelishidagi ishlarini ahamiyatlidir. Tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo‘lgan etnolinglingvistikaga bilan bog‘liq ishlar tadqiq va tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar*: Etnos, etnolingvistika, termin, madaniyat, makrolingvistika, lingvokulturologiya, metodologiya, fundamental, antroposentrik paradigma, komporativistika.*

Abstract. *In the article deals with issues such as the history of ethnolinguistics, views of scientists on ethnolinguistics. Frist in science V.von Humboldt puts forward the idea that it is necessary to play attention to the ethnos of the language and that it is appropriate to study each language in connection with the origin and traditions of the people, and thus his work is important in the introduction of this term into the field of linguistics. Studies related to ethnolinguistics, one of the new fields of linguistics, were studied and analyzed.*

Keywords*: ethnicity, ethnolinguistics, term, culture, macrolinguistics, linguistic culture, methodology, fundamental, anthropocentric paradigm, computer science.*

Kirish . Etnolingvistika tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu yo‘nalishga oid ishlar o‘zbek tilshunosligida o‘rganilmoqda. Fanda etnolingvistika termini qo‘llanilishigacha bo‘lgan davr ichida tilni xalq etnosi va madaniyati , an’analari bilan bog‘liq holda o‘rganilishi haqida fikrlar mavjud bo‘lib, bu kabi g‘oyalarni XIX asrning 1 – yarmi til nazariyotchisi, lingvistik komporativistikada alohida o‘rin tutgan V.fon Gumboldt “Qiyosiy antropologiya”ni o‘rganish

jarayonida insonlarni turli jamoalarga tegishli ekanligiga va ularning ma'naviy o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga muvaffaq bo'ladi. Shundan so'ng u o'z talimotida tillarni tavsiflash go'yalarini ishlab chiqadi. Bu g'oyalar tilni etnolingvistik jihatdan o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning bu kabi g'oyalarini Germaniyada A.Shtayntal, L.Vaysgerber asarlarida , Rossiyada F.I.Buslayev, A.A.potebnya asarlarida uchraydi. Keyinchalik XX asrda akademik N.I.Tolstoy va uning shogirtlari T.A.Agarkina, L.N.Venagradova, A.V.Gura va boshqalar entolingvistika maktabi asoschilari hisoblanadi. Etnolingvistikaning mohiyati tilni inson ongi, mentaliteti, marosimlari, xulq – atvori mifologik g'oyalari va mifopoetik ijodini o'rganadigan murakkab fan sifatida XX asrda yuzaga keladi.

Material va metod. Etnolingvistika tilshunoslikning til va til egasi bo'lgan xalqda tilning qo'llanilishini hamda tilni rivojlanish davrini etnik omillarga bog'lagan holda o'rganadi. Etnolingvistika va uning rivojiga turli etnik guruhlarning qanchalik hissa qo'shganini, bu jarayonda etnoslar orasidagi yaqinlik, mushtaraklik yoki ularning bir – biridan ajralish, uzoqlashish xususiyatlarini tadqiq qiladi. Tilshunoslikning etnik onamastika, areal lingvistika, lingvistik geografiya, dialektologiya , til tarixi, sotsiolingvistika , xaritashunoslik sohalari etnolingvistika erishgan ilmiy natijalardan foydalanadi. Etnolingvistika o'z yozuviga ega bo'lmagan xalqlarning etnografiyasini o'rganishda, tillardagi etnik xususiyatlar bilan bog'liq holda lisoniy materiallarni to'plashda va tadqiq qilishda ham qo'l keladi.

Natijalar. Etnolingvistikaning fan sifatida vujudga kelishida V.fon Gumboldt ta'limoti muhim ahamiyatga ega. Gumboldt tilni o'rganish uchun muhim bo'lgan, quyidagi to'rtta asosiy qoidalar tuzadi. 1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tilda gavdalanadi. 2. Har bir madaniyat milliy bo'lib, uning milliy xususiyati dunyoga alohida qarash orqali tilda ifodalanadi; til har bir xalqqa xos ichki shaklga ega. 3. "Xalq ruhyati" til madaniyatida ifodalanadi. 4. Inson va dunyo o'rtasidagi vositachi til hisoblanadi. V.fon Gumboldtning bu kabi g'oyalari XIX XX asrlarning ko'pgina olimlarida qiziqish uyg'otadi. Tillarni tavsivlashda Gumboldt g'oyalarini tushunish va amalga oshirishga urinishlar

dastlab Germaniyada A.Shtayntal, qisman V.Vundt, E.Gusserl, L.Vaysgerber asarlarida, Rossiyada F.I.Buslayev asarlarida undan keyin A.A.Potebnya kabi olimlar asarlarida ham uchraydi. Gumboldtchilik tilda antropologik yondashuvni o‘z ichiga oladi. XX asrda Gumboldt g‘oyalarini ilgari surgan L.Vaysgerber “ Til - dunyodagi tafakkur va voqelik o‘rtasidagi oraliq ” deb ta’riflagan. Olimning bu fikrlari ham bevosita etnolingvistikaga bog‘liq bo‘lib, dunyodagi har bir tafakkur va voqelikni ifodalash uchun tilga murojaat qilishiga ahamiyat qaratgan. Tillarni o‘rganish mobaynida olimlar har bir belgi va ma’lum bir an’ana udumlarga e’tibor qaratgan, sababi ular ham tilda ifodalanayotgan ma’lum bir voqeylik haqida ma’lumot bergan. F.I.Buslayev XIX asrda Rossiyada qiyosiy – tarixiy tilshunoslik, qiyosiy- tarixiy hind yevropa tilshunosligi, qiyosiy mifologiya bilan parallel ravishda vujudga keldi va rivojlana boshladi, degan fikrlarni bildiradi. F.I.Buslayev J.Grimmning til, mifologiya, xalq she’riyati va urf-odatlarining xalq tarixi bilan chambarchas bog‘liqligi haqidagi g‘oyalarini qo‘llab- quvvatlagan. F.I.Buslayev J.Grimmning “Tilimiz tariximiz” degan so‘zlarini ishonch bilan takrorlashini va bu ikkala olim uchun ham hozirgi zamonni o‘tmishdan va unga bog‘liq holda tushunish mumkin, degan g‘oyasi fundamental ahamiyatga ega ekanligini bilish mumkin. F.I.Buslayev g‘oyalarining o‘ziga xosligini u yaratgan asarlar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. U rus lug‘ati va rus folklorining arxaik qatlamlarini tarixiy –genetik jihatdan o‘rganishni amalga oshiradi va shu asosida “Mifologik davrning slavyan qarashlari” asarini yaratadi. F.I.Buslayev xalq og‘zaki ijodi, tilshunoslik, etnografiya, qiyosiy mifologiya va yaxlit elementlarni o‘zida mujassam etgan xalq madaniyatiga oid fanning vazifalarini belgilab beradi. F.I.Buslayev tilni madaniy an’analarni saqlash va uzatish omili sifatida tushungan. U epik an’ananing yaxlit va keng qamrovliligini, uning lisoniy tabiati va tartibga solish vazifalarini alohida ta’kidlagan. F.I.Buslayev etnolingvistik ma’nolar va xalq e’tiqodlari sohalarini birlashtirgan holda, til olam manzarasini o‘ziga xos insoniylashtirgan, estetik jihatdan jozibali va ichki maqsadga muvofiq bir butunlik sifatida qayta yaratishni ko‘rsatadi. Til shunchaki “eskicha xotiralar”ni saqlamaydi, balki ularni tarixiy voqelikning yangi hodisalarini idrok etishda vositachilik

qiluvchi ijodiy, faol kuchga ega ekanligini aytadi. F.I.Buslayev tildagi e'tiqodlarga asoslangan ya'ni ongning yashirin munosabatini ochishga intiladi.

A.A.Potebnya (1835-1891) F.I.Buslayev bilan birgalikda tildan tarixiy manba sifatida foydalangan, ular til ma'lumotlari asosida o'tgan davrlarning o'ziga xos matnlari va tasvirlarini ham, inson ongining rivojlanish tarixini qayta qurish mumkinligini ko'rsatishgan. A.A.Potebnya semiotik tamoyilni shakllantiradi, uning mohiyati shundan iboratki, qadimda insonlarning ma'naviy hayoti "faqat belgilar bilan bog'lanishi mumkin, ularning asosiysi so'z, o'zimizning mazmunimiz bilan izohlaganda belgilar ma'lum bir so'z va madaniyat, urf-odatni ifodalagan" degan tushunishlarni keltiradi. A.A.Potebnyaning bu kabi fikrlarini "Slavyan xalq she'riyatidagi ba'zi timsollar haqida", "Tildagi ba'zi vakilliklarning aloqasi to'g'risida" kabi asarlarida ko'rish mumkin. A.A.Potebnya so'zlarning semantik qatorini til va tafakkur rivojlanishini kengroq matnda o'rganishni talab qiladi. A.A.Potebnyaning "Mif nazariyasi" til va tafakkur tushunchasining umumiy bir qismidir. Ushbu umumiy nazariya doirasida mif til va ma'naviyati tadrijining boshlang'ich nuqtasi bo'lib, mif - she'riyat – nasr bular bir – biri bilan bog'liq ekanligi aytadi. A.A.Potebnyaning folklor simvolizmi sohasidagi izlanishlari bevosita mif nazariyasi bilan bog'liq. Belgilarning kelib chiqishi, uning nuqtayi nazari bo'yicha, til va tafakkurning o'zaro munosabati bilan bog'liq. So'zlar asta – sekin ichki shaklini, eng yaqin etimologik ma'nosini yo'qotadi. Xalq she'riyatidagi timsollar esa uni qayta tiklashga qaratilgan. A.A.Potebnya ham tilni xalq tili bilan bog'lab, milliy madaniyat merosi bo'lgan folklor va badiiy qadriyatlarga murojaat qilish bilan o'rganishga chaqiradi. U doimo "xalq" va "millat" tushunchalariga murojaat qiladi. Til xalq ruhi mahsuli ekanligini, ayni paytda xalqning milliy o'ziga xos manbayi sifatida tushunishga harakat qiladi.

Olimning bu kabi g'oyalari tilni o'rganishda millatning kelib chiqishi va xalq ruhiyati bilan bog'lab o'rganish lozim ekanligiga ishora qilmoqda. Shu tariqa etnolingvistika tilshunoslikda rivoj topa boshlagan. O'zbek tilshunosligida etnolingvistikaga oid, professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab… " nomli maqolasida etnolingvistika, umuman, antroposentrik

paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolarni chuqur va asosli yoritib berilgan ishlardan biri deyish mumkin. Ushbu maqolani o‘zbek tilshunosligida etnolingvistika haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada etnolingvistik va lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida asosli fikrlarni bayon etilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to‘g‘risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, etnolingvistikadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi (madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati)” demakdir.

O‘zbek tilshunosligida etnolingvistikaga oid tadqiqotlardan yana biri, Termiz davlat universiteti magistranti Nadim Humayun Muhammadning “Etnolingvistika va etnografik leksika haqida” nomli maqolasi bo‘lib, maqolada etnolingvistikani bir necha masalalari mavjud deb quyidagicha ta’rif beradi. Etnolingvistika — tilshunoslikning xalq (millat, elat) va uning tili orasidagi aloqa va munosabatni etnolisoniy (etnik madaniyat va etnik til mushtarakligi tamoyili) asosda o‘rganuvchi soha. U, asosan, ikki yo‘nalishda ish ko‘radi:

— xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsifiy asosda o‘rganish;

— xalqning etnolisoniy xususiyatini tavsiyaviy asosda o‘rganish.

Birinchi maqsadni shartli ravishda tashqi va ikkinchisini ichki maqsad deyish mumkin. Til va etnik xususiyat munosabati, ularning bir-biriga ta’siri ikki yo‘sinda kechadigan jarayon:

— etnik omil (urf-odat, an’ana, falsafiy, diniy qarashlar va h.) ning til rivojiga ta’siri;

— lisoniy omilning etnos (va etnik xususiyat) rivojiga ta’sir; Bu maqolada etnolingvistikaning ichki va tashqi maqsadlarini belgilab berganliga e’tibor qaratildi. Unda etnolingvistikani tavsifiy asosda ish ko‘rishini ya’ni urf – odat , an’ana, falsafiy, diniy qarashlarni o‘rgansa, ikkinchi maqsadi bu – tavsiyaviy bunga ko‘ra lisoniy omilning etnik xususiyatlari asosida o‘rganish, nazarda tutilgan. Maqolada yana etnolingvistik jihatdan, bir xalqda etnik xususiyat (urf – odat, an’ana, falsafiy, diniy qarashlar) unitilib, bunga mos ravishda ularni ifodalovchi til birliklari ham faol lisoniy xazinadan chiqib, o‘tmish voqeyligiga aylana borishi haqida o‘rinli fikrlar keltirilgan.

Buxora davlat universitetining o‘qituvchisi Y.U. Nurova va Sh.Sh. Shukrullayevalarning “Etnolingvistikaning vujudga kelishi va taraqqiyoti” maqolasida XVIII asr oxirida I.Gender hamda umumiy tilshunoslik asoschisi V.Gumboldt tomonidan ilgari surilgan tilning xalq madaniyati, urf – odati, xarakteri bilan chambarchas bog‘liqlikda o‘rganuvchi etnolingvistikani shkllantirish va rivojlantirish kerakli hamda komporativistika, ya’ni qiyosiy – tarixiy tilshunoslik nazaridan qardosh tillarni o‘zbek tili bilan muqoyasa qilish borasida keying paytlarda yo‘l qo‘yilayotgan sustkashlikka barham berish kabi masalalarga to‘htalib o‘tilgan. Etnolingvistikaning fan sifatida yuzaga kelishida, F.de Sossyur (1857-1913) tomonidan yaratilgan tilshunoslikning tizimli nazariyasi: “Millatning urf-odatlari uning tilida aks etadi, boshqa tomondan, aynan til millatni shakllantiradi” degan fikri etnografiyada strukturalizmning shakllanishiga, jumladan, Leyden maktabi, kognitiv antropologiya, ikkinchi darajali modellashtirish tizimlari maktabi va hokazolarga ta’sir qildi, ammo etnolingvistikani mustaqil fan sifatida shakllanishi F.Boas kabi amerikalik olimlarning faoliyati bilan bog’liqdir, degan fikrlar keltirib o‘tilgan. Etnolingvistika ikki yo‘nalishga bo‘linadi. Diaxronik etnolingvistika va sinxron etnolingvistika kabi yo‘nalishlari mavjudligi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Xulosa. Maqolada etnolingvistikaning vujudga kelishiga asosiy sabablardan biri, ma’lum bir tilni o‘rganish davomida xalq etnosiga murojaat qilish lozimligi sababi xalq madaniyati va o‘tmishi, urf – odatlarida tilning ijtimoiy ko‘rinishi namayon bo‘ladi. V.fon Gumboldtning moddiy va ma’naviy madaniyat tilda namoyon bo‘lishi, xalq ruhiyati tilda aks etishi, har bir madaniyat milliy bo‘lishi kabi fikrlari bugungi kunda tilshunoslik sohasida rivojlanib kelayotgan etnolingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qancha yangi yo‘nalishlar rivojiga hissa qo‘shib kelmoqda. Etnolingvistika nafaqat tilga oid masalalarni o‘rganishda balki folkyorshunoslikdagi xalq udum va an’analarni o‘rganishda, arial lingvistikada esa material asosida tahlil qilishda ham qo‘l keladi. Demak etnolingvistika keng qamrovli sohalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Абдураҳмонов Х., Маҳмудов Н. (1981) Сўз эстетикаси. – Тошкент.

2 Булатова Н.Д. (2003) Етнолингвистика в системе профессиональной подготовки специалистов. Дисс. – Москва.

3 Герд А.С. (2001) Введение в этнолингвистику. – Спб,

4 Гумбольдт В. (1985).Язык и философия культуры. – Москва

5 Потебня А.А. (1989) Слово и миф. – Москва.

6 Подюков И.А. (1991) Народная фразеология в зеркале народной культуры. – Пермь,.

7 Перехвальская Е. В. (2016) Этнолингвистика. – Юрайт

8 Тенер В. (1983) Символ и ритуал. – Москва: Наука

9 Toshev X. (1987) XIX asr oxiri XX asrning boshlarida Zarafshon o‘zbeklarining xo‘jaligi va ijtimoiy turmushi. – Тошкент: Fan.

10 Уорф Б.Л. (1960) Отношение норм поведения и мышления к языку//Новое в лингвистике., 1. – Москва.

11 . Худойберганова Д.С. (2015 й) Ўзбек тилидаги матнларнинг антропоцентрик талқини., – Тошкент

12 Primova A., Qodirova X. (2019) Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv uslubiy qo‘llanma, – Urganch.

13 Mamatov A.E. (2019) Zamonaviy lingvistika . – Тошкент.

14 Nurmonov A. (2009) Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo‘nalishlari. –Тошкент.

STEP-BY-STEP DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE.

Sarimova Bonu Shukhrat kizi,
Student of TSUULL

Abctract. *This article provides detailed information about the origin of the Uzbek language, which families it belongs to, as well as its gradual formation over the centuries.*

Key words*: Uzbek language, Origin, Uzbek written literary language, Karluk group of languages, Toponyms*

The Uzbek people are one of the most ancient peoples of Central Asia. Its formation dates back over 3,000 years. Its formation is closely connected with the formation of the national language. The Uzbek language belongs to the family of Turkic languages.

The solution to the problem of the ethnogenesis of the Uzbek people, as well as the language, is in fact in the plane of its close connection with the most ancient peoples living in this territory - the Sogdians, Bactrians, Khorezmians, Chachevs, Parikans, Saks, Massagets and others. The ethnogenesis of the Uzbek people includes a complex of all possible Turkic tribes and peoples that could exist in this territory. In medieval historical treatises, information has been preserved that a total of more than 92 Turkic and non-Turkic tribes (Urug) participated in the formation of the Uzbek people. Thus, in the very process of the formation of the Uzbek language, there is an active phase of language contacts and the influence of various languages on its formation.

Uzbek scientists distinguish the following historical periods of the formation of the Uzbek language.

1. The most ancient period of the unification of the Turkic and Iranian tribes (until the 4th century AD).

2. The most ancient common Turkic language, which was formed on the territory of Central Asia, Altai and Mongolia (VII-IX centuries).

3. Eastern associations of the Turkic peoples and their common Turkic language, formed on the territory of Maverannahr, Khorezm, Eastern Turkestan (Uzbek, Uighur, Turkmen, Turkish, Kirghiz, Kazakh; X-XII centuries).

4. Accession to the Uzbek people of new Turkic tribes and the formation of the old written Uzbek language (Chigatai; XIII-XVI centuries).

5. Formation of a new Uzbek written literary language (XVII-XIX centuries).

6. Formation of the modern Uzbek literary language (XX century).

The Uzbek language belongs to the Karluk group of languages of the Turkic peoples. Toponymy and ethnographic onomastics have been preserved to confirm this information - Tuitepa, Angren, Ozzurgon, Bachtsir, Gurama, and Datura. Kh. Khasanov cites about 83 ethnonyms characterizing the names of various tribes, peoples, Urugs, etc. (Karluts, Nukus, Sirgali, Savai, Bayovut, Olot). T. Nafasov studied 61 ethnotoponyms related only to the letter "B". S. Karaev points out that one third of the 2800 names of villages are ethnotoponyms. Each territorial administrative unit of Uzbekistan has such ethnotoponyms that were formed because of mutual enrichment and mutual influence. Among these toponyms, one can find those that arose under the influence of, for example, Mongolian, Iranian and other languages (Mitan, Katli, Karvak, Manak, Kurdik, Chanashik, Tat, Tazhik, Kura).

In the formation of the Uzbek language, a special role belongs to Urugs Karluk and partially Mongolian and Iranian-speaking tribes (Sogdians, Khorezmians, and Scythians) influenced Kipchak, at the same time, in the most ancient periods of development, the language. "The oldest borrowings in the Turkic languages include lexical units from Sanskrit, Tocharian languages, Sogdian and Chinese." M.G. Gafurov points to kinship between the Iranian-speaking and Turkicspeaking tribes, and states that the Turkic-speaking language was predominant. It is well known that by the middle of the VI century (552) in the east, in the Altai Territory, the Turkic Khaganate was created. From this historical period, numerous written monuments have been preserved - Bitigs, whose language can be called a common Turkic language.

The basis of this language was the languages of Karluks, Oguzes, Kipchaks. By 639-645 The Turkic Khaganate is divided into the Western Khaganate (the capital is Yettisuv) and the Eastern Khaganate (the center is Mongolia). Then there is a dismemberment of the hitherto integral association: there is an association of the Yakut, Oguz, Karluk tribes. All this influenced the development of the common Turkic language. The Western Khaganate is subsequently divided into smaller territorial associations - Khorezm, Sogd, Bukhara, Chaganiyan, Takharistan, Chach, and Fergana.

In all historical periods of the formation and formation of the Uzbek language, one can detect the influence of other languages on it. For example, the toponym Khorezm consists of the words of Iranian origin Khvarri - Khovar - sun, and the word Zim - Zamin - earth.

Taking into account the historical excursus devoted to the development and formation of the Uzbek language in terms of designating the role of borrowings in different historical eras it is possible to conditionally divide the entire process of penetration of foreign lexical masses into the Uzbek language as follows:

I. The ancient period of the development of the language and the influence on the Turkic vocabulary of the parallel coexisting and transforming vocabulary of the Sogdians, Bactrians, Khorezmians, Chachevs, Parikans, Saks, Massagets.

II. The pre-classical period of the development of the language, the beginning of the formation of the identification of the Uzbek language itself and the influence of foreign borrowings on it.

III. The classical period of development of the Uzbek language after the conquest of Central Asia by the Arab caliphate, characterized by a turning point in the lexical component of the linguistics of the Uzbek language, when most of the foreign vocabulary is introduced in a short time period. This period can be called the classical period of borrowings.

IV. The period of wide assimilation and use of Arabic-language borrowings in the Uzbek language, because of which the historical memory of the nation perceives borrowings as a native native attribute.

V. New era of borrowings (XX and XXI centuries). During this period, the nature of borrowing changes due to new political and social conditions. Borrowings become an integral part of the development of the Uzbek language and replenishment of its vocabulary. International words from European and Russian languages penetrate into the composition of the Uzbek language, a term system is widely formed in all spheres of scientific activity. The problem of borrowings becomes an independent subject of linguistic research.

In conclusion, the importance of linguistic research on the issues of mutual influences and influences of the Turkic, Persian, Arabic languages on the modern Uzbek language should be emphasized. The mechanism of borrowing from the modern Arabic literary language into Uzbek is of great interest for scientific linguistic research, and can be widely used in the practice of teaching both Arabic and Uzbek.

References:

1. Boburov N.A. (2017).Introduction to the study of Turkic languages. - T.

2. Казакбаева, Г. А. (2009). Исторические условия языковых контактов узбекского языка. Русистика, (1), 63-69.

3. Murodova S.N., Reshetov V.V. (2019) .Uzbek language. ed-3. - Moscow-Tashkent: Ugpedgiz,

IJTIMOIY- SIYOSIY TERMINLARNING O‘ZBEK TILI LEKSIK SISTEMASIDAGI O‘RNI

Topiljonova Namuna Muydinjon qizi,
NamDU Lingvistika(o‘zbek tli) 2-kurs magistranti
namunatopiljonova@gmail.com

Annotatsiya. *Har bir fanning rivojlanishida shu fanning terminlari muhim o‘rin tutadi. Qaysi fanning terminologiya sohasi o‘rganilgan bo‘lsa, demak shu fan tadqiq etilib, rivojlangan bo‘ladi. Mamlakatimizda mustaqillikdan keyingi yillarda chetdan terminlar olib kirildi, o‘zimizning arxaik so‘zlarimiz qaytadan ma’nosi kengaytirildi. Shu jumladan ijtimoiy-siyosiy terminologiya tizimi ham o‘zbek tili leksik sistemasida muhim o‘rin egalladi. Maqolada ijtimoiy-siyosiy*

termin deganda nima nazarda tutiladi, o‘zbek terminologiyasida ijtimoiy-siyosiy terminlarning o‘rni degan muhim masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy-siyosiy, mustaqillik davri, terminologiya, til, lug‘at, termin yasash modellari, til va jamiyat.*

Abstract. *Each play an important role in terms of the development of science of science. Terminology which have been studied in the field of science, then this is for advanced study of science. In the years after independence the country were in the new terms kiril get our own arxaik re-expanded the meaning of our words. Including socio-political terminology English vocabulary the system also occupies an important place in the system. Article in socio-political terms mean, uzbekistan terminologiyasida socio-political terms that illuminated the role of important issues.*

Keywords: *socio-political, period of independence, terminology, language, dictionary, term formation models.*

Til jamiyatning aloqa vositasi sifatida faqat ijtimoiy talab bilan kelib chiqadi hamda sotsial mohiyat kasb etadi. Tilning jamiyat mohiyati, uning jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ravishda rivojlanishi, jamiyat hayotidagi o‘zgarishlarning shu jamiyatning tilida o‘z aksini topishi masalasi ko‘pdan beri tilshunoslarni qiziqtirib kelmoqda.

Mustaqillik davri barcha fan va sohalarda bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham yangi talablarni qo‘ydi. O‘zbekiston mustaqil va suveren davlat sifatida jamiyatni tom ma’nodagi demokratiya asosida taraqqiy toptirish yo‘lini tanladi. Demokratik jamiyatni va davlatni barpo etishda milliy davlatchilik an’analariga alohida e’tibor qaratildi. Milliy tiklanish va o‘zlikni anglash yo‘nalishi ustuvor, deb e’lon qilindi. Turmushda tubdan sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy o‘zgarishlar yangi tushunchalar, yangi nomlanishlarning voqelanishiga olib keldi. Bo‘linish tamoyillari negizida yangi davlat boshqaruvi organlarining tuzilishi va faoliyat olib borishi pirovard natijada Oliy Majlis, Senat, Vazirlar Mahkamasi, qonun chiqaruvchi organ, ijro etuvchi organ, nazorat qiluvchi organ, sud hokimiyati, departament, konsern, xolding, kompaniya, hokimlar instituti,

nodavlat ijtimoiy birlashma, mas'uliyati cheklangan jamoa, Yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo 'mitasi kabi ko'pdan ko'p terminlarning muomalaga kirishiga turtki berdi.

O'zbek tili terminologik leksikasining faollashish jarayoni respublikaning davlat qurilishi, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyoti, shuningdek, ijtimoiy turmushning turfa jabhalariga doir talaygina yangi hodisa va tushunchalarni ifodalash zaruriyati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu sababli hozirgi paytda o'ta tezlik bilan boyib borayotgan qator terminologik tizimlarni yana ham takomillashtirish, yuqori bosqichga ko'tarish o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb, kechiktirib bo'lmas masalalardan hisoblanadi. Boshqa tillarda kuzatilgani kabi o'zbek tili terminologik leksikasi asl o'zbekcha (turkcha), o'zlashma (sug'dcha, xitoycha, arabcha, forscha - tojikcha, mo'g'ulcha, ruscha-baynalmilal), sodda, oddiy, barcha tomonidan kunda ishlatiladigan va azaldan qo'llanishda bo'lgan umumadabiy til so'z yasash modellari hamda termin yasash qoliplari asosida shakllangan. Shuni alohida urg'ulash kerakki, o'zbek tilining hozirgi soha terminologiyasi sistemasida nisbatan ancha keyin yuzaga chiqqan terminlar safida qadimgi turkiy til, eski turkiy til va eski o'zbek adabiy tilida qayd etilgan leksik birliklarning mavjudligi muhim ahamiyatga molikdir. Ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial-siyosiy jabhalarga doir hodisa va tushunchalarni ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya xalq kundalik hayotida sodir bo'luvchi turfa voqea va hodisalar bilan yaqindan bog'langan.

Terminlarning aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. (Javlieva , 2020, 453-bet) O'zbek ziyolilari, chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida tashkil qilingan Atamashunoslik qo'mitasining samarali mehnati evaziga muxtoriyat, ma'muriyat, ma'mur, muqobil, hakam, tashrif, insonparvarlik, xususiylashtirish, boshboshdoqlik, qoldiq iqtisodiyot, ma'lumotnoma, reja, dastur, kengash singari juda ko'p ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar qaytadan qo'llanishga kiritildi. (H. Dadaboyev, 2019, 49-bet)

Ijtimoiy-siyosiy leksika lug‘aviy sistemaning jamiyat siyosiy hayoti yoki siyosiy tizimiga bog‘liq bo‘lgan hodisalar, jarayonlar va munosabatlarni ifodalovchi, ayni vaqtda ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy, madaniy, diniy, ma’anaviy-ma’rifiy kabi omillar asosida shakllanuvchi o‘zgaruvchan qatlamdir. (To‘raxo‘jayeva A, 2012, 9-bet). Ijtimoiy-siyosiy terminlarning chegarasini va tarkibini belgilash hozirgacha olimlar tomonidan munozarali bo‘lib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, mamlakat rahbariyati va hukumati oldida yuqoridagi nohaqlikka barham berish, moziyda ajdodlar tilida keng ko‘lamda ishlatilgan so‘z va terminlarga qayta jon ato etib, ularga til so‘z boyligidan munosib o‘rin berish, ya’ni eskirgan tamg‘asi bosilgan leksik birliklarni ruscha va u orqali tilimizga zo‘rma-zo‘raki olib kirilgan g‘arbiy yevropacha so‘z va istilohlar o‘rnida qo‘llash borasida jiddiy harakatlar amalga oshirildi. Buning natijasi o‘laroq, o‘zbek tilining leksik tarkibi, xususan, terminlar tizimida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan ushbu hodisa oqibatida ko‘pdan-ko‘p eskirgan so‘zlar qaytadan muomalaga olib kirildi, va aksincha, totalitar tuzum va kommunizm qurish g‘oyasi, mafkurasi bilan bog‘liq tushunchalar insonlar turmush tarzidan chiqib ketgach, ularni ifodalovchi ko‘pgina so‘z va terminlami ishlatishga ortiqcha hojat qolmadi. Chunonchi, demokratik sentralizm, sotsializm, tarixiy materializm, ilmiy kommunizm kabi termin va birikmalar tarix sahifasidan o‘rin oldi. Aksincha, tom ma’nodagi erkin va ozod davlat barpo etish mafkurasi ostida o‘z yo‘lini tanlab olgan o‘zbek xalqi turmush tarzida paydo bo‘lgan mutlaqo yangi tushunchalar va realiyalar eski so‘zlar qatoriga kiritilgan leksemalar yordamida ifodalandi. Bunday holat ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlar tizimida ravshan ko‘zga tashlandi. Davlat boshqaruv strukturasining ijrochi, qonun chiqaruvchi va nazorat qiluvchi organlariga taqsimlanishi shu sohalarga oid terminlar tizimining sof o‘zbekcha yoki arabcha va forscha-tojikcha so‘zlar hisobiga kengayishiga olib keldi. O‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidan *vazir, bosh vazir, vazirlik, viloyat, tuman, qo‘rg‘on, hokim, viloyat hokimi, tuman hokimi, hokimlik//hokimiyat, oqsoqol, qishloq oqsoqoli singari arxaizmlar mustahkam*

o‘rin oldi. Jarayon, ma’ruza, mavzu, hujum, hamla, ilg‘or, soqchi, malham, shifokor, bosh shifokor, saraton, qorason, hay’at, bo‘hton, muhr; yorliq, taftish singari turfa sohalarga oid terminlar bugungi kunda millat vakillari tilida faol ishlatilmoqda. (A.Madvaliev, N.Mahkamov, Sh.Ko‘chimov, Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug’ati. 2020.)

Xullas, istiqlol tufayli anchagina eskirgan so‘z va istilohlar o‘zbek tili lug‘at tarkibidan qayta o‘rin egalladi va ular millat vakillarining kundalik muloqoti uchun zamin vazifani bajarishda xizmat qilmoqda. Mustaqillikdan keying yillarda o‘zbek terminologiyasi sohasida bir qator ishlar yuzaga keldiki, ularda ijtimoiy-siyosiy leksika muammosiga daxldor masalalarga e’tibor qaratildi. Chunonchi, “Mustaqillik” lug‘ati bunga misol bo`lishi mumkin.(Jalolov, Xonazarov, 2000,320 bet)

Xulosa o‘rnida, har bir sohada terminlarni ilmiy jihatdan tartibga solib turish uzluksiz jarayondir. Bunda terminologik tamoyillar va me’yorlarga amal qilish bosh mezon bo‘lmog‘i kerak. Har qanday til leksikasidagi taraqqiyot yangi lug‘aviy birliklarning paydo bo‘lishi, ma’lum lug‘aviy birliklarning eskirib iste’moldan chiqishi, so‘zlarning yangi ma’no(lar) kasb etishi yoki ayrim ma’nolarini yo‘qotishi kabi hodisalar bilan xarakterlanadi. Ana shunday o‘zgarishlar ma’lum darajaga etgach, ularni nazariy va amaliy jihatdan aks ettiruvchi ishlarga ehtiyoj seziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. (2019) O‘zbek terminologiyasi. Toshkent: “Yoshlar Nashriyot uyi” 44-bet

2. Jalolov A, Xonazarov Q. (2000). Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug`at. Toshkent:Sharq, 320 bet

3. Javlieva J.J. (2020). Terminologiya masalalari bo`yicha ilmiy adabiyotlar tahlili.Science and education” Scientific journal

4.Madvaliev A, Mahkamov N, Ko‘chimov Sh. (2020). Ijtimoiy-siyosiy terminlarning qisqacha izohli lug’ati. Toshkent: “ Sahhof ” 302 bet

5. To‘raxo‘jayeva A.X. (2012). Mustaqillik sharoitida o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti. Toshkent: 9-bet

SHE'RIY MATNLARDA SO'ROQ GAPLARNING IFODALANISHI (ABDULLA ORIPOV SHE'RLARI MISOLIDA)

Umurzaqova Go'zal Sherali qizi,
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi
fakulteti 3-kurs talabasi
e-mail:guzalumurzoqova27@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada so'roq gaplarning grammatik va semantik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur birliklarning lingvopoetik xususiyatlari Abdulla Oripov she'riyati misolida ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *So'roq gaplar, sof so'roq gaplar, ritorik so'roq gaplar, so'roq-buyruq gaplar, so'roq-taajjub ma'nolari, so'roq yuklamalari, so'roq olmoshlari*

Abstract*. In this article, general information about interrogative sentences and linguopoetic features of interrogative sentences are shown on the example of Abdulla Oripov's poetry.*

Key words: *Interrogative sentences, pure interrogative sentences, rhetorical interrogative sentences, interrogative-command sentences, interrogative-surprise meanings, interrogative predicates, interrogative pronouns.*

Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari barcha davrlarda tilshunoslik uchun qiziqarli, ayni paytda nutq egasining lisoniy imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi muhim omil sanalgan. Ulardan unumli va oqilona foydalanish har qanday nutq, xususan, poetik nutqning ham qiymatini oshiradi. Jumladan, xalqimizning atoqli shoiri Abdulla Oripov o'zining betakror she'rlari va ijtimoiy faoliyati barcha yurtdoshlarimiz shuurida vatanga muhabbat, farzandlik burchi, o'zbekona qadriyatlar kabi insoniy fazilatlarni singdira oldi. Shu bilan bir qatorda, shoir ijodining til xususiyatlarini o'rganish ham dolzarb masalalardan biridir. Jumladan, so'roq gaplarning ifodalanishidagi o'ziga xosligi shoir she'riyatida tasdiqlash, buyurish, hayajon kabi ma'nolar orqali ifodalanishiga amin bo'lamiz.

Biz ushbu kichik tadqiqotimizda shoir Abdulla Oripovning "Adolat ko'zgusi", "Yangi she'rlar" to'plamlaridagi so'roq gaplarning lingvopoetik xususiyatlarini tahlilga oldik. Ma'lumki, so'roq gaplarning xususiyatlarini biz quyidagilarga bo'lamiz : ba'zan faqat so'roqni, ba'zan ham so'roq, ham

hayratlanishni, so‘roq yo‘li bilan ifodalangan taajjubni bildiradi (G‘ulomova, 1987, 57-bet):

Kim deb atash kerak nomingni o‘zi ?

Musofir desalar to‘G‘ridir ko‘proq. (“Musofir” she’ri)

Ba’zan so‘roq bilan birga, turli hayajonlar, tuyG‘ular ifodalanadi, ba’zan so‘roq yo‘li bilan berilgan buyruq ifodalanadi (G‘ulomova, 1987, 57-bet).

Hech qursa bu joyda yupanch bormikan,

Bormikan birovi? Biror avlodi? (“Musofir” she’ri)

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadi: so‘roq gap, odatda, so‘zlovchiga noma’lum bo‘lgan biror narsa haqida xabar berish, shu to‘G‘rida ma’lumot olish maqsadida ishlatiladi va shu xabarni anglatuvchi javobni talab qiladi, lekin uning so‘roq bildirmaydigan ko‘rinishlari ham bor. Yuqoridagi xususiyatlari jihatidan so‘roq gaplar shunday yirik guruhlarga bo‘linadi:

1.Sof so‘roq gaplar (asl so‘roq gaplar). Bular javob talab qiladigan so‘roqni ifodalaydi (G‘ulomova, 1987, 58-bet):

So‘rayman o‘rtaga qo‘yib vijdonni,

Sen qanday zabt etding butkul jahonni? (“Yapon” she’ri)

Bunday so‘roq gaplar shubha, taajjub kabi ma’nolarga ega bo‘ladi, bunday ma’nolarni og‘zaki nutqda intonatsiya bilan ifodalaymiz (G‘ulomova, 1987, 58-bet).

2. Ritorik so‘roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so‘roq yo‘li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). So‘roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda kuchli, ifodali, ta’sirli qilib beradi (G‘ulomova, 1987, 58-bet). Masalan:

O, sen Vatan , kindik qoni tomgan joy

Seni so‘rmay, ko‘rmay bo‘lurmi?

Ko‘z ko‘rgani yosh-u qarining

Ona bag‘ri sevmay bo‘lurmi? (“Kindik qoni to‘kilgan joy” she’ri)

Yashirin inkor mazmuniga ega bo‘lgan so‘roq gaplar ritorik so‘roq gapning bir ko‘rinishidir. 3. So‘roq buyruq gaplar . Bunday gaplar so‘roq yo‘li bilan buyurish ma’nosini ham beradi (G‘ulomova, 1987, 59-bet). Masalan:

E’tibor aylangiz, aziz to‘ralar,

O‘ylang siz ham axir o‘z taningizni.

Tutab yonmoqdadir o‘rmon, quralar,

Nega o‘ylamaysiz Vataningizni? (“Ona yurt” she’ri)

So‘roq gapning kuzatilgan maqsad bilan boG‘langan grammatik-intonatsion xususiyatlari ham bor. Bunda biz mustaqil qo‘llangan, so‘roq gapligi aniq bilinib turadigan turlarni nazarda tutamiz (G‘ulomova, 1987, 59-bet).

Sokin ko‘chalarda kezaman shodon,

Xushbaxtmen, bilmayman kimdan? Va nega?

Oh, nechoG‘ farahli ekan bu osmon!

Insonmen, rahmatim ayturman Senga… (“Murabbiy” she’ri)

So‘roq gap quyidagicha tuziladi: 1.So‘roqni bildiradigan elementlar -mi, -chi, -a va boshqa so‘roq yuklamalari yordami bilan tuziladi. Bu elementlar gapga so‘roq tusini beradi (G‘ulomova, 1987, 59-bet):

Dedim: Yoshligimni qaytib ber, zamon,

Dedi: U gullarin payhon bo‘ldilo.

Dedim: Tik qilsang-chi qaddimni, davron,

Dedi: U toG‘laring sayhon bo‘ldilo. (“Bo‘ldilo” she’ri)

Bu elementlar so‘roqni qanday anglatishi jihatidan bir xil emas. Masalan, -chi elementi bilan tuzilgan so‘roq gaplar taajjub ma’nosiga ega bo‘ladi. -a, -ya,, -da, -ku yuklamalari qo‘llanganda, taajjub yoki taxmin, taqlid ma’nosiga ega bo‘ladi. (G‘ulomova, 1987, 60-bet). Bunday tipdagi so‘roq gaplarda -mi yuklamasi qo‘llanishi ba’zi xususiyatlarga ega:

a) bu yuklamani olgan bo‘lak doim so‘roq obyektini – mazmun jihatidan birinchi o‘rinda bo‘lgan narsani anglatavermaydi. Ba’zan so‘roq boshqa elementda -mi yuklamasini olmagan so‘zda bo‘lib, bu narsa logik urG‘u orqali bildiriladi.(G‘ulomova, 1987, 60-bet):

Sen yaxshi ko‘rasanmi

Yo yomon ko‘rasanmi –

Shu mozor meniki.

Yaxshidir, yomondir

Shu Vatan meniki. (“Iqror” she’ri)

b)Uyushiq bo‘laklarda -mi yuklamasi ba’zan birgina elementga qo‘shilib hammasiga umumiy bo‘ladi ,odatda , har bir bo‘lak bilan takrorlanib keladi. Bunday qo‘llanish bir butunlik tashkil qilgan birikmalarda, she’rlarda uchraydi . (G‘ulomova, 1987, 60-bet).

Hech qursa bu joyda yupanch bormikan,

Bormikan birovi? Biror avlodi? (“Musofir” she’ri)

2. So‘roq bildiradigan mustaqil so‘roq so‘zlar (kim, nima, qaysi, qayerda, kabi so‘roq olmoshlari) bilan tuzilishi mumkin .(G‘ulomova, 1987, 60-bet).

Tamom hayrat ichra qoldi bir-u bor,

Qayta-qayta boqdi bulutni serpab.

Bu qanday sinoat? Bu qanday asror?

Uning panohida bu qandayin gap?

Bu tipdagi so‘roq gaplar o‘z xususiyatiga ko‘ra, avvalgi tipdan (so‘roq yuklamalari bilan tuzilgan turdan) ancha farq qiladi: -mi elementi yordami bilan ifodalanadigan so‘roq tasdiq yoki inkor talab qiluvchi so‘roq hisoblanadi, so‘roq anglatuvchi mustaqil so‘z yordami bilan ifodalanadigan so‘roq esa shaxs, predmet yo belgini aniqlashga xizmat etadigan javobni shu so‘roqqa javob bo‘ladigan so‘zni talab qiluvchi so‘roqdir. (G‘ulomova, 1987, 60-bet).

Demak, so‘roq gapning xarakteri ikki xil: 1) Bu xildagi gap so‘roq olmoshi bilan tuzilgan bo‘lsa, o‘sha so‘zga so‘roqqa javob talab qilmaydi; bu gapning maqsadi suhbatdoshni o‘z fikrini aytishga yo‘llash, ma’lum bo‘lmagan biror narsani, xabarni bildirishdir. Javob, odatda, darak gap bilan beriladi. Bunday gaplarda so‘roq bir so‘zda bo‘ladi (G‘ulomova, 1987, 60-bet). Masalan:

Dunyoda shundaylar uchraydi, bilsang,

Alif ham chiqmaydi qornini tilsang.

Hammani o‘ziga o‘xshatadi u,

Qancha olding, -deydi, yaxshilik qilsang. (“Avgust to‘rtliklari” she’ri)

2)So‘roq olmoshi yordamisiz tuzilgan bo‘lsa, suhbatdoshdan tasdiq yoki inkor talab qilinadi: so‘roq gapning maqsadi faktni aniqlash, shuni bilishdir. Bunday gaplarda so‘roq, odatda, butun gapda bo‘ladi (G‘ulomova, 1987, 60-bet).Masalan:

Qizargan lablaring titradi bexos

-Nahot boshimizga yomg‘ir to‘kilsa:

-Ajablanma, dildor, bu zo‘r ehtiros,

-Ajabmas bulut ham erigan bo‘lsa. (“Erigan bulut” she’ri)

She’riy matnlarda so‘roq gaplar juda faol qo‘llaniladi. She’rda so‘roq gaplar shoirning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Shuningdek, so‘roq gaplar she’rning ta’sir kuchini oshirib, ma’no mazmunini, mohiyatini teranroq ifodalashga xizmat qiladi.O‘ylaymanki,ushbu maqola orqali shoir she'riyatida qo‘llangan So‘roq gaplarni o‘rganish tilshunoslik fanining ko‘lamdorligini yanada yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomova, A. (1987) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Sodiqov, A. (1981) Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O‘qituvchi
3. Oripov, A. (2005) Adolat ko‘zgusi. Toshkent : O‘zbekiston
4. Oripov, A. (2015) Yangi she’rlar. Toshkent :O‘zbekiston

O‘ZBEK, INGLIZ VA RUS TILLARIDAGI AYRIM ZOOFRAZEMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

Xamidjonova Durdona Zafarjon qizi,

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti

4-kurs durdonaxamidjonova69@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek, ingliz va rus tillaridagi hayvon nomlari ishtirokidagi ayrim zoofrazemalarning o‘xshashlik va qarama-qarshilik nuqtai nazaridan tarjimasi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning muhimligi shundaki, uch tilning leksik va lingvokulturologik jihatlarini ko‘rsatish uchun ayrim zoofrazemalarning ekvivalentlari berilgan. Tadqiqotdan maqsad — zoofrazemalarni tillar bo‘yicha tasniflash, lingvokulturologik xususiyatlarini*

mustaqil yondashuv asosida ochib berishdan iborat. Maqoladagi ba'zi zoofrazemalar misolida mazmuniy jihatdan solishtirilib, qiyosiy metod asosida o‘rganib chiqilgan. Maqola dolzarbligi bilan ahamiyatlidir

Kalit so‘zlar: *Tarjima, o‘xshashlik, etimologiya, frazemalarning ekvivalentlari, zoonimlar, turkiy xalqlar, linvokulturologik tahlil*

Abstract. *This article examines the translation of some zoophrases with the names of animals in Uzbek, English and Russian languages from the point of view of similarity and contrast. The importance of the research is that the equivalents of some zoophrases are given to show the lexical and linguocultural aspects of the three languages. The purpose of the research is to classify zoophrases by language, to reveal their linguistic and cultural characteristics based on an independent approach. The comparative method is compared in terms of content on the example of some zoophrases in the article studied. The article is important for its relevance*

Keywords: *Translation, similarity, etymology, equivalent of idioms, names of animals, turkic people, linguocultural analysis*

Globallashgan davrda tilni o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish, turli samarali usullar orqali tillar o‘rtasidagi aloqani mustahkamlash tilshunoslikning asosiy maqsadi hisoblanadi. Olamda hamma narsa bir-biriga bog‘liq yaratilganidek, insoniyat ham tabiat bilan chambarchas yashaydi. Kishining xatti-harakatlari, fe’l-atvori va tashqi ko‘rinishini hayvon yoki o‘simlik nomlari bilan atash yoki o‘xshatish buning yaqqol isbotidir. Qadim tarixdan hozirgi kunga qadar yomon xulqli odamlar yovvoyi yirtqich hayvonlarga, yaxshi fazilatli insonlar uy hayvonlariga, sezgir, harakatchan ba’zi qushlarga o‘xshatilishi an’anaga aylanib qolgan. Tillarni bu jihatdan tahlil qilish til o‘rganishdagi ba’zi qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun muhimdir. Tilshunoslarning ta’kidlashlaricha, muayyan tildagi har bir iboraning o‘z hamda ko‘chma (majoziy) ma’nosi mavjud. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, ushbu maqola lingvokulturologik va qiyosiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Maqolada hayvon nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar keltirib o‘tilgan. Har bir iboraning ma’nosi, tarjimasi bilan birgalikda qadimgi turkiy

tillarda, xususan XI-XIV-asrlarda yozma yodgorliklarda qanday atalishi yanada tushunarli qilib aks ettirilgan. Hayvonlar nomini anglatuvchi terminlarni quyidagi mavzu guruhlariga ajratib, diaxron va sinxron aspektda tasnif qilish maqsadga muvofiqdir.

1. **At** —qadimgi turkiy xalqlar uchun asosiy ulov vazifasini bajargan hayvon nomini bildiruvchi Qoshg‘ariy “Devon” inida asl ma’nosida uchrovchi turkiy so‘z sifatida qayd etilgan. Bundan tashqari, moniy yozuvlarida yunt, biya**,** urg‘ochi ot ma’nosida bïya, yosh baytal ma’nosida qïsraq**,** yangi tug‘ilgan ot bolasiga nisbatan esa tay, donan, qulun kabi terminlardan foydalanilgan. Hozirgi o‘zbek adabiy adabiy tilida baytal termini ishlatiladi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida turkiy xalqlardagi termin sifatida qo‘llaniladi. Ba’zan bu so‘z at yoki alasha at bilan ishlatiladi. Inglizlarda o‘rta asrlardan boshlab termin sifatida ifodalangan. Etimologiyasida G‘arbiy Germaniyadan hors, hross terminlaridan kelib chiqqan (Abdushukurov, Sindarov, 2019, 69-bet). Ot zoonimi termin sifatida qatnashgan frazemalardan uch tildagi misollarni ko‘rib chiqamiz:

- Otning qashqasiday ma’lum//besh barmoqday tanimoq
- *English*) Straight from the horses mouth
- (*Russian*) Её все знают как лошадь с белой (Abdurahimov, 1980, 97-bet)

Mazkur zoofrazemalarda o‘zbek tilida otning qashqasi termini ifodalangan bo‘lsa, ingliz tilida ushbu zoonimning boshqa bir a’zosi, ya’ni og‘zi orqali ifodalangan. Rus tilida esa zoonimning o‘zi “лошадь с белой” — oq ot deb qo‘llanilgan.

- Yaxshi ot keyin chopar
- (*English)* Hold your horses
- (*Russian*) Хороший конь бежит вначале позади (Abdurahimov, 1980, 83-bet)

Ushbu frazemalarda nafaqat zoonimning, balki ma’no-mazmunning mushtarakligini ko‘rishimiz mumkin. Ingliz tilida aynan boshqa tillardagi

ma’nosini emas, balki yanada insonning sabrli bo‘lishi, har bir qilinayotgan ishi oldidan shoshmaslik kerakligi majoziy tarzda ifodalangan.

2. **Dävä–** “tuya” termini O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida täbä, eski tukiy til obidalarida tävä, täväy shakllarida kelgan. Eski turkiy obidalarida botuq//butuq, botu//butu shakllari qo‘llanilgan. Hozirgi zamon o‘zbek tilida bo‘ta, bo‘taloq shakllari ishlatiladi. Botuq shakli esa bot=fe’li bilan fe’ldan ot yasovchi -ïq affiksidan yasalgan. Bundan tashqari, fors-tojik tilida buxt**i** sinonimi uchraydi. Qoraxoniylar davri yodgorliklari va taranchin, qirg‘iz tillarida atan shaklida qo‘llangan (Abdushukurov, Sindarov, 2019, 72-bet). Quyidagi frazemalarni qiyoslaymiz:

- Tuya go‘shti yemoq
- (*English*) Donkey work
- *(Russian*) Черепашьим шагом (Кохтаев, Розентель, 1990, стр 185)

Demak, frazemalardagi ma’no-mazmun bir xil, ammo o‘zbek tilida tuya, ingliz tilida eshak(donkey), rus tilida toshbaqa (черепаха) misolida berilganligini ko‘rish mumkin. Inglizlarda eshak juda ham sekin harakatlanuvchi hayvon sifatida ta’riflanadi. Inglizlarda dastlab XVIII asr oxiridagi jargon atamasi , donekie so‘zidan, ya’ni don, dun o‘zagidan kelib chiqqan. Rus tilida XVII asrda paydo bo‘lgan bo‘lib, toshbaqaning etimologiyasi “череп”, “черепок”, “черепица” kabi bir guruh so‘zlar bilan bog‘liq.

- Tuyaning dumi yerga tekkanda
- (*English*) Until the cows come home
- (*Russian*) Когда рак на горе свистнет (Abdurahimov 1980, 153-bet)

Ushbu frazemalarda o‘zbek tilida tuya, ingliz tilida sigir(cow), rus tilida esa qisqichbaqa (рак) hayvon nomlari misolida berilgan, lekin ma’no-mazmun bir xil. Ingliz tilida sigir atamasi o‘rta asrlardan boshlab cu, qu, kowh kabi shakllarda qo‘llangan. Inglizlarda sigir bilan bog‘liq frazemalarda asosan, salbiy hodisalarga, shuningdek, insonlardagi qo‘pollik, razillik, tubanlik kabi jihatlarni ifodalashda ishlatiladi.

3. **Eshak.** **“**Yovvoyi eshak” termini sifatida ilk marta qulun shaklida eski turkiy til obidalarida qayd qilingan. Alisher Navoiy asarlarida fors-tojikcha gor sinonimlari ko‘zga tashlanadi. Uyg‘ur yozuvidagi qadimiy yodnomalarda ešgäk shaklida kelgan. Tatar tilida išäk fonetik shaklida qo‘llanilganligi haqida ma’lumot bor. Yovvoyi va xonaki eshak bolasi qoduq//qotuq shaklida ishlatilgan.

- Mulla mingan eshakdek yuvosh
- (*Russian)* Смирная теленка (Abdurahimov, 1980, 130-bet)

Mazkur frazemalarda zoonim sifatida eshak orqali majoziy ma’no ifodalangan bo‘lsa, rus tilida ham xuddi shunday ma’no, biroq “теленка” — yangi tug‘ilgan buzoq shaklida qo‘llanilmoqda.

4. **Sigir** — arab tilidan o‘zlashgan “yovvoyi sigir” ma’nosida qotas, Mahmud Koshg‘ariy lug‘atida qotuz shaklida qayd qilingan. Bundan tashqari, ud termini dastlab Turfon matnlarida qo‘llanilgan. D-z-yning XIV asrda mavjudligi, uy, uz kabi fonetik shakllarini kuzatish mumkin. XIV asr arab risolalarida sïgïr, chig‘atoy tilida sigir, qozoq tilida esa sïyr kabi fonetik shakllari istifoda etilganligi ta’kidlangan.

- Saratonda sigir sovuqqa qotibdi.
- (*Russian*) В самую жару бык околел (Хомутникова, 2019, стр 41)

Bu frazemalarda o‘zbek tilida sigir zoonimi bilan ifodalangan bo‘lsa, rus tilida resa ho‘kiz (бык) zoonimi orqali ifodalangan. Rus folklorida бык leksemasining bir necha variantlarini ko‘rish mumkin. Bundan tashqari ushbu zoonim bilan bog‘liq bir qancha frazeologizmlar mavjud. Masalan, “Силен как бык, а смирен как корова” — tahdidli ko‘rinish hamda yumshoqtabiatlik o‘rtasidagi nomuvofiqlik haqidagi ma’no anglashiladi.

5. **Fil** — turkiycha yağan termini shaklida ifodalangan. Chig‘atoy tilida yağan, yïğan kabi fonetik shakllari iste’molda bo‘lgan. Turfon matnlarida sanskritcha matana terminini anglatgan (Abdushukurov, Sindarov, 2019, 79-bet). Xorazm yodnomalarida, shuningdek, Alisher Navoiy asarlari leksikasida fil//pil fonetik shakllarida uchraydi.

- Pashshadan fil yasamoq
- (*Russian*) Из блохи делают верблюда

Ushbu zoofrazemalarda ma’no-mazmun mushtarak bo‘lsa-da, o‘zbek tilida fil zoonimi orqali, rus tilida esa “верблюд” — tuya zoonimi orqali ifodalanmoqda. Tuya zoonimini etimologiyasini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, ruslarda pravoslavlardan kelib chiqqanligi ta’kidlanadi. Qadimgi ruslarda вельблудъ, вельбудь kabi fonetik shakllari uchraydi.

6. **Qo‘y** — barcha turkiy xalqlar mayda shoxli hayvonlar qadimgi hayvonlardan hisoblanadi. Qo‘y zoonimi qoraxoniylar davrida va arabcha risolalarda qoy, arg‘ucha qon kabi shakllarda ishlatilgan. Ba’zi yodnomalarda qoyïn, qoyun kabi shakllar qo‘llangan. Zoonimning qonun (qon**)** umumoltoy shakli qadimiy hisoblanadi. Qo‘y bolasi turkiycha qozï deb atalgan. Rus tiliga lotin tilidan ovis shaklida o‘zlashgan. IX-X-arlardan boshlab qo‘llanilgan. Qadimgi davrdan ruslarda “овенъ” —qo‘y ma’nosini ifodalovchi hayvon ma’nosida ishlatilgan (Abdushukurov, Sindarov, 2019, 82-bet).

- Qo‘y og‘zidan cho‘p olmaydi// Chumoliga ozor bermaydi
- (*Russian*) Он и травинку у овцы ни отнимет

Mazkur zoofrazemalarda mazmun mushtarakligi bilan birgalikda bir xil zoonimlar orqali ifodalanganligini ko‘rish mumkin.

Ko‘rib chiqilgan zoofrazemalar har uchala tilning matnlarida faol ishlatiladi hamda turli xil insoniy fazilatlar yoki illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi. Uchala tilning zoonimlari insonlarning fe’l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini, ham salbiy, ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi. Bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o‘ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o‘xshash belgilar bilan tavsiflanadi. Qayd etilgan zoologik terminlarni qardosh turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy leksikologiyasini yaratish, etimologik hamda terminologik lug‘atlar tuzishda muhim ahamiyatga ega. Jahon va o‘zbek tilshunosligida zoonim va zoonim komponentli matn tahliliga bag‘ishlangan

tadqiqotlar tarixiy, leksik-lingvokulturologik, funksional-uslubiy xarakterga ega bo‘lib, ularda hayvon nomlarining semantik xususiyatlari yoritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahimov, M. (1980) Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug`ati. Toshkent: “O‘qituvchi”.

2. Abdushukurov, B., Sindarov, L. (2019) XI-XIV asr turkiy yozma manbalarda qo‘llanilgan zoonimlar. Oltin bitiglar — Golden scripts.

3. English idioms and phrases, 2019.

4. Ismatullayev, X. (1969) Inglizcha maqol, matal va idiomalar. Toshkent: “O‘qituvchi”

5. Н.Н Кохтев., Д.Э. Розентель. (1990) Русская фразеология. Москва: “Русский язык”.

6. Хомутникова, Е.А., Ю.С.Боровых..(2019) Англо-русский словарь фразеологизмов с компонентом. Москва.

ANTONIMIYANING O‘ZBEK TILIDA VOQELANISHI

Zoirova Madinaxon Yorbek qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi
zoirovamadina76@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlariga mansub antonimlarning tilshunosligimizdagi va badiiy adabiyotimizdagi ahamiyati haqida ma’lumot keltiriladi. Shuningdek, antonimlarning turlari va antonimlarni belgilash mezonlari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: ***A****ntonim, affiks antonimlar, leksik antonimlar, leksik-frazeologik antonimlar, kontekksual antomiya, mantiqiy markaz, tazod.*

Abstract. *This article provides information about the importance of antonyms, which belong to the types of words in the Uzbek language according to the relationship of form and meaning, in our linguistics and fiction. It also tells about the types of antonyms and the criteria for determining antonyms.*

Keywords: *Antonym, affix antonyms, lexical antonyms, lexical-phraseological antonyms, contextual antonyms, logical center, opposition.*

Asl asosi qarama-qarshilik, ya’ni zidlanishga asoslangan dunyoyimizda antonimlarning ahamiyati juda katta. **Jaloliddin Rumiy** ta’kidlaganlaridek, har qanday “ashyo”, ya’ni har bir narsa va hodisalarning, insonlarning qimmati ziddi bilan ayon bo‘ladi, ziddi bo‘lmagan narsani ta’rif etish imkoniyatdan tashqaridadir.

“Tangri **tongning** qadrini bilish uchun **tunni** va **yorug‘likning** qadrini bildirish **uchun qorong‘ulikni** yaratgan” (Rasulova, N. (2017) Ona tilidan ma’ruzlar I kitob. Toshkent: Nurafshon ziyo yog‘dusi 163-bet)Antonimlar inson faoliyatidagi eng muhim siyosiy, axloqiy, ilmiy qarashlar umumlashmasini aynan ifodalashda qulay usul hisoblanadi. Antonimlar so‘zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra to‘rt turining biri sanaladi.**O‘zaro zid ma‘noli so‘z va qo‘shimchalar antonimlar deyiladi.** Shunga ko‘ra antonimlarni **lug‘aviy (leksik) antonimlar***(so‘z maqomidagi antonimlar)* va **affiks antonim** *(qo‘shimcha maqomidagi antonimlar)* kabi 2 turga ajratishimiz mumkin. Lug‘aviy va affiks antonimlar ba’zi manbalarda **har xil o‘zakli va bir xil o‘zakli**(Mengliyev,B.(2018) Hozirgi o‘zbek tili. Toshkent: Toshkent bo‘stoni 168-bet) antonimlar deb yuritilgan. Antonimlarning mantiqiy asosini ikki xil qarama-qarshilik tashkil qiladi:

a) **kontrar qarama-qarshilik**- darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyatga, ya’ni qarama-qarshilikka o‘sib borishi natijasida birinchi a’zoning oxirgi a’zo bilan antonimlashuvi. Masalan: *kichik-o‘rta-katta* da *kichik* va *katta* antonim sanaladi.

b) **komplementar qarama-qarshilik**- bunda qarama-qarshi leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema bo‘lmaydi: rost-yolg‘on, arzon-qimmat, oson-qiyin singari.

Lug‘aviy (leksik) antonimiya leksemalarning bir-biriga zid ma’no anglatishi asosida guruhlanishidir: *katta-kichik, baland- past.* Antonimiya hodisasi, asosan, bir so‘z turkumi doirasida yuz beradi. Antonimiya hodisasi sifat va ravish so‘z turkumlarida keng tarqalgan bo‘lib, ot va fe’l so‘z turkumlarida qisman uchrasa olmosh, son va yordamchi so‘zlarda esa bo‘lmaydi (ayrim kontekstual holatlar bundan mustasno). **Sifatlarda antonimiya:**

a) hajm belgisiga ko‘ra: katta va kichik, baland va past;

b) harorat belgisiga ko‘ra: issiq va sovuq;

c) yosh belgisiga ko‘ra: yosh va qari;

d) xarakter-xususiyatiga ko‘ra: saxiy va xasis, aqlli va ahmoq, botir va qo‘rqoq;

e) shakl belgisiga ko‘ra: to‘g‘ri va egri;

f) maza-ta'm belgisiga ko'ra: achchiq va shirin kabi

Ravishlarda antonimiya:

a) payt belgisiga ko'ra: kecha va ertaga, avval va keyin;

b) holat belgisiga ko'ra: tez va sekin, arang va bemalol;

c) miqdor belgisiga ko'ra: ko'p va oz, mo'l va kam.

Otlarda:

a) belgi otlarida: boylik va kambag'allik, botirlik va qo'rqoqlik;

b) qarama-qarshi tomon nomlarida: sharq va g'arb, shimol va janub;

d) fasl nomlarida: yoz va qish, kuz va bahor: (**Eslatma*:*** *mantiqiy markaz prinsipiga ko'ra kuz va qish yoki bahor va yoz antonim leksema hisoblanmaydi. Sharq va shimol hamda G'arb va janub ham antonim leksema emas.Mantiqiy markaz haqida to'liq tushuncha maqola davomida beriladi).*

Fe'llarda antonimiya:

a) qarama-qarshi harakat ma'nolarini ifodalovchi fe'llarda: bormoq va kelmoq, kirmoq va chiqmoq;

b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe'llarda: kengaymoq va toraymoq, ko'paymoq va ozaymoq, sekinlashmoq va tezlashmoq kabi.(**Eslatma:** *fe'llarning bo'lishsizlik – ma shakli yordamida hosil qilingan fe'llar o'zaro zid ma'noli bo'la olmaydi. Masalan: kel va kelma yoki bor va borma .Chunki, antonim bo'la olishi uchun ikkita mustaqil leksema bo'lishi lozim. Berilgan misollarda esa kelma va borma, aynan bor va kel leksemalarining bo'lishsizlik shakli hisoblanib,orasida zidlik ma'nosi yo'q.)*

Kontestual antonimiya o'zaro zid ma'no ifoda etmaydigan leksemalarning ma'lum kontekst ichida so'zlovchi yoki muallif tomonidan antonimik munosabatga kiritilishi hisoblanadi. Antonimiyanimg bu turi asosan she'rlarda va asarlarda uchraydi. Masalan:

*Ushoq **qand tuz**ga monand erur,*

*Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur*. (Alisher Navoiy)

*Mengizlari **gul-gul**, mijalari **xor**,*

Qaboqlari keng- keng, og'izlari tor. (Alisher Navoiy)

Birinchi misolda qo‘llangan **qand** va **tuz** so‘zlari aslida (tilda) antonimlar emas, ammo misolning ikkinchi misrasida **tuz** va **qand** leksemalari muallifning leksik qo‘llashi natijasida *“achchiq”* va *“shirin”* (demak, *“yaxshi”* va *“yomon”)* ma’nolarini ifoda etib kontekstual antonimiyani hosil qilgan. Ikkinchi misolda esa **gul-gul** so‘zi guldek ochilgan yoki go‘zal ma’nosida emas **xor** *(og‘ir ahvolga tushgan)* so‘ziga antonim qilib *“baxtiyor”* ma’nosiga tenglashtirilgan. Bunday qo‘llanish olmoshlarda va sonlarda ham bor. *Biri u deydi, biri bu deydi*, deganda **u** va **bu** olmoshlarida kontekstual zidlanish bor.

Antonimik juftlik. Leksik antonimiya ikkita leksema orasida yuz beradi, bu ikki so‘z antonimik juftlikni hosil qiladi. Misol uchun, *katta* so‘zining jufti *kichik* hisoblanadi. Antonimik juftliklardagi har bir leksema mustaqil leksema bo‘lishi lozim. Antonimik juftliklar juft so‘zlar yasalishi uchun asos bo‘la oladi: katta-kichik (hamma), kecha-kunduz (kun davomida), uzoq-yaqindan (hamma yoqdan) kabilar.

Antonimlarning belgilash mezonlari haqida. Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo‘yicha munozarali qarashlar ham bor.(Jamolxonov, H. (2005) Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Toshkent: Talqin 173-bet) Xususan, ayrim manbalarda *opa va singil, aka va uka, tog‘a va xola* kabi so‘zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B. Isabekov esa ularni antonimlar emas, korrelativ so‘zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma’nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi”. (Jamolxonov, H. (2005) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin 173-bet)

Antonimiya mezonini belgilashda Sh. Rahmatullayev. N. Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy **markaz prinsipi**ga tayanish yaxshi natija beradi. (Jamolxonov, H. (2005) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin 173- bet). Bu prinsipga ko‘ra ikkita ma’no ortasidagi oraliq tushuncha (mantiqiy markaz) aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o‘rin olgan tushunchalar o‘zaro antonimik munosabatda deb qaraladi. Masalan: Kuz va bahor, qish va yoz , o‘tmish va kelajak.

Ma’no jihatidan antonimlar o‘zaro bog‘lanishli bo‘ladi: birini aytish bilan shuning ziddi ko‘z oldiga keladi, birining ma’nosi antonimiga qarshi qo‘yilganda aniq gavdalanadi: **qalin** va **yupqa** kabi. Oddiy inkor antonimlik xususiyatiga ega bo‘la olmaydi, chunki ular ikki leksema hisoblanmay, bir leksemaning bo‘lishli va bo‘lishsizlik shaklini hosil qiladi *(aytar-aytmas).* Antonimik munosabat hosil qiluivchi leksemalar biri ikkinchisini yangini nomlash orqali inkor etishi, leksik ma’nolar biri ikkinchisining zidi bo‘lishi lozim. Mana shu shartga javob bo‘la olmagani uchun *dono(*antonimi nodon) va *ahmoq(*antonimi aqilli*), bir* va *ming*, *yiqil* (bu so‘zning antonimi mavjud emas)va *tur* (antonimi yot)leksemalari o‘zaro antonim bo‘la olmaydi.

Antonimlar ko‘proq badiiy uslubda qo‘llanilib, qarama-qarshi tushuncha (tazod, antiteza, kontrast) uslubini yaratish uchun xizmat qiladi. **Tazod** (*ar. “zid qo‘yish”, “qarshilantirish”*) - baytda ma’no jihatidan o‘zaro zid, qarama-qarshi bo‘lgan so‘zlarni qo‘llab, ta’sirchan badiiy timsollar, lavhalar yaratish san’atidir. Bu san’at **“kontrast priyomi”** deb ham yuritiladi.

Yaxshidir *achchiq* ***haqiqat****,*
Lek shirin ***yolg‘on yomon****.* (E.Vohidov)

Podshoh *yo‘qlatsalar nogoh,* ***gado*** *deb axtaring,*
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro deb axtaring (Muqumiy)

Kuymas, dedilar, ma’murayi ganj,
Obod *edim men,* ***vayrona*** *bo‘ldim*. (Mashrab)

Baxl *erur borcha sifatdin xasis,*
Lek ***saxo*** *javhari asru nafis*. (A.Navoiy)

Jahonning ***shodligi*** *yig‘ilsa butun.*
Do‘stlar diydoridan bo‘lolmas ustun.
To‘lur ***g‘am-g‘ussaga*** *dilning kosasi.*
Qadrdon do‘stlardan judo bo‘lgan kun. (Rudakiy)

Antonimlar maqol va matal janrlarida ham muhim uslubiy vosita sanaladi - hayotiy tajriba umumlashmalarini maqol va matallar tiliga xos uslubda ta'sirchan ifodalash imkonini yaratadi:

Yozgi mehnat - **qishki** rohat.

Mehnatdan **do'st** ortar. G'iybatdan - **dushman**.

Do'st achitib gapirar, **dushman** - kuldirib.

Yaxshi do'st - jon ozig'i.

Yomon do'st - bosh qozig'i.

Donoga ish - shonu shuhrat,

Nodonga ish – g'amu kulfat.

Badiiy adabiyotda antonim bo'lgan so'zlarni yonma-yon keltirish orqali ma'noni kuchaytirishga erishadilar. Juda ko'p asarlar nomini tanlashda ijodkorlar antonimlardan unumli foydalanishadi.

"Eng qayg'uli shodlik" (Shodlik ham qayg'uli bo'ladimi? Ispan shoiri Lorkaning she'riy to'plami), "O'lik jonlar" (Jonlar o'lik bo'ladimi? Rus adibi Gogolning pyesasi), "Tirilgan murda" (Murda tirilishi mumkinmi? G'.G'ulomning qissasi) kabi asarlarni bunga misol qilib olishimiz mumkin.

Yuqorida ko'rilganidek, leksik antonimlar har narsaning, insonlarning qimmatini anglashda va ikki narsani zidlantirish orqali yaxshisini ajratib olishga yordam beradi. Hamda badiiy uslubda qo'llanib asarning ta'sirchanligi oshirishga xizmat qiladi. Ham tilshunosligimizda, ham badiiy adabiyotimizda o'zining ajralmas o'rniga ega ekan, shu bois antonimlarni o'rganish muhim deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva,R., Mengliyev,B.,Boqiyeva,G.,Qurbonova,M.,Yunusova,Z., Abuzalova,M. (2009) Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent.

2. Mengliyev,B.(2018) Hozirgi o'zbek tili. Toshkent: Toshkent bo'stoni

3. Jamolxonov, H. (2005) Hozirgi o'zbek adabiy tili.Toshkent: Talqin

4.Rasulova, N. (2017) Ona tilidan ma'ruzlar I kitob.Toshkent: Nurafshon ziyo yog'dusi

5.Erkavoyeva,N.(2017) O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami.Toshkent:Lesson Press

II BOB

O‘ZBEK TILI TARIXI VA DIALEKTOLOGIYA MUAMMOLARI

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA LEKSIK DIALEKTIZMLAR

Aminova Feruza Anvar qizi,
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti
qarokoz98@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi o'zbek she'riyatining namoyandalaridan biri Matnazar Abdulhakim ijodididan ba'zi nuqtalar tahlil etiladi. Matnazar Abdulhakim ijodida adabiy tildagi she'rlarida dialektizmlarning qo'llanishini va Xorazm shevalarida yozilgan she'rlarida Xorazm shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari aks etganini ko'rishimiz mumkin. Shoir ijodidagi leksik dialektizmlar analiz va sintez metodlari orqali aniqlanadi, misollar orqali dalillanadi.*

Kalit so'zlar: *Dialektizmlar, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, ijodkor uslubi, xalq tili, Xorazm shevasi.*

Abstract. *This article analyzes some points from the work of Matnazar Abdulhakim, one of the representatives of modern Uzbek poetry. In the works of Matnazar Abdulhakim, we can see the use of dialectisms in his literary language poems, and the phonetic, lexical, and morphological features of Khorezm dialects are reflected in his poems written in Khorezm dialects. Lexical dialectisms in the poet's work are determined by methods of analysis and synthesis, proved by examples.*

Keywords: *Dialectisms, lexical dialectisms, phonetic dialectisms, creative style, folk language, Khorezm dialect.*

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan ko'rinishidir. Shu jarayonda badiiy so'z ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari o'tadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi (Fayzullayev, Xidirov, 2010, 15-bet). Dialektizmlarning adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta'sirchan kuchi orqali bir

asarda qo‘llangan dialektizm keyingi asarlarga o‘tadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda o‘zlashib ketishi mumkin.

Dialektologiya o‘rganiladigan badiiy nutq uslubi bilan bog‘liq til vositalari badiiy asar tilining bir qismi sifatida dialektizmni o‘z ichiga oladi. Og‘zaki nutqdan olingan dialektizmlar yozuvchning ixtiyorida bo‘lganida, u ularni badiiy matn tilida o‘zaro bog‘lash bilan har bir dialekt so‘zni ishning umumiy g‘oyasiga bo‘ysundiradi va bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki hikoya qilish usullari orqali amalga oshiriladi Dialekt so‘zlar umumiy adabiy tilga kirmaydi. Biroq nutqiy so‘zlashuvlar orqali ular adabiy tilga kirishi mumkin. Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlaming aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlaming aks etishidir. Masalan, on əkkı - o‘n ikki (Marg‘ilon), gäldï - keldi (Xorazm).

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlaming qo‘llanishidir. Masalan, shəttə - shu yerda (“Qora ko‘zlar”), Dım - juda, gech gäldïňïz (Xorazm).

Leksik dialektizm shevaga oid so‘zlarning badiiy asarlarda qo‘llanishidir. Masalan, dërpänmäňlä - bezovtalanmanglar(Xorazm), psëk - paxsa, Turkiston). (Ashirboyev, 2022, 29-bet)

Matnazar Abdulhakim ijodida adabiy tildagi she’rlarida dialektizmlarning qo‘llanishini va Xorazm shevalarida yozilgan she’rlarida Xorazm shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu maqolada Abdulhakim Matnazarning adabiy tildagi she’rlarida leksik dialektizmlarning aks etishi tahlilga tortiladi.

Matnazar Abdulhakim she’rlarida quyidagi Xorazm dialekti, asosan, Gurlan shevasiga xos leksik dialektizmlarni uchratish mumkin:

Bugun bir orqayin tin olar Toshkent,

Tongda bir xotirjam kerishadi.

Sen kecha Toshkentga jo‘nab ketib eding,

Toshkent diydoringga erishadi.

Ushbu parchadagi [arqäyïn] so‘zi adabiy tildagi *bemalol, bamaylixotir, xotirjam* so‘zlarining Xorazm shevasidagi varianti hisoblanadi. Buxoro viloyati Qorako‘l tumanida ham aynan shu ma’noda [arqäyïn] so‘zi ishlatiladi. Ismomut Ota — Xorazm vohasidagi qadamjo. U yerda har yili kuz faslida ajdodlarni xotirlash marosimi, so‘ngra esa ulkan xalq sayillari o‘tkaziladi. Ismomut Ota qadamjosi vohaning olis bir chekkasida bo‘lgani uchun xorazmliklar sargashta odamlarni “Ismomut Otada is bor desa yugurasan” deb ham yozg‘iradilar...

Ismomut otadan baxt isi etdi,

Bo‘yningda ko‘zimdan munchoqlar shoda.

Sendan mumtoz hayot dunyoda yo‘qdir,

Yo‘qdir sendan mumtoz o‘lim dunyoda.

Qo‘shiqlar to‘qiysan men haqimda sen,

She‘rlar yozadirsan mening haqimda.

Tushimga kirasan yarim oqshomlar,

Qo‘llaring bo‘ynimda. Soching taqimda.

Parchadagi [isi] so‘zi adabiy tildagi *hidi, bo‘yi* yoki *belgisi, nishonasi* kabi ma‘nolarni anglatadi. Bu parchada fikrimcha, *belgisi, nishonasi* tarzida qo‘llangan. [Yarïm aqšam] birikmasi esa adabiy tildagi *yarim kechasi, yarim tun* birikmalarining Xorazm shevasidagi shakli hisoblanadi.

Bir sevmak va bir o‘lmak baxti

Nasib etmas har bir oshiqqa.

Agavaning yo‘rig‘i — bo‘lak,

Agavaning yo‘rig‘i — boshqa.

Qism, parcha ma‘nosini bildiruvchi [bolak] so‘zi Xorazm shevalarida *boshqa* ma’nosida qo‘llanadi. Shoir ham she’rda aynan *boshqa, boshqacha, o‘zgacha* kabi so‘z ma‘nolarini ifodalash uchun foydalangan.

Ikki daryo madhi bitilgan she‘rlar

Belga yor bog‘lagan qiyiqlarimda.

...Men tushlar ko‘raman. Manglayim terlar.

Mudhish bir istehzo miyiqlarimda.

She’riy parchadagi [manglayïm] so‘zi adabiy tildagi *peshona* so‘zining tilimizga mo‘g‘ul tilidan kirib kelgan varianti bo‘lib, o‘g‘uz lahjasi shevalarida qo‘llanadi. Xorazmda *manglayi qaro, manglayi sho‘r* iboralari ham qo‘llanadi.

Jang to‘xtadi. Olar barcha tin.

Lab tekkizdi otim maysaga.

Men horidim. Yomon charchadim.

Suyanaman birpas nayzaga.

[Harïmaq] so‘zi adabiy tildagi *charchamoq* so‘zining o‘guz shevalaridagi shakli hisoblanadi. Shoir Matnazar Abdulhakim horidim, charchadim so‘zlarida ketma-ket qo‘llab, ma‘noni yanada kuchaytirgan.

Men senga atalgan shunday mevaman,

Yuragimni ushat, ol shu so‘zimni.

Sendan ayamayman, seni sevaman.

Men uzib beraman senga o‘zimni.

Ushbu she’riy parchada [ušat] dialektizmini qo‘llash bilan shoir Matnazar Abdulhakim *yuragimni bo‘laklarga bo‘l, sindir* demoqchi bo‘lgan. Xorazm shevalarida, ko‘pincha, bu so‘z *nonni ushatmoq* shaklida uchraydi. Qiz va yigit fotihalanayotgan paytida ham boshqa shevalardagi kabi *non sindirish* emas, *non ushatish birikmasi qo‘llanadi.*

Bu yerda har qarich tuproqda

Ming o‘lim chang solar tirilib.

Bir-birining quchoqlarida

Ketayotir bari qirilib...

[Barï] *barchasi, hammasi, bori so*‘zlarining Xorazmda qo‘llanuvchi shakli, bu so‘z adabiy tilda ham qo‘llanadi.O‘zbek adabiy tilida dialektizmlar badiiy asarda mahalliy koloritni yuzaga keltirishi to‘g‘risida ilmiy ishlarga obyekt bo‘lgan. Xususan, B. Fayzullaev bu sohada maxsus dissertatsiya va bir necha

maqolalar e’lon qilgan. Shuningdek, boshqa dialektologlarimiz tomonidan ham maqolalar chop etilgan. Shunday bo‘lsa-da, bu muammo nisbatan kam o‘rganilgan hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, badiiy asarlarda sheva unsurlarini qo‘llash masalasi, deyarli, barcha yozuvchi va shoirlarimiz ijodida davom etmoqda, chunki badiiy asar faqat adabiy til me‘yoridangina iborat bo‘lib qolsa, uning xalqchilligida ayrim yetishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin, aslida badiiy asar xalq uchun yaratiladi va ayni zamonda xalq tili boyligidan foydalanadi. Bu esa badiiy asarda dialektizmlarni qo‘llashga yo‘l ochadi, binobarin, ularning ijtimoiy va badiiy qimmatini o‘rganishga sabab bo‘ladi va tadqiqot ishi olib boriladi. Bunday tadqiqotlar an‘anada mavjud. Bu tadqiqotimizning bir tomonidir. Ushbu maqolada dialektizmlar bilan birga, badiiy adabiyotimizda dastlabkilardan biri sifatida tajriba qilingan, ya’ni badiiy asar tili sifatida sheva tanlangan asarlar tahliliga qaratilmoqdaki, bu o‘zbek dialektologiyasida qiziqish uyg‘otmasdan qolmaydi. Bunda Hakim Matnazarning novatorlik faoliyati tahlilga tortiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulhakim, M. (2009). Mangulik jamoli. Xorazm Ma’mun akademiyasi nashriyoti, Xiva.
2. Abdulhakim, M. (2017). Tanlangan asarlar. 2-jild, G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU.
3. Abdulhakim, M.(2008). Javzo tashrifi.Sharq.
4. Abdulhakim, M.(2017). Tanlangan asarlar. 1-jild, G‘afur G'ulom nomidagi NMIU.
5. Ashirboyev, S. (2022). O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent. Navro‘z.(28-29- bet).
6. Fayzullayev, B., Xidirov, O. (2010). Dialektizmlar va kontekst // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalari. - Toshkent: TDPU.
7. Murodova, N. (2019). O‘zbek dialektologiyasi.Toshkent. Fan.(23-70- bet.)
8. Turniyazov, N., Rahimov A. (2016). O‘zbek tili.(65- bet)

BUXORO SHEVALARIDAGI MORFONOLOGIK HODISALAR

Asatullayeva Dilnavoz

ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2- kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aynan morfonologiya nimaligi, ushbu sohadagi amalga oshirilgan ishlar va uni o‘rgangan olimlar misoli bo‘yicha Buxoro shevasi misolida ko‘rib chiqdik. Bunda o‘g‘uz lahjasidanam misollar*

keltirib mavzu yanada yoritildi, tilshunoslikning ushbu sohasi haqida to‘liq tushuncha aynan Buxoro shevasi misolida berildi.

Kalit so‘zlar: *Morfonologiya, fonetik hodisalar, morfologiya, fonetika, fonologiya, lahja, kelishik, egalik.*

Abstract. *In this article, we have considered what exactly is morphonology, the work done in this field and the examples of scientists who have studied it, using the Bukhara dialect as an example. In this case, the topic was further clarified by giving examples from the Oghuz dialect, and a complete understanding of this field of linguistics was given on the example of the Bukhara dialect.*

Keywords: *Morphonology, phonetic phenomena, morphology, phonetics, phonology, dialect, agreement, possession.*

Tilshunoslikda hali ham morfonologiya, uning mavzusi va vazifalari to‘g‘risida yagona umume’tirof etilgan tushuncha mavjud emas. Morfonologiyaning mustaqilligini inkor etishning obyektiv asosi murakkablikdir, obyektning o‘ziga xosligi, bir tomondan esa, fonologik farqlarning an’anaviy sohasi bilan kesishadi. Morfonologiya bundan tashqari morfemaning fonemik tuzilishini va uning o‘zgarishi va so‘z shaklllanishida o‘zgarishi mumkinligini tavsiflaydi va shu nuqtayi nazardan bir-biridan farq qiladi. Trubetskoy tomonidan taqdim etilgan uch xil yechimga qaraydigan bo‘lsak, morfonologiyaning o‘rganilish asosini birmuncha ochib bergan:

4. Morfonologiya – so‘z fonologiyasining bir qismi
5. Morfologiya – grammatikaning bo‘limi
6. Morfologiya – morfologiya va fonologlar o‘rtasidagi bog‘liqlik-so‘nggi o‘n yilliklarda, birinchi navbatda, fonologiya va grammatika o‘rtasidagi chegarani o‘rganishning muhim ekanligini e’tirof etgan holda aynan shu soha rivojiga o‘zining hissani qo‘shadi.

Morfonologiya (morfologiya va fonologiya) — turli morfemalarning fonologik tuzilmasini va fonologik farklanishlarning morfologik mak,sadda qo‘llanishini ilmiy tadqiq etuvchi tilshunoslik bo‘limi. Morfonologiya —

fonologiyava morfologiya oralig‘idagi til bosqichi bo‘lib, bu terminni birinchi marta ruschex tilshunosi N. S. Trubeskoy taklif etgan. Bunda Morfonologiya bir mor-femadagi turli fonemalarning almashinuvi sifatida juda tor izohlangan. Morfonologiyaga keng ma’noda qaralganda, u:

1) so‘z va morfemalarning fonologik tarkibi hamda o‘zak va affiksal morfemalarning o‘zaro farklanishini nazarda tutadi;

2) so‘z yasash va so‘z shakllarini yasash jarayonida morfemalar va ularning bir-biriga ulanishida bo‘ladigan turli o‘zgarishlarni e’tiborga oladi;

3) morfemalar oralig‘idagi va chegaraga ajratishdagi turli xususiyatlarni morfonologiyada o‘rganadi. Morfemalardagi fonemalar almashinuvi mor-fonema deb yuritiladi. Masalan, tara — taroq so‘zlari a/o, sez — seskanmoq so‘zlari z/s morfonemasiga ega. Morfonologiya urg‘uning morfologik vazifa bajarishini ham nazarda tutadi: olma (ot, mevaning turi), olma (fe’lning inkor shakli) so‘zlari urg‘uning o‘rni bilan farqlanadi. Morfonologiya ba’zi tillarda ko‘proq (slavyan), ba’zilarida esa kamroq (turkiy tillarda) bo‘lishi mumkin (Abduazizov, 1997, 24-bet). Morfonologiya fonetik hodilarni o‘zida jamlaydi. Masalan *eshik* so‘ziga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda u *eshigi* tarzida bo‘ladi va biz buyerda tovush almashinish hodisasi yuz bergan deb qaraymiz va bu ham o‘z navbatida morfonologik hodisaga misol bo‘la oladi. Ushbu maqolada esa biz aynan Buxoro shevasiga mansub so‘zlarning morfonologik hodisalarga uchragani haqida fikr yuritamiz. Misol uchun junduq (qoldiq ovqatlar) so‘ziga -gä kelishik shakli qo‘shilganda beixtiyor *junduqqä* so‘ziga o‘zgarib tovush o‘zgarishi hodisasi yuz beradi. Bundan tashqari yana *täppāt* (issiq) so‘ziga -ni tushum kelishigi qo‘shimchasi qo ‘shilganida esa umuman boshqacha bir hodisaga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni bunda ushbu so‘z täppātti tarzida o‘zgaradi.

Täppātti qarä jāndirämän dejdi (issiqni qara, odamni yondiraman deydi)

Yoki yana *juräk (yurak)* so‘ziga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganida ham ushbu so‘z *juräjim* tarzida ifodalanadi va bu ham o‘z navbatida morfonologik hodisa hisoblanadi.

Tovush tushishi hodisasiga misol qilib quyidagi so‘zni olsak bo‘ladi lekin bu so‘zda nafaqat tovush, balki, tovushlar tushgan deb qarasak bo‘ladi: *Mahliyo bo‘lmoq* - mäx boliš deb qo‘llaniladi.

Buxoro viloyatining o‘g‘uz lahjasida so‘zlar birmuncha adabiy tildagi so‘zlardan farq qiladi va bu lahja fonetik hodisalarga boy lahja hisoblanadi. Kelishik va egalik qo‘shimchalari ham o‘zgaruvchan bo‘ladi. Misol uchun *Qarinčqalär* chumolilar) so‘ziga -ning kelishik qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida *Qarinčqaläring* (chumolilarning) so‘zi hosil bo‘ladi. Va ko‘rib turganimizdek bu yerda qaratqich kelishigidagi *n* tovushi tushib qoladi.

Yana *hožäk* so‘ziga -*ga* qo‘shimchasi qo‘shilganida esa jo‘nalish qo‘shimchasining -*ka* shakli qo‘llanadi – *hožäkkä.*

Bundan tashqari yana *hamma yoq* so‘ziga -ga qo‘shimchasini qo‘shganimizda *hämmä jāya* so‘zi hosil bo‘ladi va bunda ham tovush almashinish, ham tovush tushishi holati yuz bergan deb qaraymiz.

Morfonologiya ko‘rib turganimizdek, aksari fonetik o‘zgarishlarni: 1. Tovush tushishi 2. Tovush almashinishi 3. Tovush ortishi kabi turlarini o‘z ichiga oluvchi bo‘lim hisoblanadi. Hozirgacha ushbu bo‘lim to‘liq o‘rganilmaganligi, olimlar tomonidan yetarlicha talqin qilinmaganligi sababli ham ushbu sohaga oid ko‘pgina savollar javobsiz qolib kelmoqda. Rus va ingliz olimlarining turli xildagi ilmiy ishlari tarkibidan biz ushbu mavzuni yanayam ochib o‘rganib kelmoqdamiz. Bora- bora ushbu mavzuga oid ishlar ko‘payib, ushbu soha keng ko‘lamda o‘rganilib, barcha mavhum savollarga javob topiladi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov, A. (1997). Morfonologiya haqida. (24-bet). Toshkent.
2. Abduazizov, A. (1999). Fonologiya va morfonologiyadagi dolzarb muammolari. (56-bet). Toshkent.
3. G‘ulomov, Ayub “ O‘zbek tilshunosligi”
4. Абдалян, (1978). Фонологическое строение служебных морфем (на материале сравнения русского и английского языков): Автореф. канд. дис.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI QON-QARINDOSHLIK TERMINLARI

Axmedova Aynura Quanishbay qizi,
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi
“Lingvist” to‘garagi a’zosi
aynuraaxmedova345@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq tillarida qo‘llaniladigan qarindoshlik terminlari qiyosiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan, ularning umumiy, xususiy va farqli jihatlari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Termin, qarindoshlik terminlari, qon-qarindoshlik terminlari, variant, sinonim.*

Abstract: *In the article, the kinship terms used in the Uzbek and Karakalpak languages are analyzed from a comparative point of view, and their general, specific and different aspects are studied.*

Keywords: *Term, kinship terms, consanguineous terms, variant, synonym.*

Termin – adabiy til leksikasi qonuniyatlari asosida shakllanuvchi, maxsus tushunchalarni ifodalashga, anglatishga qaratilganligi bilan umumiste’mol so‘zlardan farqlanuvchi til birligidir. Terminologiya adabiy til leksikasining ajralmas qismi hisoblanib, til lug‘at boyligining o‘sib hamda kengayib borishida katta o‘rin tutadi. Umumadabiy til va terminologiya o‘rtasida jips aloqa mavjuddir, chunki terminologiyaning shakllanishi va taraqqiy etishi, albatta, tilning so‘z yasalish qonuniyatlari va leksikasiga borib taqaladi (Dadaboyev, 2019, 26).

Dunyodagi barcha tillar leksikasida insonlar o‘rtasidagi qarindoshlik va yaqinlik munosabatlarini ifodalovchi so‘zlar uchraydi. Jumladan, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ham. Turkiy tillar oilasiga kiruvchi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi qarindoshlik terminlari birdan paydo bo‘lib qolgan emas, albatta. Ular ma’lum bir tarixiy bosqichlardan o‘tib, hozirgi holiga kelgan. Ushbu tillar bitta til oilasiga kirishiga qaramasdan, ularning ko‘p tomondan bir-biriga yaqin, o‘xshash va bir xillik xususiyatlari bilan birgalikda o‘zaro farqlanuvchi xususiyatlari ham mavjud. Tilshunoslikda mazkur tillarning mana shunday xususiyatlari to‘g‘risida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan.

Turkiy tillar bo‘yicha qilingan dastlabki ishlar turkiy tillar guruhiga kiruvchi biror xalqning tarixinini etnografik xususiyatlarini tekshirish bilan bog‘lab, qavm-qarindoshlik terminlari ustida yo‘l-yo‘lakay to‘xtab o‘tilgan, xolos. Turkiy tillardagi qarindoshlik terminlari haqidagi dastabki tadqiqotlardan biri L.A. Ismoilovning “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” (o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida) asaridir. Ushbu kitobda, asosan, o‘zbek va uyg‘ur tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlari qiyosiy tekshirilib, qo‘shimcha tarzda qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq va turkman tillari ham qiyos qilingan. Mazkur tillarda mavjud qavm- qarindoshlik terminlarining bir-biridan farqi, o‘xshashligi, tarixiy taraqqiyoti, shevalaridagi ko‘rinishlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Olim XX asrning oxirlarida yaratilgan ilmiy ishlardan B. O‘rinboyevning qavm-qarindoshlik terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya’ni undov, murojaat anglatuvchi so‘zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag‘ishlangan asari haqida, L.A. Pokrovskaya turkiy tillardagi, X.G. Yusupov boshqird tilidagi, S.A. Burnasheva tatar tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari xususida aytib o‘tilgan maqolalari to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan (Ismoilov, 1966, 6).

Shular qatorida rus turkologi L.Z. Budagovning ikki tomli “Сравнительный слобарь турецкотатарских наречий” nomli lug‘atini ham atab o‘tish lozim. Ushbu lug‘atda qarindoshlik terminlariga oid 26 ta turkiy leksema izohlanganligi aniqlangan (Tuxtasinova, 2022, 3). O‘zbek tilshunosligida S.M. Mutalibov, Sh. Shoabdurahmonov va A. Ishayev kabi olimlar ham tadqiqot ishlari olib borishgan. Shuningdek, keyingi yillarda yaratilgan M. Tuxtasinovaning “Qarindoshlik terminlarining L. Budagov lug‘atida izohlanishi”, M.M. Gaziyeva va M.T. Bannonovalarning “Turkologiyada qarindoshlik nomlarining o‘rganilishi” nomli maqolalarida ham birmuncha ma’lumotlar keltirilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida esa qarindoshlik terminlari bo‘yicha, asosan, Z. Dauletmuratova ilmiy ish olib borgan. Olimaning “Ana ta‘repine baylanıslı tuwısqanlıq atamaları”, “Nekege baylanıslı tuwısqanlıq atamlardın‘ qollaniliwi” kabi maqolalarini sanab o‘tish mumkin. Qavm-qarindoshlik terminlari kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra uchta katta guruhga bo‘linadi:

I. Qon-qarindoshlik terminlari (ona, ota, aka, opa, buva, buvi, singil kabi).

II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari (er, xotin, kuyov, kelin, qayin ota, qayin ona kabi).

III. Yaqinlik nomlari (tutingan ona, tutingan ota, tutingan o‘g‘il kabi).

Biz birinchi guruhga kiruvchi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi qon-qarindoshlik terminlari to‘g‘risida so‘z yuritishga harakat qilamiz. Qoraqalpoq tilida qon-qarindoshlik terminlari “tuwg‘an-tuwısqanlıq atamaları” deb ataladi.

Ona so‘zi qarindoshlik termini sifatida deyarli barcha tillarda uchraydi. Termin o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ham mavjuddir va shu tillarning fonetik xususiyatlariga moslashgandir. Ona so‘zi bolani dunyoga keltirib, uni boqib katta qilgan ayolni ifodalovchi termindir. Masalan: *Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi* (Maqol). Mahmud Qoshg‘ariyning turkiy tillar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan “Devonu lug‘otit turk” asarida “ana” tarzida keltirilgan [3: 119]. O‘zbek tilida ona so‘zining adabiy tildan tashqari, shevalarda aya, oyi, ena, opa, apa, aba, ana, buva, onjon, acha kabi variantlari ham uchraydi. Qoraqalpoq tilida bu termin **ana** deyiladi. Masalan: *Aqsham aq besikti qoyıp janın‘a, Tún uyqın‘dı to‘rt bo‘lgensen‘, anajan* (I. Yusupov). Qoraqalpoq tili dialektlarida ham mazkur terminning apa, sheshe, ene, mama kabi variantlari qo‘llaniladi.

Ota so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini asrab olgan erkak ma’nosini bildiradi. “Devonu lug‘otit turk” da “ata” ko‘rinishida berilgan [4: 239]. Adabiy tildagi shaklidan boshqa ato, dada, ada, aka singari variantlari ham mavjud. Masalan: *Siz otamisiz, nimasiz axir, o‘g‘lingizni tiyib olish sira esingizga keladimi?* (A. Qodiriy). Qoraqalpoq tilida: **ata**. Variantlari: a‘ke, ag‘a. Masalan: *Atanin‘ jaman ulı, jurt tutar* (Maqol).

O‘g‘il so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida mazkur ikki til leksikasida ham mavjud. Asosan, bolaning jinsini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Uning umumiy ma’nosini konkretlashtirish nuqtayi nazaridan ko‘pincha egalik qo‘shimchalari bilan birga keladi: o‘g‘lim, o‘g‘ling kabi. “Devonu lug‘otit turk” da “og‘ul”, “uri og‘lan” tarzida berilgan [3: 103]. O‘zbek tilida variantlari: ul, o‘g‘lon kabi.

Masalan: O‘nta o‘g‘ilning o‘rnini bosadi (S. Ahmad). Qoraqalpoq tilida: **ul**. Masalan: *Ata dan‘qı menen ul o‘sedi, Ana dan‘qı menen qız o‘sedi* (Maqol).

Qiz so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida **o‘g‘il** so‘zining antonimik shaklidir va bu termin ham ko‘pincha egalik qo‘shimchalarini oladi. “Devonu lug‘otit turk” da: “qiz” [3: 315]. Bu so‘z ozod qizlarga qo‘llanganligi bilan birgalikda sotib olingan cho‘ri qizlar uchun ham qo‘llanganligi, asli bo‘yi yetgan, lekin turmushga chiqmagan qiz ma’nosini ifodalashi aytib o‘tilgan. O‘zbek tilida: *Farzand o‘g‘ilmi, qizmi – bari bir ota-onasining yuragi bo‘lar ekan* (Oybek). Qoraqalpoq tilida: **qız**. Masalan: *Ko‘zi o‘tkir, sulıw qız kitap ju‘zinen ko‘zin ayırmadı* (O‘. Xojaniyazov).

Aka so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘ildir (o‘zidan kichiklariga, ukalariga nisbatan). O‘zbek tilida varianti: og‘a. Masalan: - *Aka uring, uring birato‘la ikkita shashkasini urib oling* (Oybek). Qoraqalpoq tilida: **ag‘a**. Variantlari: ag‘a, a‘jag‘a. Masalan: *Tuwısqan ag‘asının‘ mehriban júzin ko‘rgende kishkene Orınbek qolın shappatlap, g‘orban‘-g‘orban‘ etip qoydı* (T. Qayıpbergenov).

Ini so‘zi tug‘ishgan erkak kishilarning yosh jihatdan kichigiga nisbatan qo‘llaniluvchi termin. “Devonu lug‘otit turk”da: “ini” – kichik birodar, uka [3: 119]. Variantlari: uta, uka. Masalan: *Yig‘im-terim vaqtida bir falokat yuz berib, Hasan o‘z inilari va ularning bolalaridan ajraldi* (S. Ayniy). Qoraqalpoq tilida: **ini**. Varianti: u‘ke. Masalan: *Barıp edin‘ alıstag‘ı dayın‘a, Qıdırıp Eshmurat inim ne qıldın‘?* (O‘tesh)

Opa so‘zi o‘zbek va qoraqalpoq tillarda bir ota-onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga (ukalarga,singillarga) nisbatan katta qizni ifodalovchi termin. “Devonu lug‘otit turk”da: “acha” – aka, ya’ni katta qiz (opa) ma’nosida [3: 114]. O‘zbek tilida variantlari: opcha, apka, oyopa kabi. Masalan: *Opasi erga tekkanda, Adolat o‘n bir yashar qiz edi* (A. Qahhor). Qoraqalpoq tilida: **apa**. Variantlari: a‘japa, qız apa. Masalan: *Ol ha‘zir Xemiolidin‘ og‘ada jas shag‘ında qaytıs bolg‘an apası haqqında oyladı* (R. Tagor).

Singil – bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi (opalariga, akalariga nisbatan). Bu so‘z ham ko‘pincha egalik affikslari bilan keladi. Varianti: siynim. Masalan: *Mamat qo‘y, o‘sha bemehr otani so‘rama, singlim* (Yashin, Nurxon). Qoraqalpoq tilida: **sin‘li**. Varianti: qarındas. Masalan: *Apam barg‘oy kishkene bolsada segiz jasar sin‘lim apama ja‘rdemlesip turadı* (“A‘miwda‘rya”).

Buvi so‘zi qon-qarindoshlik termini sifatida otasining yoki onasining onasini bildiradi. O‘zbek tilida variantlari: momo, ena, apa, anna, buv, katta ona, ana, opoqi kabi. Masalan: *Bir marta oyim, buvim hammamiz aravaga tushib, Qatortolga borganmiz, juda ajoyib joy* (Oybek, Bolalik). Qoraqalpoq tilida: **a‘je**. Variantlari: apa, kempir apa, sheshe. Masalan: Gu‘n‘nin‘ tilin a‘jesi biledi (“QQ. X. N”.).

Buva – buvi terminining antonimi bo‘lib, otasining yoki onasining otasidir. Variantlari: bobo, ota, katta ota, ota opoqi, oppoqdada, oto, opodda kabi. Masalan: *Buvamning so‘zlari ohista qaynab turgan zilol buloqni eslatardi* (“Saodat”). Qoraqalpoq tilida: **ata**. Variantlari: baba, ag‘a. Masalan: *Ata jurt – burınnan son‘g‘ı ata-babasının‘ otırg‘an, qonıs basqan jeri, ata ma‘kanı* (J. Aymurzaev).

Bir ota-onadan tarqalgan avlod – urug‘ni ifodalovchi terminlar:

Avlodlar	O‘zbek tilida	Qoraqalpoq tilida
I	Farzand (o‘g‘il, qiz)	Perzent (ul, qız)
II	Nevara (nabira)	Aqlıq
III	Chevara	Shawlıq
IV	Evara	Quwlıq
V	Pay nevara	Tuwlıq
VI	Kukun nevara	Bawlıq
VII	Yot nevara	Jawlıq (jatlıq)

Xulosa qilib aytganda, turkiy tillarda, xususan, o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan qiyosiy tahlil qilish, ularning o‘xshash va farqli, umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash, ilmiy tadqiqotlar olib borish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri –

qarindoshlik terminlarining o‘rganilishida katta ahamiyat kasb etadi. Chunki terminlar, albatta, har qanday til leksik fondining katta qismini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. (2019).O‘zbek terminologiyasi. –Toshkent.
2. Dauletmuratova Z. (2016). Ana ta‘repine baylanıslı tuwısqanlıq atamalar //Berdaq atındag‘ı Qaraqalpaq ma‘mleketlik universitetinin‘ xabarshısı –Nukus., 123-bet.
3. Gaziyeva M, Bannonova M. (2022). Turkologiyada qarindoshlik nomlarining o‘rganilishi. Journal of Advanced Research and Stability –T., 83-bet.
4. Ismoilov I. (1966).Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. –Toshkent, Fan,
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2006). Besh jildlik. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, Birinchi jild.
6. Qaraqalpaq tilinin‘ tu‘sindirme so‘zligi. (1982). To‘rt tomliq. –Nukus, Qaraqalpaqstan, Birinshi tom.
7. Qoshg‘ariy M. (1960). Devonu lug‘otit turk. –Toshkent, Fan, 1 tom.
8. Qoshg‘ariy M. (1960). Devonu lug‘otit turk. –Toshkent, Fan, 1 tom.
9. Tuxtasinova M. (2022). Qarindoshlik terminlarining L.Budagov lug‘atida izohlanishi //Tilshunoslikning dolzarb masalalari:Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari –T., 197-bet.

RIVOYATGA DOIR NAZARIY QARASHLAR

Azimova Madina Qahramon qizi,
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxasisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada rivoyatlar va ularning mohiyati, tematikasiga ko‘ra turlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, olimlarning rivoyat haqidagi nazariy qarashlari, fikrlarning umumiylik va farqli tomonlari tahlilga tortilgan. Misollar yordamida tarixiy rivoyatlar, toponimik rivoyatlar, etionimik rivoyatlar haqida fikr yuritilib, xalq orasidagi rivoyatlardam namunalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Rivoyat, afsona, toponimik rivoyatlar, gidronimik rivoyatlar, etionimik rivoyatlar, tarixiy rivoyatlar.*

Abstract. *This article discusses narratives and their essence, types according to thematics. Also, theoretical views of scintists about narration,*

common and different sides and opinions are analyzed. An attempt has been made to give detailed information with the help of example.

Key words. *Narratives, legend, toponymic narratives, hydronimic narratives, ethonymic narratives, historical narratives.*

Rivoyatlar og‘zaki ijod namunalari sifatida badiiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Rivoyatlarning kelib chiqishiga afsonalardagi kabi mifologik tasavvur tushunchalar yetarli ta’sir ko ‘rsatgan. O‘zbek xalq rivoyatlarida qadimgi ajdodlarimizning badiiy mahorati, dunyoqarashi muayyan darajada namoyon bo‘ladi. Rivoyat – muayyan fakt bilan bog‘liq, tarixan ishonchli voqealarni bayon etuvchi alohida janr. Uning epic voqealari mukammal va tugallangan, ammo o‘zgarmas qat’iy kompozitsiya, stilistik formulalarga ega bo‘lgan hodisa bo‘lib, real voqea va hodisalarning kelib chiqishi haqida hikoya qiladi. (https://arxiv.uz BMI. Rivoyat va uning xalq poetik ijodidagi o ‘rni.) Taniqli o‘zbek folklorshunos olimi B. Sarimsoqov rivoyatlarni mazmuniga ko‘ra tasnif qilar ekan, uni asosan 3 guruhga bo‘ladi: a) toponimik, gidronimik rivoyatlar; b) etionimik rivoyatlar; d) tarixiy rivoyatlar (Sarimsoqov, 1988). Ayrim manbalarda esa tematikasiga ko‘ra 2 guruhga: 1) tarixiy; 2) toponimik.

Tarixiy rivoyatlar biror shaxs faoliyati yoki xalq qahramonlari bilan bog‘liq bo‘lgan voqealarni aks attirib, axloq va odobning ideal normalarini tashviq etadi. To‘maris, Shiroq, Alisher Navoiy, Ulug‘bek, Ibn Sino, Beruniy, Mashrab, Amir Temur singari tarixiy shaxslar haqida yaratilgan rivoyatlar shular jumlasidandir.

Rivoyatlar ikki, uch epizoddan tashkil topgan ixcham syujetga ega bo‘lib, qat’iy kompozitsiyaga ega emas. Shuning uchun syujet voqealari ko‘pincha go‘yo tugallanmagandek, davomi bordek tuyuladi. Katta asardan uzib olinga lavhadek ko‘rinadi. Navoiy bilan bog‘liq quyidagi rivoyat buning yaqqol misolidir (Umarov, 1988).

Kunlardan bir kun Husayn Mirzo shiftga qarab yotib “olib keling!” debdi. Shu kuni Alisher Navoiy saroyda yo‘q ekan. Vazirlar nima qilishni bilmay boshlari qotibdi. Chorasiz qolgach, Navoiyni topib bo‘lgan voqeani bayon qilibdilar. Alisher ularga arra, tesha va ustani olib kirishlarini aytibdi. Shunda sulton Husayn

ustaga qarab: “Mana bu toqini tuzat” debdi. Mazkur rivoyat Alisher Navoiyning donishmadligi va tadbirkorligini izohlashga xizmat qiladi. Demak, qahramonlar tarixiy shaxs, ularning munosabati faktik hodisalarga mos, biroq asar voqealari to‘qima harakterdadir. “Oltin uzuk”, “Ibn Sino bilan kasal yigit”, “Mir Alisher bilan Sulton Husayn”, “Navoiy bilan cho‘pon yigit” va boshqa rivoyatlarda xalq idealini ifodalovchi tarixiy shaxslarning obrazlari aks etgan bo ‘lib, ularni rivoyat janri doirasida aks ettirishda ijodkorlar ertak, latifa, kabi janrlardagi tayyor syujetlardan foydalanganlar. Demak, real hayotdagi mavjud bo‘lgan harakterlar, belgi, xususiyatlar, ana shu obraz atrofida jamlanib umumlashtirilgan. Yaratilgan bu obrazlar esa xalq diliga jo bo‘lgan adolatli rahnomoni istash, adolatsiz zolimlarni inkor etish kabi go‘yalarni ifodalshga xizmat qiladi.

Ikkinchi tipdagi rivoyatlarga esa, yaratilgandan keyin uzoq zamonlar o‘tgach, yozib olingan rivoyatlar kiradi. Bu rivoyatlarda tarixiylik va faktik hodisalar hiralashgan. Ular hayotiy uydirmalar bilan qorishib ketgan. Natijada, ertak va latifalarga xos tarixiylik jihatdan nozniqliklar yuzaga kelgan, tarixiy fakt o‘z kuchini yo‘qotgan. Bu tipdagi rivoyatlar afsonalarga yaqinlashib qolganliklariga qaramay, voqea hodisalar haqida tushuncha yoki ma ‘lumot berishi jihatidan ahamiyatlidir.

Toponimik rivoyatlar u yoki bu joy nomi, yoki biror obyekt nomi bilan bog‘langan bo‘lib, hikoya qilinga voqealar uzoq o‘tmishda sodir bo‘lgan. Qolaversa, rivoyatlarda izohlanga nomlar har doim ham to‘g‘ri chiqavermaydi. Bu xildagi rivoyatlarni tarixiy- etnografik ishlar va badiiy ocherklarda, sayohatnoma va qadimgi manbaalarda uchratish mumkin. Andijon toponimi haqidagi rivoyat fikrimizning isbotidir.

Qorabug‘roxon degan podshoh bo‘lib, uning o‘zi Qashqarda turar ekan. Kunlarning birida u ov qilib yurib, suv bo‘yida qo‘shiq aytib turgan qizni sevib qolibdi. To‘y-tomosholar bilan unga uylangan kuni urush boshlanib, urushga ketibdi. Bu urushda u g‘olib chiqibdi. Ammo og‘ir yaralanib, yo‘lda ahvoli og‘irlashibdi. Shunda xon kun chiqish, ya’ni qaylig‘i bor tomonni ko‘rsatib: “Anda jon qoldi, meni o‘sha yerga ko‘minglar”, -deb jon beribdi. Vazirlar

vasiyatga binoan uni o‘sha joyga ko‘mibdilar. U yer keyinchalik shaharga aylanib “Anda jon, Andijon” bo‘lib ketgan ekan.

Ko‘rinib turibdiki, bu xildagi rivoyatlar tom ma’nodagi badiiy asar darajasida bo‘lmay, biror joy nomining paydo bo‘lishini izohlovchi xabar shaklidadir. Bunga Xorazm Qarshi singari shahar nomlarining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar ham misol bo‘la oladi.

Toponimik rivoyatlarda hikoya qilishning o‘ziga xos uslubi mavjud. Odatda, uning yakuniy qismida hikoyadan kelib chiqadigan asosiy maqsad ta’kidlanadi. “To‘rabekxonim maqbarasi”, “Anda jon qoldi”, “Odinajon”, “Qo‘ng‘irot” kabi rivoyatlar shular jumlasidandir. Toponimik rivoyatlar ko‘proq hayotiy uydirmalar asosiga qurilgan bo‘lib, asosan, joy nomlari haqida axborot berishi bilan muhim g‘oyaviy badiiy qimmatga ega. Umuman olganda rivoyatlar xalq tarixi, uning estetik qarashlarini o‘rganishda zarur bo‘lgan og‘zaki ijod namunlaridir.

Rivoyatlar og‘zaki ijod namunasi bo‘lgani uchun, bizgacha asosan og‘zaki hamda qisman yozma shaklda yetib kelgan. Geredotning “Tarix”, Vosifiyning “Badoye ul vaqoye”, Xondamiming “Makorim ul-axloq” va boshqa asarlarda rivoyatlaming qadimiy namunalari keltirilgan. O‘zbekistonda juda ko‘p rivoyatlar yozib olingan va ular xalq tarixi hamda madaniy-estetik qarashlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek xalq rivoyatlarining yozib olingan ko‘plab namunalari bugungi kunga qadar folklor adabiyotlar arxivida saqalanadi (Jo‘rayev, Eshonqulov, 2017).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sarimsoqov, B. (1988). O‘zbek folklorining janrlar sostavi. O‘zbek folklori ocherklari. T.: Fan
2. Jo‘rayev M., Eshonqulov, J. (2017). Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma. T.: Barkamol fayz media.
3. Umarov, S. (1988). Rivoyat va hayot. Toshkent.
4. Mirzaev, T. (1981). O‘zbek xalq baxshilarining epik repertuari. T.: Fan.
5. Saidov, M. (1979). O‘zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat masalalari. T.:Fan.

QASHQADARYO VILOYATI SHEVALARI LEKSIKASI TADQIQI VA BA'ZI OZIQ-OVQAT NOMLARI

Dusanova Laylo Eshqobil qizi,
O'zMU Jurnalistikafakulteti 2-kurs talabasi
bek54909@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu maqolada o'zbek tili shevalarining o'ziga xos xususiyatlari va Qashqadaryo viloyati qipchoq lahjasida kuzatiladigan fonetik o'zgarishlar, shevaning leksik jihatlari hamda turli xil taomlar, sabzovot va mevalarning nomlanishi haqida ma'lumot berildi, ma'lumotlar misollar asosida tahlil qilindi.*

Kalit so'zlar*:qipchoq, dialekt,lahja, fonetik o'zgarish, taom nomlari, shevaga oid so'zlar.*

Abstract. *this article provides information about the specific features of the Uzbek language dialects and phonetic changes observed in the Kipchak dialect of Kashkadarya region, lexical aspects of the dialect, and the naming of various foods, vegetables and fruits, the data was analyzed based on examples.*

Keywords: *Kipchak, dialect, lahja(dialect), phonetic change, food names, dialect words.*

O'zbek shevalarining murakkab tarkibiga egaligi, avvalo, ularning fonetik jihatdan rang-barangligi tufaylidir. O'zbek shevalariunli va undoshlar miqdori va sifati, fonetik qonuniyatlar, fonetik jarayonlarning o'ziga xosligi jihatidan o'zaro farqlanadi va ular bir-biri bilan o'xshashliklarga ham ega bo'ladi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalishi chegaralarini o'rganadi. Shevalar ma'lum bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi.

O'zbek shevalari o'zbek tilining mahalliy ko'rinishi sifatida undagi bo'lgan aksariyat qatlamlami o'zida birlashtiradi, binobarin, o'zbek tili leksik qatlamlari quyidagicha bo'ladi:1. Umumtuikiy so'zlar. 2.O'zlashgan so'zlar:arab tilidan o'zlashgan so'zlar;forsiy tillardan o'zlashgan so'zlar;rus tili va u orqali o'zlashgan so'zlar.3. O'zbek tili sharoitida yaratiigan so'zlar.4. Shevalarning maxsus so'zlari

(S.Ashirboyev, 2021, 78-bet). Qipchoq tillari butun Rossiya bo‘ylab Boltiq va Qora dengizdan Kavkaz va Uralgacha va Sibirgacha, shuningdek Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston vaO‘zbekistonda tarqalgan. Qipchoq tillarida so‘zlovchilar soni yigirma milliondan oshadi.O‘zbek tilining qipchoq shevalari faqat dialektologlar uchungina emas, balki folkloristlar uchun ham juda qiziqarli materiallar beradi (R.Suvonova, 2021, 256-bet).

O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklami o‘rganish lug‘at boyligimizni, til imkoniyatlarimizni kengaytirishimizga yordam beradi vashuning uchun adabiy tilga bunday so‘zlami o‘rni bilan qabul qilib borish zarur (S.Ashirboyev, 2021, 81-bet).“…o‘zbek tilining qipchoq lahjasi vakillari nutqida, umumadabiy tilda qo‘llanadigan so‘zlar bilan bir qatorda, faqat shevaning o‘ziga xos so‘zlari ham faol ishlatib kelayotganligi ma’lum bo‘ldi”(N.Shoimova, 2008, 100-bet). Qashqadaryo vohasining shevasi ham aynan qipchoq lahjasiga xosdir. Ko‘pgina tumanlari **“j”** lovchilar tarkibiga mansubdir. Adabiy tildagi so‘zlardan, hududning shevadagi so‘zlari fonetik, leksik va morfologik jihatdan o‘zaro farq qiladi. Misol tariqasida vohaning tilida uchraydigan shevaga xos so‘zlarda va milliy taomlari, meva-sabzovat, oziq-ovqat turlarining nomlanishida kuzatiladigan turli tovush o‘zgarishlariga (tovush o‘zgarishi, tovush ortishi, tovush tushishi) e’tibor qaratamiz. Shevada fonetik jihatdan quyidagi farqlarni kuzatishimiz mumkin: ***so‘zlar:****yo‘l - jo‘l; yaxshi - joxshi; yomon - jomon; aldama - olloma; sariq - sori; yubor - juvar, jubar; tog‘ - tov; sog‘ - sov; top - tov; qalin - qolin; ingichka - juqa, juqo; qora - qoro; savob - sovop; mashina - moshin; ayt - oyt; og‘iz - oviz, ovzi, ovuz; tarvuz - torbiz; yarim - yorim; maymun - moymin, moymil; doim - doyim; aytdim - oyttim; sovun - sobin, sovin; qani - qoni; ayt - oyt; qayt - qoyt;* ***taom nomlari:*** *osh - palov, pilov; yupqa - jupqa; qatlama - qollama, qallama; bo‘g‘irsoq - bovursoq, bovirsoq; g‘ilvindi - g‘ilmindi; shovla - shavla, shulla, shilla;* ***meva-sabzavot nomlari:*** *sabzi - sabiz, savzi, sovuz, sovzi; pomidor - pamadir, pamadar; kartoshka - kartishka; uzum - juzim, juzum* v.b. shu kabi

Shuningdek, voha tilida shevaning o‘ziga xos so‘zlari ham leksik jihatdan boshqa shevalardan hamda adabiy tildan birmuncha farq qiladi, buni quyidagi

misollarda ko‘rishimiz mumkin: *sho‘rva - piyova; beshbarmoq - shilpildoq, laxsha, lapsha, kulchatoy; go‘ja - jorma, ko‘chaosh; qatiqli osh - keskan osh, qatig‘li osh; halim - yorma, jormapalov; chalpak - is, suzma; kalla-poycha - kalla sho‘rva, kalla go‘sht; hasip - tixma, tiqma; sabzi salat - chim-chim, shakarob; ayron - chalop, cholap; ukrop - shivit; yalpiz - pidina, pidana; tuzlama - salyonne, pamidor salat; oshqovoq - ashkadi, kadi, kodi, qovoq; o‘rik - zardoli, zordali; g‘o‘ra - dovcha, davcha, dovuchcha,; olcha - gilos, katta gilos; olxo‘ri - qaroli; suzma - chakki; tuxum - mayak, moyak, tuqum; nok - nashvati, olmutr; gilos - qo‘qon gilos; tesha - cho‘t; to‘g‘nog‘ich - ignatugma, iynatuyma; yostiq - bolish, dostiq* va boshqalar.

O‘zbek tilshunosligida ovqat-taom nomlari ham ba’zi ishlarning o‘rganish obyekti qilib olinga (M.Xudayarova, 2008). Dialektal so‘z maqomi sheva so‘zlari ichida uning leksik-semantik va semantik(dialektal ma’no) xususiyatlari bilan farqlanishi, adabiy tildagi so‘zlarga nisbatan orfoepik va orfografik me’yorlari bilan adabiy til me’yori va talablariga bo‘ysunmasligi, unda kam ishlatilishi yoki umuman qo‘llanmasligi, ularning tarkibidagi leksik ma’no esa ma’nolar tizimida kam uchraydigan dialektal ma’no ekanligi bilan adabiy tildagi leksik birliklardan farqlanishi bilan ajralib turadi. Ushbu fikrni misollar tahlilida hamko‘rish mumkin. Xalq marosimlari bilan bog‘liq bo‘lgan milliy taom nomlari shunday rang-barangki, buni ularning har bir tuman hududida har xillik kasb etishidan ham bilish mumkin (M.Xudayarova, 2007, 91-bet).

O‘zbek tilshunosligida pazandachilik leksikasini N.Ikromova o‘rgangan. U asosan Toshkent shahri shevasidagi taom nomlarini o‘z tadqiqotiga kiritgan(Н.Икромова,1983,168-бет).O‘zbek xalq shevalari o‘rganilgan ishlarida ham ayrim oziq-ovqat taom nomlari haqida ma’lumotlar berilgan(O‘zbek xalq shevalari lug‘ati,1971) .

Biz tahlilga tortayotgan Qashqadaryoviloyati hududidagi tumanlar aholisining shevasida turli xil to‘y-tomoshalarda pishiriladigan taom, bayram-bazmlarda tayyorlanadigan pishiriqlar, marosimlar, azalarda hozirlanadigan ovqat va shirinliklar nomlari, ba’zida tumanlararo ham farq qilishi mumkinligi kuzatildi.

Yorma (shevada ***jormapalov***) –Qashqadaryoda bahorga chiqish arafasi, qishning oxirgi oyi fevralda, odamlar eson-omon bahorga chiqib olganligiga shukrona keltirib, qurbonlik keltirishadi va butun qishloq (yoki mahalla, ko‘cha) yig‘ilishib, **yorma** (shevada ***jormapalov***) tayyorlashadi. Lekin bu hamma tumanlarida ham ommalashgan emas.

Moma osh- Qashqadaryo hududi xalq marosimlarida qo‘llaniladigan taomnomlaridan yana biri ***moma osh*** hisoblanadi. ***Moma osh*** - tovuq go‘shti (tirik tovuqni so‘yib, qon chiqarish shart), kesilgan xamir, guruch, yog‘, kartoshka va piyozdan tayyorlanadigan ovqat hisoblanadi. Bu taom xalq orasida asrlar osha (*kina kirmoq, ko‘z tegmoq*)ning oldini olish marosimlarida tayyorlanadi.

Is - viloyatdashu kabi marosimlarda tayyorlanadigan taomlardan yanabiri **is**dir (shevada ***so‘zma, cho‘zma***).**Is** - achitqi qo‘shilib achitilgan xamirni bo‘laklarga ajratib yog‘ga qovurib olinadi. Asosan islarning soni toq sonlarda bo‘ladi.

Atala–bu “Devoni lug‘at-it- turk”da **qavut** (***qag‘ut*** shakli ham bor) - yangi tuqqan xotinlar ovqati, qovurilgan tariq, yog‘ va shakarga qorib yeyiladi (M.Koshg‘ariy, 1960, 178-bet)deb berilgan. Haqiqatan, bunday taom Qashqadaryoda bugunda mavjud, lekin adabiy tilda bu nom bilan uchramaydi.Vohaning ba’zi bir tumanlarida esa bu taomni **atala** deb atashadi. Tayyorlanish usuli ham aynan bir xildir. Bu yerda ham tuqqan ayollarning kuchiga kuch qo‘shish maqsadida atala tayyorlab beriladi.

Ko‘chaosh –Qashqadaryo viloyatining ko‘plab hududlarida Navro‘z bayrami**ko‘chaoshi**siz (***go‘ja***) o‘tmaydi. **Ko‘chaosh** - bug‘doyning ezilganini qaynatib va unga suzma qo‘shib tayyorlangan ovqat turidir. Barcha tumanlarda ham bunday nomlanmaydi: **ko‘cha osh**(Qamashi tumanining ayrim qishloqlari), **go‘ja** (Qarshi shahri ayrim hududlarida) va h. k.

Kallago‘sht -qadimdan hozirgi kunga qadar to‘y va ma’rakalarda mehmon oldiga so‘yilgan qo‘yning kallasi, oyog‘i qaynatilib qo‘yiladi. Bu taom hududda **kallago‘sht** deb ataladi.Toshkentda bu taomni ***“kalla-poycha”*** deb atashadi.

K.Mahmudov “O‘zbek tansiq taomlari” kitobida*“kalla-poycha”* taomiga to‘xtalib, shunday deydi: “…kalla-poychani katta yig‘inlarda mehmonlar orasida eng hurmatli va mo‘tabar kishiga qo‘yib, shu orqali boshqa mehmonlarga ham e’tibor qilinadi. Aziz mehmon, oqsoqol shaxs kalla va poycha go‘shtlarini avvalo o‘zi tatib ko‘rib, keyin o‘tirganlarning barchasiga ulashgan. Hozir bu o‘zbeklarga unutilgan hisoblanadi, ammo qirg‘iz va qozoq mehmonnovozligida eng muhim udum shu” (K.Mahmudov, 1989, 102-bet). Vohaning deyarli ko‘p joylarida esa ushbu udum saqlanib qolmagan.

Bu kabi misollarni juda ko‘plab keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda shevadagi ba’zi so‘zlar istemoldan chiqib ketyapti. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Qipchoq lahjasiga tegishli shevalarga xos so‘zlarni va oziq-ovqat nomlarini o‘rganish hozirgi kuntalabi bo‘lib, shevaga xos so‘zlarni ilmiy jihatdan tahlil qilish, uni amaliy jihatdan tadqiq qilish hamda izlanishlarni ravon davom ettirish bugungi kun talablaridan biridir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.Ashirboyev.(2021). O‘zbek dialektologiyasi. Nodirabegim.

2. R.Suvonova.(2021). Qipchoq shevasidagi fonetik o‘zgarishlar. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan).

3. M.Xudayarova.(2008). O‘zbek tilidagi taom nomlarining lingvistik tahlili. Filol.f.n.dis … avtoreferati.

4. M.Xudayarova.(2007). Qoraqalpog‘istondagi xalq marosimlari bilan bog‘liq taomnomlari. O‘zbek tili va adabiyoti, 5, 91.

5. Н.Икрамова.(1983). Узбекская кулинарная лексика.(168 с). Фил. ф. ном. дисс.Тошкент.

6. O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.(1971).

7. M.Koshg‘ariy. (1960). Devoni lug‘at -it-turk. Uch jildlik. I-jild.

8. Mahmudov K.(1989). O‘zbek tansiq taomlari.(102-b).

9. N.Shoimova.(2008). O‘zbek tilining qipchoq lahjasi leksikasidan ayrim qaydlar. O‘zbek tili va adabiyoti, 5.100.

ETIMOLOGIC HISTORY OF SOME ENGLISH WORDS

Elboeva Shahnoza Azim qizi,
QarDUPI Xorijiy tillar fakulteti, 2-kurs.
abrorelboyev6@gmail.com

Abstract. *This article gives full definition of etymology, native and borrowed words. Also you can get full explanation about them with the clear examples. It also explains about reasons why and how words are borrowed from other languages.*

Keywords: *Loan words, native words, etymological doublets, linguistics, etymology.*

Etymology – is a branch of linguistics studying the origin of words, their change and development, their linguistic and extra linguistic forces modifying their structure meaning and usage. Even common words can have interesting origins that provide interesting insights into history. Some scientists had a survey on etymology for instance: Etymologist Michael Quinion(1943) is the author and webmaster of World Wide Words, a site that documents the meaning and derivation of English words and phrases which covers a wide range of issues including etymology and grammar book reviews. Another etymologist Ernest David Klein (1899-1983) wrote three etymological dictionaries. His most famous work is A Comprehensive Etymological Dictionary of the English language. And other one is Anatoly Lieberman (10March 1937) who seeks to build an exhaustive purview of previous conjectures and hypotheses on word origins. His team has collected tens of thousands of articles on etymology from hundreds of journals, book chapters, and Festschriften, which feed his works. His books in this area include Etymology for Everyone: Word Origins and How We Know Them (2005), An analytic dictionary of English etymology: an introduction (2008) and A Bibliography of English Etymology (2009). Here we look through the etymology of some words;

Etymology Just like all words, the etymology of etymology has an origin story. The word's origin in the English language begins in Latin and Greek and

then moves through French before appearing in a text in the late 14th century by a scholar named Bartholomaeus Angelicas. Like many words in the English language, etymology can be broken down into root words from either Latin or Greek. In this instance, the word etymology is composed of two root words, one from Latin and one from Greek. The Latin root etymon means "word," and the Greek root ology means "the study of." Placed together, the two roots combine to mean the study of words.

Teach – meaning to instruct. This is from the Middle English, techan which is from the Anglo-Saxon, tæcan which means to show or tell. This comes from the Teutonic word, tac which is the base of the word, tacen which means token. This is related to the Greek word δείκνυμι which means to show.

The word **''clue,''** which means a "a fact or idea that serves as a guide or aid in a task or problem," comes from the Middle English word clew which means a ball of yarn or thread. Etymologists have discovered the oldest recorded use of clew dates to 1393, but it's the origin of the word "clue" that is connected to the Greek mythological story of Theseus famously using a ball of string (clew) to find his way out of the Labyrinth and defeat the Minotaur. Sometimes, words can change their connotations.

The word **''nice''** used to be an insult. Nice came into the English language through the French word (spelled the same) that has its origin in the Latin word nescius meaning ignorant. Therefore, calling someone nice in 14th century English would have possibly hurt someone's feelings. It's not until the author Jane Austen used the word in 1799 that etymologists identify the changing connotation of nice to how it is used today to mean agreeable or pleasant.

Furthermore, The American Heritage Dictionary of the English Language, the definition of the word **disaster** is "an occurrence causing widespread destruction and distress; a catastrophe" or "a grave misfortune." But the etymology of the word disaster takes us back to a time when people commonly blamed great misfortunes on the influence of the stars.Disaster first appeared in English in the late 16th century, just in time for Shakespeare to use the word in the play King Lear. It

arrived by way of the Old Italian word disastro, which meant "unfavorable to one's stars."This older, astrological sense of disaster becomes easier to understand when we study its Latin root word, astrum, which also appears in our modern "star" word astronomy. With the negative Latin prefix dis- ("apart") added to astrum ("star"), the word (in Latin, Old Italian, and Middle French) conveyed the idea that a catastrophe could be traced to the "evil influence of a star or planet" (a definition that the dictionary tells us is now "obsolete". These examples demonstrate how knowing the etymology of a word can open up worlds of information and provide a better understanding of whatever text it appears in.

Native words are words which belong to the original word stock. Though native words constitute only about 30% of the English vocabulary they make up the greatest part of the basic word stock. Native words have a higher frequency value than most of the borrowings. They occur in any spoken or written speech forming the foundation and framework of the English language. For instance; words of native origin include most of the conjunctions, numerals, prepositions, pronouns and strong verbs, the definite and indefinite articles are also of native origin. The native element in modern English is mostly monosyllabic but as for their meanings they are usually polysemantic. They show great word building power and make up the majority of proverbs and set expressions, e.g. water – to water, watery, waterproof, waterfall etc.

Words adopted from foreign languages are known as **borrowed words** or **loan words.** One language may possess words for which there are no equivalents in the other language. There may be words for objects, social, political, and cultural institutions and events or abstract concepts which are not found in the culture of the other language. We can take some examples from the English language throughout the ages. An early example is assassin (eater of hashish), which appears in English about 1531 as a loanword from Arabic, probably borrowed during the Crusades. Many of the other words borrowed from eastern countries during the Middle Ages were the names of products (Arabic lemon, Persian musk, Semitic cinnamon, Chinese silk) and place names (like damask,

from Damascus). English speakers have long been globally among the most enthusiastic borrowers of other people's words and many, many thousands of English words have been acquired in just this way. We get kayak from an Eskimo language, whisky from Scottish Gaelic, ukulele from Hawaiian, yoghurt from Turkish, mayonnaise from French, algebra from Arabic, sherry from Spanish, ski from Norwegian, waltz from German, and kangaroo from the Guugu-Yimidhirr language of Australia. English has borrowed words for types of houses (e.g. castle, mansion, teepee, wigwam, igloo, and bungalow). It has borrowed words for cultural institutions (e.g. opera, ballet). It has borrowed words for political concepts (e.g. perestroika, glasnost, apartheid). A few examples from Ancient Greek: ippopotamus: hippos = horse; potamus = river > hippopotamus = river horse telephone: tele = long distance; phone = voice; speak > telephone = speak from far away microscope: micro = small; scope = look > microscope = looking at small things Of course not all words are derived from Ancient Greek. English words also come from French, Latin, Arabic, etc. From Arabic we get the word:

Hazard. This term evolved from the Arabic al zahr (= dice). In Western Europe the term came to be associated with a number of games using dice, which were learned during the Crusades whilst in the Holy Land. The term eventually took on the connotation of danger because games using dice were associated with the risky business of gambling and con artists using corrupted dice. From medieval Italian we get the word:

Malaria. This word comes from the mediaeval Italian mal (= bad) and aria (= air), describing the miasma from the swamps around Rome. This ‘bad air’ was believed to be the cause of the fever that often developed in those who spent time around the swamps. In fact, malaria is an infectious disease caused by the bite of an infected anopheles mosquito.

The word school is a Latin borrowing (Lat. schola, of Greek origin) *From the end of the 8th c. to the middle of the 11th c.* England underwent several Scandinavian invasions which inevitably left their trace on English vocabulary. Here are some examples of early Scandinavian borrowings: *call,* v., *take,* v., *cast,*

v., *die,* v., *law,* п., *husband,*n. (< Sc. *hus* + *bondi,* i. e. "inhabitant of the house"), *window* n. (< Sc. *vindauga,* i. e. "the eye of the wind"), *ill,* adj., *loose,* adj., *low,* adj., *weak,* adj.*1066.* With the famous Battle of Hastings, when the English were defeated by the Normans under William the Conqueror, we come to the eventful epoch of the Norman Conquest. The epoch can well be called eventful not only in national, social, political and human terms, but also in linguistic terms. England became a bi-lingual country, and the impact on the English vocabulary made over this two-hundred years period is immense: French words from the Norman dialect penetrated every aspect of social life. Here is a very brief list of examples of *Norman French borrowings.* Administrative words: *state, government, parliament.* Legal terms: *court, judge, justice, crime, prison.* Military terms: *army, war, soldier, officer, battle, enemy.* Educational terms: *pupil, lesson, library, science, pen, pencil.* Everyday life was not unaffected by the powerful influence of French words. Numerous terms of everyday life were also borrowed from French in this period: e. g. *table, plate, saucer, dinner, supper, river, autumn, uncle,* etc.The *Renaissance Period.* In England, as in all European countries, this period was marked by significant developments in science, art and culture and, also, by a revival of interest in the ancient civilizations of Greece and Rome and their languages. Hence, there occurred a considerable number of Latin and Greek borrowings. In contrast to the earliest Latin borrowings (1st c. B. C.), the Renaissance ones were rarely concrete names. They were mostly abstract words (e. g.*major, minor, filial.)* The Renaissance was a period of extensive cultural contacts between the major European states. Therefore, it was only natural that new words also entered the English vocabulary from other European languages. The most significant once more were French borrowings. This time they came from the Parisian dialect of French and are known as *Parisian borrowings.* Examples: *regime, routine, police, machine, ballet, matinee, scene, technique, bourgeois,* etc. There are certain structural features which enable us to identify some words as borrowings and even to determine the source language. We have already established that the initial *sk* usually indicates Scandinavian origin. You can also

recognise words of Latin and French origin by certain suffixes, prefixes or endings.*Phenomenon, philosophy, method, music,* etc. were borrowed into English from Latin and had earlier come into Latin from Greek. It should be taken into consideration that the English proper element also contains all the later formations, that is, words which were made after the 5th century according to English word-building patterns both from native and borrowed morphemes. For instance, the adjective 'beautiful' built from the French borrowed root and the native suffix belongs to the English proper element. It is natural, that the quantity of such words is immense. The words *shirt* and *skirt* etymologically descend from the same root. *Shirt* is a native word, and *skirt* (as the initial *sk* suggests), is a Scandinavian borrowing. Their phonemic shape is different, and yet there is a certain resemblance which reflects their common origin. Their meanings are also different but easily associated: they both denote articles of clothing. Such words as these two originating from the same etymological source, but differing in phonemic shape and in meaning are called *etymological doublets.* In general, we should not be misled into thinking that all short common words are native, and that only three- and four-syllable words came from foreign sources. Words like *very, air, hour, cry, oil, cat, pay, box, face, poor, dress* are of foreign origin despite their native appearance and common use. So it would be correct to state that, though native words prevail in the basic vocabulary, this stratum also comprises a considerable number of old borrowings which have become so fully adapted to the English language system that they are practically indistinguishable from the native stock.

References:

1. . O. Muminov (2008) “Lexicology of the English language Toshkent “Mexridaryo” nashriyoti.

2. Г.Б. Антрушина, О.В, Афанасьева, Н.Н. Морозов (1999) “Лексикология английского языка “ ”English Lexicology”. «Дрофа».

3. A. Burxonov, A. Muminov (1990)..” Practical course in English Lexicology” “ O‘qituvchi nashriyoti”

“DEVONI LUG‘OTIT TURK”DAGI OBRAZLI HOLAT FE’LLARI

Shoira Eshboyeva,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 3-kurs
eshboevashoira@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk”dagi obrazli holat fe’llaridan ayrimlari tahlilga tortildi.. Hamda ushbu so‘zlarning ma’nosini to‘liqroq ochish uchun “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” yordamida qiyosiy o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *lug‘at, fe’l, holat fe’llari, harakat fe’llari, obrazli holat fe’llari.*

Abstract. *In this article, some of the verbs with ablative form in the "Devoni lug'otit turk" were analyzed. In order to more fully reveal the meaning of these words, a comparative study was conducted using the "Annotated Dictionary of the Language of Alisher Navoi's Works" and "Annotated Dictionary of the Uzbek Language".*

Keywords: *vocabulary, verbs, state verbs, action verbs,figurative verbs.*

Har qanday umumiylik xususiylikdan, alohidalikdan, ularning mantiqiy ichki bog‘lanishidan yuzaga keladi va situatsiyaga qarab xususiylik orqali reallashadi, “yashaydi”. Holat umumiylik sifatida, unga xos belgi — xususiyatlar esa xususiylik sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nisbiy mustaqillikka, alohidalikka egadir. “Holat” arxisemali fe’llarning differensial semasi holat fe’llarining mustaqilligini, alohidaligini ta’minlovchi, til va nutq birligi bo‘lib izohlanishiga stimul beruvchi sema hisoblanadi.

Obrazli holat fe’llari obyektiv borliqdagi predmet — hodisalar, ular brasidagi munosabatlar haqida muayyan informasiya berishiga, emosionallikka, ekspressivlik darajasining ortiqligiga ko‘ra ajralib turadi(Rasulov,1989,24-bet). “Devoni lug‘otit turk”da ham bunday fe’llar uchraydi. Nafaqat obrazli holat fe’llari, balki boshqa turdagi fe’llarni ham uchratishimiz mumkin. Chunki bu asar qomusiy asar hisoblanib bizgacha yetib kelgan eng katta ilmiy asar hisoblanadi. Bu asar turkiy til tarixi uchun sezilarli ahamiyatga ega. Chunki “Devoni lug‘otit turk” XI asrda yaratilgan turkiy til lug‘ati hisoblanadi. Tilshunos Qosimjon Sodiqov bu asar haqida

shunday deydi: “Ta’kidlamoq kerakki, olim turkiy so‘zlarning tuzilishi, tilning o‘ziga xosliklarini inobatga olib, lug‘at tuzishning o‘ziga yarasha yangi bir usullarini ishlab chiqdi. Shuning bilan u lug‘atchilikda katta kashfiyot qildi(Qoshg‘ariy,2017,4-bet).

Devonda uchragan obrazli holat fe’llarining ayrimlari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”ga qiyoslangan holda tahlilga tortildi.

OCHILMOQ: Devonda ochilmoq fe’li quyidagi shaklda kelgan: **ачїлдї** – ochildi . Misol: **көңүl ачїлдї** – ko‘ngil yorishdi(DLT,I,202-bet). Alisher Navoiy asarlarida esa bu so‘z keng ma’nolarda uchraydi: **.Ochilmoq, ajralmoq, ayirmoq:**

Qardoshlar ochilmasinkim oralari,

Farrux bo‘lsin kavkabi sayyoralari.

2.Yechilmok, fosh bo‘lmoq:

Agar ochilsa ul yuz niqobidin, vah

Qachon o‘zida qolg‘ay gado bilan shax.

3. Hal bo‘lmoq, yechilmoq:

Sabr bila ko‘p bog‘lig‘ ish ochilur(ANATIL,II,539-bet).

Davrlar o‘tishi natijasida til ham shakllanib rivoj topib borgan. ***Ochilmoq*** fe’li hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’nolarda uchraydi:**1.Ochmoq**. *Eshik ochildi. Sandiq ochildi. Yangi maktab ochildi.* **2.Ochmoq.** Fikri ochildi. Rangi ochildi. 3**.Boshlanmoq, ish boshlamoq.** *Ertaga shu muammoga bag‘ishlangan olimlarning yig‘ilishi ochiladi.* **4. Ko‘rinmoq, namoyon bo‘lmoq.** *Yo‘lchining ko‘ziga jannatday katta bog‘ manzarasi ochildi, tomosha qilib, keksa tog‘aning orqa-sidan yura berdi. Basharasi ochilmoq. Kirdikori, aybi, aslida kimligi fosh bo‘lmoq.* **5. Xafaligi yoki qaxr-g‘azabi yo‘qolib xushnud bo‘lmoq, yozilmoq.** - *Goho biron kishi [buvimnshg] ko‘nglini og‘ritganda, men unga bir og‘iz yumshoq gap aytsam, o‘sha zamoni ochilib ketaqolardi, — dedi Kenja.* **6. Husniga husn qo‘shilib, tobora chiroyli bo‘lmoq, go‘zallashmoq.** *Zunnunovning nazarida Saodatxon yanada ochilib ketganga o‘xshaydi*(O‘TIL,III,182-bet).

TUTAMOQ: тутундї – tutadi. Misol: *от тутундї – o‘t yondi.* Титунур, тутунмақ. Parchada shunday kelgan: *Өзік отї тутунуб өпка јўрәк қағрулур*. Sevgini ta’riflab aytadi: *Qachon sevgi o‘ti yonsa undan yurak, o‘pka va uning atrofidagi a’zolar kuyib qovriladi*(DLT,II,167-bet). **Yonmoq, kuymoq, o‘t tushmoq.**

Oningdek o‘t yana ishq urdi xonumonimg‘a

Ki shu’la ayrilib ondin tutashdi jonimg‘a(ANATIL,III,261-bet). **1.Tutunlanib yonmoq, buruq-simoq; tutun chiqarmoq.** *Pechka tutab ket-yapti. Ho‘l o‘tin tutaydi, yonmaydi.* **2. Is, dud chiqarmoq (yog‘, pilik va sh.k. haqida).** Krzonda yog‘ tutay boshadi. **3. (ko‘chma) Tutaqmoq, tutaqib ketmoq, qizishmoq, yonmoq.** *Haydarboy ich-ichidan tutab ketdi*(O‘TIL,IV,228-bet).

SHISHMOQ: сїшїлдї – ko‘pchidi, shishdi. Misol: бїшїғ таріғ сїшїлдї – suv bilan qaynatilgan bug‘doy shishdi – ko‘pchidi, hatto qaynatilib turgan qozonga sig‘maydigan bo‘ldi. Bo‘laklari shishib, o‘z joyiga sig‘may qolgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.Сїшїлур, сїшїлмақ(ДЛТ,II,141-bet). **Shishmoq, shishib ketmoq:**

Ul it boshin ul zarfqa solib, ul sutdin ichti dog‘i shishib, yiqilib o‘ldi(ANATIL,III,532-bet). **1.Organizmda yoki uning biror qismida tashqi ta’sir yoki kasallik tufayli shish hosil bo‘lmoq.** *Uning oyog‘i shishib ketibdi. mm Ko‘p yig‘laganlikdan [Kumushning] ko‘zlari qizargan, qovoqlari shishgan, yuzlari bo‘rtgan edi.* **2.Bo‘rtib kattalashmoq; bo‘rtmoq.** *U har tosh ko‘targanda, bilagidagi, bo‘yinlaridagi tomirlari barmoqdek-barmoqdek bo‘lib shi-shib chiqadi.* **3.Havo, gaz va sh.k. bilan to‘lib ken-gaymoq, qappaymoq.** Bola *qancha puflasaham, pufak shishmadi. mm Nusratbek katta uy-ning bir tavaqa derazasini balkonga qara-tib ochib qo‘ydi.* **4.(ko‘chma) Semirib ketmoq, to‘lishmoq.** *-Men shishib ketsam, sen sim-yog‘ochdek qolibsan! — dedi Xo‘jaqul va qiy-qirib kuldi.* **5.(ko‘chma) G‘ururlangan, dimog‘i ko‘taril-gan holatda bo‘lmoq.** *Matjon bobo, shishmang, ko‘pirmang, Sizni ko‘kka olib chiqdi bang.* **6.O‘pkasi shish-moq** 1) qattiq yugurish va b. sababli nafas olishi og‘irlashmoq, o‘pkasi tiqilmoq. *Roziq o‘rnidan turdi-da, yugurganicha ketdi. Saldan keyin o‘pkasi shishdi, oyog‘ida*

darmon qolmadi. 2) yig‘lar darajada alam qilmoq, o‘pkasi to‘lmoq. *Devonaning o‘pkasi shishib gapirdi*(O‘TIL,IV, 658-bet).

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, davrlar o‘tishi bilan leksema sememasi kengayib boradi. XI asrda bir so‘z bir yoki ikki ma’noni anglatgan bo‘lsa, Navoiyning davriga kelib bu so‘zlarni yanada kengroq o‘rinlarda ishlatishgan. Ayniqsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llanilayotganiga guvoh bo‘lamiz. “Devoni lug‘otit turk”da uchragan obrazli holat fe’llari hozirgi kunda ma’no kengayishi natijasida holat fe’lining boshqa turlariga ham misol bo‘la oladi. Masalan, ***ochilmoq*** fe’li “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da obrazli holat fe’li bo‘lish bilan birga, *fiziologik* va *psixik* holat fe’li ham bo‘la oladi. Devonda uchragan ko‘pgina so‘zlarning ma’nosi shu tarzda kengaygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. .(1983). II tom (539-bet). Toshkent.

2.Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. III tom.(1983). (261-532 bet). Toshkent.

3.Rasulov,R. (1989). O‘zbek tilida holat fe’llari va ularning obligator valiantliklari.(24et).Toshkent.

4.Qoshg‘ariy, M.(2017). Devoni lug‘otit turk.(4-bet). Toshkent:G‘afur G‘ulom.

5.Qoshg‘ariy, M.(1960). Devoni lug‘otit turk. I tom.(202-bet). Toshkent.

6.Qoshg‘ariy, M.(1960). Devoni lug‘otit turk. II tom.(167-141 bet). Toshkent.

7.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2007). III tom.(182-bet). Toshkent.

8.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2007). IV tom.(228-658 bet). Toshkent.

“DEVONU LUG‘OTIT TURK’’ ASARIDAGI AYRIM LEKSEMALAR SEMANTIKASIDAGI O‘ZGARISHLAR

Farmonova Feruza Furqat qizi,

ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti

2- kurs feruzafarmonov@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada leksemalarning etimologiyasi asosida semantikasida yuz bergan torayishlar hamda o‘zgarishlar misollar asosida izohlab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Leksema, etimologiya, semantika.*

Abstract: *In this article, the narrowings anda changes in the semantics of lexemes based on their etymology are explained on the basis of examples.*

Keywords: *Lexemes, etymology, semantics.*

Leksemalar borasida bugungi kungacha bir qator mashhur o‘zbek hamda jahon olimlari, tilshunoslari tomonidan bir qator jiddiy ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Hamda bu ilmiy tadqiqotlar - u izlanishlar, maqolalar hanuz yaratilmoqda . Lekin aynan leksemalarning semantik, ya’ni borliqdagi anglatadigan ma’nosi borasida har qancha ilmiy izlanishlar olib borilmasin bu mavzu to‘liq o‘rganilmagan.. Negaki birgina so‘zning anglatadigan ma’nosi ma’lum bir taraqqiyot bosqichlaridan o‘tibgina mana shu iste’moldagi holatiga kelgan. Uning qadimgi manbalarda qanday atalgani, shevalarda qay tarzda talaffuz etilishi hanuzgacha sirliligicha qolmoqda. Xususan, aynan o‘zbek tilida so‘zlarning ishlatilish salmog‘i, ularning shevalardagi talaffuzi, o‘tmish va hozirgi ko‘rinishi boshqa tillarga nisbatan birmuncha yuqoriroq. O‘tmish va hozirgi ko‘rinish o‘rtasida davr o‘tishi bilan bo‘ladigan o‘zgarishlardan biri bu semantik torayishi va kengayish hodisasidir. Semantik torayishga ilmiy jihatdan izoh beradigan bo‘lsak, u so‘zning ma’nosi oldingi ma’nodan kamroq umumiy yoki inklyuziv bo‘lgan semantik o‘zgarishdir. Semantik kengayish esa leksemaning ma’no hajmida tor ma’nodan keng ma’noga qarab siljishining yuz berishidir. Bu haqida tilshunos olim Tom Makartur shunday degan: ’’Bunday mutaxassislik sekin va to‘liq bo‘lmasligi kerak ’’. Leksemalarning semantik xususiyatlari, semantik torayishi hamda semantik kengayishlari aks etgan bir qancha maqolalar chop etilgan. Xususan, “Til va adabiyot ta’limi’’ jurnalining 2015-yil 5-son nashri 37-betida Andijon davlat universiteti katta ilmiy xodim - izlanuvchisi Mehrinoz Aliyevaning “Milliy gazlama nomlarining leksik-semantik guruhlari” mavzusida maqolasi chop etilgan. Bundan tashqari, ’’Boshlang‘ich ta’lim’’ jurnalining 2010-yilgi sonida I. Davronovning ’’So‘z ma’nolari ustida ishlash’’ maqolasi nashrdan chiqqan. Quyidagi maqolalarda leksemalarning faqat bugungi kun nuqtayi nazardan tahlili berilgan bo‘lsa, ushbu maqola orqali leksemalarning etimologiyasi ham ochib berishga harakat qilindi. Yuqoridagifikrlarning isboti sifatida ayrim so‘zlarning

qadimgi va hozirgi ko‘rinishlarini keltirib o‘tsak. Bu borada tilshunos olim Mahmud Koshg‘ariyning qomusiy asari ’’Devonu lug‘otit-turk’’ asari yordam beradi. Mavzu mazmunini ochib berishda ushbu asar i tanlaganligining boisi esa asarning har tomonlama chuqur ensiklopedik asar ekanligi bilan asoslasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu asar 1072-yilda yozilgan, ammo asarga kiritilgan ma’lumotlar 15-20 yillar davomida to‘plangan. Bu haqida Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi quyidagilarni yozgan:’’Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim’’. Muallif devonni 2 ta asosiy bo‘limga bo‘lgan:1.Muqaddima 2.Lug‘at qismi.

Muqaddimada olim turk tilining ahamiyati va xususiyatlari, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi hamda vazifalari, asarning tuzilish tartibi, so‘zlarning tuzilishi va o‘zgarishi, turk tabaqalari va qabilalar haqida qisqacha izoh berib o‘tgan. Lug‘at bo‘limida esa Mahmud Koshg‘ariy o‘sha davrda iste’molda bo‘lgan barcha so‘zlarni qamrab olishga harakat qilgan. So‘zlarni yetarli darajada ilmiy, tarixiy, etimologik jihatdan to‘liq yoritgan. Lug‘at qismidagi leksemalarni kuzatish mobaynida ularning ikki guruhga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiq deb topdik :

I. 1. Achig‘ - 1) noz - ne’matlar ichida yashash, noz - ne’matlardan bahramand bo‘lish ; o‘zunni achig‘lig‘ tut - o‘zingni yaxshi tut! Noz - ne’matlardan bahramand bo‘l , oziqlan , demakdir. 2. Achig‘ - achchiq bo‘lgan har bir narsa. [1, B. 94] Bugungi kunda esa quyidagi ma’nolarni bildiradi: 1) ta’mi og‘iz tilni achitadigan , lovillatadigan. Achchiq garmdori. 2) nordon, tishni qamashtiradigan. Achchiq (donali) anor. 3) sezgi a’zolarga qattiq ta’sir qiladigan, o‘yuvchi. Achchiq gaz. 4) jazillatadigan , jonni achitadigan. Dalalarda kech kuzning achchiq shamoli esa boshladi. (Said Ahmad. “Qadrdon dalalar”) 5) kishiga qattiq tegadigan, ko‘ngilga ozor beradigan , qattiq, noxush. Achchiq istehzo. Ushbu leksemada semantikada torayish hodisasi yuz bergan.

II.Kechti so‘zining asarda uch xil ma’noda qo‘llanilishi aytilgan. 1)kechdi, o‘tdi - ko‘n kechti, ya’ni kun o‘tdi; 2) kechdi - yer suv kechti, ya’ni odam suv

kechdi; 3) kechdi, o‘tdi, o‘ldi - er kechti, ya’ni odam o‘ldi. [1, B. 11] Bugungi kunda esa quyidagicha izohlanadi: 1) biror narsa ustidan bosib o‘tmoq, yurmoq - qor kechmoq; 2) yuz bermoq, sodir bo‘lmoq - boyning uyida kechgan voqealardan xabardor edi; 3) o‘tmoq - ko‘nglidan qanday gaplar kechdi ekan; 4) afv etmoq, kechirmoq - bir qoshiq qonidan kechdim; 5)bahridan o‘tmoq - jon do‘sting jonidan kechsa ham, mol do‘sting molidan kechmas; 7) yuz o‘girmoq, munosabatni buzmoq - dadangdan kechasanmi??? Yuqoridagi leksema esa semantik kengayish holatiga misol bo‘la oladi. Ya’ni ’’ Devon’’da berilgan uchta ma’noga bugungi kunda yana bir qancha misollar qo‘shilgan.

III. Echko‘ - echki ; echko‘ - ichkilik, har bir ichiladigan narsa . [1, B . 149] Mana shu ikkala ma’nodan hozirda faqat bittasi qo‘llaniladi, ya’ni quvur shoxlilar oilasiga mansub, kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli sutemizuvchi hayvon ma’nosi. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda so‘z ma’nosining torayish hodisasi yuz bermoqda.

5. 1.Achindi - siyladi. Beg cherik achindi - bek askarlarni siyladi, ularga yedirdi, marhamat qildi. 2.Achindi - yechadiganday bo‘ldi. Er qojin achindi - odam qo‘ynini ochgandek tuyildi. Kasal odamning ust yopinchig‘ini yechishga yoki beshikda yotgan bola pardasini chishga ham bu so‘z qo‘llaniladi (achinur , achinmaq) . Bugungi kunda esa quyidagicha izohga ega : 1) achindi - rahm, kuyunish hissini tuymoq, kuyunmoq. Ibrohim otaning bu qadar tez o‘zgarib cho‘kib qolganiga Jumagul qattiq achindi (J. Sharipov). 2) afsus aralash ranjimoq, xafa bo‘lmoq, o‘kinmoq. Bu gapni bekor boshlab qo‘yibman deb achindi Qudrat (H. Nazir. ’’ So‘nmas chaqmoqlar ’’) .Ushbu so‘zlar orqali ularning oldin va hozir umuman boshqa - boshqa ma’nolar uchun ishlatilayotganini ko‘rish mumkin. Bu ham torayish, ham ma’nodagi kengayishga misol bo‘ladi.

Ko‘rib o‘tilgan misollarga qarab so‘zlar davrlar oshgani sayin talaffuzda yoki imlosida ma’lum bir o‘zgarishlarga uchrashini kuzatish mumkin. O‘zgarganlari ham butunlay shaklini yo‘qotmay, balki tilimizdagi shevalarda ma’lum darajada saqlanib qolgan.

Bundan tashqari asarni o‘rganish jarayonida shunday so‘zlarni uchratish mumkinki, u ham bo‘lsa qadimda boshqa ma’no uchun, hozirda esa boshqa ma’no

uchun ishlatiladigan so‘zlardir hamda bunday leksemalar semantik torayishni yaqqol ko‘rsatib beradi. Bunday leksemalar asarda talaygina ekan. Shulardan ayrimlariga to‘xtalib o‘tamiz:I. Kecha so‘zi ikki xil ma’noda qo‘llanilishi aytib o‘tilgan: 1) kech, kechqurun; 2) namat (o‘g‘uzcha). Bugungi kunda esa kecha so‘zi kech, kechqurun ma’nolari uchun ishlatiladi. Ya’ni davrlar o‘tib u namat ma’nosi uchun ishlatilmagan, aniqroq aytadigan bo‘lsak semantikasida o‘zgarish yuz bergan.(1, B. 238)

II. Bo‘ta so‘zining izohiga qaraylik. Asarda bu so‘z ko‘p, mo‘l ma’nolarida foydalanilgani aytilgan. Bo‘ta leksemasining etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, dastlab u har qanday turdagi hayvon bolasini anglatgan. Keyinchalik semantikada torayish sababidan faqat tuya bolasini bildira boshlagan. Asarda esa olim tuya bolasini anglatgan boshqa bir so‘zni keltirib o‘tgan. U ham bo‘lsa botuq so‘zidir. Bundan tashqari bo‘ta so‘zi yosh bolalarni bo‘taloqqa qiyoslab erkalatish uchun ham qo‘llaniladi. XI asr va bugungi kun semantikasidagi o‘zgarishlarni bo‘ta so‘zi orqali ham ko‘rib turibmiz.(1, B. 236)

V. Ol so‘zi quyidagi ma’nolarda ishlatilgan: 1) u (ishorat), ol er - u kishi ; 2) ot va fe’llarga qo‘shiladigan ta’kid qo‘shimchasi, ol meniň o‘g‘lim ol - u haqiqatan mening o‘g‘limdir. Ba’zi manbalarda ol so‘zi aldamoq so‘zidan olingan bo‘lib, o‘rta asrlarda Movarounnahrda dushmanni chalg‘itish maqsadida qo‘llanilgan hiyla, taktik usul deb ta’rif berilgan. Shunday usullardan biri to‘lg‘ama hisoblangan. Bugungi kun lug‘atlarida esa bu o‘z mutlaqo boshqa ma’noni anglatishini ko‘rishimiz mumkin. U ham bo‘lsa qizil, qirmizi ma’nolaridir. Tarixiy jarayonlar mobaynida so‘z semantikasidagi o‘zgarishlarni shu misol orqali ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin ekan.

VI. Keyingi leksemamiz aba so‘zi. Bu so‘zning ham o‘ziga yarasha bir qancha ma’nolari bor: 1) ona (o‘g‘uzcha) ; 2) (qalin a bilan) ayiq (qipchoqcha); 3) ota (tubutlar tilida) . Yana manbalarda keltirilishicha, bu ot qadimgi turkiy tildagi ’’yoshi katta bo‘l’’ ma’nosini anglatgan ab - fe’lidan - a qo‘shimchasi bilan asalgan. Bu so‘z hozirda ba’zi shevalarda shu shaklda, ayrimlarida esa apa shaklida qo‘llaniladi. Aynan Namangan shahar shevalarda aba so‘zi ona so‘zi

ma’nosida ishlatiladi. Bundan tashqari abaxon tarzida ham kuzatishimiz mumkin. Apa shaklida esa bir ota - onadan tug‘ilgan farzandlar ichida o‘zidan kichiklarga nisbatan katta qiz ma’nosida keladi. Bu ham ayrim shevalar, xususan, Buxoro, Navoiy shevalarida uchrab turadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, quyidagi leksemalarni o‘rganish natijasida semantik kengayish va torayish ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tilimizda ishlatilgan yoki ishlatilayotgan leksemalar aniq izohlari bilan aks ettirildi. Hamda ularning tilshunoslikdagi ahamiyati tushuntirib berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aliyeva, M. (2015) “Milliy gazlama nomlarining leksik - semantik guruhlari” Til va adabiyot ta’limi’’ jurnali 5- son.
2. Davronov, I. (2010) “So‘z ma’nolari ustida ishlash” ’’ Boshlang‘ich ta’lim ’’ jurnali.
3. Koshg‘ariy, M. (1963) ’’ Devoni lug‘otit - turk’’ . Toshkent. O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (2008) Toshkent. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat Ilmiy Nashriyoti.

“DEVONI LUG‘ATI TURK” VA BUXORO SHEVALARI

Hamzayeva Nilufar Hafizjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
4-kurs talabasi nilufarhamzayeva@gmail.com

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonul-lug‘oti turk”(DLT) asari va uning tilshunosligimizdagi o‘rni, 11-asr adabiyotidagi ahamiyati va bugungi kunda asarning olimlarimiz tomonidan o‘rganilishi, hamda bugungi kunda shevalarimizda qo‘llaniladigan so‘zlarning “Devon”dagi so‘zlar bilan bir xilliklari , lug‘atdagi so‘zlarning bugungi kunda Buxoro shevalarida aynan qo‘llanilishi hamda asarning ahamiyati haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** DLT, sheva , adabiy til, lug‘at , Buxoro,Mahmud Qoshg‘ariy.*

***Abstract**. In this article, Mahmud Kashghari's work "Devonul-lug‘oti turk" (DLT) and its place in our linguistics, its importance in the literature of the 11th century and the study of the work by our scientists today, as well as the similarity of the words used in our dialects today with the words in “Devon”, lug The actual*

use of the words in Bukhara dialects today and the importance of the work are discussed

***Keywords**. DLT, dialect, literary language, dictionary, Bukhara, Mahmud Kashgari.*

O‘zbek tilining rivoji bevosita adabiyotimizning rivoji bilan bog‘liqdir. Madaniyatimiz tarixiga nazar tashlar ekanmiz. 11-15- asrlar davomida bizning madaniyatimiz, tilimiz, adabiyotimiz birmuncha yuksalgan davr hisoblanadi. Chunki, aynan shu davrda adabiyotimiz va tilimizga oid ko‘plab mashhur asarlar yaratilgan va bir qator buyuk ajdodlarimiz shu davrlarda yashab ijod etishdi. O‘zbek tilining ilmiy asosi hisoblangan Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonul – lug‘oti turk” asari ham aynan 11-asrda Qoraxoniylar davlati gullab-yashnagan bir davrda yaratildi. Bugungi kunda ushbu asarning milliy adabiyotimizda tutgan o‘rni benihoya yuqori hisoblanadi. Ushbu asar nafaqat tilshunoslik balki, adabiyot, falklorshunoslik, shevashunoslik, geografiya, tarix fanlari uchun ham beqiyos o‘ringa egadir. Asarni o‘rgangan, talqin qilgan olimlar ushbu asarga qomusiy asar deya ta’rif berishadi. Chunki asar juda katta mavzu mundarijasini qamrab oladi. “Devonul –lug‘oti turk” asari bu “Turkiy so‘zlar devoni’’ demakdir. O‘z nomi bilan ham aytish mumkinki, ushbu asar 11- asrgacha yashagan xalqlarning o‘ziga xos bir til lug‘atidir. Ushbu kitob lug‘at asnosida yaratilgan bo‘lsa-da, lug‘atlarga namuna va misol sifatida o‘sha davrda kuylangan xalq qo‘shiq va she’rlari, laparlar, xalq orasida mashhur bo‘lgan maqol, matal, ibratli so‘z va hikoyatlar juda ko‘plab keltirilgan, bu esa, albatta, asarning qadr- qimmatini yanada yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu asar bir necha asrlardan buyon o‘rganilib, tadqiq etilib kelinmoqda. Asarning ilk nusxasi ham SSSR Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan ilk bora nashr etilgan. 1967-yilda esa asarning indeks lug‘ati nashrdan chiqadi. Va ko‘plab tilshunos olimlarimiz uchun ham bu lug‘at asosiy qo‘llanma sifatida haligacha xizmat qilmoqda. “Tilda xalq ruhi aks etadi” (F. Gumbold), tilde xalqning urf-odati, yashash tarsi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor-budi, bo‘y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borligini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmuni, mohiyatini idrok etish shu xalqning

tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir” (3. M. Mirtojiyev, “Til va madaniyat”, 82-bet)

Ushbu maqola ham aynan “Devonul –lug‘oti turk” asari haqida so‘z boradi. Va unda keltirilgan ayrim so‘zlarning bugungi tilimizda ham faol qo‘llanilishi va sheva so‘zlarida uchrashi, ma’nosi va talaffuzi haqida so‘z boradi. Va bu bir xilliklar Buxoro shevalari asosida tahlil etib, o‘rganildi. Kuzatishlarimizni “Devonul-lug‘oti turk”ning eng so‘nggi nashri asosida olib bordik va sahifalarini ko‘rsatdik. [4]. Ular quyidagicha guruhlandi:

1-guruhdagi so‘zlar: “Devonul-lug‘oti turk’’ va Buxoro shevasida hamda adabiy tilda bir xilda talaffuz qilinadigan va bir xilda tushuniladigan so‘zlar.

T.r	**“Devoni lug‘ati turk”da**	**O‘zbek adabiy tilida**	**Buxoro shevasida**
1.	Ilindi (DLT, 93-bet)	ilinmoq	ilindi
2.	Ildi (82-bet)	ildi	ildi
3.	Isidi (411)	isidi, qizidi	isidi
4.	Ichdi (80)	ichmoq, ichdi	ichdi
5.	Ishladi	ishlamoq	ishladi
6.	Ishlatdi	ishlatdi	ishlatdi
7.	Kelin	kelin	kelin
8.	Kepak	bug‘doy, un qilib tortilganda qoladigan qoldiq, kepak	bug‘doy, un qilib tortilganda qoladigan qoldiq, kepak
9.	Kirildi	kirildi- uyga kirildi	kirildi
10.	Kirish	kirmoq	kirish
11.	Kichik	kichik	kichik
12.	Kishnadi	kishnadi, adabiy tilda	kishnadi
13.	Kishi	inson, odam, bir kishi	kishi
14.	Ko‘z	ko‘z	ko‘z
15.	Ko‘k, osmon	ko‘k, osmon	Ko‘k, osmon
16.	Kepak (soch kepagi) (157)	kepak (soch kepagi)	Kepak (soch kepagi)
17.	Kepaklik(unning kepagi ko‘p bo‘lgan turi)	kepaklik	kepaklik
18.	Kerishdi (kerishmoq)	kerishdi	kerishdi
19.	Ko‘p (miqdor)	ko‘p	Ko‘p
20.	Eski	eski	eski
21.	Egri (shakl)	egri	egri

22.	Baliq (suv jonivori) (152)	baliq	baliq
23.	Erkin (holat)	erkin	erkin
24.	Ari (hasharot, 48)	ari	ari

2-guruhdagi so‘zlar. “Devonul lug‘oti turk” va Buxoro shevalarida qo‘llaniladigan so‘zlarning shakl jihatdan bir xilligi, ammo ma’no jihatidan har xilligi:

T.r	**“Devoni lug‘ati turk” da**	**Buxoro shevasida**
1.	Kesak (narsaning bo‘lagi)	Tuproqning to‘p bo‘lib qolishi
2.	Ko‘kladi (bog‘lamoq ma’nosida)	Buxoroning ayrim qishloq shevalarida kiyimga chit matosini chamalab tikish ma’nosida qo‘llanadi
3.	Ma (buyruq fe’li)	Ol ma’nosida
4.	Adash (do‘st, o‘rtoq)	Nomdosh, otdosh (bir xil ismli kishilar)
5.	Ajriq (bod kasalligi ma’nosida)	Yovvoyi o‘t
6.	Apa (ona)	Opa
7.	Ariq (ozg‘in)	Nahr (suv inshooti)

3- guruhdagi so‘zlar . “Devonul-lug‘oti turk” va Buxoro qishloq shevalari bilan bir xil, ammo o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladigan so‘zlar bilan bir tovushda farq qiladigan so‘zlar :

t.r	**“Devoni lug‘ati turk”da**	**Adabiy tilda**	**Buxoro shevalarida**
1.	Bag‘ladi (bog‘lamoq)	Bog‘lamoq	Bag‘ladi
2.	Bag‘landi (bog‘landi	Bog‘landi	Bag‘landi
3.	Bichog‘ (pichoq)	Pichoq	Bichog‘
4.	Inak (sigir)	Sigir	Inak
5.	Kirpi (tipratikan)	Tipratikan	Kirpi
6.	Kirpik (kiprik)	Kiprik	Kirpik

Xulosa qiladigan bo‘lsak, bizning tilimiz juda boy tildir. U o‘z ichiga ko‘plab shevalarni jamlaydi. Bu shevalarimiz har biri esa adabiy tilimizning har jihatdan boyishi uchun xizmat qiladi. “Devonul-lug‘oti turk” asari ham tilshunosligimizning asosiy qismini tashkil qilib, bizning turkiy tilimiz naqadar boy til ekanligini ko‘rsatib beruvchi manba vazifasini o‘taydi. Bu kichik tadqiqotimizdan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Mahmud Qoshg‘ariy ilk uyg‘onish davrida o‘lkamizdagi ko‘plab turkiy qavmlar tilini va shevalarini aniqlab, chog‘ishtrib chiqqan, bu bilan aloqa-aralashuv, kommumikatsiya jarayaonlariga katta yordam qilgan;

2. Shevalarning adabiy tilni boyitishi mumkinligiga ilmiy yo‘l ochgan;

3. Shevalarni o‘rganishni va shu tariqa muayyan millat, qavmlarning o‘ziga xos etno-sotsiologik holatini aniqroq tasavvur qilishga ko‘maklashgan. Milliy til imkoniyatlari, shevalarimiz tatqiqi XI asrdayoq Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan tatqiq etilgani, ularning imkoniyatlarini o‘rganilgani esa tahsinga sazavordir. Qiziqarli jihati shundaki, bugungi kunda ham aynan shu asarda aytib o‘tilgan sheva xususiyatlari shevalarimizda hali hanuz saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Девону луёатит-турк. (1960). 4 томлик. 1 том. Нашрга тайёрловчи С. Муталибов. Т.: Фан.– 500 б. 2, 3 том – 1963 ва 4 том 1967 йилда “Фан” нашриёти томонидан чоп этилган.
2. Кононов А.Н. (1972) Махмуд Кашгарский и его “Дивану лугат ит-турк”. СТ, , № I, с.3-17. Кононов А.Н. (1973) Изучение “Дивану лугат ит-турк” Махмуда Кашгарского в Советском Союзе. "СТ", , № I, с.3-9
3. Миртожиев М. Маҳмудов Н. (1992) “Тил ва маданият”. Т.: “O‘zbekiston”. - 110 б.
4. Қошғарий М. (2017). Девону луғати-т-турк. (Туркий сўзлар девони). Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Т. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.– 488 б.

TILNING KELIB CHIQISHIGA OID AYRIM NAZARIYALAR TAHLILI

Ibodullayeva Laylo Farruhjon qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot o‘qitish fakulteti
*2-kurs talabasi*ibodullayevalaylo2706@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilning qanday paydo bo‘lishi haqida diniy va dunyoviy nazariyalar, markscha ta’limot haqida keltirib o‘tilgan. Ibtidoiy insonning tovush organlarining shakllanish hodisasi keltirilgan. Tillarning tarmoqlarga bo‘linish hodisasi yoritilgan. Bugungi kungacha til tarixida mavjud bo‘lgan nazariyalar batafsil tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Til tarixi, anomalistlar, anologistlar, undovlar nazariyasi, tovushga taqlid nazariyasi, mehnat chaqiriqlari nazariyasi, ijtimoiy kelishuv nazariyasi, urug‘ jamoalari, markscha ta’limot, diniy qarash.*

***Abstract**. In this articl, religious and secular theories about the emergence of language are presented. The phenomenon of devision of languages into branches is highlighted. The theories existing in the history of languages until today are analyzed in detail.*

***Keywords:** History of language, anomalists, analogists, theory of exlamations, theory of labour calls, theory of social agreement, clan communities, Marxism, religious view.*

Insoniyat tomonidan doimiy ravishda foydalaniladigan, barchaga birdek xizmat qiladigan til uzoq asrlardan beri barhayot. Uning qanday, qachon va qayerda paydo bo‘lgani, dastlab nechta til bo‘lgani, kim birinchi marta foydalangani dunyo ilm-fani uchun noma’lumligicha qolmoqda. Ayrim olimlarning fikricha, til ,taxminan, besh yuz ming yillar ilgari paydo bo‘lgan (Irisqulov, 1992,11-bet).

Bugungi kungacha bizda mavjud bo‘lgan til tarixiga oid ma’lumotlarning barchasi yozuv paydo bo‘lgan davrdan keyingi tadqiqotlar mahsulidir. Biroq yozuv va til bir vaqtda paydo bo‘lgan degan tushuncha noto‘g‘ri, albatta. Negaki, odamzot yozishdan oldin so‘zlashishni o‘rgangan. Dastlabki ibtidoiy jamoa a’zolarida yetarlicha so‘zlashish qobiliyati bo‘lmagan. Yillar o‘tgan sayin turmush tarzining takomillashishi natijasida inson yon atrofidagi o‘zi singari odamlar bilan muloqot qilishga ehtiyoj sezgan. Dunyodagi barcha ixtirolarni ehtiyoj yuzaga keltirgani singari ayni shu ehtiyoj tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan.

Qadim Yunonistonda olimlar tilning qanday paydo bo‘lgani haqida uzoq yillar davomida bahs yuritishgan. Oxir-oqibat ular 2 xil farazni o‘rtaga tashlashgan. Demokrit va unga ergashgan bir guruh jamoa tildagi narsa nomi va narsa o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q, odamlar narsalarga o‘zlaricha nom berishgan deb hisoblashgan va o‘zlarini **anomalistlar** deb atashgan. Bu fikr ko‘proq hozirgi zamon tilining rivojlanishiga to‘g‘ri keladi. Chunki bugun yaratilayotgan barcha yangi narsalarga odamlar kelishgan holda nom berishmoqda. Platon boshchiligidagi boshqa jamoa esa nom va narsa o ‘rtasida aloqa bor deb aytishgan. Ular tarixda **anologistlar** deb nom olishgan (Xolmonova,2007, 6-7-bet).

Platon ilgari surgan g‘oya biroz nisbiydir. Agar rostan ham, nom va narsa o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lganda bugungi tillar soni 5000 dan oshib ketmagan bo‘lardi. Dunyoda bor-yo‘g‘i bir nechta til bo‘lardi, xolos. Fanda tilning kelib chiqishi haqida bir qancha nazariyalar mavjud :

Ovozga taqlid nazariyasi kishilarning tabiiy tovushlarga taqlidi asosida paydo bo‘lgan deb qaraladi. Bu nazariya Demokrit va Platon davridayoq yuzaga kelib, qushlarga, hayvonlarga, shamol va boshqa tabiiy tovushlarga taqlid asosida **chiy-chiy, kakku, shir-shir, taq-taq, shitir-shitir, jimir-jimir** kabi so‘zlar paydo bo‘lgan deyiladi. Biroq bu fikr o‘zini to‘laligicha oqlamaydi. Sababi tillarda taqlid asosida shakllangan so‘zlar soni cheklangan .

Mehnat chaqiriqlari nazariyasiga o‘ra, odamlar birgalikda mehnat qilayotganda beixtiyor baqirishlari, qiyqirishlari natijasida yuzaga kelgan deb asoslanadi. Bu nazariya XIX asrning 70-yillarida fransuz olimi L.Nuare tomonidan ishlab chiqiladi. Nemis olimi Karl Bryuxer ham ushbu fikrgani qo‘llab quvvatlaydi. Bir qarashda bu fikr boshqalariga qaraganda asosliroq. Negaki, bir nechta odamlar ov yoki boshqa mashg‘ulot bilan shug‘ullanayotganda, tabiiyki, so‘zlashishga ehtiyoj sezadi va turli-tuman ovozlar chiqarishadi. Biroq hozirgi zamon olimlarining aytishicha, bu qiyqiriqlar narsani nomlamaydi, tilning paydo bo‘lishiga asos bo‘la olmaydi.

Undovlar nazariyasi odamlar hayvonlardan, atrofdan eshitgan tovushlari orqali o‘zlarining hissiyotlarini ifodalashga harakat qilishgan. **Oh, uh, eh, dod, voy** kabi so‘zlar orqali. Bunday asosli so‘zlar ko‘pchilik tillarda uchrashi mumkin (masalan: **ohlamoq, dodlamoq , uflamoq, охать, ухать**). Bu farazni fransuz olimi Jan Jak Russo qo‘llab quvvatlagan. Lekin bu kabi so‘zlar soni nihoyatda cheklangan. Tildek murakkab hodisaning paydo bo‘lishi uchun bu nazariya ham o‘zini oqlamaydi.

Ijtimoiy kelishuv (XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan) nazariyasida insonlar atrofdagi narsa va buyumlarga o‘zlari kelishgan holda nom topishgan deb qaraladi. Afsuski, bu fikr ham o‘zini oqlamadi. Negaki, kelishish uchun ham so‘zlashuv, ya’ni til kerak. Tilning paydo bo‘lishi haqida yuqoridagi

nazariyalardan tashqari markscha ta'limot ham bor. Tilning paydo bo'lishi nemis olimlari K.Marks va F.Engels tomonidan batafsil asoslab beriladi. F.Engels o'zining "Maymunning odamga aylanish prosessida mehnatning roli" (Engels, 1959, 80-94-bet) asarida bundan ko'p ming yillar ilgari maymunning taraqqiy etgan nasli yashaganligini va ular mehnat faoliyati natijasida odamga aylanishi jarayoni haqida ma'lumot beradi. Odamsimon maymunlar jamoa bo'lib yashaydigan havvonlar bo'lishgan. Dastlab to'rtala oyoqda yurgan maymunlar yillar o'tgani sayin to'g'ri yurishni o'rgana boshlaydi. Oldinga tashlangan har bir qadam bu jonzotning bilim darajasini oshirib yuboradi va u tabiatni o'zi uchun kashf qiladi. Mehnat faoliyati natijasida ular bir-biriga gapirishga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj kerakli organni shakllantiradi, maymunning rivojlanmagan hiqildog'i sekinlik bilan, ammo to'xtovsiz shakllanadi. Maymunning ovoz apparatlari takomillashib, asarda tovushlarni to'laligicha tallafuz qila boshlaganligi haqida yoziladi. Bu ta'limotning boshqa nazariyalardan farqi shundaki, u tilning paydo bo'lishini odamning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda o'rganadi. Olim insonning kelib chiqishini maymunga bog'lagan. Bugungi tadqiqotlar ham odam bilan maymun o'rtasidagi bir qator o'xshash tomonlarni ko'rsatmoqda. Olimlarning ta'kidlashiga qaraganda, gorilla(66%) va shimpanze(91%) anotomik va fiziologik jihatdan odamga eng o'xshash bo'lgan maymun turidir (https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Odamsimon maymunlar). Vaholangki, yuqoridagi o'xshashliklar va olimning fikriga tayanib, odam maymunning takomili natijasida yuzaga kelgan degan qarorga kelsak, nega gorilla va shimpanze odamga aylanmagan, nega ular gapira olmaydi kabi savollar tug'ila boshlaydi. Bu savollar esa haligacha javobsiz. Balki, bu maymunlarning odamga aylanishga uzoq vaqt kerakdir.

Dunyo ilm-fanidan farqli o'laroq islom olamida narsalarga nom qo'yish Olloh tomonidan insonga o'rgatilgan deb qaraladi. Olloh taolo yer yuzidagi birinchi inson Odam (a.s)ni yaratgani va unga barcha narsaning nomini o'rgatgani haqida Baqara surasining 31-32-oyatlarida aytib o'tadi (*Va odamga ismlarning barchasini o'rgatdi, so'ngra ularni farishtalarga ko'rsatib: "Agar rostgo'ylardan*

*bo‘lsangiz, mana bularning ismlarini menga aytib beringchi”, -dedi. “O‘zing poksan! Bizda sen bildirgandan boshqa ilm yo‘q. Albatta, Sen o‘zing o‘ta ilmlisan, o‘ta hikmatlisan”,- dedilar. Baqara surasi 31-32- oyatlar). Bu dinga e’tiqod qiluvchilar Muqaddas Qur’oni karimda keltirilgan ushbu dalilga til paydo bo‘lishining asosiy omili sifatida qarashadi***.**

Tilning tarmoqlarga bo‘linish hodisasi ham ma’lum bir jarayonni o‘z ichiga oladi. Ibtidoiy tuzumdagi eng kichik uyushma urug‘ jamoasi bo‘lgan. Urug‘lar birlashib qabilani yuzaga keltirgan. Har bir qabila ma’lum bir tildan foydalangan. Bu haqda F.Engels shunday deydi: “Qabilaning ayrim o‘ziga xos dialekti(shevasi) bor. Haqiqatda qabila demak – sheva demakdir” (Engels,1959,8-94-bet). Odamlar soni ko‘paygach, qabilalar ham kengaygan. Boshqa qabilalar bilan borgan sari masofa uzoqlashib boravergan. Bu ularning tillarida ham o‘z ifodasini topgan. Barchaga umumiy bo‘lgan til bora-bora dialektlarga, keyinchalik esa alohida tilga ajralib ketgan. Shu tariqa yer yuzida turli tillar paydo bo‘lgan.

Til yaratilishiga oid bir qancha diniy va dunyoviy farazlarning bo‘lishiga qaramasdan uning qachon va qanday paydo bo‘lgani fanda ilmiy jihatdan yetarlicha asoslanmagan. Yuqorida keltirib o‘tilgan nazariyalar tilning paydo bo‘lishi uchun asos bo‘la olmasada, uning boyishi va rivojlanishi uchun munosib hissa qo‘shgan deyishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Engels.F. (1959).Maymunning odamga aylanish prodsessida mehnatning roli. Toshkent

2.Irisqulov, M.(1992).Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi.Toshkent:O‘qituvchi

3.Rasulov, R.(2007).Tilning kelib chiqishi. Toshkent:2-qism

4.Xolmonova, Z.(2007).Tillarning shakllanishi va taraqqiy qilishi.Toshkent:

5.Sharipova, O‘.(2006).Tillarning o‘zaro ta’siri va rivojlanish qonuniyatlari. Toshkent

6. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Odamsimon_maymunlar

SURXONDARYO SHEVASIDAGI RAVISH TURKUMIGA MANSUB AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLAR IZOHI (Qiziltom qishlog‘i shevasi misolida)

Mahammadiyev Erkin Yerali o‘g‘li,
ToshDO‘TAU 2- kurstalabasi
“Lingvist’’ to‘garagi a’zosi
mahammadiyeverkin@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Yangiobod mahallasi Qiziltom qishlog‘i shevasidagi ravish so‘z turkumiga oid ayrim dialektal so‘zlarning leksik-semantik va morfologik xususiyatlari haqida ma’lumot keltirilgan. Unda ravish so‘z turkumining holat, payt va miqdor-daraja kabi ma’no turlarining shevadagi shakllari hamda ularning tahlillari haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar:*Dialektologiya, sheva, dialektal so‘z, dialektal ma’no, ravish so‘z turkumi, lahja, leksika, dialektal sinonim.*

Abstract. *The following article provides information on the explanation of some dialectal words related to the ravish word group in the dialect of "Kyziltom" village, Yangiabad neighborhood, Kyziriq district, Surkhandarya region. It talks about the dialectal forms of the meaning types of the idiomatic word group, such as case, tense, and quantity-level.*

Keywords*: Dialectology, dialect, dialectal word, dialectal meaning, phraseology, dialect, lexicon;*

Tilshunoslik – bir-biriga yaqin bo‘lgan hamda bir- biriga bog‘lanib ketgan bir necha sohalar majmuidan iborat. Dialektologiya tilshunoslikning alohida bir sohasi bo‘lib, u mavjud mahalliy lahja va shevalarni amaliy jihatdan o‘rganadi. Biz o‘rganmoqchi bo‘lgan Qiziltom qishlog‘i shevasi qipchoq lahjasiga mansub bo‘lgan shevadir. Ushbu shevada qo‘llaniladigan dialektal so‘zlar qipchoq lahjasiga kiruvchi ayrim shevalarda ham uchrashi mumkin. Ma’lumki, shevalarda turli turkumlarga xos dialektizmlar qo‘llanadi. (Enazarov, 2012, 28-bet).O‘rganilgan so‘zlar ravish so‘z turkumining miqdor-daraja, payt va holat kabi ma’no turlariga mansub.

“Sheva – biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi. **Dialekt** termini dialektologik

adabiyotlarda ko‘pincha lahja ma’nosida, ba’zan sheva ma’nosida ham qo‘llanadi”. (Reshetov, 1978, 6-bet). Lahja, sheva va dialekt terminlari dialektologiya fanining asosiy obyektlari sanaladi. Bugungi kunda shevalar bo‘yicha qator tadqiqotchilar ilmiy ishlar olib borishayotgan bo‘lsa, Surxondaryo shevalarini Saidmuso Rahimov guruhlarga bo‘lib o‘rgangan. (Rahimov, S. 1985).

Qiziltom qishlog‘i shevasida qo‘llanuvchi dialektal so‘zlar o‘ziga xos semantik va leksik xususiyatlarga ega. Masalan, “alamjog‘on”– dialektal so‘zi ravish so‘z turkumining ma’no turlaridan miqdor-daraja ravishiga mansub bo‘lib, "ko‘p", "ancha (gina)” degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Bu so‘zni, asosan, qishloqning yoshi ulug‘ nuroniylari nutqida ko‘p uchratish mumkin. Misol tariqasida, “*daraxtdan mevalarni **alamjog‘on** teribdi”* va boshq. Sintaktik jihatdan tahlil qilganda miqdor-daraja holi, ega va kesim vazifalarida keladi. Bu so‘z tarkibiga ko‘ra tub, tuzilishiga ko‘ra sodda so‘z hisoblanadi. Keyingisi, ravishning ma’no turlaridan payt ravishiga kiruvchi “onson” so‘zi bo‘lib, “keyin”, “so‘ng” degan ma’nolarda ishlatiladi. Bu so‘zni ko‘proq ertak, rivoyat aytuvchi buvilarimiz tilida uchratamiz. Masalan, “*.uch aka-uka daryodan suzib o‘tdilar, **onson** katta bir tog‘ni ko‘rdilar”, “**onson** So‘fi Olloyor ilonlar boshlig‘iga xat yuboradi...”* kabi. Ushbu so‘z gapda payt holi vazifasini bajarib keladi. Bugungi kunda *tez-tez* so‘zidan ko‘p foydalanamiz. Bu so‘zni yakka holda ham, takror holda ham ishlatamiz. Lekin bu so‘zning shevadagi ko‘rinishi faqat takror holda qo‘llanadi. Ravish turkumining ma’no turlaridan holat ravishlariga mansub “tez-tez” so‘zi shevada “bilay-bilay” shaklida uchraydi. Yuqorida aytganimizdek, “bilay-bilay” so‘zini yakka holda qo‘llasak ma’no chalkashliklari kelib chiqadi. Shuning uchun, sheva vakillari bu so‘zni yaxlit holda qo‘llashadi. Misol uchun, ishni tez-tez tugallamoq / ishni **bilay-bilay** tugallamoq. Agarda bu so‘zni ham sintaktik tahlilga olsak ravish holi vazifasida keladi. Ushbu so‘z tuzilishiga ko‘ra takror so‘zlar guruhiga kiradi. Navbatdagi so‘z ravish turkumining payt ravishi ma’no turiga kiruvchi shevada “oyanda” shaklida uchraydigan so‘z bo‘lib, u “kelgusi yil”, “bir yil keyin” ma’nolarida qo‘llaniladi. Masalan:*“Balki, **oyandaga** hosilimiz yaxshi bo‘lar...”* kabi. Gapda payt holi vazifasida keladi. Ko‘pgina so‘zlarda sinonimlik

holatini ko‘rganimiz kabi ma’lum bir so‘zning shevadagi shaklining ham sinonimlari mavjudligiga duch kelamiz. Masalan, ravishning ma’no turlaridan miqdor-daraja ravishiga kiruvchi “oz(gina)” so‘zining shevadagi shakli deb “pichchi” so‘zini olsak, bu so‘zga sinonim sifatida “gartak” so‘zini ham uchratishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, “pichchi” va “gartak” so‘zlari dialektal sinonimlardir. “*...gartak suv olib keling/ /pichchi suv olib keling” va adabiy tilda ozroq suv olib keling* kabi.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, qipchoq lahjasi vakillari ko‘proq “j” tovushidan foydalanishadi. Shu jumladan, “jorti” so‘zi “butun emas”, “yarim” degan ma’noni anglatishi va boshqa lahja tarkibidagi ayrim shevalarda “yorti” shaklida ham uchrashi mumkin. Shu o‘rinda, qishloq keksalari tomonidan aytilgan “jotarga jorti non” iborasini keltirib o‘tish mumkin. Bu bilan uxlashga yotishdan oldin ko‘p yema, yarimta non ham kifoya demoqchi. “Jorti” so‘zi miqdor-daraja ravishiga mansub so‘zning shevadagi ko‘rinishidir. Bilamizki, shevaga xos so‘zlarning anchagina qismini vaqtga oid so‘zlar tashkil qiladi. Vaqtga oid dialektal so‘zlar ichida ham darajalanish holatiga duch kelamiz. Ushbu gapimizga isbot sifatida “dovna” va “boyna” so‘zlarini ko‘rsatishimiz mumkin. “Boyna” so‘zi adabiy tildagi boya so‘zining shevadagi shaklidir. “Dovna” va “boyna” so‘zlarining ikkisi ham payt ravishiga kiruvchi so‘zlar hisoblanadi. “Dovna” so‘zi rus tilidagi “**давно”** so‘zining fonetik o‘zgarishga uchragan shevadagi variantidir. Bu so‘z “ancha vaqt oldin” degan ma’noni bildirsa, “boyna” esa “birozgina oldin” ma’nosini beruvchi so‘zdir. Masalan, *men bu ishni **dovna** tugatgandim –men bu ishni ancha payt oldin tugatganman//bu ishni **boyna** tugatdim– bu ishni hozirgina tugatdim* kabi. Ikki so‘z bir-biridan ma’no jihatidan farq qiladi. Ko‘rinib turganidek, payt ravishlarining o‘tgan zamon va kelasi zamonga oid dialektal so‘zlari katta miqdorni tashkil qiladi. Ayni vaqtni, hozirgi davrni anglatuvchi shevaga xos so‘zlar mavjud emasmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy, albatta. “Obi-tobi” so‘zi ayrim asarlarda, ya’ni badiiy uslubda “maromida” ma’nosida qo‘llangan. Shevada bu so‘z “ayni vaqti” degan ma’noni anglatadi. Ammo bu so‘z bugungi kunda shevada ham iste’moldan chiqib ketayotgan so‘zlar qatoriga tushib

qolgan. Hozirda Qiziltom qishlog‘ida yashayotgan ko‘pgina yoshlar ham ushbu so‘zni tushunmasligi insonni tashvishga soladigan holat emas. Chunki, bu so‘zni ko‘pni ko‘rgan, yoshi saksonlar chamasidagi bobolar nutqidan yozib olishga muvaffaq bo‘lganmiz. Ular bilan suhbat jarayonida *yer chopishning obi-tobi"*, *"tarvuz ekishning obi-tobi'* kabi birikmalardan ushbu so‘zning payt ravishi ekanligini bilib olishimiz mumkin. Obi-tobi tuzilishiga ko‘ra juft, tarkibiga ko‘ra tub so‘z hisoblanadi. Shu va shunga o‘xshash so‘zlar yo‘qolib borayotganligining oldini olish siz-u bizning asosiy vazifamizdir.

Shevalar o‘zbek tili leksikasining boyishida juda katta ahamiyat kasb etishi barchamizga ma’lum. Mamlakatimizning turli hududlaridagi shevalar o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishlari hisoblanadi. Shevalarning adabiy til uchun qilayotgan xizmati quyidagi fikrlarda o‘z isbotini topgan: “Shevalar o‘zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida adabiy tilning shakllanishi uchun material asos bo‘lib xizmat qiladi. Hozirga qadar milliy tillar bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar u yoki bu darajada shevalar ma’lumotlarisiz amalga oshirilmaydi”. (Ashirboyev, 2021, 8).

Shu ma’noda shevada turkumga oid so‘zlarning qo‘llanishi va ularning grammatik xususiyatlarini o‘rganish, albatta, filologik ahamiyat kasb etadi. Shevadagi aynan ravish so‘z turkumining o‘rganilish sababi shundaki, bu turkum sheva vakillari so‘zlashuv nutqida eng faol qo‘llanadigan turkumdir.

Dialektal so‘zlar haqida axborot beruvchilar:

1. Aliqulova Mengtosh momo. 66 yoshda. Hozirda nafaqada.
2. 61 yoshli Nazarov Tursun bobo – “Vatanparvar” tashkilotining faxriylaridan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Enazarov, T. (2012) O‘zbek dialektalogiyasi (o‘quv qo‘llanma). Toshkent: Universitet.

2. Reshetev, V. (1978) O‘zbek dialektalogiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.

3. Rahimov, S. (1985) O‘zbek tili Surxondaryo shevalari (fonetika) (leksika). Toshkent: Fan.

4. Ashirboyev, S. (2021) O‘zbek dialektalogiyasi. Toshkent: Nodirabegim.

BUXORO VILOYATI DIALEKTINING O‘ZIGA XOS FONETIK, LEKSIK, MORFOLOGIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Mahmudova Jasmina Muxtor qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti, 2-kurs
jasminmakhmudova94@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shevaning bugungi kundagi ahamiyati, uning adabiy tilni boyitishdagi o‘rni hamda dialektologiya sohasida tadqiqot olib borgan olimlarning izlanishlari xususida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Buxoro viloyati shevasining ayrim fonetik, leksik, morfologik hamda sintaktik xususiyatlari to‘g‘risida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, sheva, lahja, dialekt, dialektologiya, fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalar.*

Abstract. *This article talks about the importance of the dialect today, its role in enriching the literary language, and the research of scientists who have conducted research in the field of dialectology. Also, some phonetic, lexical, morphological and syntactic features of the dialect of Bukhara region are discussed.*

Keywords: *Language, dialect, dialect, dialect, dialectology, phonetic, lexical, morphological, syntactic phenomena.*

Hammamizga ma’lumki, insonlar uchun aloqa vositasi hisoblangan til jamiyatdagi shaxslarning izlanishlari evaziga o‘zgarib, rivojlanib boradi. Tilning paydo bo‘lishi va dastlabki taraqqiyoti haqidagi olimlarning fikrlari turlicha bo‘lganligi bois bu masala xususida hanuzgacha bir to‘xtamga kelinmagan. Vaqt o‘tgan sari tillar ham rivojlanib, boyib boradi. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, bugungi kunda yer yuzida tillarning 7000 dan ortiq turlari tarqalgan. Bu tillarning barchasi o‘zining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari jihatidan bir-biridan keskin farq qiladi. Boshqa turkiy tillar singari o‘zbek tilida ham ko‘plab sheva turlari mavjud.

Tilning boyishiga xizmat qiluvchi omillardan biri sifatida shevalar alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbek shevalarini o‘rganish bilan “O‘zbek

dealektologiyasi” shug‘ullanadi. Dialektologiya so‘zi grek tilidan olingan bo‘lib, sheva, dealekt, lahjalar to‘g‘risidagi bilim degan ma'noni bildiradi. O‘zbek dealektologiyasi o‘zbek shevalarining fonetik, leksik, va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegarasini o‘rganadi.

Shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan yoki ma'lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Bu jihatdan dialektologiya til tarixini o‘rganish uchun ham ahamiyatlidir (Reshetov, Shoabdurahmonov, 1978, 5-bet).Dialektologiya fanining obyekti mahalliy dealekt, lahja, shevalar bo‘lib, maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat:

1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish;
2) milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rnini va shu milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash;
3) shevalarning o‘zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy tilga va qardosh tillarga bo‘lgan munosabatini aniqlash;
4) o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash;
5) umumiy o‘xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum territoriyalarda tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya qilish (Reshetov, Shoabdurahmonov, 1978, 6-bet).

O‘zbek shevalarining o‘rganilishi uzoq davrlarni o‘z ichiga oladi. Olib borilgan tadqiqotlarning mohiyati va qay darajada yoritilganligiga qarab ularni 5ta davrga ajratish mumkin. Dastlabki davr deyarli barcha turkiy tillar uchun umumiydir. Shu bilan birga o‘zbek tilining ham qadimgi davri hisoblanadi. Bu davrda til strukturasining barcha tomonlari leksikasini o‘rganish markazga olingan, ya'ni urug‘ va qabilalar tilning fonetikasi, morfologiyasi, lug‘at tuzish, leksikasini sharhlash jarayonida izohlanadi. Bunga misol qilib “Devonu lug‘atit turk” asarini keltirish mumkin. Keyingi ikkinchi davr esa Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari yordamida tavsiflanadi. Uchinchi davrda esa oldingi davrlarga

nisbatan ko‘proq tadqiqotlar olib boriladi. Jumladan, M.Terentev, A.V.Starchevskiy, Z.A.Alekseev, V.Nalivkin kabi rus turkologlarining asarlarida o‘zbek shevalariga doir boy ma’lumotlar jamlangan. To‘rtinchi davrga kelib o‘zbek shevalarini o‘rganish qizg‘in tus oldi. Professor Y.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov kabi mashhur olimlar o‘zbek tili shevalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini tadqiq etishgan. So‘nggi beshinchi davrda esa o‘zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi, keng ko‘lamda o‘rganildi hamda o‘zbek dialektologlarning yangi avlodi paydo bo‘ldi (Ashirboyev, 2021, 112-bet).

Yurtimiz jahon miqyosi bo‘yicha unchalik keng bo‘lmasa-da Markaziy Osiyoda Qozog‘istondan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi keng hududli va shu bilan birga 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan ko‘p millatli mamlakatdir. Albatta, bu xalqlarning barchasining ma’naviyati, madaniyati, urf-odati bir-biridan farqlanib turganidek tili, shevasi ham ajralib turadi. Bu xalqlarning shevasini hududi bilan birga o‘rgangan bir qancha olimlarimiz bor. Nafaqat, O‘zbekiston hududidagi, balki, qo‘shni davlatlarimiz hududidagi o‘zbek shevalari ham alohida o‘rganilgan.

Jumladan, Q.Muhammadjonov qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarini bir-biriga qiyoslagan holda tahlil qilib o‘rgangan. U, asosan, Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarining morfologik xususiyatlarini, bir-biriga o‘zaro ta’siri va qardosh qozoq tiliga munosabatini yoritib bergan (Muhammadjonov, 1983, 7-8betlar).

Keng hududga ega bo‘lgan va aholisining ayrim qismlari, hatto, o‘zlarining qaysi urug‘ga mansub ekanliklarini aniq ayta olmaydigan Qashqadaryo vohasining shevalarini o‘rganish bilan bir qancha olimlar shug‘ullanganlar. Jumladan, tilshunosdialektologlardan professor G‘ozi Olim Yunusov, E.D.Polivanov, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ tumanlarini va kenagas, saroy, barlos kabi urug‘ nomlarini tilga olganlar. Professor Sobirjon Ibrohimov esa Shahrisabz va Chiroqchi tumani til xususiyatlariga oid materiallar to‘plagan. Yuqori Qashqadaryo hududining asosan shahar tipi shevasi bilan Boltaboy Jo‘rayev shug‘ullangan (Jo‘rayev, 1969, 3-5betlar).

Toli Yo‘ldoshev Tojikistondagi o‘zbek shevalari morfologiyasining fe’l turkumini o‘zbek adabiy tiliga va o‘rni bilan boshqa o‘zbek shevalariga, shuningdek, ba’zi turkiy tillar va ularning dialektlariga, ayrim qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tiliga qiyoslab o‘rgangan. Olim mazkur ishida tekshirish obyekti bo‘lgan qarluq va qipchoq guruhi shevalaridagi shaxs-son, mayl, zamon kategoriyalari, shuningdek, fe’l darajalari hamda sifatdosh, ravishdoshlarning qo‘llanishi va semantik xususiyatlarini yoritgan (Yo‘ldoshev, 1986, 11-bet).

Shu o‘rinda, men ham o‘zim istiqomat qilayotgan Buxoro viloyati sheva birliklarini yoritishni lozim deb bildim. Aslida shevalar to‘g‘risidagi fan yosh-avlodni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash maqsadida ham o‘qitiladi. Sababi har bir shaxs, garchand, rasmiy idoralarda adabiy tilda so‘zlasa ham, o‘z fikrlarini erkin bayon etishda o‘z shevasiga tayanadi. O‘zbek shevalarini ilmiy jihatdan o‘rganishni, asosan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan V.Nalivkin, M.Nalivkina, A.Starchevskiy, A.Vishnegorskiy, N.Ostroumov, T.Qiyosbekovlar dastlab amalga oshirganlar. Ular o‘zbek tili lug‘ati hamda qisman fonetik va morfologik xususiyatlarini yoritganlar. Ammo ularni sof dialektal ishlar ro‘yxatiga kiritish qiyin. A.Jo‘rayev, T.Yo‘ldoshev, Y.Ibrohimov, M.Abdiyev, N.Murodova kabi mustaqillik yillarida yetishib chiqqan shevashunoslar dialekt va shevalarning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, shevalarning areal tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Shevalar fonetikasida, umuman, fonetikada, asosan, nutq tovushlari, ya’ni fonemalar o‘rganiladi. Ana shu shevalardagi nutq tovushlari hamda fonemalarni, ularning variantlarini o‘rganishda va yozuvda ifodalashda ishoralar sistemasi, ya’ni transkripsiya xizmat qiladi. Professor Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiya o‘zbek shevalarini yozib olishda amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Y.D.Polivanov, Sh.Shoabdurahmonov, N.Z.Hojiyeva, G‘ozi Olim Yunusov kabi shevashunoslar o‘zbek shevasi fonetikasidagi “a” tovushining paydo bo‘lishi haqida fikr bildirib o‘tganlar. F.Abdullayev, B.Jo‘rayev, S.Raximov, A.Ishayev, X.Jo‘rayev, O.Madrahimov, Q.Muhammadjonov, E.Sheraliyev, M.Mirzayev, V.Egamov, E.O‘rozov kabi olimlarning o‘z tadqiqotlariga ilova qilgan lug‘atlari o‘zbek

shevalari leksekografiyasi rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Morfologik xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek shevalari adabiy tildan farqlanadi. Bu farqlanish turlanish, tuslanish, yasalish va shu kabilarda namoyon bo‘ladi. A.G‘.G‘ulomov o‘z asarida turlanish xususida so‘z yuritib kelishiklarni tasniflagan. T.Yo‘ldoshev esa Tojikiston Respublikasidagi janubiy o‘zbek shevalaridagi hozirgi zamon davom fe’lida o‘zigaxos tuslanishni qayd qilib o‘tgan. Bundan tashqari, shevalar morfologiyasini yoritishda o‘z asarlari bilan salmoqli hissa qo‘shgan F.Abdullayev, A.Y.Aliyev, Sh.A.Afzalov, Y.G.Gulyamov va shu kabilarning o‘rni beqiyos (Ashirboyev, 2021, 33-,82-,121-betlar).

Buxoro viloyati shevasini o‘rganish bilan bir qancha olimlar shug‘ullanganlar. Jumladan, B.To‘ychiboyev va B.Hasanov o‘z asarida Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo shahar tip shevalarida –da kelishik qo‘shimchasining adabiy til ta’sirida to‘siqlarga uchramay kirib borish yo‘li bilan tarqalganini aytib o‘tgan. I.I.Zarubin shevalarni 4 guruhga ajratib tasniflar ekan, to‘rtinchi guruhga SamarqandBuxoro shevalarini kiritadi. Y.D.Polivanov Samarqand, Buxoro, Xo‘jand va O‘ratepa shevalarini tasniflar ekan, ularni tojik vokalizmi bor shevalar sirasiga kiritgan. G‘ozi Olim Yunusov Buxoro shevasini turk-barlos lahjasiga kiritadi. Professor Reshetov esa Samarqand-Buxoro dialektini qorluq-chigiluyg‘ur lahjasining qarshi guruhiga kiritadi (To‘ychiboyev, B.Hasanov, 2004,31-36betlar).

O‘zbek shevalarining murakkab tarkiblarga ajralishi, avvalo, bu ularning fonetikasi bilan bog‘liq. Chunki yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidagi shevaga oid so‘zlarining ko‘pchiligini fonetik hodisaga uchragan so‘zlar tashkil etadi. Shu sababdan ushbu maqolada Buxoro viloyatidagi sheva birliklarining fonetik xususiyatlari yoritilmoqda. Xalq o‘z iste’molidagi so‘zlarni o‘z nutqiga moslagan holda fonetik o‘zgarishga uchratadi. Ya’ni nutq jarayonida so‘zlarni qulay talaffuz etish uchun tovushlarning bir-biriga o‘zaro ta’sir etishi fonetik hodisa hisoblanadi. Nutq qulayligiga erishish uchun adabiy tildagi so‘zlarni fonetik hodisaga uchratib tallaffuz qilinganda, o‘sha so‘zlar shevaga ko‘chadi, ma’lum bir hududning aholisi qo‘llaydigan sheva so‘ziga

aylanadi. Maqola mavzusidan kelib chiqqan holda xuddi shunday adabiy tildagi so‘zlarni fonetik hodisaga uchratib shevaga ko‘chgan holatlarini Buxoro viloyati dialekti misolida ko‘rib chiqamiz.

Buxoro hududida o-lashish kam tarqalgan. Deyarli o-ashish uchramaydi. Ya’ni aka-āka tarzida emas, o‘z holicha talaffuz etiladi. a-lashish esa uchraydi, deyarli barcha shahar-u qishloqlarda keng tarqalgan. Masalan, opa-äpä, olma-älmä, oyoq-äyoq, qovun-qävun, qozon-qäzon kabi so‘zlarda bu holat namoyon bo‘ladi. Buxoro hududida birinchi darajali cho‘ziqlik uchramaydi. Ammo ikkinchi darajali cho‘ziqlik-ultra cho‘ziqlik qishloq joylarida yoki keksalar nutqida uchraydi. Masalan, zahar-zä:r, shahar-šä:r, qilma-qï:mä, kelma-ke:mä tarzida talaffuz etiladi. Singarmonizmda birinchi bo‘g‘inda old qator unlilar kelsa, ikkinchi va uchinchi bo‘g‘inlarda ham old qator unlilar ishtirok etadi. Hozirgi kunda tilimizda labial singarmonizm deyarli uchramaydi. Kontast juft unlilar ham mavjud. Shuning uchun singarmonizm saqlangan. Masalan, ot-āt, bol-bāl va hokazo. Qisqa va cho‘ziq unlilarning mavjudligi natijasida ma’no farqlanadi. Masalan, o‘t so‘zini oladigan bo‘lsak, o‘ qisqa talaffuz qilinsa o‘simlik ma’nosida, cho‘ziqroq talaffuz qilinganda esa masofani bosib o‘tish haqidagi ma’no anglashiladi. Yoki olma so‘zida ham bu holat mavjud. Ya’niki o qisqa talaffuz qilinganda mevani, cho‘ziq talaffuz qilinganda esa fe’l turkumiga oid bo‘lgan ish-harakatni ifodalaydi. Tā:za – tāza so‘zining talaffuzi ham farqlanadi. Bunda o cho‘ziq talaffuz qilinganda rosa ma’nosini bersa, qisqa talaffuz qilinganda ozoda ma’nosini bildiradi. So‘z boshida o‘rta tor va o‘rta keng unlilarning diftonglashuvi jarayoni ham uchraydi. Bu hodisa o‘rta- ʷorta, echki-ʲeški, o‘l- ʷöl, eshik- ʲeshik, ikki- ʲeki kabi so‘zlarda kuzatiladi. Nutqda qo‘llangan ayrim so‘zlarda unli tovushlar almashinuvi uchraydi. Masalan, endi-indï, ergash-irgäsh, ikki-ekkï, uy-öy, ko‘ylak-köylak, sakson-saksan. Undoshlar orasida ham bu holat kuzatiladi: tanbur-tambür, shanba-shämbä, taroq-tärāg‘, o‘roq- örāg‘, bayroq-bayrāg‘, kitob-kïtāp, maqtov-maxtāv, maqsad-maxsad, to‘qson-töxsän va hokazo.

To‘liq progressiv assimilyatsiya. Talaffuzda oldingi tovush ta’sirida keyingi tovushning o‘zgarishi. Masalan, keldi-kellï, bo‘ldi-böllï, oldi-āllï, ketdi-kettï.

To‘liq regressiv assimilyatsiya. Talaffuzda keying tovush ta’sirida oldingi tovushning o‘zgarishi. Masalan, tuzsiz-tüssiz, yozsin-yāssin, karnay-kannay, nonvoy-nāvvāy, mahkam-makkäm.

Metateza hodisasi. Talaffuzda undosh tovushlarning o‘rin almashishi: Aylanmoq-aynalmoq, shifokor-šikofor, daryo-dayro, yomg‘ir-yog‘mïr, tebratmoq-terbätmoq, tuproq-türpoq, to‘g‘ramoq-törg‘amoq.

Dissimilyatsiya. Ikki o‘xshash tovushning noo‘xshash bo‘lib qolishi. Masalan, birorta-bïronta, zarar-zalär.

Assimilyatsiya. Ketdi-kettï, yozsin-yossïn, tepdi-teptï.

Singarmonizm. Mudir-müdür, ko‘ngil-köngül.

Sinerezis. Muallim-ma:lim, saodat-so:dat, jamoat-jamo:t, muammo-mommo.

Apakopa. Go‘sht-gösh, do‘st-dös, daraxt-darax.

Sinkopa. Traktor-traktr, rektor-rektr, direktor-direktr.

So‘z o‘zagida ayrim tovushlarning takror kelishi uchraydi: tepa-teppa, ana-anna, mana-manna, yasha-yašša, eshak-eššak.

Fonetik tuzilishi o‘zgarib ketgan dialektal so‘zlarga misol sifatida mushuk-pïšak, echki-gečči, tarvuz-tarbüz, hozir-hāz, oldi-āllï, keldi-kellï, men-män, yo‘q-yāq, kel-ke, yeyman-yeyämän, tabrik-täbrig kabi so‘zlarni sanab o‘tish mumkin.

Buxoro hududi dialektining morfologik xususiyatlari xususida so‘z yuritadigan bo‘lsak, kelishik shakllarining qo‘llanish holatlarida ham turli farqlar kuzatiladi. Sheva vakillari nutqida qaratqich kelishigi deyarli qo‘llanmaydi. Qaratqich kelishigi o‘rnida tushum kelishigi qo‘llanadi. Masalan, ukamning kitobi o‘rnida ükämni kïtobi singari. Ba’zi shaxslar nutqida esa ükämi kitobi tarzida ham qo‘llanilishi kuzatiladi. Tushum kelishigi esa odatiy holda, ya’ni -ni tarzida qo‘llanadi. Masalan, ešikni āč. Ba’zi hududlarda esa qaratqich kelishigi singari -i tarzida qo‘llanilishi ham mumkin: ešigi āč. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsam, Buxoro hududida qaratqich va tushum kelishigi deyarli farqlanmaydi. Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi o‘zaro ma’nodoshlik hosil qiladi: bu yerga o‘tiring- bü jerdä ötïring. So‘z oxiri qaysi harf bilan tugashiga qarab jo‘nalish kelishigi qo‘shiladi. Q bilan tugasa -qa tarzida, k bilan tugasa -ka tarzida. Yana ba’zi hududlarimizda -a tarzida

ham ifodalanadi: uyga bor-üja bār, ukamga o‘xshaysan-ükämä o‘xshaysan kabi. O‘rin-payt kelishigi o‘z holicha, ya’ni -da shaklida ishlatiladi, uning hech qanaqa varianti mavjud emas. Chiqish kelishigi affiksining -tan shaklidagi varianti mavjud. Jarangli undoshdan so‘ng -dan shaklida, jarangsiz undoshdan so‘ng esa -tan shaklida qo‘shiladi. Masalan, maktabdän, hajāttän. Buxoro hududida -lar ko‘plik affiksi -a tarzida qo‘llaniladi. Masalan, kitoblar-kïtāblä, akamlar-äkämlä, uylar-üjlä kabi. Egalik affiksining qo‘llanilishi o‘zbek adabiy tilidan deyarli farq qilmaydi. Faqatgina 1-shaxs ko‘plikdagi -miz qo‘shimchasi o‘rnida ba’zi hududlarida -biz yoki -vuz tarzida qo‘llanish holatlari uchraydi. Masalan, boramiz-bāräbiz yoki bāravüz kabi.

Sifat yasovchi -li qo‘shimchasi -lik tarzida qo‘llanilish holatlari uchraydi. Masalan, mevali daraxt-mevälïk daraxt singari. Qolgan barcha affikslar qo‘llanilishida o‘zgarish deyarli ro‘y bermaydi.

Kishilik olmoshlari

1-shaxs	*men-män*	*biz-bïza*
2-shaxs	*sen-sän*	*siz-sïz*
3-shaxs	*u-ü,ö*	*ular-ula, ölar*

Bo‘lishsizlik olmoshi

Hech kim – hič kïm,

Hech nima- hič nïma

Yuqoridagi olmoshlarda o‘zgarish sodir bo‘ladi. Qolgan olmosh turlari adabiy tildagidek qo‘llaniladi. Konkret – aniq hozirgi zamon fe’llarining ifodalanishida o‘zgarish kuzatiladi. -yapti qo‘shimchasi -opti shaklida qo‘llaniladi: kelyapti-kelāpti, aytyapti-aytāpti kabi. Kelasi zamon fe’lining ifodalanishi: boramiz-boravüz shaklida ba’zi chekka qishloqlarda keksalar nutqida qo‘llaniladi. Qolgan hollarda adabiy tildagidek ifodalanadi. O‘tgan zamon fe’lining qo‘llanilishi: 1-shaxs ko‘plikdagi -k qo‘shimchasi o‘rnida -g qo‘lllaniladi: bordik-bordig. Borgandim o‘rnida bārantim tarzida qo‘llanilish holatlari mavjud.

Sifatdoshning -gan shakli q bilan tugagan so‘zlarga -qan tarzida, k bilan tugagan so‘zlarga esa -kan tarzida qo‘shiladi: āqqän, ekkän. -gan affiksi ba’zi

chekka qishloqlarda -an tarzida qo‘llanilish holatlari ham uchraydi: egilgan novda-egilän nāvdä shaklida. -ayotgan affiksi -otkan tarzida qo‘llaniladi: gapirayotgan odam - gapïrātkän ādäm singari. -ydigan affiksi esa -jkān shaklida ifodalanadi: o‘qiydigan-öqijkān. Adabiy tildagi so‘z yasovchi affikslardan farqli dialektal so‘z yasovchilar. **-vachcha** – amakivaččä –amakibaččä; **-q** – taroq-tarāγ; **-lik** – ahillik-ahïllïg; **-machoq** – bekinmachoq-bekinmächāg‘, **-mand** – kasalmand-kasalmän, **-bop** – ommabop-āmmäbāb

Shevadagi sintaktik o‘zgarishlarga esa quyidagilar misol bo‘la oladi:

Shevada gap tuzilishida inversiyaga uchrash holatlari ko‘p uchraydi. Masalan, Men aytgan ishlarni qilma. Qïlmä män ajtkan išlani. Bunda kesim gap oxirida emas, boshida keladi. Sen begona odamning gaplariga ishonma gapi misolida tahlil qiladigan bo‘lsak, bu gap Buxoro shevasida quyidagicha qo‘llaniladi: Išānma sän begānä ādamni gaplarïga. Ko‘rib turganimizdek, ishonma kesimi gap boshida kelgan. Bunday misollar yana talaygina. Buxoro hududida qo‘llanuvchi ko‘pgina so‘zlar adabiy tilda butunlay o‘zga nom bilan ifodalanadi. Bu esa uning leksikasiga xos xususiyat sifatida talqin qilinadi. Quyidagi so‘zlar misolida bu holat yaqqol namoyon bo‘lgan: ona- nänä, ota-dädä, singil-ükä, kelin-kelïmüllā, kuyov-dāmmād, pochcha-yazna, tog‘a- tāγā, buvi-bibi, buva-bābā, tötabibi- buvining onasi, tötabābā-buvining otasi,jijän-xola, amma yoki amaki, tog‘alarning bolasi, kelin-yangämlā, nonpar-tïkač, cho‘mich-čāygardān, likob- täbäx, tovoq-lagan,inak-sigir, go‘sala-büzāqča, gechchi-ečki, tavuq-tāvüq, aroba-arava, araq-arāq, bändak-to‘g‘nog‘ich, barra-qo‘y, dazmāl-idishlarni yuvishda ishlatiladigan mato, dabba-semiz odamlarga nisbatan ishlatiladi, gavrajümān-beshiktebratar va hokazo.O‘zbek xalqi shevalari lug‘atini kuzatish shundan xabar beradiki, lug‘atda mualliflar juda kam so‘zlarni berib o‘tishgan. Bu esa shu shevaga oid bo‘lgan so‘zlarning yuqoridagi lug‘atda mukammal berilmaganligini ko‘rsatadi. Dehqonchilikka oid so‘zlar shevamizda fonetik o‘zgarishlarga uchrasa-da, tuzilishiga ko‘ra sodda shaklda qo‘llanadi. Buxoro hududidagi shevani o‘rganish natijasida shevadagi so‘zlarning bir qismi ayni paytda o‘zbek adabiy tilida ham qo‘llanib kelinayotganiga duch kelindi. Sheva fonetikasini o‘rganish davomida sheva vakili

nutqidagi so‘zlarda tovushlarning holati, ya’ni qisqa, cho‘ziq yoki tushish, almashish hamda ortish kabi holatlar kuzatildi. Leksikasini o‘rganish davomida shevaning naqadar lug‘aviy boy ekanligiga yana bir o‘z tasdig‘ini topdi. Bir so‘zning yoshlar nutqida alohida, yoshi katta keksalar nutqida alohida nom bilan ifodalanishi singari holatlarga ham duch kelindi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, shevalarimizni o‘rganish o‘z hududimizni yanada mukammalroq bilishimizga, adabiy tilimizni yangi so‘zlar bilan boyitishimizga katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqarova, M, Yunusov R, Yo‘ldoshev.M, Muhamedova. D. (2006) O‘zbek tili praktikumi. (304-bet). Toshkent: “Iqtisod-Moliya” nashriyoti.

2. Ashirboyev, S. (2021). O‘zbek dialektologiyasi. (175-bet). Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti.

3. Jo‘rayev, B. (1969). Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. Toshkent: O‘zbekiston SSR "Fan" nashriyoti.

4. To‘ychiboyev, B, Hasanov B. (2004). O‘zbek dialektologiyasi. (111-bet) Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

5. Irisqulov, M. (2009). Tilshunoslikka kirish. (171-bet). Toshkent: “Yangi asr avlodi” NMM.

6. Jamolxonov, H. (2013). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (407-bet). Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

7. Reshetov, V.V, Shoabdurahmonov.Sh. (1978). O‘zbek dialektologiyasi. (232-bet) Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.

8. Yo‘ldoshev, T. (1986). Tojikistondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. Toshkent: O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti.

BESHARIQ TUMANI YASHNABOD QISHLOG‘I SHEVASIGA XOS AYRIM SO‘ZLAR TAHLILI

Mamajonova Shahnoza G‘ayratjon qizi,
O‘zMU Jurnalistika fakulteti 2-kurs talabasi
doktorshahnoza@email.ru

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari va Beshariq tumani Yashnabod qishlog‘i shevasida kuzatiladigan fonetik o‘zgarishlar, shevaning leksik jihatlari,mavjud toponimlar haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Dialektologiya, sheva, dialektal so‘z, adabiy til, toponim, qadriyat.*

Abstract. *the article provides information about specific features of the Uzbek language dialects and phonetic changes observed in the dialect of Yashnabod village of Beshariq district, lexical aspects of the dialect, existing toponyms. It is also said that dialects have their own value.*

Keywords: *Dialectology, dialect, dialectal word, literary language, toponym, value.*

Til insoniyatga berilgan bebaho ne’matlardan biridir.2020-yil 20-oktabrdagi “Mamlakatimizda davlat tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlarito‘g‘risida”gi farmonda milliy til asoslarini tarmoqlar kesimida rivojlantirish, o‘zbekcha terminlarni tiklash, yangilarini shakllantirish, keng doirada qo‘llash, ommalashtirish masalasiga e’tibor qaratilgan.

Til millat ko‘zgusi, uning asl durdonalari esa, albatta millat tili zamirida yashirinib yotgan shevalardir. Sheva - adabiy tilning boyishi, shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shevalar bir hudud vakillari uchun tushunarli, ba’zi meyorlari adabiy til uchun asos qilib olingan, xalqona til ko‘rinishi bo‘lib, u og‘zaki shaklda avloddan-avlodga o‘tib keladi. **Dialekt** - sheva, **logos** - ta’limot, ya’ni, sheva haqidagi ta’limot demakdir (B.To‘ychiboyev, B.Hasanov, 2004, 4-bet).O‘zbek tilining shevalarini tadqiq etishga bo‘lgan harakatlar XIX asr oxiri, XX asr avvalida boshlangan. Ma’lumki, o‘zbek shevalari A.Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov, Y.D.Polivanov, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, F.Abdullayev, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, X.Doniyorov, N.Rajabov, B.To‘ychiboyev, A.Ishayev,S.Ashirboyevva boshqa bir qator dialektolog olimlar tomonidan tadqiq va tasnif qilingan. O‘zbek tili tarkibida qarluq, qipchoq, o‘g‘uz lahjalari bo‘lib, ularning tarkibida ko‘plab shevalar mavjud. Mazkur lahja va shevalarning umumiy o‘xshash tomonlari bilan bir qatorda farqlanadigan o‘ziga xos dialektal xususiyatlari ham mavjud (V.V.Reshetov., Sh.Shoabdurahmonov, 1978, 14-bet).

O‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki shevabo‘lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo‘lmaydi. Shuning uchun ham shevalar har qanday

adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir.Shevalarimizham tilimiz singari taraqqiyotda ekan, demak, ularni ma’lum davrlarda amaliy va nazariy jihatdan o‘rganish, ular asosida ma’lumilmiy-nazariy xulosalarga kelishning zarurligi tabiiy hol.

O‘zbek xalq shevalari leksikasining tadrijiy taraqqiyot ildizlari turkiy va noturkiy tilli qo‘shni, xususan, qoraqalpoq, qozoq, turkman, fors-tojik xalqlari bilan aloqa-munosabatlari, hamkorlilgiga borib taqaladi (Yu.Ibragimov, 2022, 246-bet).Shevaga xosso‘z dialektologik leksika va dialektal leksikografiyaning asosiy terminlaridan biri hisoblanadi. Dialektal so‘z maqomi haqida gapirganda quyidagilar e’tiborga olinishi lozim bo‘ladi: shevalarga xos so‘z, so‘z birikmasi va iboralar adabiy tilda juda kam qo‘llanishi yoki umuman qo‘llanmasligi bilan ajralib turadi. “O‘zbek tili”, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, “O‘zbek tili leksikologiyasi” kabi darslik va o‘quv qo‘llanmalarda dialektal so‘z va dialektal ma’nolar to‘g‘risida mulohaza yuritilmagan. Bir o‘rinda “dialektal xususiyatli so‘z” degan jumla uchraydi (O‘zbek tili leksikologiyasi, 1981, 247-bet).

Sheva so‘zlari termini uslubiy xususiyatlarga ko‘ra takroriylikning oldini olish uchun ikkinchi bir termin bilan dialektal so‘z deyiladi. Ularning badiiy asarlarda qo‘llanish shakllari esa dialektizmlar hisoblanadi (B.Fayzullayeva, 1978).O.Madrahimovning “Jonli shevalar leksikasining adabiy til leksik qatlamlariga munosabati masalasi tekshiruvchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilishi tabiiydir” (O.Madrahimov, 1973), degan fikri ham e’tiborga loyiqdir.

Dialektologiya adabiy tilni boyitish, til tarixini va xalq madaniyatini o‘rganishuchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shevalar adabiy tilning asosi hisoblanadi. Undagi har bir so‘z adabiy tilida ma’no ifodalaydi,garchi uning shakli o‘zgargan holatda bo‘lganda ham biz faqat grammatik asosini tahlilga olamiz. Tilshunoslikda shevadagi so‘zlarning tarkibini sintaktik jihatdan ham tahlilga olish, ulardagi asos tarkibidagi qo‘shimchalarni ham tahlilga olish va ularning o‘rganilish jabhasinikengaytiriadi (Z.Xolmanova., G.Qo‘ziboyeva, 2021, 45-bet).

Ona tilimizning o‘zagi-qon tomiri bo‘lgan shevalarimizni o‘rganib, ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etishga barchamiz mas’ulmiz. Ana shu mas’uliyatni his

qilgan holda ushbu maqolamizda Farg‘ona viloyati, Beshariq tumani Yashnabod qishlog‘i shevasiga xos bo‘lgan ayrim shevaga xos so‘zlar haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz.

Sheva haqida so‘z ketarkan, uning adabiy tildan farqli jihatlari ko‘zga yaqqol tashlanadi. Farg‘ona viloyati shevasi morfologik jihatdan adabiy til me’yorlariga nisbatan olingan bo‘lsa-da, biz chekka hududlarda uning adabiy til me’yorlariga mos tushmaydigan ko‘rinishlarini ham uchratamiz. Xususan,Beshariq tumani Yashnabod qishlog‘ishevasida fonetik, leksik, morfologik o‘zgarishga uchragan sheva xos so‘zlar talaygina. Bugunda bunday sheva so‘zlarini keksa avlod vakillari nutqida faol qo‘llanganligini kuzatish mimkin.Kuzatishimizchashevada ko‘makchi va bog‘lovchilarda fonetik jihatdan o‘zgargan so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan, “***burnog‘i***” payt ravishi “*avvalgi*”, “*burungi*” so‘zining o‘zgargan shakli, “***omo***”,zidlov bog‘lovchisi“*ammo*”, “*lokin*”, zidlov bog‘lovchisi, “*lekin*”ning o‘zgargan shakli, “***tog‘in***”, “*tag‘in, yana*” (N.Mahmudov, 2005,40-bet).Shuningdek olmoshlarda ham bunday o‘zgarishga uchragan so‘zlarni kuzatishimiz mumkin.Misol: “***etta -****anavi yerda*”, “***betta*** - *bu (manavi) yerda*”, “***u:novi -****anavi*” ko‘rsatish olmoshlarida ham fonetik o‘zgarishlar mavjud.

Shevadagi leksik birliklarni adabiy tilga nisbatan qiyoslanganda ham shevaning o‘zgachaligini ko‘rish mumkin. Masalan: “***arg‘amchi*** - *ilon*”, “***eshshak*** - *chayon*”, “***hangg‘i*** - *eshshak*” bunda hayvon nomlari o‘zgarib, qayta nomlanyapti, bu urf-odat bilan ham bog‘liq “ya’ni shu hayvonlarni o‘z nomi bilan aytilsa, uydan chiqadi, insonga zarar beradi” degan mifologik qarashlar mavjud.Yashnabod qishlog‘i shevasiga xos so‘zlarni quyidagi mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin:

Qavm-qarindoshchilik tushunchalarini bildiruvchishevaga xos quyidagi atamalarda:*bo‘la* - *amaki, xola, tog‘a, ammavachchalarga nisbatan ishlatiladi*; ***anna*** - *buvining opa singlisi*; ***ena*** - *buvi*; ***opoqi*** - *onaning dadasi*; ***ota*** - *bobo*; ***kelinaya*** - *kelinoyi*; ***kotta aya***- *tog‘a yoki amakining xotini*; ***momo*** - *eng katta tog‘a yoki amakining xotini*; ***oyi, opa*** - *kichik kelinoyiga nisbatan*; ***jiji, ninicha,***

buvak - *chaqaloq*; ***acha*** - *qaynonaning ovsini;* ***qaynog‘a*** - *qaynaka* kabi adabiy tildan faqrli so‘zlarni ko‘rishimiz mumkin.

Kasb-korga oid so‘zlar:*opoy* -*ayol o‘qituvchi*; ***opi:y*** - *fe’li o‘zgacha qiz*; ***domla*** - *erkak o‘qituvchi*; ***mu:lla*** - *masjid yoki madrasa imomi, domla, qori*; ***buvo:tin*** -*diniy ta’lim berubchi ayol kishiga nisbatan, otinoyi, bibiotin* kabi so‘zlar ham shevada faol qo‘llanadi.

Yil fasllari, tabiat hodisalariga nisbatan qo‘llanadigan so‘zlar:*saraton* - *yoz*;***chilla*** - *qish*; ***sunbula*** - *kuzak oldi*; ***haydarali*** - *shamol*; ***garmsel*** - *issiq yoz shabadasi* va b.

Toponimlar: *ariq*- *uncha katta bo‘lmagan suv oqar joy(bunda eni uzog‘i 1 metrgacha bo‘lgan kattalikdagi suv yo‘llari nazarda tutiladi);* ***zbir, izbir*** - *nisbatan kotta suv yo‘li (bunda eni 1 metrdan 2,3 metrgacha bo‘lgan suv oqar yo‘l nazarda tutiladi);* ***kanal*** - *tez oqar suv yo‘li; (Farg‘ona kanali bunga misol bo‘la oladi);* ***qir***- *tepalik;* ***toq*** - *tog‘;* ***agarot*** - *tomorqa;* ***tomorqa*** - *dala* shuningdek joy nomlariga inson ismlarining ham ko‘chishi ko‘p kuzatiladi. Bunda hudud vakillarigina tushunadigan keng dala maydonlariga inson ismlari erkin ko‘chgan.

Urf-odatga xos so‘zlarning o‘zgargan shakllari: *qa:da* - *marhum uchun o‘tkiziladigan marosim;* ***ehson, qadm*** - *hadmi Qur’on;* ***banna*** - *kelin sarpo;* ***miyanji:*** - *unashtirilgan qizning dugonalariga beradigan ziyofat;* ***uchkunlik*** - *kelin salom* kabi marosim nomlari mavjud bo‘lib, ularning o‘tkazilish tartibi ham turlicha, misol uchun, ***“uchkunlik”*** marosimida kelinning yuzi ochiladi, kelin kelgan mehmonlarga salom berib, yosh bolalarga o‘zining hadyasini tarqatgandan so‘ng, kelinni o‘choq boshiga olib chiqilib surpa yoydirishadi, kelinni shu uyda rizqli nasibali bo‘lishiga yaxshi niyat qilinadi, o‘choqqa yog‘ quydirishadi, bu kelinning o‘sha xonadondagi o‘tganlarga hurmati uchun, ba’zi hududlarda shundan so‘ng kelinni orqa tarafi bilan yurgizib o‘zi tushgan uyning taxmoniga yelkaurdirishadi shu uyda toshdek qotsin deb yaxshi niyat qilishadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, til jamiyat a’zolari o‘rtasida aloqa-aralashuv vazifasini, insonning fikrlash va fikr mahsulini og‘zaki hamda yozma ravishda bayon qila olish, o‘z ichki kechinmalarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat

qiladi. Shu ma’noda adabiy tilning tub ildizi bo‘lmish dialektlarni o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Tilimiz chetdan o‘zlashgan so‘zlardan emas, balki, adabiy tilning asosi bo‘lmish shevalardan yangi so‘z olsagina yanada rivojlanadi. Har bir til o‘z tomirlaridan suv olib, o‘sib borishi kerak degan fikrdamiz.Har joyning ham shevasi urf-odati o‘ziga xos, bu millatimizning o‘tmishi, o‘lmas qadriyatlarimiz mohiyati bilan bog‘liq, inson yashar ekan rivojlanadi, rivojlanish tilda ham o‘z aksini topadi, biroq biz ota-bobolarimiz tilini unutmasligimiz, uni yo‘qolib ketishdan asrashimiz zarur, buning uchun esa, o‘zligimizni, o‘z shevamizni asl holicha avlodlardan avlodlarga o‘tishiga ozgina bo‘lsa ham hissamizni qo‘shishimiz kerak, bu millat va kelajak oldidagi burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.To‘ychiboyev., A.Hasanov. (2004). O‘zbek dialektologiyasi. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. B.4.

2. V.V.Reshetov., Sh.Shoabdurahmonov.(1978). O‘zbek dialektologiyasi. O‘qituvchi.

3. Yu.Ibragimov.(2022). O‘zbek xalq shevalari leksikasining tadrijiy taraqqiyoti asoslari. Tilshunoslikning dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari).

4. O‘zbek tili leksikologiyasi.(1981).

5. B.Fayzullayeva.(1978). Badiiy adabiyotda dialektizmlarning stilistik vazifalari.Tilshunoslik masalalari.

6. O.Madrahimov. (1973). O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi.

7. Z.Xolmanova., G.Qo‘ziboyeva.(2021). Shevalarga xos grammatik xususiyatlar tadqiqining o‘zbek tili taraqqiyotidagi o‘rni. “O‘zbek tili taraqqiyoti va xalqaro hamkorlik masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.

8. N.Mahmudov va boshqalar.(2005). Ona tili (7-sinf uchun darslik).

NAMANGAN VILOYATINING SHEVASIGA OID DIALEKTIK LEKSEMALAR OMONIMIYASI

Matazimova Sayyora,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan viloyatining Namangan, Norin, Chortoq, Kosonsoy, Yangiqo‘rg‘on, Mingbuloq tumanlarining dialektik leksemalari, ulardagi omonimlik xususiyatlari, o‘ziga xosliklari o‘rganildi hamda ular haqida ma’lumotlar berildi. Dialektik leksik omonim lug‘atlar yaratish, bu lug‘atlarning tilshunoslik va dialektologiya, leksikografiya kabi sohalardagi ilmiy ahamiyati hamda tilning ichki boyishidagi o‘rni haqida fikr yuritildi.*

Kalit so‘zlar : *Namangan, qarluq, dialekt, dialektik leksema, omonim, izoh, hozirgi o‘zbek adabiy tili, hodisa.*

Abstract. *In this article, the dialectical lexemes of Namangan, Norin, Chortoq,Kosonsoy, Yangigorgan, Mingbulok districts of Namangan region, their homonymous features, peculiarities were studied and information about them was given. The creation of dialectical lexical homonym dictionaries, the scientific importance of these dictionaries in fields such as linguistics and dialectology, lexicography, and their place in the internal enrichment of the language were discussed.*

Keywords: *Namangan, Qarluq, dialect, dialectical lexeme, homonym, explanation, current Uzbek literary language, phenomenon.*

Namangan viloyatining ko‘plab hududlarida qarluq dialektiga mansub aholi istiqomat qiladi. Namangan viloyati hududining har bir tumanida o‘ziga xos dialektlar shakllangan bo‘lib, ular orasida muayyan farqlar va ularni birlashtiruvchu o‘xshashliklar mavjuddir. Bunday o‘xshashliklar ba’zan shaklda, ba’zan esa mazmunda uchrab turadi. Bunday hodisalarni o‘rganish hozirgi o‘zbek adabiy tilshunosligida dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi.

O‘zbek tilshunosligida dialektik leksemalarni o‘rganish o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Akademik B.B. Radlov, V.A. Borodinov, I.I.Zaribun,

K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, professor G‘ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, V.V. Reshetov kabi olimlar o‘zbek dialekti va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan, ularni tahlil qilgan va ana shular asosida o‘zbek dialektini tasniflagan. Professor olim G‘ozi Olim Yunusov o‘zbek shevasini tasniflar ekan, uni 3 ta yirik guruhlarga ajratadi va Namangan shevasini ikkinchi guruhga, ya’ni Turk – barlos guruhiga kiritadi. M. Saidova Namangan shevalarining qarindosh terminlarining leksik-semmmantik jihatdan tahliliy o‘rgangan bo‘lsa. hozirgi kunda Ibrohim Darveshov, A. Aliev kabi olimlarimiz ham Namangan shevasining bugungi kun jihatidan o‘rganishmoqda. Ammo, shevalardagi omonimlik hodisalari hali deyarli o‘rganilmagan. Leksik omonimiya – leksemalar ifoda planidagi (talaffuz va yozilishidagi) tenglik hodisasi. Masalan: *yuz* (insonning yuzi)- *yuz*(raqam). Dialektlarda ham xuddi shunday. Dialektik leksemalarda ham omonimlik hodisasi kuzatiladi. Bunday hodisalarning yuzaga kelish sabablari turfa xildir. Xususan:

1. Tilda azaldan mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning shakllari tasodifan bir xil bo‘lib qoladi: “ Baqa” (qurbaqa) va “Baqa” (suv tegirmon toshini aylantiruvchi metal qism).

2. Bir ma’noli so‘z leksik ma’noning ko‘chishi oqibatida ko‘p ma’noli so‘zga aylanadi, keyinroq bosh ma’no va hosila ma’no o‘rtasidagi bog‘lanish unutilib, bir so‘z negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo‘ladi: “Kun”(quyosh) va “KUN”(bir sutka).

3. Leksemalar yasalishi ham ba’zan omonimlarni keltirib chiqaradi: ”Qo‘noq” (tariq) – “Qo‘noq” (qo‘n+oq; mehmon).

Bunday holatlar har bir hudud dialektlarida ham mavjuddir. Vodiy, xususan, Namangan viloyatining dialektlari ham bundan mustasno emas. Bularni quyidagilar orqali ko‘rishimiz mumkin:

Amaki – 1. Dadaning akasi yoki ukasi. (*amakimning 3 ta farzandi bor)*. 2.Qaynota. Namangan shahri hududida qaynotaga nisbatan amaki so‘zi qo‘llaniladi. (*qaynonam bilan amakim ovsinimnikiga ketganlar)*

Aya – 1. Ona. Namangan viloyati Norin, Chortoq, Kosonsoy tumanlarida ona aya tarzida aytiladi. (*ayam hali ishdan kelmadilar).*2. Opa. Yangiqo‘rg‘on

tumanida opa so‘zi o‘rnida aya so‘zi qo‘llaniladi. (*aya dadamdan so‘rang ammamnikiga boraylik.)*

Baqa – 1. Qurbaqa, baqa. (*baqalar ko‘lmaklarda yashaydi).* 2. Bu yoqqa. *(maktabga boorish uchun baqa yurish kerak).*

Bog‘cha – 1. uchastka, kichik maydonli hovli, mevazor. (*yugurib borib, bog‘chadan Alisherni aytib kel).*2. Maktabgacha ta’lim tashkiloti muassasasi. (*bolamni bu yildan bog‘chaga berdim).*

Boydeda – 1. Dadaning otasi, bobo. Mingbuloq tumanining ayrim qishloqlarida bobo so‘zi o‘rnida boydeda qo‘llaniladi. (*boydeda pensiya oldingizmi?)*2. Amaki. Namangan tumanining Toshbuloq, Kichik toshbuloq, Mullakudung hududlarida amakiga nisbatan qo‘llaniladi. (*boydeda meni tug‘ilgan kunimga nima olib berasiz?)*

Damla – 1. Choy yoki qahva damlash. *(qani qizim, achchiqqina qilib bir choy damlachi).*2. Teshilgan biror nimani damlash. *akajon velosipedimni g‘ildiragi teshilib qoldi, damlab bering).*

Domla – 1. O‘qituvchi, ustoz (erkak). (*domla bugun darsga Mirjalol kelmas ekan*). 2. Qori, mulla. *(ertaga ertalab domlaga borib dam soldirib kel).*

Istamoq – 1. Xohlamoq. Istamoq *(istaymanki, hamma niyatim amalga oshsin.)*2. Qidirmoq, izlamoq. *(ertalabdan beri shuni istadikmi?)*

Malla -1. Rang *(mushugimni rangi malla edi, uni yo‘qotib qo‘ydim).*2. Etak, malla *(bugun kechgacha tergan besh malla paxtam to‘qson kg chiqdi).*

Oya – 1. Ona. Namangan viloyat. Chust tumanida onaga nisbatan oya leksemasi qo‘llaniladi. *(oya dadam qanilar?).*2. Ustoz. O‘qituvchi (ayol). *(Xurshida oyam vazifa qilib “O‘tkan kunlar”ni berdilar).* 3. Qo‘shni ayol. Qo‘shni ayolga ham shu leksema ishlatiladi. *(Shohista oyamnikida hech kim yo‘q ekan).* 4. Ayollar shifokori genekolog. *(bugun oyaga uchragandim, ertaga UZIga tushing dedi).* 5. Maktabgacha ta’lim tashkiloti muassasasining rahbari, mudirasi. (*bugun oya majlis qilar ekanlar).*

Opa – 1. Opa, ukaning yoki singilning kattasi. *(opa bugun ovqat qildingizmi?)*2. Ona. Yangiqo‘rg‘on, Chust tumanlarida opa ona so‘zi o‘rnida qo‘llaniladi. *(opa bozorga men ham boray!)*

So‘kmoq - 1. dakki bermoq , urushmoq (*Vazifa qilmganim uchun oyam meni rosa so‘kdi).* 2. Biror narsani so‘kmoq, yirtmoq (*Mana bu eskilarinini so‘ksang, senga yangi ko‘rpacha qilib beraman)*

Shayton – 1. ins-u jins (*Uni shayton yo‘ldan ozdirdi*). 2. Ustalar tekislikni o‘lchaydigan asbob (*Shaytonda yaxshilab o‘lcha, uy qiyshiq bitmasin).*

Chimaliq-1. Chumoli, qumursqa *(Piyola shira ekan, shuncha chimaliq kelibdi).* 2.Chimildiq – (*Chimaliq yonida yoshi kattalar o‘tiradi).*

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, Namangan shevasida adabiy tilda bo‘lmagan leksemalar talaygina. Har bir dialektik, leksik omonim o‘ziga xos xususiyatga ega. Bularni qo‘llash tilimizda so‘z boyligini oshiradi . Har bir hududning dialektini , dialektal leksik omonimlarini o‘rganish tilshunoslik fani hamda dialektalogiya kabi fanlarning rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi . Dialektik leksik omonimlarning o‘rganilishi tilning ichki boyishida o‘rinli bo‘la oladi. Tilning ichki boyishida shevalardan andoza olar ekan, omonimlik, sinonimlik kabi, hodisalardan ham andoza olish lozim. Har bir hudud dialektida bunday hodisalar talaygina,. Bulardan adabiy til uchun so‘z boyligi olishimiz , ularni lug‘at tarzida shakllantirish kerak . Bunday ilmiy jarayonlar shevamizning o‘ziga xosliginini saqlash, ularni adabiylashtirish yo‘lidagi muaffaqiyatli ishlardan biri bo‘ladi. Dialektik omonimiya lug‘ati dialektlardagi o‘ziga xoslikni, ularning ,ma’naviy boyishi , kamayishi va eng asosiysi , shevalardagi so‘zlarni yoqolib ketishini oldini oladi. Shu bilan birga leksikografiya sohasini ham rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev Samixon. (2013) O‘zbek dialektalogiyasi. Darslik. – TOShKENT

2. Ashirboev Samixon. (2013).O‘zbek dialektalogiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent

3.Jamolxonov H. (2005).Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. – “Talqin” nashriyoti.

4. Miraziz Mirtojiev (2010.)O‘zbek tili semasiologiyasi. –Toshkent; “Mumtoz so‘z” nashriyoti,

3. Shavkat Rahmatullaev (2006).Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent; “Universitet” nashriyoti

DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING TAHLILI, ETIMOLOGIYASI VA O‘RGANILISHI

Muxammadova Shaxloxon Baxtiyorjon qizi,
ToshDo‘TAU o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti
2-kurs waxlomuxammadova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada shevalarga xos frazeologizmlar, uning turlari, iboralarning kelib chiqishi, semantik-grammatik tahlili yoritilgan. Maqolada, asosan, Farg‘ona shevasida mavjud bo‘lgan iboralar yetakchilik qilsada, boshqa shevalarga oid frazemalar haqida ham fikr yuritilgan. Frazeologik sinonimiya, omonimiya va antonimiya to‘g‘risida qisqacha ma’lumot va unga doir misollar berilgan. Frazeologik iboralarni o‘rganilishi, Frazemalarning qo‘llanilish davriga ko‘ra turlari misollar bilan ko‘rsatilgan. Iboralar orasidagi ma’no farqlanishlari haqida batafsil to‘xtab o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Iboralar, qo‘llanishi chegaralangan frazemalar, leksik-frazeologik sinonimlar, frazeologik omonimiya, frazeologik chatishma, frazeologik butunlik, dialektal frazeologizmlar, frazemalarning yuzaga kelishi.*

Abstract. *In this article, dialectal phyraseology, its types, the origin of expressions, and semantic semantic analysis are covered. IN the article, the phrases that exist mainly in the Ferghana dialect are the leading ones, but the phrases of other dialects are also discussed. Brief information and examples of phraseological synonymy, homonymy and antonymy are given. There is also some information about studying phraseological expressions. Types of phrasemes according to the period of use are shown with examples. Differences in meaning between phrases have been discussed.*

Key words: *Expressions, phraseological synonyms, lexical-phraseological synonyms, phraseological homonymy, phraseological correspondence, phraseological integrity, dialectal phraseologisms, the occurrence of phraseologisms.*

Frazemalar tizimi haqida Sh. Raxmatullayev ko‘p tadqiqotlar olib borgan. U frazemalarning ifoda jihatiga ko‘ra voqe' bo‘ladigan munosabatlar, omofrazemalar,

parafrazemalar, frazemalarning mazmun jihatiga ko‘ra turlarini o‘rganib, tahlil qilgan. Frazeologik butunlik va chatishma, lisoniy va nutqiy ma’no, frazemalarda ko‘pma'nolik, ular orasidagi semantik munosabatlar haqida ham ko‘plab ma’lumotlar bergan. Frazeologiya haqida tadqiqot va izlanishlar kam. 1978-yili Shavkat Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”ni tuzgan. 1971-yilda mualliflar jamoasi tomonidan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” jamlangan. Bu ikki lug‘at ham hozirga qadar mukammal lug‘at deb sanaladi. Dialektal frazeologiya haqida izlanishlar kam. Dialektal frazeologiya - endilikda rivojlanayotgan va kengroq qamrovdagi tadqiqotchilarni o‘ziga jalb qilayotgan soha. Frazeologizmdagi darajalanish, giponimiya, funksionomiya, iyerarxionimiya kabi semantik munosabatlar borasida ham tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiq. Frazeologiyani Jizzax politexnika o‘qituvchisi M.I.Xolmonova (O‘zbek va ingliz tillaridagi sifat komponentli iboralarning lingvokulturologik qiyosiy tahlili) va Samarqand chet tillari instituti guruh rahbari L.A. Xondamov (Frazeologik birliklarning semantik-grammatik tahlili) ham o‘rgangan. Frazeologiya iboralar bilan xarakterli. Frazeologizm til va nutqqa daxldor birlikdir. U matnda bir gap bo‘lagi bo‘lib keladi va umumiy bir so‘roqqa javob bo‘ladi. Frazeologizm ikki yoqlama lisoniy birlik bo‘lib, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazeologizmning shakliy tomonini so‘z tashkil qiladi. Mazmuniy tomoni esa frazeologik ma’nodir (Sayfullayeva, 2009, 131-bet).

Frazeologizmlar qo‘llanilishiga ko‘ra 2 ga bo‘linadi:

1. Umumiste’mol frazeologizmlar
2. Qo‘llanilishi chegaralangan frazeologizmlar.

Qo‘llanilish davriga ko‘ra: eskirgan va zamondosh frazeologizmlar, qo‘llanilish doirasiga esa: so‘zlashuv, badiiy, ilmiy va dialektik frazeologizmlar kiradi. Turli sheva vakillarida so‘zlar farq qilgani kabi, iboralar ham farq qiladi. Ayrim shevalarda mavjud bo‘lgan frazeologizmlar boshqa shevalarda bo‘lmaydi yoki boshqa variantiga ega bo‘ladi. Xususan, Farg‘ona hududi shevasida mavjud bo‘lgan iboralar o‘ziga xos bo‘lib, boshqa shevalarda kamdan kam kuzatiladi. Ayrim iboralar hikoya, ertak yoki ma’lum bir voqea natijasida yuzaga keladi va

sheva vakillari ulardan muayyan vaziyatlarda foydalanadilar. Frazemalarda yaxlitligicha anglashiladigan lug‘aviy ma’no bilan uning tarakibidagi leksemalar anglatadigan lug‘aviy ma’nolar orasidagi munosabat asosida frazemalarning ikki ma’no turi farq qiladi:

1. Frazeologik butunlik

2. Frazeologik chatishma (Rahmonov, 2006, 429-bet).

Frazeologik butunlikda ibora anglatgan ko‘chma ma’no ham mavjud. Frazema esa ikki leksik ma’no uchun umumiy qolipdir. Masalan, “eshï:k qïsmāq”, “sü:gä tüshkän bölkä.”

1.”Nima? Meni **eshï:k qïskänmï,** doim xo‘rlayverasizlar”,- dedi Nozima achchiqlanib.

2. Bugun avtobusga chiqayotganimda e**shïk qïsïb qāldï**. Xayriyat, haydovchi hushyor ekan.

Birinchi misolda kamsitilganini bildirish uchun ibora, ikkinchisida esa qisimlari mustaqil bo‘lgan birliklar qo‘llanildi. Demak, **eshïk qïsmāq** iborasi frazeologik butunlik. Chunki uni yuqoridagi kabi ikki holatda bemalol qo‘llasa bo‘ladi. Ibora bo‘lib kelganda ham, alohida leksik ma’no bildirganda ham amalga oshirishning imkoni bo‘lgan harakat-holatni ifodalaydi. Tarkibidagi so‘zlar leksik ma’no ifodalaganda ma’nosi o‘zgarib ketadigan va imkoni yo‘q bo‘lgan iboralar **chatishma frazeologizmlar** deyiladi. Ular faqat yaxlit bo‘lgandagina ma’lum ma’no anglatadi. Mustaqil ma’nolarni ifodalaganda g‘alizlik paydo bo‘ladi, yoki bo‘lishi mumkin bo‘lmagan harakat-holatni ifodalaydi. Masalan, **süjäkkä lämïnät tārtmāq, āÿzï qülāÿïdä.**

1. Turishingni qara, **süjäkkä lämïnät tārtgän**ga o‘xshaysan. Katta-katta yesang bo‘lmaydimi?

2. Salim o‘qishga kirganini eshitgach āÿ**zï qülāÿïgä yetdi**.

Birinchi gapdagi ibora ozg‘in ma’nosini anglatadi. Uning tarkibidagi leksemalarni alohida tahlil qilganda esa aniq ma’no ifodalamaydi va buning iloji yo‘q. Ikkinchi gapda ham shunday. Ular alohida bo‘lganda lug‘aviy ma’nosi o‘zgarib, gapda g‘alizlik yuzaga keladi.

Qo‘llanilish davriga ko‘ra:

Eskirgan frazeologizmlar: Bir qāshiq sü: blän jütip jübārgüdek (beqiyos, go‘zal), daqqïyunusdan qālgän (juda eski), dānÿi Dāÿistānga ketkän (ma’lum va mashhur). Zamondosh frazeologizmlar: Süjäkkä läminät tārtmāq (ozg‘in), jöjä bāshi bir qarïch (kichik bo‘la turib bosh bo‘lib olgan), Alakanï itide häkkilämāq (u yoqdan bu yoqqa chopmoq).

Qo‘llanilish doirasiga ko‘ra:

Dialektal frazeologizmlar: Lāv etïp jānip, lāv etïp öčmāq (jahli tez), kampïr šäftāli yegünchä (tez). Ilmiy frazeologizmlar: Közga täšlänmāq, qüläj qurshāv. So‘zlashuv frazeologizmlari: Kechä tüxümdä čïqïp, bügün qïčqïrmāq (ba’zi shevalarda jojaxorāz deb ham ataladi), üyidän ilān čiqmāq (uyidan bezor). Badiiy frazeologizm: Qāräni jähli čiqqünčä, sarïqnï jāni čiqadi (ba’zi shevalarda: Qāräni qāni čiqqünčä, sarïqnï jāni čiqadi), tepsä tebränmäs (beg‘am).

Leksema va frazeologizm ma’nosi teng kelmaydi. Masalan, **ötäkäsi jārilmāq** frazeologizmi bilan qo‘rqdi leksemasining ma’nolarini qiyoslasak, frazema haddan tashqari qo‘rqib ketmoq, qo‘rqmoq esa nimadandir tashvishlanmoq semasiga ega. Ikkala ma’noda ham denotat aks etgan. Frazeologizmning uslubiy bo‘yoqdorligi yuqori darajada ekanligi bilan qo‘rqmoq leksemasidan farq qiladi. Frazeologik ma’no aniqroq va torroq bo‘ladi. Leksema esa unga nisbatan mavhumroq va kengroqdir. Qo‘rqmoq uslubiy betaraf, hamma uslubda qo‘llanilish imkoniyatiga ega. Leksema va frazeologizmning ifoda semalari turlicha, atash semalari esa bir xil.

Frazeologizmlarning yuzaga kelishi 3 xil:

Ayrim frazeologizmlar diniy aqida, tushuncha va rivoyat asosida yuzaga keladi: Bir duduq kishi bo‘lgan ekan. Bir kuni bir odam u bilan tanishmoqchi bo‘libdi. Duduqdan ismini so‘rabdi. Duduq “Xudo” debdida, bir tutilibdi. Shunda haligi kishi: “Sen o‘zingni xudo deb aytyapsan”, - deb duduqni urib o‘ldirib qo‘ygan ekan. Duduqning ismi Xudoberdi edi. Shu asnoda **berdïsïnï äytgünčä ürib öldirip qöymä** iborasi paydo bo‘lgan. Shuningdek, **pïšlāq bölgän tülki** frazemasi ham ertak – rivoyat tufayli yuzaga kelgan.

2. Ba’zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, inson bir ishga qattiq kirishganda bel bog‘lashi mumkin. Shuning natijasida **bel bāÿlämāq** iborasi vujudga kelgan.

3. Frazeologizm tarkibidagi so‘zlarning ayrimlari ko‘chma ma’noda, boshqalari o‘z ma’nosida qo‘llanilishi natijasida ham yuzaga keladi. Masalan, **közini öjmāq, bāšini jemāq.**

Frazeologizmlar orasidagi semantik munosabatlarda sinonimiya, omonimiya va antonimiya ko‘zga tashlanadi. Atash semalari teng, bir yoki bir necha farqli jihatiga ega frazemalar frazasinonimlar deyiladi (Rahmatullayev, 2006, 435- bet). Masalan, **to‘nini teskari kiymoq, jahl otiga minmoq** frazasinonimlari bir lug‘aviy ma’noni ya’ni, g‘azablanmoq ma’nosini anglatadi. Frazasinonimlar lug‘aviy ma’nosi jihatdan, baho semasi jhatdan va nutqiy xoslanish jihatdan baholanadi. Frazasinonimlarda ko‘pincha ma’no sinonim bo‘ladi. Misol uchun, **ilānni jāÿini jälägän** va **pixini yārgän** frazemalari uchun umumiy ma’no ayyor bo‘lsa ham, ular turlicha gavdalanadi. Bundan tashqari **pixini yārmāq** frazemasiga nisbatan **ilānni jāÿini jälägän** iborasida ma’no kuchliroq. Frazasinonimlar, asosan, so‘zlashuv uslubiga, qisman, boshqa nutq ko‘rinishlariga xos bo‘lib, nutqiy xoslanish jihatdan rang-barang emas. Masalan, **közini jāÿ bāsmāq** iborasi adabiy nutqqa xos bo‘lsa, **bürni šišmāq** frazemasi so‘zlashuv nutqiga xoslangan.

Sinonimiya frazema va leksema orasida ham yuzaga keladi va frazeologik-leksik sinonimiya deb ataladi. Misol uchun, **qöji minggä jetmāq**– hursand, **pišlāq bölgän tülki** – ayyor .

Bir-biri bilan zid frazemalar antonim deb ataladi. Bu munosabat oppozitiv munosabat nomi bilan ham yuritiladi. Antonimlik frazema va leksema orasida ham yuzaga keladi va u frazeologik-leksik antonimiya deb ataladi. Masalan, **kämpir šäftāli jegünchä** (tez) frazemasi bilan sekin leksemasi kabi.

Frazemaning erkin bog‘lama bilan ifoda jihatiga ko‘ra o‘zaro teng kelishiga omonimlik deyiladi (Rahmatullayev, 2006, 426-bet). Misol**: Köz jümmāq** (1) vafot etmoq, 2) qilgan ishiga ko‘z yummoq), **söz bermāq** (1) va’da bermoq, 2) gapirishga navbat bermoq).

Quyidagi holatlarda omonimlik hodisasi sodir bo‘lmaydi: 1. Frazema tarkibida ko‘chma ma’noda qatnashgan leksema bo‘lganida: **Köngli āq – āq köngil.** 2. Frazema haqiqiy voqeylik bo‘lmagani sababli xuddi shunday erkin bog‘lama tuzish mumkin emas: **Köngligä qöl sālmāq.** Erkin bog‘lama – nutqiy birlik, frazema - lisoniy birlik bo‘lgani uchun bu yerda omonimiya bo‘lmaydi.

Dialektal frazeologizmni o‘rganish uchun dialektologiya, frazeologiya va leksikografiya bo‘limlarini mukammal o‘rganish lozim. Ammo nazariy bilimlarning o‘zi kamlik qiladi. Dialektal frazeologizmlarni to‘plash uchun hududma-hudud yurib, aholidan manbalarni yig‘ish kerak. Xalq bilan muloqotda bo‘lganda ularning suhbatidagi frazemalar yaqqol namoyon bo‘ladi. Buning uchun **kuzatish** va **qiyoslash** metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu metodlar orqali bu sohani o‘rganish qulayroq. Manbalar to‘plangandan so‘ng, hududlararo frazemalarni bir-biriga qiyoslab, lug‘at holiga keltirish kerak. Shunda ish ancha samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov, H. (2005). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin
2. Mengliyev, B., vb (2007). O‘zbek tili iboralarining o‘quv tahlili lug‘ati. Toshkent: “Yangi asr avlodi”
3. Rahmatullayev, Sh. (1978). “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”. Toshkent: O‘qituvchi
4. Rahmatullayev, Sh. (2006). Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent: Universitet
5. Sayfullayeva, R. (2009). Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiya
6. Usmonov, Y., Nurmurodov, O. (2008). Muxtasar grammatika. Buxoro: Sharq-Buxoro

MUHAMMADI QISHLOG‘IDAGI BA’ZI BIR DIALEKTAL SO‘ZLARNING IZOHI

Norkozokova Munisa Farxodovna,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs
mnorkozokova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sheva so‘zlarining individualligini hisobga olib, ular alohida bir shevada to‘plandi. Amalga oshirilgan kuzatishlar lug‘at maqolalar holiga kelmoqda. Bunda tadqiqotchi dialektal so‘zlarning sheva vakillari qo‘llaydigan ma’nosini, ya’ni dialektal ma’nosini topishga harakat*

qilgan. Bu dialektal kuzatishlar kelajakda o‘zbek xalq shevalarining lug‘at boyligini, aniqrog‘i genofondini boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *Sheva so‘zi, dialektal so‘z, dialektal ma’no, dialektal matn, kichik dialektal matn, lug‘at maqola, lug‘at maqola tayyorlash jarayoni.*

Abstract. *In this article, taking into account the individuality of dialect words, they are grouped into a separate dialect. Observations become dictionary entries. At the same time, the researcher tried to find the meaning of dialect words used by dialects, that is, the dialect meaning. These dialectical observations will serve in the future to enrich the vocabulary, or rather, the gene pool of Uzbek dialects.*

Keywords: *Sheva word, dialect word, dialect meaning, dialect text, small dialect text, dictionary entry, the process of preparing a dictionary entry.*

Til boyligimiz bo‘lgan sheva hamda dialektlardagi so‘zlar hisoblanadi. Ammo ularning barchasini dialektal lug‘atldarda berib bo‘lmasligini A.Ishayev ta’kidlagan. Mana shu holatning noo‘rinligini ko‘rsatish uchun ham shevamizdan dialektal matn va materillar yig‘ib, ularni izohlashga kirishdi. So‘zlarning izohi haqida to‘xtalganda A.Hojiyevning quyidagi fikrlari o‘rinlidir: Izohli lug‘at – lug‘aviy birlikning ma’nosi keng izohlanadigan, grammatik, stilistik va boshqa belgilari ham qayd etiladigan lug‘at (Хожиев, 1985, 36-бет).

A

Ada-gadak qilmoq [ädä-gädäk qilmāq] – juda ham hurmatlab e’zozlamoq, asosan, yosh bolani tarbiya qilishga nisbatan qo‘llaniladi. Erkalamoq so‘ziga ham sinonim sifatida ham ishlatiladi. [Bāläγïnäm, šu qizïŋdï bunčä ädä-gädäk qiläjberäsän jertän kättärgändä jerkälänib ketip äjtkäniŋdi: qïmäj qojädi].

Agat [ägät] – ekin ekiladigan joy, jo‘yakka nisbatan ishlatiladi. Egat so‘zining tovush almashishi natijasida hosil bo‘lgan. [Ägätgä ekïlgän qülüpnaylär änčägïnä qïzärïp pïšïp qāptï].

Ayto‘vir [äjtovïr] – ishqilib, nima bo‘lganda ham. Bu so‘z asosan so‘zlashuv jarayonida ishlatiladi. [Äjtāvïr,bāläm kozinŋä qärä-dä,sen bïzärdïŋ ïšänŋän tāγïmïssän].

B

Baggul [bäggül] – atirgul. Shevamizdagi bu so‘z adabiy orfografik holatda atirgul deb izohlanishi mumkin. Aynan baggul so‘zidagi “bag” o‘zagining ma’lum bir etimologik kelib chiqishi ma’lum emas. Ammo shevamizda atirgul so‘zi bilan bir xil o‘rinda foydalaniladi. [Āta, āq bäggül bïlän qïp-qïzïl bäggüldan kesib bering,bugün mäktäbdä bäjrämïjdi,ustäzimγä berämän].

Barkar [bärkär] – bu so‘z toponim so‘z. Bahorikor degan so‘zdan kelib chiqqan. Qishloqdan teparoqda hech kim yashamaydigan joylashgan bahorikor joylarga odamlar asta-sekin ko‘chib borib joylashib qolib hozirda o‘sha qishloqning yangi nomi bo‘lsa “barkar” deb yuritiladi.Aslida, bu bahorikor so‘zi ham “bahor+kor” tojikcha “ kor” ish, ya’ni bahoriy ishdan kelib chiqqan.[Bärkärdajam ʒāqïnda jängi mäktäp āčildi,120 kišï oqijäpti . Häzirgi päjtdä bärkärda uzumi ʒoq ādämdiŋ ozi ʒoq].

Bachki [bäčkï] – bu so‘z adabiy tilimizda mavjud bo‘lib ikkita ma’nosi mavjud. 1)O‘simlik ildizidagi kurtaklardan yoki tana ostidan o‘sib chiqadigan novdalar.2)Ustki kiyim (chopon, chakmon, yaktak va boshqalar)ning tagi tor kelganda oldi va orqa qismi orqasiga kiritiladigan uloq . 3)Bizning shevamizda esa bu so‘z chaqaloq tug‘ilganda,umuman olganda kichik bolachalar uchun olib boriladigan har qanday yangi kiyimcha, ma’nosini beruvchi dialektal ma’noga ega. [Kečä kečqurun qošninïŋ kelini Särvināz qïzli bopti.Šünŋä bïttä bäčkïni ālip otip keläsända düxtirdan kegändan kijin].

Boqchi [bāqčï] – bog‘ so‘ziga “-chi” kasb-hunar yasovchi affiks qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan. Bog‘da, ya’ni, tokzorda ishlayotgan har qanday inson uzum tokini ko‘madiganmi, tagini yumshatib chopib chiqadiganmi, ko‘mgandan keyin ochib chiqadiganmi, xullas uzum tokini ichida nima ish qilsayam o‘sha shaxsga nisbatan boqchi deyiladi. [Kärïm sāγïtqä qäräsä vonnekï bopti, šäsïp-pïšïp äjäsi täjjärlap ketkän lägändagi āšdï āldïdäγïniŋ bāqčïlärdiŋ āldïγä ketä bāšlädï].

Bovliq [bāvlïq] – bog‘ich ip. Bog‘liq ya’ni bog‘langan biron narsa ma’nosini bildiruvchi so‘z tovush o‘zgarishlari natijasida bog‘ich ip ma’nosini ifodalovchi

so‘zga o‘tib qolgan. [Bāvlïq ʒïpti äpkesäŋ bedälardi bāvläp täšärdik ,kejin bāšqä išlärimizdï qiläjberärdik-dä! jä, bāvlïqdi qäjerdagi mägazïndän äpkilaj?]

Bozorqoytish [bāzārqājtïš] – seshanba kuniga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘z odatda, har kuni bozor bo‘ladi ,ammo yakshanba va seshanba kunlari asosiy bozor bo‘lganligi sababli yakshanba “bozor kuni”, seshanba esa “bozorqoytish” kuni deyiladi. [– Kečä qäjsi kun edï, Mähbübä qïzïm? Bāzārqājtïš edï, äjä].

Burung‘i [burüŋγï] – oldingi, qadimgi ma’nolarida ishlatiladi. Adabiy tilimizdagi “burungi” so‘zining fonetik jihatdan tovush amashib “g‘” ga almashishi natijasida hosil bo‘lgan. [Burüŋγilärdïŋ ajtišïčä bïzärdiŋ qïšlāγïmiztiŋ ādämläri āldindän häzïrgidäj urušqāq boγänäkän.Burüŋγï ādamlär baribir bāšqäča edïda volärdä āqibät küčlï edï].

Bxi [bxï] – judayam ziqna bo‘lgan, hamma joydan bir manfaat qidirib, o‘sha joydan nimadir undirib chiqib ketadigan erkak kishiga nisbatan ishlatiladi. Asosan o‘sha shaxsning ismining yoniga qo‘shib aytiladi. [Zäkir bxï bïlän kečä tāvγä bārïp māllärdï čopānŋä täšäp keldik, jāzγäčä pïčï otlāqdä ʒürïp semïrsïn, keyin bïr āj bāγïp, sojïp sātïpʒärämän].

D

Dinka [dïnkä] – tinka-mador. Adabiy tilimizdagi “tinka” so‘zining tovush almashishi natijasida hosil bo‘lgan. [Vāj-bäjeee,bïram dïnkäm qurip ketjäpti,mānāv bāhār kegänigä!Kim bïlädi qānïm kämäjgänmï…]

Do‘msak [domsäk] – tepalik. Do‘mpaygan joy. Do‘mpaygan joy ya’ni do‘mpakning fonetik o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Qïšdä mäzzä qïp domsäkda tājinärdïq, biräm sāγindïm šü päjtlärdi!Ārïqdiŋ āldïdäγï domsäkdä pïdïnälar čïqïp qāptï].

Dostirqan [dāstïrqän] – dasturxon. Ma’lum bir fonetik o‘zgarishlar natijasida shunday ishlatiladi. [Xüršïdä kečgä ʒāqïn kegän mehmänlärdïŋ dāstïrqänini āčdï āqïr-āqïbät. Dāstïrqändïŋ ušäγïni qāqïp kelüvdïŋmä ïšqïp?]

Duvdik [düvdïk] – degan edik. “Demoq” fe’lining to‘liqsiz fe’l orqali o‘tgan zamonda tuslangan shakli.

[Bïzär bïltïr mänši ʒerdï sātip ālämis düvdïk, räjis bïlän kelïšïbam qojuvdik, sātilip ketïptï, essïzginä].

G

Gayak [gäjäk] – uyga kelmay, hech nimani parvoyiga ham keltirmaydigan, sang‘ib yuradigan shaxsga nisbatan ishlatiladi. [Ej,gäjäk,negä ertäläpdän qurïp ketïp endi kelepsän,äää,endi qārnïŋ āčïp qāldïma?Bār, kemä kočädän!(onaning bolani koyigan nutqidan)].

Guppi [güppï] – maqtanchoq, ozgina maqtab qo‘ysa, taltayib ketadigan insonga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘z shaxsga xos bo‘lgan xarakter hisoblanadi. a)Boshqa shevalarda bu so‘z nimcha ma’nosida qo‘llaniladi. [– Ooo, Ināmʒān güppi,mänä bu jänŋi veläsäpitïŋdï kïm äpperdi, bunčä zor häjdäjsän, buni mengäjäm orgätäsanmi?(yosh bolaga qaratilgan nutq)].

Go‘balak [gobäläk] – kechasi uchib yuradigan kapalak. Odatda, ba’zilar bu kapalakni o‘lgan odamlarning ruhi deb hisoblashadi. Uyga kirib qolgan paytda bu kapalakni hech kim haydab solmaydi va ozor bermaydi. [Mäšxuränïŋ xānasiγä bittä gobäläk kïrïp qāptiyäkän,bečärä gobäläkdän bïräm qorqärkän, meniŋ āldïmγä kep otirip āpti-dä…]

H

Halgamchak [hälgämčäk] – arg‘imchoq. Etimologik kelib chiqishi, menimcha, arg‘imchoqni xuddi halqaga o‘xshabroq ilingani uchun halqa so‘zi “halga” ga aylanib, so‘ngra narsa-buyum otini hosil qiluvchi “-chak” qo‘shimchasi qo‘shilgan bo‘lishi mumkin.[Kïčkïnäligimizdä ātäm rähmätlï mïnŋä dāräxtgä hälgämčäk qïp berardi, yana kämigä ozläri üčirärdi, bïrïnčï neväräsiligïm üčün meni hämmä neväräläridän bāšqäčä korärdï].

Hoppay [hāppäj] – Qadam tashlagan paytda ikki oyoqning orasidagi masofa bir hoppay hisoblanadi. O‘lchov birlik hisoblanadi. Uni o‘lchash esa hoppaylamoq deyiladi. [Hāvlïdän ārïqqäčä boγän ʒäjdï hāppajläp čiqüvdïm von hāppäj čïqdï].

Hushpillak [hüšpïlläk] – hushtak. “Husht” taqlid so‘zidan hosil bo‘lib, “-illak” tarixiy, kamunum qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “-P” esa

orttirilgan tovush. [Mäxsüdʒän hüšpïllägini čäläberip hämmäniŋ bezäräni čïqäripʒärdi, äxïri qälidän äjäsi tärtip äpqojdï].

Inko‘z [ïnkoz] – ko‘zi o‘tkir, hech kim ko‘rmagan narsani ham tezda ko‘rib qo‘yadigan kishi. [– Väj,mnäv ïnkozdï qäräŋlär,škäptïŋ ärqäsidäγï kämpïtdï korïp qojïptï.(yoshiga to‘lmagan konfetxo‘r bolaga qarab)].

Irqim-tirqim [ïrqïm-tïrqïm] – mo‘l-ko‘l. Shevamizda “irqillab ketdi” degan so‘z ham mavjud bo‘lib, haddan ziyod oshib ketdi degan ma’noda ishlatiladi. Ushbu juft so‘z “irqillamoq” fe’lidan hosil bo‘lgan. [Šäγzädälärdïŋ äšxänäsïγä kirsäm,qävïn-tärbïz bïräm ïrqïm-tïrqïm bop ʒätïptï, qäjsï bïrinï tänläšdï bïlmäj qäläsän, bïrï-bïridän čïräjli korïnädi].

Iyartmoq [ïjärtmäq] – ergashtirmoq. Bu so‘z folklorimizning noyob durdonasi bo‘lmish “Alpomish” dostonida ham keltirilgan. Shevamizda esa haligacha o‘z o‘rnini yo‘qotmagan. [Šü bïräntä mä’räkägä bälä ïjärtïp kegän ädämdï ʒämän korämän-dä…]

Iyarchan [ïjärčän] – ergashgan. Yuqoridagi iyartmoq fe’lidan hosil bo‘lgan.

[Hïläläniŋ äjäsï kïčkïnä ukäsini beš yäšïdä ïjärčän qïp äpkegän].

J

Jashmaquluch [ʒäšmäqülüč] – bekinmachoq. “Yashinma” so‘zi jashmaga o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Säbïr bïlän Särvär ïkävï ʒäšmäqülüč ojnäp türγän päjtdä dädäsï mäšïndïŋ sïgnälïni bäsïp kep qäldï].

Jelbeshik [ʒelbešïk] – belanchak. “Yelbeshik” so‘zining tovush o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Gäzgä ävqät qojγänim esïmdän čïqïp ʒelbešiktï terbätip otiräberïppän,ävqätäm tägïgä äpketïptï].

Jibimoq [ʒïbïmäq] – ivimoq. Bu so‘z biz qipchoq lahjasi vakili bo‘lganligimiz uchun “y” tovushi “j”ga o‘zgarishi hamda “v” tovushi “b”ga o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Väj bo,ʒïbïp ketïpsänku,tez ujgä kirïp kijimläriŋdï älmäštïrïp čïq,käsäl bop qäläsän].

Jirriq [ʒïrrïq] – asosan, biron narsani to‘kib qo‘ygan paytda shunaqa deyiladi. Menimcha, bu so‘z nimadir yerga to‘kilganda “jirrr” degan ovoz

chiqarishidan hosil bo‘lgan.*[– Hä, ʒïrrïγä, bittä šü āvqätdïjäm oŋläp ïčämmäj togïp qojäsän-ä…]*

Jiyirmoq [ʒïjïrmāq] – burun so‘zi bilan birgalikda “burnini jiyirdi” deb ishlatiladi hamda ensasini qotirdi degandek gapga to‘g‘ri keladi. Bu ma’nosidan tashqari masalan bexosdan qaraganda, ko‘zi yomon narsaga tushib yuzini o‘girib olsa ham bir qarab burnini jiyirdi deb ishlatiladi hamda jirkandi degan ma’noga ham to‘g‘ri keladi. *Muslimä,negä burnïŋdï ʒijiräsän,čïräjlï kojläk-ku,sengä nimäsi ʒāqmäjäptï, tüšunmädim.*

Jolamir[ʒālämïr]-ko‘zi olma teradigan,biron nimani ko‘rib qolsa o‘shani olib o‘tib ketadigan shaxsga nisbatan shunaqa deyiladi. [Bār,qärä, Murād keldï ʒālāmïrγä oxšäp].

Jomov [ʒāmāv] – yamoq.

[Kïjip ʒürgän nïmasï yedï endï hämmä ʒäji ʒāmāv bop ʒātïptï-ku, hä, modäŋdän vorgïldïm, šujäm kïjïmmä ä?]

Jonngil [ʒānŋïl] – o‘simlik turi. Adabiy tilimizda bu “ching‘il” yoki “jangal” deyiladi, dukkakdoshlarga mansub o‘simlik hisoblanadi. [Qümlärdï mustäkkämläš, šor ʒerlärdï kokälämzārläštirïštä gullägän ʒānŋïl ïšlätïlädi].

K

Kandak [kändäk] – xandaq, chuqur o‘ra. [Äzïm, Polät, Ātäbek učāvï kändäkkä suv toldïrïp čomïldï].

Kasimkar [käsïmkär] – “falokat” degan ma’noda qo‘llaniladi. [– Vāj, käsimkär šü päjtdä bu Mirsādïγäm bittä ïškäl čiqärïp türγänini qärä-dä].

Kasratki [käsrätkï] – kaltakesak. [Māmāj änäm käsrätkïnï korsäŋ āvziŋdï ʒum djärdï.Käsrätkïnï korgändä oldirïš keräk ekän].

Ko‘pir [kopïr] – ko‘prik. Tovush o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Tāγämlärdïŋ ujïnïŋ āldidäγï eskï kopïrdän otäjätkänimdä säl qāldï ājāγim qïjšäjïp känälgä tušïp ketïšïmgä, Xüdā bïr sāqlädïdä].

L

Lash-lush [läš-lüš] – mayda-chuyda narsalar. Umuman olganda, har qanday narsaga nisbatan ishlatsa bo‘ladi. [Sāhïbä, bïjïrdän läš-lüšläriŋdï ʒïštir,häzir āvqätti süzip kelämän].

Loqqi [lāqqï] – aldoqchi, quloqqa lag‘mon iladigan shaxs. “-lab” affiksi qo‘shilishi natijasida loqqilab fe’li hosil bo‘ladi va gapni, hangomani berib, quloqqa lag‘monni ilib ma’nosida ishlatiladi. *[Sāʒïdä yäŋä kep bïr sāät lāqqiläp, meniγäm išdän qāldïrdï. – Shämsïddïn lāqqï kettïmä ujigä?]*

Lo‘laba [loläbä] – bolish. Uzunchoq shakldagi yostiq. Boshqa shevalarda lo‘la deb ham ishlatiladi. [Ujdä fäqätgïnä dädäm loläbä dāstïqdä ʒātïšdï jāxšï korärdï].

M

Mojiriq [māʒïrïq] – majruh, biron joyi singan, yaralangan, jarohatlangan.

[Frāntdän qājtāyïtqänlär ïčïdä tort muččäsï putun jïgïtlär bolγänïdäj, mājïp-māʒïrïqlär häm bār edï].

Moychiräq [mājčïräq] – moyli, ya’ni, yog‘li chiroq. Bitta piyolaning ichiga ozgina yog‘ solinib, paxta uzunchoq ip shaklida qilib olinib o‘sha piyoladagi yog‘ga botirib olinadi. Keyin esa ip shaklidagi paxtani piyolaga yotqizib bir uchini chiqarib yoqib qo‘yiladi, qolgan qismi piyoladagi yog‘ning ichida turadi. [Yāšlïγïmizdä svït očïp qāγändä äjäm därrāv mājčïräq täjjārlärdï,kejïn esä hämmämïz šü mājčïräqdïŋ āldïdä türnä bālälärïdäj tïzïlïp otïrärdïq].

Muttilim [muttïlïm] // mutfilim [mutfïlïm] – multik, multfilm. [Jāvāhïr keläsāp tülbïzïrdï qojγän edï, Mäšä vä mājmāq muttïlïmi bāšlänïp qojïptï].

N

Nomoshom [nāmāšām] – kechgi payt, ya’ni, shom namozi vaqti. Namoz shom so‘zlaridan hosil bo‘lgan.Kechki payt ochiladigan gul ham bor adabiy tilimizda namozshomgul deyiladi, bizda esa nomoshomgul. [Äjäm bïzärdï heč nāmāšām päjtï uxläšgä qājmäsdï,jāmān bolädï nāmāšāmdä uxläsä derdï].

O

Ongormoq [āŋāmāq] – fahmlamoq, anglamoq, tushunmoq. Kelib chiqishi ong so‘zidan yasalgan. [Xäbïbä boläjātgän ïšlärdï korïp turγän bosäjäm, heč nïmänï āŋārmäj, türgän ʒäjïdä qātïp qālgändï].

Oriqjog‘a [ārïqʒāγä] – ariq yoqasi. Fonetik o‘zgarish natijasida hamda ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan. [Ārïqʒāγädä bïttä yekïtä pïdïnälär čïqïp qāptï, bälädäj kättägïnä bop].

Oxcho‘bara [āxčobärä] – uzum navi. Bandi cho‘bara deyiladi va rangi oq bo‘ladi shuning uchun shunaqa nomlanagan. [Kečä bāzāryä bārïp ellik kïlä āxčobärä mäjïzdän sātïp kegändï, pulï urpāq häm bomädï, ārzān bop ketïptï täzzäjäm].

Ovdarmoq [āvdärmāq] – ag‘darmoq. Ag‘darmoq so‘zining fonetik o‘zgarishi natijasida hosil bo‘lgan. [Šü ägärätdä bïr sāät ïšlägän bosäm, xuddï bïr gektär ʒerdï āvdärïp täšlägändäj boldïm šü bugun].

P

Pongoloq [pāŋālāq] – makkajo‘xori so‘tasining donidan ajratilgandagi zo‘g‘ota qismi. [Ʒerdä ʒātqän pāŋālāqlärdï bïttä xāltäγä sāp qojsäk,qïšdä šäšlïk pïšïretgändä mäzzä qïp ïšlätämïs].

Q

Qorish[qārïš]-o‘zidan kattalarga gap qaytaradigan,yoki sal tegib ketsa ham darhol qaytaradigan holatga nisbatan. Bu so‘z qaytarishni qisqartirishlar natijasida hosil bo‘lgan. [Bünčä qārïššän,därrāv qäjtäräsän-ä…]

Qoxmoq [qāxmāq] – qopqoq. *[– Bänkä ʒāvïšqä qāxmāq keräk, šünŋä čāvïp mägäzïŋä čïqïp ke, bār].*

Quvurmach[qüvürmäč]-qovjirab,quruqshab qolgan o‘simlik. *Māšlär qüvürmäč bop qāptï,bugun-ertä hämmämïz birgälikdä bārïp ʒülïp kelïšïmïs kerägekän,bomäsä ïčïdägï dänï togïlïp ʒer bïlän bïttä bolädï.*

S

Salxa[sälxä]-bo‘sh tortilgan. *Kāmildïŋ ustüŋä bäjläp čïqqän ʒïplärï änčä sälxä bop qāptï, yänä pïčï tārtïp mäkkäm qïp bäjläp čïqïšï keräk-dä.*

T

Trama [trämä] – kuz fasli. [Trämädä Fāzïl äkä toj qïlärkän,šü tojigä heč bomäsä tojïnïŋ ïčïmlïklärïni kotärsäk,änčä ʒenŋïllïk bolärdï].

To‘g‘a [toγä] – taqa. [Dïlārām bojnïγä toγädäj qäp kättäkän täqïnčäq tāγïb āptï, ummän ʒäräšmägän-dä].

V

Vayvayak [väjväjäk] – ko‘p yig‘laydigan, injiq, chakagi o‘chmaydigan bola. Voy-voy taqlid so‘zidan hosil bo‘lgan. [Šü Ājdïn väjväjäkdïŋäm dï:m āvāzï očmädï].

O‘

O‘bada [obädä] – uvada. Paxtaning ko‘rpa, yostiq, ko‘rpachalarga solingani. Paxtani chigitidan ajratib ko‘rpaga solish uchun titilgani. [Korpälärdï qüjäšγä ʒäjsäŋ, ïčïdägi obädälärï änčä išärdï].

Sh

Sholtut [šāltüt] – shotut. Shohtut, shomtut degan shakllari ham mavjud. [Šātüt bāšqä tütlärdän korä ančä ästärāq osädï.Ātäm šātüt fājdälï boγänï učün här künï bïr mähäl āvqätdän kejïn ʒïjärdï].

Shiqinglamoq [šïqïŋlämāq] – hiringlab kulmoq. [Nïmä,menï bïrän ʒäjimgä bïrän nïmä qïptimï,jekāvïŋ bünčä šïqïŋläjsän?]

Ch

Chibalashmoq [čïbäläšmāq] – o‘ralashmoq, halaqit qilmoq. [Umidä kojlägïnï uzü:n qip tïktïrïp āptï,etägï ājāγïγä čïbäläšïp qāp,kämïgä pošnäli tuflï kijïp āptï zāγä ojnädï tojdä].

Chumak [čümäk] – choynakning quyganda suv tushadigan qismi. [Čājnäktïŋ čümägï pïtïp qāγänmä süv jäxšï tüšmäj qāptï].

Cho‘ki [čokï] – cho‘p. [Xālïda nämpärnï tāvāmmäγändän kijïn bïttä kičkinä čokkïčä tāvïp, tāzäläp nāŋä urdï].

Sheva so‘zlari bilan ishlash ham bahsli, ham murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun biz shevamiz materiallarini oddiy izohlash yo‘lidan bordik. Lekin bu holda ham dialektal so‘z turi va dialektal ma’nolar masalasiga to‘xtalish lozim

bo‘ladiki, fikrimizni asoslash maqsadida shu dialektal so‘z(lar) qatnashgan gap(kichik mikromatn)ni keltirishni o‘rinli bildik. Bu yerda, ya’ni ushbu maqolada

62 ta so‘zning oddiy izohiga to‘xtalib, ularning ma’no nozikliklarini ochib berishga harakat qilindi. Bunda albatta, so‘z tarkibida yuz bergan fonetik va fonomorfologik hodisalarga ham e’tibor berish zarur bo‘ldi. Zero, til boyligimiz bo‘lgan sheva so‘zlarimizni qancha tez va sifatli izohlasak, bilikki, ularni adabiy tilga singdirish shuncha oldin boshlanadi.

Axborotchilar ro‘yxati:

1. Berdiyev Norqozoq 1950-yilda Payariq tumani Muhammadi qishlog‘ida tug‘ilgan.
2. Berdiyeva Soniya 1951-yilda Payariq tumani Muhammadi qishlog‘ida tug‘ilgan.
3. Qo‘zibekov Ulug‘bek, 1955-yilda Samarqand viloyati Payariq tumani Xosa qishlog‘ida tug‘ilgan.
4. Qo‘zibekova Zamira, 1959-yilda Samarqand viloyati Payariq tumani Xosa qishlog‘ida tug‘ilgan.
5. Xatamova Mag‘firat, 1932-yilda Payariq tumani Muhammadi qishlog‘ida tug‘ilgan.
6. Haydarova Aziza 1960-yilda Samarqand viloyati Payariq tumani Zarbuloq qishlog‘ida tug‘ilgan.
7. Mixliboyeva Sanobar 1947-yilda Payariq tumani Muhammadi qishlog‘ida tug‘ilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev, F. (1957). O‘zbek tilining qipchoq shevasi//O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. Toshkent.
2. Ishayev, A. (1990). O‘zbek dialektal leksikografiyasi. Toshkent: Fan.
3. Rajabov, N. (1977). O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari. –Toshkent.
4. Shoimova, N. (2009). O‘zbek shevalari leksikasini o‘rganishning dolzarb masalalariga doir (Qashqadaryo vohasi materiallari asosida) // SamDU Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 6(58)-soni. Samarqand.
5. Абдуллаев, Ф. (1957). Кипчакский говор узбекского языка. АКД. Ташкент.
6. Джураев, А.Б. (1991). Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. АДД.-Москва. с.38.
7. Ҳожиев,А. (1985). Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи.

“SO‘Z LATOFATI”DAGI ETIMOLOGIK TALQINLAR

O‘tkirova Umida Rustam qizi,
O‘FF 4-kurs Umidarustamovna1801@gmail.com
Ilmiy rahbar: Zulxumor Xolmanova.

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili rivoji va istiqboliga ulkan hissa qo‘shgan Erkin Vohidovning “So‘z latofati” asaridagi etimologik talqinlar xususida so‘z boradi. O‘zbek tilidagi so‘zlarning kelib chiqishi va hodisaga asar muallifining munosabati, shaxsiy kuzatishlari asardan olingan parchalar misolida tahlil qilinadi. Shuningdek, so‘zning etimologik kelib chiqishiga doir fikrlar boshqa olimlar qarashlari bilan muqoyasa qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *So‘z, “So‘z latofati”, “Muhokamat ul-lug‘otayn”, til tarixi, etimologiya, mazmuniy bog‘lanish, enantiosemiya, genderolingvistika, taqlid nazariyasi.*

Abstract. *The article talks about the etymological interpretations of Erkin Vahidov's work "Soz Latofati", who made a great contribution to the development and prospects of the Uzbek language. The origin of the words in the Uzbek language, the attitude of the author of the work to the event, personal observations are analyzed on the example of excerpts from the work. Also, opinions on the etymological origin of the word are compared with the views of other scientists.*

Keywords: *Word, "Soz latofati", "Muhokamat ul-lug'otayn", language history, etymology, meaningful connection, enantiosemy, genderolinguistics, imitation theory.*

Tilshunoslik, xususan, o‘zbek tilshunosligi tarixida tilning etimologik xususiyatlariga, so‘zlarning kelib chiqishiga doir ishlar ko‘plab topiladi. Biroq ularning ichida Erkin Vohidovning So‘z latofati asari muallifning original yondashuvi, noodatiy filologik talqinlari bilan boshqa asarlardan farqlanadi.

Yoshlik devonini o‘qib, G‘aroyib us-sig‘arni, So‘z latofatini varaqlab, Muhokamat ul-lug‘ataynni xayolga keltirishimiz tabiiy. Sababi Erkin Vohidov bu asarlarni Navoiydan ilhomlanib, ta’sirlanib yozgan. Forsigoylik ta’siri va an’anasi tufayli turkiyzabon shoirlar ham fors tilida ijod qilayotgan, natijada turkiy til

latofati yashirin qolayotgan bir paytda, Alisher Navoiy bu tilning nafosatini o‘z badiiy asarlari bilan amalda namoyish qilib bergan va turkiy tilning forsiydan kam emasligini, hatto ko‘p hollarda ifoda imkoniyatlari kengroq ekanini Muhokamat ul-lug‘atayn asarida asoslab bergan bo‘lsa, Erkin Vohidov sho‘rolar yuritgan til siyosati natijasida rivojlanish imkoniyatlari cheklangan tilimizning g‘amxori sifatida maydonga chiqdi va bizni qurshab turgan olamning turfa ranglarini ifodalash uchun beqiyos katta imkoniyatlari mavjudligini “So‘z latofati asari orqali yoritib berdi.(Nurmonov A.So‘z mulkiga sayr.//Sharq yulduzi. 6-son.-T., 2014.)

Kitobda bayon qilinishicha, qadimgi ajdodlarimiz tog‘dan shovullab tushgan suvni shovva, shar-shar to‘kilganini sharshara deb ataganlar. Qushlarning lak-lak qilgani laylak (aslida, laklak), qag‘illagani qarga bolgan. Chugurchuq, olashaqshaq, kakku, gulgul (kurka), bulbul singari qush nomlari; to‘qmoq (to‘qillab urgani), taqa (tuyoq ostida taqillagani), zang(zangillagan qo‘ngiroq) singari buyum nomlari; dang (dong) (do‘ng‘illagan sado), dang‘illama (dong chiqargan) singari sozlar ham tovushga taqlidga boglanadi.

Garchi asar boshida adib muqaddas kitoblarda bayon qilingan avval kun bo‘l sozi yaralgan, degan fikrni keltirsa ham, muallif keyinchalik taqlid nazariyasiga shu qadar berilib ketadiki, neandertal odam, yani rosmana insonga aylanmagan ibtidoiy ong egasining birinchi so‘zi toshni toshga urib chaq etgan tovushga taqlidan chaq degan so‘z bo‘lgan, degan fikrni aytadi. Adibning fikricha, keyinroq tosh bilan danak chaqqan, yong‘oq chaqqan, bolasiga ham chaq!.. deb buyurgan. Bora-bora toshdan o‘t chiqarib uni ham chaq dedi. Ko‘kda chaq etib yongan olov ham chaq boldi. Keyinchalik chaqmoq, chaqin, chaqmoqtosh sozlari paydo boldi. Chaqaning o‘zi bir necha ma’noda qo‘llanildi: tosh bir-biriga urilganda uchgan yeri chaqa, toshga qoqilganning oyoq barmogi chaqa, ko‘p gapirganning tili chaqa.

Tosh maydalab chaqa degan inson uchun hamma mayda narsalar chaqa boldi. Pul maydalab chaqa dedi. Mayda bolasini bola-chaqa dedi. Eng maydasi chaqaloq boldi.Taraqqiyot insonga aql-zakovat berdi. Zakovatli inson tosh chaqishdan gap chaqishga otdi, toshdan uchqun chiqargan bo‘lsa, gapdan ot chiqardi. Chaqimchi, chaqmachaqar, chaqimchilik, chaq (1) ilonning tishlagani, chayonning nayza

sanchishi; 2) gugurt cho‘pini yondirish; 3) so‘z mag‘pzini tushunish), chaquv, chaqchaqlashuv so‘zlari ham ana shu ibtidoiy chaqdan kelib chiqqanligi aytiladi.

Bu so‘zlarning hammasida mazmuniy bog‘lanish mavjudligi ko‘rsatib beriladi. O‘zbek tilidagi chaq so‘zi bilan mazmunan bog‘liq bo‘lgan barcha keltirilgan so‘zlar yuzasidan bildirilgan fikrlarga qoshilish mumkin. Lekin bu so‘zni ibtidoiy odamning birinchi so‘zi bolgan, degan fikrini shoirning shaxsiy fantaziyasi, mubolag‘alashtirish natijasi sifatida baholashga togri keladi. Chunki ibtidoiy odam dastlab dunyoning qaysi tilida so‘z aytgan? Bu masala shu kungacha yechib bolmaydigan jumboq sanaladi. Bir vaqtlar akademik N.Ya.Marr insonning dastlabki fonetik tili somiy tillar (to‘g‘rirog‘i, o‘zi mansub bo‘lgan kavkaz tillari)dagi to‘rt elementdan (sal, ber, yon, rosh so‘zlaridan) iborat bo‘lgan, degan fikrni olg‘a tashlagan edi. Agar muallifning ibtidoiy odamning ilk so‘zi chaq bolgan degan fikriga qoshilsak, dastlabki inson o‘zbek bolgan ekan-da, degan xulosaga kelinadi.

Jamiyat taraqqiyotida yangi-yangi tushunchalarning dunyoga kelishi bilan tilda ularning nomlari ham paydo bo‘ladi. Yoki bir narsaning turfa nomlari maydonga kelib, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. E.Vohidov Uch daryodan suv ichgan dengiz maqolasida tilimizning ichki va tashqi omillar asosida rivojlanib borishi haqida fikr yuritar ekan, o‘zbek tilining buyuk dengizi uch buyuk daryo turkiy, arabiy va forsiydan suv ichish barobarida eski lotin, xitoy, hind, mo‘g‘ul, rus, Yevropa tillaridan bahramand bo‘lganini to‘g‘ri ta’kidlaydi. Xususan, birgina osmon tushunchasining o‘ndan ortiq nomini sanab o‘tadi. Masalan, osmon, falak, samo, charx, gardun, fazo, kok, arsh, davvor, minu va boshqalar.

Jamiyatimizda o‘zbek tilimizni yaxshi ko‘ruvchi insonlar ko‘p. Lekin ularning qarashlarida ba’zida mahdudlik, cheklanish jihatlarini ham ko‘ramiz. Masalan, kimdir forscha so‘z kerakmas, deydi. Kimdir arabchani, kimdir turkchani-da ishlatishga qarshi, o‘zbek tili “sof” bo‘lishi tarafdori. Bu xususda muallif ham o‘z asarida fikr bildirib o‘tadi: “Tilimiz shakllangan muhit, jug‘rofiy hudud forsiy, arabiy va turkiy daryolardan suv ichgan, shuning uchun ham ifoda imkoniyati keng. Shunaqa tovlanishlar borki, boshqa turkiy tillarda topilmaydi bu.

Qodiriy tilini, Bobur tilini ko‘ring, so‘zning qanday go‘zal ifoda topishiga e’tibor qiling. Xalqona so‘zlarni aytmaysizmi. “Qani, o‘zlaridan bo‘lsin”, degan ifodani qaysi tildan topish mumkin?” (Erkin Vohidov. So‘z latofati.- T.:O‘zbekiston,2014.)

Bugungi umumlashuv davrida dunyodagi hech bir faol til xorij so‘zlaridan o‘zini butunlay muhofaza qila olgan emas. Inglizmi, yaponmi, turkmi, hammasida ham minglab, o‘n minglab boshqa tillardan kirib kelayotgan so‘zlar borligini kuzatish mumkin. Tilimizga kirib kelgan arabiy, forsiy so‘zlarni sohalar boyicha tasnif qilar ekan, muallif diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarning ko‘pi arab tilidan, bir qator ish qurollarimiz, jomadon, hokandoz, dastsho, jomashu, dazmol, qogoz kabi hunarmandchilikka oid so‘zlarimiz, shuningdek, yuksak sheriy uslubga xos suxanlar fors tilidan olinganini, ayrim so‘zlarning o‘zbekchasi ham, forschasi ham tilimizda barobar ishlatilishini bayon qiladi. Masalan, arabcha Alloh, forscha xudo, o‘zbekcha tangri; o‘zbekcha yurak, arabcha qalb, forscha dil; arabcha ism, forscha nom, o‘zbekcha ot; arabcha lison, forscha zabon, o‘zbekcha tilkabi. Bularning barchasi o‘zbek tilidan mustahkam o‘rin olib, o‘zimizniki bo‘lib ketgan. Shu sababdan tilimiz boy va rangin ekani, hech bir boshqa tilda bo‘lmagan shakldosh so‘zlar san'ati— tuyuq o‘zbek tilida borligi, hech bir boshqa tilda yo‘q askiya, so‘z o‘yini bizda mavjudligi ta’kidlanadi.

Tilimizdan boshqa so‘zlarni haydab chiqaramiz, deyish noto‘g‘ri, chunki xalqimizning qon-qoniga singib bo‘lgan baynalmilal, internatsional so‘zlarni ham qabul qilishimiz kerak. Din nuqtayi nazaridan, arabcha ham tilimiz hisoblanadi. Yaqin hamkorlikda bo‘lib singishib ketgani uchun fors tiliyam o‘zimizning tilimiz”, deydi Erkin Vohidov.. “So‘z — zabarjad, so‘z — gavhar, oltin...” Shu ifodaning o‘zida ham uchta tildan foydalangani muallifning tilga bo‘lgan munosabatini yaqqol ko‘rsatadi.

Muallif asar tarkibidagi “Kenguru va Belmes” maqolasida boshqa tillarga turkiydan o‘tgan so‘zlar haqida fikr yuritadi. Unda ingliz sayyohi Jeyms Kuk Avstraliyada o‘ziga noma’lum hayvonning nomini so‘raganda, ular ingliz tilini tushunmay bir-birlariga qarab kenguru deyishgani, bu so‘z, aslida, tushunmadim

ma’nosini bildirgani, Kuk esa bu hayvonning nomi kenguru ekan deb daftariga yozib olgani, natijada bu nom dunyoga tarqalgani bayon qilinadi. Xuddi shunga o‘xshash hodisalar turkiylar bilan ruslar o‘rtasida ham mavjud bo‘lganini balbes so‘zi orqali ochib beradi. Muallif rus tilidagi balvan, yeralash, kavardak, post, karaul, yesaul, kalpak, shtanы singari bir qancha so‘zlarning turkiy ekanini, ularning asl ma’nolarini to‘g‘ri yoritib beradi.

Asarda so‘z ma’nosi, undagi mazmuniy o‘zgarishlar haqida juda qiziqarli materiallar beriladi. Xususan, Maosh va osh maqolasida o‘zbek, arab, fors, hind tillarida uchraydigan jahongashta so‘zlarning qismati, ulardagi ma’no o‘zgarishlari haqida fikr yuritiladi. Maqolada takidlanganidek, maosh deganda biz bugun oylik, ish haqini tushunamiz. Aslida, bu so‘zning manosi tiriklik, hayot kechirish, yashamoq ekanini, Alisher Navoiy ham Maosh aylamoq ajdaho komida, deya bu so‘zni xuddi shu ma’noda qo‘llaganini bayon qiladi. Maosh so‘zining hozirgi o‘zbek tilidagi ish haqi ma’nosi asl hayot kechirish, yashamoq ma’nosining taraqqiyoti, uning hosilasi ekani takidlanadi. Muallif fikricha, qadimdan davlat xizmatidagi kishilarga maosh tayinlangan, yani tirikchiligi taminlangan. Shu asosda E.Vohidov maosh so‘zining hayot kechirish, tirikchilik manosi bilan ish haqi ma’nosi o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini ochib beradi. Bu so‘z bilan o‘zakdosh bo‘lgan yashamoq ma’nosidagi maishat so‘zi bugun o‘zbek tilida aysh-ishrat ma’nosini bildirishini, urdu tilida so‘zlashuvchi hindlar esa bu so‘zni iqtisod ma’nosida qo‘llashini bayon qiladi.

Muallif dunyoning turli tillariga tarqalgan jahongashta so‘zlarning har qaysi tilda bir-biri bilan bog‘liq, lekin boshqa-boshqa ma’no ifodalashiga juda qiziqarli faktlar keltiradi. Jumladan, hind tilida kamina so‘zi tuban, pastkash ma’nosida, muhbir so‘zi ayg‘oqchi, josus ma’nosida, taklif so‘zi kulfat, iflos so‘zi qashshoq manosida ishlatilishini, iflos, muflis so‘zlari mumtoz adabiyotimizda ham faqir, yo‘qsil ma’nosida qo‘llanilganini takidlaydi. O‘zbek tilida parhez ma’nosida ishlatiluvchi dieta, aslida, yunon tilida taom ma’nosini bildirganini, qadimgi Yunonistonda eng yuqori davlat organi bo‘lgan xalq majlisi a’zolariga beriladigan ish haqi ham dieta deyilganini bayon qiladi. Adibning mushohada doirasiga tan

berish kerakki, u o‘zbek tiliga kirib kelgan va mazmunan tilimizda bir-biridan ancha uzoq bolgan kelib chiqishi yunoncha dieta so‘zi bilan asli arabcha maosh so‘zi mazmuniy mundarijasida umumiylikni ko‘radi. Yunoncha dieta so‘zining hayot kechirish ma’nosi ham, tanovul ma’nosi ham, mablag‘ ma’nosi ham arabcha maosh so‘zining ma’nolariga muvofiq kelishini kashf etadi.

Bo‘yinbog‘ desang o‘larmiding, Zimiston, Qoyil singari maqolalarda ham jahongashta sozlarning ana shunday ma’nolari haqida fikr yuritiladi.

Hozirgi o‘zbek tilidagi yuvilgan, artilgan, pok ma’nosidagi toza so‘zi asli yangi ma’nosini, hozirgi uquvli, manili ma’nosidagi tamiz(li), uquvsiz, manisiz(odam) ma’nosidagi betamiz so‘zlari, aslida, pok, yuvilgan (tamiz), yuvuqsiz, nopok (betamiz) ma’nolarini bildirganini bayon qiladi. Bu fikrlar adibning so‘zga, uning ma’no taraqqiyotiga naqadar sinchkovlik bilan e'tibor berganining, noziktab shoirlik bilan sinchkov so‘zshunoslik qobiliyati omuxta bo‘lganining hosilasidir.

So‘z ma’nosining o‘zgarishi haqidagi fikrlar rang so‘zi misolida ham davom ettiriladi. Hozirgi o‘zbek tilida xiyla manosidagi nayrang so‘zining ham rang so‘ziga bog‘liqligi fors tilida har rang ma’nosidagi ne rang arab yozuvidagi yoy harfining ikki xil o‘qilishi bois nayrangga aylanishi, bu so‘zning har rang ma’nosining xiyla, aldov ma’nosiga o‘tishida ko‘zni aldab har rangda tuslanish belgisi asos bo‘lgani bayon qilinadi.

Hozirgi tilimizda olov ma’nosidagi alvon so‘zi asli arab tilida rang ma’nosidagi lavn so‘zining ko‘pligidan yuzaga kelganligini ta’kidlab, rang so‘zining turfa ma’nolari haqida bahs yuritadi.

Muallif Navoiy asarlari lug‘atida bu so‘zning faqat beshta ma’nosi ko‘rsatilganini bayon qilgan holda, o‘zi fors tilida yozilgan Kanzul lug‘ot, Muntahobul lug‘ot, Baxrul javohir, Lubbul albob, Kashful lug‘ot, Firdavs ul lug‘ot singari hali Respublika olimlarining qalami yetmagan o‘ttizdan ortiq lug‘atlar xazinasidan rang so‘zining o‘ttiz bir ma’nosini topadi. Bu bilan shoir noyob sharqshunoslik qobiliyatini ham namoyon qiladi.

So‘z ma’nolari taraqqiyotida bir so‘zni tamomila qarama-qarshi ma’noda ishlatish ham tilimizda ko‘p uchraydi. Bunday hodisaga tilshunoslikda enantiosemiya deyiladi. Mazkur hodisa turkiy tillarda qadimdan mavjud bo‘lib, Mahmud Koshg‘ariyning ham diqqatini jalb qilgan edi. U suchik so‘zini ilgari achchiq ma’nosida, keyinchalik mazali ma’nosida qo‘llanganini, o‘r chuqurlik ma’nosini bildirishi bilan birga tepalik ma’nosini ham ifodalaganini ko‘rsatgan edi.

Adib xuddi ana shunday hodisani qalb so‘zida ko‘radi. Uning fikricha, tilimizda ikki qalb bor. Ular shu darajada bir-biridan uzoqki, tutashmog‘i sira mumkin emas. Biri inson yuragi, poklik, to‘g‘rilik, oliyjanoblik timsoli bo‘lgan qalb. Boshqa biri qalbaki, qallob so‘zlarining o‘zagi, ya’ni egrilik, aldamchilikni ifoda qiluvchi qalb. Muallif hazrat Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asaridagi g‘azallar tahlili orqali qalb so‘zining yana qo‘shin markazi va kofir ma’nolarida ham qo‘llanganini aniqlaydi va yurak nima uchun qalb deyilgan, uning qalloblikka, yolg‘onchilikka nima aloqasi bor? degan savolga shunday javob beradi: Inson ongi shakllangandan beri aql va yurak o‘rtasidagi bahs tugamagan. Odamzodni hissiyot ko‘p aldagan. Hamma xalqlarda: Ko‘ngil kochasiga kirma, degan mazmundagi hikmat bor. Demak, yurak ko‘chasiga kirib aldangan odamlar unga qalb deya nom qo‘yibdilar.

Qalb so‘zi ifodalagan qarama-qarshi ma’nolar o‘rtasidagi bunday aloqadorlikni topish uchun faqat Erkin Vohidovcha fikrlash, Erkin Vohidovdek mumtoz adabiyotimiz sirlarini anglash kerak bo‘ladi.

Muallif tilimizdagi asl ma’nosi o‘zgargan so‘zlarga shunchalik sinchkovlik bilan yondashadiki, mehnat, fuqaro, mard, magiz, fan, pul, siyoh singari yuzga yaqin ana shunday so‘zlarni topadi va Adash, dedim, adashdim maqolasida ularning ro‘yxatini beradi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, So‘z latofati kitobida shoir Erkin Vohidovning til fidoyisi ekanligi, so‘zlarning ma’no qaridan dur izlashga jazm qilgani namoyon bo‘lgan. Bu asar o‘zbek tilining ifoda va badiiy imkoniyatlarini yoritishga, tilga e'tibor, hurmat ruhini shakllantirishda ahamiyatlidir. Erkin Vohidovning “So‘z latofati” asaridagi etimologik talqinlar xususida so‘z yuritib,

o‘zbek tilidagi ayrim so‘zlarning kelib chiqishi va hodisaga asar muallifining munosabati, shaxsiy kuzatishlari asardan olingan parchalar misolida bilib oldik. Shuningdek, so‘zning etimologik kelib chiqishiga doir fikrlar boshqa olimlar qarashlari bilan muqoyasa qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vohidov E. (2018) .So‘z latofati .-T.: O‘zbekiston.
2. Nurmonov A. (2014) So‘z mulkiga sayr.//Sharq yulduzi. 6-son.-T.
3. https://yuz.uz/uz/news/soz-durlarin-termoqdir-ishim
4. Mirza Kenjabek. (2020) Kitob haqida: Xurshid Davron kutubxonasi.-T
5. O‘zbek mutafakkirlarining til nazariyasiga oid qarashlari(2021) // Xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari.-T.

QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI DIALEKTINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Po‘latova Fazilat Shuxrat qizi

ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti, 2-kurs

polatovafazilat8@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada dialektologiya sohasida olimlarning olib borgan tadqiqot ishlari, izlanishlari va shevalarning bugungi kundagi ahamiyati, uning adabiy tilni boyitishdagi tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Kitob tumani shevasidagi ayrim fonetik xususiyatlari haqida fikrlar bildiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Til, dialekt, sheva, lahja, dialektologiya, fonetika, fonetik*

Abstract. *This article talks about the research works, researches and dialects carried out by scientists in the field of dialectology, and the importance of dialects today, its role in enriching the literary language. Also, some phonetic features of the dialect of Kitab district of Kashkadarya region are expressed.*

Keywords: *language, dialect, dialectology, phenomena, phonetic phenomena.*

Barcha insonlarga eng muhim va qulay aloqa vositasi hisoblangan til jamiyatdagi shaxslarning izlanishlari, harakat va mehnatlari evaziga o‘zgarib,

rivojlanib boradi. Tilning paydo bo‘lishini dastlabki taraqqiyoti haqida olimlar hanuzgacha bir to‘xtamga kelmaganlar. Vaqt o‘tgan sari tillar ham rivoj topadi, boyiydi. Shu boisdan bugungi kunda yer yuzida tillarning 7000 dan ortiq turlari tarqalgan va bu tillarning barchasi o‘zining fonetikasiga ega. Ular orasida o‘zbek tili ham boy til hisoblanadi. O‘zbek tilida ham boshqa turkiy tillarga qaraganda shevalarning ko‘plab turlarini uchratishimiz mumkin.

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Uning taraqqiyot tarixi va hozirgi davrini tushunish va izohlashda *sheva, dialekt* va *lahja* degan terminlar qo‘llanadiki, ularning lug‘aviy va terminologik ma’nolarini bilish, albatta, zarur.

Sheva forscha ravish, tarz, yo‘sin degan ma’nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. **Dialekt** so‘zi grekcha bo‘lib, sheva degan ma’noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi**. Lahja** arabcha so‘z bo‘lib, u ham ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma’nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o‘zbek tilining taraqqiyotiga asos bo‘lgan sheva va dialektlarning eng yirik to‘dasini anglatadi (Ashirboyev,2013, 4-bet).

Hozirgi kunda sheva xususiyatlari adabiy til ta’sirida juda tez birlashib, tekislanib borayotganiga qaramay, bu xususiyatlar faqat qishloqlarda emas, hatto shaharlarda ham ma’lum darajada saqlangan. Shu sababli, o‘quvchilar nutqida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozuvida uchraydigan xatolar sheva ta’sirida sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun o‘qituvchilar, ayniqsa, ona tili o‘qituvchisi o‘zbek adabiy tili normalarini yaxshi bilishi, bu normalarni o‘quvchilarga o‘rgatishi, ularning yozma va og‘zaki nutq madaniyatini o‘stirish ustida tinimsiz mashg‘ulotlar olib borishi va o‘quvchilar nutqida uchraydigan kamchiliklarni (sheva ta’siridagi) tuzatmoq uchun barcha o‘zbek shevalariga xos xususiyatlarni yaxshi bilmog‘i kerak.

Shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. O‘zbek dialektologi ham o‘zbek tili tarixini o‘rganish,

uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir. Shevalarni o‘rganish o‘zbek adabiy tilining fonetik, leksik, grammatik normalarini belgilash uchun katta ahamiyatga ega.

Dialektologiya fanining obyekti mahalliy dialekt, lahja va shevalar bo‘lib maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif etish;

2. Milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni va shu milliy tilga xos bo‘lgan shevalarni aniqlash;

3. Shevalarning o‘zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo‘lgan munosabatlarini belgilash;

4. O‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash;

5. Umumiy o‘xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma’lum territoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya qilish (Reshetov, Shoabdurahmonov, 1978, 5-bet).

O‘zbek shevalarining o‘rganilishi uzoq davrlarni o‘z ichiga oladi. Olib borilgan tadqiqotlarning mohiyati va qay darajada yoritilganligiga qarab ularni 5 ta davrga ajratish mumkin. Dastlabki davr deyarli barcha turkiy tillar uchun umumiydir. Shu bilan birga o‘zbek tilining ham qadimgi davri hisoblanadi. Bu davrda til strukturasining barcha tomonlari leksikasini o‘rganish markazga olingan, ya’ni urug‘ va qabilalar tilining fonetikasi, morfologiyasi lug‘at tuzish, leksikasini sharhlash jarayonida izohlanadi. Bunga misol qilib “Devonu lug‘atit turk” asarini keltirish mumkin. Keyingi ikkinchi davr esa Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari yordamida tavsiflanadi. Uchinchi davrda esa oldingi davrlarga nisbatan ko‘proq tadqiqotlar olib boriladi. Jumladan, M.Terentev, A.V.Starchevskiy, Z.A.Alekseev, V.Nalivkin kabi rus turkologlarining asarlarida o‘zbek shevalariga doir boy ma’lumotlar jamlangan. To‘rtinchi davrga kelib o‘zbek shevalarini o‘rganish qizg‘in tus oldi. Professor Y.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, K.K.Yudaxin, V.V.Reshetov kabi mashhur olimlar o‘zbek tili

shevalarining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini tadqiq etishgan. So‘nggi beshinchi davrda esa o‘zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi, keng ko‘lamda o‘rganildi hamda o‘zbek dialektologlarning yangi avlodi paydo bo‘ldi (Ashirboyev, 2021, 112-bet).

Yurtimiz jahon miqyosi bo‘yicha unchalik keng bo‘lmasa-da Markaziy Osiyoda Qozog‘istondan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi keng hududli va shu bilan birga 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladigan ko‘p millatli mamlakatdir. Albatta, bu xalqlarning barchasining ma’naviyati, madaniyati, urf-odati bir-biridan farqlanib turganidek tili, shevasi ham ajralib turadi. Bu xalqlarning shevasini hududi bilan birga o‘rgangan bir qancha olimlarimiz bor. Nafaqat, O‘zbekiston hududidagi, balki, qo‘shni davlatlarimiz hududidagi o‘zbek shevalari ham alohida o‘rganilgan.

Har bir adabiy tilning yuzaga kelishi va rivojlanishida bir qancha tillarning xizmati yotadi. Keng hududga ega bo‘lgan va aholisining ayrim qismlari, hatto, o‘zlarining qaysi urug‘ga mansub ekanliklarini aniq ayta olmaydigan Qashqadaryo vohasining shevalarini o‘rganish bilan bir qancha olimlar shug‘ullanganlar. Jumladan, tilshunos va dialektologlardan professor G‘ozi Olim Yunusov, E.D.Polivanov, V.V.Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ tumanlari va kenagas, saroy, barlos kabi urug‘ nomlarini tilga olganlar. Professor Sobirjon Ibrohimov esa Shahrisabz va Chiroqchi tumani til xususiyatlariga oid materiallar to‘plagan. Yuqori Qashqadaryo hududining asosan shahar tipi shevasi bilan Boltaboy Jo‘rayev shug‘ullangan (Jo‘rayev, 1969, 3-bet).

Shu o‘rinda, biz ham Qashqadaryo viloyati Kitob tumani sheva birliklarini yoritishni lozim deb bildik. Aslida, insonlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash maqsadida shevalar to‘g‘risidagi fan ham o‘qitiladi. Chunki har bir shaxs, garchand, rasmiy idoralarda adabiy tilda so‘zlasa-da, o‘z fikrlarini erkin bayon etishda o‘z shevasiga tayanadi. O‘zbek shevalarini ilmiy jihatdan o‘rganishni, asosan, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yashagan V.Nalivkin, M.Nalivkina, A.Starchevskiy, A.Vishnegorskiy, N.Ostroumov, T.Qiyosbekovlar dastlab amalga oshirganlar. Ular o‘zbek tili lug‘ati hamda qisman fonetik va morfologik

xususiyatlarini yoritganlar. Ammo ularni sof dialektal ishlar ro‘yxatiga kiritish qiyin. A.Jo‘rayev, T.Yo‘ldoshev, Y.Ibrohimov, M.Abdiyev, N.Murodova kabi mustaqillik yillarida yetishib chiqqan shevashunoslar dialekt va shevalarning fonetik, leksik, morfologik xususiyatlarini o‘rganish bilan bir qatorda, shevalarning areal tadqiqotlarini amalga oshirganlar. Shevalar fonetikasida, umuman, fonetikada, asosan, nutq tovushlari, ya’ni fonemalar o‘rganiladi. Ana shu shevalardagi nutq tovushlari hamda fonemalarni, ularning variantlarini o‘rganishda va yozuvda ifodalashda ishoralar sistemasi, ya’ni transkripsiya xizmat qiladi. Professor Reshetov tomonidan ishlab chiqilgan transkripsiya o‘zbek shevalarini yozib olishda amaliy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Y.D.Polivanov, Sh.Shoabdurahmonov, N.Z.Hojiyeva, G‘ozi Olim Yunusov kabi shevashunoslar o‘zbek shevasi fonetikasidagi “a” tovushining paydo bo‘lishi haqida fikr bildirib o‘tganlar. F.Abdullayev, B.Jo‘rayev, S.Raximov, A.Ishayev, X.Jo‘rayev, O.Madrahimov, Q.Muhammadjonov, E.Sheraliyev, M.Mirzayev, V.Egamov, E.O‘rozov kabi olimlarning o‘z tadqiqotlariga ilova qilgan lug‘atlari o‘zbek shevalari leksekografiyasi rivojiga o‘z hissasini qo‘shgan. Morfologik xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek shevalari adabiy tildan farqlanadi. Bu farqlanish turlanish, tuslanish, yasalish va shu kabilarda namoyon bo‘ladi. A.G‘.G‘ulomov o‘z asarida turlanish xususida so‘z yuritib kelishiklarni tasniflagan. T.Yo‘ldoshev esa Tojikiston Respublikasidagi janubiy o‘zbek shevalaridagi hozirgi zamon davom fe’lida o‘ziga xos tuslanishni qayd qilib o‘tgan. Bundan tashqari, shevalar morfologiyasini yoritishda o‘z asarlari bilan salmoqli hissa qo‘shgan F.Abdullayev, A.Y.Aliyev, Sh.A.Afzalov, Y.G.Gulyamov va shu kabilarning o‘rni beqiyos (Ashirboyev, 2021, 121-bet).

Ko‘p olimlar lahja, sheva, dialektlarni o‘rganish jarayonida Qashqadaryo viloyati hududi lahjasi qipchoq lahjasiga kirishini aytib o‘tishgan. Ammo, aynan Qashqadaryo viloyatining Kitob va Shahrisabz tumanlari bu lahjaga to‘liq mansub emas. Bu hududdagi insonlar qarluq lahjasiga yaqin shevalarda so‘zlashadi.

Qashqadaryo viloyati shevasini o‘rganish bilan bir qancha olimlar shug‘ullangan. Jumladan, B.To‘ychiboyev va B.Hasanov o‘z asarida Qashqadaryo,

Buxoro, Samarqand shahar tipi shevalarida -da kelishik qo‘shimchasining adabiy til ta’sirida to‘siqlarga uchramay kirib borishi yo‘li bilan tarqalganini aytib o‘tgan.

O‘zbek shevalarining murakkab tartiblarga ajralishi, avvalo, ularning fonetikasi bilan bog‘liq. Chunki yurtimizda istiqomat qilayotgan barcha xalqlarning tilidagi shevaga oid so‘zlarning ko‘pchiligi fonetik hodisaga uchragan so‘zlarni tashkil qiladi. Nutq qulayligiga erishish uchun adabiy tildagi so‘zlarni fonetik hodisaga uchratib talaffuz qilinganda, o‘sha so‘zlar shevaga ko‘chadi, keyinchalik bu sheva so‘ziga aylanadi. Maqola mavzusidan kelib chiqqan holda xuddi shunday adabiy tildagi so‘zlarni fonetik hodisaga uchratib, shevaga ko‘chgan holatlarini Qashqadaryo viloyatining Kitob tumani dialekti misolida ko‘rib chiqamiz. Kitob tumani dialekti, asosan, o‘zbek tilining qarluq lahjasidagi so‘zlardan tashkil topgan.

Avvalo, fonetik hodisalarning turlari xususida so‘z yuritiladi. Fonetik hodisalar, asosan, uch turga ajraladi. Tovush ortishi, tushishi va almashishi. Shu mavjud uch tur ham, o‘z navbatida, bir nechta turlarga ajralib ketadi. Dastavval, tovush ortishi hodisasi haqida so‘z boradi. Tovush ortish hodisasi bu yozma va og‘zaki nutqda so‘zlarga bir *tovushning qo‘shilishidir*. Uning quyidagicha turlari mavjud:

1. Proteza – so‘z boshida tovush orttirilishi. Masalan: shkaf-ïshkaf, stadion-ïstadion. **2. Epenteza** – so‘z o‘rtasida tovush orttirilishi. Masalan: doira-doyira, shoira- shoyira, oila-oyila. **3. Epiteza** – so‘z oxirida tovush orttirilishi. Masalan: momo- momoy.

Tovush almashish hodisasi. **1.Assimilyatsiya** – bir xil kategoriyadagi tovushlarning so‘z tarkibida o‘zaro moslashishi. Masalan: qulluq- qullug‘ a)To‘liq assimilyatsiya: sutni-sütti. b)To‘liqsiz assimilyatsiya: ishga-iškä. **2.Dissimilyatsiya** – so‘z tarkibidagi bir xil yoki o‘xshash tovushlardan birining boshqa tovushga ko‘chishi. Masalan: o‘qlov-o‘xlov, zanjir-zänžil, devor-deväl. Tovush o‘zgarishining boshqa turlari: 1**.Sandxi hodisasi** – analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar. Masalan: ko‘rgan edi-ko‘rgändi, kerak edi-kerägidi. **2. Spirantizatsiya** – ayrim portlovchi

undoshlarning ikki unli orasida sirg‘aluvchi undoshga o‘tishi. Masalan: topib - tovib, xabar-xavar **3.Metateza** – so‘zdagi tovushlarning (asosan, undoshlarning) o‘zaro o‘rin almashishi. Masalan: supra-sürpä**. 4.Reduksiya** – tovush cho‘ziqligining qisqarishi yoki talaffuzning kuchsizlanishiga bog‘liq holda uning artikulyatsion va akustik sifatlarining o‘zgarishi. Masalan: kishi- k(ï)š(ï). **5. Eliziya** – unli tovush bilan tugagan so‘zga unli bilan boshlangan so‘zning qo‘shilishi natijasida oldingi unli tovushning tushishi. Masalan: ko‘ra oladi-ko‘roladi. **6.Undoshlarning takrorlanishi (geminatsiya):** qari-qarri. **7.Prokopa, ankopa** – so‘z boshida tovush tushishi. Masalan: yechim-echim, yeyish-eyish, yemak-emak, yemish-emish.

Sheva vakillari nutqida kelishiklar:

a) Qaratqich kelishigi qo‘shimchasi –ning : -ding, -ting, -dïng, -tïng, -dï,-tï tarzida qo‘llaniladi. Masalan: uyning- uydï, kitobning- kitobtï, otning-ottïng.

b**) Tushum kelishigi qo‘shimchasi** –ni:-dï,-tï-di,-ti. Masalan: tog‘ni- tog‘dï.

d) Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –ga:-ya tarzida qo‘llaniladi. Masalan: o‘ziga – o‘ziya, xudoga- xudoya, qarshiga- qarshiya. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –ga o‘rin-payt kelishigi –da sifatida ham qo‘llaniladi. Masalan:uyda- uyga, ishda-ishga, ko‘chada- ko‘chaya.

e) Chiqish kelishigi qo‘shimchasi –dan:-nan,-tan tarzida ham qo‘llanadi.

Masalan: kitobdan- kitobtan, o‘qishdan- o‘qishtan, o‘zingdan- o‘zingnan, gapingdan- gapingnan.

Sheva vakillari nutqida fe’llarning ifodalanishi:

a) Hozirgi zamon fe’llarining ifodalanishi: -yapti qo‘shimchasi -apti tarzida qo‘llaniladi. Masalan: kelyapti- kelapti, boryapti- borapti, qilyapti- qilapti.

b) Kelasi zamon fe’llarining ifodalanishi: -jak, -ajak qo‘shimchalari -miz, -man tarzida qo‘llaniladi. Masalan: boraman, qilaman, kelaman.

d) O‘tgan zamon fe’llarining ifodalanishi: -di, -gan qo‘shimchalari -uvdi,-gam tarzida qo‘llaniladi. Masalan: keldi- keluvdi, bordi- boruvdi, qildi qiluvdi, borganman-bogamman, kelganmiz- kegammiz.

e) Shevada fe’l mayllarining -aylik qo‘shimchasi ishlatiladi: boraylik, qilaylik, ishlaylik.

*f) Olmoshlarning ko‘rinishlar*i: men-man, sen-san, ana u- anov, mana bu – manov, bizlar-biza, he ana- haylo.

h) Morfologik jihatdan o‘zgargan so‘zlar: hu ana- haylo, mana bu yerda- manega, ana u yerda- anega, aqqa- u yerda, baqqa- bu yerda.

i) Ko‘plik qo‘shimchasining -lar, -lär, -lä, -är shakllari ishlatiladi.

Bu kabi fonetik hodisaga uchragan so‘zlarni Kitob tumanidan tashqari shu tumanga qo‘shni, ya’ni Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahri va shu hududga yaqin qishloqlar dialektida ham uchratish mumkin. Ularni o‘rganish jarayonida hech eshitmagan so‘zlarni ham eshitasiz. Chunki bu xalq lahjasi anchagina o‘z shevasiga boy.

Xalq, xalq bo‘lishi uchun ham avvalo tili bo‘lishi kerak. Toki, xalq tirik va yashayotgan ekan sheva ham yashaydi. Demak, tilshunoslar O‘zbekiston diyorida yashab, bir tan-u bir jon bo‘lib ketgan o‘zbek xalqining erkin muloqoti uchun zarur bo‘ladigan, xalq jipslashuviga o‘z xizmati orqali foyda keltiradigan, adabiy tilni boyishiga xizmat qiladigan shevani yanada yuksaltirib rivojlantirishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev, S. (2013). O‘zbek dialektologiyasi (3-5-bet). – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU.

2. Ashirboyev, S. (2021). O‘zbek dialektologiyasi (112-121-bet). – Toshkent: “Nodirabegim” nashriyoti.

3. Jo‘rayev, B. (1969). Yuqori Qashqadaryo O‘zbek shevalari (8-33-bet). – Toshkent: “Fan” nashriyoti.

4. Reshetov, V.V. & Shoabdurahmonov, Sh. (1978). O‘zbek dialektologiyasi (5-bet). –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti.

5. To‘ychiboyev, B., Hasanov, B. (2004). O‘zbek dialektologiyasi (7-8-bet). –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.

QARSHI TUMANI SHEVASIDA QAVM-QARINDOSHLIK TUSHUNCHALARINI BILDIRUVCHI BA'ZI LEKSEMALAR TAHLILI

Qo'ziyeva Sitora Ibodulla qizi,
O'zMU Jurnalistika fakulteti 2-kurs talabasi
nkosmos1199@gmail.com

Annotatsiya: *Tilshunoslikning tarkibiy qismi bo'lgan o'zbek dialektologiyasi to'g'risida keyingi davrlarda ko'proq fikr yuritilmoqda. Bu fan bo'yicha alohida darslik va qo'llanmalar nashr qilingan. Maqolada o'zbek dialektologiyasi, uning tarkibi, O'zbekistonning turli viloyatlarida, xususan Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani shevasida qavm-qarindoshlikka oid ba'zi so'zlarning turlicha nomlanishi, milliy shevalarning o'ziga xos qadriyat ekanligi haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *dialektologiya, sheva, dialektal so'z, lahja,etnogrofiya, folklor adabiy til, qadriyat.*

Abstract: *Uzbek dialectology, which is a component of linguistics, is being discussed more and more in recent times. Separate textbooks and manuals have been published on this subject. The article talks about Uzbek dialectology, its composition, different naming of words related to the ethnic kinship in different regions of Uzbekistan, and the fact that national dialects have their own value.*

Keywords: *dialectology, dialect, dialectal word, lahja(dialect), ethnography, folklore literary language, value.*

Ma'lumki **dialektologiya**grekcha *dialektos* so'zidan olingan bo'lib, biror tilning mavjud sheva va lahjalarini o'rganadi. Shu o'rinda ta'kidlashni istardikki, dialektal so'z maqomi terminini bir necha yillik amaliy dialektal kuzatishlar asosida qo'llangan(T.Enazarov, 2020, 24-27-betlar). Dialektal so'z maqomi sheva so'zlari ichida uning leksik-semantik va semantik (dialektal ma'no) xususiyatlari bilan farqlanishi, adabiy tildagi so'zlarga nisbatan orfoepik va orfografik me'yorlari bilan adabiy til me'yoriva talablariga bo'ysunmasligi, unda kam ishlatilishi yoki umuman qo'llanmasligi, ularning tarkibidagi leksik ma'no esa ma'nolar tizimida kam uchraydigan dialektal ma'no ekanligi bilan adabiy tildagi leksik birliklardan farqlanishi bilan ajralib turadi (T.Enazarov, 2021, 121-bet).

Dunyoda mavjud barcha tillarning deyarli barchasi o‘ziga xos ichki shevalardan iborat. Turkiy tillarning har biri bir necha sheva va dialektlardan tashkil topganligi ma’lum. Biroq o‘zbek tili turkiy tillar ichida o‘ziningko‘p shevaliligi va dialektliligi bilan farqlanadi. Dialektolog olimlardan biri professor E.D.Polivanov: *“... turkiy tillarning birortasi ham shevalararo o‘zbek tili singari bu qadar keskin farqlanmaydi, demak, birorta turkiy til ham shu qadar spetsifik, dialektal xilma-xillik xususiyatiga ega emasdir. Bu esa, tabiiy, adabiy til uchun biror dialektni asos qilib olish masalasini nihoyat darajada og‘irlashtiradi”, –* degan edi. Albatta, adabiy til uchun qaysi dialektni (lahjani) asos qilib olish qiyin tuyulishi mumkin, lekin o‘z navbatida, bir vaqtning o‘zida mamlakatimiz bo‘ylab uchta lahjaning qo‘llanilishi tilimizning boy ekanligidan dalolatdir.

O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligini, til imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va shuning uchun ham adabiy tilga bunday so‘zlarni o‘rni bilan qabul qilib borish zarur. Shevalar leksikasi o‘rganilgan ilmiy tadqiqot ishlarida quyidagi zamonaviy leksik qatlamlar to‘g‘risida fikr yuritilganligini ko‘ramiz: moddiy va nomoddiy tushunchalar nomlari va ularning ma’nolari; kishi tana a’zolarining nomlari; qavm-qarindoshlikka oid so‘zlar; belgi va miqdor bildiruvchi so‘zlar; oziq-ovqat nomlari (S.Ashirboyev, 2021, 81-bet)va boshqalar.

O‘zbek shevalarining o‘rganilishi til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Chunki adabiytilda allaqachonlar yo‘q bo‘lib ketgan yoki o‘zgarishga uchragan so‘zlar, ayrim grammatik shakllar mahalliy shevalarda saqlanib qolganligi tabiiy. Dialektologiya tilshunoslik, etnogrofiya, folklor va boshqa shu kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liqdir. F.Abdullayev, G‘ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, Sh.Shoabdurahmonov kabi dialektolog olimlar o‘zbek dialektologiyasi rivojiga sezilarli hissa qo‘shishgan. Etnogenetik jihatdan ko‘p tarkibli bo‘lgan o‘zbek tilida 3 ta asosiy lahja farqlanadi: ***qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi; qipchoq lahjasi; o‘g‘uz lahjasi.***Mazkur lahjalarning fonetikasi, grammatikasi va lug‘at tarkibida bir-biridan farq qiluvchi xususiyatlar mavjud, lekin bu farqlar ularni bir-biridan keskin ajratmaydi. O‘zbek adabiy tili

hozir ham lahjalardagi eng ifodali, ko‘p ma’noli so‘zlar va iboralar, maqbul grammatik shakllar hisobiga boyib bormoqda (O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2000). Shevalarni turli hududlar doirasida tahlil qilish areal dialektologiyaning o‘rganish obyektidan biri hisoblanadi. Areal dialektologiya sohasida qavm-qarindoshlikni bildiruvchi leksemalarning turli hududlarda turlicha nomlanishini; lahjalarning farqli va o‘xshash jihatlari ham ilmiy tahlil qilinadi.

Ma’lumki, qarindosh-urug‘ nomlari juda qadimdan mavjud bo‘lib ba’zi bir fonetik-semantik farqlarni hisobga olmaganda, urug‘dosh tillararo umumiylikni tashkil qiladi. I.Ismoilov turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari to‘g‘risida L.A.Pokrovskaya, X.G.Yusopova va S.A.Burnasheva tomonidan yozilgan maqolalar leksemani ma’no jihatidan tekshirishda ko‘pgina ijobiy xususiyatga egaligini keltiradi (И.Исмоилов, 1966, 9-bet).

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi hozirgi qardosh uyg‘ur tiliga yaqin bo‘lib, bu lahja shahar shevalarini, shahar tipidagi qishloq shevalarini o‘z ichiga oladi. Shunday ekan, xalqning turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odatlari, umuman, hayot faoliyati birinchi uning tilida aks etar ekan, sheva ham milliy tilning bir bo‘g‘iniga aylangan. O‘zbek tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so‘zlar o‘zbek shevalari va o‘zbek adabiy tili leksik tarkibining ham asosiy qismini tashkil etadi.

Xususan, ***“qarindosh”*** leksemasi etimologiyasi haqida ham to‘xtalsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Dastlab ***“idish”*** ma’nosidagi ***“qa”***o‘zagi yaqinlik va qarindoshlik ma’nosini ifodalagan. Keyinroq bu o‘zakdan hosil qilingan so‘zlar eski o‘zakni unuttirgan. **Qondosh** istilohi (ba’zi shevalarda asliga uyg‘un holda ***“qandash”*** deb talaffuz qilinadi) bugun ***“qonga asoslangan bog‘liqlik”*** tarzida tushuniladi. Bu ham xato emas, lekin so‘zning etimologiyasini tilshunoslar ***“qang”***(ota) so‘zi bilan bog‘lashadi. Amma, xola, tog‘aning farzandlari ***“ati”, “chikan”, “yigan/egan/jiyan”*** kabi so‘zlar bilan ifodalangan, (Bugun ularni ammavachcha, xolavachcha, tog‘avachcha, amakivachcha deb ataladi). Qarindoshlik bilan bog‘liq atamalar tarmoq terminologik sistemasining xarakterli xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ular ota, ona, o‘g‘il va qiz urug‘ini ifodalovchi

hamda nikohdan keyin paydo bo‘lgan qon-qarindoshlik nomlaridir. Ularni o‘rganish soha leksikasining funksional-semantik jihatlarini yuzaga chiqarishda yaqindan yordam beradi (N.Jalilova, 2008,115-bet).

Biz mazkur ishimizda tahlilga tortgan Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani shevasida qavm-qarindoshchilikni bildiruvchi quyidagi leksik birliklarni respublikamizning boshqa hududlaridagi shevalarga nisbatan tahlil qilishga harakat qildik.

Bobo:*buva* (O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida), *kattata (katta ota)* (Jizzax; Qashadaryo viloyati, Yakkabog‘ tumani), *opoqi* (Namangan), *ata (ota)* (Xorazm); *ota* (Jizzax), *acha* (To‘raqo‘rg‘on), *opata (oppog‘dada)* (Farg‘ona, Marg‘ilon), *katta bova* (Qashqadaryo, Kitob);

Buvi:*momo* (O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida), *ana (ona)* (Xorazm), *ena* (Samarqand, Andijon, Jizzax), *buvi* (Toshkent), *acha* (Namangan); *onaning onasi (ona), dadaning onasi (ena)* (Jizzax, Samarqand); *katta (onaning onasi)* (Shahrisabz), *otaning onasi va onaning onasi – buva (buvi)* (Namangan), *katta ona* (Kitob, Qashqadaryo);

Ota: *aka* (Xorazm, Urganch), *dada* (O‘zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida), *ada* (Toshkent);

Ona: *aya, oyi* (O‘zbekistonning barcha hududlarida uchraydi); *apo (opa)* (Urganch), *ena* (Qashqadaryo), *ana//anna* (Qashqadaryoning ayrim hududlarida), *aba* (Namangan);

Aka: *aka* (Qashqadaryo), *ag‘o (og‘o, og‘a)* (Xorazm), *akcha* (Jizzax).

اَغا،اقاَ – leksemasi (Наделяев В.М., Насилов Д.М., Тенишев Э.Р., Щербак А.М., 1969, 3 с) chig‘atoycha bo‘lib, дж. pometasi bilan beriladi va bu chig‘atoycha so‘z ekanligini dalolatlaydi. Leksema maqolasida uning bir *“katta aka”* ma’nosini bildiradi, ikki holatda, ya’ni tug‘ishgan yoki qarindosh bo‘lgan o‘zidan katta bo‘lgan o‘g‘il bolaga nisbatan qo‘llaniladi (M.Tuxtasinova, 2022, 200-bet).

Opa: *opcha, opacha* (Toshkent, Jizzax); *apka* (Xorazm, Urganch), *ayapa* (To‘rtko‘l), *opach* (Toshkent viloyati). Eski Toshkent shevasida ***opa*** so‘zi o‘rnida

egachiistilohi ham qo‘llanilgan. Masalan: *Uch-to‘rt oyning ichida ikki martaba* ***egachisi*** *Xushro‘ynikida ham mehmon bo‘lib ketdi; Shu choqda ichimga charog‘ yoqsalar ham yorimaydirlar, egachi.(A.Qodiriy, O‘K, 51-b.).*

Singil: *uka, singil, bekach* (Toshkent):-Yig‘lama, ***bekachi,***-dedi Toybeka,-biz bilamiz sizning ko‘zyoshlaringizning nimaga ekanini…(*A.Qodiriy, O‘K, 49-b.*)

Uka: *uka, ini* (Nukus).

Yanga: *biyi* (Xorazm), *kelinoyi* (Toshkent viloyati), *kelinchak apa, kelinaya* (Namangan), *yangamullo* (Buxoro); undan tashqari ***kichik oyi, bucha, kelinbibi, kennoyi, baycha*** kabi so‘zlar ham turli shevalarda shu ma’noda ishlatiladi.

Tog‘a: *boyi* (Xorazm), *bayi* (To‘rtko‘l), *doyi* (To‘rtko‘l).

Amaki: *ota, og‘a* (Xorazm); *katta dada* (Toshkent); *aka* (Qashqadaryo).

Qaynona: *ana* (Xorazm), *xola* (Qashqadaryo).

Qaynota: *buva, amaki* (Qarshi, Qashqadaryo).

Chaqaloq: *go‘dak, buvak* (Surxondaryo), *ninni(cha)* (Qashqadaryo), *jiji//chichi* (To‘raqo‘rg‘on), *bo‘bak // bo‘vak, alla* (Jizzax, G‘allaorol).

Amakining xotini: *katta aya, checha* (Jizzax, G‘allaorol), *ana* (Samarqand, Navoiy).

Tog‘aning xotini: *katta yanga,* (Surxondaryo, Qiziriq), *checha* (Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax).

Pochcha: *jezda, pochcha* (Jizzax, G‘allaorol), *doyi* (To‘rtko‘l).

Nabira: *axtiq* (Beruniy, Qoraqalpog‘iston), *aklik* (Qorao‘zak, Qoraqalpog‘iston), *atlik* (Urganch), *nevara* (Qashqadaryo), *nebara, navara* (Qamashi, Qashqadaryo, Jizzax, G‘allaorol).

Chevara: *cholik* (Urganch), *chebara* (Qashqadaryo, Jizzax, G‘allaorol).

Evara: *yolik* (Urganch).

Begona: *yatlik* (Urganch).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, ona tilimizning o‘zagi - qon tomiri bo‘lgan shevalarimizni o‘rganishimiz, ularning lug‘atini tuzishimiz va zarur o‘rinlarda ularni amaliyotga olib kirib, qo‘llanish doirasini kengaytirishimiz lozimligi kunday

ravshan bo‘lmoqda. Zero, shevalar xalq tarixini, til tarixini haqqoniy yoritishga boy materiallar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.Enazarov.(2020). Dialektologiya metodologiyasi (Monografiya).
2. T.Enazarov.(2021). Dialektal so‘z maqomi. “O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari (Professor Samixon Ashirboyev tavalludining 75 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan).
3. S.Ashirboyev.(2021). O‘zbek dialektologiyasi. Nodirabegim.
4. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.(2000). Birinchi jild.
5. Исмоилов И.(1966). Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. Фан нашриёти.
6. Наделяев В.М. , Насилов Д.М., Тенишев Э.Р., Щербак А.М.(1969) Древнетюркский словарь. Наука, С. 3.
7. M.Tuxtasinova.(2022). Qarindoshlik terminlarining L.Budagov lug‘atida izohlanishi. “Tilshunoslikning dolzarb masalalari” Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari.
8. N.Jalilova.(2008). Qarindoshlik atamalari o‘rtasidagi ma‘nodoshlik. O‘zbek tili va adabiyoti. 4,115.

SHEVALARDA UCHRAYDIGAN AYRIM SO‘ZLAR XUSUSIYATLARI

Ravshanova Dinora Jahongir qizi,
O‘zMU Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek shevalarining o‘ziga xos o‘xshash hamda farqli xususiyatlari yoritilgan. Adabiy til bilan shevalar o‘rtasidagi ma’no nozikliklari, shuningdek, shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va morfologik o‘zgarishlar tahlil qilingan. Qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalarida uchraydigan so‘zlar adabiy tildagi mavjud muqobil varianti bilan solishtirilgan.*

Kalit so‘zlar: *til, sheva, lahja, fonetik, leksik, morfologik, ekstralingvistik omil, introlingvistik omil, qarluq, qipchoq, o‘g‘uz, lison, adabiy til.*

Til millatning milliy qiyofasidir**.** Bir davlatning ruhini, qadriyatlarini dunyoga tarannum etuvchi tuganmas va bebaho xazinadir. U jamiyatda kishilar o‘rtasidagi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shuningdek, u o‘zgaruvchan va doimo harakatda, boshqa tillar bilan ham aloqaga kirishadi, hamda rivojlanib boradi.

Tilning boyishi, uning har tomonlama taraqqiy etishi, millatning rivojlanishiga ham bog‘liq. M a’lumki, til ikki xil usulda boyib boradi, ular: tashqi va ichki manbalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Ekstralingvistik omil tilning boshqa chet tillari orqali boyishi hisoblansa, introlingvistik omil eskirgan so‘zlar, hamda shevalardan so‘zlar olinishi yoramida boyishi hisoblanadi. Tilimizning boyib, taraqqiy etishida tashqi manba qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, ichki manba ham shunchalik muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, tilning rivojlanishida xalq shevalarining ham ta’siri katta. Sheva bu boshqa sheva tizimlaridan fonetik, grammatik, so‘z yasalishi va lug‘aviy belgilariga ko‘ra farqlanuvchi lisoniy tizim sifatida mavjud birlikdir. Sheva vakillarining an’anaviy turmush tarzini saqlab qolish maqsadida, u juda sekinlik bilan o‘zgaradi, hamda katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo‘ladi. O‘zbekistonda yashovchi aholilar, asosan , uch xil lahjada so‘zlashadilar. Bular: o‘g‘uz, qarluq va qipchoq lahjalaridir. Ular bir- biridan o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatiga ko‘ra ajralib turadi. Nafaqat, har bir lahja bir-biridan, balki lahjalar tarkibidagi shevalarda uchraydigan so‘zlar ham o‘zaro farqlanadi. O‘zbek tili o‘zining mana shunday ajib tarovati va xos jilosiga ega. Tilimizning bu kabi xususiyatini Erkin Vohidov So‘z latofati kitobida quyidagicha e’tirof etgan: O‘zbek tili uch daryodan suv ichgan dengiz”. O‘zbek tilining buyuk dengizi ana shu uch buyuk daryo turkiy, arabiy va forsiy ekanligini alohida misollar bilan yoritib bergan. Turkiy tilning dunyoga bo‘y ko‘rsatishida bu tillarning o‘rni beqiyos. Diniy, ilmiy, ijtimoiy atamalarning ko‘pi arab tili orqali, yuksak she’riy uslubga xos suxanlar esa, fors tili orqali o‘tganligi bunga yorqin misol bo‘ladi.

Bu dengizni tashkil etayotgan irmoqlar lahjalardan iborat. O‘zbek adabiy tilining shakllanishida ularning o‘rni sezilib turadi. Lahja shakllanishi jihatidan umumiy tarixga ega bo‘lgan dialektlar jamlanmasi. O‘z navbatida, har bir lahja geografik hududi, aholisi bilan bir-biridan farqlanadi va bir-birini to‘ldirib turadi. Shuningdek, o‘g‘iz, qarluq va qipchoq lahjalari ham aynan shu urug‘ va qabilalar negizida shakllangan sheva va dialektlar yig‘indisidir. Quyidagi jadvalda O‘g‘uz lahjasiga oid so‘zlarni Xorazm viloyatining Gurlan va Xonqa, Qarluq lahjasiga oid

so‘zlarni Farg‘ona viloyatining Furqat, Quva va Rishton hamda Qipchoq lahjasiga oid so‘zlarni Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanlarida ishlatilayotgan sheva so‘zlarini adabiy til bilan taqqosladik.

O‘g‘uz lahjasi	***Qarluq lahjasi***	***Qipchoq lahjasi***	***Adabiy til***
Choziloq, simpildama	Immirovondi	O‘lamsa, pismiq	Sust, sekin ish qiladigan
Nervicht atma	Diqqat bo‘ma	Asab qima, siqilma	Asabingni buzma
Kak, arikkak	Bargak	Tushak, tushay	Turshak
Yazam yaz, kisham yaz	Lavag‘	Beg‘am. beparvo	Beg‘am kishi
Suppo, tapchan, spa	Valish	Suppa, nar	Oddiy so‘ri
Bo‘shang, san manga deyma, man sanga deymman	Atala xola	Bo‘sh, latta	Bo‘shang ayol
Eshak gul, puf deb uchiriladigan	Momoqopqop	Qoqi o‘t	Momoqaymoq, Qoqi
Tuncha	Cho‘dish	Optova	Obdasta
Ustoz	Opo‘y	O‘qituvchi	Ustoz
Jo‘rap	Paypag‘	Naski, jilop	Paypoq
Taka	Bolish	Yastiq	Yostiq
Kosa	Piyala	Piyala	Piyola
Lopkosa, lavopkosa	Kasa, chini	Kosa	Kosa
Sipsa, supsa	Shipitki	Shipirgi	Supurgi
Ayno	Aynak	Oyna	Ko‘zgu
Kadi	Ashqovog‘	Kodi	Oshqovoq
Patnis	Mislagat	Borkash	Patnis
Boldiz	Qaynisingil	Qaysingil	Qaynisingil

] Yuqoridagi jadvalda shevalardagi leksemalarning farqini ko‘rib chiqdik. Bunda bir so‘zning turli shevalarda b a’zan yaqin, b a’zan bir-biriga sira o‘xshamagan holatda b a’zan esa, barqaror birikma holida ishlatilishiga guvoh bo‘ldik. Masalan o‘g‘iz shevasida ishlatiladigan “boldiz” so‘zi adabiy tildagi variantiga sira ham o‘xshamaydi. Bu haqda Eshqobil Shukur o‘zining Bobo so‘z

izidan kitobida quyidagicha fikr yuritgan. Y a’ni bu so‘zni ilk bora Mirtemirning sh e’rlarida uchratganligini aytib:

“Yoznam meni tanisa, boldiziman yor- yor,

Baldog‘iga qistirgan qunduziman yor-yor .

Ushbu misralarni keltirib o‘tgan. Yana qo‘shimcha tarzida Mahmud Koshg‘ariy bu so‘zga: baldiz xotinning singlisi. Erning singlisiga baldiz deyilmaydi, singil deyiladi deb tushuntirish bergan. Turkiy tillar etimologik lug‘ati da boldiz so‘zining o‘zagi bal asli qiz degani, unga so‘z yasovchi -diz qo‘shimchasi qo‘shilgan deya izoh berilgan. Turkiy tillarda baldiz so‘zining baltir shakli ham mavjud. Yozuvchining do‘sti Qoraqalpog‘istonlik Bayram Aytmurod hozir ham Qoraqalpog‘istonda erkaklar qaynisingillarini boldizim, ayollar esa, bekishem deyishlarini keltirib o‘tgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tshimiz joizki, har bir bir sheva o‘ziga xos jihati bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Leksik, fonetik hamda morfolgik taraflari har bir shevada o‘zgacha namoyon bo‘ladi. Qarluq lahjasida ko‘p hollarda D undoshi o‘rnida T ning ishlatishi, O‘g‘iz lahjasida esa, Q tovushi o‘rnida K ning ishlatilishi tilning fonetik farqlarini ochib beradi. Qipchoq lahjasida jo‘nalish hamda o‘rin-payt kelishigining aralash tarzda qo‘llanilishi mumkin. Masalan: maktadaman-maktabgaman tarzida. Qarluq shevasida esa, qaratqich kelishigi o‘rnida, tushum kelishigi qo‘shimchasing almashinib keladi. Misol uchun: uyning eshigi o‘rnida, uyni eshigi. Nafaqat tashqi omillar, balki shevalar ham o‘zbek adabiy tilning boyishiga sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Chunki shevalarda azal-azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan urf-odatlari va an’analari yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (2020) Sab’ai sayyor T:. G‘afur G‘ulom
2. Ashirboyev. S. (2013) O‘zbek dialektologiyasi T
3. Eshqobil Shukur (2018) Bobo so‘z izidan T:. Sharq”
4. Vohidov E. (2014) So‘z latofati T:. O‘zbekiston

MAHMUD KOSHG‘ARIYNING “DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA FLORALARNING BERILISHI

Muslima RISQULOVA,
Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
muslimariskulova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida berilgan o‘simlik va hayvonot dunyosi nomlari muammolariga, xususan, floralarning berilishi masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi “Devonu lug‘otit turk” asarini tahlil qilish asosida eski turkiy (o‘zbek) tilidagi floralarning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishdan iborat va bu maqsadga maqolada qisman erishilgan. Ilmiy tadqiqotni olib borishda, asosan, tasniflash metodidan foydalanilgan. Jumladan, o‘simliklar inson iste’mol qiladigan; hayvonlar iste’mol qiladigan; dorivor; daraxt shaklidagi; gulli o‘simliklar kabi turlarga tasniflangan holda o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *flora, o‘simlik, inson iste’mol qiladigan o‘simlik, hayvonlar iste’mol qiladigan o‘simlik, ildiz, yaproq, buta, daraxt.*

Abstract: *In this article, special attention is paid to the problems of the names of the flora and fauna given in Mahmud Koshgari's work "Devonu lugotit turk", in particular, to the issues of giving flora. The purpose of the research is to study the specific features of the flora in the old Turkic (Uzbek) language based on the analysis of the work "Devonu lugotit turk", and this goal was partially achieved in the article. The classification method was mainly used in the conduct of scientific research. In particular, plants are consumed by humans; eaten by animals; medicinal; tree-shaped; studied classified into species such as flowering plants.*

Key words: *flora, plant, plant for human consumption, plant for animal consumption, root, leaf, bush, tree.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asari tom ma’nodagi qomusiy asar bo‘lib, XI asr va ungacha bo‘lgan davrdagi hayvonot va o‘simlik dunyosi, tabiat hodisalari, tarixiy voqea-hodisalar va boshqalar haqida to‘liq ma’lumot olishda hozircha yagona va beqiyos manba vazifasini o‘tab kelmoqda.

Asar arab tilida yozilgan bo‘lsa-da, turkcha so‘zlar aslicha nomlanib, unga izohlar arab tilida berilgan. Asar turk tili so‘zlarini o‘z ichiga olgan va bu so‘zlarning izohiga bag‘ishlangan desak, xato bo‘lmasa kerak.

“Devon”ni tom ma’noda tilshunoslikka oid ilmiy asar deyishimiz mumkin. Unda eski turk (o‘zbek) tilining keng imkoniyatlari, qo‘llanish doirasining kengligi, sinonim so‘zlarning ko‘pligi va boshqalar aniq dalillar bilan isbotlab berilgan. Biz ushbu maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida nomlarning qo‘llanishi va berilishi xususida fikr yuritmoqchimiz. Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Devon”dan o‘rin olgan leksik birliklar qatori, Qoraxoniylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, harbiy, maishiy turmush tarzida mavjud tushunchalarni ifodalovchi istilohlar va leksik birliklar son jihatdan salmoqli hisoblanadi. Turfa soha istilohlari bilan yonma-yon onomastika, jumladan, atoqli otlar – antroponimlar, joy nomlari – toponimlar, geografik obyektlar nomi, gidronimlar, ekologiya, hayvonot (fauna) va o‘simlik dunyosi(flora)ga oid talaygina leksemalar qiyomiga yetgan holda izohlangan

“Devonu lug‘otit turk”da floralarning qo‘llanilishi va ularning izohiga ham alohida ahamiyat beriladi. “Devon”da umumiy hisobda floralar – o‘simliklarning yuzga yaqin turlari sanab o‘tilgan. Biz bu turlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratishni lozim topdik:

Iste’mol qilinadigan o‘simliklar nomi[1]**:**

1) ***inson iste’mol qiladigan o‘simliklar:*** *ishg‘un / qoshg‘un* - rovoch o‘ti. *Ushg‘un* talaffuzi ham bor[I.56/133/412];

aba bashi – bodring shaklida tog‘larda o‘suvchi bir o‘t. Tog‘liklar uni yeydilar [I. 114];

inlich – sassiq sarimsoqqa o‘xshagan bir tog‘ o‘ti, kabob bilan yeyiladi [I. 138];

uljan – xushbo‘y bir o‘simlikning ildizi bo‘lib, uni yeyiladi [I. 143];

og‘li – Qashqarda ekiladigan oq va shirin sabzi; uni yeyiladi [I. 149];

a) alma; b] qimiz; almila; d] senkach – a] olma [o‘g‘ucha]. Turklar almila deydilar; b] qimiz almila – qimizak olma, qimizga o‘xshash nordon olma; d]

funduk yong‘og‘i kattaligidagi shirin olma, qizil va oq bo‘ladi [I.150/346/ I.424/III.392];

aluchin – yeyiladigan serbo‘g‘in bir o‘simlik [I.156];

eko‘rgan – urug‘ini qarluq turkmanlari yeydigan o‘simlik [I.173];

sibo‘t – kashnich [I.337];

basir – tog‘ning sarimsoq piyozi [I.341];

turma (turp) – ko‘vij turma – buzulib, ta’mi ketgan turp, po‘k turp. Turp, savzini *sarig‘ turma* deydilar. Arg‘uliklar savzini *kizri* deydilar. Bu so‘zni ular forsiylarning *gazar* so‘zidan buzib olganlar. O‘g‘uzlar uni *kesho‘r* deydilar. Ular ham bu so‘zni forsiylardan olganlar [I.347/I.405/406];

kero‘– rayhon [I.375];

bustuli – Rum ismalog‘i. Buni yeyiladi [I.421/454];

qumlaq – Qipchoq yerlarida o‘sadigan pechakka o‘xshagan bir o‘t. Uni asalga aralashtirilib, ichimlik qilinadi. Bu o‘t kemaga tushib qolsa, dengiz to‘lqinlanadi. Va kema chayqalib, undagi odamlar g‘arq bo‘la yozadilar [I.440];

jo‘go‘rgo‘n – tariqqa o‘xshash tanasi qizil bir xil o‘simlik, turkmanlar uni iste’mol qiladilar [III.62];

ko‘ch – kunjut. Kunjut o‘tining urug‘iga ham enak ko‘chi deyiladi [III.132];

jenlik – sarqamish deyilgan bir o‘simlik. Ba’zilar qarashida qoramug‘ deyilgan bir turli tog‘ yemishi [III.394];

jimirtg‘a – jimirtg‘a jash – ismaloq, gulkaram kabi har qanday tomirsiz ko‘k o‘t. Shuningdek, har bir novdali narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. Bodringga ham bu so‘z qo‘llanadi [III.439];

jigda – jiyda [I.67/III.37/162];

uzum (o‘zo‘m) (meshich o‘zo‘m) – a) banzi, b) tarqa, d) shug‘lu,

a) uzum kesish vaqti o‘tgandan keyin ishkomda qolgan uzum;

b) g‘o‘ra uzum. Bu so‘zning talqa shakli ham bor;

d) it uzum [I.98/104/188/279/289/335/341/416/436/453/464/470/II.334/III. 130/218/417/I.398/I.402-2/I.405];

to‘lo‘g ero‘k – shaftoli [I.99/168/289/296/308/III.183];

sarig‘ ero‘k (ko‘li) – o‘rik (yormay, danagi bilan quritilgan o‘rik, shaftoli qoqi). [I.99/289/436/III.252];

qara ero‘k (jimkan) – olxo‘ri (sariq olxo‘ri) [I.99/289/415];

armut – nashvati, olmurut [I.120];

bo‘kan – tarvuz [I.380/384];

sog‘un – piyoz / *quchg‘undi* (chigillarda) / *kovo‘rgan* – tog‘ piyozi. O‘g‘uzlar komo‘rgan deydilar [I.388/454/476];

tag‘na – tag‘na java – bir turli sassiq kavrak ildizi. Uni suzma bilan aralashtirilib, turmoch oshiga qo‘shiladi [I.408];

burchaq – loviya [I.433];

shekirto‘k – pista [I.464];

sarmusaq – sarimsoq, samursaq shakli ham bor [I.480];

jimshan – Qipchoq shaharlarida bitadigan bir sahro mevasi [III.44].

2) ***hayvon iste’mol qiladigan o‘simliklar:*** *xashak / cho‘shak* (sug‘dcha) –o‘t-xashak [I.58/307-2/369/425];

o‘ko‘r – tariq. Bu so‘z turkchadir. O‘g‘uzlar bilmaydilar [I.88/167/354];

yantoq (tikan) – yantoqning boshiga irik deydilar [I.101/310/381];

*azriq (*ajriq) – bir xil o‘simlik. Arablar sil deydilar. U yumshoq bir o‘t. Turklar azriq deydilar. O‘g‘uzlar **z** harfini **k** ga alishtiradilar. *Cho‘mgan* turi shirin ajriq hisoblanadi [I.124/136];

so‘t o‘tro‘m / shubrum – sutlik bir o‘t [I. 131];

arpa – arpa. Maqol: arpasiz at ashumas, arqasiz alp cherik sijumas – arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit jangda yenga olmaydi [I.144/162/291/307/ 329/ II.177/ 277/ III.253];

arpag‘an – arpaga o‘xshagan bir o‘simlik. Boshog‘i bo‘lsa ham, doni bo‘lmaydi [I.157];

kelab – Turk yaylovlarida o‘sadigan yumshoq o‘t, mollarni tezda semirtiradi

chikin – tokzorlarda o‘sadigan bir o‘simlik. Tola-tola bo‘lib o‘sadi. Uni hayvonlar yeydi [I.392];

ko‘rpa o‘t – bedaning bir qarich va undan o‘siq vaqti [I.393];

jorinchg‘a – beda, yo‘ng‘ichqa [I.405/III.386/439];

chivgin o‘t – hayvonlarni semirtiradigan o‘t - [I.415];

ko‘vo‘k – poxol (o‘g‘uzcha) [III.178];

qushg‘un – hayvonlar yeydigan xo‘l qamish [III.210];

Dorivor o‘simliklar[2]**:**

za’faron – za’faronga bir qancha narsalar qo‘shib, egit dorisi tayyorlanadi

egir – qorin og‘rig‘ini davolash uchun qo‘llaniladigan o‘simlik [I.87];

isriq [jizig‘ ot] – isiriq. Isiriqni tutatiladi. Ilro‘k – och qabilasi tilida isiriq. Qashqar tilida, uch va borsag‘onlar tilida *eldro‘k* deydilar. O‘g‘uzlar *jo‘z arlik* deydilar [I.125/129/III.19];

anduz – rosan; yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi. Otlarning qorin og‘rig‘iga davo qilinadi. Anduz bolsa, at o‘lmas – rosan o‘ti yoningda bo‘lsa, ot yo‘lda qorin og‘rig‘idan o‘lmaydi [I.138];

igir – yurak og‘rig‘ini davolashda ishlatiladigan o‘simlik [I.295];

tafg‘ach judasi – bargi savsan gulining barglariga o‘xshash bir daraxt. Uni dori sifatida ishlatadilar [I.423];

tubulg‘aq – to‘paloq. Dorilik o‘simliklardan biri [I.461];

jam – xushbo‘y, dorivor o‘tlar [III.10];

japriqan – kamon gulagi kattaligiday (orindiqday) mevasi bor bir xil o‘simlik. Shamollab yorilgan labga uning po‘stini surtilsa, tuzaladi [III.64];

toj – dori qilinadigan bir xil o‘t nomi [III.155];

ud – inson qovuch kasalligiga uchraganda o‘t deyilgan o‘simlikka qo‘shib tutatiladigan xushbo‘y o‘simlik [III.178];

a) daraxt shaklidagi o‘simliklar:

qayin [qazin] – yag‘mo, tuxsi, qipchoq, yabaqu, tatar, qayjumul va o‘g‘uzlar qayin daraxtini qajin deydilar [I.68/III.148/380];

urg‘a – katta daraxt (o‘g‘uzcha). Arg‘u tilida ham shundaydir [I.148];

ujma – tut daraxti. Ikki maxraj orasidagi z bilan [I.150];

tok/bag‘ – ishkom toki [I.289/III.166];

ar'ar – "Devon"da qizning badani yumshoqligidan ar'ar novdalari kabi egilar edi deyilgan [I.391];

soko't – tol daraxti. Maqol: so'ko't so'lina qaziq qasina - tol daraxtidagi xo'llik va mayinlik tolning o'ziga yarashiq, qayin daraxtining qattiqligi uning o'ziga munosibdir. Bu maqol har narsa o'z asliga borishi to'g'risida qo'llanadi.

tawilqu – qizil tol daraxti [I.338/369/451/464/467];

cho'no'k [sho'no'k] charun – Chinor daraxti (yag'mocha) [I.369/371/392];

terek – terak daraxti [I.390/466];

mirta – mevali daraxt [I.410];

azg'on – daraxtning eng yaramasi. Bu shunday daraxtki, uning oq va sariq guli, zirakka o'xshash osilib turadigan qizil mevasi bo'ladi. Bizda bu daraxtni tokzorlarning etagiga ekiladi. Chunki u o'tinlikka yaramaydi, yoqilganda olovda parchalanib sachraydi, uydagi kiyim va boshqa narsalarni kuydiradi [I.411];

to'shko'n – tikanli bir daraxt [I.414];

so'zgo'n – tog' daraxtlaridan rangi qora, tikanli bir daraxt [I.415];

qaraqan – bir xil tog' daraxti [I.419];

luk – daraxt [I.423];

kevrik – Grab daraxti [I.443];

so'k-so'k – yulg'un daraxti [I.448];

tavilguch – tarxun deyilgan bir daraxt [I.450];

bulg'una – yulg'un daraxti kabi qizil tusli bir bo'sh daraxt. Uni tuyalar yeydi, bu so'zning mulg'una shakli ham bor [I.453];

ko'murluk – ko'mir daraxti [I.464];

to'sho'rgo'n – katira daraxti (bir tilda) [I.476];

jilg'un – yulg'un. Yulg'un daraxti [III.44];

jafishg'u – qizilcha yoki gun deyiladigan tog' daraxti va uning mevasi

tit – Sanubar daraxti, tog'larda bitadi [III.131].

b) gulli o'simliklar:

Zarg'unjmud – زرْغُنْجْمُودْ xushbo'y bir o'simlik, tangagulli bo'ladi [I.56]. Bir xil turdagi rayhon deya tasvirlangan bir o'rinda [I.482];

paxta [kabaz] – kabaz urug‘landi [I.288/296/364];

jo‘n – paxta, arg‘ular tilida. Yag‘mo va qorluqlar tilida ham shunday

Bular orasidan ayni holda yetib kelgan o‘simlik nomlarini alohida ajratishimiz mumkin: *xashak, yantoq (tikan), arpa, tok, qaraqan (qarag‘an), anduz (andiz), alma (almila), apshan (yavshan-shuvoq), yilg‘un (yulg‘un), qaramuq.* Mahmud Koshg‘ariy davridan buyon ularning shaklida deyarli o‘zgarish bo‘lmagan[6,305]. Ayrim fonetik o‘zgarish bilan yetib kelgan o‘simliklar: isriq (isiriq), *azriq (*ajriq), *terek, sarmusaq, qazin (qayin), charun (chinor), yag‘aq (yong‘oq), armut (A.Navoiyda – umrud, Radlovda – urmud), olmurut (nok, nashvati), igir (iyir).*

Bugungi kungacha yetib kelmaganlari *istilohlar* hisoblanib, ularga “Devon” dan quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *mandar, tavilguch, jam, inlich, aluchin, kelab, jandaq, jaqriqan va b.* Bundan tashqari, insonlar o‘simliklardan o‘zlarining kundalik turmush tarzidagi ehtiyojlarini qondirishda ham foydalanishgan. Masalan: *o‘lika* – yelim olinadigan o‘simlik [I. 155];

salam – terilarni ishlashda ishlatiladigan daraxt [I.172];

jikan – bir xil o‘simlik, undan o‘rovga (devor kabi o‘rab berkitishga) foydalanadilar [III.29];

jiz – bir xil o‘t. Bu qamishdan ingichka, unga qaraganda yumshoq bo‘ladi. Ko‘chmanchilar bundan o‘tov tepasini yopishda foydalanadilar [III.157];

jim – bir xil o‘simlik urug‘i. U kunjut donasi kabidir. Lekin undan qizilroq bo‘ladi. Yog‘idan chiroqqa foydalanadilar [III.30];

japchan – yavshan o‘ti. Uning hidi bilan yovvoyi sichqonlarni ovlaydilar. Bu so‘zning javchan variant ham bor [III.44];

qashaq – qog‘oz yasaladigan bir turli qamish [I.364];

qamg‘aq – bo‘yi baland, barglari nozik bir o‘t; uyning ochiq joylariga solinadi

“Devon”da yana bir turli o‘simlik nomlari keltirilgan: *atg‘aq, sarig‘, bujin, sarg‘an, kenba, jarbuz, jandak, jafa, java, japushg‘aq, jang‘uq, chigit, sarqach, mahsar, mandar, tarmaq, kevrak, qaramuq, do‘no‘shka, jash, qalajuq, qara ot, urug‘luq, juldrug‘a va b.*

“Devonu lug‘otit turk” asaridagi o‘simliklarni biz quyidagicha guruhlarga bo‘lib tahlil qildik. Birinchisi, *iste’mol qilinadigan o‘simliklar* bo‘lib, ular o‘z navbatida *inson iste’mol qiladigan o‘simliklar* va *hayvon iste’mol qiladigan o‘simliklar*ga bo‘linadi. O‘simliklarni *daraxt shaklidagi o‘simliklar*ga va *gulli o‘simliklar*ga ajratdik.

Bundan tashqari, o‘simliklarni biz *dorivor o‘simliklar*ga ham ajratdik. Ularni dorivor va shifobaxsh ekanligi haqidagi izohlarga asoslanib tahlil qildik. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Devon”da qo‘llangan dorivor o‘simliklar bugungi kunda ham aynan hech o‘zgarishsiz qo‘llanmoqda. Ayrimlari fonetik o‘zgarishlarga uchrab ishlatilayotgan bo‘lsa, ayrimlari arxaiklashib iste’moli cheklangan. Iste’moli cheklangan so‘zlar o‘rnini yangi so‘zlar, o‘zlashmalar to‘ldirib kelayotganligini kuzatamiz.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida qo‘llangan o‘simlik nomlari bugungi kunda to‘liq iste’molda bo‘lmasa-da, biz XI asr va ungacha bo‘lgan davrlardagi diyorimiz florasi haqida tushunchaga ega bo‘lishimizda bu asarning ahamiyati kattadir. Buni biz yuqorida keltirgan misollarimizda ham ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dadaboyev H. (2019). O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent,– B. 19.
2. Ermatov I. (2021). O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi. Monografiya. – Toshkent: Turon-iqbol,– 152 b.
3. Madvaliyev A. (2017) O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi,. – B. 28-30.
4. Mahkamov N., Ermatov I. (2013).Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, – 144 b.
5. Mahmud Koshg‘ariy. (1960). “Devonu lug‘otit turk” – Toshkent, S.Mutallibov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan va 1960-1963 yillarda Toshkentda nashr etilgan. I-II-III tom.
6. Qorayev Suyun. (1970).Toponimika. – Toshkent, – B. 305.

XORAZM XALQ QO‘SHIQLARIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR MADANIY BELGI SIFATIDA QO‘LLANILISHI

Sevara SotliqovaShoxnazarovna
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya yo‘ nalishi.
2-kurs magistranti sevara@list.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm xalq qo‘shiqlarida uchraydigan “maŋlaj” – ro‘para; “a:d” – ism, nom; “donmaq” – o‘zgarmoq; “be:jik” – baland, mavqe kabi ko‘p ma’noli so‘zlarning voha madaniyatini ko‘rsatuvchi hususiyatlari ilmiy jihatdan asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Xalq qo‘shiqlari, millat, madaniyat, ko‘p ma’noli so‘zlar, sheva, ma’no ko‘chishi, leksik birlik.*

Abstrakt. *In this article, “maŋlaj” – opposite, “a:d” – name, “donmaq” – change, “be:jik” – high, position are found in Khorezm folk songs. Their features of oasis culture are scientifically based.*

Keywords: *Folk songs, nation, culture, polysemous words, dialect, transfer of meaning, lexical unit.*

Har bir millat o‘zida ma’lum bir milliy an’analarni aks ettiradi. Ya’ni har bir xalqning, millatning o‘z milliy an’analari, urf-odatlari mavjud. Bu ma’noda har bir inson ana shu milliylikni o‘zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo‘ladi. “Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimizning ilmiy, diniy va ma’naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, muqaddas qadamjolarni obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an’analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda” (Xalq so‘zi, 2017, 25-may soni).

Shu o‘rinda Xorazm mintaqasiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Xorazm mintaqasi juda boy folklor merosiga ega bo‘lib, uning xarakterli tarkibiy qismini xalq qo‘shiqlari tashkil qiladi. Xoramz xalq qo‘shiqlarida uchraydigan sheva so‘zlarning ko‘p ma’noliliga ahamiyat beramiz.

Xalq qo‘shiqlarida ko‘p ma’noli so‘zlar salmoqli o‘rinni egallaydi. Bir so‘zning birdan ortiq leksik ma’noga ega bo‘lishi polisemiya xodisasi (Азизов, 1963, 60; Степанов, 1966, 152; Мухторов, 1966, 125-бет) hisoblanar ekan,

mazkur til hodisasining amal qilishi Xorazm xalq qo‘shiqlari matnida ham uchraydi.Qo‘shiqlarda uchraydigan ko‘p ma’noli so‘zlarning aksariyati o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqiga xosdir. O‘g‘uz lahjasidagi polisemiya hodisasi haqida tilshunoslikda muayyan fikrlar bayon qilingan bo‘lsa-da, (Мадрахимов, 1973, 82-97; Мадрахимов, 1973, 280-290-бет) Xorazm xalq qo‘shiqlari tilida bu hodisaning o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lishi va uning rang-barang ko‘rinishlari maxsus o‘rganilmagan.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida uchraydigan ko‘p ma’nolilikda ko‘proq ko‘chma ma’no yetakchilik qilishini tilshunos olimlarimizning ilmiy ishlari orqali bilib olishimiz mumkin.Biz bilamizki so‘zlar dastlab ma’lum bir ma’noni anglatuvchi leksik birlik sifatida yaratiladi va vaqtlar o‘tishi bilan ma’noviy tuzilishning tadrijiy rivoji natijasida u ko‘p ma’noli , so‘zga aylanadi. Bunda so‘zning dastlabki va keyingi ma’nolari o‘zoro bog‘liq bo‘ladi. (Потебня, 1958, 34; Миртожиев, 1974, 112-бет).

Xalq qo‘shiqlaridagi polisemantik hodisalar shevalardagi ana shunday hodisaga nisbatan turg‘un bo‘lib, so‘z ma’nosi shevadagi singari nutq jarayoniga qarab o‘zgaravermaydi. Masalan, manglay leksik birligini olib ko‘raylik. U eski o‘zbek tilida *maŋlaj* (Рдл.IY, 2009), turk. *maŋlaj* (TPC, 99), qirg‘iz *maŋdaj* (Yudaxin, 294-bet), turk., qoraqalpoq tillarida *maŋlaj* (RKKC,399; Turkmrsl, 442-bet) o‘zbek tilida manglay shakllarida ishlatilib, yuzning qoshdan boshdagi sochgacha bo‘lgan qismini, ya’ni peshana ma’nosini anglatadi. Bu ma’no mazkur lug‘aviy birlikning bosh ma’nosi hisoblanadi. Xalq qo‘shiqlarida ham shunday ma’no bor:

Römmalimni maŋlajima dujämän

Göjnäk gijsäm qïzïlïnnan gijän.

Maŋlaj so‘zi ma’no ko‘chishi natijasida “predmet, narsaning oldingi qismi, yuza tomoni” ma’nolarini ham anglatishi mumkin:

v öjïnï sorasaŋ, taqqa maŋlajda,

äldi xavuz, guʒum , pajzli ʒajda.

Ushbu misrada ma’no biror bir hududda joylashganlik munosabatini

(metonimiya) yuzaga keltiradi. Ko‘zda tutilgan uy shu ko‘chada oldinda ya’ni peshonaga o‘xshatilgan xolda boshqa uylardan burun joylashganligini ko‘rsatadi *maŋlaj* so‘zi boshqa so‘zlar bilan birgalikda qo‘shiqlar tilida iboralarni ham hosil qilgan:

Nasib ᵛölsa gölni gölä ölijmän,

ʒanim ata, maŋlajiŋnan sujijmän

*maŋlaj*dan su*jij*maq “yordamlashmoq”, “ko‘maklashmoq”, “suyanch bo‘lmoq” ma’nolarini bildirmoqda.

Aq sövitä qantaradi atini,

Maŋlaj ini yiʒiradi xatini.

*Maŋlaj*ini *yiʒirsa-da xatini,*

*Özim barib tazaliman atini. maŋlaj*ini yiʒirmaq shu kisiga nisbatan salbiy munosabatda bo‘lish, yoqtirmaslik, norozi bo‘lib peshanasini tirishtirmoq ma’nosini anglatmoqda. Xorazm xalq qo‘shiqlarida *maŋlaj*ini yiʒirmaq iborasining sinonimi sifatida *maŋlajni čitmoq* iborasi ham uchraydi:

ʒavačadan aq mamiqni sitmijman,

Indi saŋa maŋlajimni čitmijman.

Mazkur misradagi *maŋlajni čitmaslik* insonning birgina a’zosi orqali munosabatni ochiq yuzlilikni bildiradi:

Sizä tušgän gözälni

Maŋlaji aj äkän

maŋlaji aj iborasi insonning hayotda tinch,osuda baxtli yashayotganligini bildirsa, *maŋlaji qara* iborasi “baxtsiz, sho‘r peshona” ma’nolarini anglatib, yomon odamlarga nisbatan salbiy ma’no sifatida ham qo‘llanadi:

Baššinda taxjasi, gü:lläri ala,

Dušmanla(r)ni maŋlaji qara.

Misollardan ham ko‘rinadiki, Xorazm xalq qo‘shiqlarida ishlatilgan so‘zlarning ko‘p ma’nolilik xususiyatlariga ega bo‘lishidan tashqari, ular boshqa so‘zlar bilan birikib, Xorazm vohasi aholisining madaniyatini, turmush tarzini va tiliga xos rang-barang ma’noli iboralarni hosil qiladi. Endi xalq qo‘shiqlarida

ishlatilgan ko‘p ma’noli lug‘aviy birliklarning semantik xususiyatlarini tahlil qilib ko‘raylik:

A:d “ot, ism, nom” ma’nolarida ishlatiladi.

Ärmiyä jö:llari čatlidan- čatli,

Oγlini sorasaŋiz Alimbay a:dli,

A:d leksemasi bu ma’nodan tashqari qo‘shiqlar tilidan ma’no ko‘chishi natijasida “malomat, isnod” kabi ma’nolarni ham anglatadi.

Čay ičgän ka:saŋni qojdim minada,

Bariš -gäliš ätip qalïpmïz a:da.

Xalq qo‘shiqlarida *a:da(qalmoq)* “malomat, isnod” ma’nosidan “gap-so‘zga qolgan kishini ifodalayotganligini ham ko‘rishimiz mumkin:

Gü:l baγlara ya:r ïkkïmïz giräli,

Birin-birin qïzïl gü:llä (r) teräli.

Bizlä (r)ni a:d ätyän insapsizlarni,

Aman ᵛölsaq a:d bolγanni göräli.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida uchraydigan ayrim so‘zlarning badiiy matnda yangi ma’no kasb etishi hisobiga lisoniy jihatdan taraqqiy etishi ham bunday leksemalarning polisemantik so‘zga aylanishiga asos bo‘ladi. Bunda so‘zning semantik tizimida ko‘chma ma’no yuzaga keladi:

Čo:llä(r)ni gü:lzara dondirin indi,

Ya:r dilini šad äyläjän indi.

Mazkur misralarda ishlatilgan *donmaq* so‘zi “o‘zgarmoq, aylanmoq” so‘zning asosiy ma’nosi hisoblanadi. Semantik ko‘chim qonuniyatiga ko‘ra ushbu ma’no zaminida xalq qo‘shiqlarida yangi ma’nolar yuzaga kelishi hodisasi kuzatiladi:

Alvan-alvan dönär ejnimdä šajim,

Säni maŋa näsip ätjän xudajim.

Ushbu misralarda *donmaq* “tovlanmoq, jilvalanmoq” ma’nosida ishlatilmoqda. Chunki tovlanish va jilvalanish ham o‘zgarishga aloqador.

Dušmanlari qan jiγlaγaj, gulmäjaj,

Sevär jarim vädäsin: nän donmäjäj.

Dönmäk so‘zi bu misralarda “ahdidan qaytmaslik, oldiga qo‘ygan maqsadga erishish” ma’nolarini ifoda etmoqda.

Beš gunlik dunjada saγ bol bojiŋnan,

Dunja dönsäm säniŋ axtiŋ dönmäsin.

Donmaq so‘zi bu o‘rinda “o‘zgarmoq” ma’nosida qo‘llanmoqda.

Xorazm vohasidagi qipchoq va o‘g‘uz lahjalarida ham donmaq so‘zining ma’nosi xalq qo‘shiqlaridagi ma’nolar bilan xamohangdir. Qiyos: *donmaq* 1. Aynimoq:o‘zgarmoq. *Läbzidän dondi*: *Ašiqliqni ati somas. Man dönämän, qojnim dömmäs: Har hiyola dönmä.* 2. Tovlanmoq. *äjnimdä göjnäkim dönävärädi, izïmdä dušmanla(r) olävärädi* (Абдуллаев, 1961, 39). *Dönmäk* so‘zining tub va ko‘chma ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishni quyidagicha ifodalash mumkin: *Dönmäk* 1) aylanmoq; 2) tovlanmoq, jilvalanmoq; 3) aynimoq; 4) o‘zgarmoq; 5) uzilmoq, ajralmoq.Shuningdek, *ajlanč* so‘zining o‘zbek tilidagi asosiy ma’nosi “aylanma, qing‘ir-qiyshiq” demakdir. Chunonchi:

Ajlanč joldan gitvädik,

Maqsadlara jetmädik.

Xalq qo‘shiqlarida bu so‘zning asosiy ma’no bilan bog‘liq holda boshqa ma’nolari ham yuzaga kelgan.

Baššimda romalïm, ajlanč gu:llari,

Baššim ajlantïrdi sü:ʒi dilläri.

Xalq qo‘shiqlarida faol ishlatiladigan *a:γa* so‘zining bosh ma’nosi oilada eng katta farzandga nisbatan ishlatiladi:

Aq ajvanni öräsi,

Jigitlä(r)ni töräsi,

ᵛUlli a:γasina bir salam.

A:γa so‘zi hurmat ma’nosini ham anglatishi mumkin:

Qoŋšimiz Ämät aγani öγli,

Geʒäsinä gälibdi bizä doγri

A: γaʒan, aman-aman, siznikidir yaxshi zaman,

A: γaʒan, jan a: γaʒan, biznikidir dävri-davran.

A: γa qo‘shiqlar tilida sevgan yigitiga nisbatan ham qo‘llanadi.Bir ma’noli *a:γa* so‘zi qo‘shiqlarda qiyosiy qo‘llanilishi natijasida ko‘p ma’noli so‘zga aylangan. Uchunchi ma’nosi esa ma’no ko‘chishi natijasida yuzaga kelgan. *Dayï* so‘zining “tog‘a” ma’nosi Xorazm aholisi tilida asosiy, bosh ma’no hisoblanadi:

ᵛUrjÄnibmÄn sÄni dayï dämÄkÄ,

Indi ujalaman jarïm dÄmÄkÄ

Mazkur ma’no bilan birga xalq qo‘shiqlarida *dayï* “pochcha” ma’nosida ham ishlatiladi. So‘zning bu ma’nosi Xorazmdagi bir qator shevalarda mavjud. Ammo u qo‘shiqlarda Xonqa tumanidan yozib olingan qo‘shiqlarda uchraydi.

Äpkäm gäldi dajïm vilän

Mänäm gäldim jarim vilän

Bu misrada “pochcha” ma’nosi qavm-qarindoshlik atamasi bo‘lgan *dayï* “tog‘a” bilan bog‘liq bo‘lib, shu ma’noni bildiradi.*Dä:li* Xorazm shevalarida aqldan ozgan kishiga nisbatan qo‘llaniladi:

Bojnïma asganïm qälämpir lä:li

A:γamni go‘rmäsäm bo‘laman dä;li

Shuningdek bu so‘z sho‘x ma’nosini ham anglatadi.

Belimdä mäni mädäli

Joramni a:di Atti dä:li

Yuqoridagi misralarda kelgan bu so‘z bir-biri bilan bog‘liq.

Ö:rä Xorazm xalq qo‘shiqlarida “ustun”, “tirgak” ma’nolarida ishlatiladi:

Äjvaniŋni ö:räsimän

Uč balaŋni säräsimän

Bu yerda *ö:rä* “ustun” ma’nosida qo‘llanmoqda.

Ʒundik/ʒünnik so‘zining o‘zbek adabiy tilida ko‘rinishi “jumrak” ma’nosi asosiy ma’no hisoblanadi:

Samavarnï ʒundikläri čajinnan

Män ajnanin tövilčini bojinnan

Yoki

Tanqala(r)ni ʒünniklari čoyinnan

Män ajnanin sevär jarni bojinnan

Ma’lumki *ʒömräk* samovarning choy quyish uchun mo‘ljallangan qismidir. Mana shu ma’noga qiyosan, ya’ni bu so‘zning ikkinchi –“tumshuq” ma’nosi hosil qilingan va u asosan salbiy ma’no ifodalash maqsadida foydalanilgan:

Ʒundïkiŋni čozma bala

Janγinama gälmä bala

čoshmoq so‘zining “tarqalmoq, sochilmoq, to‘zg‘imoq” ma’nosi o‘zbek tilida asosiy ma’no hisoblanadi:

Ä*näjan gäljatir qumladan ašïb,*

Älindä taxjasi pärläri čašib

čašmaq so‘zining ikkinchi ma’nosi “aynimoq”, “aqldan ozmoq” bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra birinchi ma’no bilan chanbarchas bog‘liqdir. Kishilarning o‘ zlarini ko‘ rinishi va fikrlashi sog‘lom kishiga nisbatan boshqacharoq bo‘lishi ham xalq qo‘shiqlarida *čašmaq* termini orqali ifodalanadi:

Qarrini aqli čašsa

Jašla(r)ni guči gitsä

Istämäk so‘zini xalq qo‘shiqlarida ikki ma’noda kelishini kuzatamiz;

Jekänlikni arasinnan qariman

Šu xoʒikä jar bolišni istimän.

Isätämäk “sog‘inmoq, qo‘ msamoq” ma’nolarini ham bildiradi:

Šujun oqšom dostim jarim gäläʒäk,

Gälävär, ʒaniŋnan istädim säni

Ošiqliq otinda örtämä mäni

Xalq qo‘shiqlari uchraydigan *tozmaq* so‘zi quyidagi ma’nolarda ishlatilib, ko‘p ma’nolikni yuzaga keltiradi:

tozmaq “eskirmoq” ni bildiradi;

Qujaš batib, daŋla(r) ataväräd‘i

Äjnimdä göynäkim tözaväräd‘i

tozmaq “tarqalmoq, parchalanmoq” ni anglatadi:

Säni gorib xäjol tozgän vaqtla(r)da

Män qalibman xäsrät vilän daγla(r)da

Be:jik so‘zi xalq qo‘shiqlarida ham ko‘p ma’noli so‘z sifatida uchraydi: *be:jik* “baland” ma’nosini anglatadi.

Ešikiŋni äldi be:jik qaraman

Oziŋ ayt indi qačan baraman

Ejvaniŋiz ejvanimdan be:jikdi

Ortasinda oynab durgan ki:jikdi…

Bu misrada so‘zining asosiy ma’nosi keltirilgan.Xalq qo‘shiqlarida *be:jik* ning “baland” ma’nosidan o‘sib chiqqan “mavqe” ma’nosi ham uchraydi:

Äjvanizda bitgän bir div ärikmän

Bir däv ärikiŋä bir paj šerikmän.

Tutgan toraiŋizdän ozim be:jikmän

Gälävär ʒaniŋdan ʒonim aylansin

Keltirilgan tahlillardan ko‘rinib turibdiki, ko‘p ma’noli so‘zlarning paydo bo‘lishida asosiy o‘rinni so‘zning ko‘chma ma’nosi egallar ekan. Ko‘chma ma’noning hosil bo‘lishi ko‘p ma’noli so‘zlarning tuzilishi hamda bog‘lanishi (struktural sxemasi) ni shakllantiradi hamda mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллаев, Ф. (1961). Хоразм шевалари. – Т:, 39.
2. Азизов, О. (1963). Тилшуносликка кириш. – Т:, 60.
3. Мадрахимов, О. (1973). Ўзбек тилининг ўғиз лаҳжаси лексикаси, – Т:, 82-97.
4. Мадрахимов, А. Исследование по лексике огузского наречия узбекского язика: Дис.д-ра филол. Наук. – С.280-290.
5. Турсунов, У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. (1966). Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Т:, 125.
6. Потебня, А. (1958). Из записок по русской грамматитике. – М:, – С.34.

O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA DIALEKTIK LUG‘ATLAR VA ULARNING ILMIY AHAMIYATI

Toshmatova Madinabonu,
Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti
2-kurs ***madinabonutoshmatova24@gmail.com***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada leksikografiya bo‘limi , lug‘atlar va ularning turlari, dialektik lug‘atlar, hamda dialektik lug‘atlar tuzish, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati haqida ma’lumotlar berildi. Dialektik lug‘atlar tuzish o‘zbek leksik qatlamining boyishidagi o‘rni, O‘zbekiston hududidagi ko‘plab shevalar hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritildi.*

Kalit so‘zlar*: Leksikologiya, leksikografiya , dialektik lug‘at, sheva, sof dialektik so‘zlar*

Abstract*. This article provides information about the lexicography section, dictionaries and their types, dialectical dictionaries, and the creation of dialectical dictionaries, their scientific and practical importance. The role of creating dialectical dictionaries in the enrichment of the Uzbek lexical laer, many dialects in the territory of Uzbekistan and their specific features were discussed.*

Keywords: *Lexicology, lexicography, dialectical dictionary, dialect, purely dialectical words.*

Aytish joizki, hozirgi kunda tilshunoslik hamda uning leksikologiyasini o‘rganish dolzarb masalaga aylanadi. Leksikologiya tilning muhim tarkibi hisoblanib, uni dialektlarsiz shakllantirib bo‘lmaydi. O‘zbekiston hududida turli hil sheva vakillari istiqomat qiladi. Ularning har bir odatlari, an’analari tilda dialektik leksemalarda namoyon bo‘ladi. Ana shu dialektik leksemalarni o‘rganish hamda ularni lug‘at tartibida solish hozirgi o‘zbek adabiy tilining dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbek tikshunosligida dialektlar va ular bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillarida boshlandi. Dialektlar ma’lum bir hududga xos bo‘lgan shevalar yig‘indisi hisoblanadi .Akademik B.B. Radlov, V.A. Borodinov, I.I.Zaribun, K.K.Yudaxin, E.D.Polivanov, professor G‘ozi Olim Yunusov, A.K.Borovkov, V.V. Reshetov kabi olimlar o‘zbek dialekti va uning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan,

ularni tahlil qilgan va ana shular asosida o‘zbek dialektini tasniflagan.Bu tadqiqotlar natijasida shevalardagi leksik ma’nolar va ularning turlari o‘rganildi, leksik tahlil qilindi. O‘zbek shevalari o‘zbek tilining mahalliy ko‘rinishi sifatida unda bo‘lgan barcha qatlam so‘zlarini o‘zida birlashtiradi. O‘zbek dialekti tarixi jihatdan quyidagi leksik qatlamlardan iborat: 1.Umum turkiy so‘zlar ; 2.O‘zlashgan so‘zlar; (- forsiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar, - arab tilidsn o‘zlashgan so‘zlar, - rus tilidan o‘zlashgan so‘zlar) 3.O‘zbek tili sharoitida yaratilgan so‘zlar; 4.Shevalarning maxsus so‘zlari. Ushbu qatlamlar tadqiq qilinib ular asosida lug‘atlar yaratildi. Lug‘atlar va u bilan bog‘liq muammolarni leksikografiya bo‘limi o‘rganadi. Leksikografiya - lug‘at tuzish bilan shug‘ullanadigan sohadir. Uning muhim ijtimoiy vazifalari mavjud. bular quyidagicha ko‘zga tashlanadi: Ona tili va chet tillarini o‘rganishda ; ona tilini me’yorlashtirishda; tillararo munosabatlarni ta’minlashda. Lug‘atlarning turlari ko‘p; ensiklopedik, filologik, tarjima, izohli lug‘atlar chastotali lug‘atlar, ters lug‘atlar, imlo lug‘atlari va yana boshqalar. Imlo lug‘ati so‘zlarni amaldagi qoidalarga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o‘rgatsa, ters lug‘atlar so‘z teskari tomondan oxiridan alfavit tartibida joylashtiriladi. Misol uchun:

murojaat

hojat

ijozat

odat

serharakat

fazilat

oqibat

Frazeologik lug‘atlar barcha frazemalar alifbo tarzida, sinonim, omonim va boshqa shakllari bilan tasniflangan lug‘atlardir. Bu turdagi lug‘atning mukammal namunasi Shavkat Rahmatullaev tomonidan tuzilgan “ O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” hisoblanadi. Ammo, dialektik leksemalarga oid lug‘atlar kam. Tilning lug‘at boyligi ikki manba – ichki va tashqi manbalar orqali boyib boradi. Tilning ichki manba orqali boyishida shevalar asosiy o‘rin tutadi. nrgaki, hech qaysi bir til o‘z dialektlaridan so‘z olmay rivojlanmaydi. yuqorida aytilganidek,

O‘zbekiston hududida shevalar xilma-xil. Ulardagi so‘zlar adabiy tilga sayqallanadi, qabul qilinadi. dialektlarimizda turfa so‘zlar, ma’nolar mavjud. Zamonamiz rivojlanishi, ilm-fanning, texnikaning zamonaviylashuvi hamda internetning har jabhaga kirib kelishi bizning shevamizga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Zamonga mos yangi so‘zlar shevalarda vujudga kelmoqda. Chetdan kirgan so‘zlar singib bormoqda. Sof shevamizdagi so‘zlar va ular anglatayotgan ifoda-mazmun yo‘qolib, unitilib ketyapti. Shevalarimizni saqlash, asrab qolish uchun dialektlarimizni o‘rganish, ularni ilmiy tadqiq hamda dialektik lug‘atlar yaratish lozim. Bunday lug‘atlar, umuman, o‘zbek tilining barcha shevalariga xos yoki ma’lum bir shevaga oid so‘zlarni izohlashga qaratilgan bo‘ladi. Bunga misol qilib 1971-yilda yaratilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” ni keltirish mumkin Bu lug‘at 1971- yilda tuzilgan bo‘lib, unda o‘sha davrgacha, ya’ni lug‘at yaratilgan yilgacha bo‘lgan shevalar o‘rganilgan hamda bir lug‘at ostida jamlangan.

Govora (Buxoro) – beshik

Gavdo‘sha (Buxoro) – xurmo

Gajdim (Nayman) – chayon

Dialektik lug‘atlarni tuzishda har bir hudud shevasining alohida yoki umuman o‘zbek shevalarining jamlanmasi asosida tuzish maqsadga muvofiq. “Toshkent shahri dialektik lug‘ati”, “Qashqadaryo viloyatining dialektik lug‘ati”, shu kabi alohida yoki umumiy lug‘atlar tuzish lozim. Hududlar shevasini alohida o‘rganishda, ana shu hududning o‘ziga xos fonetik, leksik, morfemik hamda grammatik xususiyatlari, ularning semalari o‘rganilib, ilmiy tadqiq qilinadi va ana shularni inobatga olgan holda lug‘atlar yaratiladi.

Ashi (Andijon) – ana shu

Aba (Namangan) - ona

Baqa (Farg‘ona) – bu yoqqa

Deda (Namangan, Andijon) – dada, ota

Gashir (Xorazm) – sabzi

Jo‘rob (Navoiy, Buxoro) – supurgi

Kadi (Xorazm) – qovoq

Kosa (Xorazm) – payola

Opoda (Namangan) - bobo

Zardoli (Samarqand, Buxoro) – o‘rik

Valish (Xorazm) – ishkom

Chikon (Xorazm) – dugona

Shoxa (Qashqadaryo) – panshaxa

Yuqorida keltirilgan misollar har xil hududga tegishli dialektlardir. Ana shularni jamlash asnosida yangi o‘zbek shevalarining umumiy dialektik lug‘atini yaratish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak, dialektlarni o‘rganish, tadqiq ularni lug‘at shaklida jamlash lozim. Buning ahamiyatli tomoni shundaki, shevalarning yo‘qolib borishini oldini olish, undagi o‘zgarishlarni tahlil qilish, ularni saqlab qolish, qolaversa, o‘zbek tilini o‘rganuvchilar hamda o‘zimiz uchun ilmiy manba vazifasini bajaradi. Hozirgi tilshunos olimlarning eng muhim vazifasi ham ana shunday lug’at yaratish hamda uni keng ommaga taqdim etish ustuvor vazifa hisoblanadi.Tilimizning boyishi, rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shadi. Leksikologiya, leksikografiya, sotsiolingvistika hamda dialektologiya va lingvistika fanlari uchun ilmiy manba bo‘ladi va shu sohalarni yana-da rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboev Samixon. (2021).O‘zbek dialektalogiyasi. – Toshkent; “Nodirabegim” nashriyoti

2. Abduazizov. A. A. (2010) Tilshunoslik nazaryasiga kirish” – Toshkent

3. Irisqulov. M. T. (2009).Tilshunoslikga kirish. –Toshkent; “Yangi asr avlodi” nashriyoti,

4. Jamolxonov H. (2013) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.

III BOB

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI

ТӘРИЕННІҢ БАСТАУЫ – ТАЛ БЕСІКТЕН

Абаева Жасмиа Қайрат қызы
Низами атындағы Ташкент мемлекеттік педагогика университетінің 2-курс студенті
Ғылыми жетекші : Бердібек Юуспов

Аннатация. Бесік жыры-ананың балаға деген үлкен махаббатының жырмен өрленген көрінісі.Бесік жырының тәрбиелік маңызы.

Кілт сөздер: салт-дәстүр, бала, ана, бесік, арман-мақсат, махаббат, жыр.

Abstract.A lullaby is a reflection of a mother's great love for her child.The educatinol value of a lullaby.

Key words: Tradition, child, mother, cradle, dream-goal, love song.

Салт-дәстүр дегеніміз атадан балаға жалғасып отыратын тұрмыстық, әлеуметтік ұстанымдар.Салт-дәстүрге әдет-ғұрыптың өткен кезеңдерден қалған оның ең озық түрлері, ырым-жорамалдыры, кәде-рәсімдері кіреді.Кез келген дәстүр белгілі бір заманда өзінің өмір сүру заңдылығына толық ие болғаннан кейін ғана әрмен қарай жалғасын тауып, келер қоғамнан тұрақты орын алады.

Әлди,әлди,ақ бөпем,
Ақбесікке жат бөпем.
Жылама,бөпем,жылама,
Жілік шағып берейін,
Байқұттанның құрығын
Жіпке тағып берейін,
Әлди,әлди, ақ бөпем...
(Халық аузынан

Қазақ халқының салт-дәстүрлері ата-бабаларымыздың тіршілік кәсібіне, наным-сеніміне, дүниетанымына орай туындап отырған.Олардың қоғамдағы атқаратын қызметіне қарай отбасылық және қауымдық-әлеуметтік дәстүрлер деп екі үлкен топқа бқлуге болады.Бұл жердегі отбасылық дәстүрлерге баланың дүниеге келуі, оның тәрбиесіне байланысты орындалатын дәстүрлер, ержетуі, келін түсіру, қыз ұзату, өлім-жетім мәселелері енсе, ал қоғамдық дәстүрлерге бүкіл ауыл болып өткізетін әдет-ғұрыптарды яғни наурыз мерекесі, діни мейрамдар сындыларды жатқызамыз.

Қай ұлтта болмасын, халық ауыз әдебиетінде ең алғаш пайда болған өлең-жырлар, әңгімелер балаларға, олардың тәрбиесіне мән беру жүйесіне

негізделген.Ауыз әдебиетіндегі бала тәриесінің негізін қалаушы кезеңнің бастамасы бұл-бесік жыры.

Бесік жыры- тұрмыс-салт жырларының көне түрінің бірі.Халық тәжірибесінің негізіне айналған бесік жырында халықтың төл тарихының, дәстүрлі мәдениетінің, ежелгі наным-сенімінің, дүниетанымының көрінісі бар.Бесік жырын барша халық ұлттық тәрбиеннің кәусар бұлағы деп таниды.Әлем халықтарының бесік жырлары әр елде әр түрлі аталғанымен,атқаратын міндеті, мазмұн байлығы мен саз-әуені жағынан әр қашан үндесіп келеді.Бесік жырының басты қызметі –бесік тербелісіне ыңғайлас сазды әуен,ырғақты сөзбен баланы тыныштандыра отырып, оның жан жүйесімен санасына ұлттық тәрбиенің, болмыстың нәрін сіңіру.

Бесік жырыны-ананың балаға деген үлкен махаббатының жырмен өрбіген көрінісі.Баланы тербетіп отырып айтылатын осынау керемет жырдың тәрбиелік, тағылымдық маңызы орасан зор.Әдемі әуеннің астарында жас баланың дені сау болып ер жетуін,еліне қызмет ететіндей арлы, өнерлі, қорған бола алатындай қайыспас-қажарлы ,батыр болып ер жетсе екен деген ізгі тілектерін білдіреді.Ананың жырымен жеткізген ізгі тілегін тыңдап өскен нәресте шебер болуға да, шешен болуға да ұмтылып өсері анық.Сол себепті әр бір ана өз баласына әсерлі әуен,сырлы сөзбен айтылатын бесік жырын міндетті түрде айты абзал.

Жас баланы бесікке салуды үлкен қуаныш санаған қазақ халқы тойлап өткізгенМәселен бесік алып келуді алып қар.асақ,келіннің төркіні «іздеушісі, сұраушысы бар екен» дегізіп бір топ болып келетін болған және де жәй келмей баланың бесігі,жабдықтарымен қос келген.Мұныда ойын-сауық, сән-салтанатқа айналдырған.Бесік тербете отырып аяулы ана көңіліндегі ой-арманын,жақсы тілігін, ананың балаға деген мейір,махаббатын жырмен жеткізеді

Әліжан Тауұлы өзінің «Қазақ салт-дәст,рлері» еңбегінде, « Бесік-баланың ұйықтауына, таза болуына өте ыңғайлы жасалған.Бесікке ауылдың

өнегелі, ұрпағы өсіп-өнген, ел құрметіне бөленген ақ орамалды анаға салғызады.Баланы бесікке жырын айтып отырып бөлейді:

Әй-әй бөпем, әй-бөпем.

Ән айтайын бал бөпем.

Ән тыңдағың келсе егер,

Және айтайын, жан көкем

-деп жырлайды да, өзінің ішіндегі арман-мақсат мүдделерін жыр етеді.[51-52] Бесік жыры ауыз әдебиетінде ертеден бар.Оны әуел баста ақындар шығарған, соны жұр жаттап алып,айтып, кей сөздерін өзгертіпте жүретін болған.Сондықтанда қазіргі таңда бесік жырының белгілі авторы жоқ, халық аузынан тарған деп қолданып жүреміз.Бесік жырында айтылатын тілек,ақыл-өсиеттерден халықтың нені аңсап,нені көксегенін байқауға болады. Бесік жыры –халық тапқырлығы мен даналығы, ізгі ойдың санаға дарыған мөлдір бұлағының тамшылары.Ананың балаға деген мерейін үстемелейді, сезімді тебірентеді.Тал бесікте жатқан баласы бесіктің арқалығына сүйене отырып емізген ана жанын еміреткен арман тілегін де, көкейдегі көксеген ізгі ниетінде әндетіп айтып болашағында болжайды.Мәселен:

Айыр қалпақ киісіп,
Құрығыңды майырып,
Ақырып жауға тиісіп,
Түнде жылқы қайырып,
Батыр болар ма екенсің!
Қызмет қылар ма екенсің?!

Бармақтары майысып,
Қолымыздан іс алып,
Ою-өрнек ойысып ,
Бақытымызға жан балам,
Ұста болар ма екенсің?!
Бізді бағар ма еккенсің?!

Осы сынды өлең-жырлар арқылы баласының болашағын, ел мүддесін,өз арман-мұратымен астырта жырға қосады. Сәби тәрбиесі мен мінез-құлқын қалыптастыруда бесік жырының орны мүлде бөлек.Ол баланың көкірек көзін ашады, сезімін сергітеді,көңіл-күйін көтереді.Есейе келе өнерге, сөз өнеріне бейімделеді.Әже мен ананың әлдиі сәбидің алғашқы өнер мектебі екені баршаға белгілі.

Қазақ ұлттық этимология саласына тән ,қазақ халқының салт-дәстүрі болып табылатын бесік-қазақ қауымы үшін аса қастерлі,қасиетті мүлік.Оны адами өмірдің бастапқы ұясы деп біледі.Бесік көшпелі ғұмыр кешкен бабаларымыздан қалған асыл мұра.Қазақта « Есік көргенді алма, бесік көргенді ал», « Бесік көрмеген ессіз болып есікке енеді», «Есік арқалағаннан бесік арқалаған артық», «Төрінде бесік тұрса, төре де бас иеді» деген ұлағатты сөздерде бесіктің ұлылығын дәріптеп отыр.

«Ел болу үшін бесігінді түзе»-деген нақыл айтып кеткен М.Әуезов атамыздың бұл бір сөзіне ой жүгіртсек, елдіңің сапасы сонау бесік тәрбиесімен байланыс терең екенін аңғарамыз.Қазақ даналығының алтын қазынасы тіл мен тәрбиеде жатқаны анық.

Қорыта айтқанда,қазақ ауыз әдебиетінде салмақты орын алатын, халықпен көне заманнан бері бірге жасасып,бала тәрбиелеу ісіне үлкен қызмет атқарып келе жатқан балар әбеиетінің арнай саласы.Бесік жыры телегей-теңіз тәрбие бастауы.Бесік жырының табиғатын біз ел тұрмысының түрлі көріністерінгболашақ ұрпақ жөніндегі халық мұратын танимыз,ошақ басымен бірге бесік қасында отырған қазақ әйелінің мұң-шеріне ортақтасамыз.

«Ата-салтың –халықтық қалпың» демекші, өз ұлтымыздың қадір-қасиетін, ой-өрісін тантатын салт-дәстүрлерімізге мейілінше құрметпен қарап, оларды қастерлеу барша қазақтың елдігінің борышы. Ертеңгі ұрпағымыз ұлтжанды, отаншыл болып өссін десек, ата дәстүрімізді тиянақты үйреніп ,өзіміздің артымыздан ерген ұрпақтың бойына да ұлттық тәрбие мәнін қәзірден бастап сіңірейік!

Пайдаланған әдебиеттер:

1. М.Ғабдуллин. « Қазақ халқының ауыз әдебиеті»Алматы « Мектеп» баспасы 1974;50-51 -бет
2. С.Қалиев « Қазақ халқының салт-дәстүрлері» Алматы «Атамұра» баспасы 1993
3. Ә.Тауұлы « Қазақ салт-дәстүрлері» Алматы « Балауса» баспасы, 2017[51-52]
4. Қазақ мақал-мәтелдері.

DUNYO ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI TASVIRI

Nigora Ashurova Xayitovna,
TDO‘TAU tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Maqolada jahon adabiyotida ayollar huquqi, ularning jamiyatdagi o‘rni, gender tenglik masalasi xususida so‘z yuritiladi. Dunyo va o‘zbek adabiyotshunosligi hamda unga aloqador sohalarda ayol obrazi va uning nozik ruhiyatini o‘rganilganligi, bu borada olib borilgan tadqiqot ishlarida berilgan fikr-mulohazalar haqida to‘xtalib o‘tilgan. Shuningdek, zamonaviy o‘zbek adibalari Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova va Jamila Ergasheva asarlarida ayol obrazi, ruhiyati tasviri tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *Adabiyotshunoslik, ayol, obraz, ruhiyat, syujet, gender tenglik.*

Abstract. *The article talks about women's rights, their place in society, gender equality in world literature. The study of the image of a woman and her delicate psyche in world and Uzbek literary studies, as well as the opinions and discoveries given in the research works conducted in this regard, were discussed. In the works of modern Uzbek writers Zulfia Kurolboy, Risolat Haydarova and Jamila Ergasheva, the image of a woman and her psyche are analyzed.*

Keywords: *Literary studies, woman, image, psyche, plot, gender equality.*

Jahon adabiyotida ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o‘rni masalasi haqida gap borar ekan, unda gender tenglik mavzusining ko‘tarilishi ko‘p yillar davomida ayollar huquqlarining poymol etilganligiga qarshi jamiyat ziyolilari tomonidan xotin-qizlar huquqlarining himoya etilishi bilan ham bog‘liq. Amerikalik olim Djon Mani 1955 yilda “gender” atamasini birinchi marta fanga ma’lum qiladi. Oradan oz fursat o‘tib bu atama keng tarqalgan. Bunga asosiy sabab ushbu tushuncha feminizm oqimi tarafdorlari tomonidan ommalashtirildi. “Feminizm” tushunchasi ham dastlab G‘arbda paydo bo‘lgan. O‘tgan XX asrda G‘arb ayoli faqat uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajaruvchi shaxs sifatida tasavvur paydo qilgan. Bunda xotin-qizlar huquqlarining himoyasizligi, ularning jamiyat hayotidagi nofaol ishtiroki bilan ham izohlanadi. Bunday holatga ko‘nika olmaslik

feminizm oqimining vujudga kelishiga sharoit yaratgan. Adabiyotning abadiy mavzusi sifatida ayollar, nafaqat yozuvchilar, balki adibalar asarlarida ham o‘ziga xos tarzda ifodaga ega bo‘lib, adabiyotshunoslikda bunday yondashuv feminist tanqidchilik nomi bilan yuritilgan. Feminist tanqidchilik adabiyotshunoslikka rasmiy ravishda 1960 yillarda kirib keldi. Ammo bu jarayongacha ko‘p asrlik ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi o‘rni xususida yozilgan asarlar hamda ayol erki uchun kurashgan yozuvchilar ijod qilgan bo‘lib, ular tom ma’nodagi feminist tanqidchilikning poydevoriga asos solgan edilar. Darhaqiqat, ayollar va erkaklar huquqlaridagi tenglik masalasi qadim zamonlardan buyon qizg‘in bahslarga sabab bo‘lgan. Eramizdan avvalgi V asrda yashagan sofist Antifont o‘z asarlarida barcha odamlarning tabiat tomonidan teng qilib yaratilgani haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib ilgari surgan. Uning fikricha, tabiat barchani: ayolni ham, erkakni ham teng qilib yaratadi, lekin insonlarni tengsiz holatga soluvchi qonunlar, odamlarning o‘zaro kelishuvi natijasidir (Антология мировой философии, 1969, 322). Erkak va ayolning huquqi barobar ekanligini faylasuflar o‘z nazariyalarida e’tirof etishgan. Ya’ni buyuk mutafakkir olim Pifagor o‘z falsafiy qarashlarida ayol va erkak huquqlarining tengligi haqidagi fikrini ilgari suradi. Pifagorning maslakdoshlari esa bu fikrni davom ettirishgan. Ular inson hayoti adolat va ma’lum chegara, ya’ni o‘z o‘rnini bilish va his qilish asosida qurilishi lozimligini ta’kidlaydi (Николаев Н., 2017, 423). Ushbu mazmundagi g‘oyani yunon mutafakkiri Suqrot qonunlarning obyektiv ahloqiy tabiati to‘g‘risidagi falsafiy ta’limotida rivojlantirdi. Jumladan u ham insonlarning tabiiy huquqlari tengligini e’tirof etar ekan, polisning mantiqan to‘g‘ri va adolatli qonunlargagina bo‘ysunishi lozimligini va faqat shunday holatda inson erkinligini ta’minlash mumkinligi g‘oyasini ilgari suradi (Kessidi F.,1988, 181-bet).

Jamiyat qiz farzand dunyoga kelishi bilanoq uning ixtiyori otasida bo‘lishi, to voyaga yetguniga qadar ham og‘ir mehnatga jalb qilinishi, voyaga yetmasdan turmushga chiqarilishi, uning xohish-istaklari hech kimni qiziqtirmasligi ushbu jins vakillarini hayotda ruhan ezilishga olib keldi. Qadimgi Hindistonda ham ayol turmush qurish, bola tug‘ishdan boshqa hech qanday huquqqa ega bo‘lmagan. U

nopok tamoyilga, zaif fe'lga, yomon axloqqa ega deb hisoblangan. Qadimgi Yunonistonda ham ayollar hech qanday huquq va erkinliklarga ega bo‘lmagan. Ular butun umri davomida, erkakning buyrug‘iga itoat etishi, uning xohlagan istaklarini bajarishga majbur etilgan. Ayol umrbod bir erkakning ixtiyorida bo‘lib, hayot-mamoti o‘sha erkakka topshirilgan (O‘razaliyeva G.B., 2006, 147-bet).

Qadimgi Xitoyda ayol inson hisoblanmagan, hatto ism ham qo‘yishmagan. Ayollar raqam bilan chaqirilgan va shunga xos munosabat qilingan. O‘g‘il bolalar maqbul hisoblangani holda, qiz bolalarga juda past nazar bilan qaralgan. Agar xitoy oilalarida qiz farzand dunyoga kelsa, bu ular uchun farzand deb hisoblanmagan. Islomgacha bo‘lgan davrda Arabiston yarim oroli aholisi o‘rtasida ayolning hech qanday o‘rni ham, qadr-qimmati ham bo‘lmagan. Bu holat farzandning tug‘ulishidan boshlanardi. Oilada o‘g‘il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug‘ilganda esa oilada motamsarolik xukm surib, tezda farzandni yo‘qotish payiga tushishgan (Azimov A., 1991, 150-bet).

Dunyo adabiyotida ayollarning Afg‘oniston islom respublikasidagi taqdiri qiziqish bilan o‘rganilib kelinayotgan, tanqidiy munozaralarga sabab bo‘layotgan mavzu bo‘lib, Xolid Husayniy, Farah Axmadiy, Mir Tamim Ansariy, Anne E. Brodskiy, Veronika Doubldey, Deborah Ellis, Doris Lessing, Xarriet Logan, Sunita Mexta, Nilufar Pazira, Deborax Rodriguez, Rozmari Skeyn, Mari Smis, Zoya kabi yozuvchilar aynan afg‘on ayollari mavzusida ijod qilishgan. Demak, ayollarning jamiyatdagi o‘rni adabiyotning mangu mavzulariga ta'luqli bo‘lib, buning ifodasini Xolid Husayniy "Ming quyosh shu'lasi"(Hosseini Kh., 2007. 384) romanida yuksak mahorat bilan chizgan. Ushbu asar 2007 yilda chop etilgan feminizm ustuvorlik qiluvchi roman bo‘lib, Husayniyning mavqeyi yozuvchi sifatida e'tirof etilishiga sabab bo‘ldi. Asar syujetining asosiy unsuri sifatida Maryam va Laylo taqdiri ko‘riladi. Muallif 2003 yil Qobulga tashrifi davomida har birida to‘rt-besh va hatto olti nafar farzand bilan ko‘cha burchaklaridagi eski kiyimli chodra o‘rangan tilanchi ayollarni uchratganida ilgari paydo bo‘lgan Afg‘oniston ayollari mavzusida asar yozish istagi adabiy g‘oya sifatida shakllanadi. Yozuvchini Afg‘onistondagi ayollarning ahvoli qattiq o‘yga toldiradi va ularning yurakni

ezuvchi hayotiy hikoyalarini tinglab, erkaklardan-da kuchli ruhiyat, iroda hamda chidamga ega ekanliklariga iqror bo‘ladi. Asardagi Maryam va Aziza obrazlarida Husayniy bir xil “buzuq” maqomi bilan hayoti boshlangan taqdir egalarining baxtsiz bolaliklarini tasvirlasa, Maryam erishmagan baxtga asar oxirida Azizani muyassar etadiki, bu ham Afg‘onistonda yorug‘ kunlar kelishiga, bu yerda bolalikka haqli bolalar kamol topishiga ishonadi. Xolid Husayniy qarashlarida Afg‘onistondagi ayollarning barcha yoshlardagi taqdiri “Ming quyosh shu’lasi” romanidagi feministik perspektiv orqali yoritib berilgan. Uch avlod vakillari bo‘lgan ayol obrazlari Aziza – yosh qizaloq, Laylo – o‘rta yoshli ayol, Maryam – katta yoshli ayol timsollari orqali Afg‘onistonning barcha yosh qatlamlarida nosog‘lom muhit hukm surayotganligini tasvirlaydi. Kelajakka umid bilan boqarkan, yozuvchi ayollarga qilinayotgan tahqirli munosabatlardan ranjib, barchani ayol zotiga hurmat va ehtirom bilan qarashga chaqiradi.

Pokiston ayollarining tolibonlar sabab chekkan aziyatlari Nobel mukofoti sovrindori Malala Yusufzoyning “Men Malalaman” (Yousafzai M., 2013. 288) nomli avtobiografik romanida adabiyotning ta’sirchanlik va haqqoniylik me’zonlari asosli tasvirlagan. Ayniqsa, har bir kitobxonni kechasi tolibonlarning afg‘on xonadonlarga bostirib kirishi, ayol-u qizlarni zo‘rlab, o‘ldirib ketishdek qabih harakatlari larzaga soladi. Mana shunday og‘ir vaziyatda o‘zini vatanparvar hisoblaydigan har bir inson ham, qizi va ayolining or-nomusi, o‘zining g‘ururi, oilaning tinchligiyu farovonligini saqlab qolish uchun xorijiy davlatlarning chegaralarini noqonuniy kesib o‘tishga majbur bo‘ladi. Yozuvchi o‘z asari orqali butun dunyoni larzaga solayotgan, gunohsiz to‘kilayotgan qonlar va ayrim kichik guruhlarning manfaatlariga xizmat qilayotgan nihoyasiz urushlarning eng asosiy sababi ta’limdan voz kechishlikda. Ularning yagona yechimi ta’limga qaytishda degan xulosaga keladi. Demak, ta’lim va tarbiya birinchi o‘ringa qo‘yilgan avlod vakillari o‘rtasida faqat rivojlanish tendensiyasi sodir bo‘ladi, deya xulosa chiqaradi.

Bugungi kunda butun dunyoda ayollarga bo‘lgan e’tibor, ularning huquqiy-madaniy-maishiy turmush darajasini oshirish, qizlarning maktablarda ta’lim

olishlarini bir maromda yo‘lga qo‘yishga qaratilgan sa’y-harakatlar jadal sur’atlar bilan rivojlanib boryapti. O‘zbek adabiyotida ham ayollar huquqi masalasi ko‘p yillardan buyon e’tibor markazida turadi. O‘zbek adabiyotida ayol adibalar: Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergashevalar romanlaridagi ayol obrazi muammosining ko‘tarilishi o‘zining o‘chmas ruhiy hodisasi bo‘ldi.

Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”, “Mashaqqatlar girdobi” “Armon asirasi”, Risolat Haydarovaning “Javzo”, Jamila Erashevaning “Qir ustidagi ayol” kabi asarlari ayol ruhiyati va uning tuyg‘ulari ifodasi o‘laroq maydonga kelgan. O‘zbek adabiyotiga kirib kelgan ayol ijodkorlar ham o‘z asarlarida yangi ayolning xarakter xususiyatlarini namoyon etuvchi obrazlarni yaratdilar. Ular qanday yo‘nalishda ijod etishlaridan qat’i nazar roman va qissa-hikoyalarida ayol xarakterining gender tengligi masalasi natijasida yuzaga kelgan yangi xususiyatlarini gavdalantirdilar. O‘zbek adibasi, taniqli ijodkor Zulfiya Qurolboy qizi qalamiga mansub “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanida ayol qalbi, ko‘ngil rozlari, baxtu-kamoloti, orzu-intilishlari, ularning jamiyatda, oilada tutgan o‘rni badiiy talqin etilgan. Darhaqiqat, o‘zbek ayolining qat’iyati, mehnatsevarligi, oilaparvarligi, bolalarga mehri hamda ayol ko‘nglining sir-asrorlari xususida gap boradi. Asar qahramonlari hayot xodisalarini yangicha talqin qilib, bugungi kun kishilarining qarashlarida xos bo‘lgan odamgarchilik, mehnatsevarlik, saxovatpeshalik, halollik singari tushunchalarni targ‘ib etadi.

Jamila Ergasheva ham bugungi odam va uning o‘ziga xos ruhiy dunyosini qiziqarli va o‘ta qaltis voqealar tasviri asnosida ko‘rsatishga qaratilgan qissalari bilan tanilgan yozuvchi. Adibaning “Ajdarko‘l”, “Intiqom”, “Tanazzul”, “Yopiq derazalar” singari o‘tkir syujetli, o‘quvchi diqqatini o‘ziga mixlab oladigan to‘rt qissasi chop etilgan. Yana, “Qir ustidagi ayol” (“Fitna” ssenariy) romani o‘quvchi dunyosiga kirib bordi. Adibaning asarlarida ezgulik va yovuzlikning inson ruhiyati va taqdiridagi izlari keskin ziddiyatlar asnosida aks etiriladi.

Risolat Haydarovaning “Javzo” asari ham o‘zbek romanchiligida yaratilgan ayollar obrazi ruhiyatining badiiy talqini va bu obrazning poetik takomili muammosi yuzasidan o‘tkazilgan tahlillar o‘zbek nasrida alohida hodisa ekanligi

isbotlangan. “Javzo” asarida ayollar obrazi e’tibor jihatdan, har qanday badiiy asar voqeligini harakatga keltiruvchi muhim omilardan biri. Bizningcha, adiba asarlarida ayol obrazi bilan milliy qadriyatlar uyg‘unligi hamda qahramon ruhiyati talqini tushunchasi ham ana shu estetik kategoriyaning bir qismi hisoblanadi. “Javzo” asarida Qorako‘zbegim, Mo‘g‘ul xonim, Xon oyim, Xadichabegim, Opoqbegim, Ulug‘bibi, Gulnurbegim, Ganjina, O‘g‘ilbibi singari faol va rang-barang ayol obrazlari uchraydi. Yozuvchi ularning tashqi portretini chizish orqali ichki ruhiy olamiga kirishga, ayol ruhiyati manzaralarini tasvirlashga intiladi.

Xulosa qilib aytganda, ayol oilaning baxtu iqboli, kelajak avlod davomchisi. Ayoli baxtli elning kelajagi ham porloq bo‘lishi ayni haqiqat. Adibalarimiz Zulfiya Qurolboy qizi, Risolat Haydarova, Jamila Ergasheva asarlarida ham bugungi kun ayollarining turmush-tarzi, orzu maqsadlari, ruhiyati, intilishlarini aks ettirib berilgan. Har bir asarlarida ayol dardu-tashvishi, iztirobi, quvonchu-shodligini mahorat bilan ifodalagan. Go‘yo atrofingizda, o‘z taqdiringizda kechayotgan voqelikka befarq qaray olmaysiz. Bu esa iqtidorli adibalarimizning ulkan yutug‘idir. Mazkur asarlarni yoshlar xususan kitobxonlar o‘rtasida targ‘ib etilishi, ular o‘rtasida muhokamalarga aylanishi, o‘rganilishi xotin-qizlar ruhiyatini, jamiyatda tutgan o‘rnini anglashda muhim manba bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimov A. (1991) Islom va hozirgi zamon. – Toshkent: O‘zbekiston.

2. Антология мировой философии. (1969) Т.1. – Москва: Наука.

3. Николаев Н. (2017) Кто такой Пифагор: универсалная энциклопедия. Т.2. – Москва: Наука.

4. Кессиди Ф. (1988) Сократ. – Москва: Наука.

5. Hosseini Kh. (2007) A Thousand Splendid Suns. – New York: Riverhead Books. 6. O‘razaliyeva G.B. (2006) Gender munosabatlarining ayollar huquqiy madaniyatini takomillashtirishga ta’siri. – Toshkent.

7. Yousafzai M. (2013) I am Malala. – United Kingdom: Weidenfeld &Nicolson.

“LAYLI VA MAJNUN” VA “ROMEO VA JULYETTA” ASARLARINING FARQLI VA MUSHTARAK JIHATLARI

Askarova Lobar Shavkat qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi.
lobaraskarova@01gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola Sharq va G‘arbning ikki mashhur asarlarini qiyosan tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib asosan syujet va mazmun jiyatdan qiyoslandi. Ijodkorlarning estetik qarashlariga tayanib asarlarning umumiy mohiyati solishtirildi. Asarlarning syujeti ketma-ketlikda qiyoslanib o‘xshash va noo‘xshash voqealar aytib o‘tildi. Asarlarning mazmunan tafovutlari ajratib ko‘rsatilib , ikki asar syujeti juda o‘xshash bo‘lsada g‘oyaviylik jihatidan tubdan farq qilishi, Layli va Majnun G‘arbning Romeo va Julyettasi emas, Romeo va Julyetta Sharqning Layli va Majnuni emas degan yakuniy xulosaga kelindi.*

Kalit so‘zlar: *syujet o‘xshashligi, doston, tragediya, ilk uchrashuv, dil izhori, ayriliq, istamagan kishi bilan nikohga majburlash, majoziy ishq, ilohiy ishq*

Abstract. *The article focuses on the comparative analysis of Romeo and Juliet are Layli and Majnun, in terms of plot and content. Based on the aesthetic views of the creators, the general essence of the works was compared. The plot of the work was compared in sequence, and similar and dissimilar events were mentioned. The differences in the content of the work are highlighted, although the plots of the two works are very similar, they are fundamentally different in terms of ideas, Layli and Majnun are not Romeo and Juliet of the West, instead Romeo and Juliet are Layli and Majnun of the East it was concluded that it is not.*

Key words: *plot similarity, epic, tragedy, fitst meeting, declaration of heart, separation, forced marriage with someone you don’t want, metaphorical love, dvine love.*

Alisher Navoiy va Vilyam Shekspirning Sharq va G‘arbning ikki dahosi desak yanglishmaymiz. Ikki yozuvchi ham o‘z zamonasining yetuk ijodkorlaridir. Shunday ekan bu ikki badiiy so‘z ustalarining asarlaridagi o‘xshashliklar e’tiborimizni tortmay qolmaydi. Xususan, Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni

va Shekspirning “Romeo va Julyetta” tragediyalaridagi fojiaviy muhabbat qissalari ko‘p jihatdan mushtarak voqeylikka ega ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Shu o‘rinda yozuvchi Nazar Eshonqulning “Layli va Majnun” Sharqning qayg‘uli ishq dostoni, “Romeo va Julyetta” G‘arbning fojiali muhabbat qissasidir. Bu asarlarning syujet yo‘nalishlari Navoiy va Shekspirdan ancha oldin paydo bo‘lgan esa-da, ikki asarni solishtirish juda qiziq va chuqur ilmiy kashfiyot va xulosalarga olib kelishi mumkin. Eng avvalo, bu dostonda Sharq va G‘arb badiiy tafakkuridagi farq – ularning tasvir prinsipidagi farq ko‘zga tashlanadi”- degan fikrlarini aytib o‘tishimiz lozim.

Avvalo, bu ikki asar ham tarixan xalq og‘zaki ijodidan kelib chiqqanligi, mavzu va syujet jihatdan juda o‘xshash ekanligi e’tiborimizni tortadi. Ammo, asarlarning janr xususiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bir-biridan ko‘p jihatdan farqlanadigan janrlarda ekanligini ko‘ramiz. Biri doston, biri tragediya janrida yozilgan asarlar o‘z davrining an’ana tusiga kirgan yo‘nalishida yangicha uslub va g‘oya singdirilgan holda yozilga. Shu o‘rinda Aristotelning ushbu janrlar haqidagi nazariy qarashlarini eslab o‘tamiz: “Epopeya muhim narsalar (shaxslar va xatti-harakatlar)ni aks ettirishga intilib, dabdabali vazndan tashqari barcha sohalarda tragediyaga ergashadi. Epopeya tragediyadan vaznning bir xilligi va bayon uslubi bilan, shuningdek, hajmi bilan farqlanar edi. Zero tragediya iloji boricha bir kunlik (yoki undan sal oshiqroq) vaqt doirasiga joylashishga intiladi, epopeya esa vaqt jihatdan cheklanmagan, asosiy farq mana shunda; darvoqe, dastlab bu xususiyat tragediya va eposlarda bir xil amalga oshiriladi. Tragediyaning ba’zi qismlari epopeyaga mushtarak, ba’zi qismlari esa faqat o‘ziga xos xususiyatlarga ega” (Aristotel, Poetika 2011, 26-bet). Darhaqiqat, biz qiyoslayotgan ikki asar ham Aristotel nazariyasining yaqqol isbotidir. “Layli va Majnun” dostoni 38 bob, 3623 baytdan iborat bo‘lib hajman besh pardali “Romeo va Julyetta” tragediyasidan anchagina yirik asardir.

Ushbu asarlar syujetiga e’tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, “Ikkala asarda ham qahramonlar xatti-harakatlarini yo‘naltiruvchi 5 ta asosiy lavha mavjud:

1. Ilk uchrashuv.

2. Dil izhori.

3. Ayriliq.

4. Istamagan kishi bilan nikohga majburlash.

5. Xotima (Mamatqulova X.A. Alisher Navoiy va Viliyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o ‘ziga xoslik, 2009, 24-bet).

Ilk uchrashuv: ikki asarda ham ilk uchrashuv deyarli bir xil tarzda yuz beradi. Majnun Laylini ilk bor maktab gulshanida uchratib oshiq bo‘lsa, Romeo Julyettani uning uyida bo‘layotgan bazmda ko‘rib sevib qoladi. Shuningdek Layli va Julyetta ham bir ko‘rishda ularga oshiq bo‘lib qolishadi. Hamma voqealar ana shu ilk uchrashuvdan boshlanadi.

Dil izhori: Ilk uchrashuvdan keyin Majnun telba sifat bo‘lib Laylining qabilasiga ketib qolaverishi, xalq Majnunning bu holini ko‘rib nasihat qilib biri “Bu senga nima havas?” desa, yana biri “Havas bo‘lsa shunchasi ham basdirda”, deyishardi. Ba’zilari “Qulog‘iga pand-u nasihat qilish kerak” desalar, ba’zilari “Oyog‘iga kishan solish kerak” deyishardi. Majnun bir necha bor Laylining qabilasiga boradi va bir safar Laylini uchratadi. Ikki oshiq bir-birini ko‘rgach visolga muyassar bo‘lganliklaridan so‘zlamoq uchun madorlari qolmay hushlarini yo‘qotishadi. Buni ko‘rgan Laylining doyasi Majnunni maktabda ko‘pdan beri taniydigan kampir ularni odamlar ko‘zidan yashiradi. Romeo va Julyetta esa yana bir bor bog‘da uchrashadilar. Romeo ham xuddi Majnundek do‘sti Merkutsioning qarshiligiga qaramay devor oshib Julyettaning bog‘iga o‘tadi va Majnundan farqliroq Julyettaning “Montekki nomidan kechsang men barchasidan kechishga tayyorman” - degan va’dasini olishga ulguradi. “Layli va Majnun” asaridagi kabi bu asarda ham kampir obrazi ishtirok etadi ya’ni Julyettaning enagasi ularni uchrashuviga guvoh bo‘ladi “doya kampir”dan farqliroq “enaga” qaysi taraf manfaatliroq bo‘lsa shu tarafga o‘tib ketadigan ikkiyuzlamachi obraz hisoblanadi. “Doya kampir” obrazi vazifasiga ko‘ra ko‘proq Rohib Lorenso obraziga o‘xshaydi.

Ayriliq: Bu uchrashuvdan keyin Majnunning otasi kishanlab qo‘yadi. Ishq dardida telba bo‘lgan Majnun o‘z qabilasini tashlab tog‘-u dashtlarga bosh olib

chiqib ketadi, hayvonlar bilan tillashadi buni ko‘rgan Navfal ismli boy bir inson Majnunni ishqidan xabar topib yordam bermoqchi bo‘ladi lekin Majnunning ahvolidan xabardor bo‘lgan Laylining otasi qizini telbaga berishdan ko‘ra o‘z qo‘li bilan o‘ldirishni afzal ko‘radi. Majnun esa bundan xabar topib Navfalning yordamidan voz kechadi va yana tog‘-u dashtlarga bosh olib chiqib ketadi. Layli ham xuddi Majnundek ishq ko‘yida kuyib, dardini hech kimga aytolmay qiynalardi. Romeo va Julyetta ham shunga o‘xshash ayriliqqa duchor bo‘lishadi. Ikki yosh rohib Lorensoning yordami bilan nikohdan o‘tishadi. Bir kecha bir-birining visoliga yetishadi ammo visol onlari ko‘pga cho‘zilmaydi. Romeoning Julyettaning akasi bo‘lmish Tibal’tni o ‘ldirib qo‘yishi ikki oila orasidagi nizolarni yanada yomonlashtirib yuboradi. Bu voqeadan so‘ng Romeo yashirinib boshqa shaharga ketishga majbur bo ‘ladi. Yolg‘iz qolgan Julyetta esa goh akasining o‘limi uchun goh sevikli yoridan ayrilganidan dard chekib hastalanib qoladi. Ikki asarda ham sevishganlarning ayrilig‘iga ularning oilalari o‘rtasidagi ziddiyatlar bosh sabab bo‘ladi.

Istamagan kishi bilan nikohga majburlash: Majnunni tog‘-u dashtlardan qaytarib kelgan ota-onasi majburlab Navfalning qiziga nikohlashadi. Ammo to‘y kechasida kelinning kutilmagan iltimosi bu nikohni buzadi. Ya’ni qiz boshqa bir insonni yoqtirishini Majnunning ham Laylining ishqida xalq og‘ziga tushganini aytib Majnundan ketishini so‘raydi. Laylining nikohi esa kuyovning kasalligi bilan to‘xtatilgan edi. Qulay fursatdan foydalangan Layli ham nikoh chodirini tark etadi. Ikkinchi asar qahramonlarimiz ham shunga o‘xshash holatda edilar. Parisga turmushga chiqmaslik uchun Julyetta juda kuchli o‘likdek ko‘rsatadigan uyqu dori ichadi. Natijada esa ikkala asar qahramonlari ham majburiy nikohdan xalos bo‘ladilar.

Xotima: ikkala asar ham bir xil ayanchli xotima – o‘lim bilan yakun topadi. Layli Majnunning ota-onasining o‘limini eshitib oshig‘ining qanday iztirob chekayotganini his qilib hastalanib vafot etadi. G‘oyibdan kelgan ovoz Laylining holidan Majnunga xabar beradi afsuski Majnun Laylining o‘limidan so‘ng yetib keladi va Laylining jonsiz tani yonida u ham o‘ladi. G‘arbdagi o‘lim ham ham

shunday bo‘ladi. Jismi o‘likdek uyquga ketgan Julyettani ko‘rgan Rameo o‘zini o‘zi o‘ldiradi, uyqudan uyg‘ongan Julyetta bu ko‘rgulikka chiday olmasdan Rameo o‘zini o‘ldirgan xanjar bilan o‘z joniga qasd qiladi. Ikkala juftlikni ham bir qabrga dafn etishadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek ikki asar syujeti ham deyarli bir xil lekin mazmun, g‘oya jihatdan ham bir xilmikin degan savolga birgalikda javob topamiz. Ikkila ijodkorning ijodi, shaxsiyati, yashagan muhiti, estetik qarashlaridan kelib chiqib bu asarlar mazmuni tubdan farq qiladi deya olamiz. Asarlardagi asosiy talqin ishqdir. Bir qaraganda juda o‘xshashlikdek tuyuladi ammo mohiyatan chuqur yondashib qaralganda Majnun bilan Romeoning, Layli bilan Julyettaning ishqi tubdan farq qiladi. Shekspir oddiy insonning insonga bo‘lgan muhabbatini tasvirlaydi, ikki yoshning bir-biriga intilishi jismoniy muhabbat istaklarining o‘zi, bu yerda hech qanday ilohiy ishqqa ishora ham dalil ham yo‘q. brinchi marta uchrashganlaridayoq bo‘sa olishga ulgurgan qahrahmonlarimiz visolga yetishishishni istashadi, visolga yetishganlaridan so‘ng yana shu jismoniy ehtiyojlar ularni iztirobga solib oxir oqibat fojeaga yetaklaydi. Shekispir bu asari bilan juda katta mashhurlikka erishdi ammo bu mashhurlikka jamiyatni og‘riqli nuqtalarini oshkor qilish, bartaraf etish orqali emas insonlarning nafsoniy ehtiroslariniuyg‘otish orqali erishdi. Ma’lum jamiyat qatlamining ichida yuz beradigaan bunday holat endi sahna yuzini ko‘rdi va bunday ochiq sahnalar insonlar e’tiborini tezda torta oldi. Vazifasi insonlarni to‘g‘ri yo‘lga solish, gunohdan qaytarish, tavba qildirish, dinini mustahkamlash bo‘lgan rohibning ikki g‘o‘r yoshning o‘rtasidagi “muhabbat” o‘yinlari bilan ovvora bo‘lib yurishi o‘ta ayanchli hodisa emasmi?! Navoiyning “Layli va Majnun”niga keladigan bo‘lsak butunlay aks manzaraga guvoh bo‘lamiz. Asar tasavvufiy ruhda yozilgan bo‘lib, undagi ishq butkul Allohga qaratilgandir. Buni isboti sifatida Layli va Majnunning visolga yetish sahnasidagi ikki baytni keltiramiz:

Ishq ahli bu nav’ bo‘lsalar pok,
Gar vasl muabbad o‘lsa ne bok?
Oshiqki murodi kom bo‘lg‘ay,

Oshiqlik anga harom bo‘lg‘ay.

“Layli va Majnun ishq dashtida uchrashdilar. Navoiy bu uchrashuvni chuqur hayajon bilan tasvirlaydi. Ular bir-birining vasliga yetishgan damlarda butun borliq ularga madad ko‘rsatadi, osmon jismlari ham, yerdagi barcha tirik mavjudot sukutga cho‘madi, oshiq-ma’shuqlarga xayrixohlik qiladi. Layli va Majnun ruhan birlashadilar, ikkilik o‘rnini birlik – tavhid egallaydi. Navoiy ularning vasli poklikdan ayri bo‘lmaganligini aytadi. Shoirning fikricha, ishq ahli ulardek pok bo‘lar ekan, ularga abadiy vasl muyassa bo‘lsa, ne ajab, zero, nafs maqsadida oshiq bo‘lganlar uchun oshiqlik haromdir” (“Navoiyshunoslik” 2018, 126-bet).

Shoir birgina shu baytlari orqali bu ishq haqiqiy ish ekanligini, ikki yosh bir-biriga jismoniy emas balki ilohiy tuyg‘u bilan oshiq bo‘lgani, ularning vaslga yetishi xuddi jism bilan ruhning haqiqiy ma’noda birlashib, ikkilikning birlikka birlashib ketganini ya’ni tasavvufdagi tavhid maqomiga yetganliklarini ko‘rsatib berolgan. Bunday baytlar bu asarda juda ko‘plab topiladi, asardagi har bir obraz, epizod ramziy harakterga egadir.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ikki asar syujeti juda o‘xshash bo‘lsada g‘oyaviylik jihatidan tubdan farq qiladi. Layli va Majnun G‘arbning Romeo va Julyettasi emas, o‘z o‘rnida Romeo va Julyetta Sharqning Layli va Majnuni emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 Арасту. (2011).Поэтика. – Т.: Янги аср авлоди

2.Маматкулова Х.А (2009) Алишер Навоий ва Вилъям Шекспер ижодида бадиий тамойиллар муштараклиги ва узига хослик. Филол.фан.номз… дисс. - Тошкент,

3.Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. (2018) Navoishunoslik. - T.: Tamaddun.

BIR RIVOYATNING TURLI TALQINI

Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi,
ToshDO‘TU O‘FF 3-kurs
sabinaberdiyeva9@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo adabiyotining ilk dostoni “Bilgamish” va hind eposi “Mahabharata” lardagi Nuh alayhissalom bilan bog‘liq “To‘fon” rivoyati Qur’oni Karim va Hadisi shariflar ilmiga asoslanib tahlilga tortilgan.*

Jahon adabiyotining eng qadim namunalari bilan sharq adabiyotining, xususan, Nosiriddin Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy" va Alisher Navoiyning "Tarixi anbiyo va hukamo" asarlari qiyosiy o'rganilgan. Mazkur asarlarda Nuh alayhissalom rivoyatining badiiy talqini tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: *Peyzaj, qiyosiy tahlil, rivoyat, qissa, badiiy syujet, badiiy detal, sentitizm, to'fon.*

Abstract: *In this article, the first epic of world literature "Bilgamish" and the "Flood" narrative related to Nuh p.b.u in the Indian epic "Mahabharata" are analyzed based on the science of the Quran Kareem and Hadis. The works of Nasiruddin Rablguzi's "Qisasi Rabg'uziy" and Alisher Navoi's "Tarixi anbiyo va hukamo" were compared with the oldest examples of world literature. In these works, the artistic interpretation of the narration of Nuh p.b.u is studied.*

Key words: *Landscape, comparative analysis, narrative, short story, literary plot, literary detail, sentitism, flood.*

Jahon adabiyoti namunalarini qiyosiy-tipologik aspektda o'rganish poetik ijod qonuniyatlarini chuqurroq anglashga asos bo'ladi. Nega deganda G'arb adabiyoti hamda Sharq adabiyoti namunalarini solishtirgan holda farqli va o'xshash jihatlarini topib o'rganish, o'rganilayotgan mavzuning ko'lami va badiiy jihatini asoslashga xizmat qiladi.

Jahon xalqlari badiiy tafakkuri tarixida arxeologik asosga ega eng qadimiy manba hisoblanadigan "Bilgamish va Enkudu" haqidagi eposdan tortib, "Ramayana", "Mahabharata", "Illiada" , "Odisseya" va boshqa qator xalqlar eposlarida, xususan, "Alpomish", "Go'ro'g'li" singari o'zbek xalq qahramonlik eposlarida ham ilohiy kitoblarda bayon etilgan naql, rivoyat hamda hikoyatlar muayyan darajada aks etgan. Birgina Nuh alayhissalom to'foni bilan bog'liq motivni biz "Bilgamish" va "Mahabharata" eposlarida bevosita, boshqa eposlarda esa ramz va timsollar tarzida uchratamiz. (Jo'raqulov, Hamroyev, 2021,35-bet)

"Bilgamish" dostonida abadiy hayotga erishmoqchi bo'lgan Bilgamish Utnapishtidan qanday qilib ma'budlar yig'ilishiga qabul qilinib, abadiy hayotga muyassar bo'lganini so'raydi. Utnapishti Ea keltirgan xabarni ya'ni ma'budlar

to‘fon uyushtirishni iroda qilganini so‘zlab beradi.

“Kulba, kulba! Devor, devor!

Eshit, kulba! Devor, eslab qol!”

Sho‘rippaklik Ubar-Tutu,

Kulbani buz, kema qur… (Bilgamish, 2021, 28-bet)

“Bilgamish” dostonidan olingan ushbu jumlada va hind eposi “Mahabharata” ning “Toshqin haqida hikoya” da baliq tilidan Manuga tez orada olamni boshiga dahshatli kulfat tushishi, falakning barcha suvlari tog’ va vodiylarni bosishi, tirik narsalarning hammasini o‘z qariga tortishi haqida aytib “… shuning uchun sen oldindan juda ham katta, mustahkam kema yasab, unga barcha o‘simliklar, barcha hayvonlar, barcha yirtqichlar urug‘idan olishing kerak…”,- deydi. Tahlil qilinayotgan ikki eposdan ma’lum bo‘ladiki, to‘fondan oldin kema yasash buyurilmoqda. Ushbu syujetning ildizini Qur’oni Karimdagi Nuh alayhissalom bilan bog’liq to‘fon rivoyatidan izlaymiz.

Qur’oni Karimda ismi ko‘p zikr qilingan payg‘ambarlardan biri Nuh alayhissalomdir. Nuh alayhissalomning qissalari bir necha suralarda kelgan, shuningdek, kalomi sharifning butun bir boshli surasi u zotga atalib “Nuh” surasi deb nomlangan. Alloh Nuh alayhissalomni o‘z qavmiga payg’ambar qilib yubordi. U turli ilohlarga, butlarga sig‘ingan qavmini to‘g‘ri yo‘lga boshlab, faqat Allohga ibodat qilishga da’vat etdi. Lekin qavm uning so‘ziga kirmadi, uni masxara qildi. Shunda Nuh alayhissalom Allohdan yordam berishni, kofirlarni jazolashni so‘radi. Alloh taolo Nuh alayhissalomning duolarini qabul qildi. “ Va Nuhga vahiy qilindi: “Qavmingdan iymon keltirganlardan boshqa hech kim iymon keltirmas, bas, ularning qilayotgan ishlaridan qayg‘uga tushmagin. Bizning rioyatimiz va vahiyimiz ila kema yasagin hamda zulm qilganlar to‘g‘risida Menga gap ochmagin. Albatta, ular g‘arq qilinguvchilardir”. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Hud surasi, 36-37-oyatlar, 2008) Qur’oni Karimning ushbu oyatida keltirilgan xabarga ko‘ra, Nuh alayhissalomga Alloh tomonidan kema yasash amr bo’lmoqda.

“Bilgamish” dostonida kema yasab bo‘lgandan so‘ng “… boylikdan voz kech, hayoting saqla! Kemangga barcha jonzotlardan ol”,- jumlasi keltiriladi. “Mahabharata” dostonida “…kema yasab, unga barcha o‘simliklar, barcha hayvonlar, barcha yirtqichlar urug‘idan olishing kerak…” -deya buyuriladi. Shu o‘rinda bir nozik nuqtaga e’tibor qilsak: ikkala dostonda ham olinishi kerak bo‘lgan narsalarga “-dan” qo’shimchasi bilan beriladi. Bu esa barcha jonzotlarni emas, ulardan taqsimlab olish kerakligini bildiradi. Qur’oni Karimning “Hud” surasi 40-oyatida: “Nihoyat, Bizning amrimiz kelib, tannur favvora otganda: “U (kema)ga har bir juftdan ikkitadan hamda avval u haqda so‘z ketgan kimsadan boshqa ahlingni va iymon keltirganlarni ol” dedik”(Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Tafsiri Hilol, 6-juz, Hud surasi ,40-oyat, 2008) - deb keltiriladi. Qiyos qilinayotgan ikki eposda ham Qur’oni Karimdagi kabi mushtaraklik alohida e’tiborga molikdir.

“Bilgamish” dostonida to‘fon bo‘lib o‘tgandan so’ng, “Dengiz tinchlandi, dovul o‘chdi- to‘fon to‘xtadi… Yerdagi insonlar loyga aylandi… Nitsir tog‘ida kema to‘xtadi” jumlalaridagi voqeani Qur’oni Karim bilan dalillaydigan bo‘lsak, “Hud” surasining 44-oyatida: “Ey yer, suvingni yutgin! Ey osmon, o‘zingni tutgin!” -deyildi. Suv quridi. Ish bitdi. (Kema) Judiyga joylashdi va “Yo‘qolsin zolim qavmlar!” - deyildi” (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Tafsiri Hilol, 6-juz, Hud surasi, 44-oyat, 2008). Shummer eposida ham Qur’oni Karimdagidek kema tog‘da to‘xtagani, tog‘ nomi Qur’ondagidan farq qilsa-da, alohida ta’kidlab ketilishi ham diqqatga sazavor. Biroq “Bilgamish” dostonidan farqli o‘laroq “Mahabharata”da ushbu tasvir berilmagan. Eposdan keltirilgan “…yerdagi insonlar loyga aylandi” , Qur’oni Karimdagi “…Yo‘qolsin zolim qavmlar” jumlalariga hamohang ravishda hind eposida “…tirik narsalarni hammasini o‘z qariga tortadi” deyilganki, bu ikki asarda va Ilohiy kitobda to‘fondan so‘ng kemada bo‘lmagan jonzotlar yo‘q bo‘lib ketgani keltirilmoqda.

Sharq adabiyotida Nuh alayhissalom bilan bog‘liq To‘fon rivoyati G‘arb adabiyotidan farqli ravishda juda ko‘p uchraydi, xususan, payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlab yozilgan xoh nasr, xoh nazmda bo‘lsin barchasida Nuh alayhissalom

hayoti zikr qilingandan so‘ng To‘fon rivoyati ham yodga olinadi. Jumladan, X asrda yashab ijod qilgan Sharq adabiyotining ulkan vakili Nosiriddin Rabg‘uziyning payg‘ambarlar tarixiga bag‘ishlab yozgan “Qisasi Rabg‘uziy” asarida ham Nuh alayhissalom bilan bog‘liq To‘fon voqeasi keltiriladi. Rabg‘uziy payg‘ambar hayotini bayon qilishda Qur’oni Karimdagi diniy axborotlardan biroz farqli ravishda hikoyatlarda xalq og‘zaki ijodining ta’siri seziladi. Xususan, latifa janriga xos belgilar hikoyatlarga ko‘chib o‘tgan. Birgina Nuh alayhissalom hayotining badiiy talqinida yuqorida qiyoslagan asarlarimizdan ko‘ra o‘zgacha holat aks etgan. “Bilgamish” va “Mahabharata” eposlarida kema yasash to‘g‘ridan to‘g‘ri buyurilsa, “Qisasi Rabg’uziy”da: “… duoyingni ijobat qildim. Borgil chinor daraxti ekkil!”- deya amr qilinadi. Shundan so‘ng Nuh alayhissalom chinor ekishi, qirq uch yildan keyin uni yo‘nishi, Jabroil unga ta’lim berib o’rdakka o’xshatib kema yasashni o’rgatishi keltiriladi. Nuh alayhissalom to‘foni bilan bog’liq hikoyatlar, masalan, arining g‘o‘ng’illashi, qaldirg‘ochning odamlar orasida bo‘lishi, ilonning qurbaqaga o‘chligi kabilar ham muayyan g‘oyaviy maqsad bilan kiritilgan. Sharq adabiyotining buyuk namoyondasi Alisher Navoiy esa payg‘ambarlar va hakimlar haqida asar yozar ekan Qur’oni Karimdagi diniy axborotlardan tayangan holda ular tarixini bayon qiladi. Asarni boyitish uchun salaflari yozgan payg‘ambarlar tarixidagi an’anaviy rivoyatga murojaat qiladi. Bu holatni Nuh a.s tarixi bayonida ko‘rishimiz mumkin. “Qisasi Rabg’uziy” dagidek Alisher Navoiy ham “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida Nuh alayhissalomning kema yasashini “ Nuh duo qildi: “Rabbi lotazarni alal arzi minal kafirina dayyoro” duosi mustajob bo‘ldi. Jabrail a. s. bir dona kelturub buyurdikim, ani Nuh a. s. ekti va ul yetkoch yig‘ochi bo‘ldi. Necha yildin so‘ngra ul yig‘och ulg‘oydi. Amr bo‘ldikim, ani kesib, kema yasag‘ay”- deb keltiradi. Rabg‘uziy asaridan farqli o‘laroq Navoiy hikoyatlar bermaydi, chunki Navoiyning bu asarni yozishdagi maqsadi badiiy asar emas, anbiyo va hakimlarning tarixini bayon qilish edi.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Qur’oni Karimdagi qissa, rivoyatlar yillar davomida og‘izdan og‘izga o’tib, ko‘plab xalqlarga tarqalgan va hattoki bu rivoyatlarni o‘z eposlarida ham aks

ettirgan. “Bilgamish” va “Mahabharata” dostonlaridagi toshqin rivoyati ayni bo’lmasa-da, syujet va ildizi Ilohiy kitoblarga borib taqaladi. Sharq adabiyoti ijodkorlari Rabg‘uziy bu syujetni berishda xalq og‘zaki ijodi va ilohiy axborotlar asosida yaratgan bo‘lsa, Alisher Navoiy to‘g‘ridan to’g’ri Qur’oni Karimda bayon etilgan Nuh alayhissalom qissasiga tayangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Janglar qissasi Mahabharata yoki Bharata avlodlari jangnomasi. Toshkent: Yozuvchi.
2. Rabg‘uziy. Qisasi Rabg‘uziy. (1990), Toshkent: Yozuvchi.
3. Shaxy Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2008) Tafsiri Hilol., Toshkent: Hilol-nashr.

MADANIYAT BU – TO‘LQIN

Bobonazarova Sunbula Azamat qizi ,
O‘FF 2-kurs talabasi
sunbulabobonazarova@gmail.com

Annotatsiya: *Hozirgi kun nafasi bilan yashayotgan bo‘lsakda, bazi insonlar hali hanuzgacha eskicha qarashlar bilan qolib ketgan. Bunday insonlar qisqacha qilib aytganda tajribalardan qo‘rqishadi. Ular yo‘llaridan tog‘ chiqsa uni zabt etishni emas, aksincha tog‘ni aylanib o‘tishni ma’qul ko‘rishadi. Aslida esa ular tog‘ga chiqish mashaqqati ortidan keladigan baxtiyorlik lazatini his qilisholmaydi. Abdulla Avloniy feleytonida keltirilgan “Bularga bu narsalarni tushintirish yerda turib, yulduzlarga qo‘l cho‘zish bilan barobardir” degan jumlalarida o‘z fikrimiz isbotini ko‘ramiz.*

Kalit so‘zlar: Madaniyat bu-to‘lqin, sivilizatsiya, Abdulla Avloniy, A. *Toffler, Madaiyat to‘lqinlari, Uchinchi to‘lqin.*

Abstract: *Although we are living with the breath of today, some people are still stuck with old views. In short, such people are afraid of experiences If a mountain stands in their way, they prefer not to conquer it, but rather to go around it. In fact, they cannot enjoy the happiness that comes after the hard work of climbing the mountain. "Explaining these things to them" is quoted in Abdulla Awlani's feuilleton. We can see the proof of our opinion in the sentence "It is like standing on the ground and reaching for the stars."*

Keywords: *Culture is a wave, civilization, Abdulla Avloni, A. Toffler, Culture waves, Third waves*

Ijod olamida turli xil davrlarda oqimlar paydo bo‘lmasin, o‘lmas mavzular, boqiy asarlar borki, qaysi davrda yaratilishidan qat’i nazar, o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqunlari” nomli feletoni hamda A. Tofflerning “Uchinchi to‘lqin” nomli asarlarida, madaniy qarashlar o‘z aksini topgan. Bu ikki asarlar noyob xazina, ularning har bir misrasi insonni kamolot sari yetaklaydi. Miyyangizdagi hujayralarning uyg‘onishiga, harakatlanishiga va har bir hodisani to‘g‘ri mushohada etishga chorlaydi. Har ikki buyuk yozuvchilar ham madaniyatni to‘lqinga qiyos qilishadi. Ular yanglishmagan, madaniyat bu – to‘lqin.

Bu maqolani asosan Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqinlari” va A.Tofflerning “Uchinchi to‘lqin” kitobidan olingan maqolalardan tasirlanib yozganman. Bu ikki asar ham juda noyob xazina. Ularning har bir misrasi insonni kamolot sari yetaklaydi. Miyangizdagi hujayralarning uyg‘onishiga, harakatlanishiga va har bir hodisani to‘g‘ri mushohada etishga chorlaydi. Har ikki buyuk yozuvchimiz ham madaniyat bu to‘lqin deydi. Yani Abdulla Avloniy o‘z maqolasida madaniyatning o‘zini to‘lqinlarga qiyoslaydi. Bilganimizdek to‘lqin esa turg‘un emas. U bir dengizdan boshqa bir dengizga quyiluvchidir. Va mana shunday to‘lqinlardan, oqimlardan o‘tolgan xalq. Sokin va baxtli, har tomonlama rivojlangan hayotga erishadi. Xalqparvar yozuvchimiz Abdulla Avloniy aytganidek: Bir davlatning qaysidir davrda, madaniyati gullab yashnaganini ko‘rsak. Boshqa bir davrda uning parokandalikka yuz tutganini ko‘rish shak-shubhasizdir. Buning sababi esa ijtihot va g‘ayratning ozayuvi, ittifoq, insof va adolatning yo‘qligi. Xalqning ilm- u ma’rifatdan uzoqlashib, buzuq ishlarga mayl va rag‘batlari ortuvidir. Bundan tashqari maqolada keltirilganidek, Bir kishining o‘z mayishatiga yetarlik mol-u ashyosi bo‘lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va manaviy ishlarni qilmoqdan ojiz qolur. Va bunday och-u yalang‘och o‘z avqotini o‘tkarolmayturgan bir xalqqa, ma’rifat, madaniyat, ulum va fununda dars vermak munosib bir ish o‘lmasa kerak. Chunki faqir xalqlarning kecha-kunduz fikri zikri non topmak va bola-chaqasining qornini to‘yg‘izmakdir.

Taajjubki, mamlakatimizning yerlari, o‘simlik tuprog‘i barakatlik bo‘lib turib, yerli xalq och va yalang‘och boyqush kabi vayronalarida umr o‘tkaradilar. Darhaqiqat, xalqimizning yuzdan to‘rtini boyga, ikkisini ulomoga, uchini eshonga, beshini dehqonga chiqarsak. Qolgan sakson oltisi ko‘mirchi, temirchi, yamoqchi, fanorchi va qorovulchilik kabi eng past xizmatlarda turib, kunlik avqotlarini o‘tkazadilar. Bularning orasida oyda, yilda bir marotaba go‘sht ko‘rmay umr o‘tkazadurg‘onlari. Hifzi suhbat qaysi, madaniyat na ekanlarini tushinmaydiganlari ko‘pdir. Aynan shu hodisani yozuvchi quydagicha tasvirlaydi. “Bularga bu narsalarni tushintirish. Yerda turib yulduzlarga qo‘l cho‘zish bilan barobardir”. Bundan tashqari yozuvchi o‘z maqolasida. Xalqimizning turlicha hislatlarini, o‘sha qon-qoniga singib ketgan “hoziram-huzuram” iborasida ish ko‘radiganlar haqida ham juda ko‘plab yaxshi fikrlar bildirgan. Yani bir to‘y marosimini o‘tkazish uchun o‘zi yashab turgan joyini, uyini sotishdan ham qaytmaydigan, uch kunlab elga osh beradigan, to‘n kiydiradigan bu xalqqa-madaniyatli bo‘lingiz, maktab solingiz degan so‘zlar noo‘rin ekanligini va aynan mana shunday insoniy hislat egalari, bizni johillik sari, qoloqlik sari yetaklayotganligini aniq-ravshan ko‘rsatib bergan. Shu o‘rinda bunday balodan qutqarurga tirishishimiz, istashingiz kerakligini takidlab o‘tganlar.

Madaniyat din bilan birgalikda Arabistondan Osiyoga keldi va undan yevropaga o‘tdi. Yevropaliklar madaniyatni qo‘rqmasdan qarshi oldilar. Va hozirgacha ham uni o‘zlariga asiri mussaxxar qilib oldilar. O‘n beshinchi asrda madaniyat suvlari Amerika qit’asiga bordi.

Ammo, ular oldilaridan oqqan suvning qadrini bilishmadi. Lekin keyin madaniyat g‘alaba qilib, inqiroz dunyosiga kuzatib yubordi. Turkistonimizga madaniyat suvlari Rossiya orqali keldi. Hozir yarim asrdirki, madaniyat bizning orqamizdan quviyur. Biz qirdan-qirga qochibmiz. Qarshimizda maishat mashaqqatlari chiqib, hujum qilur. Bizni esa bilimsizlik, jaholat, musriflik, faqirlik v.k. kabi illatlar yo‘limizni to‘sur. Va bu romkadan chiqish kerak. Madaniyat qabul qilmoq kerak. Qabul qilganda ham, haqiqatini bilmak va haqiqiy madaniyatga kirishmak lozimdir. Ya’ni bazi yoshlarimiz boshlarida Yevropa qalpog‘ini kiyib, oz-moz musulmoncha, chala ruscha gapirib kulgu bo‘lish bu madaniyat emas

masxarabozlikdir. Deganlar A. Tofflerning “Uchinchi to‘lqin” asarini o‘qiganimda asar muallifi to‘lqin deb aynan jarayonni keltirgan deb o‘yladim. Har ikkala yozuvchi ham o‘quvchiga o‘tmish va kelajakning madaniy jarayonlari haqida. Yani Abdulla Avloniy uning kirib kelishi va insoniyatning unga bo‘lgan ta’siri haqida yozgan bo‘lsa, Toffler o‘z asarida kelajak haqida tasavvurlarimizni boyitadi. Har ikki yozuvchi ham madaniyatdan qo‘rqish emas, unga moslashish kerakligini tushuntirishga harakat qilishadi. Sivilizatsiya jarayonlari oqibatida olam tanazzulga yuz tutmaydi. Aksincha u mustahkam kelajak uchun kafolat yaratadi deya takidlaydi. A. Toffler aytganidek sivilizatsiyalar hech narsani yaratmaydi. Aksincha insonlar o‘z sivilizatsiyalarini yaratishadi. A. Toffler o‘z asarida juda ko‘p hodisalarni ochib bergan. O‘tmish, hozir va kelajak haqida holis ma’lumotlar berishga harakat qiilgan va bu natijaga erishgan albatta.

Tarixni bilish uchun bitta kitobni o‘qish kamlik qiladi. Bu haqda ma’lumot berish uchun butun dunyo asarlariga nazar tashlashga to‘g‘ri keladi. Va yoki kelajak haqida hech bir hisob kitoblar asosli emas. Hatto eng xolislari ham degan. A. Toffler. Kelajakda sodir bo‘ladigan sivilizatsiyalar butun dunyoni tanazzulga yuz tutadi degan fikr noo‘rin ekanligini. Aksincha umid bilan yashashni o‘rgatadi.

Meningcha, “Uchinchi to‘lqin” bilan har qanday hodisa bo‘lishi mumkin. Xoh u talim sohasidan, sog‘liqni saqlash sohasigacha bo‘lsin. Xoh shaxsiy hayotdan siyosatgacha. Bu bir kurash. Kurash esa juda ko‘p narsalarni o‘zgartiradi. Biz faqat kurashgacha bo‘lgan davrni hisob kitob qilolishimiz mumkin. Ammo bunga puxta tayyorgarlik ko‘rsak. Unda g‘alaba qilishga ishonchimiz ortadi. Inson o‘zgarishlardan qo‘rqmasligi kerak. Chunki o‘zgarishlar qanaqa natija berishini hech kim oldindan bashorat qilolmaydi. Xoh u biolog bo‘lsin, xoh fazogir. Xoh geolog bo‘lsin, xoh astronom. A. Toffler aytganidek. “Men boshida 25-yoshlarimda. Xuddi yoshlarga o‘xshab, hamma savollarga javob berolaman deb o‘ylar edim. Keyinchalik esa bunga shubxa qila boshladim. Aslida javoblardan ham ko‘ra savolning aniqligi va to‘g‘riligi muhimroq ekan” Darhaqiqat, biz qanchalik puxta va to‘g‘ri savol bersak. Javoblarimiz ham shunchalik xiralashib boraveradi.

Xullas, hech bir o‘xshatish yani metafora. Bir vaqtning o‘zida butun bir davrni (o‘tmish, hozir va kelajakni) tasvirlab berolmaydi. Ikkala mashhur sharq va g‘arb yozuvchilarining asarini o‘qib, shunday xulosaga keldim. Madaniyat bu to‘lqin. U ko‘chib yuruvchi. Goh bu dengiz suvini u dengizga, goh u dengiz suvini bu dengizga qo‘yadi. Qayerda suv (madaniyat) ko‘p bo‘lsa, o‘sha dengizda yani xalqlarda to‘lqinlar, tebranishlar yani yangilanish, sivilizatsiyalar tez-tez sodir bo‘ladi. Demakki, biz bu to‘lqinlarda oqishga majburmiz. Bunda to‘xtash yuq. Biz qayerdan bilamiz balki bu to‘lqinlar bizni xazinaga eltar va yoki dengizni chuqurroq his qilishga o‘rgatar, yangi ko‘rfazlarni kashf etar. Shunday ekan ildam harakat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshkent (1998) “Manaviyat” Abdulla Avloniy Tanlangan asarlar 2 jildlik 1-jild sherlar, ibratlar.
2. Tafakkur jurnali (2019) 3-son Habibullo Rajabov siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori

CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” VA LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ASARLARIDA “AYOL” VA “BOLA” OBRAZI TAHLILI

Eshmurodova Gulnoza Ilhom qizi,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya: *Maqolada Chingiz Aytmatovning “Jamila” va Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” asarlaridagi ayollar va bolalar obrazlarining qiyosiy tahliliga to‘xtalingan. Jamila va Lolaxon, Seit va Samad obrazlarining tahlili ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sadoqat, muhabbat, ayol, bola, o‘smir bola.*

Abstract: *The article focused on the comparative analysis of the images of women and children in Chingiz Aitmatov’s “Jamila” and Luqmon Borikhan’s “Jaziramadagi odamlar”. The analysis of the characters of Jamila and Lola Khan, Seit and Samad was revealed.*

Key words: *Loyalty, love, women, child, teenager.*

Olam sir-sinoatga to‘la jumboq. Inson atalmish mavjudot esa uning bir bo‘lagi. Shundan kelib chiqqan, holatda aytishimiz mumkinki, tabiatning gultoji bo‘lmish odamzotni anglash, tushinish murakkab hodisa. Chingiz Aytmatovning “Jamila” va Luqmon Borixonning “Jaziramadagi Odamlar” asarlarining qiyosiy tahliliga to‘xtalar ekanmiz, qaysidir ma’noda bu asarlar o‘rtasida o‘xshashlikni ko‘rishimiz mumkin.

Jamila – o‘z hissiyotlarini o‘zgalar bilan baham ko‘rishni istamaydigan, jo‘shqin, erkaklarga xos mardlik xususiyatlari ufurib turgan ayol obrazi. U o‘z sevgisi yo‘lida oilasidan voz kechgan ayol. “Jamila” qissasini o‘qigan kitobxon qaysidir ma’noda uni oqlasa, yana qaysidir ma’noda qoralaydi. Zeroki, “Har bir inson olam va odamiyatni o‘zini anglar darajadagina anglay oladi”.(L.Bo‘rixon, 2005, 323-bet). Shu o‘rinda aytishimiz mumkinki, bu ikki asarda ham voqelik “bola” tilidan –“Jamila”da Seit, “Jaziramadagi odamlar”da esa Samad tilidan yoritib boriladi. Seit – o‘spirin bola .U doim Jamilaning yonida. Jamila uni o‘ziga do‘st tutishi unga xush yoqadi. U bolalarcha oq ko‘ngli bilan Jamilani yoqtirib qoladi, o‘zidagi hissiyotlarni Doniyor paydo bo‘lgandan keyingina ilg‘aydi. Lekin Jamila bilan Doniyor o‘rtasida paydo bo‘lgan muhabbatga to‘sqinlik qilmaydi. Doniyordagi insoniy xislatlar uning qo‘shiqlari orqali Seitning qalbiga kirib boradi. Shundagina, Jamila va Doniyor bir-biri uchun yaratilganligini anglab, Sodiq akasi bo‘lishiga qaramasdan ularning ketishiga qarshilik qilmaydi. Faqat so‘nggi damdagina unga bo‘lgan muhabbatini anglab yetadi. “Doniyor bilan Jamila orqa-oldiga qaramay, temir yo‘l razyezdini ko‘zlab, tez-tez odimlab borishmoqda. Bora-bora ularning qoralari uzoqlashib, birozdan keyin qamishzor orasiga kirib,butunlay g‘oyib bo‘ldi. Ana o‘shandagina men o‘zimga kelib, orqalaridan ovozimning boricha : Jamil-a-a-a! – deb qichqirdim.” (Ch. Aytmatov, 2014, 63-bet).

“Jaziramadagi Odamlar” asari qahramoni Lolaxon sof, samimiy ayol .Asarni o‘qigan kitobxonda qiziq bir holat yuz beradi, sababi asarda yuz beradigan barcha voqealar xoh kulguli bo‘lsin, xoh qayg‘uli bo‘lsin kinoyaviy yo‘sinda yoritilgan. Asosiy voqea shaharlik qizning uzoq bir cho‘ldagi qishloqqa kelin bo‘lib kelishi bilan boshlanadi. Lolaxondagi ajoyib xislatlar nafaqat o‘z oila a’zolariga, balki

butun qishloq ahliga ta’sir qilib, “ajoyib” kayfiyatga solib qo‘yadi. Bir qaraganda asar qahramonlari sodda, jo‘n odamlardek tuyulsa-da, aslida ular sof-samimiy xislatlarga ega bo‘lgan odamlar. Lolaxonning turmush o‘rtog‘i O‘roqning to‘satdan vafot etishi asarda tub burilish yasaydi. Qishloq ahli Lolaxonni eri vafot etgandan so‘ng, sadoqat va vafo timsoliga aylantirishadi. Hatto to‘yi bo‘layotgan qizlar uning duosini olishga harakat qilishi, kitobxonda bir tarafdan kulguli, yana bir tarafdan achinish hissini qo‘zg‘atadi. Samad Lolaxonning qo‘shnisi, Lolaxon qishloqqa kelin bo‘lib tushganda, Samad beshinchi sinf o‘quvchisi bo‘ladi. Lolaxonning mehri-uning murg‘ak qalbiga o‘zgacha ta’sir qiladi. Har kuni turli bahonalar bilan Lolaxonlarning xonadoniga borishga harakat qiladi.

Asar bir qaraganda. kitobxonga sodda tuyulishi mumkin, lekin yozuvchi shu yo‘l orqali o‘z orzularini yashirishga uringan. Ergash, Ulash agranom shoir, Safarmurod chavandoz, Chinor Moyliyev obrazlarining har biri o‘zacha harakterdagi odamlar. Lekin ulardagi alohida harakterlar orqali asarning mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, Ashur ismli yigitni ham uchratamiz va u soxta shuhratparastlikka o‘ch bo‘lgan qahramon.

“Yozuvchi ortiqcha tafsilotlarsiz hech kimdan tap tortmaydigan bezori yigitning jangari tabiatini o‘ziga xos ocha bilgan. Asarda tasvirning shu yo‘sini ortiqcha tafsilotlarsiz davom etadi” (L. Bo‘rixon, 2005, 230-bet). Ashur ko‘r-ko‘rona shuhratparastligi, doim odamlarning fikri bilan yashashi oqibatida o‘z akasining qotiliga aylanadi.

Lolaxon muhit qurboni. “Uning jismi va ruhida ham o‘zgalardagi singari xohish-istak bor. Lekin shaxsiy hayotning atay ijtimoiy maqomga ega qilinganligi, insonlar orasidagi munosabatlarning sun’iy va mantiqqa muvofiq emasligi, beva qolgan yoshgina ayolning tabiiy ehtiyojlari hisobga olinmay, barchaning ko‘z o‘ngida sevgi va sadoqat timsoliga aylantirilgani uni halokatga olib boradi” (L. Bo‘rixon, 2005, 230-bet). Lolaxonning bolalarcha samimiyligi, hazil-huzul qilishlari Samadga yoqardi. Uni boshqalardan qizg‘onardi, hatto bir safar otasidan, qarindoshi Shunqor Hobildan ham rashk qiladi. Samad ham bolalarcha samimiyligi, pok qalbi bilan Lolaxonni yaxshi ko‘radi.

Jamila va Lolaxon obrazlari qaysidir ma'noda bir-biriga o'xshab ketadi. Jamila oilasi, eri bo'la turib o'z muhabbati Doniyor bilan qochib ketadi. Lolaxon esa odamlarning ko'z o'ngida sadoqat timsoli ekanligidan ularning ishonchini poymol qilib qo'ymaslik uchun o'z istaklaridan voz kechadi, lekin oqibatda halokatga yuz tutadi.

Seit va Samad ham samimiyligi bilan ajralib turadi. Jamila Doniyor bilan ketsa ham uning Jamilaga bo'lgan munosabati o'zgarmaydi. Yoki Samadni oladigan bo'lsak, asar oxirida fojeali o'lim topgan Lolaxonning o'lganiga ishonmay uni tirik, baxtli hayot kechirayotganligiga o'zini ishontirib yashashga urinishi mehr-muhabbatining isbotidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtin M. (2015) Romanda zamon va xronotop shakllari. Akademnashr, Toshkent,85 bet.
2. Jo'raqulov U. (2015) Nazariy poetika masalalari. G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 222-bet.
3. Luqmon Bo'rixon. (2005) Jaziramadagi odamlar. Toshkent, G'.Gu'lom nashriyoti, 323 bet.
4. Chingiz Aytmatov. (2014) Jamila. Toshkent. Yangi asr avlodi. 63 bet.
5. Raufxon N.M. (2014). Ertakdagi kulba. Akademnashr, Toshkent,138 bet.

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRIDA ODAM ALAYHISSALOM QISSASINING ANARMAL TASVIRI

Habibullayeva Sabina Eson qizi
ToshDO'TAU o'zbek filologiyasi fakulteti4-kurs
sabiinaakhabibullayeva897@mail.ru

Annotatsiya. Badiiy adabiyotda Qur'oniy qissalarga munosabat, uchlik tizimidagi o'zgaruvchanlik mohiyati, prototiplarning ko'chishi , asl manba bugungi nasrgacha qanday holda asarlardan asarlarga ko'chib o'tishi , adabiyotning komil insonni tarbiyalashga bo'lgan maqsadining izohi. Yozilgan har qanday asarni realistik ruhda tahlil etish, tarixiy haqiqatlarga suyanish, shu yo'sinda yozilgan asarlarni o'rgangan holda tahlil etish.

Kalit so'zlar: Qur'oni Karim **,** Odam alayhissalom, Momo havo, Iblis, taqiq meva, roman janri , uslub , anarmallik, mohiyat , prototip, detal.

Abstract. The attitude to the Qur'anic stories in fiction, the nature of change in the triple system, the migration of prototypes, how the original source is transferred from works to works until today's prose, the explanation of the purpose of literature to educate a perfect person. Analyzing any written work in a realistic spirit, relying on historical facts, analyzing the works written in this direction.

Keywords: Qur'an Karim, Adam alayhissalam, Eve, Devil, forbidden fruit, novel genre, style, abnormality, essence, prototype, detail.

Badiiy adabiyot, adabiy muhit, adabiy tafakkur, badiiy kashfiyot va badiiy olam – bularning barchasi chambarchas holda adabiy-tarixiy davrni,undagi haqiqatlarni ochiq-oydin namoyon etadi. Biror bir asar o'qiganingizda ham o'tmishda sodir bo'lgan voqealar yaqin yoki uzoq o'tmishda yashagan tarixiy shaxslarga bag'ishlanganligi va asosiy manbaga qanchalik yaqinligini idrok eta olasiz.Yozuvchi yoki shoir tarixiy shaxslar bilan birga shu shaxslar obrazini yorqin mujassamlashtirishi, tasvir etilayotgan davr manzarasini keng va atroflicha yoritishi, asl manbada qanday va shu asosda yozilgan asarda qay holatda kiritilganligini keng yo'sinda mushohada qilgan holda tog'ri yoritishi kerak. Chunki adabiyot bizga muqaddas kitobimizdagi ilohiy haqiqatlarni axborot sifatida davrdan davrga o'tib kelishini ta'minlaydi. Uzoq Jo'raqulov fikri bilan aytganda :" Har qanday adabiy janr asosini Yaratganning buyuk san'ati – makon-zamon kengliklarida aylanib turuvchi voqelik tashkil etadi" (Jo'raqulov,5-bet,2013). Bu voqeliklar ,obrazlar silsilasi, qarama-qarshiliklar, xronotop darajalari,detallar hamma asarlarda bir-biridan farq qiladi. Ba'zida ijodkor badiiy to'qimalardan foydalanishi mumkin. Ammo badiiy to'qima real konsepsiyani abstrakt hodisaga aylantirib qo'ymasligi ,tarixiy kolorit o'z holicha saqlab qolinishi lozim.

Sharq islom dunyosida dostonlarda,g'azallarda oshiq-mashuqa,raqib (ag'yor) obrazlari mavjud bo'lib bularning asosi Qur'oni Karimda keltirilgan Odam Ato ,Momo Havo, Iblis qissasining mavjudligiga borib taqaladi. Bu keyinchalik Sharq adabiyotida oshiq-mashuqa,raqib uchligiga asoso bo'ldi.Uzoq Jo'raqulovning "Nazariy poetika" asarida keltirilgan bu uchlikning izohi quyidagicha:" Ularning har birida "Qur'oni Karim"da xabari kelgan "ilk uchlik"ularning ruhiy-

ma’naviy,ijtimoiy-tarixiy, jarayoni davomida orttirgan fazilat,qusur,qiyofa va harakatlari tizim o‘laroq jamlangan. Shu bilan birga ,bu uch obraz milliy va individual tabiatga ham ega. Har uchchala obraz boshqa o‘ziga yaqin obrazlar bilan ham sistema hosil qila oladi” (Jo‘raqulov, 54-bet,2015). Haqiqatan ham bu uchlik tizimi, avvalo ,asl manbada paydo bo‘lgan va bu hozirgacha ham badiiy asarlarimizning asosiy mavzularidan biri, hamda ularning ma’naviy,ijtimoiy qiyofasini belgilaydigan asosiy bo‘g‘inga aylandi. Bu uchlikni yuzaga kelish silsilasiga diqqat etadigan bo‘lsak, Alloh taolo muqaddas “Qur’oni Karim”da :” Ey Odam, siz juftingiz bilan jannatni maskan tuting va undan xohlagan joylaringizda bemalol taomlanavering.Faqat mana bu daraxtga yaqinlashmangki,u holda zolimlardan bo‘lib qolasiz” (Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima.Tarjima va Izohlar muallifi Alouddin Mansur, 1992, Baqara surasi,35-oyat). Alloh taolo Odam Atoga barcha narsaning ismlarini o‘rgatdi. Hattoki,o‘z dargohidan unga ruh(jon) pufladi. Uni eng oliy hilqat qildi. Shu asnoda uning qovurg‘asidan Momo Havoni yaratib jannat bilan mukofotladi. Alloh taolo barcha maxluqotlar Odam alayhissalomga bo‘ysunishini ta’kidlaganda yolg‘iz shayton(Iblis) kibrga botdi va bosh egmadi. “ Biz farishtalarga Odamga ta’zim qiling deyishimiz bilan sajdaga egildilar. Faqat Iblis kibr va or qilib – kofirlardan bo‘ldi. (Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli tarjima.Tarjima va Izohlar muallifi Alouddin Mansur, 1992, Baqara 34-oyat). Mana shu voqelik barcha yomonliklar asosining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Endi yaxshilikka yomonlik,ezgulikka jaholat, muhabbatga nafrat, hayotga o‘lim tuyg‘ulari butun yer yuzini tuta boshladi. Iblis jannatdan haydalsa-da, Qiyomat kunigacha abadiy hayotga erishdi. Odam avlodlarini haq yo‘ldan ozdirib halokat yo‘liga olib borish ,yomonlik bilan ularni zalolat qa’riga yetaklash uchun harakat qila boshladi. Ushbu niyatini amalga oshirdi. Go‘yoki qasos uni yanada jo‘sh urib barcha Odam bolalarining qonida, qilib turgan ishlarida hukmron bo‘lishiga olib keldi. Odam Ato va Momo havoni ta’qiqlangan meva orqali ,nafsning qutqusiga tushirdi va ularning ham jannatdan haydalishiga sababchi bo‘ldi. Ushbu qissa bashariyat tarixida ko‘p sonli asarlarimizda kela boshladi.

Ilohiy axborot asardan asarlarga ko‘chganda mohiyat o‘zgarmasdan makon va zamon, obrazlar tabiati, detal xususiyati o‘zgara boshladi. Nosiruddin Rabg‘uziyning “ Qissasi Rabg‘uziy” asarida:” Odam jufting birla ujmohga kirgil,nematlarni yeng.Bu bir yig‘ochga yovumang – zolim bo‘lg‘aysiz.(Rabg‘uziy, 1990, 34-bet). Ko‘rib turganimizdek asarda Qur’oniy qissaning o‘zgarmagan, mohiyatda asl manbaning o‘zagi namoyon bo‘lgan. Ijodkor bunday yozishdan oldin,albatta, muqaddas manbani o‘qigan va uning haqiqiy ildizini saqlagan bolda asarga buni singdirgan. Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilishicha:” Havo Odam alayhissalomning so‘l yonidan yaratildi va ba’zi rivoyatda andoqdurkim,Havo dunyoda yaratilib erdi. Har taqdir bila Odamg‘a bug‘doy yemakdin nahiy bo‘ldi.Ba’zi uzum,ba’zi anjir debdurlar. (Navoiy, 1990, 1-bet). Davrlar o‘tishi bilan asl manbada keltirilmagan, ammo asarlarda mavjud detallning fabulasi har qaysi asarda o‘zgacha izohlangan. Xronotop va voqea tizimining saqlanishi, hamda prototipning o‘zgarib borishi , badiiy asar mohiyatiga hech qanday ta’sir etmagan. Bir makonga oid asarlarda bu tizim saqlangan. Chunki mumtoz adabiyot va tasavvuf bir-biriga aloqador. Odam alayhissalom va Momo Havo haqidagi qissa mumtoz adabiyot,jahon adabiyoti,zamonaviy o‘zbek adabiyoti ,deyarli, barcha asarlar bilan bog‘lanadi. Qaysi asarda ishq talqin qilinsa, yovuzlik yoritilsa, ma’rifat ulug‘lansa, iymon bilan Alloh vasli tarannum etilsa ,demakki, buning asl asosi Odam alayhissalom va Momo havo qissalaridan ko‘chganligidadir.

Bugungi zamonaviy adabiyotimizda oshiq, mashuqa, raqib(ag‘yor) bunday asarlar juda ko‘p bo‘lib, barchasida voqea-hodisalar tizimi o‘zgacha, yangilanish va zamonga moslashish, milliylikdan yiroqlashish, adabiyotning inja durlarini ochiq namoyon etish, ilohiy ishq misolida badiiy haqiqatdan uzoqlashish tez- tez ko‘zga tashlanmoqda. Adabiyotda Nazar Eshonqul ijodi bugun ko‘pchilik oldinda turgan ijodkorlarimiz ijodiga yaqinligi, uslubining yangiligi, realistk hayotni Sharq adabiyoti bilan taqqoslab yoritishi, badiy-falsafiy asoslarni biz ko‘rgan, ammo e’tibor qilmagan bo‘yoqlarda aks ettirishi bilan ajralib turadi. “Qora kitob”, “Urish odamlari” qissalarida, “Shaftoli guli” hikoyalar to‘plamida, “Go‘r ‘og‘li yoxud

hayot suvi” romanida buni yaqqol ko‘rishingiz mumkin. Jumladan, Nazar Eshonqulning ikki novelladan iborat “Taqiq meva” romanida yuqoridagi uchlik tizimi,ilohiy ishq, qissa sujetidagi yangilik tizimlari yoritilgan bo‘lib,badiiy adabiyotda o‘zgaruvchanlik, balki Qur’oniy hikoyadagi anarmallik (noto‘g‘ri talqin) ifodasi ko‘zga tashlanadi. Mifik jihatdan qaysidir ma’noda o‘zgarmagandek tuyulsa-da, qissaning mazmuni, asl izohlari saqlanmay, Alloh yaratiqlari bo‘lmish Odam Ato va Momo Havo silsilasi qonuniyatini buzilganligining guvohi bo‘lamiz. Yuqoridagi asarlarda taqiqlangan meva anjir, uzum va bug‘doy sifatida kelgan bo‘lsa bu asarda olma daraxti dovuchchasi detali bilan izohlanadi.”Bir mahal Sh (Iblis) uzalib teparoq shoxdan bir necha dona olma dovuchchasini uzdi-da, Malakka berdi.Malak avval kaftida marvaridday turgan dovuchchachalarni rosa tomosha qildi. Keyin qo‘li bilan artgan bo‘ldi va Sh.(Iblis) ga mehr hamda muhabbat bilan tikilgancha bittasini tishladi...” (Eshonqul, 2020,82-bet). Bu o‘rinda yozuvchi yuqoridagi salaflarining izohiga tayanib asar sujetini yaxshi tizimlashtirgan, ammo mohiyat jihatdan qaraganda qisman xatolik bor. Qur’oniy hikoya talqinini Nazar Eshonqul o‘z momosidan eshitgan . Buni roviy hikoyati orqali beradi. Odam alayhissalomni – Odam Ota, Momo Havoni –Malak, Shaytonni – Mabud, Iblis,va Sh... deb izohlaydi. Odam Ato tomonidan Malakni fojeasini yaratgan ijodkor katta anarmallikka yo‘l qoyadi. Asarlarda detal, peyzaj, xronotop, motivlari o‘zgarsa-da, Qur’oniy qissaning noto‘g‘ri talqini bu asarning saviyasini tushirgan. Shu o‘rinda aytish kerakki, bu holat asarda uchlik tizimining ham o‘z vazifasini yo‘qotganligini “ilk sujet” namunasining o‘zgarib ketganligidan dalolat beradi. Bu uchlik o‘zgarganining yana bir asosi asarda to‘rtinchi obraz Hosilaning mavjudligi. To‘g‘ri bu obrazning kiritilishi majoziy va ilohiy ishq o‘rtasidagi tanlov deb qarasak bo‘ladi, ammo asardagi chalkashliklar o‘quvchining qaysi voqea qay vaqtda sodir bo‘layotganligi, voqealarning tez almashinib ketishi , retrospeksiyaning buzilishi asar o‘qiguvchilar uchun ko‘p savollarga sabab bo‘ladi. Chunki bu roman unda voqealar va taqdirlar katta dolzarb mjammolarni qamrab olishi , hamda izohlangan har bir asos o‘zining haqiqati bilan ko‘rsatilishi kerak. Shu o‘rinda roman sifatida asar o‘z janri qoliplariga tushmaganligining ham

guvohi bo‘lamiz. Asarda Qur’oniy ismlar va ular vazifalarining o‘zgarganligi asl manbaga bo‘lgan haqiqatning ham tamomila noto‘g‘ri tus olganiga ishora qiladi. Asarda Iblis niyatining amalga oshadigan makoni “sahna” motivi bo‘lib,”olma daraxti”,”olma guli”detali sujetda kolleziyaning boshlang‘ich nuqtasidan intihosigacha xuddi asar yechimidek ko‘rinadi.Biz bilgan Qur’oniy hikoya davom etayotgandek, voqealar bir maromda kechayotgandek ko‘rinsa-da, asarning Malak, Marsiya bo‘limlariga kelib konflikt paydo bo‘lganligini ko‘ramiz. Bilamizki, Iblis har xil qiyofaga kirishi mumkin . Chunki u odam bolalarining barcha yaxshilik va yomonliklari ustida turadi. Bu asarda Iblis barchaning muhabbatini egallaydi,o‘zining so‘nggi zurriyodini dunyoga keltirish maqsadida hammaning qalbidagi ezgulikni o‘g‘irlaydi. Hattoki Odam Atoning ham qalbidan joy egallaydi. Ammo o‘z vazifasi oxirigacha bajarmagan, chunki Odam Ato tomonidam Momo Havo o‘ldirilgan. “Hammasini xayolimda pishitib bo‘ldim. Boshqa ilojim yo‘q edi. Men uchun boshqa yo‘l ham qolmagandi. Sh. istehzo bilan ta’kidlagan, bunday o‘zgacha g‘ururlangan Odam Otaning xatosini takrorlashni istamadim...Iblis mening muhabbatimdan oxirgi odam yaratishni istamaganim meni mahbusga aylantirdi.Malakni o‘zimniki qildim. U menga, men unga aylandim” (Eshonqul, 2020, 84-bet). Yozuvchining bu qarashlaridan o‘qiguvchi ilohiy ishqning go‘zal namunasining guvohi bo‘lishi mumkin. Chunki asarda Odam Ato Momo Havoga (Malak) yetishni juda xohlaydi, ammo unga muhabbatini izhor qiladigan bo‘lsa, u uni tark etishini,qaytib unga gapirmasligi mumkinligini o‘ylaydi. Chunki uni “ko‘k odami” deb izohlaydi. Bu yerda inson iymoni va Alloh vasliga yetish, komillik mashaqqatli yo‘llardan iborat ekanligi, shaytoniy istaklar bunga to‘siq bo‘la olmasligini yozuvchi yaxshi dalillay olgan.Aynan shu silsila, shu kompozitsiya boshqa obrazlar bilan berilsa, voqelik Qur’oniy hikoya bilan izohlanmaganda bu asar yana ham o‘z ijod ahli uchun betakror bo‘lar edi. Nazar Eshonqul barcha asarlarida o‘z momosini yoki momosidan eshitgan qissa,rivoyatlarni keltirib o‘tadi. Bu asar sujetinini ham xalq og‘izaki ijodi namunasi bo‘lgani uchun o‘zgargan deyishingiz mumkin, ammo jamiki asarlar asl manba haqiqati bo‘la turib uni o‘zgartirib yoziladigan

bo‘lsa,adabiyot ,uning asosiy vazifasi, ruhiy kamolot aslida nima ekanligi yo‘qolib ketgan bo‘lar edi. Biz xohlagan taqdirimizda ham asl manba,asl mohiyatimiz,hattoki biz, siz ham muqaddas “Qur’oni Karim’da o‘zgarmaymiz, o‘zgartirolmaymiz! Alloh taoloning zikri bilan nozil bo‘lgan ushbu manba haqiqatlari doim o‘z asl haqiqatlarini saqlagan holda badiiy asarlarimizga olib kirilishi lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, iste’dod ham, uning mevasi ham Alloh tomonidan insonlarga beriladigan oliy ne’matdir. Bu ne’matni o‘zi bergan yo‘l ila, o‘z haqiqatlariga mos ravishda bosib o‘tish lozim. Bugungi yozilgan asarlar yangicha ruhda, yangicha ko‘rinishda ommaga taqdim etilyapdi. Ularda qanchalik mohiyat haqiqatga yaqin, qanchalik to‘g‘ri izohlar bilan keltirilmoqda bunga bo‘lgan e’tibor esa ancha sust. Chiroyli izoh va hayratlanarli fikrlar, to‘qimalik o‘qiguvchini jalb etib, asl manbaning mohiyati ortda qoldirmoqda. Biz bu maqolada muqaddas “Qur’oni Karim”dagi tarixiy haqiqatning boshqa asarlarda ko‘chishi, ko‘chganda o‘zgaruvchanlik qanday holatda namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqdik. Prototiplar asardan asarga o‘tganda mohiyat o‘zgarmoqdami yoki detal, obraz, peyzaj shularning asl izohini tahlil qildik. Nazar Eshonqulning “Taqiq meva” romanida qissaning talqini xususida fikrlashdik. Har qanday asar asl haqiqat darakchisi va undan xabar berib turishi kerak. Alloh nozil qilgan haqiqatlarni o‘zgartirish mumkin emas, ayniqsa, adabiyotda . Zero bunday haqiqatlar doim insonning o‘zligidan biz Allohniki ekanligimiz va unga yana qaytishimiz lozimligini eslatib turadi .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Jo‘raqulov,U. (2013) Ko‘zgu siniqlari yoxudaytilmagan so‘z qudrati. Toshkent

2.Jo‘raqulov,U. (2015), Nazariy poetika. Toshkent:.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

3.Alouddin ,M. (1992),Qur’oni Karim tarjima va izohlar. Toshkent: Cho‘lpon

4. Nosiruddin Rabg‘uziy. (1990), Qissasi Rabg‘uziy. Toshkent: Yozuvchi

5. Alisher Navoiy . (1990), Tarixi anbiyo va hukamo. Toshkent: Yozuvchi

6. Eshonqul,N. (2020), Taqiq meva. Toshkent: Sharq yulduzi jurnali 4- son

TOLSTOY “TIRILISH” ROMANINING MOHIYATI

Hakimjonova Sadoqat O‘lmasali qizi,
Adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yozuvchining yer-mulk, sud tizimi, dinga bo‘lgan munosabati, iqrorlari va tushunchalariga doir fikrlar bilan birgalikda, davr muhiti, inson ruhiyatining anglab bo‘lmas qirralari haqida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Yer-mulk, sud tizimi, din, hayot, e’tiqod, muhit, katorga,*
Abstract. *This article talks about the atmosphere of the time, the incomprehensible aspects of the human psyche, along with the author's thoughts on land and property, judicial system, religion, confessions and concepts.*

Keywords: *Land, property, judicial system, religion, life, belief, environment,*

Qaysi millat adabiyoti bilan tanishsak, ularning adabiyotida muhabbat mavzusi qalamga olinganini ko‘ramiz? Nega bilasizmi? Chunki Alloh har bir bandasini muhabbat bilan yaratgan. Bundan o‘zga izoh o‘zini oqlamasa kerak, deb o‘ylayman. Inson shunday bir xilqatki, u dunyoga kelgach har bir bosgan qadami ortidan bir yonida gunoh va yana bir yonida savob deb atalgan xurjunni to‘ldirish bilan umrini o‘tkazadi. Va yakunda kimdadir gunoh, kimdadir savob xurjuni og‘ir keladi. Gunoh orttirish qanchalik oson bo‘lsa, savob amal ham shunchalik oson, biroq ba‘zan inson gunohga shunchalar berilib ketganidan ikkinchi bir xurjuni borligini va uning ichi bo‘sh qolayotganini unutib qo‘yadi. Mana shu qobiq ichida yashayotgan kunida shunday bir voqea yuz beradiki, u endi bu qopiqni yorib chiqishga urina boshlaydi va qayta tiriladi. Uning qalbi, ongi, e'tiqodi, iymoni uyg‘onadi. Bir narsaga ishonch berasan-u, keyin u sen o‘ylagandek bo‘lib chiqmasa, ikkilanib qolasan kishi. Nega bu yo‘lga kirdim? Sabab nimada edi? Oldin bu qay holatda edi-yu, endi qay holatga keldi? Kelgunicha nimalar yuz berdi? Men qachon bu holatga tushdim?! kabi bir qancha savollar qurshovida qoladi. Gunohlari ko‘z oldidan kino tasmasidek o‘tarkan, o‘z-o‘zidan uyaladi. Endi uning oldida bittagina maqsad bor. Bu ham bo‘lsa shu savollarga javob izlash va yaxshi ishlar hurjunini to‘ldirish. Shunda bu qanchalar o‘zgacha tuyg‘u ekanini his etadi. Rus yozuvchisi Lev Nikolayevich Tolstoy “Tirilish” romani orqali inson

ruhiyatidagi o‘lim va tirilish holatlarini jamiyat kirdikorlarini fosh qilish orqali ochib berishga erishadi.

Asar qahramoni Nexlyudov bahor faslining birida turmush hayoti, o‘y-fikrlari va e'tiqodini o‘zgarishiga turtki bo‘lgan voqea orqali qalbini qaytadan uyg‘ota oladi. Bu oson bo‘lmasligi aniq edi. Bir hayotdan ikkinchi bir hayotga o‘tish hech bir banda uchun hech qachon oson bo‘lmagan. Yoshlik-go‘zal tuyg‘ularga, ko‘tarinkilikka, g‘ayrat va soddalikga burgangan palla. Yoshlik deganda sizning xayolingizga nimalar keladi? Shularning bari jamiyatdagi muhit, sharoit, jarayon bilan qorishiqligini bilamiz. Nexlyudov o‘spirin vaqtida o‘zgacha tuyg‘u bilan yashay boshladi. U oddiy xizmatkor qiz Maslovaga oshiq edi. Uning oldida hayajonni, o‘zga, anglab bo‘lmas olamni his qilardi. Faqat armiya xizmatidan so‘ng, u yerdagi muhit, do‘stlar davrasining toza emasligi, sof tuyg‘ulardan ko‘ra, kiboriy atmosfera ustunligi, oddiylik Nexlyudovni bu kiborlar davrasida o‘zgacha vaziyatga tushirib qo‘yardi. Armiyadan so‘ng u nafsining quliga aylanib, Maslovani aldaydi va urushga ketadi. Maslova nohaq qamalib ketgach va sud zalida oradan o‘n yil o‘tgach ular ko‘rishib qolishdi. Nexlyudov aybini yuvish uchun qattiq harakatga tushadi. Ammo Maslova umumman boshqa inson edi. Insonni yillar o‘zgartiradi, dardlar, alamlar o‘zgartiradi. Shu bilan birga anglashlar ham. Maslovani bu jirkanch ishga kirishiga sabab ham, zahar berib... o‘ldirishda ayblanishiga ham Nexlyudov o‘zini aybdor, Maslova oldida burchli deb his qiladi. O‘zidan nafratlansada, qanchalik kech bo‘lganini anglasa-da u bir narsadan yengil tortadi.. Qalbi uyg‘ongani va vijdonining tirikligidan. Chunki u qilgan xatosining badalini to‘lashga, Maslova bilan Sibirga bo‘lsa ham ketishga, unga uylanishga qat'iy qaror qabul qiladi.

Bu yo‘lda u nohaq qamalgan, qamoqda kasalga chalinib vafot etayotgan yosh, navqiron, endi jamiyatga qo‘shilishga harakat qilayotgan ko‘plab insonlarning umri katorgada o‘tayotganining guvohi bo‘ladi. U endi nafaqat o‘zidan, balki jamiyatdagi nohaqliklardan, o‘z tinchligi va boyishi uchun oddiy xalqdan foydalanayotgan o‘sha kibor ahlidan jirkanadi. Tenglik va adolat so‘rab chiqqan siyosiy mahbuslar bilan suhbat jarayonida xalq qalbiga, turmushiga yanada yaqin

kirib boradi. Tolstoy ushbu asari orqali jamiyatdagi juda katta muammolarni olib chiqibgina qolmay, o‘z ruhiyatida kechayotgan og‘riqli savollariga javob izlaydi, go‘yo. Ushbu romanni yaratishdan maqsadi nima edi Tolstoyning? Nega aynan Maslova kabi ayollar taqdiri-yu, nega sud tizimini olib chiqdi? Nexlyudovning bunchalar o‘zgarishi va e’tiqodiy qarashlarining rivojlanishida faqat shu voqeagina turtki bo‘ldimi? Menimcha, buning bir qancha sabablari bor. Bular:

1. Rus inqilobi bo‘layotgan bir davrda bunday asarlarning yozilishi rus xalqiga va inqilobchilarga juda katta turtki vazifasini bajarardi. (Lekin Tolstoyning maqsadi ularga turtki berishdan iborat edi deb tushunmasligimiz zarur.)

2. Yer islohatini qayta qurish kerakligi. Feodal tuzum ya’ni yerga egalik qiluvchilarning rohatda yashashi oddiy dehqonning mehnati evaziga ekanligini bu vaqtga kelib, Tolstoy ancha tushunib yetgandi. U baxtni va tinchlikni oddiylikda ko‘ra boshlagandi. Bu oddiy hayot u ichida yashayotgan dabdabali hayotdan qiziqarliroq va yoqimliroq tuyulardi unga.

3. Sud tizimini isloh qilish vaqti kelgandi. (Hattoki cherkovning bu vaqtda Tolstoyga nisbatan cherkovdan chetlashtirish qarori chiqib, unga taqiqlar kuchaygan bir payt edi.)

4. Ichki ruhiy holatini va o‘zini qiynalib yurgan savollariga javobni yozuvchi Nexlyudov orqali bayon qiladi.

5. Jamiyatdagi begunoh aholining, ayniqsa siyosiy mahbuslar va oddiy xalqning sud jarayonidagi va katorgaga tushish, yashash sharoitidagi farqini ochib berishga bo‘lgan harakatini ko‘ramiz. Bu katta jasorat edi. Katta yurak kerak edi o‘sha davrda bu asarni yozish uchun. Yer xalqqa xizmat qilishi kerak. Yer hech kimniki emas, Xudoniki,-der edi. (Лев Толстой. 2019. 304 бет)

Yer xalqniki der edi. U hech kimning mulki bo‘lolmaydi, degan qarash bilan zarariga ishlasada onasidan qolgan yerlarni dehqonlarga ijaraga beradi. Qamoqdagi juda ko‘plab insonlarga yordam beradi. O‘zi tanigan sof, ko‘ngli oq do‘stlarining o‘zgarganini ko‘rgach u bu hayotda hech narsa to‘g‘ri bo‘lmasligi, egrilik va qabohatdan iborat ekanligidan uxlolmay chiqadi. Diniy marosimlardagi noo‘rin holatlarni ko ‘rib, haqiqatni izlay boshlaydi va asar so‘nggida haqiqat insonning

ichida bo‘lishi, e'tiqodi va iymoni mustahkam insonlargina buni anglashi va jazolash insonlarga xos odat emasligi, kechirish kerakligi va Iso bilan suhbatdan namuna keltirib, 7 bora emas 70ming bora kechirish, qalbni sof holatda saqlash kerakligini anglab yetadi va bu shunchalar osonki, qani endi buni hamma bilsa va anglasa, amal qilsa deya o‘ylaydi va u ilk odimini o‘zi tashlaydi. Buning natijasini esa kelajak ko‘rsatadi... Nexlyudov endi nimani o‘ylamasin, nima qilmasin, faqat Katyushagagina emas, balki barcha insonlarga rahm-shavqat hissi bilan to‘lib toshgan edi. Endi u oddiy odamlar dardi bilan yashay boshlaganini tushungan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *Лев Толстой.” Илм-зиё-заковат”2019 йил*
2. *ziyo.uz*
3. *O‘qituvchi.uz*

“AVAZ KAMAZ” HIKOYASIDA ILK VA SO‘NGGI JUMLA POETIKASI

Hakimov O‘tkir Ilhomjon o‘g‘li,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs
utkirhakimov007@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada filolog olim hamda yozuvchi A’zamxon Qozixo‘janing ,,Avaz kamaz” hikoyasi tahlilga tortilgan. Hikoya mazmun-mohiyati ilk va so‘ngi jumlalarning poetik xususiyatlarini filologik o‘rganish orqali ochib berilib, uning zamonaviy adabiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati dalillar orqali ko‘rsatilgan. Shuningdek, asardagi tush motivlari, diniy-ma’rifiy qissalarga ishoratlar nazarda tutilgan qissalarning manbalari asosida atroflicha tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *hikoya janri, ilk jumla, so‘ngi jumla, tush motivi, badiiy tasvir, badiiy konflikt, badiiy psixologizm.*

XX asr nasri bizga ko‘plab yozuvchilarni berdi. Ular orasida A’zamxon Qozixo‘ja oz bo‘lsa-da, soz ijodi, yuqori badiiy salohiyati-yu asarlaridagi shakl va mazmun mutanosibligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, favqulodda iste’dod egasi bo‘lgan adib bir vaqtning o‘zida filolog olim hamdir. Uning ilmiy faoliyati yozgan badiiy asarlarida o‘z aksini topgan. Nosirdan bizga ,,Avaz kamaz”, ,,Tashqarida

yomg‘ir yog‘moqda”, „Qo‘chqor tug‘di” hamda „Karvon yo‘lida” nomli barmoq bilan sanoqli qissa va hikoyalar, shuningdek, 5 ta ilmiy va 1 ta adabiy-tanqidiy maqola qolgan bo‘lishiga qaramay, bularning barchasi o‘z janri talablariga to‘la javob beradigan badiiy ijod na’munalaridir. Chunonchi, adib asarlarida yagona fikr – yagona jumla ustuvorlik qiladi. Shu jihatdan „Avaz kamaz” hikoyasi o‘ziga xosdir. Hikoya yozuvchi uslubiga xos ravishda yagona jumla ustida qurilgan. Ayni holat uning ilk va so‘ngi jumlalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Biz quyida hikoyaning ana shu ikki jumlasining badiiy vazifalari xususida mulohaza yuritamiz. Biroq, to‘g‘ridan to‘g‘ri hikoya tahliliga o‘tishdan oldin ilk va so‘ngi jumla nima, ularning vazifalari qanday degan savolga muxtasar javob berib o‘tsak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda badiiy asarning birinchi jumlasi o‘quvchini asar ichiga olib kiruvchi, ijodkorning asosiy g‘oyasini yoki maqsadini ochib beruvchi unsur sifatida qaraladi. Badiiy asarda ilk jumla yagona so‘z yoki bir nechta gap bilan ham ifodalanishi mumkin. Bu yozuvchining badiiy uslubi bilan bog‘liq. Ilk jumlaning chegara nuqtasi badiiy asarning semantik qurilishidan anglashiladi. Unga yuklatilgan poetik ma’no esa badiiy matn to‘qimasida o‘z ifodasini topadi. Adabiyotshunos Yo‘ldosh Solijonov shunday yozadi: „Мувафаққиятли топилган биринчи ибора бутун асарнинг оҳанги ва ритминигина эмас, айни пайтда унинг ғоявий йўналиши ҳамда копмпозицион яхлитлигини ҳам таъминлаб беради”.(Солижонов, 2002, 8-bet) So‘ngi jumlada esa badiiy asar kompozitsiyasining yalpi garmoniyasi oydinlashadi. Adabiyotshunos Komiljon Hamroyev „Hikoya kompozitsiyasi” nomli monografiyasida yozishicha „ Мукаммал сўнгги жумла ҳар қандай ҳолатда бадиий асар композициясини тугал, яхлит бир бутун ҳодисага айлантиради (Ҳамраев, 2020, 115-bet). Bundan tashqari, ilk va so‘ngi jumlaning ko‘plab shakllari mavjud. Ammo, ularning barchasini sanab chiqish bu o‘rinda nojoiz bo‘lganligi sabab, hikoya tahlili davomida biz uchun muhim bo‘lganlarini keltirib o‘tamiz.

“Avaz kamaz” hikoyasi quyidagicha boshlanadi: „Аваз камаз қайга кетди бирodарлар?! Биз ҳам билмадик…” (Аъзамхон Қозихўжа, 2021, 42 бэт).

E’tibor qiladigan bo‘lsak, yozuvchi ilk jumlaning o‘zidayoq kitobxon oldiga mavhum savol qo‘yadi va unga o‘zining ham subyektiv fikrini ham bildiradi. Bu esa o‘quvchi ongida yechilishi kerak bo‘lgan tugun hosil qiladi. Shu sababli, bunday boshlanma nazariyada ,,tugun jumla” hisoblanadi va hikoya syujeti chizig‘ida badiiy konfliktni yuzaga chiqaradi. Asarga shu tariqa kiriladi hamda bu tugun hikoya so‘ngiga qadar yechib boriladi. Chunonchi, asar boshida Avaz kamazning tarixi haqida bayon qilinadi. Uning qanday qilib kamaz laqabini olgani, qanday qilib keyinchalik ichkilikka ruju qo‘yib ketganligi haqidagi ma’lumotlar batafsil yoritilgan. Personajning muxtasar tarixidan so‘ng yozuvchi tush motivini keltiradi. Avaz kamaz tushida bobosini ko‘radi. Shu tushni ko‘radi-yu, butunlay o‘zgaradi qoladi. Ichkilikni tashlab, nafaqaga chiqadi-yu, uyidan chiqmay qo‘yadi. Qoleversa, qo‘shnisidan namoz vaqtlarini so‘raydi. Xuddi shu nuqtaga yetganda o‘quvchi tugunni yechgandek bo‘ladi. Ya’ni Avaz kamazning ,,qayerga ketganligi” aniq bo‘lgandek tuyuladi: u tavba qilib, toat-ibodat yo‘liga kirdi degan xulosaga kelish mumkin. Lekin kalavaning bir uchi topilgan bo‘ladi xolos. Ammo, muallifning ,,Biz ham bilmadik” degan so‘zlari-chi? Hikoyaning keying qismi yana ham o‘quvchini o‘z domiga tortib ketadi. Asarning syujet chizig‘idagi quyidagi obraz va motivlar natijasida kuchli badiiy konflikt yuzaga keladi. Hikoya qahramoni o‘zi bilan kurasha boshlaydi. Avaz kamaz ibodatlarini ixlos bilan qilmaydi. Bomdod namozini masjidda o‘qish uchun chaqirib kelgan qo‘shnisiga ham har kun har xil bahona aytib qaytaradi. Hattoki, tunni bahona qidirish bilan o‘tkazadi. Faqatgina qo‘shnisining ,,o‘g‘il bola emas ekansiz” deganidan so‘nggina bomdod namozini ham masjidda o‘qiy boshlaydi. Ikkinchi tarafdan, oldingi ulfatlari – butulkadoshlari – uni yana birga o‘tirishga taklif qilganda ham ularning gapiga unamasa-da oldingi o‘tmishini, qatnashgan bazmlarini qumsab yashaydi. Qahramon ruhiy dunyosidagi kurash oylab davom etadi. Bir tomonda ibodat, bir tomonda maishat. Bundan ko‘rinadiki, badiiy asar qahramoni hayotida xarakterlararo va ichki (psixologik) konflikt parallel ravishda kechadi. Kulminatsiyaga qadar badiiy konflikt kuchayob boradi. Bu quyidagi Avaz kamazning o‘tmish hayotini eslash o‘rinlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi: ,,Аваз

камаз ҳар кун беш маҳал масжидга қатнар, имом гапираётган гаплар ҳеч қулоғига кирмас, ўтмиш маишатларини хотирасида шимиб яшарди. Узоқ йили Боғишамолга чиқишганда бу дастурхондаги ичимликлар: белий аистлар, экстра водкалар, пиволарни айтмасизми, пиволарни. Оҳ, жонди роҳати! Маза эди ўша маҳаллар, маза” (Аъзамхон Қозихўжа, 2021, 46-47 бэт). Yozuvchi xotiralarini shimib rohatlanayotgan qahramonning kechinmalarini xuddi shu xotiralari davomida mahorat bilan iztirobga almashtiradi. Personaj bazmi jamshidlarini eslarkan, spirtli ichimlik shishasida Nuh kemasini ko‘rgani yodiga tushadi: ,, Ўшанда у: “Бу Нуҳ кемаси!”– дея бақирган. …Кейин у бобосидан эшитган Нуҳ тўфони ҳақида гапириб, ҳаммани кемага қарашга мажбур қилган. Анави паст-баланд адирлар мисоли денгиз тўлқинлари-ю, улар узра сузиб бораётган кема. Улар бир тўлқин устида ўтиришибди. Ана, ана ҳозир ғарқ бўлишлари мумкин. …У эса нимагадир: “Тоққа чиқиш керак! Тоққа чиқиб олиш керак!”– дея роса бақирган” (Аъзамхон Қозихўжа, 2021, 47 бэт). Bu o‘rinda hikoyanavis Nuh alayhissalom qissasiga ishorat qiladi. Ma’lumki, Nuh alayhissalom qavmini qanchalik davat qilmasinlar, ko‘pchilik iymon keltirmaydi. Ular orasida Nuh alayhissalomning o‘z o‘g‘illari ham bor edi. Shunday bo‘lsa-da to‘fon vaqti Nuh alayhissalom o‘g‘lini kemaga chiqib iymon ahlidan bo‘lishini so‘raydi. Bu haqida Qur’oni karimning ,,Hud” surasining 42-43-oyatlarida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: ,,**Ва у** (кема) **уларни тоғлардек тўлқинда олиб кетаётганида, Нуҳ бир четда турган ўғлига: «Эй ўғлим, биз билан бирга мингин, кофирлар билан бирга бўлмагин», деди. У** (ўғил) **«Тоққа жойлашиб олсам, мени сувдан сақлайди» деди. У эса: «Бугун Аллоҳнинг амридан сақловчи йукдир. Магар кимни раҳм қилсагина** (сақлар)**», деди. Шунда ораларини тўлқин тўсди ва у** (уғил) **ғарқ бўлганлардан бўлди**” (Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, 2022, 97-98 бэт). Ushbu qissadan anglashiladiki, bosh qahramon o‘zini Nuh alayhissalomning o‘g‘illariga mengzaydi. O‘zini unga o‘xshatishida ham asos bor. Asar davomida tush motivi keltiriladi. Avaz kamaz tushini shunday eslaydi: ,,Ҳовлига у кириб боради. Чап томонда девор тагида ўра қазилган. Ўнг томонда, анжир олдида юпин

кийинган бобоси, бошида салла: “Ҳаа. Болама!”,– дея олисларга маъюс тикилади. Ўра ёнида турган дадаси: “Қара!”–дея чуқурга ишора қилади. Чуқурга қараб у титараб кетади, чунки ўрада вишшиллаб, илон бўлиб унинг ўзи ётарди” (Аъзамхон Қозихўжа, 2021, 48 бэт). Unga ham bobosi achinish hissi bilan qarab turibdi, o‘zi esa chohda azoblanardi. Bir qarashda o‘y-hayollar qahramonni poklashi kerakdek tuyuladi. Chunki badiiy asarlarda Arastu ta’biri bilan aytganda katarsis holatidan keyin har doim poklanish an’nasi mavjudligi bor gap. Lekin insonlar bir-biridan farq qiladi. Hech bir inson ikkinchisini takrorlamaydi. Kimdir ko‘zlagan maqsadiga tezroq yetsa, boshqasi sekinroq yetishadi. Yana qaysi biri umuman yetisholmas balki. Radiy Fishning ,,Rumiy” romanida shunday jumlalar bor. ,,Руҳий ҳақиқатларни излаб, олға интиласан, лэкин ўша ҳақиқатлар қачон муяссар бўлади, умуман муяссар бўдадими, буни билолмайсан. Бироқ аввалги ҳолатингга ҳам энди қайтиш йўқ” (Фиш, 2021, 211 бэт). Bu jumlalar Jaloliddinning so‘ngi 40 kunlik uzlatga kirishidan oldin ko‘nglidan o‘tkazganlari. Bundan kelib chiqadiki, barcha soliklar ham hayoti davomida faqat poklanib bormaydi. Ular ham inson, o‘z nomi bilan ,,unutuvchi”. A’zamxon Qozixo‘ja xuddi mana shu holatni hikoyaga kiritadi. Ya’nikim, Avaz kamaz chidolmaydi, o‘g‘lidan aroq olib keltirib ichadi. ,,Ko‘za kundamas, kunida sinadi” deganlaridek, xuddi shu voqeadan keyin Avaz Kamaz og‘irlashib qoladi. Ko‘ziga Tulkibashara ko‘rinib, peshobini majburlab ichiradi. Shu o‘rinda ,,Nega nosir shaytonni Tulkibashara qiyofasida berayapdi?” degan savol tug‘iladi. Rabg‘uziyning ,,Qisasi Rabg‘uziy” asarida Nuh alayhissalomdan uzum urug‘ini yashirib qo‘ygan shayton uzumni uch marta sug‘orish sharti bilan qaytaradi. Birnchi marta tulki qoni bilan, so‘ng bo‘ri va to‘ng‘iz qonlari bilan sug‘oradi. Undan chog‘ir paydo bo‘ladi (Рабғузий, 2018, 47 бэт). Shuning uchun muallif hikoyasining bosh qahramoniga shaytonni tulki qiyofasida ko‘rsatadi. Jon talvasasida qiynalotgan otasining suv deganini eshitgan o‘g‘il shoshganidan piyolada qolgan aroqni tutqazib yuboradi va bu Avaz kamazning oxirgi luqmasi edi. Asar kulminatsiyasi shunday yakunlanadi. Kulminatsiyadan so‘ng hikoya ham yakunlangan. Yakunlovchi so‘ngi jumla esa ,,Аваз камаз қайга кетди

биродарлар?! Биз ҳам билмадик…”. Asarning butun mohiyati xuddi shu yerda ochiladi. Adabiyotshunoslikda so‘ngi jumla butun asarni xulosalab yakun yasashi aytiladi. Adabiyotshunos Komiljon Hamroyev so‘ngi jumla haqida shunday deydi: ,,Сўнгги жумлада бадиий асар композициясининг ялпи гармонияси ойдинлашади. Сўнгги жумла – забт этилган чўққи. Унда бадиий асар оламининг эстетик гўзаллиги ва завқу-шавқи мужассам. Сўнгги жумладан сўнг ёзувчи енгил тин олади, дарди арийди, ўқувчининг эса ҳайрати ошади, изтиробга тушади. Сўнгги жумлада айтилган фикрлар сарҳисоб қилинади, хулоса чиқарилади. Кимдир бадиий асарни сўнгги жумла учун яратса, яна кимдир сўнгги жумлани персонажлар тақдирига ҳавола қилади. …Мукаммал сўнгги жумла ҳар қандай ҳолатда бадиий асар композициясини тугал, яхлит бир бутун ҳодисага айлантиради” (Ҳамраев, 2020, 115-bet). Haqiqatan ushbu asarda ham so‘ngi jumla butun asar voqeligini, uning mohiyatini o‘quvchi ongida mujassamlashtiradi. Shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, yuqorida ilk jumla o‘rtaga yechilishi kerak bo‘lgan tugunni tashlaganini aytib o‘tgan edik. Bu esa o‘z o‘zidan so‘ngi jumlaning yechim bo‘lishini talab qiladi. Bir qarashda ushbu so‘ng so‘z birinchisining aynidek tuyuladi. Aslida butunlay boshqa ma’no kasb etadi. Muallif savolning javobini o‘zidan chiqaradi. Ya’nikim, insonni narigi dunyoda nimalar kutayotganligini bilguvchi faqatgina Allohdir. Hikoya boshidagi mavhum savolga mavhumlik bilan javob berilgan. Ammo, bu mavhumlikning o‘zgacha aniqligi bor. Bu aniqlik esa hech qachon o‘zgarmas haqiqatdir. Inson boshqalar tugul o‘zini ham u dunyoda nimalar kutayotganligini bilmaydi, bilolmaydi ham.

Xulosa o‘rnida shuni aniq ayta olamizki, Yozuvchi va olim A’zamxon Qozixo‘ja ,,Avaz kamaz” hikoyasida ilk va so‘ngi jumlalarni poetik jihatdan mukammal qo‘llay olagan. Shuningdek, bu asar turli manba’larga ishoratlarning ko‘pligi bilan o‘quvchidan jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Yozuvchi adabiyotga an’naviy mavzuda orginal asarni berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аъзамхон Қозихўжа, (2021) Гар ортуқ сўз дэдум... . Тошкент: Nurafshon business.
2. Рабғузий. (2018) Қисаси Рабғузий. Тошкэнт: Ёшлар.

3. Радий Фиш. (2021) Жалолиддин Румий. Тошкэнт: Янги аср авлоди.
4. Солижонов, Й. (2002) Нутқ ва услуб. Тошкент: Чўлпон.
5. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф, (2022) Тафсири Ҳилол. Тошкэнт: HILOL-NASHR.
6. Ҳамраев, К. (2020) Ҳикоя композиция. Тошкент.

DOSTOYEVSKIYNING "TELBA" OBRAZI HAQIDA

Jo'rayeva Mohinur
ToshDO'TAU sirtqi ta'lim 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *mazkur maqolada rus yozuvchisi Dostayevskiyning "Telba" romani tahlil etilgan. Tahlillar misollar yordamida dalillangan. Maqolada Mishkin obraziga ijtimiy-psixologik jihatdan yondashilgan.*

Kalit so'zlar: *qahramon, sujet,obraz, yozuvchi,, asar badiiyati, xarakter.*

Abstract: *this article analyzes the novel "Telba" by the Russian writer Dostoyevsky. Analyzes are proved by means of examples. In the article, Mishkin's image is approached from a socio-psychological point of view.*

Keywords: *hero, subject, image, writer, artistic work, character.*

Fyodor Mixaylovich Dostoyevskiyning nomini eshitmagan kitobxon bo'lmasa kerak. Mashhur yozuvchining asarlari nafaqat rus balki butun jahon kitobshinavandalari tomonidan sevib mutolaa qilinadi. Uning asarlaridagi dolzarblik, ijtimoiy-psixalogik muommolar, qahramonlar haqidagi bahslar hamon o'z nihoyasini topgani yo'q. Romandagi har bir qahramon yozuvchi g'oyasini yuzaga chiqarish vazifasini o'tagan. Har bir obraz o'zicha haq va bunga ularda yetarlicha sabab ham bor. "Telba" romani ijtimoiy-psixologik asar bo'lib unda qahramonlar xarakteri juda ustalik bilan yoritib berilgan. "Telba" romanining nomi bosh qahramon knyaz Mishkin xarakteridagi jihatlardan olingan aslida. "Telba" romani rus tilida "Идиот" deb nomlanadi (I.G'ofurov. O'zAS, 2000). Bu so'zni o'zbekchaga tarjima qilganda "ovsar", "ahmoq", "dovdir", "lapashang", "tentak" va hokazo sinonim ma'nolari kelib chiqadi. Hech bir so'z kitobning bosh obrazi Mishkin sifatiga to'g'ri kelmagan bo'lardi. Faqat "Telba" so'zidan tashqari. Uning telbaligi to'g'risida romanning ko'pgina joylarida tilga olinadi. Romanning so'nggi qismi ham "Telba" so'zi bilan yakunlanadi: "Lekin u odamlarning gaplarini

tushunmas, bu yerga kirganlarni tanimas edi. Va mabodo shu topda, Shvetsiyariyadan Shneyder kelib o‘z talabasini va bemorini ko‘rganda edi, knyazning Shvetsiyariyaga davolanishga borganidagi ilk paytlarini, uning goho qanday ahvolga tushganligini eslab, hozir qo‘lini shartda silkib, xuddi o‘shanda aytgan so‘zni yana qaytargan bo‘lardi: Telba!” (Dostoyevskiy, 2016, 646-bet)

Bosh qahramon knyaz Mishkin yoshligidan tutqanoq kasalligi bilan og‘riydi. Tutqanoq hastaligi ko‘p marotaba takrorlanaverganligi sababli uni davolanishi uchun uzoq mamlakat Shvetsariyaga doktor yoniga jo‘natishadi. Shvetsariyada 4 yil davolangan knyaz o‘z ona shahri bo‘lmish Rassiyaga qaytishga qaror qiladi. Asar voqealaridagi burilishlar shu nuqtalarga ko‘zga tashlanadi. U poyezda ketayotganda o‘zining qayta telbaga aylanishiga sababchi bo‘ladigan inson baxtiqaro Parfyon Rogojin bilan tanishadi. Buni qarangki aynan, asar bu ikki qahramonning tanishishi bilan boshlanib, ularning aqldan ozishi va oxir-oqibat ikkalovining ham telba bo‘lishi bilan o‘z nihoyasiga yetadi. Asardagi qahramonlar o‘zlari bilmagan holda ipsiz bir-birlariga bog‘langan bo‘lishadi. Ular sevgi uchburchagida qayta va qayta to‘qnash keladi. Knyaz Mishkin Rossiyaga kiborlar jamiyatiga qaytadi, u orzu qilgan jamiyat allaqachonlar tanazzulga yuz tutgan edi. Bu jamiyat knyaz Mishkin kabi sofdil, bag‘rikeng insonlarni qabul qila olmas, ularni yo o‘zlariga o‘xshatishga harakat qilar o‘xshamasa jinniga chiqarishardi.

“Telba” asarini bu qadar mashhur qilgan ham aslida knyaz Mishkin obrazidir. Ijodkor aynan mana shu obraz ustida yillab bosh qotiradi. Mana shu qahramon uchun asarni qayta-qayta tahrirlaydi, uzoq muddat obraz ustida ishlaydi. Dostayevskiy diniy kitoblarni yaxshi boxabar bo‘lgani uchun o‘z qahramoniga ham diniy tushunchalarni singdirishga harakat qilgan. Undagi bag‘rikenglik, mehribonlik, samimiylik ayniqsa yosh bolalardagi kabi beg‘uborlik kitobxonni beixtiyor unga bog‘lab qo‘yadi. Knyazning xislatlari shu qadar go‘zal ediki, u hatto gapirganda uyalib, tutilib, qizarib yerga qarar edi. U borliqni: yer, osmon, samo, jamiyki tirik jonni sevish tarafdori edi. Bu jihatlar Mishkinnning ichki kechinmalarida bo‘y ko‘rsatadi.

Ijodkor o‘zining g‘oyalari va fikrlarini knyaz tili bilan bayon etadi. “Va lekin odamga eng yomon azob beradigan narsa jarohatlarning og‘rig‘i bo‘lmasa kerak, menimcha mana bir soatdan kegin, keyin o‘n daqiqa, so‘ng yarim daqiqa, keyin mana hozir, shu on, shu soniya, muqarrar suratda jonining uzilishini, boshqa hech qachon odam bo‘lmasligini, hammasi endi muqarrar suratda ro‘y berishini bilib turishing. Qattiq qiynoqqa solidi. Hammasidan og‘iri bu muqarrarlik”. (Dostoyevskiy, 2016, 23-bet). Knyaz Mishkinning xizmatkorga aytgan bu gaplari Dostoyevskiy bilgan va ko‘rgan haqiqat edi.

Roman syujetida Nastasya Filippovna obrazi ham alohida e’tiborga molik hisoblanadi. Chunki Nastasya Filippovnaning o‘zi knyaz Mishkinning yana qayta telba bo‘lib qolishidagi asosiy sababchilardan biri edi. Yozuvchi ayol obrazini asar kulminatsiyasini yangilanish nuqtasiga qo‘ygan. Knyaz Mishkin bu sohibjamol ayolni juda qattiq sevib qoladi. Unga bo‘lgan muhabbati shu qadar kuchli bo‘ladiki hatto u ayol uchun hamma narsasidan kechishgacha tayyor turadi.

Badiiy qiyoslash yo‘lidan borsak, o‘zbek she’riyatida go‘yoki Mishkin obrazi uchun yozilgan satrlar bordek tuyuladi. Jumladan, Usmon Azimning “Alamli qo‘shiq” she’rlarida*:*

O‘zgani sevsang, sevgin,
Men ham senga zormasman.
Kel,yonimga kela qol deb,
Chorlasang ham bormasman.,
Ketgin endi.Sevmayman-ku,
Meni qoldirgin yolg‘iz
Tugayabdi sabrim…
Tag‘in-
Oyog‘ingga cho‘kmay tiz…(1.Azim, 2008, 56-bet)

Usmon Azimning lirik qahramoni balki biz tahlil etayotgan knyaz Mishkindir. Axir u ham xuddi she’rda aytilayotgan vaziyatga tushadiku. U ham Nastasya Filipponovani emas, balki Aglaya ismli qizni sevaman, deb o‘ylaydi. Ammo oxirgi damda “Tugayabdi sabrim…Tag‘in- oyog‘inga cho‘kmay tiz…” knyaz yengiladi,

Nastasya Filippovna qarshisida tiz cho‘kadi. Va qarshisidagi o‘ta ketgan xudbin qizdan boshqasini sevmasligini. Hech kimni u qadar kuchli sevolmasligini anglab yetadi!

Sofdil, beg‘ubor, o‘ta ishonuvchan, mehribon insonlar bu dunyoda yashashga juda qiynaladi xuddi knyaz Mishkin singari! “Telba” aslida kim Telba o‘tkinchi dunyo matohlariga, mol dunyosiga xirs qo‘ygan ikkiyuzlamachi odamlarmi?! Yoki hayotdan faqat go‘zallik izlagan insonlarning yaxshi tarafini ko‘ra olgan knyaz Mishkin kabi beg‘ubor odamlarmi?! Mishkinni jamiyat qabul qila olmadi. Uni pulga o‘ch emasligini, insonlarga ishonuvchanligini, hammaga yordam berishga tayyor ekanligini ko‘rib, uni telbaga chiqarishdi. Hozir ham hozirgi zamonamizda ham xuddi shunday. Nahot Dostayevskiy bashoratchi bo‘lsa. Insonlardan borgan sari mehr –oqibat, yaxshilik qilish, yordam berish kabi hislatlar yo‘qolib bormoqda.

Knyaz Mishkin dunyoni go‘zallik qutqaradi, derdi. Vaholanki uni o‘zini anashu dunyo xarob etdi. Go‘zallikning o‘zi yordamga muhtoj bo‘lib qoldi. Asarda ijodkor butun insoniyatning zamonasini, jamiyatini, ijtimoiy munosabatlarini qalamga olgan. Uni na zamon, na makon, na vaqt o‘zgartira oladi.Bu fikrlarni mag‘zini chaqish kimgadir og‘irlik qilar, yana kim uchundir mayoq yanglig‘ ta’sir etishi mumkin.

Dostoyevskiy asarlari jumladan biz bugun muhokama etgan “Telba” romani haqidagi fikr-mulohazalar turli-tuman bo‘lib kelgan. Har bir kitobxon o‘ziga xos taassurotga ega bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azim.U. (2008 –yil) Saylanma. “O‘zbekiston” NMIU, Toshkent.
2. Dostoyevskiy F.M. (2016 yil) “Telba”. “Yangi asr avlodi” nashriyoti.Toshkent.
3. G‘ofurov.I. (2000) Maqola. O‘zAS gazetasi
4. http//khurshid-davron.uz sayti
5. ziyonet.com sayti

“QIROL LIR” TRAGEDIYASI KOMPOZITSIYASIDA PEYZAJNING BADIIY VAZIFASI

Norjigitova Mamura Norbo‘ta qizi
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 3-kurs
norjigitovamamura@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Vilyam Shekspirning „ Qirol Lir” asari tahlilga tortilgan. „Qirol Lir” tragediyasida tabiat tasvirining badiiy vazifasi ochib berilgan. Tabiat tasviri tragik qahramon ichki dunyosini ifodalab kelishi tadqiq etilgan. Peyzaj va uning badiiy vazifalari haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qirol Lir, badiiy peyzaj , tragik vaziyat , tugun, katarsiz, qahramon ichki dunyosi,bo‘ron.*

Abstract: *The article analyzes William Shakespeare's „King Lear”. The tragedy “King Lear” reveals the artistic function of the depiction of nature. It has been studied that the image of nature represents the inner world of the tragic hero. Theoretical information about the landscape and its artistic functions is given.*

Keywords: *King Lear, artistic landscape, tragic situation, knot, catharsis, hero's inner world, storm*

G‘arb uyg‘onish davri adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri bo‘lgan Vilyam Shekspir ijodida tragediya janrida yaratilgan asarlari ajralib turadi.Yozuvchining ijod namunalari adabiyotshunos olimlar tomonidan tadqiq qilingan va munozaralarga sabab bo‘lgan .Hozirda ham ijodkor asarlari tahlil jarayonidan uzilgan emas. Misol tariqasida filologiya fanlari nomzodi Mamatqulova H.A.„ Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir ijodida badiiy tamoyillar mushtarakligi va o‘ziga xoslik”(„Layli va Majnun ”dostoni va „Romeo va Julyetta ”tragediyasi misolida)nomli dissertatsiyasi hamda M.Mamatqulovning „Romeo va Julyetta ” *va* „Layli va Majnun ”qiyosiy tahlil dissertatsiyalari muhim ahamiyatga ega.

Shekspir ijodining cho‘qqisi sifatida „Hamlet”, „ Qirol Lir”, „ Makbet” tragediyalari adabiyotshunos olimlar tomonidan e’tirof qilingan .Ushbu asarlar ichida „ Qirol Lir” tragediyasi jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega.Asar necha asrlar sillasidan o‘tib ,hali hamon kitobxonlarning e’tibor markazida turadigan

adabiyot durdonalari qatoridadir. “Qirol Lir” tragediyasi nafaqat jahon balki,o‘zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan keng miqyosda tadqiq qilingan va qilinmoqda.Lev Nikolayevich Tolstoyning „Shekspir va drama to‘g‘risida” nomli tanqidiy ocherki ,Suvon Melining „Samoviy miqyos”(„O‘tkan kunlar ” va „ Qirol Lir”) Uzoq Jo‘raqulovning„ ... Telbaga yo‘qtur qalam ” maqolalari fikrimiz isbotidir. Adabiyotshunos olimlarimizning olib borgan tahlil va tadqiqotlariga tayangan holda, „ Qirol Lir” tragediyasi kompozitsiyasida peyzaj tasvirining badiiy o‘rni haqida o‘z qarashlarimizni bayon qilamiz .Dastlab tragediyaning syujetiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Tragediya Kent va Glosterning suhbati bilan boshlanadi.Suhbat davomida Gloster salbiy obraz sifatida ko‘rinadi.Uning nutqi bizda shunday taassurot uyg‘otadi.Vaholanki,asar voqealari rivojida Glosterning ulug‘vor obrazlaridan biri ko‘rinishiga kiradi.Bu o‘rinda Tolstoyning qarashlari o‘rinli. Lirning a’yonlari bilan saroyga kirib kelishi sahnasida o‘z davlati hududlarini qizlariga bo‘lib berishini aytadi.Taqsimot qizlar o‘z otasiga bo‘lgan mehrini so‘zlar vositasida isbotlashiga qarab taqsimlanadi.Lirning katta qizi Gonerilya Otajonim !

Sizga bo‘lgan muhabbatimni

Qanday qilib aytish mumkin oddiy so‘z bilan,

Ko‘zda nur-u olgan nafas ,ozodligimdan

Nimaiki qiymat ,noyob va go‘zal bo‘lsa

Hayot ,sog‘liq,husn -u nomus barchasidan ham

Bir qiz kishi o‘z otasin sevolganicha,

Bir sevgi-ki aytmoq uchun so‘z yetishmaydi,

Barchasidan yuksak qo‘yib sizni sevaman − deydi .Lirning ikkinchi qizi Regana ham opasi kabi sevishini aytadi.Xullas,ikki qiz tilyog‘lamalik qilib ,katta mulkka ega bo‘lib olgan bir vaziyatda,otasiga bo‘lgan muhabbatini oddiy ,jo‘n bayon etgan Kordeliya Lirning g‘azabiga uchraydi.Bu vaziyatda Lirning o‘zi emas ,balki uning unvoni ,qirol ekanligi bu sodda mehr ifodasini qabul qila olmadi.Kordeliya merosdan mahrum etilib,saroydan haydaladi. Mol-mulk

taqsimotiga ko‘ra qirol Lir Gonerilyaning saroyida yashay boshlaydi.Tez orada Gonerilyaning dilidagi tili va harakatlarida ko‘rina boshlaydi:

Bu gapni qo‘ying !

Siz,salomat fikrlarni yodga tushiring ,

Men bilaman ,ular sizda hali mukammal (53-bet)

Hatto turmush o‘rtog‘i Albaniga ham o‘z otasi haqida :

Bu to‘g‘rida diqqat bo‘lma ,parvo ham qilma .

Bolaligi qo‘zg‘ayapti , chol tushmagirning (54-bet) – degan so‘zlari merosni olishgacha bo‘lgan gaplardan mutlaqo farq qiladi.Lir qizining harakatlaridan ranjib,ikkinchi qizi Regana qasri tomon yo‘l oladi.Regana opasidan ham oshib tushadi.U hatto otasini darvozadan qasrga qo‘ymaydi. Otasining opalari tomonidan xo‘rlanganligini eshitgan ,fransuz qirolining rafiqasi Kordeliya ulardan qasos olmoqchi bo‘lib ,urush e’lon qiladi. Ingliz qo‘shiniga Glosterning nikohsiz tug‘ilgan o‘g‘li Edmond boshchilik qiladi. Fransuz qirolining poytaxtga qaytishga majbur bo‘lishi ,Edmondning g‘alabasini ta’minlaydi.Qirol Lir va Kordeliya Edmond tomonidan o‘limga hukm etiladi. Lir tarafdorlarining Edmond ustidan g‘alaba qilishi uning hayotini saqlab qoladi. Ammo Kordeliya osib o‘ldirilgan edi . Lirdagi tragik vaziyat Kordeliya o‘limi bilan bog‘liq, deb hisoblovchi kitobxonlar ko‘pchilikni tashkil etadi.Ammo bu o‘rinda bizning qarashlarimiz boshqacharoq. Lirdagi katarsiz holati peyzaj tasviri orqali ochib berilgan. Tragediyaning ikkinchi parda tugashi va uchinchi parda boshlanishida bo‘ron tasviri mavjud.Bo‘ronning boshlanishi Karnuel tilidan aytiladi:

Darvozalar berkitilsin ,Qorong‘u kecha

va bo‘rondan qochish kerak ,yaxshi maslahat. (76-bet)

Peyzaj adabiyotshunoslikda beqiyos o‘ringa ega bo‘lib ,badiiy asar sifatini belgilovchi elementlardan biridir.Dilmurod Quronov va boshqalar tomonidan yaratilgan „Adabiyotshunoslik lug‘ati ” da keltirilishicha: . [Peyzaj (fr.paysage – joy, yurt) adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi makon tasviridir .] Badiiy asarlarda peyzaj tasvirini ko‘p

uchratamiz.Asar voqealari qayerda sodir etilayotganligini tabiat tasviri anglatib turadi. Badiiy adabiyot durdonalari bo‘lgan Ernest Seton Tompsonning „ Yovvoyi yo‘rg‘a ”,Gyotening „Yosh Verterning iztiroblari” ,Dostoyevskiyning „Oydin tunlar” asarlarida ham peyzaj yaqqol namoyon bo‘ladi. Peyzaj faqatgina tabiat manzarasi tasviridan iborat emas .Tog‘,daryo, soy, dengiz,tabiat tasviri .Ko‘cha ,bog‘ ,xiyobon kabilar makon tasviridir. (A.Ulug‘ov„Adabiyotshunoslik nazariyasi” 226- bet) An’anaga ko‘ra peyzaj deyilganda ,tabiat tasviri tushuniladi, lekin bir xil tushunish birmuncha torroq .Chunki peyzaj nafaqat tabiatni ,balki u bilan birga inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi. (Quronov va boshqalar „Adabiyotshunoslik lug‘ati ” 221-bet) Adabiyotshunos olimlarning fikrlari isboti o‘laroq F.Dostoyevskiyning „Oydin tunlar” asarida qahramon tilidan : Lekin pushtirang uy voqeasi hech esimdan chiqmaydi.U ko‘rkamgina g‘ishtin uy edi,men yo‘lim tushib qolganida beo‘xshov qo‘shnilarga mag‘rurlanib qarar,menga esa muruvvat bilan boqardi…(157-bet) jumlasi orqali inson qo‘li bilan yaratilgan predmetlar ham peyzaj bo‘lishi anglashiladi. Badiiy asarda peyzaj turli yo‘llar orqali qo‘llaniladi.Ular yozuvchi uslubi ,asar janri bilan ham belgilanadi.U gohida syujet sodir bo‘lgan faslni bildiradi,goh qahramonlar psixologiyasini ochishda uning ichki ziddiyatini ko‘rsatishda muhim o‘ringa ega . (K.Hamrayev „Hikoya kompozitsiyasi ” (76-bet) Ushbu ta’rifdan kelib chiqib yondashsak maqsadga muvofiq bo‘ladi.Bo‘ron tasviri Lirning ruhiy holatini ochib berish uchun qo‘llangan. O‘zining badbaxt,oqpadar ikki qizi tomonidan haydalgan Qirol Lir ruhiyatiga bo‘ron tasviri hamohang qilib ko‘rasatilgan.Aynan shu holatini saroy kishisi nutqidan ham bilamiz: *Joni xuddi bo‘ron kabi notinch odam bor* (98 - bet) Shekspir tragediyasining tragik vaziyatini bo‘ron tasviri orqali jonli ifoda etgan .Ya’niki janrning xususiyati peyzaj bilan yanada yorqinlashgan. U quturgan ofat bilan bahslashmoqda .

U bo‘rondan yer yuzini bitta ufurib ,
Dengizlarni supurishni ,yoki bo‘lmasa,
Ayov bilmas to‘lqinlarga itqitishni so‘ramoqda,
Toki yerda bor mavjud narsalar

Yo o‘zgarsin ,yo tamom yo‘qolsin. (III parda)

Saroy xizmatchisi nutqidan ma’lum bo‘ladiki,Qirol Lir va bo‘ron bitta bir vujudga aylangan .Ayni vaqtda Lirning ichki botiniy talotumi bo‘ron orqali ko‘rsatib berilgan.Aynan ushbu peyzaj yozuvchi tomonidan keltirilmaganda Lirning tuyg‘ulari bizda bunchalik yaqqol tasavvur uyg‘otmagan bo‘lardi.Asarning tragik xususiyati kuchsiz bo‘lib qolardi.

Asarda peyzaj vazifasiga hukm chiqarish to‘g‘ri emas.Hamma o‘zining badiiy tafakkuri ,fikrlash tarzi orqali xulosa qilishi tabiiy.Ammo adabiyotshunos olimlar: Suvon Meli , Dilmurod Quronov,Abdulla Ulug‘ov ,Komiljon Hamrayev yozgan ilmiy asarlariga tayanib bo‘ron peyzaji obraz ma’naviy -ruhiy holatini ko‘rsatish vazifasini bajargan degan xulosa chiqadi. Qirol Lir tragediyasida bo‘ron taviridan ham boshqa peyzajlar uchraydi.Lekin ular qisqa berilgan bo‘lib ,kitobxon vaziyatni tushunishi uchun qo‘llangan.Masalan: Fransuz lageri ,chodir qurilgan .Bayroqlar osilgan ,barabanlar .Kordeliya ,tabib,soldatlar chiqib keladilar. (146 -bet) Ushbu tasvir bilan muallif kitobxon ko‘z-o‘ngida vaziyatni gavdalantirish sababidan berilgan . Turli adabiy turlarga mansub asarlarda peyzajning o‘rni va sifati farqlanadi.Epik asarlarda ancha mufassal tasvirlangan peyzajlar keng o‘rin tutsa,dramatik asarlarda faqat shartli ravishdagina peyzaj haqida gapirish mumkin Zero remarkalarda joyga xos bir nechta asosiy detallarni umumiy tarzda keltirishning o‘zini faqat shartli ravishdagina joy tasviri deyish mumkin. (D.Quronov va boshqalar,, Adabiyotshunoslik lug‘ati ” 221-bet) Adabiyotshunos Dilmurod Quronovning,, Adabiyotshunoslik lug‘ati ”kitobidan olingan ushbu fikrga ko‘ra remarkalarda berilgan tabiat yoxud joy tasviri yetarli darajada peyzajga to‘g‘ri kelmaydi. Bunday remarkalar qisqa va lo‘nda bo‘lib ,voqeaning qayerda,qanday vaziyat yuz berayotganligini bildiradi,xolos.Bo‘ron tasviri esa umuman o‘zgacha bo‘lib ,insonning ruhiy jihatdan qiynalishi ochib berish yetakchilik qilgan .Qirol Lir o‘zining mehriga yarasha javob olmaganligi uchun qizlaridan qattiq g‘azabda ekanligi:

Siz yovuzlar qarab turing,har ikkingizdan,

Shunday qasos olayin -ki,bir butun olam

Shunday ishlar qilayin -ki,bimayman nima:

holda men koinotga dahshat solaman deb aytgan so‘zlari orqali anglashiladi. Bu o‘rinda qizlaridan nafratlangan ota o‘z jigargo‘shalaridan ham butun olamdan ham qasos olishga tayyor ,isyonkor kabi namoyon bo‘ladi. E’tibor berilsa,bo‘ron cho‘lda bo‘lib o‘tganligi ko‘rinadi.Asarda Gloster tilidan: *Gir atrofda bir tikkaygan qora daraxt yo‘q* (97- bet) − keltirilgan ushbu so‘zlar fikrimiz isbotidir.Inson o‘zi ishongan narsasidan,bor-yo‘g‘idan mahrum bo‘lsa,uning qalbi huvullab qoladi.Qirol Lirda ham xuddi shunday vaziyat hukm surmoqda edi. Na borarga joyi va na bir mehriboni bor .U yolg‘iz qolgan .Ko‘nglining bo‘m-bo‘sh ekanligi sahroga muqoyasa qilinsa,momoqaldiroq ,chaqmoqlarning dahshati,shamol shovqini ,qahrli quyun va jalalar Lirning qalbdagi isyonining tasviri bo‘lib xizmat qilgan. Inson o‘zining yaqin odamlaridan xafa bo‘ladi va gina qiladi. Lir o‘zining dilbandlari bemehr ,beoqibat ekanligini hech kimga ayta olmaydi.Tabiatga ularning ustidan shikoyat qiladi.O‘zbek xalqida: „ O‘zingdan chiqqan baloga qayga borasan da’voga”− maqoli bejiz aytilmaganligiga yana bir bor amin bo‘lamiz.Lir nutqidan:

O‘kiraver !Chaqinaver!quyaver yomg‘ir.

Guldirashuv ,chaqin ,yomg‘ir − tabiiy ofat ,

Mening qizim emassizki, buncha zulm uchun

Men sizlarni qarg‘asam yo gina qilsam.

Ilohiy qonuniyatlarga binoan tashqi olam va tabiatda kechadigan hodisalar bilan inson ruhiyatida sodir bo‘lgan kechinmalar o‘rtasida ajib uyg‘unlik bor . (S.Meli „So‘z-u so‘z” 63-bet) Inson tabiat hodisalari bilan yonma-yon ,tabiat qonunlariga bo‘ysinib yashaydi.Tabiat hodisalari badiiy asarda tasvirlanar ekan muayyan maqsadga bo‘ysundiriladi va albatta, poetik vazifa bajaradi.Asar badiiy jihatdan qancha yuksak ,ijodkor ko‘zlagan g‘oya qancha teran bo‘lsa,tabiiy hodisalar tasviri shu qadar yorqin va ta’sirdor bo‘ladi. (shu kitob 61-bet) Ta’sirli bo‘lishiga sabab tabiat hodisalari bizga tanish , ko‘zimiz bilan ko‘rib tafakkur qilgan holatlar sanaladi.Agar bu tasvir so‘z orqali voqealantirilsa ham biz tasavvurimizga keltira olamiz va bundan ta’sirlanamiz.Bu o‘rinda ijodkorlarning

so‘z qo‘llash mahoratini ham e’tirof etmay bo‘lmaydi.So‘zlarni vaziyatga mos ravishda qo‘llay bilish,tasvirni jonli va ishonarli chiqishini ta’minlaydi.Tabiat tasviri tabiiy hodisa bo‘lib ,hamma bilgan ,ko‘rgan predmetlarni asarga olib kirish maqsadga muvofiq.Oddiy o‘qitish tizimida masalan: botanika fanidan o‘simliklarning tarkibiy qismlarini tushuntirishda dastlab biror bir o‘simlikni ko‘rasatib ,ildizi ,barglari,tanasi va h.qismlari bilan tanishtirilsa, o‘quvchida ma’lum bir tushuncha paydo bo‘ladi va esida tez qoladi.Keyinchalik nazariyani o‘qiganda tasvir ko‘z o‘ngida jonlanadi.Peyzajning yutuqli tomoni ham shunda Tasvir avval ko‘rilgan,ma’lum bir xulosaga kelingan.Aynan yozuvchi tomonidan keltirilgan tasvir bo‘lmasa ham shunga yaqin holat ,albatta bo‘ladi.Sababi inson va tabiat mushtaraklikda yashaydi va faoliyat olib boradi.Peyzaj ifodasi qog‘ozdan o‘qilganda ,kitobxon ko‘z oldida tabiat tasviri chiziladi va uning ta’sir quvvati o‘ziga xosdir. Mana shu ta’sir quvvatini yetarlicha anglagan Vilyam Shekspir Lirdagi tragik vaziyatni peyzaj orqali kuchaytirdi va tabiat inson ruhiy olamini tashqi jihatdan eng munosib izohlovchisi ekanligini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abdulla Ulug‘ov (2017) ” Adabiyotshunoslik nazariyasi „ (226-bet) G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi

2. D.Quronov va boshqalar (2013) „Adabiyotshunoslik lug‘ati ” (221-bet) ”Akademnashr„

3.K.Hamrayev (2020) „Hikoya kompozitsiyasi ” (76-bet) „Nurafshon business”

4. S.Meli(2020) „So‘z-u so‘z” (63-bet) „ Sharq”

5.Vilyam Shekspir (1981) Tanlangan asarlar G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti

BADIIY TALQINDA PSIXOLOGIK TAHLIL

Nafisa OBIDOVA
Navoiy davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi tayanch doktaranti

Annotatsiya.*Maqolada badiiy psixologizm ,uning mohiyati haqida so‘z boradi.Badiiy psixologizmning kelib chiqishi adabiyot inson obrazini tasvirlay*

boshlagan davrlarga borib taqaladi.G‘arb adabiyotshunosligida bu hodisa psixopoetika deb ataladi.Zamonaviy dunyo adabiyotshunosligida badiiy adabiyotni psixopoetik nuqtai nazardan tahli va talqin qiluvchi bir qancha nazariy qarashlar usul va metodlar ishlab chiqilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. *Psixologizm, ruhiyat, psixologiik tahlil, psixoanaliz, xarakter.*

Abstract. *The article talks about artistic psychology and its essence. The origin of artistic psychology goes back to the times when literature began to describe the image of a person.*

Keywords*: Psychology, spirit, psychological analysis, character.*

Badiiy asar insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin,uni birinchi galda inson sifatidagi o‘y-fikrlari bilan yoritishi lozim.Badiiy ijodning o‘ziga jalb etuvchi jihatlaridan biri,uning inson ichki olamidagi qorong`u va mavhum tilsimlarni ochish qobilyatidir.U qalbda kechadigan jarayonlarni shu qadar aniq – oydin ifoda etadiki, boshqa bir fan ahli bunga qodir bo‘lgani yo‘q. ,,Uzoq davom etib kelayotgan tarixiy adabiy hayotda ,-deydi A.B.Yesin,-psixologizmning sirli,ammo samarali jihatlaridan biri,ijodkor inson qalbi haqida so‘zlay turib ,har bir o‘quvchi bilan uning o‘zi haqida gaplashayotgandek bo‘ladi’’.Psixologizm-bu badiiy asarning uslubiy tasnifi bo‘lib ,u orqali personajlarning ichki dunyosi chuqur va mufassal bayon etiladi.Ko‘zga ko‘rinmaydigan ,qo‘lga ilashmaydigan hissiyotlar ,fikrlar ,tuyg`ular qiyofa kasb etadi go‘yo.Psixologizmni birinchilardan bo‘lib adabiy hodisa sifatida fanga olib kirgan va unga adabiy uslub deb izoh bergan Chernishevskiy L.N. Tolstoyning dastlabki hikoyalarini o‘qish asnosida shunday xulosaga kelgan.

Psixologik tahlil badiiy hodisa bo‘lib ,ijodiy talantning kamoloti darajasini,uning ta’sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir.Aristotelning ,,Poetika’’ asarida qayd qilinishicha,badiiy asarning asosiy belgisi –tashqi hodisalarning tasviridir,harakter esa tashqi hodisalar tasviridan keyingi vositadir.O‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidida ,,psixologizm’’va ,,psixologik tahlil’’terminlari farqlanmay ishlatiladi.Ammo psixologizm psixologik tahlil tushunchasiga nisbatan keng bo‘lib,u o‘zida bevosita avtorning psixologiyasi ham

qamrab oladi.Psixologik tahlil esa inson psixikasi jarayonlarini ,uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman ohanglar rivojini aks ettiruvchi ,qahramon ruhiy dunyosini analitik prinsipda ochuvchi estetik kategoriyadir.

Hayotda bo‘lganidek adabiyotda ham odam o‘zining individual psixalogik xususiyati bilan boshqalardan ajralib turadi.Bu xarakter tushunchasi bilan bog`liqdir .Adabiyotda badiiy xarakter –bu individual belgilarni o‘z ichiga olgan holda ma’lum bir ijtimoiy sharoitda paydo bo‘lgan ,ijtimoiy ma’no kasb qilgan iroda yo‘nalishi va bu iroda yo‘nalishining asardagi badiiy ifodasidan iboratdir .Faqat ijtimoiy sharoit asosida yuzaga chiqqan shaxs irodasi xarakterning asarda badiiy va g`oyavi asosini ta’min etadi . Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar bilan bog‘liq. Adabiyotda psixologizmning rivojlanish tarixini tavsiflab, adabiyotshunos olim L.Ya.Ginzburg “mavjud adabiy janrlarda psixologik yangiliklar endigina nish urayotgan bir vaqtda, badiiy adabiyotning yondosh janrlari bo‘lmish – rasoil, kundaliklar, memuarlar va avtobiografik janrlarda psixologizm allakachon o‘rnashib bo‘lgan edi” deb yozadi. Badiiy adabiyotda asarning g‘oyaviy-estetik ahamiyatini personajlar xarakteri ochib bersa, personaj xarakterining yozuvchi tomonidan ochib berilishi psixologik tahlil vositasi hisoblanadi. Badiiy asarda asosiy urg‘u qahramon ichki olami, botiniy hayoti, o‘y-kechinmalariga qaratilmagan bo‘lsa, u xolda har qanday obraz xarakteri xam badiiy psixologizm namunasi bo‘la olmaydi. Chunki, “psixologizm – adabiy asar badiiyatining asosiy, ammo yagona bo‘lmagan mezoni hisoblanib, “psixologizm – agar badiiy asar uchun botinan zarur bo‘lsagina, u asarning yutug‘i bo‘la oladi . Badiiy psixologizm tushunchasi bilan psixologik tahlil yoki psixologik tasvir kabi tushunchalarning o‘zaro aloqasi bor-ki, olimlar va tadqiqotchilar o‘rtasida baxsli xolatlarni yuzaga keltiradi. Ammo bu savollar nazariy jihatdan bugunga qadar ochiq qolmoqda – ayrim tadqiqotchilar bu terminlarga aniqlik kiritsalar, boshqa guruh olimlar bu nazariyani chetlab o‘tishga harakat qiladi. Badiiy asar psixologik darajasini belgilashda adabiy tur va janrlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, lirika – inson qalbi va ichki his-

tuyg‘ulari kuychisi ekanligi ma'lum, demak u bevosita ruhiyat tasviri bilan bog‘liq holda shoir. psixologiyasi va ichki olamini tarannum etadi.

Dramatik turda ruhiyatni tasvirlash dinamik prinsip asosiga qurilishi haqida yuqorida batafsil to‘xtalib o‘tgan edik . Epos – inson ruhiyatini tasvirlashning xilma-xil vositalari, usullaridan iborat keng imkoniyatlarga ega. Epik turda lirika va dramadagi barcha usul va vositalar o‘ziga xos ravishda sintezlashadi. Yozuvchi lirikadagi singari o‘z qahramonining ichki dunyosidan turib ham, qahramonning o‘z nutqi vositasida ham, tashqi xarakteristika va holatlar tasviri orqali ham ruhiyat dunyosiga daxl qilaveradi. Ayni paytda badiiy psixologizmdan foydalanish epik tur janrlariaro ham farqli xususiyatlarga ega .

Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste'dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qaxramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi . Epik janrlar orasida hikoya, xususan psixologik hikoyaning o‘rni bugungi kun adabiy jarayonlarida yetakchilik qilmoqda. Hikoya – hayotning kichik bir parchasini aks ettirganidan, epizodik tarzda unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinganidan bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni chuqur va to‘liq ochib berish yozuvchidan katta mahorat va iste'dod talab qiladi. Roman va qissa kabi katta yoki o‘rta hajmdagi nasriy asarlarda qaxramon xarakteri, uning ruhiyati, botiniy hayoti va ichki kechinmalarini ochib berish uchun yozuvchida imkoniyat va vaqt ko‘proq bo‘ladi. Xuddi shunday yo‘nalishda Lotin Amerikasi davlatlari ,xususan, Urugvayda psixologiya elementlarining hikoya oqimlarining to'liq rivojlanishiga imkon beradigan harakat shakllana boshladi, bu bizni ong evolyutsiyasi bilan bog'liq jihatlarga olib boradi. Bu masalalarning xalqaro tan olinishiga imkon berishga,

birgina argentinalik yozuvchi Xorxe Luis Borxesning ,,Sohildagi uchrashuv" hikoyasi misolida, inson ruhiyatining murakkab jihatlarini ko‘rishimiz mumkin.Asar insonning o‘zi bilan o‘zi uchrashish voqeasi asnosida jamiyatdagi odamlarning xudbinlashib borayotgani,zamonning o‘zgarib borayotgani va inson umri haqida mulohaza yuritishga undaydi. "Sohildagi uchrashuv" hikoyasi Borxes ijodiga xos fikrlash tarzini, o‘zimizning ta'birimiz bilan aytganda, diapazonini belgilab beradigan uslubda yozilgan. Ya'niki, hayotda yuz bermaydigan hodisa real voqealik doirasida qalamga olinadi.Asar aynan shunday nomlanishida ramziylik bor. Sohilda qahramonlargina emas, ikki davr, bir ijodkorning o‘tmishi — yoshligi bilan hozirgi payti — keksaligi uchrashadi, g‘ayrat, shijoat, jo‘shqinlik bilan ehtiyotkorlik, salobat, lekin jur'atsizlik uchrashadi. Boz ustiga uchrashib qolganlarning har biri shu uchrashuvni tushida ko‘rayotgan bo‘ladi. Hikoyada ko‘p narsalarga o‘zgacha nazar solish lozimligi haqidagi g`oya ham bor. Bir vaqtlari keskin o‘zgarishlar, yolg‘onga, riyoga murosasiz bo‘lish tarafdori sifatida nom qozongan adib yoshligi bilan uchrashib qoladi, uning sokin, teran mulohazalari zamirida, tinchlikni istab qolgan qarashlarida keskinlik yetishmaydigan nochor, ojiz qariyaning jur'atsizligi, taslim bo‘lgani, shonli bayroqlarni ko‘tarish istagi qalbini tark etgani sezilib turadi. Ikki suhbatdosh o‘zaro til topisholmaydi, natijada bir-birini tushunolmaydi. Avlodlar o‘rtasidagi ixtilof, yangi fikr — u qanday bo‘lishidan qat'i nazar eski qarashlarni — ular har qancha tabarruk, purma'no bo‘lsa ham mahv etajagini keksa Borxes ham, muallif ham, qolaversa, biz, ham chor-nochor his qilamiz. Borxesning maqsadi - har doim eng skeptik tomondan qaraladigan, o'z taqdiriga kira olmaydigan va hatto uni boshqara olmaydigan odamning borligi va iztiroblari bilan bog'liq bo'lgan barcha bema'ni narsalarni yetkazish. Borxes muntazam tarzda murojaat qilgan ramzlar esa, xususan, mana bular edi – ko‘zgular, kutubxona, adoqsizlik, bog‘ va tushlar olami hamda bularning barchasi birgalikda – labirint. U "Al-Muhtasimga yaqinlashuv" hikoyasida yozadi: "Qodir Xudoning o‘zi ham Kimnidir izlashda davom etayotir, ushbu Kimdir esa — boshqa bir yuksakroq (yoxud shunchaki zarur va o‘ziga monand) Kimnidir izlash bilan mashg‘ul va shu tariqa Zamonlar Intihosiga —

yoki, to‘g‘rirog‘i Intihosizlikka (cheksizlikka) qadar”. “Xaroba doiralari”da esa quyidagilarni o‘qiymiz: “Bir kun — qushlaridan ayrilgan subhidam chog‘i afsungar doira ketidan doira bo‘lib, ehrom devorlariga olov yaqinlashayotganini ko‘rdi. Daryodan najot topmoqchi bo‘ldi, biroq o‘lim uning ulug‘ yoshiga toj kiydirish, barcha tashvishlardan xalos etish uchun tashrif buyurganligini anglab, bu fikridan qaytdi. Va u yong‘inga peshvoz chiqdi. Biroq olov tillari uning vujudini zabtiga olmadi, bil’aks erkalab yalab-yulqadi, yuvib-taradi — kuydirib kul qilmadi. Va yengil tortib, xo‘rlik alami bilan dahshat ichra anglab yetdiki, uning o‘zi ham kimdir birov o‘z tushlarida ko‘rayotgan sharpa edi, xolos”. Borxes mavjud voqelikning o‘zi-da omonat va nomukammal ekanligini, uni boshqa bir – to‘qib chiqarilgan va barcha unsurlari puxta ishlangan boshqa bir dunyo o‘zida mahv eta olishi mumkinligini aytadi – “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius”. “Labirintida halok bo‘lgan Al-Buxoriy”, “O‘lim va bussol”, “Xaroba doiralari” kabi o‘nlab hikoyalari singari “Al Muhtasimga yaqinlashuv”, “Yashirin mo‘’jiza”, “Tangri bitiklari” va “Tlyon, Ukbar, Orbis Tertius” deb nomlangan hikoyalari adibning fundamental asarlari qatorida alohida tadqiq etiladi.Borxes asarlari tadqiqi kishini bir vaqtning o‘zida hayrat va taassufga soladi. Birgina yozuvchi shu qadar ko‘lamdor adabiy olamni barpo eta olgani hayratlanarli. Taassuf shuki, adib shu yo‘nalishdagi boshqa urinishlarga aslo o‘rin qoldirmagan . Ya’ni, uning asarlari yaxlitligini chindan tasavvur qila olar ekansiz, bu adabiyot sarhadlarida yana nimalardir qilishga, hali kashf etilmagan boshqa nuqtalarni izlab topa olishingizga umid so‘nib boradi. Ammo, uning zamondoshi Xulio Kortasar bir karra qo‘yilgan nuqta aslo so‘nggisi bo‘lmasligini dalillab berdi. Kortasar Borxes voqeligiga baqamti, ammo ayni paytda batamom mustaqil xos voqeligini yarata oldi. O‘nlab hikoyalari, “Rauela”, “Yig‘ish uchun andoza”, “Manuel kitobi” kabi romanlari bilan badiiyat ufqlarini mislsiz tarzda kengaytirib yubordi. Ta’bir joiz bo‘lsa, so‘nggi bir necha o‘n yilliklar adabiy jarayoni argentinalik mana shu ikki intellektual mahsullari ta’siri ostida kechdi.Borxesning har bir hikoyasini har qanday boshqa ko‘lamdor asarlarga zamin bo‘la oladigan mukammal formulalar tarzida tushinish mumkin. Borxes shu tariqa allaqanday boshqa ulkan loyihalarning

mohiyatlarini havola etadi.Uning o‘zini esa bir me’morga mengzash mumkin.Borxesning salohiyatini shunda ko‘rishimiz mumkinki, hajman qisqa hisoblangan hikoya yoki esse janrlarida ham o‘quvchi uchun ulkan g‘oyalarni bera olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Имомова Г. (1992) Психологик изтироблар: Руҳият тасвирида диалог ва монолог. – Тошкент.: “Ёзувчи”
2. Йўлдошев М. (2008).Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент.: “Фан”
3. . Йўлдошев Қ. (1996).Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Ўқитувчи
4. . Каримов Н. (2008) XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент: O‟zbekiston.
5. . Мирқосимова М., Рустамова М. (2007) Жанр ва маҳорат. – Тошкент: Миллий кутубхона.
6. Назаров Б. (1979).Ўзбек адабиёти танқидчилиги. – Тошкент: Фан.
7. Мирзаев С. (2005) XX аср ўзбек адабиёти. – Тошкент: Янги аср авлоди,. Назаров Б. Ўзбек адабиёти танқидчилиги. – Тошкент: Фан, 1979.

“XUMCHA” VA“OLTIN DEVOR” ASARLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR

Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs
sabinabonuqaxramonova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqoladaantik davr adabiyoti vakili Plavtning “Xumcha” va XX asr o‘zbek adabiyotining yirik vakili Erkin Vohidovning “Oltin devor”dramalaridagi oilaviy munosabatlarga doir mushtarak jihatlar o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *antik dunyo, komik katarsis, satirik kulgu, komediya .*

Abstract. *This article examines the common aspects of family relations in the dramas "Khuncha" by Plaut, a representative of ancient literature, and "Golden Wall" by Erkin Vahidov.*

Keywords: *Ancient world, comic catharsis, satirical laughter, comedy*

G‘oya va syujet jihatidan bir-biri bilan mushtaraklik hosil qiluvchi Plavtning “Xumcha” va Erkin Vohidovning “Oltin devor” komediyalarining nomi ham o‘xshashdir. Bu esa ikkala asarning asosiy g‘oyasini ochib beradi. Erkin Vohidov o‘z asariga o‘zbek mentalitetiga mos nom tanlagan. Personajlar xarakteri, yondosh

obrazlar xarakteri, asarning g‘oyasini ochib berishda ham shuningdek xarakterlararo konflikt hosil qilishda ham xumcha yoxud devordan topilgan tilla asosiy rol o‘ynaydi. Asarlardagi oilaviy munosabatlarning o‘xshash jihati bilan bir qatorda farqli jihatlari ham mavjud. Asarlar syujetiga chuqurroq kirib boraylik.

Moddiy tushunchalarning keltirilishi bilan asarlar syujeti boshlanadi. “Xumcha”daG‘arb adabiyotiga xos bo‘lgan Xudo obrazining oltin haqidagi so‘zlaridan boshlansa, “Oltin devor”da avval tanishtiruv qismi beriladi, keyin bosh qahramon tili bilan aytganda qirq yillik qadrdon qo‘shnilar Abdusalom va Mo‘minning quda bo‘lish arafasida turganligi va o‘zaro kelishmovchiliklariga asosiy sabab bo‘lgan to‘y mojarolari bilan boshlanadi. Mojarolarning sababi orzu-havas, el-xalq oldida bosh ko‘tarib yurish uchun qurbi yetgan va yetmagan sarpolar, to‘y qilinadigan hovlining hajmi va h.k . Erkin Vohidov qahramonlar tilidan aytilgan “Menga xo‘roz bo‘lsin, tuxum qilsin, oladiganidan gapir” yoki “Mening qizimga magazin mudirlaridan sovchi kelyapti” kabi jumlalar orqali hayot manfaat ustida qurilgan, puling bo‘lmasa yaxshi yashay olmaysan degan fikrlarni ilgari surayotgandek go‘yo. Albatta, bu fikrlarni inkor qilib bo‘lmaydi, qahramon qizi uchun jon kuydiryapti degan fikrga boramiz. “Xumcha”da esa kambag‘al oilaning holatini ko‘rsatilgan. O‘sha davrda kambag‘allarga qilinadigan munosabatlar qahramonlar tilidan aniq, mufassal bayon qilingan. Qahramonlarning holatini, ularning gaplarini kulib o‘qishimiz mumkin, biroq chuqurroq nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu kulguning tag zamirida achchiq haqiqatlar yotganiga guvoh bo‘lamiz. O‘sha davrda aholini sinflashtirishgan, quyi tabaqa vakillarining oilasiga nisbatan xunuk munosabatda bo‘lishgan degan xulosaga boramiz. Bu esa komik katarsis (kulgu yo‘li bilan inson ruhini poklash – S.Q) hodisasini yodga soladi. G‘afur G‘ulom aytganidek, “*Beozor kulgular bilan kishilarning hayotini g‘am-g‘ussadan ozod qilish”*(G‘. G‘ulom1973.204-bet) esa komik katarsisning muhim bir belgisini aniq ta’riflaydi.

O‘zbeklarga xos bo‘lgan to‘y savdosida kelisholmagan ikki ota farzandlarining ko‘ngliga qaramayapti, farzandlar baxtli bo‘lishni o‘ylaydi xolos-ku degan paytimizda Erkin Vohidov asarida ona obrazini shakllantiradi va

faqatgina ona farzandlarini tushunishini, ularni chin dildan baxtli bo‘lishini xohlaydi. Barcha asarlarda bo‘lgani kabi bu yerda ham onaning kuyunchakligi, qalbi tozaligi tasvirlanadi. Ammo Plavt o‘z asarida ona obrazini kiritmagan. Oila tayanchi bo‘lmish ona obrazi “Xumcha” da uchramasligi va bu orqali Evkilonning qizi enagasi Stasfila bilan yaqinligini ko‘rsatadi. Biroq onasi yo‘qligiga qaramasdan otasi bilan ham o‘rtasida masofa borligiga guvoh bo‘lamiz. Sharqda ham ota va qiz o‘rtasida yetarlicha masofa bo‘ladi, ularning orasida ona vositachi bo‘ladi, odatda, ammo e’tiborlisi shundaki, “Oltin devor”da Abdusalom va qizi Dilorom orasida unchalik katta masofa bor deya olmaymiz. Chunki qiz o‘z baxti uchun kurashadi va ichidagilarini otasiga bemalol ayta oladi. Shu bilan birga otasi uchun qayg‘uradi ham. Otasining tilla topib olganidan keyingi holatidan havotirga tushadi. Bu holat nafaqat Abdusalom oilasida, balki Mo‘minning oilasida ham uchraydi. Ya’ni qizlar otalaridan xavotirda bo‘lishi, ularning holatidan iztirobga tushishi bu – umuminsoniy g‘oyalarning ochilishidan dalolat. Qiz uchun tayanch bo‘lgan shaxsota! Bu holat millat tanlamaydi, e’tiqod tanlamaydi.

“Xumcha”da Ekvilonning qachon tilla topib olganligi noma’lum, biroq bunga qizining taqvodorligi sabab bo‘ldi, ma’bud Lar Evkilon qizini oson turmushga berishi uchun shunday qildi. Asarda Evkilon qizi to‘yiga sarpa uchun hech narsa bermagani, qizining hayotidagi voqealarga butkul befarqligi, asar oxirida Likonid bilan qilgan suhbatda ham Likonid Fedra haqida gapirganda , xayolida tillalarni nazarda tutishi, kitobxonni ajablantiradi. Vaholanki, “Tserera” bayramida Fedraning kelajagiga bolta urilgan edi. Balki, Evkilon xumcha topib olishidan avval ham shunday befarq inson bo‘lgandir, lekin xumcha topib olgach butkul hamma narsani unutib, fikr-u xayoli unda bo‘lib qolishi “Ko‘rmaganning ko‘rgani qursin” maqolini yodga soladi. Tabiatan ziqna (uyqusida nafasini chiqarib yubormaslik uchun uxlash oldidan o‘z og‘ziga qop yopadi) va xasis qahramon hayotidagi “tub burilish”dan so‘ng bu xislati ikki chandon oshishiga guvoh bo‘lamiz.

Albatta, moddiy boyliklar inson hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qo‘ymaydi. Xuddi shu holatni Erkin Vohidov ham Plavt singari aniq tasvirlagan.

Moddiy boylikni ikki bosh qahramonga turlicha ta'sir qilishini ko'rsatib bergan. Qahramonlarning tilla topib olishdan avvalgi, keyingi, uni qaytarib bermaslik jinoyat ekanligini bilgan paytdagi holatlari kulguli tasvirlansa-da, (Abdusalomning nafsini jilovlay olmasligi, Mo'minning esdan og'ish darajasiga yetib kelishi)real hayotdagi holatlar sifatida ifoda etilgan. Darhaqiqat, unday holatlar ularing oilasiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi. Erkin Vohidov asarida tilla detali kirib kelishiga hovli o'rtasidagi devolning buzish qarori asos bo'ladi. Shunday mojarolar bo'lmaganda hammasi o'z o'rnida qolaverardi. Ammo "Xumcha" da bunday samimiy muhabbat uchramaydi. Albatta bu davr muhiti bilan bog'liqligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Devordan topilgan oltinlar Dilorom va Nodirbekning muhabbatiga rahna solishiga bir bahya qolgan edi. Saidmalik obrazi asarga kirib kelishi bilanoq Abdusalomning ko'ziga qizining baxtidan ko'ra shaxsiy manfaati ko'rinadi. Agar talqinni o'zgartiradigan bo'lsak, ota shaxsiy manfaat bilan birga qizining baxtini ham o'ylaydi.

Oilaviy munosabat haqida gap ketar ekan, er-xotin munosabatini ham aytib o'tish joiz. O'zbek komediyasidagi Hurinisa yuqorida ona obrazi sifatida e'tiborni tortsa, keyinchalik Mo'minning ayoli sifatida xarakteri chuqurroq ko'rsatiladi. U erining holatini hammadan ham ko'roq tushunadi, achinadi. Oila boshining bunday ahvolga tushganidan dod-voy soladi: "To'y qilmay men o'lay, devor buzmay siz o'ling". Hurinisaning tilidan aytilgan bu gaplardan ko'rinadiki, barchasiga tillalar sababchi. Oilalarning halovati buzilishida ham bo'lg'usi oilaning darz ketishida ham shuni asos qiladi. Erkin Vohidov bular orqali o'sha paytda ham bo'lgan, hozir ham davom etib kelayotgan dabdavozliklarning oqibatini kulgu bilan, hech kimga ozor bermay qog'ozga tushirgan va asarni o'qigan kitobxon kerakli xulosani chiqarishiga ishongan.

Asarlardagi aka-singil munosabatlarini tahlil qiladigan bo'lsak, "Xumcha"da Megador va uning singlisi Evnomiyaning o'zaro suhbati orqali iliq munosabatni ko'rishimiz mumkin. Evnomiya akasini yolg'iz qolishidn qayg'uradi. Xuddi shunday samimiylik "Oltin devor"da ham o'z aksini topadi. Akasi va dugonasining

baxti uchun jon kuydurgan singil obrazi tasvirlangan. Bu umuminsoniy tuyg‘ular barcha xalq uchun birdek mushtaraklik hosil qiladi.

Demak, antik yunon davri adabiyoti va XX asr o‘zbek adabiyoti namunalarida oilaviy munosabat orqali o‘sha davrdagi, jamiyatdagi muammolar ochib berilgan. Yozuvchilar kitobxon xulosasi uchun barcha masalalarning yechimini asar ichida berib o‘tgan. Shuningdek G‘arb va Sharq adabiyotidagi oilaviy munosabatlarning differensial belgilari bilan bir qatorda integral belgilari ham bor ekanligiga guvoh bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Suvon Meli.(2017) So‘zu so‘z “Adabiyot falsafasiga chizgilar”... (to‘plovchi va nashrga tayyorlovchi M.Qo‘chqorova) Sharq, Toshkent. 272-286-bet

2. Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek(1998) Mukammal asarlar to‘plami Yevropa adabiyotidan tarjimalar. Fan,Toshkent . 7-63-bet

3. Vohidov. E Oltin devor

4.Quronov. D (2004) Adabiyotshunoslikka kirish .Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti . Toshkent.107-118-bet

5. Jo‘raqulov. U. Hamroyev. K(2021) Qiyosiy adabiyotshunoslik. O‘quv qo‘llanma. “LESSON PRESS” , Toshkent 36-52; 167-174-bet

CHINGIZ AYTMATOV VA ASQAD MUXTOR ASARLARIDA QADRIYAT MASALASI

Umarova Maftuna Saidmurod qizi,
O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
maftuna.umarova4477@gmail.com

Annotatsiya. *Qadriyat, urf-odat va an’ana degan tushunchalar har bir millatning ildizlari hisoblanadi. Umuminsoniy muammolar ko‘tarilgan har qanday asar zamirida qadriyatlarning beqiyos qiymati haqida so‘z ketadi. Bir millatni yo‘q qilish uchun uni qadriyatlaridan mosuvo qilish yetarli. Ushbu maqolada ikki qardosh millat ijodkorlarining o‘z asarlarida qadriyat degan tushunchaga qanchalik e’tibor qaratganini va ushbu masalaga qay holda yondashganini ko‘rib o‘tamiz. Umuman olganda, muhokamaga tortilgan asarlarning barchasi*

qadriyatlar qadri ustiga qurilgan desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Qaysi tilda yaratilgan bo‘lishidan qat’i nazar, jahondagi har bir xalq adabiyotining eng sara namunalari milliy ruh ifodasi nuqtai nazaridan ilmiy tahlil etilishi zarurdir.

Kalit so‘zlar: *roman, qadriyat, milliy ruh, manqurt, milliylik, urf-odat.*

Abstract. *Values, customs, and traditions are the roots of every nation. At the core of any work where universal problems are raised, there is talk about the incomparable value of values. To destroy a nation, it is enough to destroy its values. In this article, we will consider how much the creators of the two brotherly nations paid attention to the concept of value in their works and how they approached this issue. In general, it is not an exaggeration to say that all the discussed works are based on values. Regardless of the language in which they were created, it is necessary to scientifically analyze the best examples of the literature of every people in the world from the point of view of the expression of the national spirit.*

Keywords: *novel, value, national spirit, culture, nationality, tradition.*

Qadriyat bu voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha tushunchalar: erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, haqiqat, yaxshilik, go‘zallik, mehr-muhabbat, halollik, or-nomus, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Bu tushunchalarning ichida, albatta, Ona Vatanga va o‘z ona tiliga muhabbat eng yuqori o‘rinlarda turadi. Yuqorida ta’kidlganimizdek, o‘z qadriyatlarini yo‘qotgan millat yo‘qlikka mahkum. Shuning uchun, millat deya qayg‘urgan har bir ijodkor o‘z asarlari zamiriga qadriyat tushunchasini singdirib yuboradi. Singdiradiki, bu asarlar unga kim ekanligini, kimning farzandi ekanligini eslatib tursin.

Buyuk qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatov o‘zining “Asrga tatigulik kun” romanida bir qancha umuminsoniy muammolarni ko‘tarib chiqadi. Shulardan eng asosiysi qadriyat masalasidir. Yozuvchi: “Kimning farzandisan, eslab ko‘r! Eslab ko‘r! Oting nima? Otangning oti Do‘nanboy! Do‘nanboy! Do‘nanboy…” deya butun xalqiga yuzlanib kelib qolgan joyidan bir ortga qarashni, o‘z turmush-tarzini,

axloqini taftish etishni, ota-bobolari kim bo‘lganini va qanday yashab o‘tganini yana bir karra shu so‘zlar bilan eslatmoqchi bo‘lgan bo‘lsa ajab emas. Chunki asarda urf-odatlarga tupurib qo‘ygan, ularni ahmoqona eskilik sarqiti, deb o‘ylaydigan, o‘zi nima uchun yashayotganini anglab yetmagan va anglashga harakat ham qilmasdan, kundan kun manqurtlashib ketayotgan odamlar ko‘plab topiladi. Asar bosh qahramoni Edigey bo‘ron haqiqiy e’tiqodi butun, qadriyatlarni e’zozlaydigan, vijdoniga aslo xiyonat qilmaydigan uyg‘oq inson sifatida tasvirlanadi. Umuman olganda, ushbu asardagi qadriyatlarning jonli ramzi Edigey Bo‘ron hisoblanadi. Tabiatan qo‘rs va qiziqqon bo‘lgan Edigey o‘zining qat’iyati bilan doim urf-odatlarning o‘z o‘rnida amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Shoyimardon Edigeyga “O‘lgan odam o‘ldi tepasida turib nima qilasan” , “Hali Sovet ittifoqiga oltmish yil to‘lganda sen janoza o‘qiysanmi” deganda ham, Sobitjon unga ishni ko‘paytirmasdan yaqinroq biror joyga ko‘mib qo‘ya qolish kerakligini aytganda ham, o‘z qat’iyati va azmi bilan ularga marhumning vasiyati naqadar muhim ekanligini tushuntiradi. “ Odamlarga nima bo‘lgan o‘zi! - deya xunob bo‘ldi Edigey. – Ularga o‘limdan boshqa hamma narsa muhim! Modomiki, ularga o‘lim ahamiyatsiz ekan, demak, ular hayotning ham qadr-qimmatiga yetishmaydi. Unday bo‘lsa yashashdan maqsad nima, ular nima uchun yashayaptilar?”

Tug‘ilish bir muhim voqea bo‘lsa, o‘lim undan ham muhimroq alohida bir jarayondir. Marhumni so‘nggi yo‘lga kuzatish, barcha amallarni to‘g‘ri bajarish, kerakli duolarni o‘qish bular hammasi tizimli ravishda amalga oshadi. Bunda odatlarni o‘zboshimchalik bilan buzish yoki mensimaslik nojoiz. Marhumlar uchun qilingan eng kata yaxshilik esa ular haqqiga duo o‘qishdir. “ Qur’on so‘zi – Xudo so‘zi. Ko‘zga ko‘rinmaydigan qodiri yaktogina inson ibtidosi va intihosi o‘rtasidagi, hayot va o‘lim o‘rtasidagi murosasizlikni kelishtira olishi mumkin. Qur’on ham, undagi aynan takrorlanuvchi so‘zlar ham odam behudaga zorlanmasin, o‘ziga tasalli bersin, deb azal-azaldan o‘qib kelinadi. Ammo ming yillar mobaynida oltin yombi singari sayqal topib kelayotgan bu quyma so‘zlar – marhumning jasadi ustida tiriklar tomonidan aytilishi shart bo‘lgan eng so‘nggi

so‘zlar. Udum shu. Traktordagi yosh hamrohlariga qararkan, Edigey Bo‘ron astoydil afsuslandi – birontasi ham Qur’on o‘qishni bilmaydi-ya. Bir-birovini qanday qilib dafn etisharkin? Mavjudotnoing ibtidosi va intihosini o‘zida jam eta oladigan qaysi so‘zlar bilan inson umriga xotima yasasharkin? “Alvido, o‘rtoq seni hamisha yodda tutgaymiz”, deb yo bo‘lmasa, yana qandaydir oldi-qochdi so‘zlarni aytib ketaverisharmikin?”

Aynan shu yerda asl fojiani ko‘rishimiz mumkin. Musulmon farzandi, musulmon bo‘ladi. Mana shu bitta ham sura bilmaydigan insonlarning ota-bobolari musulmon bo‘lgan, balki, Qur’onni yod bilishgandir. Sovet ittifoqi davrida ateizm targ‘ib qilinganini hisobga olsak, bu hol tabiiy va ayanchlidir. Ibn Umar roziyollohu anhudan rivoyat qilinadi:

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “ Bu qalblar xuddi temir zanglaganidek, zanglab qoladi, dedilar. Sahobalar: “Uning zangini ketkazadigan narsa nima?” deb so‘rashdi. U zot: “ Qur’on tilovati”, deb javob berdilar”. (Bayhaqiy rivoyati). Odamzodga nur va najot yo‘li o‘laroq jo‘natilgan ushbu muqaddas kitobimizni o‘qish ham diniy qadriyatdir.

Endi esa Edigey Bo‘ronning Tansiqboyev bilan suhbatiga e’tibor qaratsak:

“ Keksa Edigey yana gapirishga og‘iz juftlaganida sovuqqina ohangda: O‘rtoq begona odam, menga rus tilida murojaat qiling, Men hozir xizmatdaman. Edigey Bo‘ron uyalib ketdi: E-e, uzr, uzr. Xato qilgan bo‘lsam kechir meni,- dedi-yu o‘zini yo‘qotib, gapirmoqchi bo‘lgan gapini ham esdan chiqarib jim qoldi. Yana bundan keyin bilib qo‘yishlaringiz kerak, qabriston tugatilishi lozim ko‘rilgan.

- Menga qara sening otang kim o‘zi?- so‘radi Edigey Bo‘ron leytenant Tansiqboyevga tikilib qaragancha.

- Bunisi nimaga kerak bo‘lib qoldi? Ishingiz nima?

- Ishim shuki, sen bu gapni bizga aytmasdan, mozorimizni buzmoqchi bo‘lganlarga tushuntirishing kerak. Yoki sening ota-bobolaring o‘lmaganmi? Yoki o‘zing hech qachon dunyodan o‘tmaysanmi?”

Edigey Bo‘ronning isyoni asosli edi. Odam qachon o‘zligini yo‘qotadi, qachon qadriyatlariga begonalasha boshlaydi, qachonki o‘z ona tilida gapirishdan

or qilishni boshlaganda. Qabriston bu har bir insonning so‘nggi borar manzili. Insonlar kun kelib kindik qoni to‘kilgan makonning bir parcha joyiga qo‘yilishini, shu zamin tuproqlariga singib ketishini bilib xotirjam yashaydi. Ona Bayitday muqaddas qabristonning buzilishi esa barcha qadriyatlarning yanchib o‘tilishidir. Shuning uchun ham Edigey Bo‘ron oxirgi nafasigacha bu qabriston buzilmasligi uchun kurashishga ont ichadi.

Asqad Muxtorning “Chinor” romanida qadriyatlar ramzi o‘laroq ming yillik chinor tasvirlangan. Ildizlari yer ostining eng chuqur qismiga borib taqalgan, ming yildan buyon yashash uchun kurashayotgan chinor ming yillik qadriyatlar timsolidir. Umrini yashab bo‘lgan, endi yonib ketadi, deya kutilgan chinor yonmaydi va tilga kirib shunday deydi:“ Men yonib ketsam, oxir zamon bo‘ladi!”

Darhaqiqat, milliy qadriyatlarimizsiz, urf-odat, an’analarimizsiz, milliy orzu-umidlarsiz, or-nomus, vijdon degan tushunchalarsiz biz qancha ham yashay olardik?! Yashay olarmidik? Albatta, yo‘q. Shuning uchun ham bizga Edigey Bo‘ronlar, Ochil bobolar kerak bo‘ladi. To‘qson to‘rt yoshli Ochil bobo har yili qarindoshlarini ziyorat etib ularga to‘g‘ri yo‘l va hayot saboqlarini berib o‘tadi. Bir o‘rinda Ochil boboning:“ Mehr-muhabbatsiz oila oila bo‘ladimi? Biz eski odamlar-ku ko‘pincha nodonligimizga borib, allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan shunday oilalarni tish-tirnog‘imiz bilan himoya qilamiz. U bechoralar ham bizni deb, ko‘nikishga urinishadi. Aslida esa bu sovuq osh ichgandek gap…Bunday oilalar oz deysanmi? Yaxshi qonuningda hamma narsa bor ekan, hech narsani ko‘zdan qochirmabdi, ko‘ngil-chi? Ko‘ngil haqida biron gap bormi unda?” Hayotda muhabbat, oila, turmush degan nozik tushunchalar ham borki, ularni tamoman qoliplarga solib bo‘lmaydi. Ochil bobo ham oila degan muqaddas qo‘rg‘onning muhabbat ila barpo etilishi darkorligini ta’kidlab o‘tmoqda.

Asqad Muxtorning “Ildizlar” nomli qissasida ham zamonaviylashib ketgan va milliy qadriyalarimizga ko‘z uchida qaraydigan, yevropacha fikrlaydigan yana bir manqurt obrazini ko‘ramiz. Odatiy kunlarda kimning qanday ekanligini bilomaysan deb, to‘g‘ri aytishgan. Qahramonlariniz ham turmush qurish arafasida bo‘lishadi. Ammo Maratning onasi hastalangani uchun, ikkalasi birga uy tomon

otlanishadi. Nomus masalasiga ko‘z uchida qaragan, onasi o‘lim to‘shagida ekanligini ko‘rib turib sabrsizlanib ish haqida o‘ylagan, qachon shu ish bir yoqli bo‘larkan deb soatiga qaragan, onasining so‘nggi vasiyatini bajarish haqida o‘ylab ham ko‘rmagan(otasining yoniga qo‘yish), bo‘lajak kelinga oilaviy yodgorlik deb qoldirilgan zebigardonni teatrga berib yuborgan yevropacha qahramon qallig‘ining e’tiboridan tushadi.

“ – Yaxshi ko‘rish…Marat aka, bu ham juda eski gap-ku. Eskilik axir. Kelajak emas, har qalay, sizning… kelajagingiz emas. Men buni payqadim.

Marat shafqatsiz kinoyani angladi.

- Kelajak, kelajak deb kinoya qilasiz…Bu ayb emas-ku axir. Daraxt ham oftobga intiladi, odam esa – kelajakka.

- Daraxtlarning ildizlari ona zaminda. Bo‘lmasa intilolmasdi”…

Qiz bugun o‘z onasini qadrlamagan, na marhumaning so‘nggi tilagiga, na yodgorliklarga hurmati bo'lgan, nima uchun yashayotganini bilmagan shaxs bilan o‘z taqdirini bog‘lashdan voz kechadi.

“Siz... o‘sha-o‘shasiz, Marat aka, deb anchadan keyin o‘ychan so‘z boshladi Muhsina. - Bilmadim, nima o‘zgardi...Bilasizmi, men ko‘p o‘yladim, hayotimizning qandaydir axloqiy sarchashmalari, ota-bobolarning ruhiy udumlari bor. Ularni oyoq osti qilgan odam samimiy bo‘lolmaydi. O‘sha kuni siz ko‘rgan kitobda bir jazo usuli tasvirlanadi. O‘sha jazodan keyin odam xotirasini tamom yo‘qotib, el-yurtini ham, yerini ham, nasl-nasabini, hatto onasini ham unutar, tanimay qolar ekan. Manqurt der ekanlar shundaylarni... Manqurt bo‘lgim kelmaydi... ”

Yuqoridagi barcha asarlarning tagzamirida qadriyat, urf-odat, milliy o‘zlik degan tushunchlar yotibdi. Mohiyatan umuminsoniyatga yaqin bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Milliylikdan xoli tuyg‘uning ta’sir kuchi bo‘lmaganidek, milliy ruhdan mosuvo tafakkur ham qanotsiz qushga mengzaydi. O‘zini, o‘zligini, o‘tmishini, ota-bobolari kim bo‘lganini unutib qo‘ygan jamiyat borgan sari zalolatga yuz tutadi. Bugun o‘z ona tilini, o‘z madaniyatini unutganlar, boshqalarga havas qilganlar, hayotni yengil-

yelpi qabul qilganlar ertaga hayotidan ma’no-mazmun topa olmay qiynaladi. Xulosa qilib aytganda, din-u diyonatimiz, urf-odatlarimiz, marosimlarimiz, tariximiz, ota-bobolarimiz va ular e’zozlagan qadriyatlarimiz millatni bir va bor qiladigan omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. (2002). “Milliy uyg‘onish: jasorat, ma’rifat, fidoiylik” (65-bet). Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

2.Nurboy Jabborov. (2020). “O‘tkan kunlar”da milliy ruh ifodasi. Uzbek State World Languages University. Philology Matters/ ISSN: 1994-4233.

3. Asqad Muxtor. (2019). Chinor. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.

4. Chingiz Aytmatov. (1989). Asrga tatigulik kun. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.

5. Asqad Muxtor. (1984). Ildizlar. Toshkent: Yosh gvardiya nashriyoti.

“ASRNI QARITGAN KUN VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARLARIDA SARLAVHA VA MUQADDIMA BADIIYATI

Xayitova Shahlo,
ToshDO‘TAU O‘FF 2-kurs talabasi
Kxayitovashahlo@gmail.com

Annotatsiya*:* *Maqolada buyuk yozuvchi Chingiz Aytmatovning “Asrni qaritgan kun” va O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarlari tahlilga tortilgan. Mazkur asarlardagi sarlavha va ilk jumla ko‘rib chiqilgan. Ilk jumla va muqaddimaning ahamiyati mazkur asarlar orqali o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ilk jumla, sarlavha, syujet, kulminatsiya, yechim, muqaddima.*

Abstract*: In this article, the works of the great writer Chingiz Aitmetov "The Day that Aged the Age" and O‘tkir Hashimov's "Life in a Dream" are analyzed. The title and the first sentence of these works were considered. The importance of the first sentence and the title in the works of art is studied through these works.*

Keywords: *First sentence, title, plot, climax, solution, introduction.*

Kitob tanlar ekanmiz, beixtiyor ko‘zlarimiz birinchi bo‘lib sarlavhaga tushadi. Kitobni olish olmasligimizni ham sarlavhaga qarab belgilaymiz. U kitob mazmuni va mohiyati haqida qaysidir darajada bizga ma’lumot beradi. Ijodkor sarlavha

tanlar ekan, asar g‘oyasidan kelib chiqib yondashishi yoki sarlavhadan butun boshli asar tug‘ilishi mumkin. Bu ijodkor individuali bilan bog‘liq hodisa. “Yozuvchi matn mazmunini ma’lum bir so‘z yoxud jumlaga jo qilar ekan, badiiy asar mohiyatini sarlavhaga yashiradi” (Komiljon Hamroyev “Hikoya kompozitsiyasi” 2020). Ya’ni sarlavha asar g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan dastlabki unsur. U bir yoki bir nechtadan o‘n-o‘n besh so‘zgacha davom etishi mumkin. Qisqa yoki uzun sarlavha orqali butun boshli asar haqida xabar berish, asar badiiy g‘oyasini o‘zida mujassamlashtirgan sarlavha tanlash ijodkor mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Yoki muallif sarlavhani o‘z poetik maqsadiga ko‘ra tanlashi ham mumkin.

Kitob tanlash sarlavhaga bog‘liq bo‘ladigan bo‘lsa, uning o‘qishliligini ilk jumla belgilab beradi. Biz asarning birinchi satrlarini o‘qib, mutolaaga sho‘ng‘ib ketishimiz yoki kitobni tashlab qo‘yishimiz ham mumkin. Ilk taassurot aldamchi bo‘lmaganidek, ilk jumla ham ijodkor uchun muhim. U ilk satrlarni qoralar ekan, qolgani ham o‘z-o‘zidan quyilib kelaveradi. Ilk jumlalar esa o‘ziga xos ritmiklik hosil qilib, asar oxirigacha uni boshqarib turadi. “Muvaffaqqiyatli topilgan birinchi jumla butun asarning ohangi va ritmidagina emas, ayni paytda uning g‘oyaviy yo‘nalishi hamda kompozitsion yaxlitligini ta’minlab beradi” (Komiljon Hamroyev “Hikoya kompozitsiyasi” 2020). Ya’ni ilk jumlalarda ochilgan g‘oya asar so‘ngigacha davom ettiriladi. “Eng qiyini boshlash” deganlaridek, mohirlik bilan topilgan ilk jumlalar asar taqdirini belgilaydi desa ham bo‘ladi. Zero “Birinchi jumla yozuvchi ruhiyatidagi g‘alayonlarni yozib chiqqan ilk tuyg‘udir” (Komiljon Hamroyev “Hikoya kompozitsiyasi 2020).

Men buni “Asrni qaritgan kun” va”Tushda kechgan umrlar” romanlari misolida ko‘rib chiqmoqchiman. “Asrni qaritgan kun”. Muallif tomonidan bejizga bunday sarlavha tanlanmagan. Asar g‘oyasi va mohiyati bir kun – asrni qaritgan kun bilan aloqador. Asarda barcha voqealar bir kunda: Kazangap vafot etgan kunda bo‘lib o‘tadi. Mayitni uyidan Ona bayt qabristoniga dafn etish uchun eltishadi. Matnda hodisalar vertikal Edigey va uning xotiralarida, gorizontal yerdan boshqa sayyorada hayot alomatlarini topishgan kosmanavtlar bilan kechadi.

Sarlavhani o‘qishingiz bilan asrni qaritgan kundan xabar topsangiz, kitobni o‘qib nima uchun asrni qaritganligini anglab yetasiz. Bu o‘rinda sarlavha bevosita syujet va ijodkor g‘oyasi bilan aloqador. “Tushda kechgan umrlar”da esa bamisoli hayotni tushda kechirgan insonlar qalamga olinadi. Asardagi taqdirlar o‘z erki bilan yashasa-da, chin hayotda yashashmaydi. Asar qahramonlaridan biri aytganidek, ular uchun fikrlashga ham imkon yo‘q. Ular uyg‘oq, lekin mudrab tush ko‘rayotgandek taassurot qoldiradi. Bu romanda ham syujet liniyasi qisqa. Voqealar Rustamning o‘limi bilan boshlanib, tergov jarayoni bilan davom etadi. “Asrni qaritgan kun”da personajlar xarakteri va yechim Edigey xotiralarida ochilib borsa, “Tushda kechgan umrlar”da bu vazifani Rustamning kundaliklari va tergov hujjatlari ochib beradi. Bir qarashda kundalik va tergov hujjatlaridan lavhalar qorishiq kelayotgandek tuyulsa ham, kitobxon o‘qish jarayonida chalkashlikka tushmaydi. Muallif voqealarni bir ip tizginida tutib tura oladi. Bu jihat ham ijodkor mahoratidan deya bemalol ayta olamiz. Bu mushtaraklik “Asrni qaritgan kun”da ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Voqealarda kosmo-dramdagi jarayonlar va o‘tmish xayollari ketma-ketlikda keladi. “Tushda kechgan umrlar”da syujet bir necha oyda, “Asrni qaritgan kun”da esa bir kun davom etadi. Har ikkala asar sarlavhasida ham matn bilan bog‘liklik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Birinchisida tushda kechgan umrlar tilga olinsa, ikkinchisida asrni qaritgan kun hikoya qilinadi.

Yuqorida aytib o‘tganimdek, ilk jumla asar o‘qishliligini ta’minlovchi dastlabki vosita. U yozuvchining tuyg‘u bulutlaridan yog‘gan ilk tomchidir. Endi “Tushda kechgan umrlar”ga murojaat qilamiz: “...Kuz o‘lim to‘shagida yotgan bemorga o‘xshaydi. Oyoq ostida kasalmand barglar ingraydi...” (O‘tkir Hoshimov “Tushda kechgan umrlar) Chiroyli o‘xshatish va e’tiborni tortuvchi satrlardagi kuz fasliga xos kayfiyat butun matnda hukmronlik qiladi. O‘quvchi diqqatini jalb qilishi bilan birgalikda asarga o‘zgacha kayfiyat baxsh etib turadi. Nega yozuvchi aynan kuz faslini olyapti? Bu yerda savolning o‘zidan ham javobni topishimiz mumkin. Chunki kuz kayfiyati bilan butun asar kayfiyati bir-biriga mos keladi. Kuzda oyoq ostida umri xazon bo‘lgan barglar ingraydi. Asarda ham o‘zbek ishi, paxta ishi tufayli umri bevaqt xazon bo‘lgan insonlar taqdiri hikoya qilinadi. Bizni

davr kayfiyati bilan ham tanishtiradi. Kitob yakuni Qurbonoy xola va kuz peyzaji bilan tugallanadi. Bu holatni biz “Asrni qaritgan kun”da ham ko‘rishimiz mumkin: “...Bu o‘lkada poyezdlar mashriqdan mag‘ribga tomon paydar-pay qatnab turadi... Temiryo‘lning ikkala tomonida yovshanzor bilan qoplangan hayhotday dashtlik – Sario‘zak, o‘rtacho‘l yastanib yotadi...” (Chingiz Aytmatov “Asrga tatigulik kun) Bu jumlalar birinchi bobning tulki haqidagi tasvirlardan keyin voqealarga kirish qism bo‘lib xizmat qiladi va butun ritmikligini ta’minlab beradi. Asar so‘ngida ham ushbu satrlar kitobni tugallaydi.

Ikki romanning ham muqaddimasi o‘ziga xos mushtaraklik kasb etadi. Bu o‘xshashlik kompozitsiyada yana-da ko‘zga tashlanadi. “Tushda kechgan umrlar” ham o‘lim bilan boshlanib, o‘lim bilan yakun topadi. Odatdagi asarlardan farqli ravishda ikkala romanda ham tragizm avval bo‘y ko‘rsatadi. Syujet kulminatsiya bilan boshlanib, keyin asta-sekinlik bilan yechimga o‘tiladi.

“Tushda kechgan umrlar”ni oladigan bo‘lsak, voqealar rivojini Rustamning o‘limi boshlab beradi. Uning hayoti va vafoti tafsilotlari keyingi qismlarda davom etadi. Qotillik sababi esa asar so‘ngigacha ochilmaydi. Shunday holatni “Asrni qaritgan kun”da ham ko‘ramiz. Bu yerda ham “Tushda kechgan umrlar” kabi sujetni o‘lim boshlab beradi. Barcha unsurlar o‘lim atrofida birlashadi. Asosiy voqealar bir kunda bo‘lib o‘tadi. Lekin mahoratli adib qisqa sujetga asrlarni joylaydi. Boshlangan nuqtaga kelib, roman tugallanadi, garchi bu ikki asarlar mualliflari boshqa-boshqa bo‘lsa ham. Biz ko‘rib o‘tgan o‘xshashliklar ularni ma’lum darajada yaqinlashtiradi. Ammo ular o‘rtasida farq ham yo‘q emas. Ular ikki mustaqil asar sifatida boshqa-boshqa tafakkur mahsullaridir.

Shulardan xulosa qiladigan bo‘lsak, har ikki kitobda ham sarlavha va muqaddima alohida o‘rin egallaydi. Sarlavha bilan matn o‘rtasidagi bog‘liklik ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Sarlavha asar mazmunini ochishda bevosita yordam beradi. Ularda muallif nuqtai nazarini mujassamlashtiradi. Asarlardagi ilk jumlalarning jarangi yakungacha eshitilib turadi. Ular asar ma’no qatlamlarini ochishga ko‘maklashadi. Muqaddima bilan ilk jumla bu ikki romanda sezilarli mavqe egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chingiz Aytmatov (2018) “Asrga tatigulik kun” Toshkent
2. O‘tkir Hoshimov (2002) “Tushda kechgan umrlar” Toshkent
3. Komiljon Hamroyev (2020) “Hikoya kompozitsiyasi”

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTI VA JAHON ADABIYOTIDA RAMZ MASALASI

Samandar Yusupov Shokirjon o‘g‘li
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 4-kurs
Samandaryusupov686@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ramziy obrazlarning o‘zbek va jahon adabiyotidagi mohiyati, ularning qo‘llanishidagi mushtaraklik va ziddiyatlar, sharq va g‘arb adabiyotida ramzga munosabatdagi farqlar ko‘plab misollar orqali tahlil va tadqiq qilinadi. Maqolada Cho‘lpon, Oybek, Ulug‘bek Hamdam, Alber Kamyu, Paulo Koelo, Usmon Azim kabi bir qator ijodkorlar asarlarida qo‘llangan gullar: binafsha, gunafsha na’matak; jonzotlardan: it, kalamush, g‘oz kabilarning ramziy mohiyati tushuntirishga harakat qilinadi. Maqolaning xulosasi sifatida o‘zbek va jahon adabiyotida ramzning qanday o‘rinlarda va qanday maqsadlarda ishlatilishi haqida o‘z fikr-mulohazalarimiz bayon qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: Simvol, kalamush, kontekst, kamon, gunafsha, g‘oz, reallik.*

Abstract. *This article analyzes the importance of symbolic images in Uzbek and world literature, the commonalities and contradictions in their use, and the differences in the relationship between symbols in Eastern and Western literature through many examples. The article includes flowers and animals such as dogs, rats, geese, etc. used in the works of Chulpon, Oybek, Ulugbek Hamdam, Albert Camus, Paulo Coelho, Usmon Azim. As a conclusion of the article, we present our views on the place and purpose of the symbol in Uzbek and world literature.*

Keywords*: symbol, rat, context, bow, violet, geese, reality.*

Badiiy adabiyotda yozuvchi yoki shoirning mahoratini o‘lchaydigan muhim jihatlardan biri o‘zining badiiy-estetik nuqtayi nazardan yuksak namunadagi asarida ramziy tushunchalar va obrazlar silsilasi va zanjiridan ustalik bilan foydalanish hisoblanadi. Ramz haqida to‘xtalar ekanmiz , nisbatan allegoriyaga

yaqin turadigan va yana simvol nomi bilan ham yuritiladigan bu tushuncha haqida Dilmurod Quronov fikr bildirar ekan uning allegoriyadan asosiy farqi va mohiyati ramzning kontekstda ham o‘z ma’noda, ham ko‘chma ma’noda kela olishi ekanligini ta’kidlaydi va Cho‘lponning bir she’ridagi keltirilgan “Singan nay” ramziy obrazi orqali mohiyatni ochishga harakat qiladi. Bu ramziy obraz faqat matn ichidagina “yo‘qotilgan hislar, armonga aylangan orzular” ma’nosida kelayotganini aytadi (9:143) Bugungi tadqiqotimizda esa aynan milliy uyg‘onish davri va buning ruhiyatidan oziqlangan holatda vujudga kelgan yangi o‘zbek adabiyotidagi ba’zi ramziy obrazlar va buning jahon adabiyotida qo‘llanilgan ramzlar bilan mushtarakligi haqida mulohaza bildiriladi. Ya’ni kuzatuvlarimiz natijasi o‘laroq, ko‘plab badiiy obrazlar ham o‘zbek, ham jahon adabiyotida kelishi va bir-biridan bir muncha farq qilinishi aniqlandi.

Jadid adabiyotida alohida o‘ringa ega bo‘lgan Cho‘lponning ijodini ramziy obrazlarsiz tasavvur qilish qiyin. Deyarli har bir she’rida ramzlardan foydaladi. Xususan, “Go‘zal” she’ridagi tabiat hodisalari bilan bog‘liq tushunchalarni olamizmi yoki “Qalandar ishqi” she’ridagi qalandar obrazini olaylikmi bularning bari kontekstda simvolik tushunchani ifodalaydi. Xususan, “Binafsha” she’ridagi binafsha guli she’rda ozodlik, hurriyat, erk va mustaqillik ramzi sanaladi va shoirning nazdida bunga yetishish oson emas, va u yovlarning qo‘lida barbod bo‘lmoqda. Shoir aynan “Binafsha, senmisan, Binafsha senmi. Ko‘chada aqchaga sotilgan” misralari orqali yurtfurushlar qo‘lida dushmanlarga sotilgan erk, ozodlikning ma’naviy bir qiyofasini ifodalab bermoqda. Umuman, o‘simliklarga badiiy-estetik vazifa yuklash adabiyotimizda nihoyatda ko‘p uchraydi. Shu bilan birgalikda bu o‘rinda Oybekning “Na’matak” she’rini ham ko‘zdan qochirmasligimiz darkor . Ushbu she’rda ham na’matak o‘z ma’nosidan tashqari shoirning tafakkur mahsuli sifatida ko‘chma ma’noni ham ifodalab kelmoqda. Unda muallif yashirin holatda bo‘lsa-da, ozodlik, erk ramzlarini yuksaklikdagi bu buta orqali tasvir etmoqda . Oybek o‘z orzu-armonlarini aynan mana shu na’matak orqali tasvir etgan bo‘lsa, ajab emas. Mustaqillikdan keyin yaratilgan va ko‘pchilik tomonidan mini-roman deb atalayotgan Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub “

Na’matak” romanida esa bu obraz inson umri sifatida kelib, uning gullashi inson yoshligi, meva tugishi kamolotga yetgan davri va nihoyat qurishi esa keksalikka qiyos etiladi va uch avlod mana shu na’matak orqali tavsif etiladi. Jahon bolalar adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan biri sanalgan Janni Rodari ijodida ham gul bilan bog‘liq ramziy obrazlar uchraydi. Jumladan, “Qutbdagi gunafsha” hikoyasidagi bu gul badiiy maqsadda ishlatiladi, ya’ni aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, erk, qudrat va iroda ramzi sifatida kelib, avvallari hech bir gul o‘smagan diyorda birinchi bo‘lib, hech hayiqmasdan buni boshlab berayotgan gul, albatta, sabr-u matonat, iroda tushunchalarining badiiy shakli holida kelgan desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Yuqorida tilga olgan binafsha va gunafsha har ikkisi ajib holatda bir-biriga mushtarak ohangda yaqin ramziy tushunchalarni ifodalab kelmoqda. Kamon, o‘q-yoy va nishon ham kuzatuvlarimiz hosilasida ham o‘zbek, ham jahon adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lib, ramziy istiloh sifatida kelishini kuzatdik. Masalan, Abdulla Oripov she’riyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, “Iqtibos” (7: 66)she’ridagi misralarda quyidagicha ifoda etiladi:

Nogoh entikdi-yu, egildi kamon,
O‘q uchdi bilgisiz yoqlarga tomon.
Keksa otasining qaddin dol etib,
Ketib borar edi farzand shu zamon.

Ushbu misralardagi kamon va o‘q tushunchalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, u ham hayot, inson qismati va taqdirni ifoda etayotir, bundan tashqari aynan ota va farzand munosabati, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, kamon ota hisoblansa, farzand ana shu o‘q ekanligi, o‘z navbatida kamon otilgan o‘q uzoqlarga uchib, kamondan uzoqlab ketgani kabi farzand ham voyaga yetgandan keyin otasi bilan emas hayot tashvishlari, ayoli, farzandlari bilan qolishi haqida mulohaza qilinadi. Mumtoz adabiyotda, asosan, yorning ko‘z-u qoshi aynan kamon va o‘q bilan ifoda etilgan bo‘lsa, zamona ruhiyati bilan bu tushunchalarning ifoda etish mohiyatlari, ramziy istiloh sifatida qo‘llanilishi kengaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, endilikda uning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy mohiyati yanada taraqqiy etdi. Bugungi jahon adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri, “Alkimyogar” romani bilan mashhur

bo‘lgan Paulo Koelo ham o‘zining “Kamon yo‘li” nomli asarini yozgan. Ushbu asarning bosh qahramoni sanalgan Tetsuya aynan kamonboz bo‘lib, mohirlikda tengi yo‘q, lekin buni oshkor qilishni xohlamasa-da, taqdiri azalning yozug‘i bilan buni asardagi bolaga aytishga, uni kamonni qanday ishlatish, undan foydalanish sirlarini o‘rgatishga majbur bo‘ladi. Darhaqiqat. kamon, nishon va o‘q tushunchalari ham asarda ramziy mohiyatga ega sanaladi. Ayni bu joyda kamon hayot sanalsa, o‘qlar bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadlarimiz, nishon ana shu maqsadlarimiz yetadigan joy sanaladi. Kamon otishni o‘rgatuvchi kamonboz esa, muallifning o‘zi ta’kidlaganidek, ko‘pchilik Xudo deb ataydigan, ba’zilar “narsa” , boshqalar bo‘lsa “iqtidor” deb hisoblaydigan bizni doimiy kuzatib turadigandir (6: 149) . Umuman olgan butun bir asarda mana shu uchlikdan iborat ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, muallif aynan bu tushunchalarga o‘zining bor g‘oyasini ko‘chirishga harakat qiladi. Va shu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash lozimki, Paulo Koeloning bu ramziy tushunchalarni qo‘llashidan maqsadi zamonaviy jamiyatning komil inson obrazini ifodalab berish hisoblanadi. Aynan asarning ko‘p nuqtalarida Tetsuyaning tilidan bu ko‘p bora aytiladi, xususan, kamonbozlikni shuhratparastlikka aylantirmaslik, kamonbozda ham aql, ham qalb birligi bo‘lgandagina o‘qni mo‘ljalga ura olishi mumkinligi aytiladi. Shu nuqtada bir narsani ta’kidlab o‘tishni joiz deb topamiz: Muallif XXI asrda aytgan komillik, uning mohiyati, har bir komillikka erishishga harakat qilayotgan insonning ustozi sanalmish Alloh taoloning qudrati, va umuman kamolot haqidagi qarashlar sharqda bundan 7 yoxud 5 asr oldin Rumiy, Navoiylar tomonidan to‘laqonli ravishda tahlil, tadqiq qilingan va asarlardagi timsollar, ramzlar vositasida tushuntirib berilgan. Alber Kamyuning “Vabo” romanini oladigan bo‘lsak, ushbu asarda keltirilgan kalamushlar ham ramziy mohiyatga ega. Aynan asarni diqqat qilib o‘qir ekanmiz vabo bu mana shu davrda Yevropada urchigan natsizm va fashizmning ko‘rinishi sanalsa, kalamushlar esa fashist va natsistlarning qiyofasini aks ettiradi. O‘zbek adabiyotida o‘zining o‘rniga ega bo‘lgan Tohir Malik ham o‘zining bir hikoyasini “Tilla kalamush” deya nomlaydi. Shaklan kichik bo‘lgan ushbu hikoyada kalamush zamonda urchiga korrupsiya, boyliklarni talon-taroj qilayotgan

amaldor va xalq vakillarining ramziy obrazi sifatida keladi. Yoxud Anvar Obidjonning bolalarga bag‘ishlab yaratilgan she’rlaridan birida ham kalamush obraziga ko‘zimiz tushadi:

Kalamushvoy, *Yoz desalar*
Kalamush, *“Temir” deb,*
Savoding sal *Sen yozibsan*
Chalamish. *“Kemir” deb.*

Qisqa, ammo mazmundor bo‘lgan ushbu she’rdan bolalar ham, kattalar ham tegishli ma’no chiqarib oladilar. Shoir kalamush ustidan (aniqrog‘i kalamushsifat kishilar ustidan) samimiy kulayotgandek ko‘rinadi. Shoir chalasavod o‘quvchilarni qoralayotgandek ko‘rinadi (13). Darhaqiqat, mazkur joyda kalamush dangasalik qilib, savodi chala bo‘lib qolgan insonlar ramzi sifatida kelmoqda. Umuman olganda bundan xulosa sifatida shuni ko‘rsatishimiz mumkinki, jahon adabiyotida ko‘proq kalamush real qiyofasi o‘laroq, vabo tarqatuvchilik obrazini ifoda etsa, o‘zbek adabiyotida xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq holatda ko‘pincha ochko‘zlik, chalasavodlik ramzlari sifatida keladi, ya’ni jahon adabiyotida uning biologik va moddiy tomoniga urg‘u bergan holatda ramzga aylantirilsa, o‘zbek adabiyotida uning ma’naviy qiyofasi asosida simvolik ma’no kasb etadi.

Barcha davrlarda ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotmay deyarli barcha asarlarda ramziy ma’no tashishga xizmat qiladigan it obrazini olaylik. Avvalo, islomdan keyingi o‘zbek adabiyotida uning tub ildizi Qur’oni Karimga, aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, “Kahf” surasidagi as’hobi kahfga, g‘or egalari bilan hamroh bo‘lgan itga borib taqaladi. Mumtoz adabiyotda juda ko‘p o‘rinlarda ijodkorning badiiy-estetik maqsadlarida detal sifatida foydalanilgan va ko‘pincha nafs timsoli bo‘lib kelgan bo‘lsa, mustaqillik davrida bu yanada keng ma’no-mazmun kasb etdi. Said Ahmadning “Qorako‘z Majnun” hikoyasida ana endi itning qadri o‘z onasidan, Vatanidan, dinidan kechgan Bo‘rixonga qarama-qarshi qo‘yilib, hatto mana shu it ham o‘z egasiga vafodor qolganini ifodalaydi va muallif shu joyda muqaddas kitoblarimizga murojaat qilib, shuni asos qilib oladi. Jahon adabiyotida ham bu kabi tushunchalar ko‘p bo‘lsa-da, biz Dino Butsattining

“Avliyoning iti” asaridagi rohib Silvestroning itining ramziy mohiyati bilani cheklanamiz. Bu yerda esa it shahardagi barcha insonlarning o‘zi ham qo‘rqadigan vijdoni, or-nomusi, yomonliklardan to‘sib turguvchi pardasi sifatida qo‘llanmoqda. Darhaqiqat, bu borada ham har ikki adabiy muhit doirasida it ana shu vijdon, mehr-oqibat, vafodorlik tarzida talqin etilmoqda. Yoki g‘ozni oladigan bo‘lsak, Usmon Azim qalamiga mansub “Tong otgan taraflarda” dramasida bu timsol yigit uchun bir marta yo‘qotilsa, topib bo‘lmaydigan, nihoyatda kamyob sanalgan or-nomus, iymon-e’tiqod ramzi bo‘lib kelmoqda. Jahon adabiyotida bo‘lsa, bu xalq og‘zaki ijodi bilan hamohang ravishda ayniqsa Aka-uka Grimmlar ijodida, xususan, “Tilla g‘oz” ertagida boylik ramzi sifatida talqin etiladi. Kichik tadqiqotimizning xulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘zbek adabiyotida shoirning mahorati bilan ko‘plab ramziy tushunchalar she’riyatda jilvalanadi. Bundan farqli o‘laroq, jahon adabiyotida simvolik tushunchalar, asosan, prozada namoyon bo‘layotganini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Ahmad. (2001) Qorako‘z Majnun. O‘zbekiston. -T.: -b 240
2. Ahmedov S va boshqalar. (2017) 6-sinf adabiyot// I qism, Ma’naviyat. -T.: -b 160
3. U. Azim Tong otgan taraflarda https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/usmon-azim-tong-otgan-taraflarda-dramatik-doston.html
4. U. Hamdam. Na’matak. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ulugbek-hamdam-namatak-mini-roman.html
5. A. Kamyu. (2020) Begona, Vabo. Yangi asr avlodi. -T.: -b 464
6. P. Koelo. (2022) Kamon yo‘li. Factor books. –T.: -b160
7. T. Malik. Tilla kalamush. https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/tohir-malik-1946/tohir-malik-tilla-kalamush-hajviya
8. Oripov A. (2003) Shoir yuragi. Ma’naviyat. -T.: -b 112
9. Oybek. (1975) Mukammal asarlar to‘plami// I tom Fan, -T.: -b476
10. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. ziyouz.com kutubxonasi -b 242
11. Cho‘lpon. (2007) Buloqlar quchog‘ida. Cho‘lpon. –T.: -b 48
12. G‘ofurov I. (2021) Ayyub nidosi. Yangi asr avlodi . –T.: -b512
13. https://saviya.uz/ijod/adabiyotshunoslik/magzi-toq-sherlar/

IV BOB

ZAMONAVIY ADABIY JARAYON (NASR)

ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA GERMENEVTIKA
(ULUG‘BEK HAMDAMNING “MUVOZANAT” ROMANI ASOSIDA)

Abdullayeva Nilufar Shaymardon qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiya fakulteti, 3-kurs
nilufarabdullayeva217@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada dunyo adabiyotshunoslari nasriy asarlarni teran anglash maqsadida foydalanadigan germenevtik metod to‘g‘risidagi ma’lumotlar, hamda zamonaviy o‘zbek nasrining yorqin namoyondalaridan biri Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” romani germenevtik metod asosida o‘rganilgan. Bu metod orqali asarlarni o‘rganish izlanuvchi uchun adabiyotdagi ko‘p yangiliklar bilan tanishish, ko‘p kitob mutolaasida bo‘lishni talab qiladi. Chunki izlanuvchi o‘qish jarayonida har bir asar detali, kompozitsiyasi, syujeti va personajlar xatti-harakati yana qaysi asarlarda kuzatilishiga e’tiborli bo‘ladi. Hamda bu o‘xshashliklar qanday vazifa o‘tashi, nimaga xizmat qilishi to‘g‘risida o‘zining talqinini bayon qiladi. Maqolada muvozanat istilohi, Muhammadjon aka, Yusuf, Said, Mirazim, Amir kabi personajlarning romandagi botiniy va zohiriy ma’nolari xususida so‘z yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *germenevtika, germenevtik metod, talqin, personaj, detal, syujet, kompozitsiya.*

Abstract. *In this article, the information about the hermeneutic metod used by world literary scholars in order to deeply understand prose works, as well as the novel “Balance” by Ulugbek Hamdam, on of the bright manifestations of modern Uzbek prose, is studied based on the hermeneutic method. Studying various works through this method researcher to get acquainted with many novelties in literature, to read many books. Because in the process of reading, the reader pays attention to the details, compotion, plot and behavior of the characters in other works. At the same time, he describes his interpretation of what these similarities are and what they serve. The article also talks about the consept of balance, inner and outer meanings of characters shuch as Muhammadjon, Yusuf, Said, Mirazim, Amir in the novel.*

Keywords: *hermeneutics, hermeneutic method, interpretation, character, detail, plot, composition.*

Dunyo adabiyotshunosligida germenivtikani adabiy talqin ta'limoti, talqin nazariyasi hamda adabiy matnlarni o'rganish metodi sifatida adabiy tanqidchilik va adabiyotshunoslik uchun metodologik asos qilib olishga urinishlar kuchli. G'arbda matn talqini nazariyasi va amaliyoti hamda zamonaviy falsafadagi oqimlardan biri ma'nosida izohlanadi. (B.Karim, 2021, 181-bet). "Germenevtika'' grekcha "hermeneukos'' so'zidan olingan bo'lib, ''tushuntiruvchi'', ''talqin etuvchi'' kabi ma'nolarni anglatadi. (Борев Ю. 1988, 430-бет). Bu metod uchun tahlil qilinayotgan asarning bir yoqlama tahliligina emas, balki, keng ko'lamdagi ma'nolar mushtarakligi, ma'lum bir syujet yana qaysi asarda takrorlanishini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat'' romanida ham botiniy va zohiriy ma'nolarni uchratish mumkin. Avvalo, asarning nomiga to'xtaladigan bo'lsak, Muvozanat – taqqoslash; tenglashtirish; tartibli boshqarish degan ma'nolarda qo'llanadi (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2020,625-bet).

Asarda o'zbek xalqi istiqlol bo'sag'asiga qadam qo'ygan davrlardagi qiyinchiliklar, qishloqlardagi ishsizlik, ocharchilik, universitet o'qituvchilari maoshining kamligi, dinning mohiyatini anglamasdan turib, dindor bo'lgan insonlarning fojeasi, poraxo'r rahbarlarning taqdiri misolida yozuvchi har bir insonga muvozanat qanchalik zarur ekanligini anglatishga harakat qiladi. "Modda bitta oyoq bo'lsa, ruh muhaqqaq ikkinchisidir. Ular baravar qo'zg'almog'i lozimki, davlat vujudining qalqishi sodir bo'lsin. Inson, davlat va butun dunyoning modda va ruh o'zaro teng ishtirok etgan iqlim aro, ularning muvozanati ichra bo'lishdan o'zga iloji yo'q (U. Hamdan, 2021,328-bet). Bir insonning hayotiga ham moddiyat, ham ma'naviyat kerakligi, bejizga parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslanmaydi. Bu haqida Movlono Jaloliddin Rumiy hazratlari shunday deydi: "Bir danakni qobiqsiz holda yerga eksang, ko'karmas. Qobig'i bilan ekkaning vaqtda unadi va ulkan bir daraxtga aylanadi. (Rumiy, 1997,24-bet). Juda ham aniq va chiroyli o'xshatish orqali modda va ruh tushunchalarini bir-biridan

ajralmasligini, ajralgan holda undan na o‘ziga, na atrofdagi insonlarga hech qanday foyda keltirmasligi to‘g‘risida atroflicha mulohaza yuritgan. “Muvozanat’’da xuddi shu narsa, yaqin o‘tmishimiz – odatlangan turmush tarzidagi o‘zgarishlar ruhiyatimizda keskin evrilishlarni keltirib chiqargan davrdagi muvozanatsizlik holati qalamga olingan.” (Quronov, 2021, 50-bet).

Asar qahramonlaridan bir tarixchi Muhammadjon aka uzoq yillar maktab, texnikum va viloyat institutlarida dars bergan. Keyin esa partiya ishiga jalb qilingan. Biroz vaqtdan so‘ng esa “ayrmachilik”da ayblanib o‘n yil qamoqqa olindi. Oqlanganidan keyin ham “urilgan” degan nom bilan hech qayerda ishlolmadi. Qahramonimizning to‘qima taqdiri go‘yoki so‘z ilmining mohir bilimdoni Ozod Sharafiddinovning xotiralaridan biridagi onasining hikoyasiga o‘xshaydi. “Men ellik yillik umrimni partiyaga bag‘ishladim, sochimni supurgi, qo‘limni kosov etib, uning xizmatini qildim, endi esa partiya shiramni so‘rib olib, po‘stimni tuflab tashladi. Shuncha xizmatlarim qumga singib ketdimi?” (Sharafiddinov, 1997, 12-bet). Muhammadjon akaning og‘riqli nuqtalari ham shu edi. “Mening umrim yolg‘on bilan kechdi. Yolg‘onga bosh egib, yolg‘onni yozganlarning, shuni istagan kimsalarning xizmatini qilib kechdi.” (Hamdam, 2021, 38-bet). Oxiri “qushlar maktabi”ga ishga kiradi. “Urilib ketgan” kishiga odamlar berolmagan “mehr”ni qushlar berdi, odamlar ko‘rsatolmagan “g‘amxo‘rlik”ni parrandalar ko‘rsatdi.” (U.Hamdam, 2021, 18-bet). Bu detalni Tog‘ay Murodning “Ot kishnagan oqshom” asarida Tarlon misolida ko‘rishimiz mumkin. Bu detal vositasida yozuvchi shu davrni yaqqol tasvirlaydi. Savol tug‘iladi: bu qanday davr ediki, insonlar bilan insonlar yashaydigan davrda najot hayvonda bo‘lsa?! Bu obraz ham jadidlar Behbudiy, Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat kabi erkinlikka, yorug‘ kunlarga intilib yashadi va ishondiki, albatta, bu mustaqillik degan oliy ne’mat bir kuni keladi.

Odatda, har bir asarda voqealarning ketma-ketligini ta’minlaydigan, asarning oxiri qanday yakunlanishi mumkin ekanligini anglatuvchi ochqich ishora kalitlari bo‘ladi. Masalan: “Kecha va kunduz” romanida “Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog‘ish bilan ovora, o‘zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari

eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko‘nglini bir qur seskantirib oldi.” (Cho‘lpon, 2000, 4-bet). Asarning boshlanish qismida qo‘llangan “besaranjom”, “bir qur seskantirib oldi” so‘zlari vositasida yozuvchi Zebining boshidan birin-ketin o‘tajak mudhish hayot yo‘llariga ishora qilayotgandek tuyuladi. Yoki “Muvozanat”da “Muhammadjon aka ikkala qo‘li bilan qushni osmonga parillatib otdi. Qush bir muddat nima bo‘lganini tushunmagandek, o‘zini muallaq tashlab qo‘ydi. Ehtimol, u shu tobda o‘zining ozod bo‘lganiga ishonmagandir, bas, shuning uchun ham qanot qoqolmay esankiragandir. Keyin pastga yarim quloch, bir quloch sho‘ng‘igandir. Muhammadjon aka dabdurustdan qo‘rqib ketdi, u qushni yiqilib tushadi deb o‘ylab, quchog‘ini ochdiki, tutib qolay deb… Lekin yo‘q! Qushning qanotlari erkin havo ta’mini his qilgani hamon avvaliga ishonchsizgina besh-olti “pir-pir” etib, so‘ng dadil qanot silkib ko‘kka ko‘tarildi.” (U.Hamdam, 2021, 35-bet). Asarga qush voqeasi kiritilishida ham ma’lum ma’noda ramziylik bor. “Qafasdan ozod qilinayotgan qush” detali orqali parchalangan imperiyadan ajralib chiqqan o‘zbeklar (Yusuf, Amir, Said, Mirazim…), ularning parvozi ya’ni hayotda muvozanatini tiklashi qiyin kechdi. Ba’zilari bu yo‘lda “halok bo‘lishdi”.

Yusuf asardagi boshqa qahramonlardan dunyoqarashi, orzusi bilan ajralib turadigan, barcha narsalardan mustaqillikni afzal biladigan inson. Sinfdosh do‘sti Sodiq bilan qurgan suhbatida Yusuf shaxsiyati oydinlashadi. “Agar holimiz hozirgidan beshbattar bo‘lib, yeyishga bir burda nonimiz qolmasa ham, o‘g‘limga bitta hapdori sotib ololmay, qo‘limning kaltaligi o‘limiga sababchi bo‘lsa-da, ro‘zg‘orim kuyib kul bo‘lib to‘zib ketsa ham, yo‘q, men o‘tmishning qaytib kelishini istamayman, tushunyapsanmi, Sodiq, sen sog‘inayotgan, qo‘msayotgan imperiyani xohlamayman?!”(U.Hamdam, 2021, 192-bet). Hayotda har qanday vaziyat, qiyinchilik bo‘lishidan qat’iy nazar inson hamisha yaxshiliklarni o‘ylashi, ezgu niyatlar qilishi lozim. To‘g‘ri, Yusufning tag zamirdagi niyati xolis edi, lekin xalqimiz topib aytganidek “Aytilgan so‘z – otilgan o‘q”, “Niyating – yo‘ldoshing”, “Yaxshi niyat – yarim davlat” (O‘zbek xalq maqollari, 2005, 33-bet) deb ham bejizga aytishmagan. Hayot Yusufni shunchalik qattiq sinovdan o‘tkazdiki, Sodiq

sinfdosh do‘stiga aytgan barcha gaplari izma-iz hayotida o‘z aksini ko‘rsatdi. Shunda ham u o‘z maslagi – e’tiqodidan kechmadi. Chunki tarixni yaxshi bilardi, sodir bo‘layotgan barcha ko‘rguliklar o‘tish davri alomatlari ekanligini ich-ichidan his qilardi. Umidini so‘ndirmay, tirikchilik vajidan ust-bosh sotiladigan xususiy do‘konda, poyabzal bo‘limida ishladi. Shu yerda u haqiqiy beshavqat dunyo kishilarining asl qiyofalarini ko‘rdi va unda insonlarga bo‘lgan ishonchsizlik, nafrat tuyg‘ulari kurtak ochdi. “Men qalbimda muhabbat bilan yashamoqchi bo‘ldim. Lekin bo‘lmadi. Chunki muhabbat halollik va kamsuqumlilikni taqozo qiladi… Pichoq suyakka borib yetdi va ko‘nglimda gurillab yonayotgan muhabbat olovi so‘ndi. Uning o‘rniga boshqa gulxan paydo bo‘ldi. NAFRAT! Endi men va sizlar o‘rtamizdagi tilmoch ana shu bo‘ladi, Nafrat bo‘ladi!...” (U.Hamdam, 2021, 218-bet). To‘g‘ri, insonning qanday tarbiyalanib voyaga yetishida oila bilan bir qatorda atrof-muhitning ham ta’siri katta rol o‘ynaydi. Bejizga qozoq yozma adabiyoti asoschisi “Inson bolasini zamona parvarish qiladi. Kimda kim yomon bo‘lsa, ayb zamondoshlarida” (Qo‘nonboyev , 1961, 194-bet) demagan. Lekin oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi, albatta, yorug‘ bo‘ladi-ku. Yusufning alamzada hayotiga Shavkat kirib kelishi bilan, u o‘zining noto‘g‘ri yo‘ldan ketayotgani va bu yo‘l uniki emasligini anglaydi. O‘z yo‘lidagi azaliy orzulari “Turkiy xalqlar tarixini bir necha kitob sahifalariga abadul-abad muhrlash, shu yo‘sin keyingi asrlarda mavqe va obro‘si har jihatdan keskin tushib ketgan millat qadrini, avvalo, butun dunyo xalqlari ko‘z o‘ngida tiklash ishida qatnashmoq edi. Yusuf o‘z ota-bobosi kimligini bilgan bolaning qudrat va imkoniyatlari bularni bilmagan bolanikidan ustun bo‘lishini bilardi.” (U.Hamdam, 2021, 89-bet). Asardagi boshqa qahramonlarga qaraganda Yusuf hayotning o‘nqir-cho‘nqir qiyinchiliklar girdobida yashadi. O‘ziga berilgan taqdirning turli sinovlarini mardonavor qabul qildi. Alal-oqibat, hayotda o‘z o‘rnini, o‘z yo‘lini topdi. Shu jihati bilan ham universitda birga o‘qigan qadrdon do‘stlari Mirazim, Saiddan keskin farq qiladi. Atrofdagi xalqning og‘riqlarini anglamagan, hattoki, yaqin do‘sti Yusuf nochor ahvolga tushib qolgan paytlarda xabar olishga ham yaramagan edi. Faqat boyliklarining sarf-hisobi bilan yashaydigan boylarda, ma’nan

qashshoqlarda hayotning ma’nosizligi, bo‘shliqlar paydo bo‘ldi. Bu moddaga suyanib, uning peshidan chopib, ruhiy-ma’naviy qutubni unutganligini anglatadi, albatta.

Asarda alohida tahlil-talqin qilinadigan Muhammadjon aka, Yusuf obrazlaridan tashqari Amir, Mirazim, Said kabi bir qancha personajlar bor. Albattaki, ilmiy-izlanishlarimiz davomida ularning har biriga germenivtik metod asosida yondashib, yozuvchi anglatmoqchi bo‘lgan fikrlarni, g‘oyalarni sharhlashga, ochishga harakat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdamov, U. A. (2021). Muvozanat. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. Karimov, B. N. (2021). Ruhiyat alifbosi. Almati: TechSmith.
3. Mirzayev, T. Musoqulov, A. (2005). O‘zbek xalq maqollari. Toshkent: Sharq.
4. Quronov, D. (2021). Muvozanat – o‘tish davri ko‘zgusi. Toshkent: Yangi asr avlodi.
5. Qo‘nonboyev, A. (1961). Tanlangan asarlar. Toshkent: O‘zbekiston davlat badiiy adabiyoti.
6. Rumiy, J. (1997). Ichingdagi ichingdadir. Toshkent: Yozuvchi.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati, (2020). Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti.
8. Sharafiddinov, O. (1997). E’tiqodimni nega o‘zgartirdim? “Tafakkur” jurnali 10-son.
9. Cho‘lpon. (2000). Kecha va kunduz. Toshkent: Sharq.
10. Борев, Ю. Б. (1988). Эстетика, Москва: Высшая школа.

TO‘FONGA AYLANGAN SHABADA YOXUD “SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI” HIKOYASIDAGI BAYNA MOMO OBRAZI

Abdullayeva Rufina Usman qizi

O‘zbek filologiyasi fakulteti 2-kurs

rufinaabdullayeva1@gmail.com +998930361177

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasidagi har qanday holatda ham chinakam niyatidan voz kechmagan, sadoqat va sabr timsoli bo‘la oladigan, taqdirning achchiq zarbalariga dosh berib kelgan ayol – Bayna momo obrazi haqidagi fikrlar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar. *Shamol, to‘fon, qalb isyoni, Bayna momo, Rayim polvon, Zamon otboqar.*

Abstract. *In this article, the thoughts about the image of Momo Bayna, a woman in Nazar Eshanqul’s story “Shamolni tutib bo‘lmaydi”, who never gave up her true intentions, who can be a symbol of loyalty and patience, and who has endured the bitter blows of fate, are put forward.*

Keywords. *Wind, flood, rebellion of the soul, Bayna momo, Rayim polvon, Zamon otboqar.*

Bugungi nasrdagi yangi jarayonlar, ma’naviy, shakliy-uslubiy izlanishlar ko‘proq Nazar Eshonqul hikoyalarida o‘ziga xos tarzda aks etmoqdaki, u yozuvchi o‘zi aytganidek, o‘tmish ajdodlarimiz yaratgan qadimiy adabiyotlardan kuch olayotgan bo‘lsa ajab emas. Yozuvchining “Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi o‘zbek hikoyachiligida muhim yangilik bo‘ldi. Ushbu hikoyada ma’naviy-axloqiy masalalar yetakchilik qiladi. Inson qadri, xotirasi – bu bebaho ma’naviy qadriyat. Uni behurmat qilib, oyoq osti qilish eng ayanchli axloqsizlikdir.

Shamolning ma’lum yo‘nalishini o‘zgartirish mumkindir, lekin hech qachon yengib bo‘lmaydi. Yengil shabada ham bora-bora kuchli bo‘ronga aylanishi ehtimoli bor. Bir insonning g‘azab va nafrati ana shu shabadadan paydo bo‘lgan bo‘ronga o‘xshatilgan. Hayotda har qanday og‘ir vaziyatda ham chekinmaslik kerakligi, hayot zarbalari hech qachon umrni g‘aflatda o‘tkazish uchun sabab bo‘lolmasligi ushbu hikoyada yaqqol namoyon bo‘lgan. Shamolni tutib bo‘lmaganidek, umrni ham to‘xtatib bo‘lmaydi. Vaqt o‘z missiyasini bajaradi. Asardagi asosiy urg‘u Bayna momo obrazining qalb isyoniga qaratilgan. Bu isyon shamolga qiyoslangan. Eri Rayim polvon va o‘g‘lining o‘limi Bayna momoning taqdirida tub burilish yasadi. Bag‘ri qon Bayna momo – bukilmas iroda va e’tiqod sohibi. Asardagi ayanchli voqealardan biri shuki, Rayim polvon o‘z umrini Tersotaliklarga bag‘ishlagan edi. Ammo qishloqdoshlari Rayim polvonni boshiga ish tushganda undan yuz o‘girishdi, mol-mulkini tortib olishiga, quloq deya ta’qib qilinishiga, itday xor qilib otib tashlanishiga indamay qarab turishdi. Mana shuning uchun ham u hamqishloqlarini sira ham kechirolmadi, butun umr unutolmadi.

Qishloqdoshlariga qo‘shilmadi. Ular bahor kelganda yaylovlarga ko‘chib chiqishar, ekin ekishar edi. Bayna momo esa o‘z xayollari bilan yolg‘iz qolardi. Asardagi quyidagi jumlaga e’tibor qaratsak: “Bayna momo tirikligida, garchi bu ayolni, erining polvonlik lash-lushlari va kiyim kechaklari yotgan, o‘lgandan so‘ng hech qachon yonmagan, tuynugi shuvab tashlangan ana u hujra kabi qorong‘u, musibat to‘la uyi ichkarisiga kirmagan bo‘lsa-da, ular qahr va g‘azabni sitam bilan ichiga yutib kelgan kampirni hurmat bilan eslashardi.”(Nazar Eshonqul, 2005, 3-bet) Anglashiladiki, Bayna momo umri davomida qasos, o‘ch olish ilinjida yashagan. Uning umri eri va o‘g‘li bilan birga so‘ngan.

Inson zoti yashaydigan uyning tuynugi qachon suvoq qilinadi, qachonki, u uyda biror jon yashamayotganida. Ushbu jumlalar orqali Bayna momoning hayotga bo‘lgan qiziqishi yo‘qligini bilib olish mumkin. Ayolning ruhiy holati kuchli bir og‘ir kuyga o‘xshaydi. Sovuq qahratonda eri va o‘g‘lining xotirasiga isinib jon saqlagan Bayna momo taqdir zarbalariga dosh bera olgan mislsiz ayol. Gavdasi echkinikidek kichik bo‘lib qolgan, mushtakkina, qoqsuyak momo haddan ortiq g‘ururli. Qalbida qasos tuyg‘usi, tomirlarida hurlik, erkinlik qoni ufurib turgan kampir o‘z zimmasiga qasos olish mas’uliyatini oldi va bu yo‘lda yillab sabr qilib, o‘z maqsadiga yetisha oldi.

Bir kunning o‘zida ham eri, ham farzandidan ayrilgan ayol umrining oxirigacha Zamon otboqardan qasos olish niyatida yashadi. Isyon oradan 23 yil o‘tib, Otboqar yillab kutgan farzandlariga to‘y qilish arafasida to‘fonga aylandi. O‘nta barmoq sandiqqa joylandi va yillar davomida qasos o‘tida yongan qalb taskin topdi.

Bayna momo obraziga to‘xtaladigan bo‘lsak, “Ayolning kuchli tomonlari yaqinlaridan judolik azoblariga bardosh bilan chidashi, alam va sitamlarni ichiga yutgani bo‘lsa, zaif jihatlar shundaki, sirdoshi yo‘qligi, odamlarga ishonchsizligi, umr bo‘yi nafrat tuyg‘usi, qasos hissidan qutula olmagani, ta’nalari sabab odamlar uni eslamay qo‘yishlari, o‘jarligidir. Bu dunyoda u bilan gaplashishga loyiq odam yo‘qdek o‘zini atrofidagilardan olib qochishi, har tong qo‘y-echkilarini daryo bo‘yidagi yulg‘unzorga haydab ketishi-yu kech tushgach, qurigan shox-shabbalarni

orqalab qaytishi lavhalari momoning tabiatiga singib ketgan odamovilik va ojizlik sifatlarida in'kosini topadi" (Kambarova.S, 2020, 284-bet).

Bayna momo uchun o'lim – yo'qlik timsoliga aylangan. Shunng uchun tabiatdagi o'zgarishlar ham momo ko'ngliga sira ta'sir o'tkazolmaydi. Bahoriy yangilanishlar, yozning jaziramalari, kuzning iliq havosi-yu qishning qahratoni momo uchun birdek edi. Uning hayot tasviri o'z tirikligidan, turmushidan mamnunlik, ertangi kundan ishonch tuyg'ulari bilan yog'rilgan emas. Ayol sho'ro voqeligi bilan bog'liq ravishda qishloq hayotiga kirib kelgan o'zgarishlarni ko'rib tursada, qalban qabul qilmaydi. Bu o'zgarishlar momo tabiatiga singishmaydi. Sababi shuki, xuddi o'sha tuzum uning yorqin hayotini zimistonga aylantirgan. Bayna momo jisman tirik bo'lsada, ruhan eri va o'g'li bilan birga edi. Shu sababli uning hayotga bo'lgan qiziqishi, umidi so'ngan edi. Rayim polvon va o'g'lining yorqin xotirasi uchun qasos olish niyati uni oyoqda tutib turibdi. "Sho'ro davri nasridagi aksar qahramonlarimiz singari jamiyatdagi o'zgarishlarga, xalq hayotidagi yangilanishlarga o'z munosabatini bildiruvchi, o'z faoliyati bilan tirikligini go'zalliklar bilan burkovchi ijtimoiy faol shaxs emas. Unga o'z hayotini yaratuvchanlik, bunyodkorlik faoliyati bilan boqiylashtirishga safarbar o'ktam ayol xususiyati butkul yot" (Matyoqubov.S, 2011, 46-bet). Momo o'zining jamiyat hayoti, xalq taqdiri va tevarak-atrofida bo'layotgan yangiliklar bilan na ruhan, na jisman yaqin emas. Ular uning ko'ngliga sig'maydi ham.

Ayolning sadoqati, sabriga tan bermasdan ilojimiz yo'q. Eri va o'g'lidan ayrilgan kundan boshlab yillar davomida qancha zahmat yutmadi? Davosiz og'riqlardan qiynalib, barchasiga sabr qilib yashash uchun qanchalik kuch va iroda kerak? Shuncha yil davomida tishini tishiga qo'yib sabr qildi. Asarda Bayna momo orqali o'z g'ururiga ega bo'lgan shaxs obrazi ifodalangan. G'ururli, nomusli shaxsni mag'lub qilib bo'lmaydi. Taqdirning achchiq zarbalariga mubtalo bo'lgan ayolning uzoq yillar davom etgan fojiaviy, mardona hayotini yozuvchi shu tarzda o'zgacha ohangda hikoya qilgan.

Hikoya boshidan oxirigacha qayg'u va azoblarni yengishga zo'rg'a kuch topgan ayol taqdiriga achinish hissi, darddoshlik tug'ulari bilan mutolaa qilinadi.

Bayna momo o‘quvchini titratib yuboradigan obraz. Qishloq odamlarining oqibatsizligi undagi cheksiz mehrning nafratga aylanishiga sabab bo‘lgan.

Hikoyadagi realistik ifodaning o‘ziga xos tabiati shundan iboratki, Bayna momo ruhiyatidagi o‘zgarishlar, ya’ni tuyg‘ular, kechinmalar takomili holatlarning suratiga aylantirilgan.

Yozuvchi Nazar Eshonqulning ushbu hikoyasida milliylik, ma’naviy barkamollik, odamiylik va yuksak insoniy tuyg‘ular tarannum etilgan. Asar qahramonlari, jumladan, bosh qahramon – Bayna momo xarakteri muallifning dunyoqarashini va uslubini ko‘rsatib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqul, N. (2005). “Shamolni tutib bo‘lmaydi”. Qissa va hikoyalar. Toshkent.
2. Matyoqubov, S. (2011). Nazar Eshonqul hikoyalarida ijodiy individuallik. Toshkent. O‘zbek tili va adabiyoti.
3. Kambarova, S. (2020). Adabiyot ta’limida shaxs muammosi tadqiqi. Toshkent.

TOG‘AY MUROD QISSALARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI
(“YULDUZLAR MANGU YONADI” QISSASI MISOLIDA)

Abdumurodova Gulandom Abduvoit qizi
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti
abdumurodovagulandom@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Tog‘ay Murodning qissalarida xotin-qizlar obrazi to‘g‘risida mulohaza qilinadi. Shu maqsadda asarlaridagi xotin-qizlar obrazi tahlil qilinib, ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rniga e’tibor qaratilgan. Shu jumladan, badiiy adabiyotda ayol obrazi haqida xulosa beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ayol, to‘y, qizlar, xalq qo‘shiqlari, Momoqiz.*

Abstract: *This article discusses the image of women in Togay Murad's stories. For this purpose, the image of women in his works is analyzed and attention is paid to their place in social life. Including, a conclusion is given about the image of a woman in fiction.*

Keywords: *Woman, wedding day, girls, folk songs.*

Zamonaviy o‘zbek nasrining zabardast vakillaridan biri bo‘lgan Tog‘ay Murod o‘z asarlari bilan xalq qalbidan joy oldi. Yozuvchining hikoyalari, qissalari,

romanlarida haqiqiy hayot tasvirlanadi. Ularda o‘zbeklar hayoti, turmush sharoiti, voha xalqining urf-odatlari, madaniyati, tarixi mahoarat bilan ko‘rsatib berilgan.

“Yulduzlar mangu yonadi” va “Ot kishnagan oqshom” kabilarda ham yuqorida aytilgandek o‘zbek xalqining urf-odatlari aks etgan.

Muallifning “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi to‘y marosimi bilan boshlanadi. Bilamizki, o‘zbek xalqining o‘ziga xos urf-odatlaridan bo‘lgan to‘y marosimi hamisha shod-xurramlik, yoshlik, go‘zallik, yaxshi umid va ezgu orzular ramzi sifatida o‘tkaziladigan ajoyib bayramdir. G‘oyat go‘zal bo‘lgan bu marosim barcha xildagi xalq san’ati, ashula, raqs bilan o‘tkaziladi. Mana shu ashula, raqs, xalq qo‘shiqlarini aytish jarayonida ayollarning roli alohida ahamiyatga ega. Asarda ayollar to‘yga bo‘g‘irsoq, qatlama, somsa va turli narsalar bilan tashrif buyurganiga guvoh bo‘lamiz. Qadriyatlarimiz necha ming yillardan beri qadrlanib kelayotganini ko‘ramiz. Hozirgi davrga kelib bu qadriyatlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmoqda. Yevropacha madaniyat kirib kelmoqda. To‘ylarga borganimizda ayollarimiz yig‘ilib kelinsalom-u yor-yorlarni aytishmay qoldi. Ularning o‘rniga maxsus kishilar ijro etishyapti.

Adib folklor asarlarining umumiy ruhidan ilhom olib, o‘zi yaratgan obrazlar xatti-harakatida, ularning faoliyatini tasvirlashda oilaviy-maishiy muhit, xalqning urf-odatlari va marosimlaridan oziqlanib ijod qildi. Adib o‘zi yaratgan obrazlarning realistik qiyofasini ishonarli aks ettirishda xalq og‘zaki ijodi an’analariga murojaat etdi. Xalq qo‘shiqlarini kuylashda qizlar roli alohida ahamiyatga ega. Olov tevaragida davra bo‘lib o‘yin qiladi ayollar. Momoqiz o‘zi o‘ynab, o‘zi qo‘shiq aytadi:

Yaxshi qizning nozini
Kim ko‘taradi-yo,
Tekkani qobil bo‘lsa,
Shul ko‘taradi-yo. (T. Murod, 2008, 43-bet)

Qo‘shiq matniga e’tibor bersak, balog‘at yoshidagi qiz o‘y-xayollari aks etgan. Asarda qizlar ijro etgan bir necha xalq qo‘shiqlariga duch kelamiz. Bu

qo‘shiqlar ishq-muhabbat, mehnat va yoshlikni tarannum etadigan ohanglardan iboratdir.

Yig‘moqi bug‘doy,

Donginang to‘qay,

To‘p bo‘l, o‘ynaylik

Xo‘pda quraylik. (T. Murod, 2008, 27-bet)

Momoqizning bug‘doy o‘rish jarayonidagi aytilgan bu qo‘shiq mehnat jarayonini yengillashtirish maqsadida aytilgan. Tarixdan ham yaxshi bilamizki, ayollar katta-katta mojarolarga sababchi bo‘lib qolishadi. Aslida bu mojaro keltirib chiqarish uchun hech qanday xatti-harakat bajarishmaydi. Masalan, 10 yil davom etgan Troya urushiga sabab Yelena, Xorazmshohlar davlati tanazzuliga sababchi bo‘lgan Turkon xotun kabi. Adibning “Yulduzlar mangu yonadi” asarida ajralmas ikki do‘st ayol tufayli yuz ko‘rmas bo‘lib ketdi. Biz bu yerda Momoqizga aybni qo‘yolmaymiz. Sababi shundaki, unda hech qanday xatti-harakat kuzatilmaydi. Yozuvchi Momoqiz portretini bermaydi. Uning salbiy yoki ijobiy qahramon ekanligini qizlar davrasida eng ko‘rkamliligi, aytgan qo‘shiqlari orqali bilib olamiz. Bu qahramonga biz shunday ta’rif beramiz: Bir oshiq armoni, boshqasining murodi. “O‘zimga aytishga uyalgan gapni senga also aytmas”, deb Bo‘rining samimiy xatti-harakatlari va mardligiga ishonadi. Bo‘ri uni har eslaganda eziladi. U bilan xayollar og‘ushida so‘zlashadi, dardlashadi.

Yozuvchining “Yulduzlar mangu yonadi” qissasida ham qizlar timsoliga duch kelamiz. Qahramon tilidan turli qizlar haqida so‘z yuritiladi. Masalan:

Oshiq umrim mobaynida juda ko‘p qizlarni ko‘rdim.Tag‘in, gapimni yomon tarafga burma, senda shunday fe’l bor...Men qizlarni ko‘chalarda, teatrlarda ko‘rdim, to‘y-ma’rakalarda, kinolarda ko‘rdim. Bari qizlar xushro‘y-xushro‘y...Ayniqsa, hind kinolaridagi qizlar! Suv bilan yutguday qizlar! Suluv-suluv qizlar! Hind qizlarining qoshlari oralig‘ida xol, yonoqlarida xol, iyaklarida xol! Hind qizlari to‘lg‘onib-to‘lg‘onib, eshilib-eshilib o‘ynadi! Men ana shunda, o‘zimizning yoshligimizni o‘yladim. Momoqizni o‘yladim...Intiq bo ‘ldim, hind kinolaridan Momoqizni izladim, Momoqiz yo‘q...Hind qizlari har qancha eshilib

o‘ynasa-da, to‘lg‘onib o‘ynasa-da, baribir... baribir, Momoqizga kelbat bermadi. Hind qizlarida Momoqiz bo‘lolmadi.Nasim oshna, hind qizlarida Momoqizning oldidan o‘ta bersin! (T. Murod, 2008, 96-bet)

Boshqa millat qizlari-da o‘zbek qizlaridek bo‘lolmaydi. Momoqiz va Suluv obrazlarida buni ko‘ramiz. Har ishda: o‘roq o‘rishda, uzum o‘rishda faol bo‘lgani aytiladi. Ayollarning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, ilm-ma’rifatli, ziyoli bo‘lishini istagan ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiy e’tirofiga ko‘ra: “Ayol zoti chin ziynati bu hayo, iffat va ibosini saqlagan holda bo‘ladi”.

Qissada ONA obrazini ham uchratamiz. Bo‘ri polvon onasini Nasim o ‘z onasi, Nasimning onasini Bo‘ri polvon o‘z onasi deb bilgan edi. Bo‘ri polvon rahmatli onasi hayotlik davrida loy tomda yashadi. Vafotidan keyin izzat-ikromga sazovar bo‘ldi. Millatning ulug‘ligi — onaning ulug‘ligi bilan belgilanadi. Onaga bo‘lgan ehtirom — millatga bo‘lgan ehtiromdir. Millat komilligi — ona komilligi bilan o‘lchanadi.

O‘zbek onasi hamisha mehnatkashligi, mehnatsevarligi va zahmatkashligi bilan boshqa millat onalariga ibrat bo‘lib kelayotir. O‘zbek onasi mehnat oldida tiz cho‘kmaydi, aksincha mehnat ustidan hamisha g‘olib keladi. Mehnat undan chekinadi. Ona har qanday mehnat va yumushni ezgulikka aylantiradi. Mehnatga saxovat bag‘ishlaydi. Onaning harakatida barakat bor, saxovat bor. Biz Bo‘ri polvon onasiga shunday ta’rif beramiz.

Bu asarda qadriyatlar yuksak tasvirlangan: eng zo‘r sport masteri hisoblangan Maksim polvonning davraga chiqmasligi, Normurod polvonning soqoli oppoqligi. Adib tasvirda ham o‘ziga xos xususiyatni aks ettirgan. Normurod polvonning Yoshi nechidaligi, qariganligi haqida so‘z yuritmaydi, balki birgina “Soqoli oppoq”ligi bilan barchasini ifodalaydi.

Matonatli bu ayollar orasida uzoq umr ko‘rib qiyinchiliklar oldida qaddini bukmay mardona kurashganlar va alaloqibat yorug‘ kunlarga yetib kelganlarni ko‘ramiz. Avlodlar davomiyligini ta’minlash, farzandlar tarbiyasi, ro‘zg‘or ishlari ayollar zimmasida. Qadim momolarimizning zukkoligi, bilimdonligi sabab Beruniy, imom Al-Buxoriydek buyuk zotlar voyaga yetgan. Aslida oilani ham

jamiyatni ham birlashtirib, katta kuchga aylantira oladigan zot — bu ayollardir. Ayol obrazining dunyo adabiyotda aks etishi, uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi u yashagan tarixiy davr bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. XIII asr nasrida ayollarning romantik obrazlari yaratilgan bo‘lsa, asta-sekinlik bilan ularning manfaati uchun kurashchan obrazlari paydo bo‘la boshladi. Sobiq Ittifoq qaramida bo‘lgan o‘zbek ayollarining mardligi, jasurligi emas, balki mehnatdan ezilgan, barcha azob-u uqubatlarga bardoshli ayollar tasvirga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog‘ay Murod. (2008).Tanlangan asarlar I jild. Sharq. Toshkent
2. Tog‘ay Murod. (2011)Tanlangan asarlar II jild. Sharq. Toshkent
3. Zavqiddin Subhon.(2020).Tog‘ay Murod nasrida obrazlar poetikasi. Monografiya. Toshkent

O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA PORTRET VA PEYZAJ MASALALARI

Azimjonov Husniddin Ibrohim o‘g‘li
O‘zbek tili ta’limi fakulteti 2-kurs talabasi
azimjonovxusniddin484@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov asarlaridagi portret va peyzajning ishlatilishi va ularning badiiy asarlardagi ahamiyatini yoritish, bundan tashqari bu unsurlar orqali yozuvchining o‘z asarlariga qanday rakurs bilan qaraganligi haqida fikr yuritilgan. Bu ishni tayyorlashda adabiyotshunoslik nazariyasiga oid kitoblar, ijodkor siymosi aks etgan gazeta va jurnallardan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, peyzaj, portret, inson hayoti, samimiylik, soddalik, yozuvchining mahorati, badiiylik masalalari, asar qurilishi.*

Abstract. *In this article, the use of portraits and landscapes in the works of O‘tkir Hashimov and their importance in artistic works are highlighted, in addition, an opinion is given about how the writer looked at his works through these elements. In the preparation of this work, books on the theory of literary studies, newspapers and magazines featuring the image of the artist were used.*

Keywords: *O‘tkir Hoshimov, landscape, portrait, human’s life, sincerity, simplicity, writer’s skill, artistic issues, creation of work.*

O‘tkir Hoshimov – el ardoqlagan adib, so‘z san’atkori! Adibning barcha asarlari o‘zbek va va boshqa qardosh xalqlar mulkiga aylanib ketgan. “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi”, “Nur borki soya bor”, “Dunyoning ishlari”, “Ikki karra ikki – besh ” kabi qissa va romanlari, yuzdan ortiq dilbar hikoyalari, komediya va fojealari xalq orasida juda mashhur bo‘lib ketgan. “O‘tkir Hoshimov iste’dodli yozuvchi, aqlli, dono inson… U – ko‘p betakror adabiy qahramonlar yaratgan taniqli yozuvchidir” (Rasulov. A, 2001, 76-bet).

Qalam sohibi adabiyotning ko‘plab janrlarida barakali ijod qilgan. Adabiy turning qay bir janrida mehnat qilmasin barchasi ijobiy yakun bilan o‘z o‘quvchilari qo‘liga yetib bordi. Ijobiy deganda qaysi ma’nodaki, asarning mavzusi, dolzarbligi, xotimasi o‘quvchi kutgandek baxtli yakun topmas, lekin ijodkorning mohirona yondashuvi kitobxonni fikrlashga, adolatli xulosa chiqarishga undaydi. Kitob nimasi bilandir o‘ziga tortaveradi. Shunday mayllikni paydo bo‘lishida texnik unsurlar, kompozitsion, syujet va badiiylik unsurlarining ham ahamiyati kattadir. Shulardan portret va peyzajning O‘tkir Hoshimov asarlaridagi o‘rni alohidadir. “Portert – badiiy asarda kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi vahokazolar tasviridir. Portret atamasi, odatda, ikki ma’noda, ya’ni qahramonning tashqi ko‘rinishi (tor ma’noda) va qahramonning individual-psixologik qiyofasi (keng ma’noda) qo‘llaniladi” (Boboyev. T, 2002, 178-bet). Boshqacha qilib aytganda, badiiy obraz yaratish vositalaridan biridir. Portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlarini ochib beradi

O‘tkir Hoshimov asarlarida portret bilan birga peyzaj ham ahamiyatlidir. “Peyzaj – badiiy asarda aks ettirilgan tabiat manzaralari, voqea-hodisalar kechgan joylar ko‘rinishi tasviri. Peyzaj asardagi badiiy voqelikning muhim unsuri, voqealar kechadigan ochiq makon tasviridir” (Ulug‘ov. A, 2017, 69-70-bet). Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik

darajasini yuksaltirish, syujet rivojini tezlashtirish yoki sekinlashtirish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi.

Adibning “Bahor qaytmaydi” asarini olaylik. “Bo‘ston qishlog‘iga og‘ir-vazmin qadamlar bilan kuz kirib keldi. Tumanlik qo‘ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og‘ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshlandi. Hamma yagona bir tashvish bilan, kuz tashvishi bilan turib, kuz tashvishi bilan yotadigan bo‘ldi.” (Hoshimov. O‘, 2005, 6-bet) degan jumlalar orqali ushbu tabiat manzarasi qissadagi personajlar taqdiri bilan parallel ravishda mavjlanib borgan. Go‘yoki insonlarning taqdiridagi beayovliklarni ushbu manzara orqali berib, umr deb atalmish yo‘lda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan noxush hodisani oldindan bayon qilganday. Xuddi shu asarning yana bir o‘rnida , ya’ni Muqaddam Alimardonning qilgan nojo‘ya ishidan keyin o‘g‘lini bag‘riga bosgancha kuyuna-kuyuna yig‘lab ketayotgan bir paytda Muqaddamning ko‘zlariga osmondagi yulduzlar ham sim-sim yig‘lab unga tasalli berayotganday tuyilganligi ta’riflanadi. Bunda tabiatdagi barcha hodisalar inson taqdiriga ma’no-mazmun, ranginlik va jilo kabi zaruriyatlarni bag‘ishlaydi. Portret ham, peyzaj ham, asosan, o‘xshatish birliklaridan iborat bo‘ladi. Tashbeh badiiy asarga qanchalik jilo baxsh etsa, endi uning tabiat manzaralari bilan yo‘g‘rilishi asarga o‘zgacha jonlilik beradi. Portret va peyzaj orqali ijodkorning ichki olami to‘g‘risida ham bir qancha kashfiyotlar paydo bo‘ladi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida ko‘pincha personajning xarakteri – belgilari va ruhiy kechinmalari majmuyi ochib beriladi. Bu holat yozuvchining deyarli barcha asarlarida bo‘y ko‘rsata oladigan xususiyatidir. O‘qirman qayta-qayta qo‘lga oladigan, ko‘z nurini, qalb qo‘rini bag‘ishlab og‘rinmaydigan asar “Ikki eshik orasi” dagi qahramonlarning portreti shu darajada aniq tasvirlanganki, uni adresant tasavvur qila olishi bilan birga unga munosabat ham bildira oladi. Romandagi Orif oqsoqol, Husan Duma, Komil tabib kabi obrazlar o‘z individual qiyofasi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Orif oqsoqol obrazi romanga ko‘rk bag‘ishlaydi. Uning insonparvarligi, odamlar orasida qozongan obro‘-e’tibori, eng og‘ir damlarda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga kuch topishi bilan o‘quvchi xotirasiga muhrlanadi.

U donishmand, tajribali, hayotning achchiq-chuchugini tatib ko‘rgan o‘zbek qariyalariga o‘xshab har bir ishda tashabbuskorlikni o‘z qo‘liga oladi. Orif oqsoqol haqiqatgo‘yligi bois o‘zi anglab yetgan bor haqiqatni yuzga aytishdan cho‘chimaydi. Undagi jasorat va shijoat boshqalarga ilhom beradi. U odamlarga baho berganida xalqona ta’bir bilan “mard odamning belida belbog‘i bo‘lishi kerak” degan taomilga rioya qiladi. Atrofidagi odamlarning ruhiy butunligini, jo‘mardligi va odamiyligini sadoqat, va’daga vafo, ezgu amallar bilan o‘lchaydi. Ba’zan ayollarga ham shu o‘lchov bilan yondashadi

Romanda ayollar obrazi ham zo‘r mahorat bilan tasvirlangan bo‘lib, ular orasida Qora amma o‘ziga xos tabiati bilan ajralib turadi. Qora amma obrazining aksariyat sifatlari romanning “Qora amma hikoyasi” qismida namoyon bo‘ladi. Qora amma - mehribon, sodda, bardoshli va jafokash ayol. Uning obrazida urush davridagi o‘zbek onalarining siymosi mujassam topgan. U boshiga tushgan barcha ko‘rgiliklarni sabr-bardosh bilan yengib, o‘zida yashashga kuch-qudrat topadi

Yana bir ayol obrazi - Robiya. Unga ham taqdir kulib boqmadi. Yoshligidan onasidan yetim qolgan Robiya otasi tarbiyasida ulg‘ayadi. Onasining o‘limidan so‘ng ular Samarqanddan Toshkentga, No‘g‘ay qishloqqa ko‘chib kelib, Husanboy ismli kishining hovlisida yashay boshlaydi. Otasi o‘qituvchi bo‘lgani uchun qishloq bolalarini o‘qitadi. Robiya Husanboy Dumani bobo, uning xotini Qora ammani oyi, ularning o‘g‘li Kimsanni aka, Qora ammaning ukasi Shomurodni ada deb katta bo‘ladi. Robiya sofdil, mehnatkash qiz bo‘lib ulg‘ayadi. U Kimsanga ko‘ngil qo‘ydi. Kimsan va Robiyaning sevgisi bir guli ochilmay so‘ldi. Yurtda urush boshlangach, urushga ketgan sevgilisi qaytmadi.

Qahramonlarni tanish, ularning asardagi o‘rni, insoniylik xususiyatlari haqida, ayniqsa, roman, epopeya, qissa kabi janrlarda tasavvurga ega bo‘lish bir yoki ikki jumla bilan amalga oshmaydi. Butun asar davomida qatnashchilarning yangi-yangi, yaxshi va yomon, avval boshda nazardan chetda qolgan xususiyatlarning ranginligi kuzatlilib, asar keyinida asl mohiyatni anglab yetish mumkin. Roman boshidagi Qora amma, Kimsan, Robiya, Muzaffar, Bashorlarning portreti asosida tug‘ilgan ilk ijobiy taassurotlar asar so‘ngida ham o‘zgarmay, balki yanada

personajlarning zohiriy va botiniy ko‘rinishlari ravshanlasha boradi. Va yana shunday ishtirokchilar bo‘ladiki, muqaddimada kelingan xulosa xotimada butunlay o‘zgacha tus oladi. Badiiy asarda qahramon obrazini yaratishda portret muhim o‘rin tutadi. “Qahramon portreti tasviri uning suratini ko‘rsatish uchun emas, balki ruhiy dunyosidagi o‘zgarishlarni anglash, tushunish uchun ham zarur vosita vazifasini o‘taydi” (Ulug‘ov. A, 2017, 63-bet). Portretning asardagi o‘rnining kattaligini ta’kidlashimizga sabab voqealar bayoni personajlarning portreti bilan uzviy bog‘liq. Portret qay tarzda ifodalanishi voqealar oqimining mazmun va mohiyatiga ta’sir qiladi.

O‘tkir Hoshimov samimiylikni, oddiylikni badiiy so‘zga ko‘chira olgan mahoratli yozuvchidir. Uning barcha asarlarida qo‘llanilgan portret va peyzaj qahramonlarning ko‘rinishi, xarakteri va voqealarning borishini hayotbaxshlik va go‘zallik bilan gavdalantiradi. O‘tkir Hoshimov kabi shaxsiyatlar va asarlar shukrki noyob, afsuski kamyob!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulov, A. (2001). Ardoqli adib. Toshkent. Sharq.
2. Hoshimov, O‘. (2005). “Bahor qaytmaydi”. Toshkent. Sharq.
3. Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent. O‘zbekiston.
4. Ulug‘ov, A. (2017) Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. G‘ofur G‘ulom.

LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TALQINI

Barakayeva Shodiya Saidnabi qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs talabasi
shodiyabarakayeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida qahramonlar ruhiyati talqini kompleks tarzda o‘rganildi. Bundan tashqari yozuvchining nigohi va romandagi qahramonlar ruhiyati, asosan qahramonlar ortida harakat olib borishi, ayniqsa, Samad obrazida namoyon bo‘lishi, yozuvchini voqealar rivojiga, qahramonlar tasviriga to‘g‘ridan-to‘gri aralasha olmasliklari bayon etiladi. Qolaversa, Luqmon Bo‘rixonning*

“Jaziramadagi odamlar” romani bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Kalit so‘zlar: *Roman, qahramon, obraz, ruhiyat, kinoya, qochirim va jamiyat.*

Abstract. In this article, Lukman Borikhan's novel "People in the Heat" is a comprehensive study of the interpretation of the psyche of the characters. In addition, the author's view and mentality of the characters of the novel are described, mainly acting behind the characters, especially in the image of Samad, the writer's inability to directly intervene in the development of events and the image of the characters. In addition, Lukman Borikhan's novel "People in the Heat" is intended to reveal its relevance in our days.

Keywords: novel, hero, image, mentality, comedy, society.

Zamonaviy adabiyot o‘tkan kungi adabiyotdan bir qancha xususiyati bilan keskin farq qiladi. Buni avvalo, roman qahramonlarining qalb iztiroblari, quvonchlarining betakror tahlili va ruhiyatining turfa ko‘rinishlari bilan, shuningdek, voqea-hodisalar tasvirining batafsilligi hamda ularning har biri maqsad sari yo‘naltirilgani, qahramonlarning o‘ta milliy va individuallashgani bilan izohlash mumkin. Demak, romanda insonning, uning qalbi tahlili birinchi o‘ringa qo‘yilishi bilan izohlanadi. Bunday xususiyat Luqmon Bo‘rixonning «Jaziramadagi odamlar” romanida to‘la o‘z ifodasini topgan. Asarda ovloq cho‘l qo‘ynidagi chulquvarlarning hayotiy kechinmalari, yashash tarzi, hayotdagi o‘rni o‘z ifodasini topadi. Qishloq hayotining va odamlari tabiati tasvirining quyuqligi, teranligi, batafsilligi bir sovxoz emas, go‘yoki katta olamda yashayotgan odamlarning hayoti romanda aks ettirilgan. Aytib o‘tish joizki, Luqmon Bo‘rixonning «Jaziramadagi odamlar” romanida qahramonlar ruhiyati o‘ziga xos bo‘lib, o‘quvchini e’tiborini o‘ziga jalb qiladi. Asardagi qahramonlarga xos kinoya, qochirimga boy suhbatlar, chuqur ma’noni o‘ziga berkitgan o‘xshatishlar, achchiq kesatiqlar, shuningdek, samimiy kulgu qahramonlar ruhiyatida o‘rin oladi. O‘roqning onasi Xosiyat xola kelin olganidan keyingi voqealar misolida ko‘rib o‘tishimiz mumkin: ya’ni Xosiyat xola o‘g‘li oila qurganidan keyin butkul o‘zgarishni boshlaydi, muallif bu jarayonni uzoqdan uzoq jumlalar bilan

tasvirlashdan qochib, bir, ikki so‘z bilan Xosiyat xolaning ichidagi quvonchdan, baxtdan o‘quvchini boxabar qiladi: “…Xosiyat xola, yo‘q-yo‘q Xosiyat opa, yo‘q-yo‘q, Xosiyat yanga esa o‘zi bilan o‘zi andarmon edi. Ahyon-ahyonda erka keliniga erkalanib, uning rangsiz lab bo‘yog‘idan o‘g‘rincha surkab-surkab, o‘z xusniga to‘ymay hiring-hiring kuladi (Луқмон Бўрихон 2012, 324-bet).

Bundan tashqari yozuvchining nigohi va romandagi qahramonlar ruhiyati, asosan qahramonlar ortida harakat olib borishi, ayniqsa, Samad obrazida namoyon bo‘ladi va bu yozuvchini voqealar rivojiga, qahramonlar tasviriga to‘g‘ridan-to‘gri aralasha olmaydi. Bilamizki, ko‘pgina romanlarda qahramonlar ruhiyati bir-biridan mustaqil boblardan tashkil topganda, bobdan bobga o‘tganda voqealardagi uzilish, keyingi bobda yangi mavzuning yoritilib ketilishi, mavzular o‘rtasida to‘xtalishlarga duch kelamiz. Demak, “Jaziramadagi odamlar” romani esa boblarga ajratilgan holda ham o‘rtadagi uzilish kitobxonning e’tiborini tortmaydi, zanjirsimon qahramonlardagi voqealar rivoji boblarni bir biriga ergashtirib ketadi. Eng ajablanarlisi, bu bobning o‘zini ham alohida hikoya sifatida asar ichidan yulib olish mumkinligidadir. Ikkinchi va uchinchi boblarni namuna sifatida keltirib o‘tadigan bo‘lsak, ikkinchi bob so‘nggi harbiy xizmatga ketayotgan O‘roqning Lolaxon bilan kinoxonaga borgani va u yerdagi yorqin tuyg‘ularning hislarga boy tasviri bilan tugaydi. Uchinchi bob “Fayzulla akaning xonadoniga kulfat doridi!” degan xabar bilan boshlanadi va O‘roqning halok bo‘lishidagi voqealari bilan tugallanadi (Ҳамидулла Болтабоев 1992, 104 б). Bu bob avvalgisidagi voqealar rivojining davomi bo‘lishi bilan birga, alohida tugallangan mazmunga ega hikoyani eslatadi, shuningdek ikkinchi bob ham, zero muallif ikkinchi bobdagi hislar tasviri bilan voqealarga yakun yasab, xulosani o‘quvchiga qoldirib kichik hikoya sifatida yulib olishi ham mumkin edi. Bundan tashqari asarda O‘roq va Lolaxoning to‘y sahnasi tasvirlangan bob ham bo‘lib, undagi voqealar rivoji o‘zbek qishloqlaridagi to‘y jarayonini, qolaversa, kelin-kuyov ruhiyatini aks ettiruvchi alohida bir hikoyaga o‘xshaydi.

Bir tomondan bu to‘y asar voqealarining uzviy davomi, boshqa tomondan esa to‘ydagi odatlar, Ashurning xurmacha qiliqlari, to‘ydan keyingi to‘yxonaning

ahvoli kishiga qishloq to‘yining kichik tafsilotini eslatadi. Muallifning asar qahramonlar ruhiyati talqiniga bo‘lgan munosabati ham o‘zgacha, aslida, asarda butunlay ijobiy yoxud butunlay salbiy qahramonning ruhiyati yoq, muallif hatto bosh qahramonlarni ham oq-qora ranglarda tasvirlaydi. Qahramonlari ruhiyatini Samad obrazida o‘quvchiga qadrli qiladi, gohida sevdiradi gohida tanqid qiladi. Asardagi voqealar rivojining markazida turuvchi Lolaxonning ruhiyati inson, tirik jon sifatidagi xohishlari, intilishlari uning idealligiga, qishloq qahramonining bevasi maqomiga putur yetkazsada, yozuvchi haqiqatdan, reallikdan yiroqlashmay, Lola va uning Shunqor Hobilga bo‘lgan hislarinida qalamga oladi, asar qahramoniga xolislik bilan munosabatda bo‘ladi (Ўрол Носиров 1991, 196-bet).

Shoir kundaligida Lolaxonning ruhiy holati berilgan bu tasvir asli muallifning fikrlaridir: “Ana! Darrov o‘zgardi! Darrov, gulday barq urib qoldi! Ana, atay chimrildi, atay jilmaydi. Kitoblar haqida boshlangan suhbatimiz shaharga ko‘chdi, undan hayot va turmushga o‘tdi, nihoyat, oila haqida shivir-shivir boshladik. Men so‘zlar sirli, jozibali chiqishi uchun atay pichirlab gapirdim. U mendan ham o‘zib ketdi. Uning “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya shivir-shivirlaridan ich-ichida guvillab qaynab yotgan ehtiroslar to‘foni baribir sezilardi” (Эркин Худайбердиев 2008, 322-bet).

Xulosa qilib aytganda, Luqmon Bo‘rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanida qahramonlar ruhiyati talqini o‘ziga xoslik bilan ajralib turadi. Romandagi O‘roq obrazining ruhiyati - harbiy xizmatdan tonishi, urushga bormaslik uchun har xil choralarni qilib ko‘rishi vatanga xiyonati sifatida qaraladi. Albatta, asardagi bu voqea obrazlar ruhiyatida O‘roq yomon tahlil qilinadi. Afsuski, keyinchalik qahramonlar ruhiyatida, shu qo‘rqoq yigit urush qahramoniga, vatan uchun jonini bergan siymoga aylanadi. Aslida, muallif jamiyat qolipga solib qo‘ygan insonning ichidagi haqiqatini ko‘rsatishni, uni boricha yuksaklikka ko‘rsatishni maqsad qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Луқмон Бўрихон (2012). «Жазирамадаги одамлар»: Роман. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт – манбаа ижодиий уйи, – 324 б.
2. Ҳамидулла Болтабоев «Наср ва услуб» Тошкент, «Фан» 1992. – 104 б.
3. Эркин Худайбердиев (2008). Адабиётшуносликка кириш: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: «Шарқ», 2008, – 322 б.
4. Ўрол Носиров «Образларда услуб жилолари» Тошкент, «Фан» 1991. 196 б.
5. Ҳ. Каримов «Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари»: Услубий қўлланма. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008 й. – 132 б.

XOLYOR SAFAR IJODIDA MILLIY G‘URUR IFODASI (“ ORIYAT” HIKOYASI MISOLIDA)

Boboyeva Muxlisa Oybek qizi,
Tosh DO‘TAU O‘zbek filologiyasi, 4-kurs

Annotatsiya. *Maqolaning maqsadi yosh ijodkor Xolyor Safarning “Oriyat” hikoyasida milliy g‘ururning ifodalanishini yoritib berishdir. Ijodkor voqeani ochib berishda qanday chizgilardan foydalanganligini ochib berish. Turg‘un bakovulning bunday nomaqbul ishga qo‘l urishiga nima sabab bo‘lganligi ifodalandi. Maqola Xolyor Safar ijodining o‘rganilishi uchun yordam beradi. Ijodkorning ichki olamini ochib berishga xizmat qiladi. Yosh tadqiqotchilar uchun foydalidir.*

Kalit so‘zlar: *G‘urur, chavandoz, ijodkor, tuya, ot.*

Abstract*. The purpose of the article is to shed light on the expression of national pride in the story "Ariyat" by the young artist Kholyor Safar. To reveal what lines the creator used to reveal the story. It was expressed what caused Turgun Bakuvul to commit such an inappropriate act. The article will help to study the creativity of Kholyor Safar. It serves to reveal the inner world of the creator. Useful for young researchers.*

Keywords: *Pride, rider, creator, camel, horse.*

Milliy g‘urur faqat bir qavm, birgina xalq yoki mintaqaning ishi emas. Bu savol, bu masala asrlar davomida dolzarb bo‘lib kelmoqda. Milliy g‘urur, milliy o‘zlik adabiyotimizda ham ko‘p bora yoritilib kelinyapti. Xususan, milliy g‘urur, or – nomus o‘zbek xalqi uchun eng oliy tuyg‘ular ekanligini Tog‘ay Murod

o‘zining “Yulduzlar mangu yonadi “ asarida polvonlar, kurashchilar misolida yorqin ifodalab beradi.

Yosh ijodkor Xolyor Safar o‘zining “Oriyat “hikoyasida(Xolyor Safar, “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “ Oriyat” hikoyasi , Toshkent 2019) ham o‘zbek xalqining azaliy an’analari, milliy g‘ururini qalamga olar ekan, o‘zining qahramonlari sifatida qishloq insonlarini tanlaydi. Ular uchun bu qanday tuyg‘u ekanligini yoritib berishga harakat qiladi.

Xalqimizda azal – azaldan o‘tkazib kelinayotgan ko‘pkari o‘yini or–nomus , to‘g‘rilik ifodasi sanaladi. Bunda mardlar, halol insonlar kurashadi. Yigitlarning iymoni, g‘ururi, sha’ni sinovdan o‘tadi. Voqealar Ko‘pkarisoyda Karimboy tomonidan o‘tkazilgan ko‘pkari bilan boshlanadi. Har bir elning chavandozlari yig‘iladi. Bilamizki, har ko‘pkarining o‘z bakovuli bo‘ladi. Ular elning halol, to‘g‘riso‘z insonlaridan saylanadi. Bu ko‘pkarining ham bakovuli Turdi bakovul nayman elining obro‘li, hurmatli, e’zozli insoni edi.

Ko‘pkari boshlanarkan , xaloyiqqa qarata shunday deydi, “ Boylamaysan, tiymaysan, achchiq qilib, bir – biringga qamchi – pamchi urmaysan” . (Xolyor Safar, “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “ Oriyat” hikoyasi , Toshkent 2019, 16- bet)

Ha , halollik – bu kurashga kirgan har bir chavandozning shiori. Ko‘pkarida qatnashayotgan chavandozlardan biri Baxtiyor polvon edi. Hamisha halol kurashib kelgan, “ Yerdan ko‘tarilgan uloqqa qo‘l solishni or biladi. Baland, zo‘r otdan zo‘rlik qilib , yerdan uloqni o‘zi ko‘taradi, lekin birovga bermaydi…”(Xolyor Safar , “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “ Oriyat” hikoyasi ,Toshkent 2019, 18 - bet), orli chavandoz edi. Ko‘pkarida g‘irrom, tarafkashlik, egrilik o‘tmaydi. Ammo, bu ko‘pkariga g‘irrom aralashdi, yolg‘on qo‘shildi. Turdi bakovul Baxtiyor polvonni g‘irrom kurashishda aybladi. Bundan polvonning ori keldi. El ichida obro‘si to‘kildi. Shuncha yillik mehnati bir zumda yer bilan yakson bo‘ldi va davradan chiqib ketdi.

Uning qamchidosh do‘stlari ham ko‘pkarini tark etishdi. Axir, ularning eng halol, suyangan polvonlarining boshi egildi.

G‘irrom aralashgan ko‘pkari sovugan oshday bo‘lib qoldi. Bakovulning beo‘y qaroridan ko‘pkarining ming yillik sharti buzildi. Halollik pastkashlik bilan ro‘baro‘ keldi. Hatto, nayman elining polvonlari ham o‘z bakovullarining ishidan orlanishdi. Boshlari egildi. Axir, bir polvonning g‘ururi bilan o‘ynashildi, unga nohaq tuhmat qilindi. Hatto, Turdi bakovulning o‘zi ham qilgan ishidan pushaymon bo‘ldi. O‘z eliga sovrin olib beraman deb, ularni sharmanda qildi. Misqollab yig‘gan obro‘si botmonlab to‘kildi. Ko‘pkari egasi Karimboy ham uning qilgan ishidan ranjidi.

“Manavi polvonlar endi ko‘pkarilarda qanday bosh ko‘tarib yuradi? Naymanning endi ot minguligi qoldimi? “(Xolyor Safar , “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “ Oriyat” hikoyasi , Toshkent 2019, 22- bet). Ha, birgina Baxtiyor polvonning emas, barcha polvonlarning g‘ururi sindi, boshi egildi. Turdi bakovul xatosini tuzatmoqchi bo‘ldi. Lekin polvonning eshigidan kira olmadi. Tuyani eshikni oldiga bog‘lab keldi. Lekin, tuya ertalab eshigi oldida turardi va bir xat tashlab ketilgan edi. “ Tuya o‘zingga buyursin!Endi u betingdan oladi. Ko‘zing oldida yuraversin! Senga yorug‘ yuz so‘rayman…” . (Xolyor Safar , “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, “ Oriyat” hikoyasi , Toshkent, 2019, 22- bet). Uning ham yuzi el ichida qora bo‘ldi. Polvon g‘ururidan kechib sovrinni olmadi. Bu bilan u o‘zining g‘ururi, oriyati har narsadan ustun ekanligini isbotlagandi.

Bu elning polvonlari shunday, ular uchun g‘ururining sinishidan el oldida sharmanda bo‘lishdan o‘g‘irroq ish yo‘q. Ijodkor hikoyada o‘zbek xalqining sodda, samimiy , or–nomusli chavandozlarining g‘ururi oliy tuyg‘u ekanligini ajoyib chizgilarda yoritib beradi. Hikoyada ijodkorning ajoyib topilmalari, qahramonlarning ichki ruhiy holatlari nozik usulda ifodalanadi. Yozuvchi asarning har bir qahramonining his – tuyg‘ularini ochib bera olgan. Elning katta-yu kichigi uchun g‘urur hayotining ajralmas bo‘lagi, ularni inson qilib turgan narsa ham mana

shu milliy g‘urur ekanligini mohirona izohlay olgan. Turg‘un bakovulning o‘zi ham bir paytlar chavandozdan chiqqan kayvoni bo‘lganini , uning uchun ham bu tuyg‘ular begona emasligini yoritar ekan, endi uning ham el ichida g‘ururi yo‘qolganini yoritib beradi. Ijodkor o‘zining his–tuyg‘ularini Baxtiyor polvon misolida ochib bergan. Ya’ni, har bir insonning mana shunday g‘ururli bo‘lishini orzu qiladi. Polvonlar yurti hamisha shunday g‘ururli, or – nomusli bo‘lgan va hamisha bundan faxrlanib yashagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1 . Xolyor Safar , “Nomus va hayot” , qissa va hikoyalar, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, Toshkent 2019, 16 – 24 – betlar.

2. Umurov Hotam, Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent 2004, 252 - bet.

3 . Normatov U, Umidbaxsh tamoyillar, “Ma’naviyat”, Toshkent 2000 , 112 - bet.

4 Quronov D, Mutolaa va idrok mashqlari, Adabiy-tanqidiy maqola va risolalar , “Akademnashr”, Toshkent 2013, 336 - bet.

5 https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/hozirgi-ozbek-adabiyotiga-bir-nazar.html

БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯ: МУШТАРАКЛИК ВА ЎЗИГА ХОСЛИК

Нилуфар Дилмуродова,
ТошДЎТАУ мустақил тадқиқотчиси,
Тошкент молия институти доценти
nilu.01@mail.ru

Аннотация. *Ушбу мақолада ўзбек адиби Асад Дилмуродниннг “Ранг ва меҳвар” романи билан француз ёзувчиси Марсел Прустнинг “Йўқотилган вақтни излаб” туркум романлари тарихий ва қиёсий аспектда ўзаро солиштирилган. Услубларининг келиб чиқиши, тадрижи ва бадиий ифода шакллари таҳлил қилинган. Адиблар бадиий-эстетик концепциясининг тарихий-генетик, ижтимоий-сиёсий, маънавий-маърифий муштараклиги ва индивидуаллиги ўрганилган.*

Калит сўзлар: *“онг оқими”, интуиция, пластик образ, муаллиф образи, символик образ, эпик баёнчи образи, фано ва бақо, конфликт, иррационаллик,*

психологик таҳлил, кўп тармоқлилик, кўп қатламлилик, муштараклик, ўзига хослик

Abstract. *This article compares the novel by the Uzbek writer Asad Dilmurod "Color and Essence" and the series of novels by the French writer Marcel Proust "In Search of Lost Time" in a historical and comparative aspect. The origin, development and forms of artistic expression of styles are analyzed. The historical-genetic, socio-political, spiritual and educational harmony and individuality of the artistic and aesthetic concepts of the writers are investigated.*

Keywords: *"stream of consciousness", intuition, plastic image, image of the author, symbolic image, image of an epic storyteller, death and survival, conflict, irrationality, psychological analysis, polydisciplinarity, multilayeredness, generality, originality*.

Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, таниқли адиб Асад Дилмурод "Ранг ва меҳвар" романида XX аср француз адабиётида "онг оқими"га мансуб романларнинг асосчиси Марсель Прустнинг "Йўқотилган вақтни ахтариб" романлар туркуми: "Сван томонга", "Гуллаган қизлар соясида", "Германтлар томонида", "Содом ва Гоммора", "Асира", "Қочоқ қиз", "Топилган вақт" асарларидаги сингари олам қиёфасига хос маънавий ўзгаришларни ёқлайди. *(Холбеков, 2012, 118-131).*

Чунки, "Ранг ва меҳвар" романи бош қаҳрамони Комрон Вали ҳам ҳаётий жараёнлар орқали ўз-ўзини англашга интилади. Бу асарда дунёнинг ғоявий-мафкуравий қиёфасига кучли эътибор қаратилган. Мазкур жараёнда адиб фаҳм-фаросат билан ҳиссий мушоҳада, ақлий (интеллектуал) салоҳият (Ибн *Сино,* https://kh-davron.uz/*)* ва мистик (илоҳий илҳом) *(Гуссерль Э,* https://docs.google.com/document/preview.*)* йўсинларида илғаб олинувчи интуитив билим *(Маритен Ж, 2004,400)* билан бирга ақл-идрок иштирокини ҳам ёқлайди. Бундай кезларда романда пластик ва нопластик образлар ўзаро қўшилиб, уйғунлик касб этади *(Анри Бергсон, 1989, 261-262).*

Чунки адиб ақл-идрок ва интуицияни бир-бирини тўлдирувчи тушунчалар деб билади. Зотан, маънавий покланиш ақлдан ташқарида кечмайди. Моҳият наинки ҳис қилиниши, балки англанмоғи ҳам лозим. Одамнинг жавҳарида илоҳий нур тажаллийси мавжуд экан, унинг ижодий

имкониятлари фаол ҳаракатгагина боғлиқ эмас. Субъект идроки чекланган бўлса-да, у сабр-бардош билан олға интилиши лозим. Англашиладики, А.Дилмурод ҳодиса меҳварини аниқ тасаввур қила олади. Шарқ-ислом тафаккури таъсирида улғайгани боис, ироданинг манбаини реал дунё билан бир қаторда, йўқлик оламига ҳам боғлаб тушунтиради. Ишқнинг макони фано ва манзили бақо деб билган Ҳазрат Навоий ҳам:

Истаганлар бизни саҳрои балода истангиз,

Водийи ҳижрон ила дашти фанода истангиз.

Вомиқу, Фарҳоду Мажнундеклар ул водий аро

Бўлсалар пайдо, мени ҳам ул арода истангиз. (Алишер Навоий, http://navoi.natlib.uz:8101/) деб ёзган эди.

“Ранг ва меҳвар” романида Асад Дилмурод инсоний характерларга хос қарама-қаршиликлар курашини ақл идрок ва кўнгил муносабатларини келиштира олмасликда кўради. Унинг учун санъат асари – гўзаллик мушоҳадаси. Бу гўзаллик эса, асл жавҳар ва унинг барча узвларида намоён. Ўзбек адиби бадиий мушоҳада орқали ягона борлиқ мавжудлиги “мен”лик йўқолишга маҳкумлигини англатишни кўзлайди.

Бинобарин, у объектни дунё оқимидан ажратиб эмас, балки уйғунликда мушоҳада этади. Шубҳасиз, у ҳам ҳодисаларни билишдан ғояларни англаш сари боради. Ёзувчи дунёни инсон тасаввурлари эмас, балки илоҳий ирода маҳсули сифатида англайди. Санъат асари иррационал моҳиятини инкор қилмайди. Турли тасаввур ва мушоҳадаларга кенг ўрин ажратади. “Ранг ва меҳвар” романида эътиқоддан маҳрум кимсалар символик образининг ўзига хос туркумини яратади. Дарҳақиқат, романда нафс бандалари тимсоли маҳорат билан чизилган. Оддий халқ маънавий даражаси, ижодкорлик сифати психологик таҳлил этилган. “Йўқотилган вақтни ахтариб” асари каби “Ранг ва меҳвар”ҳам - интеллектуал роман. Чунки, ҳар иккала роман образлар талқинида фалсафий мушоҳадаларга кенг ўрин берилган.

М.Пруст романлар туркуми тематик жиҳатдан бир неча мустақил сюжетлардан таркиб топган бўлиб, улар параллел тарзда ривожланса-да бир-

бирига узвий боғланади. Ровий билан боғлиқ сюжет жараёнида у бола, ўсмир, балоғат ёшидаги йигит, чол каби турфа қиёфаларда намоён бўлади. Ҳикоячи билан боғлиқ сюжет линияси уч хил йўсин: а) китоб муаллифи; б) эпик баёнчи; в) воқеаларни ўз бошидан кечирган ёхуд кузатиб борувчи қаҳрамон нуқтаи назарлари асосида мураккаб тарзда ривожланади. Бу муносабат шакллари бадиий воқеликни ўзаро бирлаштиради. Эпик баёнчи романда тасвирланган жамият ўзгаришлари ҳамда қаҳрамонлар тадрижи ҳақида ҳикоя қилади. У воқеаларнинг жўн иштирокчиси эмас, балки жонли гувоҳи, фаол кузатувчиси, ҳатто тузатувчиси ва муайян маънода, судяси вазифаларини ҳам бажаради.

Асад Дилмурод ижодий индивидуаллиги эса, Шарқ маънавияти негизларига асосланади. Комрон хотираларининг туркумга айланишида эпик баён муаллиф шахси билан узвий туташади. Афсуски, беғубор болалик ва бўз йигитлик катта ҳаётий тажрибали инсон руҳий-психологик кечинмалари призмасидангина кузатилади. Сван ва Жильберта каби Комрон ва Нафиса муҳаббати ҳам кутилмаганда тугайди. Аммо, айрилиқ йигитни оғир изтироблар қучоғига ташлайди. Носир ва Тўра Охунлар қайбир жиҳатларига кўра герцог Германтский, барон Шарлюс, княгина Пармскаяларга менгзайди. Чунки, бу асарларда инсоний ҳис-туйғулар шаффоф тасвирланган.

А.Дилмурод инсон маънавиятини нозик қалб билан узвий боғлайди. Унинг етакчи қаҳрамони фикрий ва руҳий-ҳиссий идрок этган беғараз ҳамда бениҳоя нафис туйғулар реал дунёга мутаносиб эмас. Адиб талқинича, Комрон насл-насаби тоза экани боис ўз қалбини юксалтира олган.

А.Дилмурод ва М.Пруст романлари конфликти психологик жараён ҳамда реал воқелик тўқнашуви асосида юзага келиши жиҳатидан ўзаро яқин. Зотан, ҳар иккала адиб ҳам муҳаббат, вафо, садоқат, самимият, меҳр, оқибат каби юксак инсоний туйғулар заволи сабабларини излашади. Аммо ўша сабабни бири жамият, иккинчиси эса иймон-эътиқод орқали изоҳлашга майл билдиришади. Қизиғи шундаки, бу адиблар ҳазил-мутойиба, киноя-истеҳзо ва аччиқ заҳархандаси оломон учун табиий кўникмага айланган ҳаёт тарзига

қаратилган. Улар тор дунёқараш, қўпол муомала, бемаъни ғурур, ўринсиз иззатталаблик, олифтагарчилик, заиф нафсоният, нодонлик ва худбинликка бўлган нафратини яширишмайди. Чунки, табиий нафосатни ёқлашади. А.Дилмурод учун Тўра ва Носир Охун, уларнинг атрофини қуршаган одамлар шунчаки ижтимоий табақа эмас. У бегоналикни мутлақо бошқа манба, яъни шайтоний нафсга қулликдан излайди.

Эътироф этмоқ жоизки, М.Пруст заҳматкаш, ҳуқуқсиз ва итоаткор халқнинг жўн турмуш тарзи, орзу-интилишларини теран англамайди. У халқ дунёқараши, оламу одамни тушуниш, ҳис этиш йўсинини яқиндан билмайди. Бундай маънавий-руҳий бегоналик адибга уларнинг эркка ташна олижаноб қалби, метиндай мустаҳкам иродасини тўла кашф этиш, юксак қадрлаш - психологик портретини чизиш имконини бермайди.

А.Дилмурод ҳам айни ҳолатлардан бегоналик туяди. Бироқ, унинг ранг ва оҳанглар дунёси бирқадар сержило. Негаки, ёзувчи нуқтаи назари жамиятга эмас, инсон қалбидаги жавҳар ва унинг ижодкорига қаратилган. Шунинг учун ўзбек адиби барча орзу-умидлар саробга айланишига ишонмайди. Комрон чизган суратларига хос ранг ва оҳангларга пессимистик руҳ бағишлолмайди. М.Пруст эса, умидсизлик, тушкунлик, бепарволик кайфиятига берилади.

Демак, М. Пруст учун санъат ва ижод, А.Дилмурод учун бунга қўшимча тарзда покиза иймон эътиқод ҳам ягона қадриятдир. Агар “Йўқотилган вақтни ахтариб” романлар туркуми негизида турувчи бош мавзу адабиёт ва санъат бўлса, “Ранг ва меҳвар”да ўзлик саҳросида адашмасликдир. Албатта, ҳар иккала адиб ҳам ҳаёт маъносини ижодий фаолият билан чамбарчас боғлашади. Аммо, Комрон Вали учун ижод Яратувчи олдидаги масъуллик. У инъом этган истеъдодга бўлган эҳтиром. Қавмдошлари хотираси олдидаги бурч. Бинобарин Мерган, Вали бахши ва Комрон М.Пруст романларидаги: мусаввир Эльстир, бастакор Вентейл, ёзувчи Бергот сингири санъатдан ташқарида ўзини тасаввур қилолмайдиган муҳибларгина эмас.

Шубҳасиз, ҳар иккала адиб яратган ушбу тимсоллар анча ёрқин тасвирланган. Таъкидламоқчи бўлганимиз шуки, анашу ижодкор қаҳрамонлар ва улар яратган асарларга муносабат асносида М.Пруст ва А.Дилмурод бадиий-эстетик концепциясининг ўзаро яқин ва фарқланувчи жиҳатлар ҳам намоён бўлади. Зотан, ҳаётий тасаввурлар моҳияти, йўқотилган ҳис-туйғу ва кечинмалар айнан бадиий ижодда қайта жонланади. Бадиий ижод доирасида инсон муайян лаҳзаларда объектив борлиқ, замон ва макондан юксалади. Гўзал таассуротларни қайта кечиниш лаззатидан мислсиз завқланади. Бинобарин, бадиий ижод лаҳзани абадиятга муҳрлар экан, ҳиссий ассоциация ва ҳаётий таассурот ўзига хос руҳий эквивалентини интуитив англашни юзага чиқаради.

Бизнингча, М.Пруст ва А.Дилмурод “субъектив” эстетик назариясида санъат тор ва кенг маъноларда тушунтирилади.

Тор маънода: М.Пруст учун санъат на ижтимоий ҳаёт, на объектив воқелик - макон ва замонга боғлиқ эмас. Чунки у субъектив ҳиссиётлар дунёси. Ёзувчи учун ижодий жараёнда қайта тикланган ҳаётни тасвирлаш эмас, балки интуитив англаш муҳим. А.Дилмурод субъектив англами эса Яратувчи иродаси, меҳр-марҳаматидан ташқарида эмас. У ҳиссиётлар дунёсини мантиқ тарозусига қўйиб, хотирада қайта тикланган ҳаётни санъатга кўчиришдан руҳий сокинлик излайди.

Кенг маънода: М.Прустда санъат реал ҳаётга боғланмайди, аксинча ундан ажралади.Чунки унинг эстетик дастури биз кўниккан: “Санъат объектив дунёни билиш ва акс эттиришнинг ўзига хос шакли”, деган ақидага мувофиқ эмас. А.Дилмурод ўша қарашни мазмунан бирқадар кенгайтиради, яъни санъатни инсон ботини ва жамият бирлиги негизида тушунади.

Ҳар иккала адиб ижодида кузатилувчи “онг оқими”да ҳам муштараклик ва тафовутлар мавжуд: Масалан, улар учун “онг оқими” биринчидан, тасвир объекти. Иккинчидан, реал воқелик образларини ўзига хос талқин этиш усули. Зотан, ёзувчилар ХХ аср манфаатпарастлиги, маънавий қашшоқлиги ва дағаллигини қабул қила олишолмайди. М.Пруст моддий-маънавий

қимматлар негизига шахсни қўяди. У француз интеллегенцияси маънавий-руҳий ёлғизлигини психологик таҳлил этади. Бундан фарқли ўлароқ, А.Дилмурод иймон-эътиқод бутлиги шахс барқарорлиги омили эканини тасдиқлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алишер Навоий. “Хазойин-ул маоний. Бешинчи том. – http://navoi.natlib.uz:8101/uzb/xazoyin_ul_maoniy_beshinchi_tom/gazallar/gazallar_101_200/
2. Анри Бергсон. (1989). Творческая эволюция. – М., «Канон пресс»; «Кучково поле», – С. 261-262.
3. Гуссерль Э. Феноменология – https://docs.google.com/document/preview.
4. Ибн Сино. Шеър санъати. – https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/abu-ali-ibn-sino-sher-sanati.html.
5. Маритен Ж. (2004). Творческая интуиция в искусстве и поэзии. – М.: РОССПЭН, – 400
6. Холбеков М. (2012). Марсель Пруст прозаси. // “Шарқ юлдузи”. 2- сон, – Б. 118-131.

“IMOM MOTURIDIY” ROMANINING BADIIY-ADABIY XUSUSIYATLARI

Eshmamatova Tursunoy
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
2-kurs talabasi eshmamatovatursunoy@gmail.com

Annotatsiya: *Badiiy adabiyotda tarixga yuzlanib ijod etilgan asarlar ko‘p. Yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning “Imom Moturidiy” romani nafaqat o‘zbek, balki jahon adabiyotida ham buyuk alloma haqida yaratilgan ilk badiiy asar bo‘ldi. Ushbu maqolada romanning yozilish uslubi, boshqa asarlardan farqli jihatlari, obrazlar xarakteridagi o‘ziga xosliklar haqida so‘z borgan. Asarning adabiy-badiiy xususiyatlari tahlil etilgan va imkon qadar ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *eslash uslubi, syujet tizimi, xarakter, psixologizm, obrazlar ruhiyati, tasavvuf, tarixiy-diniy roman.*

Abstract: *There are many works of fiction created with a focus on history. The novel "Imam Moturidi" by the writer Luqman Borikhan was the first literary work created not only in Uzbek, but also in world literature about the great scholar. This article talks about the writing style of the novel, its differences from*

other works, and the characteristics of the characters. The literary and artistic features of the work are analyzed and revealed as much as possible.

Keywords: memory style, plot system, character, psychologism, psychology of images, mysticism, historical-religious novel.

O‘zbek adabiyotida iste’dodli, bir-birini takror etmas, o‘z so‘ziga va o‘rniga ega bo‘lgan ijodkorlar ko‘p. Ular har biri olam va odam tasvirini o‘z qalamida chizguvchi so‘z musavvirlaridir. Bugungi kun o‘zbek adabiyotining ana shunday so‘z musavvirlaridan biri, ajoyib nosir, asarlari kitobxonlar qalbidan joy olgan adib Luqmon Bo‘rixondir. Yozuvchining shu kungacha “Jaziramadagi odamlar”, “Xizr ko‘rgan yigit”, “Qidiruvdagi qiz” singari qator ijod namunalari chop etilgan. Ularda inson ruhiyati, uning burchlari, asliyat va o‘zlik masalalari aks ettirilgan. Ildizidan yiroqlashgan shaxslarning og‘ir qismati, odamzodning qon-qoniga singib ketgan riyokorlik, soxtalik kabi illatlar hajv ostiga olinib fosh etilgan.

Biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan “Imom Moturidiy” romanida muallif, boshqa asarlaridan farqli ravishda, tarixga murojaat etgan. Milodiy IX-X asrlarda yashab o‘tgan buyuk ilohiyotshunos alloma, fiqh va tafsir ilmining bilimdoni Abu Mansur Moturidiy hayoti va faoliyatiga ijodiy yondashuvning natijasi o‘laroq ko‘rkam bir roman dunyoga kelgan. Shuni ta’kidlash joizki, ushbu asar yaratilguniga qadar kalom ilmining sultoni Abu Mansur Moturidiy haqida faqat tarixchilar, din va falsafa vakillari tadqiqotlar olib borishgan, o‘rganishgan va o‘z sohalari doirasidagi kitoblarda bu xususda ma’lumot berishgan. Biroq badiiy adabiyotda ulug‘ mutafakkirning hayoti, yashagan davri, olg‘a surgan g‘oyalari-yu ilm-ma’rifatga qo‘shgan hissasi haqida hali bironta badiiy asar ijod etilmagan edi.

Roman uch qismdan iborat bo‘lib, asarning bosh qahramoni – Moturidiyning bolalik chog‘laridan to vafotiga qadar kechgan voqealar bayon etilgan. Asarning yozilish uslubi ham o‘zgacha. Yozuvchi asar voqealari, personajlar xarakteri, ular o‘rtasidagi munosabatlarni “eslash” uslubida qalamga olgan. Ya’ni, ma’lum bir syujet ustida gap ketar ekan, muallif birdan voqealar ishtirokchisi bo‘lgan obrazlarning boshidan kechirgan kechmishlari haqida eslab ketadi. Bu uslub – yozuvchining romandagi obrazlar hayoti, ularning dil so‘zlari, hissiy kechinmalari,

asliyatini kitobxonga yetkazishda o‘ziga xos bir yo‘l, yo‘sin vazifasini bajargan. Bunaqa eslashlarsiz asar mazmunini to‘laqonli anglash mushkul. Jumladan, Moturidiy va do‘sti Vosiq o‘rtasidagi munosabatlar nega darz ketgan, nega Idris Shomiy o‘z tuyg‘ulariga zid qo‘yilgan amallarni bajaradi kabi savollarga kitobxon aynan eslovlar orqali javob topadi. Biroq mazkur uslubga urg‘u berilishi ayrim o‘rinlarda romanni biroz cheklab qo‘ygan. Demoqchimizki, asosiy o‘rinni ma’lum bir syujet tizimidagi hodisalar bayoni emas, balki qahramonlarning “eslanmalar”i egallab olgan. Binobarin, romanning birinchi qismi voqealar rivojida yangi shahar hokimi imom Moturidiy bilan yaqindan tanishish maqsadida taklif yuboradi. Unga javoban yozilgan maslahatomuz maktubining asl mohiyatini tushunmagan hukmdor g‘azab otiga minadi. Fitnakor mulozimlar ig‘volariga ishonish natijasida, hazratning qatliga chog‘lanib, qishloq tomon ot soladi.Yo‘lda tasodiy falokat sabab jarohatlanib ortiga qaytishiga to‘g‘ri keladi. Aynan shu kichik voqealar o‘rtasida adib romandagi o‘nga yaqin turli shaxslar umr so‘qmoqlarini eslaydi, ularni ta’rif-u tavsif etadi. Natijada, asarning hajm qamrovi shu kabi eslanmalar hisobiga “semirib ketgan”.

Romandagi obrazlar tizimi ham puxta ishlangan. Har bitta obrazning xarakteri, psixologiyasi, ichki olamidagi kechinmalar tavsifi romandagi asosiy badiiy unsurlar hisoblanadi. Zero, “Xarakter yaratish badiiylikning o‘zak masalasi” (Umurov, 2002, 37-bet). Jumladan, asar gultoji hisoblangan Moturidiy shaxsiyati, olimlik siyrati, turmush tutumi xususida qalam tebratar ekan, ijodkor ortiqchalik, bo‘rttirishdan iloji boricha qochadi. Siyqasi chiqqan balandparvoz so‘zlar, madh-u alqovlardan xoli, sodda, xokisor inson qiyofasini chizadi. Uning darveshona ko‘rinishi, fe’l-atvori ostida kalom ilmining tengsiz bilimdoni, zakiy, o‘z yo‘lida sobitqadam, mustahkam e’tiqod egasi kabi xislatlari namoyon bo‘ladi.

Muallif asarda Moturidiy siymosining avliyolik xususiyatlari, ijtimoiy muhitga, ilmga, ilm ahliga nisbatan qarashlarini, asosan, uning va’zlarida, turli tabaqa kishilari bilan o‘zaro suhbatida ko‘rsatadi.

Moturidiyning nutqida bosh g‘oya – insonlarni ilm olishga, ilmni xolis, halol, teran o‘rganishga chaqiruv, uning kuchini shaxsiy manfaatlarga yem qilmaslik,

nafsoniy istaklar, adovatlar sabab ilm nuriga soya solib, uni noto‘gri targ‘ib etmaslikka undov ruhidir. Bu g‘oya Moturidiy siymosining umr yo‘liga, qismat bitigiga aylanib ketganini yozuvchi badiiy so‘z vositasida asar mazmuniga singdirib yuborgan. Fikrimizni dalillash uchun Imom Moturidiy nutqidan olingan quyidagi parchani keltiramiz:

Ey xalq, ey ulus, - dedi u kishi bir ikki silkinib olgach, - yarog‘ni ilmdan yasang. Ilm o‘rganing va o‘zgalarga ham o‘rgating. O‘tmishingizni muallim deb biling. Birovga haddan tashqari tanbeh bermang, behudaga maqtamang ham. O‘tganga, to‘kilganga va ketganga afsuslanmang. Aslo unutmang, ki nifoq ilmsizlik belgisidir.

Bundan tashqari, Moturidiy nutqida turli ijtimoiy mavzular doirasidagi mulohazalar keltiriladi. Asar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, allomaning nutqida diniy mavzulardagi ma’ruzalar koproq o‘rin egallagan. Darhaqiqat, diniy doiradagi o‘gitlar, Qur’oni Karim oyatlarining tafsiri romanda kitobxonni nafaqat ma’naviy oziqlantiradi, balki mustahkam e’tiqodiy ta’lim-tarbiya berishga ham xizmat qiladi. Ibrohim G‘ofurov ta’biri bilan aytganda: “Ezgulik, abadiyat, ilohiyot bobidagi fikrlarimizni charxlaydi” (L. Bo‘rixon, 2022, 6-bet).

Valekin badiiy asar bosh qahramoni tilidan diniy-aqidaviy jumlalarga keng o‘rin berilishi asarning ayrim nuqtalarida badiiyatdan yiroqlashishga olib kelgan. Mantiq, falsafa ilmlariga nisbatan ishonqiramaslik, hech qanday shar’iy asosi yo‘qligi uchun ularga ergashish xato hisoblanishi singari ta’kidlar asarning ba’zi joylarida Moturidiy va tasavvuf g‘oyalari o‘rtasida ziddiyat kelib chiqishiga sabab bo‘lgan. Ushbu mulohazamizga quyidagi parchalarni asos sifatida keltiramiz:

Ey ilm ahli, ogoh bo‘lingiz, mantiqni asos qilish, asta-sekin islom ummatini shariatni amallarning asosi qilib olishdan uzoqlashtirib, ularni qashshoqlik va qoloqlik, kufr va mas’iyatlar girdobiga tashlaydi. Ruh va jasad falsafasi hech qanday shar’iy asosga ega emas. Balki unga ziddir. Afsuski bugungi kunda taniqli olimlarimizham yunon falsafasiga asoslangan turlik tarki dunyochilik, so‘fiylik, tariqatchilik jamoalarini paydo qilishib, Allohning rizosi nafs ustidan g‘olib

bo‘lishlikdir, buning uchun esa nafsiy xohishlardan voz kechib toat-ibodat ila mashg‘ul bo‘lish kerak qabilidagi g‘oyani olg‘a surarlar.

Asardagi Vosiq ibn Qosim obrazida ilmga tashna, biroq nasl-nasab, izzat-ehtirom, shon-shavkat yo‘lidagi istaklari haqiqiy, pok ilmga bo‘lgan muhabbatidan ustun kelgan shaxs qiyofasi chiziladi. Ammo yozuvchi kitobxonga tanganing bir yuzasinigina ko‘rsatish bilan chegaralanmaydi. Ayrim salbiy xususiyatlarga ega Vosiq ibn Qosimning, avvalo, ilm egasi ekanini hech bir o‘rinda nazardan qochirmaydi. Tabiiyki, ilm sohiblari go‘zal fazilatlar-u odamiylik xislatlaridan ayro bo‘lmaydi. Ijodkor mazkur personaj timsolida bir vujud ichidagi o‘zaro zid tug‘yonlar kechimini ifodalaydi. Buni quyida asardan olingan parchalar bilan isbot etamiz: *Vosiq va Muhammad quchoq ochib ko‘rishdilar. Vosiq do‘stini bag’riga bosarkan, uning ozib-to‘zib, bir tutamgina bo‘lib qolganini payqadi. O‘kinchmi, mehrmi, shafqatmi ko‘nglidan lip etib o‘tdi.*

Vosiq chuvoqqa to‘shalgan po‘stak ustiga yonma-yon o‘tirib hol-ahvol so‘rasher ekan, uch hujrali, pastak, loysuvoq uyni, etagi bostirmayu og’ilga tutash, baland teraklar qurshagan, keng, allanechuk ivirsigan hovlini tezgina ko‘z qiridan o‘tkazdi. Uy-joy, mol-mulk bobida menga yetishishiga hali ancha bor, degan takabburona bir o‘ydan yuziga mamnuniyat yoyildi.

Psixologizm – Abdulla Qahhor tili bilan aytganda: “Yozuvchi mahoratining muhim jihatidir” (Abdullayeva, 2021, 390-bet). Romandagi biz yuqorida mulohaza yuritgan o‘rinlarda yozuvchi Luqmon Bo‘rixon inson ruhiyatini ijodkorona talqin etgan, uning nozik va muhim qirralarini badiiy so‘z dasturilamalida ochib bergan.

Romandagi hukmdorlar obrazi ham diqqatga molik. Chunonchi, Xolid Xalaj misolida “dunyoyi dunni zer-u zabar aylashi mumkin, biroq qog‘ozdagi zer-u zabarga yuzlansa, boshi aylanib, ko‘zi tinadi”gan hukmdor surati gavdalantiriladi. Asarda ushbu personajga berilgan mazkur ta’rif uning ma’naviy borlig‘iga qo‘yilgan munosib bahodir: “*Harflarni bir-biriga qovushtirib, so‘zlarni hijjalab o‘qimoqdan ortiqroq mashaqqatni hali bu olamda ko‘rmadi”*.

“Toshidin xon-u ichidin darvesh” – o‘rta asr ijodkorlarining orzusidagi hukmdor tasviri” (Eshonqulov, Vohidov, 2006, 499-bet). Mazkur romanda imom

Moturidiy orzusidagi “ichidin darvesh” podshoh Ahmad Somoniy timsolida namoyon bo‘lgan. Adolat tug‘ini mahkam tutgan, mamlakatda ilm-u urfonning qadrini baland qo‘ygan va ilm egalariga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo‘lgan somoniylar tojdoriga Abu Mansur shunday nigoh bilan qaraydi: “…*u amirning, ya’ni o‘sha darveshning ilmga, e’tiqod masalalariga befarq emasligini, munozarani xolis olib borishini sezib turardi”* .

Ikki hukmdor ruhiyatidagi bir-biriga zid jihatlarni ko‘rsatish bilan muallif ilm egallash sururi va ilmsizlik balosining oqibatlarini aks ettirgan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi Luqmon Bo‘rixon buyuk ilm darg‘asi, mutafakkir Abu Mansur Moturidiyning muborak umr yo‘li haqida yaratilgan ushbu asari bilan tarix, badiiy adabiyot va dinni o‘zaro bog‘ladi. Uchala sohaga oid bilimlarini sayqallab, bir roman qamroviga kiritdi. Asar mazmuni va yuqoridagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda ushbu badiiy ijod mahsulini tarixiy-diniy roman deya ayta olamiz. Bundan tashqari, asarning til ravonligi, tushunib bo‘lmas atamalar va chigal jumlalarning yo‘qligi bugungi kitobxonlar uchun hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Asarda hozirda dolzarb mavzuga aylanib borayotgan ilmga ishtiyoq susayib ketishining oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar ham badiiy so‘z vositasida romanga singdirib yuborilganki, bu ham ijodkorning salohiyati, so‘z qo‘llash mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva, D. (2021). Adabiyotshunoslikda psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi. Scientific Journal Impact Factor, 5,423.
2. Ismoilov, M. (2022). Imom Moturidiy – biz kutgan asar. Toshkent. Yangi O‘bekiston.
3. L, Bo‘rixon. (2022). Imom Moturidiy. Toshkent. Adabiyot.
4. Quronov, D. (2007). Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Fan.
5. Umurov, H. (2002). Adabiyot nazariyasi. Toshkent. Sharq.
6. Vohidov, R, Eshonqulov, H. (2006). O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. Toshkent. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiy jamg‘armasi.

NODIRA IBROHIMOVA HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI IFODASI (“MEN, DADAM VA ALSGEYMER” MISOLIDA)

Fayzulloyeva Dilfuza Ikrom qizi
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
dilfuzafayzullaeva2002@gmail.com

Annotatsiya: *Adabiyotshunoslik ilmi uchun hozirgi adabiy jarayonni tadqiq etish, uni boshqa davrlardan farqlab turuvchi jihatlarini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada umidli yosh yozuvchilarimizdan Nodirabegim Ibrohimova ijodida qahramonlar ruhiyatining o‘ziga xosligi qay darajada ifodalay olinganligi misollar vositasida yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *qahramon psixologizmi, ijodkor mahorati, obrazlar ziddiyati, iztirob tasviri, kutilmagan yechim.*

Abstract: *For the science of literary studies, it is important to study the current literary process, to determine the aspects that distinguish it from other periods. In this article, the uniqueness of the psyche of the characters in the work of Nodirabegim Ibrakhimova, one of our promising young writers, is highlighted by the author through examples.*

Keywords: *hero's psychology, autor’s creativity, image conflict, image of suffering, unexpected solution.*

Badiiy adabiyot uchun barcha davrlarda inson ruhiyatini o‘rganish muhim bo‘lib kelgan. Bu mavzu yuzasidan keng miqyosda ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus olimi S.L.Rubinshteyn badiiy asarda inson ruhiyatining tasviri haqida shunday deydi: “So‘z san’atkorlari qahramon psixologiyasini tasvirlar ekan, aynan uning (qahramonning) kechinmalari – kamolotga erishishdagi individual yo‘lini hayotning burilish pallalari sifatida yoritishga intilishlari bejiz emas. Ittifoqo, inson kechinmalari – bu uning real hayotining subyektiv tomoni, shaxs umr yo‘lining subyektiv eskpertidir” (Рубинштейн, 2000, 13-bet) Jahon adabiyoti an’analaridan ma’lumki, ijodkor ruhiyati, shaxsi va hayotiy tajribalari u yoki bu shaklda uning ijodiga ko‘chib o‘tadi. “Psixologizmda klassik adabiyotning uzoq yillik tarixiy hayoti sirlaridan biri yashirin: inson qalbi haqida gapirar ekan, u har bir kitobxon bilan uning aynan o’zi haqida gaplashadi” (Есин, 1988, 176-bet). Buni bugunning

yosh ijodkorlaridan Nodirabegim Ibrohimova ijodi misolida ko‘rish mumkin. Ijodkorning “Adibning vafoti”, “Men, dadam va Alsgeymer”, “Azon”, “Tilla baldoq”, “Insho”, “Yonayotgan yurak”, “Urush va kulcha”, “Haykallar” kabi hikoyalarida qalb iztiroblari, qahramonlarning murakkab ruhiyati o‘z aksini topgan. Bugungi voqelikni haqqoniy aks ettira oladigan tasvirlar Nodirabegim nasriga xos xususiyatlardan biri ekanligi ta’kidlanadi. Ushbu asar dastavval rus, ingliz, ispan, turk tillariga tarjima qilingan, xalqaro nashrlarda o‘z muxlislarini topib ulgurgach esa o‘z Vatanida ham kitob holida tarjima qilindi.

Har bir yaratilgan yangi asar jamiyatdagi ma’lum muammoga yechim vazifasini bajarmog‘i kerak. Asarda Vatan sog‘inchi, ayriliq, sevgi-muhabbat, oilaviy munosabatlar kabi mavzular markaziy masalaga olib chiqilgan. Nodirabegimning “Men, dadam va Alsgeymer” hikoyasini o‘qigan kitobxon qahramonlarning ruhiy iztirobini bevosita o‘zida his etadi. Odatda, barcha jiddiy kasallik bilan kasallanganlarning nafaqat o‘zi, balki yaqinlari ham qattiq tushkunlikka tushadi, yashashga bo‘lgan ishtiyoqi pasayadi, ammo biz bu hikoyada buning mutloq aksiga guvoh bo‘lamiz. Tasavvur qiling, siz hamma narsani unutdingiz, endi sizga na yong‘oq, na ishdan bo‘shab, uyda dam olish yordam beradi. Xotirangizsiz hech kimga kerak bo‘lmay qolasiz. Ammo hikoya qahramoni — mehribon qiz otasining kasalligidan nolimaydi, uni boshqalardan farqli o‘laroq oddiy qabul qiladi, hech qanday manfaatsiz, shunchaki bu inson uning otasi ekanligi uchun parvarishlaydi. Hikoyaning avtobiografik xarakterga egaligi muallif imkoniyatlarini kengaytirgan omillardan biridir.

“Yozuvchi ijod onlarida tasavvuridagi o‘quvchi bilan muloqotda bo‘ladi: unga muayyan badiiy ma’lumotni yetkazadi, o‘zining o‘y-hislari bilan o‘rtoqlashadi, u bilan bahslashadi, uni nimagadir ishontirishga intiladi” (http://quronov.narod.ru/dmaq13.html). “Insho” hikoyasidagi ota-ona va farzand munosabati hozirgi kundagi eng dolzarb muammolaridan birini yoritib bergan. E’tiborsizlik, mehrsizlik, kattalarning yolg‘on bilan ba’zi vaziyatlarga ko‘z yumishi, o‘z bolasidan vaqtini qizg‘anishini hech qaysi yo‘l bilan oqlab bo‘lmaydi. Hikoyada bola ruhiyatini yuzaga chiqaruvchi beg‘uborlik, erkinlik, rostgo‘ylik

kabi ijobiy xislatlar yaqqol o‘z aksini topgan. “Urush va kulcha” hikoyasida esa biz “Insho” voqealarining aksiga guvoh bo‘lamiz. Ota-ona mehri, oilaning muqaddasligi, shukronalik hissi kabi ulkan mavzular bu kichik hikoyada ochib berilgan. Birida hayoti to‘kin-sochin bo‘lishiga qaramay, ota-ona mehri yetishmayotgan bola ruhiyati, ikkinchisida esa hech qanday sababsiz, hatto shakar olishga puli yo‘q bo‘lsa-da, farzandiga baxtli bolalikni hadya etgan ota-ona ruhiyati mohirona tasvirlangan. Bu orqali yozuvchi oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit farzand tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqchi. “Haykallar” hikoyasi yozuvchining yangi asari bo‘lib, adabiyotning syurrealizm yo‘nalishida yozilgan. Dastlab adabiyotning ushbu yo‘nalishi XX asr boshlarida fransuz adabiyotida paydo bo‘lgan. Syurrealizmda yozilgan asarlarda yarim hayotiy, yarim xayoliy voqealar aks etadi. Mazkur hikoyada ham xiyobondagi haykallarning jonlanishi va o‘zaro suhbatlashishi tasavvur in’ikosi bo‘lsa, ular poyiga gullar qo‘yilishi, tantanali tadbirlar o‘tkazilishi va yosh yigit-qizlarning haykal atrofida sayr qilishi maishiy hayotdan olingan tasvirlardir. Hikoyaning qurilishi asosan haykallar dialogidan iborat. O‘quvchining e’tiborini tortadigan va ruhiyatiga ta’sir qiladigan jihatlari aynan mana shu jarayonlarda o‘z aksini topadi. Ijodkorga munosabat, ijod ahlining taqdiri haykallar suhbati orqali nihoyatda mohirlik bilan ko‘rsatiladi: “Iste’dodlarni tirikligida qadriga yetgan ma’qulmi deymanda, og‘a” (http://t.me/xurshiddavron.kutubxonasi). Bosh qahramon obrazidagi shoir yigit o‘zining sevgilisi bilan xiyobonda sayr qilar ekan, haykallar yonida unga romantik so‘zlar bilan dil izhori qiladi. Ammo oradan hech qancha vaqt o‘tmay bu dil izhori boshqa bir qizga aytiladi. Bir necha kundan so‘ng yana o‘zga bir qiz yolg‘on muhabbatga giriftor bo‘ladi. Yozuvchining mahorati shundaki, haykallar suhbatidagi jiddiy va dardli mavzularni hazil-mutoyiba yo‘sinida bayon etadi. Demak, hikoya chuqur falsafa va yumorni ham o‘z ichiga oladi: “— Bugun ham poyimiz gullar bilan to‘larkan. — Bugun birovingizni tug‘ilgan kuningiz edimi? — Yo‘q, mening o‘lgan kunim...” (N. Ibrohimova, 2021, 165-bet). Hikoyada ijodkor shaxsining turmush sinovlariga bardosh berishi yoki undan voz kechsagina buyuk asarlar yarata olishi, maishiy hayot uning ijodi gurkirashiga xalaqit berishi kabi

muammolar ham ko‘rsatib o‘tiladi: “Sizga o‘xshab oila va ro‘zg‘or tashvishlariga ko‘milib adabiyotdan uzoqlashib ketsinmi? Ana, chala romaningiz qaysidir javonda chang bosib yotibdi” (N. Ibrohimova, 2021, 164-bet). Hikoya kutilmagan yechim, yorqin tuyg‘ular bilan yakun topadi. Ya’ni biz yuqorida sevgi bobida yengiltabiat deb o‘ylagan shoir aslida chin muhabbatni izlagan pok qalbli, hayotda ko‘p iztirob chekkan yigit bo‘lib chiqadi. Bu misol bilan muallif odamning xarakteri haqida xulosa chiqarishda shoshilmaslik kerakligini aytmoqchi bo‘ladi. “Adibning vafoti” hikoyasi ba’zi xususiyatlari bilan Erkin A’zamning “Shoirning to‘yi” qissasiga o‘xshab ketadi. “Voz kechilgan kitoblar” hikoyasida ham yuqoridagi ikki asarning ayrim elementlari ko‘zga tashlanadi. Adibaning deyarli barcha hikoyalari hayotiy kuzatishlar natijasi ekanligi sezilib turadi. Ba’zi suhbatlarda muallif o‘zi boshidan kechirgan voqealar asarlariga ko‘chib o‘tganligini ta’kidlaydi. “Tilla baldoq” hikoyasi esa qahramonlarning insoniylik xususiyati yuqori darajaga olib chiqilgani bilan ajralib turadi. Siz uzoq kutgan qimmatbaho narsangizga erishganingizdan keyin, uni shunchaki birovga berib yuborishni xohlamaysiz, ammo yozuvchi kutilmagan yakunlanish (kutilmagan yakun adibaning deyarli barcha asarlariga xos) bilan kitobxonni hayratda qoldiradi. Shu kabi boshqa hikoyalarda ham ijodkor va o‘quvchi orasidagi badiiy muloqot o‘z aksini topadi. Taniqli shoir Xurshid Davron to‘g‘ri ta’kidlaganidek, Nodirabegim Ibrohimova “… hikoyalariga qahramon etib tanlangan odamlarning o‘ziga yarasha taqdiri va ko‘zga ko‘rinar-ko‘rinmas baxti yoki baxtsizligi bor. Eng qizig‘i, qahramonlarning baxtsizlik deb o‘ylagan kechmishlari ortida ham baxt mo‘ralab turgan bo‘ladi. Shu jihatdan bu hikoyalarni yon-berimizda kechayotgan taqdirlarning mo‘jazgina tasviri deyish to‘g‘riroq bo‘lar.” (http://t.me/xurshiddavron kutubxonasi).

Xulosa qilib aytganda, Nodirabegim Ibrohimova hikoyalarini mutolaa qilarkanmiz, o‘zbek adabiyotiga yangicha bir ruh, ovoz kirib kelayotganini sezish mumkin. Uning hikoyalarida hech bir qahramonning ruhiyati bir-birini takrorlamaydi. Xarakterlarning esda qolarli yorqinligi, ruhiy iztiroblari, hikoyalardagi kutilmagan yechim, kattalar va bolalar munosabati masalasi o‘ziga

xos tarzda aks etgan. Yozuvchi o‘z dunyoqarashidan kelib chiqib, har qaysi qahramon ruhiyatini atroflicha yorita bilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nodirabegim Ibrohimova. Ikki hikoya. http://t.me/xurshiddavron kutubxonasi
2. Nodirabegim Ibrohimova. Men, dadam va alsgeymer. – Yangi asr avlodi, 2021.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт Петербург: Питер, 2000.
2. Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва: Просвещение, 1988.
3. http://quronov.narod.ru/dmaq13.html
5. Nodirabegim Ibrohimova. Men, dadam va alsgeymer. – Yangi asr avlodi.

“MUVOZANAT” – O‘TISH DAVRI KO‘ZGUSI

G‘oyibbekov Diyorbek Yusufbek o‘g‘li,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
2-kurs talabasi diyorbek.goyibbekov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoting yetuk namoyondasi Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub “Muvozanat” romani syujeti, mavzu va g‘oyasi tahlili, qahramonlari o‘rtasidagi badiiy konfliktlar haqida mulohazalar bildiriladi. Asarning markaziy g‘oyasi – muvozanat va muvozanatsizlik, hamda uning asarda qanday yoritilgani haqida juz’iy xulosalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ulug‘bek Hamdam. “Muvozanat” romani, syujet, qahramon.*

Abstract.*In this article, the plot, theme and idea analysis of the novel "Equilibrium" written by Ulugbek Hamdam, a mature representative of Uzbek literature, comments on the artistic conflicts between the characters are presented. Partial conclusions are given about the central idea of the work - balance and imbalance, as well as how it is covered in the work.*

Keywords: *Ulugbek Hamdam. Equilibrium Novel, Plot, Character.*

Adabiyot insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondiruvchi bebaho xazinadir. Ulug‘ shoir Abdulhamid Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda, adabiyot biz uchun suv va havodek zarurdir. Qaysidir jihatlari bilan u tarixga o‘xshab ketsa-da, undan farqli o‘laroq, ma’lum davr kishilarining ichki kechinmalari, orzu-armonlari, o‘y-xayollarini ochib beruvchi ko‘zgudir. Chinakam adabiyot makon va zamon tanlamaydi. Har qanaday sharoitda ham o‘z bahosini yo‘qotmaydi. Adabiyotning

kuch-qudratini ta’riflash bilan bir qatorda uning bir bo‘lagi bo‘lgan o‘zbek adabiyotiga ham to‘xtalish lozim.

O‘zining boy va qadimiy tarixiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiyotida har bir davr adabiyoti ma’lum bir davr hayotini ochib beruvchi muhim bir manbadir. Ularning har birida o‘sha davr hayot va kechinmalarini yoritib berish bilan bir qatorda, insoniyat uchun ming yillardan beri muhim sanalib kelinayotgan, ularning qon-qoniga singib ketgan muammoli vaziyatlar, axloqiy muammolar ochib beriladi. Shunday badiiyat namunalari ham borki, ular har bir davrda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yana uzoq yillardan keyin ham insonlarni qiziqtiraveradi, o‘y-xayollarini toldiraveradi. Ularni o‘qigan sari yangicha badiiylik va estetik zavq kashf qilinaveradi. Biz bu maqolada ana shunday asarlardan biri haqida to‘xtalmoqchimiz. Bu asar maqola sarlavhasida tilga olingan, kitobxonni o‘ylar dengiziga g‘arq qiladigan, o‘sha siz eshitgan yoxud o‘qigan “Muvozanat”dir. Bu asar yangi davr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan zabardast ijodkor Ulug‘bek Hamdam qalamiga mansub. Bu asarning yana bir o‘zgachaligi shundaki, u yangi davr adabiyotida falsafiy xarakterga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Hattoki, o‘zbek adabiyotidagi birinchi falsafiy roman sifatida e’tirof etuvchilar ham bo‘ldi. Ulug’bek Hamdamning “Muvozanat” romani yozilganiga ham yigirma yil bo‘libdi. “O‘shanda, olis 1997-yilda roman qo‘lyozmasini o‘qirkanman, diqqatimni **JUR’AT** bo‘lgandi. Kechirib turilgan kun haqida roman yozish oson emas: hodisaning estetik ob’ektga aylanishi uchun undan uzilish taqazo etiladi. Yuz berib turgan hodisotlar ichida bo‘lgani holda ularni badiiy mushohada etish g‘oyat mushkul – buning uchun katta iste’dod, hassos qalb, o‘tkir san’atkorona nigoh kerak. Avvalo, o‘ttizga to‘lmagan yozuvchi hayotning dolg‘ali oqimiga chetdan nazar solishga o‘zida kuch, jur’at topolgani havasimni keltirdi. Jur’atning ikkinchi qirrasi – yosh adibning voqealikni bo‘yab-bejamasdan, boricha, butun murakkabligi bilan mushohada qilishga intilgani, o‘sha vaqtlar hayotimizda og‘riqli nuqtalarni, maddalab borayotgan yaralarni o‘zidek ko‘rsatishga intilgani edi (Dilmurod Quronov,2021, 6-bet)

“Muvozanat” dard-alam va iztiroblar bilan dunyoga keldi. Bu iztiroblar bor yo‘g‘i 29 bahorni qarshilagan, biroq hayotning sinovlariga uchrab, bir muddat muvozanatsizlik qarshisida hayot tizginini yo‘qotgan ijodkor va unga tanish bo‘lgan iztiroblardir. Bu yoshda muallifimiz to‘liq ijodiy kamolotga yetmagan bo‘lsa-da, asarning tub mohiyati va o‘sha davr kishilarining ahvoli-ruhiyati yaqqol ochib berilgan. “Ulug‘bek Hamdamning “Muvozanat” hamda “Isyon va itoat” romanlari adabiyotimizdagi ulkan bir kemtiklikni to‘ldirdi. Ungacha milliy romanlarimizda inson, asosan mehnat va faoliyat bag‘rida ko‘rsatilardi. Yozuvchi adabiyotimizda murakkab va chigal o‘ylar og‘ushidagi o‘zbekni tasvirlashni boshlab berdi. Natijada, adabiyotimizda o‘zi, umri, odam va olam haqida teran falsafiy o‘ylar suradigan millat vakillari qiyofasi yaratildi” (Qozoqboy Yo‘ldosh. 58-bet‘) Fikrimizning isboti o‘laroq, asarning umumiy syujeti haqida qisqacha to‘xtalsak. Bu asarda mustaqillikning ilk yillari jamiyatimizda bo‘layotgan voqealardan bir muddat esankirab, mustaqillikning bizga nima berishi haqida o‘ylayotgan, qisman ma’naviy qoloqlikka yuz tutgan, muvozanatsizlik holatidagi kishilar turmush tarzi, o‘y-xayollari ustalik bilan yoritib berilgan. Roman voqealari, asosan, Toshkent hamda yozuvchining o‘zi tug‘ilgan yurti Marhamat tumanidagi Ulug‘tog‘ yaqinida bo‘lib o‘tadi. Barcha voqealar asarning bosh qahramoni bo‘lgan Yusuf bilan bog‘liq tarzda bo‘lib o‘tadi.Yusuf o‘zi o‘qigan universitetda dars berardi. O‘sha paytlarda mustaqillik endi qo‘lga kiritilgan, davlat asta – sekin o‘zini tiklayotgan, tashqaridan yordam qo‘llari uzilgan paytda o‘qituvchilarning oylik maoshi sezilarli darajada past edi. Shuning uchun hamma: o‘qituvchidan tortib, shifokorgacha o‘zini “yog‘liroq” ishga urgan paytlar edi. Lekin Yusuf bunday qilmadi boriga qanoat deb o‘z kasbini tashlamaslikka harakt qildi. Lekin bu sadoqat undan qurbonlik talab qildi. Norasida o‘g‘li Muhammadjon o‘ldi, oilasi buzildi. Yaqinlari mushkul ahvolga tushdi. Umuman olganda, hayotini muvozanatdan chiqarib yubordi. Va nihoyat Yusuf kasbini bir muddat o‘zgartirishga majbur bo‘ldi. Bunga uni hayotning o‘zi majbur qildi. Yani, uning moddiy hayotidagi muvozanatsizlik, ma’naviy hayotiga ham ta’sir qildi. U alaloqibat inson faqat moddiy va ma’naviy ehtiyojlari bilan yashay olmasligini tan

oldi. Poyabzal do‘konida bir muddat sotuvchilik qildi, o‘ziga yoqmaydigan ishlarni ham bajarishga majbur bo‘ldi. U bu kabi ishlarni boylik to‘plab, katta obro‘-e’tiborga erishish uchun qilgani yo‘q, aksincha, moddiy hayotidagi muvozanatsizlikni izga solish uchun bajardi. U bir kun yana o‘zi sevgan ishiga qaytishini, moddiy va ma’naviy hayoti bir muvozanatga tushishini bilardi, kelajakka ishonch bilan yashadi. U yana talabalari oldiga, ko‘zlari yonib turgan holda ustozini kutyotgan shogirtlari oldiga qaytadi, yana katta o‘quv zalida maruza o‘qiydi. Asarda Yusuf birgina oddiy o‘qituvchi, biroq har xil to‘siq va qiyinchiliklarga duch kelgan, bir muddat muvozanatsizlik holatiga tushsa ham, oldiga qo‘ygan maqsadlari sari olg‘a qadam tashlagan jamiyat timsolidir. Asardagi boshqa qahramonlar taqdirida ham muvozanat haqiqati aks ettiriladi. Yozuvchi asarda Amir obraziga alohida e’tibor beradi. U hayotida ro‘y berayotgan ma’naviy-ruhiy kechinmalarni, muammolarni din yordamida yechmoqchi bo‘ladi. Toat ibodatga shu darajada sho‘ng’ib ketadiku, o‘zini, o‘zligini unutadi. Uni bu darajaga kelib qolishiga jamiyatdagi o‘zgarishlar sabab bo‘ldi. Mustaqillik qo‘lga kiritilishidan oldingi yillar davlatda dinga bir muncha taqiqlar qo‘yilgan edi. Shu yillarda Amir yaxshigina joyda ishlar, oilasi, farzandlari haqida qayg‘urardi. Istiqlol qo‘lga kiritilishi bilan yo‘llar ochildi, xususan, dinga bo‘lgan taqiq ham sezilarli yumshatildi. Aytganimizdek, dastlabki yillarda jamiyatda tubdan o‘zgarishlar yuz berdi. Insonlar hayoti bir muddat yo‘lsizlikka, e’tiqodsizlikka va umidsizlikka uchradi. U shu darajaga yetgandiki, oila tashvishlarini o‘ylamasdi, ro‘zg‘orning barcha tashvishi Amirning ayoli Gulshoda qo‘lida edi. Amir tun-u kun ibodat qilar, kechalari kam uxlab, kunduzlari ro‘za tutib, hayot kechirardi. Umrining mazmunini dindan topmoqchi bo‘ladi, u bu ishga shunday sho‘ng‘iydiki, o‘zini va o‘zligini ham yo‘qotadi. Shundog‘am nochor yashayotgan oilasi parokanda bo‘ladi. Muallif bu personaj orqali ruhiy muvozanatsizlik botqog‘iga botgan insonni ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Sodiq, Mirazim, Zahro, Manzura obrazlari misolida ham olam-olam ma’no yashirin. Ularning ba’zilari hayotda mol – dunyoga erishgan bo‘lsalar-da, ma’nan qashshoqlashib ketgan, ba’zilari mansabning quliga aylanishadi. Miraziz, Sodiq va Yusuf ajralmas, qadrdon do‘st

edilar talabalik yillarida. O‘sha davrdagi hayotdagi mavhumliklar, qiyinchiliklar otani boladan, akani ukadan, do‘stni do‘stdan ajratib yuborishga qodir edi. Shunday bo‘ldi ham uch do‘stning ichidan faqat Yusuf o‘z iqtidori bo‘yicha muallimlik yo‘lini tanladi va talabalarim, yurtim deb yashadi, Miraziz va Sodiq esa pulni ketidan quvib, mol-u-davlat to‘plash ilinjiga tushishdi. Natijada do‘stlarning yo‘llari ayrildi. Ijodkor muvozanatsiz, alg‘ov-dalg‘ovli hayotni tasvirlasa-da, unga biroz yechim topadi. Qahramonimiz hayot doshqozonida qaynay boshlaydi.Yusuf hayotga boshqacha nigoh bilan qaraydi. Muvozanatsizlik balosidan qutulish yo‘llarini izlaydi. Asar so‘nggida uning tilidan aytilgan ushbu nekbin so‘zlar buni tasdiqlaydi:

-*Turishi kerak edi…*
-*Turishi kerak…*
-*Tur!..*

Har bir asar bir ma’no ustiga quriladi. Bu asarda ham ruhiy muvozanat va muvozanatsizlik ma’nolari bosh g‘oyadir. Yusuf ham xuddi ana shunday muvozanatsizlik orasida edi. Poyabzal do‘konida ishlab yurgan paytlarida ham tinmay, o‘ylardi, o‘ziga-o‘zi savol berardi. Hayotidagi bunday chigalliklar, tartibsizliklar va umidsizlik sababini qidirardi. Bunga muallifning o‘zi javob topgandek edi. “ Yusuf, nihoyat, o‘z botinida kechayotgan ulug‘ muhoraba iztirobini to‘liq idrok etgandek bo‘ldi. Arosat daxshati o‘z qalbi va vujudini yiqa boshlagandek edi. Nihoyat, endigina u insonga ham nom, ham parvoz uchun keng, lojuvard osmon zarurligini manguga idrok etdi. Nazarida iztiroblarning ildizi AROSATga borib taqalayotgan edi. Ajab, yashash uchun kurashga undaydigan doimiy shafqatsiz raqobat – iqtisodiy-siyosiy bellashuv rivojlanishning eng ishonchli yo‘li, biroq u insonni oyoq osti qilib, taxti ravonga “narsa”ni chiqarmoqda. Aksincha, yo‘l tutib, qoloqlik botqog‘iga g‘arq bo‘lish mumkin emas. Go‘yo butun boshli bani odam mangulikning chohida qolib ketgandek, uning arosati va undan yetadigan iztirob abadiydir” (Muvozanat, 2021, 211-bet). Munaqqid Umarali Normatov aytganidek: “Zamonning qaynoq nafasi ufurib turadigan asarlarga har doim ham alohida talab bo‘ladi” (Umarali Normatov, 258-

bet) Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, olam va odam muvozanat qonuniyatiga bo‘ysunishga majbur. Ba’zi juz’iy xulosalar:

1. “Muvozanat” romani mustaqillikdan so‘ng paydo bo‘lgan chuqur ruhiy-psixologik tahlilga asoslangan birinchi roman.
2. Asarda ijtimoiy muhit muvozanatining buzilganligi ham badiiy aks etgan;
3. Asar qahramonlari kechmishida ijtimoiy mavhum sharoit, yo‘lsizlik insonlar hayotiga ham ta’sir o‘tkazib, uni ruhiy-ma’naviy muvozanatdan chiqarishi ishonarli tasvirlangan;
4. Asarda qalb muvozanatiga erishish murakkab jarayon ekaniga urg‘u berilgan;
5. Roman achchiq hayot realizmini aks ettirgani bilan ham ahamiyatli;
6. Asar syujet chiziqlari dinamik rivojlanib boradi, qahramonlar qismati sun’iylikdan holi;
7. Yusuf – kitobxonda nekbin umidlar uyg‘otuvchi yangicha qahramon sifatida gavdalanadi.

Butun bashariyat va koinot olami dunyoda muvozanatni saqlashga majbur. Agar olamda muvozanat buzilsa, insonlar hayoti, balki butun jamiyat izdan chiqadi. Buni biz asar misolida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Birgina Yusufning hayotidagi muvozanatsizlik uning ayoliga, farzandiga , ota-onasiga, o‘ziga, o‘zligiga qattiq ta’sir qildi. Olamda me’yor bo‘lsagina, hayotda muvozanat bo’ladi. Bu yorug‘ olamda muvozanat bilan muvozanatsizlikning o‘zaro almashinib turishi qonuniyat maqomidagina hodisa, shunga qaramay, inson dunyoni ko‘ngliga, mavjudligini mohiyatiga muvofiqlashtirishga intilib yashashi zarurki, bu – insonlik sharafidan kelib chiquvchi vazifa, ehtimol, inson hayotining mazmunidir. Agar biz olam va odam tutib turuvchi va harakatlantiruvchi muvozanatga erishsak, moddiy va ma’naviy hayotimizda ko‘ngildagidek natijaga erisha olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ulug‘bek Hamdam. (2021). – 334 b. “Muvozanat”. Roman. T.:”Yangi asr avlodi”.

2. Қозоқбой Йўлдош. (2019). – 688 б. “Очқичсўз”. Т.:”Тафаккур”.

3. Норматов У. (2007). — 352 б “Ижод сеҳри”. Т.: «Шарқ».

“JAVZO” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI

Mirazizova Xonzoda
ToshDO‘TAU O‘FF 401-guruh talabasi
mirazizovaxonzoda31@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola taniqli yozuvchi Risolat Haydarovaning “Javzo” asaridagi ayollarga xos xususiyatlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolaning yozilishidan maqsad zamonamiz ayol-qizlariga o‘rnak va ibrat bo‘ladigan ayollar obrazini yanada ochib berish. Ayol matonati, sevgisi, muruvvati kabi fazilatlari tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *roman, obraz, zamon, tarixiy haqiqat, badiiy haqiqat, xarakter.*

Abstract: *This article is aimed at evaluating the characteristics of women in the work “Javzo” by the famous writer Risolat Haydarova. The purpose of writing the article is to reveal the image of women who arerole model sandrol models forthe women of our time. It has been an alythed that the women‘s tenacity, love and kindness are reflected in the time.*

Keywords: *novel, image, historicalfact, artisticreality, charakter.*

Tarixiy-falsafiy qonuniyatlar, zamonlar o‘zgarishi, jamiyat va insonning aqliy faollashuviga qaramasdan, insoniyatning har doim bir yo‘ldan borishi haqida o‘zgarmas tamoyillar mavjud. Zamonlar o‘zgarsa-da, eng buyuk fazilatlarga ega insonlar bilan salbiy xislatlarga boy insonlar ham yonma-yon yashaydi. Aynan ushbu qonuniyat nuqtai nazaridan “Tarix-buyuk o‘qituvchi” degan haqiqat reallashgan.

Ayol, naqadar nozik va go‘zal xilqat. U yer yuzidagi barcha umrboqiy ezguliklarning iqtibosidir. Sabr va matonat ramzi bo‘lgan bu zotning siymosini gavdalantirgan asarlar adabiyotimizda yetarlicha. Adiba Risolat Haydarovaning “Javzo” romani ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asarda ayollarning ko‘plab nozik qirralari ochib berilgan-ki, bular tahlil va talqinga ehtiyoj uyg‘otadi.

Asardagi Qorako‘zbegim obrazi va uning xarakteri boshqa personajlarga qaraganda keng qamrovda ochib berilgan. U suyukli yor, sohibjamol malika, shu bilan birga shoshqaloqlik, o‘zini boshqalardan ustun qo‘yadigan, xudbin ayol

sifatida tasvirlangan. Birov unga yomonlik qilsa, albatta, javob qaytarmasdan qolmagan obrazdir. Shuning uchun turmush o‘rtog‘i Muzaffar Mirzo dushmandan qo‘rqib, yurtini tashlab qochganidan so‘ng, Shayboniyxonning ishqiy maktubga darhol rozilik berishi o‘quvchida shubha tug‘dirmaydi. Malikani kelajagidan xavotir olib shu yo‘lni tutdi deyishimiz ham mumkin. Chunki jangda mag‘lub bo‘lgan shohning harami va rafiqalari g‘alaba qilgan shohning haramiga o‘tar yoki sarkardalariga in’om etib yuborilardi. Muzaffar Mirzoning unga atalgan bilaguzugini Ganjina ismli joriyaga berishi ham unga og‘ir botadi. Bir tomondan sadoqat va itoat, boshqa tomondan esa xiyonat, isyon va qo‘rquv ham sabab bo‘lgandir.

Muallif Qorako‘zbegim obrazi orqali har qanday sharoitda ham oilani yolg‘on bilan boshqarmaslik kerakligini ko‘rsatib bergan. Uning birgina yolg‘oni hayotini ostun-ustun qilib yubordi. Oxir-oqibat iztirobli o‘ylari vijdon azobi va dard yukining og‘irligidan yuragi yorilib vafot etadi.

Romandagi Xadichabegimning dilidagi toj-u taxtga bo‘lgan xirs, adovat, hasad va nafrat uni yomon yo‘lga boshlaydi. Husayn Boyqaro Xadichabegimni oddiy g‘unchachilikdan Mahdi ulyolik darajasiga ko‘taradi. Bundan ko‘rinadiki, podsho uni yaxshi ko‘rgan. Malikaning fikricha, taxtga faqat sevimli ayoldan tug‘ilgan farzandgina munosib. O‘zini shunga ishontirib yurar edi. Ko‘zi och malikaning adovati, g‘arazi oqibatida bir begunoh bola qatl etiladi. Toj-taxt talashlarida Xadichabegimga o‘xshagan ayollarni ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Romanda turli xarakterdagi ayollarni uchratamiz. Ulardan biri qalbi sevgiga limmo-lim to‘lgan Mo‘g‘ul xonim obrazidir. Muallif uni jiddiy mulohazakor deb ta‘riflagan. Mo‘g‘ul xonim juda past gapirar, kam kular edi. Unchalik chiroyli ham deb bo‘lmasdi. Malikani iboli, xayoli va jozibador ayol siymosida gavdalantirgan. Bundan tashqari bu ayol haqqoniy sevgi ramzi. Hattoki Shayboniyxon Mo‘g‘ul xonimning otasi va ukasini o‘ldiradi. Shunda ham erini sevishdan, unga hurmat ko‘rsatishdan to‘xtamaydi. Axir, sevgining ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘ladi. Dunyoni hissiyot boshqaradi, uni muhabbat saqlaydi. Agar ular bo‘lmasa yovuzlik ezgulik

ustidan g‘alaba qozonar edi. Mo‘g‘ul xonim xuddi majnundek bo‘lib qoladi. Ko‘proq yolg‘iz qolar, kechalari sham yorug‘ida kitob mutolaa qilardi.

Odatda, insonlar tashqi go‘zallikka e‘tibor qaratishadi. Fidoyilik, donolik, beg‘uborlik, qalb go‘zalligi kabi xislatlar ayollarning oliy sifatlaridir. Tashqi go‘zallikdan ko‘ra ichki go‘zallik insonning qalbiga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatadi. Negaki insonlar mehrga, muhabbat, e‘tiborga muhtoj bo‘ladi. Shayboniyxon ham eng qiyin vaziyatda, chigal hissiyotlar girdobida qolganida qalbi talpingan juftini topadi. Mo‘g‘ul xonim Shayboniyxonni bor kamchiliklari bilan sevadi. Shohga kerakli vaziyatda suyanch bo‘ladi. Bu xislat kamdan kam ayollarda uchraydi. Muallif Mo‘g‘ul xonim obrazi orqali ayollarga har tomonlama o‘rnak bo‘ladigan ayolni yaratadi. Shu jihati bilan salbiy xarakterli ayollarga kontrast qo‘yiladi.

Asardagi Ulug‘bibi obrazi mehribon ona, kuyunchak, duogo‘y buvi, vafodor rafiqa sifatida tasvirlanadi. Bundan tashqari bu ayolning iymoni butun, e’tiqodi mustahkamdir. U har doim joynamozi ustida umr yo‘ldoshiga omonlik, uzoq umr, bebosh shahzodalarga insof, oilasiga tinchlik so‘raydi. Bu chin ma’nodagi muslima ayol siymosidir.

Adabiyotshunoslikda personajning tashqi ko‘rinishi bilan uning xarakterini tasvirlash mumkinligi ta’kidlanadi. Shu o‘rinda Xonim oyim ta’rifiga e’tibor beraylik: “Qirq olti-qirq yetti yoshlardagi jussador, bodomqovoq, qoshlari keskin qayrilma, dahani yupqa, ko‘z atrofida mayda ajinlar ko‘ringan, qoramag‘iz ayol. Ovozi o‘ktam, so‘zlari amirona, ko‘z-qoshlari tiyrak...” (Haydarova R. 2011,78-bet).

Ko‘rinib turibdiki, bu ayolning tashqi ko‘rinishidan tashqari uning ichki holati ham kitobxonda muayyan taassurot qoldiradi. Xonim oyim Shayboniyxonning birinchi xotini, uning yosh jihatdan ustunligi, haram ahliga boshchilik qilishi yuqoridagi ta’riflarga to‘laqonli mos keladi. Bundan tashqari uni qat’iyatli, jiddiy va mulohazakor ayol sifatida gavdalantiradi. Xonim oyim ismi ham bunga ishora qilganini payqash mumkin. Biroq saroyda o‘z mavqeyiga ega bo‘lgan malika Qorako‘zbegimning saroyga kirib kelishidan xavotirga tushadi. Katta ehtimol bilan Shayboniyxonni undan rashk qilgan deyishimiz mumkin. Buni quyidagi jumlalar

orqali ko‘rishimiz mumkin: “Tasbehni o‘girar ekan, tuyqusdan qahrabo donalarining odatdagidan qattiqroq shaqillayotganini sezib, hayron bo‘ldi. “Menga ne bo‘ldi?” — o‘yladi u. Biron gap bo‘lgani yo‘q, nechun achchig‘im kelyapti?” (Haydarova R. 2011, 79-bet).

Rashk va muhabbat yosh, chiroy, vaqt tanlamaydi. Asarda ayol rashki bilan bog‘liq ko‘p tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Qorako‘zbegim Muzaffar Mirzoni Ganjinadan rashk qilgan. Mo‘g‘ul xonim Shayboniyxonni boshqa malikalardan qizg‘ongan. Shu o‘rinda Xonim oyim ham shu tuyg‘udan benasib emas. Biroq ichki adovat va orada bo‘lib o‘tgan dilxiraliklarga qaramay, Xonim oyim Qorako‘zbegim o‘lganidan so‘ng uning nomini qoralamaydi. Balki musulmonlarga xos izzat-ikrom va hurmat bilan marosimlarini ado etishga bel bog‘laydi. Xonim oyim orqali biz chin muslima ayolni ko‘ramiz.

Asardagi yorqin obrazlardan biri Xonzodabegimdir. Tarixdan ma‘lumki Xonzodabegim shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning opasi. U oilasini qutqarish maqsadida o‘zini qurbon qiladi. Ya’ni Shayboniyxonning taklifiga rozi bo‘ladi. Romanda ham tarixiy voqealik shunday tasvirlangan. Xonzodabegim bilan Qorako‘zbegim bir-biriga qarama-qarama qarshi qo‘yilgan obrazlardir. Chunki Xonzodabegim oilasi va yaqinlari uchun o‘zini qurbon qiladi. Qorako‘zbegim esa o‘z manfaati uchun ish yuritadi.

Asarda Gulnurbegim, Husnibonu, O‘g‘ilbibi, Opoqbegim, Nurbadan singari bir-biriga o‘xshamagan obrazlar borki, ular xarakterining turfaligi bilan kitobxonni o‘ziga rom etadi. Muallif bu obrazlar orqali ayol ruhiyati va shaxsiyatiga xos jabhalarni ochib bergan. Bu obrazlarning ba’zilaridan ibrat, o‘rnak, ba’zilaridan saboq olishimiz tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarova R.Javzo. Toshkent G‘. G‘ulom nashriyoti 2011.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. 2002.
3. www.Ziyouz.com
4. www.Ziyouz.com kutubxonasi

“O‘TKAN KUNLAR”DA DAVLAT BOSHQARUVI G‘OYASI

Mitanova Shahriniso Sodiqovna
ToshDO‘TAU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti
3-kurs talabasi Shahrinisomitanova2001@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada “O‘tkan kunlar” asaridagi Yusufbek hoji obrazi haqida so‘z yuritilgan. Syujet voqealarida Yusufbek hoji xarakterining o‘ziga xos xususiyatlari, ayniqsa davlat boshqaruvidagi ahamiyatli roli yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, “O‘tkan kunlar”, Yusufbek hoji, prototip.*

Abstract: *This article talks about some aspects of the image of Yusufbek Haji, who played an important role in social and political events in "Otkan kunlar". In the events of the plot, the specific characteristics of Yusufbek Haji's character, especially his important role in state administration, are highlighted.*

Keywords: *Abdulla Qadiri, "Past Days", Yusufbek Haji, prototype, people.*

Inson qanchalik ulg‘aygan sari dunyoqarashi, bilimi ham shunchalik ortib boraveradi. Vaqt ham xuddi inson kabidir. Qanchalik vaqt o‘tgan sari mavhum sirlar ochilib boraveradi. ,,Tog‘larning viqorini ko‘rish uchun ulardan uzoqlashish zarur, xuddi shunday holat buyuk ishlar va buyuk shaxslarda kuzatiladi. Abdulla Qodiriyning so‘nmas ijod bahosining buyukligini ko‘rish va tushunish uchun yarim asrdan ortiq vaqt talab etiladi. (Izzat Sulton, O‘zAS, 1989, 27-son). Biz Julqunboy ijodini, uning fikrlarini uqib olishimiz uchun yarim asrcha vaqt kerak bo‘ldi. Yusufbek hoji kelajakni ko‘ra olgan, yurt tepasida o‘tirgan xudbin insonlardan ikki pog‘ona yuqori turadigan obraz edi. “*Biz shu holda ketadirg‘an, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg‘an bo‘lsaq yaqindirki, o‘rus istibdodi o‘zining iflos oyog‘i bilan Turkistonimizni bulg‘atar va biz bo‘lsak o‘z qo‘limiz bilan kelgusi naslimizning bo‘ynig‘a o‘rus bo‘yindirig‘ini kiydirgan bo‘larmiz. O‘z naslini o‘z qo‘li bilan kofir qo‘lig‘a tutqin qilib topshirg‘uchi – biz ko‘r va aqlsiz otalarg‘a xudoning la’nati albatta tushar, o‘g‘lim!*” (Қодирий А. 2000, 292-bet). Tarixiy voqealar ko‘rsatdiki, hoji aytganidek “o‘rus bo‘yinturug‘ini bo‘ynimzga o‘z qo‘limiz bilan kiydik”.

Bu davrda Turkiston, xususan, Toshkent xalqi ham og‘ir davrni boshidan o‘tkazar edi. Mahalliy qonli to‘qnashuvlar, Toshkent qamali, xalq chekayotgan jabr-sitamlari qarshishida turgan Azizbek bo‘lsa xalq ahvolini o‘ylab o‘tirmay 32 tanga soliq solish vaqtida Yusufbek hoji tilidan aytilgan: “*Taqsir chaqirishingiz, albatta, fuqaroning tinchligi, raoyoning rohati, hukumatning barqaror turmog‘i uchundir*’’(Қодирий А. 2000, 107-bet) – deb aytilgan so‘zlar bugun ham, ertaga ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yusufbek hoji fuqoroning tinchligi uchun kurashdi, hoji adolatni yoqlaydigan, keng dunyoqarashli, hushyor inson edi. Qachonki fuqoro tinch-totuv yashaydigan bo‘lsa, raoyo(xalq) rohatda yashaydi, fuqaro hukumat uchun hamma narsani qilishga tayyor turadi. Xalqi hukumat uchun jonidan ham kechishga tayyor tursa, bunday hukumat barqaror turar edi. Yusufbek hoji aynan mana shunday yurt uchun kurashdi. Yozuvchi katta mahorat ila feodal voqelikning chinakam ziddiyatlarini ochib bergan. Moddiy va madaniy boyliklarning yaratuvchisi sifatida xalq bir tarafdan davlatchilik qo‘riqchisi va himoyachisi, boshqa tarafdan, hokimlarning zo‘ravonligiga, zolimlarga qarshi qo‘zg‘alon ko‘taradi. Shuningdek, xalqni katta soliqlar bilan ko‘mib tashlagan hukmdorlarga qarshi chiqadi. Hojining jasorati xalqqa kuch beradi:

Yusufbek hoji noo‘rin isyonga otlanayotgan olomonga qarata: *“...Biz qipchoqqa qilich ko‘targanda, o‘rus bizga to‘p o‘qlaydir. Siz dunyoda o‘zingizning yagona dushmaningiz qilib qipchoqni ko‘rsangiz, men boshqa yovni har zamon o‘z yaqinimg‘a yetkan ko‘raman!*”, degan so‘zlarni aytadi. (Қодирий А. 2000, 89-bet)

Shoir Abdulla Oripov bir suhbatda: “O‘tkan kunlar”ning bosh qahramoni Kumush va Otabek emas, Yusufbek hoji. Agar asarda ana shu muhtasham obraz bo‘lmaganida roman “Ming bir kecha” hikoyalariga o‘xshab qolardi”, degan edilar (D. Jumaqul, https://religions.uz.). Asarda har kim o‘z qahramonini topadi. Itoatkor, eriga sadoqatli ayollar uchun bosh qahramon Oftoboyim, sevgi-muhabbatga to‘lib-toshganlar uchun bosh qahramon Otabek va Kumush, yurt qayg‘usi bilan yashaydiganlar, uzoqni ko‘ra oladiganlar uchun esa bosh qahramon Yusufbek hoji obrazidir. Romandagi eng mukammal obraz Yusufbek hoji obrazidir. Bu obraz mahorat ila qo‘llanilgan, romanda uning o‘rni, uning salobati

baralla sezilib turadigan qahramondir. Negaki hojining uzoqni ko‘ra biladigan teran aqli, o‘tkir fikri bor. Qodiriy o‘zining ezgu niyatlarini Yusufbek hoji tilidan bayon etar ekan, uni Azizbek bilan konfliktga olib keladi. “Sujetida konflikt bo‘lmagan asar ta’sirchan bo‘lmaydi, chunki unda hayotiy haqiqat yorqin va izchil ifodalanmaydi. Romanda adolat uchun bosh ko‘targan xalqning zolim Azizbekka qarshi harakatlarisiz asar g‘oyasini to‘laligicha anglab bo‘lmaydi.” (И.Султон, 1986, 110-bet). Qodiriy nima uchun bu obrazga Yusuf deb ism qo‘ydi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Prototip tomondan qaraydigan bo‘lsak bu obrazni asarga kiritishiga sabab Mayusuf degan kosib bo‘lgan. “Xuddi „O‘tgan kunlar’’da tasvirlanganidek, bu qo‘zg‘olonning sababi Toshkent hokimi Azizbekning aholiga birdaniga bir necha xil soliq solgani edi. Xalq qo‘zg‘olonining boshida bir shoyi to‘qish korxonasining egasi Mayusuf degan kosib turgan. (Bu qo‘zg‘olon haqidagi ma’lumotlar V. Nalivkinning 1886-yilda Qozonda rus tilida bosilib chiqqan “Qo‘qon xonligi tarixi” kitobida keltiriladi.) A. Qodiriy uchun Mayusuming tarjimayi holi Yusufbek hoji obrazini yaratishga turtki bergan” (И. Султон, 1986, 107-bet). Yusufbek hojining prototip bilan bog‘liqligi bor, ammo Yusufbek hoji undanda mukammal, undanda ziyrak, uzoqni ko‘ra oladigan inson.

Yusufbek ismini qo‘yilishiga boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, biz bilgan Yusufbek hoji din-u diyonatdan anchagina xabardor, haqiqiy musulmon kishi. Hoji so‘zining uning ismiga qo‘shilib aytilishi jamoada kamtarin, taqvodor, husni xulq bo‘lib yurish mas’uliyatini yuklaydi. Hoji — haj marosimlarini to‘la-to‘kis bajargan shaxsning unvoni. Qodiriy shuning uchun ham aynan mana shu obrazni “Daloyil” va “Qur’on” o‘qib o‘tirgan holatda tasvirlagan. O‘zini isloh qilmaguncha atrof muhitni isloh qilib bo‘lmaydi deyilganidek, Qodiriy avval Yusufbek hojini isloh qilish uchun unga Daloyr va Qur’on o‘qitadi. “Asrimiz avvalida Qozon matbaaxonalarida bosilgan va yurtimiz ziyolilari orasida mashhur bo‘lgan “Daloyil ul-hayrot” muallifi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy ismli kishidir. Kitob yozilishining qiziq bir tarixi va uni o‘qish sharti hamda odoblari bor. Birinchidan, komil bir mashoyixdan izn lozim. Ikkinchidan, uni o‘quvchi kishi yeyish-ichish, savdo-sotiq kabi amallarda haromdan hazar etishi kerak. Uchinchidan, o‘zi ham,

kiyim-kechagi ham pok bo‘lib, “Qur’on”ni o‘qishda xatoga yo‘l qo‘ymasligi lozim. To‘rtinchidan, tajvid (to‘g‘ri talaffuz) qoidalariga amal etishi hamda o‘qilayotgan duo va tasbehlarning ma’nosini imkoni boricha bilishi kerak. Bizningcha, umuman, shunga o‘xshash barcha talablarni Yusufbek hoji komil bir inson sifatida to‘la-to‘kis ado qilgan. Aks holda, duolar, tasbeh va salovotlardan tarkib topgan “Daloyil”ni o‘qishga Yusufbek hoji jazm etmagan bo‘lar edi” (B. Karim, O‘zAS, 2003, 15-son). Daloyil va Qur’on kabi muqaddas kitoblar boshqa obraz bilan emas, aynan Yusufbek hoji obrazi orqali ifodalanganligidan ham bilishimiz mumkinki, bu inson komil insondir. Ana shunday din-u diyonatdan xabardor kishi bo‘lganligi uchun ham Yoqub payg‘ambarning o‘g‘li Yusufga monand shaxsni tasvirlamoqchi bo‘lgan va Yusufbek hojini asarga olib kirgan. Yana bir tomonidan, bu kitob Qozonda bosib chiqilgan. Ehtimol yozuvchi shu orqali Qozon matbaasining kirib kelishi orqali rus maorifi ham kirib kelayotganligidan dalolat bermoqchi.

“*Men ko‘p umrimni shu yurtning tinchlig‘i va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o‘zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qila olmadim*” (Қодирий А. 2000, 292-bet) deganiga qaramay u haqiqiy el kishisidir. Bunday kishilar azobda yursa-da, faqatgina fuqaroning tinchligi, raoyoning rohati, hukumatning barqarorligi uchun kurashadilar. Qodiriy ana shu yurtning qo‘ldan boy berilganligini Kumushning o‘limi bilan tasvirlaydi va Yusufbek hoji esa Qur’on tilovat qilgadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Damin Jumaqulov. “O‘tkan kunlar”ning bosh qahramoni kim?’’ https://religions.uz
2. Izzat Sulton. Bir taqdir ko‘zgusi. maqola //O‘zAS, 1989-yil, 27-son.
3. Баҳодир Карим. “Далойил” ўқиётган Юсуфбек ҳожи. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. 2003 yil, 15-son.
4. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Т.: “Ўқитувчи” нашриёти, 1986.- 408 б.
5. Қодирий Абдулла. “Ўткан кунлар”. Т.: „Sharq’’ 2000. – 400 б.
6. Чўлпон. “Яна олдим созимни”. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1991. – 576 б.

O‘LMAS UMARBEKOV HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR

Nurqobilova Shahnoza Urol qizi
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yozuvchi O‘lmas Umarbekov hikoyalari badiiy, g‘oyaviy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada bugungi kunda ham dolzarb bo‘lgan ona va bola munosabatlari, ayollar masalasi, qolaversa, tarix fojeasining bugungi kunga ta’siri xususida so‘z boradi. Xususan, O‘lmas Umarbekov asarlari yuzasidan hali yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan. Ular haligacha o‘z yechimini topmaganligi bilan ham ahamiyatlidir.*

Kalit so‘zlar: *Xat motivi, miyoncha, paxta terimi, retrospektiv, portret.*

Abstract: *In this paper stories by Olmas Umarbekov were analyzed from a literary ideological point of view . The article talks about the relationship between mother and child, which is still relevant today, the issue of women, and the impact of historical tragedy on today. In particular, not enough scientific research has been been conducted on the works of Olmas Umarbekov. They are also significant in that they have not yet found a solution.*

Keywords : *Letter motif, miyoncha, cotton picking, retrospective, portrait.*

Adabiyot olamiga kirib kelgan ko‘pchilik ijodkorlar kabi O‘lmas Umarbekov ham o‘z ijodiy faoliyatini kichik janrlardan, asosan, hikoyachilikdan boshlagan. Uning “Xatingni kutaman” deya nomlangan ilk hikoyasi bosilib chiqqan davrdayoq kitobxon e’tiborini tortgan. Shu bilan bir qatorda, “Boboyong‘oq” hikoyasi ham tezda xalq tiliga tushgan. Ushbu asarda inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabat, zamonning shiddat bilan rivojlanishi oqibatida tevarak-atrofga yetkazilayotgan zarar, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi aloqalar evrilishi tasvirlangan. Adib ijodida “Bolgar qo‘shiqlari” turkumi ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu to‘plam uning Bolgariyaga sayohati hosilasi o‘laroq dunyoga kelgan.Unda bolgar xalqining urf-odatlari, orzu-armonlari, milliy qadriyatlari, jo‘mardligi haqida hikoya qiladi.

Adabiy janrlar orasida hikoya alohida xususiyatga ega. “Hikoya – epik turning kichik shakli. Odatda, qahramon hayotida bitta (ba’zan bir-biriga uzviy bog‘liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi” (Qur’onov, Mamajonov, Sheraliyeva M. 2010, 307-bet).

O‘lmas Umarbekovning “Sovg‘a” hikoyasi, o‘z navbatida, uning boshqa asarlaridan tilining sodda, tushunarli, syujetning ta’sirchanligi bilan alohida ajralib turadi. Asar dialog shaklda boshlanadi. Ekspozitsiyada Shahodat xola va uning qo‘shnisi bolakay Valijon hikoya bosh qahramoni Shahodat xola voqealar markazida turadi. Uning o‘g‘li Adhamjon injener bo‘lib, shaharga ishga kirib ketadi-yu, shu bilan jim bo‘lib ketadi. Onasiga bor-yo‘g‘i bir marta pul yuboradi, lekin shu bilan undan hech qanday xat-xabar kelmaydi. Mana shu yerda asar tuguni boshlanadi. Hikoyada xat motivi yetakchilik qiladi va voqealarning asosiy nuqtalarini, qolaversa, uning asosiy mohiyatini ochib beruvchi detal ham sanaladi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari, his-hayajonlari mana shu motiv asosida yuzaga chiqadi. Jumladan, asarda Shahodat xola qatori A’lobush, Qumri otin kabi zahmatkash o‘zbek ayollari ham gavdalantirilgan bo‘lib, ular ham o‘g‘lidan xat kutadi. Shahodat xoladan farqli, ular tez-tez xat olish baxtiga muyassar edilar. Aslida hech bir ona o‘z jigarbandini, farzandini yomon sanamaydi. Inson bu hayotda qancha ko‘p gunoh qilsa ham, faqatgina onasi uchun u begunoh, chaqaloqdek pokiza sanaladi. Farzandi necha yoshga kirmasin, uning uchun aslo ulg‘aymaydi. O‘sha-o‘sha beg‘ubor bolaligicha qoladi. Adabiyotda ona obrazi xarakterining o‘zgarmasligi, kuchliligi, yorqinligi bilan tip darajasiga ko‘tarilgan. Odatda, yozuvchi o‘z hikoyalarida haqiqatni yozishga, borni bor, yo‘qni yo‘q holida yozishga intiladi. Asar qahramonlariga neytral munosabatda bo‘ladi. Ularni namuna, o‘rnak sifatida keltirmaydi, xulosani o‘quvchining o‘ziga qoldiradi. Qahramonlar taqdiri haqida qayg‘ura turib, ularning hech birini hayot sinovlaridan xoli, mosuvo qilib tasvirlamaydi. Hayotning qora kunlari bilan bir qatorda uning pozitiv jihatlari ham borligini hech bir rang-bo‘yoqlarsiz, ortiqcha bo‘rttirishlarsiz tasvirlaydi. Bir so‘z bilan aytganda, O‘lmas Umarbekov

qahramonlari hayot chig‘iriqlarida obdon sinalgan, oq-qorani tanigan, qat’iyatli insonlardir.

Shahodat xola obrazida biz zahmatkash, oqko‘ngil, mushtipar ayol, bir so‘z bilan aytganda, haqiqiy o‘zbek onasi siymosini ko‘ramiz. U o‘g‘li jo‘natgan pulni ham hatto o‘ziga ravo ko‘rmaydi. Unga bolasi qayerda bo‘lmasin sog‘-omon bo‘lsa bas. Faqat uning tinch-xotirjam, sog‘-omon yurganini bilsa bo‘ldi. Unga dunyo orzulari kerakmas. Boshqa ayollar kabi zeb-ziynatga, to‘y-hashamga berilmaydi. Uning birdan bir ovunchog‘i bu bog‘chadagi bolalar. Bog‘chada bolalarni oq yuvib, oq taraydi, kiyintiradi, mehr beradi, xullas, shular bilan kuni o‘tadi, ularga qarab taskin topganday bo‘ladi.

O‘lmas Umarbekovning ko‘pgina asarlarida Ona obrazi yorqin shaxs sifatida gavdalanadi. Jumladan, “Yer yonganda” asarida Solihabibi, “Kuz havosi”da Savri xola, “Qiyomat qarz” hikoyasida esa Zebi xola siymosida o‘zbekning zahmatkash, jonkuyar, mushtipar ayol ekanligi yana bir karra o‘z ifodasini topgan. Hayotda iymonli, kurashuvchan, sabr-toqatli, matonatli ayol timsoli adib asarlarining asosiy ruhi bo‘lib xizmat qiladi.

Shahodat xola – beozor ayol. U asar boshida Qumri otin va A’lobushdan ozroq koyinadi. Shuning uchun ham o‘g‘lidan kelgan pulni uyda pochtachidan olishni istamay, pochtaga borib olishni afzal ko‘radi. Sababi buni butun mahalla-ko‘y bilishini, farzandining ham yaxshi sifatlarini yuzaga chiqishini istaydi. Asarning syujeti quyidagicha ifodalanadi: “Shahodat xola o‘ylanib qoldi. Nima qilish kerak? Hozir olib qolsa, hech kim bilmaydi. Bilsa yaxshi bo‘lardi. Go‘yo ikkalovining farzandi farzand-u, boshqalarniki farzand emas. Boladan gap ochildimi, tamom, bir-biriga gap bermay ertani kech qilishadi, kechni erta. “Xolposhsham tushmagur... balo-da balo!.. deb otini boshlasa bilginki, ketidan A’lobush turadi: “Sobirjonimni aytmaysizmi, tasadduq”! “Tasadduq” demay ket ikkaloving ham” (Umarbekov, 1984, 127-bet).

Inson qachonki, hayotdan, o‘zgalardan mehr-muhabbat ko‘rmadimi, o‘zidan taskin-tasalli axtara boshlaydi, o‘zini o‘zini xursand qilib yashashga intiladi. Shahodat xola qatori Qumri otin va A’lobushlar ham mana shunday insonlar

sirasiga kiradi. Shahodat xola pochtaga bora turib A'lobushning uyiga birrovga kirib o'tadi. Kirishdan maqsad aslida farzandidan xabar kelganini bildirish edi, biroq u buni boshqalar maqtanchoqlik deb o'ylashini aslo istamasdi. Shuning uchun oq ipi bo'lsa, shundan ozroq berib turishini so'ragani kirganini uqtiradi. Suhbat asnosida A'lobush ham o'g'lidan xat kelganliginini aytib, unda o'g'li Sobirjon mandarinni pochta qilmoqchi ekanligini, u esa rozi bo'lmaganligini, bunaqa kiyimlarni kiyish faqat Moskvada yarashishini to'lib-toshib hayajon bilan gapiradi. Shahodat xola o'zini kulgidan to'xtata olmaydi. U mandarinning aslida kiyim emas, sitrus meva ekanligini bilardi. Bilardi-yu buni aytib o'rtog'ini sirayam xafa qilgisi kelmaydi. Shunchaki bolalarning qilgan ishiga zavqlanib kulayotganini ta'kidlaydi. Mana shu o'rinda qahramon xarakterida ichki konflikt namoyon bo'lganining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Shahodat xola – jonkuyar inson. U Adhamjondan kelgan 15 sum pulni, albatta, o'g'li kelganida uning o'ziga berishini niyat qilib, shu kunlarda sevib o'qiyotgan kitobining orasiga solib qo'yadi. Bu esa asarda chuqur ma'no kasb etib, albatta, yorug' kunlar kelishiga, baxtli kelajakka umid belgisi ekanligidan darakdir.

Farzand sog'inchi qiynagan, ko'ngli buzilgan chog'larda esa beixtiyor kitob orasidan olib, unga termulib o'tiradi . Go'yoki shu bilan o'g'lini, jigargo'shasini ko'rgandek bo'ladi. O'zini shu bilan ovutadi. Aslida, dunyoda bundan yomoni bo'lmasa kerak. Zero, hech bir onani farzandi tirik bo'la turib, uning diydoriga mushtoq qilishdan, uning sog'inchini allaqanday beqadr qog'ozdan izlashdan, ustiga ustak shu bilan o'ziga tasalli, yashashga kuch topishga majbur bo'lishdan alamlisi bo'lmasa kerak.

Diqqat bilan kuzatadigan bo'lsak, hikoyada berilgan ayollar, jumladan, xoh u Qumri otin bo'lsin, xoh A'lobushmi, barchasi farzand diydoriga mushtoq insonlar sanalishadi. Hikoyani e'tibor bilan kuzatib o'qigan sezgir kitobxon bu ayollarning ham aslida chin dildan baxtli emasliklarini his qiladi. Shahodat xola o'g'li yuborgan pullarni aqalli o'zi uchun sarf etmaydi. Pochtachi Qoravoyning to'yiga to'yona oladi-yu, miyonchaga ozroq yetishmay qolganda, o'sha puldan 5 so'mni ishlatib yuboradi.

Miyoncha, patnis (fors, miyon- o‘rta)- 1) mehmonlar (ayollar) tomonidan to‘yga dasturxon ichida, patnisda olib boriladigan shirinlik, sovg‘a. Asosan, nikoh va sunnat to‘ylarida rayem bo‘lib, faqat bir turdagi shirinlik (qand, pashmak, mayiz va b.)lardan iborat bo‘ladi. Miyoncha ustiga kiyimlik qo‘yiladi. 2) to‘yga kelgan mehmonlar oldiga patnisda qo‘yiladigan qand-qurs, non, qatlama, meva va b. (O‘zbekistonning ayrim joylarida taqsimchalarda qo‘yiladigan mayiz-parvarda) (O‘zME. 1-jild. 2000). To‘ylarni o‘tkazishda yangi odatlar rasm bo‘lishi bilan bu turdagi urf-odatlar taomildan qolib bormoqda.

Asar qahramoni Shahodat xola o‘zgalar dardi bilan yashaydigan, insonlar quvonchi uchun borini beradigan kamtar, jonkuyar, halol inson. Buni uning nafaqaga chiqaturib ham bolalar bog‘chasida ishlayotganidan, ularga g‘amxorlik qilayotganidan bilish qiyin emas. Hatto uni qo‘shni bolalar ham behad yaxshi ko‘rishadi. Valijon ukasining ham uni yaxshi ko‘rishini, nuqul bog‘chadan kelganda “Buvimga boraman” deya yig‘lashini aytadi. Asarda bola obrazi ham kiritilganki, u kelajakdan nishonadir. Biz bu obrazda beg‘uborlikni ko‘ramiz. Faqat ugina hayotni hech qanday shartlarsiz seva oladi. Mana shunday obrazlardan biri bu Valijon obrazidir.

U asar ekspozitsiyasi hamda yechimi sifatida keltiriladi. “Yechim – tugunda maydonga kelib, syujetda o‘z rivojini topgan konfliktning hal etilishi, xarakterlar kurashining yakunlanishidir” (I. Sulton, 1986, 185-bet). Asarning yechimi Valijonning Shahodat xolaga o‘g‘li Adhamjon nomidan xat yozishi bilan yakunlanadi. Chunki u xolaning bu dunyoda umid bilan yashashini istaydi. Qachondir albatta, o‘g‘lidan xat keladi yoki o‘zi kirib keladi degan shirin istaklar amalga oshishiga ishonadi.

“O‘qib yurgan paytlari tuzuk edi, haftada, juda bo‘lmasa oyda bir yozib turardi. Ishga kirdi-yu,bedarak ketdi, ammo ishga kirganda, o‘n besh so‘m pul yubordi! Erta kuz edi o‘shanda. Avji dolzarb payt. Butun qishloq tirik jon borki, dalada. Shahodat xola kolxoz bog‘chasida tushlikdan keyin bolalarni endi uxlatib o‘tirgan edi, hovlini boshiga ko‘tarib Qoravoy pochtachi kelib qoldi”. (Umarbekov, 1984, 126-bet). Demak, asarda Adhamjon pul jo‘natganda erta kuz

ekanligi ko‘rinadi. Hamma joyda ish qaynagan. Paxta yig‘im-terimi avjida, yosh-yalang, qari-qartang, barisi dalada ter to‘kib xizmat qiladigan pallalar. Davr shuni taqozo qiladigan bir zamonlar. Hatto yosh bolali onalar ham farzandini berib, uyga, bog‘chaga berib, dalaga chiqishga majbur. Bolalarga esa Shahodat xola kun uzoq qarab o‘tiradi, yediradi, o‘ynatadi, uxlatadi, xullas, g‘amxo‘rlik qiladi. Shuning uchun ham uni barcha bolalar birday yaxshi ko‘rishadi. Qo‘shnisi Valijon esa 8-martga bayramga xola uchun nima sovg‘a qilishi mumkinligini so‘raydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, Shahodat xolaning o‘g‘li yarim yildan beri dom-daraksiz ketgan. Valijon hali bola bo‘lsa ham xola uchun chin dildan qayg‘uradi, uni doimo xursand qilishga intiladi. Biz uning ishtirokini butun asar mobaynida ko‘rishimiz mumkin.

Sirasini aytganda, pochtachi Qoravoy hamda Valijonni “yaxshilik elchilari” deb atash joiz bo‘lar edi, nazarimda. Chunki biri xushxabar ulashib, insonlarning quvonchiga sherik bo‘lsa, ikkinchisi esa mana shu davomiylikni saqlab qolishga xizmat qilgan asl jonkuyarlar sanalishadi.

O‘lmas Umarbekov qalamiga mansub “Ko‘prik” hikoyasi retrospektiv xarakterdagi asarlar sirasiga kiradi. Asar ikki kishining yo‘l sarguzashtlari talqini bilan boshlanadi. Haydovchi va yo‘lovchi yo‘lda ketib borishar ekan, to‘satdan mashina buzilib qoladi va ular yayov yo‘lga tushishga qaror qilishadi. Ular manzilga yetib kelishganida katta kanalga duch kelishadi. Tabiiyki, anhordan o‘tish choralarini ko‘rishga harakat qilishadi, ya’ni ko‘prik axtara boshlaydilar. Ko‘prikni topish uncha ko‘p vaqt va kuch talab etmaydi. Quvonarlisi, ular kanal ustiga ko‘ndalang yotqizilgan daraxtni ko‘radilar va shu orqali kanalning narigi sohiliga o‘tishga shaylanishadi. Birinchi bo‘lib yo‘lovchi yigit qo‘llarini yozib epchillik bilan narigi sohilga o‘tib olishga erishadi. Biroq negadir haydovchi qaltiray boshlaydi. Mana shu o‘rinda yozuvchi qahramonning ruhiy holati va portretini mahorat bilan ochib berishga muvaffaq bo‘lgan. Aslida, hikoyada personajlar portreti deyarli kam tasvirlangan. “Samad aka, yo‘g‘onligi qo‘qon arava shotisidek o‘rikka ko‘zlarini tikkanicha, qimir etmas, moshkichiri mo‘ylovi, qalin, ajin bosgan lablari titrardi” (Umarbekov, 1984, 104 -bet). Odatda, portret chizishda eng muhimi insonning ichki dunyosi muhim rol o‘ynaydi, biroq qisqa

qamrovli hikoyada buni to‘liq ochib berishning imkoniyati qissa va romanga nisbatan kamroqdir. Kishilarning asarda badiiy so‘z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi portret deb ataladi. (I. Sulton, 1986, 188-bet). Asar bosh qahramoni Samad aka vaqtida urushda qatnashgan. Urush jarohatlari haligacha uning xotirasidan o‘chmagan edi. U ko‘prikdan o‘tayotganida, suvdan qo‘rqqanidan emas, balki hayotida ro‘y bergan mudhish voqea yodiga tushganidan o‘ng‘aysizlana boshlaydi. Natijada, ko‘prikdan o‘tish jarayonida u bilan qo‘shilib suvga shalop etib yiqiladi. Yigit uni suvdan qutqarib, amallab qirg‘oqqa olib chiqadi . Mana shu onda Samad aka urush vaqtida ro‘y bergan mudhish voqeani so‘zlab beradi. Qahraton qish faslida askarlar Ukrainaning Martovaya qishlog‘iga borib qolishadi. O‘sha joydagi kanal chekkasiga qo‘rg‘on qurishga va shu yerda jangga tayyorgarlik ko‘rishga qaror qilishadi. Avvaliga kanal qattiq muzlagani uchun uning ustidan bemalol o‘tib yurishardi. Lekin fevral oxiriga kelib kunlar isiydi. Irmoq erib suv jildiray boshlaydi. Natijada uning ustidan o‘tish xavfli bo‘lib qoladi. Askarlar ko‘prik izlashga tushishadiva irmoq ustida ko‘ndalang tushib yotgan narsani topishadi. Qor tagida bo‘lganligidan uni xodami taxtami nimaligini bilib bo‘lmas edi. Uning baquvvatligiga ishonch hosil qilishgach, ko‘prik sifatida foydalanishadi. Oradan vaqt o‘tib bilishsaki, ular ko‘prik deb yurgan narsa aslida odam murdasi edi. Yozuvchi shu o‘rinda murdani tasvirlashda portretdan foydalanadi. Murda yoshgina yigit ekan. Novcha, qirraburun, qora soch. U xuddi qattiq charchab yaqindagina uyquga ketgan odamni eslatardi (Umarbekov, 1986, 107-bet).

Ko‘prikning vazifasi bir tarafda turgan kishini ikkinchi tarafga beshikast omon o‘tkazishdan iborat, aslida. Biz Samad aka obrazi ortida yozuvchi shaxsining hayotda yaxshilikni ko‘zlovchi, hayotsevar inson bo‘lganligini ko‘ramiz. Boisi o‘sha noma’lum askar taqdiri qanday kechganligi hammaga qorong‘u, faqat Ollohgagina ayon bo‘la turib, u haqida Samad aka va uning safdoshlari ijobiy xulosaga borishadi. Kim biladi, rostdan bu askar jangda yaralanib halok bo‘lgan mard insonmidi yoxud jangni tashlab qochgan qo‘rqoq, buyog‘i esa noma’lum, mavhum sirligicha qolmoqda. Biroq ularning bilganlari

shuki, u o‘lganidan keyin ham insonlarga foyda keltirishda davom etdi. Olloh bu taqdirni uning peshonasiga bitgan. Demak, bundan shunday taxminiy xulosaga kelish mumkinki, bu askar hayotlik davrida ham jamiyat uchun ezgu amallar bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Asarning g‘oyasi Ikkinchi jahon urushining dahshatlari va uning inson ongi-shuurida butun umr muhrlanib qolishi xususida gap boradi. Insoniyatning fojeasi bo‘lmish bu urush ofatlari oradan shuncha yillar o‘tsa ham kishiga azobdan bo‘lak narsa bermasligi achinarlidir. Qolaversa, inson umri davomida, balki vafotidan keyin ham insonlarga foydasi tegishi mumkinligi ayon bo‘ladi. “U faqat tirikligida emas, o‘lgandan keyin ham xizmat qildi, bizga ko‘prik bo‘ldi” (Umarbekov, 1984, 107-bet). Asarning butun boshli mazmuni hamda kuchi go‘yo mana shu ikki og‘iz so‘zda o‘z ifodasini topgan. Aslida o‘ylab qaralsa, insonni umri ham misoli ko‘prikdir. Bir sohildan ikkinchi sohilga o‘tguncha, hayotini yashab qo‘yganini ham bilmay qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O‘. Umarbekov hikoyalarida ko‘tarilgan masalalar hali-hanuzgacha o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Uning “Sovg‘a” hamda “Ko‘prik” hikoyalari misolida inson va jamiyat, o‘tmish va kelajak o‘zaro bir-biri bilan bog‘liqligiga, birini ikkinchisidan ayro tasavvur qilib bo‘lmasligiga guvoh bo‘lamiz. O‘lmas Umarbekov asarlari yuzasidan hali yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan va ular haligacha o‘z yechimini topganicha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov D., Z.Mamajonov., M . Sheraliyeva . (2010) “Adabiyotshunoslik lug‘ati ” Tosh., Akademnashr.

2. Sulton. I. (1986). “Adabiyot nazariyasi”, T.: “O‘qituvchi” nashriyoti.

3. Umarbekov O‘(1984).. Tanlangan asarlar I jild , Toshkent, G‘.G‘ulom nashriyoti

4. O‘zME. (2000) Birinchi jild. Toshkent.

“BONU” ROMANIDA INSON, DAVR VA RUHIYAT TASVIRI

Qurbonova Norjona Sherdavlat qizi,
SamDU Filologiya fakulteti, 3-kurs
norjonaqurbonova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Iqbol Mirzoning “Bonu” romani xususida so‘z yuritilgan. Asosan, romanda davr va obrazlar ruhiyati chizgilari tasvirlangan. “Zulfizar” qissasidagi bosh obraz bilan Bonu taqqoslangan. Asardagi epizodlarning ruhiyati, yashash tarzi Bonu taqdiriga parallel ravishda yoritilgan. Shuningdek, roman haqida fikrlar bayoni, xalq og‘zaki ijodi bilan hamohanglik jihatlari ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ruhiyat, davr, Bonu, tubanlik, matonat, Zulfizar, sadoqat.*

Abstract: *This article is about the novel “Bonu” by Iqbal Mirza, which left a great impression on all readers. Basically, the novel describes the lines of the era and the characters’ mentality, comparing Bonu with the main character in the story “Zulfizar”. The spirit of the episodes in the work, the way of life, are highlighted in parallel with the fate of Bonu. Also, the expression of thoughts about the novel, the aspects of harmony with the oral creativity of the people are revealed.*

Key words: *Psyche, period, Banu, bottom, tenacity, Zulfizar, loyalty.*

Iqbol Mirzoning “Bonu” romani mustaqillikdan keyingi yillar, siyosatchilarimiz ta’biri bilan aytganda “bozor iqtisodi” davri hayotini yoritib bergan. Ushbu romanda Bonu obrazi orqali yuqorida aytib o‘tilgan “bozor iqtisodi” davri, yolg‘onchilik va tubanlik, ayol matonati yoritilgan. Roman voqealari shiddatli, o‘qilishi tez. Romanni o‘qigan kitobxon beixtiyor ko‘zda yosh bilan obrazlar dunyosiga kirib boradi. Roman epistolyar uslubda, ya’ni turli maktublar, kundaliklar, xotiralar uslubida yozilgan.

Badiiy adabiyotda so‘z ma’nodorligi, ifodaviyligi matnning mazmun-mohiyatini anglash jarayonida paydo bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lmish iboralar, maqollar-u matallar kishiga estetik zavq beradi, uning tuyg‘ularini tarbiyalaydi. Romanda ham bu nodir namunalarni ko‘plab o‘rinlarda

qayd etilganiga guvoh bo‘lamiz. Xalq og‘zaki ijodi namunalari obrazlarning olamini, so‘zamolligini va asardagi vaziyatni yoritib berishdagi vosita sanaladi. “Bonu” romani ham mumtoz she’riyat, hikmat, rivoyat, maqollar-u iboralar bilan omuxtalangan asardir.

“Badiiy obraz – ijodkor shuuri, estetik ideali, dunyoqarashi, maqsadi va g‘oyasi orqali sintezlashgan voqelikning inson ruhiyatining muhim qirralarini muayyan narsa, tuyg‘u va kechinmalar timsolida alohida betakrorlikda umumlashtirilgan, estetik qimmatga molik in’ikosidan iborat” (Sarimsoqov, 2004, 22-bet). Romanning bosh obrazi sanalmish Bonuni ham zohiran, ham botinan go‘zallik timsoli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bonuning hayotda ko‘rgan-kechirganlari, o‘z umr yo‘lidagi qiyinchiliklarni mustahkam iroda va matonat bilan yengib o‘tishi bizga Ayyub payg‘ambar sabrini eslatadi. Bonu dastlab eng yaqin insoni – bobosidan, so‘ngra padaridan ayriladi. Bu voqealar asnosida akasining do‘sti Yusuf uni el oldida sharmanda qiladi. Dard ustiga chipqon degandek, tanasida oq dog‘larning paydo bo‘lishi uning qalbini tilkapora qiladi. Bonuga berilgan azoblar bu bilan chegaralanib qolmaydi. U hayotda bundan-da mashaqqatli umr so‘qmoqlaridan o‘tadi. Qum bilan davolanayotganida, uning dardiga hamohang tarzda bitilgan Huvaydo baytini keltiradi:

Dod-u dod, deb yig‘lasam kimga yetar dodim mening,

Kim eshitgay bu zamonda ohu faryodim mening? (I. Mirzo, 2022, 84-bet)

Romandagi: “Eshitar –tinglamas, ko‘rar – anglamas” jumlalari orqali davr muhiti yaqqol tasvirlangan. Binobarin, tuhmat bilan qamalgan Ikromiddin akaning taqdirini keltirishimiz mumkin. O‘sha davrni yanada ochib berishda Olmosning tanlagan yo‘lini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir. U nafaqat jabrdiyda Bonuning tuyg‘ularini poymol qiladi, balki ko‘plab kishilar taqdirini izdan chiqaradi. Asarda keltirilgan maqoladagi quyidagi fikrlar buning dalilidir: “Ko‘rib qo‘ying, do‘stlar, firibgarlarning qallobi, qalloblarning firibgari, tovlamachilik olamining qiroli shu bo‘ladi!”

Asarni o‘qigan kitobxon Bonuning matonati, bardoshi, jasorati va sabriga qoyil qoladi. U yolg‘on, razilliklarga to‘la davrning chinakam ma’noda o‘zligini yo‘qotmagan kishisidir.

Bonu obraziga kontrast holda Jamila Ergashevaning “Zulfizar” qissasidagi bosh obraz Zulfizarni keltirish joiz. Zulfizarni Sovet davri mafkurasiga batamom bo‘ysungan, qalbida isyoni bo‘lmagan davr qurboni, deb hisoblasak, Bonu ma’lum ma’noda davriga mute, lekin qalbida isyoni, shijoati mutelikdan ustunroq tarzda tasvirlangan. Zulfizar davr tuzumini ustun, deb bildi, hatto onasini rus odatlariga binoan dafn qilishga ham tayyor edi. Zulfizar taqdiri misolida shaxs fojiasi ifodalangan:

–Ibi, bu nima ko‘rgilik? U dunyoda bunga pombarxit ko‘ylak nimaga kerak?

–Shunday qilish kerak, – dedi Zulfizar imkon darajasida xotirjam, buyruq ohangida. – Butun viloyat bo‘yicha rahbarlar o‘tiribdi. Toshkentdan ham odamlar kelishadi (“Yoshlik” jurnali, 8-son, 2011).

Asardagi Shoira opa, Bonuning onasi, Ruxsora, “Huvaydo” bobo, Alisher obrazlari orqali sodda, qalbi pok insonlarni ko‘ramiz. Aksincha, Jontemir, Yusuf, Olmos, Dilbarlar orqali qalbi chirkin, tuban, jamiyatni botqoqlikka yetaklovchi kishilar ko‘z oldimizga keladi.

“Ijodkor millatning urf-odat-u an’analarini talqin etish orqali kitobxonda o‘zbek kishisi haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Inson hayotini barcha murakkabliklari ila tasvirlash oson emas. Uning ruhiyatini sa’y-harakatlarini aniq ifodalashda, asoslashda yozuvchi zarur ibora, so‘zni qo‘llashi lozim” (Rasulova, 2020, 132-bet).

Asarni o‘qish davomida o‘qirman Bonuning or-nomusli, hamiyati baland qizligiga tahsinlar aytadi. “Nega shunday qiz muhabbatini Olmosdek firibgar insonga baxshida aylagan?” – degan savolni yurakdan o‘tkazadi. Bonuning quyidagi birgina so‘zi orqali sof insoniy tuyg‘ularni qadrlashining guvohi bo‘lamiz:

Bonu: “Saratonga chalinmagansiz-a?”
Olmos: “Yo‘q, xudo saqlasin!”

Bonu: "Xayriyat..."

"Bonu" romani katta shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Bu asarni har bir inson qalbdan his etib, Bonuning taqdiriga kuyunchaklik bilan mutolaa qildi. Roman haqida fikrlar-u taqrizlar yozila boshladi. Bunga yaqqol dalil sifatida O‘zbekiston Respublikasi san'at arbobi Ibrohim G‘afurovning fikrlaridan namuna keltiramiz: "Girdob naqadar dahshatli ekanini Bonu bilan birga boshdan o‘tkazamiz: voy-ey! Suf bu dunyo-bu dunyoga, deb hayqiramiz. Bonudagi umuminsoniy kuch va saliqa kasb etgan Oriyat! Nomus! –millat, insoniyat miqyosida tarbiyalansa, ijtimoiy zaruriy kuchga – harakat va intilishdagi kuchga aylansa, qaniydi, deymiz. Bonuning tabiiy samimiyati, tabiiy oriyati o‘quvchini rom etadi va bizga harakatdagi kurashchanlik namunasi bo‘lib tuyiladi" (G‘afurov, 2022, 6-bet).

Xulosa o‘rnida shuni takidlash lozimki, Bonu o‘zligini yo‘qotmagan, umrning qing‘ir-qiyshiq yo‘llaridan, makkora kishilar qurshovidan turli zarbalar asnosida o‘ta olgan chinakam sodda, bilimdon va oqila o‘zbek qizidir. "Bonu" romanida davr, shuningdek, zamonamizga xos bo‘lgan mehr-oqibat tuyg‘usining yo‘qolishi ochiqchasiga ifodasini topgan. Bonuning husniga opalari hasad qiladi, unda dog‘lar paydo bo‘lganda, hattoki mamnun ham bo‘ladi. Qondosh akasi Mirxond bobosidan Bonuga qolgan, unga judayam qadrli kishisini eslatib turadigan merosni o‘zi uchun sarflaydi. "Bir qiz uchun iztirob-sitamlar shunchalik ko‘pmi?" – deb olamga dod solging keladi. Lekin u yiqilmadi, yiqilsa qayta-qayta yangi kuch, bardosh topa oldi. Ofarin! Bonu doim Yaratganga shukrona aytdi, yorug‘ kunlarga tomon intildi va nihoyat o‘zi aytganidek, hayotini o‘zgartirdi. Uning quyidagi gapi har bir insonga shior qilishga arzigulik bitikdir:

Hayotingni o‘zgartirgay bir odam va bir kalom,

O‘shal inson sen o‘zingsan... Endi so‘zni top tamom. (I. Mirzo, 2022, 84-bet)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. (2022). Bonu. Toshkent: Factor books.
2. Rasulova, U. (2020). XX asr o‘zbek qissachiligi. (132-bet). Toshkent: Qamar media.
3. Sarimsoqov, B. (2004). Badiiylik asoslari va mezonlari. (22-bet). Toshkent: Fan.
4. "Yoshlik" jurnali. (2011). 8-son.
5. G‘afurov, I. (2022). Iztirob jozibasi. Bonu. (6-bet). Toshkent:Factor books.

TOHIR MALIK IJODIDA YOSHLAR OBRAZI

Saidmurodova Munavvar Soxib qizi,
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
munavvarsaidmurodova@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada taniqli yozuvchi Tohir Malikning "Alvido… bolalik" asaridagi yoshlar obrazi yoritilgan. Voyaga yetmagan o'smirlarning jinoyat olamiga kirib qolishi sabablari va oqibatlari tahlilga tortilgan. Maqolaning yozilishidan asosiy maqsad yozuvchining ushbu asarni yozishdan ko'zlagan maqsad va vazifalarini kitobxonlarga yetkazish. Ushbu maqola barcha davrlarda muhim bo'lgan tarbiya masalasini, bundan tashqari, jamiyatdagi illatlarni, insonning insonga, hatto o'z farzandi taqdiriga befarq qarashi kabi jihatlariga e'tibor qaratish, uning oqibatlarini anglagan holda yechim topishga harakat qilish, ogohlikka chorlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *qissa, obraz, detektiv, jinoyat olami, o'smirlar, tarbiya.*

Abstract: *This work focuses on the image of young people in the famous writer Tahir Malik's "Alvido…bolalik". The reasons and consequences of minors entering the world of crime are analyzed. The main purpose of writing an article is to convey to the readers the goals and objectives of the writer for writing this work. This article focuses on the issue of education, which is important in all eras and is becoming important, as well as the evils in society, focusing on such aspects as a person's indifference to the fate of his own child, trying to find a solution while understanding its consequences, calling for awareness.*

Keywords: *story, character, detective, criminal world, teenagers, education.*

Bolalik – umrimiz bahori, orzu-umidlarimiz bilan ulg'ayadigan eng jo'shqin va haroratli damlar. U umrimiz mazmunini, qo'yingki, butun hayotimizni belgilab beruvchi shunday bir nozik pallaki, bu davrda biz yaqinlarimizning e'tiboriga muhtojlik sezamiz. Agar shu e'tibor berilmasa-chi?

Ba'zi insonlardan "baxtli bolalikda yashaganmisiz?", deya so'rasangiz ko'zlari yerda, qalbi yig'laydi. Bunga kim sababchi? Atoqli o'zbek adibi Tohir Malik bu masalani o'z asarlarida ochiq-oydin yoritib berishga harakat qildi.

“Hozir qo‘limga miltiq berib qo‘yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o‘zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo‘q, avval sud bo‘lishi kerak. Sudda gapirishim shart. “Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu”, deyman. “Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onalaringizni topib, otib yuboring. Yolg‘on gaplar to‘qib, ularni yaxshi odam qilib ko‘rsatmang bir-birlaringizga. Ayamay, otib tashlang!” deyman. “Tirik yetimlarga miltiq beringlar!” deyman! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli…” (T.Malik, 2018, 27-bet) Asarda qahramon tilidan shunday gaplar aytiladi. E’tiborsizlik, mehrsizlik sabab ba’zi bolalar muhabbat bilan emas balki nafrat bilan ulg‘ayishadi. Shuning uchun baxtli bo‘lishi kerak bo‘lgan bolalik nobud bo‘ladi, majruh ko‘ngillar bolalikka alvido deydi.

Tohir Malikning detektiv va didaktik mavzuda yozilgan asarlari o‘z kitobxonlariga ega. Shu o‘rinda, “Alvido, bolalik” qissasini ham detektiv asarlari sirasiga kiritishimiz mumkin. Asar quyosh chiqishi, bahor fasli bilan boshlanadi. Bilamizki, Alisher Navoiy bolalikni bahor fasliga qiyoslaganidek, adib ham shu yo‘ldan boradi. Asar nihoyasi esa, “Yarim tun …odamlar uyquda” deya tugallanadi. Adib asarda asosan tarbiya masalasiga e’tibor qaratadi. Qahramonlar ayni psixologik o‘tish davrida bo‘lgan o‘smirlardir. Yozuvchi ayni shu damda e’tiborsiz qolgan yoshlarning jinoyat yo‘liga kirib ketishi va ularning boshidan o‘tkazganlarini tinglarkan, bu hodisalar nimalarga sabab bo‘lgani haqida o‘ylaydi, va yechim topishga harakat qiladi. Asarni o‘qirkansiz gohida ichingiz achiydi, gohida nafratlanarli o‘rinlarga duch kelasiz. Nahotki, inson o‘z bolasi va uning taqdiriga shunchalar befarq bo‘la oladi, deb o‘ylaysiz. Jamiyat oiladan, maktabdan boshlanadi. Afsuski asar qahramonlarining kichik jamiyatlari e’tiborsizlik va loqaydlik virusiga uchrab bo‘lgandi.

Shunday qilib, asarning asosiy g‘oyasi – hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmasligi, atrof-muhit, jamiyatdagi illatlar o‘smirlarni jinoyat yo‘liga yetaklashidir. Bu haqda adibning o‘zi shunday deydi: “Men o‘smirlar va yoshlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolayotganlariga befarq qarab tura olmayman. Bolalar axloq tuzatish kolonyalariga har borganimda yuragim eziladi. Ozod, erkin

yashab, hunar o‘rganadigan bolalar bu yerga qanday tushib qoldilar?! Nahot jinoyat olami ularga jozibali ko‘rinsa?! Men jinoyat olamini “Shaytanat”, ya’ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, “ehtiyot bo‘ling, jigarlarim, bu ko‘chaga yaqin yo‘lamang. Boshi berk bu ko‘chaning adog‘ida faqatgina azob topasiz” – demoq niyatida yozdim. Yozganlarimni ogohlantirish deb qabul qilishingizni istar edim” (https://kh-davron.uz) . Darhaqiqat, asarning bosh g‘oyasi jinoyat olamiga kirib qolgan o‘smir-yoshlarning ayanchli taqdirini yoritish bilan bir qatorda bunga kim aybdor ekanligini ko‘rsatib berishdan iboratdir.

Asar qahramonlari Asror, Qamariddin, Dilfuza, Salim, Sanjar kabi yoshlar. Ularning hayot yo‘li, yashash tarzi, qiziqishlari, orzu-umidlari, maqsadlari turlicha. Ammo bu yoshlarni birlashtirib turgan yagona narsa kimdandir yoki nimadandir alamzadalik. Asar voqealari to‘rt asosiy qahramonlar hayoti ichida kechadi.

Asror – maktabning bitiruvchi sinf o‘quvchisi. Iqtidorli, bilimli, ko‘zga ko‘ringan o‘quvchilaridan. Otasining qistovi bilan matematika-fizika gimnaziyasidan maktabga o‘tgan. Otasining kasbi otarchi (to‘ylarda davrani qizdiradigan) bo‘lib, o‘g‘lini ham bilim olishga da’vat qilish o‘rniga o‘z yonida otarchilik qilib pul topishga undaydi. Eng alam qilarlisi esa buni uning va ukalarining kelajagi uchun qilayotganini aytadi. Asrorning otasi yangi olgan mashinasini birov o‘g‘irlab ketmasin deb havotirda yashashi, farzandlarining kelajagiga befarqligini, o‘z nafsi yo‘lida farzandini kelajagini qurbon qilishi uning naqadar tuban kimsa ekanligidan dalolat beradi. Bir o‘rinda shunday deydi: “O‘qib kim ham bo‘larding, undan ko‘ra menga ham yordam berib tur. Kelajakda sen ham shu ish ortidan pul topasan” (T.Malik, 2018, 45-bet) Yana bir o‘rinda uning kazo-kazolar dasturxonida tekindan tekinga xizmat qilib laganbardorlik qilishi, to‘rt-besh so‘m pulni deb kambag‘al oilaning to‘yini rad etishi kabi hirslariga hokim bo‘la olmasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asrorni esa aynan shunday oila muhiti, maktabdagi muhit Qamariddinga yaqinlashtirishi va Asror uchun jinoyat darvozalarining ochilishiga turtki bo‘ladi. Dilfuzaga munosabatidan esa uning qalbi pokligi, mehrga, adolatga tashnaligi ko‘rinadi.

Qamariddin – qalbi ushalmagan orzu-armonlarga to‘la, biroq bu orzularning ro‘yobga chiqishida keskin qarshiliklarga uchragan, adolatsiz jamiyatning ozorlaridan zada bo‘lgan yigit. Go‘yoki, hayot unga tug‘ilganidayoq adolatsizlik qilgandek. Otasining tayini yo‘q, onasi bo‘lsa o‘z orzulari, nafsi yo‘lida farzandini ko‘zi ko‘rmagan ayol. Jamiyat esa unga doim tashlandiq buyumdek munosabatda bo‘lgan. Ammo men Qamariddin obrazini also qoralamayman. Uni bu ahvolga tushirgan mehrsiz, e’tiborsiz oila, loqayd jamiyatdir. U “oddiy inson edim koloniyaga kirib “akademik” bo‘ldim” (T.Malik, 2018, 29-bet) – deydi. Rostdan ham u bir jinoyat olamiga bilmasdan qadam bosdi va jinoyat olamidan akademik bo‘lib yetishib chiqdi. Eng achinarli qahramon Qamariddindir. “Qamar” so‘zining ma’nosi oy. Oy esa faqat tunda chiqadi. Qamariddin hayotida yorug‘lik yo‘q edi. Balki yozuvchi unga shunday ismni tanlashda shuni nazarga tutgandir. Qamariddin Asror haqida hatto otasidan ham ko‘p qayg‘urdi. “Meni birov suyamagan edi. Men shu bolani odam qilaman, o‘zim qamalib, otilib ketsam ham, uni o‘qitaman!” (T.Malik, 2018, 23-bet) mana biz salbiy qahramon sifatida qarayotgan obrazimizning haqiqiy insoniyligi. Inson bu hayotda yaxshi, yoki yomon bo‘lib tug‘ilmaydi. Yillar zalvori, boshdan o‘tkazadigan tashvishlar insonni har ko‘yga soladi. Iymoni, ilmi, irodasi yetgan inson yaxshi inson bo‘lib yetishishi mumkin. Qamariddin ham shunday bo‘lishi, bir ilm yoki hunarning egasi bo‘lishi mumkin edi. Lekin hayot unga bu imkonni bermadi.

Hayotdan alamzadalik bilan yashadi, hatto o‘z onasiga umr davomida biror marta ona demadi. Balki haqdir ham! Salim – himoyaga muhtoj, ko‘p bolali oilaning farzandi. Otasi ichuvchi, bir ishning boshini tutmagan, onasi hayot qiyinchiliklaridan ezilgan, farzandlarining yeb-ichishini o‘ylaydi-yu, ularning tarbiyasi bilan shug‘ullanishga vaqt ajrata olmaydi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, Salim sport bilan shug‘ullangan, yutuqlarga erishgan ammo nazoratsizlik, e’tiborsizlik oqibatida Qamariddinga qo‘shilib jinoyat olamiga kirib qolgan.

Shuningdek, asarda jinoyatchilikka qarshi kurash, hech bir jinoyatning jazosiz qolmasligi Mayor Soliyev va u bilan bog‘liq voqealarda ko‘rinadi. Asarda

jamiyatda yuz berayotgan yana bir qancha og‘riqli nuqtalar ildiz otib ketgan poraxo‘rlik, boqibeg‘amlik kabi illatlar insonlar taqdirini qanchalar yomon tarafga o‘zgartirishini Keldiyorovlar oilasi qismatida ko‘rishimiz mumkin. Mayor Soliyev esa halol, to‘g‘riso‘z, haqiqatdan yuz o‘girmaydigan, ahdida sodiq qoluvchi inson sifatida gavdalantiriladi. Shuningdek, inson umriga zomin bo‘luvchi ichkilik, giyohvand moddalardan foydalanish insonni naqadar tuban kimsaga aylantirib qo‘yishini ham asar voqealari davomida kuzatib borishimiz mumkin.

Ona obrazi bu asarda asosiy o‘rinda. Salimning onasi va Qamariddinning onasi. Ikkisi ham ona. Ammo biri farzandlari uchun jonini berishga ham tayyor, boshqasi esa farzand deb atalgan ne’matning qadriga yetmay o‘z hayoti, nafsi tashvishida. “Boyning namozdan keyingi eng muhim ibodati sadaqa qilish, olimniki haqni gapirish, otaniki halol yo‘l bilan oilasini boqish, yosh qizniki (muslima) iffatini saqlash, onaniki esa farzand tarbiya qilish” (https://hikmatlar.uz), – deydi Ihsan Shenojak.

Islomda ham aytiladiki, oilada farzand tarbiyasi bilan eng ko‘p onalar mashg‘ul bo‘lishi lozim. Onalarning farzandiga beradigan tarbiyasi jamiyatimizni, kelajak hayotimizni belgilab beradi. Farzandidan voz kechgan, uning mas’uliyatini bo‘yniga olmagan onaning farzandi qanday tarbiya olsin.

Xulosa qilganda, oilada, maktabda farzandlarimizga qanday tarbiya berayapmiz, bunga diqqatli bo‘lishimiz zarur. Asror haqida maktab direktoridan so‘ralganda hech narsani bilmasligini aytadi. Yozuvchi bu orqali loqaydlikning oqibatini ko‘rsatib berishga harakat qiladi. Shu o‘rinda Otto fon Bismarkning quyidagi gapini eslab o‘tish joiz: “Maktablarga pul ishlatmagan davlat, pulini qamoqxonalarga sarflaydi”.

Asror, Qamariddin, Salim, Sanjar obrazlari orqali yozuvchi yoshlarni va ularga tarbiya, ilm beruvchi ota-onalar, ustozlarni, jamiyatni ogohlikka chaqiradi. Jinoyatning uzun yo‘lida sarson-sargardon kezmaslik, mehrga tashna qalblarga mehr ulashishga chorlaydi.

Yoshlarning bunday tarbiyalanishi, oilaning muqaddasligi ahamiyatini tobora yo‘qota borishi sababidandir. Oilaning mustahkamligini ta’minlash ham ayolning,

ham erkakning birdek vazifasidir. Oila qo‘rg‘on kabidir, himoya qilmasang vayron bo‘ladi. O‘rtada norasida go‘daklarning uvoli qoladi xolos. Asarda yozuvchi ko‘zlagan maqsad, nazarda tutgan g‘oyalar bir qancha. Ulardan ba’zilarini sanab o‘tishga, tahlil qilishga harakat qildik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malik T.(2018).Alvido…bolalik. Toshkent, Adabiyot uchqunlari
2. Qurbonova.N.N., Yuldashev A.M, Adabiyot fanidan uslubiy ishlanma.
3. Shenojak I. (2022).Farzand tarbiyasi. Tirilish,
4. https://m.facebook.com
5. .https://kitobxon.com
6. https://sammuslim.uz
7. https://hikmatlar.uz
8. https://kh-davron.uz
9. https://saviya.uz

“SUNBULA” ASARIDA MILLIY AXLOQ

Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurstalabasi
zarnigorsheraliyeva0@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola yosh ijodkor Tillanisoning “Sunbula” asari haqida bo‘lib, unda asardagi milliy axloq normalari muammolari tahlilga tortilgan. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor singari ijodkorlar, Izzat Sulton, Uzoq Jo‘raqulov, Nurboy Jabborov kabi adabiyotshunos olimlarning fikrlariga tayanilgan. Asarning kompozitsion tuzilishidagi ayrim kamchiliklar (xususan, asar sarlavhasi, obrazlar tasvir tizimi) to‘g‘risida fikr bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *milliy ruh, milliy axloq, badiiy kompozitsiya, badiiy sarlavha, badiiy obraz, badiiy konflikt, ironiya.*

Abstract: *This article is about the work “Sunbula” by the young writer Tillaniso. The problems of national moral norms in the work are analyzed in the article. The opinions of authors such as Abdulla Qadiri, Cholpon, Abdulla Qakhor, literary scholars such as Izzat Sultan, Uzok Djorakulov, Nurboy Jabbarov were taken into account. An opinion is expressed about some shortcomings in the*

compositional structure of the work (in particular, the title of the work, the image system of images).

Keywords: *national spirit, national morality, artistic composition, artistic title, artistic image, artistic conflict, eironeia.*

O‘zbek romanchiligining asoschisi, milliy adabiyotimizning benazir namoyandasi Abdulla Qodiriy “yozishg‘uvchilar”ga murojaat qilar ekan, quyidagilarni aytib o‘tadi: “So‘z so‘ylashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak” (A. Qodiriy, https://kh-davron.uz). Darhaqiqat, oradan bir asr vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, Qodiriyning bu so‘zlari hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Bular o‘z navbatida butun insoniyat, ayniqsa, so‘z-u adabiyot vakillari hisoblangan yozuvchilar uchun g‘oyat ahamiyatlidir. Lekin taassufki, keyingi paytlarda so‘z borasidagi bu andishaning unutilib borayotganligining guvohi bo‘lyapmiz. So‘nggi paytlarda g‘arb adabiyotiga taqlidan yoki ular ta’sirida yaratilayotgan asarlar, qolaversa, ulardagi ochiq tasvirlar, axloqsizlikning yuqori darajalari chizilgan o‘rinlar sabab adabiyotning “odoblar yig‘indisi”, “odoblar xazinasi” degan ma’nolari xiralashib bormoqda go‘yo. Professor Uzoq Jo‘raqulov quyidagi fikrlarni aytganda aynan shularni nazarda tutgani shubhasiz: “…ba’zi asarlarda shunday bir tasvirlar, epizodlar, g‘oyalar o‘tib ketyaptiki, uni o‘qib turib men g‘arb adabiyotining “chyorniy roman”, “erotik roman” degan bir shakllariga taqlid paydo bo‘ldimi yoki buning ostida nima bor, tushuna olmayman ba’zan. Ularda shunday bir epizodlar beriladiki, buni hech bir koloritga solib bo‘lmaydi…” (Jo‘raqulov, Olifta ijodkorlar, https://youtu.be/2O4NK58h7pI).

Biz fikr yuritmoqchi bo‘lgan “Sunbula” asari ham ana shunday taqlid namunalaridan biri hisoblanadi. Tillaniso qalamiga mansub bu ijod namunasini absurd adabiyot doirasidagi asarlar sirasiga kiritish mumkin. Bir qarashda asarda umuman rang yo‘q, unda faqat qorong‘ulikni ko‘rish mumkinday tuyuladi. Asar o‘zini uyidagi buzuq muhitda xo‘jayindek tutadigan, “hayotda urilgan-surilgan ayollarga” go‘yoki homiylikni “bo‘yniga olgan”, ayrim paytlarda achinish uyg‘otadigan, boshqa paytlarda esa iflos ishlari tufayli nafrat qo‘zg‘aydigan janob D. hayotidagi ayrim noxushliklar orqasidan yomon yo‘lga kirib ketgan, jirkanch

holatda tasvirlangan Laylo, qolaversa, ularni go‘yo yuqoridan turib kuzatadigan, taftish qiladigan hikoyachi qahramon xususida so‘zlaydi. Asar boshdan oyoq ana shunday buzilgan, fahshga aralash muhitni tasvirlaydi, o‘sha muhit insonlarining (agar ularni inson deb atash mumkin bo‘lsa!) ifodasini chizadi. Janob D.ning uyidagi nobop hayot, izdan chiqqan chirkin muhit yalang‘och tasvirlar bilan bayon etiladi. Aynan shu ifodalar bizni adabiyotning asl mohiyati nima ekani xususida yana bir karra o‘y surishga majbur qiladi. “O‘zbek tilidagi “adabiyot” so‘zi aslida “adab” so‘zidan yasalgan bo‘lib, kishilarga yaxshi xulqni, va umuman, hayotni to‘g‘ri tushunish, to‘g‘ri yashashni o‘rgatish maqsadida yozilgan asarlarni ko‘zda tutar edi”, — deb yozadi adabiyotshunos Izzat Sulton (Izzat Sulton, 2005, 6-bet). Xo‘sh, Tillaniso “Sunbula”sini shu maqsad yo‘lida yozilgan deya olamizmi? “Sunbula”da Izzat Sulton aytgan hayotni to‘g‘ri tushunish, turli tomondan ko‘rish, balki, bordir, lekin yaxshi xulqni, to‘g‘ri yashashni o‘rgatishi jihatidan so‘roq ostida. Axir, o‘zlari to‘g‘ri yashashni bilmaydigan buzuq muhit vakillari bo‘lgan qahramonlar qandayin ham kitobxonni to‘g‘ri yashashga o‘rgata olsin! To‘g‘ri, adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov aytganidek, yozuvchi neytral bo‘lishi, bor vaziyatni ro‘yi-rost tasvirlashi kerak. Ammo bu degani jamiyatda sodir bo‘layotgan har qanday holatni badiiy adabiyotga to‘g‘ridan to‘g‘ri, ochiqchasiga olib kirish mumkin degani emas! Ya’ni “bu kabi holatlarni ham kimdir tasvirlashi kerak, negaki atrofda shunday insonlar ham bor” qabilidagi “haqiqatlar” bilan asar yozish to‘g‘ri bo‘lmasa kerak. Bu fikrimizni professor Nurboy Jabborovning quyidagi so‘zlari bilan quvvatlaymiz: “Ruhsiz vujud tirik deb hisoblanmagani singari milliy ruhdan ayri holda millat ham, milliy adabiyot ham mavjud bo‘lolmaydi. Milliy ruhning asosini millat axloqi tashkil etadi” (Жабборов, 2020, 4-бет). Shundan kelib chiqadiki, milliy axloq normalarining buzilishi milliy ruhning ham tanazzuliga asos vazifasini bajaradi. Qolaversa, asar ma’lum bir g‘oya uchun emas, faqat shakl uchun yozilganday tuyuladi. Ta’kidlash kerakki, asar kompozitsion qurilishi ham kamchiliklardan xoli emas. Avvalo, sarlavhaga e’tibor qaratsak. Yozuvchi nima sababdan asarni bunday nomlagan? Sunbula nima o‘zi? O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu so‘z quyidagicha izohlangan: SUNBULA -

[a. – boshoq; burj nomi] 1. astr. O‘n ikki burjning biri, Asad va Mezon burjlari o‘rtasida joylashgan. 2. Shamsiya yil hisobida oltinchi oyning nomi (22-avgust – 21-sentyabr davriga to‘g‘ri keladi) (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006, 587-бет). Bundan tashqari, shamsiya (quyosh) yili hisobining sakkizinchi oyida tug‘ilgan qizlarga ham shunday ism qo‘yiladi. Shunga ko‘ra, sunbula burjida tug‘ilgan insonlar haqidagi ma’lumotlarga e’tibor qaratsak: “Umumiy ta’rif: Sunbula (Parizod) — aniqlik, mantiq, dangallik va iffat ramzi. Odatda, ular shovqinni yoqtirishmaydi, olomondan chetda yurishadi, doimo nimadandir tashvishda yurishadi. Ular sadoqatli, samimiy insonlar, o‘zlarini boshqacha qilib ko‘rsata olmaydilar. Sunbulalar har bir ishni oxirigacha, ozoda bajaradilar. Hamkorlarning xatolarini ko‘ra oladilar. Jismoniy jihatdan baquvvat bo‘ladilar. Yaxshigina tanqidchi ham bo‘lishadi. Hamma ishlari va buyumlari tartibli, joy-joyida bo‘ladi. Biroq sunbulalarning fe’l-atvoridagi kamchiliklaridan biri – ular o‘zlarining xatolarini ko‘rmaydilar. Ishsiz uzoq vaqt bir joyda o‘tirolmaydilar. O‘zgalardan yordam olishni yoqtirmaydilar. Kishilardagi haqqoniylik, aniqlik, tejamkorlik va ixtirochilikni qadrlaydilar. Palapartishlik, qo‘pollik va dangasalikni ko‘rishga ko‘zlari yo‘q”. Ammo ushbu fikrlarning aksariyati asar qahramoni tabiatiga mutlaqo zid keladi. Umuman olganda, sunbula so‘zini eshitganimizda xayolimizga ijobiy tushunchalar kela boshlaydi, lekin asar ichiga kirsak, boshda nima uchun muallif bu so‘zni sarlavha sifatida tanlaganini uncha tushunmaymiz. Ehtimol, asar muallifi bu borada sunbula burjida tug‘ilganlarning quyidagi jihatlariga asoslangandir: “Sunbula burjidagilar shovqinni yoqtirishmaydi, ular olomondan uzoq turishni afzal ko‘radi, jamiyatda kamdan kam o‘zlarini bo‘sh qo‘yadilar. Bu burj vakillari kam orzu qiladiganlar guruhiga kiradi. Bu odamlar doimo tashvish uyg‘otadi. Ularda xayoliy fikrlar yo‘q... Ular doimo sherikning kamchiliklarini ko‘radi. Sunbula burjidagilar tanqid qilishni yaxshi ko‘rishadi. Ammo o‘zlarining ayblariga ko‘z yumadilar”. Lekin burj vakillari haqida aytilgan “iffat va bokiralik ramzi” kabi ma’lumotlar ham bor bo‘lib, bu fikrlar yuqoridagilarni yo‘qqa chiqaradi. Shunga ko‘ra, biz muallif mavsum va muhitni nazarda tutib, sarlavhani asarga kontrast sifatida tanlagan deya olamiz. Aniqroq

aytganda, sunbula mavsumida suvlar tiniqlashadi. Hikoyachi qahramon ham asar yakunida oldingi paytdan farqli o‘laroq, o‘zini endi bu olamga begona emasligini his qiladi. Biroq uning endigi hayotini sunbula suvlariday tiniq bo‘ladi, deb ayta olmaymiz. Shu jihatdan ham sarlavha u darajada o‘zini oqlamaydi.

Sarlavha borasida dotsent Komiljon Hamroyev o‘zining “Hikoya kompozitsiya” monografiyasida qator fikrlarni yuritar ekan, sarlavhaning badiiy asarda kompozitsiya vositasi sifatida kelishi, ijodkorning badiiy niyatini o‘zida mujassamlashtirishi, badiiy asar g‘oyasidan xabar berishi, shuningdek, o‘quvchiga badiiy asar mazmuni tomon yo‘l ko‘rsatuvchi yo‘lchi yulduz vazifasini bajarishi xususida gapirar ekan, unga shunday ta’rif beradi: “..sarlavha ijodkorning badiiy niyati, asar g‘oyasi, obrazlar tizimi va barcha unsurlarini yagona fokusga jamlovchi mitti asardir” (Ҳамраев, 2020, 102-бет). Afsuski, Tillaniso tanlagan bu mitti asarda yuqoridagi sifatlar ko‘rinmaydi, ya’ni sarlavha asarni, uning tilsimlarini to‘la yoki yetarlicha ochib berolmaydi. Asarga epigraf sifatida esa Rauf Parfining quyidagi misralari tanlangan:

Qarang, ingillagan itlarga qarang,
Sirli entikadi yalang‘och daraxt,
Bari unutilish istaydi, bari…

Ushbu tanlov mohiyatini asarning ilk va so‘nggi jumlalari orqali tahlil etsak bo‘ladi. Ilk jumladanoq qahramonning bir qadar odamovi, bir qadar kibrli ekani ko‘zga tashlanadi. “Men bu ayoldan nafratlanmayman, lekin unga qandaydir kamsituvchi nigoh tashlashimni sezardi, shekilli, men bilan tuzuk-quruq gaplashmasdi. Birga yashayotganimizga o‘n oydan ziyodroq vaqt bo‘ldi, biroq men u haqida deyarli hech narsa bilmayman”, – deya boshlangan asar yakunda yakka o‘zi qolgan qahramonning “Men esa bu yolg‘izlik saltanatida endi o‘zimni begonadek his qilmas edim” so‘zlari bilan tugallanadi. Shu yakun asar epigrafini (butun asarni deya olmaymiz!) ochiqlashda yechim jumla vazifasini bajaradi.

Asardagi bosh qahramon masalasi ham muammoli, negaki “Sunbula”da aniq va yaxlit chizilgan bir obraz yo‘q, bosh qahramon tushunchasi bo‘rtib chiqmaydi. Epigraf va so‘nggi jumladan muallif hikoyachi qahramonni bosh obraz sifatida

tanlaganday ko‘rinishi mumkin, ammo bu yorqin aks etmaydi, asar davomida kitobxon bosh qahramonni aniqlashda chalkashib qoladi. Xullas, janob D. “ustoz” maqomiga ko‘targan roviy qahramon ham bu xususda o‘quvchini mutlaqo ikkilantirib qo‘yadi. Xo‘sh, nega o‘zi janob D. bu ayolni “ustoz” deb ataydi? Bu savolga asarning o‘zidan javob axtaramiz: “Meni bu uyda “ustoz” deb chaqirishardi. Ko‘chib kelgan kunimdan boshlab ega bo‘lgandim bu laqabga. Janob D. “o‘zidan ko‘ra ko‘proq kitob o‘qiganim, yana undan farqli kitoblarimni chiqarishga ulgurganim” bilan izohladi buning sababini. Ammo sababi bugina emasligini tushunardim...” Xo‘sh, buning boshqa sabablari nima bo‘lishi mumkin? Keling, javob topishda qahramonlar tabiatiga xos ironiyaga asoslanib yondashamiz. (Ironiya — [yun. eironeia – mug‘ambirlik, ayyorlik; bilib bilmaganga olish] badiiy asarlardagi uslubiy vosita – ikki ma’noda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan so‘z yoki gaplarni qo‘llash bilan ularning asosiy ma’noga teskari, hatto uni inkor etuvchi ma’nosi orqali kinoya, qochiriq, piching, kesatiq, mazax ma’nolarini ifodalash). Yuqoridagi so‘roqqa uch tomondan qarab javob bersa bo‘ladi, fikrimizcha. Birinchisi, janob D. ning o‘zi aytganidek, undan ko‘proq kitob o‘qigani uchun. Ikkinchidan, bu sababni hikoyachi qahramonning o‘zi shunday baholaydi: “...Nazarimda u “ustoz” degan nomni ayni shuning uchun, meni ham o‘sha qizlarning biri deb gumon qilmasliklari, u qizlar orasida alohida hurmatga ega bo‘lishim va menga shahvat nazari bilan qaramasligini ta’kidlab turish uchun ham bergandi”. Bundan tashqari, ustoz so‘zining ma’nolaridan biri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, tarbiyalovchi demakdir. Balki, janob D. hikoyachi qahramondan xuddi shu ma’nodagi ustozlikni kutgandir. Buzilgan bir hayot tarzini tuzatish, o‘sha muhitdagilarni tarbiya qilib o‘zgartirishiga umid qilgandir. Zotan, u “o‘zining 25 yoshini shu ayolda qayta topgan”, yana hayotga – yozishga qaytgan edi. Endi esa uchinchi bir tarafdan nazar solamiz: asarda jirkanch tasvirlar bilan chizilsa-da, Layloning oilasiga yordam berishni xohlaganiga ishora qilinadi. U topgan pulini ota-onasiga jo‘natadi. Janob D. esa Layloga yordam beradi. Lekin asarda hikoyachi qahramonning yordami, birovga ko‘magi haqida aytilmaydi. U boshqalarga yordam berishni o‘ylamaydi, hatto nima uchun ular orasida

yashayotgani, hayotdan nima xohlayotganini ham bilmaydi. Shu ma'nisizlik borasida ham ayol yuqoridagi ikki qahramondan yuqorida, ma'nisizlik ichida "ustoz" maqomida.

Yana shuni ham aytish kerakki, asar qahramonlari noaniq chizilgan. Balki, muallif bu orqali inson shaxsiyatining murakkabligiga ishora qilmoqchi bo'lgandir, ammo bu komplekslik qahramonlar tasvirida jo'n, hatto mantiqsiz. Masalan, muallif Layloning jirkanch ishlari, holatlarini ifoda qilib, keyin ayrim o'rinlarda yaxshi xislatlari ham borligiga belgi beradi. Onasi uni kelinlikka yaxshi tayyorlagani, uning mehribon ayol, yaxshi oila bekasi ekani yoki D.ning tili bilan aytganda, oriyatli ham ekanligini kiritadi. Shularni hisobga olib, Laylo yaxshi tarbiya topgan deylik. Ammo keyingi o'rinlar-chi? Asar muallifi Layloning oilaviy muhiti nihoyatda ayanchli ahvolda ekanini yozadi: akalarining bir necha bor xotin olib, xotin qo'ygani, ota-onasiga qaramasligi, alohida yashashi, ammo uyning Layloga qolishiga ko'nmay, hatto ota-onasini bolta bilan chopmoqchi bo'lgani va hokazo. Tillaniso Layloning yomon yo'lga kirib ketgani sababining bir uchini ana shu muhitga, yana bir uchini turmush o'rtog'ining undan yuz o'girishiga bog'laydi va shu o'rinda ziddiyat kelib chiqadi: Laylo yuqorida tasviri chizilgan oila muhitida ham, shunchalik rasvo holatlar ichida ham yaxshi tarbiyasini saqlab qola olgan ekan, unda nega bunday jirkanchlikka tushib qoldi. Hatto buzuq axloqi sabab onalik huquqidan ham mahrum etildi. Yoki Layloning onasi tasvirini olsak. Asarda keltirilishicha, Layloning qay yo'sinda pul topayotgani haqida gap-so'zlar chiqsa, onasi telefon qilib yig'laydi, Laylo esa uni tinchlantiradi. Ona nima sababdan yig'layapti? Oriyatli, nomusli, iffatli, vijdonli bo'lgani uchunmi? Agar shunday bo'lsa, quyidagi holatda qanday fikrga kelish mumkin: "D. Laylo uni xotinlikka olishini so'ragani, Layloning onasi "uyni o'z nomingga o'tkazib ol, D. o'lgandan keyin senga qoladi" degan gapini ancha paytgacha kesatiq kinoya qilib aytib yurdi". Bundan tashqari, hikoyachi qahramon tasvirida ham ana shunday noaniqliklar talay. Avvaliga u boshqa qahramonlardan xulq-atvor borasida birmuncha yuqoridek tuyuladi, lekin aslida bunday emas. U go'yo yuqoridan turib ikki qahramonni, muhitni qoralaydi, ulardan nafratlanadi. Qizig'i, shuncha nafrat

bilan ham o‘sha chirkinlikda yashashda davom etadi, ketishni o‘ylamaydi. Uning tabiatida shu buzuq muhitga xayrixohlik bor: “To‘g‘risini aytganda, janjallar menga yoqardi, aynan nimasi aytolmayman, biroq janjal ichida o‘zimni muhim odamday his qilardim”, — deydi u. Bir o‘rinda bu uydan halovat va qulaylik topganini aytadi, keyin esa boshqa bir o‘rinda “bu uyga kelgan kunidan boshlab uxlay olmagani”ni bayon qiladi. Janob D. uyidagi chirkin muhit bu halovat va qulaylik topiladigan makon emas, aslida. Yana ham qizig‘i, ijod kishisi sanalmish bu qahramon yuqoridagi ikki jihatni bu yerdan qanday topa oldi ekan?! Fikrimizcha, asar qahramonlarining kasb-korini tanlashda ham noto‘g‘ri yo‘ldan ketilgan. Janob D. va hikoyachi qahramon – yozuvchi. Gap so‘zlaridan anglashiladiki, psixologik kitoblarni o‘qiydilar, hatto Rumiy ijodi bilan yaxshigina tanishlar. Endi o‘ylab ko‘raylik: o‘qiyotgan kitoblari, kasb-faoliyati va qahramonlarning tabiati, olami mutlaqo ters emasmi? Kitob bilan, izlanish bilan, Rumiy bilan oshno ijod vakillarining bu qadar chirkin muhit kishilariga aylangani unchalik ishonarli emas. Ro‘za tutish bilan bog‘liq tasvir ham ana shunday ishonchsiz. Bunday olib qarasak, asar yakunida Layloning ham, janob D.ning ham hayoti hikoyachi qahramon ta’sirida poyoniga yetadi. Laylo uni deb o‘ladi, janob D. esa o‘z uyini tashlab chiqib ketadi. Asarda ifodasi chizilmagan bo‘lsa-da, D.ning ham endi xor-zorlikda o‘lib ketishi tayin. Ajablanarlisi, hikoyachi qahramon biror o‘rinda ularga achinmaydi. “Layloning fojiasida jamiyatni aybdor qilishim ham oson”, – deydi-yu, o‘zi ham o‘sha jamiyatning ichida ekanini tan olmaydi. Loaqal bir marta bo‘lsa ham afsuslanmaydi. Aksincha, janob D.ning ham baribir o‘lib ketishi, o‘ligi unga tashvish bo‘lmagani uchun ko‘ngli joyiga tushadi, desak ham bo‘ladi.

Muxtasar qilib aytganda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday badiiy asarda rang bo‘lishi lozim. Muallifdan uzr so‘ragan holda shuni bayon qiladigan bo‘lsak, afsuski, biz “Sunbula”dan o‘sha rangni topa olmadik. Qolaversa, asarning badiiy g‘oyasi, maqsadi nima ekani borasida ham “Sunbula”ni o‘qib o‘rinli javobga erisha olmadik. Ko‘nglimizga kelgani esa Abdulla Qahhorning tubandagi so‘zlari bo‘ldi: “Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o‘tin yorishga sarf

qilish kerak emas” (https://kh-davron.uz). Alloh bergan iste’dod uchqunlarini omma uchun manfaatli bo‘lgan jihatlarga safarbar etish, o‘quvchiga estetik zavq beradigan, uni tom ma’noda tozarishiga xizmat qiladigan yorqin asarlar yaratish lozim. Zero, dunyoni go‘zallik qutqaradi. Cho‘lpon aytganidek, adabiyot “chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydirg‘on, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi” (https://kh-davron.uz)dir. Zotan, qalb kirlarini yuvadigan suvning o‘zi ham loyqalanmasligi, kirlanmasligi shart. Xulosa o‘rnida Abdulla Qodiriyning “Yozishg‘uchilarimizga” nomi ostida yozilgan fikrlarini adabiyot vakillariga eslatma sifatida keltirmoqchimiz: “...Ammo shu qalam olishdan ilgari birmuncha andisha lozimdur: shoshmaslik kerak. “Shoshgan qiz erga yolchimas” maqolini balki eshitganingiz bordir. O‘n marta o‘lchab, bir marta kesmoq yaxshi:

1. siz olgan mavzuning ijtimoiy va siyosiy manfaati;
2. qosh qo‘yib, evaziga ko‘z chiqarmaysizmi;
3. masala zamirida shaxsiy manfaatingiz, ya’ni oldi-berdi janjalingiz yo‘qmi...

Bu jihatdan qanoatingiz tom bo‘lsa, endi navbat qalamnikidir” (Abdulla Qodiriy, Adabiyot haqida, https://kh-davron.uz).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sulton, I. (2005). Adabiyot nazariyasi. (272 b). T.: O‘qituvchi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Ҳамраев, К. (2020). Ҳикоя композиция. (153 б).
3. Жабборов, Н. (2020). “Ўтган кунлар”да миллий руҳ ифодаси. Literature critical studies, Vol. 32, No. 2.
4. Тилланисо. (2021). Сунбула. Zabarjad media. (128 б).
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (2006). 4-жилд. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти.

https://kh-davron.uz

6. https://youtu.be/2O4NK58h7pI
7. https://n.ziyouz.com

ABDUQAYUM YO‘LDOSNING “PUANKARE” HIKOYASIDA MOTIV VA TAFSIL

Toshpo‘latova Gulsevar
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti, 1-kurs talabasi

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada yozuvchi Abduqayum Yo‘ldoshning “Puankare” asarining poetik xususiyatlari, xususan tafsil (detal) va uning badiiy talqini haqidagi fikrlar o‘rtaga tashlandi.*

***Kalit so‘zlar:** O‘zbek adabiyoti, nasr, Abduqayum Yo‘ldosh, “Puankare” hikoyasi, tafsil.*

***Abstract:** This article discusses the poetic features of the work "Poincaré" by the writer Abdukayum Yuldosh, in particular, thoughts about the detail and its artistic interpretation.*

***Keywords:** Uzbek literature, prose, Abdukayum Yuldosh, “Poincaré” story, detail*

Vaqt ta’sirini o‘tkazmaydigan narsaning o‘zi qolmabdi. Hatto asl mol ham uning qoshida ojiz ekan. “Puankare” hikoyasi huddi shu so‘zlar bilan boshlanadi. (А. Йўлдош, 2019, 8-bet) Haqiqatan ham xalq orasida yuradigan “vaqt – oliy hakam” yoki “hamma narsani vaqt ko‘rsatadi” degan fikrlar o‘z isbotini shu asarda topganday. Kitobxonning sezimlariga ta’sir ko‘rsatib, ko‘nglini yumshatib, ularni ijodkor yoxud qahramonlarga tuyg‘udosh qila bilgan asargina o‘qiladi va munosabat uyg‘otadi (Қ. Йўлдош, 2019, 38-bet).

Yozuvchi o‘z-o‘zidan asar yozmaydi, bunga nimadir turtki yoki sabab bo‘ladi. Yozuvchi Abduqayum Yo‘ldosh ham bu asarini shunchaki yozmagan. Balki bu voqeani ko‘rgan yoki eshitgandir. Hikoya qahramonini kimdir jur’atsiz odamga o‘xshatgan, boshqalar esa bir tomchiga qiyoslashgan. Negaki, tomchi ham har xil sinovlarga dosh berishi kerak. Lekin hikoyamiz qahramoni bu sinovlarga dosh berolmadi, bizningcha. Negaki, hikoya qahramonida o‘zbek mentalitetiga xos jihatlar keltirilgan. Qahramon o‘zi yoqtirgan qizga emas, otasi va’dalashgan qizga uylanishi yoki ikkalasi tortishganda ham shu qiz meni kutgan-ku deb masalani yengillashtirishi o‘zbek mentalitetiga xos xususiyatlar. Hikoyadagi detal

har biri o‘z-o‘zidan qo‘shilmagan. Har birida ramziy ma’no bor, chunki hikoya boshlanishidagi portfelni qahramonimiz o‘ttiz besh yildan beri ishlatadi. Bu qahramonning fanga, e’tioqdiga sodiqligini yuzaga keltirgan. “Puankare” – bu hayot gipotezasi, chunki hayotda ham shunaqa gipotezalar juda ko‘p, ularni yechishingizga har doim bir bahya qoladi. Hayot – bu bir puankare hisobi, hayot puankare aytadi: halol yasha, do‘stga sodiq bo‘l, undan manfaat kutma, e’tiqodli bo‘l, e’tiqodingga xiyonat qilma.

Asarda Arastu davridan beri qo‘llanilib kelinayotgan “dialektika” (ikki tomonlama qarash) shakllangan, ya’ni, yaxshi va yomon tomonlardan qarash. Ayni paytda hikoyada shunday g‘oya singdirilganki, o‘zbek adabiyotining buyuk asarlari “O‘tkan kunlar” yoki “Kecha va Kunduz”, yaqin o‘tmishdan oladigan bo‘lsak “Temir xotin” asarlaridagidek jamiyatga bog‘liq bo‘lgan muammolar olib chiqilgan. Hozirgi davrda Beruniy, Xorazmiylar chiqmayotganiga sabab shu asarda ochib berilgan. Ehtimol, Navoiy ham shu vaziyatda bo‘lganda Navoiy bo‘lmasmidi… Asarning tub zamirida jamiyatdagi ilmsizlik yotibdi, bizningcha.

Puankare gipotezasini yechgan olim Perelman ham qirq bir yoshda, qahramonimiz 99 % yechgan edi. Faqat, qirq biriga chiday olmadi u. Balki Perelman ham yolg‘iz bo‘lmaganida, unda ham oila tashvishlari bo‘lganida yecha olmagan bo‘larmidi? Asarda shunday bir jumla keltiriladi: “Hayot puankare aytadi: Bu dunyoda har birimiz ham qaysidir ma’noda Perelmanmiz. Hammamizning qalbimizda yaratish yotadi” (А.Йўлдош, 2019, 188-bet) deyilgan. Bundan tashqari hikoyada yana “bo‘ritumor” detali bor. Unga ko‘ra insonni “ins-jinslardan himoya qiladigan” “najotkor kuch” shu bo‘rining tishlari. Bu eskidan turkiylardan qolgan inonch. Bu orqali yozuvchi o‘zbek millatining juda qadim millatlardan biri ekanligini eslatsa, ikkinchi tomondan qandaydir hayvonning tishiga ishonish bugun xato ekanligini hamon anglab yetmagan, o‘zgarishlardan, sivilizatsiyadan orqada qolgan insonlar fojiasini ko‘rsatmoqchi balkim…

Hikoyada “Piyoz biznesi” orqali har kim o‘z ishining ustasi bo‘lishi kerakligi uqtirilgan. Chunki hikoya qahramoni nochor ahvoldan chiqish yo‘li sifatida savdo-sotiq bilan shug‘ullanmoqchi bo‘ladi. Ammo olim uchun bu – butunlay boshqa

soha. Undan tashqari aynan diletantlar (havaskorlar) qo‘l urgan sohasini eplab ketolmaydi. Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo‘ldosh adib mahoratiga shunday baho beradi: “Abduqayum Yo‘ldoshevning inson konsepsiyasi g‘oyat o‘ziga xos yo‘sinda namoyon bo‘ladi. U badiiy tasvirda har bitta personaj shaxsiyati g‘oyat xilma-xil ma’naviy iplardan to‘qilgan rangin mato ekanidan kelib chiqqan holda ish ko‘radi. Shu sabab timsollar tasvirida turfa ranglardan mahorat bilan foydalanadi.” (Q. Yo‘ldosh. 2019, 453-bet). Aytish mumkinki, yozuvchining asarlari vaqt o‘tgan sayin milliy hikoyachiligimizda o‘ziga xos iz qoldirmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bu asar insoning o‘zligini, menligini anglashga qaratilgan asar. Tub negizida Olam va Odam haqiqati yotibdi. Asar yozilgan davrlarda yurtimizda ilm bilan shug‘ullanuvchi insonlarga nazar tashlasak, ko‘p hollarda ularning ijtimoiy hayoti og‘ir ahvolda bo‘lgan. Xuddi hikoyamiz qahramonining achchiq qismati singari. Adabiyotshunos Bahodir Karim Abduqayum Yo‘ldoshev asarlarida qiziqarli syujet va bayon usuli borligini ta’kidlaydi. (Б. Карим, 2016, 24-bet).

Hikoya motivi ming yillik uchun e’lon qilingan “Puankare gipotezasi”ni aniqlash. Aynan shu motiv – inson sivilizatsiyasi darajasini, kerak bo‘lsa – insoniylik darajasini belgilab beruvchi omil. Hikoyadagi maqsadga erishish yo‘lida eng katta to‘siqlardan biri sifatida oila muammolari ko‘rsatilgan. Bu motiv yozuvchi tomonidan ishonarli dalillangan. Shuningdek, “Portfel” detalida ilm-fanga, tanlagan kasbga sadoqat ifoda etilgan. “Beshikkerti” detali orqali hayot inson kamoloti yo‘lidagi yana bir to‘siq tasvirlangan, bizningcha. Yozuvchi bir necha detallarni mahorat bilan qo‘llash orqali syujetning qiziqarliligini oshirgan, hikoyaning hayotiyligini ta’minlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qozoqboy Yo‘ldosh, (2016) Muhayyo Yo‘ldosh. “Badiiy tahlil asoslari” T. “Kamalak”. - 464
2. Баҳодир Карим. (2016) Руҳият алифбоси. Т. Ғ. Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.. – 364 б.
3. Йўлдош Абдуқаюм. (2019) Пуанкаре. Т.: Академнашр.. – 288 б.
4. Қозоқбой Йўлдош. (2019) Очқичсўз. Монография. Т.: Тафаккур.. – 688 б.

LUQMON BO‘RIXONNING “YALANGOYOQ” HIKOYASIDAGI OBRAZLAR POETIKASI

Turdiyeva Navruzgul Ro‘ziboy qizi
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik yo‘nalishimagistranti
navruzgulturdiyeva@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Luqmon Bo‘rixonning “Yalangoyoq” hikoyasining kompozitsion tuzilishi va obrazlar tizimi o‘rganildi. Hikoyaning shakli, mazmuni, badiiy detallar tizimi struktural, psixologik, sotsiologik usullar yordamida tekshirildi, asarning jamiyat hayotiga ta’siri ko‘rib chiqildi. Bugungi adabiy jarayonda Luqmon Bo‘rixon asarlarining mazmun-mohiyati, jamiyat hayotiga, adabiy jarayonga qo‘shgan hissasiga e’tibor qaratildi. Luqmon Bo‘rixoning milliy prozamiz rivojiga hissa qo‘shayotganligi ta’kidlandi. Hikoya tahlilidan struktural jihatdan yetuk, shuningdek g‘oyaviy mazmuni jamiyat hayoti uchun muhim va adabiyot o‘zining ijtimoyi vazifalaridan birini bajargan degan xulosaga kelindi.*

Kalit so‘zlar: *Syujet tarkibi, badiiy detallar, mavzu, g‘oya, struktural metod, sotsiologik metod, psixologik metod.*

Abstract: *In this article, the compositional structure and image system of Luqman Borikhon's story "Barefoot" were studied. The form, content, and system of artistic details of the story were examined using structural, psychological, sociological methods, and the impact of the work on the life of society was considered. In today's literary process, attention is focused on the essence of Luqman Borikhan's works, his contribution to the life of society, and the literary process. It was noted that Luqman Borikhon contributes to the development of our national prose. From the analysis of was concluded that the structurally mature, as well as the ideological content is important for the life of the society, and literature fulfilled one of its social tasks.*

Keywords: *Plot structure, artistic details, theme, idea, structural method, sociological method, psychological method.*

Luqmon Bo‘rixonzamonamizning mashhur yozuvchilaridan bo‘lib, bugungi kunda adabiyotimizda o‘z o‘rniga va uslubiga ega, kitobxonlarning qalbidan joy

egallagan yozuvchilardan biridir. Nasrda o‘z ijodiy ishlarini ko‘ngillarga yetib boradigan qilib yozayotgan sermahsul ijodkor. Bu borada Qozoqboy Yo‘ldoshev ham Luqmon Bo‘rixon va unga o‘xshash ijodkorlarni milliy prozamiz taraqqiyotiga hissa qo‘shayotganini ta'kidlaydi. (Yo‘ldoshev, 2006, 193-bet). Yozuvchi asarlari zamon va makonning shiddatlariga bardosh beroladigan darajada kuchli bo‘lishi uchun biz tadqiqotchi adabiyotshunoslar adibning asarlarini har tomonlama ilmiy tekshirib ko‘rib, baho berishimiz va o‘rganishimiz lozim. Avvalo, asarni tekshirishni uning tashqi tomoni, shakliy ko‘rinishini tahlil qilishdan boshlaganimiz ma'qulroq. Yozuvchining janr talabiga javob beroladigan asar yaratishi ham san'atdir. Hikoyadagi obrazlar asarning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Obraz yordamida xarakter yarata olish va kitobxonlar qalbidan joy ola bilish, yozuvchining mahorati belgisidir. Shunday asarlar borki, asar qahramoni haqiqatda hayotimizga ta'sir ko‘rsatoladi. Ba'zi personajlar bilan esa asarni eslaymiz, u personajsiz asarni tasavvur qilolmaymiz. Obraz har bir asarda bor va u muhim rol o‘ynaydi. Adabiyotshunoshlik terminlarining ruscha - o‘zbekcha lug‘atida: “Obraz-san'at va adabiyotda hayotni o‘ziga xos badiiy shaklda aks ettirgan manzara va xarakterdir” (Hotamov&Sarimsoqov, 1983, 218-bet) deya izohlanadi. Albatta, obraz sof holatda hayotdagi inson qiyofasini chizmaydi, balki badiiy bo‘yoqlar bilan yasantirilib asarga olib kiriladi. "Yalangoyoq" hikoyasini tahlil etishni, avvalo, struktural tahlil qilishdan boshlasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi. “Struktural poetika matndagi barcha elementlarni bir butunlikda ko‘radi, ularning o‘zaro aloqasini tekshiradi”. (Karimov, 2011, 48-bet) Matnni bir butun holatida tasvirlash, so‘z ijodkorining so‘zni qo‘llashiga bog‘liq. Agar matnda biror qism yoki so‘z olib tashlansa, o‘rni bilinib qoladigan darajada qiymatli bo‘lishi kerak. Badiiy detallarning ortiqcha qo‘llanmasligi, so‘z tanlashdagi ustalikni namoyon etadi. “Yalangoyoq” hikoyasi struktural jihatdan yaxlit, hikoyaning qolipiga mos ravishda tuzilgan asardir. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta va yechim.

Hikoyaning syujet tarkibi o‘quvchining diqqatini tortuvchi nuqta - tugun bilan boshlanadi, ya'ni o‘g‘‘irlik sodir bo‘lgan: “Poezd navbatdagi shaharchaga sudralib kirib kelayotgan bir paytda Halim sho‘ri quriganini sezib qoldi — tuflisi yo‘q! Sakkiz oycha burun Halimga nasib etgan “import” tufli gumdon bo‘libdi!" (https://www.ziyouz.com) Bu parcha orqali Halimga tuflining qadrliligini va tuflining uning uchun ha deganda topilaveradigan narsa emasligi, shuningdek Halimning moddiy ahvoli (tuflining sakkiz oydan buyon hamrohligidan) ham o‘ziga yarasha ekanligi namoyon bo‘ladi. Syujetda qaytish, voqeani Halimning xotirasida jonlantirish vositasida voqea sodir bo‘lgan joy bilan tanishtiriladi. Ekspozitsiyaning tugundan so‘ng kelgani ko‘rinadi, ya'ni Halim o‘g‘irlik sodir bo‘lishidan oldingi holatni va poezdga chiqqanlarini eslab, xayolida o‘sha manzarani gavdalantiradi. *“*Luqmon Bo‘rixon-adabiy davralarda ruhiyat rassomi sifatida tilga olingan”. (Bo‘rixonov, 2019, 285-bet) Buning yorqin misolini quyidagi tasvirdan ham ko‘rishimiz mumkin: “U odam ko‘payib ketmasidan yuvinib kelish niyatida shoshib o‘rnidan turdi va..Halim suvi qochgan bodringdek bo‘shashib, o‘rindiqning bir chekkasiga o‘tirib qoldi. Xo‘rligi keldi". (https://www.ziyouz.com) Xafsalasi pir bo‘lgan, oyoq kiyimini yo‘qotgan Halimning ahvoli “suvi qochgan bodring” ning ko‘rinishiga o‘xshatiladi. Bodringning tiriklik manbasi, asosiy qismi suvi kamayganda, burishib qolganidek, Halim ham birmuncha vaqt nima qilishini bilmay, tufli haqida qayg‘urib qoladi. Halim o‘zi hali student bo‘lsa, yana tuflisi xorijniki, bu tufliga ikki xalta un olish mumkinligidan tuflining anchayin bebaho ekanligi ayon. Aksiga olib, Uning quloqlari ostida otasining o‘sha kungi hukmi yana bir karra jaranglagandek bo‘ldi: “Ulim, endi besh-olti yilgacha “botinka obber” deb g‘ing‘illamaysiz-da*”.(*https://www.ziyouz.com) Qayg‘ursa, qayg‘uradigan holatligi bilinib turibdi. O‘g‘irlik sodir etilganidan so‘ng, qidiruv ishlari amalga oshirilgan va voqealar rivoji shakllantirilgan. Hikoyada kulminatsion nuqta va yechim ham bor.

- Assalomu alaykum... Akalar, tuflim yo‘q, yo‘qolibdi...Serjant bilan nazoratchi manoli koz urishtirib olishdi. -Qanaqa tufli? so‘radi serjant.

Militsionerning savoli Halimga “mana, tufling», deganday tuyuldi. *(*https://www.ziyouz.com*)*

Afsuski, Halim tuflisi haqida hamma tafsilotlarni bilsa-da, vagon nazoratchisi va militsioner tuflini izlab ko‘rishga xohish ham bildirmaydi. Sababi nimada bo‘lishi mumkin deb o‘ylaysiz? Hikoyaning yechimi berilgan va xulosa chiqarish kitobxonga qolgan. Militsionerning “Botinkani kiyib yurishga ham qo‘rqasan” (https://www.ziyouz.com) deyishidan, o‘g‘ri aniq.

Hikoyadagi obrazlar poetik jihatdan mahorat bilan yoritilgan. Vagondagi odamlar nutqi, Halimning otasining xarakteri, militsionerning o‘zini tutishi turli toifadagi insonlar xarakterini ko‘rsatishda Luqmon Bo‘rixonning mohirligini ko‘rsatgan. Kitobxon ikkiyuzlamachi, huquqbuzar militsioner va poyezd nazoratchisining qiliqlariga nisbatan g‘ashlanish, soddadil talabaga esa achinish ko‘zi bilan qaraydi. Ayniqsa, agondagi hamrohlarning nutqi go‘zal badiiyatning namunasidir. Tanasi boshqa dard bilmas deganlaridek, va'zxonlik atrofdagi insonlar xarakteriga xos xislatdir. Ijod olamida har bir ijodkor o‘z uslubi va yo‘nalishiga ega bo‘ladi**.** Uslubda ularni bir-biridan ajratib turadigan tomonlar: uning shaxsiy tajribasi, iste’dodi, nutq ohangi va hokazolar ko‘zga tashlanadi *(*Normatov, 2007, 217-bet*)* Luqmon Bo‘rixonning hikoyalarida oddiy, sodda, samimiy xalqning ichidagi insonlar obraz darajasiga ko‘tarilgan. Balki, mana shu jihati bilan yozuvchi xalqning ko‘nglidan joy olgandir. Nima bo‘lganda ham, haqiqiy adabiyot o‘tashi kerak bo‘lgan vazifa bajarilgan. Hikoya haqida ibratomuz fikrlarni aytish kitobxon zimmasiga yuklatilgan, yozuvchi esa voqeaning manzarasini oyinayi jahondek tasvirlagan. Oddiy talaba uchun, ust boshini butlash ham - o‘y. Hikoyada o‘z kasbini qaroqchilikka almashtirib olgan militsioner, o‘z vazifasiga sadoqatsiz nazoratchi obrazlari orqali jamiyatdagi ayrim "shaxslar" tanqidga olingan bo‘lsa, Halimning hamrohlari orqali soddadil xalq qiyofasi chizilgan. Har bir obrazning nutqi, obrazlarning tabiiy, jonli bo‘lishiga xizmat qilgan. Hikoya janri kichik janr bo‘lsa -da, qisqa bayon uslubida, ma'no taqdim eta olishi kerak bo‘lgan sermashaqqat faoliyatdir. Bu janrga hamma yozuvchi qo‘l uradi, ammo hammasi ham shuhrat qozonavermaydi. Luqmon Bo‘rixonning

hikoyalari zamonaviy istiqlol adabiyoti namunalariga xos yo‘sinda yaratilayotgan, sayqal topib borayotgan asarlardir. “Yalangoyoq” hikoyasi esa mana shu ijod namunasining bir qirrasidir desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Yo‘ldoshev, Q.(2006) *Yoniq so‘z*.(193-bet).Toshkent.

2.Hotamov,N., &Sarimsoqov, B.(1983). *Adabiyotshunoshlik terminlarining ruscha –o‘zbekcha lug‘ati*.(218-bet). Toshkent: O‘qtuvchi

3.Karimov, B.(2011). *Adabiyotshunoslik metodologiyasi*. (48-bet). Toshkent: Muharrir

4. https://www.ziyouz.com

5.Bo‘rixonov, L.(2019). *Begonalar yurmas bu yerda. roman*. (285-bet). Toshkent.

6.Normatov, U. (2007). *Ijod sehri*. (217-bet). Toshkent: Sharq.

ROMANDA QADIM BUXORO MANZARASI (OMON MUXTORNING “XOTIN PODSHOH” ROMANI ASOSIDA)

Usmonova Barno Ziyodullo qizi

BuxDu O‘ zbek adabiyotshunosligi fakulteti, 2kurs-magistranti

barno2000bukhara@gmail.com

Annotatsiya. *Omon Muxtorning “Xotin podshoh” romani tarixiy-biografik roman hisoblanadi. Asarda Buxoro tasviriga bag‘ ishlangan o‘ rinlarga juda ko‘ p duch kelamiz. Asarda ming yil olgingi Buxoro manzarasi qanday bo‘ lganligi haqidagi savollarga javob topishingiz mumkin.Maqola tahlil metodidan foydalangan holda yozilgan. Buxoro tasviriga bag‘ ishlangan o‘ rinlar tahlilga tortilgan.Fikrlar asardan olingan parchalar va tadqiqotchilarning shu mavzuga doir fikrlari bilan dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *Xotin podshoh, Zarafshon(Mosaf), Numijkat, Bumiskat, Mis shahar, Bixara.*

Buxoro- jahoning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go‘zal shaharlaridan biri. U azaldan yuksak nufuzga ega bo‘ lgan.Bu shaharning har bir go‘ shasida boy tarixga ega minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalariga olis o‘ tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Shuningdek, u Sharq-u G‘arbda “ochiq osmon ostidagi muzey, shavkatli tarixning jilvakor ko‘ zgusi” nomini olgan. VIII asrda mintaqaga islom dini kirib kelishi ortidan Buxoro asta-

sekin eng muhim diniy markazga aylanib, islom olamida sharif sanaladigan to‘rtta shahardan biriga aylangan. Sharif Buxorodan butun jahon tan olgan buyuk olimlar, mutafakkir va donishmandlar yetishib chiqqan. Ushbu zamin A.G‘ijduvoniy, Imom Buxoriy, Ibn Sino Narshaxiy, Naqshbandiy, kabi buyuk allomalarni dunyoga tanitdi.Omon Muxtor ham Buxoro diyorida tug‘ilgan qalami o‘tkir ijodkorlardan hisoblanadi.

Har bir yozuvchi o‘zi xohlagan va xohlamagan holatda asarlarida uning ichki kechinmalari, yashash joyi, u yerning muhiti o‘z aksini topadi. Omon Muxtor asarlarida ham uning Buxoroga bo‘ lgan muhabbati, cheksiz hurmati o‘ z aksini topgan. Uning “Xotin podshoh” romanida moziy Buxoro manzarasi (arablar bostirib kirgan davr VIII asr) o‘ z aksini topgan. Bu asar 2003-2006 yillar oralig‘ ida yaratilgan. Omon Muxtorning boshqa romanlaridan farqli ravishda “Xotin podshoh”da nisbatan olis o‘ tmish tasvirlangan. Tadqiqotchi O‘ktam Nazarov ta’kidlaganidek, asar-bir xronotopli roman (Nazarov, 2014, 63-bet). Asarda arablar bosqini, islom dini va uning kirib kelishi, arab madaniyatining sekin astalik bilan mustahkamlanishi, madrasa, masjidlarning barpo etilishi, ilm-fanning yuksalishi tarixiy-badiiy tarzda ifodalangan.

Arablarning O‘rta Osiyoni zabt etishi moziyning murakkab masalalaridan biridir. Bu bosqin Turonning qadimiy madaniyati, vayron bo‘lishi, minglab kishilarning halok etilishi, qullik, istibdodga duchor qilinishiga sabab bo‘ldi. Ushbu tarixiy haqiqat roman konsepsiyasida yorqin, ta’sirli, dramatik tarzda badiiy ifoda etilgan.Asarda Buxoroning o‘sha paytdagi tarixi, jug‘ rofiyasi,manzarasi, hayvonot-u nabotot olami,tabiati go‘zal tasvirlar, o‘ xshatishlar, tashbehlar orqali ifodalangan.

Buxoro mamlakati birinchi navbatda Zarafshon o‘lkasidan iborat.U sharqdan keyinchalik Sharqiy Buxoro deb nom olgan hudud bilan, shimoldan Turkiston tog‘ tizmasining g‘ arbiy qismidagi Chumqar tog‘i, G‘arbdin Nurato, Oqtog‘ va Qoratog‘ bilan Janubdan Chaqalikalon, Qoratepa, Zirabuloq, Ziyouddin tog‘lari bilan, Janub va Janubi-G‘arbdan Sandiqli qumli cho‘li bilan, Shimoliy G‘arbdan esa Qizilqum sahrosi bilan o‘ralgan edi.

O‘lkada eng avval Buxoro yaqinidagi shaharlar va Buxoroning o‘zi bo‘y cho‘zgan. Buxoro shahar va atrofidagi yerlar o‘rnida o‘rnida qachonlardir dengiz bo‘lgan, dengiz qurob, kattakon chuqurlik qolgan ekan. Keyin bir payt Zarafshon (Mosaf) ko‘pirib, toshib, loyqalarni surib, bu chuqurlikni to‘ldirgan, tekis yerga aylantirgan. Qanday bo‘lmasin (bu yerlar tub Turkiston ekanligidan), Turkiston qishlog‘i (shahri) va boshqa turkiy el yashagan turli tomonlardan odamlar kelib, bu yerda oldin chodir va o‘tovlarda turganlar. So‘ng imoratlar qura boshlaganlar (O.Muxtor, 2010,6-bet)

Biz bu ma’lumotlar orqali o‘sha davrdagi Buxoroning chegarasi, uning qaysi hududlardan iborat bo‘lganligi haqidagi ma'lumotlarga ega bo‘lamiz. Ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, o‘sha davrda Buxoro juda katta hududni qamrab olgan. Buxoroning nufuzi ham baland bo‘lgan.Asarda keltirishicha, Movoraunnahr deganda Buxoro tushunilgan ekan. Menimcha, bunga sabab, Buxoroning katta hududga ega bo‘lganligi va yirik madaniyat o‘chog‘i sifatida shuhrat qozonganidir.

O‘lka suv va daraxtlar (o‘rmonlar, to‘qayzorlar)ga boy, ov qilinadigan hayvonlar (jonivorlar), baliq ko‘p.Yoz issiq, quruq, jazirama kelar, uzoq davom etardi. Odam yashamagan qumli yerlarda oq va qora saksovul, juzg‘ un, cherkes, quyonsuyak, selin, iloq, ming xil yantoq o‘sadi. Sho‘rxok joylarda– sarsazan, yetmak. daryo (Zarafshon-Mosaf)ning qadim o‘zanlarini jing‘il, tol, qamish, yulg‘un, yovvoyi jiyda qoplagan.

Chor-atrofda qimirlagan, g‘imirlagan jonzot. Yalang cho‘llarda yumronqoziq, kaltakesak, falanga, qoraqurt, dasht o‘rgimchagi, qushoyoq, qumsichqon, tipratikan, toshbaqa, ilon tarqalgan. Cho‘lda yana– jayron, tulki, bo‘rsiq, bo‘ri. O‘rmon va to‘qayzorlarda– ayiq, to‘ng‘iz, to‘qay mushugi bor. Qushlar - qirg‘ovul, loyxo‘rak, o‘rdak. Saksovulzorlarda-xo‘jasavdogar. Qirlar, tog‘larda-jayra, kiyik, arxar. Yana qushlar– kaklik, bedana, lochin, qirg‘ iy, burgut, kalxat. Ba’zi yerlarda– boyo‘g‘ li. Kemiruvchilar– o‘rmon kalamushi, qizil dumli sug‘ur, kulrang sassiqko‘zan, tosh suvsari. (O.Muxtor,2010,8-bet)

Bu ma’lumotlar orqali Buxoro tabiati, uning hayvonot olami to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lamiz.Buxoro iqlimi azaldan issiq, tuproqi sho‘rxok bo‘lganligi

sababli ko‘ proq saksovul, yanoq, sarsazanva boshqa issiqqa chidamli o‘ simliklar bo‘ lgan. Buxoro nomining qanday kelib chiqqanligi tog‘risidagi qarashlar ham bor asarda:

Boshlang‘ich davrda Buxoro shahrining nomi Numijkat va Bumiskat deb yuritilgani taxmin qilinadi. Aslida, bu qishloq (shahar)lar alohida qurilgan, keyinchalik Buxoro shahriga qo‘ shilib, u bilan birlashib, yagona shaharga aylanib ketgan bo‘lishi kerak. Buxoro, degan nomning o‘zi hindcha Bixara (Ibodatxona), arabcha Foxira (Iftixor) so‘zlaridan kelib chiqqan, deyishadi. Arablar Buxoroni negadir “Mis shahar” deb ham ataganlar.

Buxoro shahridan tashqari, yaqin-uzoqdagi ayrim qishloq-shahrlar ham ikkinchi nom sifatida Buxoro nomini olgan. Shu tarzda ko‘p o‘tmay, butun o‘lka Buxoro bo‘lib tanila boshlagan. (O.Muxtor,2010,10-bet)

Asar davomida Eron va Arab hukmdorlarining yurtimizga bostirib kelishi va xalqimizning bu istibdodga qarshi mardonavor kurashlari aks etgan. Xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarib, bosqinchilarga qarshi, ularning ko‘rsatgan zulmlariga qarshi kurashlari, qo‘zg‘olonlari aks etgan.Mashhur Abruy qo‘zg‘oloni ham asarda aks etgan. Hech bir urush talofatsiz bo‘lmaganidek, Buxoroda ham urushlar izsiz ketmagan. Lekin, xalqimiz mushtni bir joyga urib, Buxoroni yana oldingi holiga tiklashga erishadilar. Bunday siyosat yuritishda hukmdor ham oqil bo‘lishi kerak,albatta. O‘sha paytda Buxoroda Xotin podshoh hukmdor edi. U juda oqilona siyosat yuritgan hukmdor ayol.

“Yer bilan barobar” holga kelgan Buxoro nihoyat, bu bosqinlardan qutulib, yana yangidan obod, boy, shavkatli bo‘la boshlaydi. Mustahkam qal’alar, muxtasham qasrlar qurishga kirishiladi. “Buxoro atrofida (dushman hujumidan asranish uchun) devor tiklab, barcha qishloq-shahrlar devor ichkarisida bo‘lishini ta'minlash, har bir farsangda bir darvoza qurish va yarim milda bittadan minora ko‘tarishga” qaror qilinadi. Devor (qal’a) singari Buxoro xisori (saroy, Ark) zamonlar davomida necha bora qad ko‘ tarib, necha bora vayronaga aylanadi. Tilkalab tashlasa hamki, o‘lmagan vujud– Buxoro qayta-qayta o‘zini tiklab, jahonni yana va yana hayratga soladi. (O.Muxtor,2010,11-bet) Bundan ko‘rinib

turibdiki, Buxoro zamonlar osha butun jahonni hayratga solgan islohotlar, inshootlar barpo etgan. Asarni o‘qib, qalbimizda Buxoroga nisbatan iliq muhabbat uyg‘onadi. Vatanparvarlik hissini tuyamiz. Asarda ming yil oldingi Buxoro manzarasi chizilgan. Tarix ko‘z oldimizda jonlangandek bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston.
2. Muxtor, O. (2010). Xotin podshoh Romanlar. Toshkent: Sharq

Nazarov, O‘ (2014). “Xotin podshoh” romanining badiiy-falsafiy konsepsiyasi. O‘zbek tili va adabiyoti,4,61-63.

LUQMON BO‘RIXONNING “SIRLI MUALLIM” QISSASIDA TA’LIM TIZIMIGA OID MULOHAZALAR

Sohiba Usmonova,
NamDU Adabiyotshunoslik yo‘nalishi
2-bosqich magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada xalq ta’lim tizimidagi ayrim muammo va kamchiliklar hamda ularning yechimi Luqmon Bo‘rixonning “Sirli muallim” qissasi asosida bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar*: ma’rifatparvarlik, falokat, muallimchilik, muammo, ish haqi.*

Abstract: *In this article, the solution to some problems and deficiencies in the public education system is described based on Luqman Borikhon's short story “Mysterious Teacher”.*

Keywords: *enlightenment, disaster, teaching, problem, salary.*

Ma’rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar oldin aytgan: “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” (A. Avloniy, 2008, 5-bet) degan iborasi ayni kunda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Darhaqiqat, dunyo bilan bo‘ylashishimiz uchun yoshlarimizning ta’lim-tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq ta’limi, ayniqsa, O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Aynan maktab ta’limining sifati va qulayligi davlatning rivojlanish istiqbollarini aks ettirib, yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zamin yaratadi.

Bugun amaldagi xalq ta’limi tizimimiz zamonaviy, rivojlangan davlatlardagi kabi globallashuv talablariga javob bera olayaptimi? Ta’lim tizimida yechimini kutayotgan qanday muammolar bor? Shu kabi savollarga javob topish maqsadida Luqmon Bo‘rixonning “Sirli muallim” asariga yuzlanmoqchiman. Ushbu asarda yuqoridagi masalalar atroflicha yoritilgan. Avvalo, asarning yozilish tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, muallif bilan bo‘lgan suhbatlarning birida u shunday degan edi: “Respublika ta’lim markazida yig‘ilish bo‘ldi va yig‘ilishga meni ham chaqirishdi. U yerda bugungi kundagi maktabdagi muammolarni gapirishdi. O‘qituvchilarning savodsizligi, mas’uliyatsizligi, bolalar dunyoqarashini tushuna olmasligi, ularning qalbiga yo‘l topa olmasligi, fanga bo‘lgan e’tiborsizligi va boshqa juda ko‘p masalalar ko‘tarildi. Shularni eshitib o‘tirib o‘zimning bolaligimga qaytdim. Qishloqdagi maktabimiz, ustozlarimiz yodimga tushdi. Hammasi har xil insonlar edi. Shularni o‘ylab-o‘ylab muallim haqida asar yozishga qaror qildim”. (L.Bo‘rixon, 2006, 5-bet).

Asar 2006-yilda yozilgan bo‘lishiga qaramay, undagi ayrim muammolar hozirgi kunda ham o‘z yechimini topgani yo‘q. Ko‘plariga esa chora-tadbirlar ko‘rildi va ko‘rib kelinmoqda. Hammamizga ma’lumki, tizimdagi eng katta muammolardan biri maktab o‘qituvchisi kasbining obro‘si unchalik yuqori emasligidir. Afsuski, maktab o‘qituvchisi sharafli kasb bo‘lishiga qaramay, talab yuqori bo‘lgan kasblardan biri emas. Birinchidan, bu o‘qituvchilarning ish haqi bilan bog‘liq. “Toifasiz oliy ma’lumotli o‘qituvchining oyligi bozor iqtisodiyotida oliy ta’lim muassasalarini tamomlaganlar uchun juda kam hisoblanadi. Shuning uchun, ba’zida boshqa yuqori maoshli ish topa olmagan bitiruvchilar o‘qituvchi bo‘lishga qaror qiladilar” (A.Rasulev., 2022. 3-bet).

Asarda ham aynan shu muammo maktab direktori Qalqanov muallim tilidan quyidagi tarzda bayon etilgan: “Bir paytlar jomadon ko‘tarib o‘qishga otlangan chog‘im uchuvchilikni orzu qilganman. (Orzu-istaklar qanotida xo‘b uchib-qo‘nib yurgan paytlarimiz ekan-da!) Yo‘q, taqdir taqozosiga ko‘ra rus tili mutaxassisi bo‘ldik. Ishladik. Mana, ishlayapmiz. O‘qituvchilikning etagidan tutganimiz uchun hech kim bizni yomonotlig‘ qilgan emas. Davralarning to‘rini berishmasa-da, har

nechuk poygakka tushirib tashlashmaydi. Hozirgi yoshlarga qarab hayron bo‘laman, muallimlikdan or qilishadimi-yey… Ayniqsa, o‘g‘il bolalar” (L.Bo‘rixon, 2006, 5-bet). Sir emaski, hozir ham kamdan-kam yigitlar muallimlik kasbini tanlaydilar yoki Qalqonov muallim kabi majbur bo‘ladilar. Qizlarimizga esa ularning ota-onalari va yaqinlari tomonidan “muallimlikning ayollarga juda mos kasb” ekanligi uqtiriladi. Asarda ham xuddi shu narsa maktab ilmiy mudirasi Norxol Xushboqovaning tilidan shunday bayon qilinadi: “Bir paytlar otam rahmatlik pedinstitut qoshiga yetaklab borib, “Qizim, muallimchilikka o‘qiy qol, ayollarbop ish, to‘rtta bolani aldab yuraverasan”, degan edi. Afsuski, to‘rtta bolani aldash bilan ish bitmas ekan” (L.Bo‘rixon, 2006, 8-bet). Haqiqatan ham hozir maktablarda erkak muallimlardan ko‘ra ayol muallimalar 2 barobar ko‘p. Albatta, ularning hammasi ham adashib bu kasbni tanlamagan, ularning orasida o‘z kasbining fidoyilari bisyor. Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, aksariyati bu kasbning “ayollarbop” ish ekanligi uchun tanlagani hammamizga sir emas. O‘z kasbiga muhabbat qo‘ymagan, fidoyi bo‘lmagan, bolalarni sevmagan, ularning dunyosiga kirib bora olmagan muallim hali hamon xalq ta’lim tizimi ildiziga bolta urib kelayotgan muammolardan biri bo‘lib kelmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, tizimdagi barchamizga ayon bo‘lgan muammolardan biri, maktab o‘qituvchisining ish haqi ozligidir. Bu esa o‘qituvchilarni yangi daromad manbalarini izlashga undaydi. “Ba’zida o‘qituvchilar qo‘shimcha ish qidirishlari kerak. Ayrim o‘qituvchilar dars soatlari sonini ko‘paytirishga harakat qilishadi, bu o‘qitish sifatini pasaytiradi”. (A.Rasulev., 2022. 3-bet). Aynan mana shu holatga asarda juda ko‘p joylarda urg‘u berilgan. Masalan, Najot G‘aybulla ilk bora ish so‘rab maktab ostonasiga qadam qo‘yganida, uning po‘rim ust-boshini, minib olgan mashinasini ko‘rgan maktab direktori Qalqonov uni maktabni tekshirgani kelgan komissiya a’zosi deb o‘ylaydi. Uning muallim ekanligini eshitgach esa, quloqlariga ishonmaydi. Keyinchalik ham undan shubhalanib yuradi. Chunki o‘qituvchining oyligi bunday mashina olish va bunaqanga po‘rim ust-bosh olib kiyish tugul, o‘z oilasining bir oylik ro‘zg‘or xarajatlarini arang qoplardi. Bu va bu kabi o‘rinlar asarda juda ko‘p

joylarda uchraydi. Masalan, algebra muallimi Xayrulla o‘z kasbini sevadi, ammo ish haqi ozligi tufayli Rossiyaga ketmoqchi bo‘ladi. Mana uning maktab direktori o‘rinbosariga aytgan nutqi: “Aka, to‘g‘risi, muallimchilik o‘zimga yoqadi, — dedi u o‘ylanib. — Rayono mudiri bilan gaplashib ko‘rsak-chi, balki, zarur kadr sifatida mening oyliklarimni oshirib berishar. Tinchgina shu yerda ishlayverardim” (L.Bo‘rixon, 2006, 31-bet). Yoki direktor o‘rinbosari Boymurodning darsdan so‘ng ustachilik qilishi ham bunga misoldir. Yana Boymurodning Norxolning qizi kasal bo‘lib qolganida uning uyiga kirib, ahvolni ko‘rib xayol surgan fikrlari ham bunga yorqin dalildir: “Tevaragimga sekin razm soldim. Xuddi mening uyimdek ship-shiydam, to‘zg‘igan xona, sochqin kitob-daftarlar beixtiyor o‘z dardu tashvishlarimni yana miyamga urdi. Ich-ichimda tag‘in yana alam-iztirob qo‘zg‘aldi. Ayni chog‘da ko‘nglimdagi alg‘ov-dalg‘ovlar Norxolning ham yurak-bag‘rini o‘rtab turganini chuqur his qildim” (L.Bo‘rixon, 2006, 34-bet).

Bilamizki, yaqin 6-7 yil avval ham tizimda darslik yetishmasligi muammosi bor edi. Asarda shu muammoga ham alohida to‘xtalib o‘tilgan. Mana, domla Xurramovichning tushuntirish xatidan olingan parcha: “Butun boshli sinf 3-4 darslikni galma-gal o‘qishadi. Ustiga-ustak posyolkada kechasi soat to‘qqizdan so‘ng uzib qo‘yiladi” (L.Bo‘rixon, 2006, 43-bet). Hozir deyarli bu muammo o‘z yechimini topgan. Lekin asar yozilgan 2006-yilda bu muammo har bir maktabda uchrardi. Umuman olganda asarda shu va shu kabi tizimdagi muammolar qahramonlar hayoti orqali juda yaxshi ochib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi asarida jamiyatimizda xalq ta’lim tizimida uchrab turadigan muammo va kamchiliklarni hamda uning yechimini ko‘rsatib bera olgan. Muallim, ustoz obrazlari vositasida esa, barcha muallim va muallimalarga oyna tutgan. Shu bilan birgalikda odamzotga ma’rifat hidoyatini ulashuvchi shaxslarni sharaflagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ. www.ziyouz.com kutubxonasi. 5-bet
2. A.Rasulev.(2022)Maktab ta’limi tizimi: muammolar va istiqbollar. – Toshkent,. 3-bet.
3. L.Bo‘rixon. (2006) Sirli muallim. O‘qituvchi, Toshkent

BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA BOLA OBRAZI

Xaytaxmatova Dilnavoz Alijon qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 1-kurs talabasi
dxaytaxmatova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan yozuvchi, vatanparvar, oltin qalam sohiblaridan biri Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasi haqida yozilgan. Maqolada adibning qissasini ochib berishga harakat qilingan. Shuningdek, maqolada Bahodir Qobul haqidagi zamondosh adiblarning fikrlari ham o‘rin olgan.*

Kalit so‘zlar: *enashamol, oriyat, o‘g‘rilik, samimiyat, talabalar, rasmchi.*

Abstract: *this article is written about the story “Enashamal” by Bahadur Kabul, a writer, patriot, one of the owners of the Golden Pen, who has a place in Uzbek literature. The article tried to reveal the story of the writer. The article also contains the opinions of contemporary writers about Bahadur Qabul*

Keywords: *enashamal, ariety, theft, sincerity, students, official.*

O‘zbek adabiyotida o‘zining so‘ziga ega bo‘lgan ijodkorlar talaygina. Istiqlol bizga har tarafdan taraqqiyot zinalaridan o‘tish uchun zamin yaratdi, xususan, adabiyot sohasida. Shu 30 yildan ziyodroq vaqt ichida yaxshigina asarlar yozildi. Ular orasida Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasini ham aytish joiz.

Tig‘ bilan o‘ynashsalar ham til bilan o‘ynashmaydilar. Buning isbotini “Enashamol” qissasida keltirilgan quyidagi parchada ko‘rish mumkin : “Endi eshit. Sen aytayotgan shevani ko‘chada ko‘ringanni to‘xtatib, yozib olding ham deylik. Bu gaplarni kim ishlatadi deb yozasan? Dadarvaqi ishlatadi, deysanmi? Falon qishloq ishlatadi, deysanmi? Qishloqning xudo bergan tili nechovlini bilasanmi? Gapirgan odamlarning ota-onasi, tayin-tuturug‘i yo‘qmi? Falon gapni falon urug‘ bunday ishlatadi, bunisi bunday, deb yozsang haqing ketadimi? Bilsang, bola, san qidirib yurgan gap-so‘zlar o‘sha elning eng qimmat narsasi – yuragi, imoni. El bugun bu yerda, erta boshqa joyda bo‘lishi mumkin. Qrim-tatarlarning ko‘rguligini ko‘rmayapsanmi?! Elning bori-yo‘g‘i, ori-yu ortidagi soyasiyam tili. Shuni tushunmasang, bu ishingni qo‘y. Til bilan o‘ynashma. Tek yur. Lafz bilan

o‘ynashganning holi og‘ir bo‘ladi. Bo‘yningga olibsanmi, jon botin qil. Yozsang to‘g‘ri yoz. Bo‘lmasa ozning ko‘piga o‘xshab hovlingga rayhoningni ekib, hidini hidlab, qo‘shnining doridagi lozimning pirpirashiga mast bo‘lib yurganing ma’qul” (B. Qobul, 2013, 21-bet).

Asar bola tilidan hikoya qilinadi. Bosh qahramonning qalbi sofligi, beg‘uborligi uning so‘zlaridan, harakatlaridan yaqqol seziladi. Qorday oppoq orzulari gultojiga aylangan Samarqandga borish, u yerda o‘qish uning maqsadiga aylanadi. Qissada juhud, Mardon dalli, rasmchi singari obrazlar uchraydi. Yuqorida sanalgan obrazlar asar syujetining yaxlit kompozitsiyasini tuzishga zamin yaratgan. Bola pok obraz. U har qanday gunohlarini o‘zicha tan ola bilgan mard personaj. Hatto boshidayoq 3 marta o‘g‘irlik qilganini kitobxonga “sotib qo‘ygani” ham asarda o‘zgacha xarakterni ochib bergan. Bola rassom. Uning ajib bir dunyosi bor. Bola quv. Boshkentdan Jizzaxga mehmon bo‘lib kelgan tadqiqotchi, bir biridan go‘zal talaba qizchalarga o‘zgacha boqqan. Bola qaysar. Opasi bilan Samarqandga borganda yo‘l pulini bermay, shaharni boshiga ko‘targuday bo‘lib “O‘g‘ri emasman”, — deya bo‘zlagani, biroq aybini tan ola bilib, haydovchiga qaytarib bergani va bir onaxon bilan bog‘liq voqeliklar uchraydi. Asar boshida u uch marta o‘g‘rilik qilganligini tan olib aytadi. Har bir jumlasidan samimiyat anqib turgan enasi esa ularning eng katta xazinasi edi.

Asardagi Mardon obrazi qalbi uyg‘oq, yangi fikrli, ilm kishisi timsoli. U har ishda adolat istaydi. “Bobbi” nomli hind fiilmida bosh rolni ijro etgan aktrisaga oshiq bo‘lgan, Raj Kapurning kuylari unga zavq bergan, uning musiqalaridan o‘zgacha hislarni tuygan edi. Bolaning enasi uni “Dalli” deb atardi. Asarda ena bilan Mardonning qandaydir oldi-berdisi borligi, Mardon enadan boshqaning aytganini qilmasligi ham bayon etilgan. Mardon ko‘p narsa bilardi. Leninning asli qaysi millatdan kelib chiqqanidan tortib, Qodiriyning qanday qamalganigacha ko‘p asrorlardan boxabar edi. Bunday sir-asrorlardan voqifligi uning boshiga yetishiga oz qolgandi, “tentak” degan nom “qutqarib qoldi”.

Qissaning “Enashamol” deya nomlanishining sababi asar so‘nggida aniq bo‘ladi, ya’ni: “Qo‘rg‘ontepa meni yelkalagan bo‘ladi. Otasi yelkasida ko‘targan

erkadan erka boladay qo‘llarimni ikki yonga qanotlardek yozaman. Enamni enasiga enasi, Enamga enasi, menga enam o‘rgatgan qo‘shiqni aytgim keladi. Aytgim kelganini shamol biladi. Mendan oldin Enamday qilib aytadi. Men yig‘lavoray-yig‘lavoray deyman Ichimda, ovoz chiqarmay unga qo‘shilaman. Enashamol qo‘shiqni Kattatog‘ning u boshidan-bu boshiga eshittirib, bir zumda olib borib, olib keladi. Barmoqlarim orasidan erkalanib-erkalanib o‘tadi. Sap-sariq sochlarimni avval to‘zitib o‘ynaydi, keyin chakkamdan tushib turganlarini quloqlarim ustidan oshirib qo‘yadi. Betimga betini bosadi. Peshonamni silaydi. Nam hidi urgan burnini ko‘zimga tekkizib iskalagan bo‘ladi. Ko‘ziga qarashga hali holim yetmasligini biladi. Qo‘llarimni teng siltab qoqib qo‘yib, qaddimni tik, dimog‘imni chog‘ qiladi. G‘o‘ddayishimni istaydi. Ko‘zimni yumib, iyagimni ko‘taraman, og‘zimni ochaman…“ (B. Qobul, 2013, 43-bet).

Asar tilining soddaligi, ravon ifodasi va bolalarcha samimiylik ruhi yo‘g‘rilganligi ila boshqa asarlardan farqli o‘laroq, g‘azalday tiniq o‘qiladi. Ko‘plab mahalliy va xalqaro tanlovlar g‘olibi Bahodir Qobul ijodining, shubhasiz, go‘zal namunasi sifatida „Enashamol“ qissasi manaman degan yozuvchilarning asarlari bilan bellasha oladigan asar deya olaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bahodir Qobul. (2020).Ichimdagi jo‘ra. So‘zoynak Toshkent
2. Bahodir Qobul. Otahayot. https://kh-davron.uz

ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDAGI BOLA RUHIYATI

Gulshanoy Yo‘ldoshaliyeva Dilmurod qizi,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
gulshanoyyoldosheva@gmail.com
Ilmiy rahbar: Umida Rasulova

Annotatsiya. *Maqolada Abdulla Qahhorning qissasi, xususan, “O‘tmishdan ertaklar” qissasidagi bola ruhiyati va dunyoqarashi borasida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar*: qissa, janr, bola, tavsif, ifoda, ruhiyat.*

Abstract. *In this article, the story of Abdulla Qahhor, in particular, the story "Tales from the Past" is discussed about the child's mentality and worldview.*

Keywords*: story, genre, child, description, expression, spirit.*

Abdulla Qahhorning xarakterini o‘rganish uchun “O‘tmishdan ertaklar”ga quloq tutsak, shunisi eng maqbuli*:“ Mening bolalik yillarim Farg‘ona vodiysining Yaypan, Nursuq, Qudash, Buvayda, Tolliq, Olqor, Yulg‘unzur, Oqqo‘rg‘on, degan qishloqlarida o‘tgan. O‘ttizinchi yillar o‘rtalarida bolaligimni o‘ylaganimda chalakam chatti tush ko‘rganday bo‘lar edim. Dumli yulduz chiqqan edi; qo‘shnimiz juda sershovqin odam edi; Otqoravul Babar degan yigitni miltiq bilan otganda yigit o‘lmagan edi, shunda otqoravul odamlarga yuzlanib: “umrim bino bo‘lib, bunaqa battol o‘rini ko‘rgan emasman, ustidan oshirib o‘q uzsam kiprik qoqmaydi-ya! Degan edi*”.

Bo‘lajak adib Abdulla Qahhor hayoti va uning dunyoqarashi, ruhiyatida bu ko‘cha-ko‘chlar, haqoratlar, azob-uqubatli kunlar o‘z izini qoldirmasdan iloji yo‘q edi. Ikkinchi tomondan esa bo‘lajak adib qora xalqning ich-ichida yurib, haqiqiy ahvolni, avom xalq hayotini yaqindan o‘rgandi, kuzatdi.

Oilaviy musofirchilik tufayli yosh Abdulla bolaligidan “ichimdagini top”, “odamovi”, “uyatchan” bo‘lib o‘sdi. “O‘tmishdan ertaklar” qissasining ikkinchi hikoyasi “Indamas” deb ataladi. Unda yozuvchi Yaypan qishlog‘ining “Qo‘shariq” mahallasida kechirgan voqealarni yodga oladi. Ajdodlarimizdan qolgan xalq o‘yini “oq terakmi, ko‘k terak” bilmaydi, ko‘chib yuraverib bolalarga qo‘shilolmagani uchun yangidek tuyuladi. Bu katta fojia edi o‘zbekning milliy merosi bu uning folklori, Abdulla esa, xalq o‘yinidan behabar. Abdulla ko‘chada bolalar bilan “Oq terak, ko‘k terak” o‘yinini o‘ynashgani, uni ham “kerak” deb tanlashlarini, yugurib borib, safni buzishni orzu qilib, yuragi hapriqganini yozadi. Ammo bolalar uni “Kelgindi” deb haqorat qilishadi. Bu so‘z yosh Abdullaning jon-jonidan o‘tib ketadi. Mana, yozuvchi nima deb yozgan bu haqda: “Kelgindi, kelgindi it”, degan gapni Olim buvodan eshitganimda buning haqoratdan tashqari yana odam hazar qiladigan ma’nosi ham borligini bilmagan edim. Cholning bu gapi boshimdan kirib, tovonimdan chiqib ketdi”. Abdulla Qahhorning bolaligida unga va uning oila a’zolariga nisbatan bildirilgan mana shunday sovuq munosabatlar bo‘lg‘uvsi adibning kamgap, vazmin, indamas bo‘lib qolishiga sababchi emasmikan, deb o‘ylaymiz. Zero, yozuvchi qissada yana shunday yozadi:

“Hovliga kirdim. Bu gapni ayamga aytmadim. Ichimga soldim. Shundan keyin ko‘chadan, bolalardan ham, odamlardan ham ko‘nglim qoldi; ayam tuqqandan keyin dardga chalinib, “uy qizi” bo‘lib qolganim ham chandon malol kelmadi”.

Abdulla Qahhorning zamondoshlari ham uning uyatchan, vazmin, kamgap insonligini ta’kidlashadi. Masalan, K.Simonov yozadi: “Qahhor uyatchan edi. U hech qachon suhbatdoshiga o‘zining zakiyligini ko‘rsatishga oshiqmas, buni asosan, adabiyot uchun, oq qog‘oz ila yolg‘iz qoladigan pallasi uchun asrar edi. Qahhor o‘zining qadrini bilardi, ayni choqda, uyatchan, vazmin va kamtarligicha qolardi”.

Abdulla Qahhorning bolalik yillari eng qiyin zamonlarga 1917-yil voqealari, Birinchi jahon urushi, mardikor olish voqealari, ocharchilik, ishsizlik, xullas, jamiyatda u tuzumdan bu tuzumga o‘tish davriga to‘g‘ri keldi. Nafaqat Abduqahhor akaning oilasi, umuman, Turkiston aholisi jaholat va razolatga botib yotgan, og‘ir mushkul sharoitlarda kun ko‘rayotgan paytlar. Mana shunday ijtimoiy-siyosiy, maishiy hayotning ich-ichida yashab ko‘rgan bir bola Abdulla yozuvchi bo‘lib tanilganida asarlarida o‘z xalqining qiynalgan, jabrlangan, xo‘rlangan, toptalgan nomus-ori, haq-huquqsizligi haqida yozmasligi kerak edimi? Abdulla Qahhor bu ko‘rgan-kechirganlari haqida albatta yozishi, xalqining o‘tmish tarixini tiriltirib, kelajak avlodga qoldirishi kerak edi. Yozuvchi shunday qildi ham. Ammo afsuski, uning bu uslubini ba’zi kitobxonlar, hatto tuppa-tuzuk olimlar noto‘g‘ri talqin qilishga urunishgan.

Abdulla Qahhor peyzajga keng o‘rin bermaydi. Qisqa-qisqa peyzaj tasvirlari ham dahshatli voqea, chuqur insoniy dard, fojiaviy bir situatsiyaga ishora etadi. Masalan: “Yaqin ikki haftadan beri ko‘z ochirmayotan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g‘uvillaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi”. Bu parcha “Dahshat” hikoyasining ekspozitsiyasi. Hikoya mana shunday “chiyilab”, “g‘uvillab”, “vishillab” esayotgan kuzak shamoli tasviri bilan boshlanar ekan, hikoyada bayon etilmoqchi bo‘layotgan dahshatli bir voqeaga, qismatga ishora etadi. Ya’ni, o‘n gulidan bir guli ochilmay xazon bo‘lgan Unsin qismatiga ramziy ishora beradi. Yana bir misol.

Bu “O‘tmishdan ertaklar”dan, albatta: “Qo‘qonning bo‘ri bo‘lib uliydigan va mushuk bo‘lib vag‘illaydigan kuz shamoli boshlanib ketdi”. Mazkur parcha qissaning “Xudo” deb nomlangan qismidan olindi. Adib Qo‘qon shamoliga ayricha ta’rif beradi. Nazarimizda, bunday badiiy ifoda boshqa ijodkor asarida uchramaydi.

Abdulla Qahhorning bag‘ri butun emas. Dahshatli darajada og‘ir sharoitda, kambag‘allikda kun kechirgan. Ota-onasining yakka-yu yagona farzandi bo‘lishiga qaramasdan, usti yaltirab kiyim kiymagani “O‘tmishdan ertaklar”da yozilgan. Abdulla Qahhorning mehribon bobo-buvisi ham, muqim uy-joyi ham yo‘q. “O‘tmishdan ertaklar”da buvisi tasvirlanadi, lekin biz o‘zbek momolariga xos mehr, issiq bag‘ir, bolajonlikni ko‘rmaymiz.

Qahhor qissasida har qadamda fojia, har qadamda iztirob, har qadamda kambag‘allik, qashshoqlik, johil hayot qurbonlari hayotiy lavhalarda ochiladi. Umarali Normatov shunday yozadi: “O‘tmishdan ertaklar” – muallifning bolalikda ko‘rgan-kechirganlari haqidagi avtobiografik asar. Biroq o‘zbek adabiyotidagi mavjud avtobiografik asarlardan, jumladan, zamondoshi Oybekning “Bolalik” qissasidan keskin farq qiladi. “Bolalik”da lirik talqin, hodisalarni poetik idrok etish ustun. Bola obrazi Oybek qissasida birinchi planda ko‘rinsa, uning ko‘rgan-kechirganlari, sarguzashtlari, shu kechinmalar tufayli murg‘ak qalbda tug‘ilgan rang-barang tuyg‘ular ifodasi asar asosini tashkil etsa, “O‘tmishdan ertaklar”da bola Abdulla obrazi guvohligi orqali oilada, oila tevaragida yuz bergan voqealarni – turmushning obyektiv lavhalarini chizishga qaratilgan”. Yozuvchi o‘tmish voqeligini jonlantirishda bola nigohi, bolalik motividan unumli foydalandi. Abdulla Qahhor bolaligida ko‘rgan-kechirganlari asosida nodir asarlar yaratdi. Jumladan, “Boshsiz odam”, “Tomoshabog‘”, “Anor”, “O‘g‘ri”, “Bemor”, “Dahshat”, “Qabrdan tovush” kabi original hikoyalar yozdi. Ularning real, tarixiy zaminini, obrazlarning prototiplari “O‘tmishdan ertaklar” qissasida qalamga olinganini anglash mumkin. Demak, fojiaviy hayotiy lavhalar tasvirining asosi aslida yozuvchi yashagan, bolaligi kechgan makon va zamon, ijtimoiy-maishiy turmush bilan chambarchas bog‘liq. To‘g‘ri, yozuvchi badiiy shartlilik talabiga muvofiq biroz oshirib yuborgan yoki biroz kamaytirib tasvirlagan bo‘lishi

mumkin. Nima bo‘lganda ham, yozuvchi badiiylik mezonlaridan kelib chiqib, shaxsan o‘zi ko‘rgan-kuzatgan voqealar va kishilar taqdiri, muammolarini professional yozuvchilik qalami bilan tarixga muhrladi. Qissani ikki qismga bo‘lib o‘rganiladi: “Teshiktosh”gacha bo‘lgan davr va “Teshiktosh”|dan keying davr. “Teshiktosh” bobigacha bo‘lgan davr. Tugun- zamonning notinchligi, insonlar o‘z qadrini bilmasligi, bolalar katta avlod bilan tepa-teng ishlab, yashab borayotgani, jamiyatning kun sayin tubanlashib, jar yoqasiga kelayotgani tasvirlangan bo‘lsa, teshiktosh bobi kulminatsiyon nuqta undan keying mavzular yechimlar birin-ketin hikoyalar bilan kela boshlaydi. Bu kulminatsiyadan keyingi yechim tomon burilish edi. “Teshiktosh”dan keyin “Oqposhshoning arzandasi”, “Dukchi eshon ko‘lankasi”, “Arafa, ko‘zalar’, “Muhammadjon qori”, “Bir boshga bir o ‘lim”, “Qo‘qon harobalar orasida “hikoyalari o‘rin olgan.

Qissada zamonning notinchligi, jamiyatning tubanlashuvi, adolatsizlikning uchiga chiqqan nayranglari, xalqning soddaligi, soddaligidan foydalanilgan mug‘ombir “domlalar”, kattalardek fikrlashga, kattalardek yashashga majbur norasida bolalar aks etgan. Abdulla Qahhor o‘zining aftobiografik qissasini yozar ekan, o‘zining indamas bo‘lib qolishi, bolalarga ha deganda qo‘shilolmasligini, boshidan ne o‘tsa har birini hikoya qilar ekan, bunday notinchlikka, adolatsizlikka, ko‘rguliklarni boshidan o‘tkizgan bitta Abdulla emas, butun xalq bolalari edi.

Shu voqeadan kelib chiqib, Abdullani urgan bolada ham, Hudo kelgindi qilgan degan cholda ham ayb yo ‘q. Ayb muhitda, sho‘roda tashqaridan qishloqqa kelib ko‘p ziyon zahmatlar kelgani uchun begona odam qishloq ahli uchun yoqmaydi shu sabab bo‘lib, Abdullaning oilasi ko‘p yomon kunlarni boshidan kechiradi. O‘zi hamma zamonda ham taraqqiyparvarlar, yangilikka intiluvchilarning boshida kaltak singan Qahhor ham boshida kaltak singanlarning biri edi. Ohiri Qahhor ham daryoga qarshi suzishdan toliqdi. Yozuvchi qissada yana kitobxonni qoyil qoldiradigan, hayratga soladigan bir harakterini oshkor qiladi: “hovliga kirdim. Bu gapninayamga aytmadim. Ichimga soldim. Shundan keyin bolalardan ham, odamlardan ham ko‘nglim qoldi”. Yoshgina bola onasini siqilmasligini, qayg‘urmasligini o‘ylab ko‘chadagi gapni uyga olib kirmaydi.

Onasini avaylaydi. Yozuvchining qissasida bola psihologiyasiga alohida katta mavzu qilib ko‘tarib chiqsa bo‘ladi. Sababi hozirgi bola bilan farqi yer bilan osmoncha. Hozirgi zamonda Abdulla tenggi bolalar ham kelajagini o‘ylaydi, o‘tgan kunini muhokama qilib, ertangi kuniga reja tuzadi, hammadan haqqini talab qiladi, Abdullani otasi yashagan “davr”da bolalar qorni to‘ysa bo‘ldi o‘tmishdan ertaklar qissasida Abdulla ukasini qo‘rqitish uchun shinnidan foydalanar edi. Injiqlik qilishi bilan shinnini ko‘rsatsa jim bo‘lib qolardi. Yegani boshqa hechnima yo‘qligidan shinnida medasiga tekkan , biror ish qilib iloji boricha oilasiga yegulik olib kelish eng katta maqsadi bo‘lgan. Kulalaning akasi nega Kulalani Abduqahhorga shogird qilib berdi, hanna qorni to‘yadi, o‘zini eplab bir hunar o‘rganadi deb berdi. Bu eng achinarlisidir. Ikki avlodning ikki xil hayot tarzini solishtirib bugungi kundagi bolalar harakteri, psihologiyasi kelajakka ishonch bilan qarash, qo‘rqmaslik , mardlik bor. Savol tug‘iladi nima sabab bo‘ldi Abdulla yashagan davrda bolalarning hayoti bunday mashaqqatli bo‘lishiga? Sho‘ro davridagi bolalarning mashaqqatli hayotda yashashiga katta avlodning savodsizligi sabab bo‘ldi. Kattta avlodning savodsiz bo‘lishi Sho‘roning ayyorona hiylalari oqibatida bo ‘ldi. O‘sha zamonni orqaga tortuvchi barcha: jaholat, mutelik, qaloqlik kabi illatlar mavjud edi. Bularga savodsiz katta avlod kurasholmadi. Ularning yo‘lidan ketayotgan kichik avlod ichida Abdulla bor edi, hammasiga guvoh edi.

Demak, xulosa qilib aytadigan, Abdulla Qahhor tabiatiga hos uyatchanglik, kamgaplik, vazminlikning asosi BOLALIKda kechirilgan mushkul shart-sharoitlar bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor (1988) “O‘tmishdan ertaklar” G‘ofur G ‘ulom nomifagi adabiyot va san’at nashiryoti. Toshkent
2. https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&url=http://quronov.narod.ru/smaqk6.html&ved=2ahUKEwitrffMjLf7AhV1g_0HHZF3Ds4QFnoECA4QAQ&usg=AOvVaw2iWJF_6fQkjH3b6iw-4LcB
3 Sadullo Quronov “O‘tmishdan ertaklar” qissasining yuragi

V BOB

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI MASALALARI

USMON AZIM SHE'RIYATIGA BIR NAZAR

Boynazarova Gulbahor
ToshDO'TAU Folklorshunoslik va dialektologiya
mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Gulbahorboynazarova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Usmon Azim she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari, mavzu va ma'no ko'lami haqida fikr yuritilgan. Har bir fikrlar she'rlar bilan izohlangan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqolaning dolzarbligi Usmon Azim she'riyatidagi o'ziga xos xususiyatlarni ochib berish va tahlil qilish. Maqolada ijodkorning ruhiyati va she'riyatga oid tahlillar mavjud.*

Kalit so'zlar: *She'riyat, mavzu, ma'no, ruhiyat, folklor, tahlil.*

Abstract. *The article discusses the specific features of Usman Azim's poetry, the theme and scope of meaning. Each idea is explained with poems. The descriptive method is used in the article. The relevance of the article is to reveal and analyze the unique features of Usman Azim's poetry. The article contains analyzes of the artist's psyche and poetry.*

Keywords: *Poetry, theme, meaning, spirituality, folklore, analysis.*

O'zbek xalqining ma'naviy dunyosini shakllantirishda g'oyat kuchli va samarali ta'sir ko'rsatayotgan ijodkor – Usmon Azimdir. Surxon vohasining mard o'g'loni, Boysun elining Usmon Azimi o'zbek she'riyatining ufqini kengaytirib, nasriy she'rlardan barmoq vaznigacha bo'lgan turli vaznlarda ijod qiladigan shoirdir. Usmon Azim nafaqat shoir, mohir tarjimon, dramaturg va kinossenarist hamdir. Xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyatining mukammallik kasb etishida o'z davrini tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning g'ururi, shon-u sharafini tarannum etayotgan o'lmas so'z san'atkoridir.U olam va odam, borliq haqidagi o'tkir falsafiy qarashlari bilan odamning tuyg'ulariga ta'sir etish, tarbiyalash bilan birga odamni Hazrati Inson darajasiga ko'tarilishiga o'z hissasini qo'sha olgan mohir ijodkordir.

Sening osmoningga yetmadi bo'yim,
Yerdan past ko'klarni ayladim tavof.
Faqat Tangrim, kechir bandalaringdan.
Mangu savollarga izladim javob

Inson qalbining quvonch-u qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini, Usmon Azimdek teran ifoda etgan shoir adabiyot bo'stonida kamdan-kam topiladi. Badiiy

adabiyotga, she'riyatga muhabbat, uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg'usi ham bizning ongu shuurimiz, yuragimizga Usmon Azim she'riyati orqali kirib keladi desak, xato bo'lmaydi.

Usmon Azim ijodi she'riyat olamida o'ziga xosligi va fikrlar ko'lamining zalvorliligi bilan, u hayot tomirlaridagi ichki harakatni, davr yuragidagi murakkab harakatni chuqur his eta oladigan, o'zigina his qilib qolmasdan o'quvchiga ham bu tuyg'uni yuqtira oladigan shoir hisoblanadi.

Yengib bo'lmayapti sog'inchni
Madad olay desam,
Pirlar ham yo'qolgan.
Har lahzam – dard,
Har nafasim - dard,
Har qafasim - dard,
Har barbodim – dard,
Har ozodim - dard Shuningdek, u yaratgan adabiy meros o'zining ko'pqirraliligi, ya'ni turli masalalardan bahs yuritganligi va kishi ruhiyatining eng murakkab qirralarini ham ochib bera olganligi bilan o'zbek she'riyatida alohida o'rin tutadi. Usmon Azim she'riyatida qo'llangan har bir so'z, tushuncha va badiiy timsollar maxsus o'rganishga arzigulik alohida bir olam deb qaraladi. Usmon Azim rost tuyg'ular kuychisi, to'g'ri so'z shoir sifatida tanildi. Usmon Azim shiddatli tuyg'ulari va aniq tasvirlari bilan o'zbek she'riyatiga yangicha ruh olib kirdi. Shoir shaxsi – vujud, she'ri – ruh bo'lib ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Shoir shunday degan edi:

Qalbingizga daryo bo'lib kiraman bir kun,
She'r yurtidan sado bo'lib kiraman bir kun.

Ijodkor 1970-yillar adabiyotimizga o'zining dadil qadamlari bilan, yoniq qalbi bilan kirib kelgan bo'lsa, u o'zi aytganday qalblarda daryo misol to'lib-toshib oqadi. Shoir ijodida zamon, hayot, haqiqat, adolat, qalb tug'yon urib turadi. Erk va o'zlik uchun kurash – shoir she'rlarining mag'zini tashkil etadi. Usmon Azim tabiatni rassomlarday o'ziga xos tarzda ko'ra oladi. U xuddi rassom kabi ko'rganini o'zi his qilganiday tasvirlashga qodir ijodkor. Shoir shunday sehrli va nazokatli she'r yozishi lozim. She'r faqat qofiya, radif, vazn va san'atlar tizimidan iborat bo'lmaydi. U oddiy so'z bo'lsa-yu, ammo o'quvchini maftun etsa, xayolot dunyosiga chorlasa va bu sayohat orzu – yu, armonlarga chulg'anib kishini

koinotga olib chiqsa – bu haqiqiy shoir bo‘ladi. Usmon Azim she’rlarining ko‘pchiligi shu tarzda yaratilgan va undagi shoirona did, nazariy g‘oya va teran mulohazalar hissiyot tufayli kuchli joziba va quvvat kasb etgan.

Bizni baxt yaratgan.
Qishloqdagi onamizga o‘xshash baxt. (Usmon Azim, 1995,Saylanma)

Usmon Azim uchun shoirlik kasb emas, shoirlik insoniyat oldidagi oliy burchidir. Shoir ijodiga nazar solsak, uning she’rlarida vatanparvarlik, yor ishqi, Allohga bo‘lgan muhabbat va folklor an’analarini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari shoir ijodiga xos bir uslub bor: oddiy misralarga ulkan ma’noviy zalvor yuklangan.

Tong otadi *Kun botadi*
Sen yo‘q *Sen yo‘q*

Misralarida shoir tong va tunlarini qanday azob bilan o‘tayotganini yozadi. Usmon Azimni “Baxshiyona” turkumida folklor an’analaridan foydalanib, bugungi kun uchun zavqli bir asar yarata oldi. U yaratgan misralar qo‘shiq bo‘lib, insonlar qalbidan joy oldi. Yoki “Boysun haqida ballada” she’rida ham ertak qolipidan foydalanib,

“Bor ekanda,Yo‘q ekan, *Ko‘rdim,*
Och ekanda, *Kezdim, Boysunday joy*
To‘q ekan, *Bu olamda yo‘q ekan*

. Boysunning ta’rifini beradi.Turkumda Alpomish obrazi kiritiladi. Nima uchun aynan Alpomish? Bu obraz orqali ijodkor nimani maqsad qilgan? “Men Boysunlikman. (Asli “Boysin”; “Boysun” forscha talaffuzidir. Biz negadir “Temur”, “Bobur”, “Boysun” degan so‘zlarning forscha shaklini tanlaganmiz va bundan o‘zbekning tili ravon aylanmay zahmat chekadi…) Buning ustiga, Qo‘ng‘irot urug‘idanman. Jang-u jadalda ko‘rgazgan jasoratlari va mardliklari uchun Amir Temur Termiz atrofini Qo‘ng‘irot urug‘iga tortiq qilgan. Bu joylarda o‘rnashgan qo‘ng‘irotlar o‘zlariga qarashli manzilning eng chiroyli maskanini “Boysin” deb atashgan . Boysin- qo‘ng‘irotlarning afsonaviy,, dostonlarda (jumladan, “Alpomish”da ham) kuylanib kelingan, kindik qoni to‘kilgan Vatani. Bu so‘z “boy” va “sin” qismlaridan iboratkim, “go‘zal sinu sumbat”-

“chiroyli, manzarali joy” deganidir. Men esimni bilganimdan buyon Alpomish haqida afsonalar eshitib yashadim. Baxshilarning jo‘shib aytganini tinglab, yuragim qaynar darajasiga borganlarim yodimda. Bizni maqtab, “Alpomishday yigit bo‘ladi” deyishsa, boshimiz osmonga yetgan. 50-yillarda “Alpomish” dostoni quvg‘indan chiqib (tavba sho‘ro dostonni ham qafasga slogan-a!) nashr qilingach, bir nusxasi, albatta, bizning uyga ham yetib bordi. Men shu kitobni o‘qib savodim chiqdi. Juda ko‘p joylarini yoddan bilar edim… Bobomga, qarindoshlarimga qiroat bilan “Alpomish”ni o‘qib berish bolaligimdan qolgan eng yaxshi xotiralardan”… Usmon Azim shunday xotirlaydi. Bu boshdan –oyoq ibratdan iborat doston Ezgulik va Yovuzlikning hayot-mamot kurashidan iborat. Mardlik va xiyonat, el-u yurti uchun fifokorlik va nonko‘rlik, do‘stlik va g‘animlik, saxovat va baxillik yonma-yon, har lahzada bir-birini rad etib yashaydi. Oq-u qora chinakam bir adolatli tiniqlik bilan ajratiladi. Eshitganni yohud o‘qiganni chalg‘itmaydi. Umuman, Alpomish“ ulug‘ bir hikmatdir. Shoirlarning ilhomi biln to‘lg‘ongan mana shu hikmat qarshisida doim lol qolmay bo‘lmaydi. Har bir o‘zbekda “Alpomish” – mardlik, jasorat, fidokorlik bor. Yana bir qadrli joyi dostonning poetik yuksakligidadir. Mana bu satrni o‘qing:

“Davlat qushi qo‘nsa bir chivinning boshiga,
Semurg‘ qushlar ta’zim qilar qoshida”.

Qanday og‘izni to‘ldirib aytilgan o‘zbekona donolik! Ijodkorga xos bo‘lgan yana bir xususiyat borki, u o‘zining ruhiyatini Alpomish bilan uyg‘unlikda his qiladi.

Ko‘nglim - elsiz qolgan
Bandi Alpomish
Ishim yonish, yonish
Kul bo‘lish, yonish

Xulosa qilish mumkinki, Usmon Azim ijodidagi she’rlarda ham ma’no, ham mavzu keng qamrovli. Inson ruhiyatining eng inja jihatlarini tasvirlay olgan, folklorning eng yorqin namunalaridan unumli foydalangan.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Usmon Azim. (1995) Saylanma. Sharq” nashriyoti.

ABDURAUF FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASIDA XX ASR TURKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY MUAMMOLAR IFODASI

Mustafayeva Shahlo Ilyos qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs
Mustafayevashahlo75@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning Hindistonni Turkistonda turib tasvirlagan “Chin sevish” dramasi tahlil qilingan. Tahlil davomida asardagi badiiy makon va badiiy zamonning real makon va zamonga munosabati, mustamlakachilik siyosati, haqiqiy ishq, hamda XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistondagi madaniy hayotning mahorat bilan dramada aks etishi tadqiq qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Badiiy makon, badiiy zamon, chorizm, bolshevizm, avom ishqi, xavosslar ishqi, siddiqlar ishqi.*

Abstract. *This article analyzes the drama of Abdurauf Fitrat "Pure Love", which depicts India in Turkestan. In the course of the analysis in the drama, the relationship of artistic space and artistic time in a work to real space and time, colonial policy, pure love, cultural life of the late 19th century and early 20th century are studied.*

Keywords: *Artistic space, artistic time, tsarism, bolshevism, love of the masses, love of the special, love of the nobles.*

O‘tgan asrning 20-30-yillarida yaratilgan adabiyot namunalari mustamlakachilik siyosati, erksizlik, taqiqlar, haqsizlik kabi qiyin bir davrda yaratilishiga qaramasdan, o‘zida xalqimizning milliy ozodlik haqidagi orzularini, jamiyatdagi dolzarb muammolarini mujassamlashtirgan. Ijodkor mahorati tufayli bunday yetuk asarlar hali-hanuzgacha o‘z qiymatini yo‘qotmay, qo‘llardan tushmay keladi. Mana shunday yetuk ijodkorlardan biri Abdurahmon Abdurauf o‘g‘li Fitrat (1886-1938) bo‘lib, uning hayoti va ijodi tarix chorrahasining eng murakkab va o‘ta qaltis davrida kechgan. Millatparvar Fitrat ijodida ma’rifatparvarlik, islohotchilik g‘oyalari, haqsizlik, zo‘ravonlik, bosqinchilikka qarshi fikrlar alohida ajralib turadi. Tadqiqot obyekti qilib tanlangan “Chin sevish”

dramasi ham erksizlikka, bosqinchilikka, zulmga qarshi isyon bo‘lib, asarda hind xalqining ingliz mustamlakachilariga qarshi ozodlik yo‘lidagi kurashi bosh g‘oyadir. Dramada Nuriddinxon, Karimbaxshxon, Zulayho, Sarvarxon obrazlari Hindistonni bosqinchi yovlardan ozod ko‘rishni istagan va bu yo‘lda kurashgan chin vatanparvarlar sanaladi. Abdurauf Fitrat “Chin sevish” dramasini 1920-yildayoq yozib Turkistonning turli o‘lkalarida sahnalashtirgan (Ғаниев, 2005, 122-bet). Maqolada dramadagi uchta asosiy masala ko‘rib chiqiladi:

1. Badiiy makon va zamonning real makon va zamonga munosabati, hamda mustamlakachilik siyosati;
2. Asarda yoritilgan haqiqiy ishq masalasi;
3. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi madaniy hayotga muallif munosabati.

Dramadagi badiiy zamon va badiiy makon Angliya mustamlakasi bo‘lmish Hindiston xalqining haqsizlikka qorishiq, zulmkorona bir davrini tasvirlaydi, ammo asarda nafaqat Hind diyori, balki butun dunyo mustamlakalarining oh-u zori, turmushi, erk uchun kurashi tasvirlangan. Ayniqsa, yozuvchi tasvirlagan badiiy makon va zamon Rossiya mustamlakasi bo‘lgan Turkistondagi siyosiy vaziyatlarga ham juda o‘xshaydi. Dramada Hindiston orqali ham Hindistondagi, ham Turkistondagi va hatto butun dunyodagi mustamlakachilik siyosati ostida ezilgan xalqning ahvoli, turmush tarzi yoritilgan.

Dramaning birinchi pardasidagi suhbatdanoq millatparvar Karimbaxshxon va yoshgina, biroq keng fikrli yigitcha Sarvarxonning so‘zlari orqali mustamlakachilik siyosati haqida tasavvurlar paydo bo‘la boshlaydi. “Ovruponing bilimi qoplonning tishi, tirnog‘i kabi bir narsadir. Kuchsizlarni yirtib, yemak to‘g‘risida ko‘p ish ko‘rmishdir” (Karimbaxshxon), “Ovrupaning buyuk bir fazilati kuchsizlarni aldab, qonlarini yemakdir. Ovrupada insof va adolat degan narsa yo‘qdir”(Sarvarxon). Tarixdan ma’lumki mustamlakachilar qo‘l ostilaridagi davlatlarni qaramlikdan chiqarmaslik uchun har qanday qabihlikdan qaytishmagan. Mehnatkash xalqning qo‘lida qurol yo‘qligidan foydalanib zulm ustiga zulm qilaverganlar. Bu kabi “Kuchsizlarni yirtib, yeyish”ni badiiy makondan real

makonga ko‘chirsak, aynan Turkistondagi haqsizliklar ko‘z oldimizda gavdalanadi. Rus mustamlakachilari millatimizga shu qadar past nazar bilan qarashganki, eng mayda narsalardan ham ayb topib xalqni ham ma’naviy ham jismoniy azoblar bilan qiynaganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, “rus zobitlarini ko‘rgan xalq egilib ularga salom berishi kerak bo‘lgan. Agar mehnatkash bilmasdan rus zobitini ko‘rmay qolib o‘z ishida davom etsa, zobitlar qo‘lidagi tayoq bilan bechora mazlumni kaltaklashgacha brogan”. (O‘zbekistonning yangi tarixi, 1-kitob, 325-bet) Bu kabi holatlar tariximizda minglab topiladi, va bu ayni damda dramadagi badiiy makonga, real vaqtda esa Turkistonga ham tegishli ekanini ko‘rsatadi.

Karimbaxshxonning inglizlarga qarshi aytgan “u bizning eng yomon yovimiz bo‘la turib, o‘zini eng yaxshi do‘stimiz kabi ko‘rsatadir” (A. Фитрат, 2003, 10-bet) so‘zlarini aslida muallif o‘z xalqini ogohlantirib sho‘rolarga nisbatan aytmoqda. Sho‘rolar hukumati millatimizda go‘yo ayollar va erkaklarni teng huquqli deb o‘z maqsadlari yo‘lida ayollarni ham og‘ir mehnatga chorlaganlari bugun barchamizga ayon. Mustamlakachilar o‘zlarini go‘yoki bizga yaxshilik qilayotgandek ko‘rsatib, milliy g‘ururimizni, o‘zligimizni, iymon-e’tiqodimizni toptashdi, yillar mobaynida xalqimizni, millatimizni tubsiz qorong‘ulikda saqlab keldi.

Dramaning ikkinchi pardasida esa yurt qayg‘usini anglashni bilmaydigan, vatan tuyg‘usini his etmaydigan, or-nomussiz kimsalar suhbati namoyon bo‘ladi: “Peshovarda polis boshlig‘i bo‘lgan bir ingliz o‘ldirilibdi, shuning uchun nafaqat Peshovarda, balki Dehlida ham urush holati e’lon qilindi”. (A. Фитрат, 2003, 20-bet) Bunday ishlar qahramonlarimiz uchun siyosiy ishlar xolos, kulishib, qadah urushtirib ichadilar…

“Soat to‘qqizdan tong otarg‘acha ko‘chada ko‘ringan kishi angliz esa, ertagacha saqlag‘andan keyin qo‘ya beramiz. Hindistonlik-da esa turmaga yuborib, bir oy qamarmiz”. (A. Фитрат, 2003, 20-bet) Sherxon tilidan beparvogina aytilgan so‘zlar orqali uning qanchalar tuban kimsa ekanligi ayon bo‘ladi. O‘z millatidagi bu haqsizliklar uni zarracha qiynamagani yetmagandek, do‘stining taklifi bilan bir begunohga tuhmat qilib uni qamashga rozi bo‘lishi uning loqaydgina emas, qalbi

kirlangan qabih odam ekanligini ham ko‘rsatadi. Qolaversa, ushbu jumla orqali yozuvchi qahramonning shaxsiyati bilan bir qatorda millatlar aro tengsizlikni ham ochib beradi. Millatlar o‘rtasidagi notenglik, mustamlakachi xalqning qaram millatdan ustun qo‘yilishi Turkiston uchun ham tanish holat. Rossiya imperiyasining “Turkiston o‘lkasini boshqarish haqidagi Nizom”iga ko‘ra, kichik mansabdorlar, pristavdan tortib general-gubernatorgacha mahalliy aholiga nisbatan cheklanmagan jazo choralarini qo‘llash mumkin bo‘lgan. Shahardagi rus aholisiga berilgan imtiyozlar musulmonlarga tegishli bo‘lmagan. Boshqa bir rasmiy hujjatda esa “Musulmon aholini kuchaytirmaslik uchun ularni imtiyozlardan mahrum etish o‘rinlidir”, – deyilgan edi. (O‘zbekistonning yangi tarixi, 1-kitob, 319- bet).

Yuqorida keltirilgan dalillar orqali xulosa qilish mumkinki, Fitrat Hindiston orqali Turkistondagi ayanchli ahvolni ko‘rsatib bergan. Hindiston dramada chorizm va bolshevizm asorati ostida qolgan Turkistonga taalluqli haqiqatni aytish uchun bir majoz vazifasini o‘tagan xolos. Fitrat o‘z asarida xalqni uyg‘otishga, bosqinchilarga qarshi kurashishga, ayniqsa, bosmachilik harakati, ya’ni xalq ozodligi kurashi avj olgan paytni, o‘sha davrdagi qirg‘in, adolatsizlikni nazarda tutib, xalqni milliy mustaqillik, ozodlik uchun kurashishga chaqiradi.

Maqolada ko‘riladigan navbatdagi masala bu-ishq mavzusi. Asrlar davomida so‘nmas mavzu, ammo Fitrat qalamga olgan ishq oddiy ishq emas. U Farhodlar ishqi, u Majnunlar ishqi. Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida ishqni 3 turga ajratadi:

1. Avom ishqidurkim, avomunnos orasida bu mashhur va shoye’durkim, derlar: “Falon falong‘a oshiq bo‘lubtur”. Va bu nav’ kishi har nav’ kishig‘a bo‘lsa bo‘lur, shag‘ab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emish va bu qismning biyikrak martabasi shar’iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh.

2. Xavoss ishqidurkim, xavoss ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘olmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy pok jamolidin bahra olmoq.

3. Siddiqlar ishqidurkim, alar Haqning tajalliyoti jamolig‘a mazohir vositasidin ayru vola va mag‘lubdurlar. (A. Navoiy, 2018, 70-bet).

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning ishqi “Mahbub ul-qulub”da keltirilgan ishq turlarining ikkinchi turiga mansub. Badiiy adabiyotda Farhod, Majnun, Romeolarning ishqi jismga bo‘lgan oddiy ishq, ya’ni avom ishqi emas, aksincha, ilohiy bir ishq, ya’ni xavosslar ishqi ekanligi alohida ta’kidlangan. Xavosslar ishqi avom ishqidan yuksakroqda turadi, chunki bunday ishqda nihoya bo‘lmaydi. Dramada ishqning ikki xil turi yoritiladi va yozuvchi mahorati orqali xavoss ishqning avom ishqdan yuksak hamda go‘zal ekanligi namoyon bo‘ladi. Dramada ayni bir qizga oshiq ikki yigit va ularning ikki ishqi o‘zaro taqqoslanadi. Zulayhoga erishishga urinayotgan Rahmatullohning ishqi avom ishqidir. Unga hech narsaning ahamiyati yo‘q, Zulayho uniki bo‘lsa bas. Bu yo‘lda u raqibi Nuriddinxonga tuhmat qilib uni qamatishdan ham qaytmadi. Nuriddinxonning ishqi esa xavosslar ishqi. Bu ishq Nuriddinxon uchun yurak xazinasi, uni doim yashirin asraydi, bu ishq u uchun barcha dardlarga davo. Asarda ikki raqibning kasb-kori ham ularning xarakterini ochib berishga ko‘maklashadi. Nuriddinxon shoir, shoirlik insondan yuksak bir qalbni talab etadi, chunki she’r qalbdan tug‘iladi. Rahmatullohning esa kasbi keltirilmaydi, ammo boyvachcha ekanligi aytiladi, yozuvchi bu orqali uni o‘tkinchi dunyoga mehr qo‘yganini alohida ta’kidlamoqchi. Demak Rahmatullohda Nuriddinxonniki kabi yuksak qalb yo‘q. Qahramonlarni “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod va Xusravga qiyoslash mumkin. Tug‘ilganidan beri ishq sabab oh chekib yurgan Farhodni o‘ylanib yuruvchi, ko‘zlari nam Nuriddinxonga, podshoh Xusravni esa boyvachcha Rahmatullohga o‘xshatish mumkin. Tadqiqotdagi so‘ngi masala bu – XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi madaniy hayotga muallif munosabati. Fitrat dramada o‘sha davrdagi eng dolzarb muammolardan birini ko‘tarib chiqdi. Bu qizlar taqdiri, qizlar kelajagi, qizlarni uzatish masalasi edi. Qizlar Zaynab, Zebilar kabi tanimagan bilmagan o‘zlari istamagan kishilarga majbur turmushga chiqib ketaverishgan. Unsin kabi qizlar ota qarzi uchun badal to‘laganlar. Fitrat dramada har bir qiz o‘z umr yo‘ldoshini o‘zi tanlashi haqidagi fikrlarni Karimbaxshxon tilidan keltirib

o‘tadi: “Bilasizkim, erga bermoq to‘g‘risida erk va ixtiyor qizning o‘zindadir. Bir qizni bir yigitga kuchlab yuborurg‘a ota-onaning haqlari sira yo‘qdir”. (A. Фитрат, 2003, 18-bet) Fitrat bu kabi dolzarb masalani bekorga ko‘tarib chiqmagan edi. Jadidlar millatga ma’rifat urug‘ini sochish uchun avvalo millat onalarini ma’rifatli bo‘lishlari kerak deb hisoblashar, xotin-qizlarni ham ilm olishga chorlar edilar. Zebi, Unsin kabi qizlar ilmsiz, o‘z fikriga ega bo‘lmagan qizlar edi. Ular Zulayho kabi o‘z kelajaklarini o‘zlari tanlay olishmasdi ham. Millat nafaqat o‘z kelajagini o‘zi qura oladigan hur fikr qizlarga, balki mustaqil fikrlay oladigan ilmli, ziyoli qatlamni tarbiya qila oladigan onalarga ham muhtoj edi.

Dramaturg Fitratning “Chin sevish” dramasi o‘z davridadagi istiqlolga chaqiruvchi o‘tli asarlardan biri sanaldi va xalqning qalbida uzoq yillar saqlandi. Bu mazkur asarning badiiy samarasi edi, deyish mumkin. Umuman olganda, “Chin sevish” dramasi Fitrat ijodida siyosiy mavzuga bag‘ishlangan asarlar sifatida muhim o‘rin tutganidek, o‘zbek dramaturgiyasi tarixidan ham o‘ziga munosib joy olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (2018) Mahbub ul-qulub.-T.: Yoshlar nashriyot uyi
2. Абдурауф Фитрат. (2003) Танланган асарлар. III жилд. - Т. “Маънавият”
3. Болтабоев Ҳ. (2007) Фитрат ва жадидчилик. Т.: Миллий кутубхона нашриёти.
4. Жўрақулов У. (2000). Фитратнинг тадқиқотчилик маҳорати. - Т.: “Университет”,
5. Ғаниев И. (2005) Фитрат драмалари поэтикаси. - Т.: “Фан”
6. Ғаниев И. (2005) Фитрат ва Фитратшунослик. - Т.: “Фан”
7. Ўзбекистоннинг янги тарихи. (2000)- Т.: «Шарк» нашриёт-матбаа концерни Бош таҳririяти.

NOMLI VA NOMSIZ “KATARSIS”LAR

Qayumberdiyeva Nurjahon Muzaffar qizi
ToshDO‘TAU adabiyotshunoslik yo‘nalishi
1-kurs magistranti nurjahonqayumberdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada she’rning ramka unsurlaridan biri – sarlavhaning lirik asardagi o‘rni, mumtoz va zamonaviy she’riyatdagi ifodasi yoritilgan. Mumtoz adabiyotda qo‘llanilgan keng sarlavhalarning o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tilgan. Bugun she’riyatida avj olgan sarlavhasizlik sabablari izohlanib, sarlavha qo‘yilgan she’rlardagi shartlilik xususiyatlari, qo‘yilgan sarlavhalar muallifning badiiy maqsadi va ijodiy ehtiyoji bilan bog‘liqligi yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, ramka unsuri, bag‘ishlov, badiiy funksiya, katarsis.*

Abstract: *the article describes the role of the title, which is one of the frame elements of the poem, the expression of the title in classical and modern literature is explained. It has been written about headings used in classical literature. The reasons for the widespread lack of titles in today’s poetry are explained, the features of conditionality in the poems with the title, the connection of the titles with the author’s artistic goal and kreative needs are explained.*

Keywords: *title, the frame element, devoted, artistic function, katarsis.*

Zamonaviy she’riyatda vazn, turoq, tinish belgilari-yu sarlavhalarsiz shakl odatiy holatga aylandi. Bulardan birinchi ko‘zga tashlanadigani – nomsizlik. Badiiy asar yaratishda g‘oyaviy maqsaddan kelib chiqadigan nom muhim. Shunday asarlar borki, sarlavhaning o‘zi yarim xazina. Masalan, “Mehrobdan chayon” kabi. Bu talab ko‘proq nasrda namoyon bo‘ladi. She’r hikoya yoki romanga nisbatan bir tutamligi bois sarlavhaga katta zalvor tushavermaydi. Nazariyada sarlavha lirik asarning ramka unsurlaridan biri sifatida qayd etilgan: “Avvalo, lirik asarning matniy (tashqi) qurilishida ham asosiy va yondosh matn (ramka unsurlari) farqlanadi. Misra va bandlarga bo‘linish asosiy matnga taalluqli bo‘lsa, sarlavha, janr qaydi, epigraf, bag‘ishlov, she’r yozilgan sana va joy qaydi ramka unsurlaridir”. Shuningdek, bu unsurlarning hech biri majburiy emasligi aytiladi. “Aksariyat lirik asarlarda ulardan birontasi ham ishtirok etmaydi. Biroq bu

hol ularning ahamiyatini kamsitmaydi, aksincha, ishlatilgan taqdirda albatta, muayyan g‘oyaviy-badiiy vazifa yuklash talabini qo‘yadi” (D. Quronov, 2020, 145-bet).

Aslan o‘zbek mumtoz she’riyatida ham sarlavha deyarli qo‘llanilmagan. Faqat qit’a janrida shartli ravishda qo‘yilgan, xolos. G‘azal nomlanganda ham radif nomi bilan – “Qolmasun” radifli yoki “Ustina” radifli g‘azal, deya nomlanib ketilgan. Dostonlarda esa umumiy sarlavhadan tashqari har bir qism, fasl, boblar ham biroz batafsilroq nomlanadi. Ba’zan sarlavhalarning o‘zidan qismda keltirilgan mazmunni bilish mumkin. Masalan, “Xamsa” tarkibidagi “Layli va Majnun” dostonining XIV bobini Navoiy *“Majnunning vaqshatlig‘ eldin ulfat rishtasin uzgoni va biyobon vahshiylari bila uns navosin tuzgoni va kiyiklar bila Navfal ovi aro qolg‘oni va Navfal visol va’dasi kamandin aning bo‘ynig‘a solg‘oni va kiyiklarni ozod qilib oni sayd qilg‘oni va ko‘nglin ovlag‘oni”* (А.Навоий, 1992, 153-bet) deb nomlaydi. Yoki Jomiyning “Yusuf va Zulayho” dostonida har bir qism tepasiga batafsil, ya’ni “*Yusufning yo‘l mehnati va quduq zahmati qissasin Zulayhoga sharh qilmoqi va oning kundagi mehnati bu sababdin erkoniga ogoh bo‘lmoqi”* (А. Жомий, 1974, 106-bet) kabi sarlavhalar qo‘yadi. Uzun sarlavhalarning o‘zini o‘qib chiqqach o‘quvchi asar mazmuni haqida aytib berarli ma’lumotni oladi. “Bunday uzunligi o‘quvchini bobda tasvirlanajak voqealar ruhiga olib kirish, bobning mohiyatiga yo‘g‘rilgan ohangini his etishiga ko‘maklashishdan iborat. Ya’ni sarlavha o‘quvchini emotsional jihatdan sozlaydi, uning ritmi asosida yuzaga keluvchi ohang esa bobning asosiy matni ritmiga hamohang bo‘lgani uchun go‘yo o‘quvchi qalb torlarini sozlashga xizmat qiladi” deya izohlaydi D. Quronov (D. quronov, 2020, 198-bet). Dostonlar ma’lum voqea asosiga quriladi va bayon yetakchilik qiladi. Sarlavhaning keng berilishi asar tarkibiy qismining bo‘linishida ham muhim o‘ringa ega. She’rda bunga ehtiyoj yo‘qligi bois nom biroz ahamiyatsiz. Biroq sarlavha bilan yarim jozibasi butun bo‘lgan she’rlar ham yo‘q emas.

Sarlavha she’rning barcha tomirlarini birlashtiruvchi ildiz bo‘lishi lozim, boshqa izohlar aynan shundan o‘sib chiqishi va o‘quvchi shu sarlavhaning nomi

bilan butun she’r mazmunini anglashi kerak. Zamonaviy she’riyatda bitta mazmun tutib olinmaydi. She’rda sochilib yotgan hislarni bir tizimga soladigan belbog‘ yo‘q. Ba’zan tuyg‘ular, kechinmalar shunchalik mavhumki, ularga nom qo‘yishning iloji yo‘q. Shu sabab nomsiz. Bugungi hamma she’rda sarlavha bir xil: uchta yulduzcha. Nomlansa she’rdagi sirlarning bir qismi namoyon bo‘lib, o‘quvchi she’rni oxirigacha toqat bilan o‘qimay qo‘yishi ham mumkinday tuyuladi. Balki shoirlar sarlavha bilan bog‘liq she’rning “sirini o‘ldirib qo‘yish” xavfidan xavotir olar.

She’rga bitta nom qo‘yish bitta xulosa, bitta fikr deyish, xolos. Bitta nom she’rdagi jami fikrni qamrab ololmaydi. Va bitta nom ma’no qirralarini cheklab qo‘yadi. Tuyg‘ular rangin va ming xil. Shoir yozishga shaylangan hislar nomsiz. Shoir botinida nomsiz-u mavhum shivirlar hayqiradi. Shu sabab nom qo‘yish mushkul. B. Fazliddinning “***” sarlavhali she’rlari ham ayni shu fikrni tasdiqlaydi:

Bardosh libosining iplari tig‘dan,

Amallab kiydingmi, yechishdan ne naf?

Ko‘zingni yashirma ko‘ngli munglug‘dan,

Seva olish sharaf, sevilish sharaf. (https://t.me/Behzod_Fazliddin)

Har mustaqil satrda bir hikmatga teng gaplar izohi shuki, bardosh libosi tig‘dan to‘qilgan, kiyib yurgan insonga tig‘libos sanchilib turadi. Sanchiqlarni bo‘yin olib kiygandan so‘ng, azobiga ko‘nikkandan so‘ng yechishga ne hojat. Bardoshning og‘riqlari ham poklaydi insonni, aslida. She’rda hukm bor: “ko‘ngli munglig‘dan ko‘zingni yashirma, sevish sharaf, sevilish ham”! O‘qishda davom etgan she’rxon satrma-satr mehr-muhabbatga to‘lib boradi, yaxshi-yu yomonni ajratmay seva boshlaydi. She’rning umumiy mazmunida Yaratganning yaratiqlarga, yaratiqlarning Yaratganga, olam va odamga bo‘lgan muhabbati gumonsiz bo‘lsin degan xulosani olamiz. Bir she’r berishi kerak bo‘lgan mazmun – shu. Shoir sarlavha qo‘ymaydi. Lekin she’rning nomi bor bu – “katarsis”. Bu nomni o‘quvchi beradi. Boshqa bir she’rida ismsiz taftishlarni o‘qiymiz:

Menga zarurmidi shunaqa yashash,

Qog‘ozga to‘kilib bormoqda umrim.

Orzular oldinda, ammo ko‘ngil g‘ash,

Ko‘zlarim, so‘zlarim yonayotir jim.

(https://t.me/Behzod_Fazliddin)

Bu kechinmalarning nomi yo‘q. Har qanday nom biroz umumlashtirib qo‘yadi va ma’no qirralarini cheklab qo‘yadi. Bunda shoir umri qog‘ozga to‘kilib ado bo‘layotgani, samarsiz izlanayotgan taskin, umr islohi ifodalangan. Shoir zotini bunday kechinmalar, o‘kinchlar ko‘p qiynaydi. Nomsiz o‘kinchlar… Ba’zan iztiroblarga nom qo‘yish qiyin bo‘lsa, ba’zan yorug‘ kechinmalarga yorqin nom topilmaydi. Masalan, quyidagi she’rda har qanday jarangdor sarlavha ifodani izohlayolmaydi:

Kamalak rangidan jilo,

kapalakdan nafislik olib,

suvlardan so‘rab shaffoflik,

soflikdan ko‘chirib nusxa,

gul bargidan g‘isht terib,

quyosh yog‘dusi-la yopib tom,

asl saroy qurdim, do‘stlarim,

shoh – qalbim,

fuqaro – tuyg‘ular uchun. (D. Mingboyeva. 2020, 40-bet.)

Hamma she’r ham sarlavhasiz emas. Sarlavhali she’rlar bor. Ayrim o‘rinlardagina qo‘yilgan sarlavhalar muallifning badiiy maqsadini namoyon qiladi. Ba’zan shartlilik asosida qo‘yilishi mumkin, ba’zan sarlavha bajaradigan funksiyaga ijodiy ehtiyoj mavjud. Aksariyat she’rlarda sarlavhaga bandlar oxirida takrorlanuvchi so‘z olib chiqiladi. Bundan maqsad “she’rxonda muayyan kayfiyatni uyg‘otish-u shunga mos estetik kutuv hosil qilish” (D. Quronov, 2020, 145-bet). Bu sarlavhaning universal funksiyasi bo‘lib, an’anaviy she’riyatda ham zamonaviyda ham o‘zgarmagan. Bunda sarlavha tilga olinishi bilan mohiyat taxmin qilinadi. Masalan, X. Abdurashidning “O‘sha men edim” sarlavhali she’rida har bir band shu jumla bilan yakunlangan:

Derazang yoniga qo‘ndi kabutar,

Ilkida o‘rog‘liq maktub bor edi.

Senga boqib turgan ma’yus ko‘zlari

Shu onda nedandir umidvor edi.

Sen esa pardani yopib qo‘yding jim,

O‘sha men edim-ku, o‘sha men edim. (X. Abdurashid. 2020, 3-bet.)

R. Xo‘jamovning “Sen bilmaysan” sarlavhali she’rining har bandi ham shunday yakunlanadi:

Chinormasman,

ammo ichim kuyik mening,

Dardim buyuk,

ishqim darddan buyuk mening,

O‘zim yomon,

yozgan she’rim suyuk mening,

Sen bilmaysan… (R. Xo‘jamov, 2021, 16-bet)

Shuningdek, biron ijodkorga, shoirning safdosh do‘stlariga, yoki yaqin qarindoshlariga, yoxud hodisa yo jarayonga bag‘ishlovi sarlavhaga chiqadi. Aslida she’r ramkasi unsurlarida bag‘ishlov sarlavhadan so‘ng qavs ichida berilish talabi bor. Biroq bu qoidalar o‘ta ixtiyoriyligi sabab sarlavhaning o‘ziga bag‘ishlov obyekti bo‘lgan shaxs nomi qo‘yiladi. Masalan, Shodmonqul Salomda “Boboravshanxonga”, “Surxonlik og‘alarimga”, “Shoirning xotiniga”; Dilrabo Mingboyevada “O‘g‘lim Nadimbekka”, “O‘g‘lim Shohidbekka”, N. Habibullayevada “Hatikoga”, Jontemirda “Rauf Parfiga”, N. Ne’matda “Shavkat Rahmonga” va yana ko‘plab shunday nomlar. Bunday sarlavhali she’rlarda g‘oya bag‘ishlov qaratilgan shaxsga ma’lum bir munosabatdan tug‘iladi. Shoir kimnidir ko‘ngliga yaqin olganidan, tuyg‘ulariga ta’siridan she’r qoralaydi va sarlavha o‘rniga shaxs nomi qo‘yiladi.

Ko‘pgina she’rlarda uchraydigan sarlavha – so‘roq so‘z, she’r shunga javobni ifodalaydi. Deyarli har shoirda shunday sarlavhali yoki shunday mazmundagi she’rni uchratish mumkin. So‘roq so‘z lirik qahramonning o‘ziga beriladi.

Shoirlikning katta missiyasi – o‘zni taftish etmoq. Ularni doim “nega”lar qiynaydi. B. Fazliddinning she’rlarini varaqlagan o‘quvchi bu savolga qayta-qayta duch kelaveradi:

Nega o‘zim bilan kelisholmayman?

Nega yuragimning tili qisiq — jim?

Nega o‘lim bilan olisholmayman,

Nega “nega”lardan iborat umrim?

Nega?! (Б. Фазлиддин, 2008, 7-bet)

“So‘roq” sarlavhali she’ri “*Hech yo‘qsa, bir gullamay, so‘lib ketaveraymi? … Yoningizda indamay o‘lib ketaveraymi?”* degan savollardan iborat. Shoirni “So‘z” aytish ehtiyoji, borligini bildirish, o‘tkinchi dunyoga nimadir qoldirib ketish talabi qiynaydi. “Indamay o‘lib ketish” ijod kishisi uchun emas. X. Davron yozganidek, “eng dahshatli sukunat – shoir jim yursa…” Keltirilgan misoldagi savollar ham B. Fazliddinning jimlikka qarshi isyoni.

D. Mingboyevaning “Kimman?” sarlavhali she’ri yetti banddan iborat va raqamlanib yetti qismga bo‘lingan. Har bir qismda shoira “kimman” so‘rog‘iga javob keltiradi. Masalan,

3. Isyonman –

Tarsaki tushiraman tun yuziga

Yorug‘ xayollar bilan. (D. Mingboyeva, 2020, 4-bet)

Shu kabi har bir javobda shoirona evrilishlar, har xil qiyofa keladi va oxirgi band “Men kimman Xudoning oldida?” ritorik so‘rog‘i bilan tugaydi. Shoirlik kuyida ming xil talqini bo‘lsa ham Xudoning oldida “hech kim” emaslik xulosasini beradi. Bunday so‘roqlar ijodkorning o‘zini taftish qilish, komillik yo‘lidagi maslagini belgilaydi. N. Ermatov “So‘rov” sarlavhali she’rida haqsizlikka ko‘nishni o‘lim bilan tenglaydi. Shoir nazdida, haq so‘z saytish uchun dilda cho‘g‘ sovimasligi lozim:

Hayronman, ne uchun Haq demas tilim

Yoki o‘chirdimmi dildagi cho‘g‘ni?

aNega ko‘nayapman haqsizlikka jim,

Menga bir qaranglar, o‘lganim yo‘qmi? (N.Ermatov, 2020, 11-bet)

Shoir bu savolni she’rlar qatida o‘quvchiga ham yo‘llaydi. O‘quvchi ham o‘ziga savol berib ko‘radi. Har inson Haq huzurida so‘roq qilingunicha o‘zini o‘zi so‘roqqa tutib, isloh qilib, poklab bormog‘i lozim va shunda haqiqiy so‘roq kunida vijdoni ham haq javobni beradi. Ijodkorning o‘quvchiga beradigan tuhfasi mana shunday hikmat bo‘ladi.

Keltirib o‘tganlarimiz sarlavhaning badiiy funksiyasi haqida ayrim mulohazalar, xolos. Har bir qo‘yilgan sarlavha muallifning yana ko‘plab ijodiy maqsadlarini namoyon qiladi. Sarlavhaga qo‘yilgan talablarni she’rning bajarish yo bajarmasligi ixtiyoriy. Shu sabab zamonaviy she’riyatda sarlavhasiz yozilgan she’rlar ham yuksak badiiyati bilan she’rxon ko‘ngliga yetib bormoqda va muhim vazifasi – “katarsis” talabiga javob beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurashid X.(2020). O‘sha men edim. ADABIYOT. Toshkent.
2. Ermatov N. (2020) Bo‘zla endi, bo‘zto‘rg‘ay. ADABIYOT, Toshkent.
3. Mingboyeva D. (2020) Sukut. Mashhur-peress, Toshkent.
4. Xo‘jamov R. (2022) Al’omon. ADABIYOT, Toshkent.
5. Quronov D. (2020) Adabiyot nazariyasi asoslari. Innovatsiya-ziyo, Toshkent.
6. Мингбоева Д. (2020) Йўлдаги аёл. Mashhur-press, Тошкент.
7. Навоий А. (1992) мукаммал асарлар тўплами 20 томлик, 9-том. Хамса, Лайли ва Мажнун. Фан, Тошкент.
8. Жомий А. (1974) Юсуф ва Зулайҳо. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент.
9. Фазлиддин Б. (2008) Сен қачон гуллайсан? MEHRIDARYO, Тошкент
10. https://t.me/Behzod_Fazliddin
11. https://kh-davron.uz

“BEHBUDIY HAQIQATI” OLIM POYON RAVSHANOV TADQIQOTIDA

Rajabaliyeva Muhabbat Alisher qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs magistratura talabasi
rma2272@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunda yurtimizda Turkiston jadidchiligida muhim o‘rin tutgan Mahmudxo‘ja Behbudiy merosini o‘rganishga katta e’tibor berilmoqda. Bu borada olim Poyon Ravshanovning “Behbudiy haqiqati” tadqiqnomasi o’ta ahamiyatlidir. Behbudiy hayotining so‘nggi kunlari fojialari Poyon Ravshanovning mazkur kitobida aniq dalillar va arxiv ma’lumotlari asosida yoritib berilgan. Behbudiyning so‘nggi kunlari haqidagi tarixiy haqiqatga professor olim ancha oydinlik kiritdi. Uning sermazmun asarlarini hozirgi kunda har bir xonadonda uchratishimiz mumkin. Mazkur maqolada olimning izlanishlari ilmiy adabiy tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Behbudiy, Poyon Ravshanov, fojia, Turkiston jadidchilik harakati, arxiv, tadqiqnoma, Eshoni Shahid.*

Abstract. *Today, great attention is being paid to the study of the heritage of Mahmudkhoja Behbudi, who played an important role in Turkestan modernism. In this regard, the research paper "Behbudiy haqiqati" by scientist Poyon Ravshanov is very important. The tragedies of the last days of Behbudi's life are covered in this book by Poyon Ravshanov based on concrete evidence and archival data. The professor shed light on the historical truth about Behbudi's last days. Today we can find his rich works in every home. In this article, the researches of the scientist were analyzed in scientific literature.*

Keywords: *Behbudi, Poyon Ravshanov, tragedy, Turkestan resistance movement, archive, research book, Eshoni Shahid.*

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2020-yilda xalqimiz tarixining murakkab davrida ma’rifat mash’alini baland ko‘tarib chiqqan ulug‘ alloma va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiyning 145 yillik tavallud keng nishonlanib, qamrovdor ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar, ilmiy anjumanlar, davra suhbatlari o‘tkazildi va anchagina asarlari nashr etildi. Prezidentimiz Farmoniga

ko‘ra yetuk alloma davlatimiz oliy mukofoti – “Buyuk xizmatlari uchun ordeni” bilan taqdirlandi, u siymo haqida film ham yaratildi.

Turkiston jadidlari merosini o‘rganishga Sho‘rolar hokimiyati davrida o‘rganish taqiqlangan edi. XX asr 80-yillari oxirlarida bu sohaga qo‘l urila boshlangan edi. Yurtimiz mustaqilligidan so‘ng jadid ma’rifatparvarlari, xususan ularning yo‘lboshchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) hayoti, faoliyati va merosini o‘rganishga qiziqish yanada kuchaydi. Buyuk alloma merosi bo‘yicha ko‘plab kitoblar yozildi va behbudiyshunoslik shakllana boshladi (A.Aliyev, N.Karimov, B.Qosimov, P.Ravshanov, D.Alimova, I.G‘ofurov, H.Saidov, xorijiy olimlar I.Baldauf (Germaniya), E.Olvert (AQSh) va boshq.)

Ma’lumki, mustabid Sho‘ro saltanati davridagi murakkab voqea-hodisalar, bir-biriga qarama-qarshi suzayotgan kemalar oralig‘ida qolgan qayiq, tabiiyki, halokatga uchrar edi. Turkiston jadidlari yetakchisi Mahmudxo‘ja Behbudiy hazratlari ham ana shunday ummonda mahv etildi. Ulug‘ siymoning xorijga safari amalga oshmay, sirli o‘limi sodir bo‘lgan, to‘g‘rirog‘i bolsheviklar amirlikning bu mudhish jinoyatga undagan edi. Allomaning qatl etilishi haqida 1919-yil 25-martdan to 2010-yilgacha turli taxmin va farazlar mavjud edi.

Behbudiyshunos olimlar asarlarida va milliy qomusimizda allomaning so‘nggi kunlari haqida bir xil, ya’ni quyidagicha mulohaza yuritiladi: “1919-yilning erta bahorida M.Behbudiy xorijga chiqib ketayotganida Inqilobiy favqulodda komissiya a’zolari ko‘magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo‘lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul bilan birgalikda zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu voqea Samarqandda bir yildan keyin ma’lum bo‘ladi” (Qosimov, 2001, 9-bet)

Boshqa bir manbada keltirilishicha, 1919-yil yozida Qarshi zindonida to‘rt nafar begunoh inson Mahmudxo‘ja Behbudiy, uning ikki sherigi Mardonqul Shomahmud o‘g‘li, Mahmudxo‘ja O‘rinboy o‘g‘li va Qarshi shahrilik zindonband Ahmad qatl etilganligi qayd etilgan. Behbudiyning so‘nggi kunlari haqidagi tarixiy haqiqatga qashqadaryolik taniqli adabiyotshunos va tarixshunos olim O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, professor Poyon Ravshanov

(1941-2020) ancha oydinlik kiritdi. Ustoz nihoyatda odamohunligi, keng qirrali sirqirra ijodi bilan mamlakatimizdagi eng peshqadam olimlardan sanalib, u zotning sermazmun kitoblarini Respublikamizdagi har bir xonadonda uchratish mumkin, eng o‘qimishli asarlar sirasiga kiradi. Darhaqiqat, serqirra olimdan katta ilmiy meros qoldi. Olimning nashr etilgan yirik kitoblari va tarjimalarini sonini sanasak 80 tadan oshadi. Ilmiy – ommabop maqolalari, nazm va nasr bo‘yicha asarlari ro‘yxatining o‘zi bir risolaga joylashadi. Olimdan boy kutubxona, noyob manbalar, arxiv ma’lumotlari va yozgan shaxsiy qo‘lyozmalari meros bo‘lib qoldi. Olimning vafotidan keyin ham bir qator risolalari nashr etildi.

P.Ravshanov nihoyatda noyob iste’dod egasi bo‘lib, nazm, nasr, tarjima, adabiyotshunoslik, tarixshunoslik keng yo‘nalishlarida barobar qalam tebratgan siymo qadribaland hisoblanardi. Afsuski, bunday serqirra va sermahsul olimlar mamlakatimiz ilmiy jamoatchiligi orasida kamdan kam uchraydi. Shuningdek, ustoz, jadidchilik va milliy istiqlolchilik harakati, mash’um qatag‘on siyosati oqibatlari haqida ham ancha kitoblar yozgan edi. “Sayyidnabi qorovulbegi” (1985), “Amirlashkar Alimquli” (1997), “Hofiz Ro‘ziboy Mashrab” (1997), “Dagar polvon” (2007), “Nodir komandir” (2011), “Qizil saltanat iskanjasida” (3 jildli, 2011), “Qamoq saltanati” (2014), “Qo‘lga tushgan qasoskorlar” (2014) va h.k.

Poyon Ravshanov “Qashqadaryo tarixi”, “Shahrisabz tarixi”, “Qarshi tarixi”, “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” (1-jild), Saylanma (3 jildlik) kabi salmoqli kitoblarini yaratishda mahalliy, Respublika va Moskva shaharlaridagi arxivlarda ko‘plab ma’lumotlar to‘plab, ularni ilmiy yo‘nalishga kiritgan edi.

Shuningdek, olim ko‘p yillar davomida Turkiston jadidchilik harakatining darg‘asi Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayoti va faoliyati, hayotining oxirgi kunlari bilan ham tinimsiz shug‘ullanar edi. Uning nazdida o‘zbek xalqi madaniyati va ma’rifatini rivojlantirish, mustaqillik ruhini targ‘ib qilish uchun iste’dodli adib va alloma Mahmudxo‘ja Behbudiy millatga havo bilan suv kabi nihoyatda zarur edi.

Tadqiqotchi olim Poyon Ravshanov buyuk alloma Behbudiy merosiga qiziqib, 2006-2011 yillarda Qashqadaryo viloyati va tumanlari arxivlarida tinimsiz ishladi. Xususan, viloyat davlat arxividagi 172-fond (2-ro‘yxat, 20-ish)ni topib,

yaqindan tanishgan va qator maqolalar yozgan edi. Uning “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasida “Behbudiyning so‘nggi kunlari” (2008-yil 23-avgust), “Behbudiyning so‘nggi manzili” (2010-yil 23-iyul) maqolalari o‘z vaqtida mamlakatimiz ziyolilari o‘rtasida kuchli aks sado bergan edi.

Poyon Ravshanov hayotining so‘nggi davrida ham arxiv, og‘zaki tarix ma’lumotlari asosida Behbudiy merosini o‘rganishni izchil davom ettirdi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yilgi Oliy Majlisga Murojaatnomasida Mahmudxo‘ja Behbudiy tavalludining 145 yilligi va uning merosini chuqur o‘rganish, xalqimiz, ayniqsa yosh avlodga yetkazish haqidagi da’vati olimga yanada kuch bag‘ishlab, ma’rifatparvar alloma haqida jiddiy tadqiqnoma yaratishga bel bog‘ladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, 1919-yil 25-martdan to 2010-yilgacha Mahmudxo‘ja Behbudiyning so‘nggi kunlari haqida taxminlar mavjud ediki, bunga P.Ravshanovning vafotidan keyin yaqinda nashr etilgan “Behbudiy haqiqati” kitobi aniq arxiv dalillariga asoslangan fikr-mulohazalari ma’lum ma’noda oydinlik kiritdi. Ushbu kitobning dastlabki sahifalarida Abdurauf Fitratning “Behbudiy sag‘anasini izladim” she’ri berilgani diqqatga sazovordir. Muallif ushbu kitobda yuz yildan buyon kun tartibidan tushmay kelayotgan masalalar borasida tiniq mushohadalar yuritishi, ayniqsa e’tiborga molik deyish mumkin. Kitobda ta’kidlanganidek, Mahmudxo‘ja Behbudiy haqiqatiga yetish nihoyatda mashaqqatli, bardavom ish bo‘lib, vaqt o‘tgan sari yo‘ldagi jumboqlar, chigalliklar o‘z yechimini topib boradi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlardagi arxiv hujjatlarida ushbu asardagi fikr-mulohazalarni tasdiqlaydigan, to‘ldiradigan, yangidan-yangi fikrlarni ochadigan dalillar mavjudligi, ularni qunt va chidam bilan teran o‘rganish to‘la-to‘kis erishish imkoniga ega bo‘ladi (Ravshanov, 2022, 125-bet) Darhaqiqat, ozodlik yo‘lida jonini fido qilgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning tabarruk nomi aslo unutilmaydi, balki asrlar osha millatimiz qalbida abadiy yashaydi. Kitobda yozilishicha, Behbudiy Taxtaqoracha davonida ushlangan, xabar Qarshi begi Tog‘aybek tomonidan Amir Olimxongaa yetkazilgan. U Shahrisabzdan Qarshiga keltirilib, shahardagi Ko‘hna Chorsu ko‘chasidagi 21-

uyda bir yarim yil tutqunlikda saqlangan. Behbudiy 1919-yil martda emas, balki 1920-yil senyabrida qatl etilib, uning va hamrohlarining jasadi Eshoni Shahid qabristoniga dafn etilgan.

Allomaning qabri mazkur qabristondagi Eshoni Shahid maqbarasi va Abdulatif an-Nasafiy marqabi yonida joylashgan edi. Bu shaharga 1926-1936 yillarda ziyoratgohga aylangan edi. Qizillar va ularga xayrixohlar bu yerda qasamyod qabul qilishgan. 1937-yil bahorida Behbudiy qabri ustidagi ayvon buzilgan va devorlari buzilgan. 1930-yil oxirlarida Sho‘rolar munosabati o‘zgargach, alloma qabri ham unutilgan. 1938-yilda Behbudiy viloyati nomi ham yana Qarshi viloyati deb nomlana boshlangan.

Yetuk olim va adib ustoz P.Ravshanovning “Behbudiy haqiqati” kitobi Turkiston jadidchilik tarixi, qolaversa behbudiyshunoslikka salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Bitikda Behbudiy hazratlarining murakkab va ziddiyatli hayoti, faoliyati, xususan uning o‘limi bilan bog‘liq tafsilotlar va alloma sifatidagi o‘rni haqidagi yangi va aniq dalillarga asoslangan fikr-mulohazalarni muxtasar va haqqoniy bayon etganligi jadidchilikda, qolaversa, behbudiyshunoslikda muhim yangilik deb baholash mumkin.

Bir asrlik Mahmudxo’ja Behbudiy haqiqati jumboqlari tobora yorqinlashaveradi. Hayoti davomida tinimsiz tadqiqotlar olib borgan olim Poyon Ravshanov tarixiy haqiqatning yanada yangi qirralarini ochdi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmas. Uning asarlari Yangi O‘zbekistondagi har bir xonadonni va insonlar qalbini doimo nurafshon qilaveradi, albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. (2020-yil 24-yanvar) *O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnoma*. 37 b.,. – Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU

2. Qosimov B. (2001) *Behbudiy Mahmudxo‘ja*. 9 b.,– 2-jild. – Toshkent: O‘zME DIN

Ravshanov P. (2022) *Behbudiy haqiqati. Tadqiqnoma*. 125 b., – Toshkent: “Akademnashr” nashriyoti

NOZIK QALBNING UMMON QADAR TERAN IJODI

Rajapova Xulkaroy
ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi
fakulteti talabasi hulkaroyrajapova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining taniqli va xalqchil shoiri, mohir tarjimon Usmon Nosirning boy ijodi haqida fikrlar bayon etilgan. Yurtparvar shoirning otashin she'rlari to'g'risida mulohazalar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *Usmon Nosir, she'rlar, vatan, go'zal tabiat, mehr.*

Annotation: *This article describes the rich work of the famous and popular poet of Uzbek literature, skilled translator Usman Nasir. Comments were made about the fiery poemsof the patriotic poet.*

Keywords: *Usman Nasir, poems, homeland, beautiful nature, love.*

Adabiyotni otashin va uyg'oq qalbli insonlargina chuqur his qila olishadi. Haqiqiy ijod esa nihoyatda zalvarli yukki, bu vazifani bajarish, ijod qilish har kimga ham emas. O'zbek she'riyatida o'z ijodi bilan dillarga haqiqat, ezgulik urug'ini ekib ketgan shunday shoirlar borki, nafsilamrini aytganda, ularning ijodi – yuksak e'tirofga munosib. Ular o'z she'rlari bilan har bir insonning dil uyi bo'sag'asidan hatlab, kirib borganlar. Aynan shunday ijodkorlardan biri, shubhasiz, Usmon Nosirdir. Turob To'la o'zining zamondosh shoiri haqida shunday yozadi: "Usmon Nosir she'riyatimizga shamolday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda "O'zbekning Lermontovi", Moskva gazetalarida "Sharqda Pushkin paydo bo'libdi", - deb yozishdi." [1. https://kh.davron-uz saytida O'tkir Rashidning Usmon Nosir haqida yozganlari va shoirning she'rlari yoritilgan.] Usmon Nosir! O'zining nomini mangulikka yozib ketgan shoir! U - she'riyatda oddiy so'zlarning ham go'zal tasvirini chiza olgan shoir. U o'ynoqi ohangda she'rlar yoza olgan shoirdir. Usmon Nosir bir ijodida she'rni yurakning "chashma suvi"ga qiyoslab, 1933-yilda quyidagicha o'tli she'r yozadi:

Sen yuragimning chashma suvi sen,

Sen ko‘zlarimning gavhar nurlari.

Sening bahongni kim so‘rasa, de:

“Bahom umrimning bahosiga teng!” (. Usmon Nosir “Tanlangan asarlar” 17-bet) Ijod uning uchun butun bir hayot! Ijod qilish Usmon Nosir uchun oldida turgan yuksak vazifa, buyuk xizmatdir. U o‘sha vazifani az tahti dil bajarib, umrning bahosiga teng she’rlar yozib qoldirdi.

Daydib ketgan o‘g‘lingni kechir,

Emgim keldi; mehringdan ichir,

Mast bo‘layin chaqaloq kabi…

To‘ysin o‘g‘lingning tashna qalbi! (Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” 47-bet) Yuraklarda po‘rtana qo‘zg‘aguvchi yoniq satrlar! Yuqoridagi misralarda shoir onasiga murojaat qilyapti. Demak, eng qimmat va eng arzon tuyg‘u mehr deganlaridek, ko‘ngil doim mehr istaydi. Insonning ko‘nglidagi gul mehr suvi bilan sug‘orilsagina, yashnay oladi. Hayot tashvishlaridan horib, charchab qolgan shoirning qalbi onaning mehriga tashna! Har bir ona - o‘z farzandining qalbshunosi! Yuragidan yurak, ustuxonidan ustuxon berib, farzand dunyoga keltirgan onalar dilbandi uchun har nega tayyor. Usmon Nosirning bu she’rini o‘qigan o‘quvchi shoirning yurak kechinmalarini anglabgina qolmay, onani ulug‘lashni ham o‘rganajak!

Usmon Nosir quyidagiday sodda va samimiy she’rlari bilan xalqning yuragidan joy olgan edi:

Charos kabi qop-qora ko‘zing,

Ko‘zlaringga oy berkinibdi. (Jadid adabiyoti namoyandalari. “Usmon Nosir” 38-bet). Oyning ko‘zga berkinishi chaqnoq va kulib turgan ko‘zga ishoradir. Xo‘sh, bu yerda shoir “chaqnoq ko‘z” desa bo‘lmasmidi? Yo‘q! Chunki, chiroyli o‘xshatishlar bo‘lmasa she’rning she’rligi qayerlarda qolib ketadi? Mana – uning uyg‘oq qalbi! Yoki:

Oyni cho‘miltirgan tinch tunlaringni

Tushimda ko‘rganda ne qilarman, o? (.Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” 68-bet). Yuqoridagi parcha 1935-yilda yozilgan “Dengizga”

she’ridan olingan parcha hisoblanadi. Bu otash satrlarda oyning aksi dengiz suvida jilolanishi tasviri chizilyapti. Dilni zabt etuvchi she’rlar… Yoki bo‘lmasa:

Tiniq suvda cho‘kib yotar osmon…

Men qarab qoldim,

Keng nafas oldim. (.Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” “Korab” she’ridan parcha 65-bet). Bu she’r ham o‘ynoqi ohangda. Oddiy bo‘yoqlardan foydalanib, gulogun ranglarga to‘la manzara rasmini chizib qo‘yyapti she’rlarida Usmon Nosir. Shuning uchun ham u xalqchil ijodkor bo‘lolgan. Va VATANning muqaddasligini ham anglay olgan. She’rlarida ham vatanparvarlik ruhi ustun turadi:

Agar darkor bo‘lsa har choq,

Chorlasa, Vatan,

Qo‘lyozmalarimni tashlab,

Shinel kiyaman. (Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” 53-bet)

Bu she’ri bilan hozir ham o‘quchini VATANni sevishga da’vat etadi. To‘g‘ri, yurtni darrov sevib qolib bo‘lmaydi. Elga bo‘lgan sevgi yillar sayin ulg‘ayib boraveradi. Inson o‘z tuprog‘iga qay darajada mehr qo‘ygani u qiladigan amallarda zuhurlanib boraveradi. “Lekin, siz bilan bizga Alloh O‘zbekiston deb atalgan tuprog‘ida oltin gullaydigan, qishlarida bahor shivirlaydigan, tog‘ desa tog‘i bor, bog‘ desa bog‘I bor, har tong bulbullar madhini o‘qib tamom qilolmaydigan yurtni Vatan qlib bergan ekan, biz bundan o‘zimizni BAXTLI deb bilmog‘imiz kerak”, - degan edi O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov o‘zining “O‘lsam ayrilmasman quchoqlaringdan” nomli maqolasida. Vatan obodligi yo‘lida, avvalo, dilni obod qilish lozim. “Haqiqiy shoirlar har qachon o‘z yurtlarining timsoli bo‘ladilar. Ular o‘z yurtlarining daryolariga, o‘z osmonlarining bulutlariga, o‘z tog‘lariing mingashma cho‘qqilariga, o‘z yo‘llarining karvonlariga va o‘z onalarining chaqaloqlariga o‘xshaydilar.” (https://kh.davron-uz saytida Ibrohim G‘afurovning Usmon Nosir haqida yozgan “Qismatning ovozi” maqolasi yoritilgan.) Usmon Nosir ham ana shunday haqiqiy shoir edi:

Yurt ustida yosh to‘kar osmon,

yosh to‘kar osmon.

Yig‘lab o‘tirmadik qayg‘u yeb.

Mamlaktni tiklagani ketdik,

tiklagani ketdik,

Bu bog‘larning bog‘boni – biz! – deb. (Usmon Nosir “Tanlangan asarlar” 27-bet). Xalqning tashvishini o‘ylab yashash darkor. Chunki, har bir inson insoniylik burchidan kelib chiqqan holda, el haqida qayg‘urmog‘i kerak. Qolgani esa sekin-asta bo‘lajak! Hayot qozonida qaynab, ancha qiyinchiliklarni tatigan Usmon:

Yig‘lab o‘tardim ko‘chalardan,

Ko‘z yoshimni shimgan yer guvoh,

- deydi “Qora satrlar” she’rida. (Usmon Nosir “Tanlangan asarlar” 29-bet). Uning ashki oddiy ashk emas. Achchiq va g‘amnok ashk… Yoki Murmanskda yozgan “Baliqchi” she’ridan bir parcha:

Xayol – dengiz, men – baliq,

Qalbimda nayim cholig… (Usmon Nosir “Tanlangan asarlar” 58-bet).

Dengiz tubsizlikdan iborat. Undagi turfa baliqlar, dur-u javohirlarning bormi hisobi? Shuning uchun xayolni dengizga, o‘zini esa xayolot dengizidagi bir baliqqa mengzaydi shoir. U adabiyot ixlosmandlari uchun teran ijod qilgan o‘zbek shoiri. Nozik qalbga ega bo‘lgan ijodkorning she’rlari ana shunday samimiylikka yo‘g‘rilgan. “Uning sevgisi butun va bo‘linmas. Usmon Nosirning she’rlari nurdan to‘qilgan. Ular ichdan nurlanib turadilar”, - deya yozadi Ibrohim G‘afurov. (https://kh.davron-uz saytida Ibrohim G‘afurovning Usmon Nosir haqida yozgan “Qismatning ovozi” maqolasidan.) Aslida, yozilgan har bir she’r – shoirning bolalari. Qog‘oz esa shu bolalarni yo‘rgaklaydi. Bugun shoir qog‘ozga o‘ralgan she’rlari bilan ko‘ngillarda yashayapti va yashashda davom etajak! “Bargdek uzilib” ketgan shoirni bugun bog‘i unutmadi, muallif “Bog‘im” she’rida yozgani yanglig‘:

She’rlarim yangrab qolur –

Bir umrga o‘lmayman!

Hayotimning davomi –

Kelajagimga homiy,

O‘rnimga bog‘bon bo‘lur –

Bir umrga o‘lmayman! (Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” 62-bet) Shoir boy ijodi bilan tirik! Qisqa umrni mazmunli yashab o‘tdi. Bugun ma’naviy hayotga qaytdi. Muxtasar so‘z o‘rnida aytganda, Usmon Nosir o‘zining “kelajak obidasin” qurgan shoirdir:

Kelajagim obidasin qurgan insonman!

O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman. (Jadid adabiyoti namoyandalari “Usmon Nosir” 62-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://kh.davron-uz saytidagi ma’lumotlar

2. Usmon Nosir (1959) “Tanlangan asarlar”. She’rlar, poemalar, tarjimalar, dramalar.T.: “O‘zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti”. 128 b.

3. Jadid adabiyoti namoyandalari (2022) Usmon Nosir. She’rlar, dostonlar, tarjimalar. T.: “Zabarjad media”. 114 b.

QO‘SHTIRNOQQA QAMALGAN “BEDANA” VA BOSHQA QUSHLAR HAQIDA (SHOIR TILAK JO‘RA IJODIGA CHIZGILAR)

Rasulova Saida Hikmat qizi
SamDU Filologiya fakulteti, 3-kurs
rasulovasaya20@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada shoir Tilak Jo‘ra ijodida qush timsolini o‘rganish maqsad qilindi. Shoir ijodini o‘rganishda bir nechta she’riy to‘plamlarni o‘zida jamlagan “Saylanma”dan foydalanildi. U o‘z she’rlarida ijobiy ma’no anglatishda bulbul, chumchuq, bedana kabi qushlar obraziga murojaat etgan va salbiy ma’noni ifodalashda turna, qarg‘a singari qushlarning ma’lum bir xususiyatlarini asos qilib olgan. Shoir ijodida qush timsoli, asosan, hurlik, xotirjamlik va harakatchanlik tushunchalarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlantirish uchun xizmat qilgan. She’rlardagi ayrim topildiq va o‘xshatishlar biz uchun muhim tadqiqot obyektidir.*

Kalit so‘zlar: *ramz, o‘xshatish, qush, erkinlik, turna, bulbul, qarg‘a.*

Abstract.*The aim of the article is to study the image of a bird in the work of the poet Tilak Jora. "Saylanma", which includes several poetry collections, was used to study the poet's work. In his poems, the poet used birds such as nightingale, sparrow, quail to convey a positive meaning to the reader, and used certain characteristics of cranes and crows to express a negative meaning. In the work of the poet, the image of a bird served mainly to express the concepts of freedom, calmness and mobility. Some findings, analogies are an important research object for us.*

Keywords: *symbol, allusion, bird, liberty, crane, nightingale, crow.*

Har bir ijodkor asarlarida yashirin ma'noni ifodalash va uning ta'sirini kengaytirishda ramzlar, badiiy o'xshatish, ibora va xalq maqollaridan keng foydalanadi. "Ramz (arabcha – imo-ishorat) atamasi tasvir obyektining mohiyatini ma'lum bir nuqtai nazardan shartli ifodalovchi so'z yoxud predmet bo'lib, timsol, simvol so'zlari bilan bir ma'noda ishlatiladi. Ramzlar o'z tabiatiga ko'ra turli xil bo'ladi. Predmetlar, hayvonlar, qushlar, parrandalar, mashhur voqealar, harakat va predmetlarning belgilari va boshqalar ramzlarni ifodalashda katta o'rin tutadi" (Boboyev, 2002, 337-bet).

Shoir Tilak Jo'ra ijodida qush timsoli o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, asosan, erkinlik, hurlik, xotirjamlik kabi tushunchalar bilan birgalikda qo'llanilgan. Bundan tashqari shoir qushlarning hayot tarzini she'rga ko'chirish va ko'chma ma'no ifodalash orqali asarning ta'sirchanligini oshirishga erishgan. Shoirning "Rayhon" she'riy to'plamidan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz:

…Bir kuni o'sha qushcha,
o'sha mitti jon
Ko'ngilning ermagi uchun,
bir o'q bilan berdi jon.
Hech kim unga tutmadi aza,
hech kim
bunga qilmadi parvo.
Qush zoti-ku ko'p erur, ammo

o‘sha erkin,

o‘sha hur qushcha

endi yo‘qdir yorug‘ dunyoda

(T. Jo‘ra, 2011, 37-bet)

Ushbu she’r erkin vaznda yozilgan. Uning mazmunida qush timsoli asosiy o‘rinni egallaydi. She’rda, bir qarashda, oddiy bir qushcha tasvirlanayotgandek ko‘rinadi. U barcha qushlar qatori “bo‘liq boshoqlar va xirmonlar” bilan yonma-yon tasvirlanadi. Ammo she’rdagi “Hech kim unga tutmadi aza” misrasi qush timsolida “kimdir (yoki kimlardir)” tasvirlanayotganligini ochib beradi. Zotan, qush uchun aza tutilishi odatiy hodisa emas va she’rning so‘nggida erkinlikka, hurlikka intilgan insonlar tasvirlanganligini ilg‘ab olamiz: “o‘sha erkin, o‘sha hur qushcha, endi yo‘qdir yorug‘ dunyoda”. Shoirning “Yulduzlar tabassumi” to‘plamidan o‘rin olgan “Saxiylik” she’riga e’tibor qilaylik:

Buncha ham mehribondir turnalar bizga:

Bahorni boshlab keladi.

Buncha ham mehribondir turnalar bizga:

Kuzni ham tashlab ketadi. *(T. Jo‘ra, 2011, 62-bet)*

She’rda turnalarning bahorda uchib kelish va kuzda uchib ketish odatidan mahorat bilan foydalanilgan. Bizning talqinimizcha, ushbu obraz orqali yaxshi kunda yoningizda bo‘lib, go‘yoki “bahorni boshlab keladigan” va yomon kunda tashlab ketuvchi (“Kuzni ham tashlab ketadi”) insonlarga ishora qilinadi. Dastlabki misralarda sarlavha (“Saxiylik”) ga mosdek tuyiladi, ammo keyingi ikki satrni o‘qiganimizda esa sarlavhadan tortib har bir so‘z kinoya bilan yozilgani anglashiladi. Ijodkorning “Ruhiyat” to‘plamidan o‘rin olgan quyidagi she’rda qush timsoli orqali xalqimizning o‘tgan davrlardagi ruhiyati tasvirlangan:

Sanduvoch erding, bo‘lding andalib,

Bulbul bo‘lib kelding aldanib.

Noming o‘zgardi-yu, o‘zgarmadi nolang

Tutqunlikda toliqqan qushcham,

Zorlanib-zorlanib

Zoriqqan qushcham.

Turkiy titrog‘ingda bunchalar sitam!.. (T. Jo‘ra, 2011, 163-bet)

Dastlab, bulbulning eski turkiy tilda “sanduvoch”, keyinchalik “andalib”, bugungi kunda esa “bulbul” deb nomlanayotganligiga e’tibor qaratamiz. Bu hodisani o‘zbeklar o‘zbek nomini olgunga qadar bir necha nomlarda atalganligi bilan qiyoslash mumkin. Keyingi misralarda esa xalqimizning mustamlaka holda, qaramlikda o‘tgan davri; nomi o‘zgarsa-da, nolasi o‘zgarmaganligi, tutqunlikda toliqqanligi haqidagi fikrlarga duch kelamiz. Har bir bandda takrorlanadigan “Turkiy titrog‘ingda bunchalar sitam!” misrasi titroqlardan, qo‘rquvlardan chekinib, o‘zlikni tiklashga chorlovchi chaqiriq kabi yangraydi. “Yulduzlar tabassumi” to‘plamidan o‘rin olgan “Yurak” she’rida qush bilan bog‘liq ajoyib o‘xshatishlar mavjud:

Bir qushchaday tipirchilab,

Bir qushchaday sayray olmasang,

Meni qiynab nima qilasan?

O‘ttiz yilki seni ko‘tarib,

Ko‘p yurdim bu olam aro!

Armonlarga umrimni berib,

Umidlardan ko‘p bo‘ldim judo… (T. Jo‘ra, 2011, 66-bet)

Muallif orzu-armonlari, umidlari haqida o‘yga tolar ekan, yuragining qushga o‘xshab tipirchilashini, sayrashini, harakatdan to‘xtamasligini istaydi. Inson hayot ekan, orzulari armonga aylanishiga, umidlari so‘nishiga qaramasdan olg‘a harakat qilishi lozim. She’r boshdan-oyoq yurakka xitoblardan iborat bo‘lib, keyingi misralarda shoir yuragini “chumchuq kabi chug‘urlashga” undaydi:

…Oftobni olqishlagan chumchuq singari,

Tinmayin chug‘urla bo‘g‘zimda:

Bu chaman bog‘larning latofatini

Oftobga aytganday aytib tashakkur!

Chug‘urla… (T. Jo‘ra, 2011, 66-bet)

Shoir saraton vaqtida chumchuq galalarining chug‘urlashlarini oftobga tashakkur aytishga o‘xshatadi. Chumchuqlarning tinimsiz harakatlarini barchamiz kuzatganmiz. Keyingi misralarda ijodkor yuragiga qarata chumchuq kabi tinimsiz chug‘urlab, bobo dehqonga tashakkur aytishini, hasratlari, sevinchi haqida “chug‘urlashini”, aks holda, uni bag‘ridan yulib otishini, bunday yurakning o‘ziga yo‘ldosh bo‘la olmasligini ta’kidlaydi. Jumladan she’r shu satr bilan yakunlanadi:

Zotan, yo‘ldosh emas

Unday yurak – Jo‘ra o‘g‘li Tilakka! (T. Jo‘ra, 2011, 66-bet)

Ushbu to‘plamdan o‘rin olgan “Visol” she’riga diqqat qilsak:

U qushga o‘xshaydi,

Yo tushga –

Mening bag‘rimda kechadi,

Olis osmonimda

qushday uchadi!

U qushga o‘xshaydi,

Yo tushga?!

U – buyuk sharpadir.

Sendan qochadi u,

Mendan kechadi…

(T. Jo‘ra, 2011, 67-bet)

She’rda visol qushga, tush va sharpaga o‘xshatilmoqda. Visol lirik qahramonning bag‘rida, qalbida tush kabi kechmoqda. Yoki qush kabi yetib bo‘lmas olis osmonda uchmoqda. Inson qushni tutish uchun juda ko‘p mashaqqat chekadi. She’rda visolga yetish uchun xuddi qushni tutgudek yoki undan-da ko‘p mashaqqat chekilishi nazarda tutilgan va ajoyib o‘xshatish yuzaga chiqqan. Keyingi bandda esa visol qush ham, tush ham emas, degan to‘xtamga kelinadi. U – buyuk sharpa. Sharpa singari qochib yuruvchi voqelik. “Visol” she’ri bilan yonma-yon “Rayhon” to‘plamidan o‘rin olgan, yorga bo‘lgan tuyg‘ular ifodalangan quyidagi she‘r ahamiyatlidir:

“Bedana”

Bedazorda "bedana"
Bo'lib-bo'lib sayraydi,
Qo'rni qo'zg'arkan ona,
Tinglab uni yayraydi:
– Sayroqidir buncha ham
Cholimning tullagidek,
Koshki bo'lsa cholginam.
Tongda qurib u tuzoq,
Qurmag'urni ushlardi,
Men berardim don, ushoq,
Sayrab ko'nglim xushlardi…
(T. Jo'ra, 2011, 27-bet)

She'rda ona qo'rni qo'zg'ar ekan, bo'lib-bo'lib sayrayotgan bedana ovozini eshitib, tinglab yayramoqda va choli esiga tushmoqda. Agar u hayot bo'lganida tuzoq qurib qushni ushlashini, o'zi esa don, ushoq berib, uning sayrashini eshitib, ko'ngil xushlashini xayol qilyapti. Ko'rish mumkinki, sarlavhada ham she'r tarkibida ham qush nomi qo'shtironqqa olingan. Qiziq, nima uchun muallif bedanani qo'shtirnoqqa qamagan? Bu savolga javob topish uchun keyingi bandni ham o'qiymiz:

Bedazorda "bedana"
Bo'lib-bo'lib sayraydi.
Kampir qizi jonona
Oshxona tuynugidan
Bedazorga qaraydi:
– Tezroq pishsa holvaytar,
Enam kirardi uyga.
Yoningga chiqardim, yor,
Pichan solay deb qo'yga…
(T. Jo'ra, 2011, 27-bet)

Ushbu bandda “bedana” aslida qush emas oshiq yigit ekani ma’lum bo‘ladi. “Bedana” birinchi bandda yorni yodga soluvchi vosita sifatida kelsa, keyingi bandda esa – yorning o‘zi. Samimiy tuyg‘ular ifodalangan she’r o‘quvchiga o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlaydi. Uni o‘qir ekanmiz, filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilovning ushbu so‘zlari bejiz emasligiga amin bo‘lamiz: “Tilak Jo‘ra she’rlari xuddi o‘ziday sodda va mazmunli edi. U she’rni ko‘z-ko‘z qilmas, neki yuragi buyursa shuni yozardi. Shu bois she’rlari hamon toza, hamon yurakka yaqin. Yurt sog‘inchi, do‘st sog‘inchi, onaizor va go‘zal yor sog‘inchi uning sevgan mavzulari, oy, quyosh, bug‘doy, bedana, tok narti, bedazor – uning xush ko‘rgan tashbihlari edi” (Hamroyeva, 2004, 132-bet).

Lirik qahramonning qahri qag‘illagan qarg‘aga mengzatilishi bekorga emas. Yuqorida yodga olganimizdek, qarg‘alar qor yog‘ishidan darak bergani kabi, lirik qahramonning qahrlanishi (shu g‘azab sabab) biror ko‘ngilsizlik bo‘lishi arafasida ekanini bildiradi. Uning qahri ko‘zlaridan yo‘rg‘alab chiqib ketgudek. Bunday holatda odamning yomon gap aytib, qarg‘ab yuborishi hech gap emas. Bir so‘z bilan aytganda, kimningdir g‘azabi ortidan insonlar orasida sovuqchiliklar kelib chiqishi ehtimolining qarg‘alar qag‘illashi ortidan qor yog‘ishi mumkinligiga o‘shatilishi chinakam original topilmadir. “Yulduzlar tabassumi” to‘plamidan o‘rin olgan “Ona uy” she’ridagi hodisalar ko‘pchilik uchun tanish:

...Nafasday bezovta ko‘ngli,
Qafasdagi qushchaday
Bezovta!
Tomog‘iga tiqilar hasrat,
Anglolmas,
Bu og‘riq nima?
Kunlarni sanar:
Seshanba,
Dushanba…
Juma…
Nihoyat,

Qaytdi uyiga.

Mana,

Qushday yengil tashlaydi qadam,

Torgina yo‘lagi bo‘ylab!

Bu dam

Torgina uyiday

Ko‘ngli xotirjam!

(T. Jo‘ra, 2011, 81-bet)

Sezganingizdek, bu she’rda uyidan uzoqda bo‘lgan kishining holati tasvirlangan. “Ota uy”, “Ona uy” kabi ifodalar bejizga kelib chiqmagan. Inson faqatgina o‘z uyi – kichik vatanida otasi, onasi bag‘ridagi kabi xotirjam yashay oladi. Lirik qahramon safarga otlanar ekan, ko‘ngli bezovtalana boshlaydi va bu bezovtalik qafasdagi himoyasiz, tutqun qushchaning bazovtaligi bilan barobar. U bezovtalikdan qutulishni istaydi va uyiga qaytish uchun kun sanaydi. “Nihoyat, qaytdi uyiga” va u endi qafasdagi qush emas, uyiga eltuvchi torgina yo‘lakda ozod qush kabi yengil – xotirjam qadam tashlamoqda, “Ona uy”ida ko‘ngil xotirjamligini his etmoqda. Albatta, bu tuyg‘uni boshdan kechirganlar she’rdagi kayfiyatni butunligicha tushuna oladi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Tilak Jo‘ra ijodida qush timsoli va o‘xshatishlar o‘zining ohorli va betakrorligi bilan adabiyotimiz uchun muhimdir. Qushlarning ijobiy va salbiy xususiyatlariga ko‘ra she’rda ramziy ma’no ifodalashi, qoyilmaqom tashbehlar o‘quvchini o‘z fikrlarini mustahkamlashga, asarning mag‘zini chaqish uchun tirishqoqlik bilan yondashishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyeva, M. (2004). Erta so‘ngan yulduzlar. (112-142- betlar). Toshkent: Sharq.

2. Tilak Jo‘ra. (2011). Saylanma. Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3. Boboyev, T. (2002). Adabiyotshunoslik asoslari. (337-bet). Toshkent: O‘zbekiston.

MATNAZAR ABDULHAKIM DOSTONLARIGA TARIXIY POETIKA YUZASIDAN NAZAR

Sharipbayeva Nazokat,
ToshDO'TAU adabiyotshunoslik yo'nalishi
2-kurs magistranti nazokat7756@mail.ru

Annotasiya: *Maqolada muallif dostonchilik taraqqiyotiga nazar soladi va o'tgan asrdan boshlab, ushbu janrda yuz bergan o'zgarishlarga to'xtalib, lirizm hodisasiga urg'u beradi. Yangi zamon dostonchiligini shoir Matnazar Abdulhakimning "Javzo arafasi" lirik-dostoni misolida tadqiq qilishga harakat qiladi.*

Kalit so'zlar: *Doston, o'zbek dostonchiligi, yangi zamon dostonlari, lirik doston, Matnazar Abdulhakim dostonlari.*

Abstract: *In the article, the author takes a look at the development of epic poyetry and emphasizes the phenomenon of lyricism. He triyes to research the epic of the new age on the example of the lyric-epic of the poyet Matnazar Abdulhakim "Eve of Javza".*

Key words: *Epic, Uzbek epic, epics of the new era, lyrical epic, epics of Matnazar Abdulhakim.*

Adabiyot tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, undagi janrlar adabiy jarayon taraqqiyoti davomida turli-tuman o'zgarishlarga uchragan va uchramoqda. Ijtimoiy, ma'naviy taraqqiyotga mos holda ba'zi janrlarda yetakchilik ko'zga tashlansa, ba'zilari iste'moldan chiqib ketdi, yangi janrlar yuzaga keldi, ko'pchiligida esa rivojlanish ko'zga tashlanadi. Doston janri taraqqiyoti bu borada tadqiqotga loyiqdir.

Doston atamasi nafaqat folklorda, balki yozma adabiyotda ham katta hajmdagi epik asarlarga nisbatan keng talqin etiladi. Biroq og'zaki va yozma adabiyotdagi dostonlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. "Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko'rinishda bo'lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o'ziga

xos tarzda idrok ertishi, baholashi va o‘z fikr-g‘oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usulida farqlanadi” (O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi).

O‘zbek dostonchiligi asrlar davomida o‘sib, kamol topib, rang-baranglashib bordi va adabiyotshunos olimlar tomonidan ko‘plab izlanish va tadqiqotlardan o‘rin oldi. Abdurauf Fitrat “Adabiyot qoidalari” asarining “El adabiyoti” va “Adabiy asarlarning turlari” qismlarida doston janri taraqqiyoti va o‘ziga xos xususiyatlari haqida gap borganida yozma adabiyotdagi va xalq og‘zaki ijodidagi (el adabiyoti. A.Fitrat) dostonlarning ma’lum farqlari haqida fikr bayon qilib, dostonlarni 4 turga ajratadi: 1) qahramon dostonlari; 2) klassik dostonlar; 3) taqlidiy-klassik dostonlar; 4) yangi zamon dostonlari. Bizning ilmiy izlanishimiz aynan to‘rtinchi turdagi, ya’ni yangi zamon dostonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Fitrat dostonchilikda alohida rol egallagan va bugungi kunda ham rivojlanishda davom qilayotgan ushbu adabiy hodisaga quyidagicha ta’rif beradi: “Yangi zamon dostonlari: shoir-adib el adabiyotiga murojaat qilmay, o‘z ma’lumoti, yo o‘z xayolining yordami bilan voqeiy, xayoliy bir qahramon tog‘risida doston yozsa, uning asari “yangi zamon dostoni” ataladir. Mashhur chig‘atoy-o‘zbek shoiri Muhammad Solihning “Shayboniynoma”si bilan o‘zbek shoiri G‘ulom Zafariyning “Cho‘lpon temir”, “Vonnaycha” degan dostonlari shul yangi zamon dostonlaridir.” (A.Fitrat, 1995, 81-96-97-betlar)

Dostonchilik taraqqiyotiga nazar soladigan bo‘lsak, o‘tgan asrdan boshlab, ushbu janr hajman toraygani, lirizm kuchaygani evaziga yozma adabiyotda yangi bir o‘ziga xoslik vujudga kelganiga amin bo‘lamiz. Shoirlar yaratgan dostonlarda dunyoni, voqelikni va insonning ruhiy olamini, ichki kechinmalarini idrok etish va haqqoniy tasvirlash bosh mezonga chiqdi. Atoqli shoir, o‘zbek adabiyotining namoyondasi Matnazar Abdulhakim ijodidagi “Javzo arafasi” lirik dostoni ham yangi davr dostonchiligining go‘zal va o‘ziga xos namunalaridandir. Dostonda shoirning his-tuyg‘ulari, o‘y-mushohadalari, falsafaga asoslangan fikrlari betakror o‘xshatishlar, mubolag‘aviy tasvirlar, bejirim takrorlar bilan ohoriylik kasb qiladi:

“Qora ko‘zim demang, qorako‘zmasman”,

Qo‘y ko‘zlari sening ko‘zlaring.

Qaramasang motam, qarasang

To‘y ko‘zlari sening ko‘zlaring. (M.Abdulhakim, 2017, 61-bet)

Lirik doston boshlanmasida yorning so‘zlari iqtibos keltirilib, unga qarata berilgan javob bilan dil izhorlari misralardan misralarga ulanishda davom etadi. Yor ko‘ziga berilgan ushbu ta’rifga e’tibor qilib, drama janri belgilaridan biri konflikt tasviriga guvoh bo‘lamiz.

Sensiz hayot mening qatlimga qaror,

Ey, rashk maktabida jajji abjadxon, —

deb shoir yorini rashk borasida tavsiflaganda arablardagi boshlang‘ich darajadagi o‘quv sabog‘ini anglatuvchi atamadan mohirona foydalanadi.

Ruhni qanday ezar bir bilsang edi

Achchiq ta’nalarning toshlari.

Husning ortgan sari ko‘payib borar

Mudhish ajdahoning boshlari. (M.Abdulhakim, 2017, 62-bet)

Lirik dostonda asosiy e’tibor tashqi olamga emas, kishining botiniy olamiga qaratiladi va lirik she’rga xos unsur yetakchilik qiladi. Lirika esa ichki kechinma bilan fikr uyg‘unligining mahsulidir. “Shoirning boshida tug‘ilgan fikr, aytish mumkinki, uning jismiga turtki berib, hayajonga soladi, qonida o‘t yoqib, ko‘ksida tipirchilab uyg‘onadi” (H. Karimov, 2010, 76-bet). “Javzo arafasi”da ham lirik qahramonning dil so‘zlari ana shu shunday hayajon va teran fikr zamirida bunyod bo‘ladi:

Borlig‘imga bitding misli to‘lin oy,

G‘amgin vatan bo‘ldim mahzun bu mohga.

Sen bilan kezganim har bir qadam joy

Aylandi men uchun ziyoratgohga. (M.Abdulhakim, 2017, 63-bet)

Lirik qahramon yorga murojaat qilar ekan, u bilan o‘tgan damlarni mahzunlik bilan eslaydi. Tabiat bilan uyg‘unlik, unga oshuftalik kayfiyati yaqqol sezilib turadi.

Men janub og‘liman. Sen — shimol qizi.

Bir faslga ilhaq. Ichikkan… (M.Abdulhakim, 2017, 63-bet)

Lirik qahramon o‘z shaxsini tanigan, o‘zini shaxs sifatida anglagan, o‘zini olam ichra yana bir olam deb bilgan inson. Undan o‘zini tashqarida emas, u bilan tutash va payvasta ekanligini qayd etadi. “Ammo hech qachon olam qarshisida o‘zini batamom unutib qo‘ymaydi. Olam bilan birligi, bir butunligini, ya’ni “Men va borliq”, “borliq va men” degan juftlik o‘z hukmini yuritadi” (J. Kamol, 1986). Bu xususiyat bugungi lirik dostonlarning muhim belgisidir.

Matnazar Abdulhakimning “Javzo arafasida” lirik dostonida, asosan, voqealar tasviri emas, balki undan olingan taassurot, ichki kechinmalar, xotiralarga murojaat orqali qalb to‘lqinlanishi, hali hayotda yuz bermagan azaliy haqiqatlarni, hodisalarni ham ko‘ngil epkinlari bilan ta’sirli ifodalaganligi, chin oshiqning faqat o‘zigagina ayon hislarni qalamga olganligi ijodkor iste’dodi bo‘lsa, ikkinchi tarafdan yangi davr dostonchiligining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir.

Matnazar Abdulhakim dostonlarining qaysi birini o‘qimaylik, ularni tadqiq qilish asnosida bugungi kun dostonchiligining o‘ziga xos tendensiyalarini kashf qilaveramiz. Muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, ularning barida shoir tilidan tuyg‘ular, ramzlar va ruhiyat so‘zlayotgandek bo‘laveradi. Bu har bir o‘quvchi va tadqiqotchiga birdek estetik zavq bag‘ishlaydi. Shoir dostonlari hali ohori to‘kilmagan bebaho san’at asarlaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. (1995) Adabiyot qoidalari. (Nashrga tayyorlovchi: H.Boltaboyev). O‘qituvchi. Toshkent.

2. Abdulhakim M. (2017) Tanlangan asarlar. 2-jild: she’rlar. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, Toshkent.

3. Karimov H.(2010) Istiqlol davri adabiyoti: darslik. Yangi nashr. Toshkent.

4. Kamol J. (1986) Lirik she’riyat. Fan. Toshkent.

HALIMA XUDOYBERDIYEVANING “BEGIM” SHE’RIDA MILLIY RUH IFODASI

Shokirova Aziza Ilhom qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti
4-kurs azizashokirova02@gmail.com

Annotatsiya: *Milliy ruh masalasi ayollar she’riyatida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi. Ibrohim G‘afurov ta’biri bilan aytganda, she’rlaridan daryoning ovozi kelib turadigan xalqning sevimli shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning barchaga yod bo‘lib ketgan “Begim, sizni Xudoyim...” she’rini milliy ruh nuqtai nazaridan tahlil qilishga harakat qilamiz.*

Kalit so‘zlar: *she’r, qadriyat, milliy ruh, ifoda, ayol ruhiyati, milliy ruh tamoyillari, ijodkor badiiy mahorati.*

Abstract: *The issue of national spirit is clearly visible in women's poetry. In the words of Ibrahim Gafurov, we will try to analyze the well-known poem "My dear, God composed you..." by Halima Khudoyberdiyeva, the beloved poetess of the people, whose poems sound like the river, from the point of view of the national spirit.*

Keywords: *poem, value, national spirit, will, female spirit, principles of national spirit, artist’s skill.*

Biz adabiyotni, xususan, she’riyatni ko‘ngil ehtiyoji deymiz, ruh ozig‘i deymiz. Darhaqiqat, qalb ko‘zlarimizning ochilishi, borliqqa muhabbat bilan yashash ishtiyoqimizning ortishi, his-tuyg‘ularimizning tarbiyalanishi, bir so‘z bilan aytganda, inson ekanimizni anglash uchun ham adabiyotga ehtiyoj sezamiz. Adabiyot – ko‘ngilga xizmat qiladi. Agar u milliy ruh bilan sug‘orilgan bo‘lsa, nur ustiga nur. Shoir yoki yozuvchi jahon adabiyoti durdonalari bilan qanchalar yaxshi tanish bo‘lmasin, har qanday umuminsoniy mavzuda qalam tebratmasin, baribir, yozganlarida milliy ruh yashab qolaveradi. Buning ildizini shu millat orasida, shu ruh ta’sirida tarbiya topganiga, bu ruhning ijodkor qon-qoniga ajratib bo‘lmas darajada singib ketganiga bog‘lashimiz mumkin. Jahon adabiyotidagi har qanday nodir asar zamirida o‘sha millatning milliy ruhi mujassam bo‘ladi va shuning uchun ham o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmaydi, jahon kitobsevarlarini o‘ziga tortib

turaveradi. Professor Nurboy Jabborov o‘zining “O‘tkan kunlar”da milliy ruh ifodasi” nomli maqolasida keltirgan “Mohiyatan insoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi” (Jabborov, 2020, 4-bet) degan fikrini dalil sifatida keltirishimiz mumkin. Xuddi shu maqolada keltirilgan ustozning ba’zi fikrlari asosida mulohazalarimizni davom ettiramiz: “Savol tug‘iladi: muayyan ijodkor asarlarida milliy ruh qanday tamoyillar asosida namoyon bo‘ladi? Bizningcha, ularni quyidagicha tavsif etish mumkin: 1) millat ruhini mujassam etgan o‘ziga xos urf-udumlar, an’analar, qadriyatlar, millatning orzu-armonlari talqini; 2) millatning o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish salohiyati ifodasi; 3) milliy shaxsiyatlarga xos sobit e’tiqodning poetik suratlanishi. Birinchisi – millatning axloqi, ikkinchisi – irodasi, uchinchisi – e’tiqodini tajassum etadi va bu uchlik yaxlit holda milliy ruhni tashkil qiladi.” (Jabborov, 2020, 5-bet)

Shu asosda ma’lum ijdokorning ijodi tahlilga tortiladi. Ayniqsa, milliy ruh masalasi ayollar she’riyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ibrohim G‘afurov ta’biri bilan aytganda, she’rlaridan daryoning ovozi kelib turadigan xalqning sevimli shoirasi Halima Xudoyberdiyevaning barchaga yod bo‘lib ketgan “Begim, sizni Xudoyim...” she’rini milliy ruh nuqtai nazaridan tahlilga qilishga harakat qilamiz. Deylik, mashhur bir she’rni yod aytib yuramiz. Muallifi tilga olinganida esa beixtiyor she’rga qo‘shib muallifni ham sevib qolamiz, uning boshqa she’rlarini ham o‘qish ishtiyoqi uyg‘onadi ichimizda. Sirdaryosi kabi uyg‘oq shoiramiz Halima Xudoyberdiyevaning “Begim, sizni Xudoyim…” she’ri ham ana shunday she’rlar sirasiga kiradi. Bu she’r shunchalar xalq orasiga singib, yoyilib ketganki, nazarimizda uni ayollar “madhiya”si desak ham mubolag‘a bo‘lmaydi. She’rning birinchi misrasidanoq milliy ruhning badiiy talqini yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘sha momolarimizdan, Kumushlarimizdan qolgan bebaho so‘z “begim” so‘zi bizni o’ziga maftun etadi.

O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyidning quyidagi fikrlariga nazar tashlaymiz: “Begim” so‘zini olaylik. Bu o‘ruschaga o‘girganda “Мой бек” degan so‘z emas. Bu – bir paytlar milliy taomil, ayolning o‘z zavji haloliga nisbatan oliy ehtiromi, ayni paytda oilaviy nazokatni bildirgan. Eskilik sarqiti emas. Bu bilan biz

barcha ayollar erlarini “begim” deb chorlasinlar demoqchi emasmiz. Muddao shulki, Halima Xudoyberdiyevada biri shu so‘z bilan boshlanguvchi va yana biri shu so‘z bilan yakullanuvchi ikki ajoyib she’r bor. Va bu so‘z ushbu she’rlarda o‘sha sharqona nazokat ila qoyilmaqom qilib aytilgan.” (Xudoyberdiyeva, 2020, 535-bet).

Bu she’r g‘ururi sevgisi qadar baland, iztirobi sabri kabi chiroyli, rashki muhabbati yanglig‘ muttasil ma’shuqaning “vafosiz” yorga izhori haqidadir. Har bir misrada ayol deb atalmish xilqatning murakkab xarakteri, hali hanuz yechilib ulgurmagan jumboq – dunyosi, ko‘nglidagi eng inja tuyg‘ularining isyoni balqib chiqadi. Lirik qahramon suygan yorini:

Begim, sizni Xudoyim raso qilib yaratgan,

Boshqalarni o‘ychan-u, sizni kulib yaratgan,

(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

deya kam-ko‘stsiz ta’riflash barobarida bevafolikda ham ayblab, yengilgina “savalab” o‘tadi.

Sharqda ayol kishi o‘zining ibosi, iffati bilan aziz. Shu o‘rinda ko‘nglidagi hislari tugul, kundalik istaklarini ham zo‘rg‘a tilga chiqaradigan Sharq qizi uchun muhabbatini ma’shuqqa izhor etish u yoqda tursin, avvalo o‘zi uchun tan olishning o‘zi ham katta jasorat. Yo‘qsa ilk marta ariq bo‘yida ko‘rgan suyuklisi deya Kumushlar shuncha iztirob chekarmidi?! Otasi so‘zidan chiqolmagan Zebilar bir cholga ko‘nib ketarmidi? Bu holatni yuragida muhabbat uchquni miltillagan qiz borki chuqur anglashi turgan gap. Misralar orasida parvoz qilayotgan ruhimiz momolardan me’ros kelayotgan mana shu buyuk haqiqatga borib uriladi:

Qiya tushgan nigohni armonga yo‘ymagaysiz,

Qiz qalbiga sevmoqni osonga yo‘ymagaysiz.

(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

Shoira ta’kidlagani kabi qiz bolaga sevmoq oson ish emas. Muhabbatini qalbida javhar misoli yashirib, saqlab yashash esa millatimiz qizlari orasida qadriyat darajasiga ko‘tarilib ulgurgan. Shu misralarning o‘ziyoq professor Nurboy Jabborov sanagan milliy ruhning birinchi tamoyiliga to‘la javob bera oladi deyish

mumkin. Misralarda lirik qahramon ilinj bilan o‘tinish barobarida ma’shuqni ogohlantirib o‘tadi. Ayolning sabri ming bahodirga dars bo‘lishi bor gap. Ammo, har sabrning bir chegarasi bo‘lgani kabi:

Qiynamangiz, u o‘zi o‘rtanguchi bir bag‘r,

Bu bag‘rni kenglikda, osmonga yo‘ymagaysiz.

(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

Darhaqiqat, ayol qanchalar kuchli, matonatli bo‘lmasin u baribir ojiza. O‘zini himoya qiladigan, asrab-avaylaydigan insonga doimo muhtoj. Yuqorida aytib o‘tganimizdek lirik qahramon o‘z yorini hech qachon past darajada baholamaydi. Hatto uni juda yuqori o‘rinda ta’riflaydi. Bir tomondan rashk o‘tida yonayotgan qahramonimiz ikkinchi tomondan undan voz kechishni xayoliga ham keltirmaydi. Suyuklisini na o‘ziga munosib ko‘radi, na boshqalarga. She’rdagi millat ayolining o‘z-o‘ziga tanqidiy ruhda qaray olish kuchini ikkinchi tamoyilimiz isboti deyishimiz mumkin. Asl o‘zbek ayoliga xos ruhiyat chiziqlarining shu murakkab nuqtada birlashgani ham diqqatga sazovordir. Bu ta’riflarning isboti sifatida quyidagi misralarga nazar tashlash joizdir:

Sizni men o‘zimga ham loyiq ko‘rmam, rosti gap,

O‘zgaga bermoq esa tushimga kirmas uxlab.

Yoki:

O‘zga tortmam cheksam ham shuncha jabr-u jafoni

O‘zgaga ham bermasman, Sizdek bir bevafoni!

Begim, sizni Xudoyim raso qilib yaratgan…

(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

Endi yana bir diqqatimizni qaratishimiz kerak bo‘lgan o‘ringa to‘xtalamiz:

O‘zga bilan ketsangiz, ravon yo‘llar qolmasin,

Begim, ikkilanmasdan yer yuzin tashlang mixlab.

(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Nega aynan mixlab? Buning asosiy sababi nimada? Bu savolga javobni Halima Xudoyberdiyevaning ushbu she’rning yozilishi haqidagi xotiralaridan izlab ko‘ramiz. Shoira quyidagicha yozadi:

“Shunday rivoyat ko‘nglimda yurardi. Buni bir joydan eshitganmanmi, o‘zim o‘ylab topganmanmi, aniq bilmasdim. Bir-biriga o‘ta ko‘ngil qo‘ygan, mehr-u sadoqatda tengi yo‘q er-u xotin uzoq yillar yashab, farzand ko‘rishmabdi. Uchramagan tabibi, sirlashmagan habibi qolmabdi. Turli ta’sirlar, uzoq maslahatlardan keyin xotin erining uylanmog‘iga rozi bo‘libdi. Xotin o‘z uyining to‘g‘risidagi yangi uyga kelin kelib tushgach, shom aralash, odamlarning ko‘zini xato qilib, ikki uy oralig‘idagi katta masofada butun hovli yuziga mix qoqib chiqibdi. Zora, oyog‘iga mix kirib qiynalib, hovlida yurolmasa… Zora, bu fojiali tunni yostiqni tishlab yotib bo‘lsa-da, o‘z xobgohida o‘tkazolsa… tongda uyg‘onib hovliga chiqqanlar o‘z uyida behush yotgan ayolni va ayol oyog‘idan oqqan qondan qip-qizil lolazorga aylangan hovli yuzini ko‘radilar. Dastlabki turtki shu – “Mixning, tig‘ning zahrini sezmay yonib boraman” satri bo‘lib, ko‘nglimni qizdirdi. Qolgani ijodkorning xayoloti…”. (Narimonov & Ro‘zimatova, 2022, 158-bet).Olim Ozod Sharafiddinov bu she’r xususida fikr yuritar ekan shunday yozadi: “Aslida, bu she’r ham bevafolik haqida – lirik qahramon “begim” deb sig‘inayotgan yor sevgiga xiyonat qilgan – boshqa bir “sovuq suluv”ning etagini tutib ketgan. Bunga ezilmaslik, bundan alam chekmaslik mumkin emas. Shu alam oqibatida u “ishq zardobli sharobdir” degan xulosaga keladi” (Xudoyberdiyeva, 1993, 15-bet).

Mixning, tig‘ning zarbini sezmay yonib boraman,
Ishq zardobli sharobdir, qonib-qonib boraman,
Hech kim bilan sirlashmay, hech kimsaga tutmay may,
O‘z qonim bilan o‘zim alvonlashib boraman.
(Xudoyberdiyeva, 2020, 38-bet)

Yuqoridagi misralarni tahlil qilishda olimning o‘rinli fikrlariga qo‘shilgan holda ijodkorning badiiy mahoratiga tasannolar o‘qiydi kishi. She’r bus-butunligicha kamchilikdan holi deyish fikridan yiroqmiz, albatta. Misralar orasida ba’zi ziddiyatli fikrlarni yoki keyingi tahrirlarda o‘zgartirilgan misralarni ko‘rishimiz mumkin.. Misol uchun, she’rning dastlabki variantida “Begim, sizni tabiat raso qilib yaratgan…” (Xudoyberdiyeva, 1992, 51-bet. 1979, 52-bet. 1974,

28-bet.) deya boshlanadigan ilk misra keyinroq dunyo yuzini ko‘rgan kitoblarda “Begim, sizni Xudoyim raso qilib yaratgan…” (Xudoyberdiyeva, 2012, 36-bet. 2020, 38- bet.) shaklida o‘zgartirilgan. Bu jarayonni shoiramiz ushbu she’r yozilgan paytda yigirma olti yoshda bo‘lgani va tabiiyki yillar o‘tgani sayin doimo izlanishda bo‘lgan ijodkor mahoratining sayqallanib borgani bilan bog‘lash mumkin. Bu misrani tahlil qilishni esa har bir o‘quvchining o‘ziga qoldirgan afzalroq. Biz maqolamizda e’tibor qaratadigan asosiy masala – she’rdagi milliy ruh ifodasi bo‘ldi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyevaning bu she’ri ayol xarakterini ochib beradigan eng go‘zal she’rlardan biridir. She’rning ich-ichiga singib ketgan milliy ruh masalasi esa zo‘rma-zo‘raki singdirilmagan. Balki, o‘z-o‘zidan, tabiiy ravishda paydo bo‘lgan. Shoiramizning bolalikdan eshitib kelgan ertaklari-yu dostonlari, o‘qigan kitoblari-yu xalq og‘zaki ijodi namunalariga bo‘lgan muhabbati yaqqol namoyondir. Zero, Halima Xudoyberdiyeva suhbatlaridan birida shunday deydi: “Onamning ovozi shirali, xirgoyilari chiroyli edi. Bu satrlarning ma’nosini chuqur tushunmasam-da, u kishiga qo‘shilib xirgoyi qilib o‘tirganlarimni kuni kechagiday eslayman. Muhitda gap ko‘p. Otamning Abdurhamon buva, Rajabov bova, Eshon bova kabi yetti-sakkiz nafar qadrdonlari har o‘n, o‘n besh kunda uyimizda kitobxonlik qilishardi. Bu suhbatlarda Navoiy, Fuzuliy, Bedil singari ulug‘larimiz g‘azallaridan tashqari ishqiy, sarguzasht dostonlar ham o‘qilardi. Alpomish, Kuntug‘mish, Avazxon, Go‘ro‘g‘li kabi dostonlar qahramonlari otamning do‘stlari singari menga ham qadrdon bo‘lib qolgan edi. Bunday kechalarda men doim otamning yoniga suqulib olib, xayolan Barchinga aylanardim. Boychiborga dardimni aytardim. Xullas, dostonlar olamida yashardim.” (https://kh-davron.uz). Umuman olganda bu she’r benihoya go‘zal bir dard, g‘oyat ustalik bilan aytilgan gaplardir! She’rda arzi holi bilan yorini ortga qaytarib olishni o‘ylaydigan bir ojizaning xiylasi yo‘q, aksincha hayotni teran his qilgan, aql-idroki bilan hayot zarbalariga, muhabbat sinovlariga mardonavor javob qaytaradigan, g‘ururi baland, ori mustahkam, shu bilan birga sevgisi olovning

taftidanda kuchli bir yurak bor! Halima Xudoyberdiyeva ijodidagi ayol ruhiyati aynan shu jihatlari bilan umrboqiydir!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jabborov N. (2020). “O’tkan kunlar”da milliy ruh ifodasi. Uzbek State World Languages University. Philology Matters/ ISSN: 1994-4233.

2. Narimov, H & Ruzimatova G (2022). Urganch. (158-bet).

3. Xudoyberdiyeva H. She’rlar & Eng qora ish, eng toza ish – bizning ishimiz.../ Xurshid Davron kutubxonasi. https://kh-davron.uz

4. Худойбердиева, Ҳ. (1974). Чаман. (28-бет). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

5. Худойбердиева, Ҳ. (1979). Иссиқ қор. (52-бет). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

6. Худойбердиева, Ҳ. (2012). Буюк қушлар. (36-бет). Тошкент: Ўзбекистон.

7. Худойбердиева, Ҳ. (2020). Танланган асарлар. (38-бет). Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти.

8. Худойбердиева, Ҳ. (1993). Бу кунларга етганлар бор. (51-бет). Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.

HUMOYUN AKBAR SHE’RIYATIDA POETIK OBRAZNING BERILISHI VA SHOIR MAHORATI

Ubaydullayeva Nurjahon Humoyun qizi

ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Nurjahonubaydullayeva08@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Humoyun Akbarov she’riyatining o‘ziga xosligi, shoirning poetik obraz yaratishdagi uslubi, lirik qahramonlar harakterini yaratish borasidagi mahorati, she’riyatining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so‘z boradi. Shoir she’rlari tahlilga tortilib, ulardagi badiiyat, mavzu va mazmun yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Poetik obraz, lirik qahramon, lirik kechinma, mavzu, tashbeh, badiiy tasvir, timsol, ramz

Abstract: The uniqueness of Humayun Akbarov’s poetry, the poet’s unique style of creating a poetic image, the poet’s skill in creating a poetic image, the poet’s skill in creating the character of lyrical heroes, and the ideological and artistic features of the poet’s poetry are discussed. Humayun Akbar’s poems are

analyzed and their art, subject and content are highlighted. In contemporary poety, the poet's poems should become as a source for literary criticism.

Keywords: Poetic image, lyrical hero, lyrical experience, topic, allusion, artistic image, symbol, allegory

Poetik obraz olam va odamning o‘zaro aralashuvidan yuzaga keladi. U hayot hodisalarining nusxasi emas, balki ijodkorning ijodkorona yondashuvi natijasidir. Ijodkorning dunyoga o‘zgacha nazar bilan qarashi bo‘lmaganida edi, adabiyotda badiiy obraz tushunchasi o‘z mohiyatini topmagan bo‘lar edi. Darhaqiqat, ayni obrazga yuklangan individuallik alal-oqibatda uning jozibasini oshiradi, ya’ni obrazni turli-tuman nuqtai nazardan turib baholash, talqin etish imkonini yaratadi.

She’riyat tuyg‘ular gulshanidir. Humoyun Akbarning Vatan, tabiat, jamiyat, sadoqat, muhabbat haqidagi she’rlaridan o‘quvchi kayfiyatida ijobiy o‘zgarishlar yuz berib, adabiyotning estetik vazifasini his etgandek bo‘ladi. Boisi, Humoyun Akbar poetik obraz yaratishda o‘ziga xos uslubga ega. Shoir o‘z she’rlarini nafis tashbehlar bilan bezatib, ularga o‘zgacha sayqal berishga astoydil harakat qiladi. Lirik qahramonning ruhiy olamini noyob poetik topilmalar va tasvir vositalari yordamida ifodalaydi. Shoir she’rlarida lirik qahramon goh oshkora, goh yashirin shoirning “men”i bo‘lib ko‘zga tashlanadi. Shu jihatdan, shoir she’rlarini biografik metod orqali tahlil qilish tadqiqotchi uchun murakkablik tug‘dirmaydi.

Yaratilgan poetik obrazlar orasida Vatan obrazi alohida o‘rin tutadi. Shoir Vatan obraziga tarixning vazmin yukini yuklaydi, tabiatni rangin bo‘yoqlar bilan tasvirlaydi. “Andijonda qurilmagan minoralar” she’riga nazar tashlaylik:

Bobur mirzo, oliy hazrat, sizday zotga
Berkitdilar ota yurtning darvozasin.
Bir taxt ketdi, bir baxt ketdi shunda yotga,
Baxtsiz, taxtsiz Vatan qoldi, ovozasiz. (Humoyun, 2022, 80-81-betlar)

Tarixning bir davri borki, uni andijonliklar, nafaqat Andijon farzandlari, butun O‘zbekiston xalqi alam bilan eslaydilar. Lirik qahramon o‘zbek xalqining buyuk farzandi Zahiriddin Muhammad Boburga murojaat qilib, uni “oliy hazrat” deb e’tirof etadi hamda sizdek zotga Farg‘ona-yu Andijon eshigini yopganlar

sababli Vatan “taxtsiz”, ya’ni taxtga arzigulik hukmdor topolmasdan “baxtsiz” qoldi, deydi. Bu bilan otasidan erta ayrilgan 12 yoshli yosh hukmdorning bir necha bek va hokimlar bilan kurashganligini, o‘z amakisi va tog‘asi bo‘lmish Sulton Ahmad Mirzo bilan Sulton Mahmudxon xurujlariga dosh berganligini, o‘z vatanidan quvilganligini eslatmoqchi bo‘ladi. Misralar oxiri quyidagi ikkilik bilan yakunlanadi: *Mirzosini anglolmagan bechoralar,*

Andijonda qurolmadi minoralar.

Misralar zamirida tarixda dom-daraksiz ketgan beklar o‘zga yurt tuprog‘ini gullatgan, bog‘-u rog‘lar bunyod etgan, “Dunyoning yetti mo‘jizalari” dan biri hisoblanadigan “Tojmahal” minoralarini qurdirgan boburiylar o‘rnini bosa oldimi, degan ritorik savol yotadi. She’r davomida yurt sog‘inchi, tarixda qilingan xatolarni tuzatib bo‘lmasligi hamda, eng alamlisi, Bobur avlodini kimlardir mo‘g‘ul, kimlardir turk, kimlardir o‘zbek atashi otashin vatanparparlik bilan qalamga olinadi. Shoirning kindik qoni to‘kilgan zamin Andijon ekanligini, bu o‘rinda, eslatib o‘tish ayni muddaodir. Humoyun Akbar she’riyati tuyg‘ularga, lirik kechinmalarga juda boy. Shoir qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hodisani butun qalbi bilan his eta oladi. Vatan poetik obrazini ohori to‘kilmagan, yangiroq ibora yo tashbehlar topadi. Tuyg‘ulari rangin shoir mukammal, quyma satrlar kashf etadi. Masalan, shoirning ona qishlog‘i haqidagi she’rida yorqin bir mehr nuri tovlanib turibdi:

Salom,

Meni kutgan-kutmagan,

Kuzgi gullar,

Oltin yaproqlar,

Dalalarning ko‘ksidan o‘tgan,

Dehqon umri kabi so‘qmoqlar! (Humoyun, 2005, 7- bet)

Bu jonli manzara kishi ko‘z o‘ngida uzoq bolalikdagi kichik bir qishloqning surati, mehnatkash, betinim qishloqning siyratini namoyon etadi. Peyzaj tasviri yordamida lirik qahramonning ona diyoridagi hayot, odamlar, turmush tarzi ham aks ettirilgan. Shoir Vatanini turli tasvirlar, turli tuyg‘ular, turfa detallar orqali ko‘p

bora qalamga olgan. Xususan, “E’tirof”, “Bobur”, “Yalt etsa-da gohida uchqun”, “Bu bolaga xayol bering”, “Navoiyni o‘qib…”, “Meros”, “Bunda anhor, darvoza, ishkom…”, “Oqibat”, “Vatan ranglari” kabi she’rlar shular jumlasidandir.

Humoyun Akbar she’riyati haqida mulohaza yuritib, O‘zbekiston Xalq shoiri Abdulla Oripov (Humoyun, 2012, 4-5-betlar): “Humoyunning she’rlarini 80-yillardan beri kuzatib kelaman. Uning asosiy yutug‘i samimiyatdir, buningsiz o‘quvchi qalbini zabt etish mumkin emas”, — degan edi. Darhaqiqat, his etilgan tuyg‘ulargina, amin bo‘lingan haqiqatlargina shoir qalamiga tushadi. Buni shoirning falsafiy o‘ylari aks etgan “Ziddiyatlar” she’rida ham ko‘rishimiz mumkin:

Yoringga tutasan,
Sen kabi go‘zal, —
Deya, yashnab turgan gullarni uzib.
Hatto toshni yorar dardingni
Jondan aziz do‘stga aytasan.
Manzilingga eltuvchi yo‘llar,
Oyoqlaring ostida qolar…
(Humoyun, 2022, 35- bet)

She’r matni bilan tanishar ekanmiz, beixtiyor shoirning tuyg‘ularini namoyish etmay, o‘quvchini hayotiy haqiqat bilan yuzma-yuz qilishni afzal ko‘rganini kuzatamiz. Shoir she’rni 1988-yil, ya’ni 24 yoshida yozgan. Navqiron yoshida hayotning bir-biriga to‘g‘ri kelmaydigan tomonlarini kuzatib, hayratlanib qalamga oladi. Undagi ta’sirlanish, munosabat bildirish so‘ngida xulosani o‘quvchi tomonidan chiqarilishini taqozo etadi. Shoir ifodalayotgan timsollar uning ijodiy maqsadini yuzaga chiqaradi. Humoyun Akbar she’rlarida gullar, daraxtlar, yo‘llar, tog‘lar, bog‘lar, dalalar, kuz – hamma-hammasini teran his etadi. Bu ramziy-majoziy timsollarda shoirning tuyg‘ulari o‘zgacha manzara kasb etadi.

Humoyun Akbar she’riyatida o‘ziga xos jihatlar talaygina. Shu jihatdan uni alohida obrazlarga (yo‘l, gul, bola, xayol, so‘qmoq, surat kabi), alohida mavzularga (bolalik, Vatan sog‘inchi, peyzaj, tarix, kelajak kabi) ko‘p murojaat

qilish; badiiy tasvir tizimining o‘ziga xosligi, yorqinligi kabilarni sanash mumkin. Professor Nasimxon Rahmonov Humoyun Akbar she’rlari haqida iliq fikr bildirib, “Humoyunning o‘ziga xos jarangdor obrazlari, timsollari bor. Timsollar ham individual bo‘lishi mumkinligini Humoyunning she’rlari yana bir bor tasdiqlaydi”, degani ham fikrimizning isboti bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida she’riyat alohida o‘rin egallaydi. Hozirgi zamon she’riyati namoyondasi Humoyun Akbar ijodi, xususan, she’rlari adabiy tahlilga, tanqidga muhtoj. Biz keyingi tadqiqotlarimizda mazkur mavzuga yana atroflicha to‘xtalamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akbarov.H.(2022) Gulbong. Toshkent. Adabiyot.
2. Akbarov.H.(2012) Intihosiz navolar. Toshkent. “Muharrir” nashriyoti.
3. Akbarov.H.(2005) Ko‘nglim guli. Toshkent. Alisher Navoiy nomidagi kutubxona nashriyoti.
4. Akbarov H.(1998) Unutilgan gul. Toshkent. Farg‘ona nashriyoti.
5. Ulug‘ov.A.(2017) Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
6. Yusupova.M. (2018. 2-son) til va adabiyot ta’limi. “Badiiy asarda so‘zning ma’no strukturasi mezonlari” Toshkent.
7. G‘afurov.I.(1982) Lirikaning yuragi. Toshkent.
8. Sharofiddinov.O.(1956) Lirika haqida mushohadalar. Toshkent.

ILMGA AYLANGAN OLIM
(AKADEMIK NAIM KARIMOVNING ILMIY FAOLIYATIGA CHIZGILAR)

Ubayeva Gulrang

ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yigirmanchi asr adabiyotining cho‘ng bilimdoni, jadidchilik faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy-adabiy izlanishlarning yetakchi vakillaridan bo‘lgan adabiyotshunos, akademik - Naim Karimovning olimlik faoliyatiga bo‘lgan qiziqishlardan kichik ilmiy-badiiy lavhalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Aksilinqilobiy, millatchilik, shoir, toza ruh, olim.*

Abstract: *This article is a small scientific and artistic record of the interest in the scientific activity of Naim Karimov, a great connoisseur of 20th century*

literature, one of the leading representatives of scientific and literary researches dedicated to modernism, literary critic, academician.

Key words: *Counter-revolutionary, nationalizm, a poet, pure soul, scientist.*

Qachon aytilgani no'malum bo‘lgan hamma gap ham bugungacha yetib kelib oramizda yurgani yo‘q. Ularning ham kuchlilari bor. O‘zini oqlay olganlari, yuzi yorug‘ bo‘lib yurganlari bor. O‘z ma'nisining uddasidan chiqa olganlarigina bugunda ham bor. Shunday yuzi yorug‘ fikrlardan biri mana hozir yana xayollarimni mag‘rur egallab turibdi: “Dardini bergan Xudo, da'vosini ham beradi”. Naim Karimov. Adabiyotning to‘qson yoshli bu uyg‘oq o‘g‘loni o‘zi tug‘ilgan yillarning juda-juda ko‘p izsiz ketgan dardlariga malham bo‘la oldi. Nazar solib tursangiz, shijoati o‘ta yuqumli bo‘lgan bu chinakam turkiy olimning ish stoli bugun ham barokatli, harakatli. Yigirmanchi-o‘ttizinchi yillarning ziyo taralib turgan oilasida ulg‘aygan shu olimning izlanishlari sabab o‘zbek adabiyotining Cho‘lponi yana ham yorqinroq, Usmon Nosirlari yolqinliroq...

Yigirmanchi asr adabiyotining cho‘ng bilimdoni deya ta'kidlangan bu adabiy shaxsning So‘fizoda, Hamza, Fitrat, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya kabi ijodkorlar ustida har tomonlama olib borgan izlanishlarini o‘qiy turib o‘ylanib qolasan kishi. Bir inson shunchasiga jazm qila olishi ham mumkin ekan-da!.. Yo‘qsa, NKVD hujjatlarining o‘zi ham allaqachon bir olimning emas, bir necha olimning umriga yetib-ortishi ham mumkin edi. Lekin, olim qaysidir davrlar va marralar bilan o‘zini, ilmini chegaralab qo‘ymadi.

“Oybek cho‘qqisi”, “Hamid Olimjonning poetik mahorati” kabi ishlaridan Naim Karimovning nozik lirika sadolarini o‘ta-o‘ta uzoqdan ham tinglay oluvchi adabiyotshunos ekanligini anglash mumkin. Tahlilga tortgan misralari ham bu jiddiy adabiyot kishisining aslida qon-qoniga she'riy ritmlar singib ketganini ochib qo‘yadi.

“Chimyon daftari” turkumidagi she'rlari bilan Oybek Cho‘lpondan keyin, barmoq vaznining aruz singari, hatto aruzga nisbatan ham katta badiiy imkoniyatlarga ega ekanini isbotlab berdi” (http.www.ziyouz.com kutubxonasi) – deydi olim.

Sen g‘urubning oltin qo‘llaridasen,

Tabassuming – Quyosh, so‘nar ohista...

Dala va qirlardan tiniqlik uchar,

Suvlar oynasiga shom qora surkar,

Xayolning men sokin cho‘llaridamen… (https://www.ziyouz.com/kutubxona)

Oybekdan lirik qahramonga ko‘chgan xayollar uni tahlilga tortib turgan nozikta’b tahlilchiga ham o‘tdi. Umri davomida uni bu xayollar o‘z holicha qo‘ymayotgani Oybekshunos bo‘lgan olimdan bugun Oybegi haqida so‘rasangiz ma’lumlashadi. Shaxsiy tarbiyasi o‘ta tartibli bo‘lgan insonning tartibsiz ko‘zyoshlaridan ma’lumlashadi.

Naim Karimov o‘zi qalamga olishga kirishgan har bir adabiy siymoga bir adabiyot kishisi, ma’lum shoir yoki yozuvchi sifatida emas, balki hayotning ko‘plab qirralarini o‘zida jamlagan to‘laqonli obraz sifatida qaraydi. Bu obraz poezik ham, prozaik ham bo‘lishi mumkin. Masalan, olim izlanishlarining katta qismini egallab turgan Hamid Olimjon obrazini oling. Bu izlanishlarda shoir Hamid Olimjon ma’lum obrazlilik kasb etadi. “Hamid Olimjonning poetik mahorati” ilmiy ishida olim uning chang bosib qolgan pianinosini yaxshilab artib, yanada yangi pardalarda chalib eshittirsa, “Hamid Olimjon – mohir tarjimon” nomli maqolasida o‘z sevimli obraziga o‘ta obyektiv ham yondasha oladi. Olim Hamid Olimjonning ba’zi lirik tarjimalari muvaffaqiyatli chiqqanini ta’kidlagani holda, uning “Kavkaz asiri” dostoni (Pushkin), “Suv qizi” dramalari kabi boshqa turdagi asarlari tarjimasida anchayin qiynalganini, toza ruh bag‘ishlay olmaganini ochiq yozadi.

Shu bilan birga keyinchalik “Zamonamiz qahramoni” (Lermontov)ning kulminatsiya qismlariga aylangan “Bella” nasriy qissalarining tarjimasi ham o‘z davri uchun Hamid Olimjonning ulkan mehnati edi. “Ikki chashma” maqolasida esa olim ko‘proq Shoirining yoshlik shijoatini, mehr-muhabbat bobidagi shaxsiyatlarini ilhom bilan qalamga oladi.

Shu o‘rinda, mavhum xayollarimizni anchayin yoritgan, olimning keng-ko‘lamdagi savob ishlarining eng aniq nuqtalaridan biri bo‘lgan “Hamid Olimjon

va Usmon Nosir: tuhmat va haqiqat” nomli maqolasiga to‘xtalsak: “SAVOL: Sobiq shoir Usmon Nosirovning aksilinqilobiy millatchilik xulq-atvori nimalarda aniq ifodalangan? JAVOB. Shaxsan men Usmon Nosirovning aksilinqilobiy millatchilik xulq-atvoriga doir biror faktni bilmayman. Usmon Nosirovning aksilinqilobiy millatchilik ruhidagi fikrlarini eshitmaganman” (https://www.ziyouz.com-/kutubxona).

Bu Hamid Olimjon bilan bo‘lgan suhbat. Va maqola bilan tanishgan har bir o‘quvchi deyarli hamma o‘rinda uning “Bilmayman” “Hayronman” “Eshitmaganman” qabilidagi javoblarini o‘qiydi. Endi o‘ylab ko‘ring, NKVD xodimi bilan bo‘lib turgan so‘roqda o‘zini bunday tuta olish “o‘zini olib qochish” mi? Bu vaqtda o‘zini olib qochish – kundaga boshini “mana” – deb qo‘yib berish edi aslida. Va buni Hamid Olimjon hozirgi siz-u bizdan ko‘ra yaxshiroq, alamliroq anglab ham turardi. Bugungi “asli mish-mish bilan dunyoga kelgan”larga ustoz Naim Karimov, haqiqatning shunaqa qaltis, shunaqa nomlanmagan o‘rinlari ham bo‘lganini ta’kidlashga urindi.

O‘zi yoritayotgan adabiy shaxsga otasidek, onasidek, bolasidek ham munosabatda bo‘la oladigan olim o‘z navbatida unga g‘irt begona nigoh bilan ham qaray oladi. Milliy adabiyotshunos o‘laroq hech bir adabiy siymoni adabiyotga ideallashtirib olib kirishga urinmaydi. Ularni boricha, zamondoshlaridan eshitganlarini ham aniq faktlarga asoslangan holda bizga yaqinlashtiradi.

“Hamzaning so‘nggi kunlari” maqolasi, “Usmon Nosir” kitoblarida bu jihat bor. Olim ilm kishisi sifatida Hamzaning o‘z davrida to‘g‘ri deb tutgan ba’zi yo‘llariga shaxsiy munosabatini bildirishdan ham qochmaydi. Uning ma’lum vaqt kimningdir ta’sirida yashaganini, xatolarini ham bir avlod sifatida tan olishda siz-u bizdan istihola qilmaydi. “Usmon Nosir” adabiy-ma’rifiy asari esa tan olinishi so‘zsiz bo‘lgan nihoyatda katta izlanish. Katta davr, katta adabiy davrani qamrab olgan tafakkur kuchi bo‘lgan. Roman bizni shoir Usmon Nosir bilan, o‘zi intilgan kishilarga “Qiblagohim” deb, “Ustozimumtoz” deb hurmatda bo‘lgan shogird Usmon Nosir bilan, butun-butun davralarni o‘z istaklariga, hatto vaqtsiz kelgan ilhomlariga-da bo‘ysundira olgan kuchli Usmon Nosir bilan, va o‘zi qancha

“tushunishga” urinmasin, baribir tushuna olmagani siyosatning qarshisidagi o‘z davrining kuchsiz Usmon Nosir bilan tanishtiradi. Bu Usmon Nosir bilan tanishish vaqtida biz bevosita o‘sha adabiy qatlamga aloqador Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Mashriq Yunusov (Elbek), G‘ulom Zafariy, Amin Umariy, Mirtemir, Toshpo‘lat Ne’mat, Javlon Rahmon kabi ijodkorlar, Rizo Qorashoh (Usmon Nosir aynan shu insonga qiblagoh sifatida qaragan) timsolida jamlangan jonsarak qardosh xalqlar vakillari bilan ham tanishamiz.

O‘tgan butun bir katta davrni o‘quvchiga yaqinlashtirish, umri davomida ikki davr oralig‘ida bezovta yashash qiyin. Ayniqsa, bu yashash tarzi ma’naviyat ustida, ilm ustida qurilgan bo‘lsa. Ustoz Naim Karimovga uzoq va og‘ir ma’naviy bezovtaliklar tilab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Naim Karimov, (1985) OYBEK. Yosh gvardiya. Toshkent.
2. Naim Karimov, (1994)Usmon Nosirning so’nggi kunlari. SHARQ, Toshkent.
3. Naim Karimov, “Hamid Olimjon va Usmon Nosir: tuhmat va haqiqat” www.ziyouz.com kutubxonasi
4. Naim Karimov, “Ikki chashma” www.ziyouz.com kutubxonasi.

ZAMONAVIY SHE’RIYATDA BADIIY SAN’ATLARNING QO‘LLANILISHI
(TURSUN ALI IJODI MISOLIDA)

Xayrullayeva Gulasal Anvar qizi
ToshDO‘TAU, O‘FF 4-kurs talabasi
xayrullayevagulasal@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada mumtoz adabiyotda alohida ilm sifatida qaraladigan ilmi bade’ xususida so‘z yuritiladi. Farqli jihati shundaki, bu tadqiqotda badiiy san’atlar mumtoz adabiyot vakillarining she’rlari asosida emas, zamonaviy nazmda ijod qiluvchi Tursun Ali she’riyati misolida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: she’riy san’atlar, oksimoron, tashbeh, tashxis, tazod, talmeh.

Abstract: This article talks about the science of art, which is considered as a separate science in classical literature. But the difference is that during this research, artistic arts are considered not based on the poems of classical literature

representatives, but on the example of the poetry of Tursun Ali, who creates modern poetry.

Keywords: poetic arts, oxymoron, tashbeh, diagnosis, tazad, talmeh. Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizda "ilmi segona", ya'ni "ilmlar uchligi" degan tushuncha mavjud. Ular ilmi aruz, ilmi qofiya va ilmi bade'dir. "Ilmi bade' (arabcha bade' — yangi, ajoyib, nodir demakdir) fikrni ravon va nafis ifodalash yo'llari va vositalari, badiiy san'atlarning turlari hamda xususiyatlari kabi masalalarni o'z ichiga oladi" (Is'hoqov, 2006, 7-bet). Biz she'riy san'atlarni ko'pincha mumtoz she'riyatimiz namunalari asosida o'rganganmiz. Ammo zamonaviy she'riyatimizda ham bunday noyob topilmalarni, so'z o'yinlarini, ma'no tovlanishlarini ko'plab uchratishimiz mumkin. Xususan, modernizmda qalam tebratadigan shoir Tursun Ali she'rlari asosida badiiy san'atlarning jilolanishiga e'tibor qaratsak:

Sochlari hurpaygan yigitni ***Majnun****,*

Desalar, yuzimda ***lovullar uyat****.*

Goho ***shakl g'olib kelib*** *qolganda,*

Chekkaga chiqarmish sho'rlik mohiyat. (https://kh-davron.uz)

"Navoiy haykali poyida" deb nomlangan ushbu she'rda shoir talmeh va tashxis san'atlari vositasida haqqoniy poetik manzara yarata olgan.

G'ozalar kerakmas ***ko'ngil qoni****dan,*

Ul oshiq dillarni bo'ldik o'ldirib.

Lablari, yanog'i *alvon tusdagi*

Laylolar *yurishar ko'cha to'ldirib.* (https://kh-davron.uz)

Yuqoridagi bandda ham talmeh, ta'dil (otlarning uyushib kelishi) va tanosub san'atlarini ko'rishimiz mumkin.

Ishqning ul azaliy qoidalari

Allaqachon qayta ***tuzilib*** *bo'lgan.*

Sevgi *bilan* ***hayo*** *o'rtasidagi*

Iskandar devori buzilib *bo'lgan.* (https://kh-davron.uz)

Bu misralardagi ***tuzmoq*** va ***buzmoq*** so‘zlari o‘zaro tazodni yuzaga chiqargan. ***Iskandar devori*** esa bevosita talmehni hosil qilgan.

Endi muhabbatdan yig‘lagan inson,

Insonni yig‘latar muhabbat ham yo‘q.

Endi ishq ***javhari toshdek*** *beqadr,*

Haqiqat ravshandir misoli kunday.

Bugun ***Farhod*** *tog‘ni yo‘nib tursa ham,*

Suv emas, ma’danlar izlaydi undan. (https://kh-davron.uz)

Ushbu misralardan bugungi kunimiz nafasi ufurib turibdi. Shoir tazod, tashbeh va talmeh orqali ishqning shu darajada quyi pog‘onaga tushib qolganini anglatmoqchi bo‘ladi. Quyidagi satrlarda esa shoir tashbeh, istiora, tashxis va mubolag‘a san’atlarini mohirona qo‘llaydi:

Tasbeh donasiday *kunlarni sanab,*

Umrim aravasi *yelmoqda besar.*

Nidong *olislardan* ***bag‘rimni tirnab****,*

Butun vujudimni qaqshatar, ezar. (https://kh-davron.uz)

Tursun Ali ijodini kuzatar ekansiz, tun va qora so‘zlari ko‘p marotaba qo‘llanganining guvohi bo‘lasiz. Bunda yozuvchining maqsadi, badiiy niyati va mahorati aks etgan bo‘lsa, ajab emas:

Xuddi azador odamlar kabi

Daraxtlar kiygan qora to‘n.

Bir ***sharpaday*** *o‘taman tun qa’ridan...*

Uyg‘onib boqsam,

ketib borar ***qora rido kiygan tun.*** (https://kh-davron.uz)

Bu kabi ohori to‘kilmagan tashbehlar Tursun Ali ijodida ko‘p uchraydi. Shoir dunyoni qorong‘u dengizga, vaqtning o‘tishini sudralib yurayotgan ilonga, yurak urishini soatning chiq-chiqiga, inson vujudini tig‘layotgan sovuqni yorning qahriga, yorning ko‘zlarini yulduzga, sochlarini esa zulmatga mengzaydi.

Shamolning uyi*da qoldim bu kecha,*

Isinib uxladim *bag‘oyat.*

O‘g‘riday *to‘rt tarafga*

Boqdim tong chog‘i. (https://kh-davron.uz)

Bilamizki, shamol sovuqdan darak beradi, ammo shamolning uyida qolgan lirik qahramon sovuqqotish o‘rniga isinib uxlaydi. Bu o‘z-o‘zidan oksimoron (bir-birini rad etuvchi tushunchalar) san’atini keltirib chiqarmoqda.

Taqillatib ***umid eshigin***

ko‘ngling ostonasi*da*

javdirab turdim

sabrim libosi yirtilib

qaytdim ***ko‘rqushdek****.* (https://kh-davron.uz)

Tursun Alining she’rlarida ko‘zning qudug‘i, osmonning ko‘zgusi, orzular oti, sukunatning ko‘li, to‘shagi, bulutlarning ko‘rpasi bor. Sukunatning rangi oppoq, ufq esa qontalash.

Tun... Uyg‘otib yuborar meni

Derazam ortidan o‘tib borayotgan

Oyning oyoq tovushlari. *(Tursun Ali, 1999, 10-bet)*

Bu original tashbeh she’rxon ko‘z o‘ngida yurib ketayotgan inson qiyofasini gavdalantiradi. Professor Qozoqboy Yo‘ldoshev: “Shoirning san’atkorligi shundaki, u hodisalarning boshqalar ham ko‘rib turgan, ammo payqamagan jihatlarini o‘ziga xos tarzda aks ettira oladi. Buni u, ehtimol, atay qilmas. Lekin shoirning iste’dodi undagi nigohning o‘tkirligi, tuyg‘uning nozikligi, hissiyotning teranligidan iborat” (Yo‘ldoshev, 2006, 255-bet), — deb naqadar to‘g‘ri aytgan edi. Tashxis yordamida oyni bu qadar jonli tasvirlash ham shoirning o‘ziga xos iste’dodi va kashfiyotidir. “Kun bilan vidolashuv” she’rida ham tashxis va nido san’ati yaqqol ko‘zga tashlanadi:

Derazamning ko‘zlarin *ochdim,*

Iymanib kirdi shabboda*.*

Yolg‘iz emasman, ***sevgilim****, endi.* (https://kh-davron.uz)

Quyidagi she’rlarda esa tazodning betakror namunalariga duch kelamiz:

Mening ***yaralangan armoni****mga zid...*

***Ko‘ksim osmoni**da **tug‘ilgan umid**.*

*Mehr so‘raganlar juda **ko‘p**, biroq*

*Mehr **noyob** bo‘lib qoldi, Hazratim.*

***Yorqin** tuslardadir liboslar garchi,*

*Yuraklar **qashshog‘**-u, tuyg‘ular **g‘arib**.* (https://kh-davron.uz)

Keyingi misralarda tamanni’ (orzu qilish) va istiora san’atidan istifoda etgan holda shoir yorning ko‘zlarini dengizga qiyoslab, ana shu dengizga abadiy g‘arq bo‘lishni xohlaydi:

*Ne tong shu **dengiz** — **ko‘zlaringga***

Abadiy cho‘kib ketolsam, koshki...

***Sen yo‘qsan, sen yo‘qsan** yonimda,*

xavotirning uyida

***tunlarim oqarar, kunlarim qorayar.** (Tursun Ali, 1999, 24-bet)*

Ushbu satrlardagi tazod va takrir san’ati shoirning tuyg‘ularini yanada aniqlashtirib ifodalashga xizmat qilgan.

*Hey, **musavvira**,*

Mening suvratimni matoga emas,

Yuraging kengligi, ko‘zlaring maydoniga

chizsang bas. (Tursun Ali, 1999, 23-bet)

Yuqoridagi bandda musavviraga murojaat qilish nido san’atini yuzaga chiqargan.

YOLG‘IZIM,

*Izlaringdan **shamol** bo‘lib borsam,*

***Shamol** bo‘lib silasam sochlaring,*

*Yetishsam vaslingga **shamol** bo‘lib agar,*

*Bir umr **shamol** bo‘lib qolay, mayliga. (Tursun Ali, 1999, 21-bet)*

Bu she’rda takrir san’ati orqali shoir o‘zining orzularini ifoda etadi. U yorning sochlarini silovchi, uning vaslidan hamisha bahramand bo‘luvchi shamolga havas qiladi, hattoki shamolga aylanib qolgisi keladi. Misralardagi takror o‘quvchining

g‘ashiga tegmaydi, aksincha, kuchli xohish-istakni, ta’kidni, oshiqning ichki sezimlarini yanada chuqurroq his qilish imkonini beradi.

Havo tund. Mung‘aygan ruhim singari,

Osmon yuzlarida tiyra bulutlar.

Yozilmaydi mening ko‘nglim g‘ubori,

Ana, ***osmon bag‘rin bo‘shatib yig‘lar.*** *(Tursun Ali, 1999, 13-bet)*

Bu misralarda esa yuragini g‘am-qayg‘u buluti egallagan, dard-u hasratini qanday aritishni bilmayotgan lirik qahramon timsoli ishonarli tarzda tasvirlangan. Tashxis san’ati yordamida shoir go‘zal o‘xshatish yarata olgan. Ya’ni yomg‘ir yog‘ishini bag‘ridagi alamlarni, ko‘nglidagi g‘uborlarni chiqarib yuborish uchun ko‘z yoshi to‘kayotgan osmonga qiyoslagan.

“Ayolga dil so‘zi” deb nomlangan she’rida shoir tushunchalarni mahorat bilan qarshilantirish orqali, shoirona so‘zlar, go‘zal tashbehlar bilan umrning o‘tishini aniq tasvirlab beradi:

Dunyo charxi

aylanar betin,

kunlar *botar,*

oq kiyadi ***tun****.*

O‘tayotgan umr

asov*,* ***sokin****,*

to‘lin oyday

to‘libsiz bu kun.

Tegrangizda

o‘, gul g‘unchalar

poyingizni

o‘parlar bir-bir.

Hayot ***achchiq****,*

shirin *shunchalar,*

shoshib o‘tar

daryoday *umr.(5-bet*

Tursun Ali o‘z she’rlarida mumtoz badiiy san’atlardan o‘rni bilan foydalana olgan. She’rlarida qo‘llangan badiiy san’atlar ijodkorning ichki tuyg‘ularini, tug‘yonlarini yanada to‘liqroq anglashimizga keng yo‘l ochadi. Tursun Ali ijodidagi badiiy so‘z qudratini, she’rlar bag‘riga jo bo‘lgan mazmunni teranroq tushunishimizda badiiy san’atlar bizga ko‘maklashadi. Modernistik ruhdagi she’rlarda ham bu kabi san’atlar keng qo‘llanilishiga Tursun Ali ijodi misolida yana bir bor guvoh bo‘ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Hojiahmedov, A. (1990). Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Sharq.

2.Is’hoqov, Y. (2006). So‘z san’ati so‘zligi. Toshkent: Zarqalam.

3. Tursun Ali. (1999). Uyg‘oq sukunat. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

4. Tursun Ali. (2014). Qush pati. Toshkent: Yangi asr avlodi.

5. Tursun Ali. (2018). Turnalar yo‘li. Toshkent.

6. Yo‘ldoshev, Q. (2006). Yoniq so‘z. Toshkent: Yangi asr avlodi.

ANVAR OBIDJON SHE’RIYATINING O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Yusupova Ferangiz Shahriyorovna

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 1-kurs

yusupovaferangiz2@gmail.com

Abstract. *In this article we will briefly inform about unique smiles and educational spirit lines in the poems of Anvar Obidjon,one of the great representatives of uzbek children’s poetry and the author of heart-pleasing poems.We will also try to give examples of poetic verses that attract the attention of children and increase their thinking ability.*

Keywords*: Bolalar she’riyati, xo‘rozqand, “ma’lumot ombori”, vahma, pandnoma.*

Yoshidan qat’i nazar har bir kitobxon o‘zbek adabiyotidagi sara durdonalardan bahramand bo‘la oladi.Bir satrli maqoldan totib bir necha yuz betli romanlarning har biri ezgulikni,yaxshilikni tarannum etadi.Ayniqsa,bolalar

adabiyoti ham turfa xil ajoyib o‘xshatishlar,qiziqarli voqealar qalamga olingan she’r-u hikoya hamda ertaklarga boydir.

Hamma esnab turdi ,quloq solmadi

Qayg‘umni gapirib bergan vaqtimda.

Meni alqamagan kishi qolmadi

Qayg‘umni nazmga tergan vaqtimda,-

deb yozgan edi Henrix Heyne (Izzat Sulton, 2005, 201-bet).O‘zbek xalqi farzandlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratar ekan yoshligidanoq bolalariga she’r yodlatish borasida mahkam turadi.Chunki she’r go‘dakning saviyasini o‘stiradi,xotirasini mustahkam qiladi.

Shu sababli ham bolalar adabiyotiga,bolalar she’riyatiga alohida e’tibor qaratmoq lozim.Ustoz Said Ahmad “Bolalar uchun yozayotgan yozuvchi to o‘sha asar tugamagunicha bola bo‘lib turmasa,bu kitobni hech kim o‘qimaydi.Bir o‘qiydi-yu tashlab yuboradi”,- degan edilar. (“XXI asrda bolalar kitobxonligi:muammo va vazifalar” mavzusidagi Respublika konferensiya maqolalar to‘plami, 2019, 15-bet). Oramizda esa mana shunday she’rlar yozgan adiblar bisyor.Shulardan biri Anvar Obidjondir.Shoirning shunday misralari borki,ulardan tuganmas jilvalarni ilg‘aysan kishi.Muhimi,ular samimiy,mavzusi turfa, bolalarga atalgani bois sof hamda beg‘ubor.Uning bir she’ridagi tasvirga e’tibor beraylik.

O‘tin tashlab quyoshga,o‘tni baland yoqdi yoz

Gurzailon qishdagi po‘stinidan kechdi yoz (Anvar Obidjon,2019,60-bet).

Shoir ushbu misralarda kichkintoylarning ko‘z oldiga jazirama issiqning qanday paydo bo‘lishini jonlantirib ko‘rsatayotganday go‘yo.Uning fikricha,bu issiq yozning gurullatib yoqqan olovidan paydo bo‘lmoqda.So‘ng esa issiq taftidan yoz ham o‘z po‘stinini yechmoqda.Ushbu o‘rindagi ajoyib o‘xshatish bolakaylarning qalbida tabiatga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otadi.Qolaversa,mana shunday obrazli fikrlashni farzandlarimizga o‘rgatadi.Bundan tashqari adib she’rlarida bolalarning kundalik tartibiga xos ashyolardan ham mohirona

foydalaniladi.Bu esa she’r o‘qiyotgan kichkintoylarni zeriktirib qo‘ymaydi.Ularni ishontira oladi.

Yangi gaplar sotaman,

Bolajonlar,kep qoling,

Qoldi juda kam.

Surishtirmang narxini

Arzondan-arzon.

Xo‘rozqandga-rost xabar,

Bodroqqa-yolg‘on(Anvar Obidjon,2019,20-bet).

Shoir bodroq hamda xo‘rozqand singari so‘zlar vositasida o‘quvchini o‘z she’riga rom qilib qo‘yadi.Ayni bir paytda,fikrimizcha,bolalarning zehnini ham o‘tkirlamoqchiday bo‘ladi.Chunki Anvar Obidjon rost gapni xo‘rozqandga,yolg‘onini esa bodroqqa “pullamoqchi”. Bolakay bu misralarni o‘qib bevosita narsalarning qimmatini,qadrini hamda sifatini qanday o‘lchash kerakligini ham o‘rganib oladi.

Dangal boqib doimo

O‘zgalarning ko‘ziga

Afti qanday ekanin

Aytish kerak yuziga. (Anvar Obidjon,2019,10-bet).

“Ko‘zguning oynakka yozgan xati” she’ridan olingan bu to‘rtlik orqali shoirning ijodida tarbiyaga ham alohida e’tibor qaratilganini ko‘ramiz.Bu tarbiya kattalarga qilinadigan murakkab nasihatlar-u pandnomalar xilidan emas.Aksincha,oddiy ashyolar yordamida haqiqiy do‘st qanday bo‘lmog‘i lozimligini ta’kidlab qo‘yuvchi satrlardir.Eng yoqimli tomoni esa bu gapni odam odamga emas,balki ko‘zgu oynaga aytadi.O‘ylashimcha,insondek gapirgan jonsiz buyumlar,hayvonlar ham bolalarning e’tiborini tortadi.

Qolaversa,shoir ba’zi bir kichik faktlardan ham o‘z o‘rnida foydalana oladiki,bolalar kichikligidanoq dunyo sirlaridan xabardor bo‘lib ulg‘ayadi.

Qochib kelar qari Fil,

Hayajonda boshqalar.

Qichqirdi u hansirab:

-Qutqaringlar,oshnalar!

Meni yovuz bir Sichqon

Quvlab kelar uzoqdan.

G‘ajib tashlar miyamni

Kirib qolsa quloqdan. (Anvar Obidjon,2019,84-bet).

Ziyrak bolalar bu mo‘jaz she’rdan filning sichqondan qo‘rqishi to‘g‘risidagi haqiqatni darrov payqaydilar.Shu bilan birga miyalaridagi “ma’lumot ombori”ni ham boyitadilar.

Bolalarga atab asar bitish oson emas.Ayniqsa,yoshing ulg‘aygan sayin bu beg‘uborlikdan uzoqlashganday bo‘lasan kishi.Biroq Anvar Obidjon o‘zi uchun kichik qoidalarni tuzib chiqqan edi.”Bolaga atab yozilayotgan asarni ovqat deb faraz qilsak,o‘ta issiq bo’lsa,og‘izni kuydiradi; o‘ta sovuq bo‘lsa,ichakni shamollatadi.Ammo ikkovidan ham xavflirog‘i- butkul bemazasi,bitta tuzi past asar bolani kitobdan umrbod bezitib tashlashi hech gapmas.Bolalarga bag‘ishlab yozishda kichkintoylar tushunchasidan,ularning o‘ziga xos atvoridan,odmigina fikrlashidan,shiringina,soddagina gaplashuvlari doirasidan ortiqcha uzoqlashib ketmaslikka rioya qilish talab etiladi.Eng qiyini mana shuni uddalashdir.Bolalarning tabiatiga yot kitob bolalarga qo‘shilib “o‘ynolmaydi”,-deb yozgan edi shoir. Shoir har bir ijod namunasini yaratar ekan,o‘z maslagida doimo sobit turdi.Yon-atrofga bolalarcha nigoh,qalb ila boqdi.

To‘p otasan “qarsa-qurs!”

Sendan zo‘rroq vahma yo‘q. (Anvar Obidjon,2019,14-bet).

Chaqmoqqa qilinayotgan ushbu murojaat ham o‘ziga xos xarakterga ega.Uning ovozi to‘pning qarsillashiga o‘xshatilmoqda.Eng qizig‘i unga “vahma” degan ta’rif berilmoqda.Jonli tasvirlar esa bir maromda oqib,albatta,kitobxonni hayratga soladi.

Adib ijodida yana bir o‘rin borki,ijodkor dunyoqarashiga qoyil qolasan kishi.A.Obidjon “Bahonachilar kasalxonasi” she’rida g‘ozlardan hamshiralar sifatida foydalanadi.Aslida bu ham hayot haqiqatlari bilan bog‘langan bir

o‘rindir.Ya’ni hamshiralarning oppoq xalatli bo‘lganliklari bois ham shoir bu kasbni g‘ozlarning “bo‘yniga yuklamoqda”.Shu kabi zalvarli tasvirlarni she’riyatda keng qo‘llash mumkin,albatta.Zeroki, “So‘zning qudrati she’riyatdan boshqa hech qayerda yaxshiroq ko‘rinmaydi”,- degan edi Eleanor MacDonald (https://www.librarystudentjournal.org/index-php/lsj/article/viewArticle/22/11/).

Ochig‘i, zamon rivojlanib bormoqda.Shu sababli ham bolalar adabiyotiga ham olib kiriladigan yangiliklar,qilinishi kerak bo‘lgan o‘zgarishlar ham talaygina. Buning uchun esa izlanishlarni yanada kuchaytirmoq lozim.Ayniqsa, ijodini nafaqat bolalar, balki kattalar ham birdek sevib mutolaa qiladigan A.Obidjon she’riyatiga alohida e’tibor qaratmoq,yanada chuqurroq o‘rganmoq lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Izzat Sulton(2005).Adabiyot nazariyasi.“O‘qituvchi”nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

2.“XXI asrda bolalar kitobxonligi: muammo va vazifalar”mavzusidagi respublika konferensiyasi maqolalar to‘plami.(2019) Toshkent.

3.https://www.librarystudentjournal.org/index-php/lsj/article/viewArticle/22/11/

4.Anvar Obidjon(2019).G‘alati maktublar.“Yangi asr avlodi”.

VI BOB

FOLKLORSHUNOSLIK

O‘ZBEK FOLKLORIDA SAMOVIY AFSONALAR MAMATQUL JO‘RAYEV TADQIQOTLARI MISOLIDA

Anorboyeva Maftuna Abilqosim qizi
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va
dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti
anorboyevamaftuna@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yirik folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayevning samoviy afsonalar tadqiqiga asoslangan “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” asari haqida ma’lumotlar beriladi. Ushbu tadqiqotning o‘zbek folklorida tutgan o‘rni, afsonalarning tasnif qilinishi, olamning ibtidosi va intihosi, yulduzlar, oy va quyosh tutilishi haqidagi afsonalar tadqiqi bilan tanishamiz. Dunyo xalqlari afsonalari bilan mushtarak jihatlarining qiyosiy tahliliga guvoh bo‘lamiz.*

Kalit so‘zlar: *Samoviy afsona, Ho‘jimado‘liq, oy va quyosh tutilishi, Yetti qaroqchi, yulduz uchishi, chaqmoq, samo yoritqichlari.*

Abstract. *This article provides information about the work "Celestial Legends of the Uzbek People" based on the research of celestial legends by the great folklorist Mamatkul Jorayev. We will get acquainted with the role of this study in Uzbek folklore, the classification of myths, the beginning and end of the world, the study of legends about the stars, the moon and the eclipse of the sun. We will witness a comparative analysis of the common aspects of the legends of the peoples of the world.*

Keywords: *Celestial legend, Hojidomoliq, lunar and solar eclipses, Seven pirates, shooting stars, lightning, sky lights.*

Insoniyat yaralganidan boshlab dunyoni anglashga harakat qilgan. Uni o‘rab turgan atrof-muhitda bo‘layotgan hodisalarni kuzatgan va tahlil qilgan. Koinotning paydo bo‘lishi, quyosh va oy, samo jismlarining harakatini izohlovchi mifologik afsonalar yaratishgan. Samoviy afsonalar deyarli dunyoning barcha xalqlarida mavjud bo‘lib, afsonalar to‘plangan va tadqiqotlar olib borilgan.O‘zbek folklorida ham afsonalar to‘plangan va ma’lum darajada tadqiq etilgan. Samoviy afsonalar mavzusida ilk ilmiy tadqiqotni folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev olib borgan.

“Dunyoning barcha xalqlarida bo‘lgani kabi o‘zbek folklorida ham koinotning paydo bo‘lishi, osmon yoritqichlarining joylashuv tartibi, quyosh va oy, kun va tun almashinuvini izohlovchi mifologik afsonalar ancha-muncha yig‘ilgan, ma’lum darajada tadqiq etilgan. Lekin, bu xil afsonalarni to‘liq monografik tarzda o‘rganish shu paytgacha amalga oshmagan edi. M.Jo‘rayevning “O‘zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari” mavzusidagi doktorlik ishi folklorimizdagi ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi.” (O‘zbek folklorshunosligi masalalari VI, 2017, 5-bet) Olimning ushbu tadqiqot asosida “O‘zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar” (1994), “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” (1995) kitoblari chop etilgan.

Mamatqul Jo‘rayev ham “O‘zbek xalq samoviy afsonalar” risolasi muqaddimasida o‘zbek folklorida samoviy afsonalar mavzusida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmaganligini qayd etgan. “O‘zbek folklorshunosligida samoviy afsonalar va osmon jismlari bilan bog‘liq mifologik tasavvurlar alohida tadqiq etilganicha yo‘q. Xalq nasri janrlarini maxsus o‘rgangan K.Imomov tadqiqotlarida “oy kulti bilan bog‘liq samoviy mif asosida yuzaga kelgan “shirin qiz” afsonasi tahlil qilingan. Afsona va din masalasini o‘rgangan olim U.Jumanazarov esa “samoviy jismlar va tabiat hodisalari nomlari bilan bog‘liq kultlar” haqidagi xalq hikoyalarini “diniy afsona” sifatida tadqiq etgan.” (Jo‘rayev, 1995, 9-bet)

O‘zbek samoviy afsonalarini tasnif qilishda Mamatqul Jo‘rayev o‘zigacha yozib olingan, olimning o‘zi to‘plagan va turli folklor arxivlarida saqlanayotgan manbalar asosida quyidagicha tasniflaydi:

1. Olamning yaratilishi haqidagi afsonalar.
2. Osmon yoritqichlari haqidagi afsonalar:

a) oy bilan quyosh haqidagi afsonalar;

b) yulduzlar to‘g‘risidagi afsonalar.

3. Tabiat hodisalari bilan bog‘liq xalq qarashlari asosida kelib chiqqan samoviy afsonalar.

4. An’anaviy vaqt hisobi bilan bog‘liq taqvimiy afsonalar.

Olamning yaratilishi haqidagi afsonalari haqida izlanishlar olib borar ekan, olamning yaratilishi haqidagi afsonalarning aksariyatida olamning ibtidosi, hamda

uning intihosi to‘g‘risidagi mifologik qarashlar aks etganligini ta’kidlaydi. O‘zbek xalqi afsonalarida va boshqa turkiy xalqlar afsonalarida ham olam dastlab suvdan iborat bo‘lganligi haqidagi afsonalar mavjudligini aniqlagan. Olim fikrining isboti sifatida bir nechta afsonalarni keltirib o‘tgan. Xususan, Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanidagi Qo‘shtamg‘ali qishlog‘ida yashovchi Melixol Boliqulivadan 1991-yilda yozib olingan afsonada dastlab bu olamda yolg‘iz Alloh bo‘lgani, so‘ngra Allohning gavhar yaratib, shu gavharga nazari tushgach, erib suvga aylanibdi. Allohning hafsalasi pir bo‘lib, qo‘lini siltashidan shamol, suvning to‘lqinlanib ko‘pirganidan hosil bo‘lgan ko‘pikdan yerni, ko‘pik quyuqlashganganda hosil bo‘lgan tumandan osmon yaratilgan. Allohning irodasi bilan, yer osmondan ajratilgan. Yer bilan suv aralashib ketmasligi uchun tog‘larni har yerga qoziq qilib qoqib qo‘yibdi deb bayon qilingan. Afsonadan bilishimiz mumkinki, insonlar olamning yaratilishi haqidagi tasavvurlarini izohlashgan. Olim ushbu tadqiqot ishida faqat o‘zbek folklori namunalari bilan cheklanib qolmasdan, dunyo xalqlari folkloridagi mushtarak jihatlar va boshqa olimlarning tadqiqotlari bilan qiyosiy o‘rgangan. Jumladan, olamning dastlab suvdan iborat bo‘lganligi haqidagi qarashlar folklorshunos olim S.A.Qasqabasov, M.I.Shaxnovich tadqiqotlarida ham uchratish mumkin. Shu bilan bir qatorda yerni turli jonzotlar: toshbaqa, ho‘kiz, nahang baliq ushlab turishi haqidagi afsonalar mavjudligi haqida ma’lumotlar berib o‘tgan. Afsonalarda yer qimirlashi shu jonzotlar harakatlanishi bilan izohlangan. Olimning fikricha, olamning ibtidosi to‘g‘risidagi o‘zbek xalq samoviy afsonalarining tarixiy asoslari ajdodlarimizning samoviy qarashlariga bog‘lanadi. Olimning “Qadimgi odamning yer, osmon, samo yoritqichlaridan iborat moddiy olamning qanday paydo bo‘lganligi xususidagi ibtidoiy tasavvurlari asta-sekin mifologik qarashlarga aylanib, badiiy tafakkur talqinlarining rivojlanishi o‘ziga xos poetik matnlar silsilasi-samoviy afsonlarning shakllanishiga asos bo’lgan. Samoviy mifologiya-o‘zbek xalq samoviy afsonlarning vujudga kelishi uchun badiiy zamin vazifasini o‘tagan” degan xulosalariga qo‘shilamiz.

Yer va osmonning ajratilishi, yulduzlarning paydo bo‘lishi haqidagi afsonalarda Ho‘jimado‘liq, Ulgan, Olansag‘ar kabi samoga qo‘li yetuvchi daroz

obrazlar keltirilgan. Afsonada Ho‘jimado‘liq osmonni teshishi, Temir qoziq, Oqbo‘zot va Ko‘kbo‘zot nomli yulduzlari paydo bo‘lishi bayon etilgan. Ho‘jimado‘liq Amudaryo bo‘yida baliq tutayotgan chog‘ida, suvdan chiqib kelayotgan ikki bo‘z otni ko‘rib qoladi va ularni tutib oladi. Bo‘z otlarni qochib ketmasligi uchun samoga Temir qoziqni qoqadi va bo‘z otlarni shu qoziqqa bog‘lab qo‘yadi.

Yulduzlar haqidagi afsonlarini tahlil qilar ekan, Yetti qaroqchi harakatini izohlovchi o‘zbek xalq samoviy afsonalari esxatologik motivga asoslanadi degan xulosaga keladi. Fikrining isboti sifatida o‘zbek folklorining asoschisi Hodi Zarifov tomonidan yozib olingan afsonani keltiradi. Afsonada Oqbo‘zot va Ko‘kbo‘zot nomli yulduzlar Temir qoziqqa bog‘lab qo‘yilgani, Yetti qaroqchi esa bu otlarni tutish maqsadida tuni bilan atrofida aylanishi, ammo tong otishi tufayli o‘g‘irlashga ulgurmaydi. Yetti qaroqchi otlarni tutib olgan kuni qiyomat qoyim bo‘lib, osmon o‘pirilib tushar emish. Olim shunga o‘xshash qozoq ovullaridan biridan X.Abishev tomonidan yozib olingan afsonani keltiradi. Bu ma’lumotlar boshqa xalqlar afsonalari va tadqiqotlari haqida ko‘proq bilimga ega bo‘lishimizga yordam beradi.

Oy va quyosh tutilishi haqidagi o‘zbek xalq samoviy afsonalarni o‘rgangan olim Mamatqul Jo‘rayev bu mavzuga oid afsonalarning ayrimlarida oy bilan quyosh tutilishiga yovuz ruhlar xuruji sabab qilib ko‘rsatilishini ta’kidlagan. Oy va quyosh tutilishi haqidagi afsonalarni o‘zbek mifologiyasida oy va quyoshni samoviy devlar ta’qib qilishi syujetini hind asotirlaridagi Raxu obrazi bilan qiyoslab tahlil qilgan.

Mamatqul Jo‘rayevning “O‘zbek xalq samoviy afsonalari” tadqiqot ishiga turkiy xalqlar olimlari, o‘zbek olimlari tomonidan yuksak baholar berilgan. “Turkmaniston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Maxtumquli nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor bo‘limining mudiri, filologiya fanlari doktori, professor Babish Mamedyazov (1966-yil 28-avgust, Ashxobod shahri) ushbu tadqiqot avtoreferati bilan tanishar ekan, “Afsona janri to‘la o‘rganildi” degan xulosaga keladi.” (O‘rayeva, 2017, 44-bet)

Folklorshunos olim Mamatqul Jo‘rayev o‘zbek xalq samoviy afsonalari tadqiqotida afsonalarni mavzu qamroviga ko‘ra tasnif qilgan. Har tipga xos syujet silsilasini aniqlagan. O‘zbek xalq samoviy afsonalarining syujetini tashkil etuvchi asosiy motivlar turkiy-mo‘g‘ul, hind xalqlari folkloridagi mushtarak materiallar bilan qiyosiy o‘rganilganligi tadqiqotning qiymatini yanada oshirgan. Quyosh va oy tutilishi, momoqaldiroq va chaqmoq, quyun, yulduz uchishi kabi tabiat hodisalari bilan bog‘liq xalq qarashlari tahlil etilgan.

Olansag‘ar (Ho‘jimado‘liq, Hoji Mulk, Ulgan) obrazi tizimi, xalq hisobi, “chilla”, “to‘qson”, “ayamajuz” kabi mavsum bilan bog‘liq qadimiy qarashlar, ularning muddati, o‘tish davriga oid xalqona bilimlar har tomonlama o‘rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Жўраев, М. (1995), Ўзбек халқ самовий афсоналари, (9). Тошкент: Фан.

8. Мирзаев, Т, Турдимов Ш. (2017.) Ўзбэк фолклоршунослиги масалалари (5). VI-китоб, Тошкент.

9. Ўраева, М. (2017), Семурғ қўнар давлатманднинг бошига (44). Тошкент: Турон замин зиё.

O‘ZBEK FOLKLORIDA HAYVONLAR BILAN BOG‘LIQ MIFOLOGIK OBRAZLAR

Eshonqulova Mohinur Otayor qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti
4-kurs Mohinureshonqulova1@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada folklorshunoslikda keng uchraydigan mifologik obrazlar, xususan, hayvonlar bilan aloqador jihatlarni yoritib berishga harakat qilingan. Buning uchun bo‘ri va ot obrazi tanlandi. Yoritish jarayonida bu kultlarning tarixiy va ilmiy asosini topishga harakat qilindi va bu borada xalqimiz orasida hali ham mavjud bo‘lgan ba’zi urf-odatlar, dostonlarimizda uchraydigan unsurlar, xalq qo‘shiqlari va bir nechta ilmiy adabiyotlarga tayanildi.*

Kalit so‘zlar: *Mif, mifologik obrazlar, totem, mifozoonimlar, Usun qabilasi, yakka mix tushunchasi, chipor otlar.*

Abstract. *In this article, an attempt was made to explain the mythological images that are common in folklore, in particular, the aspects related to animals.*

For this, the wolf and the horse was chosen. In the course of the investigation, we tried to find historicaland scientific basis of these cults and in this regard, we relied on some traditions that still exist among our people, elements found in our epics, folk songs and several scientific literature.

Keywords: *Myth, mythological images, totem, mythzoonyms, Usun tribe, single nail concept, piebald horses.*

Ma’lumki, mif qadimgi odamning borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma’budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e’tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Hali o‘zini tabiatdan ajratib olmagan qadimgi odam o‘z atrofidagi moddiy mavjudlikning paydo bo‘lish sabablarini mifologik tasavvurlar vositasida izohlashga, tushuntirishga harakat qilgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izohlasa-da, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan.

Mifologik tasavvurlar xalq udumlarida e’tiqodiy inonch tarzida, qadimgi san’at asarlaridagi ramziy chizgilarda ifodalangan tasviriy ko‘rinishdan tashqari og‘zaki hikoya, afsona yoki rivoyatga o‘xshab jonli ijro orqali aytib ham berilgan. Zero, professor B.Sarimsoqov to‘g‘ri qayd qilganidek, variantlilik, og‘zakilik, anonimlik kabi folklor asarlariga xos xususiyatlar mifda ham mavjud bo‘ladi (Sarimsoqov, 1981, 103-bet).

Folklorshunoslik fani tilshunoslik, jumladan, onomastika yo‘nalishi bilan bog‘liq bo‘lib, unda qadimgi insonlarning ibtidoiy, mifologik tasavvur-tushunchalari, e’tiqodiy qarashlari asosida paydo bo‘lgan mifik obrazlarning nomlari, mifik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar “**mifonim”,** tangri va ma’budlar nomi **“teonimlar”** (Mira, Hurmuz kabi) demonologik personajlar

“demononimlar” (shayton, pari, dev, jin kabi), afsonaviy qahramonlar **“mifoantroponimlar”** (Xizr, Jamshid (Yima), Kayumars, Odami Od kabi), mifga aloqador so‘z asosida kelib chiqqan afsonaviy joy nomlari “**mifotoponimlar”** (Ko‘hi Qof, Bog‘i Eram singari), hayvon ko‘rinishidagi mifologik jonzotlar **“mifozoonimlar” (ajdar kabi),** qush ko‘rinishidagi mifologik jonzotlar **“mifoornitonimlar”** (Semurg‘, Humo, Anqo, Jestirnoq, Samandar kabi), afsonaviy o‘simliklar nomlari **“mifofitonimlar”** (mehrigiyo kabi) va hokazo terminlar ostida birlashtiriladi. Turkiy xalqlar mifologiyasining eng qadimiy qatlamiga mansub tasavvurlar tizimidan biri totemizm bo‘lib, bu inonchlar odamlarning turli-tuman jonivorlar, o‘simliklar yoki narsa-hodisalar bilan qon-qarindoshligiga ishonish an’anasi asosida yuzaga kelgan. Bu mifik e’tiqodga ko‘ra, “ba’zi o‘simlik (daraxt) va hayvonlar odamlarning qo‘riqlovchisi va tangrilari hisoblangan. Muayyan qavm a’zolari aniq bir hayvon yoki o‘simlik zotidan tarqalgan degan tasavvur shakllangan. Shu boisdan ham totem ular uchun ilohiy (muqaddas) hisoblangan” (Ashirov, 2007, 12-bet).

Qadimgi turkiy xalqlarda har bir urug‘ tomonidan muqaddaslashtirilgan hayvon bo‘lgan. Topinilgan jonzot go‘shti eyilmagan, unga o‘q otilmagan va tabiiyki, aslo ranjitilmagan. Totem tasviri turar joylar, ashyolar va mozorlarga qo‘yiladi. Odamlar badanlariga ham totemlar tasvirini solganlar. Bora-bora totem hisoblangan hayvon yaratuvchi va asrovchi ekanligi haqidagi diniy e’tiqodlar zaiflashgan va uning o‘rnini milliy tushunchalar egallagan. Shundan keyin u hayvonning butun tanasi yoxud biror a’zosi yalov va tamg‘alarda etnomilliy ramz, tarixiy bir yodgorlik sifatida o‘rin olgan.

Turkiy xalqlar, jumladan, qadimgi ajdodlarimiz bo‘rini o‘z totemi hisoblaydi. Bundan tashqari, ot, ho‘kiz, ilon, tuya, it kabi hayvonlarga, ayrim qushlarga va daraxtlarga e’tiqod qo‘yganlar.

Bo‘ri kulti. Ma’lumki, dunyo xalqlari, jumladan, turkiy xalqlar va ularning bir qismi bo‘lgan o‘zbek xalqi orasida bo‘ri totemi va bo‘ri kultiga ishonch keng ommalashgan. Bo‘rining muqaddaslashtirilishi tarixi, bu jonivor haqidagi xalq ishonchlari, bo‘rining marosim va irimlardagi ifodasi kabi masalalar ham yoritib

berilgan. Bo‘ri obrazi O‘rta Osiyo xalqlari mifologiyasining an’anaviy personajlaridan biri sifatida o‘z genezisiga ega (Jo‘rayev, 1999, 8-17-bet). G‘.Akramov o‘zbek folklorida bo‘ri obrazining mifologik mohiyatini oydinlashtiruvchi qiziqarli fikrlarni bildirgan (Akramov, 1978, 32-35-bet). O‘zbek xalq lirikasining tarixiy asoslarini o‘rgangan A.Musaqulov bo‘ri bilan bog‘liq ramzlarning xalq qo‘shiqlaridagi talqinlari bevosita bo‘ri totemi to‘g‘risidagi qadimgi mifologik qarashlarga bog‘liqligini asoslagan. (Musaqulov, 2010, 308-bet). Udumshunos A.Ashirov o‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari xususida to‘xtalar ekan, bo‘ri kultiga ishonch bilan aloqador udumlarga ham alohida e’tibor berib o‘tgan (Ashirov, 2007, 199-205-bet).

O‘zbeklarning bo‘ri bilan aloqador mifologik qarashlari qadimgi turkiy qavmlar totemistik tasavvurlarining evolyutsion hosilasi ekanligi ayonlashadi. Xalqimizning bo‘ri totemiga ishonchi izlari hozirgacha ayrim an’anaviy urf-odatlarimiz misolida sezilib turadi. Masalan, hozirgacha tishi bilan tug‘ilgan chaqaloqlarga bo‘ri nomi bilan bog`lab qiz bolaga “Bo‘rigul”, o‘g‘il bolaga “Bo‘rivoy” ismini qo‘yish odati saqlanib kelayotir. Bunday bolalar, odatda, rizqli bo‘ladi, deya yaxshi irim qilinadi. Bo‘ri ismi insonga baxt-omad, obro‘-e’tibor keltiradi deb qaralgan. Shuning uchun yangi tug`ilganchaqaloqqa bo‘ri nomi bilan bog‘lab “Boybo‘ri”, “Bo‘rixol” singari ismlarini qo‘yish odati keng tarqalgan.

Bo‘ri – ajdod haqidagi totemistik mifning eng ko‘hna variantlaridan biri “usun” deb atalgan qadimgi turkiy urug‘ folklorida qayd qilingan. Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimida yashagan usun qabilasida milodning ilk asrlarida bo‘ri sutini emib ulg`aygan bola haqidagi totemistik afsona aytiladi. Bu afsonada hikoya qilinishicha, yangi tug‘ilgan chaqaloqni ko‘tarib yurgan bir kishi bolasini maysa ustida qoldirib, o‘zi biror egulik topish umidida daraxtzorga kirib ketadi. Qaytib kelib qarasa, bir ona bo‘ri haligi chaqaloqni emizayotgan emish. Usunlar ana shu bo‘ri sutini emib ulg‘aygan bolaning avlodlari deyiladi.

Bo‘ri – ajdod haqidagi qadimiy totemistik mif syujetining ayrim motivlari, shuningdek, bo‘ri kultiga sig‘inish bilan aloqador udumlar, ya’ni totemistik

mifning e’tiqodiy inonch shakliga aylangan ko‘rinishlari asosida keyinchalik mustaqil syujetli afsona va rivoyatlar yuzaga kelgan. Bo‘rining tana a’zolaridan magik ashyo sifatida foydalanish va tushda bo‘ri ko‘rsa, yaxshilikka yo‘yish an’anasining kelib chiqishi haqidagi og‘zaki hikoyalar ham shular jumlasidandir. Bo‘ri totemi bilan bog`liq qadimiy xalq qarashlari ko‘hna miflar tarzida hikoya qilinibgina qolmasdan, uning mohiyati turli ritual xatti-harakat va magik amallar vositasida namoyish etilgan, ya’ni ibtidoiy marosimlarning tarkibiy qismi sanalgan totemistik raqslar orqali hamifoda qilingan.

Bo‘ri-ajdodni xotirlash, ov baroridan kelishi uchun bu homiydan madadtilash, uning haqiga qurbonlik qilish kabi marosimlarda totem-homiy tasviri tushirilgan ritual ashyolar yordamida bajariladigan amallar alohida magik kuchga ega deb tasavvur qilingan. Shu tariqa totemistik miflarning moddiylashtirilgan ko‘rinishi – bo‘ri surati yoki bu jonivor obrazi bilan bog`liq mif syujetiga mos lavhalarni tasvirlash an’anasi kelib chiqqan.

Ot kulti. Turkiy xalqlar mifologiyasida bo‘ri kabi ot ham totem hayvon sifatida alohida e’zozlangan. Qadimgi ajdodlarimiz o‘z turmush- tirikchiligida otdan keng foydalanganlar. Ot ularga ham oziq, ham uzoqni yaqin qiluvchi ulov, ham chorvani boqishda ko‘makdosh ish hayvoni sifatida xizmat ko‘rsatgan. Hatto otning yolidan turli kasalliklarni davolashda foydalanilgan. Ot kalla suyagi yovuz ruhlardan himoya qiluvchi vosita hisoblangan. Otdan shunchalik katta naf ko‘rgan qadimgi odam uni kult darajasida ilohiylashtirib, e’tiqod timsoliga aylantirgan. Tabiiyki, bunga otning jozibadorligi ham ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan.

Ot kultiga aloqador qarashlar natijasida folklor asarlarida otning epik badiiy timsoli paydo bo‘lgan. Jumladan, o‘zbek xalq dostonlaridagi G`irot, G‘irko‘k, Boychibor, Jiyronqush, Majnunko‘k kabi epik ot obrazlari bunga yorqin dalil bo‘la oladi. Ot kultiga aloqador urug‘ nomlari va geografik joy nomlari ham bor. Bu haqda «Hazorasp» nomli toponimik afsona yaratilganligi ma’lum.

Xalq lirikasida bolachalarning toyga, yigitlarning otga o‘xshatilishi, poetik tenglashtilishi ot kulti tufaylidir:

Toy-toy bolam, toy bolam,

Shirin erkatoy bolam…

Ot kulti izlarini tug‘ilishdan to azagacha bo‘lgan marosimlar tarkibida ko‘p uchratish mumkin. Respublikamizning ayrim joylarida momolar o‘g‘il chaqaloqlarga ilk bor ko‘ylak kiygizishdan avval uni ot qozig‘iga kiygizib olganlar. Ba’zi hududlarda o‘g‘il bolaga atab olib kelingan toyni hovlidagi qoziqqa bog‘laganlar va u yakka mix deb atalgan.

Ot turkiylar hayotida benihoya katta rol o‘ynaganligini Mahmud Koshg‘ariyning quyidagi so‘zlaridan ham bilish mumkin: “El – bir turli ot nomi, chunki ot turkning qanotidur. Otboqarni elboshi deydilar. Bu – viloyat boshlig‘i demakdir. Lekin bundan otboqarni tushunadilar” (DDT, 1-tom, 83-bet).

Bilamizki, “Alpomish” ot tanlash uchun to‘qson to‘qay yilqini bir joyga jam qilib, qo‘riq tashlaganida uch safar ham chipor otning bo‘yniga tushadi. Bu tabladan haydab yuborilgan Boychibor edi. Chipor – ola demakdir. Bizningcha, otning ola tusli bo‘lishi ham tasodifiy emasga o‘xshaydi. Tarixga murojaat qilaylik. Miloddan avvalgi 126-yilda O‘rta Osiyoga safar qilgan mashhur sayyoh Chjan Stanning yozishicha, “Davon o‘lkasi (hozirgi Farg‘ona) samoviy otlardan tug`ilgan arg‘umoqlarga boy bo‘lib, bu otlardan ter o‘rniga, qon oqadi”. Boshqa bir jahongashta Xan-shu Xitoy imperatoriga samoviy arg‘umoqlar haqida so‘zlab bergan edi: “Dovon o‘lkasidagi baland tog‘lar orasida shunaqangi otlar yashaydiki, ularni ushlab bo‘lmaydi; shuning uchun ola biyani tanlab tog‘ ayg‘iridan qochirish uchun tog‘ etagiga qo‘yib yuboradilar. Ana shu biyalardan chidamli qulunlar tug‘iladi; mana shuning uchun ham samoviy otlardan urchigan ayg‘irlar deyiladi”. Fikrimizcha, uchqur chipor otlar haqidagi bunday afsonalar qadimgi O‘rta Osiyoda keng tarqalgan bo‘lib, sayyohlar mahalliy aholidan eshitgan gaplarni yo‘lnomada yozib qoldirganlar. Peshonasida yulduz charaqlagan otlar masalasiga kelsak, yulduzli ot aslida qashqa, ya’ni peshonasida oqi bor ayg‘irdir. Manglayida oqi bor otlarni “yulduzi porlab turgan” deb tasvirlash otning yulduz bilan bog‘liqligidan kelib chiqqan bo‘lsa kerak.

Qahramonning jangovar oti ola tusli bo‘lishi turkiy xalqlar eposining eng qadimiy mushtarak xususiyatidir. Jangovar ot oddiy otlardan farq qiladigan

bo‘lishi shart edi. Tanasining biror erida oqi bor ot esa darhol ko‘zga tashlanadi. Afsonaviy chipor ot obrazining asosi qadimgi turkiy qavmlarini olamga tanitgan nasldor ola arG‘umoqlar bo‘lib, xalqimizning qadimiy mifologik tematik tasavvurlari ta’sirida badiiymukammallashtirilgan.

Bo‘ri va ot kultidan tashqari kiyik,tuya,buqa kabi hayvonlarni ham muqaddaslashtirilgani bilan bog‘liq nazariy qarashlar mavjud.Ular ham mutaxassis olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilib tadqiq qilingan.Shunday bo‘lsa ham, hali bu borada ochilmagan eshiklar, kashf qilinmagan qo‘riqlar ko‘p deb o‘ylaymiz. Bu eshiklarga mos keluvchi kalitlarni topish biz yosh avlodning qo‘lidadir. Har bir topilgan kichik ilmiy kashfiyot ham bizning folklorimiz tarixini yana bir necha yillarga boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акрамов, Ғ. (1978). Тотемистик мифлар. Ўзбек тили ва адабиёти журнали 3-сон
2. Аширов, А. (2007). Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти.
3. Жўраев, М. (1999). Бўри ҳақидаги мифлар ва ўзбек фолклори. Тошкент: Адабиёт гулшани.
4. Мусақулов, А. (2010). Ўзбек халқ лирикаси. Тошкент: Фан
5. Саримсоқов, Б. (1981). Ўзбек фолклорининг эпик жанрлари. Тошкент.

XALQ DOSTONLARIDA OSHIQ, MA’SHUQA, RAQIB OBRAZLARI

Hakimjonova Dilrabo Nazirjon qizi

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 2-kurs

Xakimovadilrabo420@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada xalq dostonlarida (“Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan” dostonlari misolida) oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlari, epik syujet, motivlar tizimida ushbu obrazlarga yuklatiladigan missiya hamda bu ajralmas uchlikni bir chiziqda ushlab turadigan muhabbat konseptsiyasining badiiy ko‘lami tahlilga tortilgan. Tahlil asosida talqin va takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Syujet, muhabbat konseptsiyasining badiiy ko‘lami, safar motivi, sinov motivi, motivlardagi mushtaraklik, yondash obraz, hushdan ketish, oshiq, ma`shuqa, raqib.*

Abstract. *The article analyzes the images of lover, mistress, rival in folk epics (for example, Alpomish, Kuntug'mish, and Ravshan), epic plot, the mission assigned to these images in the system of motives, and the artistic scope of the concept of love that keeps these inseparable three in one line. Based on the analysis, interpretations and proposals are put forward.*

Keywords: *Plot, artistic scope of the concept of love, travel motive, test motive, commonality of motives, approaching image, fainting, lover, rival.*

Xalq dostonlarida oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlari va bu ajralmas uchlik bajaradigan missiyaning badiiy ko‘lami haqida mulohaza yuritilar ekan, dastlab, yuqoridagi uch obraz dostonlarning epik syujetida bir tizimda namoyon bo‘lishi, muntazam ravishda biri ikkinchisini taqozo etishi, ulardagi uzviy bog‘liqlik, ushbu bog‘liqlikdan vujudga keladigan motivlar tizimi hamda oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlarini bir chiziqda ushlab turadigan asosiy konseptsiyaga diqqat qaratish zarur.

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov ta’kidlaganidek, har qanday asarning xronotop shaklida oshiq, ma’shuqa va raqib obrazlari mavjud hamda bu obrazlar Odam(a.s), Momo havo, Iblis uchligini yodga soladi. Bizningcha, olimning yuqoridagi fikrlari ayni haqiqat. Bu uchlik ishtirok etgan har qanday asarning sirt strukturasiga emas, teran strukturasiga diqqat qaratilib, tahlil doirasiga tortilsa, yuqoridagi talqinning ayni haqiqat ekanligi ayon bo‘ladi.

Folklorshunos olim Shormirza Turdimov ham o‘z ishida quyidagilarni keltirib o‘tadi: *“Muhabbat Odam ato bilan Momo havoni yerga olib tushdi, qonini qo‘shdi-naslini ko‘paytirdi. Lekin bu qo‘shiluvning bahosi qimmatga tushgani sir emas. Naql qiladilarki, “ular jannatdan quvildi... Yerga tushirildi…” Yerdagi hayot esa quvonch va qayg‘u badalida kechadi. Alpomish hamda Barchin ham Odam ato va Momo havo taqdirini o‘ziga xos ravishda takrorlaydi. Odam ato hamda Momo havo qoni Yer yuzidagi har bir odam tomirida oqar ekan, ularning*

taqdiri ham takror-takror kelaveradi". (*Turdimov, 2021, 4-bet*). Folklorshunos olim Alpomish hamda Barchin Odam ato va Momo havo taqdirini o‘ziga xos ravishda takrorlashini aytib o‘tarkan, ayni ushbu o‘xshashlik "Kuntug‘mish", "Ravshan" dostonlarida ham kuzatiladi.

Har uchchala dostondagi oshiq, ma’shuqa, raqib obrazlarini bir chiziqda ushlab turadigan asosiy konseptsiya muhabbatdir. Nima uchun asosiy planga ishq emas, muhabbat qo‘yilyapti? Najmiddin Kubroning quyidagi fikrlari yuqoridagi savolga to‘liq javob bo‘ladi: *"Muhabbatning oxiri Ishqning boshlang‘ichidir. Muhabbat qalb uchun, Ishq esa ruh uchundir"*. Demak, doston qahramonlaridagi (Alpomish va Barchin, Kuntug‘mish va Xolbeka, Ravshan va Zulxumordagi) muhabbat qalbdan ruhga ko‘chgandan so‘nggina Ishq maqomiga ko‘tariladi va ayni shu vaziyatda muhabbatning asosiy planda voqealanishi, birlamchi omil ekanligi yanada konkretlashadi.

Alpomish va Barchin, Kuntug‘mish va Xolbeka, Ravshan va Zulxumorni bir-biriga bog‘lab turadigan birlamchi omil muhabbat ekanligi ta’kidlandi. Ushbu muhabbat tor ma’noda talqin etilmasligi zarur. Zero, ularning qalbiga bu otashni Yaratgan soldi ("Alpomish", "Kuntug‘mish" dostonlarida rahmoniy tush orqali, "Ravshan" dostonida esa uzuk detali yuqoridagi funksiyani bajaradi). Qaysidir ma’noda oshiq va ma’shuqaning bir-biriga g‘oyibdan ko‘ngil bog‘lashining o‘zi ham ularning muhabbati oddiy muhabbat emasligidan dalolatdir. Shu o‘rinda aytish joizki, bu yerda qirq chilton, pirlarning ham ahamiyati birlamchidir. Yuqorida rahmoniy tush motiviga to‘xtalib o‘tdik. "Risola ila hoim" da: *"Ruhi qudsiy, nafsi notiqa va rabboniy latifa sifliy vujudimizda g‘arib bir holdadir. U vujudimizni isloh qilish, foydalisini egallash, zararlilarini esa daf qilish uchun g‘ayrat ko‘rsatadi. Kishi uyg‘oq ekan, ruh badanda hibslanadi. Inson uxlashi bilan qudsiy ruh ham asliy vatani-laduniy va ilohiy manbaga parvoz qiladi. G‘ayb va ma’no olamini tanishdan, ruhlar ila muloqot baxsh etgan huzurdan yayraydi. Malakut olamiga yetganida esa uni shahodat olamida misollari ila ko‘rur. Tush ta’birining siri ham xuddi ana shundadir,*- deb yoziladi*(Boltaboyev, 2005-yil, 164-bet)*. Demak, rahmoniy tush orqali ayon bo‘layotgan muhabbat Yaratganga

bo‘lgan muhabbatning inson qiyofasidagi shakli. Quyida “Kuntug‘mish” dostonidagi muhabbat konseptsiyasining badiiy ko‘lami tahlilga tortiladi.

Kuntug‘mish va uning qirq yigiti Xolbeka tomonidan jo‘natilgan sandiqni ochishganda: *“Ichidan bir qog‘oz chiqdi, qog‘ozni yozib, ko‘rsa, Xolbeka oyimning to‘lgan kamoli, oyday jamoli munavvar bo‘lib turibdi. Shahzoda ko‘rgan hamona tushida ko‘rgan mahbubini tanib, ichki dardini hech kimga ayta olmay yurgan edi, bir ishqi yuz bo‘lib, toqat keltira olmay behush bo‘lib yiqildi” (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, “Kuntug’mish”, 2021, 7-bet)*. Kuntug‘mish rasmni ko‘rdi-yu, hushidan ketdi. Hushdan ketish ko‘proq tasavvuf yo‘lini ixtiyor etgan xos bandalarda yuz beradigan ruhiy kechinmadir. Vaholanki, oddiy bir insonda bunday holat kuzatilavermaydi. Ruhi ilohiyotga yaqin pok zotlardagina uchraydi. Zero, Farhod Shirinni, Majnun Laylini ko‘rganida ikkovi ham hushidan ketdi. Chunki butun boshli koinotni yaratgan Zot Shirin va Laylining chehrasida O‘z jilvasini zohir etdi. O‘zni yo‘qotishga sabab bo‘lgan qudrat ham aynan ana shu “jilva”da.

Hushdan ketish haqida to‘xtalar ekanmiz, tasavvuf yo‘lini tutgan ko‘plab valiy zotlar boshlaridan o‘tkazgan bu holat Kuntug‘mishda ham sodir bo‘ldi. Zero, butun boshli syujetni tasavvuf bilan bog‘lay olmasak-da, bosh qahramonda sodir bo‘lgan bu holatda tasavvuf chizgilari mavjud. Demak, qahramon yoriga Mutlaq ruhning bir qismi ekanligi uchun oshiq. Najmiddin Komilov ta’biri bilan aytganda: *“Oliy muhabbat obyekti-mutlaq jamol barokatidir”* (*Komilov, 1996-yil, 57-bet*). Ayni ushbu holatda asosiy planda turgan muhabbatning oshiq qalbidan ruhiga ko‘chganligi, Ishq maqomiga ko‘tarilganligi ayon bo‘ladi. Chunki oshiq ma’shuqada ilohiy jilvaning aks etganini ko‘ryapti. Chunonchi, Kuntug‘mish Xolbeka tufayli Farhod, Majnunlarda yuz bergan ruhiy kechinmani (tasavvufda bu holat “jazba” deb ataladi) boshidan o‘tkazar ekan, Xolbekaga ham oddiy bir qiz sifatida qaray olmaymiz. Dostonda Xolbekaning yuzidan nur taralib turishi va bu nurni berkitish uchun yuziga niqob taqib yurishi fikrimizning yaqqol dalili bo‘la oladi. *“Ikki Xudo bexabar karvonsaroyga borib ko‘rsalar, qalandarning uyidan yorug‘ chiqadi. Uy ravshan, munavvar bo‘lib turibdi. Bir-biriga: “Qalandar uyov ekan”, -deb asta-asta eshikning orasidan siylab qarasa, bular uxlab yotibdi. Uyda*

chiroq ham yo‘q, uyi ravshan-munavvar bo‘lib turibdi. Toza sig‘alab ko‘rsa, Xolbeka oyimning yuzidan niqobi siljib ketibdi. Yuzi ochilib, o‘n to‘rt kechalik oyday bo‘lib, uyni Munavvar qilib turibdi” (Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, “Kuntug’mish”, 2021-yil, 74-75-bet). Zero, *“Pok yuz oshiq uchun ilohiyat fayzi aks etgan mazhar o‘rnida bo‘lgan”*,-deb yozadi Najmiddin Komilov. (*Komilov, 1996-yil, 56-bet*).

“Kuntug‘mish” dostonida majoziy ishq tasvirlangan va bu majoziy ishqning haqiqiy ishqqa qanday bog‘liqligi bor? Zero, Navoiy g‘azaligi G‘aribiy muxammasida shunday misralar bor: “Ey, G‘aribiy, bil haqiqatning yo‘li ermish majoz”. Deydilarki, majoziy ishqning haqiqiy ishqdan unchalik farqi yo‘q, agar majoz haqiqatga olib borsa. Abu Homid G‘azzoliy hazratlari: *“Zulayho imonga kelib, Hazrat Yusufga tekkanidan keyin, o‘zini ul zotdan chetlatishga urinadi va toat-ibodatga berilib, uzlatga chekina boshlaydi. Endi bu ishqi Ishqning haqiqiy sohibi Allohga qaratilgan edi. Ahvol shunday ediki, Hazrat Yusuf uni tunda yotoqqa da’vat etsalar, u visol onini kunduzga surar, kunduz da’vat etsa, fursatni tunga surar va shunday derdi:"Ey Yusuf, men sizni Allohni tanimasdan oldin sevgandim. Lekin Uni tanigandan keyin aslida Unga oid sevgidan boshqasiga o‘rin qolmadi. Allohdan bo‘lgan bu sevgimga boshqani sherik qilmayman" (Malik, 2017, 36-bet)*. Zulayhoning vujudidagi majoziy ishq uni haqiqiy ishqqa yetakladi va U majoziy ishqning emas, haqiqiy ishqning shaydosiga aylandi. Demak, Kuntug‘mish va Xolbekaning ishqi oddiy bir ishq emas, ularning qalbiga ishqni Yaratgan soldi(rahmoniy tush orqali). Dostondagi majoziy ishq haqiqiy ishq kabi bir vazifani bajargan, ya’ni qalbni poklash, ruhni tarbiyalash. Shu o‘rinda epik syujetda majoziy ishqni haqiqiy ishqqa olib boruvchi bir vosita sifatida talqin etish ham ayni muddaodir.

Adabiyotshunos olim Uzoq Jo‘raqulov o‘z tadqiqotida quyidagilarni keltirib o‘tadi: *“Majnun Laylini ilk bor maktab bog‘ida uchratadi. Bu uchrashuv ham qator ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Deylik, maktab, ma’rifat oshiqning Yaratganga yaqin bo‘lishini, bog‘ esa Odam(a.s) erishgan ilk saodatni, ya’ni jannatni ifoda etadi. Yaratganni tanitgan ilk muhabbat tug‘ilgan bog‘(jannat)*

sog‘inchi, unga erishmoq ishtiyoqi Majnunni junun yo‘liga boshlaydi” *(Жўрақулов, 2017,34-бет).* Yuqoridagi holat “Ravshan” dostonida ham kuzatiladi. Ravshan va Zulxumorning muhabbati ikki oshiqni bog‘da uchrashtirdi. Adabiyotshunos olim ta’kidlaganidek, Yaratganni tanitgan ilk muhabbat tug‘ilgan bog‘ (Jannat) sog‘inchi, unga erishmoq ishtiyoqi, chuqurroq mulohaza yuritadigan bo‘lsak, jannat sog‘inchi emas, balki Yaratganga bo‘lgan ishtiyoq, sog‘inch Majnunni junun yo‘liga boshlaganidek, Ravshanning muhabbati ham uni tom ma’noda ishq yo‘liga boshladi. Ravshanning Hazrat Navoiy “Xamsa”si qahramoni Farhod kabi oshiqlikning yuksak cho‘qqisiga yetganligi Oqqiz bilan qurgan suhbatidan anglashiladi:

“-Oyim qizman, zarli ro‘mol o‘rayman,
Taroq olib qora zulfim tarayman,
Zulfi zarafshonim qaydan bo‘lasan?
Tarzing ko‘rib makoningni so‘rayman.

-Bu judolik meni qildi sargardon,
Ayriliqdan yurak-bag‘rim to‘la qon,
Mening dardim qo‘zg‘ayverma, Oqqizjon,
Oshiqda bo‘lmaydi manzil ham makon.

-Polvon to‘ram, sen yashirding siringni,
So‘rayman, aytsang-chi o‘sgan yeringni,
Harna darding bo‘lsa menga so‘ylagin,
Ko‘nglingdan olayin zang-u, kiringni.

-Mening sirim, ixtiyorim menda yo‘q,
Bir yerda turmoqqa qaror menda yo‘q,
Oshiq ixtiyori ma’shuq qo‘lida,
Bu bog‘da o‘zimdan xabar menga yo‘q” *(Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, “Ravshan” 2015-yil, 100-bet).*

Dostondan olingan ushbu suhbat Xusrav va Farhodning aytishuvini bevosita yodimizga soladi. Bu o‘rinda xalq dostonlari va “Xamsa” tarkibiga kiruvchi dostonlarda ayrim mushtarakliklar mavjud ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, bu mushtaraklik sinov, safar, tush motivlarida kuzatiladi. Dostonda Ravshanning musulmon, Zulxumorning g‘ayridinligi (din va kufr bilan bog‘liq epizodlarga diqqat qaratish zarur), Oshiq ma’shuqaning suratini ko‘rgandan so‘ng g‘ayriddin bo‘lishiga qaramay unga nisbatan bosh qahramonda g‘oyibona muhabbatning paydo bo‘lishi hamda Zulxumor Ravshanning diniga o‘tib, musulmonlikni qabul qilish motivlari beixtiyor XI-XII asrlarda yashagan tarixiy shaxs Shayx San’onning tarso qiziga muhabbatini yodga soladi. Dostondagi bu motiv to‘lig‘icha Shayx San’on hikoyatiga asoslanmagan bo’lsa-da, ularda ayrim mushtarakliklar mavjuddir. Jumladan, Shayx San’onning qalbiga tush orqali g‘oyibona ishq zuhur etildi va u ushbu ishqni axtarib, safarga otlandi. Ravshan ham Zulxumorning suratini ko‘rib, unga g‘oyibona oshiq bo‘ldi va u ham yor manziliga borishni ixtiyor etdi. Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Shayxning holatini quyidagicha ifodalaydi:

“Shayx ashk aylab ravon ruxsorig‘a,
Arzi imon etti tarso yorig‘a,
Oshnoliq topqoch imondin nihon,
Oh urub Shayx ollida tobshurdi jon.
Soldi din ahli aro g‘avg‘o yana,
Chektilar faryodu vovaylo yana.
Kufr ila din ichra fahm o‘ldi sabab,
Bul ajab ish zohir o‘ldi, bulajab”(Алишер Навоий, 1996, 133-бет).

Zulxumor va tarso qizining musulmonlikni qabul qilib, Yaratganga imon keltirishida ilohiy qudrat, ilohiy fayz hisoblangan Ishqning asosiy omil ekanligi inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqatdir. Demak, “Ravshan” dostonidagi ayrim motivlarda Shayx San’onning tarso qiziga muhabbati bilan mushtaraklik mavjudligi dostonning epik syujetida asosiy konseptsiya hisoblangan muhabbatning badiiy ko‘lamini chuqurroq tahlil etishni taqozo etadi.

Xalq dostonlarining kompozitsion qurilishi, epik syujeti, motivlar tizimida oshiq va ma’shuqa bilan bir linyada namoyon bo‘luvchi raqib obrazi voqealar rivojida o‘ziga xos funksiyani amalga oshirishi bilan xarakterlanadi. Raqib obrazi, asosan, safar, sinov motivlarida paydo bo‘lib, goh oshiqning, goh ma’shuqaning yo‘liga g‘ov bo‘ladi. Epik syujet linyasida bajaradigan missiyasi oshiq va ma’shuqa o‘rtasida nizolarga sabab bo‘lishdir. “Apomish” dostonida Ultontoz, “Ravshan” dostonida Oqqiz, “Kuntug‘mish” dostonida Buvraxon raqib obrazi sifatida gavdalanadi. Shu o‘rinda raqib obrazini oshiq va ma’shuqaning xarakteri, ichki dunyosini ochib beruvchi yondash obraz sifatida ham talqin etish mumkin.

“Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Ravshan” va yana bir qancha dostonlar syujetida “Oshiqning fahmidir qorong‘u kecha” epik qolipining takror holda kelishi oshiq va ma’shuqa o‘rtasidagi muhabbatning darajasi oliy maqomga egaligidan dalolatdir. Bu qolipni tasavvuf tamoyillariga asoslangan holda tahlil qilish ayni muddaodir. Tasavvuf ahli, ya’ni avliyolar, valiy zotlar, asosan, tunlarini bedor o`tkazishgan. Bedorlikdan maqsad: jismga huzur beruvchi moddiyatlardan voz kechib, nafsni isloh qilish, bir so‘z bilan aytganda, Yaratuvchi bilan yolg`iz qolishdir. Zero, ularning kechaning uchdan bir qismida qilgan ibodatlaridan hech kim voqif bo‘la olmagan, shu yo‘l bilan valiy zotlar o‘zlarini riyodan saqlashgan. Chunonchi, taqvodor zotlar haqida Alloh taolo: *“Ular kechadan ozgina (fursatgina) ko‘z yumar edilar. Va saharlarda ular (qilgan sahvu xatolari uchun) Parvardigordan mag‘firat so‘rar edilar”. (Zoriyot, 51:17-18); “...Kechasi (bedor bo‘lib, namozda) turing! Faqat ozgina- uning (kechaning) yarmida (uxlab orom oling) yoki (uyquni kechaning) yarmidan ham bir oz kamaytiring, yoxud unga (bir oz) ziyoda qiling (ya’ni kechaning yarmidan ko‘prog‘ida uxlab, istirohat qiling) va Qur’onni tartil bilan (ya’ni, dona-dona qilib) tilovat qiling! “(Muzammil, 73:2-4); “Yana kechaning bir qismida ham U Zotga sajda qiling va tunda uzoq (bedor bo‘lib), u Zotga tasbeh ayting!” (Inson,76:26); “(Olloh) bir kecha O‘z bandasi (Muhammad)ni unga oyat-mo‘jizalarimizdan ko‘rsatish uchun (Makkadagi) Masjid al-Haromdan (Quddusdagi) Biz atrofini barokatli qilib qo‘ygan Masjid al-*

Ahsoga sayr qildirgan (barcha aybu nuqsondan) pok zotdir...”(Al-Isro,17:1); “Muso bilan o‘ttiz kechaga va’dalashgan edik. So‘ngra uni yana o‘n (kecha) bilan to‘ldirdik. Bas, Parvardigorining (uning uchun belgilangan) vaqti komil qirq kecha bo‘ldi...”(A’rof, 7:142), deya marhamat qilgandir. Ushbu oyatlarda zikr qilishning kunduzi emas, aynan kechada amalga oshirilishi uyqu bilan bog‘liqligi tufaylidir. Chunki va’da qilingan narsani kutayotgan kimsa bedor kutadi. Olloh taolo boshqa bir oyatida ham: “Ularning yonboshlari o‘rin-joylaridan yiroq bo‘lur (ya’ni tunlarini ibodat bilan o‘tkazishib, oz uxlaydilar...)”, deya ishorat qilmoqda. *(Sajda, 32:16) (Boltaboyev, 2005-yil, 163-bet).* Demak, dostonlar tarkibida uchraydigan epik qoliplar ham muayyn bir ramziylikni ifoda etadi.

Fikrimizni quyidagicha xulosalaymiz: oshiq, ma'shuqa, raqib obrazlarini bir chiziqda ushlab turadigan muhabbat konseptsiyasining badiiy ko‘lamini dostonlarning sirt strukturasiga emas, teran strukturasiga yondashgan holda tahlilga tortish yuqoridagi uch obraz bajaradigan missiya, syujet tarkibida mushtaraklik hosil qiluvchi motivlar tizimi, oshiq, ma'shuqa, raqib obrazlari ruhiyatidagi psixologik o‘zgarishlar hamda birlamchi omil hisoblangan muhabbatning qalbdan ruhga ko‘chib, voqealar rivojida Ishq maqomiga ko‘tarilishi, ushbu ishqning asosiy funksiyasi qalbni poklash, ruhni tarbiyalash ekanligi yanada konkretlashishiga, tashqi tomondan qaralganda yuzakidek ko‘ringan syujet qamrovidagi qahramon ruhiyatini ochib beruvchi motivlarning mohiyatini teranroq anglashga har jihatdan ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li. (2021). Kuntug‘mish. Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat.
2. Boltaboyev, H. (2005). Islom tasavvufi manbalari.-Toshkent: O‘qituvchi.
3. Komilov, N.(1996). Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti.
4. Malik, T. (2017). Odamiylik mulki. Toshkent: Sharq.
5. Turdimov, Sh. (2021). Folklor saboqlari. Maqola. “Xalq so‘zi” gazetasi.
6. Навоий, А. (1996). Лисонут-тайр. -Тошкент: “Фан”.
7. Жўрақулов У.(2017). Алишер Навоий “Хамса”сида хронотоп поэтикаси. Монография.-Тошкент: ТУРОН-ИҚБОЛ.

O‘ZBEK XALQ LATIFALARI VA ULARNING JANRIY XUSUSIYATLARI

Isaqova Ellora Madamin qizi
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya
Mutaxassisligi 2- kurs magistranti
isaqovaellara1@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek xalq latifalarida uchraydigan turli ma’no nozikliklarini aniqlash va tahlil etish asosiy masala sifatida qo‘yilgan. Maqolada latifalarning ichki va tashqi ma’nolari germenevtik nuqtayi nazardan tahlilga tortilgan. Latifalarni sharhlash jarayonida ularning o‘ziga xos xususiyatlari ham ochib berilgan. Shu tomoni bilan maqola nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *latifa, janr, nasr, yumor, xalq og‘zaki ijodi, epik janr, epizod, frazeologizm*

Abstract. *The main task of this article is to identify and analyze the various nuances of meaning in Uzbek folk anecdotes. The article analyzes the inyernal and external meanings of anecdotes from a hermeneutic point. In the process of interpreting the anecdotes their peculiarities were revealed. In this respect the article is of particular thereoretical and practical importance.*

Keywords: *anecdote, genrem, prose, humor, folklore, epic genre, episode, phraseology*

Kulgi – farovon turmushning ehtirosli zavq-shavqi, ijodiy mehnatning orombaxsh gashti, yutuq-g’alabalarning yakuni, ma’naviy boylik, bardamlik belgisi, tetiklik va quvnoqlik nishonasi hamda og‘ir mehnatni yengillatuvchi hamkordir. Chunki kulgi eskirgan, yangi yangi turmush taraqqiyotiga to‘sqinlik qilib turgan odatlarga qarshi eng kuchli qurollardan biri bo‘lib xizmat qilib kelgan. Yuksak didli hamda kulgu shinavandasi bo’lganidan o’z og’zaki badiiy ijodining ko’pchilik tur va janrlarini kulgi asosida yaratgan. Xususan, latifa janri ham kulgi paydo qilishning o‘ziga xos shaklidir. Afandi latifalari xalqimiz og‘zaki ijodidagi kulgi yaratuvchi hajm jihatidan kichik go‘zal durdonalar hisoblanib, ularda o‘zbek xalqining donoligi, hozirjavobligi, o‘z taqdiridagi murakkab vaziyatlarga bo‘lgan

munosabatlari haqida o‘zgacha shaklda ma’lumot beradiki, biz ushbu ma’lumotlarni o’zgacha uslubda qabul qilamiz.

Latifalar xalqning milliyligini, ma’lum davr odamlarining ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘zida aks ettiruvchi xalq og‘zaki ijodi namunasi sanaladi. Ularda ma’lum ma’noda xalqning turmush tarzi aks etadi. Shu sababli o‘zbek xalq latifalarini tahlil va talqin etish, ulardagi ichki ma’nolarni tadqiq etish latifalardagi o‘ziga xoslikni aniqlash amaliy ahamiyat kasb etadi.

Latifa xalq og‘zaki poetik ijodida mustaqil janr bo‘lib, u o‘zining bir qator xususiyatlari bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi. Latifa janri va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida R.Muqumov, H.Roziqov, K.Imomov F.Yo’ldosheva, O.Sobirov kabi folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida diqqatga sazovor fikir-mulohazalar berib otganlar. Xususan, H.Razzoqov latifani mazmunidan kelib chiqib quyidagicha ta’riflagan: “Latifalar xalq orasida keng tarqalgan xalq og‘zaki prozasining voqeaband, hajman kichik yumoristik xarakterdagi hajv janrlaridandir” (Imomov,2008, 199-bet). Folklorshunoslar latifalarning o‘ziga xos janr xususiyatlarini quyidagilar etib belgilaganlar:

1. Epiklik
2. Qisqalik
3. Hazil va hajvga asoslanganlik
4. Tugatilgan syujet.
5. Kutilmagan yakundan.

Yuqoridagi xususiyatlar latifa janriga xos umumiy jihatlar bo’lib, uning o’ziga xos ayrim jihatlari ham mavjud. Shundan kelib chiqqan holda biz latifa janrining o’ziga xos jihatlarini quyidagilar etib belgiladik:

1. Epik shakl. Latifa janri lirik va dramatik turlardan ko‘ra epik turga mansubligini ko‘rishimiz mumkin. Biroq dramatik xususiyatga ham qisman ega deb aytish mumkin bo‘lgan latifalar ham mavjud. Xususan, quyidagi latifani olsak:

Afandidan so‘rashdi:

- Siz kattami, akangiz kattami?-deb so‘radilar.

- Bultur akam mendan bir yosh katta edi, bu yil yoshimiz baravar bo‘lsa kerak, - dedi (Sarimsoqov, 1967, 55-bet).

Bunda ikki kishining suhbati yetakchilik qiladi. Lekin og‘zaki shaklda shu ikki kishining o‘zaro suhbatini boshqa shaxs tomonidan aytib berilishi uni dramatik turga ham mansubligini yo‘qotadi va epik turga mansub bo‘lib qoladi. Bu xususiyatdan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, latifa epik turning o‘ziga xos namunasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

2. O‘rta hajmli asar namunasi. Hajmiy jihatidan olib qaralganda latifalar kichik janr namunasi sanaladi, ya’ni ertak va xalq dostonlariga nisbatan qiyoslanganda ulardan kichikligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Lekin xalq og‘zaki poetik ijodining boshqa janrlari, masalan, topishmoq, matal kabi janrlariga solishtirganda esa ulardan kattaroqligi anglashiladi.Shundan kelib chiqib, latifani hajm jihatidan o‘rtacha janr deb belgilashimiz mumkin.

3. Og‘zakilik. Latifa ijro usuliga ko‘ra bir kishi tomonidan hikoya qilinadi. Latifaning ommaviy janr ekanligi, ya’ni maxsus latifa aytuvchi, professional ma’noda alohida aytuvchi shaxslari bo‘lmaydi. Latifani har bir odam o‘zga bir odamga aytib berishi, kuldirishi mumkin. Bu jihati bilan maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lgan ijrochilar, xususan, baxshilar tomonidan ijro etiladigan ertak va doston ijrochiligidan farqlanadi.

4. O‘ziga xos ijro mahorati. Latifa janrining o‘ziga xos xususiyatlari qahramondan ustalik va mohirlikni, tafakkurning o‘tkirligi va chuqur idrokni, uddaburonlik bilan ish tutishni talab qiladi. Nasriddin afandi obrazi vositasida biz ana shunday jihatlar mukammal tarzda namoyon bo‘lishini ko‘ramiz. Latifalardagi voqealar tasviri unda ilgari surilgan fikrning san’atkorlik bilan ijro etilishini talab qiladi. Zero, latifani aytuvchi shaxs kimnidir kuldirishni maqsadini qo‘ygan holda tilga kiradi, shu sabadan uni aytishda rolga kirishilmasa, juda kulgili latifani ham eshituvchilar oddiy gapdek qabul qiladi va uning ta’sirchanlik xususiyatiga putur yetadi. Kuchlilik va kuchsizlik, aqllilik va ahmoqlik, ijobiylik va salbiylik kabi xususiyatlar qarama-qarshi holatda kelishini latifa aytuvchi shaxs his qilgan holda

shunga mos tarzda ijroni tashkillashtira olishi ushbu janrning ahamiyati oshiradi va vazifasini to'liq o'tashiga xizmat qiladi.

Shu o'rinda aytish mumkinki, xalq latifalari asosan ijtimoiy-siyosiy va maishiy temadagi latifalarga bo'linadi (Yo'ldosheva, 1979, 31-bet). Latifa so'zining lug'aviy ma'nosi bo'lmish "go'zal", "chiroyli" va "yoqimli" degan ma'nolar bejiz emaski, bu ma'nolar latifaning mukammalligini ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, latifa ma'lum bir fikrni chiroyli usulda eshituvchiga yetkazishning o'ziga xos bir shakli sifatida talqin etiladi. Shundan kelib chiqib "latif chehra", "latif harakat" iboralari tilimizda qo'llanishi ham bejiz emasdir.

5. Ommaviylik. Latifa kattalarga ham, bolalarga teng darajada ekanligi uchun ham kattalar, ham bolalar folkloriga mansubligini ma'lum etadi. Shuningdek, latifa umuminsoniy janr ekanligini ham aytish joiz. U har bir xalq og'zaki poetik ijodida mavjud. Xususan, tojiklarda mulla Mushfiqiy, turkmanlarda Mirali, uyg'urlarda xo'ja Nosir, Saloy chaqqon, qoraqalpoqlarda O'mirbek laqqi (Imomov, 2008, 197-bet) kabi bir qancha qahramonlar mavjud.

6. Barqaror qahramonning mavjudligi. Latifaga o'zining doimiy qahramoniga egaligi bilan qolgan barcha janrlardan farqlanadi. Nasriddin afandi xalq sevgan, ardoqlagan obrazdir. Uning qilgan donishmandlik ishlaridan ham, bir muncha telba-teskari harakatlaridan ham, soddaligi, xatto bu soddalik go'llik darajasigacha yetib kelganida ham bu obraz sevimli obrazligicha qoldi, "Nasriddin afandi" degan nom yoniga "Xo'ja Nasriddin", "Mulla Nasriddin" nomlari qo'shilib, uning nomi yanada kengayib bordi. Latifalar qahramonlari barqaror holga kelib qolganligi tufayli ko'pincha latifa shu qahramon nomi bilan ham yuritiladi. O'zbek xalq poetik ijodida latifa janrining qahramoni afandi bir shaxsda ifodalanib, bosh harf bilan Afandi atoqli ot sifatida anglashiladigan bo'lganligi tufayli — "latifa aytib bering" ifodasi o'rniga "afandi aytib bering" ifodasi ham ko'p qo'llanadi. Bundan ko'rinadiki, afandi so'zida latifa, janr sifatidagi latifa ham anglashiladi. Bu o'rinda latifa – afandi tenglashib qolgan, ya'ni bir tushunchani

ifodalaydi. Latifalarning e’tiborli tomoni shundaki, ularda savol-javob qilayotgan taraflar bir-birini butkul yechimi topilmas vaziyatda qoldirishga urinadilar.

Bu vaziyatda esa eng og‘ir holat Afandining gardaniga tushadi va u hamisha vujudga kelgan vaziyatdan o‘ta chiroyli tarzda yechim topib o‘z qismatini yengillashtira oladi.Nasriddinning vaziyatini to‘g‘ri baholashiga va favqulodda to‘g‘ri yechim topishiga tassano aytmasdan ilojimiz yo‘q.

Afandi latifalari matnini o‘rganish qahramonimizning o‘zbek tilini, uning boy imkoniyatlarini, qochirmalarini juda yaxshi his qilishini dalillaydi. Nasriddin bir ko‘rinishda soddagina bo‘lib, tilimizning go‘zal jihatlarini namoyish qilib qo‘yadi. Shu xususiyati bilan ham latifalar o‘ziga xos estetik vazifa bajaradi. Xalq dilining o‘ziga xos ko‘zgusiga aylangan latifalarning qisqa so‘z orqali katta ma’no mujassam etishida ulardagi frazeologizmlarning o‘rni katta. Frazeologik birliklar madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan, nafaqat bir tilning xususiyatlarini, balki undan foydalanayotganlarning tafakkuri, mentaliteti, milliy xususiyatlarini ham ifoda eta oladi. Ularning ifoda semalarida obrazlilik, bo‘yoqdorlik ko‘rinib turadi. Latifalarning ta’sirchanligini oshirishda frazeologik birliklarning ahamiyati o‘zgacha. Ulardagi bo‘yoqdorlik latifalarning ta’sirchanligini oshirish barobarida, ularda aytilmoqchi bo‘lgan fikrni tinglovchiga tez yetkazishda ham o‘ziga xos vazifa bajara oladi.

Latifalar ijtimoiy-siyosiy ma’no kasb etgan bo‘lsa, uning yechimi achchiq kulgi, oilaviy-maishiy ma’no anglatganda yengil kulgi paydo qiladi. Xususan, ushbu latifa oxirida ham yengil kulgi paydo bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Afandi bir tangalik go‘sht olib kelgan edi, xotini qovurib yeb, it yeb ketdi, deb qo‘ya qoldi. Yotar mahalda Afandi boltani olib sandiqqa soldi.

Boltani nimaga yashiryapsiz? -deb so‘radi xotini.

Bir tangalik go‘shtni olib ketgan it o‘n tangalik boltani qo‘yadimi?!- dedi Afandi (Sarimsoqov, 1979, 24-bet). Ushbu latifada ro‘zg‘or tebratishga no‘noqroq, isrofgar, nafsini tiyolmaydigan ayrim ayollar tanqid ostiga olinmoqda. Afandi asli haqiqatni bilib tursa ham xotiniga qo‘pol, dag‘al muomala qilmaydi, balki noziklik bilan uning aybini tuzatishga ishora berdi. Yuqoridagi latifaning zohiriy

ma’nosidan tashqari botiniy ma’nosi haqida ham ayrim mulohazalarni aytish mumkin. Ya’ni nafsingizni turli xil yeguliklar bilan boqib, yo‘ldan ozdirmang. Doimo parhezda bo‘ling. Shunday qilmasangiz, shayton sizni yo‘ldan ozdirib, iymoningizga putur yetkazmoqchi bo‘ladi.

Latifaning o’ziga xos xususiyatlarini aytish barobarida uning kuldirishdan tashqari uning pand-nasihat berish vazifasini ham aytib o’tish darkor. Hayotning o‘tkinchiligi, unga aldanib qolmaslik, har bir daqiqani g‘animat bilish, undan unumli foydalanish g‘oyalarini ham latifalarda ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida “Ichida bo‘lmasang bas” nomli latifani keltira olamiz:

Bir sodda odam Afandidan so‘radi:

- Afandi, janoza o‘qilayotganda tobutning chap tomonida turgan savobmi, o‘ng tomonida?

Afandi javob berdi:

Ikkala tomonida tursang ham savob, tobutning ichida bo‘lmasang bas (Sarimsoqov, 1979, 124-bet)

Mazkur latifa qisqa hajmga ega bo‘lsa ham unda chuqur falsafiy ma’no mujassam. Afandi bir og‘iz so‘z bilan inson hayoti davomida ezgu amallarni o‘ziga asosiy yo‘ldosh qilib olishi, savob ishlarni ko‘paytirishga ulgurish kerakligini ta’kidlamoqda. Aks holda tobutning ichida bo‘lib qolsa, bu ishlarni qilolmaydi. Afandining “tobutning ichida bo‘lmasang bas” degan so‘zi ham insonni chuqur o‘yga toldiradi va uni hushyorlikka chorlaydi. Ushbu latifadan ko‘rinib turibdiki, latifaning asosiy vazifasi bo‘lgan insonlarni kuldirishdan tashqari uning yana bir vazifasi yondosh tarzda kelganini ko‘rishimiz mumkin. Bu uning kulgi vositasida hayotning turli vaziyatlariga insonlarni tayyorlash, ularni ogohlantirish haolatida ko‘zga tashlanadi. Bu vazifani biz latifaning pand-nasihat vazifasi deb atasak, xato bo‘lmas.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, latifalar o‘zbek xalq og’zaki ijodidagi mustaqil epik janrlardan biri hisoblanib, hajman kichik, mazmunan lo‘nda fikrni o‘zida jamlaydi. Ular asosan, bir yoki ikki epizoddan tashkil topishi barobarida ijtimoiy-siyosiy yoki maishiy ma’no kasb etadi, yechim esa tasodifiy kulgi yoki

so‘z o‘yiniga asoslanadi. Latifalarning asosiy qahramoni bo‘lgan Nasriddin Afandi qiyofasida butun xalqning so‘zga chechanligi, nozik fikrlashi o‘z ifodasini topadi. Latifalar xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri sifatida ma’lum janriy xususiyatlarga ega va ular ushbu janr namunalarining unutilmay xalq orasida yashab kelayotganining asosi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov, K. (2008). O‘zbek xalq nasri poetikasi. –T.: Fan
2. Sarimsoqov, B.I. (1979). Afandi latifalari (To‘plam). T.: Fan
3. Tilavov, A. (2020). O‘qing, kuling va tafakkur qiling. Nasriddin Afandi latifalariga hikmatomuz sharhlar. T.: Sano-Standart
4. Yo‘ldosheva, F. (1979). O‘zbek latifalarida Nasriddin Afandi obrazi. –T.: Fan

BOLALAR FOLKLORI YARATUVCHILARI VA IJROCHILARI

Muqumova Gulchiroy Allayor qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs
gulchiroymuqimova@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunga qadar o‘zbek folklorshunosligidagi talay muammolar o‘z yechimini topib kelmoqda. Ammo hamon bu sohada ham olimlar oldida ko‘ndalang turgan masalalar yo‘q emas. Folklorshunoslik uchun noma’lum bo‘lgan, ammo xalq orasida mavjud og‘zaki ijod namunalari yozib olish, ularning tarixini o‘rganish hamda fanga ma’lum qilish, sohaning yangi yo‘nalishlarini yaratish, shakllantirish, xalq og‘zaki poetik ijodini yanada boyitish kunning asosiy vazifasi sifatida ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *xalq og‘zaki ijodi, folklor, folklorshunoslik, bolalar bolklori, onalik folklori, allalar, erkalatmalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, tezaytishlar, chorlamalar, sanamalar, tarqalmachoqlar, guldur-guplar, qo‘shiq, ertak, o‘yin qo‘shiqlari.*

Abstract. *To date, many problems in Uzbek folklore are being solved. But there are still challenges for scientists in this area. Recording of examples of oral art, unknown to folklore, but available among the people, the study of their history*

and knowledge of science, the creation and formation of new directions in the field, the further enrichment of folk oral poetry as the main task of the day.

Keywords: *folklore, folklore studies, children's folklore, motherly folklore, gods, caresses, rubbish, curiosities, lullabies, accents, invitations, enumerations, scatterbrains, thunderbolts, songs, fairy tales, game songs.*

“Barcha xalqlarning so‘z san’ati o‘sha xalqning folkloridan boshlanadi”, deb ta’kidlaydi Maksim Gorkiy (Madayev, 2010, 207-bet). O‘zbek folklori – qadim davrlardan to hozirga qadar shakllanib, og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan insoniyatga tengdosh so‘z san’ati. Xalqimiz og‘zaki ijodi xilma-xil tur va janrlardan tarkib topgan bo‘lib, o‘zbek xalqi dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, ijodiy salohiyati, simpatiya va antisimpatiyasi, orzu-maqsadlarini aks ettiradi. Xalq og‘zaki poetik so‘z san’ati o‘z ichida bir qancha guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Shulardan biri–o‘zbek bolalar folkloridir.

Bolalar folklori xalq og‘zaki poetik ijodining tarkibiy qismi sifatida kishilik jamiyatining dastlabki davrlaridanoq shakllana boshlagan. Buning uchun barcha asoslar mavjud bo‘lgan, ya’ni bolalar folklorining paydo bo‘lishi uchun yetarlicha shart-sharoit bo‘lgan. Barcha zamonlarda va hamma davrlarda go‘dakka alla aytilgan, bolalar bajargan yumushlari uchun kattalar tomonidan turli erkalashlar, maqtovlar orqali rag‘batlantirilgan, ular kattalarning mehnat jarayonida bevosita ishtikor etishgan, kattalar bolajonlarning turl-tuman qiziqarli savollariga javob berish uchun, kattalar tilida tushuntirish mushkul bo‘lgan jumboqlarni yechish uchun ertaklar yaratishgan.

Shuningdek, tinib-tinchimas bolalar yumushlardan toliqqan paytlarida horriq chiqarish uchun o‘yinlar o‘ynashgan. O‘yinlar pirovardida qo‘shiqlar yaratishgan. O‘rtoqlarini o‘yinga chorlash maqsadida chorlamalar aytishgan, bir-birlarining kamchilik va nuqsonlarini hamda odatlarini turli xil she’rlar vositasida „fosh etishgan“.

Natijada xalq og‘zaki ijodida bolalar folklori degan alohida tarmoq shakllandi. Bolalar folklori tarkibini esa allalar, aytim-olqishlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar, yalinchoqlar, tezaytishlar,chorlamalar,ertaklar,

o‘yin qo‘shiqlari, tarqalmachoqlar, qiqillamalar, chandishlar, masxaralamalar, sanamalar tashkil etadi.

Ammo G.S.Vinogradov, N.P.Andreyev, V.I.Chichenev va S.G.Lazutinlar erkalash poeziyasini bolalar folklori tarkibiga kiritishmaydi. Bunga sabab ularning ijodkori va ijrochiligida onalar asosiy qahramon bo‘lishadi va ular „onalik folklori“deb yuritiladi (Safarov, 2010, 332-bet).

Biroq erkalash bolalarni ardoqlashdan iborat motiv bo‘lib, u faqat ma’lum yoshdagi bolalargagina kuylanadi. Erkalatmalarning maqsadi ham bolalarga estetik zavq bag‘ishlashdan iborat. Bu esa erkalash poeziyasining asosiy vazifasi sanaladi.

V.P. Anikin, E.V.Pomeranseva, V.A.Vaselenko va M.N.Melnikovlar erkalashlarning bu xususiyatlariga ahamiyat berib, uni bolalar folklorining tarkibiy qismi sifatida xarakterlaydilar (Safarov, 2010, 332-333-betlar).

Oxunjon Safarov esa o‘zining “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darsligida yuqoridagi fikrni g‘oyatda to‘g‘ri nuqtayi nazar, - deb baholaydi (Safarov, 2010, 333-bet).

Shuningdek, O.Safarov bolalar folklorini tashkil etgan asarlar xilma-xil janrlardan iborat ekanligini ta’kidlab, ularni uch guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etgan:

1) onalik folklori;

2) bolalar mavsumiy-marosim taronalari;

3) bolalik qo‘shiqlari (Safarov, 1985, 227-bet)

Shu bilan birga folklorshunos Karimov topishmoq janri haqida so‘z yurita turib, “topishmoqlar bolalarga kattalardan o‘tgan” degan edi (Safarov, 2010, 332-bet).

Yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar hamda boshqa bir nechta folklorshunoslarning bolalar folklori haqidagi fikrlariga tayangan holda bolalar folklorining yaratilish xususiyatlarini inobatga olib ularni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) bolalar uchun yaratilgan og‘zaki ijod namunalari;

2) bolalar yaratgan og‘xaki ijod namunalari.

Bunda bolalar uchun yaratilgan folklor tarkibiga ijodkori kattalar bo‘lgan tezaytishlar, topishmoqlar, ertaklar; onalik folklori namunalari bo‘lgan alla, erkalatma, ovutmachoq, qiziqmachoqlar; ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojiga ko‘ra kattalar repertuaridan bolalar repertuatiga o‘tgan “Boychechak”, “Chittigul”, “Yo ramazon” qo‘shiqlari, hukmlagich va shu kabilarni kiritish mumkin. Bu guruhga mansub namunalar bolalar tomonidan yaratilmagan, ular, aksincha, kattalar tomonidan bolalar uchun, ularni allalash, uxlatish (alla), erkalash, farzandga bo‘lgan mehr tovlanishlarini aks ettirish (erkalama), yig‘laganda ovutish, tinchlantirish (ovutmachoq) ma’naviyatini boyitish, tashqi olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish (ertak), topqirlik, zukkolik sifatlarini shakllantirish (topishmoq), talaffuzini to‘g‘rilash, tezkorlikni oshirish (tezaytish) hamda turli mavsum-marosimlarda bolalar ijro etsin uchun (“Boychechak”– bahor mavsumida, “Yo ramazon” – ro‘za oyida ijro etish uchun) yaratiladi.

Hukmlagich ham dastavval qadimgi ajdodlarimizning totemistik e’tiqodlariga daxldor marosim qo‘shiqlari sifatida yaratilgan. Keyinchalik, davrlar o‘tishi bilan ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot ta’sirida transformatsiyaga uchrab, bolalar repertuariga o‘tib borgan va bolalarcha mushohadakorlik asosida qaytadan sayqallanib, yangi motivlar, obrazlarni o‘zida namoyon eta borgan. Taqlidiy so‘zlar vositasida yaratilgan hukmlagichlar esa butunlay bolalar dunyoqarashini o‘zida aks ettirishi bilan ahamiyatli:

— *Qurvaqajon, vaq-vaqa,*

Nega ko‘zing bunaqa?

— *Bugun o‘sma qo‘ymadim,*

Shuning uchun shunaqa.

Bolalar tomonidan yaratilgan folklor namunalari, tom ma’noda, haqiqiy bolalar folklorini tashkil etadi. Ularning ijodkori ham, ijrochisi ham shaxsan bolalarning o‘zlari bo‘lishadi. Bolalar yaratgan folklorga qiqillamalar, masxaralamalar, chorlamalar, sanamalar, tarqalmachoqlar, guldur-guplar va chandishlarni kiritish mumkin. Mazkur namunalar ijodkor bolajonlar tomonidan turli maqsadlarda yaratiladi. Masalan, qiqillamalar bolalarning ilk qo‘shiqlaridan

hisoblanadi. Ular 2–5 yoshli bolalar tomonidan to‘qiladi. Asosan, ikki misradan iborat bo‘lib, bolaning yoshi va salohiyati ulg'aya borishi bilan qiqillamaning hajmi ham kattarib boradi (Madayev, 1999, 144-bet). Qiqillama beg‘ubor bolalik kayfiyatini aks ettirishi bilan zavqlidir.

— *Karim, -dedim. —Ha, -dedi,*

Ko‘tarib urdim, —Ba! -dedi.

Tegishmachoqlarni aksar bolalar yaratib ko‘rishgan, faqat ularning o‘zlari tegishmachoq yaratishganligini anglashmagan bo‘lishlari mumkin. Tegishmachoq – ismga qofiyadosh laqab topish bo‘lib, bolalarning bir-birlariga yoki ba’zi hollarda kattalarga aytadigan hazil-mutoyibali ritmik nutqi:

Safiya–sapon,
Boshida chopon.
To‘yga borar
Bedasturxon. Yoki

Ra’no, Ra’no, Ra’nichka,
Oyog‘ida tapichka.
Tapichkasi g‘irchillaydi,
Ra’nojonim achchiqlaydi.

Tegishmalarning ko‘pchiligida badiiy san’atlar, jumladan, ko‘p hollarda yumoristik va satirik o‘xshatishlar qo‘llaniladi:

Homid eshak,
Yeydi xashak.
Yemasa xashak,
Baribir eshak.

Sanamalar ham juda keng tarqalgan bolalar folklori namunasi bo‘lib, ular, asosan, o‘yin vaqtida aytiladi. Bolalar berkinmachoq, quvlashmachoq o‘yinlarini boshlashdan oldin sanamalar sanashib, quvadigan yoki berkinganlarni topadigan o‘yinchini belgilashadi.

Madinaxon, Madina,
Otni qayerga bog‘lading?
— Otxonaga bog‘ladim.
— Necha paqir suv ichdi?
— Yetti paqir suv ichdi.
— Qolganini kim ichdi?
— Boyni xotini ichdi.
— Boyni xotini o‘lsin,
Bolasi bizga qolsin,
Bolasini sotaylik,

Barrapiyoz olaylik, *Yuragim sanchiq!*
Barrapiyoz achchiq

O‘yin qo‘shiqlari ham bolalar tomonidan yaratilgan folklor namunalari bo‘lib, ular ko‘pchilikni tashkil etadi. Bunga sabab bolalar qadim zamonlardanoq o‘yinqaroq, sho‘x, yerga ursa, ko‘kka sapchiydigan, bir xillikdan tez zerikadigan bo‘lishgan. Natijada ular o‘z ehtiyojlaridan kelib chiqib, zetikib qolmaslik uchun yangidan yangi o‘yinlarni o‘ylab topishgan. Yangi o‘yinlar paydo bo‘lgach, o‘z navbatida, ularga mos keladigan chorlama va sanama qo‘shiqlar to‘qishgan.

“Mehmonmisiz?!” ham bolalarning sevimli o‘yinlaridan biri sanaladi. Bu o‘yin o‘ziga xos qo‘l va oyoq harakatlari orqali ijro etiladi:

Juba-juba,
Ani juba,
Tog‘da lola,
Bir qiz bola,
Ko‘chaga chiqing,
Bir qiz keldi.
Sochi mayda,
Qo‘li belida.
- Voy qo‘lim-ey!
Voy belim-ey!
Omonmisiz, esonmisiz?!
Bugun bizga mehmonmisiz?!

Shunday qilib, bolalar folklori umumfolklorning tarkibiy qismi sifatida yuzaga kelgan. Bugungi kunga yetib kelginga qadar uning tarkibi boyib, xilma-xilligi, janr xususiyatlari kun sayin oshib bormoqda. Bolalar folklorini yanada chuqur o‘rganish, uni taftish etish, xalq orasidagi yangi namunalarini yig‘ish folklorshunoslik oldida turgan muhim vazifa sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov, O. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, 330-347.
2. Safarov, O. (1985). O‘zbek bolalar poetik folklori
3. Jo‘rayev, M. (2008). Folklorshunoslikka kirish. O‘quv qo‘llanma, 160-167.
4. Madayev, O. (2010). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, 207-219.
5. Madayev, O. (1999). O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi, 144-149.

Internet saytlari

1. www.folklore.uz.

BAHAEDDIN O‘GELNING “TURKIY MIFOLOGIYA” ASARIDA HAYOT DARAXTI MIFOLOGEMASINING BERILISHI VA UNING O‘ZBEK FOLKLORIDAGI PARALELLIKLARI

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna,
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti
azize.uz24@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolaning maqsadi turk tarixchi olimi, professor Bahaeddin O‘gelning ikki jildlik “Turkiy mifologiya” ensiklopedik asari bo‘limlaridan joy olgan turkiy xalqlarning kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan miflardagi daraxt obrazining dunyo mifologiyasidagi “hayot daraxti” mifologemasiga uyg‘unligi, turkiylarning qadim tasavvurlaridagi “hayot daraxti” uning o‘zbek folkloridagi paralelliklari haqida ma’lumot berishdan iborat.*

Kalit so‘zlar: *Bahaeddin O‘gel, Turkiy mifologiya, hayot daraxti, chinor, terak, mif, afsona, ertak, doston.*

Abstract. *The purpose of this article is to examine the compatibility of the image of the tree in the myths related to the origin of the Turkic peoples from the chapters of the two-volume “Turkish Mythology” encyclopedic work of the Turkish historian, professor Bakhaeddin Ogel, with the “tree of life” mythology in world mythology is to provide information about the “tree of life” in the ancient imagination of the Turks and the parallels of this mythology in Uzbek folklore.*

Keywords: *Bahaeddin Ogel, Turkish mythology, tree of life, maple, poplar, myth, legend, fairy tale, epic.*

Eng qadimgi adabiy jarayon namunalari - mif, afsona va ertak kabi folklor namunalari insonlarning olam haqidagi ilk tasavvurlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Bu haqdagi tasavvurlar, uning qay tarzda paydo bo‘lganligi va bu jarayonda odamning o‘rni qandayligi doimo insonlarni qiziqtirib, o‘ylantirib kelgan savollardan biri bo‘lib, u davrlar o‘tishi bilan olamning paydo bo‘lishi haqidagi mifologemalar yaratilishiga olib keldi. Mifologema - (yunoncha *mythos* - so‘z; nutq; hikoya) dunyo xalqlari badiiy tafakkurida keng tarqalgan, universallik va globallik xususiyatiga ega bo‘lgan ilk mifologik sujetlar, obraz hamda

ko‘rinishlardir. Mifologema - kosmogonik miflar tarkibidagi o‘zak sujetlar hisoblanib, u jahon kosmologiyasida keng tarqalgan hodisadir. Bundan tashqari, olam haqidagi tasavvurning shakllanishida har bir narsa dunyo markazi yoki olam o‘qiga bog‘liq edi, degan mifologemalar ham mavjud. (Жўрақўзиев, 2018, 86-bet). Insoniyat yer yuzida paydo bo‘lgandan buyon tabiat bilan hamnafas yashaydi. Odamni tabiatdagi turli-tuman tabiiy hodisalar, olamning yaratilishi va uning tuzilishi, osmon jismlari va ularning harakati, hayvonot va o‘simliklar dunyosidagi o‘zgarishlar o‘ylantirgan va buning natijasida olam haqidagi ilk ibtidoiy tasavvurlar kelib chiqqan. Olamni mifologik anglash asosida yuzaga kelgan ana shu dastlabki tasavvurlar keyinchalik mifga va xalq og‘zaki ijodining afsona, ertak, maqol, topishmoq, qo‘shiq kabi janrlarida o‘ziga xos tarzda talqin etila boshlagan. Xususan, tabiatga go‘zallik baxsh etgan daraxtlar, ularning turli-tumanligi, o‘sib chiqishi, barg yozishi, gullashi, meva tugishi, umrining uzunligi va rivojlanishi jarayoni bilan bog‘liq holatlarni kuzatgan ajdodlarimiz o‘zini o‘rab turgan olamdagi turli narsa-hodisalar singari daraxtlarni ham jonli deb tasavvur qilgan. Shuning natijasida animistik qarashlar kelib chiqqan.

Qadimgi ajdodlarimiz olamni vertikal tuzilishiga ko‘ra uch bosqichli, ya’ni Ko‘k (yuqori olam), Zamin (o‘rta olam) va Yer osti (quyi olam) dan iborat deb tasavvur qilgani bois, ana shu “uch qavatli dunyo”ni “olam o‘qi”, ya’ni “hayot daraxti” o‘zaro bog‘lab turishi va olamning qoq o‘rtasida o‘sgan bu mifologik daraxt borliqni ushlab turuvchi ustun vazifasini bajarishi haqidagi tasavvurlar ham shakllangan (Jo‘rayev, 2010, 4-bet).

Bunday asotiriy qarashlar jahondagi deyarli barcha xalqlar mifologiyasida keng tarqalgan bo‘lib, “hayot daraxti” mifologemasi haqidagi xilma xil mifik tasavvurlar silsilasini hosil qilgan. Turkiy xalqlar mifologiyasida ham “hayot daraxti” mifologemasi bilan bog‘liq ana shunday e’tiqodiy qarashlar va tushunchalar mavjud bo‘lgan. Xususan, turk tarixchisi va etnogrof olimi Bahaeddin O‘gel ham asarlarida turkiy xalqlar mifologiyasi tarkibidagi “hayot daraxti” mifologemasi bilan bog‘liq bo‘lgan e’tiborga molik bo‘lgan qator ma’lumotlarni taqdim etadi. U turkiy xalqlarning madaniyatiga oid bir necha tadqiqotlarni amalga

oshirgan bo‘lib, “Türk kültürünün gelişme çağları” (“Turkiylar madaniyatining rivojlanish davri”), “İslamiyet’ten önce Türk kültür tarihi” (“Turkiylarning Islomdan oldingi madaniy tarixi”), to‘qqiz jilddan iborat “Türk kültür tarihine giriş” (“Turkiylar madaniyati tarixiga kirish”) kabi asarlari shular jumlasidandir. Professor O‘gel ham garchi tarixchi olim bo‘lsa-da, o‘z asarlarida turkiy xalqlar mifologiyasiga oid ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni keltirib, bu sohada jiddiy izlanishlarni amalga oshirgan. Biz tadqiqotimiz obyekti sifatida o‘rganayotgan ikki jildlik “Türk mitolojisi” (“Turkiy mifologiya”) kitobi so‘zimizning yorqin misoli bo‘la oladi. Asar bo‘limlari turkiy xalqlar mifologiyasi qamrovidagi ko‘hna afsona va dostonlar, xalq inonchlari asosida yoritib boriladi. Asarda tadqiq etilayotgan mavzu, ya’ni “hayot daraxti” mifologemasiga bag‘ishlangan maxsus bo‘lim bo‘lmasa-da, biroq ayrim bo‘limlarida berilgan doston yoki afsonalari negizida ushbu mavzu haqida so‘z boradi va diqqatga sazovor ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, muallif asarning birinchi jildidan o‘rin olgan “Uygur türeyiş destanı” (“Uyg‘urlarning kelib chiqishi dostoni”) bo‘limida uyg‘urlarning kelib chiqishi haqidagi afsonani keltiradi va unga ko‘ra, bu xalq daraxtdan tug‘ilgan besh boladan tarqalganligi aytiladi. Biroq olim bu afsonani bir xalqning yaratilish dostoni sifatida qabul qilib bo‘lmasligini, uyg‘urlar bu besh boladan avvalroq mavjud bo‘lib hayot kechira boshlaganliklarini ta’kidlaydi (Ögel, 2010, 73-bet).

Turkiylar hayotida daraxtning o‘rni va “hayot daraxti” haqidagi fikrlarini davom ettirgan holda, Old Osiyo va O‘rta Osiyo xalqlari, oltoylar, yoqutlar, uyg‘urlarning mifologik tasavvurlari asosida vujudga kelgan doston va afsonalardan namunalar keltiradi va ulardagi bu mifologemaning o‘xshash va farqli hamda diqqatga sazovor tomonlarini tahlil etib boradi. Ayniqsa, Oltoy va yoqutlar mifologiyasida berilgan hayot daraxti bilan bog‘liq mifologik qarashlar dunyo mifologoyasidagi “hayot daraxti” modelini ko‘rishimiz mumkin. Oltoylarga ko‘ra, to‘g‘ri ko‘k yuziga tomon uzangan katta bir archa daraxti bor edi. Uning to‘qqizta shoxi bor edi. Osmon qavatlarini yorib o‘tgan bu daraxtning tepa qismi Tangri Ulganxonning makoni edi. Ularga ko‘ra yer yuzidagi odamlar va barcha yaratiqlar mana shu daraxtdan oziqlanardilar. Janubiy Sibirning Abakan tatarlari afsonalarida

esa bu qarash biroz farqlidir: yerning markazida ko‘kka tomon yuksalgan katta temir tog‘ bor edi. Bu tog‘ning ustida yetti shoxli qayin daraxti o‘sardi (Ögel, 2010, 90-92-betlar).

Yoqut turkiylarining milliy dostoni hisoblangan Er-Sogotoh afsonasi “hayot daraxti” bilan aloqador ma’lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi va bu afsona muallif tomonidan tahlilga tortiladi: “Er-Sogotoh(Oq-Og‘lon) dostoni bir necha sayyoh va tadqiqotchilar tomonidan to‘planib, nashr etilgan. Garchi bitta doston bo‘lsa-da, tadqiqotchilarning matnlari orasida katta farqlar bordir. shuning uchun dostonning matnlarini alohida alohida tahlil qilib chiqishni ma’qul topdik:

1. A.T. von Middendorf O‘rta Osiyo va Sibirda katta tadqiqotlar olib borgan olimlardan biridir. U to‘plagan mazkur dostondagi afsona qahramoni Odam Atoga o‘xshashdir. Faqat u yolg‘izdir. Shu sababli ko‘p zahmat tortadi va bu yuzdan unga Ereydah-Buruydahchi laqabini berishadi. Chunki u badbaxt, juda ko‘p azob tortgan g‘arib bir kishi edi. Bu yerda jannat Er-Sogotohning uyining sharqiy tarafida edi. Hayot daraxtiga esa “Hoqon-Daraxt” nomi berilgan edi. Bu dostondagi “hayot daraxti” o‘zining klassik ma’nosidan yiroqlashib, yoqutlarning yer va ko‘kni birlashtirgan Temir-daraxt mohiyatini anglatadi.

2. Quyidagi doston mashhur rus olimi I.A. Xudyakov tomonidan to‘plangan. U Yoqut adabiyotining mifologik turdagi eng yaxshi o‘rnaklarini yig‘ib, rus tiliga tarjima qilgan va chop ettirgan. Bu doston matnidagi “hayot daraxti” shunday tasvirlanadi:

Yoqutlarga ko‘ra, yer yuzi sakkiz burchakli emish,
Uning markazi esa sariq kindikli emish.
Yerning kindigida bir daraxt ham bor emish,
Bu daraxt katta emish, ko‘klarga yetar emish…
Daraxtning butoqlari osmonlarga uzanmish,
Ko‘rganlar o‘ylarkanki, go‘yo to‘qqiz shamdonmish…

3. N. Goroxov tomonidan to‘plangan matnning boshlanmasida ko‘k va yerning yaratilishi haqida juda muhim ma’lumotlar keltiriladi. Unga ko‘ra osmonning eng ust qavatida To‘qqiz Falak chig‘irig‘i bo‘lib, u to‘xtovsiz aylanib turadi. Uning

ostida yetti qavat ko‘k bordir. jannat ana shu ko‘kning eng tepasida va markazida edi. Bu yerda na oy va na quyosh botardi. Yerning sariq kindigidan chiqqan daraxt bu yerlarga qadar uzangan edi.

4. Bu dostonning eng mukammal matni mashhur nemis tilshunosi O. Bohtling tomonigan to‘plangan bo‘lib, unda ham “hayot daraxti” ko‘kka tomon uzangan shaklda tasvirlanadi. Unga ko‘ra, Er-Sogotoh daraxtning yoniga borishdan oldin quyoshga uch marta salom beradi va bu holat quyosh Er-Sogotoh uchun “hayot daraxti”dan ham muhimroq ekanligini ifodalaydi” (Ögel, 2010, 94-106-betlar).

Olim bu kabi tahlillarda “hayot daraxti” motivi yonida keladigan “Xumo qushi”, “hayot suvi” bilan bog‘liq tushunchalarga ham to‘xtalib o‘tadi. Yana bir keltirilgan ma’lumotga ko‘ra esa, Yoqutlarning muqaddas Tangrilari hayot daraxtining ildiz qismida yashagan va insonlarga jon baxsh etgan. Umuman, daraxt bilan bog‘liq bo‘lgan go‘zal afsonalar Oltoy hududlarida va buyuk davlatlar qurgan O‘rta Osiyo turkiylari tomonidan aytilganligini muallif alohida ta’kidlab o‘tadi.

Turkiy xalqlar madaniyatidagi “hayot daraxti”, “ko‘kning tirgagi”, umuman, daraxt bilan bog‘liq motiv “Turk mifologiyasi” asarining birinchi jildida atroflicha misol va izohlar bilan keltirilganiga qaramay, muallif bu mavzu ustida asar ikkinchi jildining o‘ttiz beshinchi bo‘limida ham o‘z izlanishlarini va qarashlarini davom ettiradi. Bu bo‘lim “Türk mitolojisinde ağaç” (“Turkiy mifologiyada daraxt”) deb nomlangan bo‘lib, unda turli turkiy xalqlar mifologiyasida uchraydigan archa, chinor, terak, qayin kabi muqaddas va muborak daraxtlar, ularning xalq turmush tarzidagi o‘rni, turkiylarning qadim mifologik qarashlari va inonchlari haqida so‘z boradi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi “daraxt” poetik timsoli maxsus tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, A. Musaqulov, M.Jo‘rayev, Sh. Turdimov, M. Yoqubbekova kabi olimlarning tadqiqotlarida uning mifologik asoslari va badiiy matndagi funksiyalari, o‘rni haqida mulohaza yuritiladi. Folklorshunos olim M. Jo‘rayev D. Sattiyeva bilan hamkorligida “Hayot daraxti” risolasida u bilan bog‘liq mifologik tasavvurlarning yuzaga kelish tarixi va uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi talqini haqida so‘z yuritiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida chinor, tut, yong‘oq, gujum,

terak kabi daraxtlar “hayot daraxti” ning ekvivalentlari sifatida tasvirlanadi. Yer yuzida hayotning boshlanishi va inson naslining ko‘payishi haqidagi miflarda ham “hayot daraxti” to‘g‘risidagi qarashlar o‘z aksini topgan. Daraxt kulti xususidagi inonchlar asosida turli xil daraxtlarni muqaddaslashtirish va ularni aziz-avliyolar bilan bog‘lab talqin qilish an’anasi kelib chiqqan (Jo‘rayev, 2010, 41-bet). O‘zbek xalq dostonlarida, ertaklarida, qo‘shiqlarida “hayot daraxti” yoki muqaddaslashtirilgan daraxt obrazini ko‘plab uchratishimiz mumkin. Masalan, Sh. Turdimov tomonidan tuzilgan va 1990-yilda nashr qilingan “O‘zbek xalq ertaklari” kitobidan joy olgan “Odilbek va Xurrambek” ertagida tasvirlanishicha, qahramon “bir yerga borsa, azamat chinor osmon bilan chambarchas o‘ralib turgan emish, soyasida to‘rt yuz ming kishi yotguday emish. Odilbek ham haligi chinorning soyasiga borib o‘tiribdi. Xayol surib o‘tirgan ekan, birdan chinorning tepasidan qush bolalarining chiyillashi eshitilibdi. Boshini ko‘tarib qarasa, chinorning tepasida Semurg‘ qushining uyasi bo‘lib, uyadagi bolalari chiyillayotgan ekan. Qarasa, bir ajdar chinorga o‘ralashib, qushning uyasiga yaqinlashib borayotganmish.” Ertakdagi tasvir “hayot daraxti” ning dunyo modulini eslatadi. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarida, xususan, “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida hayot daraxtining dunyo modelidagi joylashish o‘rni bilan uyg‘un holda tasvirlanganini ko‘ramiz. “Hayot daraxti”ning dunyo modelidagi joylashish o‘rni ko‘pincha, tog‘ va buloq bilan birgalikda tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muqaddas yoki muborak sanalgan daraxtlar bilan bog‘liq mifologik qarashlarning kelib chiqishi ham dunyo mifologiyasida, ham turkiy xalqlar mifologiyasida ayni bir “hayot daraxti” mifologemasiga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ögel, B. (2010). Türk Mitolojisi, I.cild, TTK Basimevi, Ankara, 2010
2. Ögel, B. (1995). Türk Mitolojisi, II.cild, TTK Basimevi, Ankara,
3. Жўрақўзиев, Н. (2018). Қадимги туркий ёзма ёдгорликларда космогоник мифология. (86-бет). PhD дисс. Тошкент.
4. Жўраев, М., Саттиева Д. (2010). Ҳаёт дарахти. Фан.

“QUTADG‘U BILIG”DAGI AYRIM MAQOLLAR HAQIDA (“QUTADG‘U BILIG” SO‘ZLIGI KITOBIDAGI “A” VA “B” HARFLARI MISOLIDA)

Shomurodova Munisa Sherali qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs
sheraliyevna02@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” so‘zligi kitobidagi “A” va “B” harflari misolida maqollar tasnifi ko‘rsatilgan. Maqollarning qisqacha mavzu ko‘lami, ma’nosi va ba’zilarining tilimizdagi varianti keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”, “Qutadg‘u bilig” so‘zligi, qadimgi turkiy adabiyot, maqollar, qo‘lyozma*.

Abstract. *This article shows the classification of proverbs on the example of the letters "A" and "B" from the book “Kutadgu Bilig” dictionary. A brief scope of the proverbs, their meaning, and the version of some of them in our language are given.*

Keywords: *Yusuf Khos Hajib “Kutadgu bilig”, “Qutadgu bilig” dictionary, ancient Turkish literature, proverbs, manuscript.*

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” masnaviysi qoraxoniylar davri adabiyoti va adabiy tilining, eski turk falsafasining bebaho yodgorligidir. Ulug‘ adib “Qutadg‘u bilig” asarida “Bu turkcha so‘zni tog‘ kiyigidek ko‘rdim” (Keyik tayi kördüm türkça sözüg) deb yozgan edi. O‘z masnaviysini bitar ekan, o‘tkir til bilimini ishga solgan. Hayratlanarlisi shundaki, eski turkiy til lug‘at tarkibidagi so‘zlarning kishi o‘y-xayoliga kelmagan, boshqa yozma yodgorliklarda uchrayvermaydigan, inja ma’nolarni ham “Qutadg‘u bilig” dan topamiz. Shoir eski turkiy tilning boyligi, keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan. Asarning uch yirik qo‘lyozmasi mavjud:

Hirot (yoki Vena) qo‘lyozmasi. Ushbu qo‘lyozma uyg‘ur yozuvida bo‘lib, uni 843 hijriy (1439 milodiy) yili Hirotda Hasan Qora Sayil Shams baxshi ko‘chirib tugallagan, hozir Venada saqlanayotir.

Namangan (yoki Farg‘ona) qo‘lyozmasi. Bunisi taxminan XIII yuzyillikda arab xatida ko‘chirilgan, hozir Toshkentda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda (1809-ko‘rsatgichli qo‘lyozma).

Qohira qo‘lyozmasi. Asarning bu qo‘lyozmasi ham arab yozuvida bo‘lib, taxminlarga qaraganda, XIV yuzyillikda ko‘chirilgan, hozir Qohirada saqlanmoqda (Misr Milliy kutubxonasi, 168-ko‘rsatkichli qo‘lyozma). Asarning oti “Baxtga eltuvchi, qut berguvchi bilim” / “Baxtga eltuvchi kitob” ma’nolarini anglatadi.

Qosimjon Sodiqovning “Qutadg‘u bilig” so‘zligi” dan foydalangan holda, asarda qo‘llangan maqollar miqdorini sitatistik tahlil yordamida aniqlash va o‘zbek xalq maqollari bilan qiyoslashga harakat qildik. Ushbu maqolada “Qutadg‘u bilig” so‘zligi” dagi A va B harflari lug‘atida qo‘llangan maqollarni ko‘rib chiqdik. Maqollar miqdori 60 ta ekanligi aniqlandi (ilovada ko‘rsatilgan). Ba’zi maqollardagi so‘z takror kelgan holda maqolning o‘zi ham takror qo‘llangan o‘rinlar mavjud (Sodiqov, 2020, 3-34-betlar). Ayrim maqollarni qiyoslashga harakat qildik:

1. **Awuçqa sözi - ol yigitlar közi. -** “Qariya so‘zi yigitlar ko‘zidir” (Sodiqov, 2020, 56-bet).Shu mazmundagi maqol bugun tilimizda quyidagicha qo‘llanmoqda: “Otalar so‘zi aqlning ko‘zidir”.

2. **Urup berka başi bütar, terk sönar,**

Tilin söksa bütmas açiyi yilin. - “Kaltak yarasi bitadi, tez esdan chiqadi, Til bilan so‘ksa, bitmaydi, achchig‘i yillar bo‘yi qoladi” (Sodiqov, 2020, 79-bet). Ushbu mazmundagi maqol bugungi kunimizda quyidagicha qo‘llanmoqda: “Til yarasi bitar, Tig‘ yarasi bitmas”.

3. **Atasi beg ersa, oyul tuydi beg.** “Otasi beg bo‘lsa, o‘g‘il ham beg bo‘lib tug‘iladi” (Sodiqov, 2020, 67-bet). Hozirdagi “ot o‘rnini ot bosar”, “olma tagiga olma tushadi” kabi maqollarda anglashilayotgan mazmun yuqoridagi maqolda o‘z aksini topadi.

4. **Sözi birla yanluq ayir qildi öz.** “So‘zi bilan inson o‘zini ulug‘ qildi” (Sodiqov, 2020, 40-bet). Ushbu maqolni “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi “Tilin tergika tegir” – “Shirin, yoqimli so‘z bilan kishi dasturxonga yetishadi”

(Mirzaliyev, 2019, 91-bet) maqoliga qiyoslasak bo‘ladi. Maqolda “xushmuomala, yoqimli so‘z, shirin til bilan kishi izzat-ikromda bo‘lishi” nazarda tutilgan.

5. **Boyun ber qadaqa, köni tut ağiz.** (QBN.58a,6) “Qazoga bo‘yin ber, to‘g‘ri tut og‘iz” (Sodiqov, 2020, 75-bet). Ushbu mazmundagi maqol bugungi kunda nutqimizda quyidagicha o‘z aksini topgan: “Boshingga qilich kelsa ham, rost so‘zla”.

“Qutadg‘u bilig” asarida qo‘llangan maqollar o‘z zamonida xalqning og‘zaki ijodida, ya’ni kundalik hayotida faol iste’molda bo‘lgan. Ma’lumki, xalq maqollarining ko‘pchiligi muayyan bir konstruktsiyalarga, o‘ziga xos xos qurulishga, takrorlanmas mantiqiy butunlikka ega bo‘ladi. Ularni mavzu doirasiga ko‘ra ko‘p turkumlarga ajratishimiz mumkin.

Umuman olganda 60 ta maqolni quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Til haqidagi maqollar.
2. Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar.
3. Bilimlilik va bilimsizlik to‘g‘risidagi maqollar.
4. Birdamlik haqidagi maqollar.
5. Oiladagi munosabatlar haqidagi maqollar.
6. Ezgulik mavzusidagi maqollar.
7. Tiriklik va o‘lim haqidagi maqollar.
8. Farzand tarbiyasiga oid maqollar.
9. To‘g‘ri so‘zlik haqidagi maqollar.
10. Kamtarlik to‘g‘risidagi maqollar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojibdan ulkan meros bo‘lib qolgan yodgorlik – “Qutadg‘u bilig” asari hukmdorlar va katta-kichik amaldorlarga atab yozilgan hukmdorlar adabnomasi, barcha turkiy xalqlar tarixini yoritib berishda muhim manbadir. Qolaversa, bu manbani o‘rganish tilimiz tarixi uchun ham, xalqimiz tarixi uchun ham ko‘pgina qimmatli materiallar berishi shubhasiz. Asardagi maqol matnlarida qo‘llanilgan so‘zlar ham qadimgi turkiy til go‘zalligini yaqqol namoyon qiladigan darajada boydir. Umuman olganda, asarda qo‘llangan maqollar mazmunan eskirmaganini guvohi bo‘lamiz. Maqol qaysi zamon va

makonda yaratilmasin agar u o‘zining mazmunini, dolzarbligini yo‘qotmasa, ishlatilaveradi.

Ilova:

1. **Kiçigka uluğ boldi açiğ, sücüg.** – Kichiklarga ulug‘lar ochiq va shirinso‘z bo‘ladi (Sodiqov, 2020, 35-bet).
2. **Süçig bu tiriglik, açiğ bu ölüm. –** Tiriklik shirin, o‘lim achchiqdir (Sodiqov, 2020, 35-bet).
3. **Kiçigda adab yoq, uluğda bilig. –** Kichikda odob yo‘q, ulug‘da bilim (Sodiqov, 2020, 36-bet).
4. **Sözi birla yanluq ağir qildi öz.** - So‘zi bilan inson o‘zini ulug‘ qildi (Sodiqov, 2020, 40-bet).
5. **Ew almaq tilasan, ayit qöşnisin,**

Yer almaq tilasan, ayitğil suwin. – Uy olmoq istasang, so‘ra qo‘shnisin, Yer olmoq istasang, so‘ragin suvin (Sodiqov, 2020, 42-, 44-bet).

6. **İnanma, bu davlat berür ham alir. –** Inonma, bu davlat uni beradi hamda oladi (Sodiqov, 2020, 43-bet).
7. **Qiliç aldi-berdi bodzunuy tüzar,**

Qalam aldi-berdi yoriq yol süzar. – Qilich oldi-berdisi xalqni tuzadi, Qalam oldi-berdisi ezgu yo‘l-yo‘riqlar tuzadi (Sodiqov, 2020, 44-bet).

8. **Til arslan turur, kör, eşikta yatur. –** Til qafasda yotgan arslon kabidir (Sodiqov, 2020, 49-bet).
9. **Kuwazlanma artuq, turi bolğa-sen,**

Saran bolma artuq, söküş bulğa-sen. – Ortiqcha gerdayma, noma’qul bo‘lasan, Ortiqcha baxil bo‘lma, so‘kish topasan (Sodiqov, 2020, 50-bet).

10. **Ölümka asiğ qilmas, altin-kümüş. –** O‘limga foyda qilmas, oltin-kumush (Sodiqov, 2020, 50-bet).
11. **Asiğsiz-tusulmas qadzaş ersa qodz,**

Tusulur adaş tut, asiğ birla todz. – Foydasiz-manfaatsiz qarindosh bo‘lsa, qo‘y, Foyda keltiradigan do‘st tut, foyda bilan to‘y (Sodiqov, 2020, 51-bet).

12. **Uquşsuz kişi bir avuçça yenik. –** O‘quv-idroksiz kishi bir hovuch arzimas narsaday (Sodiqov, 2020, 56-bet).

13. **Awuçqa sözi-yigitlar közi. –** Qariya so‘zi yigitlar ko‘zidir (Sodiqov, 2020, 56-bet).

14. **Kişi aybi körma, özunni kör.** – Kishining aybini ko‘rma, o‘zingdan ko‘r (Sodiqov, 2020, 58-bet).

15. **Kim edzgu qilar bolsa edzgu bulur,**
Basinçaq ya satğağqa baqmaz bolur. – Kim yaxshilik qilar bo‘lsa, yaxshilik topadi, u jabr-u sitamdiydalikka qaramaydi (Sodiqov, 2020, 64-bet).

16. **Havaqa basiqma, uquş birla kes. –** Havasga yengilma, uquv bilan kes (Sodiqov, 2020, 64-bet).

17. **Esiz baş kötürsa, kör, edzgu yitar. –** Yomon bosh ko‘tarsa, ko‘rgin, yaxshi yo‘qoladi (Sodiqov, 2020, 64-bet).

18. **Öküş sü-çerig ersa, başsız bolur. –** Lashkar-qo‘shin ko‘p bo‘lsa, bebosh bo‘ladi (Sodiqov, 2020, 65-bet).

19. **Ağişqa iniş-ol, edzişka batiğ,**
Sewinçka saqinç-ol, açiğqa itiğ. – Yuksalishning inishi, balandlikning pastligi, Sevinchning alami, chuchuklikning achchig‘i bo‘ladi (Sodiqov, 2020, 65-bet).

20. **Neça qul bedüsa qul ati “qul”- oq,**
Bedütmiş beginka tapuğçi-ol-oq. – Qul qanchalik ulug‘likka yetmasin, qulning oti “qul” xolos, Ulug‘likka yetkazgan begiga xizmatkordir, xolos (Sodiqov, 2020, 66-bet).

21. **Biligsiz kişi-ol quruğ sir, bedziz. –** Bilimsiz kishi quruq bo‘yoq va suratdir (Sodiqov, 2020, 66-bet).

22. **Biligni bedzüg bil, uquşni uluğ. –** Bilimni buyuk bil, uquvni ulug‘ (Sodiqov, 2020, 66-bet).

23. **Bedzüg tut bu himmat, edziz tut könül. –** Himmatni baland tut, ko‘ngilni yuqori tut (Sodiqov, 2020, 66-bet).

24. **Bilig kimda bolsa, bedzüglük alur.** – Bilim kimda bo‘lsa, buyuklik oladi (Sodiqov, 2020, 66-bet).

25. **Atasi beg ersa, oyul tuydi beg.** – Otasi beg bo‘lsa, o‘g‘il ham beg bo‘lib tug‘iladi (Sodiqov, 2020, 67-bet).

26. **Qiziğ tutma ewda uzun begsizin,**

Ökünç birla ölga özün igsizin. – Qizni uyda uzoq ersizlikda saqlama, O‘zing kasallanmay o‘kinch bilan o‘lasan (Sodiqov, 2020, 67-bet).

27. **Bekig qoşni qilma ya yuğğun ögüz.** – Qattiqni(ziqnani) yo daryo shimiruvchini(ochko‘z) qo‘shni qilma (Sodiqov, 2020, 67-bet).

28. **Bitigç-ilimğa bolunsa özün,**

Könül sirri bek tut, çiqarma sözün. – O‘zing maktub yozuvchi bosh kotib bo‘lsang, Ko‘ngil sirini yashirin tut, so‘zingni chiqarma (Sodiqov, 2020, 67-bet).

29. **Közin yerka tikti, bekütti tilig. –** Ko‘zini yerga tikdi, tilini berk tutdi (Sodiqov, 2020, 68-bet).

30. **Tuğuğli ölür, kör, qalir belgüsüz. –** Tug‘ilgan o‘ladi, ko‘rgin, nom-nishonsiz qoladi (Sodiqov, 2020, 68-bet).

31. **Oğul-qizqa berka bilig ögratür. –** O‘g‘il-qizga kaltak bilim (adab) o‘rgatadi (Sodiqov, 2020, 69-bet).

32. **Ağin kendü berklig, tili sözlamas,**

Biligsiz tili-ol sözin kezlamas. – Soqovning tili o‘zi berk, u so‘zlay olmaydi, Nodonning tili esa so‘zini yashira olmaydi (Sodiqov, 2020, 69-bet).

33. **Yawuz bu ölüm, kör, ulunni biçar. –** Ko‘rgin, yovuz bu o‘lim tomiringni kesadi (Sodiqov, 2020, 69-bet).

34. **Bilig bil, uquş uq, yurima yawa. –** Bilim bil, uquv uq, behuda yurma (Sodiqov, 2020, 70-bet).

35. **Edzi edzgü erdam bilig bilsa er,**

Taqi artuq erdam qiliç ursa er. – Kishining bilim bilgani juda yaxshi fazilat, Kishi qilich ursa, yana ham ortiq fazilat (Sodiqov, 2020, 71-bet).

36. **Biliglig tetig bilgi elka etig. –** Bilimli ziyrak kishining bilimi el uchun bezakdir (Sodiqov, 2020, 71-bet).

37. **Magar iki türlüg kişi-ol bilin,**

Birisi – biligsiz, birisi – ağin. – Axir kishi ikki turli bo‘ladi, bilgin, Biri – nodon, yana biri – lol (Sodiqov, 2020, 71-bet).

38. **Kişi edgülükka sewüg jan berür,**

Bir edgü yanuti on edgü qilur. – Kishi ezgulikka shirin jon beradi, Bir ezguga javoban o‘n ezgulik qiladi (Sodiqov, 2020, 71-bet).

39. **Bu iki biriksa, bolur er tügal,**

Tügal er azunuğ tamam yer tügal. – Zakot va bilim biriksa, er tugal (mukammal) bo‘ladi, Tugal er (komil inson) dunyoni butunlay qo‘lga kiritadi (Sodiqov, 2020, 72-bet).

40. **Qali arzu birla könül iglasa,**

Tilak bulsa, önlür igi belgülüg. – Agar ko‘ngil orzu tufayli dardga chalinsa, Istak topsa, dardi aniq tuzaladi (Sodiqov, 2020, 72-bet).

41. **Ölürin bilip qilmiş özka etig,**

Bitip qodzmiş atin tirigka bitig. – O‘lishini bilib o‘ziga hozirlik ko‘rgan, (kishi), Otini tiriklar uchun xotira qilib yozib qoldiradi (Sodiqov, 2020, 73-bet).

42. **Bitigsiz işig bek tutumas könül,**

Könülka işanma, biti ey oğul. – Yozuvsiz ishni ko‘ngil (fikr,xotira) saqlay olmaydi, Ko‘ngilga ishonma, yozib qo‘y, ey o‘g‘il (Sodiqov, 2020, 73-bet).

43. **Bitinmiş üçün söz unitmas qalur. -** Yozilgan bo‘lgani uchun so‘z unutilmaydi, mangu qoladi (Sodiqov, 2020, 73-bet).

44. **Boyun ber qadaqa, köni tut ağiz. –** Qazoga bo‘yin ber, to‘g‘ri tut og‘iz (Sodiqov, 2020, 75-bet).

45. **İki türlüg-ol bu tapuğ qilğuçi:**

Biri – boş, biri – qul umunç tutğuçi. – Xizmat qiluvchi ikki turlidir: Biri ozod, biri xojatmand quldir (Sodiqov, 2020, 75-bet).

46. **Süçig içma, boşlağ, yurüma yawa. –** Ichimlik ichma, bekor, behuda yurma (Sodiqov, 2020, 76-bet).

47. **Yawa idzma boşlağ, yiğa tut, qisa,**

Qisa tutsa oğlan bulur qut basa. – Behuda bo‘sh qo‘yma, yig‘ib, tergab tur, Tergab turilsa, so‘ng bola baxt topadi (Sodiqov, 2020, 76-bet).

48. **Qara qarni todsa, tili boşsir(ar),**

(Ba)sa tutmasa bek, özi erk sürar. - Qora(avom) qorni to‘ysa, tili ozodlikni istab qoladi, Bosib bek tutilmasa, o‘zi erk talab qiladi (Sodiqov, 2020, 76-bet).

49. **Nekü asği axir ölür ersa öz,**

Sena teggüsi yoq magar iki böz. – Oxiri o‘zing o‘ladigan bo‘lsang, narsaning nima keragi bor, Senga ikki (parcha) bo‘zdan boshqa tegadigan (narsa) yo‘q (Sodiqov, 2020, 76-bet).

50. **Kişig til ağirlar, bulur qut kişi. –** Kishini til qadrlaydi, u tufayli baxt topadi (Sodiqov, 2020, 77-bet).

51. **Sözüg kim tügatür neça sözlasa,**

Aqa tinmaz, artar bulaqlar ara. – Qancha so‘zlagan bilan, so‘zni kim tugatar edi, (chunki so‘z suv singaridir) Buloqlar aro oqib tinmaydi, ko‘payadi (Sodiqov, 2020, 77-bet).

52. **Qamuğ bulğanuqni süzayin tesa,**

Özün süzgü, bodnun süzülga basa. – Hamma iflosliklarni tozalayin desang, O‘zingni poklashing kerak, so‘ng xalqing poklanadi (Sodiqov, 2020, 77-bet).

53. **Kişi umduçi bolsa, boldi bulun. –** Kishi ta’magir bo‘lsa, qul bo‘ldi degani(Sodiqov, 2020, 77-bet).

54. **Burunduqluğ-ol söz tewa burni-teg. -** So‘z tuyaning burnidek jilovlangan bo‘ladi (Sodiqov, 2020, 78-bet).

55. **Qayusi örüm kedzti, bükri uça,**

Qayu yer kezar, bu közi yaş saça. - Ba’zisi juldur(kiyim) kiygan, yelkasi bukri, Ba’zisi yer kezadi, ko‘zi yosh sochadi (Sodiqov, 2020, 78-bet).

56. **Urup berka başi bütar, terk sonar,**

Tilin söksa bütmas açiyi yilin. – Kaltak yarasi bitadi, tez esdan chiqadi, Tili bilan so‘ksa, bitmaydi, achchig‘i yillar bo‘yi qoladi (Sodiqov, 2020, 79-bet).

57. **Bu iç söz tutuğli bütün-çin kerak,**

Bütünlükka artuq bütün din kerak. - Bu ich-so‘z tutuvchi ishonchli bo‘lishi kerak, Ishonchlilikka ortiq iymonli bo‘lish kerak (Sodiqov, 2020, 79-bet).

58. **Bütünsüz bar ersa, yiratğu ani. -** Ishonchsiz kishilar bor bo‘lsa, ularni uzoqlashtirish kerak (Sodiqov, 2020, 79-bet).

59. **Tilamiş tilaki bolur “bol” tesa.** – (Tangri) “bol” desa, tilagani boladi (Sodiqov, 2020, 75-bet).

60. **Qali edzgü bulmaq tilasa özün,**

Yuri, edzgülük qil, kesildi, sözün. – Agar sen ezgulik topmoq istasang, Kelgin, ezgulik qil, kesildi so‘zing (Sodiqov, 2020, 77-bet).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzaaliev, I. (2019). “Devonu lug‘oti-t-turk”dagi maqollarning mavzuiy guruhlari // *Sharqshunoslik.* №3. – B. 86-102.
2. Mirzayev, T., Musaqulov A., Sarimsoqov B. (2005). *O‘zbek xalq maqollari.* Toshkent: Sharq.
3. Sodiqov, Q. (2020). *“Qutadg‘u bilig” so‘zligi*. Toshkent: Akademnashr.

USMON AZIM IJODIDA BAXSHIYONA OHANGLAR

To‘rayeva Dilorom Latif qizi
ToshDO‘TAU Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti
dilorom_turayeva@gmail.com

Annotatsiya. *Adabiyot hamisha xalq ijodidan oziqlanib, foydalanib keladi. Xalq og‘aki ijodi yozuvchi, shoirlarimiz ilhom manbayi sifatida go‘zal asarlar yaralishiga xizmat qilib kelmoqda. Usmon Azimning “Baxshiyona” she’rlar turkumi ana shu ilhom yanglig‘ yaratilgan go‘zal obidadir. Biz ushbu maqolamizda Usmon Azim she’riyatining baxshiyona asoslarini tadqiq etdik. Ijodkor she’riyatidagi xalqonalik, folklorga xoslik she’rlar misolida tahlil etildi.*

Kalit so‘zlar: *Folklor, Baxshiyona, she’r, shoir, Alpomish, Go‘ro‘g‘li, ohang, motiv, turkum.*

Abstract. *Literature has always been nourished and used by folk art. Folklore writers and poets have been inspired to create great works. Osman Azim's collection of poems "Baxshiyona" is a beautiful monument of this inspiration. In this article, we have studied the national and folklore foundations of Osman Azim's*

poetry. The internationalism and originality of folklore in creative poetry were analyzed on the example of poems.

Keywords: *Folklore, Bakhshiyona, poem, poet, Alpomish, Gorogly, melody, motif, series.*

She'riyat ijodkorni olam va odam, borliq va koinot bilan bog'ovchi vositadir. Shoirlarning tillashish, dillashish tarzi – so'z, she'r orqalidir. Shoir kitobxon bilan muloqotga chog'lanar ekan, goh yomg'ir bo'lib yog'adi, goh quyosh kabi porlaydi. Shunday shoirlar borki, tug'ilishdan, fitratan o'zini xalqqa yaqin oladi. O'zining xalqchil ruhi bilan yuraklarga yo'l topa oladi. Chunki ular shunday yaralgan. Baliqning makoni obi-hayot, u suvdan o'zga yerda yashay olmaydi. Asl el shoirlarining ham borar manzili – xalq, aytar so'zi – baxshiyonadir. Usmon Azim xuddi shunday qalbi yoniq ijodkor.

Xalq og'zaki ijodi o'zining betakror tarovati, o'ziga xos usuli bilan insonlar qalbidan chuqur joy egallab kelmoqda. Shunday yozuvchi, shoirlarimiz borki, xalqona ohang, xalqona usul ular ijodining bir bezagi bo'lib xizmat qiladi. O'zbek adabiyotida folklor ta'siri natijasida juda ko'plab asarlar, she'rlar yaratildi. Usmon Azim ham xalq og'zaki ijodidan ruhlangan holda o'zining "Baxshiyona" turkumini yaratib xalq ijodining yetuk bilimdoni ekanligini namoyish etdi. Ushbu turkumga kiritilgan she'rlar asosi folklorga borib taqaladi. Shoir ijodini kuzatar ekanmiz uning "Alpomish", "Go'ro'g'li" turkum dostonlariga mehri bo'lakchaligiga guvoh bo'lamiz.

"Boychibor bo'lmaganida Alpomish bo'lmaganidek, she'riyat bo'lmaganida Usmon Azim ham bo'lmasdi. Bugungi o'zbek she'riyatida "shoir" ko'p, shoirlarning alplari bor. Lekin she'riyatning 90 alpini bir joyga yig'sang, ularning barchasini faqat "Iste'dodga sadoqat"i va dilining barkamolligi bilan dog'da qoldiradigan, barcha alplarni yenggan Alpomishdek qudratga ega bo'lgan, xalq bahodiriga ildiz bo'lgan, uning mardligini diliga ko'chirgan uyg'oq shoiri – Usmon Azimi bor"(Умуров, 2009, 53-бет)

"Baxshiyona" uch qismdan iborat bo'lib, har bir qism o'zining xususiy va umumiy jihatlariga ega. Masalan, dastlabki qismdagi sakkiz dramatik ballada

chuqur mantig‘i, falsafasi bilan, ikkinchi qismdagi “Baxshiyona” turkumi xalqona ruhi bilan, so‘nggi uchinchi qism esa yaxlit xoldagi yirik bir badiiy asarligi va undagi mazmunning o‘ziga xosligi bilan o‘zaro farqlanadi.

“Baxshiyona” Usmon Azim ijodida xalqona yo‘nalishdagi she’riy asarlar va folklorga monand ijod etish uslubi muhim ahamiyat kasb etishini yana bir bora dalillaydi. Turkumdagi she’rlar har tomonlama: g‘oyasi, usuli, shakliy tuzulishi, umuman, kompozitsion qurilishi bilan xalq og‘zaki ijodi namunalarini yodga soladi. Satrlardagi soddalik, samimiylik, ohangning o‘ynoqiligi, bayon etish usuli xalqonadir. Mutolaa qilarkansiz o‘zingizni butun boshli xalq dostonlari, lapar-u qo‘shiqlari og‘ushida orom olgandek his qilasiz. Negaki, bu turkum she’rlarda folklorning eng yetakchi, eng muhim va ta’sirchan g‘oyalari, motivlari, oxanglari, mohirona, zamonaviy ifodalanadi.

“Baxshiyona” turkumidagi she’rlarning asl mag‘zini Vatan tuyg‘usi, unga bo‘lgan muhabbatning salmog‘i, yurtdan, eldan judolikning zalvori tashkil etadi. Shunga muvofik she’rlardagi boshqa g‘oyalar ham muallifning asosiy maqsadi bo‘lgan Vatan tushunchasining anglanmagan nuqtalarini yoritishga xizmat qildiriladi.

She’rlarda turkum doirasidagina an’anaviy bo‘lgan Elbek baxshi, Elomon, Oqbotir, Qorabotir, Alpomish, Barchin, Qaldirg‘och kabi bir qator obrazlar ishtirok etadiki, sinchkovlik bilan e’tibor berilsa, muallif obrazlarning deyarli har birida o‘ziga xos bir ramziylikni ifodalashga xarakat qilganini sezish qiyin emas. Masalan, o‘z eli, vatani uchun fido bo‘lishga, jonini berishga tayyor vafodor insonlar Oq botir timsolida, unga qarama-qarshi tomon vakillari esa Qora botir nomi ostida birlashtirilgan. Yoki ushbu ikki obraz yuqoridagilarni mantiqan o‘z ichiga qamrab oladi (Shermurodov, 2011, 56-bet).

“Baxshiyona” turkumining yana bir o‘ziga xos xususiyati – bu she’rlarning deyarli barchasi baxshi tilidan ya’ni, Elbek baxshi tomonidan do‘mbira jo‘rligida aytilganidiridir. Baxshi do‘mbirasini qo‘lga oldimi, bas, go‘yoki o‘zini unutgandek qadim zamonlarga ruhan ko‘chib o‘tadi. Ular ajdodlarimiz qahramonliklari, bahodirlarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rib turgandek junbushga kelgancha kuylashlari

bizni o‘zligimiz, tariximiz o‘zanlariga yetaklaydi. Baxshiyona topqirlik, badihago‘ylik esa har qanday san’atni samolarga olib chiqib, unga ilohiylik baxsh eta olish qudratiga ega bo‘ladi. Bu — mo‘jiza!

Turkumda o‘zining donoligi, nasihatlari bilan bizni rom qilgan Elbek baxshi esa aslan “Usmon baxshi”dir. Baxshi tilidan aytilgan har bir she’r vatanparvarlik, xalqchillik, ishqqa vafo, sadoqat, mardlik, botirlik va haqiqat kabi ulug‘vor tuyg‘ular bilan yo‘g‘rilgandir. Masalan, “Elbek baxshi shogirdi Elomonga...” deb boshlanuvchi she’rda vatanning, el-u yurtning qadr-qimmati, uning buyuk tarixi va unga bo‘lgan mehr-muhabbati go‘zal ohanglarda bayon etiladi. Asar boshida Elbek baxshi o‘z shogirdi Elomon baxshini “Dunyoga aytadiganingni aytgin, dumog‘ingni chog‘ qilib, ko‘ksingni tog‘ qilib, eson-omon qaytgin”, – deya dunyo kezmoq uchun do‘mbira hamrohligida safarga jo‘natadi. Asar safardan qaytgan shogird va ustoz suhbati bilan boshlanadi. Elbek baxshi dunyo deb atalmish qozonda qaynab-qaynab, pishib yetilgan o‘z tajribalarini, ustozlik pand-nasixatini shogirdi bilan bo‘lisha turib, undan “Dunyoga nimalarni aytding, o‘, bolam”, – deb o‘z xulosalarini so‘raydi. Shogirdi Elomon esa o‘z xulosalarini, tuyg‘ularini do‘mbira jo‘rligida jo‘shib kuylaydi. Shoir ushbu holatni shunday go‘zal satrlarda ifoda etganki, uni o‘qib beixtiyor qarog‘ingiz yoshga to‘ladi:

Maysaga ezmayman, deb aytdim.
Daraxtga kesmayman, deb aytdim.
Tuprog‘imga, sen deb o‘lsam,
Og‘riqni sezmayman, deb aytdim

Insonni junbushga keltirgan ushbu satrlar yuraklarni o‘ynatib hayajonga soladi. Misralarni o‘qishda davom etar ekansiz, shoirning tug‘yonlari darajalanib, to‘lqinlanib borayotganiga guvoh bo‘lasiz:

Tog‘ ustiga chiqdim maston,
Ko‘z oldimda O‘zbekiston.
Yig‘layverdim, yig‘layverdim,
Dedim: iloyo, bo‘l omon!

Yurt boshiga tushgan alamli, og‘riqli kunlarni ko‘rgan Elomon yurtni duo qilar ekan. O‘z ilhomining manbayi, qo‘shiqlarining tarzi, yuragining mag‘zi bo‘lgan ota me’ros yurtini avlodlarga go‘zal tarzda yetkamoqlikni niyat qiladi:

Qo‘shig‘im tarzi – sen, dedim,
Yuragim mag‘zi – sen, dedim,
Otamdan me’ros qolgansan,
Bolamdan qarzim – sen, dedim.

Shogird va ustoz munozarasi davom etar ekan, Elbek baxshi shogirdining iste’dodiga taxsin o‘qiydi va o‘z nasixatlarini bayon etadi: “Elomon yana ko‘p aytdi, emranib turib xo‘p aytdi, jo‘shib aytdi, shoir-da, ba’zan qo‘shib aytdi. Shunda Elbek baxshi: “O‘, bolam! O‘, shoirlikda men etmagan nolam baxshi bo‘lib to‘liqib qolibsan, ilhom deganiga yo‘liqib qolibsan, endi senga oxirgi nasihatim shudir”, deb ko‘ksida qo‘zg‘algan elga soqoli pirillab, ovozi chaqmoqday gurillab, bir so‘z deb turgan ekan:

Ustozim deganing she’rfurush chiqsa,
Suyganim deganing erfurush chiqsa,
Podshohim deganing elfurush chiqsa,—
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taningga joylansin.
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Xalq dostonlarga xos bo‘lgan nasr va nazmni aralash qo‘llash usuli ushbu parchalarning baxshiyona ruhini hosil qilgan. Folklorga xos an’anaviy qoliplar “ko‘p aytdi”, “xo‘p aytdi”, “jo‘shib aytdi”, “qo‘shib aytdi”, “O‘ bolam”, “yetmagan nolam”, “to‘liqib qolibsan”, “yo‘liqib qolibsan” kabi jumlalar ohangdoshligi asar pafosini oshirgan. Bundan tashqari, ushbu misralarda xalqona ohang, yupanch, dardkashlik tuyg‘usi mujassam. “Chidagin, bolam-a, chidagin” misralarining takrori she’rga o‘zgacha ohang baxsh etibgina qolmay, folklorga xos ritmning stilizatsiyasi hisoblanadi. Bilamizki folklorda so‘zlarni takror, undovlar bilan qo‘llash an’anaviydir. Ustozning chuqur mazmunga ega o‘gitlari tadrijiy o‘sib boradi. “Chidagin, bolam-a, chidagin”, – deya nasihat qilayotgan ustoz, endi shogirdiga “Chidagin, bolam-ey, chidagin”, –deya yupanch beradi.

Donolar qorani oppoq desalar,
Shoirlar haromni shu pok desalar,

Qo‘rqsalar, dushmanni o‘rtoq desalar–
Chidagin, bolam-a, chidagin,
Dardlaring taninga joylansin.
Chidagin, bolam-ey, chidagin,
Ohlaring qo‘shiqqa aylansin!

Tilshunosligimizda so‘z oxirida undov so‘zlarning qo‘llanilishi ma’noni kuchaytirib, bo‘rttirib ifodalashga xizmat qiladi. Shu sabab shoir ham har band markazida undov so‘zlardan unumli foydalangan va bu ta’sir kuchini ortishiga xizmat qilgan.

Shoir zoti borki, ishqni kuylaydi, mehr-muhabbatni ulug‘laydi. Usmon Azimning ushbu turkumidagi she’rlar ham ishqnoma tarzida yangraydi, ko‘ngillarga taskin, tasalli beradi. Shu bois bo‘lsa kerak ushbu she’rlar qo‘shiqqa aylanib, xofizlar tilidan, xalqimizning dilidan tushmay kelmoqda.

Asarda Elbek baxshi bir kambag‘alning to‘yini gurillatib, necha kampir-qizlarning yuragini dirillatib, ovuliga qaytib kelayotganda bir karvonga duch keladi. Karvon atrofi otliqlar bilan to‘la. Shu payt sevganidan ayrilib bo‘zlab borayotgan yori Oytumanning ovozi eshitiladi. U yig‘lab-yig‘lab dard-u holini bayon qilib borardi. O‘zining orzularining armonga aylanishini kuzatib turgan baxshi yorini qo‘shiq aytib kuzatadi:

Karvon ko‘rdim tuyalari bo‘zlab borar,
Nortuyada mening yorim muzlab borar.
Menga bergan va’dalari esdan chiqib,
Ostonasi tillo yurtni izlab borar.
Peshonangning yozdig‘idan ayrilma, yor,
Jonim chiqar – qo‘shiq aytsam qayrilma, yor.

Asarda sevganidan ayrilgan oshiq iztiroblari qalin bo‘yoqlarda, dardli ohanglarda tasvirlanadi. Ota-ona rayiga qarshi borolmagan qizning yillar o‘tib yurt kezib yurgan Elbek baxshi bilan tasodifiy uchrashuvidan ikkisining ham baxtsiz ekanligi anglashiladi. Biroq ular dardini tilga chiqarolmay, faqat ko‘zlari bilan so‘zlashadi, dardlashadi. Shu sabab: “Ko‘zlar ko‘ngil tarjimoni”, – deb aytishsa kerak:

Oytuman:

–Yaproqlar so‘ladi – baxtsizman,
Olovlar so‘nadi – baxtsizman.
Yo‘lingga intizor ko‘zimni
Tuproqlar ko‘mmadi –baxtsizman –
Ammo sen baxtiyor bo‘lgin, hamisha!

Elbek baxshi:

–Axir, bir ochilish baxti bor,
Boshovday yanchilish baxti bor.
Sog‘inchdan hazonday to‘kilib,
Ko‘z yoshday sochilish baxti bor –
Men shunday baxtiyor bo‘lay, hamisha!

Oytuman o‘zini garchi “baxtsizman” deb atamoqda, ammo baxtsizlik ichra turib, sevganiga hamishalik baxt tilamoqda. Oshiq yigit esa dildori bilan birga o‘tkazgan baxtli damlariniyu undan olisdagi qayg‘uli onlarini o‘zi uchun baxt hisoblaydi. U Oytumanning sog‘inchida hazonday to‘kilib, ko‘z yoshday sochilib yashashni-da, o‘ziga baxt deb biladi. Hamisha shunday baxtiyor bo‘lishni xohlaydi!

Ikki dilning sukunatga cho‘mgan so‘zsiz suhbatidan ayriliqning alamlari, iztiroblari qizni ham, yigitni ham qiynayotgani ma’lum. Elbekning ketishini-yu, Oytumanning qolishini ta’riflashga esa shoir ham ojizman deya tan oladi.

Asarning keyingi qismi Qorabotir va Oqbotirning sarguzashtlariga bag‘ishlangan. Ushbu ikki yigit timsolida yurtga sadoqat, do‘stlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat tuyg‘ulari ulug‘lanadi. Ushbu qismda yurtiga yov bostirib kelganidan xabardor bo‘lgan ikki do‘st, bir-birining jonini qutqarmoq uchun o‘z jonidan kechishga tayyor, dushmanga taslim bo‘lmoqqa shay. Biroq ularning do‘stligining yakuni Qorabotirning yov tomonidan qatl etilishi bilan yakunlanadi. Sabab esa do‘stga xiyonat. Bu xiyonatning jazosini esa yov beradi.

Asarning qolgan qismlarida Alpomish va uning sarguzashtlari tasvirlanadi. Alpomishning mardlar bilan olishuvi, hiyla sabab Qalmoqqa asir tushishi nazr va nazm uyg‘unligida bayon qilinadi. Ushbu qismda “Alpomish” dostoni motivlari stilizatsiya qilingandir. Biroq shoirning topilmalari, yangiliklari ham bisyor.

Usmon Azim doston motivlarini “baxshiyona” she’riy shakli yordamida stilizatsiya qiladi. Motiv stilizatsiyasi janr tanlamaydi, albatta. Usmon Azimning “Alpomish”dagi “G‘ozning xat yetkazishi” motivini nasriy yo‘l bilan stilizatsiya qilgani shu ma’noda e’tirofli. Shoir dostondagi Alpomishning qalmoqqa ikkinchi safari, Alpomishning qalmoqdan qaytmagani, g‘ozning xat yetkazishini stilizatsiya qilgan. (Sharipova, 2011, 12-bet)

Alpomish Qalmoqqa ketayotib Barchinga qarab shunday deydi:

Olamda ko‘p erur ibora,

Bir so‘z bor – og‘riqdan iborat.

U – Vatan! Barchinim, u – Vatan!

Bolamga, “Vatan” de ilk bora”

Baxshiyona ohanglar Usmon Azim ijodida uslubiy jilvalardan she’riy turkum darajasiga ko‘tarila bordi. Uning “Baxshiyona” turkumida Elbek baxshining mukammal obrazi yaratilganiga ko‘ra “Baxshiyona” she’rlar turkumini hatto o‘ziga xos doston, deb atash mumkin. Usmon Azim baxshiyona ohanglarga murojaat etishining tub sababi, u tug‘ilgan yurtda baxshichilik an’analarining qadrlanganidir.

Aslida xalq og‘zaki ijodidan ta’sirlanmagan va uning boyliklaridan foydalanmagan ijodkorlar ko‘p, deb bo‘lmaydi. Lekin Usmon Azim uslubini belgilaydigan yetakchi xususiyat shundaki, u go‘yo baxshi bo‘lib kuylaydi, baxshining kuylash mahorati va uslubini o‘ziga singdiradi, bu ruh beixtiyor asarlariga ko‘chadi. Shoir she’riyatida xalq adabiy syujetlaridan foydalanish badiiy tamoyil darajasiga ko‘tariladi. Usmon Azim ijodi serqirra g‘oyalarga boy. Shoirning lirik va epik she’rlari bir ummon. Ularning asos mohiyati ishq muhabbatdan iborat va biz ularning ayrim namunalari bilan tanishdik. Shoir she’rlari ko‘pincha aqliy muhokamalar bilan qorishib ketgan. Bu esa jiddiylik hamda donishmandlik samarasi va alomati. Zamon bilan hamnafas shoir she’rlari mazmundor va bugungi hayot ohangini aks ettirayotgan go‘zal asarlardir. Baxshiyona ohangdagi she’rlari xalqona va o‘ynoqi xususiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu xalqona va o‘ynoqilik zamirida juda katta falsafiy donishmandlik va ijodiy tajriba yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharipova, L. (2011). XX asrning 70-80-yillari o‘zbek she’riyatida folklorizm. Toshkent: Fan, 12-bet.
2. Shermurodov, T. (2011). Usmon Azim ijodiyoti. T.: O‘zbekiston 56-bet.
3. Usmon, A. (2007). Sog‘inch: She’rlar. Toshkent: O‘zbekiston, 42-179-bet.
4. Умуров, Ҳ. И. (2009). Эҳтиёж тафти. Тошкент.: Ўзбекистон, 53-бет.

VII BOB

O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MUAMMOLARI, MATNSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK

LUTFIY IJODI ZAMONDOSHLARI E'TIROFIDA

Abdumannopova Laylo Shermuhammad qizi
ToshDO'TAU O'zbek fililogiyasi fakulteti, 4-kurs
Abdumannopovalaylo304@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola Lutfiy zamondoshlarining Mavlono Lutfiy hayoti va faoliyati haqida bildirgan fikrlari asosida yozilgan. Lutfiy asarlarida tarjimai holi haqida deyarli ma'lumot uchramaydi. Uning shaxsiyati, ijodiy faoliyati haqidagi ma'lumotlar bizgacha, asosan, u bilan bir davrda yashab ijod qilgan shoir va yozuvchilarning asarlari orqaligina yetib kelgan. Ushbu maqolada tarqoq holda yetib kelgan ma'lumotlarni birlashtirish orqali o'quvchilarga shoirning hayoti va ijodini o'rganishni osonlashtirish ko'zda tutilgan. Maqolaning yozilishidan ko'zlangan maqsad turkigo'y shoir Mavlono Lutfiyning ijod yo'lini keng miqyosda o'rganilishini targ'ib etish.*

Kalit so'zlar: *mumtoz adabiyot, devon, badiiy san'atlar, tasavvuf, zullisonayn, foniy dunyo, shayx-zohidlar.*

Abstract. *This article was written based on the opinions of Lutfi's contemporaries about Maulana Lutfi's life and work. There is almost no information about Lutfi's biography in his works. Information about his personality and creative activity has reached us mainly through the works of poets and writers who lived and created at the same time as him. This article aims to make it easier for readers to learn about the life and work of the poet by combining information that has arrived in a scattered manner. The purpose of writing the article is to promote the wide-scale study of the Turkic poet Mavlono Lutfi.*

Keywords*: classic literature, Divan, artistic arts, Sufism, Zullisonayn, mortal world, sheikhs-zahids.*

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda so'z mulikining malik ul-kalomi Mavlono Lutfiyning o'zbek adabiyotida o'rni va mavqei beqiyos. Shayx Ahmad Taroziyning "Funun ul-balog'a" asari topilguniga qadar Lutfiyning tavallud topgan va vafot etgan joyi Hirotning Dehikanor mavzei deb qaralar edi.

Ushbu asar topilganidan so‘ng, Lutfiyning ona vatani Toshkentligi haqida fikrlar ilgari surildi.

Lutfiyning hayoti va ijodining o‘rganilishi uning tiriklik chog‘laridanoq boshlangan. Navoiy uning ilk tadqiqotchisi sifatida o‘z asarlarida “malik ul-kalom” (so‘z podshosi) deb atagan va “Majolis un-nafois” tazkirasida ma’lumot berilishicha Mavlononing umrining oxirlarida “oftob” radifli bir she’r yozgan va uni davom ettirishni Hazrati Maxdumi Nuran (Jomiy)ga vasiyat qilib qoldirgan. U matla’ quyidagicha edi:

“Gar kori dili oshiq ba kofiri Chin aftad,

Bex z-onki ba badxo‘yi bemehri chunin aftad”.

Alisher Navoiygacha turkiy adabiyotda eng mashhur shoir Lutfiy edi. Uning “Holoti Pahlavon Muhammad” asarida ustozining zamondosh turkiygo‘y shoirlardan senga ma’quli va maqomi balandrog‘i qaysi degan savolga: “Mavlono Lutfiy holo musallamdurlar va bu qavmning ustodi va malik ul-kalomidur,- deb avob bergan (6, 116).

Alisher Navoiyning badiiy didi nihoyatda nozik bo‘lib, har qanday shoirni ham e’tirof etavermagan. Mavlono Lutfiyni esa o‘ziga ustoz deb bilgan va o‘zigacha va o‘ziga zamondosh yashagan turkiygo‘y shoirlardan faqat Lutfiy g‘azallarigagina muxammas va musaddaslar bog‘lagani Lutfiyning shoirlik salohiyati naqadar yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Lutfiyning hayoti va faoliyati haqidagi ma’lumotlar bizgacha Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Manoqibi Pahlavon Muhammad”, “Xutbai davovin” va boshqa asarlarida, shuningdek, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”, Xondamirning “Habib us-siyar”, “Makorim ul-axloq” asarlari orqali yetib kelgan. Xondamir “Mavlono Lutfiy so‘z lutfida yagonai davron edi, undan ilgari hech kim turkiy tilda she’rni undan yaxshiroq ayta olmagan edi”, deydi (1, 323).

Abdulla Kobuliyning “Tazkiratut tavorix” ushbu asarda Lutfiy merosi haqida so‘z ochib , “forsiyda go‘zal she’rlari va porloq qasidalari bor” deb aytadi. Uning yozishicha Lutfiy mushoiralarda yuqori baho olgan va boshqalar javob

yoza olmagan uch ming baytga yaqin she'ri bo'lgan. Shamsiddin Somiyning "Qomusul a'lom", Vozixning "Majmuai manzum va Mansur" asarlari orqali bizgacha yetib kelgan.

Lutfiy devonidagi bosh mavzu ishq va asosiy maqsad oshiqning hasbu holini tasvirlash edi. "Majolis un-nafois"da aytilishicha, Mavlono Lutfiy "Yigitligida ulumi zohiriy (dunyoviy ilmlar)ni takmil qilg'ondin so'ngra Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy qoshida tasavvuf bo'yicha ta'lim oladi" (1, 323).

Mavlono Lutfiy zamondoshlari Atoiy, Sakkokiy va Hofiz Xorazmiylar kabi lirik shoir sifatida tanildi. Lutfiy she'riyati xalqona sodda va samimiy ruhi, badiiy tasvir vositalariga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Uning sodda va xalqona she'rlari, ayniqsa irsoli masal san'atiga boy. Bundan tashqari, Lutfiy tazod, tajnis, tashxis, mubolag'a, husni ta'lil, tanosub, ishtiqoq, laff va nashr, iyhom,, tajohuli orifona, intoq, istiora, iqtibos, savol-u javob kabi ko'pdan ko'p badiiy san'atlardan ham mahorat bilan foydalangan. Mavlono zamondoshlaridan Xondamirning "Makorim ul-axloq" asarida Lutfiyning poetik merosi o'n-o'n ikki ming baytdan iboratligi haqidagi ma'lumotlar bor. Sharq madaniyati tarixiga oid manbaalarda Lutfiyning axloq-odob mavzuida "Mashqun ul-haqoyiq" nomi bilan ham bir asar yaratgani eslanadi. Ulug' shoirning bizga qadar yetib kelgan adabiy merosi uning o'zbekcha "devon"i hamda "Gul va Navro'z" va "Zafarnoma" dostonlaridir. Navoiyning ma'lumotlariga ko'ra Lutfiyning "Zafarnoma" tarjimasi yagona nusxada qolib ketgan va "bayozg'a yozmog'oni uchun shuhrat topmagan". Uning yagona nusxasi saqlanib qolgan qolmaganligini bilmaymiz.

Mavlononing mumtoz adabiyotdan tashqari musiqa ilmi bilan shug'ullanganligi ham alohida e'tiborga sazovordir. Xo'tanlik Mulla Ismatullaning "Tarixi musiqiyun" asari orqali Lutfiyning musiqiy ilmi haqida va kuylar bastalaganligi haqida bilishimiz mumkin. Lutfiyning o'zbek mumtoz adabiyotida tutgan o'rni shundan iboratki, forsiy va turkiy she'riyat o'zigacha erishgan barcha yutuqlarni o'z ijodida mujassam etgan.

Mavlono o'z asarlarida Lutfiy taxallusini qo'llagan, ammo fors va turkiy tillarda ushbu taxallus bilan ijod qilgan boshqa bir qancha shoirlar ham bo'lgan.

Ular asosan ozarbayjon, usmonli turk va fors-tojik tillarida ijod qilganlar. “Lutfiy” taxallusli shoirlarning birortasi Mavlono Lutfiy darajasida she’r bita olmagan. Shunday taxallusli shoirlardan biri haqida Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida ma’lumot beradi. Mavlono Lutfiy turkiy va forsiy tillarda ijod qilganiga qaramay forsiy devoni haqida alohida ma’lumotlar yo‘q. Alisher Navoiy, Xondamir va Abdulla Kobuliylar Lutfiy merosining asosiy qismini turkiy devoni tashkil qilishini aytganlar. Manbalarda shoirning 20 dan ortiq asar yozganligi haqidagi ma’lumotlar orqali uning adabiy merosi qay darajada boyligini bilsak bo‘ladi. Lekin bu asarlarning ayrimlari haligacha topilgan emas.

Lutfiyning ijodi juda erta boshlangan va umrining so‘nggi davrlarigacha samarali ijod qilgan va uning hayot yo‘li barchaga ibrat bo‘la oladi. Mumtoz shoirlar ijodida ularning tarjimayi hollari aks etmaganligi tufayli biz ularning hayoti va faoilati haqidagi ma’lumotlarni ularning zamondosh shoirlari asarlari orqaligini bilishimiz mumkin. Mavlono Lutfiy haqidagi asosiy ma’lumotlar bizgacha uning zamondosh shoirlari tazkiralari, xususan, Navoiy asarlari orqaligina yetib kelgan. Shoir g‘azallarida dunyoviy sevgi, ya’ni kishilarning bir biriga bo‘lgan samimiy muhabbatini qalamga olishiga qaramay u rasman sulukka kirgan, tariqat talablarini bajargan va riyozat chekib, muayyan darajaga yetishgan. Shuning uchun ham Navoiy tasavvuf shayx-u avliyolariga bag‘ishlangan “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida unga ham o‘rin ajratgan. Shoir o‘z g‘azallarida tashxis, husni ta’lil va mubolag‘a kabi badiiy san’atlardan ham unumli foydalangan. Bunga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin. “Lutfiy firoqing uzra chekkan azobni kofir do‘zaxda ham ko‘rmaydi”, “shirinligidan og‘zingni vasf etgani uchun qalamning tili yorildi”, “Qayerdaki labing sifatini yozgan bo‘lsam, o‘sha yerda varaqlar shirinligidan bir-biriga yopishib qoldi”.

Lutfiy o‘zining ko‘p yillik adabiy faoliyatini o‘zbek tili va adabiyotining taraqqiyotiga bag‘ishladi va o‘z davrining atoqli so‘z san’atkori bo‘lib yetishdi. Uning yaratgan asarlari o‘sha davrda ham hozirda ham o‘z o‘rniga ega va badiiy qimmatini saqlab qolgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mavlono Lutfiy asarlarining ta’siri o‘zidan keyingi davr ijodkorlarining ijodiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Va hozirgi kunda ham shoir hayoti va ijodi, asarlarining qadr-qimmati o‘z qiymatini yo‘qotmagan. XX asrga kelib shoir ijodini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yana bir pog‘onaga ko‘tarildi. Natijada bugungi kunda o‘zbek adabiyotida bir qator lutfiyshunos olimlar va adabiyotshunoslar faoliyat ko‘rsatmoqda. Lutfiy devonlarining yangidan nashrdan chiqarilishi, asarlarining o‘zbek tiliga va boshqa tillarga tarjima qilinayotgani, ayniqsa, maktab darsliklari tizimidan boshlab o‘quvchilar Lutfiy hayoti va faoliyati bilan tanishib borishi bizning katta yutug‘imizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965.
2. Эркинов С. Лутфий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987.
3. Эркинов С. Танланган асарлар. 2-нашр. – Тошкент, 1960.
4. Очилов Э. Лутфий. – Тошкент: Шарқ, 1980.
5. Шайх Аҳмад Тарозий. Фунун ул-балоға. – Тошкент.
6. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. – Тошкент, 1967.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA TAXALLUSLAR

Asatullayev Alisher Asatullo o‘g‘li
ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: F.F.D., Prof. Q.Pardayev
alisherbekasatullayev@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola turkiy va arab adabiyotida taxallus qanday paydo bo‘lgan hamda qachondan boshlab asarlarda qo‘llash odat tusiga kirgani va qanday ma’no tashiganligi haqida. Shu bilan birga, adabiy sahnaga kirib kelgan shoirlarning qo‘llagan taxalluslarini ijodiyoti bilan bog‘liq qirralari Navoiy va boshqa ijodkorlar misolida ochib berildi.*

Kalit so‘zlar: *Muhr, taxallus, binokorlik, so‘z san’atkori.*

Abstract. *The article gives information about how the nicknames appeared and from what time they have become a tradition in using it among novels as well as what kind of meaning they have represented in the Turkish and Arabic*

literatures! Accordingly, Novelists who came on the stage of literature, utilized with the nickname's and works, Navoiy and other novelists were seen.

***Keywords**: Stamp, nickname, creativity, the master of words.*

Har bir taxallusning o‘z ma’nosi bor. Mumtoz adabiyotimizda shoirlar, asosan, muqaddas Islom dini ta’limotiga, Payg‘ambar Muhammad sollolohu allayhivassalam o‘gitlari hamda o‘tmishdagi ulug‘ ajdodlarga ergashib yoki tug‘ilgan yerga nisbat berib taxallus tanlaganlar.

Taxallus bu shunchaki so‘z emas, balki adibning ijodidan ko‘zlagan maqsadini bildiruvchi timsol hamdir. Alisher Navoiy o‘zining “Majolis un-nafois” asarida kasb-u kor, sevgan soha, tirikchilik o‘tkazish uchun shug‘illanadigan mashg‘ulotning taxallus uchun asos bo‘lganini ko‘rsatuvchi ko‘pgina dalillar keltiradi.

Arab va Eron adabiyotida taxallus qo‘llash VII-VIII asrlarda odat tusiga kirgan. VII asrda arab she’riyatida qasidachilik maktabining shakllanganligini, Hasson ibn Sobit singari yetuk vakillar voyaga yetganligini Navoiy o‘zining qator asarlarida qayd etadi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu kabi ijodkorlarning aksariyati o‘z nomi bilan emas, balki taxalluslari bilan shuhrat qozongan. Misol tariqasida, Abbos ismidan keyin kelgan Marvaziy, Abu Xafsdan so‘ng Sug‘diy Samarqandiy, Abu Solihga qo‘shilgan Go‘rgoniy kabi so‘zlar taxallus ma’nosida qo‘llanib, ijodkorlarning Marvoz, Samarqand, Go‘rgon shaharlardan ekanligiga ishora qiladi.

O‘zbek adabiyotida taxallusning g‘azalda qo‘llanishi XII asrning ikkinchi yarmida paydo bo‘lgan. Taniqli adabiyotshunoslardan B.Abdullayev, A.Mirzayev, B.Zoxidov, M.Shayxzoda, F.Karimov, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jayev, N.Mallayev, A.Qayumov va boshqalarning o‘zbek va tojik adabiyoti tarixiga doir tadqiqotlari, darslik, qo‘llanma va ilmiy maqolalarida taxalluslarga oid mulohazalar uchraydi.

Taxallus qo‘llashning yana bir jihati shundaki, o‘tmishda shoir asarlarini xalq orasida tarqalishida hofizlarning xizmati katta bo‘lgan. O‘tmishda xalq orasida kuylanayotgan g‘azal kimniki ekanligini taxallus orqali bilib olishgan.

Ikkinchidan, g‘azallar o‘zining vazni, mavzu, qofiyasi va radifi bilan bir-biriga o‘xshaganligi sababli, taxallussiz she’r kimning qalamiga mansub ekanligini bilish noma’lum bo‘lib qolgan. Shunda bu g‘azalning kimga tegishli ekanligini unda qo‘llangan taxallus aniqlab bergan.

Uchinchidan, she’riyat terminining binokorlikka nisbat berilishi, she’r tuzilishining uy qurilishiga o‘xshatilishi ayrim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Jumladan, bayt-uy, rukun-ustun, tarse-ayvon va hokazo. Modomiki, shunday ekan, binoni nihoyasiga yetkazgan me’mor amalining kimga tegishli ekanligini ham qayd etadi.

Mumtoz adabiyotdagi taxalluslarni bir joyga jamlasa, ijodkorlarimiz taxallus tanlashga jiddiy e’tibor qaratganlari ma’lum bo‘ladi. Alisher Navoiy taxallus tanlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U taxallus qo‘llash sabablarini, mohiyatini ajoyib she’riy satrlar bilan bayon qilgan (mohir qalamnavislardan) ijodkorlardandir.

Chun kichik yoshdan manga bo‘ldi nasib,
Nazm adosida xayoloti g‘arib,
She’r har sinfinki qildim ibtido,
Turk alfozi bila topti ado.
O‘ylakim, har kimsa nekim qilg‘usi,
Ba’zi ishta bor oning bir belgusi
Kim o‘zi taxsisiga imlodur ul
Muhri yo tavqi yo tamg‘odir ul.

Bu an’ana Navoiydan so‘ng ham ancha rivojlangan. Shoir qofiyaga mos ravishda bironta taxallusini asari so‘ngida keltiradi. Fikrimizga “Lison ut-tayr’’ dostonining “Bu kitobda taxallus tag‘yirining uzri” deb nomlangan qismi yaxshi misol bo‘ladi. Chunki Navoiy bu kitobni yoshi ancha ulug‘ bo‘lgan bir kezda yozib tugalladi va unga “Foniy” taxallusini qo‘lladi. Buyuk shoir bu asarda qo‘llagan taxallusi bilan umrning o‘tkinchiligiga va, albatta, bir kun poyoniga yetishiga ishora qilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Shu jumladan, teran mazmunli, quyma, jarangdor, nafis, silliq taxalluslar o‘z muallifi estetik didini namoyish qilish bilan birga o‘zgalarga ham rohat baxsh etadi. Adabiy taxallus har bir so‘z san’atkorining ma’naviy dunyosini ko‘z-ko‘z qiladi. Beqiyos xislatlarni, fazilatlarini, tabiatini kitobxonga ma’lum qiladi. Shuning uchun bu kabi so‘z san’atkorlarida taxallusga nisbatan ichki bir mas’uliyat mavjudligi sezilib turadi. Lug‘atlarda Navoiy taxallusining navo, kuy, ohang, qo‘shiq kabi ma’nolaridan tashqari nasib, bahra, ishchanlik, sarishtakorlik kabi ma’nolari mavjudligi qayd etilgan. Adabiyoshunos Izzat Sultonning ta’kidlashicha: “Navoiy” va “Foniy” taxalluslari shoir dunyoqarashi va ijodidagi ikki tomoni – bu dunyoni sevgan va kuylaganini, shu bilan birga, o‘sha zamonning hukmron nazarlariga binoan, kishining u dunyoga ketishi muqarrar ekanligini ko‘rsatadi. Xullas, Navoiy qo‘llagan ikki taxallus ham ko‘p tarmoqli ma’noga egadir. Uning ikki taxallusi hech qachon bir-birini inkor qilmaydi. Negaki “navo” bilan yayragan yurak, “fano” bilan sayqallanib farog‘at topadi. Navoiy qo‘liga qalam olgandan boshlab, to so‘nggi nafasigacha davr va zamon qiyinchiliklarini dadil yengib o‘tishga undagan ohang- hayot va hayotsevarlik ohangi edi. Navoiy taxallusi triklik suvi bilan, hayotbaxshlik ohangi bilan yo‘g‘rilgan deyish mumkin. Chunki umrining so‘ngiga qadar haqiqat yo‘lida navo qildi. U qoldirgan navolar mana necha asrdirkim avlodlar yo‘lini yorituvchi shamchiroq bo‘lib kelmoqda.

Chun saxobi tabim o‘ldi durafshon,
Nazmima erdi Navoiydin nishon.
Dahr bog‘ida komim bo‘lib ravo,
Komronlar topti nazmimdin navo.
Fayz etkach ul maoniydin mango,
Topti belgu nazmi Foniydin mango….

Ijod maydoniga Navoiy taxallusi bilan kirib kelib, Foniyda ham qalam tebratgan buyuk ijodkor o‘ziga ajoyib va juda teran o‘ylangan taxallus tanlaganligini bilishimiz mumkin. Navoiygacha ham Navoiydan keyin ham adabiyot sahnasiga kirib kelgan ijodkorlar o‘zlariga juda xilma-xil va ko‘p qirrali taxalluslar tanlashgan, jumladan, Pahlavon Mahmud: Uning “Pahlavon” unvoni bilan shuhrat qozonishiga sabab, Mahmudning jismoniy jihatdan baquvvatligi, sharqona kurashning katta vakili bo‘lganidadir. Uning Piryoyvali, Piryorvali, Qitoliy kabi taxalluslar bilan ham ijod qilgani (barchamizga ma’lum). Firdavsiy

“Firdavs” nomli bog‘da bog‘bonlik qilgan va shu bog‘ nomini o‘ziga taxallus qilib olgan; Boborahim Mullavali o‘g‘li “Mashrab”, ”Devonayi Mashrab”, ”Devoni Mashrab”, ”Eshoni Mashrab”, ”Hazrati Shoh Mashrab” kabi taxalluslar bilan ijod qilgan; Said Muhammad Rahimxon Bahodirxoniy: “Feruz” taxallusi bilan ijod qilgan; Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li “Muqimiy” taxallusida ijod qilgan; Amir Said Muhammad Umarxon Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan; Muhammad Sharif O‘zbekcha she’rlariga „Gulxaniy”, tojikcha she’rlariga „Jur’at” taxallusini qo‘ygan(qo‘llagan); Shermuhammad Amir Avazmuhammad o‘g‘li “Munis” taxallusi bilan ijod qilgan; Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li “Ogahiy” taxallusi bilan ijod qilgan; Ubaydullo solih o‘g‘li: “Zavqiy” taxallusi bilan ijod qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, o‘zbek adabiyotida ijodkorlar taxalluslarini ilmiy asosda o‘rganish muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonov. I.(2005) Adabiyot nazariyasi. - “O‘qituvchi”. Toshkent

2. Ulug‘ov. A. (2017) Adabiyotshunoslik nazariyasi. - G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.

3. Qorayev. T. (1979) Taxalluslar.

YUZ BALO HIJRON TOPAR…

Baratova Maftuna Baxtiyor qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs
baratovamaftuna09@gmail.com

***Annotatsiya**: ushbu maqolada ulug‘ shoir va mutaffakir Hazrat Alisher Navoiyning “Yuz balo hijron topar…” deb boshlanuvchi g‘azali tahlilga tortilgan. G‘azal turi va mazmuni yetarlicha bayon qilingan. G‘azaldagi san’atlar o‘rganilgan.G‘azal vazni aniqlangan. G‘azalni sharhlashda tasavvufiy qarashlar alohida e’tiborga olingan. G‘azal zohiriy va botiniy ma’nolar yuzasidan tahlilga tortilgan. G‘azal mavzusi va unda ilgari surilayotgan g‘oya ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Na’t, badiiy san’at, zohiriy, botiniy, sharh, bayt, misra, qofiya, radif, tashbeh.*

Abstract*: In this article, the great poet and thinker Hazrat Alisher Navoi's ghazal beginning with “Yuz balo hijran topar...” is analyzed. The type and content of the ghazal have been sufficiently described. The arts of the ghazal have been studied. The weight of the ghazal has been determined. Special attention was paid to mystical views in interpreting the ghazal. The ghazal was analyzed in terms of external and internal meanings. The theme of the ghazal and the idea presented in it are revealed.*

Keywords: *Na’t, artistic art, external, internal, comment, verse, verse, rhyme, radif, allusion.*

Alisher Navoiyning lirik asarlari jamlangan “Xazoyin ul-maoniy” devonida ikki yarim mingdan ortiq g‘azal bor. Sharq adabiyotida biror shoirga bunchalik ko‘p g‘azal yozish nasib bo‘lmagan. Ammo gap faqat sonda emas. Navoiy qalbidan quyilib chiqqan g‘azallarning har biri daho ijodkorning benazir san’ati va teran tafakkuridan guvohlik beradigan badiiy durdona, mo‘jizadir. Bu badiiy miniatyuralarning yaratilganiga besh asrdan oshdi, lekin kecha yozilganday hamon ruhimiz, shuurimizni g‘alayonga solib, dillarga halovat bag‘ishlaydi, o‘qigan sari yana o‘qigingiz, baytlar qatidagi sehrli va sirli ma’nolarni teranroq, to‘laroq anglab olgingiz keladi. Buyuk o‘zbek shoiri salaflari ijod-xonasida kamolga yetgan ko‘hna janrning imkoniyatlarini istifoda etib, bemisl mahorat ko‘rsatish, xazoya bilmas she’riy gulshanlar yaratish barobarida o‘zi mustaqil ravishda yangi ifoda usullariyu uslublar ixtiro qildi, ijodiy tajribalar, ulkan izlanishlar yo‘lidan borib, g‘azal inkishofini baland cho‘qqilarga olib chiqdi.

Yaxlit ma’noli, voqeaband g‘azallar yaratish ulug‘ Navoiyning shunday uslubiy ixtirolaridandir. Maqsud Shayxzoda birinchi bo‘lib bunga e’tiborimizni qaratgan edi. Avvalgi shoirlarda ahyon-ahyon uchrab turadigan bu xususiyat Navoiy ijodida izchillik tusini oladi, muayyan raviya, badiiy ifoda tarziga aylanadi. Turfa insoniy holatlar, voqea-hodisalar tasviriga bag‘ishlangan turkum-turkum gazallar shundan dalolat beradi. (Komilov, 2000, 1-bet)

Yaxlit ma'noli g'azal radif-so'zga urg'u berib, shoirona vahiyatni namoyon etish, yo biror-bir hodisadan ta'sirlanib, his-hayajonni to'kib solish, shu voqea mohiyatini ochish, yoxud muayyan an'anaviy turkumcha-tamsillar, obraz-ifodalar atrofida suxansozlik qilish. lutf ko'rgatish niyatning mevasidir. Chunonchi, ulug' shoir jon va jonon mavzuida bir turkum dilbar g'azallar yaratgankim, shulardan birini quyida to'la keltiramiz:

Yuz balo hijron topar har dam bu mahzun jon uchun,
Tengri go'yokim yaratmishtur meni hijron uchun.

Hajr uyida man'i ashkimga malomat toshlari
Farsh erur, go'yo yiqilg'ur kulbayi vayron uchun.

Qomating hajrinda ko'nglum so'rg'uchi nosih tili
Nishtaredurkim, yorar o'q zahmini paykon uchun.

Hajr aro holimni yozdim yod tut, ey navhagar
Kim, base loyiqdurursen soz etar doston uchun.

Ishq g'am bazmida egri qaddima jon rishtasin
Tor etib, soz ayladi ko'nglim chekar afg'on uchun.

Ajdaho og'zi bil o'tlug'kim, ochiptur qasdinga
Munchakim volihsen, ey bulbul, guli xandon uchun.

Chun Navoiy nomayi shavqin etursang, ey rasul,
Tengri haqqi ruq'e bu zori sargardon uchun. (Alisher Navoiy, 2003, 102-bet)

Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" devonining "G'aroyib us-sig'ar" tarkibiga kiruvchi yetti baytli "…uchun" radifli g'azalini tahlil va sharhlaydigan bo'lsak, avvalo ushbu g'azalning qanday mavzudagi g'azal ekanligiga to'xtalishimiz lozim. Mazkur g'azal na't g'azallar sirasiga kiradi. Ushbu g'azalning birinchi baytini sharhlaydigan bo'lsak: zohiriy ma'nosi yor ya'ni oshiq mashuqadan hijronda bo'lganligi uchun oshiq mahzun va go'yo Tangri sendan yiroqda yurish, hijronda azoblanish uchun yaratgan demoqda, botiniy ma'nosi esa "biz ya'ni insonlarni Alloh yaratib, bu dunyoga Allohdan, Jannatdan, Payg'ambarimizdan ayriliqda , sinov uchun krlganimizdan so'ng jonimiz ya'ni ruhimiz ilohga talpinib, undan hijronda har dam mahzun bo'ladi. Tangri go'yoki

bizni O‘zining jamolidan, Rasululloh vafotlaridan keyingi dunyoga kelgan ummatlar Rasulullohdan hijronda qolganligi uchun matla’ning ikkinchi misrasida, ham Allohdan, ham Rasulullohdan hijronda bo‘lgan oshiq Tangri meni bu g‘am dunyoga hijron uchun yaratdi “ ,- demoqda.

Ikkinchi baytni zohir ma’nosi yorga yetisholmagan, hajrda qolgan oshiq ko‘z yoshlar to‘kaverganidan uning uyi ko‘z yoshlarining suvlaridan vayron bo‘lmoqda. Botiniy ma’nosi hajr uyi-bu dunyo, ya’ni bu o‘tkinchi dunyoga Allohdan ayrilib kelgan oshiq ilohiyatdan hajrda qolganligi uchun ko‘z yoshlar to‘kmoqda va bu dunyoga Undan ayrilib kelganligidan malomat qilmoqda. Ko‘z yoshlari va malomat toshlari kulbasini yiqitib, vayron qilish uchun qo‘shilib birga harakat qilyotgandek. Kulbasini vayron qilish mazmuniga o‘zgacha ma’no yuklaydigan bo‘lsak, kulba- inson tanasi deb qarasak, ayriliqda hijronda qolgan oshiq ko‘z yoshlari va malomat toshlari bilan birga ikkisini farsh ya’ni qorishtirib tanasini qulatmoqchi. Agar tana qulasa, ruh ya’ni jon yana o‘z asliga-ilohiyotga boradi, ayriliq , hijron azobidan qutiladi. Uchinchi baytning zohirida mashuqaga qarab, qomatingni hajrida qolganman menga nosih ya’ni nasihat ber, ammo sen nasihat berganingda bu nasihating nishtardek o‘q kelib, qalbimni yaralamoqda deydi oshiq. Botiniy ma’nosida na’t g‘azallarda bilamizki, Payg‘ambarimiz s.a.v ning qomatlari, sochlari tasvirlanadi. Ushbu baytda ham Rasululloh s.a.v ni ko‘rish ishqida yongan oshiq nasihatchidan maslahat so‘ragan edi, biroq nasihatchining barcha so‘zlari uning qalbiga nishtardek kelib sanchilaverdi, baribir Rasululllohni ko‘rishga bo‘lgan ishqi nasihat bilan ham qolmadi. Bu misradan ushbu g‘azalning na’t g‘azallar turkumiga kirishi ma’lum bo‘ladi. To‘rtinchi baytdagi ma’no yaqqol ko‘rinib turganligi uchun zohiriy ma’nosiga to‘xtalib o‘tmasdan, botinan sharhlaymiz: hajrda qolgan paytlarimni bir yozmoqchi edim, lekin sen bir doston yozishimga arzir ekansan deb Rasulullohga murojaat qilmoqda. Alisher Navoiy Payg‘ambarimiz alayhissalomga bag‘ishlab, bir asar yozmoqchi bo‘lganligini ushbu kichkina baytda keltirib o‘tmoqda. Beshinchi baytdagi “jon rishtasi” ga alohida e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu zohiriy ma’noda yorga, mashuqaga yetishadigan yo‘l. Botinan esa Allohga yetishtiruvchi yo‘l. Zohirda agar oshiq jon

rishtasi ya’ni mashuqaga yetishadigan yo‘lni topsa, egri qaddi tik bo‘ladi, xuddi torga o‘xshab tekis bo‘ladi, ko‘ngli esa soz bo‘lib afg‘on chekadi. Botiniy qarasak, Allohga va Rasuliga oshiq kishi jon ipini topsa, ilohiyotning mazmuniga yetsa, uning egri qaddi tordek tekis bo‘ladi, ko‘ngli unga yetishish uchun har dam afg‘on chekadi. G‘azal maqta’sida Rasulullohga murojaat qilib, ushbu nomani qabul etgaysen, Alloh haqqi bu nomamdagi zorlanishlarim sargardonlikdan, Allohdan hamda Rasulidan sargardonlikdan zorlanib yozdim demoqda.

Yetti baytli mazkur g‘azalning radifiga olingan “uchun” so‘zi sof turkiy so‘z bo‘lib, jarangdor hamda g‘azal mazmunini ochishga yordam beradi. Qofiyasiga olingan so‘zlar “jon” , “hijron” , “vayron”, “paykon” , “doston” , “afg‘on”, “xandon” , “sargardon” . Ushbu so‘zlar arabiy va turkiy so‘zlardir. G‘azal ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan. G‘azalda tashbeh, nido kabi san’atlar qo‘llangan. Alisher Navoiyning ulugvorligi shundaki, unda zohiriy va botiniy ma’nolar, ya’ni ishqi ilohiy va ishqi ma’joziy ifodalari bir-biriga xalaqit bermaydi, balki bir-birini to‘ldirib, quvvatlab turadi. Boshqacha aytganda, ishqi haqiqiy tasviridan ishqi ma’joziy tasviriga yoki aksincha holatga oson o‘tiladi, kitobxon goh bu ma’nodan, goh u ma’nodan, goh har ikkisidan zavqlana oladi.(Komilov, 2000, 4-bet).

Ushbu g‘azalda ham shuni kuzatish qiyin emas, unda tariqat aqoidi, maqomat bosqichlaridagi solik holatlari, ishq iztirobi va oshiq azobi, dardli o‘rtanishlar tasvirlanadi ham shu bilan barobar, muayyan insoniy kechinmalardan voqif bo‘lasiz. Voqean, ishq parvonasi , uning kechinmalari haqiqiy insoniy kechinmalar namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (2003) Garoyib us-sig‘ar (102-bet) Toshkent: Fan
2. Haqqulov, I. (1991) Tasavvuf va she’riyat (40-bet) Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi.
3. Komilov, N (2012) Ma’nolar olamiga safar (12-bet) Toshkent: Tamaddun
4. Komilov,N (2000) Alisher Navoiy g‘azallariga sharhlar (4-bet) Jon va jonon mojarosi (1-bet)
5. https://n.ziyouz.com

ALISHER NAVOIY IJODIDAGI MOTAM MAROSIMIGA OID URF-ODATLARNING BADIIY TALQINI

Boymurodova Marjona Bahodirovna
ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti, 2-kurs
Boymurodovamarjona101@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada motam marosimlari barcha xalqlarda mavjudligi, u geografik sharoitlar, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, kishilarning ilmiy, diniy tasavvurlari va boshqa omillar ta'sirida o'zgarib borganligi, turkiy xalqlarga tegishli urf-odatlar, an'analar, moddiy va ma'naviy boyliklar ulug' shoir Navoiyning o'tkir zakovati va badiiy tafakkuri tufayli ma'naviyatimizning xazinasiga nodir durlar kelib qo'shilganligi, natijada turkiy tilning imkoniyat chegaralari kengayganligi, Alisher Navoiy lirik merosida motam (aza) marosimlariga aloqador urf-odatlarining badiiy talqinlari to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Dastor, hamrang, tiyra , namat, motam, marosim, urf-odat, ishq, lirik qahramon, mumtoz adabiyot.*

Abstract. *In this article, the presence of mourning rituals in all nations, the fact that it has changed under the influence of geographical conditions, socio-economic system, people's scientific and religious ideas and other factors, the customs, traditions, material and spiritual wealth of the Turkic peoples. About the fact that due to the great poet Navoi's sharp intelligence and artistic thinking, rare genres have been added to the treasury of our spirituality, as a result, the limits of the Turkish language have expanded, about the artistic interpretations of traditions related to mourning (aza) rituals in Alisher Navoi's lyrical heritage is considered.*

Keywords: *Dastar, hamrang, tiyra, mat, mourning, ritual, tradition, love, lyrical hero, classical literature.*

Motam marosimlari - kishining vafoti munosabati bilan marhumning xotirasini yod etib o'tkaziladigan marosimlar. Motam marosimlari barcha xalqlarda mavjud, u geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, kishilarning ilmiy, diniy

tasavvurlari va boshqa omillar ta’sirida o‘zgarib borgan. Motam marosimlari marhum vafotining ma’lum kunlarida, fasl mavsumlarida hamda diniy bayramlarda o‘tkaziladigan marosimlarga bo‘linadi. Bu marosimlarda marhumning arvohi yod etilgan, arvohni shod etish uchun turli rasm-rusmlar bajo keltirilgan. Ibtidoiy davrlarda, odamlar o‘zlarini go‘yo arvohlardan himoya qilish maqsadida tanalarini qora yoki qizil rangga bo‘yaganlar, keyinchalik kiyimlari rangini o‘zgartirganlar (azadorlarning qora, ko‘k, odmi kiyim kiyishlari shundan kelib chiqqan). O‘rta Osiyo xalqlarida motamning birinchi belgisi ovoz chiqarib yig‘lashdir. Marhumning eng yaqin kishilari (ayol va erkaklar) judolik belgisi sifatida bel bog‘laydilar. Marhum dafn etilgandan keyin, vafotining uchi, yettisi, yigirmasi, so‘ngra qirqi o‘tkaziladi. Motam marosimlarining eng so‘nggisi yildir. Yil marhum vafotiga bir yil to‘lganda (ba’zan oldinroq) o‘tkaziladi. Motam liboslarini yechadilar, oq kiyim kiyadilar. XIV-XV asr adabiyotiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, motam ko‘rinishlari quyidagicha badiiy lirikamizda ham o‘z aksini topadi.

Alisher Navoiy ilmiy merosining kattagina qismini lirik she’rlar tashkil qiladi.

U shoir sifatida qanchalik shuhrat topgan bo‘lsa, davlat arbobi, tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham shunchalik mashhur va taniqlidir. Navoiy so‘z san’atining turli masalalariga doir fikrlari bilan ham, adabiy yodgorliklari va zamondoshlari asarlariga doir mulohazalari bilan ham badiiy adabiyotning ravnaqi uchun xalqqa xizmat qilishi uchun harakat qiladi. Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratdi. Bular: “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” va “Mifradot”. Ularda ishq, oshiqlik muammolari vasf qilinadi. Shoir g‘azallarida oshiqning imkonsiz holatini, tushkunlik kayfiyatini berishda motam marosimiga tegishli so‘z va so‘z birikmalari bilan birga xalqda shakllangan urf-odatlarga ham ishora qilib o‘tadi. Jumladan, “Favoyid ul-kibar” devonining 399-g‘azalida shunday baytlar mavjud:

Qora dastor to chirmadim mohim,
Boshimg‘a chirmashibtur dudi ohim…
Anga hamrang o‘lay deb motamimen,
Qorarg‘an ro‘zg‘orim bor guvohim.

Ko‘zimdur tiyra, ya’ni, ey Navoiy,

Qora tun kiydi motam ichra shohim. (4, 272)

Mohim boshiga qora dastor (ro‘mol) o‘radi. Mening esa boshimga dudi ohim chirmashdi. Men ham u bilan hamrang bo‘lish uchun motamdaman. Bunga esa qorargan ro‘zg‘orim guvoh. Ey Navoiy, ko‘zim tiyra (qora) bo‘ldi. Motam ichra qolgan shohim (ko‘z) qora to‘n kiydi. Keltirilgan baytlarda dastor, dud, ro‘zg‘or, ko‘z, to‘n so‘zlari qora sifati bilan birga kelgan. Bulardan faqatgina “qora ro‘zg‘or” birikmasi ko‘chma ma’noda qo‘llanilgan. Adabiyotshunos olim I.Haqqulov “Yana qora rang talqini haqida” maqolasida shunday yozadi: Ranglar va ularning ramziy ma’no-mohiyatidan bahs yuritish oson emas, albatta. Chunki ranglar u yoki bu xalqning uni qurshab olgan olam, ijtimoiy-madaniy hayot, urf-odat, marosim, adabiyot va san’atga doir qadamiy qarashlari bilan emas, balki mifologik, diniy-ilohiy tushuncha va tasavvurlari bilan ham bog‘lanib ketgan. Shuningdek, odamlarning dunyoqarashi, yashash sharoitlari, diniy hayot yo‘llarining o‘zgarishi bilan ranglarda munosabat, ko‘zlangan maqsadlar ham o‘zgarib, ba’zan butunlay yangilanib borgan. (5,52)Olim mana shu maqolada qora rangning Alisher Navoiy ijodidagi ma’no-mohiyatiga to‘xtaladi va “qora rang” orqali ifodalangan ijobiy sifatlar tahlillar orqali yoritib beriladi. Biz ham olimning ilmiy qarashlarini ma’qullagan holda, Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan baytlarida motam (aza)da qora to‘n kiyish odat bo‘lsa, turkiy xalqlarda mazkur rang noxush voqea-hodisalarni tasvirlash uchun ham xizmat qilganini ta’kidlamoqchimiz. Quyida keltirilgan baytlar ham fikrimiz tasdig‘i uchun xizmat qiladi:

Dudi oh ichra qora kiymishlar

Bo‘ldi ishq ahlig‘a motam go‘yo.

Buki, devona ko‘ngul sevdi pariy

Bevafodur bani odam go‘yo (4,25)

Ushbu misralarda ham qora rangning motam marosimiga aloqadorligi hamda motamda qora kiyim kiyish ifodalangan:

O‘rtabon parvonani, ey sham, so‘ngra ne osig‘

Yig‘lamoq chirmab qora motamlik eldek shevaning.(3,249)

Ey sham, parvonani o‘rtab qo‘ydurganingdan keyin nima foyda. Bu xuddi elning motamda qora kiyib (chirmab), nola, fig‘on qilib yig‘lash odatini tamsil qilib keltirish orqali oshiqning ishqda parvonadek kuyinishini tasvirlaydi.

Ulug‘ shoirning “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” dostonlarida ham motam marosimi bilan bog‘liq urf-odatlarga duch kelinadi. Jumladan, Navoiy zamonida farzand vafot etsa, ona bo‘yniga qora kigiz osish odati bo‘lgan.(1,186) Navoiy “Farhod va Shirin” dostonining XLIX bobida mazkur odatni majoziy ma’noda ishqqa ko‘chiradi:

Bu motam ichra ishqi otashengez,

Solib bo‘yiga aynidin qaro qiz

Bu motam ichida otashin ishq Farhodga qilgan o‘z qilgan ishidan pushaymon bo‘lib, “Ayn” harfidan bo‘yniga qora namat ildi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi: nima uchun aynan “Ayn” harfi bo‘yniga qora namat ildi? Avvalo “Ayn” arab alifbosidagi harflardan biri bo‘lib, harflarning botiniy ma’nolarini kashf aylagan hurufiylik tariqatida “Ayn” ishqning ibtidosi ma’nosini anglatadi. Qolaversa, ishq so‘zining birinchi harfi ham “Ayn” bilan yoziladi. Farhod ishq bilan tug‘ildi, ishq bilan halok bo‘ldi. Demak, Farhod uchun doimiy hamroh – ishq. Shuning uchun Navoiy ishq yo‘lida qurbon bo‘lgan Farhodning hatto ishq aza tutib, ona singari bo‘yniga namat – qora kigiz osganligini aytadi. Ulug‘ shoir asarlarida biror bir fikr asossiz emasligini ana shu tasvirdan ham bilsa bo‘ladi. Fikr asosini dostonning o‘zidan aniqlash mumkin. Chunki Farhod tug‘ilganida ishq bilan tug‘ilgan edi, u ishqning farzandi edi. Ishq – ona, Farhod – farzand. Shu sababli uning azasida bo‘yniga namat osgan. Shoir mazkur tasvir orqali majoziy ishqning ilohiy ishqqa birlashib ketishiga urg‘u bergan. “Saddi Iskandariy” dostonida ham shu urf-odat bilan bog‘liq baytlarni uchratamiz:

Aso tutti, dog‘i belin bog‘ladi,

Tushub yo‘lga garduni chin dog‘ladi.

Yaqo chokiga dast topsam edi,

Qaro qiz osib tanni yopsam edi.

Dostonning LXXX bobida keltirilgan iqtibosning dastlabki baytida “aso tutish”, “bel bog‘lash” kabi motam marosimiga aloqador urflar haqida fikr yuritilgan bo‘lsa, ikkinchi baytida “motam kigizi”ni keltirish orqali shoir onaning farzandi vafotiga ishonmasligi, tanini “qora mota kigizi” bilan yopishga qo‘li bormasligini ta’kidlaydi.

Alisher Navoiy lirik merosida an’anaviy obraz va tasvirlar bilan birga “navoiyona topilma”lariga ham ham duch kelamizki, bu ulug‘ shoirning badiiy didi va yuksak mahoratidan darak beradi. Ana shunday tasvirlarda ham Alisher Navoiy xalq urf-odatlariga murojaat qiladi. Jumladan:

To tirikmen ishqi harfidur ichimda, ey rafiq,
O‘lsam oni-o‘q mazorim toshida marqum qil.

Ma’nosi: Ey rafiq, tirik ekaman, ishq harfi ichimdadir. Agar o‘lsam uni mozorim ustiga yozib qo‘y.

Bilamizki, turkiy xalqlarda vafot etgan kishining qabriga tosh qo‘yish odati shakllangan. Shoir yuqoridagi baytda shu odatni fikr tasdig‘i uchun keltirgan.

Shaho, el javhari jonin chiqarding,
Javohir hirsidan bedod etib fosh.
Chu o‘lgungdir, ne osig‘, to‘kmak oni
Mazoring uzra andoqkim ushoq tosh.

Ushbu qit’ada ham mozor ustiga tosh qo‘yish odati bor. Javohir hirsida elning jonini olgan shohning o‘lganidan keyin qabri ustiga ushshoq tosh qo‘yishning nma foydasi bor,- deyish orqali shoir shohlar adolatli bo‘lishi kerakligi haqidagi g‘oyani ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, turkiy xalqlarga tegishli urf-odatlar, an’analar, moddiy va ma’naviy boyliklar ulug‘ shoir Navoiyning o‘tkir zakovati va badiiy tafakkuri tufayli ma’naviyatimizning xazinasiga nodir durlar kelib qo‘shildi. Natijada turkiy tilning imkoniyat chegaralari kengaydi. Chunki har qanday tilning rivojlanishi o‘sha xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zME. (2000-yil) Birinchi jild. Toshkent,
2. Madayev.O. (2018) “Navoiy suhbatlari”. – T.:O‘qituvchi.
3. Alisher Navoiy. (1990) .Mukammal asarlar to‘plami. XX jildli. I jild. “Badoye ul-vasat”. – T.: Fan.
4. Alisher Navoiy. (1989) Mukammal asarlar to‘plami. XX jildli. IV jild. “Navodir ush-shabob”. – T. Fan.
5. Alisher Navoiy. (1990) .Mukammal asarlar to‘plami. XX jildli. VI jild. “Favoyid ul-kibar” – T.: Fan.
6. Haqqulov I. (2001) Yana qora rang talqini haqida // O‘TA,. №3.
7. N.M.Mallayev (1963). “O‘zbek adabiyoti tarixi”. 1-kitob. T.
8. O‘zbek adabiyoti tarixi. (1978) .5 tomlik. 2-tom.
9. Alisher Navoiy (1961). “Majolis un-nafois”. T.

“HAYRAT UL-ABROR”DA ABDULLOH MUBORAK SIYMOSINING BADIIY TALQINI

Eshonqulova Feruza Husniddin qizi
Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti 4-kurs talabasi
eshonqulova88@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni, komil inson tushunchasi va asarda Abdulloh Muborak siymosining badiiy tahlili xususida so‘z yuritilgan. Bundan tashqari maqolada dostondan olingan ayrim namunalar tahlili hamda Ahmadquli Olimxon o‘g‘li (“Savdogarlar ustozi”), Olimxon Yusupovlarning Abdulloh Muborak haqida bildirilgan fikrlari o‘rin egallagan.*

Kalit so‘zlar: *“Hayrat ul-abror”, Abdulloh Muborak, komil inson, shariat, Rustam, Zahhok, kibr.*

Abstract. *The article talks about Alisher Navoi's epic "Hayrat ul-Abror", the concept of a perfect person and the artistic analysis of Abdullah Mubarak's image in the work. In addition, the article includes the analysis of some samples taken from the epic, as well as the opinions expressed about Abdullah Mubarak by the son of Ahmadquli Olimkhan ("Savdogarlar ustozi"), Olimkhan Yusupov.*

Keywords: *"Hayrat ul-abror", Abdullah Mubarak, perfect person, sharia, Rustam, Zahhok, arrogance.*

Sharq musulmon ma’naviyati tarixida Abu Abdurahmon ibn Muborak G‘anzaliy al-Marvaziyning (hijriy II, milodiy VIII asr) alohida o‘rni bor. Bu shaxs so‘fiy, muhaddis, hadis va fiqhda zamonasining yetakchi olimi sifatida alohida o‘rin egallaydi. Muhim jihati shundaki, u Xorazm turkiylaridan bo‘lmish Muborak ibn Vozihning o‘g‘li bo‘lgan va butun umrini haj, ilm va ibodat yo‘liga bag‘ishlagan. Ma’naviyatimiz tarixida Abdulloh Muborak ilk marta “Mubayyin” ya’ni “Qirq hadis”ni yaratgan ijodkor sifatida ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, Imom Buxoriyning otasi Ismoil Buxoriy ham Abdulloh Muborakning shogirdlaridan ekan. Buyuk muhaddis haqidagi ma’lumotlar juda ko‘p tarixiy asarlarda, tazkiralarda keltirib o‘tiladi. Xususan, Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarida Abdulloh Muborakka bag‘ishlangan alohida fasl mavjud. Bundan tashqari Abdurahmon Jomiyning “ Nafohat ul-uns” asarida ham u haqida juda qiziqarli ma’lumotlarni keltirib o‘tilgan. Alisher Navoiy ham Abdulloh Muborak siymosiga muhabbat bilan qarab, o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat”, “Mahbub ul-qulub”, hamda “Hayrat ul-abror “ dostonlarida unga alohida e’tibor qaratgan. Biz ushbu maqolamizda “ Hayrat ul-abror” dostonida Abdulloh Muborak siymosining badiiy talqiniga to‘xtalib o‘tamiz.

Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi ilk doston - “Hayrat ul-abror” dostoni qomusiy asar hisoblanib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda har bir davr kishilari uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkirning teran axloqiy-ma’naviy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Asardagi maqolatlarga ilova qilib berilgan hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan g‘oyalarni o‘quvchiga yanada teranroq ta’sir etishi hamda asar haqida mukammalroq tushunchaga ega bo‘lishiga imkon beradi.

Navoiyning ko‘plab asarlarida komil inson g‘oyasi ilgari surilgan bo‘lib,“Hayrat ul-abror”da ham bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Komil inson tushunchasi borasida Navoiyning o‘z qarashlari, mezonlari mavjud. Bunda ideal komil inson iymonli, kamtar, qanoatli, xalqqa nafi tegadigan har tomonlama yetuk shaxs hisoblanadi. Asarda ham bu kabi xislatlar ulug‘lanib, kibr, manmanlik, yolg‘onchilik, firibgarlik, o‘zganing haqqiga xiyonat, o‘g‘rilik, egrilik singari

illatlar qoralanadi.Bunga misol tariqasida dostonda keltirilgan o‘n oltinchi maqolatga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, maqolat “Xunasasifat oliftalarning dunyo zeb-u ziynati deb xiylakorlik ko‘rsatishlari va jonfido muhabbat egalarining dindan quvvat olib boshni tik tutib yurishlari” deya nomlangan bo‘lib, Navoiy ushbu maqolatda kibr, nafs, mard va nomardning farqi,, bid’at va harom, zulm kabi tushunchalar borasida so‘z yuritgan.

Ey surubon ayni jaholat aro,

Raxshni maydoni shujoat aro.

Barqdin ul raxshini kam bilmayin,

Ko‘ziga Rustamni dog‘i ilmayin (Navoiy, 1991, 267-bet).

Keltirilgan misrada kibrli odamning o‘zini shu qadar botir ko‘rsatib raxshini ya’ni otini shijoat maydoniga ilgari surishi va bunda hatto Rustamni nazarga ilmasligi tasvirlangan. Maqolatda kibrning eng yomon illatlardanligi, u insonni zalolat botqog‘iga yetaklashi borasida quyidagi misralar bayon etilgan:

Kibr etibon el bila fe’lin during,

Kullayi zulm uzra nechukkim palang

It eti qoplon kibi quti aning,

Kibr eli bodi buruti aning (Navoiy, 1991, 268-bet).

Ya’ni: Kibr uning xalq bilan muomalasini yuzaki qilib qo‘ygan, u zulm cho‘qqisida xuddi qoplon kabi edi. Qoplon singari it go‘shti bilan oziqlanar edi, takabburligidan esa kibr bodasi esar edi. Bundan tashqari, asardagi kibrli kishi tasvirida uni zulm borasida Zahhokka o‘xshashi, uning ikki qulog‘ida zirak osilganday, o‘zini shariatga xilofligini ko‘rsatib turganday soqolini tagidan qirib tashlashi, shu zulmkorliklari uchun hurmat talab qilishi, aslida bu hurmat emas bid’at va harom ekanligi, hattoki bu zolimning zulmi shu qadar kuchliligi, bunday zolimlar kofirlarda ham bo‘lmagani aytib o‘tilgan.

Maqolat xotimasida esa kibrli kishini takkabbur xarob etganligi, uni nafsni tiyish, shariatga xilof barcha illatlardan to‘silish, hirs va havas yo‘lidan chekinish borasida pand-nasihatlar beriladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, asardagi maqolatlarga ilova qilib berilgan hikoyatlar maqolatlarda ilgari surilgan g‘oyalarni o‘quvchiga yanada teranroq ta’sir etishi hamda asar haqida mukammalroq tushunchaga ega bo‘lishiga imkon yaratadi. Ushbu maqolatga ilova qilingan hikoyat Hasan Robi tomonidan aytilgan bo‘lib, u Abdulloh Muborakning niqob kiyib g‘azovot jangida ko‘rsatgan jasorati xususida. Barchamizga ma’lumki, mumtoz adabiyotdagi aksariyat asarlarda ulug‘ ulamolarning hayot yo‘li ibrat tariqasida tilga olinadi. Alisher Navoiyning ham aynan Abdulloh Muborak haqida so‘z yuritgani bejizga emas, albatta.

Shariat va tariqat ma’dani, taqvodorlar sultoni, hazrati ulamolar shahanshohi, muhaddis , qomusiy olim Abu Abdurahmon Abdulloh ibn al-Muborak al-Xanzaliy al-Marvaziy asli Xorazmlik bo‘lib, u buyuk olim Abu Hanifaning shogirdi, Imom Buxoriyning esa ustozi bo‘lgan. Abdulloh Muborak haqida Sufyon ibn Uyayna shunday deydi: “Sahobalar bilan Ibn Muborakning ishlariga qaradim, ularning ibn Muborakdan ustun tomonlari Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) suhbatlarida qatnashganlari va g‘azotlarda u Zot bilan birga bo‘lganlarida ekanini ko‘rdim” (Yusupov, 2009, 54-bet).

Darhaqiqat, Abdulloh ibn Muborak islom tarixida uning madaniy rivoji uchun ulkan hissa qo‘shgan allomadir. U yoshligidan zehn borasida ham , odob-axloq borasida ham, umuman olganda har jabhada o‘z tengqurlari orasida ajralib turgan. u o‘zi haqida: “Men odob axloqni o‘ttiz yil, ilmni esa atigi yigirma yil o‘rgandim” (Xomuhammad og‘li, 2022, 74-bet), - deya ta’kidlagan.

Hikoyatda berilgan g‘azovot jangida Abdulloh Muborak burqa ya’ni niqob bilan jangga kiradi va g‘alaba qozonadi. Jangdan so‘ng u o‘zini ma’lum qilmaydi va uning aynan kim ekanligidan xalq bexabar qoladi. Hasan Rabi Tangri nomi bilan iltijo qilganidagina u yuzidagi niqobini olib , kimligini namoyon etadi:

Tengri otin chunki simo ayladi,

Chehrasidin parda vido ayladi.

Izzu sharaf tojig‘a torak edi,

Toraki dahr Ibni Muborak edi (Navoiy, 1991, 278-bet)

Asarning kishiga ta’sir etuvchi jihati ham shunda. Shunday katta jang g‘alabasining asoschisi Abdulloh Muborakning o‘zini elga tanitmasligi e’tiborga molik holat, albatta. Buning asosiy sababi shundaki, Abdulloh Muborak din yo‘lida, g‘azot yo‘lida o‘zini fido qilguvchilardandir. U bu ishni xalq ko‘zi uchun emas balki Alloh yo‘lida qilgan.:

Tonisa, ulkim, manga maqsud erur,

Tonimasa olam elim sud erur.

Har kishi kome tilasa yordin,

Yor ishi maxfiy kerak ag‘yordin.

Lek jihod ichra bu asg‘ar durur,

Nafs bila aylagan akbar durur (Navoiy, 1991, 279-bet)

Maqolada berilgan kibrli kishi tasviri yodga oladigan bo‘lsak, hikoyatda keltirilgan Abdulloh Muborak tasviri bilan bir-biriga mutlaqo zidlikka guvoh bo‘lamiz. Alisher Navoiy ushbu maqolat va hikoyat orqali haqiqiy komil inson qanday bo‘lishini, o‘z nafsini, kibrini qanday yengishi lozimligini bayon etadi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulloh Muborak timsoli Alisher Navoiy tomonidan ham ilmiy , ham badiiy jihatdan talqin etilgan bo‘lib, “Hayrat ul-abror” dostonida uni komil inson, oliyjanoblikning yuksak namunasi sifatida badiiy talqin etadi va o‘z zamondoshlariga hamda kelgusi avlodga ibrat qilib ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Ahmadquli Xolmuhammad o‘g‘li. (2022) “Savdogarlar ustozi yoxud omad kaliti”, Toshkent.

2. Alisher Navoiy. (1991) Mukammal asarlar to‘plami. XX tomlik, 7-tom,-T:.”Fan” nashriyoti, 267-b

3. Olimxon Yusupov.(2009) Abdulloh ibn Muborak. “Hidoyat” jurnali, 7-son

4.Shamsiyev P., Ibrohimov S. (1972) Navoiy asarlari lug‘ati.- T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 523-b

BOBUR ASARLARIDA TABIAT TASVIRI

Dono Ibrohimova
ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida tabiat tasvirining o‘rni masalasini yoritishga bag‘ishlangan. Maqolada keltirilgan aniq faktlardan Boburning tabiat olamiga bo‘lgan munosabatini ham bilib olish mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Tabiat tasviri, peyzaj, Hindiston hayvonlari, o‘simliklari, noranj, yog‘lig‘, turunj.*

Abstract: *This article is devoted to clarifying the issue of the role of the image of nature in Zahiriddin Muhammad Babur's work "Baburnoma". From the specific facts presented in the article, Babur's attitude towards the natural world can be learned.*

Keywords*: Nature image, landscape, Indian animals, plants, orange, oil, orange.*

O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixida Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi alohida o‘rin tutadi. Bobur she’riyati o‘zining xalqonaligi, ifoda jozibasi bilan kitobxonlar qalbidan joy olgan. Boburning lirik asarlari,asosan, uning devoniga jamlangan.

Bobur devoni lirik turning turli janrlarida yozilgan she’rlarni, jumladan,g‘azal, ruboiy, tuyuq, masnaviy, qit’a, fard va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Shoir lirik asarlarining mavzu ko‘lami keng va xilma-xildir. Insonlarning ma’naviy qiyofasi, hokimiyat va ma’rifat masalalari, yor va unga muhabbat, vatan haqidagi o‘ylar, unga intilish, sog‘inch, hayotni sevish Bobur lirikasining asosini tashkil etadi. Bobur lirikasi til va uslub jihatdan nihoyatda sodda va ravondir. She’riyatida tabiat tasviri ham alohida o‘rin egallaydi.

Yog‘lig‘ingkim, jon bila men xastadurmen zor anga,
Xasta jonlar rishtasidindur, magar har tor anga…
Evrulur boshingg‘a-yu gohi yuzunga yuz qo‘yar,
Bu jihattin ot emish “gulpech”u gah, “gulzor” anga.
Bir chamandur sahnikim, bo ‘lg ‘ay binafsha sarbasar,

Tegrasi gulzordurkim, bo ‘lmag ‘ay bir xor anga.

G‘azalda yog‘lig‘ ro‘mol tasviri yetakchi. Uni tavsiflar ekan, shoir tabiatning eng go‘zal manzaralaridan foydalanadi. Undagi gullar, binafshalar, qizil va binafsharang jilolar, go‘yoki, o‘quvchilar ko‘zlarni qamashtiradi. Ularning muattar hidlari dimoqlarga yetib keladi. G‘azalni o‘qir ekan, o‘quvchi o‘zini go‘zal tabiat manzaralari og‘ushida his etadi, ulardan zavqlanadi. Shoir yorning ro‘molini tasvirlashda tabiat go‘zalliklaridan unumli foydalanadi. Bu shoirga lirik qahramon kechinmalarini, ruhiy holatini aniq va ta’sirli chizib berish imkonini beradi.

Bobur she’riyatida hayot zavqini tasvirlash tabiat go‘zalliklaridan zavqlanish tuyg‘ulari bilan uyg‘un holda tasvirlanadi:

Yoz fasli, yor vasli, do‘stlarning suhbati,

She’r bahsi, ishq dardi , bodaning kayfiyati.

“Boburnoma”da inson xarakteri tabiat tasviri bilan bog‘liqlikda ochib beriladi. Bobur asarda tabiatni injalik bilan batafsil tasvirlaydi. Hududning relyefi, tuproq tarkibi, nabototi haqida ham to‘liq ma’lumot beradi.

“Boburnoma” asarida noranj mevasi haqida ma’lumot berilgan. Noranj daraxti Hindistonning Lamg‘anot, Bajavr va Savad degan joylarida o‘sishi aytiladi. Lamg‘anot noranji “kichikrak va kindiklik” bo‘lur deb ta’riflanadi. Bu mevani uzoqroqqa olib borish mumkin emas, chunki po‘sti nozik. Astrobod noranjini Samarqandga olib borish mumkinligi haqida yozilgan. Bu tasvir mazkur tabiat in’omini o‘quvchi ko‘z o‘ngida suratdagi kabi chizib beradi. Asardagi tabiat tasvirining bunday chizgilari ijodkor mahoratining mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Asarda Bajavrdagi noranj turlari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan: ”bajavr noranjlarining ulug‘ligi bihicha bo‘lur, suvi ko‘ptur”. Noranj xususiyatlarini qiyoslash asarda turunj mevasi ta’rifi bilan davom ettiriladi: “ yana bir noranj mushobihi meva turunjdir. Bajavr va Savad eli balang deydurlar. Turunj ikki nav’ bo‘ladur: biri chuchuk va bemaza va dilochur. Turunjning rangi noranj rangidin sarig‘roqtur ”.

“Boburnoma”da tabiatning noyob mo‘jizalaridan tovusning tasviri ham e’tiborni jalb qiladi. Bobur uni boshqa qushlar bilan qiyoslamaydi, balki urg‘ochi

va narining o‘zaro farqlarini ochib beradi. Tovusning parlari chiroyli tovlanishini ko‘rgan inson uni urg‘ochisi deb o‘ylashi mumkin, ammo tovusning chiroylisi nari bo‘ladi: “Tuyurdin: bir tovusdir. Purrang va purzeb jonivoredur. Jussada turnacha bo‘lg‘ay, turnacha baland emastur. Modasining yana zeb va rangi yo ‘qtur. Narining boshida tavqi savsaniydur, bo‘yni xushrang ko‘ktur”.

Bobur “Boburnoma”da Hindistondagi hayvonlar haqida so‘z yuritar ekan, ular yashaydigan iqlim sharoiti, joyi, o‘simliklari haqida ham ma’lumot beradi. Ularni ona yurti Movarounnahr hayvon-u o‘simliklari bilan qiyoslash yo‘lidan boradi. Jumladan, nilagov hayvonini tasvirlashda bu hayvon balandligini ot bilan, rangini esa urg‘ochisi bilan qiyoslaydi. Bunday qiyosiy tasvir shoir ko‘nglidagi vatan suratini ko‘z o‘ngimizda namoyon etishga xizmat qiladi.

Amudaryodan o‘tib, Kobul shahriga kirib borgan Bobur uni batafsil tasvirlaydi. “Kobul viloyati to‘rtinchi iqlimdindur. Shimoli Qunduz va Andarob viloyatidur. Hindikush tog‘i vositadur. Janubi Farmul va Nag‘ar va Bannu va Afg‘onistondur”. “Boburnoma”da Bobur o‘zi yaratgan bog‘ haqida ham ma’lumot beradi. Bu orqali biz muallifning tabiatga oshuftaligining guvohi bo‘lamiz. Bu bog‘ni yaratishda unga amakisi Ulug‘bek mirzoning Kobulda qazgan arig‘i namuna bo‘lganini yozadi. Odinapurdagi bu bog‘ga nayshakar olib kelib o‘stirishni tajriba qiladi. Banan daraxti ko‘chatini ham birinchi bo‘lib shu bog‘ga o‘tqazadi.

Bobur uchun tabiatning nash’u namosi oqar suv bilan bog‘liq. Uning uchun bog‘ning eng afzal tomoni “bir tegirmon suyi bu bog‘ning o‘rtasidan va bog‘ning ichidagi pushtasining ustidan hamisha joriyligida”. Tasvir oxirida “xeyli yaxshi bog‘ bo‘lubtur” deb yakunlaydi.

“Boburnoma”ning Afg‘onistonga oid qismida muallif Bog‘i Vafo tasviriga alohida to‘xtaladi va Hindistonga safar taraddudida Humoyun mirzo tufayli shu bog‘da to‘xtadik deb, fikrini davom ettiradi: ”Bog‘i Vafoning haddi va hududi va safo latofati bu tarixda mukarrar mazkur bo‘lubtur. Asru vafoliq bog‘ voqi’ bo‘lubtur”. “Boburnoma”da Samarqand, Farg‘ona, Andijon, O‘sh, Kobul, Hindiston kabi shahar va mintaqalar keng tasvirlangan. “Boburnoma”da Bobur va

uning navkarlari qahraton qishda Kobulga borishi lavhasi tasvirlangan. Ana shu vaziyatni ifodalashda muallif qish va qorni inson tabiati bilan uyg‘unlikda tasvirlaydi. Boburning safar jarayonidagi kayfiyati tabiat tasviri bilan juda mutanosib. Bu Boburni Kobulda kutayotgan noxushliklar epkinidan ham xabar berayotgandek tuyuladi. O‘quvchi diqqatini jalb qiladi va inson tabiatiga xos hayot uchun kurashni, uning iroda kuchini ko‘rsatadi: ” Qutiy degan havolg‘a kelduk. Ushbu kun g‘arib chopqun bila qor yog‘ar edi. Andoqkim, borchag‘a o‘lum vahmi bo‘ldi. Qor uluq, yo‘l yakraha, tepilgan-bosilgan yo‘l bila ham ot ba hiyla boradur”. “Boburnoma”da Boburning Afg‘oniston lolalarini tasvirlagan o‘rni o‘quvchiga ajib, shoirona yoqimli kayfiyat bag‘ishlaydi. Asarning mazkur o‘rinlarini o‘qir ekanmiz, beixtiyor dashti Shayx va Parvonning “bir parcha yeridagina o‘sadigan “Sadbarg lola”ni o‘z ko‘zi bilan ko‘rish ishtiyoqi tug‘iladi. Lolalar tasviri orqali biz adibning hayotga mehri, tabiatga muhabbatining guvohi bo‘lamiz. Bobur shu o‘rinda lola navlarini sanab chiqadi, asarda 33 nav lola sanaladi: “Lolayi gulbo‘y”ni alohida tasvirlaydi, chunki bu lola o‘zgacha xushbo‘yga ega. Shuningdek, sadbarg lola hamma joyda o‘savermaydi, Dashti Shayxdagi mo‘jazgina yerda unadi. Yuqoridagi parchadaBoburning tabiat go‘zalligini nozik tuyg‘ular bilan his qilishining guvohi bo‘lamiz. Bobur bilan birga o‘quvchi ham tabiat muxlisiga aylanadi.

Ko‘rinadiki, shoh Bobur jang-u jadallardan charchagan, xiyonat-u mashaqqatlardan bezgan onlarda, tabiat go‘zalliklariga yuz burgan. Uning mo‘jizakor ta’siridan o‘ziga kuch-qudrat olgan. Tabiatning sirlarini o‘rgangan. Uning rangin ohanglarini tinglay olib, tabiat tilini ko‘ngil tiliga o‘girgan. Bu “Boburnoma”ning oltin sahifalarida turfa ohanglar taratgan. Muallifning shoirona uslubining sayqal topishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur (2017),,Boburnoma” “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi , Toshkent

2. Xayriddin Sultonov (1997),,Boburiynoma” asari “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining bosh tahririyati , Toshkent

ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA FAQIR OBRAZI (“XAZOYIN UL-MAONIY” MISOLIDA

Ismoiljonova Umida Fayzullo qizi
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi
uismoiljonova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning lirikasida ko‘p murojaat etiladigan timsollardan biri “faqir” obrazining badiiy va tasavvufiy talqini haqida so‘z yuritiladi va shoirning g‘azal, ruboiylaridan misollar keltiriladi. Faqir so‘zining etimologik va istilohiy ma’nolari tavsiflanadi. Uning Navoiy hayotida asosiy maslak sifatida ifoda etilgani ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Navoiy, lirika, timsol, faqir, fuqaro, faqr, tasavvuf, istiloh.*

Abstract: *This article talks about the artistic and mystical interpretation of the image of “pauper”, one of the symbols often referred to in Alisher Navoi’s lycrics,and gives examples from the poet’s poem and rubai. The etymological and terminological meanings of the world “pauper” are described. It will be shown that it was expressed as the main maslak in Navoi’s life.*

Keywords: *Navoi, lyric, symbol, poor, citizen, poverty, mysticism, istilah.*

Mir Alisher Navoiy turkiy xalqlarning ulug‘ shoiri, mutafakkiri va davlat arbobidir. Navoiy g‘arbda sharq adabiyotining buyuk vakili, sharqda esa “nizomi millati va din” ya’ni din va millatning nizomi kabi maqomlar bilan ulug‘lanadi. Buyuk mutafakkir hayoti davomida salmoqli va sermahsul ijodi bilan dunyo xalqlariga yirik adabiy meros qoldirdi. Navoiy lirikasi o‘rta asrlar mumtoz adabiyotining yuksak bosqichini tashkil qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning lirikasiga nazar tashlar ekanmiz, xilma xil janrlar, badiiy san’atlar, timsol va obrazlarga boyligini ko‘ramiz. Xususan, g‘azallarida shoir rind, faqir, abdol, zohid, soqiy kabi obrazlarga ko‘p o‘rinlarda murojaat etgan. Navoiy asarlaridagi obrazlar ham zohiran, ham botinan ma’nolarda qo‘llanilgan. Alisher Navoiy lirikasidagi shunday timsollardan biri faqir obrazi bo‘lib, shoir bu timsol orqali jamiyatdagi ijtimoiy masalalar bilan birga tasavvufiy-falsafiy g‘oyalarni ham ifoda etadi.

Faqir arab tilidan olingan so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosi “kambag‘al, muhtoj, yo‘qsil”, ya’ni moddiy yoki ma’naviy jihatdan muhtoj odam ma’nosini anglatadi.

Faqirning ko‘pligi fuqaro so‘zi bo‘lganligidan bu so‘zlar she’rlarda ko‘proq yonma-yon keladi. “Qur’on Karim”da ham faqir so‘zi yo‘qsil, muhtoj ma’nolarida kelganini ko‘rishimiz mumkin: “*Ey insonlar! Sizlar Allohga muhtojdirsizlar. Allohning o‘zigina (barcha odamlardan) behojat va (barcha) maqtovga loyiq zotdir*” (Qur’on Karim, “Fotir” surasi, 15-oyat, Abdulaziz Mansur, 1992, 399-bet).

Alisher Navoiy o‘zining lirik she’rlarida faqir so‘zi har ikki ma’noda keladi. Masalan, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida faqir so‘zi quyidagicha beriladi:

Goh faqr ahlig‘a ham rahm ko‘zi birla boq,

Kim duogo‘yung erurlar fuqaro, ey qorako‘z

Sen Navoiyg‘a vafo aylamasang, bor o‘lsun,

Shoh Abulg‘oziy ibn Boyqaro, ey qorako‘z. (G‘aroyib us-sig‘ar, 53-bet)

Navoiy bu baytlar orqali shohga murojaat etib: “ba’zan faqr ahli, ya’ni kambag‘al, yo‘qsil, muhtojlarga ham rahm qilgin, shunda ular senga duogo‘y bo‘lishadi” demoqchi bo‘ladi. Endi faqirning tasavvufiy istilohiy ma’nosiga e’tiborimizni qaratsak, faqir-tariqatga yangi kirgan solikning o‘tkinchi dunyo ne’matlaridan voz kechgan, ruh va ko‘ngil komilligiga intilgan, insonning Alloh visoliga yetishtirgan ma’naviy-ruhiy zafari ma’nolarida beriladi. “Haqiqatan, faqr kalimasi moddiy yo‘qsillik yoki kambag‘allik, qashshoqlik ma’nosini emas, ma’naviy yo‘qsillik, faqat Haqqa muhtojlik mazmunini ifodalagan mavhum va ko‘zga ko‘rinadigan borliqni tark etgan, fe’l, sifat va zotini Haqqa foniy aylagan kimsa “faqr nihoyasiga yetkazilgach Alloh qolur” ma’nosidagi hadis hukmi bo‘yicha dili faxrga to‘lgan kishi faqr tojini kiygan bo‘ladi”(Abdurahmon Go‘zal, 2014, 162-bet). Navoiy ham ruh va ko‘ngil kamoli uchun riyozat chekib, nafsini tizginlashda hech nimadan toliqmay, bu foniy dunyo ro‘yolariga aldanmay Allohning xos quliga aylanishni istaydi va buni devonlariga kirgan g‘azallarida ham aks ettiradi:

Jahonda faqr kasb et, mayl ko‘p qilma g‘ino sori

Ki mundin oz etibdur orzu farzona andin ko‘p.(Navodir ush-shabob, 196-bet)

Ya’ni, dunyoda aldamchi boyliklarga uchmay, faqirlikni kasb et shunda sening yagona orzuying bo‘lgan narsa, Allohning vasliga yetishasan.

Navoiyshunos olim Nodir Ramazonov Navoiyning asarlaridagi faqir obraziga quyidagicha ta'rif beradi: "Tasavvuf ahlining e'tirofiga ko'ra, faqr - Haqqa yetishga mone'lik qiladigan barcha to'siqlar (o'zlik, kibru havo, g'urur, manmanlik, nafs talablari, mol-mulk va mansab orzusi va h.k.)dan voz kechib, ko'ngilni Haq nazargohiga aylantirishdir".(Ramazonov, 2019, 24-bet).

Darhaqiqat, faqirlikka erishish uchun o'zlikdan kechish hamda tasavvufga kirgan solikning asosiy maqsadi Haqqa yetishish bo'ladigan bo'lsa, uning oldida o'zlikdan kechishdek og'ir masala turadi. Ya'ni, u Haq visoli uchun o'zini ham unutib harakat qilishi demakdir. Shunda solik uchun tasavvufda to'g'ri yo'l sifatida faqr yo'li tanlanadi. O'zlikning faqr yo'lidan yurishda ortiqcha ekanligini Navoiy mana bu baytida ochiqroq namoyon qilgan:

Ey Navoiy, faqr yo'linda burun o'zlukni sol,

Kim, bu yo'lda po'yag'a mone'dur ul ortqusi yuk.(Badoye ul-vasat, 237-bet)

E'tibor qilsak, "po'ya"ning asl ma'nosi otning o'rtacha tezlikda yurishi bo'lib, baytda faqr yo'liga kirgan oshiqning kamolot sari mashaqqatli odimlashi nazarda tutilgan. Shundan Navoiy faqr yo'lidan yurishda o'zlik u uchun ortiqcha yuk bo'lishini ta'kidlaydi. Tasavvufda solik o'zlikdan kechish yo'lida dunyo ne'matlari ozayganligi sabab shukr qilishi lozim. Chunki u bu bilan o'zligini, dunyoviy hayotini ta'minlab turgan manbadan judo bo'lyapti, bu esa uni o'zligidan qutilishga tomon yetaklaydi. Faqrda kishi boshiga kelgan g'amlar ne'mat sifatida qabul qilinadi va bu g'amlar uchun shukr qilinadi. Dunyo ne'matlaridan qanchalik ko'p mahrum bo'lsa, o'z maqsadiga shunchalik ko'p erishadi va shuning uchun shukr qiladi. Demak, chin faqir dunyo ne'matlaridan voz kechgani uchun shukr qilar ekan, uning dilida Haqqa nisbatan hayosi bo'ladi. Bu hayo esa uni iymonga yetaklaydi. Shunday ekan ne go'zal maxluqiga Xoliqini eslatuvchi faqirlik deyiladi. Faqr yo'lidan yurgan odam avvalo fano bosqichidan o'tishi talab qilinadi:

Kim istasa saltanat saxodur anga shart,

Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart. (Xazoyin ul-maoniy, 224-bet)

Navoiy bu ruboiysi bilan chin faqirlikka erishmoq yo‘lidagi kishi fanodan o‘tadi-da, keyin baqoga uning asosiy maqsadi bo‘lgan Haqqa yetishadi, demoqchi bo‘lgan. Navoiy o‘z lirikasida faqir obraziga ko‘p murojaat etadi. Shu jumladan, “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotining o‘zida 192 marta faqir so‘zi uchraydi. G‘azallarda faqir obrazi asosan maqtada yoki maqtadan oldingi baytda uchrashiga guvoh bo‘lamiz. Bilamizki, mumtoz adabiyotda bu baytlarda kelgan misralar pand-nasihat ruhida bo‘lib, aynan g‘azal mazmunini ochib beradi. Masalan:

Faqr naxlidin guli maqsud uzmak istama,

Yetmay anda ohu ashkingdin havovu nam hanuz.

Bir so‘zin istab Navoiy o‘ldi,vahkim,yetmamish,

Xuqqayi yoqutidin ko‘nglumga ul mahram hanuz.(G‘aroyib us-sig‘ar, 29-bet)

Ko‘ramizki, faqr so‘zi “begona bayt”da kelgan bo‘lib, faqirlik daraxtidan maqsud gulingni uzishga shoshilma, seni ohu ko‘zyoshlaring bunga yetmaydi, deb faqirlikka erishish yo‘lidagi solik ancha sinov va qiyinchiliklarni bosib o‘tishi kerakligini bildiryapdi. Va bu bayt orqali Navoiy butun bir g‘azalida ifoda etmoqchi bo‘lgan maqsadini to‘la ochishga erishmoqda. Darhaqiqat, faqirlik yo‘lini tanlagan solik bu yo‘lni o‘zi ixtiyor etib va bu yo‘lda duch kelgan sinovlarga sabr, qanoati bilan bosqichma bosqich asl maqsadiga yetishi bilan birgalikda so‘fiy maqomini ham oladi.

Bu haqida navoiyshunos olim Najmiddin Komilovning fikrlari o‘rinlidir: “So‘fiylar ruhoniyat bilan suhbat quradigan, kayhonu falak asroridan mujda keltiradigan, faqrni ixtiyoriy ravishda bo‘yinga olib, tabiiy axloqni tark eta borib, ilohiy axloqni kasb etuvchi, ezgulik yo‘lida jonini fido qiluvchidirlar, ular borliq va yo‘qlik, zamon va makondan xorij, azalu abadni birlashtirgan mukarram zotdirlar. (Komilov, 1996, 9-bet)

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Hazrat Navoiy faqirlikni nafaqat ijodida balki hayotida ham shu yo‘lni afzal ko‘rganini bilishimiz mumkin. Shunday buyuk shoir, mutafakkir, zamonasining dahosi va “shohning eng yaqin kishi”si sifatida izzat-ikrom qozongan yetuk davlat arbobi hayoti davomida kamtarona hayot kechirgani bizga tarixan ma’lum. Hatto faqirlikni chindan ixtiyor etib, ruhiy kamolot bilan

Allohning xos quliga, ya'ni o'zlikdan kechib Haqqa muhtojlik, faqirlik orqali uning visoliga intilishi sababidan davlat ishlaridan qo'l siltab, Shayx Abdulloh Ansoriyning mozoriga jorubkashlik qilishgacha borgani Navoiyning hayotidagi asl maqsadini bizga yanada aniqroq anglatadi. Alisher Navoiyning muhriga "Kun, fi-d-dunyo ka-annaka g'aribun av obiru sabiluin al-faqir Alisher". Ya'ni: "Sen dunyoda g'aribdek yoki musofirdek yashagil, faqir Alisher" degan hadisning yozilgani uning butun umri davomida el-yurt xizmatida bo'lgani, o'tkinchi dunyoning havaslariga berilmagani, faqirlikni ixtiyor etgani, aslida Faxriy Hirotiyning "Ravzat us-salotin" asarida keltirilganidek, " har kuni 75 000 dinor amir xazinasiga tushar edi va 15 000 dinor chiqim bo'lur edi" deya ta'riflangan shoirning qanchalik kamtarlikni afzal ko'rganligini ma'lum qiladi. (Umarova S, 2022,22-bet). Umuman, Alisher Navoiy uchun faqr real hayotda maslak, badiiy ijodda esa badiiy-estetik ideal mavqeyida ko'rilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurahmon Go'zal.(2016), *Yassaviy faqrnomasi*. –T.: "Navro'z".
2. Alisher Navoiy.(2016), *Xazoyin ul-maoniy*. – T.: Yangi asr avlodi,.
3. https://fa.wikishia.net/view/%D9%81%D9%82%DB%8C%D8%B1
4. Komilov N.(1996), *Tasavvuf*. –T: "Yozuvchi".
5. *Qur'oni Karim.(*1992), Tarjima va izohlar muallifi A.Mansur. –Toshkent.
6. Ramazonov N.(2019), *Alisher Navoiy ijodida faqr talqini va faqir obrazi*. Avtoreferat. – Toshkent.
7.Umarova S.(2022), *Suyima G'aniyeva ilmiy-adabiy merosi: tadqiqot usullari va mezonlari*. – T.: "BOOKMANY PRINT".

"SHAYBONIYNOMA"DA ADIBNING BADIIY MAHORATI

Ismoilova Kumush Mavlon qizi
O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi 4-kurs
ismoilovakumush16@gmail.com
Ilmiy rahbar: Ozoda Tojiboyeva.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asari tahlilga tortilgan. Asardagi tarixiy voqealar, tarixiy voqelik ishtirokchisi bo'lgan tarixiy shaxslarni tasvirlashda adibning mahorati yoritilgan. Portret*

tasvirida qo‘llangan badiiy-tasviriy vositalar tahlil qilingan. Shaxslarni gavdalantirishda adibning shaxsiy yondashuviga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *davr, ijtimoiy-siyosiy muhit, tarixiy sharoit, ijodiy yondashuv, badiiy mahorat, uslub.*

Annotation: *In this article, Muhammad Salih's work "Shaybaniynama" is analyzed. The writer's skill in depicting historical events and historical figures who are participants in historical reality is highlighted in the work. The artistic and pictorial tools left in the portrait image are analyzed. Emphasis is placed on the writer's personal approach to personification.*

Keywords: *era, socio-political environment, historical conditions, creative approach, artistic skill, style.*

Muhammad Solihning “Shayboniynoma”asari tarixiy-jangnoma dostondir. Asar Muhammad Shayboniyga bag‘ishlangan doston bo‘lib, asarda temuriylarga qarshi yurishlar o‘z aksini topgan. Asar 76 bob 4456 misradan iborat.Asarning asosiy voqealari 17-bobdan boshlanadi. Asarda bosh qahramon Shayboniyxon ilohiy shaxs sifatida “Tangrining soyasi” deya e’tirof e’tiladi. Asarda bosh qahramon madh etilib, Muhammad Solih temuriy hukumdorlar haqida fikr yuritganda esa ularni tahqirlash, mazax qilishga intiladi. Uning Shayboniyxonni ko‘klarga ko‘tarib, temuriylarni qattiq tanqid qilishi tarixiy haqiqatga nisbatan tarafkashlik bilan munosabatda bo‘lganligini dalillaydi. Shayboniy va uning tarafdorlarini ijobiy, temuriylarni esa salbiy qahramon holida tasvirlashga harakat qilsa-da, ba’zan o‘z tarafdorlarining yuzini ham ochib tashlaydi. Yozuvchining mahoratini shu yerda ham kuzatishimiz mumkin. O‘zi nafratlanadigan, otasining o‘limiga sabab bo‘lgan temuriylarga ham tarixiy voqelikka ham xolis yondoshishga harakat qiladi. Doston masnaviy shaklida yozilgan. Asarda she’riy san’atlardan unumli foydalanilgan.

Aql ila bu Aliyi asrdur ul,
Shoh ermas valiyi asrdur ul.
Hilm ila ko‘hi garon sangdur ul,
Sohibi donishu farhangdur ul.

Hilm birlikni namoyon bo‘ldi,

Soniyi hazrati Usmon bo‘ldi

Mumtoz she’riyatda keng qo‘llangan badiiy san’atladan biri talmih sana’tidir.Muhmmad Solih ham ushbu she’riy san’atdan dostonda unumli foydalangan.Ushbu misralarda xalifalarimiz “Ali”,”Usmon”nomlarini zikr qilish orqali talmih san’atini mohirlik bilan qo‘llagan. Yana bir o‘rinda esa tashbeh san’atini go‘zal namunasini uchratishimiz mumkin.

Xudining suratidan g‘uncha misol

Bargi gul yanglig‘ uzong‘usidir ol.

Yuqoridagi misrada “g’uncha misol”,”gul yang’lig’” so‘zlarini ishlatish orqali tashbeh san’atini ajoyib tarizda ifodalagan.

Yozuvchi tazod san’atidan ham mohirlik bilan foydalangan. Ushbu san’atni quyidagi misrada uchratishimiz mumkin.

Meni bu lutf bila shod aylab,

Mehnatu qayg‘udan ozod aylab.

Ushbu satrlar esa “shod”,”qayg’u” so‘zlari qo‘llash orqali tazod she’riy san’atidan foydalangan. Muhammad Solih she’riy san’atlarni ustalik bilan o‘z o‘rnida qo‘llay olgan. Masalan takrir san’atining ajoyib namunalari quyidagi misralarda jo bo‘lgan.

Faylar borcha ango foiz o‘lur,

Fayzlar borcha ango o‘q o‘qulur.

Aylading farshi usavvax paydo,

Aylading farshi musattah paydo.

Asarda tarixiy shaxslar portretini chizishda Muhammad Solih har bir detalga alohida e’tibor bergan. Jumladan Buxoro xoni Boqi Tarxonning siymosini tasvirlayotganda yozuvchi mahoratini kuzatishimiz mumkin.

Kim edi Boqi Tarxon bilingiz,

Bilibon qissa boshig‘a kelingiz.

O‘zi Abdulalibek farzandi,

Qurratullaynu jigar payvandi.

Otasi davlatida mirzoyi,

Har zamon boshida bir savdoyi.

Yemak-ichmak birla doim xushhol,

Qushlov ovlab yurugon forig‘bol.

Otasi kechti esa olamdan,

Ango yuq edi xabar motamdin.

Ushbu misralar orqali yozuvchi noshut Buxoro xoni Boqi Tarxon siymosini chizadi.Otasi tiriklik vaqtida kayfu safoga berilganligi va xatto otasining o‘limidan ham bexabar qolganligi tasvirlanadi. Yana bir o‘rinda esa Muhammad Solih temuriylarga bo‘lgan adovatini ochiqdan-ochiq shunday tasvirlaydi.Jang maydoniga kirgan Bobur:

Chu Samarqandni oldi Bobur,

Xalq aro tafriqa soldi Bobur.

Husn maydonig‘a zolim kirdi,

Zulm bozorig‘a ravnaq berdi.

Zulfig‘a tob berib o‘lturdi,

Bir necha dilshodani kuydirdi.

Asar bosh qahramoni Shayboniyxon siymosi asarda shunday e’tirof e’tiladi.

Tangrining soyasi Shayboniyxon

Kim ani qo‘ydi xalifa rahmon

G‘oyibdan oti Muhammad bo‘ldi

Qobili davlati sarmand bo‘ldi

Barchaning yaxshilik oning qoshida,

Barchaning davlati oning boshida

Suyubon asrag‘ani Qur’ondur

Yugurib qilg‘oni shaytondur

Nafsini o‘ziga dushman bildi.

Dushman o‘lturmag‘oni fan bildi.

Bu chizgilar orqali yozuvchi Shayboniyxoni shunday ulug‘laydi. Unga “Tangrining soyasi” tushgani, ismi shunchaki biron bir shaxs tomonidan emas,

aynan g‘oyibdan Muhammad bo‘lgani, barchaga yaxshilik ilingani, qo‘lidan Qur’onni qo‘ymagani, nafsini bo‘ysindira olgani go‘zal tarzda ifodalangan.

Muhammad Solih ushbu asarida orqali Shayboniyxonning harbiy yurishlari g‘alabalarini tasvirlash bilan birga Shayboniyxon nomini tarix sahiflarida qoldirdi, uning bosqinchilik va dunyoni zabt etish fikrini madh etish va shunday qilib unga sadoqat ko‘rsatishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan edi va buni uddalay oldi. Bu tabiiyki, tipik saroy shoiridir.Lekin Muhammad Solih asaridan shu narsa ko‘rinadiki, u o‘zining yuksak she’riy iste’dodi, boy bilimi, ijodiy prinsipining hayotga yaqinligi vaqtvaqt bilan o‘zigacha mavjud adabiyotga izdoshlik ko‘rsatishi va hokazolar tufayli u bunday tor g‘oyaviy doirani yorib, undan ancha chetga chiqa olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo‘ja N., Adizova I. (2019). O‘zbek adabiyoti tarixi (16-19- asr 1- yarmi). – Toshkent: Noshir,– 430 b.

2. Адизова И. (2006) Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. - Т.

3. Иброҳимов А. (1976) XVI аср ўзбек адабиётининг асосий хусусиятлари. – Т.,. – Б. 164-207.

4. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2002). Boburnoma. –T.: Sharq

5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. (2008).Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdili. – T.: “O‘qituvchi”,,

6. Муҳаммад Солиҳ. (1989) Шайбонийнома. – Тошкент: Фан,. Нашрга тайёрловчи Насрулло Даврон.

7. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. (2006) Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. Ўқув қўлланма. – Т.: Адабиёт жамғармаси нашриёти.

8.Sa’dulla Siyoyev (2021) Dashti qipchoq lochini yohud Muhammad Shayboniyxon qissasi.Toshkent:Navro‘z

YUSUF SARYOMIY DEVONI MANBALARI TADQIQI

Maqsud Maxsumov Maxmut o‘g‘li
ToshDO‘TAU Matnshunoslik va adabiy
Manbashunoslik 2-bosqich magistranti
maqsudmaxsumov7@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Mavlaviy Saryomiy devoni haqida ilmiy tadqiqot davomida olingan xulosalar bayon qilingan. Devonning tuzilishi, boshqa shoirlar ijodidagi o‘xshash va farqli jihatlar yoritilgan. Shoirning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan devoni asosida tahlil-xulosalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Mavlaviy Saryomiy ijodi, devoni bo‘yicha mulohazalar, tazkira, tatabbu’, ta’rix.*

Abstract. *This article describes the conclusions obtained during the scientific research about the Mavlavi Saryomi divan. The structure of Devon, similar and different aspects in the work of other poets are highlighted. Based on the poet's book kept at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan, analyzes and conclusions are presented.*

Keywords: *Reflections on Mavlavi Saryomi's work, divan, tazkira, tatabbu', history.*

Istiqlol sharofati bilan yuzaga kelgan talab va imkoniyatlar adabiyotshunoslik fanimiz zimmasiga insonning tafakkur qudrati, qalb va idrok kuchi bilan yaratilgan bebaho merosimizni keng ko‘lamda chuqur o‘rganish hamda asrlar osha bezavol yashab kelgan ma’naviy qadriyatlarimizni kengroq kashf etish mas’uliyatini yukladi. Biz tanlagan va yoritishga uringan mavzu ham ana shu mas’uliyatli yo‘ldagi harakatlardandir.

Bugungi kunda keng kitobxonlar ommasiga hayoti va ijodi to‘liq o‘rganilmagan yoki kam o‘rganilgan, hali badiiy salohiyati to‘liq ochib berilmagan ijodkorlarni tanishtirish asosiy vazifa bo‘lib turibdi. Shular qatorida biz devonini tadqiq etayotgan Yusuf Saryomiy ijodi ham bor. 90-yillarga kelib Yusuf Saryomiy hayoti va ijodini o‘rganish o‘ziga xos yangicha tus oldi, ancha rivoj topdi. Bu o‘rinda professor B.Qosimovning ma’lum xizmatlarini qayd etmoq lozim. Uning

shoir hayoti va ijodi bilan bog‘liq ayrim masalalarni o‘rtaga qo‘yishi va adib biografiyasiga aniqliklar kiritishga urinishi, Saryomiy asarlarini ommalashtirish sohasidagi xizmatlari Yusuf Saryomiy hayoti va ijodiy merosini o‘rganishda, targ‘ib etishda qo‘lga kiritilgan yutuqlardan bo‘ldi deyish mumkin.

Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq qo‘lyozmalari markazida saqlanmoqda. Ular quyidagilar:

№117 inventar raqam bilan saqlanuvchi دیوان مولوی یوسف سریامی asari. Devonga o‘zbek tilidagi g‘azal, muxammas, tarjiband, qasida va forsiy g‘azallar kiritilgan. Asar Toshkentda “Tipografiya, A.O. Porseva” tipografiyasida 1332/1913 yili nashr etilgan. 159 betdan iborat. O‘lchami: 26x16 sm. Noshiri: Mulla To‘lagon To‘la. Kotibi: Mulla O‘tab ibn Rasul Mahmud Shoshiy.

Xuddi shu asarning Sharq qo‘lyozmalari markazida yana №118, №119, №120, №6028, №9072, №11354 inventar raqam bilan saqlanuvchi nusxalari mavjud. (Ўзбек тилидаги тошбосма китоблар каталоги. 1-жилд. – Т., 2014. – Б. 42-43)

Markazning H.Sulaymonov fondida esa №3641, №3768, №3931, №4172 inventar raqam bilan saqlanuvchi toshbosma nusxalari mavjud. Bundan tashqari Andijon shahar Adabiyot va san’at muzeyida ham №1720, №2185, №2720, №728, №799 raqamli Yusuf Saryomiy devoni toshbosma nusxalari mavjud. Devonning muqovasi qalin, yashil rangda, titul varag‘ining atroflari naqshinkor qilib bezatilgan, undagi yozuvlar zar yugurtirilgan siyohda yozilgan.

Yusuf Saryomiyning asarlari XX asr boshlarida tuzilgan va chop etilgan quyidagi qo‘lyozma va bosma bayozlardan ham o‘rin olgan.

1. “Gulshani ash’or” bayozi. (Гулшани ашъор. Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №170 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма.)

Mazkur bayozda O‘rta Osiyo hududida yashab o‘zbek va fors-tojik tillarida ijod etgan Firdavsiy, Atoiy, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Fuzuliy, Kamiy, Saryomiy, Xislat, Oxundiy, Xiloliy kabi 50 dan ortiq shoir haqida ma’lumot beriladi. Majmua matnini Mulla Shoh Islom ismli kishi tayyorlagan.

Bayozga shoirning 7 g‘azali, 1 ruboiy, 4 muxammas va 1 ta’rixi kiritilgan. G‘azallar matnlarining maqtalari quyidagilar:

جان دیماغیغه کیلور هر دم کل روخسار ایسی
بلبل شوریغه ییتکان کبی کلزار ایسی
1. *Jan dïmağïga kelür, har dam gulruxsār isi,*
Bulbulï šorïğa yetgän käbi, gulzār isi;

من نیکا موح رعناسی بولماین
مستی خراب نرکیس شهلاسی بولماین
2. *Men negä mahvi ārazi ra’nāsï bolmayïn,*
Masti xarāb, nargisi šahlāsï bolmayïn;

کیچه تیبراندی صبادین ای سومنبر کاکولینک
کل یوزینک اترافیدا چون سونبول تر کاکولینک
3. *Kečä tebrändi sabādïn, ey sumanbar kākulïŋ,*
Gul yüziŋ atrāfïda čun sunbulï tar kākulïŋ;

رشک رونق جنت کر بولسا یار منظر
از بس که رشک رونق جنت کر بولسا یار منظر
4. *Raškï ravāqï jannat, gar bolsa yār manzar,*
Az bas-ki, raški ravāqï jannat, gar bolsa yār manzar;

ناوکان دین قزای نکاه تیر ورار
سایید فتنه و ابرالاری شمشیر ورار
5. *Nāvakāndïn qazāya nigāhï tir verar,*
Sāiid fitnaya abrolarï šamšir verar;

زولف سودا سین تیلارسین کیم اوزینک دیوانه قیل
سونما ایلکینک ساچینه دست و دوعادین شانه قیل
6. *Zulfï savdāsïn tilärsenkim, öziŋ devāna qïl,*
Sonma ilkiŋ sačïna, dast-u duā’dïn šāna qïl.

قرا کوزینک نی اثیری مودام سورمه ناز

زمانه کورمادی بیر سن کبی بوتی تناز

7. *Qara köziŋni asiri mudām surmaï nāz,*

Zamāna körmädi, bir san kabi butï tannāz.

Muxammasning 3 tasi Fuzuliy g‘azallariga bog‘langan, 1 tasi mustaqil muxammasdir. Ularning hammasi devonga kiritilgan. Chunonchi, bayozdagi “Yorab bejoh kursi arshi a’lo haqi”,

“Yurding mastu g‘ofil bo‘lmayin hushyor, yetmazmi”,

“Sandin mudom jud ayla mehru vafo banga”

misralari bilan boshlanuvchi muxammaslarning nusxasi bilan devondagi nusxasida matnlarida o‘zgarish yo‘q. (Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2004. – Б. 48) Faqat bayozda keltirilgan “Muxammasi Mavlaviy Yusuf Saryomiy” sarlavhali muxammasning birinchi misrasida:

منی غم مونچه هم اواره دشتی الم قیلمه

Manï ğam munča ham āvāra-ï daštï alam qïlma.

Devonda esa:

منی کوب مونچه هم اواره دشتی الم قیلمه

Manï kop munča ham āvāra-ï daštï alam qïlma

tarzida uchraydi. Bayozdagi muxotab “g‘am” shaklida aniq ko‘rsatilmoqda. Devonda esa bu boshqacharoq hal qilingan.

Bundan tashqari ushbu bayozda shoirning “Hazrati Sulton Xo‘ja Ahmad Yassaviy marqada”ga yozgan musaddasi ham berilgan.

Lutf ilä šabï ummidïmï roz äylä,

Iqbālïmï tavfiq ilä feruz äylä,

Layli käbi lafzïmï dilafrāz äylä,

Majnun kabi nazmïmï jigarsöz äylä.

“Gulshani ash’or”da “Tarixi mehmonxona az Mavlaviy Yusuf” deb nomlangan ta’rix ham o‘rin olgan. Sharqona mehmonnavozlikni ko‘tarinki bir ruhda tasvir etuvchi ushbu she’r shunday satrlar bilan boshlanadi:

Äylä, mehmān qudumï gardïdïn,

Dilğa, yā rab, surur-u diydağa nur.

2. Yana bir bayozda Mutrib, Jomiy, Fazliy, Muhyi, Ado, Huvaydo, Mahzuna, Saryomiy, Kamiy singari 60 dan ziyod shoirning o‘zbek va fors tilidagi g‘azallaridan namunalar o‘rin olgan.

Bayozda shoirning yangi she’rlari kiritilmagan. Majmuaning 36-37-sahifalarida devonning 85-betidan o‘rin olgan “Zulfi savdosin tilarsenkim, o‘zing devona qil” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali berilgan. “Muxammasi Yusufiy” sarlavhasi bilan “Aylarda azmi gulshan, ey sho‘x sarvi qomat” deb boshlanuvchi lirikasi bilan Kamiy g‘azaliga bog‘lagan muxammasi ham kiritilgan (160-162-betlar). Ushbu asar devonda “Muxammasi bar g‘azali Mavlono Kamiy” sarlavhasi bilan 146-betdan joy olgan.

3. “Bayoz-i Haziniy”. (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №319 инвентар рақам билан сақланувчи “Баёз-и Ҳазиний” тошбосмаси.) (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №319 инвентар рақам билан сақланувчи “Баёз-и Ҳазиний” тошбосмаси.)

Bayozga Haziniy, Xislat, Komil Xorazmiy, Kamiy, Fuzuliy, Amiriy, Muqimiylar asarlari, Saryomiyning ham she’rlari kiritilgan.

Bayozning noshiri Mirzo Ahmad bin Maxdum Karim, kotibi Sirojiddin Maxdum mulla Mirzo Oxund Sidqiy Xondayliqiy. Toshkentdagi H.Orifjonov matbaasida chop etilgan. Muqovasi ko‘k, qizil hoshiyali kartondan ishlangan. (Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Т., 2004. – Б. 50.)

Yusuf Saryomiyning Fuzuliy g‘azaliga bog‘lagan “Yorab, bejoh kursiu arshi a’lo haqi” matla’li muxammasi va bitta g‘azali uchraydi. Bu

يتوشسه نامه لارينكيز نه هيرز جان ايتامز

اوقوب چو كوزكا سوريب جان ارا نهان ايتامز

Yetüšsä nāmalariŋïz, ne hirzi jān etämiz,

Oqub ču közgä surïb, jān ara nihān etämiz.

matla’li g‘azal bo‘lib, devonda uchramaydi. Bundan tashqari ushbu bayozda shoirning “Ko‘rdum yuzini davrida oliyjanob xat” va “Rashki ravoqi jannat gar bo‘lsa yor manzar” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari takror uchraydi. Bayozning 220-betida Saryomiyning quyidagi fardi bor:

بولتور ایدینک سومنبر وه سیمین بدن نیکار

بو ییل کوزومغه بیر ودونک ایسکی مردکار

Bultur ediŋ sumanbar vah siymin badan nigār,

Bu yil közümğa bir vadavaŋ eski mardikār.

Mazkur bayoz mavjud bayozlar ichida to‘laligi, kotibi, noshiri aniq bo‘lganligi sababli ishonchli majmua sifatida ahamiyatlidir.

4. №3829 inventar raqamli bayozda Yusuf Saryomiy g‘azallari keltirilgan. Bayozning kotibi, noshiri, matbaa va yili noma’lum. Titul varag‘i 1, 2, 3, 4 hamda 21, 26, 33, 40 sahifalari yo‘q. (Тожибоева М.А. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди, 44-45.)

Mazkur bayozda Jomiy, Ado, Kamiy, Saryomiy, Gulshan kabi 20 dan ortiq shoirning she’rlaridan namunalar bor. Saryomiy asarlariga ajratilgan sahifalar, g‘azallarning joylanish tartibi yuqorida sharhlab o‘tilgan №170 inventar raqamli “Gulshani ash’or”ga ko‘p jihatdan yaqin, deyarli bir xil. Shu sababli ularni takrorlab o‘tirishga hojat sezmadik.

5. Ma’lum va mashhur “Armug‘oni Xislat” bayozida (Армуғони Ҳислат. Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №3722-1 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма.) Xislat, Miskin Toshkandiy, Akmalxon, Zokiriy, Pirimqori Andijoniy, Saryomiy kabi 30 ga yaqin shoirning asarlari berilgan. Bayoz mashhur xonanda Mulla To‘ychi Hofiz iltimosiga binoan Mulla Sayyid Haybatulloh Xo‘ja Xislat tuzib savti va maqom nomini yozib, tartib bilan nashrga tayyorlagan. Kitobga Sirojiddin Maxdum Sidqiy Xondayliqiy kotiblik qilgan. Majmua Toshkentdagi G‘.Orifjonov matbaasida hijriy 1329 (melodiy 1911) yilda tuzilgan.

“Armug‘oni Xislat”ning 205-210-varaqlarida Saryomiyning “Dar marsiyai echku Yusuf Saryomiy” sarlavhali hajviyasi joy olgan. 20 band (100 misra)ni tashkil etuvchi ushbu hajviy asar devonga kiritilmagan.

Ushbu bayoz kotibi, noshiri, bitilgan yili aniq bo‘lganligi hamda shoirning bizga ma’lum bo‘lmagan katta hajmdagi asar matni to‘liq berilganligi bilan diqqatga sazovordir.

6. Saryomiy ijodidan namuna kiritilgan yana bir bayoz (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари маркази Ҳ. Сулаймонов фондида №3662 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма) hijriy 1332 yil, melodiy 1914 yilda O.A. Porsev matbaasida chop etilgan.

Bayozda Saryomiyning “Sho‘ring qursun!” radifli hajviy asari berilgan. Bu hajviya devonda yo‘q. 125 misrani tashkil qiluvchi ushbu hajviya mazkur bayoz bosmadan chiqqach, so‘nggi 4 varaqqa qo‘lda yozib kiritilgan. Sanasi yo‘q. U shunday boshlanadi:

فغان بو حال نیچوک اشنا شورینک قورسون

که حاصل المادی بو موداع شورینک قورسون

اولوس کوزیکا بولوب پارسا شورینک قورسون

امامه باشده بویندا ردا شورینک قورسون

فراق ایلینی قیلورغه دوع شورینک قورسون

Fiğān bu hāl, nečük āšnā šorïŋ qursun!

Ki hāsil olmadï bu muddaā šorïŋ qursun!

Ulus közigä bolub pārsā šorïŋ qursun!

Ammāma bašda, boyunda ridā šorïŋ qursun!

Firāq elini qïlurğa duā šorïŋ qursun!

Bayozda shoirning ushbu hajviyasini uchratdik, xolos. Uning kattagina hajmga egaligi boshqa bayozlarda hamda shoirning devonida uchramasligi ushbu majmuaning qimmatini oshiradi.

Yuqorida Saryomiy ijod namunalarining Sharq qo‘lyozmalari markazi H. Sulaymonov fondida saqlanatgan bayozlarga kiritilgan namunalari bilan tanishdik.

Quyida esa Sharq qo‘lyozmalari markazi nodir kitoblar fondida saqlanayotgan bayozlar tavsifi bilan tanishamiz.

7. Toshkent davlat sharqshunoslik instituti qoshidagi Sharq qo‘lyozmalari fondida №5736 inventar raqam bilan saqlanuvchi bayoz muqovasi qalin, yashil rangda. Titul varag‘ida tadqiqotchilar tomonidan qalamda bitilgan shunday yozuv bor: Almaiy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Sipandiy, Kamiy, Kotib Toshkandiy.

Abdulkarim Karim qalami ila yozilgan. Kitob hajmi 472 bet. Sahifalari har xil rangda. Matnlar qora siyohda, sarlavhalar esa asosan qizilda yozilgan. Kitobning 471-betida ushbu bayoz hijriy 1311 (1893) yilda Abdulkarim Kamiy tomonidan kitobat etilgani haqida ma’lumot beriladi. Bayoz ikkinchi betdagi Jomiy g‘azallari bilan boshlangan. Shuningdek, Xoja Ismat, Mushfiqiy, Sayyido, Amiriy, Ado, Husayniy, Tajalliy, Muhyi, Muqimiy, Furqat, Saryomiy kabi 50 dan ziyod zamondosh va o‘tmishdosh shoirlarning she’rlaridan namunalar berilgan.

Bayozning 314-317-varaqlarida Yusuf Saryomiyning “Qora ko‘zingni asiri mudom surmai noz” deb boshlanuvchi g‘azali hamda “Sani ey husn shohi el ko‘ra hayron saf-saf” misrasi bilan boshlangan muxammas – taxmisi joy olgan. Mazkur taxmis boshqa manbalarda ham uchraydi.

8. Saryomiy g‘azallaridan namunalar kiritilgan yana bir kitobning muqovasi qalin, qizil rangdagi karton qog‘ozdan yasalgan. Hajmi 337 bet. (Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари фондида №7710 инвентар рақам билан сақланувчи тошбосма.)

Nuqsoni: dastlabki 24 varag‘ida hech narsa yozilmagan. Kitobning ko‘chirilgan yili, kotibi ko‘rsatilmagan. Ammo, kitob muqovasi va yozuviga qarab XIX asr mahsuli deb taxmin qilish mumkin.

Bayozga Jomiy, Fuzuliy, Hofiz, Munis, Bedil, Kamiy, Amiriy, Saryomiy singari 60 dan ziyod shoirning forsiy va turkiyda yozgan she’rlari jamlangan.

Bayozda Saryomiyning “Zulfi savdosin tilarsenkim, o‘zing devona qil” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali hamda devonda va boshqa bayozlarda uchramagan quyidagi fors-tojik tilida bitgan fardi berilgan:

دورود بی جان موشت تورا تیب درد نیست

رنج تورا موامل بارنک زرد نیست

Durud bejān mušt turā tib dard nest,

Raŋï torā muāmil bāraŋ zard nest.

9. Bayoz muqovasi qalin sariq rangli karton qog‘ozdan ishlangan. Hajmi 288 bet. Noshiri Muhammad Nosih Ali Muhammad domla o‘g‘li (1868-1918) bo‘lib, ushbu bayozning oxirida noshirning surati ham berilgan.

Bayoz G. Yakovlev matbaasida chop etilgan. Bosilgan yili ko‘rsatilmagan.

Titul varag‘ida noshir haqida uning o‘g‘li Abdulla Nosirov tomonidan qisqacha ma’lumot bor. Bayozda Saryomiy, Muhyi, Tajalliy, Muqimiy, Kamiy, Akmal, Fazliy kabi bir necha shoirlarning asarlari berilgan.

Mazkur bayozda Saryomiyning “Rashki ravoq jannat”, “Novak andoz qazoe”, “Zulfi savdosin tilarsenkim”, “Man necha mahvi oraz” deb boshlanuvchi 4 ta g‘azali hamda Amiriy, Fuzuliy g‘azallariga bog‘lagan “Umrlardurkim biyoboni alam po‘yoniman”, “Yorab, bejoh kursiyu arshi a’lo haqi”, “Mani ko‘b muncha ham ovorau dashti alam qilma” misralari bilan boshlangan taxmislari berilgan.

Bulardan tashqari “Dar marqad hazrat Sulton al Orifin nurulloh marqad” deb nomlangan A.Yassaviyga bag‘ishlangan marsiyasi, “Tarixi mehmonxona az Mavlaviy Yusuf” sarlavhali ta’rixi takror uchraydi. Bayozdan shoirning devonga kirmagan bitta murabba’ va bitta muvashshahi o‘rin olgan.

Yuqorida biz ko‘rib o‘tgan 170 saqlanish raqamli bayozda uchragan “Lutf ila shab umidimi ro‘z ayla” matla’li mazkur bayozdan ham o‘rin olgan.

Bayozning 16-sahifasida devonga va boshqa bayozlarga kiritilmagan quyidagi ruboiy bor:

قیلما پنهان مردوم دیدم جانا بیر دمه

روزکاردور قرا خالینک بیله همخانه قیل

عمرلار انینک تیلارمن تاکه اول ای دیرموکن

یوصوفی سن هم ایتیم یاندا کیل کاشانه قیل

Qïlma pinhān mardumï diydami jānā bir dame,

Rozgārïdur qara, xāliŋ bilä hamxāna qïl.

Umrlar anïŋ tilärman tāki ul āy dermukin:

Yusufiy, sen ham itim yānida kel, kāšāna qil.

Ko‘rinadiki, ushbu bayozda Saryomiy ijodiga keng o‘rin berilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Saryomiy g‘azallarining ko‘plab toshbosma bayozlarga kiritilishi, shoirning badiiy salohiyati yuqoriligidan, ijodining keng kitobxonlar ommasi tomonidan iliq kutib olinganligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raboyev O. (2011). Navoiy devonlarining Qo‘qon nusxalari va ularning ba’zi xususiyatlariga doir. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy me’rosining olamshumul ahamiyati. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari.-Toshkent: O‘zbekiston,132-134-betlar.
2. Тожибоева М.А. (2004). Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди.
3. Қосимов Б. (1992). Муҳаббат аҳлининг гулшани.
4. Мирхолдоров М. (1990). Юсуф Сарёмий. – Чимкент-Сайрам.
5. Девони Мавлувий Юсуф Сарёмий. Тошбосма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 119. 84 б.

KOMIL DEVONIY IJODINING O‘RGANILISHI

Meyliyeva Farangiz Uktam qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
meyliyevafarangiz04@gmail.com

Annotatsiya. *Xiva adabiy muhitida o‘z o‘rniga, mavqesiga ega ijodkorlardan biri Ismoil Muhrkan o‘g‘li Komil Devoniy yashab ijod etgan. Komil Devoniy hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirai shuaro”, Bobojon Tarroh Xodimning “Xorazm shoirlari va navozandalari”, Ahmad Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” asarlarida uchraydi. Maqolada Komil Devoniy ijodining o‘rganilishi, kimlar bu borada izlanishlar olib borganligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘z: *devon, Ikkinchi Navoiy, g‘azal, muxammas, kotib, shoir.*

Abstract. *Kamil Devani, the son of Ismail Muhrkan, one of the creators who has his place and position in Khiva's literary environment, lived and created. Information about the life and activities of Kamil Devani can be found in “Tazkirai shuaro” of Hasanmurad Laffasi, “poets of Khorezm and musicians of Khorezm” by Babajon Tarroh, “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshahi” by Ahmad*

Tabibi.The article talks about the study of the perfect devotional work, who conducted research in this regard.

Keywords: *Divan, second Navai, ghazal, mukhammas, secretary, poet.*

XIX va XX asr davri adabiyoti yangilanish davri adabiyoti bo‘ldi. Bu davrda adabiyot, san’at, musiqa, madaniy hayotda o‘zgarishlar yuz berdi. Bu esa shoh va shoir Muhammad Rahimxon Feruz II nomi bilan ham bog‘liq. Muhammad Rahimxon Feruz II davrida saroyda turli adabiy kechalar o‘tkazildi, mushoiralar tashkil etildi va bu adabiy muhit adabiyot va san’atning rivojlanishiga zamin yaratdi. Bu davrda turli tarixiy asarlar, ko‘plab she‘rlar yozildi. Muxammaslar, tatabbu’lar yaratish vujudga keldi. Feruz boshchiligida musiqa, tarjimachilik, matbaachilik yo‘lga qo‘yildi, kitobxonlik avj oldi va bu ishlar go‘zal bir muhitning shakllanishiga asos bo‘ldi. Feruz davrida Komil Xorazmiy, Ahmad Tabibiy, Muhammad Yusuf Bayoniy, Mutrib Xonaxarob, Chokar, Avaz O‘tar o‘g‘li, Muhammad Rahim Rog‘ib, Komil Devoniy, Shinosiy, Muznib va boshqalar samarali ijod qildilar. Bu davr muhiti ko‘pchilik shoir singari Komil Devoniy ijodiga ham sezilarli darajada ta’sir qildi.

Komil Devoniy bu davrning ilmli, salohiyatli, bir necha hunarlarni egallagan bilimdon vakili edi. Komil Devoniy Xiva shahrining orqa tarafidagi Sangar degan qishloqda Ismoil Muhrkan oilasida tug‘iladi. Otasi vafotidan so‘ng tarbiyasi amakisi Xudoybergan Muhrkan qo‘liga o‘tadi. Laffasiy bu haqda o‘z tazkirasida shunday deydi: *“... Devoniy otasidan yosh sag’ir qolib, amakisi Xudoybergan Muhrkon devon tarbiyasida kamoliga yetushib, xat savodin dag‘i amakisidin ta’lim olib”* voyaga yetadi (Laffasiy, 1992, 67-bet). Komil Devoniy Xivadagi Arabxon madrasasida ta’lim oladi, arab, fors tillarini, xattotlik san’atini o‘rganadi. Unga Yusufhoji Oxund (Doiy) ustozlik qiladi. Bundan tashqari u juda ko‘p hunarlarni egallaydi. Masalan, dutor, tanbur, g‘ijjak, skripka cholg‘u asboblarini mahorat bilan chala olgan. Turli pichoq, xanjar, qilichlarni ishlab, ularga naqshlar solgan. Qolaversa, marmar toshlariga abyot va ta’rixlarni yozib, ularni bemalol naqshi islim qilib qaza olgan. Komil Devoniy juda samarali ijod qilgan, uning 3 ta devon qo‘lyozmasi mavjud bo‘lib, ular №901, 906, 1142-inventar raqamlar ostida

O‘zR FAShI hozirda asosiy fondda saqlanmoqda. Bu devonlardan №1142-inventar raqam ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxani shoir o‘z qo‘li bilan ko‘chirgan. Bundan bilishimiz mumkinki, shoirning xattotlik mahorati ham ancha yuqori bo‘lgan. Shoir ellik yil umr ko‘rgan va 1938-yili vafot etgan.

Komil Devoniy ijodining o‘rganilishi u hayotlik chog‘idayoq boshlangan. Unga zamondosh bo‘lgan Laffasiyning “Tazkirai shuaro”, Xodimning “Xorazm shoir va navozandalari”, Tabibiyning “Majmuat ush-shuaroyi payravi Feruzshohiy” tazkiralarida shoir hayoti, faoliyati, ijodiga oid ma’lumotlar o‘rin olgan. Bobojon Tarroh o‘z asarida shoirga shunday ta’rif beradi: *“ ...o‘rta bo‘yli, chechaktob yuzli, ko‘zi, burni kattaroq, so‘zlashgan vaqtda burnini o‘ynatib so‘zlar edi. O‘zi saqoltoy odam edi. Qorafarang odam edi…”* (Bobojon Tarroh – Xodim, 2011, 132-bet). Devoniy Muhammad Rahim Feruz II huzuriga kirib arz qilib kirgan fuqarolarning hokimlariga buyruq yozuvchi devon bo‘lgan. Xalqparvar va xalq bilan aloqasi yaxshi bo‘lgan. Bobojon Tarroh – Xodim Devoniyning yetti ilmga ega bo‘lganligini quyidagicha qayd qiladi: *“Birinjidan shoir bo‘lsa, ikkinjidan muhr qozmoqni bilgan olim erdi. Uchinjidan olti yarim maqom soz musiqani bilgan olim erdi, to‘rtinjidan har turli naqqoshlikni bilgan erdi, beshinjidan turli urush asboblarini har turlisin tuzatishni bilgan ustoliqg‘a olim erdi. Oltinjidan kotibliqni bilgan yaxshi olim erdi. Yettinjidan butun tanbur, dutorlarni o‘zi tuzatar erdi. Yana ham ilmi shu darajada o‘tkir erdi. Qaysi bir narsa bo‘lmasun, bir marta ko‘rsa tuzatar erdi”.*

Laffasiy “Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimai hollari” tazkirasida Devoniyning bir qator sifatlarini sanab o‘tib, uning kotiblik ishiga ham yuqori baho beradi: “... *Devoniy shu tariqa qalam raxshinchovukvori tezraftorlik bilan varaqlar, sahifa dashtiga surar erdiki, tamosho qilmoqlikdin ko‘zlar xira bo‘lib, zamon Arastu Aflotunlari musallam qilib, angushlarin hayrat dandonlari bilan tishlar erdilar…*” (Laffasiy, 1992, 68-bet).

Devoniy nafaqat kotiblik bobida, balki shoirlik bobida ham yuksak mavqe’ga ega bo‘lgan. Shoir she’rlarida o‘ynoqi ohang, chuqur ma’nodorlik, xalqparvarlik sezilib turadi. Bobojon Tarroh “Xorazm shoir va navozandalari” asarining 1994-

yilgi nashrida shoirni besh turli ilmga ega ekanini qayd qiladi. Shoir ijodiga yuksak baho berib, uni Ikkinchi Navoiy deya ta'riflaydi: *"...yaxshi shoir edi. Ikkinchi Navoiy deyish mumkin edi"* (Bobojon Tarroh-Xodim, 1994, 69-bet). Albatta, bu davrda har kimga ham bunday ta'rif berilavermagan.

Devoniy o'n sakkiz yoshlaridan shoirlik bilan shug'ullana boshlagan. Komil o'ziga Devoniy taxallusini qo'yadi va bu nom xonga ma'qul keladi. Bobojon Tarroh o'z asarida: "… *Bu taxallusni Komiljonning o'zi qo'yub, Muhammad Rahim Ikkinjiga birinchi aytg'on she'rida yozib ko'rsatganda Muhammad Rahim Ikkinji ham qabul qildi. Agar Muhammad Rahim Ikkinji shoirni o'zi qo'yg'on adabiy taxallusini xohlamasa o'zi qo'yadi. Shoirni qo'yg'on nomini qabul qilmaydi. Shuni uchun ham Komiljonning o'zining qo'yg'on nomi Muhammad Rahim Ikkinjiga qabul bo'lg'oni uchun adabiy taxallusi Devoniy bo'lib qoldi…"* deb aytib o'tadi (Bobojon Tarroh, Xorazm shoir va navozandalari, 2011, 130-bet). Tabibiy "Majmuat ush-shuaroi payravi Feruzshohiy" va "Majmuai muxammasoti ash-shuaroi payravi Feruzshohiy" tazkiralarining tarkibiga Devoniy g'azal va muxammaslari kiritilganligining o'ziyoq Devoniy yosh bo'lishiga qaramay o'z davrida munosib mavqe'ga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Tabibiy o'z tazkirasida Komil Devoniy ijodiga hurmat bilan qaraydi:

Biri she'r xaylini Devoniydurur,
Zamiri durri ma'ni konidurur.
Oning aytg'on nazmidur bu g'azal,
Ki, bordur bu olam aro bebadal.

(S.Matkarimova, Tabibiy – tazkiranavis, diss…, Toshkent, 2007, 109-bet).

Tabibiyning "Majmuat ush-shuaro" nomli tazkirasida 33 nafar shoir hayoti va ijodi haqida ma'lumot bor. Devoniy she'rlari 25-raqamda keltirilgan va taxallusi Devon deb qayd qilingan. Tabibiyning bu tazkirasi №1152-inventar raqam ostida O'zR FAShI asosiy fondida saqlanadi. 1152 raqamli qo'lyozma tavsifini Sohiba Madrimova "Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi" nomli dissertatsiyasida to'liq holda ma'lumotlar bergan. Uning tavsifi quyidagicha: "Majmuat ush-shuarou payravi Feruzshohi" "Basmala" dan boshlanib, keyin debocha keladi. Majmuada

Feruz, Sultoniy, Sodiq, Sa‘diy, G‘oziy, Asad, Bayoniy, Oqil, Mirzo, Shinosiy, G‘ulomiy, Nazir, Purkomil, Kamoliy, Inoyat, Umidiy, Doiy, Ojiz, Haqiriy, Hokiy, Niyoziy, Habibiy, Chokar, Yusuf, Tabibiy, Xayoliy, Rog‘ib, Devoniy, Mutrib Xonaxarob, Avaz, Nadimiy, Xodim, Muznib kabi 33 nafar shoirning 3099 ta g‘azallari ko‘chirilgan. Har bir shoir she'rlaridan oldin uning fazilatlarini yorituvchi masnaviy keltiriladi” (S.Madrimova, Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi, diss…, Toshkent, 2021, 26-bet).

Tabibiyning “Majmuai muxammasoti ash-shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida ham shoir she’rlari ko‘chirilgan. Bu tazkira 1134-inventar raqam ostida O‘zR FAShI asosiy fondida saqlanadi. Ushbu tazkiraga ham birinchi tazkiraga kirgan 33 ta shoirning muxammaslari kiritilgan (F.G‘anixo‘jayev, Tabibiy tuzgan ikki majmua haqida, 1971, 211-219; S.Matkarimova, Tabibiy – tazkiranavis, diss…, 2007, 21-38; S.Madirimova, Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi, diss…, 2021, 40-41). Devoniyni ma’rifatparvar shoir sifatida ham ko‘rishimiz mumkin. Bunga misol qilib uning “Afsus” radifli g‘azalini keltirib o‘tamiz:

Ajab davriki, johillar bo‘libdur hukmron, afsus,
Xaloyiq tortadurlar qamchidin ohu fig‘on, afsus.
Olurlar elni molu jonini zulmu siyosatdin,
Iloji yig‘lamoqdin o‘zga yo‘q har notavon, afsus.

Tabibiy “Majmuai muxammasoti ash-shuaroi payravi Feruzshohiy” tazkirasida bir qancha shoirlarni sifatlab, Devoniyga “Jadidi suxandon” deya ta’rif beradi (1134-inventar raqamli qo‘lyozma). Salomat Matkarimovaning “Tabibiy – tazkiranavis” nomli dissertatsiyasida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Tabibiy Devoniyning payrav yozish qonun-qoidalariga to‘la amal qilishi, oldingi shoir uslubini ham birdek saqlashi haqida aytib o‘tadi:

Chu Devoniy ham shoiredur jadid,
Hamisha shah ehsonidin mustafid.
Demishdur bu ash’ori marg‘ubni,
Tutub yak itoatda uslubni.

(S.Matkarimova, Tabibiy – tazkiranavis, Toshkent, 2007, 102- bet).

Zebo Saidjonova “Sharq yulduzi” 2016-yil, 4 sonida “Jadidchilik va Xorazm adabiy muhiti” nomli maqola e’lon qiladi. Ushbu maqolada Avaz O‘tar, So‘fi, Otaniyoz Niyoziy kabi shoirlar qatori Devoniyni ham jadid, ma‘rifatparvar sifatida e’tirof etadi. Shu bilan birga, Chokar, Devoniy va Mug‘anniy ijodida ma’rifiy-talimiy qarashlar yetakchiligi, umumiy mazmunda millat komilligi, ilm-u irfon g‘oyasi mujassamlashganini qayd etadi.

1968-yilda “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasi V tom 2-kitobida Komil Devoniy, Hakima, Mutriba, Siddiqiy, Chokar, Mutrib, Xonaxarob, Faqiriy kabi shoirlar haqida ma’lumotlar, ijodidan namunalar keltirilgan. Ushbu kitobda Devoniyning 23 ta g‘azali, 1 muxammasi, 1 ta Ogahiy g‘azaliga muxammasi va 1 musaddasi o‘rin olgan. Devoniy asarlaridan namunalarni F.Musamuhammedova nashrga tayyorlagan (O‘zbek adabiyoti, 1968, 191-228).

Gulsara Ismoilova “Feruz davri Xorazm adabiy muhiti” nomli dissertatsiyasining kirish qismida Feruz, Rog‘ib, Niyoziy, Devoniy, So‘fi ijodi zamon voqeliklarini xalq manfaatlari nuqtayi nazaridan xolis aks ettirib berganligini aytib o‘tadi (Gulsara Ismoilova, Feruz davri adabiy muhiti, diss…, 1995, 100).

Komil Devoniy ijodining o‘rganilishida Yusuf Ro‘zimatov ham o‘z izlanishlarini olib borgan. U “Xorazm haqiqati” gazetasining 1965-yil 4-dekabr sonida “Komil Devoniy”, 1967-yil 30-sentabr sonida esa “Baxt kuychisi” nomli maqolalarni nashr qildiradi. Y.Ro‘zimatov bu boradagi ishlarini davom ettirib, 1969-yili “Sharq yulduzi” jurnalida “Komil Devoniy” maqolasini chop qildiradi. Va nihoyat, 1971-yili u shoir she’rlaridan tarkib topgan “Komil Devoniy” nomli kitobchasini nashrdan chiqaradi. Yusuf Ro‘zimatovning ushbu kitobida shoirning ijtimoiy hayotdagi faoliyati, ijodi, shoirlar bilan aloqasi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Bunda 50 ta g’azal, 1 muxammas, 3 ta Navoiy, 2 ta Munis va 2 ta Ogahiy g‘azallariga muxammaslar o‘rin olgan (Komil Devoniy, She’rlar, Toshkent, 1971, 78).

Mustaqillikdan keyin ham shoir ijodining o‘rganilishi oz bo‘lsa-da amalga oshirildi. Shoir, dramaturg Komil Avaz 2006-yilda “Komil Devoniy” nomli

kitobini nashrdan chiqardi. Ushbu kitobda shoir hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar birmuncha to'liq berilgan va o'z kitobida Tabibiy majmuasiga kirgan 93 g'azalni ilova qilib bergan. Bundan tashqari 2006-yili Urganch davlat universiteti talabasi Sayyora Matkurbanova "Tarixiy davr va ijod tadriji" mavzusida Komil Devoniy ijodi bo'yicha magistrlik disserttatsiyasini himoya qilgan. 2022-yilda esa Anvar Matniyazov "Komil Devoniy: Tanlangan asarlar" kitobini nashrdan chiqardi. Bu nashrda ham shoirning Tabibiy majmualariga kirgan 93 ta she'rlari joy olgan (Anvar Matniyazov, Komil Devoniy, Tanlangan asarlar, 2022, 185).

Har bir ijodkorning ijodini o'rganishda dastlab, matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganilsa, maqsadga muvofiqdir. Sababi shoirlar ijodining badiiyati yoki uning asarlari til xususiyatlarini tatbiq qilishda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bu esa har bir ijodkorning ijodini matnshunoslik ilmi asosida amalga oshirilmaganidan yuzaga keladi.

Devoniy ijodi bo'yicha tadqiqotlar mustaqillikdan oldin va undan keyin ham oz bo'lsa-da amalga oshirilgan. Ammo hali Komil Devoniy ijodi matnshunoslik va manbashunoslik aspektida to'liq o'rganilmagan va devonlaridagi, bayozlardagi g'azallari to'liq nashr etilmagan. Bu esa shoir ijodi o'rganilishi bo'yicha hali ko'p ishlar amalga oshirilishi, shoirning devonlarini nashrga tayyorlab, uni keng jamoatchilikka tatbiq qilish zaruratini keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Laffasiy, Tazkirai shuaro. (1992). (Nashrga tayyorlovchi: P.Bobojonov). Urganch: Xorazm.

2.Bobojon Tarroh – Xodim. (1994). Xorazm shoir va navozandalari (Nashrga tayyorlovchi: Davlatyor Rahim) Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.

3.Ahmadjon Tabibiy. Majmuai shuaroi payravi Feruzshohiy. O'zRFAShI. Asosiy fond, inv. 1152.

4.Yusuf Ro'zimatov. (1971). Komil Devoniy. She'rlar. O'zdavnashr, Toshkent.

5.Salomat Matkarimova (2007). Tabibiy - tazkiranavis. (136). Filol. fan. nomz. diss… Toshkent.

6.Ismoilova G. (1995). Feruz davri Xorazm adabiy muhiti. (141). Filol. fan. nomz. diss… Toshkent.

7.Komil Avaz. (2006). Komil Devoniy. A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, Toshkent.
8.Madirimova S. (2021). Mutrib Xonaxarob va uning adabiy merosi (187). f.f.b.f.d (PhD) diss… Toshkent.
9. Anvar Matniyazov. (2022). Komil Devoniy: Tanlangan asarlar.
10.O‘zbek adabiyoti. (1968). V tom 2-kitob. G‘afur G‘ulom nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti, Toshkent.

ISKANDAR ZULQARNAYN VA ALEKSANDR MAKEDONSKIY BIR SHAXSMI?

Miradxamova Munisa Shamsiddin qizi
ToshDO‘TAU Ona tili va adbiyot ta’lim fakulteti 2-kurs
miradkhamovamunisa@gmail.com

Annotatsiya. *Ma’lumki, hozirgi davrda ham Iskandar Zulqarnayn va Aleksandr Makedonskiy aslida kim bo‘lishganligi haqidagi muammo o‘z yechimini topmagan. Internet saytlarida ularni bir shaxs deb chiqarib berilayotgan ma’lumotlar aslida xato yoki to‘g‘ri ekanligi bizni o‘ylashga va unga yechim topishga unamoqda. Ushbu maqolada Qur’onda qissasi keltirilgan Iskandar Zulqarnayn va Makedoniya podshosi Aleksandr Makedonskiy aslida kim bo‘lganligini ilmiy dalillar orqali isbotlab bunga yechim topishga harakat qilindi.*

Kalit so‘zlar: *Zulqarnayn, Maqduniy, Ya’juj, Ma’juj, Iskandariya, Filip II.*

Abstract. *It is known that even today the problem of who Iskandar Zulqarnayn and Alexander the Macedonian really was has not been resolved. The fact that the information that is presented as a person on the Internet sites is actually wrong or correct makes us think and find a solution to it. In this article, an attempt was made to find a solution to this by proving who Iskandar Zulqarnayn, whose story is mentioned in the Koran and the Macedonian king Aexander the Macedonian, where in fact through scientific evidence.*

Keywords: *Zulqarnayn, Maqduniy, Ya’juj, Ma’juj, Iskandariya, Philip II.*

Qadimgi davrlardan to bugungi kunga kungacha o‘z yechimini topmagan muammolardan biri bu Qur’onda zikr etilgan Iskandar Zulqarnayn va Makedoniya podshosi Aleksandr Makedonskiy aslida kim ekanidir.

Bilamizki, “Qur’oni Karim”ning “Kahf‘‘ surasi 83-98-oyatlarida Iskandar Zulqarnayn qissasi beriladi: “(Ey, Muhammad,) yana Sizdan Zulqarnayn haqida so‘raydilar. Ayting: “Men sizga u haqidagi xabarni hozir o‘qib berurman”. Darhaqiqat, Biz unga (Zulqarnaynga) Yer yuzida martaba berdik va (istagan) barcha narsasiga yo‘l (imkoniyat) ato etdik. Bas, u (avval G‘arbga qarab) yo‘l oldi. To (ketayotib) kun botadigan joyga yetgach, u (quyoshning) bir loyqa buloq (orti)ga botayotganini ko‘rdi va (buloq)ning oldida bir qavmni uchratdi. Biz: “Ey, Zulqarnayn, yo (ularni) azobga duchor qilursan yoki ularga yaxshi muomalada bo‘lursan”, - dedik. U aytdi: “Zulm qilgan kimsani, albatta, azoblagaymiz. So‘ngra Parvardigoriga qaytarilgach, U zot uni yanada xunuk azob bilan azoblar. Endi imon keltirib ezgu ish qilgan kishiga kelsak, uning uchun go‘zal mukofot (jannat) bo‘lur. Biz ham unga ishimizdan osonlarini buyururmiz”. So‘ngra, u (Sharqqa qarab) yo‘l oldi. To (ketayotib) kun chiqishga yetib borgach, uning (quyoshning) bir qavm uzra chiqayotganini ko‘rdi. Biz u qavm uchun quyoshdan (saqlanadigan) biror parda qilmagan edik. (Uning ishi) shunaqa. Albatta, Biz uning huzuridagi ilmlarni ihota qilib olganmiz. So‘ngra, u yana yo‘l oldi. To (ketayotib) ikki tog‘ o‘rtasiga yetib kelgach, u (tog‘lar ortida) gapni sira anglamaydigan qavmni uchratdi. Ular: “Ey, Zulqarnayn, albatta, (shu tog‘lar ortidagi) Ya’juj va Ma’juj (qabilalari) Yer yuzida buzg‘unchilik qiluvchilardir. Bizlar senga bir (miqdor) haq to‘lasak, biz bilan ularning o‘rtasiga bir to‘g‘on qurib berurmisan?” - dedilar. U (Zulqarnayn) aytdi: “Rabbimning menga ato etgani (ne'matlari) sizlar beradigan (mol-dunyodan) yaxshiroqdir. Bas, sizlar menga kuch-quvvat bilan yordam beringlar, men sizlar bilan ularning o‘rtasiga bir devor bino qilay. Sizlar menga temir parchalarini keltiringlar. To (parchalar) ikkala tog‘ yonbag‘irlari bilan barobar bo‘lgach, dam uringlar” - dedi. Bas, qachon u (temir-tersaklarni qizdirib) o‘t qilgach (eritgach), dedi: “Menga eritilgan mis (ham) keltiringlar, u (temir parchalari)ning ustidan quyurman. Endi ular (Ya’juj va Ma’juj) u (to‘siq)ning ustiga chiqishga ham, uni teshib o‘tishga ham qodir emaslar. Bu Rabbim (tomoni)dan bo‘lmish bir marhamatdir. Endi, qachonki, Rabbimning (Ya’juj va Ma’juj chiqadi, deb) va'da qilgan vaqt kelganida (Qiyomat oldidan), O‘zi u

(to‘siq)ni tep-tekis qilib qo‘yar. Rabbimning va’dasi haqdir”, - dedi u (Shayx Abdulaziz Mansur, 2018, 302-304-betlar). Aleksandr Makedonskiy (ba’zi bir manbalarda Maqduniy bo‘lib keladi), tarixiy shaxs. U miloddan avvalgi 356-yilda tug‘ilgan. Otasining vafotidan so‘ng, 336-yil 20 yoshida Makedoniyada taxtga o‘tiradi va Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Misr, Afg‘onistonning janubi, So‘g‘diyona, Marg‘iyona, Baqtriya, Hindiston kabi hududlarni egallaydi.

Iskandar Zulqarnayn va Aleksandr Makedonskiy orasida bir qancha farqlar bor. Masalan, Iskandar Zulqarnayn Allohning yagonaligiga iymon keltirgan, solih inson bo‘lgan. Aleksandr Makedonskiy haqida esa bu narsalar tarixiy manbalarda bayon qilinmagan. Bu haqda “Tafsiri Irfon”da shunday deyiladi: “Makka mushriklarining Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan so‘ragan nasalari ichida g‘or egalari va ruhdan tashqari Zulqarnayn ham bor edi. Zulqarnaynning shaxsi, uning qayerda va qachon yashagani, borgan joylari, qilgan ishlari haqida juda ko‘p gaplar, faraz-taxminlar bor. Ulardan ayrimlarini tafsir kitoblarimizda ham keltirilgan. Ammo bularni hech kim aynan Qur’onda zikr etilgan Zulqarnayn haqida, deb uzil-kesil aytolmaydi. Masalan, ba’zilar “Qissadagi Zulqarnayn Makedoniyali Iskandar” deyishgan. Bu gap xatodir, chunki makedoniyali Iskandar Allohning yagonaligiga ishongan mo‘min bo‘lgan emas, Qur’ondagi Zulqarnayn esa mo‘min odamdir” (Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy, 2019, 3-jild, 158-159-betlar). Shayx Abdulaziz Mansur “Qur’oni Karimning tarjima va ma’nolari” kitobida esa: “Qur’onda zikr etilgan Zulqarnaynning ismi Iskandardir. Zulqarnaynning payg‘ambar yoki valiy yoxud podshoh ekanida ixtilof bor. Ali roziyallohu anhu ; “U solih banda bo‘lgan va Alloh unga yer podshohligini, ilm va hikmatni ato etgan. Alloh yo‘lida boshiga urilgan zarbadan ikki bor o‘lib tirilgani uchun unga “zulqarnayn”, ya’ni “ikki shoxli” laqabi berilgan”.

Aleksandr Makedonskiy Iso payg‘ambar tug‘ilishiga yaqin davrlarda yashagan. Iskandar Zulqarnayn esa Ibrohim alayhissalom davrida yashagan. “Tafsiri Irfon”da: “Ibn Hajar Asqoloniy “Fathul Boriy”da shunday yozadi: “Ulkan tobe’in faqihlardan Ubayd ibn Umar yo‘lidan riviyat qilinishicha, Zulqarnayn piyoda haj qilgan va uning xabarini eshitgan Ibrohim alayhissalom Zulqarnaynga

peshvoz chiqqanlar". Abdulloh ibn Abbos (roziyallohu anhumo)dan rivoyat qilinishicha, "Zulqarnayn Masjidul-Haromga kirgan, Ibrohim alayhissalom uning qo'lini olib ko'rishgan". Ibn Hishom yozadi: "Ibrohim alayhissalom bir masalada Zulqarnayndan hukm so'radi, Zulqarnayn unga hukm chiqarib berdi". Tarixdan ma'lumki Aleksandr Makedonskiy Makedoniyalik. U miloddan avvalgi 323-yil 33 yoshida o'z davlatining poytaxti Bobilda vafot etgan. Rivoyat qilinishicha Iskandar Zulqarnayn misrlik bo'lgan. Ibn Ishoq shunday yozadi: "Menga o'tganlarning ilmidan olib, ajamlardan rivoyat qiladigan odamlardan birining aytishicha, Zulqarnayn misrlik bo'lib, ismi Marzubon ibn Marzuba Yunoniydur. U Yunon ibn Yofas ibn Nuhning avlodidan bo'lgan" (Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy, 2019, 3-jild, 158-159-betlar).

Iskandar Zulqarnayn "Iskandariya" shahrini barpo qilgan. Shuning uchun unga nisbat berilib shahar "Iskandariya'' deb nomlangan. Alloh Zulqarnaynga keng mulkni bergan va bunga Qur'onda ishora qilgan Zulqarnayn mag'rib va mashriqning chekka joylarigacha brogan, Ya'juj va Ma'juj qavmiga yo'liqib ularni to'g'on bilan to'sib qo'ygan. Aleksandr Makedonskiyni mazkur narsalarning birortasiga muyassar bo'lgani tarixda ma'lum emas. Ba'zi mutaxasislarning aytishicha Iskandar Zulqarnaynning Aleksandr Makedonskiy bilan chalkashtirilishiga asosiy sabab arablarning Aleksandrni arabchalashtirib Iskandar deb atashganlari bo'lgan. Yuqorida keltirib o'tilgan dalillarga va farqlarga tayangan holda Iskandar Zulqarnayn va Aleksandr Makedonskiyni bir-biriga aloqasi bo'lmagan alohida shaxs bo'lgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Abdulaziz Mansur. (2018). "Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri". Toshkent. "Toshkent Islom Universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. (2018). "Zikr ahlidan so'rang". 2-jild. Toshkent. "Hilol-nashr" nashriyoti.
3. Shayx Usmonxon Temurxon Samarqandiy. (2019). "Tafsiri Irfon". 3-jild. Toshkent. "Sharq" nashriyoti.
4. Sagdullayev. A.S; Kostetskiy V.A (2022). Qadimgi dunyo tarixi, o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik.

ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIDA TURKIGO‘Y SHOIRLAR HAQIDA

Narzullayeva Sabina Qobil qizi
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs
sabinaqobilovna0809@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola “Majolis un-nafois”da keltirilgan turkigo‘y shoirlarning davr adabiy muhitidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Jumladan, ularning Navoiy qarashlarida qanday o‘rin tutganligi hayot yo‘li hamda she’rlari misolida ham yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tazkira, she’riyat, qofiya, muammo, nasr.*

Annotation. *This article aims to shed light on the importance of the Turkic poets listed in “Majolis un-nafois” in the literary environment of the time. In particular, their place in Navoi's views is explained by the example of his life path and poems.*

Keywords*: Tazkirah, poetry, rhyme, muamma, prose.*

So‘z mulkining sultoni, barcha zamonlar va barcha makonlar mutafakkiri bo‘lmish Alisher Navoiy o‘zbek xalqning ming yillar bilan bo‘ylashadigan bebaho qadriyatlari va yozma yodgorliklarini yuksak cho‘qqiga chiqargan buyuk tafakkur egasidir. Alisher Navoiy qalamiga mansub har bir ijod namunasi o‘z davri uchun haqiqiy yangilik hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) tazkirasi turkiy tazkiranavislikning ilk namunalaridan biridir. Navoiy tazkiraning muqaddimasida asarning tarkibiy qismi va nomlanishi haqida shunday yozadi: “*...chun bu maqsudg‘a yetildi, oni sekkiz qism etildi, har qismi bir majlisg‘a mavsum bo‘ldi va majmuig‘a “Majolis un-nafois” ot qo‘yildi”* (Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova, 2019, 17-bet) Asar bo‘yicha S.G‘anieva, R. Vohidov, R. Qodirova, I. Nosirov, Z. Isaqovalarning tadqiqotlari mavjud. Ma'lumki, Alisher Navoiy ijodidan xabardor bo‘lgan 459 ta shoir va olimlarni “ Majolis un-nafois” asarida keltirish orqali turkiy adabiyotda bo‘lgan ana shu bo‘shliqni to‘ldirdi. Taniqli navoiyshunos, olima Suyima G‘aniyeva ushbu asar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borib, 1956-

yili “Majolis un-nafois”ning III va IV majlislari ilmiy-tanqidiy matni va adabiy tahlili” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. Navoiyning ushbu nodir asari bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirgan olima S.G‘aniyeva 1961-yilda “Majolis un-nafois” asarining ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirishga muvaffaq bo‘ldi. Navoiyshunosning ta’kidlashicha, asar dastlab 1491-yilda tuzilgan bo‘lib, keyinchalik 1497-1498-yillarda unga yangilik va qo‘shimchalar kiritilgan holda ikkinchi, qayta ishlangan nusxasi yaratilgan. Alisher Navoiyning adabiy merosi bo‘yicha O.Sharofiddinov, Y.G‘ulomov, Oybek, V.Zohidov kabi yana ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borishiga qaramasdan, uning barcha asarlari, ayniqsa, ushbu “Nafis majlislar” tazkirasi yanada chuqurroq tadqiq etib, o‘rganilishga va hozirgi davr uchun muqobil tabdilining yaratilishiga muhtoj. Asar 8 majlis – qismdan tashkil topgan va unda joy olgan ijodkor va olimlar xronologik tartibda joylashtirilgan. Tazkirada keltirilgan shoirlarning bilim darajasi, axloqi, dunyoqarashi, mehnatga munosabati kabi xususiyati alohida ko‘rsatilgan.

Hazrat Alisher Navoiy tazkirasida turkiy tilda qalam tebratgan olim, shoirlarni nisbatan kam uchratamiz. Bu esa o‘sha davr badiiy-ijodiy muhitida forsiy til ustunligini ko‘rsatadi. Maqolada ba’zi bir turkiy shoir va ijodkorlarning hayot yo‘li Navoiy qarashlari orqali bayon etiladi. Bunda shoirlarni tasniflashda Navoiygacha yashab o‘tgan va Navoiy davrida ijod qilgan olim va shoirlar haqida ma’lumot berib boriladi. Alisher Navoiy tazkirasida o‘zidan oldingi yashab o‘tgan she’riyat ahliniqalamga olar ekan, o‘z fikr tarozisiga qarab shoirlikka, ijodkorlikka munosib bo‘lgan shaxslarni kiritib o‘tadi. Hazrat Amiriy, Hoji Abulhasan, Qutbiy, Naimiy, Harimiy, Qalandar, Lutfiy, Yaqiniy, Atoiy, Muqimiy, Kamoliy, Latifiy, Sakkokiy, Majnuniy kabi ijod ahlining oddiy xislatlaridan tortib, qusur va kamchiliklarigacha,hattoki o‘sha davr xalq orasidagi obro‘-e’tiborigacha to‘xtalib o‘tgan. *“*Mavlono Amiriy — turk erdi va turkcha she’ri yaxshi voqe’ bo‘lubdur, ammo shuhrat tutmabdur. Va bu bayt aning “Dahnoma” anindindur*:*

Ne yemakdin, ne uyqudin solib so‘z,

Yemakdin to‘yub uyqudin yumub ko‘z”. (G.Karimova, 2013, 11-bet)

Navoiy Mavlono Amiriy haqida yozar ekan, uning mashhur “Dahnoma” asari muallifi ekanligini aytib o‘tadi. Bilamizki, o‘tmishda bir necha ijodkorlar “Dahnoma” nomi bilan asarlar yozishgan. Mavlono Amiriy, Faqih Kirmoniy kabilar shular jumlasidandir. “Mavlono Hoji Abulhasan — turkdir, ammo tolibi ilmliqqa mashg‘ul bo‘lub, biror nima modda hosil qilibdur, chun tab’i xub erdi, she’r ayturg‘a mashg‘ul bo‘ldi. Bu turkcha matla’ aningdurkim*:*

Kelibtur ul gulu bir hafta turub boradur,

Bu o‘t ko‘ngulga tushub jonni kuydurub boradur.

Muammo fanida dag‘i yaxshi erdi”. (G.Karimova, 2013, 14-bet)

Navoiy Hoji Abulhasanning muammo fanida yaxshi ekanligini ta’kidlash bilan bir qatorda Mavlono Fazlullo, Siymiy, Uloyi Shoshiy, Muammoiy, Mashhadiy, Mir Arg‘un, Omiliy kabi forsiygo‘y shoirlarning muammo janridagi ijod namunalaridan ham misollar keltirib o‘tadi. Bundan tashqari, biz Mavlono Lutfiy hayoti va ijodiga oid asosiy ma’lumotlarni Alisher Navoiyning ushbu “Majolis un-nafois” (“Nafis majlislar”) asari orqali bilib olamiz. **“**Mavlono Lutfiy (121) (alayhirrahma) — o‘z zamonining malik ul-kalomi erdi, forsiy va turkiyda naziri yo‘q erdi, ammo turkiyda, shuhrati ko‘prak erdi va turkcha devoni ham mashhurdur va mutaazzir ul javob matla’lari bor, ul jumladin biri budurkim*:*

Nozukluk ichra belicha yo‘q tori gisuyi,

O‘z haddini bilib, belidin o‘ltirur qush’ Yana biri bukim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin,

Soldi kamand bo‘ynuma ikki qulochdin.

Va Mavlononing “Zafarnoma” tarjimasida o‘n ming baytdin ortuqroq masnaviysi bor, bayozg‘a yozmag‘on uchun, shuxrat tutmadi va lekin forsiyda qasidago‘y ustodlardin ko‘pining mushkul she’rlarig‘a javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To‘qson to‘qquz yashadi va oxir umrida radifi “oftob” she’ri ayttikim, zamon shuarosi barcha tatabbu’ qildilar…” (A.Navoiy, 1997, 338-bet)

Xulosa qilib aytganda, she’riyat mulkining sultoni, buyuk adabiyot namoyandasi hamda tanqidchisi bobomiz hazrat Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asari o‘zbek tazkirachiligining asosi hisoblanadi. Unda keltirilgan

ma’lumotlar har bir o‘zbek kitobxoni, Navoiyni sevib mutolaa qiluvchilar uchun juda ham foydali manba bo‘lib xizmat qiladi. Tazkiradagi turkigo‘y shoirlarning hayoti va ijodini o‘rganish davomida ularning she’r yaratish iqtidori haqida, davr adabiy muhiti haqida tasavvurlarimizni kengaytiradi. Shuningdek, tazkira Navoiyning hayoti va faoliyatini o‘rganishda ham muhim avtobiografik manba hisoblanadi. Asardan Navoiyning ilk yodlagan she’ri, ma’naviy ustozlari, turkigo‘y salaflari haqida ham ma'lumot olish mumkin. Ushbu kitobda nomlari tilga olingan aksariyat shoirlarning asarlari bizgacha yetib kelmagan. Bu jihatdan ham tazkira g‘oyat nodir manba bo‘lib, adabiyotshunoslik uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova (2019) *“Navoiyshunoslik”*. Toshkent: Tamaddun.
2. G.Karimova (2013)*““Majolis un-nafois” dagi majlislarning badiiy talqini”* Toshkent: Sharq NMQ.
3. A.Navoiy (1997)*“Majolis un-nafois”*. 20 jildlik. Toshkent: Fan.
4. Sh.Saydullayeva (2018) *“Majolis un-nafois” asarida ustoz-shogird an’anasi talqini”* Toshkent: Sharq NMQ
5. A.Navoiy (1997) “*Mukammal asarlar to‘plami”* Toshkent: Fan.

NURMUHAMMAD ANDALIBNING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISHI

Po‘latova Mushtariy Shuxrat qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
mushtariypolatova02@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada XVIII asrda yashab ijod etgan Nurmuhammad Andalib ijodining O‘zbekistonda o‘rganilishiga oid tadqiqotlar haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga shoir adabiy merosi dastlab manbashunoslik va matnshunoslik aspektida amalga oshirilishi lozimligi yuzasidan fikr - mulohazalar qayd etilgan.*

Kalit so‘z: *Doston, qo‘lyozma, Andalib, g‘azal, muxammas, shoir.*

Abstract. *The article provides information on the study of Nurmuhammed Andalib’s work in Uzbekistan, who lived and worked in the 18th century. At the*

same time, the poet's literary heritage should first be realized in the aspect of source studies and textual studies.

***Keyword**: Epic, manuscript, Andalib, ghazal, muhammas, poet.*

XVIII asrda yashab ijod etgan, o‘zining go‘zal, rang-barang janrlarga boy dostonlari bilan shuhrat qozongan o‘zbek va turkman shoiri – Andalib o‘zidan salmoqli adabiy meros qoldirgan ijodkordir. Shu bilan birga tarjimon hamdir (Ўзбек адабиёти тарихи, 1978, 340). Shoirning asl ismi Nurmuhammad, adabiy taxallusi “Andalib”dir. عندليب (Andalib) so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Bulbul” degan ma’noni anglatadi (Навоий асарлари луғати, 1972, 50). Shoir tug‘ilgan yiliga oid ma’lumotlarni V.Abdullayev hamda I.Adizova, N.Jumaxo‘ja, V.Zohidovlar ikki xil ko‘rsatishadi. Masalan, V.Abdullayev, I.Adizova hamda N.Jumaxo‘ja ustozlar Andalibni 1710-1711-yillar oralig’ida tug‘ilgan deyishsa, V.Zohidov 1711-1712-yillarda tavallud topgan bo‘lsa kerak, degan ma’lumotni qayd qiladi. Vafot etgan yilini esa V.Zohidov, V.Abdullayev, I.Adizova hamda N.Jumaxo‘ja ustozlar bir xil, ya’ni 1770-yil deb ko‘rsatishadi.

Mumtoz adabiyotda “Andalib” taxallusida ijod qilgan shoirlar ko‘p bo‘lgan. Bu haqida V.Abdullayev “O‘zbek adabiyoti tarixi” uchinchi tomida ma’lumot berib o‘tadi (Ўзбек адабиёти тарихи, 1978, 336). Shu bilan birga “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho”, “Zaynularab” kabi dostonlar muallifi Nurmuhammad Andalib haqida ham qimmatli ma’lumotlarni zikr qilgan. “O‘zbek adabiyoti tarixi” besh tomlikning uchinchi tomida Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonidan parchalar dastlab professor Abdurauf Fitrat tomonidan tuzilgan xrestomatiyaga kiritilgan deb ma’lumot beriladi (Ўзбек адабиёти тарихи, 1978, 33-34). N. Jumaxo‘ja va I.Adizova ustozlar ham XX asrning I yarmida Fitrat tuzgan xrestomatiyaga Andalib asarlaridan namunalar kiritilgan deya bu fikrni tasdiqlashadi (O‘zbek adabiyoti tarixi, 2019, 363). Ammo biz Fitratning ushbu asarini ko‘zdan kechirganimizda xrestomatiya “Chistoni(y) Elik beginning hikoyasi”dan to Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarigacha bo‘lgan adabiyot tarixini o‘z ichiga olgan. Biroq N.Jumaxo‘ja va I.Adizovalarning “O‘zbek adabiyoti tarixi” kitobining “XVI – XIX asr I yarmidagi tarixiy sharoit,

madaniy hayot va adabiy-ilmiy muhit” qismida Fitratning “Adabiyot qoidalari”da Nurmuhammad Andalibning “Yusuf va Zulayho” asari haqida ma’lumot berilgani to‘g‘risida fikr yuritiladi: *“...el adabiyotidan yozma adabiyotga o‘tgan doston nomlarini sanab o‘tadi: “Bundan burun ham yozishga o‘tkarilgan el dostonlari bizda ko‘bdir. “Sanavbar”, “Tohir Zuhra”, “Bahrom Gulandom”,* ***xivalik Nurmuhammad Andalibning “Yusuf va Zulayho”*** *hikoyasi shu yo‘sunda yozilg‘an, hatto bosilg‘an dostonlarimizdandir”*(O‘zbek adabiyoti tarixi, 2019, 21). Fitrat yuqoridagi dostonlarni sanar ekan: *“Bularning hammasi sariq qog ‘ozda, yomon yanglish, o ‘qulmas yoziy (yozuv) birla toshbosmada bosilg‘an, tekshirishka yaramaydir…”* (Абдурауф Фитрат, Танланган асарлар, 2019, 75) deb izoh beradi. V.Zohidov 1966-yil “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasida Andalib hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlarni “Yusuf va Zulayho” dostonida keltirilgan quyidagi bayt asosida bayon qiladi:

Ismim ***erur*** *Nurmuhammad G‘arib,*
So‘zda taxallusim edi Andalib,
*Shahrimiz Urganch viloyat**i** edi,*
*Xonimiz shoh G‘ozi **jamoati** edi,*
*Asli makon**imiz** **Qora**mozidir.*

Berilishicha, shoh G‘ozixon ikki yil hukmronlik qilgan va 1767-yilda o‘ldirilgan. Andalib “Yusuf va Zulayho” dostonini 55 yoshlarida yozgani doston muqaddimasidagi quyidagi bayt asosida oydinlashtirilgan:

*Barcha haloyiq ichinda **mening** ishim,*
*Yetubdur **ellik beshga** mening _ yoshim.*

Shunga asoslanib “Andalib 1711-1712-yillarda tug‘ilgan bo‘lsa kerak” degan fikrlar qayd qilinadi. Shoir vafoti bilan bog‘liq ma’lumot aniq keltirilmagan, biroq Andalib Muhammad Amin Inoq (1770-1791) hukmronligigacha, ya’ni 1770-yilgacha yashagan deb taxmin qilinadi. Bu fikr mulohazali ekanligini qayd qilish lozim. Ammo yana bir muhim masala shunda ko‘rinadiki, yuqorida keltirilgan “Yusuf va Zulayho” dostonidagi parchada *so‘zlar xato o‘qilgan* hamda masnaviyning “Asli makon**imiz** **Qoramozidir**” misrasiga juft bo‘lgan misra

berilmagan. Andalibning hayoti va vafotiga doir ikkinchi ma'lumot 1978-yil V.Abdullayev muharrirligi asosida tuzilgan "O'zbek adabiyoti tarixi" uchinchi jildida berilgan. Bunda ham shoirning "Yusuf va Zulayho" dostoni muqaddimasidan quyidagi parcha keltirilgan:

So'zda taxallusim edi Andalib,

Shahrimiz Urganch viloyat_ edi,

Xonimiz shoh G'ozi ***himoyat*** *edi…*

Bo 'yla Qaromozi erur joyimiz

Zikri xudo ishq ila dilxohimiz…

*Asli makon****imki*** ***Qaromozidur.***

Odami ishratda qishu yozidur.

Ushbu masnaviydagi ma'lumotlar asosida "*Andalib ko'hna Urganchning Qoramozi qishlog'ida dunyoga kelgan. Shoir o'z ismini Nurmuhammad* ***q****'arib deb*" (Ўзбек адабиёти тарихи, 1978, 336) ko'rsatishiga izoh beriladi. Muqaddimadagi misralarni tahlilga tortib "Shoir o'zining qachon tug'ilganini ma'lum qilgan emas" degan fikrga kelinadi hamda "Yusuf va Zulayho" dostoni muqaddimasidagi "Xonimiz shoh G'ozi **himoyat** edi…" misrasidan 1765-1767-yillarda Xivada **Shohg'ozi hukmronlik** qilgani Munis va Ogahiyning "Firdavsul-iqbol" asarida keltirilgan ma'lumotlar asosida aniqlanadi. Ushbu nashrda doston muqaddimasining oxirgi bayti quyidagicha keltiriladi:

"Barcha xaloyiq ichida ***bad*** *ishim,*

Yetdi ellik beshga mening ***bu*** *yoshim"*- misralari orqali Andalibning yoshi "Yusuf va Zulayho" dostonini yozayotganida "Ellik besh"da bo'lganiga ishora qilinib, 1710-1711-yillarda tug'ilgani taxmin qilinadi. 1960-yil "O'zbek adabiyoti xrestomatiyasi" to'rtinchi tom ikkinchi kitobida Andalibning "Layli va Majnun" dostonidan parcha beriladi (Ўзбек адабиёти, 1960, 187-201). Voqealar Qaysning o'z onasiga Layliga oshiq bo'lib qolganini bayon qilish tasviridan boshlanadi. Doston yakunida Layli va Majnunning vafotidan keyin Munkar Nakir otlig' farishtalar Majnunni qabrda savol-javob qilgani bayoni keltiriladi: *"Alqissa Majnun Munkar Nakirga bu javobni dedi, ersa xudoyi taolo… qudrati bila bir*

hurni Laylini suratinda qilib, zeb-ziynat berib Majnunning oldig‘a azbaroyi imtihon uchun yibordi…”. Shundan keyin Majnunning 5 bandli murabba’si beriladi. Ushbu murabba’ni uchinchi bandi voqeani ochib berishga xizmat qilgan. Ushbu band quyidagicha:

“Na savdog‘a soldi mani bu falak,
Silar mani aylamangizlar halak,
Mani Laylim emas erur ul – malak,
Layli bo‘lsa, dog‘i ishqi bo‘lmasmu?”

Ko‘ringanidek, “Layli va Majnun” dostoni nashrda to‘liq emas. Bu dostonni muallif davridagi yoki keyingi davrlarda ko‘chirilgan qo‘lyozma manbalar bilan qiyosiy o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. 1966-yil “O‘zbek adabiyoti xrestomatiyasi” beshinchi tom birinchi kitobida esa Andalib hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar uchraydi (Ўзбек адабиёти, 1966, 103). Dastlab ushbu xrestomatiyaning birinchi kitobiga kiritilgan ma’lumotlarga to‘xtalsak. Bunda shoirning “Yusuf va Zulayho” dostoni 384, 687 inventar raqamli qo‘lyozmalari hamda 467, 551, 552, 553, 554, 4053, 4054 inventar raqamli litografiya nusxalari O‘zR FAShI da saqlanayotganligiga oid ma’lumotlar berilgan.

O‘zR FAShI da saqlanayotgan “*7054, 6317, 6973, 1107… inventar raqamli qo‘lyozma bayozlar*”da Andalibning g‘azal, muxammas, musaddas, ruboiy, musamman va muashshah janrga oid she’rlari borligi, Navoiy, Fuzuliy, Vafoiy, Ubaydiy, Jomiy va Habibiylarning g‘azallariga muxammas bog‘laganligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Ammo “Andalibning mukammal devoni hozircha topilgani yo‘q” (Ўзбек адабиёти, 1966, 104) deya yozilgan. Ushbu xrestomatiyada Andalibning “*Ey rashki pari mehri jamoling ne balo xo‘b…*” misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azali ko‘chirilgan. Bundan tashqari **Navoiyning** **“Xazoyin ul-maoniy”** devoniga kiritilgan 9 baytli “*Hirotdin agar o‘t tushsa Sabzavorg‘acha*”(Алишер Навоий, Тўла асарлар тўплами, 2011, 577), “**Badoyi’ ul-bidoya**”ga kiritilgan 7 baytli “*Bir kun mani ul qotili majnunshior o‘lturgusi…*” (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1983, 388), “**Badoyi’ ul-bidoya**”dagi 7 baytli “*Istasang hajr o‘tig‘a yoqilmag‘aysan, ey*

ko‘ngul ....” (Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1983, 240), “**Navodir un-nihoya**”ga kiritilgan 7 baytli “*Kecha kelgumdur debon ul sarvu gulro‘ kelmadi…*”(Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами, 1983, 561), “**Badoyi’ ul-bidoya**”dagi 7 baytli “*Hayhotkim, birav g‘amidin zormen yana…*”(Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 1983, 370), **Fuzuliyning** devonidagi 5 baytli “*Har kitobakim labi la’ling hadisin yozalar…*”(Муҳаммад Фузулий, Асарлар, 1968, 123), 7 baytli “*Bani jondin o‘sondurdi, jafodin yor o‘sonmazmi?*” *…*”(Муҳаммад Фузулий, Асарлар, 1968, 286), **Ubaydiyning** “*Shukrkim, mahzun ko‘gulning sen kibi dildori bor?*” misralari bilan boshlanuvchi ga‘zallariga **Andalibning** “*O‘ngumni tutsa balo Hinddin Hisorg‘acha…*” (7 band), “*Faryodkim, man zorni ul gul’uzor o‘lturgusi…*” (5 band), “*Ul paridin o‘zgaga telmurmag‘aysan, ey ko‘ngul…*” (7 band), “*Xam keturdi qomatim payvasta abro‘ kelmadi…*” (6 band), “*Har subhu shom telbarab og‘lormen yana…*” (5 band), “*Toki ko‘rdum chashmi fattoningdadur g‘ammozalar…*” (5 band), “*Fig‘onkim, ul labi maygun ichib qonimni qonmazmi?*” (7 band), “*Qaysi gulshanning qadingdek sarvu xush raftori bor?*” (5 band) kabi boshlanuvchi taxmislari nashr qilingan. Bu nashrga Andalibning 5 bandli “*Mubtaloman, ohkim, bir rashki rizvon ollida…*” misrasi bilan boshlanuvchi musammani berilgan. Bu musamman **Navoiyning** “**Navodir un-nihoya**”siga kiritilgan “*Budu nobudum agar teng bo‘ldi jonon ollida…*”(Алишер Навоий, Мукаммал асарлар тўплами, 1983, 482-483) misrasi bilan boshlanuvchi 7 baytli g‘azaliga bog‘langan. 1978-yil “O‘zbek adabiyoti tarixi” uchinchi tomida Andalib hayoti va ijodining o‘rganilishiga doir ma’lumotlar xronologik jihatdan qayd qilingan (Ўзбек адабиёти тарихи, 1978, 333-367). Bu xrestomatiyada 1978-yilgacha bo‘lgan davr mobaynida **xorij** olimlaridan: 1867-yil German Vamberi “Chig‘atoy adabiyoti xrestomatiyasi”, 1947-yil L.Klimovich “SSSR xalqlari adabiyotidan xrestomatiya”, 1947-yil N.Xo‘jayev “Andalibning “Layli va Majnun” dostoniga yozgan so‘zboshisi”, 1963-yil B.Axundov va A.Ulug‘berdiyevlar, “Andalibning tanlangan asarlari”, 1973-yil Geldi Nazarov “Andalibning “Yusuf va Zulayho” dostonining tanqidiy teksti” va **O‘zbekiston**da XX asrning birinchi

yarmida Fitrat tuzgan xrestomatiya, V.Abdullayev 1958-yilda "XVII-XVIII asrlarda Xorazmda O'zbek adabiyoti" nomli doktorlik dissertatsiyasi va boshqa tadqiqotlarda Andalib hayoti va ijodining o'rganilishiga oid ma'lumotlar borligi qayd qilingan.

Bundan tashqari, Andalibning O'zR FAShI da saqlanayotgan 1382, 1169, 1198, 1387, 7054, 299, 6759, 1103, 6973, 6998, 6985, 1155, 1188, 6993, 1918 raqamli qo'lyozma bayozlarda she'rlari borligi ham aytib o'tilgan. №384-inventar raqamli qo'lyozmada Andalibning "Zaynularab" dostoni, C-162, 8 raqamli qo'lyozmalarda Andalibning "Chig'ir" radifli muxammasi ko'chirilganiga oid ma'lumot uchraydi. Andalibning Turkmaniston Fanlar akademiyasi Maxtumquli nomidagi Adabiyot instituti qo'lyozmalar fondida "*Ey shahi nozik tabiat gul yuzingdin o'rgulay…"* misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi №3-inventar raqami ostida saqlanayotganligi to'g'risida ma'lumot bor.

Bu xrestomatiyada Andalibning tarjimashunoslikka qo'shgan hissasi yuzasidan quyidagi fikrlar berilgan: "*Andalib tomonidan tarjima qilingan asarlardan bizga "Mirzo Hamdam" dostoni ma'lumdir. Doston tojik tilida yozilgan bo'lib, u O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan*". Tarjima qilingan ushbu doston hozirda O'zR FAShIda qo'lyozmalar fondida №6895-inventar raqami ostida saqlanishi, hijriy 1286/ milodiy 1869-yilda ko'chirilgani aytilgan.

Ushbu xrestomatiyada *"Dostondagi she'rlar, hikmatomuz baytlar tarjimasi singari:*

Mahi man ro'y xud dar parda pinhon karda meoyad,

Du la'lashro ba zeri parda xandon karda meoyad" – matla'si bilan boshlanuvchi g'azalni Andalib juda maromida tarjima qilgani aytiladi:

"Bu kulbayi ehzoni xurshidi jahon keldi,

*Go'yoki **ki** o'luk erdim, jismim aro jon keldi".*

Ushbu bayt "…*bilan boshlangan tarjima g'azal xalq orasida ashulaga aylangan*"i yozilgan. Hozirda ushbu g'azalning Komiljon Otaniyozov (https://youtu.be/W6JRmAffdKQ) hamda Og'abek Sobirovlar (https://www.youtube.com/watch?v=uOjnRjJPhoA) tomonidan ijro etilgan

variantlari borligi bu fikrni tasdiqlaydi. Biroq ushbu baytning forschadan tarjimasi aynan tarjimada keltirilgan bayt bilan mos kelmaydi. Yuqorida keltirilgan forscha bayt tarjimasi quyidagicha:

Mening oyim yuzini parda bilan yashirib kelayotir,

Parda ostida ikki la'li kulib kelayotir.

Ko'ringanidek, tarjimada yoki anglashilmovchilik yuzaga kelgan, yoki Andalib "Mirzo Hamdam" dostonini forschadan erkin ijodiy tarjima qilgan. O'zR FAShIda qo'lyozmalar fondida №6895-inventar raqamda saqlanayotgan ushbu manba fikrimizni dalillashga asos bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Andalib ijodi va faoliyati O'zbekistonda va Xorijda ko'p o'rganilgan. Biroq shoir asarlarining qo'lyozmalari ilmiy tavsifi maxsus tadqiqot sifatida amalga oshirilmagan. Shu sababdan Andalib ijodini manbashunoslik va matnshunoslik aspektida maxsus o'rganish, mumtoz adabiyotimizda uning rang-barang asarlarining o'ziga xos o'rnini belgilash kun tartibidagi muhim masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек адабиёти тарихи. (1978). Беш томлик. III том. XVI асрдан XVIII асрнинг 70-йилларигача (Нашрга тайёрловчи В.Абдуллаев). (336). – Тошкент, Ўзбекистон ССР "Фан" нашриёти.

2. Навоий асарлари луғати. (1972). (Тузувчилар: П.Шамсиев, С.Иброҳимов). Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, Тошкент.

3. O'zbek adabiyoti tarixi. (2019). (XVI-XIX asr I yarmi) N. Jumaxo'ja, I.Adizova. "Noshir" nashriyoti, Toshkent.

4. Абдурауф Фитрат. (2006). Танланган асарлар. IV жилд. Дарлик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар. "Маънавият", Тошкент.

5. Ўзбек адабиёти. (1960). Хрестоматия. IV том, II китоб (Нашрга тайёрловчи В.Зоҳидов). ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, Тошкент.

6. Ўзбек адабиёти. (1966). Хрестоматия. V том, I китоб (Нашрга тайёрловчи В.Зоҳидов). Бадиий адабиёт нашриёти, Тошкент.

7. Алишер Навоий. (2011). Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. Тўртинчи жилд. Хазойин ул-маоний. Фавойид ул-кибар. Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, Тошкент.

8. Алишер Навоий. (1983 Мукаммал асарлар тўплами.). Йигирма томлик. Биринчи китоб. Бадойиъ ул-бидоя. Фан нашриёти, Тошкент.
9. Алишер Навоий. (1983).Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Иккинчи китоб. Наводир ул-ниҳоя. Фан нашриёти, Тошкент.
10. Муҳаммад Фузулий. (1968). Асарлар. Икки жилдлик. Биринчи жилд. Девон. Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, Тошкент.
11. https://youtu.be/W6JRmAffdKQ
12. https://www.youtube.com/watch?v=uOjnRjJPhoA

BOBUR LIRIKASIDA PEYZAJ TASVIRI VA UNING RUHIYATI

Qayumova Feruza Zayniddin qizi
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi 4-kurs
feruzaqayumova@mail.ru
Ilmiy rahbar: Gulrux Xudayorova

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur she’riyatining badiiyatini ochib berishda peyzajning mohiyati alohida tadqiq qilinadi. Lirikasidagi tabiat manzarasini tasvirlashda shoirning mahorati yoritiladi. Peyzaj va kechinma uyg‘unligi o‘rganiladi. Peyzaj — fransuzchadan tarjima qilinganda paysage— mamlakat, joy degan ma’nolarni anglatadi.*

Kalit so‘zlar: *Peyzaj, lirika, ruhiy holat, tanosub, ruboiy,g‘azal.*

Abstract. *In this article the nature of the landscape is explored separately while revealing the artistry of Zahiriddin Muhammad Babur’s poetry. The skill of the poet in describing the natural landscape in his lyrics is highlighted. The combination of landscape and experience is studied. When translated from French, paysage means country, place.*

Keywords: *Landscape, lyrics, state of mind, ratio, rubai, ghazal.*

“Shohlarning shoiri shoirlarning shohi” Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida ruhiyatining barcha qirralari to‘liqligicha namoyon bo‘lgan. Ishq mavzusi, hijron va ayriliq motivi, tabiat manzaralari, el-yurtidan ayrolik og‘riqlari aks etgan lirik namunalar necha yillarki o‘z badiiyati bilan adabiyot xazinasini boyitib keladi. Uning lirikasida peyzaj– “tabiat” tasviri alohida o‘rin tutadi va muallifning badiiy

mahoratini o‘zida aks ettiradi. Bobur tabiat manzarasi orqali o‘zining Vataniga, ona tabiatga, hayot voqeliklariga bo‘lgan turli munosabatlarini ifodalaydi.

Jumladan uning quyidagi ruboiysiga e’tibor qarataylik:

Xotirni bahor faslida gasht oladur,

Ko‘z nurini rangi lolayu dasht oladur.

Xush, ulki tolalarda yurub sayr etsa,

Bu fasldakim, latifu dilkash toladur (Boburnoma, 2008).

Ushbu ruboiydagi peyzaj tasviridan anglashimiz mumkinki, lirik qahramon bu ruboiyni shod-u xurram kayfiyatida nekbin bir holatning ifodasi o‘laroq yaratgan. Chunki bahor faslini tasvirlashning o‘zi odamga zavq bag‘ishlaydi. Adabiyotshunos Hasan Qudratullayev aytganidek: “Bobur tabiatidagi hayotdan imkon qadar bahramand bo‘lish, uning go‘zalligini anglash va nashidasini surish odati kishini hayratga soladi”(Hasan Qudratullayev “Bobur shaxsiyatining yorqin jihatlari”,2004,7-son). Kitobxon u tasvirlagan tabiat manzaralarini o‘qir ekan o‘zini xuddi shu tabiat qo‘ynida yurgandek tasavvur qiladi.

Ijodkor yana bir boshqa ruboiysida yuqoridagi ruboiyga tamoman zid bo‘lgan tushkun ruhiy holatini peyzajdan foydalangan holda tasvirlab berdi:

Qish bo‘ldi-yu, bo‘ldi barcha tomu tosh qor,

Jamiyati bosh kishiga bordur xush qor.

Bu qishda yomon yo‘lu parishon holim

Yo Rab, meni yaxshilig‘ sari boshqor (Boburnoma, 2008)!

Bobur Mirzoning hasbi holidan xabardor bo‘lmoqni istagan kishi peyzaj vositasida uning kayfiyatini anglashi mumkin. Qish– ajoyib fasl. Havosi sovuq bo‘lsa-da, barcha tom-u tosh, qir-u adirlar Bobur ta’kidlagani kabi oppoq qor bilan qoplanadi. Qor hammaga xush yoqadi, ammo lirik qahramonning holi parishon. Balki bu ahvolga tushishiga og‘riqli azoblari sababchidir. Vatandan yiroqligida, jazirama hind o‘lkasida umrguzaronlik qilayotganda, Xuroson va Movaraunnahrda qahraton qish sababli qor yog‘ayotganini xayol surib , ana shu go‘zal manzarani tomosha qilishdan mosuvo bo‘lganini his qilganini peyzajdan foydalangan holda yuksak mahorat bilan aks ettiradi.

“Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy, estetik quvvatini oshirish , syujet rivojini tezlatish yoki sekinlashtirish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni bajaradi”(Shirinmoh To‘rayeva).

Bahor ayyomidur, dog‘i yigitlikning avonidur

Ketur, soqiy, sharobi nobkim ishrat zamonidur.

Ushbu matla’ bilan boshlanadigan g‘azaldagi “bahor ayyomi” iborasi lirik qahramon ahvolini ko‘rsatib beradi. Aynan zavq-shavqqa to‘lgan vaqt– yigitlik davri. Yigitlik davri– hayotdan zavq olish lahzasidir.

Gahi sahro uzori lola shaklidin erur gulgun

Gahi sahni chaman gul chehrasidin arvug‘onidur.

Yana sahni chaman bo‘ldi munaqqash ranga gullardin

Magarkim suniyning naqqoshig‘a rang imtihonidur (Boburnoma, 2008).

Mahorat bilan qalamga olingan bu jumlalarda ijodkorning so‘zga qanchalik e’tibor berganligi va uni o‘z o‘rnida qo‘llaganini guvohi bo‘lamiz. Yuqoridagi ikki misrada Bobur tanosub san’atidan mohirona foydalangan. Lola, chaman, gul so‘zlari o‘zaro aloqadorlikni yaratishga xizmat qilgan. Bobur Mirzoning yozgan misralaridan o‘zi yashagan muhitning ta’sirini sezamiz. Keyingi misralarda kelgan “munaqqash” so‘zining bezangan, o‘ziga oro bergan, bezaklarga burkangan kabi lug‘aviy ma’nolarini hisobga olsak, yozuvchi peyzaj va so‘zni mohirlik bilan uyg‘unlashtirganiga guvohi bo‘lamiz. “Yozuvchi mahorati, — deb yozadi I.Sulton, aytmoqchi bo‘lgan fikr, tasvirlanayotgan predmet va ruhiy holatni eng aniq va eng yorqin ifoda eta oladigan so‘z va iboralarni topa bilishdan iboratdir”(Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. 2007,77-bet).

Xulosa qilib aytganda, ijodkor lirikasini shaxsiy tajribasi bilan boyitib, qalbidan o‘tkazib umumlashtiradi. Peyzaj Bobur lirikasi badiiyatini namoyon etuvchi eng muhim vositalardan biridir. Peyzaj – shoir ijodida she’rni ziynatlash vazifasini ham bajarishini Bobur lirikasi misolida ko‘rishimiz mumkin. Bobur she’rlarida tabiatni o‘z hissiyotlari bilan bog‘lab, ichidagi tug‘yonlarini hammasini qalamga solgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umarov. H. (2001). Badiiy ijod asoslari. Toshkent: “O‘zbekiston”.
2. Quronov. D. (2007). Adabiyotshunoslikka kirish. (77-bet) Toshkent: “Fan“ nashriyoti.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. (2008) “Boburnoma”. Hozirgi o‘zbek adabiy tiliga tabdili. Toshkent: “O‘qituvchi”.
4. Qudratullayev.H. (2004). (7-soni). “Bobur shaxsiyatining yorqin jihatlari”. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TOLERANTLIK G‘OYALARININNG IFODALANISHI

Qobulova Muyassar Omonboy qizi
ToshDO‘TAU 4-kurs talabasi
qobulova_muyassar@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining ikkinchi qismi tahlil qilinadi. Navoiyning asardagi g‘arb mutafakkirlariga bo‘lgan munosabati va umuminsoniy g‘oyalar haqida mulohaza yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, “Tarixi anbiyo va hukamo”, tolerantlik, g‘arb donishmandlari, ijodkor pozitsiyasi, umuminsoniy g‘oyalar.*

Abstract: *This article analyzes the second part of Alisher Navoi's work "The History of Anbiyo and Hukamo". The paper examines Navoi's attitude to Western thinkers and universal ideas.*

Keywords*: Tolerance, Western sages, creative position, universal ideas.*

Hayotda shunday kishilar bo‘ladiki, butun umrini insoniyatga yaxshilik qilishga bag‘ishlaydilar. Alisher Navoiy bobomiz ana shunday kishilarning betakrori edilar, desak, ayni haqiqatdir. N. Komilov A. Navoiyni “Sharq Uyg‘onishining keyingi yuksak bosqichini o‘zida mujassamlashtirgan adib” deya ta’riflaydi. . **(**Комилов Н., 1999, 154-b). Yuqoridagi misralar bu buyuk qalb egasining kurrai zamin insonlariga, zamondoshlariga qarata aytilgan. Shu bilan birga, bugunning ham nidosidir. Biz Navoiy ijodining sahifalarini varaqlar ekanmiz, u halim qalb egasining insoniyatga faqat va faqat ezguliklar ilinganligi

namoyon bo‘ladi. Hazrat Navoiy nazdida insonlar diniy mansubligi, millati kabilardan qat’i nazar, Allohning buyuk yaratiqidir. Mana shu e’tiqod uning deyarli barcha asarlarida o‘zining u yoki bu ko‘rinishiga ega tarzda namoyon bo‘ladi.

Nima uchun bu buyuk ijodkor asarlarida xolis insonparvarlik mavjud, deya savol berilsa, uning javobi bizning buyuk ajdodlarimiz uchun yashash dasturi hisoblangan Qur’oni Karim ekanligi shubhasizdir. Chunki islom dini insonlarni bir-biriga do‘st bo‘lishga da’vat qiladi, bu hayotdagi har bir hodisaga hurmat bilan qarash yuzasidan ta’lim beradi. Hazrat Navoiy ijodi mana shu qutlug‘ manbadan bahramandlik mevasidir. “Tarixi anbiyo va hukamo” asari Alisher Navoiyning yuksak samimiyati ifodalangan manba sifatida qadrlidir. Bu asarni o‘qir ekanmiz, bobokalonimizning go‘zal qalbiga tahsinlar aytamiz. Chunki asarda tasvirlangan g‘ayri din vakillariga beqiyos hurmat kishini lol qoldiradi. Mana, Luqmoni hakimning shogirdi Fishog‘urs hakim haqidagi tasvirlar: “Fishog‘urs hakim. Luqmoni hakimning shogirdidur. Ba’zi debdurlar, Gushtosb zamonida erdi. Musiqiy ilmi aning voze’idur. Andin burun bu fanni tadvin qilg‘on kishi ma’lum emas. Va soz ham aning muxtari’idur va kamolda ta’rifdin mustag‘niy. Aning so‘zlaridindurkim, kishi o‘z madhin desa, chin dog‘i bo‘lsa, nopisanddur va o‘tkonlar bila ont ichmak yolg‘on nishonasidur va musibatqa sabr qilmoq shamotat qilg‘uchining musibati. She’r:

Andaki soz safar o‘ldi anga,

Sozlari navhagar o‘ldi anga. (Alisher Navoiy, 59-bet).

Tabdili: Ba’zilar debdilarki, Gushtosb zamonida yashagan. Musiqa ilmining yaratuvchisi edi. Undan oldin bu fan sohasida ijod qilgan kishi ma’lum emas. Kuy ham yaratgan va yetukligining tarifi yuksakdir. Uning fikricha, kimki o‘zini maqtasa, agar rost bo‘lsa ham yoqimsizdir va o‘tganlar nomi bilan qasam ichish yolg‘on nishonasidir. Birovning musibatiga kulgan kishining musibati shudir: musibat kelganda sabrli bo‘lgan kishining ustidan kulgan odam aslida o‘zi musibatda qolgan bo‘ladi. (Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати,

1984, 78) Shundan keyin Navoiy Fishog‘urs haqidagi fikrlarini quyidagi bayt bilan xulosalaydi:

Andaki soz safar o‘ldi anga,

Sozlari navhagar o‘ldi anga.

Ya’ni u chalgan kuyning ohanglari, aslida, oh-u fig‘onalarining nidosi edi. Yoki Buqrot haqidagi tasvirlarga e’tibor beraylik. “Buqrot hakim Fishog‘ursning shogirdidur. Va Bahman chog‘ida erdi va tibb ilmida mohir erdi va tasonifi bor. Va fusuli Buqrot ul jumladindurkim, atibbo qoshida bag‘oyat mu’tabardur. Ul debdurkim, umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim, bu qisqa umrni bir nimaga sarf qilg‘aykim, zaruratroqdur, ya’ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi. She’r:

Kishiki qildi amal Tengrining rizosi bila,

Haq etti oxiratin komu muddaosi bila”. (60-bet)

Tabdili: Buqrot hakim Fishog‘ursning shogirdidur. Eron shohi Bahman zamonida yashagan va tibbiyot ilmida mohir edi va mashhur kitoblari, asarlari bor. Buqrot fasllari (kitobi) shunday asarki, tabiblar orasida juda obro‘li, ishonchlidir. U shunday deganki, umr qisqadir, ish(vazifa) uzundir. Oqil inson shundayki, bu qisqa umrini biror foydali, zarur ishga sarflaydi. Ya’ni oxirat foydasi va Alloh taolo roziligi yo‘lida bo‘ladi.

Ana shundan keyin Navoiy keltirgan baytida shu fikrning she’riy tasdig‘ini beradi. Ya’ni kishi Alloh rozi bo‘ladigan amallarni qiladigan bo‘lsa, uning ajrini qiyomat kuni albatta oladi.

Fishog‘urs haqida yuqoridagi e’tirofni bayon etgan Navoiy yana bir g‘arb donishmandi Aristotel haqida shunday iliq qarashlarini bayon qiladi: “Aristotolis hakim Aflotunning shogirdidur, Iskandarning vaziri erdi. Aning so‘zlaridin budurkim, podshoh ulug‘ rudg‘a o‘xshar va atbon arig‘larg‘akim, ul ruddin ayrildilarkim, ul rud sunig‘a har hol bo‘lsa, arig‘larg‘a hamul holdur. Ul chuchuk bo‘lsa, bular chuchuk; Ul achig‘ bo‘lsa, bular achig‘; Ul sof bo‘lsa, bular sof; Ul loy bo‘lsa, bular loy. Pas, podshohg‘a vojibdur g‘oyat hikmat va e’tidol bila maosh qilmoq, to xayl va hashami anga mutobaat qilgaylar. She’r:

Shoh daryo va xalq erur anhor,

Ikisining suyig‘a bir maza bor”. (61-bet)

Bu parchaning mazmuni, bizningcha shunday: Aristotel Aflotunning shogirdi va Iskandarning vaziridir. U podshohni ulug‘ daryoga o‘xshatadi. Unga tobe bo‘lgan fuqaro esa ariqlardir. Daryoning suvi qanday bo‘lsa, ariqning suvi ham shunday bo‘ladi. Agar daryoning suvi tiniq va shirin bo‘lsa, ariqning suvi ham tiniq va shirin bo‘ladi, daryoning suvi taxir va loyqa bo‘lsa, ariqning suvi ham shunday bo‘ladi. Shunday ekan, podshohning o‘z fuqarosini har doim o‘ylashi, qayg‘urishi vojibdir, ya’ni davlat siyosatini yuritishda insof va diyonatni unutmasligi lozim, toki xalqi va atrofdagilari unga muvofiq ish qiladilar, undan o‘rnak oladilar. Keltirilgan iqtiboslarda ijodkorning xolisligi, samimiyati o‘zining yorqin ifodasini topgandir. Bunday tasvirlarga xulosa sifatida keltirilgan ushbu bayt mazmuniga e’tiborni qarataylik:

Shoh daryo va xalq erur anhor,

Ikisining suyig‘a bir maza bor.

Ya’ni, daryo suvi chuchuk bo‘lsa, anhor suvi ham chuchuk, Daryo suvi loyqa bo‘lsa, anhor suvi ham loyqadir. Shohga loyiq fuqaro, fuqaroga munosib shoh, deya bu ikki tomon orasidagi munosabatni shoir donishmand Aflotun qarashlari sifatida taqdim qiladi.

“Asardagi mulohazalar badiiy to‘qimalardan xoli bo‘lib, ular olimlar faoliyati, shug‘ullangan mashg‘ulotlari va qoldirgan meroslari haqida ma’lumot berish bilan birga o‘quvchini, u xoh oddiy xalq vakilimi yo ziyoli bo‘lishidan qat’i nazar, donishmandlar haqida bilishga, o‘qib izlanishga chorlaydi”. (Соатова Н. Эшонқулова, 2019, 238)

Ko‘rib turganimizdek, Navoiy G‘arb mutafakkirlariga ilmga muhabbatli, ilmni e’zozlovchi olim sifatida munosabatda bo‘lgan. G‘ayridin deya chegaralamagan, umuman, hech bir qolipga solmasdan, Allohning bandasi, ilm-u hikmatdan nasibador inson deya munosabatda bo‘lgan. Buning tasdig‘ini yuqoridagi ta’riflar orqali bilib oldik.

Bizningcha, shu o‘rinda “Qissasi Rabg‘uziy” asariga murojaat qilish o‘rinlidir. Jumladan, asardagi mavzuyimizga aloqador bir qissadan parchani

keltirib o‘tsak: Nuh alayhissalom shunchalik da’vat qilsalar ham o‘zlarining payg‘ambar etib yuborilganlariga, Allohning bir-u borligiga iymon keltirmaganlar – kofirlarga ofat yuborishini so‘rab duo qilganlaridan so‘ng:

“Uchinchi sabab bundan-da ta’sirli: “– Ey Nuh, ko‘za etgil! Hazrat Nuh alayhissalom ko‘za etib tayyor qilib bo‘lg‘ondin keyin “Hamasini sindirgil!”, deb farmon bo‘ldi. Aydilarkim: – Ey bori Xudoyo, ko‘za etib kel deding!? Na miqdor mashaqqatlar bila ko‘za etdim, ushatqil, deding! Ushottim! Mani emgakim(mehnatim)ni zoye qilding, bois na turur?! Haq subhonahu va taolodin nido keldiki: – Ey, Nuh, besh-olti kun etgan jonsiz ko‘zani emgalib etib edim, dersan! Mag‘ribdin Mashriqning orasi to‘la odam erdi… San hamasini yo‘q qilg‘il deb duo qilding. Man ijobat qilib, hamasini yo‘q qildim. Sanga shuncha xalqimni na uchun yo‘q bo‘lsin, deding, demadim. Bu so‘zga xijolat bo‘lib ko‘b yig‘ladilar…” (Бурҳониддин Рабғузий)

Buyuklar Allohning yaratiqlariga cheksiz hurmat bilan qaraganlar. Ayniqsa, inson zotini Uning buyurgan amallariga ixlos va mehr bilan rioya qilishga da’vat qilganlar. Shuning uchun ham hazrat Navoiy g‘arb donishmandlarining qarashlarini hurmat bilan tilga olgan. Bu buyuk zotning bunday munosabati bugungi zamon uchun, ayniqsa, dolzarbdir. Har bir davrda ijodkor pozitsiyasi insoniyat manfaatlarini hurmat qilishga yo‘naltiriladi.

Bizningcha, ilm mavjud joyda din, millat va irq ajratilmasligini Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asari misolida juda aniq va ravshan uqtirgan. Ona Yer talash bo‘layotgan hozirgi zamonda har bir millat, har bir xalq ma’naviyatida mana shu da’vat umuminsoniy shior bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комилов Н. (1999) Тафаккур карвонлари. Т.: “Маънавият”. –. 280 б.

2. Алишер Навоий. (1990) Тарихи анбиё ва ҳукамо. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъати нашриёти бўлими. Самарқанд.. – 62 б.

3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. (1984) Тўрт томлик. Биринчи том. Ўзбекистон “ФАН” нашриёти. Тошкент.. – 238 б.

4. Соатова Н. Эшонқулова С. (2019), “Алишер Навоийнинг” Тарихи анбиё ва ҳукамо” асарида фузалолар талқини” мақоласи. Халқаро илмий-назарий анжуман. Тошкент, 9-февраль. - 460 б.
5. Бурҳониддин Рабғузий. “Қисаси Рабғузий”. Нуҳ алайҳиссалом қиссаси. https://hidoyat.uz/5056 internet manbasidan

LUTFIYNING TAMSIL QO‘LLASH MAHORATI

Qo‘chqorova Gulnoza,
ToshDO‘TAU O‘FF 3-kurs talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Lutfiyning tamsil san’atini yaratish mahorati tahlil qilingan. Fikrni dalillash uchun misol keltirish, keltirilgan misolning fikrni isbot etishdagi vazifasi tahlil qilingan. Tamsil san’ati yaratishda shoirning badiiy tafakkuri katta rol o‘ynashi misollar orqali ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Tamsil, badiiy san’at, lirik janr, badiiy tafakkur.*

Abstract*. This article analyzes Lutfi's skill in creating figurative art. Giving an example to prove an idea, the role of the given example in proving an idea is analyzed. It is revealed through examples that the poet's artistic thinking plays a major role in the creation of figurative art.*

Keywords: *Representation, fine art, lyrical genre, artistic thinking.*

O‘z davrining “Malik ul-kalomi” deya ta'riflangan Lutfiy mumtoz adabiyotda o‘ziga xos o‘ringa ega shoirlardan hisoblanadi. Uning she'rlari tilining sodda va ravonligi bilan ham alohida ajralib turadi. G‘azal, ruboiy va to‘rtliklarida keltirilgan hayotiy misollar shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrni, g‘oyani o‘quvchiga yanada osonroq yetib borishini ta'minlaydi. Albatta bu dalillash badiiy san'atlar orqali amalga oshiriladi. Mushtarak san'atlar guruhiga kiruvchi tamsil va irsoli masal aynan fikrni dalillash uchun qo‘llanilib, bu ikki san'at bir-biridan o‘ziga xos jihatlari bilan farqlanadi.

Irsoli masal baytda maqol, matal va hikmatli so‘zlarni keltirishga asoslangan she'riy san'at bo‘lib, quyidagi baytni misol qilib olish mumkin:

Tilar vaslingni Lutfiy, qil ijobat,
Ki ayturlar: “Tilaganning-tilogu”.

Baytda shoir go‘zalning vaslini ko‘rish uchun Yaratgandan ushbu tilagini ijobat qilishini so‘rayapti. Ikkinchi misrada xalq ichida “tilaganning tilagi amalga oshadi” degan mazmundagi maqol bilan o‘z fikrini dalillayapti. Bu misrada aynan maqola bilan fikr dalillangani uchun irsoli masal san’ati yuzaga kelgan.

Tamsil esa she’r baytining birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san’at hisoblanadi.

Gar tilarsen husn mulkin, qullaringni qovlama

Shah cheriksiz bo‘lsa, mulk anga musallam bo‘lmas,-

baytida shoh qo‘shinsiz bo‘lsa, mulk unga bo‘ysunmaydi, shunday ekan sen ham yoningda yurgan qullaringni haydama, toki seni qo‘riqlab yursinlar, sen esa husn mulkiga egalik qilgin, degan ma'no tamsil orqali amalga oshyapti.

Xayolin gar nihon tutsam, ko‘ngulda, ne ajab,

Muflis kishi topsa guhar yoshurmog‘i nochor erur,-

baytida keltirilgan hayotiy hodisa nochor, kambag‘al kishining qimmatbaho tosh topib olganda uni yashirolmasligi, aniqroq qilib aytilsa, xursandchiligini yashirolmasligi birinchi misradagi fikrni tasdig‘i uchun xizmat qilyapti. Baytdagi “Kambag‘al inson gavhar topganda, xursandchiligini yashirolmaganidek, men ham sening labing yodini pinhon tutib, ko‘nglimda yashirolmayman” degan ma'noning ifodalanishi tamsilni mohiyatan anglatib turibdi.

Tamsil ikki xil usulda qo‘llanilladi. Yoqubjon Is'hoqovning “So‘z san'ati so‘zligi” kitobida "1.Tamsiliy munosabat mazkur bog‘lanishning sababiy ildiziga ishora qilivchi so‘zlar vositasida yuzaga chiqadi: chunki, ne tong, ne ajab, negakim,(qisqargan shakli- kim, ki) nedinkim va h.k.

Ne bo‘lg‘ay agar Lutfiyi bechorani ko‘rsang,

Kim xayr ishidur xastag‘a kim qilsa iyodat,-

baytida bog‘lanishga ishora qiluvchi “kim” so‘zi yordamida tamsiliy munosabat yuzaga kelgan. “Zulfung ko‘rub qildi ko‘ngul mayli ziyorat...”deb boshlanuvchi g‘azalning maqta'sida shoir xastaning ziyorati yaxshi ish ekanini, uni bir ko‘rgani borish xasta uchun bir ehson qilingandek bo‘lishini birinchi misradagi

“nima bo‘ladi, mendek xastani kelib ko‘rsang” degan o‘z ahvoli bayoniga tasdiq sifatida keltiradi.

2. Intonatsiya yo‘li bilan bog‘lanish. Tamsiliy san’atning haqiqiy na'munasi hech qanday vositasiz tamsiliy bog‘lanishga daxldor misra yoki baytlarni yonma-yon (Shayxzoda termini bilan aytganda, yondash qo‘yish orqali yuzaga keladi. Yevropa adabiyotshunosligida bu psixologik paralellizm deyiladi", deb keltirilgan. Ushbu bog‘lanishni ko‘p hollarda aniqlash murakkabroq masala hisoblanadi. Chunki baytda tamsilni ifodalaydigan hech qanday shakl ajralib turmaydi. Shaklan aniqlanmagan ifodani endi ma’nosidan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin bo‘ladi. Demak, tamsil o‘rganuvchidan ham zakiylikni talab etadigan badiiy san’at turi hisoblanadi. Ushbu usuliga quyidagi baytni misol sifatida keltirsa bo‘ladi:

Zulfung chiniga ko‘nglum bordi ko‘zum yo‘lidin,

Daryo yo‘lidin oson borsa bo‘lur Xitoyg‘a.

Baytda keltirilgan “chin” so‘zining lug‘atda berilgan ma’nolaridan biri soch o‘rimi, tuguni degan ma’noni ifodalaydi. Bundan kelib chiqib bayt sharhlansa, oshiqning ko‘ngli yorning zulfiga bormoq uchun ko‘zlari orqali o‘tdi, negaki, Xitoyga dengiz orqali borganda osonroq yetib boriladi, deb keying misrada so‘ziga dalil keltiradi.

Tamsil san’ati she’rga obrazlarni, timsollarni olib kiradi, voqealar ko‘lamini kengaytiradi. Bu yana shoirning badiiy tafakkur olamining naqadar kengligini namoyon etadi. Hamma shoirlar ham tamsildan ko‘p o‘rinlarda foydalana olmaydilar,chunki ushbu san'atni qo‘llash uchun ijodkorda hayotiy tajriba ham anchayin katta bo‘lishi va shu bilan birgalikda hayotiy voqealarni sichkovlik bilan kuzatish mahorati ham talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lutfiy. (1987) Devon. – T.: G‘afur G‘ulom,.

2. Is’hoqov Y. (2014) So‘z san’ati so‘zligi. – T:. O‘zbekiston.

3. Yusupova D. (2019) Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. – T.: Ta’lim media.

SHARQ ADABIYOTIDA SUVRAT VA SIYRAT TUSHUNCHASI

Quchqorova Charos Ismoil qizi
ToshDO'TAU. O'zbek filologiyasi fakulteti.4- kurs
charosquchqorova1909@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada suvrat va siyrat masalasining Sharq adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyati Fariduddin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asari asosida o'rganildi. Tazkiradagi botiniy va zohiriy olamga oid maqolatlar atroflicha o'rganildi va xulosalar chiqarildi.*

Kalit so'zlar*: surat va siyrat, botin va zohir, shakl va mazmun, maddiyat va ma'naviyat.*

Abstract: *In this article, the role and importance of the issue of form and content in Eastern literature was studied on the basis of Fariduddin Attar's work "Tazkirat ul-Avliya". The articles on the inner and outer world of Tazkira were thoroughly studied and conclusions were drawn.*

Keywords*:image and character, inner and outer, form and content, materiality and spirituality.*

Sharq mumtoz adabiyotida Suvrat va Siyrat masalasiga katta e'tibor berilgan va shu mavzuga oid turli izlanishlar va qarashlar mavjud. O'z ijodi bilan fors tilidagi she'riyat, tasavvuf adabiyoti rivoji va tazkiranavislikka katta hissa qo'shgan Farididdin Attor "Tazkirat ul-avliyo" asarida shayxlar va avliyolar hayotida sodir bo'lgan voqea hamda hodisalar orqali insonning suvrati va siyrati, ya'ni zohiri va botini haqida fikr yuritadi.

Mahluqotning javhari bir, suvrati turlichadir. Ya'nikim, mazmun yagona faqat shakl turlichadir, botin birni ko'rsatsa, zohir ko'pni ko'rsatadi. Bu go'yoki ongimizda vujudga kelgan fikrni turli nutq vositalari bilan voqelantirishimizga o'xshaydi: fikr yagona, fikrni ifodalovchi nutq vositalari esa rang-barangdir.

Har bir mahluqot (mahluq so'zining ko'pligi, lug'aviy ma'nosi yaralgan yoki yaratilgan va yaraluvchi yoki yaratiluvchi)ning ichida Xoliq (lug'aviy ma'nosi - yaratuvchi)ning zarrasi bordir. Sening ichingda javhar - Mutlaq ruhning siri bor,

ammo bu yerda senga yo‘l ko‘rsatuvchi yo‘q. Surat barbod bo‘lsa, ruh o‘zligiga erishadi, ikkilik barham topadi.

“Tazkirat ul-avliyo”da suvrat va siyrat masalasiga ikki xil tomondan yondashiladi, birinchidan, insonning tashqi olami va ichki olami, botini va zohiri, ikkinchidan, yashab turgan dunyomizga oid ashyolarning moddiy va ma’naviy tomoni haqida fikr yuritiladi.

Ushbu tazkiraning Bibi Robiya Adaviyaga bag‘ishlangan faslida Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning shunday hikmatlari keltiriladi: - Alloh sizlarning suratlaringizga boqmas, balki ko‘ngillaringizga boqar! Alloh uchun insonning shakl-shamoyili, yoshi, jinsi, tashqi ko‘rinishi, ya’ni suvrati muhim emas, aslida, hammaning zohiri go‘zaldir, chunki Mutlaq Haq yaratgan mahluqotning tashidan kamchilik topish mumkin emas. Shuni yodda tutish zarurki, mazmun doimo shakldan ustun, shakl mazmunni to‘ldirib turadi. Zero, shakl mazmundan yuqori turganda 72 nafar avliyo-yu azizlarning biri sayyida Robiya Adaviya bo‘lmasdi.

Xoliqning bir zarrasi ko‘nglimizda ekan, nechun Allohning uyini obod qilib ziynat bermasligimiz kerak. Tashqi ziynat insonni go‘zallashtirishi nisbiydir, aslida, go‘zallik qalbda, botinda bo‘lish kerak.

Bir kuni shayx Hasan dedi:

- Robiyaning yonida edim. Haqiqat, tariqat va ma’rifatdan so‘zlashar edik. Ikkimizning ko‘nglimizga ishq o‘ti shunday asar qilib to‘ldiring, na men o‘zimni bildimkim, erkakman, va na u Robiya bildimkim, ayol ekanini.

Alloh ishqi ikki buyuk insonni shunchalik zabt etgan ediki, shakl- jism yo‘qlik sahrosiga yuz burib, faqat mazmun ularni yagona maqsad sari- Xoliq jamoliga erishish yo‘lida birlashtirgan edi. “Tazkirat ul-avliyo”da shayxlarga duch kelgan, ularga yo‘l ko‘rsatgan Alohning xos bandalari darvesh, qul va sahroyi qiyofasida gavdalanadilar, Bundan maqsad shuki, Alloh ichki olamiga ziynat bergan, botinini obod aylagan insonlarni sevar, zarhal yostig‘-u par ko‘rpada yotganlarni emas. Shu o‘rinda, Ibrohim ibn Adham janoblarining Alloh taoloning

oltin taxt-u atlas ko‘rpalar ichidan izlash tom ustidan tuyani izlash bilan tengligini anglab yetganlarini eslash kifoya.

“Tazkirat ul-avliyo” zohir va botinning ikkinchi tomoni moddiy va ma’naviy olamga borib taqaladi. Bu mavzu, aynan, Robiya Adaviya va Ibrohim Adham janoblarining Ka′ba ziyoratini ixtiyor etishlari haqidagi maqolatda ko‘zga tashlanadi. Ibrohim Adham 14 yil Ka’ba ziyorati uchun har qadamda 2 rakat namoz o‘qib ko‘zlagan manziliga yetganda, ne ko‘z bilan ko‘rsinkim, Ka’ba Robiya Adaviyani ziyorat qilgani ketgan edi. Buncha sabab Robiya Adaviya botiniy ibodatda bardavom bo‘lib Haqni ko‘ngliga jo qilgan ediki, hatto Ka’ba uning Alloh ishqi gullagan ko‘nglini ziyorat qilishga otlandi. Bu o‘rinda Ka’batulloh zohiriy - moddiy tomon bo’lsa, Robiya Adaviyaning ibodati botiniy-ma’naviy tomondir. Ma’ruf Karhiy haqidagi maqolotlarning birida musofir odam masjidga kelib qiblaga qaramay namoz o‘qigani, keyin xatosini sezib xijolat bo‘lganda shayx shunday deydilar:

- Qiblaning g‘amini yemagil, har tarafga boqsang, Xudo hozirdir.

Demak, yuzning qibla tomonga yo‘nalishi emas, balki ko‘ngilning Allohga yuzlanishi muhimdir. Qibla Insonni Allohga yuzlantiruvchi bir vosita, ko‘nglidan Alloh muqim joy olgan inson uchun dunyoning jamiki tarafida U hozirdir.

Suvratning go‘zalligi, mukammalligi uning siyratiga chambarchas bog‘liqdir. Siyratini ziynatlash, suvratdan vos kechish yoki siyrat va suvrat birligiga erishish “Tazkirat ul-avliyo”dagi ko‘zlangan maqsadlarning biridir. Mumtoz adabiyotda ham zamonaviy adabiyotda ham suvrat va siyrat, shakl va mazmun, botin va zohir haqidagi diniy va ilmiy jihatdan ko‘plab izlanishlar amalga oshirilmoqda. Biz ushbu maqola orqali Fariduddin Attorning botin va zohir haqidagi qarashlariga qisman fikr bildirdik, zero bu dengizdan tomchi, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fariduddin Attor. (2017).Tazkirat ul-avliyo

2.Fariduddin Attor. Javharu-z-zot.

3.Hamidulla Boltaboyev. (2008). Sharq mumtoz poetikasi 77-86

4. Alibek Rustamov (1985). “Hayratu-l-abror”dagi birinchi sarlavhaning sharhi. Sharq yulduzi

NAVOIY “ARBA’IN”IDAGI IJTIMOIY MUNOSABATLARGA OID HADISLAR SHARHI

Rayimova Muslima Sunnat qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 4-kurs
muslimarayimova1801@gmail.com
Ilmiy rahbar: Akram Dehqonov

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Arba’in” asari tarkibiga kirgan hadislarning ijtimoiy munosabatlarga oidlari sharhlangan. Jamiyat a’zolarini o‘zaro muhabbatli, mehr-oqibatli bo‘lishga chorlovchi hadislar saralab olinib, ularning ma’no qirralari Alisher Navoiy nazmga solganda qay darajada jilo topganiga e’tibor qaratilgan. Iymonli jamiyat a’zolarining oralari isloh qilinishi jamiyatning isloh qilinishiga poydevor bo‘lishi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *mumtoz adabiyot, arba’in, hadis, sharh, iymon, islom, ma’rifat, vafo, va’da, nazm, to‘rtlik.*

Abstract. *In this article, the hadiths included in Alisher Navoi’s work “Arba’in” related to social relations are commented. Hadiths that call the members of the society to be kind and loving to each other have been selected, and attention has been paid to the extent to which their meanings were polished when Alisher Navoi wrote them into verse. It has been shown that the reformation of the members of the believing community is the foundation for the reformation of the society.*

Keywords: *classic literature, arba’in, hadith, review, faith, islam, enlightenment, loyalty, promise, poem, quatrain.*

Alisher Navoiy ijodining ildizlari Qur’on va hadisdan oziqlangan. Shu bois ulug' mutafakkir merosida Qur’oni Karim oyatlari, hadisi shariflardan namunalar, payg'ambarlar va avliyolar hayoti bilan bog'liq ibratli hikoyatlar ko‘plab uchraydi. Xususan, uning turli xil dolzarb mavzudagi hadislar sharhiga bag'ishlangan “Arba’in”i musulmonlar uchun zaruriy qo‘llanma hamda tarbiyaviy manba sifatida juda katta ahamiyatga ega qimmatli asardir.

“Arba’in” arabcha so‘z bo‘lib, lug'aviy ma’nosi “qirq”, “qirqta” ma’nolarini ifodalaydi. Istilohiy ma’nosi esa 40 ta mashhur, ulamolar tomonidan sahih deb

e’tirof etilgan hadis mazmu nini she’riy yo‘l bilan ifodalashni anglatadi. Ta’kidlash joizki, musulmon sharqi mumtoz adabiyotida arba’inchilik alohida bir an’ana sifatida shakllangan. Bunga Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning ushbu hadislari asos bo‘lgan:

قال رسول الله صلى الله عليه وسلم:"من حفظ على أمتى أربعين حديثا في أمر دينها بعثه الله فقيها وكنت له يوم القيا مة شافعا و شهيدا".

Hadisning mazmuni quyidagicha: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar:”Kim ummatimga din ishlari borasida qirqta hadisni muhofaza qilib bersa, Alloh uni qiyomat kuni faqih qilib tiriltiradi va qiyomat kuni men unga shafoatchi hamda guvoh bo‘laman”. Navoiy “Arba’in” i salaflarinikidan turkiy tilda yozilganligi bilan farq qiladi. Buni shoirning o‘zi asarining “Sababi ta’lifi manzuma” qismida shunday izohlaydi:

Forsiydonlar aylabon idrok,

Oriy erdi bu naf’din atrok.

Istadimki, bu xalq ham bori

Bo‘lmag‘aylar bu naf’din oriy. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 256-bet) “Uni (Jomiy arba’ini nazarda tutilmoqda) faqat fors tilini biladiganlar tushinishdi-yu, turklar bu foydadan bebahra qoldi. Men esa ushbu turk xalqining hammasi ham bu foydadan bahramand bo‘lishlarini istadim”,–deydi Navoiy.Navoiy “Arba’in” iga jamlangan hadislarni mavzu jihatdan shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Xususan, insonni komillik sari yetaklovchi iymon-e’tiqod, rizq-ro‘z, odob-axloqqa oid hadislardan tortib uni ehtiyotkorlikka chorlovchi nafsi botil, dunyo mazammati kabi masalalarga doir hadislar bayoniga tutinadi muallif. Biz esa quyida “Arba’in” dan o‘rin olgan ijtimoiy munosabatlar bilan bog'liq hadislar haqida fikr yuritamiz. Hadis: Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Birortangiz o‘ziga ravo ko‘rgan narsani birodariga ham ravo ko‘rmagunicha mo‘min bo‘la olmaydi”,–dedilar”. Navoiyda:

Mo‘min ermastur, ulki iymondin

Ro‘zgorida yuz safo ko‘rgay,

Toki qardoshig‘a ravo ko‘rmas–

Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 256-bet) Aytish mumkinki, yuqoridagi hadis haqiqiy mo‘minlikdan bir nishona yanglig' jaranglaydi. Shu o‘rinda haqli bir savol tug'iladi. Xo‘sh, mo‘min o‘ziga nimani ravo ko‘radi? Albatta, ikki dunyo yaxshiligi, saodati va xalovatini (bu dunyodagi yaxshilik umr mazmunini anglab, vaqtni zoye ketkazmaslikka intilish bo‘lsa, oxiratdagi yaxshilik, shubhasiz, Haqning jamoli va Jannatga yetishishdir). Iymon sharofatidan bahramand kishi borki, o‘ziga ravo ko‘rgan yaxshiliklarning barini qardoshiga ham ravo ko‘rmog'i lozim. Aks holda u chin ma'noda mo‘min emasdir, deyilmoqda hadisi sharifda. Hadis: Umar roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:”Mo‘min kishi qo‘shnisi och bo‘la turib to‘ymaydi”,–dedilar”. Navoiy:

Kimki mo‘mindurur qachon chidag‘ay,

Kim o‘zi to‘q-u qo‘shni bo‘lg‘ay och.

Anga dog‘i kerak yetursa nasib,

Xonida gar quloch-u xohi umoch. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 265-bet) Hadisni mo‘min kishi amal qilishi lozim bo‘lgan qo‘shnichilik odobi haqida deyish mumkin. Unda bugungi kunda og'riqli nuqtalarimizdan biri, tobora unutilib borayotgan qo‘shnining haqqi xususida so‘z boradi. Aslida, uyda pishirilgan taomning hidi qo‘shniga yetsa, albatta, o‘sha pishirilgan taomdan unga yedirish shart bo‘ladi. Bu haqda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qiladilar:”Bir kishi hidini uydan tashqariga chiqarib taom pishirsa-yu qo‘shnilariga bermasa, joyini jahannamdan tayyorlayversin”. Shubhasiz, hidi qo‘shniga yetgan taom ham uning haqqi hisoblanadi. Qo‘shnining haqqi esa xuddi meros haqqiday muhimligi hadislardan barchamizga ma’lum. Darhaqiqat, bu masalaga nihoyatda e’tiborli bo‘lmog'imiz lozim. Zero, mo‘min kishi zinhor birovning haqqiga xilof qilmagay.

Rahimlilik va karamlilik Allohning eng buyuk sifatlaridandir. Alloh taolo bandalariga ham rahmdil, halim, ochiq yuzli bo‘lishni buyuradi. Bu bir qator hadislarda ham o‘z aksini topgan. Xususan, bir hadisda:“Odamlarning Allohga

suyuklisi odamlarga manfaati ko‘prog'idir”, deyilsa, yana birida “Albatta, Alloh muomalasi oson, ochiq yuzli kishini sevadi”, deb e’tirof etiladi. Fikrimizning tasdig'ini esa mana bu hadisda ko‘rishimiz mumkin. Jarir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Men Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning:”Kim odamlarga rahm qilmasa, Alloh azza va jalla ham unga rahm qilmaydi”,–deyayotganlarini eshitdim”.

Hadisni Navoiy shunday nazmga solgan:

Tengridin rahm agar tama’ qilsang,

Avval o‘lmoq keraksen elga rahim.

Har kishikim ulusqa rahm etmas,

Anga rahm aylamas Rahim-u Karim. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 258-bet) Ushbu hadisdan chiqariladigan xulosa shuki, agar Allohdan rahm kutsak, eng avvalo, o‘zimiz xaloyiqqa mehribon va shafqatli bo‘lmog'imiz lozim. Zero, kimki elga rahm qilmasa, Rahim-u Karim bo‘lgan Zot ham unga rahm qilmaydi. Insonning bu hayotda faqatgina o‘z manfaatini ko‘zlab yashashi baxillikdir. Bu esa mo‘min kishida jam bo‘lmaydigan ikki xislatning biri hisoblanadi. Demakki, o‘zini mo‘min sanaydigan har bir inson quyidagi hadisni yodida tutmog'i lozim: Jobir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam:”Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaati ko‘prog‘idir”,–dedilar”. Navoiy:

Xalq aro yaxshiroq, deding, kimdur?

Eshitib, ayla shubha raf’ andin,

Yaxshiroq bil ani ulus arokim,

Yetsa ko‘prak ulusqa naf’ andin. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 261-bet) Xulosa shuki, bu dunyoda bizdan faqat yaxshilik qoladi. Allohga suyukli banda va xalq ardog'idagi inson bo‘lish esa o‘z qo‘limizda.

“Asalning ham ozi shirin”, deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, har narsada me’yor afzal. U bir mezon. Qandayki, insonlarni noto‘g'ri yo‘ldan qaytarguvchi va ular orasida o‘zaro muhabbatni orttirguvchi mezon. Zero, hadisda ham mana bunday deyiladi:”Oralatib ziyorat qil, muhabbat ortadi”. Ya’ni do‘stlar bir-birlarini

goh-gohida ko‘rsalar, do‘stliklari ortib boradi, shavqlari oshib, birga bo‘lish istagi paydo bo‘ladi, uchrashish bir orzuga aylanadi.

Boshqa bir hadisda esa o‘zaro hadiyalar berishib, do‘stlik rishtalarini mustahkamlashga va o‘rtalaridagi mehrni orttirishga chaqiriladi:”O‘zaro hadya berishinglar, o‘zaro muhabbatli bo‘lasiz”. Hadis: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:”Shirin so‘z ham sadaqadir”,–dedilar. Navoiy hadis mazmunini shunday nazmga solgan:

Yaxshi so‘z birla hojat ahlin so‘r,

Bermasang yaxshi to‘’madin nafaqa.

Ne uchunkim Rasul qavli bilan

Yaxshi so‘z bordur o‘ylakim sadaqa. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 264-bet)

Hadisda aytilishicha, agar biror kishi muhtojlarga yordam berishni xohlasa-yu, ammo bunga o‘z imkoniyati yetmasa, ya’ni ularga yaxshi taom bilan nafaqa qila olmasa, hech bo‘lmaganda yaxshi so‘z bilan “hojat ahli”dan hol so‘ramog'i joiz. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning so‘zlariga ko‘ra yaxshi so‘z ham savobda sadaqachalik bor. Hadis: Ali va Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhumodan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:”Va’da–qarzdir”,–dedilar”. Navoiy:

Kimki har kimga va’dae qildi,

Shart erur va’dag'a vafo qilmoq.

Va’dakim, qilding o‘yladurkim dayn,

Farzdir qarzni ado qilmoq. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 259-bet) Darhaqiqat, insonlarga berilgan va’da bu ulardan olingan qarz misolidir. Qarz–dinning dog‘i. Uni ado qilmoq farz sanaladi. Bilamizki, farz ibodatlar ichra eng ulug‘idir. Xulosa shuki, kim birovga va’da bersa, va’dasiga vafo qilmog‘i shart! Hadis: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu alayhi vasallam:”Ilmni man qilish halol emas”,–dedilar”. Navoiy:

Ey xiradmand olimeki, sanga

Ilmdin ro‘ziy ayladi Sone’

Kishi o‘rgansa qilmag'il mahrum,

Yoki naf’ olsa bo‘lmag'il mone’. (Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to‘plami, 16-tom, 2000, 263-bet) Ushbu hadisdan shunday xulosa kelib chiqadiki, ilm istab kelgan insonni ters qaytarish, o‘z ilmini baham ko‘rishdan chekinish haromdir. Zero, ilm ham Allohning o‘z bandalariga ato etgan ne’matlaridan biri va albattaki, istalgan vaqt U bandani bu ne’matdan bebahra qilishga-da qodir!

Shular kabi necha asrlardan buyon o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmagan, hanuz bashariyatga dasturul amal bo‘lib kelayotgan hadislar qatorini hali uzoq davom ettirishimiz mumkin. Undagi olam qadar ma’noni ifodalash esa qalamimizning haddi emas. Shunday bo‘lsa-da, yuqorida bir necha hadislar sharhini bayon qilishga harakat qildik. So‘zimiz so‘ngida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, bu hadislar naqadar purma’no bo‘lmasin, ularni o‘qisag-u hayotimizga tatbiq qilmasak, iymonda sobit turib, Rasulimizga ergashib, Haqqa muhabbatli bo‘lmasak, Allohning rahmati va mag'firatidan benasib qolishimiz ham hech gap emas. Allohga chin muhabbat, haqiqiy iymon shunchaki quruq gap, vijdoniy his-tuyg'u yoki ba’zi bir rasm-rusumlarni bajarishdangina iborat emas. Aslida u Allohga va uning Rasuliga to‘liq bo‘ysunishdir. Xulosa o‘rnida esa Allohning quyidagi kalomini keltirishni joiz deb bildik:”Sen:”Agar Allohga muhabbat qilsangiz, bas, menga ergashing. Alloh sizga muhabbat qiladir va sizlarning gunohlaringizni mag’firat qiladir”, deb ayt. Alloh G‘afur va Rohiymdir”. (Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Tafsiri Hilol, 1-jild, 2017, 331-332-betlar)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami 10-jild.-T.: G‘. G‘ulom, 2000. 256-265-betlar.

2. Hasanxon Yahyo Abdulmajid, Husaynxon Yahyo Abdulmajid “Arba’in”ning nasriy bayoni va taxriji” dissertatsiyasi.

3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol 1-jild.-T.: Hilol nashr, 2017. 331-332-betlar.

4. www.Ziyouz.com.

ATOIY IJODIDA TALMEH SAN'ATI

Sadullayeva Nodira Zaynidin qizi
ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 4-kurs
nodirasadullayeva471@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Atoiy ijodining o'rganilishi, ahamiyati va g'azallarida qo'llangan talmeh san'ati bilan tanishib chiqamiz. Umuman, Atoiy ijodini o'rganishda talmeh san'atining o'rni kattaligi, u qo'llagan nomlar o'z o'rniga mos va xos tushganligini ko'rishimiz mumkin. Maqola davomida Atoiy g'azallarida qo'llangan Xizr, Nuh, Yusuf, Ayyub alayhissalomlar nomlari bilan shoir ijodi namunalari orqali tanishib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *Samoylovich, "Devoni Shayxzoda", bayt, badiiy san'at, talmeh, qissa, Xizr, Yusuf, Ya'qub, Nuh, Ayyub.*

Abstract. *In this article, we will get acquainted with the study of Atoi's work, its importance, and the art of talmeh used in his ghazals. In general, in the study of Atoi's work, we can see the great role of the art of talmeh, the names he used are suitable and unique. In the course of the article, we will get acquainted with the stories of Hizr, Nuh, Yusuf, Ayyub, which were used in Atoi's work, through examples of the poet's work.*

Keywords: *Samoylovich, "Devoni Shaikhzada", verse, talmeh, story, Khizr, Yusuf, Yaqub, Nuh, Ayyub.*

XV asrning birinchi yarmida ijod etgan turkiygo'y shoir Atoiy Balxda tug'ilib ijod etgan. Otasi Ismoil Yassaviy maktabining davomchilaridan bo'lganligi haqida Voiz Koshifiy "Rashaxot" asarida keltirib o'tadi. Bu haqida hazrat Navoiy "Nasoyim ul - muhabbat" asarida ham Atoiy haqida keltirib o'tgan. Bundan tashqari Hazrat Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" hamda "Majolis un-nafois" asarlarida Atoiy haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi.

Atoiyning o'rganilishi Samoylovich nomi bilan bog'liq. U birinchi bo'lib Ismoil ota Sayyid otaning, Sayyid ota Zangi otaning muridi va vorisi ekanligi haqida dastlabki ma'lumotlarni aytgan. U 1927-yilda Atoiy devonini topadi va shunday yozadi: "Osiyo muzeyida vaqtinchalik saqlangan qo'lyozmalar orasida

qirralari charmdan ishlangan maxsus yopqichli, karton g‘ilofga solingan bir devon topildi. Yopqichda “Devoni Shayxzoda” deb yozilgan eski yorliq, g‘ilofning karton qismida rus yozuvida: “Въ знак памяти подарено Фатали Ханомъ Беглярь Беги Табрезским сего 1818 года дня Князю Василию Бебутову”, ya’ni “Tabrezlik beklarbegi Fatx Alixondan 1818 –yil iyunning 12-kunida knyaz Vasiliy Bebutovga, esdalik uchun sovg‘a qilindi”. Ushbu devon hozirgi kunda Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar bo‘limida 22 B – 2456 raqami bilan saqlanmoqda.

“Devoni Shayxzoda”da jamlangan g‘azallar alifbo tartibida joylashgan. An’anaga muvofiq ا harfi bilan boshlanib, ن bilan tugaydi. Atoiy ijodiy merosi 1718 baytni tashkil etib, 260 ta g‘azaldan iborat.

Atoiy g‘azallari g‘oyaviy jihatdan oshiqona, ma’rifiy va diniy-tasavvufdagi mavzularda bitilgan. Ayniqsa, shoir lirikasiga Qur’on va hadislar mazmunini chuqur singdiradi. U Alloh sevgisi, Muhammad alayhissalom muhabbati, “xo‘b”lar – yaxshilar mehrini targ‘ib qiladi. Shoir ta’biri bilan aytgan-da, ishq oddiy, jo‘n narsa emas, u “sheri nar”ni zabun aylaydi, azobiga dosh berish, lazzatidan bahramand bo‘lish har kimning qo‘lidan kelmaydi:

Zinhor ishq ishini o‘sal tutma, ey ko‘ngul,

Osoni mushkul erur aning mushkuloti.

Atoiy ijodida, ayniqsa, talmeh san’ati juda ko‘p uchraydi. Tabiiyki, bu san’atga murojaat qilmagan shoir ham yo‘q. Talmeh arabcha so‘z bo‘lib “ishora qilish”, “biror narsa tomonga yengil nazar tashlash” ma’nosini bildiradi. Talmehda mashhur bir qissa, voqea yoki asarga ishora qilish orqali ifodalamoqchi bo‘lgan ma’noni lo‘nda va muxtasar ifoda etadi. Bundan kelib chiqadiki, talmeh san’atida oz so‘z bilan ko‘p ma’no ifodalanadi. Yuqorida keltirib o‘tganimizdek, Atoyi ijodida talmeh san’atidan keng foydalanilgan va uning ijodida mashhur qissalardan ko‘p o‘rinlarda foydalanilgan. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz:

Sen buti Chin ishqida holimni ayb etkan kishi,

“Mantiq ut-tayr” ichra ko‘rsun Shayx San’on qissasin.

Bilamizki, Fariddin Attorning “Mantiq ut-tayr”ida “Shayx San’on qissasi” keltiriladi. Shayx komil inson edi, nasroniy qizga oshiq bo‘lgandan so‘ng rasvoyi jahon bo‘ladi. Aynan shu holat bilan o‘zining oshiqligini Shayxga qiyoslab go‘zal o‘xshatma yaratadi. Atoiy ijodida payg‘ambarlar nomlari orqali talmeh san’atidan keng foydalanish uchraydi. Bu bilan shoir o‘zining bilimini ko‘z-ko‘z qilmaydi, aksincha so‘zni muxtasar qilishga harakat qiladi.

Unuttirdi Xizr obi hayotin,

O‘shal yoquti shakkarhand bizga.

***

Bu paripaykar sanam go‘yoki mahzi ruhdur,

La’li Xizr obi hayot, qaddi umri Nuhdir.

Xizr hayot bulog‘idan „obi hayot“ ichgan va umri boqiy bo‘lgan. O‘ng qo‘lining bosh barmog‘i suyaksiz bo‘lishi, nogahonda yo‘liqib, bir zumda ko‘zdan g‘oyib bo‘lishi Xizrga xos belgi sanaladi. Islom an’anasida Xizr umri boqiy deb talqin etiladi.

Sanga bersun ilohi Nuh umrin,

Manga ham furqatingda sabri Ayyub.

Ma’lumki, Nuh - eng uzoq umr ko‘rgan, Ayyub alayhissalom esa sabr-bardoshi bilan Allohning muhabbatini qozongan, xalqqa ibrat bo‘lgan payg‘ambardir. Shu o‘rinda, shoir oddiygina qilib: “Senga uzoq umr bersin, menga esa go‘zal sabr”, -deb qo‘yganida bu darajada ta’sirli chiqmagan bo‘lar edi. Hamda bu oddiy she’r, tilak singari bo‘lib qolar edi.

Atoyi ijodini kuzatar ekanmiz, uning g‘azallarida Yusuf alayhissalomga ko‘p marotaba murojaat qilganini ko‘ramiz. Binobarin, rivoyat qilinishicha , Alloh taolo husnni yuz hissa qilgan: to‘qson to‘qqizini Momo havoga, qolgan bir qismini butun insoniyatga bergan. Shu bir qismini yana o‘nga bo‘lib to‘qqizini Yusuf alayhissalomga, bir qismini bani basharga bergan. Shu sababdan, u mumtoz adabiyotda husn-u jamol timsoli sifatida gavdalanadi (Ergash Ochilov. Atoyi. Jondan aziz Jonona. “Sharq”, 2011. – 20-b). O‘z jigargo‘shasi do‘g‘ida qon yig‘lab

ko‘zlari ko‘rmay qolgan Yusufning otasi Ya’qubni o‘rinli keltiradi. Ushbu fikrlarimizni tasdiqlagan holda ayrim misralarni ko‘rib chiqsak:

Bu g‘amkim, bizdadur, bu husn sizda,
Seni Yusuf desunlar, bizni Ya’qub.
***
Solib borma meni, ey Yusufi husn,
Bu kun Ya’qubdek bayt ul-hazanda.
***
Nogah nazarim chohi zanaxdoningg‘a tushti,
Bog‘landi ko‘ngul Yusufi zulfing rasanida.
***
Ey kamoli husn, Yusufdin jamoling yodgor,
Bo‘ldi hajringdin biaynih ko‘zlarim Ya’qubvor.
***
Ey Atoyi, gar ko‘zing Yaqub yanglig‘ ko‘rmasa,
Yonma ul Yusuf yo‘lindin, desalar ming choh-choh.
***
Garchi Yusufdek bo‘lubtur husn Misrinda Aziz,
Piri Kan’onmen ko‘zumga to‘tiyo rahm aylamas.

Bundan tashqari, shoir ijodida Ibrohim, Ismoil, Yunus, Sulaymon, Muso, Iso, Muhammad kabi payg‘ambarlar obraziga, Iso masihning onasi Maryam, Sulaymon payg‘ambarning mahbubasi Bilqis, Muhammad alayhissalomning xos muazzini Bilol, nevaralari Hasan va Husayn obrazlariga, hamda Jamshid, Kisro, Kayqubod, Iskandar kabi hukmdorlar, Layli va Majnun, Farhod va Shirin, Vomiq va Uzro kabi Sharq adabiyotida mashhur oshiq-mashuqlar obrazlariga murojaat qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

Yuqoridagi misollardan shuni anglash mumkinki, shoir Atoiy ijodini o‘rganish, targ‘ib qilish ahamiyatlidir. Shoir g‘azallarida qo‘llagan misralar, shaxs nomlari, ya’ni talmeh san’ati shu darajada o‘ziga xoski, g‘azallardagi ma’no va u keltirgan misollar uyg‘unlashib, jips holiga kelgan. Atoyi talmeh san’atidan

mohirona foydalanadi, so‘zlarni bir ipga marjon kabi tergandek tizadi, ma’no va mazmunga alohida e’tibor qaratadi. Uning g‘azallarini o‘qir ekanmiz, ortiqcha dabdavozlik, so‘z “isrofgarchiligiga” duch kelmaymiz. Yuqorida aytganimizdek, shoir kam so‘z orqali keng ma’no ifodalay olgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfiddin Sayfulloh (2008) “Devoni Shayxzoda Atoyi” Toshkent. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti.
2. Ergash Rustamov (1960) Otoyi Tanlangan asarlar. Toshkent.
3. Ergash Ochilov (2011) “Atoyi. Jondan aziz jonona” “Sharq”
4. Sayfiddin Rafiddinov (1995) “Majoz va haqiqat” Toshkent “Fan”.

ALISHER NAVOIY IJODIDA TAMSIL SAN’ATI (“G‘AROYIB US-SIG‘AR” DEVONI MISOLIDA)

Sunnatova Diyora Furqat qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi fakulteti 3-kurs
diyora3d@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tamsil san’ati va uning Alisher Navoiy lirikasida qo‘llanish mahorati haqida so‘z yuritiladi. Shoirning “G‘aroyib us-sig‘ar” devonidagi g’azallaridan baytlar keltirilib, namunalar beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Lirika, ilmi bade’, Alisher Navoiy, devon, g’azal, bayt, tamsil.*

Mutafakkir shoir Nizomiddin Mir Alisher Navoiy salkam olti asrdan buyon Sharq xalqlari adabiyoti tarixida ehtirom va e’zoz bilan tilga olinadi. Alisher Navoiy asarlari turkiy xalqlar orasida yaratilgan ijod namunalarining eng yuqori cho‘qqisi bo‘ladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Negaki, mumtoz adabiyotimiz tarixida ulug‘ shoirchalik sermahsul ijod qilganlarni topish mushkul. Alisher Navoiyning aynan lirikasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, unda ilmi bade’ning “ko‘p va xo‘p” qo‘llangan o‘rinlariga guvoh bo‘lamiz. Navoiy lirikasida, umuman klassik poetikada ilmi bade’ning o‘rganilishiga e’tibor oshganligi adabiyotshunoslarimiz tomonidan ta’kidlanmoqda. Shu bilan birga, bu masalada amalga oshirilishi zarur bo‘lgan holatlar mavjuddir. “Haqiqatan, hozirgacha o‘zbek she’rshunosligi ilmi bade’ sohasidagi merosimizni chuqur o‘zlashtirib olganicha

yo‘q. Bu birinchidan, badiiy san’atlarni she’rning g‘oyaviy mazmuni bilan bog‘lab tadqiq etilmaslikda, ikkinchidan, badiiy san’atlarning o‘rni va vazifasiga asosli ravishda diqqat qaratmaslikda, bir ma’lumotnoma tarzidagi hodisa, deb baholanishda ko‘rinadi” (Rajabova, 1996, 4-bet). Bizningcha ham, she’riy san’atlar yuzasidan faqatgina uning poetikada uchraydigan badiiy san’at sifatida qaralishi, ularning nomlanishi bilan bog‘liq nazariyalar va klassik she’riyatda uchrab turishi haqidagi nisbatan kichikroq darajadagi fikrlar bildirilishi emas, tahlillar asosida xulosalash zaruriyati mavjud. Ba’zi san’atlarni konteks bilan bog‘lagan holda, ularning shoir g‘oyasini ochib berish uchun qanchalik darajada xizmat qilayotganini o‘rganish lozim.

Navoiy lirik merosi yirik hajmli bo‘lishi bilan birga badiiy san’atlarning o‘rinli, zavqli qo‘llanishi bilan ajraladi. Shoir ijod olamini ilmi bade’siz tasavvur etish qiyin bo‘ladi. Boisi aynan ilmi bade’ ijodkorning badiiy mahoratini belgilaydi. Shu nuqtayi nazardan bu san’at she’riyatda so‘zni o‘z o‘rnida qo‘llash, mantiqan moslik, uslub, ifoda usuli, shakl, mohiyat va boshqa jihatlar borasida ijodkordan muhim mezonlarni talab qiladi. Buning uchun esa ijodkor ilmi bade’ning barcha turlaridan boxabar bo‘lmog‘i lozim. Shu maqsadda ham adabiyotimiz vakillari tomonidan ilmi bade’ masalalari aks etgan asarlar yaratilgan. Ularning dastlabki namunalari arab olimlari Nasr ibn Hasan (“Mahosinul-kalom”), Ibnul Mo‘taz (“Kitobul bade’’), Qudama ibn Ja’far (“Naqdush she’r”), Xatib Tabriziy (“Al-qofiya fil aruzi val qofaniy”)lar tomonidan ilmi bade’ va ilmi qofiyaning nazariy jihatlari yaratilgan (Rajabova, 1996, 7-bet). Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a asarining uchinchi qismi badiiy san’atlar tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda 97 ta san’at turi haqida so‘z boradi. Ilmi bade’ga doir nisbatan mukammalroq asar Ataulloh Husayniyning “Badoyi us-sanoyi” risolasi bo‘lib, unda ilmi bade’ tarixida ilk marta badiiy san’atlar uch katta guruhga: ma’naviy, lafziy va mushtarak san’atlarga ajratilgan.

Alisher Navoiy ilmi bade’ga doir maxsus asar yaratmagan bo‘lsa-da, o‘zining “Majolis un-nafois”, “Xamsa” va boshqa ko‘plab asarlarida ilmi bade’ning ba’zi nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tadi (Sabitova, 2021, 3-4-betlar).

She’riy san’atlarning har bir turi ijod mahsulining yanada go‘zalroq, jarangdorroq bo‘lishiga xizmat qiluvchi va his-tuyg‘uni ifodalovchi muhim omil sanaladi. Shoir o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni aniqroq ochib beradi. Shu kabi vazifalarni bajaruvchi ilmi bade’ning bir turi borki, biz uni tamsil deb ataymiz. Ushbu atamaning nomlanishi va qo‘llanilishi borasida bir necha fikrlar mavjud. Aynan Navoiy asarlari lug‘atida keltirilishicha, “tamsil” arabcha so‘z bo‘lib, “misol keltirish”, “o‘xshatish” ma’nolarini anglatadi (Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at, 1993). Uning o‘zagi “masala”, ya’ni “tamsil” so‘zi ham shu o‘zakdan ekanligi anglashiladi. Uning Yevropa adabiyotshunosligida bir necha istilohlari borligi ma’lum. “Parallelizm”, “psixologik parallelizm” kabilar shular jumlasidan. Shu bilan bir qatorda ba’zi adabiyotimiz vakillari tomonidan “tamsil” istilohi o‘rnida “muvozana” istilohining qo‘llanilishi ham uchraydi. Ammo “muvozana” atamasining lug‘atda anglashilgan ma’nosi mos bo‘lsa-da, ushbu badiiy san’atning mohiyatini to‘liq ifodalamaydi. Bundan tashqari aynan shu nom bilan yuritiluvchi yana bir san’at turi borligi chalkashlikni yuzaga keltirishi mumkin, degan fikrlar mavjud (Rajabova, 1996, 19-21-betlar).

Tamsil shunday she’riy san’atki, baytda ifodalangan fikrga hayotiy bir hodisa yoki voqea dalil sifatida keltiriladi. Tamsilning boshqa she’riy san’atlar bilan o‘xshashlik jihatlari uchraydi. Masalan, husni ta’lil bilan solishtiradigan bo‘lsak, tamsil san’atida fikr voqelikdan, narsa-hodisalarning o‘zaro munosabatlari borligi yoki yo‘qligiga va bu voqelikning ob’yektiv elementlari orasidagi munosabatlarning o‘tkinchi, doimiyligi, tasodifiyligi haqida borar ekan, unda fikr, tushuncha shaklida emas, hukm shaklida ifodalanadi. Mazkur san’atda faqat rost bo‘lgan ko‘rsatmalar beriladi. Holat, ruhiyat, usul, tarz, xususiyat chin fikr yo‘sinida asoslanadi. Husni ta’lilda esa rost bo‘lmagan xayoliy dalillar keltirilib, holat, ruhiyat, fikr mubolag‘ali, chiroyliroq asoslanadi.(Rajabova, 1996, 29-bet) Biror bir she’riy san’atni o‘rganishda yakka o‘zining ta’rifini berishdan ko‘ra, uning boshqa san’atlar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini ko‘rib, solishtirish qaysi san’at bo‘lishidan qat’iy nazar, uning mohiyatini nisbatan yaxshiroq tushunishda

samaralidir. Klassik poetikada tamsil san'atidan foydalanilgan o'rinlar ko'plab uchrashi ba'zi adabiyotshunoslarimiz tomonidan o'rganilgan.

Navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov "Navoiy lirikasi" kitobida Alisher Navoiy g'azallari til va uslub jihatlari, badiiy san'atlardan foydalanish o'rinlari haqida yozar ekan, bu masalaga kengroq to'xtaladi. Jumladan:

Jununi o'lsa damodam taajjub etmangkim,

Ko'zimga ul pari o'lur zamon-zamon paydo –

degan Navoiyning baytini olim shunday sharhlaydi: oshiq goho-goho jununi qo'zib, uni bezovta qilishi haqida gapiradi va buni ko'rganda odamlarning taajjublanmasliklarini so'raydi. Chunki jununi qo'ziganda uning ko'zi oldida yor obrazi paydo bo'lar emish. Bu bir narsaga nihoyatda berilib , maftun bo'lib qolgan kishida yuz berishi mumkin bo'lgan g'ayrioddiy ruhiy holatning aniq tasviridir (Hayitmetov, 2015, 116-bet).

Biz Alisher Navoiyning "G'aroyib us-sig'ar" devonidagi tamsil san'ati qo'llangan o'rinlarni o'rganish davomida quyidagilarni aniqladik:

Ikki barmoq birla tuttum la'lin ul ruxsor aro,

Uylasin bulbul tutar gul yafrog'in minqor aro.

(G'aroyib us-sig'ar, 39-bet.)

Ushbu baytdagi la'l so'zi lab ma'nosini, minqor esa tumshuq ma'nosini anglatadi. Yor yuzidagi labini ikki barmoq bilan tutdim, bu bulbulning tumshug'i bilan gulning yaprog'ini tutgandek, deya birinchi misradagi fikrini tabiat bilan bog'liq bo'lgan unsurlar, ya'ni gul, yaproq va bulbul ishtirokidagi hodisa bilan chiroyli dalillaydi. Xuddi shu g'azalning uchinchi baytidan yana bir misol:

Ko'hi g'am tortarg'a xasdek jism ila bel bog'ladim,

Ostig'a qolmishmen andog'kim samon devor aro.

(G'aroyib us-sig'ar, 40-bet.)

Lirik qahramon g'am tog'ini (ko'hini) tortishga cho'pdek (xas) jismim bilan bel bog'ladim, deydi. Ya'ni, tog'dek g'amini cho'pdek jussasi bilan tortishga ahd qilgan va lekin shu ahd oqibatida katta bir devor ostida kichik somon kabi qolib ketganligini ta'kidlaydi.

Devonning 27-g‘azali matla’sida ham tamsil san’ati namunasini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

Dahr elidin naf’ agar yo‘qtur, zarar ham bo‘lmasa,

Marham ar yo‘qtur, ko‘ngulga nishtar ham bo‘lmasa.

(G‘aroyib us-sig‘ar, 44-bet.)

Lirik qahramon agar dunyo ahlidan zarar bo‘lmasa, foyda ham yo‘qdur. Go‘yoki ko‘ngilga nishtar bo‘lmasa, malham yo‘q degan dalilni keltirib o‘tmoqda. Ikkinchi misrada “ar” so‘zi ishlatilgan. Bu “agar” ning qisqargani. Klassik adabiyotda vazn talabi bilan *agar* so‘zini *ar* tarzida qisqartirish keng odatdir. (Navoiy asarlari lug‘ati, 1993, 22-bet). Bunda shoirning biz ahamiyat bermaydigan hayotiy kuzatishlarni mahorat bilan oqqa muhrlaganiga guvoh bo‘lamiz.

Yana bir misol:

Za’fim ichra qasri tomig‘a tayang‘andekdurur,

Har somon ko‘rsang yopushqan ko‘yining devorida.

(G‘aroyib us-sig‘ar 43-bet)

Ushbu baytdagi za’f so‘zining ma’nosi xastalik, bemorlik ma’nosini bildirishi ma’lum. Baytda lirik qahramon o‘zini somonga qiyos etgani bilan bir qatorda yorning sifatini shunchalik ulug‘layapti-ki, oddiy bir devorni qasrning eng yuqori qismi - tomi deb tasavvur etyapti. Agar yor uyining devorida har yopishgan somonni ko‘rsang, xuddi xastaligim ichra qasr tomiga tayangandek tur, ya’ni har bir somonni yorning devoriga yopishib turganini ko‘rgan vaqtda mening xastaligim shu qasr tomiga tayanib turgandek tasavvur qil, deydi.

Yoki:

Labing hajrinda xokiy tan aro ko‘nglimni habs ettim,

Nechukkim jonsiz elni rasm erur tufroqqa topshurmoq.

(G‘aroyib us-sig’ar, 256-bet.)

Bu o‘rinda shoir jamiyat va xalq bilan bog‘liq rasm-rusumlardan birini keltiradi: birinchi misrada ma’shuqa labining firoqi ya’ni ayrilig‘ida tuproqdan bo‘lgan tandagi ko‘nglini ko‘mganligini aytib, keyingi misrada jonsiz odamni

tuproqqa topshirish rasm bo‘lganligi bilan yuqoridagi so‘zlarini o‘rinli tarzda dalillaydi.

Xulosa tarzda aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy nafaqat “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida, balki butun bir lirikasida tamsil san’atidan unumli tarzda foydalangan va shu yo‘l bilan g‘azallarini o‘zgacha did bilan ziynatlantirgan. Biroq hozirgi kunda Navoiy ijodiyotining o‘rganilishida tamsil san’ati uchragan o‘rinlar chuqur o‘zlashtirilib olinganicha yo‘q. Ayniqsa, “G‘aroyib us-sig‘ar” devonida tamsildek go‘zal bir badiiy san’atning ko‘plab namunalari o‘rin olgan. Nazm tilini osonlashtiruvchi, uning xalqqa tushunarli tarzda yetkazib berilishiga bevosita xizmat qiluvchi tamsil san’atining keng miqyosda o‘rganilishi barchamiz uchun muhim. Shu nuqtai nazardan tamsil san’ati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tadqiqot ishlarini olib borish adabiyot olamiga beqiyos hissa bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. (1988) *Mukammal asarlar to‘plami*. Uchinchi tom. Toshkent. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti

2. Hayitmetov, A. (2015) *Navoiy lirikasi*. Toshkent. “O‘zbekiston” NMIU.

3. *Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at,* (1993). Toshkent

4. Rajabova, B. (1996) *O‘zbek ksassik she’riyatida tamsil san’ati*. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

5. Sabitova, T. (2021) *Navoiy ijodida badiiy san’atlar*. Academic research in educational sciences.

FOYIQ DEVONI MATNIY TADQIQI

Muxlisa Vohidova Abdumalik qizi
ToshDO‘TAU Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik
2-bosqich magistranti muxlisavohidovaaz@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Muhammad Mahdumiy Namongoniy – Foyiq devoni haqida ilmiy tadqiqot davomida olingan xulosalar bayon qilingan. Adib Qo‘qon adabiy hayotida ko‘zga ko‘ringan ijodkorlardan bo‘lib, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashab o‘tgan. Shoirning O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan devoni asosida tahlil-xulosalar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *Muhammad Mahdumiy Namangoniy – Foyiq ijodi, devoni bo‘yicha mulohazalar.*

Abstract. *This article describes the first observations about the divan (collection of poems) of Muhammad Mahdumi Namangani - Foyika. The Kokand poet, one of the brightest creators in the literary life of the country, lived in the second half of the 19th - early 20th centuries. Preliminary analyzes were made on the basis of the poet's sofa, stored at the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of Uzbekistan.*

Keywords: *Muhammad Makhdumi Namangani - analysis of Foyik's poems, divan (collection of poems).*

Sharq islom adabiyotida she’rlar to‘plami – devon deyilib, devonchilik an’ana sifatida milodiy IX –XI asrlarda shakllana boshladi va XII asrga kelib uning rosmana namunalari paydo bo‘ldi. Ilk devonlarning hajmi u qadar katta bo‘lmay, vaqt o‘tgan sari salmog‘i ham ortib bordi.Bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan “Devoni Foyiq” ham turkiy tilda yozilgan devonlardan biridir. Ushbu devon muallifi Muhammad Mahdumiy Namangoniy bo‘lib, u Foyiq taxallusi bilan ijod qilgan. “Foyiq” – arab tilida “yaxshi” degan ma’noni anglatadi. U haqida adabiyotlarda ma’lumot deyarli uchramaydi.

Oldingi maqolamizda aytgamizdek, Foyiq ijodi keng jamoatchilikka ma’lum emas. Hozirgacha o‘rganilmagan. Imkon qadar uning devonini o‘rganishga, sharhlashga harakat qilamiz. Hozirgacha qilgan tadqiqotlarimizda shunday xulosa chiqdiki:

1. Birinchi sahifada ushbu so‘zlar uchraydi:



(Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 1/А bet)

“Kitobi Muxammad Yorjon To‘ramiz”. Ya’ni, Foyiq o‘zbeklarning 92 urug‘idan biri hisoblanmish “to‘ra”lardan bo‘lgan.

2. Devon an’anaviy hamd bilan boshlangan.



(Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 1/А bet)

Allo yo matla’i lutfu-karam yo rohati dilho,

Bo‘lub miftoh vujudingdan basi maftuh mushkulho.

3. Hamd g‘azallarning boshlanishi alif **(ا)** bilan boshlangan. (yuqorida berilgan g‘azalda ham bu holatni ko‘rishimiz mumkin)

4. Har bir g‘azal maqtasida shoirning taxallusi qo‘llangan.

(Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 4/А bet)

Foyiqo jonimg‘a minnat faqr ahlin xizmati,

Ma’n qilma gar mani dayr ichra ko‘rsang zohido.

5. Devonning 5B sahifasidan muxammas va mustazodlar boshlangan va Gadoyi, Alisher Navoiy, Lutfiy, Fuzuliy g‘azallariga tatabbu’ bog‘langan. Har bir tatabbu’ 28 baytdandir.

6. Hamd va na’tdan keyingi g‘azallar tili soddali va o‘ynoqiligi bilan farqlanadi.

Biz Foyiq devonining ilmiy xususiyatlariga ko‘ra tasniflashda quyidagilarni e’tiborga oldik. Bunda asar nomi, muallifi, boshlanishi va oxiri, tarkibiy tuzilishi, matnning to‘liqligi, nusxani ko‘chirgan kotib, ko‘chirilgan yili va o‘rni,

shuningdek, boshqa tavsiflari qo‘lyozmaning ilmiy xususiyatlari sifatida qayd etildi.

Kitobat xususiyatlarining tavsifida esa qo‘lyozma nusxaning o‘lchami, varaqlar soni, muqovasi, qog‘ozi, siyohi, yozuv turi, muhr yoki bezaklari, satrlar soni, poygirlarning qo‘yilishi, saqlanish holati kabi tashqi belgilari bayon etildi.

Devon matnining boshlanishi: asar boshidagi basmala



(Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 1/А bet)

BISMILLAHI AR-ROHMANI AR-ROHIM

Undan keyin hamd



So‘ng na’t bilan boshlangan.



Devon eski o‘zbek yozuvi alifbo tartibi bo‘yicha ا (alif) harfi bilan tugagan qofiyali g‘azallar bilan boshlangan.

Devonning tarkibiy tuzilishi: devon g’azal, g‘azali qit’a, murabba’ muxammas va ruboiy, mulamma janrlaridagi she’rlardan iborat.

Matnning to‘liqlik darajasi: devon qo‘lyozmasining boshi va oxirgi betlari to‘liq saqlangan, lekin yozuvi savodli yozilmagan. Hoshiyada ba’zi o‘rinlarda asosiy matndan farq qiluvchi siyohdagi xat namunalari kuzatildi.

Qo‘lyozmaning o‘lchami: 13.5x22sm.

Muqovasi: muqova qattiq kartondan ishlangan, rangi jigarrang va u devonning dastlabki asl muqovasi emas, balki devon topilgandan keyin ta’mirlab qoplangan muqova bo‘lishi mumkin. Varaqlar jami 84 sahifadan iborat.

Qog‘ozi: och yashil rangli qo‘qon qog‘ozi. Sarlavha va matnlar qora siyohda yozilgan, ba’zi o‘rinlarda qizil siyohdan ham foydalanilgan. Bu holat ko‘pincha nasriy matnda baytlarni ko‘chirishda, oyat, hadis, yoki tariqat vakillari nutqlarida uchraydi. Qo‘lyozma mayda nasta’liq xatida ko‘chirilgan.

Muhr yoki bezaklari: devonning 1 a varag‘ida kirill yozuvida O‘zbekiston Respubilkasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik Instituti yozuvlari o‘rtasida №973 aks etgan to‘rtburchak muhr mavjud.



Satrlar soni: asar matni 1079 qatordan iborat, shundan 84 bet 13 qatordan matn joylashtirilgan.

Poygirlarning qo‘yilishi: yangi betning birinchi so‘zi poygir sifatida kitob so‘nggiga qadar izchil qo‘yilmagan, ba’zi sahifalarning pastki qismi yirtilgani sabab poygirlarni ham o‘qishning iloji bo‘lmadi. Ayrim varaqlarning burchak va pastki qismlari yemirilgan holatda saqlangan, sahifalar o‘rni almashgan. Oxirgi sahifalar va boshdagi sahifalar yetib kelmagan.

Foyiq devoni devon tuzishning an’anaviy talablari asosida g‘azallar radifi, qofiyasi tugagan alifbo tartibida tuzilgan. Devon nasta’liq xati bilan sarg’ish qog’ozga ikki ustunda, qora siyohda ko‘chirilgan. Xatolar ustidan chizilib hoshiyaga yozilgan. Qo‘lyozma sahifalari she’rlar ko‘chirilgan paytda tartibga solinmagan. Varaq pastidagi poygirlar yo‘q. Sahifalarga raqamlar bilan tartib berilgan, bu tartibni Sharqshunoslik Qo‘lyozmalar fondidagi maxsus xodimlarining o‘zi belgilab chiqqan bo‘lsa kerak.

Ko‘rinadiki, qo‘lyozma sahifalari oralaridan tushib qolgan, varaqlar hisobga olinmasdan, sahifalarga raqamlar bir chetdan qo‘yib chiqilgan. Qo‘lyozma 84-bet bilan tugagan.

Devonda debocha yo‘q. Shu sababli devonga kiritilgan she’rlarning xronologiyasi ma’lum emas. Bu hol shoir ijodiy yo‘lining tadrijiy o‘sishini kuzatishga imkon bermaydi. Lekin shunga qaramasdan, ba’zi mavjud ma’lumotlar Foyiqning dunyoqarashi har doim bir xilda bo‘lmaganligidan dalolat beradi. Foyiq ijodida, uning ijtimoiy qarashlarini bayon qilgan fikrlar nihoyatda ko‘p bo‘lib, ular shoirning deyarli ko‘pchilik asarlarida uchraydi. Fikrimizcha, shoir aruzning boshqa janrlarida ham ijod qilgan. Devondagi betakror g‘azallar va tengsiz payravlar Foyiqning iste’dodli, salohiyatli va o‘z davrining yetuk shoiri ekanidan dalolat beradi.

Shu kungacha qilgan tadqiqotlarimizga suyangan holda xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Foyiq – Qo‘qon adabiy muhitining vakili, o‘z davri adabiy jarayoni bilan hamnafas ijod qilgan shoir. Qo‘qon adabiy muhiti vakillari ijodiga xos xususiyatlar Foyiq ijodi mundarijasini ham belgilaydi. Foyiq adabiyot maydoniga katta tayyorgarlik, nazariy bilim va tajriba bilan kirib kelganligi uning devon tuzish tartibidan, yozgan she’rlari mazmuni va unda foydalanilgan nozik san’atlardan yaqqol sezilib turadi. U tinimsiz o‘z ustida ishlagan, Sharq adabiyoti klassik ijodkorlari ijodidan bahramand bo‘lgan, ularning ijodiy an’analarini o‘zlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘raboyev O. (2011). Navoiy devonlarining Qo‘qon nusxalari va ularning ba’zi xususiyatlariga doir. Alisher Navoiy ijodiy va ma’naviy me’rosining olamshumul ahamiyati. Xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston ,132-134-betlar.

2. Қаюмов А. (1959). Махмур. Шеърлар. Т. Ўзбекистон давлат бадиий адабиёт нашриёти. 56 б.

3. Девони Фойиқ. Қўлёзма. Ўз ФА ШИ. Инв № Р 973. 84 bet.

4 R. Zohidov. (2020). Ilmiy-ma’rifiy asar tahqiqi. – Toshkent: Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi. 11-12.

AHMAD TABIBIY SHE'RIYATINING MAVZU KO'LAMI

Yunusova Sayyoraxon Mo'minjon qizi
O'zbek filologiyasi fakulteti 4 - kurs
abdumalikovasayyora@gmail.com.
Ilmiy rahbar: Qo'ldosh Pardayev.

Annotatsiya. *Ahmad Tabibiy XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Xiva adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan istedodli ijodkorlaridan biridir. Tabibiy qisqa hayoti davomida boy meros qoldirdi. Shoir turli janrlarga oid lirik asarlar yaratgan. Ammo hanuzgacha ijodkor asarlari tabdili to'liq amalga oshirilib, nashr etilgan emas. Ularni adabiyotshunoslik, adabiy manbashunoslik va mantshunoslik sohalari nuqtai nazaridan o'rganish dolzarb ahamiyatga molik. Maqolada shoir lirik asarlari, asosan, g'azal va ruboiylari mavzular ko'lami ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ahmad Tabibiy, shoir, devon, janr, g'azal, ruboiy, asarlarining mavzu ko'lami, makon va zamon, adabiy muhit.*

Abstract. *Ahmad Tabibiy is one of the talented creators who had a place in the Khiva literary environment of the late 19th and early 20th centuries. The physician left a rich legacy dupring his short life. The poet created lyrical works of various genres. However, the artist's works have not yet been fully realized and published. It is of urgent importance to study them from the point of view of literary studies, literary source studies and anthology. The article shows the range of themes from the poet's lyrical works, mainly ghazals and quatrains.*

Keywords: *Ahmad Tabibiy, poet, genre, ghazal, quatrain, scope of his works, space and time, literary environment.*

Ahmad Tabibiy Xorazm adabiy muhiti ijodkorlaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dostonnavis, taskiranavis, tarjimon, tabib, bir so'z bilan aytganda serqirra ijodkordir. Tabibiy haqida Xodim quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: "Ahmadjon Tabibiy besh ilmga ega edi: birinchidan, yaxshi shoir edi. Muhammad Rahimxonning buyrug'i bilan "Majmuatush-shuaro" ni tashkil qildi. Ikkinchidan yaxshi ramil bilar edi. Uchinchidan, yaxshi tabib edi. To'rtinchidan, yaxshi

xushxat edi. Beshinchidan, nota ishlarini yaxshi bilar edi” (Bobojon Tarroh Azizov-Xodim. Xorazm navozandalari. -T.:G‘ofur G‘ulom,1994, 76-bet).

Tabibiy badiiy adabiyotning deyarli barcha turida o‘ziga xos asarlar yaratdi. Mumtoz adabiyotning g‘azal, ruboiy, tazkira, fard, qit’a, murabba’, muxammas, musaddas, musamman, mustazod, musabba’, mutassa, muashshar, qasida, tarje’band, soqiynoma, dahrnoma kabi bir qancha namunalarida ijod qildi. Tabibiy zullisonayn shoir hisoblanadi. Asarlarini turkiy va forsiy tillarda yozgan. Shoir o‘zining qirq ikki yillik qisqa umri davomida beshta devon tartib bergan. “Tuhfatus-sulton”, “Munisul-ushshoq” (3460), “Hayratul-oshiqin” (3460), devonlari o‘zbek tilidagi she’rlardan, “Mir’otul-ishq” (928), “Mazharul-ishtiyoq” (7083) devonlari esa fors-tojik tilidagi she’rlaridan tashkil topgan. Devonlarini tuzishda har bir janrdagi lirik asarlarini tartib bilan, harflar ketma-ketligida keltirgan. She’rlari mazmuni ham shunga monand shaklda berilgan. O‘zbekiston fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik imstituti fondida 3461, 6226, 3460, 3461 inventar raqamlari ostida saqlanayotgan qo‘lyozma manbalar shoir devonlarining to‘liq, mukammal nusxalari hisoblanadi. Dostonnavis sifatida “Vomiq va Azro” dostoni, tazkiranavis sifatida esa “Majmuat ush-shuaroiy payravi Feruzshohiy” asari muallifidir. Ahmad Tabibiy tarjima qilgan Fuzuliyning “Haft jom” asari orqali esa uning mohir tarjimon ekanligini bilishimiz mumkin.

Ahmad Tabibiy devonlariga kiritilgan g‘azal va ruboiylarini Allohga hamd bilan boshlaydi. Allohning buyukligi va yaratuvchi ekanligini qalamga oladi. Jahonni ikki harfdan paydo qildi.O‘n sakkiz ming olamni yaratdi. Do‘zaxu jannat, insu jin va arzi samo ungagina tegishli deydi.

Hamd o‘lsun ongaki bor qodiri yakto,
Qildi iki harfdin jahonni paydo,
Ne ushbu jahonki o‘n sakkiz ming olam,
Bil do‘zaxi jannat, insu jin, arzi samo.

(Amonov Sh. Ahmad Tabibiy ruboiylari haqida. Filologiyaning umumnazariy masalalari -T., 2020, 35-bet).

Ahmad Tabibiy lirikasi mavzu ko‘lamini ishq-muhabbat, ilm-ma’rifat, yaxshilik, odamiylik, odob-axloq, zamondan nolish, xalq hayot tarzi masalalari tashkil qiladi. Adabiyotshunos olim Begali Qosimov ham shoir ijodi mavzu ko‘lami xususida quyidagicha yozadi: “Ahmad Tabibiy ijodida ma’rifat mavzui, ma’rifatparvarlik g‘oyasi muhim o‘rin egallaydi. Shoir hayotni tubdan yaxshilovchi, jamiyatni, mamlakatni qoloqlikdan, zulmatdan qutqaruvchi, xalqni farovon hayotga yetaklovchi yo‘l - ma’rifat deb bildi. Shoirning fikricha, ilm-ma’rifat johilni, g‘ofilni jaholat uyqusidan uyg‘otadi, uning hayotiga fayz bag‘ishlaydi. Tabibiy ilmni targ‘ib qilar ekan, uni egallash uchun qunt bilan mehnat qilish zarurligini ta’kidlaydi” (Qosimov.B va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - T.: Ma’naviyat, 2004, 90-bet).

Shoirning “Ma’rifat” radifli g‘azali aynan shu mavzuda yozilgan:

Kimdakim ahli jahondin bor ilmu ma’rifat,
Qilg‘usidur oni barxurdor ilmu ma’rifat.
Bu ikov ba’zig‘a lekin bu zamon bordur nihon,
Shukur kim aksarg‘adur izhori ilmu ma’rifat.
G‘aflatu jahl uyqusig‘a g‘arq bo‘lgon shaxsni
Fayz birla ul qilur bedor ilmu ma’rifat.
Ey birodar, olimu orif bo‘lurg‘a jahd qil,
To yeturgay ko‘nglunga anvor ilmu ma’rifat.
Ilm birla ma’rifat ta’limini tark etmagil,
Hosil et borincha jon, takror ilmu ma’rifat.

(Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968, 17-bet).

Shoir ijodida yetakchi mavzulardan biri bu ishq-muhabbat mavzusi hisoblanadi. Ishqiy mavzudagi she’rlari yorga bo‘lgan muhabbati, hijron, yor vasli, ayriliq haqida so‘z boradi. Tabibiy g‘azallarida yoriga murojaat qilishda “mohi tobonim”, “ sarvi xiromonim”, “zulfi parishonim” singari undalmalardan foydalangan.

Ey sabo, jonu dilim dardini jononimg‘a ayt,
Tiyra shom o‘lg‘onlig‘imni mohi tobonimga ayt.

Fitnau oshublar tushg‘anligini ko‘ngluma

Asru giryonlig‘ bila ul chashmi fattonimg‘a ayt.

(Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968, 23-bet).

Yorning tashqi go‘zalligini ta’riflar ekan “labi g‘uncham”, “yuzi gulbargi xandonim” singari go‘zal o‘xshatmalarni keltiradi.

Hajr za’fi birla yurmakka majolim yo‘q erur

Oni albatta qadi sarvi xiromonimg‘a ayt.

Yig‘lamoq subhu maso ko‘zumga odat bo‘lg‘anin

Ul labi g‘uncha, yuzi gulbargi xandonimg‘a ayt.

(Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968, 23-bet).

Tabibiy ijod qilgan yillari Xiva xonligining Rossiyaga qaram bo‘lib qolgan davriga to‘g‘ri keladi. Qaramlik davrida xonlik aholisi og‘ir ahvolda, nochor hayot kechirgan. Xonlikdagi amaldorlar va mustamlakachilar tomonidan aziyat chekkanlar. O‘z davrida ijod qilgan ijodkorlar singari Tabibiy ham bu hodisalarga befarq bo‘lgan emas. G‘azal va ruboiylarida davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar badiiy lavhalarda, teran fikrlar bilan ifodalandi.

G‘am bitgali olsam qo‘lima gar qog‘oz,

Ko‘z yoshim oqib bo‘lg‘usidur tar qog‘oz,

Emdi ani jon safhalig‘i yorg‘utadur,

Kim loyiq emas oning uchun har qog‘az.

(Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968, 58-bet).

Bu olam arokim hech kishi xurram emas,

Ya’niki hama ahli jahon beg‘am emas,

Har kimsaki anduh aning ko‘nglida yo‘q,

Tahqiq bil ani yaxshikim, odam emas.

(Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968, 58-bet).

Shunday ziddiyatli davrda doim shukur qilib, taqdiridan rozi bo‘lib yashashi uchun Allohga “sabrimni fuzun ayla” deya iltijo qiladi.

Hamdingg‘a tilimni doim etgil go‘yo,

Shukringg‘a dilimni moyil et subhi maso,

Sabrimni fuzun ayla berur chog‘i balo,

Taqdiringa hosil et, zamirimda rizo.

(Amonov Sh. Ahmad Tabibiy ruboiylari haqida. Filologiyaning umumnazariy masalalari -T., 2020, 36-bet).

Xullas, shoirning lirik janrdagi namunalari misolida uning lirikasi mavzu ko‘lamini, so‘z qo‘llash mahoratini, davrdagi voqea - hodisalarga bo‘lgan munosabatini yoritishga harakat qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tabibiy Tanlangan asarlari. -T.: G‘ofur G‘ulom, 1968.
2. Qosimov.B va boshqalar. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - T.: Ma’naviyat, 2004, 85-93-betlar.
3. Qosimov.B Izlay-izlay topganim. -T.: Adabiyot va san’at, 1983.
4. Bobojon Tarroh Azizov-Xodim. Xorazm navozandalari. -T.:G‘ofur G‘ulom,1994, 75-78-betlar.
5. Amonov, Shermuhammad. 2020. “Ahmad Tabibiy ijodi va uning “Munisu-l-ushshoq” devoni nusxalari”. Oltin bitiklar. 1: 22-42 betlar
6. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy ruboiylari haqida. Filologiyaning umumnazariy masalalari -T., 2020, 34-37-betlar.

VIII BOB

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

“QO‘LYOZMALAR QIROATXONASI” - ESKI O‘ZBEK YOZUVINI O‘RGANUVCHILAR UCHUN MOBIL ILOVA

Abdusharipova Mahliyo Xusnuddin qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
4- kurs talabasi maxliyoabdusharipova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Qo‘lyozmalar qiroatxonasi” nomli mobil ilova va uning ahamiyati haqida gap boradi. Mazkur mobil ilova eski o‘zbek yozuvini o‘rgatuvchi dasturdir. Quyida bu ilovaning ahamiyati, tarkibi haqida batafsil ma’lumot beramiz.*

Kalit so‘zlar: *eski o‘zbek yozuvi, matnshunoslik, “Qo‘lyozmalar qiroatxonasi” nomli mobil ilova.*

Abstract: *This article talks about the Handwritten Reading Room mobile application and its importance. This mobile application is a program that teaches the old Uzbek script. Below we provide detailed information about the importance and content of this application.*

Keywords: *Old Uzbek writing, textual criticism, mobile application “Qo‘lyozmalar qiroathonasi” (“Handwritten reading room”)*

Eski o‘zbek yozuvi – arab alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvi bo‘lib, IX asrdan XX asrgacha bo‘lgan 11 asr davomida qo‘llanilgan. Shu davr mobaynida yozilgan asarlarni o‘rganish, tadqiq qilish, bugungi yozuvimizga o‘girish va ommalashtirish bugungi kunimizning dolzarb masalalaridandir. Ajdodlarimizdan qolgan boy ma’naviy merosni tadqiq etishimiz, ularning ilm-fanda erishgan yutuqlari va badiiy asarlari bilan tanishishimiz orqali o‘zimizga qanchadan qancha foydalar olamiz. “Mumtoz adabiyotda so‘zning muqaddas sanalishi va uning asosida mukarram bir san’at vujudga kelishi so‘zga Yaratganning buyuk mo‘jizasi degan munosabatdadir”-deydi H. Boltaboyev(1, 9).

Prezidentimiz ham manbashunoslik va matnshunoslikka alohida e’tibor qaratmoqdalar. Zero, qadimiy yozma manbalarni o‘rganish, tabdil qilish va ommalashtirish bilan biz o‘z tariximizni, bobolarimizning hayoti va ijodi bilan bog‘liq ma’lumotlarni tiklaymiz. Ularning yutuqlarini hayotimizga tatbiq qilamiz.

Ilovadan foydalanishning ahamiyati:

- qo‘lyozma asarlarni o‘rganishga qiziqish ortadi;
- qaysi hududda yashashidan qat’i nazar qo‘lyozma manba bilan ishlash imkoni vujudga keladi;
- qo‘lyozmalarga ziyon-zahmat yetmaydi;
- vaqt va naqd mablag‘ tejaladi;
- tadqiqotlarga yana-da keng yo‘l ochiladi;
- tarix kitoblarda nomi zikr qilinmagan, lekin asarlari Qo‘lyozmalar fondida turgan olimlar-u adiblarimiz hayoti haqidagi ma’lumotlar tiklanadi;
-ilovadan mustaqil o‘rganuvchilar ham tadqiqotchilar ham bemalol foydalana oladi.
- ilmiy tadqiqotlar ko‘payadi;
- ajdodlarimiz merosi qayta tiklanadi;
- matnshunoslik sohasiga qiziqish kuchayadi;
- yangi manbashunoslar shakllanadi;
- ko‘plab asarlar tabdil qilinadi;
- ajdodlarimizning ilmiy va badiiy merosi ommalashtiriladi;
- plagiatlikning oldi olinadi, zero, tadqiqot manbalari ko‘payadi;
- Asl manba bilan ishlash imkoni yaratiladi.

Ilovani asoslash. Ilovada hal etilishi ko‘zda tutilgan muammo:

Bugungi kunda manbashunoslik va matnshunoslik sohasida salmoqli ishlar olib borilyapti. Lekin Qo‘lyozmalar fondida hali o‘qilmagan minglab qo‘lyozmalar bor. Xalqimiz qo‘lida (uyida) ham eski o‘zbek yozuvidagi manbalar talaygina. Ularni o‘qish, tabdil etish ishlarini jadallashtirish uchun eski o‘zbek yozuvni o‘qiy oladigan insonlarga talab katta. Bu talabga taklif o‘laroq, biz “Qo‘lyozmalar qiroatxonasi” ilovasini yaratishga qaror qildik. Ilova orqali tadqiqotlarga yana-da keng yo‘l ochiladiva tarix kitoblarda nomi zikr qilinmagan, lekin asarlari Qo‘lyozmalar fondida turgan olimlar-u adiblarimiz hayoti haqidagi ma’lumotlar tiklashga erishiladi.

Ilovaning maqsadi va vazifalari:

- Mustaqil tarzda o‘rganuvchilarga eski o‘zbek yozuvini o‘rganish va asar tabdil qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam berish;

- Ilmiy izlanish olib borish, tadqiqotlar qilish imkoniyatini kengaytirish;

- Qadimiy yozma manbalarni keng jamoatchilikka taqdim etish va o‘rganilishini ta’minlash;

- Toshbosma asarlarni va qo‘lyozma asarlarni o‘ziga jamlagan elektron dastur (apk)ni talabgorlarga (matnshunos, manbashunos, adabiyotshunos va har qanday tadqiqotchilarga) yetkazish;

- Hali o‘rganilmasdan turgan merosni tadqiq qilishni ommalashtirish va yangi tadqiqotlar uchun elektron baza yaratish ushbu ilovaning maqsadlaridandir. Shuningdek, ushbu ilova mustaqil tarzda eski yozuvni o‘rganishni istagan yoki o‘zida qadimiy yozma manba bor bo‘lgan kishilarga ham eski o‘zbek yozuvini oson o‘rganib olish va asar o‘qishni va tabdil qilishni o‘rganishga yordam beradi.

- qo‘lyozmalarni ortiqcha vaqt va mablag‘ sarflamasdan kerakli auditoriyaga yetkazib berish va bu orqali ham tadqiqotchilarni manba bilan ta’minlash, ham o‘rganilmay qolgan merosimizni tadqiq qilishga ko‘maklashish;

- qo‘lyozma manbalarni o‘qishni o‘rgatish va ilmni keng targ‘ib qilish;

- yoshlarni bu sohaga qiziqishini oshirish va bobolarimizni o‘rganilmasdan qolgan merosini ommalashtirish;

- eski o‘zbek yozuvini o‘qishni biladigan matnshunoslarni shakllantirish;

- qadimiy yozma manbalarni tadqiq qilish ishlarini kengaytirishdan iborat.



Tadqiqotning ilmiy yangiligi, qo‘yilgan vazifalarni hal etish va rejalashtirilgan natijalarni olish imkoniyatlari: Eski o‘zbek yozuvi bo‘yicha to‘g‘ridan to‘g‘ri tabdil qilish imkonini beradigan hech qanday dastur yoki bu yozuvni o‘qishni o‘rgatuvchi ilova hali yaratilmagan edi, ilovamiz bu sohadagi ilk namunadir. Tabdil qilish ishlari matnshunoslar tomonidan amalga oshirmoqda, lekin bu yozuvni o‘qishni biladigan jamoa kamchilikni tashkil etgani bois o‘n asrdan ziyod vaqt mobaynida foydalanilgan yozuvdagi manbalarni o‘qib-o‘rganish, ularni tabdil qilish, ommalashtirish ishlari sekinlik bilan bormoqda. Biz yaratgan ilova ushbu yozuvga qiziqish uyg‘otishga, qadimiy asarlarni, keng jamoatchilikka noma’lum asarlarni, ommalashtirishga va bizning o‘lkamizda yashab o‘tgan buyuk ijodkorlar, olimlarning hayoti va ijodiy faoliyati to‘g‘risida ma’lumotlarni tiklashga yaqindan yordam beradi.

Bu ilova mustaqil tarzda o‘rganuvchilarga ham shu sohada ma’lum bilimga ega bo‘lgan tadqiqotchiga ham birdek foydali bo‘ladi.

“Qo‘lyozmalar qiroatxonasi” mobil ilovasi quyidagi tarkibga ega:

1. Videodarslar.
2. Darsliklar.
3. Tabdil qilishni amaliy o‘rganish.
4. Test topshiriqlar.
5. Qo‘lyozma asarlar.

Video orqali eski o‘zbek yozuvi o‘rgatiladi, bunga qo‘shimcha tarzda darslikdan foydalanib yana-da yaxshiroq o‘zlashtirish mumkin. Dars o‘zlashtirilgach test ishlab, bilimlar mustahkamlanadi. Matnni to‘g‘ri o‘qishga asosiy e’tibor qaratiladi. Quyidagi rasmda mobil ilovaning tarkibiy qismlari ko‘rsatilgan:



Ilova orqali qo‘lga kiritilishi rejalashtirilayotgan yakuniy natija:

- ilmiy tadqiqotlar ko‘payadi;
- ajdodlarimiz merosi qayta tiklanadi;
- matnshunoslik sohasiga qiziqish kuchayadi;
- yangi manbashunoslar shakllanadi;
- ko‘plab asarlar tabdil qilinadi;
- ajdodlarimizning ilmiy va badiiy merosi ommalashtiriladi;
- ilmiy yutuqlari, fan sohasidagi bilimlaridan hayotimizda foydalanib yana-da yuksalamiz!

Tadqiqot natijalariga ehtiyojning mavjudligi: matnshunoslik va manbashunoslik sohasida bilimga ega, qo‘lyozma tabdil qilishni biladigan tadqiqotchilarga ehtiyoj katta. Prezidentimizning “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yana-da takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori (24-may 2017-yil) va «Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi Qarori (10-fevral 2022-yil) dan ham bu sohada tadqiqotchilarga naqadar ko‘p ehtiyoj borligini bilishimiz mumkin. “Matnshunoslar mumtoz

adabiyotning donishmandlari bo‘lishlari, muhimi qo‘lyozmani tushunib o‘qishlari lozim” – deya ta’kidlaydi adabiyotshunos-olim Vahob Rahmonov.(3. 270).

Yaratilgan yangi ilmiy ishlanmaning xorijiy analoglari hozirda mavjud emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтабоев Ҳ. (2008) Шарқ мумтоз поэтикаси манбалари. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.. – 426 б.
2. Президент қарори. [PQ-2995-son], [PQ-126-son].
3. Раҳмонов В. (2015). Мумтоз сўз сеҳри. Т.: “O‘zbekiston”.– 440 б.

АДАБИЁТ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎҚИТИШНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

Абдураҳмонова Шарофат Баҳромали қизи
Мирзаобод тумани 13-умумтаълим мактаби
Она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси
abdurahmonovasharofat@gmail.com.

Аннотация. *Ушбу мақолада адабиёт дарсларини ўқитишнинг муаммоли жиҳатлари таҳлилга тортилади, методист олимлар Қ. Ҳусанбоева, Р. Ниёзметоваларнинг дарсликларидаги қатор муаммолар тадқиқ қилинади. Дарслик яратиш амалиёти билан боғлиқ бир қанча камчиликлар назарий жиҳатдан асосланиб, керакли хулосаларга келинади.*

Калит сўзлар: *Методика, ўқитиш, усул, ёндашув, назария ва амалиёт, вазн, тизимлаштириш, креатив.*

Abstract. *This article analyzes the problematic aspects of teaching literature classes, a number of problems in the textbooks of Methodist scientists Q. Husanboeva, R. Niyozmetova are studied. Several shortcomings related to the practice of creating textbooks are theoretically based and necessary conclusions are drawn.*

Keywords: *Methodology, teaching, method, approach, theory and practice, weight, systematization, creative.*

Барча замонларда назария ва унинг амалиёти билан боғлиқ муаммолар кишиларни ҳамиша ўйга толдириб келган. Хусусан, бадиий адабиёт ва уни ўқитиш муаммолари ҳам ана шундай долзарб масалалар сирасига киради. Умуман, адабиёт фанини ўқитиш назарияси ва амалиёти масаласи доимий тадқиқ қилиниши талаб қилинадиган муаммолардандир, сабаби, замон, муҳит ўзгарувчанлиги, қолаверса, тараққиёт омиллари адабиётнинг нигоҳида ўзига хос акс этади, шу боис, қатъи белгиланган барқарор қолиплар бадиий адабиётни ўқитиш амалиёти доирасига тўла ҳам мос келавермайди. Чунончи, бадиий адабиёт инсон кўнгли билан шуғулланувчи ва унга сайқал берувчи нозик соҳадир. Шу жиҳатидан бадиий адабиётнинг ўрганилиш объекти бўлган кўнгил масаласига ўта эҳтиёткорлик билан муносабатда бўлиш муҳимдир. Адабиёт ўқитиш методикаси эса ана шу кўнгил туйғуларини тозаришига кўмак берадиган, уни ўқувчига изтироб ва қувонч туйғуларини юқтириб, кўнгил жилосига сайқал берадиган соҳадир. Чинакам адабиёт мана шундай туғёнларни ўқувчига юқтира олиши билан бошқа сифатлардан юқори туради.

Афсуски, бугунги кун адабиёт билгичларини мана шундай залворли, айни дамда, масъулиятли вазифани тўлақонли бажара оляпти, дея баралла айтишга киши бироз истиҳола қилади. Модомики, адабиёт тарбиячиси адабиёт ва ўқувчи ўртасидаги муҳим кўприк экан, бу масала кечиктириб бўлмайдиган муаммо эканлигини ҳам унутмаслик лозим.

Адабиёт ўқитиш илмида эътибор қилишимиз керак бўлган дастлабки жиҳатлардан бири – адабиёт ўқитиш методикаси ва адабиёт дарслигини яратиш амалиёти ўртасига чегара қўйишдир. Кўп замонлардан буён ушбу икки тармоқ аралаш ҳолатда истеъмол майдонида қўлланилиб келди. Хусусан, тадқиқотчи олимлар мана шу жиҳатнинг асл негизи атрофида тушуниб-тушунмай айланадилар-у, аммо шу муаммога сабаб бўлган омилларга кўп ҳолларда бефарқ бўладилар. Айтайлик, сўнгги ўн йилликларда адабиёт ўқитиш борасида турли қарашлар, ёндашувлар, услублар кўплаб алмашди, хусусан, бу ҳолат дарсликларда ҳам ўз ифодасини топмай қолмади.

Куни кеча яратилган 6-, 7-синф(Мирзаева, 2022, 191-бет) адабиёт дарсликларида ҳам айни ҳозирги чигал масалалар ўз аксини топган. Назариянинг қиммати амалиётга нечоғлик мослаштириб ишланганлиги билан белгиланиши ҳеч кимга сир эмас. Аммо ушбу дарсликлардаги кўпда камчиликларни юқоридаги муаммонинг негизини чуқур англаб етмаслик ортидан келадиган тадрижий муаммолар сирасига киритиш мумкин.

Масалан, 7-синф дарслигига Чеховнинг “Хамелеон” ҳикояси киритилган. Бунда ҳикоя баёни парчалари ва улар таркибида ўқувчилар учун қуйидаги саволлар кетма-кетлигини учратиш мумкин(Мирзаева, 2022, 208-бет):

“Устига янги шинел кийган, қўлида тугунча, полиция назоратчиси Очумелов бозор майдони ўртасидан юриб келмоқда. Унинг орқасидан қўлида мусодара қилинган крижовник тўла ғалвир кўтариб афт-ангори сап-сариқ городовой қадам ташлаб келаётир. Теварак жимжит... бозор майдонида қимирлаган жон кўринмайди... дўкон ва қовоқхоналарнинг эшиклари оч йиртқичнинг оғзидай очилиб, ҳувуллаб турар эди; уларнинг олдида ҳатто гадой ҳам йўқ”.

Савол: *“Бозор тасвирини яна бир марта ўқинг. Бу тасвир сизда қандай таассурот қолдирди? Нима учун?.*

Саволлар ортидан яна ҳикоянинг қолган қисми шу зайлда давом этади:

“Очумеловнинг қулоғига бирдан:

- Сен ҳали одам тишлайсанми, малъун! Биродарлар, қочириб юборманглар! Ҳозир бировни тишлашга руҳсат йўқ! Ушла! А... – деган товуш эшитилди. Кучук вангиллади. Очумелов атрофига қараб, савдогар Пичугиннинг ўтинхонасидан бир ит уч оёқлаб, орқа-ўнгига қараб, чопиб чиқиб кетаётганини кўриб қолди... Кучукни чит кўйлак кийган ва нимчасининг тугмалари ечилган киши қувлаб келмоқда эди... Дўконлардан мудроқ боси б ўтирган киишилар каллаларини чиқариб қарашди ва бир дам ўтинхонанинг олдига, худди ер остидан чиққандек, халойиқ йиғилди.

- Муҳтарам афандим, бу тартибсизлик... –деди городовой”.

Сўнг яна савол келади: *Ҳозиргина жимжит бўлган жойда нега бирданига халойиқ тўпланиб қолди?*

Шу зай парчалар орасида қуйидаги саволларни кўриш мумкин: *Итнинг тасвирига эътибор беринг. Қайси сўзлар ҳайвоннинг ҳолатини тасаввур қилишга ёрдам беради? Ёзувчи нима учун айнан шу сўзлардан фойдаланган деб ўйлайсиз?, Очумелов итнинг кичкиналигини аввал сезмаган деб ўйлайсизми?, Хрюкин нега биродарини эслаб қолди? Очумеловнинг Хрюкинга муносабати нега яна ўзгариб қолди?, Матнинг аввалроғида Очумелов палтосини ечтириши ва кейин яна кийдириши қандайдир сабаблар билан боғлиқ деб ўйлайсизми?”.* Шу нуқтада бир савол туғилади? Бадиий адабиётни ўқитиш методикаси ўқитувчи учун керакми ёҳуд ўқувчи учун? Ўқитувчи учун керак бўлса, нега бу кўмаклар боланинг дарслигида акс этган ва агар ўқувчи учун керак бўлса, бу йўриқларни дарслик эмас, ўқитувчи бериш керак эмасми? Ёки бугунги кун ўқувчисига бадиий адабиётдан завқланиш ўрнига уни муте тадқиқотчи қилиб тарбиялаш мақсад қилиб олинганми? Ҳар қандай ҳолатда ҳам бу йўриқларнинг бўлакланган парчалар орасида келтирилиши ўқувчининг бадиий асарни ўзлаштиришига ноқулайлик туғдириши очиқ ҳақиқат. Қолаверса, бадиий мантиқни ўқувчига тайёр ҳолда беришдан кўра унинг ўзини ушбу моҳиятни англаб етишга олиб бориш тўғри ёндашув бўлади. Ўқувчи илғамаган жиҳатларга эътибор қаратиш, асар муаллифининг ҳикояда қўйган мақсадини ўқувчига етказиш эса ўқитувчининг зиммасида бўлади. Шунингдек, бадиий асар ўқиб бўлинганидан кейин умумий саволларга ўтиш тўғрироқ бўлса керак, бунда фикр жамлаш билан боғлиқ қулайликларга ҳам эътибор қаратиш лозим. Адабиёт кенгқирра соҳа ҳисобланади, унга ягона ўқитиш услубини қўллаш ҳам у қадар адолатли иш бўлмаса керак. Уни ўқувчи хоҳлаганича йўсинда ўқиб ўзлаштиришга ҳақли. Унинг ўзлаштириш ихтиёрини қатъий меъёрга солинган саволлар билан чекламаслик лозим.

Маълумки, адабиёт ўқитиш методикаси бадиий моҳиятни чуқур ва теран англаш сирларини ўргатадиган, унинг нодир сифатларини бор рангларда очиб беришга кўмак берадиган турли хил услуб ва методлар илми устида иш олиб боради. Шу нуқтада унинг вазифаси бошқа тармоқ, яъни, адабиёт дарсликларини яратиш амалиёти билан боғланиб кетади. Эътибор қилиш керак бўлган жиҳати – бу икки тармоқни бир-бирига қўшиб юбормаслик, бирининг вазифасини бошқасининг елкасига ортмаслик, унинг воситасида ўзининг жозибасини ифодаламаслиги керак. Айтайлик, янги яратилган дарсликлардаги бадиий парчаларда адабиёт ўқитиш илмининг аралашуви сезиларли даражада кўзга ташланади. Хусусан, юқоридаги каби парчаларнинг мантиқий бўлакланган ҳолатларда берилиб, уларнинг орасига ўқувчини диққат қилиши керак бўлган жиҳатларни назардан четда қолдирмаслик “ғам”ини ўйлаб огоҳлантирувчи чақириқларнинг келтирилиши иккинчи тармоқнинг ўз тамойилларини эркин ифода этиш йўсинига жиддий таъсир ўтказмай қолмайди. Шу ўринда бу оқибат ўқувчининг ҳам бадиий оламни кашф этиш қобилиятларининг ўтмаслашиши, дангасалашишига яхшигина сабаб бўлади. Қолаверса, ҳар икки тармоқнинг ўрганиш оъбектлари тобора биргалашиб, соҳанинг ортга томон илгарилашига сабаб бўлади. У ҳолда адабиёт дарсликларини яратиш амалиётининг қиладиган ишлари нималардан иборат бўлади? Уларнинг иши борлиқ бадиий оламининг энг сара, энг гўзал, энг муҳим намуналарини танлаб, уларни ўқувчининг имкониятлари даражасида тизимлаштириш ва ўқишлиги қулай ҳолатда дасрликларга жамлашдан иборат бўлади. Афсуски, биз кеча яратилган янги дарсликларда ҳам методика илмининг дарслик яратиш амалиётига аралашуви ҳолатларини кўп учратяпмиз. Агар бу тутум тўғри бўлса, у ҳолда адабиёт фани ўқитувчисининг қиладиган иши нималардан иборат бўлади, деган жўяли савол туғилади. Ахир, ўқитувчининг вазифаси берилган бадиий яратиқни бола мустақил ўқиш жараёнида илғанмаган жиҳатларни илғатиш, уни муаллиф даражасида англатиш эмасми? Қолаверса, дарсликлардаги бу каби “маёқ”ларнинг ўрни ўқитувчи учун боланинг

дарслигида акс этиши нечоғлик ўринли бўлади, ҳа, айтайлик, бу изоҳлар ўқувчи учун ёрдам бўлса, у ҳолда адабиёт фани ўқитувчиси нима иш қилади? Бу каби саволларнинг кети узилмайди, бири ортидан иккинчисининг хатоликлари эргашиб чиқиб келаверади, аммо, бизда буни тўғри тизимлаштириш учун ҳаммага очиқ кўриниб турадиган асослар бор. Масалан, бола дарслик орқали бадиий асар билан танишади, таҳлил қилади, кемтик қисми эса ўқитувчи орқали тўлдирилади. Ўқитувчилар эса ўзлари учун яратилган дарслик асосида дарс жараёнига тайёрланади, берилган дарслик йўриғи камлик қилган ҳолларда, у тўғридан тўғри методик ёрдам қўлини чўзадиган қўлланма, тавсия, методик адабиётлар, боринки, метод ва усуллар жамланган адабиётлар орқали ўз тажрибасини бойитади. Адабиёт ўқитиш методикаси илми эса мана шу тавсияларни берадиган йўриқлар яратади ва шу билан биргаликда, тажриба синовлари тадқиқини ҳам статистик ҳисоботини қўлланманинг илова қисмида баён қилади.

Мана шу уч занжир тармоқнинг иш олиб бориш объекти бир-бирининг ўрганилиш объектига аралашган ҳолда тадқиқ қилинганлиги боисидан бизнинг методика илмимизда яхшигина чалкашлик, орқалаш бор.

Танганинг бошқа бир томони ҳам бор. Бугунги адабиёт ўқитиш методикаси илмининг аҳволи қай даражада? Замонлар, янгиланишлар кўп нарсани ўзгартиради. Масалани бу жиҳатдан олиб қарасак, олдинга силжишга тайёр турган талайгина муаммолар бор. Методика илмининг забардаст вакиллари Б. Тўхлиев, Қ. Ҳусанбоева, Р. Ниёзметова(Ҳусанбоева, 2022, 19-бет) ва бошқалар яратган кўпгина дарсликлар бугунги кун ўқувчиси учун яхшигина дастурамал бўлмоқда, аммо ушбу олимларнинг хос қарашлари ортида шаклланаётган ёш авлод, бизнингча, эндиликда аввалгиси қадар қизиқиш билан бу йўриқларга эргашмаса керак. Сабаби, улар яратган методик адабиётлар тажриба майдони бўлган мактаб амалиёти билан тўла мос келмайди. Бу икки майдон сиқуви ичида қолган амалиётчи, албатта, ўзи таниш бўлган муҳит билан ўртоқлашишни ўзига афзал кўради.

Қ. Ҳусанбоева, Р. Ниёзметоваларнинг янги нашрдаги китобларида фикримизга далил бўлган бир қанча асосларни келтиришга ҳаракат қиламиз.

Муаллифлар дарслик яратиш илми тарихи ҳақида сўз юритиб, 40-йилларгача бўлган дарслик намуналарини савол-топшириқлар ва ижодкор таржимаи ҳоли билан чекланганлиги; совет давридан кейинги дарсликларда туб ўзгариш содир бўлмай, мафкуравий таъсирга берилиши; 80-йиллар дарсликларида бадиий асарнинг сиёсий-мафкуравий талқини ва бунда дарслик муаллифларининг қатъи хулосалари берилганлиги; мустақиллик йилларида яратилган дарсликларда бирмунча рус адабиётидан қутилиш, аммо яна айб сифатида дарслик матнининг 40фоизи луғатлар билан тўлдириб ташланганлигини эътироф этадилар(Ҳусанбоева, 2022, 69-бет).

Адабиёт ўқитиш методикаси илмининг иши айб санаш билан машғул бўлиб қолмаслиги керак. Ваҳоланки, давр муҳити, қолаверса, эндигина мустақиллик майдонига қадам қўйган адабиёт дастлабки интилувида янглиш фикрлар билдириши табиий асос. Масалага холисона ёндашиб, ўтмиш сабоқларидан керакли хулоса чиқаришнинг ўзи илмда олдинга қўйилган биринчи қадамдир.

Муаллифлар адабиёт дарсларини ўқитишда кўп ҳолларда ҳажм жиҳатдан йирик бўлган асарларни ўқитишда ўқитувчиларга дарсларни жуфтлашни тавсия этади, керак ўринларда талаб ҳам қўяди. Масалан: “Ўйгул ва Бахтиёр”, “Ҳелладос” ҳикояларини ўқитишда шу тавсия асосда иш кўришни маслаҳат беради. Бу мактаб амалиёти учун ноқулай танловдир. Аввало, ДТС талаби бўйича бир фан ўқитувчиси бир синфга кун давомида бир фанни икки маротаба ўтишига руҳсат этилмайди. Шароит тақозоси юзасидан олиб қаралса, адабиёт фани ўқитувчиси ўзининг фанини жуфтлаб ўтиши учун бошқа бир ўқитувчининг дарсини сўраб олмайди-ку. Ижобий ҳал бўлган тақдирда ҳам адабиёт фани ўқитувчиси фақатгина биргина синфга дарс ўтиб қолмайди, назаримизда, кейинги соат бошқа бир синфга дарси бўлиши эҳтимоли ҳам юқори.

Бундан ташқари ушбу муаллифлар, бадиий парчаларни болага ўргатишда, асарнинг тўлиқ вариантини топиб ўқиш талабини ўқитувчига юклайди, аммо шарт бу билан чекланмайди, ҳатто ўқувчига ҳам асарнинг тўлиқ матнини ўқиб бериш талабини қўяди. Бадиий адабиёт ғоят чексиз олам, уни этаги билан қамраб оламан деган одам хато қилади, шу маънода бу тутум ҳам бироз ўқитувчини қийин аҳволга солади, негаки фақат ўзи ўқиб қолмай, ўқувчига ҳам ўқиб етказиб бериш билан асар моҳияти тўкислашиб қолмайди, аксинча, ўқитувчи-ю ўқувчи қийналиб қолади, сабаби, бола бир марта ўқиб эшиттирилган матн билан билимли бўлиб қолмайди, лекин шу эшиттирилган асар билан китобидаги парчани мутаносиблаштиришда асарнинг тўлиқ матнига эҳтиёж сезади, китобидаги парча қадрига шикаст етади. Қолаверса, уларда асарнинг тўлиқ матни ҳам йўқ. Бу ноқулайликнинг давоми уй вазифасини сўрашда ўқитувчига кўчиб, ўз ишини қийинлаштирса қийинлаштирадики олдинга силжимайди, сабаби, бу мақсадга етиш ўқитувчи ажратилган соатнинг керагидан ортиқ вақт ажратишини тақозо этади, бу эса имконсиз, бу ерда эса янги навбатдаги мавзу тадқиқи ўқувчиларни кутиб турган бўлади, қисқаси, ўқитувчи, дарсликда берилган матндан четга чиқмай, шу асосда боланинг билимини бойитиши керак, парчани саралаш ишини бажарадиган ўз эгалари бор, бу масалани уларга қолдириш тўғрироқ бўлар.

Муаллифлар болаларнинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда асарга ёндашиш тавсияларини бериш ўрнида 5-7-синф ўқувчиларида асар қаҳрамонининг шахслик сифатларини ифодалашга қодир эмасликлари, бу пайтда болалар табиатида бепарволик кўзга ташланиши хусусида умумий хулосаларни беришади, бироқ дарсликнинг шу ёшдаги болаларга берилган бадиий асарларни таҳлил қилиш жараёнида уларга керагидан ортиқ вазифа юклайди. Шунингдек, ўқувчи моҳиятни чуқур англашга қийналган пайтида ўқитувчининг таҳлил жараёнига ёрдамлашувини нотўғри тутум деб ҳисоблайдилар. Бу қарашларнинг ҳақиқат жиҳати шуки, 5-7-синф ўқувчиларида асар сюжетига умумий қараш етакчилик қилади, уларга воқеанинг мўжизаси, қаҳрамонлиги, саргузаштлилиги муҳим. Лекин, нега

муаллифлар бадиий асарларни таҳлил қилиш жараёнида ўқитувчининг фаоллигини қоралайди. Масаланинг нозик жиҳати шуки, бу ерда таҳлил учун танланган асар даражаси ва уни таҳлил қилиш методикасида нотугал қарашлар занжири мавжуд. Айтайлик, узоқ йиллар мобайнида 5-синф болаларига “Кичкина шаҳзода” асари ўқитилиб келинди. Аммо бу асар шакл(жанр) жиҳатдан бола ёшига мос, мазмун жиҳатидан эса моҳиятни англаш учун бола бирмунча эркин фикр эгаси, мушоҳада соҳиби бўлиши керак, назаримизда. Ёки “Ботир тикувчи”(Ahmedov, 2020, 79-бет) асарини ўқитишда ҳам шу жиҳат етакчилик қилади. Асардан келадиган хулосалар эса нафақат юқори синф ўқувчисини, ҳатто катталарни ҳам жиддий ўйлантириб қўяди. Ахир эртак қаҳрамони Ганс одамларга фақат яхшилик соғинадиган, уларга ёрдам беришдан бор имкониятни аямайдиган, ҳатто ўз жонини ҳам хавф оситга қўйишдан бош тортмайдиган таваккалчи ботир тикувчи. Аммо жамият орасида унинг бу самимийлигидан ғаразлик қидирадиган тўда ҳам йўқ эмаслиги кишини диққат торттиради, Ганснинг қаҳрамонликлари муносиб тақдирланиши ўрнига ҳамма ундан қутилиш йўлини излаши учун одам қанчалар худбин, қанчалар қабоҳат ботқоғига ботиши керак. Бу ҳолатни яхшигина фаҳм этган Ганс яшаш моҳиятининг асл илдизи нимада эканлигини тушуниб етади ва охир яна ўзининг жонажон кулбасига қайтади.

Хўш, Гансдаги бу мураккаб психологияни 5-синф ўқувчисига ўқитувчини иштирок эттирмай қандай англатамиз ёҳуд бола юқори синфга ўтганида бу асарни ўқиши тўғрироқ бўлади, дея масаладан ўзимизни узоқлаштирганимиз тўғрироқми?

Ҳар икки хулоса ҳам хато. Сабаби, жанр жиҳатидан бу асарлар кичик ёшдаги ўқувчиларга ўқитилиши тўғри танлов, аммо ўқилиш услубида кемтиклик бор, қолаверса, бадиий парчаларни таҳлил қилишда доимий савол-топшириқлар билан ишлаш эскирган услуб, бунда таҳлил қилиш методикасини ўзгартиришга диққатни қаратиш керак. Яъни, таҳлилда бирёқламаликдан қочиш керак, асарга атрофлича ёндашиш ва уни таҳлил қилишда тўғри методни қўллай олиш муҳимдир. Хусусан, муаллифларнинг

5-синф болаларига берилган парчаларни таҳлил қилиш чоғида методларни танлаш билан боғлиқ муаммоларга кўплаб дуч келамиз. Масалан, мақоллар бобининг таҳлил йўсинига эътибор қилинса, унга муаммоли ўрганиш усули қўйилади. Мисол тариқасида бир мақол таҳлили намунасини келтирамиз: ***Олтовлон ола бўлса, Оғзидагини олдирар. Тўртовлон тугал бўлса, тепадагини эндирар.*** Шу мақолга кўриниб турган ҳамма саволни қўйиб чиқадилар: *олтовлон деганда нимани тушундингиз, тўртовлон деганда нима ҳақида гап кетяпти, ола бўлмоқни қандай тушундингиз, эндирмоқ сўзи нимани англатишини биласизми, тепани эниш ҳақида эшитганмисиз?..*

Агар ҳар бир мақолни шунақа тарзда очиқ кўриниб турган саволлар билан безасак, боланинг мақолларга бўлган иштиёқи сўнади , қолаверса, китобда берилган бутун мақолларни бунақа тарзда таҳлил қилинса, ушбу мавзу соати ҳажмини кўпайтириш муаммоси ҳам юзага келади, ахир ҳар бир мақолни шу тарзда таҳлил қилсак, бутун бир дарсда атиги 5-6та мақолни “изчил” “тадқиқ қилиш” мумкин. Бунақа ёндашув билан болани халқ оғзаки ижодидан совутиб қўйиш мумкин, назаримизда.

Дарслик яратишда яна бир жиҳатга эътибор қаратиш муҳим деб ҳисоблаймиз: мумтоз шеъриятни ўқитиш масаласида аруз вазни илмига оид назарий ёндашувлар методикасини янгилаш муаммоси ҳам долзарбдир. Буни дарсликдан суриб чиқариш эмас, осон ўрганиш йўлларини излашга кўмак берадиган креатив ифода усулини яратиш лозим. Чунки, бу масала нафақат ўқувчини, ҳатто ўқитувчини диққат торттирадиган ноқулайликларга тўла. Вазн, тақте, қофия илми, бадиий санъатлар билан ишлаш бўйича дастлаб, болани қочирмайдиган амалий тавсиялар ишлаб чиқиш яхши самара беради, бир муддат амалий тажриба синовларида ўрганилиб, ижобий натижага эришилса, кейин дарсликка киритилиши тўғрироқ бўлади. Бу борада муаллифларнинг ёндашувига диққат қаратадиган бўлсак, улар ғазалларни ўрганишда икки ижодкор(Навоий ва Нодира) ғазалидан бир байти, мақтаъ танланиб, қай бири қай ижодкорники эканлигини топишни болаларга топшириқ сифатида беришни тавсия этади(Ҳусанбоева, 2022, 127-бет). Бу

каби ёндашув болани ўқувчининг бадиий савиясини ўстира олади, деб айтиш қийин. Ахир ўқувчи ғазалнинг таркибий тузулиши борасида илмий дунёқарашга эга бўлмай туриб, унинг мазмунини қандай шарҳлайди, қолаверса, мумтоз шеъриятнинг жозибаси ундаги бадиий тасвир воситалари, қофия ва вазндаги қолип билан белгиланиши ҳеч кимга сир эмас. Бу ҳолатда ўқувчи бу методга фақатгина таваккалчилик орқали жавоб қайтара олади, холос.

Хулоса қилиб айтганда, дарслик яратиш амалиётининг пойдевори бўлган адабиёт ўқитиш методикаси соҳасида талайгина оқсашлар мавжуд. Назария илми таркибини бугунги кун нуқтаи назари ва мактаб амалиёти билан боғлиқ ҳолда бойитиш бадиий асарни теран англашга қаратилган дастлабки қадам дейиш мумкин. Бу борада адабиёт ўқитиш методикаси ва адабиёт дарсликларини яратиш методикаси амалиёти орасида маълум чегара бўлиши энг зарурий эҳтиёждир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Аҳмедов С ва бошқалар. Адабиёт.(2020). Умумий ўрта таълим макталарининг 5-синфи учун дасрлик. – Тошкент.
2. Ҳусанбоева Қ., Ниёзметова Р.(2022). Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент, Инновация-зиё.
3. Кан-Калик А. В., Хазан В. И.(1988). Психолого-педагогические основы преподавания литературы в школе. – Москва, Просвещение.
4. Мирзаева З, Жалилов К.(2022). Адабиёт. 7-синф учун дарслик. –Тошкент.
5. Тўхлиев Б.(2010). Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент, Янги аср авлоди.
6. Йўлдошев Қ. (2022). Ҳамид Олимжон ҳаёт ва ижод йўли. Методик қўлланма. – Тошкент, Bookmany print.

ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINI OSHIRISH USULLARI

Abduvaliyeva Aziza Botir qizi,
ToshDO‘TAU ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti,2-kurs talabasi
ansoraabduvaliyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ona tili ta’limida og‘zaki nutqni o‘stirishning nechog‘li ahamiyatliligi va ona tili ta’limida tilshunoslikning o’rni xususida so‘z*

yuritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini oshirish usullari haqida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: *ona tili ta’limi, BKM (bilim, ko‘nikma,malaka), monologik va dialogik nutq, zamonaviy metodologiya, integratsiyalashuv, og‘zaki nutq.*

Abstract. *This article talks about the importance of developing oral speech in mother tongue education and the role of linguistics in mother tongue education.*

Keywords: *mother tongue education, BKM (knowledge, skills, competence), monologic and dialogical speech, modern methodology, integration, oral speech.*

Zamon taraqqiy etib borar ekan, og‘zaki nutq masalasi har qachongidan ham muhim o‘rin tutadi va bu muammo uchun obyekt sifatida til ko‘zga ko‘rinadi. Tilni takomillashtirish va foydalanish samaradorligini oshirish asosiy muammo sanaladi. Bu borada bir qancha ilmiy tadqiqot hamda izlanishlar olib borilgan va hozirgi kunga qadar davom etmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, hozirgi kunda tilshunoslik va ona tili ta’limi bir-biri bilan o‘rindosh bo‘lib kelayotganini ko‘rishimiz mumkin. Aslini olganda, tilshunoslik – tilning ilmiy ahamiyatini va ichki qonun-qoidalarini o‘rganadigan soha. Ona tili ta’limi esa tubdan farq qiladi. Ya’ni u o‘z subyekti bo‘lgan o‘quvchi uchun xizmat qiladi va jamiyatning har qanday qatlamida muhim rol o‘ynaydi.

Bizga ma’lumki, ko‘p yillar davomida biz ona tili ta’limining sifatini tekshirish maqsadida (oliy ta’limga qabul qilish) asosan, tilshunoslikka oid bo‘lgan grammatika testlaridan foydalanganmiz. Vaholanki, fanda o‘rgangan bilim va ko‘nikmalarimizni amaliyotda qo‘llash bo‘yicha sinovlar tashkil etilmagan. Buning natijasi o‘laroq, hozirgi nutqiy qobiliyati yaxshi rivojlanmagan, faqat grammatika testlarini yechishga o‘rganib qolgan, o‘z qarashlarini erkin bayon qila olmaydigan avlodlar vujudga kelib qoldi. Qonun va qarorlarda esa bu boshqacha tus olgan. “Ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi – o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘g‘ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat” (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta

maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori, 2017, 140-bet). Bundan ko'rinadiki, qaysidir ma'noda ta'lim va qarorlar bir nuqtada kesishmagan holat qaror topgan. Shunday ekan, "… tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, orfografiya, orfoepiya, grammatika bo'limlari bir muncha mukammal ishlangan bo'lib, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi bo'lgan nutq madaniyatini ham ana shu darajaga ko'tarish bugungi kunning dolzarb vazifasidir" (Omonturdiyev, 2016, 4-bet). Bu borada o'tgan vaqt davomida bir qancha tadqiqot va izlanishlarolib borildi. "Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitish, o'quvchilarning ijodiy tafakkuri va nutqini o'stirish masalalari Y.Abdullayev, N.Alavutdinova, A.Bobomurodova, N.Dadajonova, T.Ziyodova, N.Yo'ldosheva, M.Mirmaxsudova, X.Ne'matov, M.Omilxonova, N.Sattorova, M.Saidov, R.Safarova, N.Shukrullayev, Sh.Yusupova, T.Yusupova, N.Qosimova, A.G'ulomov tomonidan o'rganilgan" (Mavlonova, 2019, 5-bet).

Darhaqiqat, bu dolzarb muammo davlat ta'lim standartlarida ham aks etgan. Masalan, "Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar ona tili va o'qish bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

a) O'qish texnikasi bo'yicha:

Miqdoriy ko'rsatkich bir daqiqada 80-90 so'zni o'qiy olish.Talablar:

- Harflarni to'g'ri talaffuz etish;
- So'zlarni to'g'ri talaffuz etish;
- Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qish;
- Gapdagi tinish belgilarini talaffuzda aks ettirish;
- Sanash va ajratish ohanglaridan to'g'ri foydalanish;
- So'z urg'ulariga rioya qilish;
- Ohangga rioya qilish;
- Ilmiy atama va ramzlarni to'g'ri talaffuz etish;

b) Matn mazmunini va o'zgalar fikrini anglash malakasi bo'yicha:

Miqdoriy ko'rsatkich: 10 daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olish. Talablar:

- Og‘zaki nutqning to‘g‘ri, ravon, aniq, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi:

- Monologik nutqning ravon bo‘lishi:

- Dialogik nutqda ta’sirchan, izchil, mantiqiy jihatning aniq bo‘lishi”. (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori, 2017).

Ko‘rinadiki, boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarda nutq qobiliyatini shakllantirish, berilgan mavzu bo‘yicha bilimlariga tayangan holda fikr yurita olish ko‘nikmasini rivojlantirish DTS talablarida ham o‘z aksini topgan.Bundan tashqari, 5-9-sinflar uchun mo‘ljallangan ona tili darslarida ham yuqoridagi holatni kuzatish mumkin.

“ b) amaliy ko‘nikma va malakalar:

- o‘qish texnikasi bo‘yicha: miqdoriy ko‘rsatkich - 1 minutda 120-130 so‘z sifat ko‘rsatkichalar – murakkab tipdagi ilmiy atamalarni, ramzlarni, mumtoz adabiyot namunalarini so‘z va iboralarni to‘g‘ri talaffuz qila olish, ma’nosini anglagan holda to‘g‘ri va ravon o‘qish;

- o‘zgalar fikri va matn mazmunini anglash malakasi bo‘yicha: Miqdoriy ko‘rsatkich – 10 daqiqada 5-6 sahifa. Sifat ko‘rsatkichlar – og‘zaki nutqning aniqligi, matn mazmunining mos bo‘lishi, to‘g‘ri, ravon va ta’sirchan bo‘lishi”.(O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori, 2017).

Shuni aytib o‘tishimiz joizki, yuqoridagilar o‘quvchida ta’lim standartlari asosida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘lishini talab etadi. Albatta, bu ona tili ta’limini tilshunoslik sohasidan tubdan farq qilishini ko‘rsatib o‘tadi. Bundan tashqari, xorijiy olimlar ham bu borada bir qancha izlanish va tadqiqotlar olib borishmoqda. Xususan, O.A.Biryukova va D.V. Semenovalar ta’kidlaganidek, zamonaviy metodologiya fanida monolog va dialogik shakllarda o‘z og‘zaki nutqini yaratish qobiliyatini shakllantirish chet tilini o‘qitishning asosiy maqsadi sifatida belgilanadi va chet tili tushunchasi orqali ifodalandi.

Ma’lumki, kommunikativ kompetensiya juda murakkab ko‘p komponentli tuzilishga egadir. (Yuldasheva, 2022, 270-bet).

Men ushbu fikrga qo‘shilgan holda o‘quvchilarda og‘zaki nutq malakasini oshirish uchun monologik va dialogik shakllarda individual nutq hosil qilishni taklif qilaman. Boisi, bu anchayin samarali usul bo‘lib, maktab o‘quvchilarida turli xil ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. Ko‘pchilik maktab o‘quvchilari o‘z tengdoshlari bilan muloqotga kirishganda yoki o‘z ko‘rgan ma’lumotlarini bayon etganda nutqiy vosita va bilimlardan unumli foydalanishadi. Buning yaqqol misoli o‘laroq, Klara Mavlonovaning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tish mumkin, “ona tili va adabiyot o‘quv fanlarini badiiy matn orqali o‘zaro integratsiyalashda kommunikativ yondashuv alohida o‘rin tutadi” (Mavlonova, 2019, 22-bet). Bundan tashqari, o‘quvchilar ona tili fanidan mashq va topshiriqlar bajarganda, badiiy adabiyot matnlari bilan birga ilmiy matnlarni o‘qib, ularni qayta hikoya qilish usuli orqali so‘zlab berishsa, o‘quvchilarning ham nutqiy ko‘nikmasi, ham fikrlash darajasi oshishi mumkin. Masalan, “Bermud uchburchagi” haqida o‘quvchilarga ilmiy matn havola etilsa, ularda ona tili fanini boshqa fanlar va ilmiy atamalar bilan integratsiyalashuv asosida o‘rganish imkoniyati vujudga keladi. Ushbu g‘oyaning psixologik, nazariy, metodik va amaliy asoslari pedagogika fanlari nomzodi D.R.Toshxo‘jayeva tomonidan ilmiy dalillangan va amaliyotda tekshirib ko‘rilgan. Lingvopsixologlarning fikricha, matnni ko‘r-ko‘rona yodlash samarasiz ish turi ekanligi, quyi sinflardan boshlab matn mazmunini o‘z so‘zlari bilan so‘zlab berish usulining afzalliklari har tomonlama asoslangan. Ko‘pchilikka ma’lumki, ingliz tili bo‘yicha topshiriladigan xalqaro test, IELTS (International English Language Testing System) da ham 4 ta bo‘lim mavjud va ularning biri (“speaking”) aynan og‘zaki nutq uchun shakllantirilgan hamda u 3 qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda (“Part 1”) , asosan, sodda va tushunarli, kundalik turmushda tez-tez duch kelinadigan savollar bo‘lsa, “Part 2” da bir mavzu berilib, ikki daqiqa mobaynida erkin fikr bayon qilish talab qilinadi, “Part 3” da esa ikkinchi qismdagi savollar asosida mantiqiy savollar taqdim etiladi. Yozma bilim va ko‘nikmalarni tekshirishga qaratilgan “Writing”

bo‘limining “Cause and effect” essay turida muammo (“topic problem”) qo‘yilib, bu muammoning sabab va yechimi to‘g‘risida fikr yuritish so‘raladi. Biz ham ona tili ta’limida ushbu ko‘nikmalardan foydalangan holda, “sabab – oqibat – yechim” usulini joriy etishni taklif qilamiz. Ya’ni, o‘quvchiga bir mavzu berilib, uning paydo bo‘lish sababi, oqibatlari va bu bo‘yicha o‘z yechimlarini taklif qilishga o‘rgatsak, ularda nutqiy ko‘nikma ham, intellektuallik koeffitsiyenti ham ortgan bo‘lardi. Misol tariqasida, 7-sinf ona tili darsligidagi “Muhim kasb” (veterinariya sohasining ko‘pchilik tomonidan pisand qilinmasligi, aslida ular bo‘lmaganda hayotimizning achinarli ahvolga tushib qlishi haqida) matni ustida bajariladigan topshiriqlar sirasiga o‘qituvchi tomonidan yana xuddi shunday “aholi tomonidan pisand qilinmaydigan” 3 ta kasbni misol tariqasida berilib, nima uchun bu kasblar yoshlar tomonidan kamdan kam tanlanayotganligi, agar bu kasb egalar bo‘lmaganda qanday ayanchli oqibatlar bo‘lishi va bu muammoning yechimi haqida so‘ralsa, har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy qarashlarini bayon qilish mobaynida nutqiy mahoratini ham oshirgan bo‘lardi.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida grammatik qoidalarni ko‘r-ko‘rona yodlab, yozma mashq bajarish bugungi kun zamon talablariga mos kelmaydi. Shu sababli ushbu tadqiqot ishi orqali maktab o‘quvchilarida nutq qobiliyatini o‘stirish va ona tili fanida o‘rgangan bilimlarini nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlash lozimligi o‘rganib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova, I., &Mavlonova, K., &Quronov, S., &Tursunov, Sh., &Hakimova, N., &Siddiqov, M. (2022). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. (76-bet).

2. Mavlonova, K. (2019). Ona tili fanini adabiyot fani bilan badiiy matn orqali integratsiyalab o‘qitish metodikasini takomillashtirish. (5-22-betlar). Filol.fan.dok.diss. Toshkent. R.Yo‘ldoshev. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Toshkent: 2015.

3. Omonturdiyev, A., &Abduraimova, Sh. (2016). O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati. (4-bet). Toshkent.

4. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori. (2017). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. (140-bet).

5. Yuldasheva O., &Nasirova, U. (2022). O‘quvchilarning diskurs (og‘zaki nutq) ko‘nikmasini rivojlantirishga oid metod va texnologiyalar. Academic Research in Educational Sciences. (pp. 270).
6. Yo‘ldoshev, R. (2015). Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. (8-10-betlar).

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARIGA DOIR

Aimbetova Muqaddas Alisher qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili t’limi fakulteti, 4-kurs
muqaddasaimbetova29@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek tili ta’limi tarixiga, bugungi holatiga doir ma`lumotlar keltirib o‘tiladi. Psixolingvistika sohasining til o‘rgatish jarayonidagi ahamiyatiga urg‘u beriladi. Til o‘rganish jarayonida bolalarda, maktab o‘quvchilarida qanday psixologik o‘ziga xosliklarga ega ekanligi yoritiladi. Xususan, 5-sinfda o‘zbek tilini o‘qitishning psixolingvistik jihatlari, davlat tilini o‘qitish jarayonidagi milliylik, madaniylik masalasi tilga olinadi.*

Kalit so‘zlar*:O‘zbek tili, o‘qitish, psixolingvistika, psixologik o‘ziga xosliklar, layoqat, nutq.*

Abstract. *This article provides information on the history of Uzbek language education and its current status. Emphasis is placed on the importance of the field of psycholinguistics in the language teaching process. In the process of language learning, what psychological characteristics children and schoolchildren have are highlighted. In particular, the psycholinguistic aspects of teaching the Uzbek language, the issue of nationality and culture in the process of teaching the state language are mentioned in the 5th grade.*

Keywords: *Uzbek language, teaching, psycholinguistics, psychological peculiarities, ability, speech.*

Har bir tilning jamiyat hayotidagi ahamiyatini belgilab beradigan qator omillar mavjuddir. Bunday omillardan biri sifatida mazkur tilning o‘zga tilli guruhlarda qanday o‘qitilishini ham qayd qilib o‘tish mumkin. O‘zbek tili ta`limi

o‘zining muayyan metodik poydevoriga ega. Ammo zamonamiz o‘quvchisi texnika taraqqiyoti, cheksiz axborotlar oqimi davrida yashamoqda. Shu bois bugungi kunda o‘zbek tili ta`limi ham yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Bunday yangicha yondashuv psixolingvistika fani doirasida ko‘rib chiqilishi mumkin.

Psixolingvistika fani psixologiya va lingvistika fanlari kesishmasi yuzaga kelgan soha bo‘lib, unda psixologiya va lingvistika fanlari e`tiboridan chetda qolgan masalalar, xususan nutqiy faoliyat, nutq ontogenezi, til o‘rganish va o‘zlashtirish kabilar tadqiq va tahlil qilinadi (Ушакова Т.Н. и др, 2006, С.14). Urushdan keying davrda bosib olingan davlat aholisiga ikkinchi tilni oson va tezroq o‘qitilishi borasidagi izlanishlar ushbu fanning paydo bo‘lish sabablaridan biridir. Bolaning tug‘ilgan davridan boshlab umri davomida til o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqi va layoqati turli xil bo‘ladi. Psixologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, har bir inson ma’lumotlarni turlicha qabul qiadi. Olimlarning tadqiqotlaridan ma’lumki, til o‘rganish uchun eng maqbul vaqt bu 5 yoshgacha bo‘lgan davrdir. Bu vaqt davomida bolaning yangi tilni qabul qilishida qiyinchiliklar kamroq uchraydi. Til o‘rganish davomida inson o‘z ona tilining grammatik qurilishini, qonun-qoidalarini qanday qabul qilsa, yangi tilning til qurilishi, grammatikasini ham shunday qabul qiladi, aynan o‘z tilida duch kelgan qiyinchiliklarga uchraydi.

Rus sinf (guruh)larida o‘zbek tilini o‘qitish metodikasi roppa-rosa bir asrlik tarixga ega. O‘zbek tilini o‘qitish dastlab rus-tuzem maktablarida boshlangan. 1905-yildan e’tiboran Turkiston general-gubernatorining buyrug‘iga muvofiq “Turkiston o‘lkasida yashovchi rus jamoasining bolalari mahalliy tilni va yozuvini bilishi zarur” (o‘zbek tili bo‘lib qoladi. Shu tariqa qanday maqsad ko‘zlanmasin, rus bolalariga o‘zbek tili o‘rgatila boshlangan).

Ta’lim boshqa tillarda (qozoq, turkman, qoraqalpoq, qirg‘iz, tojik tillarida) olib boriladigan maktablarning 2-9-sinflarida o‘zbek tilining asosiy fan sifatida o‘qitilishi 1993-1994-o‘quv yilidan boshlangan edi. Vaqt o‘tishi bilan fanlarni o‘qitish metodikalari yangilanmoqda, ko‘proq samara beradigan yo‘llari izlab topilmoqda.(Tolipova.R. 2000.)

“Davlat tili haqidagi” qonunning qabul qilinishi sababli mamlakatimizda yashab kelayotgan boshqa millat vakillariga o‘zbek tilini o‘qitish uchun kerakli sharoitlar yaratildi. Shu jumladan, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning metodologik asoslari ishlab chiqarilishi yo‘lidagi ishlar boshlandi.

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning metodologik asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi davlat Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, ta’lim-tarbiya sohasida keyingi yillarda qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ta’lim taraqqiyoti va xalqlar do‘stligiga oid asarlari, metodist olimlarning ta’lim-tarbiyaga doir qarashlari tashkil etadi. Fanni o‘qitishda yangi metodlardan foydalanish, o‘zbek tilini o‘qitishga doir yangi qo‘llanmalar yaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.(Назарова С. 1992. 9-бет.)

Bugungi kunda maktab oquvchilarning yoshidan, qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv dasturi ishlab chiqilmoqda, darsliklar yaratilmoqda. Dars o‘tish uchun mavjud o‘quv qo‘llanmalar ham bugungi talablariga javob bera olmay qoldi. Hozirgi kunda, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishga e’tibor kuchayganini Oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbek tili ta’limi” fakultetlarida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili yo‘nalishida o‘qituvchi-kadrlar tayyorlanayotganidan ham bilish mumkin. Ushbu fakultetda professorlar tomonidan talabalar o‘zbek tilini maktablarda “Davlat tili” sifatida, xorijliklarga esa ikkinchi til sifatida o‘qitishiga tayyorlanmoqda.

Hozirgi davrga kelib yurtimizda psixologiya,psixolingvistika, metodika kabi fanlarning rivojlanishi sabab til o‘rgatishga bo‘lgan yondashuvlar ham yaxshi tomonga o‘zgargan. Maktablarda o‘quvchilarni an’anaviy tarjima qilish, so‘z yodlash metodlaridan tashqari o‘quvchilarning yoshidan kelib chiqib, ularga mos bo‘lgan yangi metodlar orqali dars o‘tilmoqda. O‘zbek tilini o‘qitilishidan maqsad o‘quvchi o‘zbek tilida muloqot qila olishidir. Bundan 10 yillar oldingi vaqtda davlat tili fanidan o‘quvchilarga grammatik qoidalar yodlatib kelingan. Kitoblarda ham qoidalar uzun va katta qilib berilar edi. Qoida yodlagan o‘quvchi, amalda shu

qoidalardan foydalanib gap tuzishi, suhbat qilishi uchun maktablarda ajratilgan dars soatlari kamlik qilar edi. Bundan tashqari maktab o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari yetarlicha e`tiborga olinishi til o‘qitish metodikasining eng asosiy jihatlaridandir. Hozirgi kunda darsliklarga bo‘lgan e’tibor o‘zgarganligi sababli ularning mazmuni butunlay yangi ko‘rinishga keldi.

O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning qator ahamiyatga loyiq jihatlari mavjud. Masalan, 5-sinf o‘quvchilari bilan boshqa sinflarga nisbatan boshqacharoq ishlash kerak. Sababi,bu davr boshlang‘ich sinfdan katta sinfga o‘tishning birinchi yili. Bu vaqtda o‘quvchilar boshlang‘ich sinf ustozlaridan emas, yangi ustozlardan bilim olishni boshlashadi. Yangi ustozlar, yangi metodlar, yangi fanlar – bular o‘quvchilarga psixologik jihatdan o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, ayrim o‘quvchilarga bu yangiliklar yoqadi, ammo yangiliklarni qabul qila olmaydigan o‘quvchilarga bu yoqmasligi tayin. Shunday vaqtda fanga bo‘lgan qiziqishni paydo qilish, ishtiyoqlarini so‘ndirmaslik ustozning mahoratiga bog‘liq. Bu yoshda bola e’tibor talab va yumshoq muomalaga ehtiyoj sezayotgan bo‘ladi. O‘zbek tili o‘qituvchisi bolaga mehribonligi bilan bizning xalq bolajon ekanligini yodida qoldirishi mumkin. Mana shu yerda bilim berish bilan birga o‘zbek xalqining o‘ziga xos jihatlari bola ongiga singadi. Bu yoshdagi o‘quvchilar xato qilishdan qo‘rqishmaydi, og‘zaki nutqini rivojlantirish, ko‘proq dialoglar bilan ishlash ham yaxshi natija olib keladi. Gap yoki so‘zlar aytilishida uchragan xatolar ularga to‘g‘ri tushuntirilsa, qattiq tanqid qilinmasa ularda og‘zaki nutqni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipova.R. 2000. Ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlar uchun o‘zbek tilidan dastur. – T., «Sharq» «TAT» jurnal.

2. Назарова С. 1992. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. – Т., Ўқитувчи.

3. Ушакова Т.Н. и др. 2006. Психолингвистика. Учебник для вузов.

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI: YOXUD NEYMING MASALASINING DOLZARBLIGI

Baratova Marjona Zayniddin qizi
ToshDO‘TAU O‘zbek tili ta’limi fakulteti, 2-kurs
marjonabaratova04@gmail.com

Annotatsiya. *Neyming, nomlash, o‘zbek tilida neyming masalasining ahamiyati, o‘zbek tilida nom yaratishning nazriy masalasi, nomlarning ishoraviylik va axborot ifodalashi, korxona,firma, iste’mol tovarlaridagi nomlar, neyming lingvistikasi, neyming texnologiyasi tadbirkorlikda, nomlashda chet el terminlarining kirib kelishi.*

Kalit so‘zlar. *nomlash, neyming, neyming lingvistikasi, neyming texnologiyasi.*

Abstract. *naming, naming, the importance of the issue of naming in Uzbek language, the theoretical issue of creating a name in Uzbek language, symbolic and information expression of names, names in enterprises, firms, consumer goods, naming linguistics, naming technology in business, foreign terms in naming coming in.*

Keywords. *Naming , naming linguistics, naming technology.*

Neyming termini o‘zbek tilida *nomlash, nom berishga* nisbatan ishlatilsa-da, ma’no doirasi, qo‘llanish obyektiga ko‘ra undan farq qiladi. O‘zbek tilida *nomlash, nom berish* so‘zlari borliqdagi har qanday narsa-predmet, voqea-hodisa, belgi-harakat, miqdor kabilarga nisbatan ishlatiladi. Ammo *neyming* faqat tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlari, ularning markasi (brendi)ni nomlash hodisasini qamrab oluvchi terminologik birlik bo‘lib, tilshunoslikka ham aynan shu ma’nosida kirib keldi va bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlarini nomlashning lingvistik jihatlarini o‘rganuvchi yo‘nalish – *neyming lingvistikasida* ham faol ishlatilmoqda. Manbalarda *neyming* terminiga turlicha tavsif berilganligiga guvoh bo‘lamiz. *Neyming* marketologiyaning tayanch terminologik birligi bo‘lgani bois shu soha lug‘atlarida atroflicha tavsiflangan. Keyingi yillarda respublikamizda ishlab chiqarish, savdo-

sotiq obyektlari, korxona, muassasa, firma, mahsulotlarga xorij tillarida nom qo‘yish urfga aylanib bormoqda. Ayniqsa, keyingi uch-to‘rt yil ichida nom yaratishda inglizcha yoki so‘zlarga murojaat qilishga ruju qo‘yilmoqdaki, buning sabablarini turlicha izohlash mumkin. Birinchidan, ishlab chiqarish, savdo obyektlari, korxona, muassasa, firma o‘z nomi yoki mahsulotini xorijiy tilda nomlash orqali iste’molchilar e’tiborini o‘ziga jalb qilishni ko‘zda tutgan bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, xorijiy nom orqali ishlab chiqarish, korxona, firma, savdo obyektlari o‘z mahsulotini jahon bozoriga olib chiqishni nazarda tutgan deb taxmin qilish mumkin. Har qanday holatda ham, bizning nazarimizda, har bir davlatda ishlab chiqarish, savdo obyektlari, korxona, muassasa, firma savdo obyekti, mahsulotga, avvalo, shu davlatning milliy tilida nom berilishi maqsadga muvofiq. Nomning boshqa tillarda berilishi, bir tomondan, milliy tilimizga soya solish, uning qo‘llanish doirasini cheklash, sofligiga putur yetkazishga olib kelsa, boshqa tomondan, kishilarda milliy tilga bepisandlik kayfiyatini hosil qiladi.

Ishlab chiqarish, savdo obyektlari, korxona, firma, mahsulotlar, uning brendiga nom qo‘yish jarayonini yengillashtirish, xalqimizning milliy an’analari va mentalitetiga yot bo‘lgan to‘qima nomlarning oldini olish, yangi nomlarning o‘zbek adabiy tili me’yorlariga mos bo‘lishini ta’minlash maqsadida tadbirkorlik subyekti bilan shug‘ullanuvchi ommani nomlash (neyming) texnologiyasi asoslaridan xabardor qilish, ularga uslubiy ko‘rsatmalar berish, savdo brendlari nomlarining zaxirasini yaratish dolzarb muammolardan biridir.Ayni paytda mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanib borayotganligini hisobga olsak, bir-birini takrorlamaydigan, yangi nomlarni topish ham oson emas, albatta. Mana shularni inobatga olgan holda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi hamkorligida ishlab chiqarish, savdo obyektlari, kompaniya, firma, mahsulotlarga nom qo‘yish jarayonini yengillashtirish, xalqimizning milliy an’analari va mentalitetiga yot nomlar berilishining oldini olish, ularning O‘zbekiston Respublikasi “Davlat tili haqida”gi Qonuniga mos bo‘lishini ta’minlash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, nomlar zaxirasini yaratish ishi yo‘lga

qo‘yildi. Xususan, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tashabbusi bilan “O‘zbekcha nomlash laboratoriyasi” o‘z faoliyatini boshladi. O‘zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligi tomonidan mazkur masala yechimiga bag‘ishlangan “O‘zbek tilida neyming: me’yoriy-huquqiy asoslarini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha uchun mablag‘ ajratilib, o‘zbek tilida nomlar bazasini yaratish ustida ish olib borilmoqda. Internet tarmog‘ida barcha tadbirkorlar, ishlab chiqaruvchilar uchun “uznom.uz” sayti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ushbu sayt orqali tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi kishilarga firma, korxonalari, savdo obyektlari, ishlab chiqargan mahsulotlari uchun milliy nomlar taqdim etiladi. Yo‘lga qo‘yilgan mazkur xizmat turi orqali nom yaratish jarayonida o‘zbek tili me’yorlarining buzilishi bilan bog‘liq holatlarga chek qo‘yiladi.

Ma’lumki, yaqin davr oralig‘ida mamlakatimizda davlat tili hisoblangan ona tilimizni rivojlantirishga oid qator muhim hujjatlar e’lon qilindi. Ana shunday hujjatlardan biri O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yilning 16- martida e’lon qilingan “Savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 144-sonli qarori hisoblanadi. Unda mazkur qarorni qabul qilishdan maqsad “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida “2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga nom berishni takomillashtirish” dan iborat ekanligi alohida ta’kidlangan. Aytish joizki, bu ayni vaqtida qabul qilingan va tilimizning sofligini ta’minlashga, shuningdek, o‘zbek tili milliy brendlarini takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjatdir. “*Mamlakatimizda iqtisodiyot sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamdagi harakatlar natijasida tadbirkorlik faoliyatini olib boruvchi ko‘plab ishlab chiqarish obyektlari, kompaniyalar, firmalar tuzil-di. Natijada korxona, tashkilot, muassasalarning juda katta miqdordagi nomlari yuzaga keldi. Ular orasida o‘zbek tili qonuniyatlariga mos keluvchi nomlar bilan birga tilimiz me’yorlariga muvofiq*

bo‘lmagan nomlar ham mavjud. Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati obyektlarini asossiz ravishda xorijiy tildagi so‘zlar bilan nomlash ham, afsuski, ko‘p uchraydigan holatlardan biriga aylandi. Ularning ayrimlari o‘zbek tili qonuniyatlariga mutlaqo mos kelmaydi.” (D.Xudoyberganova, 2021, 9-bet) Bu kabi holatlarni bartaraf etish nafaqat tilshunoslar, balki bir necha sohalar hamkorligini talab etadigan murakkab jarayondir. Yuqorida tilga olingan qarorda mazkur muammo yechimiga oid chora-tadbirlar aniq belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Adliya vazirligi, O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasining Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi hamda uning hududiy bo‘linmalari tomonidan savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlariga davlat tilida nom berish xizmatini ko‘rsatish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullandi hamda ushbu Markaz va uning hududiy bo‘linmalariga obyektlarga davlat tilida nom berish xizmatini ko‘rsatishga oid bir qator vazifalar yuklandi. Jumladan: “…davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiq keladigan, milliy qadriyatlarga mos hamda obyektlarga qo‘yish tavsiya etiladigan nomlar zaxirasini onlayn rejimida shakllantirish hamda uni doimiy yangilab borish; tashqi yozuv, peshlavha, reklama va e’lonlar matnini tayyorlash, shuningdek, ularning davlat tili qoida va me’yorlariga muvofiqligi, nomlarning bir xil yoki o‘xshashlik darajasi yuzasidan lingvistik ekspertiza o‘tkazish; nomlash, nom yaratish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik qilish, ularga maslahat yordamlari ko‘rsatish.” Mavjud nomlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlar nom yaratishda tilshunoslar bilan hamkorlik qilishlari zarur. O‘z navbatida, tilshunoslar ham o‘zbek tilida nomlash texnologiyasi nazariyasini shakllantirish, bu borada turli qo‘llanma va lug‘atlar yaratishga jiddiy e’tibor qaratishlari lozim. Aytish joizki, tilshunoslarimiz ushbu masala bo‘yicha muayyan ishlarni amalga monografiyasini nashrga tayyorladi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida ham bu borada e’tiboga loyiq ishlar amalga oshirilmoqda. “*Universitetda davlat granti asosida olib borilayotgan “O‘zbek tilida neyming:me’yoriy-huquqiy*

asoslarini yaratish" mavzusidagi ilmiy loyiha)da, obyektlarga qo'yish tavsiya etiladigan nomlar zaxirasi onlayn rejimida shakllantirilmoqda, tadbirkorlik subyektlari bilan hamkorlik o'rnatilib, ularga nom tanlash bo'yicha maslahatlar berib borilmoqda." (M.Saparniyazova, 2022, 34-bet) Loyiha a'zolari ishtirokida telegram xizmati tashkil qilingan. "Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohlitavsiyaviy lug'ati"ni tuzish ham mazkur loyiha rejasidagi vazifalardan biri bo'lib, u 2019-2021-yillarda tuzildi va nashrga tayyorlandi. Ayrim tilshunoslar kompaniyalar, savdo markalari (brendi) uchun nom yaratish lingvistika, psixologiya, marketing sohalari doirasida amal qilishini inobatga olib, neymingning turli fanlar hamkorligidagi alohida soha – *lingvopiareologiya*ga mansub ekanligini ta'kidlashmoqda. "*L.P.Kazanskaya ham neyming nafaqat lingvistlar, balki iqtisodchilar, yuristlar, psixologlarning ham kasbiy qiziqishlari kesishgan soha ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, neyming turli sohalarda o'rganilsa-da, uning asosiy komponenti aynan lingvistik jihati hisoblanadi, neymingning lingvistik mohiyati brendning yorqin elementi sanaladi: bir so'z yoki frazada brendning butun mohiyati, uning barcha qimmatli belgisi ifodalanadi."* (M.Saparniyazova, 2022, 37-bet)

Bugungi kunda tilshunoslikda neyming texnologiyasining lingvistik aspekti bilan bog'liq turli muammolar o'rganilmoqda. "*Bunday muammolar* ***neyming lingvistikasi****ninig muhim vazifalari bo'lib, unda, asosan, quyidagi masalalar tahliliga jiddiy e'tibor qaratilmoqda: 1. Har bir tilda shu tilning ichki imkoniyatlari asosida nom hosil qilish hamda tilning mavjud zaxirasidan nom tanlashning lingvistik me'yorlarini belgilab berish. 2. Har bir tilning o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda nom hosil qilish va tanlashning lingvistik metodikasini ishlab chiqish. 3. Tildagi nomlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish, ularni tartibga solish. 4. Har bir tilda yangi nomlar zaxirasini yaratish."* (M.Saparniyazova, J.O'rozov, 2021, 56-bet) Bizningcha, bu muammolarning o'rganilishi tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste'mol tovarlariga berilayotgan nomlarni tartibga solish, yangi nom hosil qilish yoki tilimiz zaxirasida mavjudlaridan tanlab olishda davlat tiliga hurmat bilan yondashish, uning

imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanish kabilarga xizmat qiladi. Birgina misol. Keyingi vaqtlarda respublikamizda nom yaratishda xorij so‘zlaridan foydalanishga haddan tashqari ruju qo‘yilmoqda. Tijorat obyektlari, iste’mol tovarlari nomlariga xos eng muhim belgilar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: 1. Bu turdagi nomlar tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlarini nomlovchi lingvistik birliklar hisoblansa-da, obyektning inson psixologik tasavvuriga asoslangan ikkilamchi nomlari sanaladi. 2. Nomlar tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlarini nomlash barobarida so‘zga yangi semantik mohiyat, pragmatik vazifa, konnotativ, milliy-madaniy bo‘yoq yuklaydi. Bunday nomlarda nominatorlarning voqelikni idrok etishi, assotsiativ tafakkuri ham namoyon bo‘ladi. Anglashiladiki, **neyming lingvistikasi**ning o‘rganish obyekti hisoblangan tadbirkorlik faoliyati obyektlari, korxona, firma, iste’mol tovarlariga berilgan nomlar mohiyatan boshqa turdagi nomlardan tubdan farqlanadi. Neyming lingvistikasida nomlash alohida faoliyatni, ijodiy jarayonni taqozo etadi. Bugungi kunda neyming lingvistikasining dolzarb vazifalaridan biri nom yaratuvchilarga, ayniqsa, o‘z tadbirkorlik faoliyati obyektiga, ishlab chiqargan mahsulotiga nom berishni maqsad qilgan tadbirkornominatorlarga nom hosil qilish yoki til tizimidagi mavjud nomlardan maqbulini tanlash metodikasi bo‘yicha muayyan tavsiyalar ishlab chiqish, ularga yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Xudoyberganova (2021) *“Tashkilot, korxona va muassasa nomlarining izohli-tavsifiy lug‘ati”* Toshkent: Malik print go.
2. M.Saparniyazova (2022) **“***Neyming nazariyasi va amaliyoti”* Toshkent: Ishonchli hamkor.
3. M.Saparniyazova, J.O‘rozov (2021) *“O‘zbek tilida nom yaratishning lingvomadaniy xususiyatlari”* Monografiya. Toshkent: Ishonchli hamkor.

O‘QUVCHILARDA NUTQNI O‘STIRISH MASALASIDA

Berdiqulova Shodiya,
ToshDO‘TAU 2-kurs talabasi

***Annotatsiya**: Ushbu tezisda o‘quvchilarda nutq boyligini keskin oshirishning samarali usullari haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek joriy mavzu yuzasidan ish olib borgan va fikr yuritgan tadqiqotchilar va ularning nazariyalari haqida so‘z yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar**: nutq boyligi, takrorlash usuli, nutq tahriri, editing metodi.*

Bugungi kunda o‘quvchilarimiz orasida keng tarqalgan e’tiborga molik muommo bu nutq ravonligi. Bir qarashda muhim emasdek ko‘ringani bilan, bugungi kunimizning dolzarb va muhim talablaridan biriga aylanishga ulgurgan. Bu muommo yuzasidan ko‘plab yechim va nazariyalar amaliyotga tadbiq etilgan. Talaba sifatida, o‘qituvchi sifatida, boringki oddiy xaridor yoki sotuvchi sifatida o‘z atrofimizga razm solsak, nutq bilan, nutqiy muomala, nutqiy madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan talay muommolarni ko‘ramiz. O‘uvchilarimiz nutqida tuzatilishi kerak bo‘lgan nuqsonlarni aniqlab olsak, talaba sifatida bu kabi holatlarga kun ora guvoh bo‘laman. Masalan, o‘quvchining fikrlash saviyasini, uning turli mavzularga doir qarashlarini, bilish darajasini yuzaga chiqarishda unga o‘z nutqi ko‘makchi vazifasini o‘taydi. Ammo muommo shu yerdaki, ayrim o‘quvchilarning nutqiy o‘suvchanligi bilish darajasidan ancha orqada. Masalan, shunday o‘quvchilar borki, fikrlash doirasi maromida, ammo o‘z fikr- g‘oyalarini ommaga asosli qilib chiroyli ohangda yetkazib bera olishdek nutqiy qobilyatga ega emas. O‘quvchilarning yana shunday turi borki, qisqa cheklangan ma’lumotlar asosida butun auditoriyani o‘z nutqiga jalb qila biladi hamda ta’sir eta oladi. Bu kishining so‘z boyligining mahsulidir. So‘z boyligining oshirilishida biz har bitta so‘zimizga alohida e’tiborli bo‘lishimiz kerak. Zero, Tursunboy Adashboyev aytkanidek, til boyligin bir bog‘ desak, har bitta soz bitta niholdir.

O‘quvchilarning so‘z boyligini rivojlantirish bo‘yicha bizda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Jumladan, T. Ziyodova, K. Qosimova, N. Alavutdinov, M.

Saidovlarning ilmiy tadqiqot ishlari shular sirasidandir. Ushbu tadqiqotlarda o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar berilgan.

Nutqni o‘stirishga qaratilgan metodikalarni o‘rganib chiqishim davomida e’tiborga molik jihatlarni qayd etishim mumkinki, maktab o‘qituvchilarining birinchi vazifasi, o‘quvchilar nutqidagi nuqsonlarning oldini olib, nutqini sheva ta’siridan tozalash va adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda so‘zlashishga o‘rgatishdir. O‘quvchilar nutqiga qo‘yiladigan asosiy talablar ham mavjud.

Nutqning mazmundorligi. Bunda o‘quvchi nutqi nutq sharoitiga mos tushsa hamda o‘zi bilgan va xabardor bo‘lgan voqea hodisalarni og‘zaki shaklda maazmunli bayon eta olishi. Nutqning nutq sharoitiga mosligi. Nutq sharoiti deganda nutq yaratilayotgan paytda so‘zlovchi va tinglovchining sharoiti tushuniladi. Masalan, so‘zlovchi bitta tinglovchi ko‘p bo‘lsa, so‘zlovchi baland ovozda, to‘xtamlarga rioya etgan holda, fikrni bir-biriga bog‘liq tarzda, izchil bayon etishi talab etiladi. Bunday nutqning o‘ziga xos ko‘rinishi o‘quvchining nazariy masalalarni yoritishdagi nutqida o‘z aksini topadi.

So‘zlovchining tinglovchilar saviyasini hisobga olishi, nutq sharoitining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Nutqning boy va rang barang bo‘lishi. Nutqning boy va rang barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: ma’nodosh, uyadosh, qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan, tasviriy ifoda va iboralardan, maqol va matallardan, ko‘chma ma’noli so’zlardan, o‘xshatish, sifatlash kabi badiiy til vositalaridan keng va o‘rinli foydalanishda namoyon bo‘ladi. Nutqda har bir fikr mantiqan asoslangan bo‘lsagina uning ta’sirchanligi oshadi. Bu har bir o‘quvchidan narsa, voqea hodisaga sinchkovlik bilan qarash, ularning har biriga to‘gri baho bera olish, shu yo‘l bilan nutqni muntazam va izchil qurish, uni isbotlay bilishni talab etadi. O‘quvchi fikrni bayon etayotganda bir fikrni ikkinchisi bilan mantiqan tog‘ri bog‘lay olish. Mavzuga aloqador bo‘lgan asosiy fikrlarni ikkinchi darajali fikrlardan farqlay bilishi kerak. Nutqning ohangdorligiga kelsak, ohang o‘quvchi nutqining ta’sirchanligini oshirish vositasi hisoblanadi.

Biz kuzatishimiz jarayonida o‘quvchilar nutqini o‘stirishga qaratilgan bir qancha tadbirlar amalga oshirilishining guvohiga aylandik. Jumladan, o‘quvchilarni turli tadbirlarda va yig‘inlarda chiqib so‘zlashga odatlantirish, orfografik bilimlarni mustahkamlashga oid darslar, adabiy ravon talaffuzni har bir darsda o‘rganilayotgan qoidalarga bog‘lab o‘rgatish.

To‘g‘ri bu xildagi chora-tadbirlar bir muncha samara bergan. Ammo o‘quvchilarning ravon, to‘xtalishlarsiz, tiniq, mazmunli nutqini ta’minlashda “EDITing” metodini muntazam qo‘llash joiz deb bilaman. Darslar jarayonida o‘quvchi o‘qishi kerak bo‘lgan kitoblar shumday tanlanishi kerakki, o‘quvchi ularning syujeti bilan tanishibgina qolmasdan, ular o‘quvchini fikrlatishi, fikrlashga majbur etishi kerak.Kitoblar yuzasidan o‘quvchi o‘z xulosasini bera olishi va hukm chiqara bilishi kerak. Aynan shu xildagi tadbirlar davomida “EDITing” (ya’ni tahrirlash) metodini qo‘llash samara beradi. Bunda o‘quvchi har bir dars mashg‘ulotida o‘zi(nutqi)ni tahrirlab, tuzatib borish imkoniga ega bo‘ladi. O‘qituvchi o‘quvchiga qaysidir mavzu yuzasidan o‘z fikr va mulohazalarni bildirish uchun qanchadir muddat belgilaydi va shu muddat davomida o‘quvchi nutq so‘zlaydi. So‘zlangan nutq diktofon sifatida yozib olinib, o‘quvchiga qayta eshittiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchi o‘z nutqidagi xato va kamchiliklarni: noo‘rin to‘xtalishlarni, qisqa-uzoq uzilishlarni, o‘rinsiz qo‘llangan so‘zlarni, qolipiga tushmagan jumlalarni aniq, yaqqol ko‘ra olishidir. O‘quvchi keyingi dars mashg‘ulotlariga qadar shu ovoz yozuvi uastida ishlab, undagi beo‘xshov bo‘shliqlarni to‘ldirishi maqsadga muvofiq. Shuni aytib o‘tish kerakki, bu metod orqali yaxshi natijaga erishish uchun, uni dars mashg‘ulotlarida muntazam qo‘llash kerak deb bilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nunan. D. (1991) Language teaching methodology. A. textbook for teacher..
2. D. R. Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi.

CHET TILINI O‘QITISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR

Hakimova Nasiba Alisher qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyotita’limi
fakulteti 2-kurs hakimovbobmurod06@gmail.com

Annotatsiya. *Fan, texnika, san’at, sayyohlik, xalqaro aloqa va xalqaro ishlarda keng qo‘llanilayotgan tillar ilg‘or tillar bo‘lib, bugungi kunda dunyoning aksar davlatlarida chet tili sifatida o‘qitilishi tilning faqat o‘z davlati chegaralaridagina emas, balki boshqa millatlar va madaniyatlar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishini, uni samarali tarzda tan olinishi va o‘rgatilishi uchun ko‘proq o‘rganilishini anglatadi. Xorijiy tillardan xususan, ingliz tilini chet tili sifatida o‘qitishning zamonaviy ta’lim metodlari ishlab chiqilgan bo‘lishiga qaramasdan, o‘zlashtirishning o‘ziga xos muammolari mavjud. Maqolada shu muammolar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Jadidlar harakati,maktablar, “kaskad” tamoyili, chet tili, magistratura, maktab,rus tili,ingliz tili, ta’lim.*

Abstract.*Languages that are widely used in science, technology, art, tourism, international communication and international affairs are advanced languages, and today in most countries of the world, the language is taught as a foreign language not only within the borders of their own country, but also in other countries. Means that it interacts with nations and cultures, is studied more so that it can be effectively recognized and taught. Despite the fact that modern educational methods of teaching foreign languages, especially English as a foreign language, have been developed, there are specific problems of mastering them. The article discusses these problems.*

Keywords. *Language movement, schools, “cascade” principle, foreign language, master’s degree, school, Russian language, English language, education.*

Turkistonda jadidlar harakatining asosiy maqsadlaridan biri xalqni savodli qilishdan iborat edi. Ular maktablar ochib, unda diniy bilimlar bilan dunyoviy fanlarni o‘qitishga e’tibor berdilar. Shuningdek,til o‘rganish borasidagi fikrlari

hanuz dolzarbligicha qolmoqda.Oradan qariyb bir asr o‘tgan bo‘lsa-da,til o‘rganish—jahonga chiqishning yagona yo‘li ekanligini tushunib turibmiz. Aslida, til o‘rganish orqali o‘zbek tilini,madaniyatini,san’atini,tarixini jahonga yoyishning yagona yo‘li ekanligini jadid bobolarimiz yaxshi tushunishgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning nomi mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning tomonidan 2016-yilning 8-noyabrida Samarqand viloyati saylovchilari bilan uchrashuvda so‘zlagan nutqida Samarqand tuprog‘ida voyaga yetgan o‘nlab ma’rifat fidoyilarining biri sifatida tilga olindi. Ular qoldirgan o‘lmas merosi bugungi kunda ham ma’naviyatimizni yuksaltirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda muhim manba bo‘lib xizmat qilayotgani aytib o‘tildi.

2019-yilning 28-avgustida O‘zbekiston o‘qituvchilari va murabbiylariga yo‘llagan bayram tabrigida o‘zining ko‘z nuri, qalb qo‘ri, butun borlig‘ini yosh avlod tarbiyasiga baxsh etadigan o‘qituvchi va murabbiylar mehnati,jasorati har qanday yuksak baholarga munosib ekanligini ta’kidlagan holda Mahmudxo‘ja Behbudiyning : ,, Avlodlaringizga faqat bugunning emas, kelgusi zamonning ilmini o‘rgating‘’, -- degan o‘gitlarini yodga oldi.

Tarixchi olima Dilorom Alimovaning ta’kidlashicha , til konsepsiyasi Behbudiyning ,, Bir til emas, to‘rt til kerak’’—deb nomlangan maqolasida ochib berilgan. Ya’ni unga ko‘ra, Chor Rossiyasi imperiyasida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishi zarur. Biz harakatimiz taktikasini ishlab chiqish uchun qanday boshqarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. O‘z davrida sodir bo‘layotgan siyosiy o‘zgarishlarni chuqur anglagan va tahlil qilgan Behbudiy rus tilini o‘rganish orqali mahalliy xalq o‘z haq-huquqlarini to‘g‘ri tushunib olishlari mumkinligini ta’kidlaydi.(https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/)

,,Behbudiy—o‘zbek tilining jarchisi’’ maqolasining muallifi, tilshunos olim Suyun Karimov quyidagilarni yozgan edi: ,,O‘tgan yuz yilga yaqin vaqt orasida biz uchun iste’molda bo‘lgan tillarga nisbatan munosabat, ularning iste’mol uchun muhimlik darajasi ma’lum ma’noda o‘zgargan bo‘lishi mumkin, albatta. Ammo til falsafasini, mantiqini, uning ijtimoiy ahamiyatini nihoyatda zukko anglagan olim

muhim bir g‘oyani ilgari suradi: til bilmoq lozim. Qancha ko‘p til o‘rganilsa, dunyoni anglamoq shuncha oson kechadi’’(2. Karimov S. Behbudiy—o’zbek tilinig jarchisi//o‘zbek tilshunosligi masalalari.—Samarqand,2002.-37b.).

Bu fikrning nechog‘lik bugungi kun uchun ham ahamiyatli ekanligini hammamiz yaxshi anglab turibmiz.

Til ta’limi – barcha zamonaviy (ona tili bo‘lgan va bo‘lmagan) tillar va madaniyatlar sohasiga oid ta’limdir. Xususan, chet tili ta’limi o‘zaro hamkorlikda olib boriluvchi,uzviylikva uzluksiz omillari asnosida tashkil etiluvchi murakkab jarayondir.

Bugungi kunda ta’limni modernizatsiyalash zarurati, dunyo hamjamiyatiga integratsiya jarayoni ta’lim tizimiga innovatsiyalarni joriy qilishni taqozo etmoqda. Axborotlashgan jamiyat davrida bilim va malakaning inson hayotidagi ahamiyati birinchi o’ringa chiqadi. Bugungi kun—globallashuv davridir. Bu davr insoniyatning zamon bilan hamnafas odimlashini talab etadi. Shu boisdan, turli soha mutaxassislari o‘z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishi va muloqot qila olishi maqsadga muvofiq. Buning uchun xorijiy tillarni o‘rganish va o‘qitish tizimini yanada zamonaviy metodlar bilan takomillashtirish va chet tillarini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshirish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Ilmiy faoliyatning ilk debochasi bo‘lgan magistratura yo‘nalishiga kirish imtihon shartlarini ishlab chiqish jiddiy ilmiy va amaliy yondashuvni talab etadi. Maktab ta’limini oladigan bo‘lsak,ingliz hamda rus tili darslari haftada uch marta o‘tiladi. Dars davomiyligi esa 40-45 minutni tashkil etadi. Vaholangki, chet tilini o‘rganish uchun , albatta, bu vaqt kamlik qiladi. To‘g‘ri , darslar sinf ikkiga bo‘lingan holatda o‘tadi. Lekin ko‘zlangan natijaga erishib bo‘lmaydi. O‘quvchilarning til bilish savodxonligi susayib bormoqda.

Haftasiga to‘rt marotabadan darslar o‘tilsa, ko‘proq o‘quvchining nutqiga e’tibor berilsa maqsadga muvofiq. Hozirgi kunda ko‘plab ota -onalar farzandlarining chet tilini o‘rganishlari uchun qo‘shimcha kurslarga qo‘yishmoqda. Bu,albatta, maktab ta’limida yetarli darajada til

o‘rganolmayotganidandir. Bolalarni o‘qishga qiziqtirish uchun maktabda chet tilini a’lo baholar va sertifikat bilan bitirgan o‘quvchilarga imtiyoz asosida o‘qishga qabul qilinishlari uchun imkoniyat yaratib berilsa maqsadga muvofiq. Har bir o‘quvchi maktabni bitirib , oliygohlarga qadam qo‘yadi. Barcha oliygohlarda ham chet tili o’tilmaydi. Vaholangki, o‘quvchining o‘zlashtirgan chet tili bilimi sustlashadi va yana qo‘shimcha kurslarga qatnashiga majbur bo‘ladi. Shuning uchun til o‘rganish jarayonini uzluksiz olib borish maqsadga muvofiq. Har bir inson chet davlatlarda bo‘lishni orzu qiladi va aksariyat kishi muammoga duch keladi ya’ni til bilmagani uchun qiynaladi. O‘zi orzu qilgandek sayohat qila olmaydi. Barchamizga ayonki, soqov,gung kishilar --gapirish qobiliyatidan mahrum etilgan shaxslardir. Agar chet davlatda bo‘lgan kishi til bilmasa (mahalliy xalq tili) sovoq,gung insonlarga o‘xshab qolishadi. Shunday ekan , ushbu ,,kasallikdan’’ xalos bo‘lish har bir inson qo‘lida.

Internet saytlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Inglizchadunyoning sevimli tili bo‘lib qola oladimi?” , “Chet tili faqat ingliz tilimi?”sarlavhalari ostida yozilgan bir necha ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalarda mualliflar xorijiy tillarni o‘qitish faqatgina ingliz tili bilan cheklanib qolishi kerak emasligiga urg‘u beradilar. Darhaqiqat, xorijiy tillar deyilganda ko‘z o‘ngimizdsa barcha chet mamlakat tillari namoyon bo‘lsa-da,afsuski, mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rta maktablarda shu kunga qadar asosan ingliz tili chet tili sifatida o‘rgatib kelinmoqda edi. Biroq Prezidentimiz tashabbusi bilan bugungi kunda ta’lim muassasalari, tarmoqlar va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilini – ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon,turk,arab,fors tillarini o‘rgatishni tashkillashtirishdek dolzarb masala kun tartibiga qo‘yilgan. Agentlik qisqa muddat ichida uzluksiz ta’lim tizimining bosh bo‘g‘inlari sanalgan vazirliklar, chet tili o‘qitishning turli sohalarida faoliyat yuritib kelayotgan ko‘plab xorijiy va mahalliy tashkilotlar hamda davlat va nodavlat ta’lim muassalaribilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yib, katta-katta loyihalar ustida ishlashga muvaffaq bo‘lmoqda. Jumladan, Britaniya Kengashi, AQSHning O‘zbekistondagi Gyote Instituti,Yaponiya va Koreya

xalqaro hamkorlik agentligi, At Tanal Al Arabi arab tilini o‘qitish va test tizimini o‘z ichiga olgan tashkilot,Istanbul Aydin Universiteti, shuningdek, Makmillan, Oksford, Pirson, MM, Klett singari xorijiy nashriyotlar bilan aloqa o‘rnatilib,hamkorlikda faoliyat olib borilmoqda. Shuningdek,olis hududlarda joylashgan yoki xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatkichi past bo‘lgan ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarning malakasini oshirish bo‘yicha Agentlik tomonidan respublikada faoliyat yuritilayotgan nodavlat ta’lim tashkilotlari va xorijiy hamkorlar vakillaridan iborat mobil guruhlar shakllantirildi.Mazkur mobil guruhlar tomonidan ,, kaskad’’ tamoyili asosida hududlarda xorijiy tillarni o‘qitish va ommalashtirish bo‘yicha treninglar tayyorlanmoqda hamda ularning hududdagi chet tillari o‘qituvchilarining malakasini oshirish bo’yicha faoliyat tashkil etildi. Respublikamizdagi 207 nafar umumiy o‘rta ta’lim maktablarining xorijiy tillarga ixtisoslashtirilishi munosabati bilan ayni maktablarda xorijiy tillarni o‘qitishni tubdan isloh etish va takomillashtirish, shu bilan birga respublikamiz oliy ta’lim muassasalari qoshida xorijiy tillarni yanada chuqurroq o‘rganish uchun o‘quv markazlari tashkil etildi. Hozirgi kunda OTMlar huzurida o‘zaro kelishuv asosida tashkil etilgan mazkur o‘quv markazlar professor-o‘qituvchilar va talabalarni chet tili darajasini aniqlash bo‘yicha xalqaro va mahalliy tastlarga tayyorlash bilan birga, chet tili mutaxassisligi bo‘lmagan OTM o‘qituvchilari va talabalari, rahbar kadrlarining xorijiy tillar bo‘yicha savodxonligini oshirish sohasida intensiv kurslarni olib bormoqda.

Agentlik tomonidan poliglot (ko‘p tilni biladigan) talabalar bilan ishlash, poliglot yoshlar o‘rtasida musobaqa va tadbirlar uyushtirish, ularni rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Kelajakda, bu dargoh nafaqat respublikada xorijiy tillarni o‘qitishni ommalshtiradi, balki xorijiy tillarda tahsil olish va o‘qitishda duch keladigan har qanday masalalarni hal etib,dunyo miqyosida vatanimiz ravnaqinibko‘rsata oladigan ilm-fan, ta’lim va taraqqiyot nufuzini ko‘tarishga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shadi. (Til bilgan -el biladi 19.05.2021.Shoira Normatova, Mehribon Abdurahmonova)

“Davlat tomonidan til ta’limiga ko‘rsatilayotgan e’tibor hamda g‘amxo’rlik, bu borada amalga oshirilishi ko’zda tutilayotgan sa’y-harakatlar mazkur soha mutaxassislari, kasb egalari qalbida minnatdorchilik tuyg‘usi uyg‘otishi bilan birga, ular zimmasiga jiddiy mas’uliyat va javobgarlik hissi ham yuklaydi. Til o‘qitishning amaldagi holati va ta’lim beruvchilar bilim darajasining yetarli darajada emasligi, ,, bugungi kunda oliygohlardagi 78% professor-o‘qituvchilarning chet tilini bilish darajasi qoniqarsiz ahvolda ekani ‘’ jiddiy tashvish uyg‘otadi’’(Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo’llanma. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2019.)

Chet tilini o‘rganish tilimizga bo‘lgan hurmatsizlik sifatida emas, zamon ,,davr talabi sifatida baholanishi kerak. Qolaversa, magistraturaga kirish imtihonlari yilda ikki marotaba bo‘lib o‘tishi talabalar uchun qo‘shimcha sharoit yaratadi. Chet davlatlarda bo‘lishni, chet el fuqarolari bilan muloqot qilishni xohlagan har bir shaxsning til o‘rganishi kundalik ehtiyojiga aylanib bormoqda. Xulosa qilib quyidagilarni keltirishimiz maqsadga muvofiq. Vazifaga asoslangan til o‘qitishda o‘qitishning asosiy yo‘nalishi o‘quvchilar haqiqiy hayotida bajarishi kerak bo‘lgan faoliyat turiga o‘xshash mazmunli vazifalarni bajarish uchun tildan foydalanadi. Bu yondashuvda tildan to‘g‘ri foydalanish muhim va bu asta-sekin rivojlanishi kutilsada, o‘quvchilarning tilni cheklangan bilimlariga qaramay,maqsadga muvofiq xabarni tushunadigan tarzda ma’no yetkazishi ustuvor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.https://www.uzanalytics.com/tarix/10076/

2.Karimov.S. (2002) Behbudiy—o‘zbek tilinig jarchisi//o‘zbek tilshunosligi masalalari. Samarqand.

3. Shoira Normatova, Mehribon Abdurahmonova. (19.05.2021) Til bilgan -el biladi .

4.Tilshunoslikning dolzarb muammolari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, al-Xorazmiy nomidagi Urganch davlat universiteti. Toshkent, “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti,(2019)

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA ONA TILI FANINI O'QITISH METODIKASI VA TAMOYILLARI

Hamroyeva Mahliyo Ulug'bek qizi
ToshDO'TAU Ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti 2-kurs
Hamroyevamahliyo18@gmail.com

Annotatsiya.*Ushbu maqolada ona tili fanini o'rgatish, ona tili fanini o'qitish metodikasi. Nutqning ifodaliligiga baho berish tamoyili og'zaki nutqni yozma nutq bilan birga rivojlantirish tamoyili hamda nazariy tekshirish metodlari haqida ham batafsil ma'lumot berilgan.*

Kalit so'z: *ona tili, nutq organlari, til qonuniyatlari, ko'nikma, metodika.*

Abstract.*In this article, the teaching of mother tongue science, the methodology of teaching mother tongue science. The principle of evaluating the expressiveness of speech, the principle of developing oral speech along with written speech, and the methods of theoretical verification are also given in detail.*

Keywords: *Mother tongue, speech organs, language laws, skills, methodology.*

O'quvchilarga ona tili fanini o'rgatish, ularni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish vazifasidan kelib chiqib, bilish nazariyasiga asoslanib, barcha yaqin fanlar tavsiyalariga asoslanib ona tili fanini o'qitish metodikasi o'z tamoyilini ishlab chiqishi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida o'quv mehnatining yo'nalishini belgilab beradi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach yangi demokratik ta'lim konsepsiyasini yaratish vazifasiga alohida e'tibor qaratdi. Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faolyatini baxsh etdi. O'sib kelayotgan avlodning eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori mahorati uzluksiz takomillashadi.

Ona tili – nutq, o'qish va yozish sohasidagi ko'nikma va malakalar o'qtuvchilar o'quv mehnatining zaruriy sharti va vositasi hisoblanadi. Bolalar o'qish ko'nikmalarini egallash bilan birinchi navbatda, o'z ona tilini o'rganishi zarurdir. Chunki ona tili bilimdonlikning, aql-idrokning kalitidir. Ona tili fani boshqa fanlarni o'qitish vositasi hamdir, jamiyat tarixi ham, tabiiy fanlar ham ona tili fani yordamida o'rganiladi. Demak, ona tili fani bolaning umumiy kamol topishida ham, bilim va mehnatga havasini uyg'otishda ham alohida rol o'ynaydi.

Umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda quyidagi metodlardan foydalanilsa o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish o'sadi:

1.O'quvchilarni o'qish va gramatika darslari orqali badiiy, ilmiy ommabop va boshqa adabiyotlar namunasi bilan tanishdirish, ularda badiiy asarni idrok etish ko'nikmasini hosil qilish;

2.Grammatika, fonetika, leksikologiya bo'yicha nazariy matnlarni o'rganish tildan ilmiy tushunchalarni shakllantirish;

3.O'quvchilar diqqatini o'qituvchi o'ziga jalb qilishi va ularga mavzudan chetga chiqmagan holda turli hikoyalar, qisqa matnlar aytishi va ularni tahlil qildirishi lozim;

4.Dars o'tish jarayonida ona tili faniga oid mustaqil ijodiy ishlar olib borish va ular ustida kuzatishlar olib borish kerak;

5.Mavzuni o'quvchilarga bo'lib berish kerak va ular dars o'tishga tayyorlanib kelishlari mavzuni tushuntirishga harakat qilishlari kerak. Bu jarayonda o'qituvchi o'quvchiga ko'maklashishi lozim. Yu. K. Babanskiy esa ta'lim metodlarini uch katta guruhga ajratadi.

1.O'quvchilarning o'quv – biluv faolyatini tashkil etish metodlari.

2.O'quvchilarni o'quv – biluv faolyatini rag'batlantirish metodlari.

3.O'quvchining o'quv – biluv faolyatini nazorat qilish metodlari.

Yuqoridagi metodlar ushbu fanning davr talabidan kelib chiqib rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Hozirda o'quvchilarga bilim berishda, bilimlarini oshirishda mustaqil ishlarni uyushtirish, bilimlarni hisobga olish kabi metodik tavsiyalar ishlab chiqish texnik vositalardan unumli foydalanish, grammatik ta'limiy o'yinlarni joriy etish, ta'lim jarayonida test topshiriqlaridan, turli boshqotirmalardan va jadvallardan keng foydalanilgan holda dars mashg'ulotlari o'tilsa o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish va talab o'sadi. Ba'zi o'qituvchi va murabbiylar dars o'tishda darslikdagi topshiriqlarni yozdirish va savollarga javob yozdirib qo'yish bilan cheklanib qolishmoqda shu sababli o'quvchida darsga bo'lgan qiziqish so'nmoqda. Ona tili fanini o'qitishdagi tamoyillari quyidagilar:

Nutq organlari o‘sishga nutq malakasining to‘g‘ri rivojlanishiga e’tibor berish tamoyili til qonuniyatlariga oz bo‘lsada e’tibor bermaslik amaliy nutq faolyatini egallashda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, fonetik ko‘nikmaga e’tibor berilmas imloviy savodxonlikka putur yetadi.

1. Til ma’nolarini (leksik, grammatik, morfemik, sintaktik ma’nolarni) tushunish tamoyili: so‘zni, morfemani so‘z birikmasini, gapni tushunish borliqdagi ma’lum bir voqeaga hodisalar o‘rtasida bog‘lanishni aniqlash demakdir.

2.Og‘zaki nutqni yozma nutq bilan birga rivojlantirish tamoyili: Bu tamoyil kishi nutqining rivojlanishiga ta’sir etadi. O‘quvchi va o‘qituvchining birga ishlashi orqali qulay yo‘nalish tanlagan holda rivojlanadi. Badiiy adabiyotlarni, gazeta, jurnallarni o‘qigan bola o‘zida eng yaxshi xislatlarni tarbiyalab boradi. Muomala madaniyatini egallaydi. Ona tili fani umumta’lim maktablarida fan sifatida asosiy o‘rinni egallaydi. Har bir o‘quvchida ona tili faniga bo‘lgan qiziqish va muhabbatni tarbiyalash zarur. Umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinfdan ona tili fani o‘tiladi, bunga sabab o‘quvchida yoshlikdan savodxonlikni rivojlantirishdir. O‘quvchi ko’rish orqali narsa-hodisa, ularning tildagi ifodasi xususida aniq tushunchaga ega bo‘ladi. Ko‘rgazmalilik prinsipiga ko‘ra til hodisalarini o‘rganish, kuzatish, sezishdan boshlanadi. Bola turli nutq tovushlari, so‘zlar, gaplarni talaffuz qilish, eshitish, yozish, ko‘rish orqali sezadi. Kuzatish vositasida bola ongida til hodisalari to‘g‘risida hissiyaniq tasavvur hosil bo‘ladi.

Ko‘rgazmali material muhim axborot manbayi hamdir. Chunki o‘quvchi darslik, o‘qtuvchining bayoni, gazeta va jurnallardan qanday axborot olsa, ko‘rgazmali materialdan ham shunday ma’lumot olishi mumkin. Ona tili darslarida tabiiy yoki aniq buyumlardan (predmetlarning asl namunasi: masalan, anor, olma, bino maketi va h.k.), grafik materiallar (chizma, jadval kabi)dan; tasviriy san’at, musiqa, kino, televidiniya, kabi vositalardan foydalanadi. Ona tili mashg‘ulotlarida telivizor, epidiaskop, filimoskop, magnitafon kabi texnik vositalardan foydalanish dars samaradorligiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu vositalar til hodisalarini tushunishga, ona tilidan egallagan nazariy bilimlarini mustahkamlashga, uni amaliy ko‘nikmaga aylantirishga yordam beradi. Ayniqa,

tasviriy san’at namunalari, o‘quv filimlari, diafilimlar va diapozitivlar o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirishda muhim vosita sanaladi. Shuni nazarda tutib, ona tili fani o‘qituvchisi til kabinetini shu vositalar bilan ta’minlash chorasini ko‘rishi, ayniqsa, rasimlar albomlar tashkil etish, rasimli tarqatma materiallarni ko‘paytirish lozim.

Ko‘rgazmali qurollardan barcha turdagi darslarda va darsning barcha bosqichlaridan unumli foydalansa bo‘ladi. O‘quv materialini mustahkamlash va takrorlash jaroyonida reproduktiv xarakterdagi ko‘rgazmali qurollardan foydalansak, yangi bilimlar berishda izlanuvchanlikni talab qiluvchi ko‘rgazmali qurollar ishga solinadi. Demak, ko‘rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali o‘quvchilarning qayta xotiralashga asoslangan faolyatni ham, ijodiy faolyatni ham uyushtirish mumkin. Ko‘rgazmali quroldan me’yorida qo‘llanishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha ko‘rgazmali vosita o‘quvchini toliqtiradi; fikrini asosiy masaladan chetlashishga olib keladi; o‘quv materiali uchun ajratilgan vaqtning yetishmasligiga sabab bo‘ladi. Ona tili fanini o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida, dars mashg‘ulotlarida quyidagi topshiriqlardan foydalanilsa darslar yanada qiziqarli o‘tadi. Masalan,Uzukning ko‘zi, derazaning ko‘zi, buloqning ko‘zi, taxtaning ko‘zi, o‘tkir so‘z, o‘tkir nigoh birikmalarida ko‘zi va o‘tkir so‘zlarining ko‘chma ma’noda qo‘llanilganini isbotlang. Kabi topshiriqlar berilsa o‘quvchini nutqini ravon bo‘lishiga va fikirlash qobilyati o‘sishiga katta yordam beradi. O‘quvchi o‘quv masalalarini o‘zi tuzishi yoki darslikda berilgan ijodiy xarakterdagi topshiriqlardan foydalanishi lozim. Agar topshiriq shartida o‘z fikir-mulohazalarini dalillar bilan asoslash so‘ralmagan bo‘lsa, unga muayyan o‘zgarishlar kiritish mumkin.Har bir o ‘quvchi darslikda berilgan savol va topshiriqlarni bajarishni ko‘chiring deb topshiriqlar berilgan shu sabbali o‘quvchi buni qilishni istamaydi, buni oldini olish uchun ko‘proq fikrlashga qaratilgan topshiriqlar tuzish yaxshiroq natija beradi. O‘quvchini zeriktirmaslik uchun ko‘proq muammoli vaziyat yaratish kerak. Muammoli vaziyatni asosan o‘qtuvchi darslikda berilgan yoki o‘zi tanlagan matinni o‘qitib, shu asosida ham muammo yartishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar e’tiboriga quyidagi matn havola etiladi:

Ilimga amal qilmaslik jazosi. Amir Abdullaxon xos navkarini hamisha o‘zi bilan olib yurar ekan. Amir huzuridagi suhbatlarda bir shoir Amir Xisrav Dehlaviyga nisbat berib shu so‘zni aytdi. “ Kerak odamga so‘zni ko‘p bilmoq Vale oni juda ham oz aytmoq”. Amirga bu bayt juda ma’qul bo‘ldi. Kunlardan bir kuni Amir o‘zzining so‘zamol sergap vaziriga Dehlaviyning ta’dbirini eslatib, tanbeh beradi. Vazir Amirga: “Avf eting shohim. Bu so‘zlar Dehlaviyniki emas, shayx Nizomiy qalamiga mansub”, deb e’tiroz bildiradi. Amir hayrat bilan navkarga qaraydi. Navkar bosh egib: - Ulug‘ amirim, vazir haq. Bu ta’bir – Nizomiy Ganjaviyning “Xisrav va Shirin” dostonidan. Shoir sizga noto‘g‘ri aytgan edi, - deb javob berdi. Amir jallodni chaqirib, navkarning tilini kestiradi.

Muammoli savol: Nega navkarning tili kesildi?

“Fonetika”dan: Avval unli, keyin undosh tovushlarni talaffuz qilib ko‘ring. Siz ular orasida qanday farqni seziyapsiz? Qaysi belgilarga qarab ularni unli va undoshga tovushlarga ajratdingiz? A, i, o, e, u, o‘ tovushlarning unli tovush ekanini isbotlang. Ona tili fanida muammo tipidagi o‘quv topshiriqlari til hodisalarini kuzatish, qiyoslash, guruhlash kabilarga asoslanadi.

O‘quvchi tildan egallagan bilimlariga asoslanib noma’lumni qidiradi. Masalaning muhim belgisi uning isbot talabligidir. O‘quvchi berilgan topshiriqni bajargach, muayyan bir xulosaga keladi va shaxsiy fikr mulohazalarni isbotlash zaruriyati tug‘iladi. Ana shu vaziyat o‘quvchini o‘z fikrini aytishga majbur qiladi. Xulosa qilib aytganda anashunday metodlardan foydalanilsa, ona tili fani o‘qitilishida juda katta yutuqlarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shayxislomov, N. Z. (2020). Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishi psixalingvistikada o‘zbek bolalari nutqining o‘rganilishi. INTERNAKUA, 28(157), 83-84.

2.To‘xliyev M., Ziyodova (2010)T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.T. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

3.Sayidaxmetov N. (1995)Yangi pedagogik texnalogiya prinsiplari.1-3

4.Mamajonova Sh.(2015)To‘garaklar faolyati o‘smir yoshlarni bilishga bo‘lgan qiziqishlarini ta’minlash masalalari. – Andijon: Andijon.22

HAZAJ BAHRINING MUSAMMAN VAZNLARINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI (Umumta’lim darsliklari misolida)

Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi,
ToshDO‘TAU magistranti
meliyevanasiba1990@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hazaj bahrining musamman vaznlarini o‘qitish texnologiyasi tahlil qilingan. Adabiyotshunoslikdagi mavjud fikrlarga munosabat bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *8-sinf, 10-sinf “Adabiyot” darsligi, aruz, vazn, hazaj.*

Abstract. *This article analyzes Hazaj Bahr’s musamman vazns teaching technique. There is a reaction to the existing ideas in literary studies.*

Keywords*:8th grade, 10th grade textbook “Literature”, aruz, prosody(weight), hazaj.*

Hazaj bahri **mafoiylun (V – – –)** asliy ruknining baytdagi takroriga asoslangan bo‘lib, qo‘llanilishi jihatidan turkiy she’riyatda ramal bahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. **“Hazaj”** arabcha “yoqimli ovoz”, “xushohang kuy” degan ma’nolarni anglatadi (Yusupova, 2019, 38). Biz buni Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog‘a”, Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Aruz risolasi” (“Muxtasar”) asarlari orqali yaxshi bilamiz. Mafoiylun asliy ruknining quyidagi tarmoqlari mavjud (Yusupova, 2019, 38):

“Mafoiylun” ruknidan hosil bo‘lgan vaznlar vazmin, dardli, shu bilan birga, yoqimli bir musiqiy ohanga ega. Shuning uchun mumtoz adabiyotida hazaj bahri

vaznlari juda ko‘p qo‘llanilgan. Hazaj bahrining o‘zbek adabiyoti tarixida *murabba’, musaddas, musamman* va *o‘n ikki ruknli vaznlari* faoldir. Umumta’lim darsliklarida *hazaji musammani solim, hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* o‘lchovlarida bitilgan she’rlar uchraydi. Shuning uchun biz ushbu tadqiqotimiz davomida mazkur vaznlar haqida fikr yuritamiz.

Hazaji musammani solim vazni asosini bir misrada to‘rt marta “mafoiylun” asliy ruknining takrorlanishi tashkil etadi (Yusupova, 2019, 38). Mazkur vazn quyidagi taqti’ va afoyillarga ega:



Garchi ta’lim tizimida hazaj bahri haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan bo‘lishiga qaramay biz uni o‘quvchiga o‘rgatish usullari haqida to‘xtalib o‘tamiz. O‘quvchilarda bu borada aniq tasavvurning shakllanishiga hamda zarur tushunchalarni o‘zlashtirishga oid uslubiy metodlar orqali va bilimlarni nazariya bilan bog‘lab solishtirish masalasi xususida so‘z yuritiladi. Ma’lumki, umumiy o‘rta ta’lim darsliklarimizning ba’zi o‘rinlarida nazariy bilim berish bilan cheklanib qolingan. Faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmay, amaliyotda o‘quvchi undan qay darajada foydalana olayotganiga ahamiyat qaratish zarur (Rahmonova, 2021, 19). Umumiy o‘rta talim maktablarining 10-sinf “Adabiyot” darsligida Hamid Olimjonning “Na bo‘lg‘ay” deb nomlangan g‘azali keltiriladi. G‘azal hazaji musammani solim vaznida yaratilgan. Unda, asosann ishq mavzusi, ya’ni yor madhi qalamga olinadi. G‘azal quyidagi matla’ bayt bilan boshlanadi:

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yanog‘ing uzra xol bo‘lsam

Labing yaprog‘idin tomgan ki’ go‘yo qatra bol bo‘lsam

Baytda mafoiylun asliy rukni hech qanday o‘zgarishsiz sakkiz marta to‘liq holda takrorlangan. Bu esa baytning *hazaji musammani solim* vaznida

yozilganligini ko‘rsatadi. Bu o‘rinda vaznning nazariyasini o‘quvchiga quyidagi chizma asosida tushuntiriladi:



Ushbu chizmada 8 ta rukn mavjud, shunga ko‘ra u musamman bayt. Bu ruknlar mafoiylun aslining solim ko‘rinishidan tashkil topgan. Yuqorida berilgan chizmada ko‘rishimiz mumkinki, vazn nomi *hazaji musammani solim*dan to‘rtta shox *“o‘sib”* chiqdi, e’tiborli jihati – ularning barchasi bir xil hijolardan tashkil topgan. O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birgalikda g‘azalni jadval asosida tahlil qilgach, qolgan misralarni ham shu tarzda tahlil qilish ishlarini davom ettiradi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf “Adabiyot” darsligida dastlab Lutfiyning “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azali keltiriladi. Mazkur g‘azal Lutfiyning “Sensan sevarim” devonidan o‘rin olgan (Лутфий, 1987, 22). G‘azalda ishq mavzusi qalamga olingan. Lutfiyning mazkur g‘azali aruzning o‘ynoqi, lekin o‘quvchi uchun nisbatan murakkab turlaridan biri bo‘lmish *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* (yoki maqsur), ya’ni maf’uvlu – mafoiylu – mafoiylu – fauvlun (yoki mafoiyl) (– – V/ V – – V/ V – – V/ V – – (yoki V – ~) vaznida bitilgan (S.Ahmedov va boshqa., 2019, 76). Vazn baytda quyidagi ko‘rinishga ega:



Hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf vazni g‘azal janrining vazni bo‘lishiga qaramasdan bir o‘rinda *mustazod* janriga ham asos bo‘la oladi. Mazkur vaznning birinchi va to‘rtinchi ruknlarini mustazodning yarim misrasida aruz nazariyasida *hazaji musammani axrabi makfufi mahzufi mustazod* vazni hosil bo‘ladi.

O‘quvchi ushbu vazn matnini ifodali o‘qish uchun uning vaznini, o‘lchovini bilishi kerak. Hazaj vaznlari haqida o‘quvchilarga qisqacha ma’lumot berib, keyin ularning mazmunini tahlil qilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Darslikdagi g‘azalning qaysi san’atda kelishi baytma-bayt tahlilga tortilgan. Biz ushbu tadqiqotimizda Lutfiy g‘azallari orqali vaznni, o‘lchovni bilish usullarini ko‘rib chiqamiz. Darslikda Lutfiyning “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azali keltirilgan. G‘azal quyidagi bayt bilan boshlanadi:

Sensan se/varim, xoh(i)/ inon, xoh(i)/ inonma,

– – V/ V – – V/ V – – V/ V – –

Qondur ji/garim, xoh(i)/ inon, xohi(i) inonma (S.Ahmedov va boshqa., 2019, 76).

– – V/ V – – V/ V – – V/ V – –

Demak, mazkur bayt *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vaznida yozilgan. O‘quvchillarga g‘azalni avvalo ifodali o‘qitish keyin bu orqali **vasl** va **imolani** aniqlab olish keyin esa, cho‘ziq, qisqa va o‘ta cho‘ziq hijolarni farqlay olish hamda taqti’sini chizish tushintiriladi. G‘azaldagi **“xoh”** so‘zi vazn talabi bilan sun’iy **“xoh(i)”** tarzida talaffuz etiladi. Bu esa aruz tizimida imola hodisasi deyiladi. “Imola” arabcha so‘z bo‘lib, “biror narsaga suyanish”, “egilish” degan ma’nolarni bildiradi. Adabiy istiloh sifatida esa vazn talabi bilan o‘ta cho‘ziq hijolar tarkibidagi unlilarni hamda qisqa talaffuz qilinuvchi unlilarni sun’iy tarzda o‘qishni ifodalaydi (Ҳожиаҳмедов А, 1998, 44). Mazkur g‘azal cho‘ziq hijo bilan boshlangan rukn nomini aniqlaymiz. Ruknlar sonidan uning musamman yoki musaddas ekanligi ma’lum bo‘ladi.



Baytdagi bo‘g‘inlar sifatiga qarab hijolarni aniqlab oldik. Hijolarni ruknlarga bo‘lish orqali bizda ushbu ko‘rinish yuzaga kledi:

– – V/ V – – V/ V – – V/ V – –

Maf’uvlu mafoiylu mafoiylu fauvlun

Endi vaznni namolaymiz. Mafoiylun hazaj bahrining asliy rukni sanaladi. Demak vaznimiz hazaj bahrida ekan, birinchi misrada 4 ta rukn, umumiy baytdagi ruknlarimiz soni 8 ta bo‘lganligi uchun biz uni musamman deymiz. Qoida: *hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf* vazni deb, mafoiylun asliy ruknining birinchi rukni axrab tarmog‘ida, ikkinchi va uchunchi rukni makfuf tarmog‘ida va oxirgi rukn fauvlun bo‘lib, bu mahzuf deb ataladi. Shu sabab vazn nomi **hazaji musammani axrabi makfufi mahzuf**dir.

O‘quvchilarga bu vaznni yanada yaxshiroq eslab qolishlari uchun biz boshqa usul orqali tushuntirishga harakat qilamiz. Masalan: hazaj bahrini quyosh deb olsak, osmondagi bulutni ruknlar, taqti’sini esa yomg‘ir tomchilari deb tushuntirish mumkin.

– – V V – – V V – – V V – –

Yuqorida hazaj bahri vaznini o‘rgatishga doir g‘azal tahlilini bergandik, fikrimizni yana bitta bayt misolida davom ettiramiz.

Hi	ron	ke	cha	si	char	xi	fa	lak	ka	ye	ta	**r+ey**	**moh**
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	~
O	hi	sa	ha	rim	xo	h(i)	i	non	xo	h(i)	i	non	ma
–	–	V	V	–	–	V	V	–	–	V	V	–	–

Keltirilgan bayt “Xoh inon, xoh inonma” radifli g‘azalining 2-bayti hisoblanadi. Mazkur baytning birinchi misrasi *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* o‘lchovida yozilgan. Hazaji musammani axrabi makfufi maqsur yuqorida kletirilgan vazndan so‘nggi hijoning o‘ta cho‘ziqligi bilan farq qiladi. Ya’ni so‘nggi rukndagi *fauvlun* (V – –)ning o ‘rniga mafoiyl (V – ~) qo‘llaniladi. Chunki **“moh”** so‘zining tarkibida cho ‘ziq unli ishtirok etgan. Bu esa aruz nazariyasida o‘ta cho‘ziq hijoni hosil qiladi (Rahmonova 2021, 12). Ushbu vaznni o‘quvchilarga yanada esda saqlab qolishlari uchun, quyidagi geometrik usulga etiborimizni qaratamiz:

Keltirilga geometrik shaklda o‘quvchilar uchburchakning uchala burchagiga axrabning ya’ni *maf’uvlu*ni taq’tisini – – V qo‘yib chiqadi. To‘rtburchakning to‘rtta burchagiga makfuf ya’ni *mafoiylu*ni taq’tisi V – – V joylashtirib chiqiladi. Shu tariqa keyingi shaklga ruknni qo‘yib, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* vaznini yaratadilar. Endi vaznni o‘qilishi qoidasini qaytaramiz, *hazaji musammani axrabi makfufi maqsur* deb 1-rukni mafoiylun asliy rukning maf’uvlu tarmog‘idan, 2-3 rukni mafoiylu tarmog‘idan, 4-rukn mafoiyl tarmog ‘idan hosil

bo‘lgan. Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o‘quvchilar mumtoz matnni talaffuz qilishi uchun o‘qituvchi ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sultonmurod O., Ahmedov S., Qo‘chqorov R. (2019) Ko‘rsatilgan manba. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU,. – B. 76.
2. Yusupova D. (2019) Aruz vazni qoidalari va mumtooz poetika asoslari. T. TA’LIM-MEDIA,. № 38.
3. Rahmonova Sh. (2021) Umumta’lim mktablarida aruz tizimini o‘qitish muammolari. – T.: Mahalla va oila,. – B.19.
4. Лутфий. (1987).Сенсан севарим. Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, – Б. 22.
5. Ҳожиаҳмедов А. (1998). Ўзбек арузи луғати. – Т.: Шарқ,– Б. 44.

O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISHDA ONA TILI VA ADABIYOT FANINING O‘RNI

Mirzaboboyeva Asila Kamoliddin qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
2-kurs mirzaboboyevaasila@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘quvchilar nutqini o‘stirish, nutqni ta’sirchan, chiroyli qilishda ona tili va adabiyot fanining o‘rni haqida fikr yuritilgan. Oddiy so‘zlashuvda yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar aytib o‘tilib, ularga ba’zi yechimlar berilgan. Nutqiy savodxonlikni oshirishda og‘zaki va yozma metodlardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Maqolada aytilgan fikrlar bugungi ona tilimizda dolzarb muammolardan hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *nutq, ona tili va adabiyot, adabiy til, nutq madaniyati, og‘zaki va yozma nutq, sheva, innovatsion texnologiyalar.*

Abstract. *This article discusses the role of mother tongue and literature in improving student’s speech, making speech effective and beautiful. Errors and shortcomings in ordinary conversation are mentioned and some solutions are given. The importance of using oral and written methods in improving oral literacy is shown. The ideas expressed in the article are among the current problems in our mother tongue today.*

Keywords: *speech, native language and literature, literary language, speech culture, oral and written speech, dialect, innovative technologies.*

Yer yuzida inson zoti yaralibdiki, so‘zga ehtiyoj sezadi. Bir-biri bilan fikr almashish va axborotlarni yetkazish uchun og‘zaki nutqdan foylanadi. Nutq lisoniy birlikning jamiyat a’zolari ongida o‘rnashgan me’yor asosida muayyan moddiy (yozma, og‘zaki va hokazo) shakllardan birida voqelanishidir (Mengliyev, 2018, 25-bet). Nutq kishilar o‘rtasida aloqa vositasi hisoblanib, inson ongidagi fikrlarni atrofdagilarga his-hayajon yordamida va ta’sirli yetkazish vazifasini bajaradi. Nutqning asosiy sifatlaridan biri ta’sirchanlikdir. Ta’sirchan nutq, asosan, og‘zaki so‘zlashuvda yuzaga keladi. Nutqning tinglashlilik darajasini oshiruvchi unsurlarga xushmuomalalik, tinglovchilarga hurmat bilan qarash, samimiylik kabilar kiradi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish jarayoni, asosan, ona tili va adabiyot darslarida amalga oshiriladi. Bu ishga bevosita javobgar hamda mas’ul shaxs ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari sanaladi. O‘quvchilar ona tili darslarida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, aytilayotgan har bir so‘zning leksik-semantik jihatini yetarlicha tushunish, gaplarning sintaktik qurilishini to‘g‘ri tuzishni o‘rganish, fikrlarini erkin holatda o‘z ona tilida ayta olishlari lozim. Buning uchun o‘qituvchilar yuqorida sanab o‘tilgan jarayonlarni o‘quvchi yetarli darajada idrok qilishi uchun yordam beradigan metodlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Nutqni rivojlantirishda adabiyot darslari ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchilarga adabiyot darslarida badiiy adabiyotlar, gazeta va jurnallarda yoritib borilayotgan adabiyotga oid ma’lumotlar qancha ko‘p o‘qitilsa, samaradorlik shuncha yuqori bo’ladi. Mutolaa qilish o‘quvchining yozma nutq orqali asar muallifi, obrazlari bilan muloqotidir. Mutolaa tufayli yozma nutqda aks etgan voqea-hodisadan xabardor bo‘ladi. (Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. 2006, 13-bet). Badiiy asarlarni ko‘p o‘qigan kitobxonning dunyoqarashi, fikrlash doirasi kengayayib boradi. Fikrlash doirasi keng bo‘lgan inson esa fikrini boshqalarga bemalol, qiynalmay yetkazib bera oladi.

Adabiy tilda so‘zlashish, madaniy gapirishga intilish yer yuzidagi barcha xalqlarda qadim zamonlardan beri mavjud. Xususan, bizning yurtimizda ham nutq madaniyatini rivojlantirishga nisbatan bo‘lgan qarashlar bir necha asrlar ilgari shakllana boshlagan. O‘sha davrda nutq madaniyatini yetuk o‘zlashtirganlar voizlar, ular so‘zlagan nutq esa va’z deb atalgan. Nutqni rivojlantirishga oid fikrlar Abu Nasr Farobiy, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ko‘plab uchraydi.

Jumladan Kaykovusning “Qobusnoma” asari Sharq pedagogikasi uchun juda qimmatli manbadir. Kaykovus hamma hunarlar ichida so‘z hunari-notiqlikni a’lo deb biladi. U notiqlikni egallashning yo‘li, birinchidan, “Tinimsiz mehnat, o‘rganishdir”-deydi. Ikkinchidan, nutqing go‘zal bo‘lsin, deydi. “So‘zning ikki tomoni bordir: biri go‘zal tomoni, ikkinchisi xunuk tomonidir. Xalq oldida gapiradigan so‘zing go‘zal bo‘lsin, bu so‘zni xalq qabul qilsin”.

Uchinchidan, har bir fikrni ifodalashda tinglovchi qalbiga to‘g‘ri yo‘l topa bilish, shaklga e’tibor berish masalasidir.

To‘rtinchidan, har bir so‘z to‘g‘ri va asosli bo‘lmog‘i lozimligini uqtiradi.

Beshinchidan, har bir nutq ma’lum ilmiy asosga ega bo‘lsagina, ta’sirchan bo‘ladi. Ya’ni, nutq qaratilgan predmetni yaxshi o‘rganib chiqish lozimligini ta’kidlab:“Bilmagan ilmdan gapirmagil. Bilmagan ilm-fanni bilaman deb da’vo qilsang, hech narsa hosil bo‘lmaydi va behuda zahmat chekasan” -deydi. (Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q., 2006, 25-bet).

Alisher Navoiy o‘z davrining buyuk mutafakkiri, so‘z ustasi bo‘lish bilan birga kishilarga yaxshi so‘z bilan ta’sir etish san’atini ham juda qadrlovchi, ulug‘lovchi, bunday san’at ustalariga e’tibor qilib, ehtirom ko‘rsatuvchi bir shaxs edi. Navoiy omma o‘rtasida yaxshi nutqning ta’siri va tarbiyasini ham chuqur his etadi. Notiqlikdagi yaxshi va yomon tomonlarni ko‘ra olish va ularni farqlay bilishga chaqiradi:

To‘ti-yu shorik agar notiqdurur,
Har biriga o‘zga bir mantiqdurur.

(O‘rinboyev B., Soliyev A., 1984, 31-bet).

O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligi to‘g‘risidagi qonun 1989-yil 21-oktabrda qabul qilindi. Ona tilimizga bo‘lgan yuksak hurmat va e’tiborimiz o‘zbek tilida chiroyli so‘zlash, to‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri yozishda namoyon bo‘ladi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi bilan mamlakatimizda ta’lim, o‘qitish, davlat hujjatlari o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘ldi. Buning natijasida o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmat yanada ortdi va uni rivojlantirishga oid keng ko‘lamli ishlar olib borildi. Bunday harakatlar bugungi kunda ham davom etmoqda.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda o‘qituvchilar har bir o‘quvchining nutqi, undagi xato va kamchiliklarga e’tibor qaratishi hamda ularni yo‘qotishga harakat qilishi lozim. Bu masalada kutilgan natijaga erishish uchun o‘qituvchi va o‘quvchilar hamjihatlikda harakat qilishlari darkor. Har bir o‘quvchi alohida nutq egasi hisoblanadi. Shunday ekan ularning nutqi ustida individual ravishda ishlash kerak. Ayni shu shaxslar kelajakda jamiyatimizning ma’lum bir sohasida faoliyat yuritadi. Ayniqsa, davlat lavozimlarida faoliyat yurituvchi insonlar uchun nutq madaniyati ko‘proq ahamiyatga ega. Chunki ularning nutqini ko‘pchilik tinglaydi. Bunday shaxslarning nutqi qanchalik ta’sirchan, ravon, chiroyli bo‘lsa shuncha yaxshi.

Bola nutqini rivojlantirish faqat ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari zimmasidagi burch bo‘libgina qolmay, bunga boshqa fan o‘qituvchilari ham mas’ul. Bundan tashqari, bolaning atrofidagi ota-onasi, bobo-buvisi, yaqinlari, maktabgacha ta’lim muassasi xodimlari ham bu jarayonga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bola 7 yoshida maktabga boradi. Ungacha esa, avvalo, ota-onasi, so‘ngra ular bilan bir vaqtda maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari qo‘lida tarbiyalanadi. Demak, maktab yoshiga yetib, maktabga ilk qadamini qo‘ygunicha atrofidagilar so‘zlarni qanday talaffuz qilsa, xuddi shundayligicha ongiga singdiradi. 1-sinfdan boshlab esa ilmiy kitoblar, ya’ni turli maktab darsliklari, badiiy asarlar bilan chuqurroq tanisha boshlaydi. Ayni o‘sha vaqtdan boshlab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uning nutqidagi xato va kamchiliklarni to‘g‘rilay boshlashi lozim. Buning uchun bolaning qaysi jihatda xato qilayotgani aniqlash kerak. Masalan bola “ r ” undosh tovushini to‘g‘ri talaffuz qilolmay, “ l ” yoki

boshqa tovushlardek talaffuz qilishi mumkin. Bunday holatda bola nuqti bilan individual ravishda ishlab, ko‘p marotaba talaffuz qildirish kerak. Yoki qaysi so‘zlarni yozishda xato qilayotgan bo‘lsa, ayni o‘sha so‘z ustida qayta-qayta o‘quvchi bilan birgalikda ishlashi lozim. Nutq madaniyatini rivojlantirishda ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining zimmasiga ko‘plab vazifalar yuklanadi. Bulardan eng birinchisi, o‘qituvchi dars jarayonida o‘zining shevasida emas, balki sof adabiy tilda so‘zlashi lozim. Chunki o‘qituvchining nutqi o‘quvchilar nutqiga bevosita ta’sir qiladi. Agar ona tili o‘qituvchisi ham o‘z nutqida shevaga oid so‘zlar, argo, jargon va vulgar birliklarni qo‘llasa, bu holat o‘quvchilarda ham yuz beradi. Nutqni o‘stirishda adabiy tilda so‘zlashishni o‘quvchilarga o‘rgatishdan avval og‘zaki nutqni to‘g‘rilash joiz. Og‘zaki nutq o‘z navbatida ikkiga bo‘linadi. Bular: 1. Oddiy so‘zlashuv nutqi. 2.Adabiy so‘zlashuv nutqi.Biz oddiy so‘zlashuv nutqidan kundalik turmushimizda hamisha foydalanamiz.Bu nutqda sheva va lahjalar, neologizmlar, o‘zbekcha so‘zlar o‘rniga ayni so‘zlarning rus tilidagi muqobili, albatta, o‘z aksini topadi. Doim oddiy so‘zlashuv uslubida gapirib o‘rgangan bolaga ona tili darslarida sof adabiy tilda so‘zlashish qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy holat. Shuning uchun bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. O‘quvchilar uchun adabiy tilda yozish adabiy tilda so‘zlashdan ko‘ra osonroq bo‘ladi. Chunki o‘quvchi ta’lim jarayoni davomida ko‘plab badiiy, ilmiy asarlar, she’r-u hikoyalarni o‘qib o‘rganadi. Badiiy asarlarning ham ba’zi o‘rinlarida shevaga oid nutqlar uchraydi. Yozuvchi bundan o‘z asaridagi obrazning xarakteristikasi, ijtimoiy darajasini ochib berishda foydalanadi. Agar asar ma’lum bir hudud shevasida yaratilsa, boshqa hudud vakillari uchun tushunarsizlik holatlarini keltirib chiqaradi. Shu sababli barchaga birdek tushunarli bo‘lishi uchun badiiy asarlar adabiy tilda yaratiladi. Kitoblar bilan ko‘p tanishgan o‘quvchi ko‘z xotirasida saqlanib qolgan qoliplar asosida o‘z imkoniyatidan kelib chiqib, adabiy tilda ma’lum bir matn, esse, bayon,insho kabilarni yoza oladi. Og‘zaki so‘zlashuvda esa bu biroz qiyinchilik tug‘diradi. Buning sababi inson gapirayoganida fikrlashga juda kam vaqti bo‘ladi. Bir so‘zning o‘rniga boshqa bir muqobilni yoki bo‘lmasa kelishiklarni ongdagi nutqda

moslashtirib gapirguncha tinglovchida zerikish paydo bo‘ladi. Bu esa nutqda g‘alizlik holatini keltirib chiqaradi.

Oddiy so‘zlashuv nutqida eng ko‘p qo‘llanadigan xatoliklar, asosan, tilimizdagi kelishiklar, hisoblanadi. -da o‘rin-payt kelishigining o‘rnida -ga jo‘nalish kelishigining, -ning qaratqich kelishigi o‘rnida -ni tushum kelishigini qo‘llash so‘zlashuv uslubimizga singib ketgan. Buning sababi yana shevalarga borib taqaladi. Chunki o‘zbek adabiy tilining yuzaga kelishida shevalarning barchasi qaysidir darajada ishtirok etgan. Shunday bo‘lsa-da, adabiy tilni hosil qilishda tayanch dialektlardan foydalanilgan. O‘zbek adabiy tili shartli ravishda fonetik jihatdan Toshkent shahar dialektiga, morfologik jihatdan esa Farg‘ona dialektiga tayanadi. Ma’lumki, Toshkent shevalari 6 ta unlili dialektdir. Farg‘ona dialektidagi so‘z shakllari, xususan, fe’l shakllari o‘zbek adabiy tiliga norma sifatida qabul qilingan. (Ashirboyev S. 2011, 47-48-betlar).

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda oliy o‘quv yurtini tugatgan ona tili o‘qituvchisi o‘quv mashg‘ulotlarini sof adabiy tilda olib borish bilan bir qatorda, shevalarning asosiy xususiyatlarini ham yaxshi bilishi, shevada qo‘llanayotgan so‘zlarning adabiy tildagi muqobili qaysiligi va uni qo‘llashni o‘quvchilarga o‘rgatishi kerak. Shundagina o‘quvchilar sof adabiy til va shevaning farqiga borib, dialektal xatolarni qo‘llamaydi.

O‘zbek shevalarining asosiy xususiyatlarini yaxshi bilish o‘qituvchilar, ayniqsa, ona tili o‘qituvchisi uchun juda zarur. Hozirgi kunda sheva xususiyatlari adabiy til ta’sirida juda tez birlashib, tekislanib borayotganiga qaramay, bu xususiyatlar faqat qishloqlarda emas, hatto shaharlarda ham ma’lum darajada saqlanib turibdi. Shu sababli o‘quvchilar nutqida, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozuvida uchraydigan xatolar sheva ta’sirida sodir bo‘lmoqda. Shuning uchun o‘qituvchilar, ayniqsa, ona tili o‘qituvchisi o‘zbek adabiy tili normalarini yaxshi bilishi, bu normalarni o‘quvchilarga o‘rgatishi, ularning yozma va og‘zaki nutq madaniyatini o‘stirish ustida tinimsiz mashg‘ulot olib borishi zarur hamda o‘quvchilar nutqida uchraydigan kamchiliklarni (sheva ta’siridagi)

tuzatmoq uchun barcha o‘zbek shevalariga xos xususiyatlarni yaxshi bilmog‘i kerak. (Reshetov V.V., Shoabdurahmonov SH., 1974, 6-7).

O‘quvchilar nutqini rivojlantirishda bugungi kunda eng ko‘p qo‘llanayotgan innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars o‘tilsa, samarali bo‘ladi. Bularga aqlli taxta (Smart Board), elektron holatdagi o‘zbek tilining imlo va izohli lug‘atlarini misol qilish mumkin. Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o‘tilgan darsning ko‘rgazmaliligi, samaradorligi ancha ortadi va katta ekranda ko‘rsatilgan ma’lumotlar o‘quvchi ongida uzoq muddat saqlanib qoladi. Dars jarayonida o‘quvchilarga ma’lum bir so‘zning ma’nosi yoki imlosi notanish bo‘lgan vaziyatda elektron tarzda aqlli taxtada ko‘rsatib, ularga tushuncha berilsa dars yanada samaraliroq bo‘ladi.

Bunday ishlarni qilishdan yagona maqsad o‘sib kelayotgan yosh avlodni nutq madaniyati rivojlangan shaxslar qilib voyaga yetkazishdir. Nutq qanchalik sof, ravon bo‘lsa, o‘quvchining tafakkuri shuncha keng ekanligidan dalolat beradi. Nutq va fikr bir-biriga chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ularni yakka holda tasavvur etish qiyin.Nutqi ravon, chiroyli, ta’sirli bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarni yetishtirish ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilarining zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun ularga adabiy til normalari, til vositalari, uslublari, to‘g‘ri o‘qish, talaffuz qilish va yozishni o‘rgatishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashirboyev S. (2011) “O‘zbek dialektologiyasi”, Toshkent.
2. Mengliyev B. (2018) “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. “Tafakkur bo‘stoni”, Toshkent.
3. Muhammadjonova La’lixon (2019) “Ritorika”, Toshkent.
4. Rasulov R., Husanov N., Mo‘ydinov Q. (2006) “Nutq mahorati” (o‘quv qo‘llanma). Toshkent.
5. Reshetov R., Shoabdurahmonov Sh. (1978) “O‘zbek dialektologiyasi”, O‘qituvchi nashriyoti, Toshkent.
6. O‘rinboyev B., Soliyev A. (2019) 1- son “Notiqlik mahorati”, Toshkent-1984.
7. Til va adabiyot ta’limi jurnali.

MAKTAB TA'LIMIDA FOLKLORSHUNOSLIK NAMUNALARI DIDAKTIKASI

Mo'minova Naziraxon,
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, xalqimiz tafakkuri mo'jizalarining mahsuli bo'lgan folklor asarlarining bizning hayotimizda tutgan o'rni, o'sib kelayotgan yosh avlodning ongida ma'naviy ozuqa sifatidagi o'rni haqida so'z boradi, shuningdek, xalq dostonlari qahramonlarining millatga, yosh avlodga o'rnak bo'lgulik xislatlari, buni maktab ta'limidagi o'rni va o'quvchiga tushuntirish usullari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *"Ravshan" dostoni, "G'o'ro'g'li" dostoni, "Alpomish" dostoni, sayyor syujetlar, qadriyatlar, urf-odatlar, sinkretizm, xalq ertaklari, metamorfoza.*

Adabiyot o'qitish boshqa fanlarni o'qitishdan keskin farq qiladi. Chunki adabiyotda dunyo mujassam, insonning jami orzu-istaklari unda namoyon bo'ladi. adabiyot o'qitish orqali bola ruhiyati ta'sir qilish mumkin. Uning olamiga adabiyot o'z qahramonlari orqali kiradi. Qaysidir qahramon, o'quvchining do'sti, qaysidir qahramon o'quvchining otasi, qaysidir qahramon esa onasiga juda o'xshaydi, shuningdek, balki bola dunyosi kattalar ham badiiy asardab beixtiyor o'zini va o'zi sevguvchi hamda bunga zid bo'lga insonlarni qidiradi. Adabiyotning ajralmas qismi uning boshi folklor asarlaridir. Folklor asarlari har bir avlodga o'z yo'li, uslubi, o'zligini, o'q tomir ildizini topishga yordam beradi. Folklor asarlari ajdodlarning muqaddas xotirasi, shonli tarixi haqida o'quvchiga ilk tasavvurni berish uchun ahyni qulay vositadir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, xalqning ko'p ming yillik tarixi, tafakkuri tarzi haqida juda boy va qimmatli ma'lumotlar beradi. Biz bugun milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni xalq og'zaki ijodisiz tasavvur eta olmaymiz. Folklor milliy an'analarimizning o'zagini tashkil etadi. Xalq og'zaki ijod xalqning o'tmishi, buguni va kelajagini o'zida ifoda etuvchi, uning taqdiri bilan chambarchas bog'lik ijodiy jarayondir. Shuning uchun ham allomalarimiz uni el adabiyoti deb atagan.

“Biror xalqning qanday xalq ekanligini bilish uchun dastavval uning folkloriga nazar solish lozim”, - deydi donishmand xalqimiz. Adabiyotshunos olim U.Jo‘raqulov folklorshunoslikni eng yorqin namunalaridan biri bo‘lgan eposni “Xalqning passporti”,(U.Jo‘raqulov, 2020) - deya ta’rif beradi. Albatta, bu juda asosli ta’rif. Xalqning qanchalar uzoq o‘tmish va madaniyotga ega ekanligini aynan eposlar va dostonlar orqali aniq bila olishimiz mumkin. Masalan, “Alpomish” dostonida Kashal g‘orida Qorajonning kalima aytib uyg‘onganini ko‘rgan boshqa alplar unga qarata “Oshpichoq, qalampir, Qorajon tentak bo‘p qopti”(9-sinf adabiyot darsligi, 2019, 31-bet), deya ovga chiqib ketishadi. Yoki ba’zi adabiyotshunos olimlar dostondagi Qalmoq alplari tomonidan qo‘yilgan “yo birimizga teg, yo barimizga teg” shartini ham matriarxat davriga bog‘lashadi. “Go‘ro‘g‘li” va “Ravshan” dostoni esa bir qadar keyingi davrlar haqida so‘z yuritadi. Har ikkala dostonda islomiy aqidalar va atamalarning ko‘p ishlatishi davr nuqtayi nazarida islomdan keyingi davrlarda aytilganini yoki dostonlarning sintez jarayoni ayni shu davrlarda kuchayganini bildiradi.

Maktab ta’limida folklorshunoslik namunalarini o‘qitishning o‘ziga xos usullari bormi? Yoki buni ishlab chiqish zarurati bormi? Agar zarurat bo‘lsa qaysi jihatlariga ko‘proq ahamiyat bergan holda ishlab chiqish lozim? Quyida bu savollarga javob berishga harakat qilanmiz.

Maktab darsliklarining yuqori sinflari uchun ishlab chiqilgan qismining barchasida folklorshunoslik namunalari, bosqichma-bosqich berib borilganini ko‘ramiz. 5-sinf adabiyot darsligida o‘quvchilar topishmoq va maqollar bilan tanishadi , 6-sinfda xalq qo‘shiqlari, jumladan, “Boychechak”, “Chittigul”, “Oyijon” kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari, 7-sinfda “Ravshan” dostonidan parcha, 8-sinfda “Kuntug‘mish” dostonidan parcha, 9-sinfda “Alpomish” dostonidan parcha, 10-sinfda “Rustamxon” dostonidan parcha, 11-sinf adabiyot darsligining 1-qismida esa “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonidan parcha bilan tanishadilar. O‘quvchilar 5-sinfdan boshlab folklorshunoslikka ilk qadam qo‘yishadi. Maqollar xalq donmishmandligi asosida vujudga kelib, yillar davomida sayqal topadi. O‘quvchilarda nutqiy ravonlik, milliy qadriyatlarga hurmat

tuyg‘ularini shakllantirishda maqollarning o‘ziga xos o‘rni bor. Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko‘rgan kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, “Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas”, – deymiz. Bu so‘zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro‘yi somon (sariq) bo‘lgan kishining iztiroblari yotibdi. Yo bo‘lmasa, “O‘zgalar yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z elingda cho‘pon bo‘l””, – degan maqolni olaylik. Bu so‘zlar zamirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Maqollarda ko‘pincha so‘zlar ko‘chma ma’noda ishlatilgan bo‘ladi. Ularni o‘z ma’nosida tushunsak, kutilgan ma’no chiqmaydi. Masalan, “Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda” maqolidagi so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llangan. Lekin “Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan”, “Olmaning tagiga olma tushadi”, “Qarg‘a qarg‘aning ko‘zini cho‘qimaydi” kabi ma’no jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan maqollarda so‘zlar o‘z asl ma’nosida emas. Ularda gap aslida “qazi-qarta”’, “olma”, “qarg‘a” haqida emas, odam va uning fe’l-atvori haqida. Bunday maqollarni o‘rganish orqali o‘quvchi nutqi ravon shakllanib, keng dunyoqarash o‘sib boradi.

Biz milliy qadriyatlarimizni, betakror urf-odatlarimizni, beqiyos udumlarimizni, ularda aks etgan ma’no-mazmunni anglamay turib bir millat sifatida shakllana olmaymiz. Bizning ma’naviyatimiz milliy qadriyatlarga samimiy xurmatda bo‘lsakkina uyg‘onadi. Folklor asarlarimizdagi g‘oya va mafkurani biz yoshlarga, bizning ongimizga bitmas tuganmas ozuqa ekanligini anglab yetishimiz darkor. “Alpomish” (9-sinf adabiyot darsligi, 8-bet) dostonida Alpomish va Barchinning to‘yida marosim odatlaridan bo‘mish “Qo‘l ushlatar”, “Choch siypatar”, “Kampir o‘ldi”, “It irillar” kabi udumlar o‘tkazilganligi haqida ta’riflar keladi. Xalq orasidagi azaliy urf-odatlarni bolaga aynan shu jarayonlarda tushuntirish va unda azaliy qadriyatlarga nisbatan qiziqish hamda hurmat tuyg‘usini shakllantirish lozim. Bu jarayonda, o‘qituvchiga faqatgina pedagogik mahoratning o‘zi kamlik qilgani holda millatga va xalqqa, shuningdek, urf-odatlar

va milliy qadriyatlarga bo‘lgan muhabbat tuyg‘usi ham alohida ahamiyatga egadir. Chunki milliy qadriyatlarni, urf-odatlarni sarqit sifatida emas milliy boylik sifatida qadrlagan o‘qituvchigina haqiqiy vatanparvar, millatparvar o‘quvchini tarbiyalay oladi. Zero, bizning shunday asarlarimiz borki, naqadar kuchli ma’no, yuksak g‘oya va mafkuraga egaligi bilan butun dunyo folklor asarlari bilan tenglasha oladi. Buning yaqqol namunasi o‘laroq, Alpomish dostoni xalq eposi sifatida millatning buyuk o‘tmishini yelkasida ortmoqlagan ulkan adabiy namunadir. Ushbu doston 9-sinf adabiyot darsligidan o‘rin olgan bo‘lib, uni maktab o‘quvchilariga qanday o‘tish lozim. O‘quvchi ko‘zida zerikarli tuyulgan bu dostonlar qachon qiziqarli ajoyibotga aylanadi. 9-sinf o‘quvchilarining 16, 17 yosh toifasidagi o‘smirlar ekanligini hisobga olib, mantiqiy fikrlashga undovchi, muammoli vaziyatni hosil qiluvchi metodlardan foydalanish o‘rinlidir. “Mosini tanla” metodi orqali o‘quvchi obrazlarga to‘g‘ri baho berishni o‘rganadi. Ushbu jadvalni to‘ldirarkan o‘quvchilar o‘rtasida Alpomish obrazi tasvirida safar, tush, sinov kabi motivlarning o‘rni xususida bahs-munozarali muhit uyg‘otish lozim. Masalan, Safar motivining dostondagi asosiy vazifasi nima? Alpomish, Barchin va Qorajon obrazlari tasvirida va keyingi bosqichlarda tushning o‘ziga xosligi. Dostonda qahramonlar hayotida ro‘y beradigan o‘ziga xos sinovlar ularning asosiy va qo‘shimcha obraz ekanligini belgilaydimi? Nega doston qahramonlari juda katta ko‘rinishli qilib tasvirlangan? Buni adabiyotdagi sinkretizm davri bilan qanday aloqadorligi mavjud? kabi savollarning bo‘lishi o‘quvchilar orasida turli xil bahs-munozarali jaraoyonni keltirib chiqaradi. Bu jarayonda o‘qituvchining diniy va dunyoviy bilimlari, keng dunyoqarashi darsni yaxshi tashkil etishda asosiy o‘rin tutadi.

	Safar	**Tush**	**Sinov**	**O‘zgacha**	**Sadoqat**
Alpomish	+	+	+	+	
Barchin		+	+	+	
Ko‘kaman			+		
Boychibor	+		+	+	+
Qorajon		+	+		+

Boybo‘ri			+		
Boysari	+		+		

Xalq dostonlari, ertaklari o‘quvchiga qanchalik ko‘p uydirma tarzda tuyulsa shunchalik uzoq o‘tmishga ega bo‘ladi bizningcha. Chunki ayni davrda texnika-texnologiya taraqqiy etgan bir davrda yashayotgan insonni xalq yaratgan bu durdonalar ostida ma’lum haqiqatlar mavjudligiga ishontirish biroz murakkab. Ertakda bir qizning ikki o‘rim sochi ikki ilonga aylangani yoki odamning bir aylanib eshakka evrilgani haqidagi metamorfozalashgan holatlarni gapirsangiz oddiy uydirma sifatida qabul qiladi. Ammo adabiyotdagi bu hodisalarni ilmiy asoslari bilan tushuntirish lozim. Shunda o‘quvchi xalq og‘zaki ijodi namunalarida millatning orzu-intilishlari, yuksak g‘oyalari yotganini anglab yetadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, o‘quvchilar “insonning olovning o‘rtasiga otilib olov gulga aylangani” yoki “odam farzandining baliqning ichida yashagani” kabi ilohiy syujetlar haqida biroz chuqurroq o‘rganishsa bu tarixiy va ilohiy haqiqatlarni anglab yetsa ishonamizki, hayotda har jabhada o‘ziga chegara qo‘yadigan yosh o‘quvchi go‘zal, uning tor dunyosida ishonib bo‘lmas haqiqatlarga ishona boshlaydi. Hayotida katta-katta rejalar, maqsadlar sari olg‘a qadam tashlashni, tavakkal qilishni o‘rganadi. Bu asarlarni chin dildan anglay olgan o‘quvchi men qilolmayman, kuchim yetmaydi, ota-onamning qurbi yetmaydi kabi fikrlardan voz kechib, tavakkalga ishonishni boshlaydi. Aytish mukinki, xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish o‘quvchida balki keng dunyoqarash, ajoyib hayotiy tajribalarni ham uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldoshev Q. va boshqalar (2019) 9-sinf adabiyot darsligi.. Toshkent.
2. Ahmedov S., Rizayev Sh. va boshqalar.(2020) 5-sinf adabiyot darsligi. Toshkent.
3. Jo‘raqulov U., HAmroyev K. (2020) Qiyosiy adabiyotshunoslik, Toshkent.

O‘QUVCHINING MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MATN USTIDA ISHLASHNING AHAMIYATI

Qo‘ldashova Gulmira,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyotni o‘qitish fakulteti
Ilmiy rahbar:E’zoza Shuhratovna.

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘quvchining matn ustida ishlashi orqali mantiqni qanday ishga solishi mavzusiga qaratilgan. Bu orqali o‘quvchi tafakkurining mantiqiy rivojlanishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar berilgan. Mantiq orqali yangi g‘oyalar tug‘ilishi,ularni hayotga tadbiq qilish bilan yoshlar ongini o‘stirish haqida yozilgan. Bu jarayon maktab davridan boshlanishi va bu jarayonda qanday usullar qo‘llash mumkinligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar:*Matn, mantiq, muammo, nutq, og‘zaki, yozma, tafakkur, metod*

Abstract. *This article focuses on the topic of how the reader uses logic by working on the text. Through this ,recommendations are give for the logical development of the student’s thinks. It is written about the birth of new ideas through logic,and the development of young people’s minds by applying them to life. This process starts from the school period and what methods can be used in this process are explained.*

Keywords:*Text, logic, problem, speech, oral, written, thinking, method*

Inson yaralganidan buyon doimiy tarzda fikrlaydi,mantiqni ishga soladi. Qadim zamonlardan beri mantiq tushunchasi yanada rivojlanib,mukammallashib bormoqda. Inson yaralgan vaqtda mantiqni ishga solib turli narsalarni yaratgan. Masalan olov yoqish,tosh qurollar yasash, sekin sekin ekin ekish,qanday hosil olishdan tortib hozirgi zamonaviy texnologiyalarni yaratguncha bo‘lgan ixtirolarning barchasi insonning ilmiy va matiqiy tafakkur qilishi orqali vujudga kelgan. Hozirgi kunda aynan mantiqiy tafakkurni ishga solishni maktab davridan boshlab ishga solishimiz kerak. O‘quvchiga matnlar bilan ishlashda mantiqni ishga solishni o‘rgatish kerak. Hozirgi kunda oliy o‘quv yurtlariga yoki Prezident maktablari yoki xususiy maktablarga imtihonda ham mantiqiy fikrlashga doir savollar berilgani bejiz emas. Aynan o‘quvchining mantiqiy fikrlashi barcha soha

uchun kerak. Yetuk kadr bo‘lishi uchun mantiq ilmini ham o‘zlashtirish kerak. Bunda turli usul va metodlardan foydalanish mumkin. Agar bu usullarni hayotga tadbiq qilolsak, mantiqni rivojlantira olsak inson hayotida muammolar kamayadi. Bizning mantiqsizligimiz sababli ko‘plab oilalarda ajrim, g‘iybatlar va urushlar kelib chiqishi kuzatiladi. Biz darsliklarda berilgan matnlarni o‘qitish bilan birga ularda nima tasvirlanganligi,mantiqiy tomondan ham fikrlashni o‘quvchilarga o‘rgatish kerak.

Mantiq dalil keltirish va xulosa chiqarish prinsiplarini o‘rganuvchi falsafiy tadqiqotdir. Formal fan sifatida mantiq abstrakt unsurli tizimlarni tadqiq etadi, bu unsurlar ta’kid yoki argumentlar bo‘lishi mumkin. Mantiq muammolari o‘zi ichiga paradokslar, xatolar, sabab va oqibatlar orasidagi bog‘larga oid savollarni oladi. Mantiq — to‘g‘ri tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllari haqidagi fan. Mantiq o‘zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Mantiqga oid dastlabki fikrlar Qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan, Hindiston, Xitoyda vujudga keldi. Qadimda mantiq falsafa tarkibida bo‘lgan, mustaqil fan sifatida shakllanmagan. Yunon falsafasida mantiq masalalari dastlab Parmenidning „Tabiat to‘g‘risida“ asarida, Eleylik Zenonning aporiyalarida, Geraklit ta’limotida u yoki bu darajada ko‘rib chiqilgan. Aristotelgacha bo‘lgan mantiqiy ta’limotlar ichida Demokritning mantiqiy ta’limoti, Sokrashnchnt induktiv metodi va Platon dialektikasi diqqatga sazovor. Mantiq ilmining alohida fan sifatida shakllanishi Aristotel nomi bilan bog‘likdir. U birinchi bo‘lib mantiq o‘rganadigan masalalar doirasini aniqlab berdi. Uning „Kategoriyalar“, „Talqin haqida“, „Birinchi analitika“, „Ikkinchi analitika“, „Sofistik raddiyalar haqida“, „Topika“ nomli asarlari mantiq masalalariga bag‘ishlangan. Aristotel mantiqni „ma’lum bilimlardan noma’lum bilimlarni aniqlovchi“, „chin fikrni xato fikrdan ajra-tuvchi“ fan sifatida ta’riflaydi. Aristoteldan so‘ng mantiq, asosan, stoiklar maktabi vakillarining , Epikur, skeptiklar ta’limotlarida rivojlantirilgan. Stoiklar mantiqning maqsadi inson aqlini xatolardan asrash va haqiqatga erishishdir, deb bilishgan. Keyinchalik Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida ham mantiq ilmi shakllandi. O‘rta Osiyoda ham falsafa va mantiq mustaqil fan bo‘lgan.

Matnda ustida ishlash va yaratishga tayyorgarlik ko‘rish jarayoida ‘quvchilar davlat ta’lim standartlari talablari asosida quyidagi bilim va ko‘nikmalarni egallashlari lozim. Bu masalada Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU Lingvodidaktika kafedrasi dotsenti Tursunoy Yusupovaning “Matn ustida ishlash orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirish ” maqolasida shunday yozilgan. Matn ustida ishlash va matn yaratishga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida o‘quvchilar davlat ta’lim standartlari talablari asosida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashlari lozim bo‘ladi:

-o‘rganilgan matnda ifodalangan asosiy fikrni anglab yetish;

-mustaqil o‘qilgan matndan mantiqiy xulosa chiqarishni bilish;

-o‘rganib chiqilgan yoki o‘zi mustaqil yaratgan matnning turi,tili va uslubini aniqlash;

-munshaot matnlarni farqlash va ularni to‘g‘ri tuzish;

-matn tarkibini,uning uslubiy jihatlarini shakllantiruvchi,gaplarni o‘zaro bog‘lovchi til vositalarini tanlash va ularni o‘rinli qo‘llash;

-uslubiy nuqsonli gapni muxtassar va mukammal holatga keltira bilish;

-matn yaratish jarayonida so‘z birikmalarida ,ibora va tasviriy ifodalardan,maqol va hikmatli so‘zlardan unumli foydalana bilish;

-berilgan muayyan bir mavzu yuzasidan ilmiy, badiiy, puublisistik, rasmiy, so‘zlashuv uslublaridan kichik matnlar yarata olish;

-tayyor (berilgan yoki til mashg‘ilotlarida yaratilgan) matnni tahrir,tahlil qila olish;

-matn mazmuniga munosabat bildirilgan kichik taqriz,tavsiya,takliflar yoza olish;

-elektron didaktik slayd va kommunikativ jadvallarni ilmiy,ilmiy-badiiy uslubda tasniflash va ularni mavzu bo‘yicha ilmiy matnlar tuzishda foydalanish;

-madaniy mulaqot ko‘nikmalarini egallash va mazkur mavzuda turli uslubda matn yaratishni bilish;

-gazeta va jurnallarda cho etilgan maqolalar yuzasidan taqriz va referatlar yozish,qomusiy va lingvistik lug‘atlardan erkin foydalanish

-tayyor matn asosida yangi matn yaratish;

Bu yerda berilgan matnda mantiqiy xulosa chiqarishni bilish ko‘rsatilgan.

8-sinf Ona tili darsligida berilgan matnlarni mantiqiy tomondan tahlil qilib ko‘rsak ,masalan

TILSHUNOS VA QAYIQCHI

Bir kun mag‘rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib narigi qirg‘oqqa o‘tmoqchi bo‘ldi. Sohilda yo‘lovchi kutib turgan qayiqchilardan biriga yuzlandi. Qayiq yaqinlashdi. Olim qayiqqa o‘tirdi. Dengizni tomosha qilib ketayotgan olim qayiqchidan so‘radi:

– Sen hech nahv o‘qiganmisan?

– Yo‘q, men johil bir qayiqchiman.

Olim: – E voh, juda xafa bo‘ldim. Demak, yarim umring behuda o‘tibdi, – deya achinib qayiqchiga qaradi.

Shu vaqt dovul turdi. Keyin dengizning o‘rtasida chayqala boshladi, qayiqchi butun kuchi bilan xavfdan qutulish uchun harakat qildi. Bo‘ron borgan sayin kuchayar, qayiq esa cho‘kish arafasida edi. Shu vaqt qo‘rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan qayiqchi so‘radi: – Ey, har narsani bilgan olim do‘stim. Suzishni bilasanmi? Yo‘q javobini olgan qayiqchi:

– Voh, voh, sen umringni behuda sarflabsan. Hozir butun umring ketdi. Chunki birozdan keyin qayig‘im cho‘kadi. Yaxshi bilginki, bu yerda hozir nahv (grammatika) emas, mahv ilmi lozim. Agar mahv ilmini bilsang, qo‘rqmasdan dengizga sakra, – dedi. (Jaloliddin Rumiy, “Masnaviy va manaviy”)

Bu yerda anglash mumkin bo‘lgan mantiqiy ma’no faqat ilmni emas balki uni amalda qo‘llash kerakligidir. Maktabda amaliyot o‘tash jarayonida ko‘rdimki, o‘quvchilar matnlar ustida ishlamaydi va mantiqan fikrlamaydi. Bunga asosiy sabab o‘qituvchilarning to‘g‘ri metod qo‘llamasligida. Faqat mashq bilan chegaralanib qolishida va bu mashqni ham yuzaki bajarishidan darslikdagi matnlar amaliy hech narsani hal qilmayabdi, o‘quvchi to‘g‘ri foydalanmayabdi. Ta’lim tizimini tug‘ri yo‘lga qo‘yishimiz va shu darslikdan qo‘yilgan maqsadni o‘quvchilarga to‘g‘ri yetkazishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Falsafa,etika,estitika,mantiq fanidan dastur.

2.Lingvodidaktikaning asosiy masalalari mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami.(2022yil 18-may)

FONETIKA VA FONOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT NUTQNING FONETIK BO'LINISHI

Qosimboyeva Gulziyo Erkinboy qizi ,
Ona tili va adabiyot ta'limi fakulteti 2- kurs talabasi
Ilmiy rahbar:E'zoza Shuhratovna

Annotatsiya.*Ushbu maqolada o'zbek tilining fonetik paradigmasi deganda har qaysisi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan barqaror bir umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlardan tashkil topgan tizim tushuniladi.Bu butunlik yoki paradigma o'z ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan shu umumiylik uchun asos bo'lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunliklardan,ichki paradigmalardan-mikrosistemalardan tashkil topadi.Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalaridir.Bu kichik paradigmalar a'zolarining umumiy belgilari ularning shu tizimni tashkil etishini ta'minlasa,farqlovchi belgilari bu ichki paradigmaning yana kichik bo'laklarga bo'linib ketishiga olib keladi.*

Kalit so'zlar: *Fonetika,tilshunoslik,lingvistika,morfologik va sintaktik, fonologik, grammatik, til, umumiy fonetika, xususiy fonetika.*

Fonetika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib,unda nutq tovushlari,ularning hosil bo'lishi,turlari,o'zgarishi,so'z ma'nolarini farqlashdagi roli, shuningdek, urg'u, intonatsiya (ohang) nutqning fonetik bo'linishi kabi masalalar o'rganiladi. Fonetika ham o'rganish obyektining hajmiga ko'ra 2 turga bo'linadi:

1.Umumiy fonetikada dunyodagi barcha tillarning tovush tomoni va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganadi.Bularga barcha tillarda unli va undosh tovushlarning mavjudligi, nutq apparati, tovush o'zgarishlari kabilar kiradi.

2.Xususiy fonetikada muayyan bir tilning fonetik xususiyatlari o'rganiladi. Masalan, o'zbek tili fonetikasi,turkman tili fonetikasi, ingliz tili fonetikasi kabi. Fonetikaning bu turi tilning fonetik tomonini qay tarzda o'rganishiga qarab ikki turga bo'linadi: 1) tavsifiy fonetikada muayyan tilning fonetik tizimi tarixiy jarayon va dalillarga bog'lanmagan holda o'rganiladi. 2) tarixiy fonetikada ma'lum bir tilning fonetik tizimi til tarixi bilan bog'liq tarzda o'rganiladi. 3) Qiyosiy

fonetikada bir-biriga yaqin tillarning fonetik xususiyatlari qiyoslab o‘rganiladi.Masalan, o‘zbek va rus tillarini qiyoslab o‘rganish maktablarda shu tillarni o‘qitishning metodik muammolarini hal qilishda yordam beradi. 4)Eksperimental fonetikada fonetik birliklar va hodisalar maxsus asboblar yordamida tekshiriladi. Bunda olingan natijalar nazariy xulosalarning ishonchliligi ta’minlanadi. Fonetika (grekcha phone-“tovush”,-tike-“fan” so‘zlaridan) inson nutqini ifoda qilish uchun zarur tovushlar va ularning vositalari haqidagi tilshunoslik sohasidir. Nutq tovushlari va ularning vositalari bo‘lgan bo‘g‘in,urg‘u, intonatsiya hisoblanadi va shu tufayli har tomonlama o‘rganiladi:fonologik(yoki sotsia),funksional) jihatdan nutq tovushlari va ularning vositalari tildagi so‘zlar, so‘z formalari, iboralar va gaplarni bir-biridan farqlash, ularning ma’nosini kengroq ochish uchun zarurdir.Yuqoridagi to‘rt tomonlama qarashni ba’zan artiqulatsion fonetika, akustik fonetika (u ba’zan eshitib his etish tomonini ham o‘z ichiga oladi)va fonologiya nomlari bilan ham ataladi. Ular nutq tovushlari , bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya alohida tasnif qilish usullariga ega bo‘lib, bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir.O‘zining o‘rganish sohasi va vazifalariga ko‘ra, fonetika ikki turli bo‘ladi:nutq tovushlari sekundiga taxminan 1,100 marta tezlik bilan o‘tuvchi havo oqimining mexanik tebranishi natijasidir. O‘z navbatida havo tebranishi davomiy va davomsiz hamda sodda va murakkab bo‘lishi mumkin.Tovushlar asosan ikki asosiy akustik belgiga ega:amplituda va chastota.

Eksperimental fonetikaning metodlari

Hozirgi davr fonetikasida ikki asosiy metod mavjud:subyektiv va obyektiv metodlar Subyektiv metod talaffuzni bevosita kuzatishdan iborat.U eng qadimiy va doim ham qoplash mumkin bo‘lgan metoddir. Subyektiv bevosita kuzatish natijasida tovushlarning artiqulatsion-akustik xususiyatlari urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarning farqi, intonatsiyada ovoz ohangining pastga tushishi yoki yuqoriga ko‘tarilishini sezish mumkin.Texnik apparatura yordamida, ya’ni obyektiv metodlar yordamida aniqlanuvchi barcha artiqulatsion-akustik xususiyatlar eksperimental fonetik tekshirish yoki nutqni instrumental tasnif etish deb yuritiladi.Ma’lum apparatlar yordamida tilning tovush tarkibi,bo‘g‘in,urg‘u va

intonatsiyasini tekshirish ancha aniq va chuqur tasnif qilishiga imkon beradi.Artikulatsiyani o‘rganuvchi metodlar ichida palatografiya va rentgenografiya alohida o‘rin tutadi.Palatografiya-sun'iy tanglay yordamida tilning holatini aniqlashdir.Sun'iy tanglayi ingichka elastik plastinkadan iborat bo‘lib,uning shakli va o‘lchovi talaffuz qiluvchining qattiq tanglayiga teng bo‘ladi.Talaffuz qiluvchi shaxs informant deb atalib, u o‘zga tilning adabiy talaffuzida yoki biror shevada so‘zlay olishi lozim.Elastik sun'iy tanglay og‘iz bo‘shlig‘idagi qattiq tanglayga kiydiriladi. Ma’lum tovushning talaffuzida tilning izlari sun'iy tanglayga ko‘chiriladi.Natijada tovushning artiqulatsiya o‘lchami aniqlanadi.Tilning izlari qolgan sun'iy tanglay palatogramma deyiladi. Rentgenografiya va kinorentgenografiya tovushning artikulatsiyasini juda aniq ko‘rsatib beruvchi metoddir. Oddiy rentgenografiya nutq a’zolarining holatini ma’lum artiqulatsiya momentida aniqlashga imkon beradi. Kinorentgenografiya tovush artiqulatsiyasining rivojlanish holatlarini aniqlab beradi. Nutqning akustik tomonini aniqlash uchun spektral va ossillografik metodlar qo‘llanadi. Spektograf tovush maydonining amplitudasi va chastotasini ko‘rsatib beradi va tovushning akustik belgisini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Abduazizov A.A. (1992).O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi.-T.O‘qituvchi

2.Mengliyev B.R. (2004).Hozirgi o‘zbek adabiy tili.Fonetika fonologiya. Grafika. Imlo. Leksikologiya-semasiologiya. Leksikografiya.

3.Hamrayeva Y. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan mashqlar to‘plami 1- qism.

4.Nurmonov A. (1992).O‘zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi.-T..O‘qituvchi

5.Axmonova O.S. (1996). Fonologiya.Morfonologiya.-M:.Izd.MGU

6.Sh.Shoabdurahmonov va b. (1980).Hozirgi o‘zbek adabiy tili.1- qism.

ONA TILI FANINI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR

Rasulova Shoira Shuhratovna,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs
rasulovashoira45@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davlatimiz tomonidan ona tilimizga qaratilayotgan e’tibor, uni o‘rganish, sofligini saqlab qolish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri ekanligi tog‘risida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *ona tili, davlat tili, ta’lim sifati, pedagog kadrlar, o‘zbek tili*

Abstract. *This article discusses the fact that the attention paid by our state to our mother tongue, learning it, and preserving its purity is one of the most urgent problems of today.*

Keywords: *mother tongue, state language, quality of education, teaching staff, Uzbek language.*

Bugungi kunda ona tilimizni o’rganish, uning sofligini saqlab qolish dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida shunday degan edilar: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili-bu millatning ruhidir”(I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch”.Ma’naviyat nashriyoti.Toshkent-2020).

Bu fikrga to‘xtaladigan bo‘lsak, inson yashashi uchun ona, ona allasi qanchalik muhim bo‘lsa, uning kelajagi, kelajakdagi faoliyatiga ona tilining ahamiyati shunchalik muhimdir.Ona tilimizning sofligi va milliyligini saqlab qolishning birdan-bir yechimi, insonlarni, ya’ni jamiyatni bilimli qilishdir. Bilim esa, albatta, maktablarda fan o‘qituvchilari tomonidan beriladi. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodning ona tilimizga ravon va mustaqil tarzda so‘zlashishida o‘qituvchilarning xizmatlari benihoya cheksizdir. Bugun ta’lim sohasida ona tili fanini o‘qitishda ba’zi bir muammolar mavjudki, ularga shunchaki ko‘z yumib bo‘lmaydi. Aynan shu muammolar tilimizning sofligiga putur yetkazyapti, desak hech mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Natijada ushbu fanni o‘qitishda, o‘quvchiga

tushunarli qilib yetkazib berishda bir qancha muammolarga duch kelyapmiz. Bu holatlar esa, albatta, ta'lim sifatiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatyapti.

Shunday muammolardan biri, maktabda ta'lim berayotgan ona tili fani o'qituvchilarining ayni dars jarayonida sof adabiy tilda so'zlashmasligi, ularning nutqida sheva elementlari yoki chetdan kirib kelgan yangi so'zlardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Tilimizning sofligiga e'tibor bermaydigan, zarur paytda chetdan kirib kelgan so'zlardan ko'proq foydalanib o'z ona tilimizni o'lik tilga aylantirayotgan oliy ma'lumotli kadrlar qanday qilib shogird tayyorlashlari mumkin? Aynan fanning nomi ona tili bo'lib, darslarning sof o'zbek tilida emas, boshqa tillarda o'tish borgan sari urfga aylanib ketmoqda. Vaholanki, bunday holat o'quvchi uchun yangilik emas, ular ham o'qituvchiga ergashib shu ishni takrorlashyapti. Bunday holatlar ko'pincha shahar hududida uchrab turibti. Masalan, Buxoro, Samarqand hududida o'zbek tili darslarining tojik tilida tushuntirilishi, Toshkent shahri maktablarida rus tilida so'zlashish borgan sari follashyapti. Bir 45 minutlik dars jarayonini olaylik, darsda sheva elementlaridan foydalanish borgan sari kuchayib ketmoqda. Masalan, deylik darsda shu yerda olmoshini ishlatish kerak bo'lsa, o'qituvchi ham o'quvchi ham hech ikkilanmasdan shetta deb ishlatyapti. Demak, agar ular olmosh mavzusini o'tadigan bo'lsa, hamma olmoshlarni shunday o'zini tiliga moslab buzib talaffuz qilisharkanda? Bu kishi ko'nglini xira qiladigan eng dolzarb masalalardan biridir. O'quvchi maktabga bilim olish ilinjida kelsa-yu, ona tili darslarida o'zining tilida sof adabiycha so'zlamasa,bu, albatta, eng uyatli holatlardan biridir. Ona tilimizda qoidalarni o'z tilida o'rganolmagan o'quvchi o'zga tilda qanday o'rganadi? Bunday holat faqatgina ona tili darslarida emas, boshqa fanlarda ham kuzatiladi.

Yechim sifatida shuni taklif qila olamanki, maktablarda faoliyat olib borayotgan ona tili fani o'qituvchilarning malakasini oshirish, shu malaka oshirish davomida ularni sof adabiy tilga so'zlashishga majbur qilish kerak. Qachonki, o'qituvchi sof adabiy tilda so'zlashar ekan o'quvchi, albatta, uning ishini takrorlaydi. Bunday holatni oldini olishning eng yaxshi yo'li kadrlar tilini adabiylashtirishdir. Yana bir narsani taklif sifatida aytamanki, sof o'zbekcha

so‘zlardan iborat mukammal o‘quv qo‘llanma lug‘ati yaratilib, har bir ona tili fani o‘qituvchisi dars davomida shu lug‘atdan unumli foydalansa, o‘ylaymanki biz o‘z maqsadimizga erishgan bo‘lamiz.

Istiqlol yillaridagina ona tili ta’limi mazmuni, maqsadi va usuli masalasi kun tartibiga qo‘yildi yetarlicha e’tibor qaratildi va hozir ham qaratilyapti(To‘xliyev B. , Shamsiyeva M. , Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. 2010).Bu biz uchun, ayni shu soha vakillari uchun ulkan yangilik bo‘ldi, desak hech mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Ta’lim mazmuni ona tilining tabiatidan kelib chiqilgan nazariy bilimlardan tashkil topdi. Ta’lim maqsadi “o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini takomillashtirish fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri ifodalash malakasini shakllantirish” mazmunini oldi(Shayxislamov N.(2020) Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning asosiy yo‘nalishlari. Science and Education, 174-179-bet). Ta’lim usuli esa, qayta bayon qilishdan mustaqil va ijodiy fikrlash va uni nutq sharoitiga mos ifodalashga o‘tdi. Buni ona tili ta’limi tarixidagi bemisl hodisa deyish mumkin. Albatta, har qanday muammoning yechimi yangi muammolarni vujudga keltiradi. Ona tili ta’limi ham bundan mustasno emas. Ta’lim jarayonida keraksiz nazariy masalalarga behad chuqur kirib ketilganligi, grammatika tarkibiga urg‘u berilib, so‘z ta’limi keyingi o‘rinlarga tushib qolganligi, darsliklardagi xatoliklar, nazariy chalkashliklar, o‘quvchi egallagan ko‘pgina bilimlarning aslida kompetensiyaviy mohiyatga ega emasligi kabilar butun ona tili ta’limidagi muammolardir.

Ona tili darsliklariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularda imloviy xatoliklar va chalkashliklar talaygina. Darsliklarda berilgan qoidalarning bir-biriga mos tushmasligidir. Maktabdagi darsliklarni taqqoslasak, bir sinfda berilgan ma’lumotning boshqa bir sinfdagi shu mavzuga oid bo‘lgan ma’lumotdan farq qilishini kuzatishimiz mumkin. Darsliklardagi bu kabi holatlar dars o‘tayotgan o‘qituvchini ham o‘ylantirib qo‘yadi. Darsliklardagi qo‘shma fe’l bilan ifodalangan kesimning ot kesim yoki fe’l kesimligi muammosi; fe’l kesimning sof fe’l bilan ifodalanishi aytilganiga qaramay, ravishdosh bilan ifodalanishiga misol keltirilishi; -alla va-dir qo‘shimchalari bilan yasama olmosh hosil bo‘lishi haqidagi fikr;

ravishning yasalishi muammolari va h.z. 5-sinf ona tili darsligida gapning ifoda maqsadiga ko‘ra 4 turga bo‘linib 4 turi sharhlangan bo‘lsa,10-sinf ona tili darsligida faqat 3 turi haqida ma’lumot beriladi. Yana bir misolga to‘xtalamiz, 5-sinf ona tili darsligida ilmiy va kasbiy atamalar deyilgan mavzu bor. 10-sinf ona tili darsligida esa, aynan shu mavzu ilmiy atamalar, terminlar deb atalgan. 2019-2020-o‘quv yilining boshidan 8-9-sinflarning darsliklari yangilandi. Shu yangilangan darsliklarda ham muammoli vaziyatlar mavjud. Masalan, 9-sinf darsligida qo‘shma gaplar bog‘lovchi vositalarga qarab uch turga bo‘linishi haqida ma’lumot bor: bog‘langan,ergashgan, bog‘lovchisiz. 10-sinf ona tili darsligining “Qo‘shma gaplar uslubiyati” mavzusida qo‘shma gaplarning bog‘lovchi vositalarga qarab faqat ikki turi: bog‘lovchili va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar haqida gap yuritiladi. Hozir faqat ikki darslikni taqqoslagan undagi ayrim kamchilik va nuqsonlarni ko‘rib chiqdik. Vaholanki darsliklarda bunday chalkashliklar ko‘p. Sanayversak, ular anchagina qismni tashkil etadi. Bunday tushunmovchiliklarning yechimi yo‘q emas, bor, albatta.

Menimcha:

-darslik yozayotgan mualliflar birlashib, yagona fikrga kelishi kerak;

-terminlarni qo‘llashda bir xillilikka erishish lozim;

-o‘ta chuqur ilmiylashib ketgan qoidalarni soddalashtirish kerak;

-maktab darsliklarini yaratishda metodist o‘qituvchilarni, aynan maktabda dars beradigan, bir necha yil maktabda ishlab faoliyat olib borgan, o‘quvchi psixologiyasini hisobga olgan holda mavzu tanlay oladigan o‘qituvchilarni jalb qilish lozim(Shayxislamov N.(2020) Ona tili fanini o‘qitishning muammolari. Science and Education, 127-133-bet).

Pedagog kadrlarning an’anaviy darslardan voz kecholmasligi,o‘qituvchilar hali hamon ko‘chirib yozish, mashqlarni bajarish, savollarga javob yozish kabi usullardan foydalanib kelishyapti. Ayrim o‘qituvchilarning zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanib dars o‘tish ko‘nikmasining yo‘qligi qolaversa, ba’zi maktablarda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib dars o‘tishning iloji yo‘qligi sabab ham ular hali hanuz an’anaviy usuldan foydalanib kelmoqdalar. Bir xil

vazifa bajarib, mashqni yoki savolga javoblarni bir amallab kitobdan yozib baho oladigan o‘quvchilar ko‘paymoqda. Mutaxasisslar mustaqil fikr yuritish to‘g‘risida jon kuydirib yangi darslik yaratayotgan bo‘lsa ham maktabda an’anaviy dars turi davom etib kelayotgani bizni ogohlikka chaqiradi. O‘quvchilarni dars jarayoniga qiziqtira olmayotganimiz achinarli holat. O‘quvchilarni darsga jalb qilish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanishimiz, ona tili ta’llimiga oid yangi metodlarni izlashimiz kerak. Shundagina o‘zimiz ko‘zlagan maqsadga yeta olamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, ona tilimizga hurmat, mustaqilligimizga hurmat demakdir. Ona tiliga muhabbatni uydan farzandlarimizni tarbiyalagan paytimizdan boshlashimiz kerak. Professor-olimlar yangi darsliklar yaratib ona tili ta’limining zamonaviylashuvi xususida ish olib borayotgan bir paytda har birimiz ayniqsa, ona tili fani o‘qituvchilari bu masalaga befarq qaramasak yaxshi bo‘lardi. Bola psixologiyasi bilan tanish bo‘lgan maktab o‘qituvchisining har bir fikri inobatga olinsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunda biz ko‘zlagan maqsadimizga yetamiz, shundagina biz ona tili ta’limini mukammallashtira olamiz. Nafaqat mukammallashtiramiz, balki uning sofligini ham saqlab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Rahmatilla N. (2020) Abdulla Oripov dostonlarida qadriyatlar talqini. Til va adabiyot ta’limi, (7), 60-61

2. Shayxislamov N. (2020) Ona tili darslarida o‘quvchilar nutqini o ‘stirishning asosiy yo‘nalishlari. Science and Education, 1(4), 174-179

3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent (2020)

4. Shayxislamov N.(2020) Ona tili faninini o‘qitishning muammolari. Science and Educatoin, 1(5), 127-133

5.I. A. Karimov. (2020) Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Ma’naviyat nashriyoti. Toshkent

6. Xodjayev B. , Choriyev A. , Saliyeva Z. (2018), Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. T. Iqtisodiyot dunyosi

7. To‘xliyev B. , Shamsiyeva M. , Ziyodova T. (2010).O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. T. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.

MAKTAB O‘QUVCHILARINI NUTQINI O‘STIRUVCHI INTERFAOL METODLAR

Ro‘ziyeva Aziza Yorqin qizi
O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs

Annotatsiya*. Inson hayotda yashar ekan u o‘z fikrini atrofdagilarga bildirishi uchun albatta ravon nutq zarur. Mazkur maqolada maktab o‘quvchilarini nutqini o‘stiruvchi interfaol metodlar haqida so‘z yuritilib, o‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan talablar, ta’lim-tarbiya jarayonida nutq o‘stirishga erishish orqali o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalar bilan boyitilgan.*

Kalit so‘zlar*: ma’naviy meros, sharqona ta’lim va tarbiya, nutq, inson kamoloti, metodika, nutq aspektlari, hayotiy ko‘nikmalar, buyuk allomalar, adabiy til normalari.*

Abstract. *When a person is living in life, he needs to speak fluently so that he can express his opinion to the people around him. This article talks about the interactive methods that develop the speech of schoolchildren, the clearly defined requirements for the development of students' speech, the vital skills that should be formed in students by achieving speech development in the educational process. enriched with skills.*

Keywords: *spiritual heritage, oriental education and upbringing, speech, human development, methodology, aspects of speech, life skills, great scholars, norms of literary language.*

Metod so‘zi yunoncha tadqiqot , maqsadga erishishning yo‘li, usuli demakdir. Filosofiya lug‘atida “maqsadga erishishning usullari” deya sharhlangan. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanib kelinmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishish uchun metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash zarur. Ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasi o‘sishi uchun an’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta’lim oluvchilar

faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish maqsadga muvofiq.

Ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar “Interfaol metodlar” nomi bilan yuritilmoqda. Hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagi ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan “Interfaol ta’lim metodlari” hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo‘llash mumkin. Ushbu vaziyat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

O‘quvchilar nutqida mantiq ilmiga asoslanib fikr-mulohaza bildirish maqsadga muvofiq. Shu bois ular xotirasidagi so‘z zahirasini o‘z nutqi orqali harakatga keltiradi. Nutq va uni o‘stirish tushunchasi. Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘zaro aloqa va xabar funksiyasini,o‘zaro fikrni his-hayajon bilan ifodalash va ta’sir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishining aktiv faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olish qurolidir.

Quyidagi aspektlari asosida Nutqni egallanadi. Bular:

1. Adabiy til normalarini o‘zlashtirish.

2. Jamiyatimizning har bir a’zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish.

3. O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Nutq o‘stirishda uch yo‘nalish aniq ajratiladi:

1) so‘z ustida ishlash;

2) so‘z birikmasi va gap ustida ishlash;

3) bog‘lanishli nutq ustida ishlash.

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi.

1. O‘quvchilar nutqi mazmundor bo‘lsin.

2. Nutqda mantiqiylik bo‘lsin.

3. Nutq aniq bo‘lsin.

4. Nutq til vositalariga boy bo‘lsin. 5. Nutq tushunarli bo‘lsin.

6. Nutq ifodali bo‘lsin. 7. Nutq to‘g‘ri bo‘lsin.

8. Nutq madaniyatli bo‘lsin.

O‘quvchilar ona tili darslarida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; Shuningdek: kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari bo‘yicha to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslarida bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni tuzishni o‘rgatadi. O‘qish darsi va u bilan bog‘liq holda olib boriladigan ekskursiya o‘quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala normalari haqida bilim beradi; bu darsda o‘quvchi nutqiga, uni shakllantirish va o‘stirishga keng imkoniyat mavjud. Grammatika va to‘g‘ri yozuv darslarida tilni maxsus o‘rganish bilan bolalar alohida bo‘g‘in, so‘z, tovush va gaplarni eshitishga va aytishga o‘rganadilar. Ular predmet, harakat, belgi bildirgan ko‘pgina so‘zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo‘g‘in, o‘zak, so‘z, so‘z yasovchi, forma yasovchi, qo‘shimcha, so‘z turkumi, sifat, son, fe’l, ot, olmosh, gap, gap bo‘lagi, bog‘lovchi, bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, darak gap, so‘roq gap, undovgap;turlanish, boshkelishik singari juda ko‘pyangi terminlarni bilib oladilar.

Natijada o‘quvchilarda quyidagi:

- Turli xil shakl va mazmundagi samarali og‘zaki,va yozma va multimediyaga asoslangan muloqotni anglash, boshqarish va ijod qilish;

- Turli xil shakillarda va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baxolash, boshqarish hayrixoh bo‘lish; turli xil istiqbollarga e’tibor bilan qarash;

- Jamoada ishlay olish va yetakchilik qobilyatlarini namoyon etish; turli xil rollar va ma’sulyatlarni qabul qila olish;boshqalar bilan birgalikda samarali mehnat qila olish; boshqalarga hayrixoh bo‘lish; turli xil istiqbollarga e’tibor bilan qarash kabi hayotiy ko‘nikmalarning shakllanishi kafolatlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Дилова Н.Г. (2021). Педагогик ҳамкорлик жараёнининг мазмуни ва уни ташкилэтиш тамойиллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 547-557бетлар. 2. Расулова З. (2021). Педагогик дастурий воситалардан фойдаланиб бўлажак технология фани ўқитувчиларининг касбий маҳоратини ошириш йўллари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 416-426 бетлар.

3. Dilova N.G. (2021). O‘quvchilarning shaxsiy sifatlari - pedagogik hamkorlikning dastlabki tamoyili. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 558-566 betlar.

4. Расулова З.Д. (2021). Талабаларнинг креативлигини ривожлантиришда масофавий таълимнинг ўрни. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 439-448 бетлар.

5. Dilova N.G. (2021). O‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligini vujudga keltirishning pedagogik ahamiyati. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 567-576 betlar.

6. Расулова З. (2021). Технология дарсларида интерфаол таълим технологияларидан фойдаланишнинг самарали жиҳатлари. Science and Education. Vol. 2, Issue 10, 360-369 бетлар.

7. Dilova N.G. (2021). Formative assessment of students'knowledge–as a means of improving the quality of education. Scientific reports of Bukhara State University. 3:5, pp. 144-155.

MAMLAKATLARDAGI TIL SIYOSATINING KO‘RINISHLARI HAMDA TIL BOSHQARUVI BILAN BOG‘LIQ MASALALAR

Safarova Gulshoda,
ToshDO‘TAU *Amaliy filologiya yo‘nalishi, 2- kurs*
gulshodasafarova4@gmail.com

Annotatsiya. *Deyarli barcha mamlakatlarda til siyosati va tilni planlashtirish, til bilan bog‘liq muammolarni yechish va o‘z tilini keng targ‘ib qilish hamda davlat tilini nufuzini oshirish bo‘yicha keng chora tadbirlar, buyruq va farmoyishlar berilib borilmoqda.Ushbu maqolada til siyosatining yuzaga kelishi va o‘rganilishi, ham til siyosatining mamlakatlardagi holati bir necha davlatlar misolida ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *Adabiy til, dialekt, ko‘ptillilik, til siyosati, tilni boshqarish, rasmiy til, milliy til, “Tubon” qonuni, mintaqaviy tillar.*

Abstract. *In almost all countries, a wide range of measures are being taken to effectively organize language policy, language planning, solve language-related problems, widely promote one's own language, and increase the prestige of the state language. In this article, the emergence and study of language policy, the state of language policy in countries are considered on the example of several countries.*

Keywords: *Literary language, dialect, multilingualism, language policy, language management, official language, national language, "Tubon" law, regional languages.*

Amaliy tilshunoslikning tez rivojlanib borayotgan sohalaridan biri bu sotsiolingvistika bo‘lib, hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etayotgan til siyosati masalasi ushbu soha doirasida o‘rganiladi va tadqiq etiladi. Til siyosati masalasi 1960-yillarning boshlarida tilni rejalashtirish tushunchasi bilan birga yuzaga kelgan bo‘lib, Hornberger, Jonson, Kanagaraja va Risento kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Olimlarning ta’kidlashlaricha, til siyosati va uni o‘rnatish mustamlakachilik siyosati ortidan yuzaga chiqqan bo‘lib, mustamlakachi mamlakatlar o‘zlarining tillarini rasmiy til maqomiga chiqarish yoki bo‘lmasa mustamlakadan ozod bo‘lib yangi yuzaga kelgan davlatlatlarda ularning ehtiyojlarini qondiradigan milliy tillarini standardlashtirish hamda shu orqali o‘zlarining rasmiy tiliga ega bo‘lib iqtisodiy rivojlanish va o‘z o‘rniga ega bo‘lish vajidan kelib chiqqan. Jumladan , o‘tgan asrda O‘zbekistondagi til siyosatiga nazar solsak bunga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Dastlab mamlakatda milliy til bilan birgalikda rus tilini qo‘llash talab qilingan bo‘lsada, keyinchalik ’’millatlararo muomala tili‘‘ degan qiyofasiz atama o‘ylab topildi va bu konstitutsiyada ham rasmiylashtirildi (Mirzayev R. Davlat tili maqomi. Tarixiy xuquqiy tahlil. shosh.uz). Jamiyatda rus tilini keng targ‘ib qilish va uni aholi ongiga majburan singdirish holatlari o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lishi orqaligina chekindi. Bungacha bo‘lgan davrda til siyosatini majburan o‘rnatish faqatgina

SSSR uchungina xos bo‘lmasdan boshqa bosqinchi mamlakatlarda ham o‘zining ta’sir kuchini ko‘rsatganligi va bu holat til siyosatining dastlabki ko‘rinishlaridan biri ekanligi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Chunki u olimlar tomonidan ma’lum qoidalarga bo‘ysundirilgan va ishlab chiqilgan. Keyinchalik esa til siyosatini o‘rnatish mamlakatlardagi ma`lum bir kamchiliklar va muammolarni yechish uchun xizmat qildi ya’ni mamlakatlarda aynan til masalasida ma`lum qoida o‘rnatilmaganligi uchun yuzaga kelgan muammolar o‘zining yechimini talab qildi. Mamlakatlardagi aholi tarkibining turlichalik kasb etishi, mamlakatda qaysi til amal qilishi hamda ularning mahalliy kelib chiqishidagi tafovutlar har bir mamlakat uchun ma’lum til siyosatini yuritishni talab qildi. Bir so‘z bilan aytganda, til siyosati tilni tartiblash, ishlab chiqish va targ‘ib qilish demakdir, ya‘ni mamlakat rasmiy doirasida amalga oshiriladigan qator ishlar, jumladan qonunchilik, sud-huquq sohasi, til ta’limi tizimi kabi qator sohalarda yakdillikka erishish va ma’lum tartibga bo‘ysunish til siyosatining o‘rni qay darajada zarur ekanligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Til siyosatining asosini mamlakatda amalda bo‘lgan rasmiy tilning aynan adabiy ko‘rinishi bilan bog‘ligi uning umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalarga rioya qiladigan, ma’lum me’yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to‘g‘ri qo‘llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiladigan til ko‘rinishi ekanligi va u har qanday sheva so‘zlardan, argo va jargonlardan xoli ekanligi asos qilib olingan va mamlakatdagi asosiy til bilan bog‘liq masalalar mamlakatda aynan shu bir til bilan ko‘rib chiqiladi va sharoitga tatbiq etiladi. Ammo shuni ham aytib o‘tish joizki, ayrim mamlakatlarda birdan ortiq til rasmiy maqomga ega, ayrim mamlakatlarda esa ma’lum bir rasmiy til belgilanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Amerika Qo‘shma Shtatlarini misol qilib oladigan bo‘lsak, ingliz tili aholining asosiy so‘zlashuv tili (taxminan 78%) bo‘lishiga qaramay, rasmiy til maqomiga ega emas. Yillar davomida ko‘plab ingliz faollari ingliz tilini Qo‘shma Shtatlarning rasmiy tiliga aylantirishga harakat qilishgan, kongressning deyarli har bir sessiyasida ingliz tilini rasmiy til maqomiga chiqarish maqsadida konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish taklif etiladi. Jumladan, 107-Kongressda

muhokama qilingan HJ RES 16 VA HR 3333 qonun loyihalarida ingliz tili AQShning rasmiy tili bo‘lishi, barcha rasmiy ishlar, hujjat ishlari bundan tashqari ingliz tilini AQShning rasmiy tili sifatidagi rolini saqlab qolishi, boshqa tillardan mansabdor shaxslarning foydalanishi hamda xizmat ko‘rsatishi va shu kabi qator ishlarni amalga oshirishi ta’qiqlanishi, yuridik hizmatlarning yaratib berilmasligi kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. AQSh senatorlaridan biri, Ken Salazar hattoki ingliz tilini “AQShning umumiy va birlashtiruvchi tili” deb e’lon qiladi.(Constitutional topic: Official language. Usconstitution.net)

Hattoki, hozirgi kunda deyarli barcha mamlakatlarda mavjud bo‘lgan ikki tili ta’lim siyosati ham bu qonun loyihalari tomonidan rad etilishi va mamlakardan ingliz tilidan keyin ikkinchi o‘rinda turgan ispan tili (taxminan 13,4%) ham mamlakatdan siqib chiqarishga harakat qilinadi. Lekin qilingan sa`y- harakatlar amalda deyarli o‘z isbotini topmadi. Bunga teskari ravishda AQSh o‘zining shtatlariga o‘zlarinig rasmiy tillarini belgilash imkonini berdi. Hujjat ishlari, ta’lim sohasi o‘sha hudud doirasida amalda bo‘lgan til siyosati orqali amalga oshiriladigan bo‘ldi, buning natijasida AQShda aniq bir til siyosti o‘rnatilmadi. Bunga qarama-qarshi yo‘sinda Fransiyadagi til siyosatini sharxlaydigan bo‘lsak, mamlakatda aniq bir tilga rasmiy maqom berilgan bo‘lib, ayrim mamlakatlardagi rasmiy maqomga ega tillardan farqli ravishda davlat tili vazifasini ham amalda o‘taydi. Fransiyaning rasmiy tili fransuz tili bo‘lib (2-modda), aholining 88%i ushbu tildan birinchi til sifatida foydalanishadi. Fransiyada fransuz tilini madaniy yodgorlik sifatida saqlashga mamlakat madaniyat vazirligi mas’ul hisoblanadi. Rasmiy ish yuritish ham fransuz tilida amalga oshiriladi. Bu 1994-yilda qabul qilingan “Tubon” qonuni (1-rasm) reklama matnlari va joy nomlari, ommaviy joylardagi peshlavhalarni, jamoat transportlaridagi yozuvlar, yo‘l ko‘rsatkichlari, mahsulotlar hatto turli mulklarga yozilgan yozuvlargacha faqat fransuz tilida bo‘lishi talab qiladi. Davlat tashkilotlari tomonidan ish yuritish istisnosiz fransuz tilida olib borilishi, terminlarning fransuzcha muqobili turganda inglizchasini yoki boshqa tildagisini ishlatish taqiqlanishi haqida yoziladi ushbu qonunda (To‘raxo‘jayeva Sh). Bundan tashqari, Fransiyada til targ‘iboti ham ancha

faolligini uni o‘rganuvchilarining soni ham yuqori ekanligidan bilishimiz mumkin. 2007-yilda yuzga yaqin til markazlarini birlashtirgan “Qualité français langue étrangère” (Sifatli fransuz tili chet tili sifatida) rasmiy yorlig‘i aynan shu maqsadda yaratilgan (Apprendre le francais langue etrangere). Ajablanarli holat shundaki, Fransiya ham ko‘ptilli mamlakat hisoblanib, o‘zining mintaqaviy tillariga ega mamlakat va ta’lim tizimi fransuz tilidan boshqa tillarda ham olib boriladi. Masalan, Brittanidagi Divan, basklar mamlakatidagi Ikastola, Oksitaniyadagi Kalandreta, Shimoliy Kataloniyadagi La Brassola maktablari. Buning oqibatida 2021-yil aprel oyida Fransiya butun mamlakat bo‘ylab mintaqaviy tillarni himoya qilish va targ‘ib qilishga qaratilgan “Molak” qonunini (2021-yil 8-aprel) tasdiqladi. Qonun maktablarga maktab kunining ko‘p qismida mintaqaviy tillarda o‘qitishni taklif qiladi lekin bu ko‘p e’tirozlarga sabab bo‘lib qonunning 2021-yil 21-mayda konstitutsiyaviy ravishda bekor qilinishiga olib keldi (Language policy in France. https:en.m.wikipedia.org/wiki). Ko‘rinib turganidek, Fransiyadagi til siyosati, tilni boshqarish ancha farqli jihatlarga ega bo‘lib, boshqa mamlakatlar o‘rnak olish uchun yetarli asoslar bor. Biz yuqorida rasmiy tilga ega bo‘lmagan, bitta rasmiy tilga ega bo‘lgan ko‘ptilli mamlakatlarda til siyosati va boshqaruvini ko‘rib chiqdik navbatda esa bir necha rasmiy tilga ega bo‘lgan Yevropa davlatlaridan biri bo‘lgan Belgiyadagi til siyosatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, boshqa davlatlarnikidan ancha farqli holatni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Yevropada joyashgan bu davlat ham ko‘ptilli mamlakatlar qatoriga kirib, uchta rasmiy tilga egadir. Bular: niderland, fransuz, nemis tillaridir. Bu tillar uchun mamlakatda keng ko‘lamli til qonunchiligi mavjud. Statistik ma’lumotlatga ko‘ra Belgiya aholisining 59%i golland, 40%i fransuz, 1%i nemis tilida so‘zlashuvchilar hamjamiyatiga tegishlidir. Belgiyada til siyosati bir qancha murakkab bo‘lib, ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan. Mamlakatda shaxsning til erkinligi belgilangan va oqibatda mamlakatda fransuzlashuv jarayoni boshlandi va natijada golland tilini mavqeyi yo‘qola boshladi. Qonun hujjatlarida ham fransuz tilining roli ko‘tarildi, chunki qonun chiqaruvchi amaldorlar golland tilini yaxshi bilishmasdi. Bu holatni bartaraf etish uchun qator qonun loyihalari ishlab chiqildi va yakunda esa ya’ni

1970-yilda davlat konstitutsiyasining 4-moddasiga binoan to‘rta til sohasi tashkil etilgan (Législation linguistique). Shundan buyon munitsipaletlarning tilga mansubligi faqat maxsus qonun bilan o‘zgartirilishi mumkin. Shu bilan birga bu hamjamiyatlarda boshqaruv ta’lim sohasidan munosabatlar o‘z tili hududidagi tillardan foydalanishni tartibga solish uchun mas’ul til jamoalari tashkil etildi. Til davlat hokimiyatini organlarining joylashgan joyiga emas, balki davlat hokimiyati organlari o‘z vakolatlarini amalga oshiradigan joyga bog‘liq. Agar til qoidalarini buzish holatlari yuzaga kelsa tegishli tartibga jinoiy javobgarlikka tortilishi yoki bo‘lmasa, amalga oshirilgan ishlar real bo‘lmagan deya amalga olinmasligi mumkin. Shu sababli bo‘lsa kerak, har bir mintaqa mavjud til qonuni qoidalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritib, o‘zlarining hududiga joriy etgan. Belgiyada ta’lim sohasida ham bir qancha o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lib, ular mintaqadagi mavjud rasmiy tillarni bir-birining hududida o‘qitilishini rad etadi. Faqatgina boshqa chet mamlakat tillarini o‘rganish qonun bilan cheklanmagan. Ta‘lim sohasidagi hayratlanarli hol shundaki, mazkur til hududlari o‘zlarining mavjud til qoidalarini almashtirish va takomillashtirish hamda so‘zlardagi urg‘uning o‘rinlarini belgilash imkoniyatiga egadir.

Ko‘p mamlakatlarda bo‘lgani singari Belgiyada ham mamlakat miqyosida ma‘muriy masalalarda til qonunchiligining qo‘llanilishini tekshiruvchi tashkilot mavjud bo‘lib, u Doimiy Til Nazorati Komissiyasi (Doimiy Lingvistik Nazorat komissiyasi) deb yuritiladi. Mamlakat rasmiy tillari soni ko‘p bo‘lgani bois, bu tashkilotning vazifasi bir muncha murakkablik kasb etadi. Ammo bu tashkilot qonuniy kuchga ega emas, faqatgina vaziyatlarni kuzatadi, tahlil qiladi va kerakli o‘rinlarda Davlat kengashiga murojaat qiladi. Bu esa mamlakatda tilga bo‘lgan munosabatning yaxshilanib borishi va shu bilan birga tildan tog‘ri joy va paytda foydalanishni ta‘minlaydi. “Tubon” qonuni, “O‘zbek tilini davlat tili sifatida nufuzini oshirish to‘g‘risida”gi qonunlar yoki bo‘lmasa “Qualité français langue étrangère”, “Doimiy Lingvistik Nazorat komissiyasi”, “Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti” kabi tashkilotlarning vazifalari deyarli bir xil: tilni rivojlanirish, tekshirish, boshqarish va o‘rgatishdan iborat. Fransiyadagi til

siyosatini boshqalarniki bilan solishtirib ko‘rsak, boshqa mamlakatlardagi til siyosatidan ancha ustun va yuqori darajadaligi ko‘rinib turibdi va bu mamlakatning til siyosatini boshqa mamlakatlarga ham joriy etish va bu mamlakatlarda yagona bo‘lgan rasmiy tilni to‘laqonli shakllantirish va o‘z milliy va rasmiy tillarini nufuzini oshirish va so‘zlashuvchilaring sonini oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ayrim mamlakatlarda rasmiy til konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, ayrim rasmiy ish yuritish hujjatlarida boshqa tildan foydalanish holatlari ham kuzatiladi. Bularni tartibga solish va bu bo‘yicha “Tubon” qonuni singari alohida ishlanma ishlab chiqilishi va mamlakatlarda joriy etilishi kerak. Bunaqa qonun faqatgina Fransiyada bor deyish o‘rinli bo‘masada (Belgiya, Turkiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda ham bunaqa qonun loyihalari ishlab chiqilgan), ayrim mamlakatlar bu masalaga yengil qaraydi. Rasmiy va mintaqaviy tillari ko‘p mamlakatlardagi til siyosati boshqa mamlakatlarning til siyosatiga qaraganda ancha murakkab ekanligi yuqoridagi davlatlardagi til siyosatidan bilib olish qiyin emas. Ulardagi bir necha rasmiy tillar, mahalliy va mintaqaviy tillar, shevalar birgalikda bu davlatlardagi til siyosatini ochib beradi. So‘nggi so‘z o‘rnida shuni ayta olamanki, mamlakatlardagi til siyosati va tilni planlashtirish kabi masalalar davom etaveradi va kishilik jamiyati bor ekan til rivojlanishda davom etadi va unda kamchiliklar va to‘ldirilishi kerak bo‘lgan bo‘shliqlar doim mavjud bo‘ladi. Tilda muammo va kamchiliklar bor ekan, u har bir bir mamlakatning siyosatida o‘z aksini namoyish etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Apprendre le francais langue etrangere. *www.culture.gouv.fr*.

2. Constitutional topic: Official language. *Usconstitution.net*

3. Elova D., Safarova G. (2021) Sotsiolingvistika.-Toshkent. *Azmir Nashr Print.*

4. Language policy in France. *https:en.m.wikipedia.org/wiki*

5. Législation linguistique| DOCU Vlaamse Rand. *https://www.docu.vlaamserand.be/node*

6. Rand. https:*//www.docu.vlaamserand.be/node*

7. To‘raxo‘jayeva Sh. Fransiyada til qonunini buzganlar 3750 yevrogacha jarima to‘laydi yoki mulkidan ajraladi. *http://www.uz /ru*

FIZIKA FANI BO‘YICHA TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUV LUG‘ATLARINING O‘RNI

Sattarov Sardorbek Husniddin o‘g‘li,
Toshpo‘latova Farangiz Qodir qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot ta’limi fakulteti
2-kurs farangizsattarova21@gmail.com

Annotatsiya.*Ilm-fan rivojlanib borayotgan davrda fizika fani bo‘yicha lug‘at tuzish o‘zi nega kerak, sabablari, qanday natija va yutuqlarga erishish mumkinligi haqida, taraqqiyot jarayonining talablari, har bir fanni to‘la tushunish, atamalarning tub ma’nosini anglab yetish uchun lug‘atlarning o‘rni, muhimligi va zamon talabi ekanligi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Lug‘at, fizika, ilmiy muammo, atama, Baxtiyor Mengliyev.*

Hozir biz globallashuv jarayonida, internet, telefon, turli aloqa vositalari rivojlangan davrda yashayapmiz. Bu asr internet asridir. O‘zimizga kerakli ma’lumotni istalgan vaqtda, hech qiynalmasdan topishimiz mumkin. Dars o‘tish jarayonlari ham ancha zamonaviylashgan. Shunday bo‘lishiga qaramay, ta’lim sohasida ayrim kamchiliklar, oqsaydigan joylarimiz ham yo‘q emas. Masalan, har bir fan tarmog‘i bo‘yicha yagona lug‘atning yo‘qligi. Ona tili bo‘yicha 2015-yilda boshlangan ishlar 2020-yilda yakunlandi va besh yil mobaynida yagona lug‘at shakllantirildi. Qolgan fanlar bo‘yicha esa mana necha yillar o‘tgan bo‘lsa-da, hali-hanuz bu ish o‘z yo‘liga qo‘yilgani yo‘q. “Agar universitetlardagi tegishli kafedralarda shunday tipdagi o‘quv lug‘atlari yaratilsa, demak, besh yilda taxminan 10 ga yaqin o‘quv lug‘ati dunyoga keladi”(B. Mengliyev,2015, 7-bet)

O‘quvchi tushunmagan so‘zining ma’nosini topguncha ancha uzoq vaqt ketadi yoki ba’zan erinish oqibatida shu so‘zning ma’nosini bilmay qolaveradi, ya’ni o‘quvchida shu mavzu bo‘yicha bo‘shliq paydo bo‘ladi. Bu bo‘shliqni to‘ldirishimiz uchun ham o‘quv lug‘atlarini shakllantirishimiz lozim. Rivojlanayotgan davlatlarga e’tibor beradigan bo‘lsak, ular har bir soha bo‘yicha, har bir fan tarmog‘i bo‘yicha o‘quv lug‘ati tuzganliklarini ko‘rish mumkin. Masalan, ingliz tilini yoki rus tilini oladigan bo‘lsak, bu fanlar bo‘yicha maxsus lug‘atlar allaqachon shakllantirilgan va bu lug‘atlardan istalgan paytda bemalol

foydalana olish mumkin. Eng asosiysi, so‘zlar alifbo tartibida , ma’lum ketma-ketlikda tartib bilan ma’nosi to‘la ochib berilgan holda tuzilgan. Shu jihatdan ta’lim sohasida anchagina orqada qolganmiz. Buni tan olmay hech ilojimiz yo‘q.

E’tibor beradigan bo‘lsak, fizika kitoblarida mavzuga doir ayrim atamalar va ularning ma’nosi qisqa holatda berib o‘tilgan. Bu o‘quvchi uchun yetarli emas. Biror atamaning ma’nosini topish uchun o‘quvchi shu atama qaysi mavzuga tegishli ekanligini bilishi va keyingina o‘sha mavzuni kitobdan qidirib topishi kerak bo‘ladi. Bu esa ancha vaqtni talab etadi, noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bu ham yetmagandek, ba’zi atamalarning ma’nosi kitobda ham berilmagan bo‘ladi yoki o‘quvchiga tushunarsiz holda, anglab yetishi mushkul bo‘lgan holatda ilmiy tilda beriladi. To‘g‘ri, darsliklar ilmiy tilda berilishi kerak, ammo ba’zi terminlarning ma’nosini o‘qituvchilarning o‘zi ham yaxshi anglab yetmaydi va o‘quvchiga ham talab darajasida tushuntirib berolmaydi. Buning oqibati esa ,albatta, yaxshi natijaga olib kelmaydi, rivojlanayotgan davr talab qilayotgan kadrlar yetishib chiqmaydi. Hozirgi davrda ilm- fan sohasidagi ko‘plab muammolar hal qilinmoqda. Shular qatorida lug‘at tuzish muammosi ham dolzarb va yechim talab etadigan muammolar qatorida turadi.

Bu muammo bir yoki bir necha kishining muammosi emas, albatta. Bu ilm-fan yo‘lini tanlagan, tadqiqot qilishni, yutuq va natijalarga erishishni o‘zining asosiy vazifasi deb hisoblaydigan har bir kadrning zimmasida turgan eng katta vazifalardan biri desak, hech ham mubolag‘a bo‘lmaydi. Lug‘at tuzish uchun ,avvalo, ma’lum bir muddatni belgilab olish kerak. Masalan, ona tili lug‘atini tuzish besh yil muddatga belgilangan edi va bu ish o‘z natijasini berdi. Endilikda ona tilining milliy korpusini shakllantirish ishlari olib borilmoqda. Fizika sohasi ham jahon talab etadigan sohalardan biri bo‘lganligi uchun shu ishni yo‘lga qo‘yish zarur. Ma’lum muddat belgilangandan so‘ng bosqichma-bosqich ishlar isloh qilina boshlaydi:

1. Muddat belgilanadi;
2. Ma’lum guruh shakllantiriladi;
3. Alifbo tartibida lug‘at tuziladi;

4. Lug‘atlar jamlanadi;
5. Tegishli mutaxassislar tomonidan tekshiriladi;
6. Oxirida kitob holida chop etiladi.

Lug‘at tuzishda alifbodagi harflar ma’lum ketma- ketlikda bo‘lib olinadi. Fizika fani bo‘yicha ishlatiladigan barcha terminlar yig‘ib chiqiladi va ularning ma’nosi imkon qadar sodda tilda tushuntirib beriladi. Oddiy kundalik hayotimizda ishlatiladigan voqea- hodisalardan misol keltiriladi. Keyin esa barchaning qilgan ishlari yig‘ib chiqiladi, tahrir qilinib, jamlab chiqiladi. Bu ish ancha vaqt va mablag‘ talab etadi. “ Ta’kidlash joizki, ko‘pincha lug‘atlarni tayyorlash haqida gap ketganda, mablag‘ masalasi muammo bo‘ladi”(B. Mengliyev,2015, 7-bet)

Lug‘at tuzish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilganicha yo‘q hali. Ta’lim sohasidagi kamchiligimiz – shu ish borasida qayta-qayta bong uriladi hamki, hali-hanuz bu muammo yechimini topganicha yo‘q. Ortga surib kelinayotgan bu muammo qachon yechimini topsagina, ta’lim sohasida yutuqlarga erishishimiz mumkin. To‘g‘ri, darslarda zamonaviy texnologiyalardan, turli qiziqarli o‘yinlardan foydalaniladi, ammo bular yetarli emas.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nafaqat fizika, balki har bir fan sohasi bo‘yicha o‘quv lug‘atini shakllantirish zarur. Qancha mablag‘ va vaqt talab etishidan qat’iy nazar , ta’limdagi oqsaydigan nuqtalarimizni bartaraf etmay turib taraqqiyot va rivojlanishning yuqori darajasiga erishib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mengliyev, B. (2015) “Ma’rifat” gazetasi, , 7-bet.
2. Mengliyev, B. Darslik talablari.
3. Eshonqulov, D. O‘zbek lug‘atchiligining shakllanish bosqichlari.
4. Omonturdiyev, A ,Xoliyorov, O‘ ,Qorjovova, G‘ .(2016) Zamonaviy o‘zbek leksikorafiyasi: Tahlil va tadqiq. Termiz .. 22-bet.

O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQIDA IMLOVIY XATOLARNI BARTARAF ETISH

Sattorova Zarina Shokir qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti
2-kurs Sattorovaz26@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada o‘quvchilarning yozma nutqidagi imloviy muammolarni bartaraf etish, xususan, ularning og‘zaki nutqini rivojlantirish , ularda nutqiy g‘alizlikka va shu orqali yuzaga keladigan yozma xatolarga yechim topish, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, nutqiy ravonlikni ta’minlash kabi masalalarni, shuningdek, o‘quvchi nutqida doimiy ishlatib kelinadigan so‘zlarni assimilyatsiya, dissimilyatsiya va metateza kabi hodisalarni ishlatishda shu so‘zlarni noto‘g‘ri yozish yoki aynan so‘zlarning muqobilini topa olmaslik kabi jarayonlarni tahlil qilinadi va shu muammolarga yechimlar ko‘rib chiqiladi. Xususan, yozma nutqda kelishiklarni to‘g‘ri qo‘llay olmaslik va “x” bilan “h” tovushlarini ajrata olmaslik muammolari tahlil qilinadi. Yana bu muammolarni bartaraf etish uchun turli foydali metodlar bilan tanishiladi.*

Kalit so‘zlar: *Assmilatsiya, dissimilyatsiya, metateza, kelishiklar, “x” va “h” tovushlari, metod, “yumshoq va qattiq” metodi, “maktab” metodi, “karra” metodi.*

Abstract: *The article deals with the elimination of spelling problemas in the written speech of students, in particular, the development oftheir oral speech, finding solutions to speech insanity and the resulting written errors, increasing the vocabulary of students, and ensuring speech fluency. We will consider issues, as well as processes such as incorrect writing of these words or not being able to find an alternative of the exact words when using such phenomena as assimilation, dissimilation and metathesis of words that are constantly used in the student’s speech. In particular, we will analyze the problems of not being able to distinguish the sounds “x” and “h” in written speech.*

Key words: *Assimilation, dissimilation, metathesis,suffix of agreement, "x" and "h" sounds,method, "soft and hard" method, "school" method, "karra" method.*

O‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir (Sh. Mirziyoyev, 2019-yil 21-oktabrda so‘zlagan nutqidan). Ma’lumki, hozirgi kunda o‘quvchilarning yozma nutqida bir qancha xatoliklar kuzatilmoqda. Ulardan eng dolzarblari: "x" va "h" tovushlarini ajratolmaslik (shoh-shox, xursand,havas va h.k.), kelishiklarni noto‘g‘ri qo‘llash (ukamni kitobi, uyga o‘tirmoq va h.k.) va chet tillari ta’sirida o‘zbek tilidagi so‘zlarning muqobilini topa olmaslik (do‘stim turmushga chiqdi, dugonam uylandi va h.k.)(G.Safarova ,"Sotsiolingvistika), shuningdek, shevalari ta’sirida so‘zlarni assimmilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza kabi fonetik hodisalar singari yozishi (ko‘ylak-ko‘ynak, ishga-ishka, devol-devor, tuproq-turpoq) (S. Ashirboyev, "O‘zbek dialektologiyasi") kabilar shular jumlasidandir.

"Grammatika va mantiq har qanday nutq tirikligining tayanchi, har qanday nutq sog‘lomligining zamini. Bu ikki tushuncha va ularning metin qoidalari har qanday nutqni tutib turuvchi sinchilar silsilasidir… Chinakam mustaqil, ijodiy tafakkurni grammatikasiz, faqat so‘z va iboralarni yodlatish, matn o‘qitish orqaligini shakllantirishning iloji yo‘q" (Odilov, 2017: 9).

Shularga asoslangan holda aytish mumkinki, grammatikasiz yozma nutqni ham og‘zaki nutqni ham shakllantirishning imkoni yo‘q. Qachonki, grammatika mukammal bilinsa,ona tilini bilgan hisoblanadi. Hozirgi kunda ko‘pchilik o‘quvchilar ona tiliga fan sifatida qarashmaydi. Vaholanki, ularga eng ko‘p ona tili hamrox bo‘ladi. Negaki, o‘quvchi tadbirkor bo‘lsin ham deylik, u hamkorlari bilan shartnoma imzolaganda uning birgina grammatik xatosi orqali biznesi barbod bo‘lishi mumkin. Xuddiki, "O‘tkan kunlar" asarining kinofilmida Kumush Toshkentga birinchi bor kelganda, Kumushga qarata aytilgan "Marg‘ilonda shunday kelinimiz bor ekan biz bilmay yurgan ekanmiz" degan gapida bitta "ham" yuklamasi tushib qolgani uchun Zaynab esdan chiqqanini guvohi bo‘lamiz. Shunga o‘xshash muammolar chiqib qolishi mumkin.

Xo‘sh, bu muammolarni qanday bartaraf etamiz? O‘quvchilar tushunishi uchun yangicha metodlardan foydalanishimiz lozim.Men shaxsan,tushuntirishning bir necha pedagogik texnologiyalarini tavsiya qilaman: 1-tushuntirish texnologiyasi (“x” va “h” tovushlarini farqlash bo‘yicha):

“Yumshoq va qattiq” metodi

Shox- tekkanda qattiq jism qattiq aytiladigan “x” tovushi Shoh- tekkanda daraxt shoxiga nisbatan yumshoq shuning uchun bo‘g‘iz undoshi “h” Xil- narsaning xili. Narsa qattiq (yumshog‘i ham bo‘ladi lekin bolalar tushunishi uchun qattiq degan ma’qulroq) va til undoshi “x” yoziladi. Hil- meva hil-hil bo‘lib pishibdi. Meva pishganda yumshoq bo‘ladi va bo‘g‘iz undoshi “h” yoziladi. Shu kabi tushuntirish yo‘li bilan o‘quvchiga tushuntirilsa, o‘quvchiga “x” va “h” tovushini farqlash oson bo‘ladi, keyinchalik esa xotirasiga muhrlanib qoladi.

2-tushuntirish yo‘li (kelishiklar bo‘yicha):

“Maktab” metodi.

Maktab… ko‘rmoq

Maktab… bog‘i

Maktab… bormoq

Maktab… bayram bo‘lmoq

Maktab… chiqmoq

Quyidagilarni doskaga yoziladi va o‘quvchilar bilan nuqtalar o‘rnini to‘ldiramiz. Keyin esa tushuntirishni boshlaymiz. Ho‘p, o‘quvchilar nega maktabni ko‘rmoq deyishadi? Chunki, maktabni ko‘rish uchun maktab haqida tushuncha bo‘lishi kerak. Tushuncha bo‘lmasa, maktabni ko‘rganda, uy deyish yoki boshqa narsa deb tushunish mumkin. Maktab haqida tushunchangiz bo‘lgani uchun maktabni ko‘rganingizda aynan maktabligini bildingiz(bunda tushum va tushuncha so‘zlarininig birinchi bo‘g‘ini bir xil bo‘lgani uchun o‘quvchi yodiga tezroq qoladi). Sizda tushunchani shakllantirishda yordam bergan “ni”vositasini tushum kelishigi deb bilamiz. Shunga o‘xshash metodlardan foydalanilsa, o‘quvchi yodida saqlashi oson bo’ladi.

3-tushuntirish metodi (kelishiklar bo‘yicha)

“Karra” metodi.

+, -, *,: ushbu amallar bilan misollar toping.

4(ga)+3(ni)=7

4(dan)-3(ni)=1

4(ga)*3(ni)=12

4(dan):4(ni)=1

Demak, har bir so‘zni boshqa bir so‘zga bog‘lash uchun xizmat qilishi bu kelishik munosabatlari deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘qitivchi o‘quvchi savodxonligini, ya’ni yozma nutqini oshirmoqchi bo‘lsa, unga qulay va oson bo‘lgan metodlardan foydalanishi lozim. O‘quvchi ilmiy so‘z bilan yozilgan qoidalar asosida yozishdan ko‘ra oddiylik bilan tushunib yozishni o‘ziga tez qabul qiladi. O‘quvchilarning yozma nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun hayotiy misollar bilan tushuntirish, tabiat bilan o‘zbek tili qoidalarini uyg‘unlashtirib tushuntirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh. Mirziyoyev. 2019-yil 21-oktabrda so‘zlagan nutqi;
2. .Y. Odilov.(2017) . Jamiyatda til sezgisi va so‘z sevgisi barqarorlashmog‘i lozim . Til va adabiyot ta’limi, 10, 7-10
3. K.Qosimov, S.Matchonov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyev.(2009). Ona tii o‘qitish metodikasi. Toshkent: Nosir.
4. T.Zaiyodova .(2015). Tilni tizimli o‘rganishda o‘quvchilarda kommunikativ savodxonlikni oshirish bosqichlari . Xalq ta’limi, 3-son
5. N.Masharipova.(2022). Grammatik tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilar yozma nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish . LDM.
6. S.Ashirboyev.(2011). O‘zbek dialektologiyasi, Toshkent.
7. G.Safarova. (2022).Sotsiolingvistika, Toshkent.

TIL O‘RGANISHNING FOYDALI TOMONLARI VA USULLARI

Saydazimova Zulxumor Zafar qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyot fakulteti, 2-kurs
saydazimovazulxumor03@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada chet tillarini o‘rganishning jamiyatga, insonga ta’sir qiluvchi ijobiy tomonlari haqida so‘z yuritiladi. Til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, uni o‘rganishga jalb qilish uchun amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar haqida fikrlar keltirilgan. Yurtimizda xorijiy tillarni o‘qitishning qay darajada rivojlanayotgani va til o‘rganish uchun qulay bo‘lgan usullar haqida aytib o‘tilgan.O‘quvchilaring nima uchun o‘z ona tilisidan tashqari yana bir tilni o‘rganishi kerakligi qisqacha ta’kidlandi.*

Kalit so‘zlar: *Intensiv, metodlar, tinglab tushunish,xotira, maktab, so‘z yodlash.*

Abstract. *The article talks about the positive aspects of learning foreign languages affecting the society and the person. There are ideas about what should be done to increase interest in language learning, to attract him to study. The level of development of foreign language teaching in our country and the methods that are convenient for language learning were mentioned.It was briefly emphasized why students should learn another language besides their mother tongue.*

Keywords: *Intensive, methods, listening comprehension, memory, school, word memorization.*

Xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan globallashuv davrida chet tillarini bilish katta siyosiy-madaniy jarayon sanaladi. Chet davlatlarining ko‘pchiligida o‘z ona tilisidan tashqari ikkinchi tilni ham mukammal egallashadi. Koreya, Xitoy va Hindiston kabi davlatlarda o‘z ona tilisidan tashqari chet tilini bilishning darajasi yuqori. Hozirgi kunda yurtimiza ham chet tili (asosan, ingliz, rus, arab va koreys)larini o‘rganish rivojlanib bormoqda. O‘rgangan tillarimiz ortgani sari fikrlashimiz, dunyoqarashimiz va xotiramiz o‘sib boradi. Boshqa davlatlarning madaniyati bilan yaqindan tanishamiz. Bu bizda ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak mashhur qomusiy olimlarimiz Abu

Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sinolar bir necha tillarni mukammal bilishgan. Boshqa tillarni bilish, unga qiziqish va o‘rganish hech qachon o‘z ona tilimizning kamsitilishiga yoki unutilib ketilishiga olib kelmaydi. Balki o‘z tilimizni keng targ‘ib qilish uchun, imkoniyat darajasini aniqlash uchun chet tillarining yordami kerak bo‘ladi. O‘zbek tilini o‘rganmoqchi bo‘lgan chet elliklarga tilimizni o‘rgatishimiz uchun ularning ham tilini bilishimiz darkor. Mana shu sabablarni hisobga olganda ham, boshqa tillarni o‘rganishga undash, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, boshqa tillarga hurmat bilan qarashni, o‘rganishni yo‘lga qo‘yish taqozo etiladi..

Chet tilini o‘qitishning maxsus tamoyillariga leksika, grammatika, fonetika va nutq faoliyatlari ustida ishlashning maxsus tamoyillari kiradi. O‘quvchi va talabalarni xorijiy tillarga o‘rgatish jarayonida yuqoridagi tamoyillarni hisobga olish til o‘rganish samarasini sezilarli darajada orttiradi.Hozirgi kunda jahonda xoriijiy tillarni o‘qitishning bir qator metodlari mavjud bo‘lib, ular o‘qituvchilar tomonidan uyg‘unlashtirilga holda qo‘llaniladi. Shunday metodlardan ayrimlari quyidagilar:

- tarjima metodi (asosan o‘lik tillarni o‘rganishda qo‘llaniladi, so‘zlar va grammatik qoidalar yod olinadi);
- og‘zaki metod (o‘qituvchi monologini qayta so‘zlash va matn bo‘yicha savollara javob berih tizimiga asoslanadi);
- psixologik metod (so‘z va so‘z bildirgan tushuncha o‘rtasida assotsiatsiyalarni topishga asoslanadi); to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rgatish metodi (chet tili, ona tiliga yoki biror boshqa tilga murojaat qilinmasdan, umuman tarjimadan umuman foydalanmagan holda foydalaniladi);
- o‘qish metodi (talaba o‘rganilayotgan tilde qancha ko‘p matn o‘qisa, u mazkur tilning xususiyatlari, grammatik qoidalari, gap qoliplarini shunchalik ko‘p o‘zlashtiradi va shu tariqa tushunish, gapirish, yozish ko‘nikmalari ham rivojlanadi). (Xolboy Ibraimov, 2021, 24-25-betlar)

A.Boduen de Kurtene hozirgi zamonda rus tilini o‘rganish uchun muhim bo‘ladigan fikrlarni bildirdi: “Agar o‘quvchilar ongida ikkita til haqida bilimlar bo‘lsa, biz ularga bu tillarnig o‘xshashligi va farqlari, xususiyatlari ularning bog‘liqligi yoki qisman aloqadorligi haqida qiyosiy tasavvur bera olamiz”

Rus tili o‘rganishda bilimlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish zarurdir. Asosan, o‘zbek tilida ta’lim olayotgan o‘quvchilar rustilida biror so‘z yoki matnni tarjima qilishda va gapirishda birichi galda o‘z tillaria fikrlaydilar. Shuningdek, o‘zbek umumiy o‘rta ta’lim makablaridagi o‘quvchilarning, ota-onalarining ko‘pchiligi rus tilini bilmasligi, uyda muloqot yo‘qligi natijasida, til o‘rganishda sezilarli darajada oqsashlar yuzaga keladi. (Xulkar Bozorova, 2021,47-bet) Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, inson tinglab tushunish orqali tezda o‘zga tilni egallay oladi. Masalan, turk tilini turli xil usulda o‘rganmoqchi bo‘lgan insonlarni olaylik. Birinchi shaxs, darslarga qatnab, turk tili grammatikasini, imlosini o‘rganadi. kkinchi shaxs esa Turkiya davlatiga ketib, turk millatida bo‘lgan odamlarning orasida, ularning suhbatini eshitib, gaplashib o‘rganadi.

Bunday holatda ko‘p hollarda ikknchi vaziyatdagi shaxs tezda tilni o‘zlashtiradi. Ammo birinchi shaxsning ustunligi, u ikkinchi shaxsga nisbatan aniq va to‘g‘ri gapira oladi, hamda imlo qoidalarini ham mukammal egallaydi. Faqat u insonning ko‘proq vaqti ketadi.

Hozirgi kunda chet tilini tezda o‘rganishning yangi usuli- intensiv usuli mavjud.Intensiv usul o‘quvchining xotirasin maksimal darajada ishlatib, ma’lum bir hajmdagi o‘quv materiallarini o‘rganib, shunga mos nutqiy faoliyatni amalga oshirish.Til o‘rganish orqali o‘quvchi nutqi juda yaxshi rivojlanadi. Eng asosiysi so‘z yodlash orqali xotira rivojlanadi. Yangi til o‘rganayotganda eng qyini-so‘z yodlash. So‘z yodlash bo‘yicha tavsiyalar:

1.Karta usuli. So‘zlarni kartachalarga yozib chiqasiz. Bu xuddi o‘yindek bo‘ladi. Bir tomoniga tarjimasi yoziladi. Bilganlaringiizi tanlaysiz, oxirida bilmagalaringiz qoladi ularni takrorlaysiz.

2. Gap tuzib yodlash. Keyinroq yangi tildagi talaffuzga, so‘zlarga moslashgach gap va matnlar tuzib yodlanadi. Sal yuqoriroq darajadagilar uchun.

3. So‘zlarni definition bilan yodlash.

Mashhur jadid Behbudiyning bir inson ikkita emas to‘rtta til bilish kerakligini ta’kidlaganini ham yodimizdan chiqarmasligimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Xulkar Bozorova (2021), Rus tilini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali 4-son.

2.Xolboy Ibraimov(2021), Xorijiy tillarni o‘qitishning ayrim zamonaviy-pedagogik metodlari. “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali 2-son.

MAKTAB O‘QUVCHILARI NUTQIDA ORFOEPIK ME’YORLAR VA ULARNING IMLOGA TA’SIRI

Shamshidinova Lobarxon Baxrom qizi,
Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti 2-kurs
lobarkhonshamsiddinova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning orfoepiya va orfografiya bo‘limlari, to‘g‘ri talaffuz va yozish me’yorlarining imloga ta’siri hamda maktab o‘quvchilarining bugungi kundagi imlo savodxonligi, ularning orfoepik va orfografik me’yorlarni qay darajada egallaganliklari, ona tilini o‘qitishda imlo me’yorlari buzilishining sabablari hamda bu muammo yuzasidan tadbiq etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladigan bir nechta tavsiyalar berilgan . Taadqiqotni amalga oshirishda kuzatish, anketa, matematik-statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanilgan.*

Kalit so‘zlar: *orfografiya, orfoepiya, me’yor, kuzatish, so‘rovnoma, apakopa, epenteza, audio matn*

Abstract. *In this article, the sections of orthography and orthography of linguistics, the influence of correct pronunciation and writing standards on spelling, and the spelling literacy of schoolchildren today, to what extent they mastered orthographic and orthographic standards, and their mother tongue The reasons for the violation of spelling standards in teaching and several recommendations that are appropriate to be applied in relation to this problem are*

given. Observation, questionnaire, mathematical-statistical analysis methods were used in the research.

Key words: *orthography, orthoepy, norm, observation, survey, apocopa, epenthesis, audio text*

Barchamizga ma'lumki, til millat ruhi va tayanchi, tilsiz millat va xalq mavjud bo‘la olmaydi, millatni jipslashtirib turuvchi asosiy omil bu uning tilidir degan so‘zlar yoshligimizdan ongimizga quyib kelingan. Darhaqiqat tilsiz yagona xalq ham, millat ham bo‘lmaydi. Bu fikrlar o‘tmishda o‘z ifodasini topganligi barchamizga ayon. Demak, bu so‘zlardan ma'lum bo‘ladiki, jamiyatda katta e'tibor talab qilinadigan hodisalardan biri ham til sanaladi. Lekin bugungi kunda nafaqat yoshlarimiz o‘rtasida, balki yoshi kattalar orasida ham til me'yorlarining buzilish holatlari kuzatilishi bu jarayonga e'tiborning kamligi, ona tili ta'limidagi kamchiliklar va boshqa sabalarning asorati tufayli yuzaga kelmoqda. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki, boshlang‘ich ta'limda orfoepik va orfografik me'yorlarga oid bilimlar mustahkam egallanmayotgani oqibatida bolalar nutqida xato talaffuz qilinayotgan so‘zar hajmi yetarlicha ko‘p va ular bu so‘zlardan yuqori sinfga o‘tishgan paytlarida ham foydalanib kelayotgani esa yechim talab qilinadigan muammolardan biri sanaladi. "To‘g‘ri talaffuz nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Adabiy tilda to‘g‘ri yozish qanchalik muhim bo‘lsa, to‘g‘ri talaffuz ham shunchalik ahamiyatlidir. Shu sababli ham o‘quvchi va talabalarda to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarining shakllantirilishiga ta'limning barcha bosqichlarida jiddiy e'tibor talab qilinadi. Tilda to‘g‘ri talaffuz va yozish bo‘yicha ta'lim uning orfoepiya hamda orfografiya me'yorlariga asoslanib o‘rgatiladi. Orfografiya(grek.Orthos- "to‘g‘ri" + grapho "yozaman") yozuv sistemasining grafikadan keyingi ikkinchi komponenti bo‘lib, u to‘g‘ri yozish me'yorlarini belgilaydigan qoidalar tizimidan tarkib topadi. Orfoepiya so‘zlarni, ularning tarkibidagi tovushlarni, shuningdek, o‘zak va qo‘shimchalardan iborat so‘z formalarini to‘g‘ri talaffuz qilish me'yorlari tizimidir". (Jamolxonov, 2013, 216-bet). "Orfoepiya" atamasi til fanida ikki ma'noda qo‘llaniladi: 1) so‘zlarning tovush tuzilishi bilan bog‘liq adabiy til me'yorlarining yig‘indisi: tovushlarning

talaffuz me’yorlari, urg‘u va intonatsiya; 2) adabiy tilning talaffuz normalarining o‘zgaruvchanligini o‘rganuvchi va talaffuz bo‘yicha tavsiyalar (orfoepik qoidalar) ishlab chiquvchi fan. Orfoepiya milliy tilning tovush dizaynining birligini ta'minlaydi, bu esa tez va oson til muloqotiga yordam beradi. Orfoepiya qoidalari o‘zining uzoq tarixiga ega va odatda til me'yorlari sifatida kech, ommaviy nutqning turli shakllari rivojlanib, nisbati ortganda shakllanadi”

Xo‘sh, maktab ta’limida o‘quvchilar orfoepik va orfografik me’yorlar haqida ko‘nikmalar hosil qilishganmi ? Bu qoidalarga og‘zaki va yozma nutqda qay darajada amal qilishadi? Bu xususida Toshkent shahar Chilonzor tumani 281-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 8-9-sinflari o‘rtasida kuzatish va anketa metodlaridan foydalangan holda izlanishlar olib borildi. Dastlab ikkala sinfning adabiyot hamda ona tili darslarida o‘quvchilarning nutqlari kuzatildi. Ular nutqida uchrayotgan orfoepik o‘zgarishlar qayd etilib , dars so‘ngida ular o‘rtasida anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi. So‘rovnoma bir nechta fonetikaga oid testlardan iborat bo‘lib, ular quyidagiga o‘xshash savollardan iborat:

To‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini belgilang.

a) Aqil, xa, sayoz, mehr

b) Xayol,hayot, farovon

c) Sahiy, hayol, xayot

d) Takabbur, sehir, haqiqatan

Berilgan matnda tushirib qoldirilgan kelishik qo‘shimchalarini moslab to‘g‘ri joylashtiring.“ Yolg‘on… kamroq gapiradigan kishilar koshki biz… davron… ham bo‘lsa edi. Kimki bu davron… rostgo‘y bo‘lsa, ishi doimo kam-u ko‘stlik… boshqa narsa bo‘lmaydi. Chaqmoq… ishi egrilik bo‘lgani tufayli ham, garchi u ham yoritsa-da yer ichi… kirib yo‘q bo‘ladi. To‘g‘rilik... shon sharaf deb bilgan kishilar... davron gardishi dushmanlik qiladi”

a) -ning , -ni , -da,- da, -dan, --ni, -da, -ni, -ga

b) -ni , -ning , -da, -da, -dan, -ning, -ga, -ni, -ga

c) -ni , -ni , -dan, -da, -dan, -ning, -da, -ni, -ga

Kuzatishlar natijasida ayon bo‘ldiki, 8-9-sinf o‘quvchilarining 40 foizi nutqida uchraydigan kelishiklarni xato qo‘llash holatlari(-ning ni –ni , -ni ni –di va –ti) hamda ular nutqida kuzatilayotdgan epenteza(so‘z o‘rtasida tovush ortishi : aqil, jahil, mehir), apakopa (so‘z oxirida tovushning tushib qoldirilishi : baland-balan, do‘st-do‘s, musht- mush) hodisalari nafaqat og‘zaki nutqda, balki yozma nutqda ham aks etdi. O‘quvchilarning yozma nutqidagi bunday imloviy xatoliklarning bosh sabablaridan biri deb bugungi kunda ular tomonidan muntazam foydalanilayotgan gadjetlarni keltirishimiz mumkin. Aloqa vositalari sanalgan smartfonlardan yoshlar hech qanday cheklovlarsiz, o‘zlari ma’qul ko‘rgan shaklda muloqot uchun foydalanishadi. Ya’ni telegram, instagram va shunga o‘xshash tarmoqlarda ular tomonidan olib boriladigan yozishmalarda turli xil harf qisqartmalari, imlo jihatdan xato so‘zlar keng va chegarasiz qo‘llaniladi. Inson hayotini deyarli egallagan bu tarmoqlardagi mana shunday cheklov va qoidalarsiz amalga oshayotgan muloqot natijasida yoshlarning til savodsizligi kundan kunga mustahkamlanib bormoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, tadqiqotimiz natijasi tilga oid orfoepik hamda orfografik me’yorlarning o‘qitilishida chuqurroq e’tibor qaratilishi lozimligini ko‘rsatadi.Bu jihatdan esa ona tili darsliklari tarkibiga o‘quvchining yosh doirasidan kelib chiqqan holda uning nutqida tez-tez, ammo xato qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan so‘zlar ishtirok etgan murakkab matnlar hamda ularning audio variantlari ham kiritilishi zarur. Dastavval o‘quvchi berilgan matnlar bilan tanishadi, so‘ngra audio variantni tinglash orqali, ko‘z xotirasiga tayangan holda matnda ajratib ko‘rsatilgan murakkab so‘zlarni qayta ko‘chirishi yordamida uning xotirasida ana shu so‘zlarning to‘g‘ri variantlari shakllanadi va til me’yorlariga jamiyat a’zolari tomonidan to‘liq rioya qilinishida o‘z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov. H (2013) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent : “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti . 216-bet

https://spbttp.ru/uz/ponyatie-ob-orfoepii-chto-takoe-orfoepiya-i-orfoepicheskie-normy-orfoepiya/

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUV LUG'ATLARIGA BO'LGAN TALAB

Ziyoda Sobirxonova Temurxon qizi
ToshDO'TAU, Amaliy filologiya yo'nalishi, 2-kurs
sobirxoonovaziyoda@gmail.com

Anotatsiya. *Ushbu maqolada milliy tilimizni rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlar, bu yo'lda o'quv lug'atlarining ahamiyati qanday darajada ekani, o'quvchilar uchun o'quv lug'atlari zarurligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'z: *o'quv lug'ati, ko'nikma, shakllantirish, tadqiqot, sun'iy intellekt, omonim, paronim, frazeologiya, imlo, darslik, ona tili, milliy til.*

Abstract: *This article describes the work being done to develop our national language. In this way, it is written about the importance of educational dictionaries and the necessity of educational dictionaries for students.*

Keywords: *Study dictionary, skill, formation, research, artificial intelligence, amen, paronym, phraseologiya, spelling, textbook, mother tongue, national language*

Ma'lumki, hozirgi globallashgan davrda dunyoda ko'p tillar o'lik tilga aylanib bormoqda. Butun dunyo xalqlari o'z tillarini o'lik tillar qatorida turishdan asrash uchun har kun yangidan-yangi loyihalar qilishmoqda. Shiddat bilan jadallashayotgan davrda milliy tillari uchun kurashmoqdalar. Bizlar o'z ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilini yanda rivojlantirish, nufuzini oshirish uchun bor imkoniyatlarimizni ishlatmoqdamiz. Yurtimizning yuqori ilmiy tajribaga ega olimlari milliy til korpusi, sun'iy intellekt ustida katta ishlar olib borishmoqda. Xususan, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori Baxtiyor Mengliyev sun'iy intellekt haqida: "Axborot asrida rivojlanishga da'vogar har qanday til sun'iy intellekt tiliga aylanishi kerak.Ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzi faqat tashviqot-targ'ibot bilan oshmaydi. Bu muammolarni hal etish borasida olimlar tomonidan ko'plab ilmiy tadqiqot va amaliy ishlar bajarilishi kerak" (Mengliyev B, 9). Milliy til korpusi yaratish bo'yicha amaliy ishlar yo'lga qo'yilmoqda, til bo'yicha disseratatsiya, magistrlik ishlari va tadqiqotlar qilinmoqda, lekin shuncha urinishlarga qaramasdan ona tili

ta’limida o‘rganilmagan yo‘nalishlar uchramoqda. Ona tili ta’limda hali to‘liq o‘rganilmagan yo‘nalishlar bor. Ona tili ta’limida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan sohalardan biri o‘quv lug‘atlarini yaratish muammosidir. Bu sohaning bugunga kelib rivojlanmay qolganligi, bugungi jadalashayotgan davrda yoshlarning bu sohadagi bilimlari sayoz ekanligi, o‘quv lug‘atlariga bo‘lgan ehtiyojni oshirmoqda.

Lug‘atlar – bu millatning lingvistik kompetensiyasi, xalqning donishmandligi xazinasi, har qanday mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy rivojlanishning ramzidir. Lug‘at faqat tilni o‘rganishga emas, balki xalqning madaniyati, turmush tarzi va boshqa jihati xususida ham ma’lumot berish uchun xizmat qiladi. Professor Baxtiyor Mengliyev tomonidan lug‘at o‘quvchini o‘z ustida ishlashga o‘rgatishi, uning doimiy hamrohi bo‘lishi, barcha savollarga javob bera oladigan beminnat yordamchi bo‘la olishi aytilgan (Berdiyeva, 2021, 1:264-b). O‘quv lug‘atlari o‘quvchining yonida bo‘lib u tushunmagan so‘z va topshiriqlarni bajarishda katta yordamchi bo‘ladi. O‘quvchilarga darslikdagi so‘zlarni ma’no matig‘ini to‘liq anglash, qanday ma’nolarda qo‘llash, qanday vaziyatlarda ishlatish to‘g‘risida katta ma’lumot beradi.O‘quvchilarga beminnat yordamchi bo‘ladigan bunday lu’gatlarni shakkllantirish davr zarurati bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumot olish, til o‘rganishga yordam berish maqsadida yaratilgan har qanday janr va hajmdagi leksikografik asarga o‘quv lug‘ati deyiladi (Morkovin, 1990, 5:72-b). O‘quv lug'atlari hajman kichik, ma’lum bir tartibda soha ko‘lami chegaralangan holda bo‘ladi. O‘quv lug‘atlari termini rus leksikografiyasida ilk marotaba Y.E.D.Polivanovning “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha lug‘ati”da yozgan kirish so‘zida qo‘llaniladi. Muallif lug‘atni tavsiflar ekan “..lug‘at hajmiga ko‘ra o‘quv lug‘ati tipiga mansub….” deb ta’kidlaydi. O‘quv lug‘atlarni ilmiy asosda o‘rganish XVII asr boshlarida birinchi ingliz leksikografi S.Jonson, XIX asr boshlarida fransuz tilshunoslari J.Dyubua, K.Dyubua, G.Matore, K.Bak, ispan tilshunosligida Y. Malkil ishlaridan boshlandi. Keyinchalik rus tilshunosligida ham leksikografiyaning bu tarmog‘ini takomillashtirish davlat ahamiyatidagi masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. 1966-yilda Moskva davlati universiteti rus tili ilmiy-

uslubiy markazi O‘quv lug‘atchiligi sektori tashkil etildi.1969-yilda rus tili va adabiyoti o‘qituvchilarining Birinchi xalqaro anjumani o‘tkazilib, unda yaratilgan o‘quv lug‘atlarini moliyalashtirish, nashr ishlari amalga oshirish masalasi ko‘rib chiqildi. Pushkin nomidagi rus tili instituti “O‘quv lug‘atchiligi” sektori vakillari Leningrad, Samarqand, Minsk, Toshkent, Odessa, Kembridj (AQSH), Amerst (AQSH) shaharlarida simpozium va an’anaviy anjumanlar o‘tkazilib, qator muammolar hal qilindi; mavzuga doir 50 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi (8). Rus maktablari uchun o‘quv lug‘atlari yaratishda rus tilshunoslari: P.N.Denison, L.A.Novikov, S.G.Barxudarov, V.V.Morkovkin va boshqalar sezilarli darajada katta natija ko‘rsatishdi.

Yevropa va boshqa davlatlarda o‘quv lug‘atchiligi borasida katta ishlar qilinayotgan bir paytda biz rus muslamlakasida edik.Afsus, bilan aytish kerakki, o‘sha paytda bu mavzuga jiddiy e’tibor berilmadi.Bizning yurtimizdagi rus maktablari uchun o‘quv lug‘atlari ishlab chiqilgan va nashr etilib ommalashtirilayotgan paytda o‘zbek maktablari uchun ham o‘quv lug‘atlar ishlab chiqilgan, lekin tashabbus kuchaymagan. Vaholanki, umum ittifoq miqyosida o‘tkazilgan milliy maktablarda o‘qitiladigan rus tili darslari va o‘quv lug‘atiga bag‘ishlangan anjumanning ikkitasi Samarqand va Toshkentda bo‘lgan. Anjuman tashkil etilganida, tilshunoslar jonbozlik ko‘rsatib, faol ishtirok etilmaganligi, tashabbus bilan chiqilmaganligi bois o‘sha davrda bizning o‘zbek maktablari uchun o‘quv lug‘atlari ishlab chiqilmadi va bu muammo haligacha davom etmoqda.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng milliy tilni riviojlantirish uchun ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Xususan, lug‘atchilik sohasida katta siljishlar, o‘zgarishlar bo'ldi. Siyosiy, ma’naviy, ijtimoiy jihatdan eskirgan lug‘atlar qayta nashr etildi. Ona tili ta’limini isloh qilish harakatlari samarasi o‘laroq, ta’lim mazmuni, maqsadi yangilandi : ona tili ta’limi oldidagi asosiy vazifa ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirib chiqarish deb belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartida (DTS) ona tili o‘qitishning asosiy vositalariga darslik bilan birga lug‘atlar ham kiritildi (1999,7:59-b). DTSda

o‘quvchilarning darslik bilan ishlash davomida lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shaklantirish, fikrni ifodalayotganda so‘zlarni ma'nosiga qarab to‘g‘ri jumla tuza olishi ham inobatga olingan. Xususan, olimlarimiz tomonidan ishlab chiqilgan o‘quv lug‘atlar: Mengliyev B.M, Bahriddinova B.M. “O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati” 2007-2009; O.Shukurov, B.Boymatova “O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009; Mengliyev B.M. Bahriddinova B.M, Xoliyorov O‘. “O‘zbek tilining so‘z yasalishi o‘quv lug‘ati” 2008; To‘rayeva U, Shodmonova D. “O‘zbek tilining zid ma’noli so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009; Islomov I. Bobojonov Sh. “O‘zbek tilining so‘zlar darajalanishi o‘quv lug‘ati” 2007-2009; Xamrayeva Y. “O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009; Mengliyev B., Xudoyberdiyeva M. “O‘zbek tili iboralari o‘quv lug‘ati” 2007-2009; Nafasov T., Nafasova V. “O‘zbek tilining o‘quv toponimik lug‘ati” 2007; X.Suvonova, G.Turdiyeva “O‘zbek tilining shakldosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2007-2009; X.Norxo‘jayeva “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2006; Nafasov T. Nafasova V. “O‘zbek tilining talaffuzdosh so‘zlar o‘quv lug‘ati” 2008. (Tursonov, 2021,6:388-b)

Bu lug‘atlar olimlarimiz tomonidan qilingan ishlarning boshlang‘ichi bo‘lib, ammo lug‘atlar to‘liq, mukammal shaklda ishlab chiqilmagan. Ishlab chiqilishi kerak bo‘lgan o‘quv lug‘atlar qatoriga “O‘zbek tilining o‘quv izohli lug‘ati”, “O‘zbek tiling imlo o‘quv lug‘ati ” ni ham kiritishimiz kerak. Tuzilgan lug‘atlar maktab o‘quvchilariga yetib bormagan, maktablar lug‘atlar bilan ishlashga tayyor emas, maktab kutubxonalari o‘quv lug‘atlari bilan ta'minlanmagan. Professor Baxtiyor Mengliyev o‘rinli ta’kidlaganidek : “O‘quv lug‘ati zaruriyati haqida ko‘p gapirib yozib kelinmoqda.O‘quv lug‘ati yaratilmas, o‘quvchining stolida ona tilidan uning yoshiga mos ko‘plab o‘quv lug‘atlari turmas, buning uchun o‘quv leksikografiyasi nazriy va amliy soha sifatida tizimli yo‘lga qo‘yilmas ekan, ona tili ta’limi o‘zing haqiqiy mohiyatidan begonaligicha qolaveradi” (Karimova,2:268-b). Darhaqiqat, o‘quv lug‘atlari yaratilishi haqida ko‘p gapirilyapti, lekin amaliyotda hech bir ish qilinmayapti, bu yo‘nalish bo‘yicha tadqiqotlar qilinishi kerak. Lug‘atlarni qayta ishlab chiqib o‘quvchilarga yetkazish,

ularda bu kitoblarga bo‘lgan ehtiyojlarni bartaraf qilishimiz kerak. Maktab o‘quvchilarida lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantish lozim, chunki ularda ko‘nikma ham bilim ham yetarlicha emas, bu lug‘atlar bilan ishlar o‘quvchilarda bu ko‘nikmalarni nafaqat shakllantiradi, bilimlarini rivojlantirishga ham yordam beradi. Yevropa davlatlari o‘quv lug‘atchiligi masalasi bo‘yicha oldigan qo‘ygan maqsadga erishib, lug‘atlarni elektronlashtirish masalalari bilan shug‘ullanmoqdalar. Bizda esa hali bu bosqichlarni bosib o‘tish uchun ancha ishlar qilinishi lozim.

O‘quvchilarning savodxonligi va lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllanganligi, eskirgan so‘zlar (arxaizim, tarixiy), yangi (neologizmlar), o‘zlashgan so‘zlar ma’nolarini to‘g‘ri tahlil etgan holda kerakli vaziyatda ishlata olishi, iboralarni qanday ma’zmun anlatayotganini ongli ravishda tushunib, matn yoki gapdani to‘g‘ri tahlil qila olishlari qay darajada ekanligi, o‘quv lug‘atlariga ehtiyoj qanchalik zarurligini bilish maqsadida kichik tadqiqot olib bordik. Bu tadqiqot bitiruvchi sinf o‘quvchilarida olib borildi, chunki ularda yuqoridagi barcha ko‘nikma va bilimlar shakllangan bo‘lishi kerakligi, oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida to‘g‘ri yozish, so‘zlarni ma’nolarini bilish, iboralar bilan ishlash to‘g‘risidagi savollarga duch kelishadi, shuni inobatga olib, o‘n bir yillik ta'limda olgan bilimlarini sinab ko‘rish maqsadida tadqiqot bitiruvchi sinflarda o‘tkazildi. Tadqiqotida o‘quvchilarga bir nechta topshiriqlar berildi.

1-topshiriq.

1. ***Lahcha (cho‘g‘), jurat, juziy, muboxasa, mutola, istemol, suiistemol, maxsulot, ganch (xazina), taluqli, ta’qiqlamoq, taqib etmoq, mudofa, kekaymoq, akilamoq.*** Ushbu so‘zlarni to‘g‘irlab yozing.

Ushbu topshiriqda o‘quvchilarning yozma savodxonligini qay darajada ekanligini tekshirib olindi.O‘quvchilarning aksariyati ***laxcha*** so‘zini qanay yozilishini bilmasliklariga, ***ganch*** va ***ganj*** paronimlarini bilmasliklari va topshiriqda shu so‘zni yozilishini to‘g‘ri deb belgilaganlariga, kundalik hayotimizda ham ishlatiladigan ***akillamoq***,***kekkaymoq*** so‘zlarini ham qanday yozilishini bilmasliklariga guvoh bo‘lindi.Bu so‘zlarni darslikdan olinganligi va

ko‘p qo‘llaniladigan bo‘lishiga qaramay o‘quvchilar xato qilishmoqda. Quyida bu topshiriqning qanday darajada to‘g‘ri bajarilganligi foizi diagrammada berilgan.

2. Paronim so‘zlarni ma’nosiga qarab to‘g‘ri joylashtiring.

Burj, burch, azim, azm xiyla, hiyla

1. Quyoshning bir yillik harakati yo‘lida joylashgan……..

2. Vatanimiz oldidagi…….. kattadir.

3. Behuda qon to‘kmoq,yurtni parchalamoqdan……gunoh yo‘q! (Oybek. “Navoiy” romanidan)

4. Anvar Xudoyorxonning oldiga …….. bilan keldi. (“Mehrobdan chayon” romanidan)

5. Bemorning sog‘ligi …….. yaxshilandi.

6. Davron bir necha bor dushman iskanjasiga tushgan,biroq dovyuraklik bilan yovga chap berib,…….. ishlatib g‘olib chiqqan (T.Rustamov “Mangu jasorat” asaridan).

Paronimlar bilan bog‘liq topshiriqda o‘quvchilar ko‘proq ***azim*** va ***azm*** so‘zlarini ma’nosini bilmasliklari tufayli xatollikka yo‘l qo‘ydilar. O‘quvchilarning bazilari esa ***hiyla*** va ***xiyla*** so‘zlarini joylashtirishda ikkalasini o‘rnini almashtirib qo‘ydilar. Bundan kelib chiqadiki, o‘quvchilar paronimlarni qanday ma’no anlatishi va qo‘llanish vaziyatini bilishmaydi.Topshiriqni bir nafar o‘quvchi barcha so‘zlarni to‘g‘ri joylashtirgan. Quyida bu topshiriqning qanday darajada to‘g‘ri bajarilganligi foizi diagrammada berilgan.

3. Iboralarni ularning ma’nosiga to‘g‘ri keluvchi so‘z birikmalari yoki so‘zlar bilan moslashtiring

Iboralar	**Ma’nosi**
1.Sichqonning ini ming tanga	a.jahli chiqmoq
2.Ko‘zini bo‘yamoq	b. tashvishga tushmoq
3.To‘nini teskari kiymoq	c.siri fosh bo‘lmoq
4.Misi chiqmoq	d.aldamoq
5.Igna ustida o‘tirmoq	e. qo‘rqmoq

1- 2- 3- 4- 5-

Iboralar bilan ishlash toshirig‘ida o‘quvchilarning aksariyati qilgan xato ***sichqonning ini ming tanga,igna ustida o‘tirmoq*** so‘zlarida kuzatildi. O‘quvchilar bu iboralarning qanday ma’no anglatishi bilmaganliklari bois xatoga yo‘l qo‘ydilar. Berilgan iboralar darslikdan olingan va nutqimizda faol ishlatiladigan iboralar.Topshiriqning 100% to‘g‘ri bajargan sanoqli o‘quvchilar bor. Quyida bu topshiriqning qanday darajada to‘g‘ri bajarilganligi foizi diagrammada berilgan.

4. ***a)nabotot, b)mucha, c)qusur, d)qobog‘, e)mengiz*** so‘zlarining ma’nosi to‘g‘ri izohlangan. 1) yuzdagi xol 2) ko‘z kosasini qoplovchi 3) o‘simliklar dunyosi 4) oyoq, qo‘l, tana va bosh a’zolari 5) nuqson, kamchilik a) b) c) d) e)

Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning izohli lug‘atlar bilan qanchalik ishaganliklarini tekshirildi.Topshiriqni sanoqli o‘quvchilarimiz 100% to‘g‘ri bajarishgan. O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida ***mengiz, mucha qusur*** so‘zlarini ma’nosini bilmasliklari tufayli javoblarni belgilashda o‘rnini almashtirib qo‘yish hollari kuzatildi.Vaholanki, bu so‘zlar ham darslikdan olingan va nutqimizda tez-tez ishlatamiz. Quyida bu topshiriqning qanday darajada to‘g‘ri bajarilganligi foizi diagrammada berilgan. Biz ko‘plab xatoliklarga yo‘l qo‘yiladigan, o‘quvchilar fikrlarini bayon qilishda so‘zlarni o‘rnida qo‘llay olishda yordan beradigan, yozma savodxonlik, frazelogizmlarni qo‘llash, paronimlarni ma’nosini to‘g‘ri tushungan holda ishlatish, so‘zlarni ma’nolarini topish bo‘yicha mashqlar berdik.Topshirqlardagi savollarni darslik bo‘yicha shakllantirdik. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarda omonimlar, sinonimlar, neologizmlar, tarixiy va arxaik so‘zlarni ham mukammal bilmasliklarini guvohi bo‘ldikdi. Olib borgan tadqiqot natijalari quyidagi diagrammada berilgan:



Olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko‘rsatdiki, o‘quv lug‘atlari ishlab chiqilib o‘quvchilarni qo‘liga yetkazilishi kerak. Taklifimiz shuki, o‘n besh yil oldingi ishlab chiqilgan o‘quv lug‘atlarini qayta ko‘rib chiqib, yangidan o‘quv lug‘atlari yaratish ustida ishlashimiz lozim. Bu kabi lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilarda erkin fikrlash, fikrlarini yozma va og‘zaki tog‘ri bayon qila olish, tafakkurini o‘stiribgina qolmay, o‘quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantiradi, so‘z zaxirasini boyitishga xizmat qiladi.So‘zlarni o‘z o‘rnida, vaziyatida qo‘llashni o‘rgatadi. Professor Bahtiyor Mengliyev: “O‘quvchilar uchun zaruriy lug‘atlar yatilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish vositasi bo‘lgan joriy darsliklar o‘z vazifasini to‘liq bajara olmaydi” (Mengliyev, Baxriddinova, 2009, 4:5-b). Amaldagi darsliklardagi berilgan lug‘atlar o‘quvchilar uchun ozlik qiladi, lekin butun boshlik darslikni lug‘atlar bilan to‘ldirib bo‘lmaydi. Darsliklarga qo‘shimcha tarzda o‘quv lug‘atlarini ham yaratilishi o‘quvchilarga katta yordam beradi.O‘quvchilar kelajakda oliy tashkilot rahbari, olim, iqtisodchi, yurist va boshqa kasb egalari bo‘lganlarida ulardan hujjatlarni to‘g‘ri yozish, ravon gapira olish, o‘z fikrini boshqalarga to‘g‘ri tushuntira olish so‘raladi.Bular esa o‘quvchilarda maktabda ona tili darslarida o‘rgatilishi kerak, shuning uchun darslarda faqat grammatika bilan ishlash emas, o‘quvchilarni erkin fikrlashga, so‘z boyliklarini oshirishga, fikrlarini to‘g‘ri ifoda qila olishga o‘rgatish bugunda qo‘yiladiga asosiy talablardir.

Darslikdagi lug‘atlar bilan ishlash mashqlaridagi lug‘atlarni ko‘rib chiqishni tavsiya etamiz. Tadqiqot o‘tkazish jarayonida shuni o’rgandikki, darsliklardagi lug‘atlarni berilishida yosh darajasi e’tiborga olinmagan. Ba'zi darslilarda juda sodda so‘zlar berilgan, ba'zi darslilarda esa juda murakkab so‘zlar berilgan. Misol uchun 8-sinf darsligida matn va lug‘atlar bilan ishlash darslarida o‘quvchilarning tushunishiga murakkab bo‘lgan so‘zlarni ko‘ramiz. 8-sinf darsligining 25-26-darslarida berilgan 65 -mashqda ***miod, sa’b afgor, nesh, resh ko‘shish, takbiri fano*** kabi murakkab so‘zlar berilgan. So‘zlar “Lison ut- tayr ”kitobida olingan bo‘lib 8-sinflar uchun bunday mumtoz matn bilan ishlash og‘irlik qiladi.Bunday mumtoz matnni tahlil qilishni universitet o‘quvchilari ham qiynalishadi.

Lug‘atlarni berishda sinflar darjasiga qaralishi kerak, murakkab so‘z va matnlarni darslikda berilishi o‘quvchilarni ham zeriktiradi ham o‘rganish ishtiyoqini susaytiradi.O‘quv lug‘atlarini ham shu asosida yosh darajasiga qarab shakllantirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.Yoshlar bizning kelajagimiz. Ularga to‘g‘ri ta’lim, tarbiya berish har bir pedagogning oldidagi asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyeva Sh. (2021) O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda o‘quv izohli lug‘atlarining ahamiyati. ”O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalari”.Toshkent: ToshDOTAU,. 264-bet.

2. Karimova G. (2021). Ta’lim lug‘atlarini yaratish-davr zarurati.”O‘zbek amaliy tilshunosligi va lingvodidaktikasi masalari”. Toshkent: ToshDOTAU, 266-bet.

3. Karimov.I. (2008) Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. Toshkent. Ma’naviyat-.176-bet.

4. Mengliyev.B, Baxriddinova. B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati.Toshkent.Yangi asr avlodi-2009.5-bet.

5. Морковин В. (1990) Основы теории учебной лексикографии: Дисс… док. филол. наук. (в форме научного доклада): –Москва: Институт русского языка им. А.С. Пушкина,. –72 с.

6. Tursunov J. (2021) Ta’lim lug‘at yaratish tamoyillari. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences -Toshkent,.№1.388-bet.

7. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (1999) Ona tili. Adabiyot….Ta’limi taraqqiyoti. 1- maxsus son.Toshkent-.59-bet.

8.https://arxiv.uz/uz/documents/diplom-ishlar/pedagogik-psixologiya/ta-limiy-lug-atlar-va-ularni-yaratish-tamoyillari

9.https://kun.uz/uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-o‘zbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim

MAKTAB O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR

Tog‘onova Gulshirin Oltiboyevna,
Ona tili va adabiyoti ta’limi fakulteti
2-kurs *gulshirintogonova@gmail.com*

Annotatsiya Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining yozish va o‘qish, og‘zaki nutqi, tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishga doir mavzularning

muhim jihatlari yoritib beriladi. Shuningdek, darsliklarning yangilanishi, ularning o‘quvchilar ongini rivojlantirishdagi o‘rni haqidagi fikr- mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: Nutqiy kompetensiya, og‘zaki va yozma nutq, linvistik bilim, nutq madaniyati, monologik nutq.

Abstract. In this article, the important aspects of the subjects related to the formation of writing and reading, oral speech, and listening comprehension skills of schoolchildren are highlighted. Also, reviews about the updating of textbooks and their role in the development of students’ minds are presented.

Keywords: Speaking competence, oral and written communication, linguistic knowledge, speech culture, monologic speech.

Mamlakatimizda tahsil olayotgan o‘quvchilarning har jihatdan bilimli va komil bo‘lishi, o‘rgatilayotgan bilimlarni chuqur egallashi uchun ta’lim sifatining to‘gri yo‘lga qo‘yilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.Yosh avlodni ma’nan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashda barcha zarur shart - sharoitlarni yaratishga oid tizimli ishlar olib borilmoqda . O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6- apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori ta’limni rivojlantirishga qaratilgan .(O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari. 2017-yil,14-son.) Xususan, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yosh avlodning tarbiyasiga alohida ahamiyat bergan holda, quyidagilarni ta’kidlab o‘tganlar: “Maktabda o‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”. (Shavkat Mirziyoyev. 30.10.2020.)

Bugungi kunda ona tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirish, tasavvur jihatini kengaytirish, nutqiy kompetensiyalari (o‘qish, yozish, tinglab tushunish, so‘zlash)ni shakllantirishga qaratilgan. Bu esa ona tili o‘quv darsliklaridagi mashq va topshiriqlar orqali amalga oshadi. Ular yozma va og‘zaki nutqni rivojlantiradi. Ma’lumki, har birimiz

jamiyat a’zosimiz. Jamiyat a’zolari bilan munosib aloqaga kirishishimiz uchun nutqiy ko‘nikmalarimiz shakllangan bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarning nutqini o‘stirishni asosan maktabga qo‘ygan dastlabki qadamidan shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Jahon pedagogikasi vakillarining fikriga ko‘ra, boshlang‘ich sinfda bolalarning ma’lumotlarni qabul qilishi va qiziquvchanligi yuqori bo‘lishi aytib o‘tilgan. Bu asosan o‘quvchining eslab qolishi, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi va ular ma’nosini anglashida seziladi. Nutqiy kompetensiyani shaklantirish uchun ona tili va adabiyot darslaridagi diktantlar, matnlar, insho va ijodiy bayonlarning o‘rni beqiyosdir.

Bular o‘quvchini:

— mustaqil fikrlashga, tasavvur doirasini kengaytirishga yordam beradi;

— xotirasi mustahkamlanishi, og‘zaki nuqtni tinglab matn mazmunini tez anglab oladigan, qayerda kirish, qayerda yakunlovchi qismning o‘rni ekanligini bemalol farqlay olish xususiyatlari shakllanadi.

— Hozirjavoblik, zukkolik, topqirligi oshadi.

Shu paytgacha ona tili darslarida nazariylikka, bir xil shakldagi mashq va topshiriqlarni bajarish, qoidalarni yod olishga e’tibor qaratilgan.Ya’ni, faqatgina grammatik bilimlarga urg‘u berilgan. “Til o‘qitishda grammatikaning o‘rni eng ko‘p munozaralarga sabab bo’luvchi mavzu hisoblanadi. XX-asr boshlarida grammatikani o‘qitish til o‘qitishning ajralmas bo‘lagi edi, shu sababli ham til o‘qitishning boshqa jihatlari e’tibordan chetda qoldi. Agar siz tilning grammatik qoidalarini bilsangiz,unda muloqot ham qila olasiz, degan konsepsiya ustun edi.Ushbu konsepsiya 1970-yillarning boshida jiddiy qarshiliklarga uchradi. Aytildiki, grammatik qoidalarni bilish kommunikativ kompetensiya tushunchasini hosil qiluvchi ko‘plab qismlarning biri xolos”. (Jack C.Richards,Willy A.Renandya.2002).

Endilikda ona tili darsliklarida faqat qoidalarga, ma’lum bir qoliplashgan mashqlarga asoslangan shaklda voz kechilmoqda. O‘quvchilar nutqini o‘stirishda ona tili darsliklaridagi topshiriqlar nazariy va faqat yozish uchun mo‘ljallanmasdan, ularni fikrlashga ,dunyoqarashining o‘sishiga, o‘qib tushunishni

shakllantirishga xizmat qilishi kerak. 2017-yildan boshlab Ona tili darsliklari rangli tarzda chiqarilmoqda. Rasmda berilgan voqelikda nima ifodalanayotganini anglash uchun o‘quvchidan kuzatuvchanlikni talab etadi. Xususan, 6-sinf “Ona tili” darsligining yangi nashrida o‘quvchini mantiqiy fikrlashga undovchi, nutqiy boyligini oshirishga, g‘oyaviy bazasini shakllanirishga oid topshiriqlar berilgan. “Kompyuter grafikasi”, “Import yoki eksport”, “Teleboshlovchi bo‘lib qolsam” kabi o‘quvchining qiziqishini uyg‘otuvchi sarlavha ostidagi mavzular tanlangan va mavzuga kirish qismiga ham o‘zgacha yondashilgan (I.Azimova, K Mavlonova, S.Quronov, Sh.Tursun, N.Hakimova, M.siddiqov. 2022, 86-b). Masalan, “Teleboshlovchi bo‘lib qolsam” nomli mavzuda kirish qismiga o‘quvchi shu mavzu asosida qanday ma’lumotlar bilan tanishishi, nimalar o‘rganilishi to‘g‘risida quyidagicha kalit so‘zlari berilgan:

— teleboshlovchilik kasbi;

— sohaga doir til birliklari;

— munosabat bildirish va o‘z fikrini himoya qila olish;

— rasmiy va norasmiy uslub;

— sifat so‘z turkumi;

— yordamchi so‘zlar.

Bundan tashqari o‘quvchilarda tinglab tushunish qobilyatini shaklantirishga qaratilgan “Audiomatnni tinglang” topshirig‘i ham berilgan bo‘lib, bunda o‘quvchilar matnni tinglab, tushunganlarini so‘zlab beradilar. Bu xotira charxlashga ham yordam beruvchi vositalardan biridir.

Qolaversa, matn mavzusi berilib, shu matn sarlavhasiga oid so‘zlar berilgan. Bu so‘zlarni o‘quvchi o‘zi kerakli qo‘shimcha va bog‘lovchilardan foydalangan holda bog‘lashi kerak. Shu shakldagi topshiriqlar orqali kelishik qo‘shimchalarini qo‘llash, so‘z birikmalari tuzishni o‘rganib boradilar. Masalan, “Mening dalam” mavzusidagi matn tuzish uchun quyidagicha savollar berilgan:

1.Dalangizning ko‘rinishi qanday bo‘ladi?

2.Dalangizda qanday ekinlar bo‘ladi?

3.U yerda nimalar bo‘ladi?

4.Odamlar dalangiz oldidan o‘tayotib nima deyishi mumkin?

Bu savollarga java yozish jarayonida o‘quvchi tasavvuridagi o‘z dalasini ta’riflaydi. Shu jarayonning o‘zi ham uni kengroq fikrlashga, badiiy jihatdan yondashishga undaydi. Hozirgi kunda Ona tili fanini o‘qitishning asosida : “O‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda to‘gri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat, deb belgilangan.”(O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Respublika ta’lim markazi. Ona tili fani bo‘yicha uzluksiz ta’limning Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. 2017).

Shu maqsadni amalga oshirish uchun o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muhimdir. 10-sinf o‘quvchilari uchun chiqarilgan “Ona tili” darsligining yangi nashrida bu jihatga alohida yondashilganligini ko‘rishimiz mumkin. Mavzularga grammatik nom berilmasdan, o‘quvchining e’tiborini tortadigan, qiziqarli mavzular sarlavhaga qo‘yilgan. Shuningdek, lingvistik bilimlar bilan nutqiy bilimlar teng olib borilishiga e’tibor qaratilgan. Oldingi Ona tili o‘quv darsliklarida avval grammatik qoida berilib, keyin mashq bajarish an’ana tusiga kirib qolgan edi.

Bu usulda mavzuni o‘qigan o‘quvchida ma’lumot bo‘ladi, lekin amaliyotda qo‘llanilish tartibi haqida tushuncha hosil bo‘lmaydi. Qaysi vaziyatda qanday usulda gapirish, so‘zlarni tartibli qo‘llash, tinglovchiga fikrini bexato yetkazib bera olish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shular inobatga olingan holda, har bir mavzu so‘ngida dolzarb yoki mantiqiy fikrlashga undovchi rasm berilib, shu asosida esse yoki maktub yozish topshirig‘i ham bor. Bunda o‘quvchi mavzuning qanday ahamiyat kasb etishiga qarab, 150 ta so‘zdan 250 tagacha so‘zlar ishtirok ettirishi kerak bo‘ladi. Bu topshiriq o‘quvchilarni mushohada qilishga undaydi. Yozma nutqni rivojlantirish, jumla tuzish, so‘zlarni o‘rinli qo‘llash, fikrning tugal va izchil bo‘lishini, imloviylik va uslubiylikni talab qiladigan jarayon hisoblanadi. Yozma nutq to‘gri shakllanishi uchun so‘z birikmasi va gap ustida ishlash, fikrning nutq holatiga mos tarzda ifodalanishi lozim.Yozma nutqning o‘ziga xos

xususiyatlaridan biri o‘quvchi o‘z xato va kamchiliklar ustida ishlay olishidir. Darslikda o‘rtogingizga yoki ota-onangizga maktub yozing sharti ham bo‘lib, bu asosan o‘quvchining monologik nutqi o‘sishiga ham yordam beradi. ”Maktublar asosan manologik yozma nutqqa xos ko‘rinishda bo‘ladi”- deb M. Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” qo‘llanmasida ham berilgan.(M. Yo‘ldoshev. 2007,47-b).“Til fikrning bo‘laklarga bo‘lingan holdagi ifoda-si, fikr esa tushunchalarning bog‘lanishidir. Lekin inson tili bog‘lanayotgan tushunchalar va ularning mantiqiy munosabatlarinigina emas, balki so‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ham ifodalashni istaydi.” (Винокур Г.О. 1991,С.44)

Qolaversa, “Mantiq vaqti” topshirig‘i berilgan bo‘lib, bu o‘quvchining o‘qib tushunish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi. 5.1-mashqda ota –onaning inson hayotidagi o‘rni haqida og‘zaki matn tuzilishi kerak.(Ona tili .10-sinf uchun darslik. Toshkent. 2022. 22-b). So‘ngra shu mavzu uchun Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning ona haqida yozgan matni berilib, shu matn asosida “Mantiq vaqti” topshirig‘i shakllantirilgan. Bu topshiriqni bajarish uchun o‘quvchi matn mazmunini to‘liq anglab yetishi kerak bo‘ladi. Bundan tashqari, darslikda turli sohalar va turfa mamlakatlar urf-odatlari, hikmatli so‘zlar, mavzu oxirida mustahkamlash uchun testlar berilgan. Bularning bari o‘quvchilarni darsga o‘zgacha yondashishga undaydi. “Og‘zaki nutq, odatda, bevosita nutq jarayonini tashkil etadi. Yozma nutqda esa muayyan masofaning bo‘lishi nazarga olinadi. Shunga ko‘ra ularning izchilligi, to‘liq yoki noto‘liqligi ham har xil bo‘lishi tabiiy”. (To‘xliyev B.Shamsiyeva M, Ziyodova T. 2009,4-b.)

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, nutq turlari, shuningdek, yozma nutq millatimiz savodxonligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nutqini tinglovchiga ifodali va ta’sirchan qilib yetkazishd o‘quvchilardan so‘z boyligi zaxirasi mustahkam bo‘lishi talab qilinadi. Ona tili darslarida faqat grammatika bilan cheklanmasdan, ularlarning lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini birdek shakllantirishga harakat qilmoq lozim. Buning uchun esa ta’lim beruvchining o‘zi ham bugungi davr bilan hamnafaslikda ish tutishi, mavzuni ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida mazmunli qilib yoritib berishi ko‘zlangan maqsadga

erishishga yanada yaqinlashtiradi. Bu jihatlar e'tiborga olinsa, biz ona tili ta'limidan kutayotgan natijalarga erishib, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'sha oladigan, ma'nan yetuk avlodni voyaga yetkazamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxtiyor Mengliyev, Shohrux Abdurahim, Klaraxon Mavlonova, Mansur Siddiqov, Saodat Atoyeva .(2022), Ona tili :Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik.

2.Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov.(T.2022) Ona tili: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik.

3.Jack C.Richards, Willy, A. Renandya(2002). Methodology in language teaching–Cambridge University Press(Sh. Yo'ldoshev tarjimasi).

4.M.Yo'ldoshev.(T.2007). Badiiy matnning lisoniy tahlili.

5.To'xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T.(T.2009) O'zbek tili o'qitish metodikasi.

6.Винокур Г.О.О языке художественной литературы.(1991). —М.:Висшая школа.

7.O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Respublika ta'lim markazi.Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari.—T.2017.

8.O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'grisida"gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017-yil,14-son.

9.Shavkat Mirziyoyev .(30.10.2020.)"Ta'lim sohasidagi muammolar , ularni hal etish va ta'lim sifatini oshirishga bag'ishlangan videoselektor" mavzusida .

ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING USULLARI

Tojiboyeva Shahrizoda Shavkat qizi,
ToshDO'TAU talabasi
Shaxrizodatojiboyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ona tili darsliklarida maktab o'quvchilarning yozma savodxonlikni oshirish usullarini yaratish. Maktab o'quvchilarning yozma savodxonligida duch kelayotgan muammolarni ko'rib chiqish va ularni bartaraf etish usul va metodlarini yaratish orqali darsni mazmunli va qiziqarli o'tqazishga erishish.*

Kalit so'z: *Yozma savodxonlik, usul, muammo, paronimlar, x va h harfining imlosi, topqirlik, xulosa.*

Abstract *:Creating ways to improve written literacy of schoolchildren in native language textbooks. To achieve a meaningful and interesting lesson by considering the problems encountered in the written literacy of schoolchildren and creating ways and means to eliminate them.*

Keywords*: Literacy, method, problem, paronyms, spelling of x and h, resourcefulness, summary.*

Tildagi so‘zlarning talaffuzida ayrim xatoliklar so‘zning tub manosini o‘zgartirib yuboradi. Mana shu qo‘shtirnoq ichidagi ayrim xatoliklar bugungi kunda yoshlarimiz orasida odatiy holga aylanib qolgan. Bugungi kunga maktab o‘quvchilarning yozma savodxonligida muammoga duch kelayotgan holatlar quyidagilar: so‘zlarni satrdan-satrga ko‘chirish,tutuq belgisini qo‘llashdagi xatoliklar, juft va takror so‘zlarda chziqchani qo‘llashdagi ikkilanishlar, “x” va “h” imlosi, “punktuatsiya” ya’ni tinish belgilarini ishlatishdagi xatolar, paronimlar -bir so‘zning o‘rniga boshqasini qo‘llash kabi xatolar ham so‘zning asl ma’nosini o‘zgartirib yuboradi.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish uchun maktab o‘quvchilar bilan har darsda tarqatma materiallar, video lavhalar orqali hamda qiziqarli o‘yin va topshiriqlar, yangi usul va metodlar orqali maktab o‘quvchilarni tezkor va topqirlikga shu bilan birga yozma savodxonligini oshirish, o‘quvchi o‘z fikrini erkin bildirishga yordam beradi. “Ilm xazinadir. Uning kalitlari esa so‘rashdir” deydi dono xalqimiz. Maktab o‘quvchilari ko‘proq bilmagan savollarini so‘rashga o‘rgatishimiz kerak shunda yaxshi natijaga erishamiz. Ana shunday metod va usullardan ayrimlarini hukmingizga havola qilamiz.

“Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir” metodi.

Ushbu metod quyidagicha: Maktab o‘quvchilari orasida eng ko‘p xato qiladigan va oqsaydigan joyi “x” va “h” imlosi hisoblanadi. Biz hozirda 4+2 tizimida o‘qiymiz 2 kun Sergili tumanidagi 330-maktabda amaliyot olib boramiz. 6 “G”-sinf o‘rtasida ushbu metodni tajribadan o‘tqazib ko‘rdik. Biz o‘quvchilarga “x” va “h” so‘zlar yozilgan tarqatma materiallar berdik, o‘quvchilar ushbu so‘zlarning xatolarini to‘g‘ilab chiqishdi va o‘quvchilar xató topishgan so‘zlarini

misollar orqali tushuntirib berildi hamda uyga vazifa sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan “x” va “h” so‘zlarga 20 ta misol topib kelish vazifa qilib berildi. So‘zlarni misollar orqali ko‘rishgani o‘quvchilarning xotiralarida yaxshi saqlanib qoladi. **Birinchi qatordagi “X” va “H” harfi bilan yozilgan so‘zlarning xatolarini toping va ikkinchi qatorga so‘zning to‘g‘risini yozing**.

1.Arvoh	
2.Anxor	
3.arhiv	
4.Aslaxa	
5.Ahloq	
6.Axamiyat	
7.Axbob	
8. Ahdlashmoq	
9.Axyon-axyonda	
10.Badhulq	
11.Bahil	
12.Baht	
13.Bahshi	
14.Baholi qudrat	
15.Baxona	
16.Baxs	
17.Beraxm	

18.Bolahona	
19.Buxgalteriya	
20.Buhorcha	
21.Vaxta	
22.Vaxima	
23.Vahshat	
24.Voxa	
25.Gavxar	
26.Giyox	
27.Guvox	
28.Guruh	
29.Daxo	
30.Doxiy	
31.Duhi	
32.Jahl	
33.Jixat	
34.Zahm	
35.Zaxmat	

1- usulda so‘zlar orqali mashq bajarilgan bo‘lsa, darsning ikkinchi qismida matn bilan ishlash ko‘nikmasini o‘quvchilar orasida shakllantirish uchun o‘quvchilarga kichik matn tarqatiladi va matn ichidagi “x” va “h” taalluqli hamda boshqa xato yozilgan so‘zlarni topish vazifasi topshiriladi. O‘quvchilarni uch guruhga bo‘linadi. 1-guruh.

Kamalakda nechta rang bor? Yomg‘irdan so‘ng osmonda kamalak ko‘rinadi, lekin unda nechta rang borligini xamma aniq bilmaydi. Kamalakda yeti rang bor. Ular qizil, sarig‘, yashil, pushti, binafsha, och zangori, nim pushti. Kamalak juda

chiroyli manzara hosil qiladi. Kamalak osmonda uzoq vaxt saqlanmay, tezda ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bolalar, kamalakni kuzating.Kayfiyatingiz choq bo‘ladi. Kamalakni rasimda ifodalang. Unga mos rang tanlang. (55 ta so‘z).

2.guruh

Ko‘klam tog‘ etaklarida ko‘m ko‘k maysalar uzra nafis gular, turli xushbo‘y giyohlarning xidlari anqiydi. Daraxlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar uchrap qoladi. Otlar balanlik, tepalikga intilib, oyoqlarini g‘urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko‘rkam tutadi. Shu sayrdan, tabiatning go‘zalligidan baxra olgan bu aqlli jonivorlarning tiniq ko‘zlarida hushnutlik ifodasini ko‘raman. Naqadar go‘zal jonivor bular. Sevaman, ko‘ngildan, chindan sevaman otlarni! (Oybek , 55 ta so‘z).

3.guruh.

Alisher Navoiy o‘zbek halqining ulug‘ shoiri va mutafakkiri bo‘lib, u o‘zbek adabiyotini, ayni zamonda, jahon adabiyotni ajoyib durdonalar, o‘lmas badiy obrazlar bilan boyidi. Shoir o‘z ijodiy faoliyati bilan XV asr o‘zbek adabiyotini mislsiz taraqiyot cho‘qilariga ko‘tarib, uyg‘onish davri deb atalayotgan bu davr madaniiy va adabiy hayotida burilish yasadi. Zo‘r mahorat bilan insonparvarlik, xalqparvarlik g‘oyalarini ilgari surib, xalqimizning nomini jahonga yoydi. (60 ta so‘z).

Yangi nashr qilingan 10-sinf va 11-sinf darsliklarida asosan yozma savodxonlik va o‘qib tushunish ko‘nikmasini o‘quvchilar orasida shakllantirishga qaratilgan misollar va matnlar ko‘proq kiritildi va mavzu hajmi qisqartirilgan: bu metod o‘quvchilarni darsda mustaqil ishlashiga olib keladi. Darsining birinchi qismida “x” va “h” imlosiga doir so‘zlarni xatosini o‘quvchilar topishadi va darsning ikkinchi qismida o‘quvchilarni uch guruhga bo‘lib,uchta matn tarqatiladi va bu usul o‘quvchilarni matn bilan ishlash ko‘nikmasini oshiradi.

“Topqirlik”-metodi

Bu metodi o‘quvchilarni tezkorlikga undaydi. Doskaga sonlar ketma ketligi yoziladi va shu sonlarning alifbodagi o‘rni topib, bir hikmatli so‘z yasash o‘quvchidan talab qilinadi.

10,13,14 26,1,28,10,15,1,4,10,20

Ushbu sonlarda bir hikmat yashiringan, topgan o‘quvchi bir hikmatga ega bo‘ladi va ma’nosini sharhlab beradi. **Javobi: Ilm xazinadir.**

Paronimlar –bu talaffuzi, eshitilishi va morfem tarkibi o‘xshash, leksik ma’nolari boshqa-boshqa yoki qisman yaqin bo‘lgan so‘zlar.

Masalan: 1.shoh – shox

2. dars – darz

3.abzal – Afzal

4. kafe – kofe

5. milk – mulk

6.palak – falak

Topshiriq: 1.Quyidagi barchasi to‘g‘ri yozilgan javoblarni toping?

a) manfaat tomom badiy

b) taasurot tamon badiiy

c) taalluqli navbat tamom

d) taaluqli tomon baxir

2. Quyidagi barchasi to‘g‘ri yozilgan javoblarni toping?

a) natarius mudofa manitoring

b) natarius dialog muovin

c) monitoring dialog milliard

d) mudofaa milliard hayol

Xulosa: Bu mavzudan xulosam shundan iboratki maktab o‘quvchilari orasida imlo xatolarga yo‘l qo‘yilishini oldini olish, yozma savodxonlikni oshirish , o‘z fikrini jamiyat oldida erkin bayon qila olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishini taminlash.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. Xolmurodov. S. Musayeva .(2016). Diktantlar to‘plami (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma)

2. N.M.Mahmudov . (2013) Toshkent O‘zbek tilining imlo lug‘ati.

3. A.Ma’rupov. (1974) Toshkent. O‘zbek tilining paronimlar lug‘ati.

4. Madvaliyev.A. (2020) “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent -. Davlat ilmiy nashriyoti. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.

FANLARARO INTEGRATSIYA FITRAT ASARLARI MISOLIDA

Tursunqulova Dilrabo Abdulla qizi
ToshDO'TAU Ona tili va adabiyotini o'qitish fakulteti
2-kurs talabasi dilrabotursunqulova5@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'quvchilarda fanlararo uzviy tasavvur uyg'otish, konteksda o'quv dasturlari mazmunining umumiy tahlili, integratsiyalashgan ta'lim asosida tarix va adabiyot fanlarining o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldirishi mumkin bo'lgan jihatlarini tushuntiradi. Tarix va adabiyot darsliklarida bir-biriga aloqador mavzularni o'rganib chiqish va tadqiq qilish orqali o'quvchilarga beriladigan bilimda yaxlitlikni ta'minlash va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi. Abdurauf Fitrat asarlari misolida ko'rib chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Tarix, adabiyot, Abdurauf Fitrat, fanlararo integratsiya, Buxoro tarixi, turli ma'lumotlarni yaxlit o'qib tushunish.*

Abstract: *This article explains the interrelated and complementary aspects of the subjects of history and literature based on the interdisciplinary imagination of students, the general analysis of the content of educational programs in the context, and the integrated education. By studying and researching related topics in history and literature textbooks, it ensures the integrity of the knowledge given to students and increases the efficiency of mastering. It is considered as an example of the works of Abdurauf Fitrat.*

Keywords: *History, literature, Abdurauf Fitrat, interdisciplinary integration, history of Bukhara, comprehensive reading and understanding of various information.*

Har ta'lim beruvchining maqsadi o'rganuvchini mustaqil fikrlashga, o'z oldiga muommo qo'yishga va yechim izlash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. O'quvchi qaysi mavzuni o'rganishidan qat'i nazar berilgan bilim sifatli va o'zlashtirish oson bo'lishi, miyani to'g'ri ishlashga o'rgatishi joiz. Bunga o'z o'rnida o'qituvchiga katta bilim va ijodkor ruh kerak.

Mavzu o'rganilishi jarayonida uni boshqa mavzular bilan qo'shib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Zehniy fikrlash darajasini oshirish, mantiqni kuchaytirish,

xotirani mustahkamlash har ikki tomonlama jiddiy yondashuv talab qiladi. “Integratsiya — bu biz mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, dunyoqarashimizni kengaytirish va o‘quv jarayonini rag‘batlantirish uchun doimo murojaat qiladigan fanlararo aloqalar emas. Integratsiya bu — hosil qilinadigan bilimlarning bir butunga birlashishidir” (Ожегов, 1997, 944 с). O‘quvchilarda fanni o‘qitish bilan bir qatorda aqliy operatsiyalar: taqqoslash, rad etish, isbotlash, kognitiv qiziqish, fikrlashning moslashuvchanligi va o‘ziga xosligi, fanga ilmiy yondashish yordamida mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Integratsiyalashgan darslarda talabalar tomonidan olingan yetarlicha katta hajmdagi ma’lumotlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotirani o‘z ichiga oladi, bilimlarni tizimlashtiradi, bu esa xotirani tartibga solish va fikrlashning tejamkorlik tamoyiliga rioya qilish imkonini beradi. Integratsiyalashgan dars chegaraviy muammolarni ko‘rib chiqish, ularning ko‘p qirraliligini, ahamiyatini va turli sohalarda qo‘llanilishini ko‘rish imkonini beradi (Baratov & Inog‘omova & Hikmatova, 2022, 42-bet).

Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Bir farangi ila buxorolik”, “Abulfayzxon” asarlari o‘z-o‘zidan tarix faniga oid asarlar. Adabiyot darsliklariga Fitrat asarlarini kiritish va darsliklararo kichik integratsiyani shakllantirish borasida: 11-sinf adabiyot darsligida A.Fitrat mavzusi berilgan. Mutolaa uchun esa “Abulfayzxon” dramasi berilgan. 8-sinf O‘zbekiston tarixi darsligida esa bu mavzu yuzasidan berilgan ma’lumot bir betga ham bormaydi. “Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o‘zbek qabilalaridan biri mang‘itlarning nufuzi baland edi. Bu qabila davrida hokimiyat to‘la ashtarxoniylar qo‘lida bo‘lib davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qildi. Biroq, keyinchalik, Buxoroda mang‘itlar alohida nufuzga ega bo‘lish uchun astoydil kurashdilar va Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar. Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgach, Rahimbiy o‘z qo‘shini bilan Buxoroga qaytib keldi va o‘zining muntazam qo‘shinga egaligidan foydalanib, hokimiyatda otasi kabi alohida mavqe uchun da’vogarlik qila boshladi. So‘nggi ashtarxoniy Abulfayzxon uni otasining o‘rniga tayinlashga majbur bo‘ldi. Nodirshoh 1747-yilda o‘ldirilganidan so‘ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo‘l ochdi. Uning buyrug‘i

bilan Abulfayzxon 1747-yilda o‘ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzxonning o‘g‘li Abdulmo‘minni o‘tkazdi va uni o‘ziga kuyov qilib oldi. Ko‘p o‘tmay Muhammad Rahimbiy soxta xonlarni ham qatl ettirdi va 1756-yilda hokimiyatni to‘la egalladi. Biroq mang‘itlar chingiziylar nasliga mansub emas edilar. Shuning uchun mang‘it hukmdorlari o‘zlarini xon deb emas, amir deb atadilar (Usmonov & Jo‘rayev & Norqulov, 2019, 51-bet). Bu mavzular albatta maktab darsliklari kesimida kesishmaydi ham.

Istambulda o‘tkazilgan to‘rt yillik hayot, turk ma’rifatparvarlari, adib va shoirlarining ijodi bilan tanishish, yevropacha falsafa va ijtimoiy ta’limotlardan o‘rganish Fitratning qarashlarida keskin burilish yasaydi — endi u Buxoro hayotidagi, Turkiston hayotidagi qoloqliklarni, bid’at va xurofatni aniqroq ko‘radi, jamiyat rivojiga to‘siq bo‘lib yotgan kuchlar haqida teranroq o‘ylay boshlaydi. Bu izlanishlar Fitratni islohotchilik yo‘liga olib keladi — u din bilan ilmni birga qo‘shishga intiladi va ijtimoiy tuzumni yangilash g‘oyalarini o‘rtaga tashlaydi. Bunda u, ayniqsa, feodal psixologiyaning ko‘rinishlariga, dindagi, yashash tarzidagi mahdudlikka qarshi chiqadi. Fitratning jamiyatni isloh etish haqidagi g‘oyalari publitsistik risolalarida ifodalangan. Bu kitobning ikkovi ham birinchi marta fors tilida Istambulda nashr qilingan edi. Keyinroq esa (1913) Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy nashriyotida A.N.Kondratev degan odam tarjimasida rus tilida bosib chiqariladi. Bu ikki risola Buxoroda ham, Turkistonda ham ijtimoiy fikrning o‘sishiga kuchli ta’sir qildi. 8-sinf O‘zbekiston tarixi darsligi 2-bobi Buxoro xonligi va Buxoro amirligi mavzularini qamrab oladi. Darslik Buxoro xonligining yuksalishi, Buxoro xonligida markaziy hokimyatning zaiflashuvi, davlat boshqaruvi, harbiy ish, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, siyosat, madaniy hayot kabi bir qator mavzulardan iborat. Holbuki, Buxoro mavzusi 80 betlik maruzalarni o‘z ichiga oladi. Fitratning “Bir farangi ila buxorolik”, “Munozara” asarlarni o‘qib tahlil qilish jarayonida Buxoro siyosati, iqtisodi, ma’naviy-ma’rifiy qiyofasi yaqqol ochib tashlanganligi ko‘zga tashlanadi. Ammo ko‘p sonli o‘quvchilar bunday asarlar borligidan ham xabardor emas. Globallashuv davrida yosh avlodni aynan adabiyot va tarixga qiziqtirish, ularning bu fanlarga qanchalik ehtiyojmand

ekanliklari tushuntirish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi dars o‘tish barobarida barcha fanlar bir-biriga chambarchas bog‘liq ekanligini, tarixni yetarlicha anaglamasdan iqtisodni, siyosatni, dunyo va jamiyat boshqarish asoslarini anglab bo‘lmasligini tushuntirishi kerak. Har qanday mavzuni uzviy bog‘liqlikda tushuntirish, o‘quvchilarni mantiqan erkin fikrlilikka o‘rgatish qanchalik o‘qituvchi mahoratiga bog‘liq bo‘lsa-da, darsliklar tuzilishi ham katta ahamiyatga ega. Xotira imkoniyatlarini e’tiborga oladigan bo‘lsak 8-sinfda o‘rganilgan mavzu 11-singfa kelib anchagina unitilgan bo‘ladi. Bu o‘z-o‘zidan mavzular uzviyligini aqlda shakllantirishga to‘siq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab darsliklarini ancha e’tibor bilan ishlash, har tomonlama mukammal bilim berishga intilish bilan bir qatorda o‘quvchilarning o‘zlashtirish salohiyati ham hisobga olinadi. Maktab darsliklarida mavzularning uzviy bog‘liqligi shakllantilsa: davr, shaxs nuqtayi nazaridan bir-birini to‘ldiruvchi mavzular berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Fitratning tarixiy asarlarini adabiyot darsliklariga sinflar kesimida kiritish, masalan: o‘tilayotgan mavzularning parallel bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Q, Jo‘rayev U, Norqulov N, (2019), O‘zbekiston tarixi(XVI-XIX asrning birinchi yarmi) 8-sinf uchun darslik, Toshkent: O‘qituvchi.

2. Baratov M, Inog‘omova D, Hikmatova M, (2022), Fanlararo integratsiya tushunchasi va ta’lim jarayonidagi o‘rni, https://zenodo.org/record/7316297#.Y3f-2HZBzIU.

3. Ожегов С.И, Шведова Н.Ю, (1997), Толковый словарь русского языка/ Российская академия наук. Институт русского языка имени В. В.Виноградова.-4-е изд., доп. —М.: Азбуковник.

TA’LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDAGI O‘ZBEK TILI DARSLARIDA NUTQ VA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI O‘STIRISHNING SAMARALI USULLARI

Xojiyeva Laylo Zokirjon qizi,
ToshDO‘TAU O‘zbek tili ta’limi fakulteti
2-kurs talabasi irodaxojiyeva@mail.ru

***Annotatsiya**. Ushbu maqolada ta’lim o‘zga tilda olib boriladigan rus maktablarida o‘zbek tili fanini o‘qitishdagi muammolar, o‘quvchilarning nutqi,*

talaffuzi bilan bog‘liq kamchiliklar, xorijiy til o‘qitish tajribalaridan foydalangan holda ularda nutq va talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga oid samarali usullar, tinglab tushunish malakalarini o‘stirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *ta’lim o‘zga tilda olib boriladigan maktablar, nutq va talaffuz, xorijiy til o‘qitish tajribalari, tinglab tushunish, mashq va topshiriqlar.*

Abstract. *In this article, the problems of teaching the uzbek langages in russian schools where education is conducted in a foreign language, the shortcomings related to the speech and pronunciation of students, the development of speech and pronunciation skills in them using foreign languages teching experiences, effective methods of formation, exercises and assigments aimed at developing listening comprehension skills are discussed.*

Keywords: *foreign language schools, speech and pronunciation, foreign language teaching experiences, listening comprehension, exercises and assignments.*

Bugun mustaqil O‘zbekistonimizda ta’lim tizimida jiddiy yangilanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yangilanish va o‘zgarishlarning bosh maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir (Niyozmetova, 2010, 3-bet). Zero, yurt ravnaqi, avvalo, ta’lim sohasining qay darajada yuksalganligiga bog‘liq. Ma’lumki, mamlakatimizda ta’lim 7 tilda olib boriladi. Bu birinchi navbatda yurtimizdagi o‘zga millat vakillariga ko‘rsatilgan yuksak hurmat va e’tibor namunasi bo‘lib, albatta, ta’lim tizimining izchil ravishda rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda turli sohalarda turli yangiliklarni ko‘rishimiz mumkin. Ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan talab va berilayotgan takliflar ham aynan dars jarayonlarida yangicha o‘qitish usullaridan foydalanishni talab etmoqda. Xususan, ta’lim tili rus bo‘lgan maktablarda o‘zbek tili fanini o‘qitishda doimiy grammatikaga oid mashqlar bajartirish yoki matn asosida savollarga javob berish kabi topshiriqlar orqali fanni o‘rgatish o‘quvchilarni darsga nisbatan qiziqishlarini so‘ndirishi va dars samaradorligini

pasaytirib zerikarli bo‘lishiga olib keladi. Boisi, ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarining deyarli barchasida o‘quvchilar o‘zbek tilini yaxshi tushunmaydi va ravon gapira olmaydi. Tilni tushunmaslik, nutq bilan bog‘liq ko‘plab kamchiliklar uchrab turgan vaziyatda eski usuldagi grammatik qoidalarni o‘qitish, turli mashqlarni bajartirish o‘zbek tilini rus tili bilan qiyoslab o‘qitish yoki darsni rus tilida o‘tish o‘quvchilarning o‘zbek tilidagi bilimni boyitmaydi, aksincha, rus tilidagi bilimlarinigina mustahkamlaydi xolos. Qolaversa, rus tili alifbosida q, g‘, o‘ harflari bo‘lmaganligi bois o‘quvchilar o‘zbek tilida ushbu harflar qatnashgan so‘zlarni tog‘ri talaffuz etishga qiynaladilar va ushbu harflar qatnashgan so‘zlarni misol uchun; “quyosh” so‘zini o‘rniga uning janrangsiz jufti bo‘lgan k undoshini qo‘yib “kuyosh” tarzida yoki “o‘lka” so‘zini “olka”, “yog‘och”ni “yogoch”, deb noto‘g‘ri talaffuz qilishadi va shunday tarzda yozib qo‘yishadi. Bularning barchasi, albatta, o‘qitish tizimida bu xatolar ustida ishlashga ahamiyat bermaslik va darsliklarda talaffuz, imlo qoidalariga oid mashq topshiriqlar kiritilmaganligi natijasidir. Hozirda rus maktablarida o‘zbek tili fanini o‘zlashtirishda uchrayotgan asosiy muammolar quyidagilardir:

-o‘zbek tilini bilmaslik;

-o‘zbek tilida ravon nutq ifoda etolmaslik;

-so‘zlarni buzib talaffuz qilish;

-so‘zlarni imlo qoidalariga nomuvofiq tarzda yozish;

Shuning uchun birinchi navbatda rus maktablarida tahsil oladigan o‘quvchilarga o‘zbek tili fanida tilni o‘zini o‘rgatish bilan birga, ularning talaffuzidagi nuqsonlarni bartaraf etish va nutqini rivojlantirish ustida ishlash lozim. O‘quvchilar nutqini shakllantirish tushunchasi o‘zida, birinchidan, o‘zbek tilidagi har bir bir tovush, bo‘g‘in, so‘z, ikkinchidan, muayyan lug‘at boyligiga ega bo‘lish va undan foydalana olishni, uchinchidan, savodli yoza olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni qamrab oladi (Nazarova, 1992, 61-bet). Bu ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirishni, albatta, boshlang‘ich sinfdan boshlash va nutq o‘stirish jarayoni samarali bo‘lishi uchun xorijiy til o‘qitish tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya kabi

mamlakatlarda til o‘qitish tajribalarining darslikda berilish holatalarini kuzatsak, GRAMMAR (grammatika), VOCABULARY (lug’at, so’z boyligini tekshirish), PRONUNCIATION (talaffuz) nomlari bilan alohida bo‘limlar bo‘lib, unga 4 lisoniy malaka singdirilgan. Masalan, Grammar bo‘limida asosiy e’tibor yozish, Vocabularyda o‘qish, Pronunciationda esa tinglab tushunish va gapirish malakalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar berilib, bu topshiriqlarning mazmuni malakalarni bir-biri bilan integratsiya qilishni ta’minlaydi (Xojiyeva, 2022, 554-bet). Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarning o‘zbek tili fanida gapirish, tinglab tushunish, yozish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish, avvalo, o‘qituvchining darsaga qanday yondoshishiga bog‘liq. Shu bois o‘qituvchining darsdagi asosiy vazifasi o‘quvchilarga o‘zbek tilida gapirish, rus tilidagi so‘zlarni ishlatmaslikka harakat qilish, umuman, o‘zbek tili muhitini yaratish bo‘lishi kerak. Dars jarayonida o‘quvchilar o‘qituvchining doimiy o‘zbek tilida gapirishini eshitib borishi natijasida, bora-bora ularda eshitish ko‘nikmasi shakllanadi va o‘zi ham o‘zbek tilida nutq ifoda etishga harakat qiladi. Chunki muhit qanchalik tilga mos bo‘lsa, til shunchalik tez va samarali tarzda o‘zlashtiriladi. O‘quvchilarning tinglab tushunish ko‘nikmasini hosil qilish uchun o‘z navbatida o‘qituvchining nutqi ham ravon, aniq, so‘zlari to‘g‘ri talaffuz etilgan bo‘lib, har tomonlama o‘quvchilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

Nutqning ravon, chiroyli ifodalanishi uchun talaffuz me’yorlariga amal qilish talab etiladi. Rus maktablaridagi o‘quvchilar o‘zbek tilida gapira olsada, nutqi ravon chiqmaydi. Boisi ularning talaffuzi bilan bog‘liq ko‘plab kamchiliklar bor. O‘quvchilarda talaffuz bilan bog‘liq kamchiliklarni bartaraf etish uchun quyidagi mashqdan foydalanish o‘rinlidir:

Tinglash uchun mavzuga oid audio eshittiriladi, o‘quvchilar talaffuz qilishga qiynaladigan so‘zlardan gaplar tuziladi va so‘zning muqobil varianti ham uning yoniga yozib qo‘yiladi, o‘quvchilar ushbu gaplardagi so‘zlarni uning audio variantida qanday talaffuz etilishini eshitib to‘g‘ri bo‘lgan so‘zni yozishi kerak bo‘ladi. Gaplar quyidagi ko‘rinishda beriladi:

1.Quyosh\Kuyosh hamisha Sharqdan chiqadi.

2. Duradgor yog‘ochdan/yogochdan har xil buyumlar yasaydigan usta.

3. To‘gri/to‘g‘ri ovqatlanish so‘liq/soglik uchun foydali.

4. Har qanday/kanday davrda ham oqituvchilik/o‘qituvchilik kasbiga talab yuqori bo‘ladi.

Ushbu mashq orqali o‘quvchilarda eshitish orqali nutqida so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etish ko‘nikmasi shakllanadi, hamda ularning imloviy savodxonligi ham oshib boradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugun yurtimizdagi o‘zga tilli maktablarning ahamiyati kun sayin oshib bormoqda. Shuning uchun ushbu maktablarda ta’lim sifatini yaxshilash, o‘quvchilarga sifatli ta’lim berishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘z navbatida o‘zga millat vakillari farzandlariga o‘zbek tili fanini o‘qitish har bir o‘qituvchidan alohida mahorat va mas’uliyatni talab etadi. O‘zbek tili fanini o‘qitishda hozirda muammo bo‘lib turgan nutq va talffuz ko‘nikmalarini shakllantirish ustida ishlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun nutq ko‘nikmalarini o‘stirish jarayonida yuqorida aytib o‘tilgan xorijiy til o‘qitish tajribalaridan foydalanib dars o‘tish, shular asosida mashq va topshiriqlar tuzib bajartirish o‘quvchilarning o‘zbek tili fanida ravon nutq ifoda eta olish qobiliyatlarining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozmetova, R. (2010). O‘zbek tili darslarida yangi o‘zbek adabiyotini o‘qitish masalalari. (3-bet). Toshkent.

2. Nazarova S. (1992). O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. (61-bet). Toshkent O‘qituvchi.

3. Xojiyeva I. (2022). Theoretical bases of development of non-traditional exercises and tasks in teaching the uzbek languages (State language) (Example of A 10th Grade Textbook). (554-bet). Galaxy international interdisciplinary research journal.

MUNDARIJA

I BOB

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI

Aliyeva Mahinabonu, QO‘RQUVNING NOMINATSIYAGA TA’SIRI	5
Axmadov Dostonbek, ABDULLA QODIRIYNING TARJIMONLIK MAHORATI (N.V.GOGOLNING“UYLANISH” KOMEDIYASI TARJIMASI MISOLIDA)	9
Bo‘riyev Islom, O‘ZBEK TILIDA BIR VA KO‘P MA’NOLI IBORALAR TAVSIFI	19
Boymirzayeva Mumtozabegim, MOTIVATSION NUTQNING AYRIM LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	26
Erkinova Ro‘za, TILNING AXLOQIY-MADANIY OMILLARINI TADQIQ ETISHDA QO‘LLANILISHDOIRASI CHEGARALANGAN SO‘ZLAR	30
Hakimova Nasiba, CHET TILINI O‘QITISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	34
Kurbonova Guzal, FRAME ANALYSIS OF THE CONCEPT “FAMILY” IN ENGLISH AND UZBEKLINGUOCULTURE	40
Mirnosirova Dilbar, “BOLALAR ASSOTSIATIV LUG‘ATI” NING STRUKTURAVIY TUZILISHI	48
Mullayeva Farangiz, ISH YURITISH HUJJATLARIDA YO‘L QO‘YILAYOTGAN KAMCHILIKLAR	55
Ne’matova Nilufar, HOZIRGI O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA USLUBSHUNOSLIKNING JAMIYAT BILAN BOG‘LIQ HOLDA O‘RGANILISHI	60
Norboyeva Robiya, TAQLID SO‘ZLAR MUSTAQIL SO‘Z TURKUMI SIFATIDA	64
Nurmatova Sabrina, RAVISH YASALISHIGA DOIR BA’ZI MULOHAZALAR	66
Ochilova Zilola, METAFORA,UNING O‘ZIGA XOS TABIATI VA TILSHUNOSLIKDAGI AHAMIYATI	71
Otaboyeva Madinaxon, ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATI TILIDAGI UNDALMALARNING LEKSIKSEMANTIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI	75
Quvonch Ehsonullo, AFG‘ONISTON ISLOM RESPULIKASIDA TILLAR MAQOMINING HUDUDIYASOSLARI	80
Quziyeva Taxmina, O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA QISQARTMA SO‘ZLARNING IFODALANISHI	86
Rahimjonova Munavvar, O‘ZBEK FRAZEOLOGIZIMIDAGI MUOMMOLAR	92
Ravshanova Feruza, ETNOLINGVISTIKA VA UNING O‘RGANILISHI	96
Sarimova Bonu, STEP-BY-STEP DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE	103
Topiljonova Namuna, IJTIMOIY-SIYOSIY TERMINLARNING O‘ZBEK TILI LEKSIK SISTEMASIDAGI O‘RNI	106
Umurzaqova Go‘zal, SHE’RIY MATNLARDA SO‘ROQ GAPLARNING IFODALANISHI (ABDULLA ORIPOV SHE’RLARI MISOLIDA)	111
Xamidjonova Durdona, ZOONIMLAR BILAN BOG‘LIQ FRAZEMALARNING SEMANTIK TAHLILI	115
Zoirova Madinaxon, ANTONIMIYANING O‘ZBEK TILIDA VOQELANISHI	121

II BOB

O‘ZBEK TILI TARIXI VA DIALEKTOLOGIYA MUAMMOLARI

Aminova Feruza, MATNAZAR ABDULHAKIM SHE`RIYATIDA LEKSIK DIALEKTIZMLAR	128
Asatullayeva Dilnavoz, BUXORO SHEVALARIDAGI MORFONOLOGIK HODISALAR	132
Axmedova Aynura Quanishbay qizi, O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI QON-QARINDOSHLIK TERMINLARI	136
Azimova Madina, RIVOYATGA DOIR NAZARIYQARASHLAR	141
Dusanova Laylo. QASHQADARYO VILOYATI SHEVALARI LEKSIKASI TADQIQI VA BA’ZI OZIQ-OVQAT NOMLARI	145
Elboeva Shahnoza, ETIMOLOGIC HISTORY OF SOME ENGLISH WORDS	150
Eshboyeva Shoira, “DEVONI LUG‘OTIT TURK”DAGI OBRAZLI HOLAT FE’LLARI	156
Farmonova Feruza, “DEVONU LUG‘OTIT TURK’’ ASARIDAGI AYRIM LEKSEMALARSEMANTIKASIDAGI O‘ZGARISHLAR	159
Hamzayeva Nilufar,“DEVONU LUG‘ATIT TURK” VA BUXORO SHEVALARI	164
Ibodullayeva Laylo, TILNING KELIB CHIQISHIGA OID AYRIM NAZARIYALAR TAHLILI	168
Mahammadiyev Erkin, SURXONDARYO SHEVASIDAGI RAVISH TURKUMIGA MANSUB AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLAR IZOHI (Qiziltom qishlog‘i shevasi misolida)	173
Mahmudova Jasmina, BUXORO VILOYATI DIALEKTINING O‘ZIGA XOS FONETIK, LEKSIK, MORFOLOGIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI	177
Mamajonova Shahnoza, O BESHARIQ TUMANI YASHNABOD QISHLOG‘I SHEVASIGA XOS AYRIM SO‘ZLAR TAHLILI	186
Matazimova Sayyora, NAMANGAN VILOYATINING SHEVASIGA OID DIALEKTIK LEKSEMALAROMONIMIYASI	191
Muxammadova Shaxloxon, DIALEKTAL FRAZEOLOGIZMLARNING TAHLILI, ETIMOLOGIYASI VA O‘RGANILISHI	196
Norkozokova Munisa, MUHAMMADI QISHLOG‘IDAGI BA’ZI BIR DIALEKTAL SO‘ZLARNING IZOHI	201
O‘tkirova Umida, “SO‘Z LATOFATI”DAGI ETIMOLOGIK TALQINLAR	212
Po‘latova Fazilat, QASHQADARYO VILOYATI KITOB TUMANI DIALEKTINING FONETIK XUSUSIYATLARI	219
Qo‘ziyeva Sitora, QARSHI TUMANI SHEVASIDA QAVM-QARINDOSHLIK TUSHUNCHALARINIBILDIRUVCHI BA’ZI LEKSEMALAR TAHLILI	227
Ravshanova Dinora, SHEVALARDA UCHRAYDIGAN AYRIM SO‘ZLAR XUSUSIYATLARI	232
Rısqulova Muslima, MAHMUD KOSHG‘ARIYNING“DEVONU LUG‘OTIT TURK” ASARIDA FLORALARNING BERILISHI	236
Sotliqova Sevara, XORAZM XALQ QO‘SHIQLARIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLAR MADANIY BELGI SIFATIDA QO‘LLANILISHI	244
Toshmatova Madinabonu, O‘ZBEK LEKSIKOGRAFIYASIDA DIALEKTIK LUG‘ATLAR VA ULARNING ILMIYAHAMIYATI	252

III BOB

QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK VA JAHON ADABIYOTI MUAMMOLARI

Abayeva Қайрат қызы, ТӘРИЕННІҢ БАСТАУЫ ТАЛ БЕСІКТЕН	257
Ashurova Nigora Xayitovna, ДУНЁ АДАБИЁТИДА АЁЛ ОБРАЗИ ТАСВИРИ	261
Askarova Lobar Shavkat qizi, “LAYLI VA MAJNUN” VA “ROMEO VA JULYETTA” ASARLARINING FARQLI VAMUSHTARAK JIHATLARI	267
Berdiyeva Sabina Zayniddin qizi, BIR RIVOYATNING TURLI TALQINI	272
Bobonazarova Sunbula Azamat qizi, MADANİYAT BU – TO‘LQİN	277
Eshmurodova Gulnoza, CHINGIZ AYTMATOVNING “JAMILA” VA LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ASARLARIDA “AYOL” VA “BOLA” OBRAZITAHLILI	281
Habibullayeva Sabina Eson qizi, ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA ODAM ALAYHISSALOM QISSASININGANARMAL TASVIRI	284
Hakimjonova Sadoqat, TOLSTOY “TIRILISH” ROMANINING MOHIYATI	291
Hakimov Utkir Ilhomjon O‘g‘li, “AVAZ KAMAZ” HIKOYASIDA ILK VA SO‘NGGI JUMLA POETIKASI	294
Jo‘rayeva Mohinur, DOSTOYEVSKIYNING “TELBA” OBRAZI HAQIDA	300
Norjigitova Mamura Norbo‘ta qizi, “QIROL LIR” TRAGEDIYASI KOMPOZITSIYASIDA PEYZAJNING BADIIYVAZIFASI	304
Obıdova Nafisa, BADIIY TALQINDA PSIXOLOGIK TAHLIL	310
Qaxramonova Sabinabonu Dilshodovna, XUMCHA” VA“OLTIN DEVOR” ASARLARIDA OILAVIY MUNOSABATLAR	316
Umarova Maftuna Saidmurod qizi, CHINGIZ AYTMATOV VA ASQAD MUXTOR ASARLARIDAQADRIYATMASALASI	320
Xayitova Shahlo,“ASRNİ QARİTGAN KUN VA “TUSHDA KECHGAN UMRLAR” ASARLARİDASARLAVHA VA MUQADDİMA BADİİYATİ	326
Yusupov Samandar Shokirjon o‘g‘li, ZAMONAVIY O‘ZBEKADABIYOTI VA JAHON ADABIYOTIDA RAMZ MASALASI	330

IV BOB

ZAMONAVIY ADABIY JARAYON (NASR)

Abdullayeva Nilufar, ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRIDA GERMENEVTIKA.	337
Abdullayeva Rufina, TO‘FONGA AYLANGAN SHABADA YOXUD “SHAMOLNI TUTIB BO‘LMAYDI” HIKOYASIDAGI BAYNA MOMO OBRAZI	342
Abdumurodova Gulandom, TOG‘AY MUROD QISSALARIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZI	346
Azimjonov Husniddin Ibrohim o‘g‘li, O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA PORTRET VA PEYZAJ MASALALARI	350
Barakayeva Shodiya Saidnabi qizi, LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI TALQINI	354
Boboyeva Muxlisa Oybek qizi, XOLYOR SAFAR IJODIDA MILLIY G‘URUR IFODASI (“ORIYAT” HIKOYASI MISOLIDA)	358

Dilmurodova Nilufar, БАДИИЙ-ЭСТЕТИК КОНЦЕПЦИЯ: МУШТАРАКЛИК ВА ЎЗИГА ХОСЛИК	361
Eshmamatova Tursunoy, “IMOM MOTURIDIY” ROMANINING BADIIY-ADABIY XUSUSIYATLARI	367
Fayzulloyeva Dilfuza, NODIRA IBROHIMOVA HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR RUHIYATI IFODASI	373
G‘oyibbekov Diyorbek Yusufbek o‘g‘li, “MUVOZANAT” – O‘TISH DAVRI KO‘ZGUSI	377
Mirazizova Xonzoda, “JAVZO” ROMANIDA AYOLLAR OBRAZI	383
Mitanova Shahriniso Sodiqovna, “O‘TKAN KUNLAR”DA DAVLAT BOSHQARUVI G‘OYASI	387
Nurqobilova Shahnoza Urol qizi, O‘LMAS UMARBEKOV HIKOYALARIDA QAHRAMONLAR O‘RTASIDAGIMUNOSABATLAR	391
Qurbonova Norjona, “BONU” ROMANIDA INSON, DAVR VA RUHIYAT TASVIRI	399
Saidmurodova Munavvar, TOHIR MALIK IJODIDA YOSHLAR OBRAZI	403
Sheraliyeva Zarnigor Dilshod qizi, “SUNBULA” ASARIDA MILLIY AXLOQ	408
Toshpo‘latova Gulsevar, ABDUQAYUM YO‘LDOSHNING “PUANKARE” HIKOYASIDA MOTIV VA TAFSIL	417
Turdiyeva Navruzgul, BO‘RIXONNING “YALANGOYOQ” HIKOYASINING OBRAZLARPOETIKASI	420
Usmonova Barno Ziyodullo qizi, ROMANDA QADIM BUXORO MANZARASI (O.MUXTORNING “XOTIN PODSHOH”ROMANI ASOSIDA)	424
Usmonova Sohiba, LUQMON BO‘RIXONNING “SIRLI MUALLIM” QISSASIDA TA’LIM TIZIMIGA OIDMULOHAZALAR	428
Xaytaxmatova Dilnavoz, BAHODIR QOBULNING “ENASHAMOL” QISSASIDA BOLA OBRAZI	432
Yo‘ldoshaliyeva Gulshanoy Dilmurod qizi, ABDULLA QAHHORNING “O‘TMISHDAN ERTAKLAR” QISSASIDAGI BOLARUHIYATI	434

V BOB

ZAMONAVIY O‘ZBEK SHE’RIYATI MASALALARI

Boynazarova Gulbahor, USMON AZIM SHE’RIYATIGA BIR NAZAR	441
Mustafayeva Shahlo, ABDURAUF FITRATNING “CHIN SEVISH” DRAMASIDA XX ASRTURKISTONDAGI IJTIMOIY-SIYOSIY MUAMMOLAR IFODASI	445
Qayumberdiyeva Nurjahon, NOMLI VA NOMSIZ “KATARSIS”LAR	451
Rajabaliyeva Muhabbat Alisher qizi, “BEHBUDIY HAQIQATI” OLIM POYON RAVSHANOV TADQIQOTIDA	458
Rajapova Xulkaroy, NOZIK QALBNING UMMON QADAR TERAN IJODI	463
Rasulova Saida, QO‘SHTIRNOQQA QAMALGAN “BEDANA” VA BOSHQA QUSHLAR HAQIDA	467
Sharipbayeva Nazokat, MATNAZAR ABDULHAKIM DOSTONLARIGA TARIXIY POETIKA YUZASIDANNAZAR	475
Shokirova Aziza, HALIMA XUDOYBERDIYEVANING “BEGIM” SHE’RIDA MILLIY RUH IFODASI	479

Ubaydullayeva Nurjahon, HUMOYUN AKBAR SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZNING BERILISHI VA SHOIRMAHORATI	485
Ubayeva Gulrang, ILMGA AYLANGAN OLIM	480
Xayrullayeva Gulasal, ZAMONAVIY SHE'RIYATDA BADIIY SAN'ATLARNING QO'LLANILISHI	493
Yusupova Ferangiz Shahriyorovna, ANVAR OBIDJON SHE'RIYATINING O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI	499

VI BOB

FOLKLORSHUNOSLIK

Anorboyeva Maftuna Abilqosim qizi, O'ZBEK FOLKLORIDA SAMOVIY AFSONALAR MAMATQUL JO'RAYEVTADQIQOTLARI MISOLIDA	505
Eshonqulova Mohinur Otayor qizi, O'ZBEK FOLKLORIDA HAYVONLAR BILAN BOG'LIQ MIFOLOGIK OBRAZLAR	509
Hakimjonova Dilrabo Nazirjon qizi,XALQ DOSTONLARIDA OSHIQ, MA'SHUQA, RAQIB OBRAZLARI	515
Isaqova Ellora Madamin qizi, O'ZBEK XALQ LATIFALARI VA ULARNING JANRIY XUSUSIYATLARI	524
Muqumova Gulchiroy Allayor qizi, BOLALAR FOLKLORI YARATUVCHILARI VA IJROCHILARI	630
Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna, BAHAEDDIN O'GELNING "TURKIY MIFOLOGIYA" ASARIDA HAYOT DARAXTIMIFOLOGEMASINING BERILISHI VA UNING O'ZBEK FOLKLORIDAGI PARALELLARI	536
Shomurodova Munisa Sherali qizi, "QUTADG'U BILIG"DAGI AYRIM MAQOLLAR HAQIDA	542
To'rayeva Dilorom Latif qizi, USMON AZIM IJODIDA BAXSHIYONA OHANGLAR	550

VII BOB

O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI MUAMMOLARI, MATNSHUNOSLIK, MANBASHUNOSLIK

Abdumannopova Laylo Shermuhammad qizi, LUTFIY IJODI ZAMONDOSHLARI E'TIROFIDA	559
Asatullayev Alisher Asatullo o'g'li, O'ZBEK ADABIYOTIDA TAXALLUSLAR	563
Baratova Maftuna Baxtiyor qizi, YUZ BALO HIJRON TOPAR	567
Boymurodova Marjona Bahodirovna, ALISHER NAVOIY IJODIDAGI MOTAM MAROSIMIGA OID URF-ODATLARNINGBADIIY TALQINI	572
Eshonqulova Feruza Husniddin qizi, "HAYRAT UL-ABROR"DA ABDULLOH MUBORAK SIYMOSINING BADIIYTALQINI	577
Ibrohimova Dono, BOBUR ASARLARIDA TABIAT TASVIRI	582
Ismoiljonova Umida Fayzullo qizi, ALISHER NAVOIY LIRIKASIDA FAQIR OBRAZI ("XAZOYIN UL-MAONIY"MISOLIDA)	586
Ismoilova Kumush Mavlon qizi, "SHAYBONIYNOMA"DA ADIBNING BADIIY MAHORATI	590
Maqsud Maxsumov Maxmut o'g'li, YUSUF SARYOMIY DEVONI MANBALARI TADQIQI	594
Meyliyeva Farangiz, KOMIL DEVONIY IJODINING O'RGANILISHI	604

Miradxamova Munisa Shamsiddin qizi, ISKANDAR ZULQARNAYN VA ALEKSANDR MAKEDONSKIY BIR SHAXSMI?	611
Narzullayeva Sabina Qobil qizi, ALISHER NAVOIYNING “MAJOLIS UN-NAFOIS” TAZKIRASIDA TURKIGO‘YSHOIRLAR HAQIDA	615
Po‘latova Mushtariy Shuxrat qizi, NURMUHAMMAD ANDALIB IJODINING O‘ZBEKISTONDA O‘RGANILISHI	618
Qayumova Feruza Zayniddin qizi, LIRIKASIDA PEYZAJ TASVIRI VA UNING RUHIYATI	626
Qobulova Muyassar Omonboy qizi, ALISHER NAVOIY IJODIDA TOLERANTLIK G‘OYALARININNG IFODALANISHI	629
Qo‘chqorova Gulnoza, LUTFIYNING TAMSIL QO‘LLASH MAHORATI	634
Quchqorova Charos Ismoil qizi, SHARQ ADABIYOTIDA SUVRAT VA SIYRAT TUSHUNCHASI	637
Rayimova Muslima Sunnat qizi, NAVOIY “ARBA’IN”IDAGI IJTIMOIY MUNOSABATLARGA OID HADISLARSHARHI	640
Sadullayeva Nodira Zaynidin qizi, ATOIY IJODIDA TALMEH SAN’ATI	646
Sunnatova Diyora Furqat qizi, ALISHER NAVOIY IJODIDA TAMSIL SAN’ATI (“G‘aroyib us-sig‘ar” devoni misolida)	650
Vohidova Muxlisa Abdumalik qizi, FOYIQ DEVONI MATNIY TADQIQI	655
Yunusova Sayyoraxon Mo‘minjon qizi, AHMAD TABIBIY SHE’RIYATINING MAVZU KO‘LAMI	662

VIII BOB

O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI

Abdusharipova Mahliyo Xusnuddin qizi, QO‘LYOZMALAR QIROATXONASI” - ESKI O‘ZBEK YOZUVINI O‘RGANUVCHILAR UCHUN MOBIL ILOVA	668
Абдураҳмонова Шарофат Баҳромали қизи, АДАБИЁТ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА ЎҚИТИШНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ	673
Abduvaliyeva Aziza Botir qizi, ONA TILI TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYASINIOSHIRISH USULLARI	683
Aimbetova Muqaddas Alisher qizi, O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING PSIXOLINGVISTIK JIHATLARIGA DOIR	689
Baratova Marjona Zayniddin qizi, HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILINING JAMIYAT HAYOTIDAGI O‘RNI: YOXUD NEYMING MASALASINING DOLZARBLIGI	693
Berdiqulova Shodiya, O‘QUVCHILARDA NUTQNI O‘STIRISH MASALASIDA	699
Hakimova Nasiba Alisher qizi, CHET TILINI O‘QITISHDA UCHRAYOTGAN MUAMMOLAR	702
Hamroyeva Mahliyo Ulug‘bek qizi, UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA ONA TILI FANINI O‘QITISH METODIKASI VA TAMOYILLARI	708
Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi, HAZAJ BAHRINING MUSAMMAN VAZNLARINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI	713
Mirzaboboyeva Asila, O‘QUVCHILAR NUTQINI O‘STIRISH METODIKASI	719
Mo‘minova Nazira, MAKTAB TA’LIMIDA FOLKLORSHUNOSLIK NAMUNALARI DIDAKTIKASI	726

Qo‘ldashova Gulmira, O‘QUVCHİNİNG MANTIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH UCHUN MATN USTIDA ISHLASHNİNG AHAMIYATI	731
Qosimboyeva Gulziyo Erkinboy qizi, FONETİKA VA FONOLOGİYA HAQİDA UMUMİY MA’LUMOT.NUTQNİNG FONETİKBO‘LİNİSHİ	735
Rasulova Shoira Shuhratovna ONA TILI FANINI O‘QITISHDAGI MUAMMOLAR	738
Ro‘ziyeva Aziza, MAKTAB O‘QUVCHILARINI NUTQINI O‘STIRUVCHI INTER FAOL METODLAR	743
Safarova Gulshoda MAMLAKATLARDAGI TIL SIYOSATINING KO‘RINISHLARI HAMDA TILBOSHQARUVI BILAN BOG‘LIQ MASALALAR	746
Sattarov Sardorbek Husniddin o‘g‘li, FIZIKA FANI BO‘YICHA TUSHUNISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDAO‘QUV LUG‘ATLARINING O‘RNI	753
Sattorova Zarina, O‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQIDA IMLOVIY XATOLARNI BARTARAF ETISH	756
Saydazimova Zulxumor, TIL O‘RGANISHNING FOYDALI TOMONLARI VA USULLARI	760
Shamshidinova Lobarxon Baxrom qizi, MAKTAB O‘QUVCHILARI NUTQIDA ORFOEPIK ME’YORLAR VA ULARNINGIMLOGA TA’SIRI	763
Sobirxonova Ziyoda Temurxon qizi, ONA TILI TA’LIMIDAO‘QUV LUG‘ATLARIGA BO‘LGAN TALAB	767
Tog‘onova Gulshirin Oltiboyevna, MAKTAB O‘QUVCHILARINING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITALAR	775
Tojiboyeva Shahrizoda, ONA TILI DARSLARIDA YOZMA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING USULLARI	781
Tursunqulova Dilrabo Abdulla qizi, FANLARARO INTEGRATSIYA FITRAT ASARLARI MISOLIDA	786
Xojiyeva Laylo Zokirjon qizi TA’LIM RUS TILIDA OLIB BORILADIGAN MAKTABLARDAGI O‘ZBEK TILI DARSLARIDA NUTQ VA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI O‘STIRISHNING SAMARALI USULLARI	789

UDK: 81/82:801.
8:347.78.034
(574.1)

“Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida” yosh filolog tadqiqotchilarning respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent – 2022.

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
TOSHKENT
ALISHER NAVO'I UNIVERSITY OF UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE